



# U'ZBEKISTON TARIXIDAN

## UNIVERSAL QO'LLANMA



# **O'ZBEKISTON TARIXIDAN UNIVERSAL QO'LLANMA**

Toshkent  
«Akademnashr»  
2013

**UDK: 94(575.1) (075)**  
**KBK 63.3(50')**  
**O'16**

**O'16** O'zbekiston tarixidan universal qo'llanma / tuzuvchilar: D.O'roqov,  
A.Sharopov. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 656 b.

ISBN 978-9943-389-27-4

UDK: 94(575.1) (075)  
KBK 63.3(50')

*Ushbu qo'llanmada eng qadimgi davrlardan to shu vaqtgacha yurtimiz tarixida yuz bergan asosiy voqealar qamrab olingan. O'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida muhim sanalar, joy va shaxs nomlari, e'tiborga molik nuqtalar ajratib ko'rsatilgan, yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. Kitob tilining sodda va tushunarli bo'lishiga ahamiyat berilgan. Qo'llanma keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.*

**To'plab nashrga tayyorlovchilar:**

Dilshodbek O'ROQOV, Abdulla SHAROPOV

**Mas'ul muharrir:**

K.TO'LAGANOV, tarix fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

R.SIDDIQOV, tarix fanlari nomzodi, dotsent,  
A.XOLIQULOV, tarix fanlari nomzodi, dotsent

*O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha  
muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

## 1-BOB. VATANIMIZ XALQLARI ENG QADIMGI DAVRDA

### 1.1. SIVILIZATSIYALARNING BOSHLANISHI

Qadimgi tarixni o'rganish. Insoniyat qadimgi tarixini turli ixtisosdagi olimlar tadqiq etadi. **Arxeologlar** qadimda odamlar yashagan manzil-gohlarda qazishma ishlarini olib boradilar. Qadimgi odamlarning qoldiqlari (skelet va boshchanog'i)ni sinchiklab tekshirib ko'rgan **antropologlar** ularning tashqi ko'rinishini qaytadan yaratishga, ming yillar davomida kishilarning tashqi qiyofasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganishga harakat qiladilar. **Etnograflar** hozir ham barhayot bo'lgan qabila va xalqlarni, qadimgi odamlarning saqlanib qolgan ko'pgina udumlari, xo'jalik va madaniyat an'analarini o'rganadilar. **Lingvistlar**, ya'ni tilshunoslar u yoki bu hozirgi zamon tili qay yo'sinda shakllanganini tushunib yetish maqsadida qadimgi tillarni tadqiq etadilar.

Qadimgi tarix bo'yicha manbalar. O'lkamiz tarixining keng tarqalgan manbayi qadimshunoslar tomonidan topilgan **moddiy manbalardir**. Mehnat qurollari, sopol idishlar, qurol-aslahalar, zeb-ziynat buyumlari, xullas, qadimda inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsalar shular jumlasiga kiradi. **Yozma manbalar** turli xil bo'lib, qoyatoshlarga, sopol buyumlarga bitilgan qadimgi yozuvlar yoki qadimgi tarixshunoslarning asarlari unga mansub. O'zbekiston tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiyarning muqaddas kitobi «**Avesto**»dir. Unda yurtimizning tarixiy viloyatlari, ajdodlarimiz madaniyati tarixi o'z ifodasini topgan. Qadimgi davr tarixiga doir yana bir manba **Behistun yozuvlaridir**. Behistun qoyalari Erondagi **Kirmonshoh shahri** yaqinida joylashgan. Fors shohi **Doro I** buyrug'iga ko'ra qoyaga o'yib yozilgan uch til – **qadimgi fors, elam va bobil** tillaridagi yozuvlarda u zabt etgan mamlakat va xalqlar, jumladan, **Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya** viloyatlari bilan birga **sak** qabilalari sanab o'tiladi.

**Mil. av. V asrda** yunon tarixchisi **Gerodot** turli mamlakatlarga sayohat qilib, **to'qqiz kitobdan** iborat «**Tarix**» asarini yozdi. Unda o'lkamizning qadimgi aholisi to'g'risida batafsil ma'lumot beriladi. Yurtimiz tarixi haqida ayrim ma'lumotlar yunon tarixchilari **Ksenofont** va **Ktesiy** asarlarida ham o'z aksini topgan (**mil. av. V – IV asrlar**). **Mil. av. I asr oxirlarida** o'tgan yunon tarixchisi va geografi **Strabon** «**Geografiya**» degan asarida ko'plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealar haqida ma'lumotlar keltiradi. **Mil. av. II asr oxiri – I asr boshlarida** Xitoy tarixchisi **Sima Szyan** Xitoy tarixiga doir «**Tarixiy yilnomalar**» nomli asar yozgan.

U yurtimizning qadimgi aholisi va davlatlari to'g'risida ham ma'lumot beradi. **Milodiy I asrda** yashagan Rim tarixchisi **Kvint Kursiy Ruf «Buyuk Aleksandr tarixi»** degan asar yaratgan. Makedoniyalik Aleksandrning Markaziy Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni **milodiy II asrda** yashagan yunon tarixchisi **Arrian** to'ldiradi. U **«Aleksandrning harbiy yurishlari»** degan asar bitgan.

Qadimgi Xorazm sopol idishlari sirtidagi bitiklar mahalliy yozuv o'sha asrlardan boshlab mavjud bo'lganini ko'rsatadi. So'g'd yozuvi esa **mil. av. III – II asrlarda** shakllangan. O'zbekiston hududida **mil. av. III va milodiy I asrga** oid ko'plab tangalar topilgan, ulardagi yozuv va tasvirlar o'lkamiz tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

**O'rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasi.** **Mil. av. VI – V asrlarda** Kichik Osiyo shaharlarida istiqomat qilgan yunonlar yurtimiz aholisi, viloyatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar. Yozma manbalarda O'zbekistonning ayrim viloyatlari **«ming shahar o'lkasi», «yuksak bayroqli go'zal mamlakat», «serquyosh o'lka»** kabi nomlar bilan tilga olinadi. Rimlik tarixchi **Pompey Trog** baqtriyaliklar qadimiylikda misrliklar bilan bahslasha oladilar deb ta'kidlagan.

**Mil. av. III – II mingyilliklarda** O'rta Osiyoning qadimgi aholisi bilan Qadimgi Sharq elatlari o'rtasida keng madaniy aloqalar boshlangan. **Milodiy I – IV asrlardan** Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yaratilgan madaniyat so'g'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'd savdogarlarining Buyuk ipak yo'lidagi harakatlari bilan bog'langan. Shuning uchun so'g'd tilidagi yozma yodgorliklar **Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo'g'uliston** zaminidan topilgan.

**Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish.** Insoniyat rivojidadagi birinchi bosqich kishilarning ibtidoiy to'daga birlashuvi bo'lib, bu to'da o'zida qadimgi odamlarning katta jamoasini birlashtirgan. **Ibtidoiy to'da** turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasidir. Eng qadimgi to'da asta-sekin bo'linib ketdi, qarindoshlarning alohida uyushmalariga – **urug' jamoasiga** aylana bordi. **Urug'** birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog'larga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasidir. Eng qadimgi urug'chilik tuzumi – insoniyat tarixining barcha mehnat qurollari umumiy bo'lgan, hamma baravar ishlagan bir davri.

Dastlabki urug' jamoalari ayof kishi, ya'ni ona tevaragida jipslasha boshlagan. Insoniyat tarixidagi bu bosqich ona urug'i – **matriarxat** deb ataladi. Ancha keyinroq, mehnat qurollari va xo'jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin, jamoadagi yetakchilik mavqeyi asta-sekin erkaklarga

o'ta boshladi, endi erkak kishi urug'ga sardor bo'lib oldi. Olimlar insoniyat tarixidagi bu davrni **patriarxat** deb atashadi, patriarxat bilan eng qadimgi urug'chilik tuzumi ham nihoyasiga yetdi.

Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat quollarini toshdan yasagani tufayli, arxeologlar insoniyat tarixi ibtidosini «**tosh asri**» deb atashadi, tosh asri ancha uzoq davom etgan, shuning uchun uni quyidagi bosqichlarga ajratishadi: qadimgi tosh asri – **paleolit** (yunoncha «paleos» – qadimgi va «litos» – tosh so'zlaridan); o'rta tosh asri – **mezolit** («mezos» – o'rta); yangi tosh asri – **neolit** («neos» – yangi); mis-tosh asri – **eneolit** (lotincha «eneus» – mis va yunoncha «litos» – tosh so'zidan).

## 1.2. ENG QADIMGI ODAM RIVOJINING ILK BOSQICHLARI

Eng qadimgi odamlar. Toshdan yasalgan o'ta oddiy mehnat quollari yasashni biladigan eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlari Janubiy Afrikadan – **avstralopitek**, Sharqiy Afrikadagi Zinj vodiysidan, Olduvay darasidan – **zinjantrop**, Yava orolidan (Indoneziya) – **pitekantrop**, Xitoy hududidan – **sinantrop** va Farg'ona vodiysidagi Selungur manzilgohidan, Germaniyadan – **neandertal** va Fransiyadagi Kromanyon g'oridan – hozirgi qiyofadagi odam – **kromanyon** topib tekshirilgan.

Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari. O'rta Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat quollari Farg'ona vodiysidagi **Selungur** manzilgohidan va Toshkent vohasidagi **Ko'lbuloq** manzilgohidan ham topilgan. Bunday qo'pol tosh quollarning uchi bir tomonga qaratib o'tkirlangandi. Ular **chopperlar** deb atalgan. Mehnat quollari odamlarga yegulik topish uchun kerak bo'lgan. Dastlabki mehnat quollari ancha oddiy edi. Uchi o'tkirlangan tosh va tayoq bilan quollangan odam hayvonlarni ovlagan, uchi o'tkir tayoq yordamida o'simliklarning iste'molga yaroqli ildizlari va ildizmevalarini kavlab olgan. Tabiat insonga nimani taqdim etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan, shuning uchun kishilarning eng qadimiy mashg'uloti bo'lgan termachilik va ovchilik **o'zlashtiruvchi xo'jalik** deb ataladi.

**Teshiktosh g'ori** qadimgi tosh asri madaniyatining jahonga mashhur yodgorliklaridan biridir. Undan **1938-yili 3000 dan ziyod** tosh quollar va ularning parchalari, arxar, kiyik, yovvoyi ot, qoplon, quyon, mayda kemiruvchilar, qushlarning suyaklari topilgan. Teshiktosh g'oridan qazib olingan, tosh asriga mansub 8 – 9 yashar bolaning suyak qoldiqlari eng mashhur topilmadir. Bola jasadi qoidali qilib ko'milgan. Jasad atrofiga

arxar shoxlari qadab chiqilgan. Murdaning dafn etilishi dastlabki diniy e'tiqodlar bilan bog'liq.

*Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi.* Mehnat faoliyati, tevarak olam haqida to'plangan bilimlar asta-sekin insonning fikrlash qobiliyati va tafakkurini o'zgartirib bordi. Odamlar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan hodisalar haqida o'ylay boshladi: kun bilan tun, yil fasllari almashishi, vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam fikrini o'ziga tortgan. Ana shu hodisalarni tushuntirib berish qo'lidan kelmagan inson momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg'ir kabi tabiat kuchlariga sig'ina boshlagan. Bora-bora qadimgi odamlarda inson vafot etganidan keyin yashashni davom ettiradigan o'zga bir olamga ketadi degan aqidaga ishonch paydo bo'ldi.

Odamni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlar mavjudligiga e'tiqod fanda **animizm** nomini olgan. Yil fasllari almashinuvi, momaqaldiroq, bo'ronni qadimgi odamlar ruh mujassamlashgan tabiat kuchlari harakati deb tushunganlar. Eng qadimgi odamlar u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni bartaraf etishiga ham ishonganlar. Bu e'tiqod **fetishizm** nomini olgan. So'nggi paleolitga oid qoyatosh rasmlarining topilishi eng qadimgi odamlarda diniy e'tiqodlar bo'lganini tasdiqlaydi. Qoyatosh rasmlaridan eng qadimiylari Ispaniyadagi **Altamir** va Boshqirdistondagi **Kapovaya** g'orlaridan topilgan.

### 1.3. URUG'CHILIK JAMIYATI

*So'nggi paleolit.* So'nggi paleolit davrida (**miloddan 40 – 12 ming yil avval**) ko'pdan ko'p voqealar ro'y berdi. Bu davrda toshga ishlov berish texnikasi va mehnat qurollari yasash usullari o'zgardi. Odamning o'zi ham, tashqi qiyofasi ham o'zgarib bordi. Mazkur davrda hozirgi qiyofadagi odam – kromanyon odami yashagan. So'nggi paleolit davri odami manzilgohlari Samarqand shahri hududidan, Toshkent viloyati Ohangaron daryosi vodiysidagi Ko'lbuloq manzilgohining yuqori madaniy qatlamlaridan, Farg'ona vodiysidan topilgan.

Taxminan **25 – 30 ming yil muqaddam** odamlar ancha takomillashgan kesuvchi, arralovchi va parmalovchi mehnat qurollari yasaydigan bo'lishgan. Inson endilikda taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar va uzuklar ham yasay boshladi. Odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlariga – **urug' jamoalariga** ajralib chiqishdi. Urug'ga oqsoqol sardorlik qilgan, urug' a'zolari bitta manzilgohda yashagan. Bir joyda yashab turgan bir qancha urug'lar **qabilani** tashkil etgan. **Turarjoylar** qurilishi

so'nggi paleolit davri odamlarining muhim ixtirosi bo'ldi. Kiyim-kechak tayyorlashda hayvonlar terisi ishlatilardi. Inson bu davrda **sun'iy olov** (yog'ochni bir-biriga ishqalash, chaqmoqtoshni bir-biriga urish orqali) hosil qilishni ham o'rganib oldi.

**Mezolit davri.** Mezolit davri (o'rta tosh asri) taxminan **mil. av. XII – VII mingyilliklarda** davom etgan. Mezolit davri boshlanishi bilan, muzlik davri poyoniga yetdi, bu narsa iqlim ancha ilishiga va odamlar turmushida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Mezolit davrida inson **o'q-yoy** yasashni o'rgandi. O'q-yoy kashf etilishi bilan, chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi. Mezolit davri oxirida inson hayvonlarni qo'lga o'rgata boshladi. Ovchilar itni qo'lga o'rgatishdi, itlar bilan birga ov qilinganda o'lja oldingisiga qaraganda mo'l-ko'l bo'ldi. Tiriklayin tutib olingan hayvonlarni endi odamlar yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo'yadigan bo'lishdi. Mezolit davri oxirida Old Osiyoda xo'jalikning yangi tarmoqlari – **ibtidoiy ziroatchilik** va **chorvachilik** vujudga keldi. Shunday bo'lsa-da, xo'jalikning aytib o'tilgan tarmoqlari neolit davrida keng tarqaldi.

Muzlik chekinishi bilan urug' jamoalari nafaqat Osiyo va Afrika hududlarida, balki Yevropa shimolida ham keng joylasha boshladilar. Bugungi kunda mezolit davriga oid ko'plab manzilgohlar ochilgan. Farg'ona vodiysining tog'oldi va tog'li tumanlarida hamda O'zbekiston janubida bunday manzilgohlar ko'p uchraydi. **Obishir, Qo'shilish** va **Machay** manzilgohlari, Zarautsoy darasidagi qoyatosh rasmlari ancha mufassal o'rganilgan.

**Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi.** Neolit davrida o'zlashtiruvchi xo'jalikda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, tabiatdan barcha tayyor narsalarni o'zlashtirish boshlagan inson endi **ishlab chiqaruvchi xo'jalikka** – ziroatchilik va chorvachilikka o'tdi. O'rta Osiyoda neolit davri **mil. av. VI – IV mingyilliklar** bilan davrlashtiriladi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini **sopol idishlar** yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar. Mezolit va neolit davrida odam toshdan kichik mehnat qurollari – **mikrolitlar** yasashni, toshga ishlov berishning notanish usullari: silliqlash, arralash, sirlash va teshikchalar parmalashni qo'llay boshladi.

Neolit davrida qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy turarjoylar qura boshlaganlar. Paxsa imoratlar qurish boshlanadi. Asta-sekin urug' jamoalarining o'troq manzilgohlari shakllanib bordi. O'troq turmush tarziga o'tilishi **hunarmandchilik** rivojiga zamin yaratdi. Loydan yasalgan va olovda pishirilgan idishlar yasash sohasi – **kulolchilik**, tolalar va jundan kiyim-kechak tayyorlash tarmog'i – **to'quvchilik** neolit davrining muhim kashfiyot va ixtirolaridir. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida aholi **mil.**



**av. VI – V mingyilliklar boshlarida** ziroatchilikka o'tgan bo'lsa, markaziy va shimoliy o'lkalarda ovchilik va baliqchilikni davom ettiraverdi.

#### 1.4. ENEOLIT VA BRONZA ASRI ZIROATCHILARI

Metall davrining asosiy xususiyatlari. Neolit davri oxirida odamlar misdan foydalanish, undan mehnat qurollari va qurol-yarog'lar yasashga o'tdilar. Misdan yasalgan qurollar toshdan yasalganlari bilan barobar ishlatilishi davri **eneolit** – mis-tosh asri deb ataladi. Bu davr **mil. av. IV – III mingyilliklarga** to'g'ri keladi. Tosh qurollarga nisbatan afzalliklari bo'lishiga qaramay, mis qurollar unchalik keng tarqalmadi. Odamlar misni qalay, qo'rg'oshin bilan birga qo'shib eritib **bronza** hosil etganlaridan so'ng misga nisbatan mustahkam sun'iy metall ommalashdi.

Metallurgiya rivoji kishilarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. **Mil. av. IV mingyillikda** Qadimgi Sharqda **ilk shaharlar va davlatlar** vujudga kela boshladi. O'rta Osiyo janubida **sug'orma dehqonchilik** shakllandi, xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshlandi, idishlarni pishirish uchun kulolchilik xumdonlaridan foydalanishga kirishildi. Sopol idishlar hayvonlar, qushlar va o'simliksimon naqshlar (yaproqlar, gullar) bilan bezatiladigan bo'ldi. Bronza **mil. av. III mingyillik o'rtalaridan** asta-sekin mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va zeb-ziynatlar tayyorlashda asosiy materialga aylandi.

Patriarxatning boshlanishi. Ayol kishi urug'ni oziq-ovqat bilan ta'minlashda yetakchilik qilarkan, matriarxat davom etib keldi. Yer haydab ziroatchilik qilish, chorvachilik, hunarmandchilikning vujudga kelishi natijasida urug'ni yetarli mahsulotlar bilan ta'minlash erkaklar qo'liga o'tdi. Ayollar uy xo'jaligi xususida g'amxo'rlik qila boshladilar. Endi urug'chilik oilasida erkaklar muhim o'rin tuta boshladi. Oifa qurishda ayol erkak kishi oilasi ixtiyoriga o'tardi. Qarindoshchilik erkak nomi bilan belgilanadigan bo'ladi. **Mil. av. III mingyillikka** kelib patriarxat davri boshlandi. Ota urug'iga o'tilishi patriarxal oila shakllanishi bilan barobar kechdi.

Bronza davri dehqonlari manzilgohlari. Dehqonlarning qadimgi manzilgohlaridan biri Zarafshon daryosi havzasidagi **Zamonbobo ko'li** yaqinidan topilgan. Turkmaniston (**Oltintepa, Namozgoh**) va Tojikiston (**Sarazm**) hududlarida eneolit va bronza asriga oid uy-joylar, turli buyumlar topilgan va o'rganilgan. Surxondaryo vodiysida – Sherobod yaqinidan arxeologlar qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo'lgan **Sopollitepani** topishdi. Qazishmalar chog'ida bu yerdan uy-joy, maishiy va xo'jalikbop xonalardan tarkib topgan paxsa imorat, sopol buyumlar,

bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasalgan ustaxona qoldiqlari, yirik-yirik xumlarda saqlangan bug'doy va arpa doni topilgan.

Bundan uch yarim ming yil muqaddam Surxon vohasida – hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'lmagan joyda **Jarqo'ton** manzilgohi vujudga kelgandi. Manzilgoh rejasida **shaharning ilk alomatlari** ko'zga tashlanadi. Jarqo'ton **Ikki qismga** ajratilgandi: qasr (hukmdor qarorgohi) va jamoa a'zolari, hunarmandlar va savdogarlarning arkni qurshab turgan uylari. Qasr ichida ibodatxona bo'lgan. Bu davrga oid manzilgohlar Xorazm vohasida ham topib tekshirilgan.

Sopollitepa. Sopollitepa manzilgohi **uch qator** mudofaa devori bilan o'rab olingan. Devorining qalinligi **ikki metrgacha** boradi. Sopollitepaga yagona darvozadan kirilgan. U juda qattiq qo'riqlangan. Qishloqning **sakkiz mahallasi** bo'lgan. Barcha ko'chalar manzilgoh markazidagi maydonga olib borgan. Bu yerda savdo-sotiq qilingan.

## 1.5. TEMIR DAVRIGA O'TISH PAYTIDA O'RTA OSIYO

Sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik rivoji. Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollari yasashni o'rgangan kezlardan beri oradan ko'p asrlar o'tdi. Faqat **mil. av. I mingyillik boshlaridagina** temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu jarayon ancha sermehnat bo'lgan, negaki temir misga qaraganda ancha yuqori haroratda eriydi (1500 C). Ammo u mis va bronzaga nisbatan qattiqroq edi. Temirdan birinchi bo'lib **Kichik Osiyoda xetlar** (mil. av. XIV – XIII asrlar), so'ngra qo'shni mamlakatlar (**Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti**) xalqlari foydalana boshladi.

Temir buyumlarning tarqalishi sekinlik bilan borgan. Temir nodir va qimmatbaho metall bo'lmasa-da, undan dastlab **zeb-ziynat buyumlari** yasashda foydalanilgan. Shunday bezaklar Misr fir'avni **Tutanxamon maqbarasidan** va Kavkazdagi **Maykop qo'rg'onidan** topilgan. Mehnat qurollari yasash uchun temirdan foydalanilishi, eng avvalo, dehqonchilik texnikasi rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Temir uchli omochlar, temir boltalar paydo bo'ldi. Bu mehnat qurollari katta-katta maydonlarda ziroatchilikni rivojlantirishga imkon berdi. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temir buyumlar **mil. av. IX – VIII asrlarga**, ulardan ko'pi **mil. av. VII – VI asrlarga** oiddir.

litimoiy tuzum. Yevropadan farqli o'laroq, Sharqda dehqonchilik, asosan, sun'iy sug'orish zaminida rivojlandi. Temir qurollarning keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu narsa yanada rivoj topgan

ishlab chiqarish usuliga o'tilishiga zamin hozirladi. Urug' jamoasi o'rnini **hududiy qo'shnichilik jamoasi** egallay boshladi. **Mil. av. I mingyillik boshlarida** O'rta Osiyoda aholi **to'rt guruhga** ajratilgan: **kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar**. Qabila-urug' boshliqlarining nufuzi asta-sekin orta borgan. Ayniqsa, harbiy sardorlarning ta'siri ortib, hokimiyat otadan o'g'ilga o'tadigan bo'ldi. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida qabila sardorlarining ahamiyati va nufuzi yuksalib, jamiyat harbiy demokratiya qoidalariga asosan yashay boshladi.

**Harbiy demokratiya** ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv shaklidir.

«Avesto»dan O'rta Osiyoda jamiyatning negizi «**nmana**» deb ataluvchi katta patriarxal oila bo'lganini bilib olamiz. Bir necha «**nmana**»lar urug' jamoasi – «**vis**»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi esa «**varzana**» deb nomlangan. Bunday jamoalar qabila – «**zantu**»ga birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa – «**dahya**»ga uyushishgan. «Avesto»ga ko'ra, jamiyatni idora qilishning quyidagi tizimi mavjud bo'lgan: **oqsoqollar kengashi – xalq yig'ilishi – alohida tumanlar – viloyatlar hukmdorlari**. Aholi urug' va qabila bo'yichamas, balki hududiy taomilga ko'ra guruhlarga ajratilishi vujudga kelayotgan **davlatchilikning** muhim alomati edi.

## 1.6. ILK SIVILIZATSIYALARNING VUJUDGA KELISH DAVRI

*Ibtidoiy tarixdagi o'zgarishlar.* Xo'jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik odamlarning buyuk kashfiyotlari edi. Dehqonchilik va chorvachilik bundan **10 – 11 ming yil muqaddam Old Osiyoning** ayrim o'lkalarida vujudga kelganini bilamiz. **Falastin** hududida joylashgan **Iyerixon** dehqonchilik manzilgohi eng qadimiyalaridan biri hisoblanadi. Old Osiyoning o'troq aholisi tez sur'atda ko'payib bordi. Qurg'oqchilik mahalida ziroatchilar muqim yashaydigan yerlarini tark etib, boshqa hududlarga ketishardi. Shu taxlit yangi suv manbalari va serhosil yerlarni izlash zarurati **Kichik Osiyo, Misr, Bobil, Kavkazorti, Eron va O'rta Osiyoda** dehqonchilik tarqalishiga zamin hozirladi.

*Ilk to'qnashuvlar – kichik urushlar.* Barcha qabilalar ham yetarlicha yegulik zaxirasiga ega bo'lmagan. Ba'zilarining yerlari unumdor bo'lmasa, boshqalari faqat chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanishni afzal ko'radi. Cho'ponlar va dehqonlar o'rtasida suv manbalari va soz yerlar ustida tez-tez janjallar bo'lib turardi. Qabilalar bir-biriga hujum qila boshladilar.

Manzilgohtar mudofaa devorlari bilan o'rab olindi. Dehqon, chorvador va ovchilar o'z sardorlari rahnamoligida jangchilarga aylanishardi.

**Ilk sivilizatsiyalar.** Dushmanlardan himoyalaniş zarurati har xil tumanlar aholisini ittifoqlarga uyushishga majbur qildi. O'zgalar hududini egallab olish uchun ham avvalgisiga qaraganda ko'proq kuch talab etilardi. Bu aholi aralashib, qorishib ketishiga olib keldi. Ko'plab odamlar, qanday urug' yoki qabilaga mansubligidan qat'i nazar, anhorlar va boshqa sug'orish inshootlari qurilishiga jalb etilardi. Endi odamlar bitta urug' yoki qabilaga mansub bo'lmay qoldilar. Tug'ishganlik munosabatlari ularning hayotida belgilovchi omil bo'lmay qoldi. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllari, qurilish va hunarmandchilik rivojlanishi, kichik urushlar bo'lib turishi va har xil tumanlar aholisi birlashishi boshlanishi odamlar hayotini sezilarli darajada o'zgartirdi. Jamiyatda harbiy sarkardalar – **sardorlar** va jangchilar – xo'jalik hayotiga rahbarlik qiluvchi **oqsoqollar** ajralib chiqishdi. Diniy marosimlar **kohinlar** tomonidan ado etilardi. Ayrim dehqonchilik hududlarida **ilk davlatlar** tashkil topdi. Shu tariqa tarixda dastlabki sivilizatsiyalar davri boshlandi.

Ilk sivilizatsiyalarga hunarmandchilik, qurilish va arxitektura, ayir-boshlash va savdo-sotiqning yuqori darajasi xosdir. Ko'pgina o'ikalarda sivilizatsiya yozuv, nazariy bilimlar, adabiyot va san'at mavjud bo'lganiga ham bog'liq edi. Sivilizatsiyalar ko'p miqdorda sug'orish inshootlari – kanallar va suvayirg'ichlar qurish zarur bo'lgan joylarda vujudga keldi. Bunday imkoniyat esa **Misrda Nil, Mesopotamiyada Dajla va Frot, O'rta Osiyoda Sirdaryo va Amudaryo** mavjudligi tufayli yuzaga keldi. Mazkur hududlarda sug'orishni talab qiluvchi unumdor tuproq bo'lgan. Harbiy sardorlar va zodagonlar sug'orish tarmoqlarini barpo etish ishlariga rahbarlik qildilar. Pirovardida aynan ular bunday davlatlarning **hukmdorlariga** aylandilar.

## 1.7. O'RTA OSIYO VA QADIMGI SHARQ

**Savdo va madaniy aloqalar.** O'rta Osiyo azal-azaldan tabiiy boyliklari bilan dong taratgan. O'lkaning purviqor tog'lari va keng cho'llari qalay, kumush, mis, oltin, lojuvard, firuza singari toshlarga boy bo'lgan. Bundan **4–5 ming yil ilgari** ham O'rta Osiyo aholisi **Hindiston, Eron va Old Osiyo** o'ikalari bilan madaniy aloqada bo'lgan. Turli-tuman arxeologik topilmalar shundan dalolat beradi. Masalan, Farg'ona vodiysidan **mil. av. II ming-yillik boshlariga** oid metall buyumlar xazinasi topilgan. Bular haykal-simon tasvir tushirilgan kumush va bronza to'g'nag'ichlardir. Bunday

to'g'nag'ichlar Eronning qadimgi manzilgohlaridagi qazishmalarda ham topilgan.

Surxondaryo vodiysida va Zarafshon daryosining quyi qismida Janubiy Afg'oniston, Eron, Mesopotamiyada hamda Hindiston sivilizatsiyalarida ham uchraydigan bronza oybo'talar, sopol buyumlar va bronzadan yasalgan muhrlar topilgan. O'sha qadim zamonlarda bir o'lkadan boshqasiga savdogarlik sayohatlari ko'p bo'lardi. Ot, tuya qo'lga o'rgatilgach, g'ildirak ixtiro etilganidan keyin, mamlakatlar orasidagi masofa endi olisdek tuyulmasdi. O'rta Osiyoning mahalliy manzilgohlaridan Arabiston dengizi va Hind okeanida ovlanadigan **kaurilar** – mitti chig'anoqlar ham topilgan. Bu chig'anoqlar ancha qimmat turgan. Ular savdo bitimlari tuzilayotganda to'lov vositasi bo'lib xizmat qilgan ekan.

Arxeologlarning topilmalari. O'rta Osiyo janubidagi bronza davriga oid **Oltintepa** manzilgohidan ho'kiz va bo'rining oltin boshi, aravaga qo'shilgan tuyaning haykalchalari, loydan yasalgan aravacha nusxasi topilgan. Oltintepada xom g'ishtdan qurilgan zinapoyali ibodatxona qoldiqlari ham o'rganilgan. Mesopotamiyada bunday ibodatxonalar «**zik-kurat**» deb atalgan. Misr fir'avnlari maqbaralari va Mesopotamiyaning Ur shahri o'rganilganda la'ldan yasalgan zeb-ziynatlar topilgan. Ishlov berish uchun qulay tosh sifatida lojuvard Misr va Mesopotamiyada yuqori baholangan. Lojuvardning asosiy konlari esa Baqtriyada edi. Doro I ning **Suza shahrida** saroy qurilishi to'g'risidagi bitiklarida shunday ma'lumot keltirilgan: «*Bu yerda ishlatilgan oltin **Sard** va **Baqtriyadan** keltirildi. Rangli toshlar va yoqut **So'g'diyonadan**. Bu yerda foydalanilgan to'q zangori rangli tosh **Xorazmdan**, kumush va bronza **Misrdan** yetkazib berildi*».

Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi **Sarazm** manzilgohida, Surxon vohasidagi **Sopollitepa** va **Jarqo'ton** manzilgohlarida qadimgi hind shaharlari **Xarappa** va **Moxenjodaroda** yasalgan hunarmandchilik buyumlari topilgan. Shimoli-Sharqiy Afg'onistondan Amudaryoning chap qirg'og'ida arxeologlar Hindiston sivilizatsiyalari vakillari asos solgan **Sho'rto'qay** savdo manzilgohini topishgan.

Madaniy munosabatlar. Viqorli tog'lar, ko'z ilg'amas dashtlar va cho'llar madaniyat va savdo munosabatlari uchun to'siq bo'lolmasdi. Shaharlar va davlatlar taraqqiy etishi bilan, madaniyat va savdo munosabatlari ham kengayib bordi. Shundan keyin O'rta Osiyo hududida qadimgi dunyoning ko'plab ixtirolari tarqala boshladi. Bular **tangalar** hamda oromiy alifbosiga asoslangan **yozuvdir**. Bu yozuvni Dajla daryosining yuqori oqimida yashagan **oromiylar** ixtiro qilganlar. Oromiy yozuvi Sharqda

yuz yillar davomida ishlatib kelingan **mixxat**ning o'rnini egalladi. O'rta Osiyo xalqlari qadimgi sharq sivilizatsiyalari rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdilar. So'g'd yozuvi yodgorliklari Xitoy va Mo'g'uliston hududidan topilgan. O'rta osiyoliklar Mesopotamiya va Misrga, Xitoy va Hindistonga tarqalishgan.

## 1.8. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI ILK DAVLATLAR

*Qadimgi aholining etnik tarkibi va joylashuvi.* Yozma manbalarning guvohlik berishicha, mil. av. VII – VI asrlarda O'zbekiston hududida **so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget** elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud **So'g'da** («Avesto»da), **So'g'uda** (Behistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf asarlarida **So'g'diyona** deb atalgan. Mazkur hududda yashovchi aholi **so'g'diylar** deb nomlangan. Amudaryoning quyi oqimida o'troq dehqon elatlar – **xorazmliklar** bo'lgan. Ularning yurti **Xvarizam** («Avesto»da), **Xvarazmish** (Behistun yozuvlarida), **Xorasmiya** (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan. So'g'diylarning eng yaqin qo'shnilari **baqtriyaliklar** bo'lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoliy, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u **Baxdi** («Avesto»da), **Baqtrish** (Behistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni **Baqtriana** deb atashgan.

Cho'llar va Amudaryo bo'ylarida ko'chmanchi **massaget** qabilalari yashaganlar. Markaziy Osiyoning tog'li, dasht va cho'l yerlarida asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan **saklar** istiqomat qilgan. **Mil. av. VI asrda** ular o'z yerlarini boshqa qabilalardan himoya qilish uchun harbiy-qabila ittifoqini tuzadilar. Qadimgi Rim va yunon tarixchilarining yozishicha, saklar **uch guruhga** bo'linishgan. Ularning ko'pchilik qismi **saka-tigraxauda**, ya'ni o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston yerlarida yashaganlar. Ikkinchi guruh **saka-tiay-aradarayya**, ya'ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan. Ular Orol dengizi bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar. Pomirning tog'li tumanlarida va Farg'onada **saka-xaumovarka** deb ataluvchi saklar yashashgan.

*lqtisodiyot rivoji.* Xorazm, So'g'diyona va Baqtriya aholisining asosiy mashg'uloti sun'iy sug'orishga asoslangan **dehqonchilik** edi. Jamiyat hayotida **hunarmandchilik** va **savdning** ham o'rni katta bo'lgan. Man-

zilgohlardan yuqori sifatli hunarmandchilik buyumlari, temir va bronza qurollar topilgan. Ko'chmanchi sak va massaget qabilalarining asosiy mashg'uloti **chorvachilik** bo'lib, ularning tuya, ot va qo'y-echkilardan iborat katta-katta suruvlari bo'lgan. Hayvon terisidan poyabzal, kiyimlar, chodirlar tikib, g'alla va mevaga ayirboshlaganlar. Markaziy Osiyo xalqlari Sharq mamlakatlari bilan yaqindan madaniy aloqada bo'lganlar. Xalqaro savdo va madaniy aloqalar shaharsozlikni taqozo etgan. Hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida **mil. av. VII – VI asrlarda** qadimgi shaharlar rivojlangan. Ular mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, hunarmandchilik va savdo markazlari edilar.

*Qadimgi shahar madaniyati.* Qadimshunoslar **Afrosiyob** (Samarqand), **Yerqo'rg'on** va **Uzunqir** (Qashqadaryo vodiysi), **Ko'zaliqir** (Xorazm), **Qiziltepa** (Surxondaryo) kabi qadimiy shaharlarni o'rganishgan. Qadimgi shaharlarga xos umumiy belgi ularning **mudofaa devorlari** bilan o'ralgani edi. Shaharda hokim yashaydigan **qal'a** bo'lgan. Qal'ada xom g'ishtdan qurilgan katta **saroy** joylashgan. Shaharlarning bir guruhi savdo va hunarmandchilik markazlari bo'lsa, boshqalari alohida tuman va viloyatlar markazlari hisoblangan. Masalan, ilk Qiziltepa shahri mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralib, devor suv to'ldirilgan xandaq bilan ihotalangan. Devorning burjilari va o'q otish uchun maxsus shinaklari ham bo'lgan. Shahar ichkarisida xonadonlar va hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan.

*Ilk davlat birlashmalari.* O'zbekiston hududida **mil. av. VII – VI asrlarda** tashkil topgan eng qadimgi davlat birlashmalari **Qadimgi Xorazm** va **Qadimgi Baqtriya** davlatlaridir. Marg'iyona va So'g'diyona ham Baqtriyaning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan. Shuning uchun u qadimda bir-biriga qarindosh bo'lgan elatlarning davlat birlashmasi deyilgan. **Mil. av. VII – VI asrlarda** Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari va O'zbekistonga chegaradosh viloyatlar Qadimgi Baqtriya davlati ta'sirida bo'lgan. Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on va Afrosiyob o'rnida Baqtriya va So'g'dning markaziy shaharlari joylashgan. Bu shaharlar O'zbekiston hududida eng qadimgilari bo'lib, ularning yoshi **2700 yildan** kammay.

Yana bir qadimiy davlat Xorazm hududida tashkil topgan. Bu davlat Xorazmdan tashqarida bo'lgan yerlarni ham birlashtirgan. Qadimgi Xorazm markazlaridan biri **Ko'zaliqir** shahri edi. U qalin va mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Uning dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholisi turli uy-qo'rg'onlarda va qishloqlarda yashagan. Qadimgi Xorazmda hunarmandchilik, binokorlik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangan. Shunday qilib, **mil. av. IX – VIII asrlarda** O'zbekiston hudu-

dida **ilk temir asriga** o'tish boshlangan. **Mil. av. VII – VI asrlarda** bu yerda qadimgi yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida davlatchilik taraqqiyoti mahalliy aholining yuqori darajada rivojlangan ziroatchiligiga asoslangandi.

### 1.9. ZARDUSHTIYLIK

Zardushtiylikning vujudga kelishi. **Mil. av. I mingyillikda** O'rta Osiyoda **zardushtiylik** keng tarqaladi. Bu din hali odamlar tabiatni ilohiylashtirgan kezlarda kurtak yoza boshlagandi. Zardushtiylik **olov** (Quyosh), **tuproq, suv, oy, yulduzlarga** sig'inishgan, ularni muqaddas hisoblashgan. «Zardushtiylik» so'zi ham **Zardusht** (turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr) ismidan kelib chiqqan. Keyinroq Yunonistonda payg'ambar Zardushtning ismi Zoroastr shaklida jarangladi (yunoncha «astron» – «yulduz» so'zidan), negaki Yunonistonda uni, birinchi galda, **donishmand yulduzshunos munajjim** sifatida bilishardi. Zardushtning ismidan kelib chiqqan holda uning ta'limoti ham zardushtiylik dini deb yuritila boshladi.

Targalishi. Zardushtiylik tarqala boshlagan kezlarda ibodatxonalar ham, odamlar duo matnlarini o'rganishi uchun maxsus kitoblar ham bo'lmagan. Diniy marosimlar **ochiq osmon ostida, gulxan qarshisida** yoki **uydagi o'choq olovi atrofida** o'tkazilgan. Zardushtning so'nggi va'zlari din xizmatchilari bo'lmish kohinlar tomonidan yozib olingan. Zardushtiylik kohinlari diniy matnlarni yod olib, dindorlarga o'qib berardilar. Zardusht vafotidan keyin bir necha asrlar o'tgach barcha diniy marosimlar, madhiyalar va duolar dindor zardushtiylik uchun muqaddas bo'lgan bir kitobga jamlandi. Bu kitobning nomi «**Avesto**» bo'lib, «**qat'iy belgilangan qonun-qoidalar**» degan ma'noni anglatadi.

Xudolari. Zardushtiylikning zo'r ehtiromga sazovor xudolari **Ahuramazda, Mitra va Anaxitadir.** Ahuramazda zardushtiylikning ulug' va donishmand oliy xudosi hisoblanadi. Mitra Quyosh va yorug'lik xudosi, dehqonlar va chorvadorlarning hosildorlik, farovonlik va mol-davlat bag'ishlovchi homiysidir. Mitra Ahuramazda va odamlar o'rtasida bosh vositachi bo'lgan. Mitra o'spirin jangchi qiyofasida tasvirlangan. O'tli chaqmoqlar yordamida u yovuzlik va o'lim xudosi **Ahriman** bilan jang qiladi. Yomg'irdan keyin paydo bo'ladigan kamalakni Mitraning o'q uzayotgan yoyi deb hisoblaganlar. Anaxita zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi sanalgan. Zardushtiylik dini ta'limoti insoniyatning Ezgulik va Yovuzlik haqidagi dualistik qarashlari takomiliga katta ta'sir ko'rsatdi.



«Avesto» va zardushtiylik marosimlari. Fransuz olimi **A. Dyuperron** ilk marotaba «Avesto»ning alohida qismlarini tarjima qilishga muvassar bo'lgan. Zardushtiylik dunyoga kelishi haqida shunday bir afsona bor. Bir kuni erta tongda Zardusht suv olish uchun daryo bo'yiga boribdi. Zilol suvda u Ahuramazda elchilaridan birining siymosini ko'rib qolibdi, siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo'l ko'rsatibdi. Zardusht sehrli nur izidan ergashibdi, ko'p o'tmay oliy iloh qarshisiga borib qolibdi. Ahuramazda unga Zardushtni xudo Ahuramazda va uning ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun tanlab olganini ma'lum qilibdi. Shu alfozda Zardusht 30 yoshida yangi diniy ta'limot payg'ambariga aylangan. «**Payg'ambar**» so'zining o'zi esa «**ezgu amallar haqida mujda beruvchi**» ma'nosini anglatadi.

Zardusht va'zlari matnlarining hammasi **mil. av. III asrda 21 ta kitobga** aylangan, bu kitoblar «Avesto» asosini tashkil etgan. «Avesto» matnlariga sharh esa «**Zand**» deb yuritiladi. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, butun Borliq va bizni qurshab turgan hamma narsa ikki ibtido dan, ya'ni **Ezgulik** va **Yovuzlik**dan tashkil topgan. Ezgulik va Yovuzlik o'rtasida doimiy kurash boradi. Masalan, yorug'lik zulmat bilan, hayot o'lim bilan, yaxshilik yomonlik bilan, haq-huquq esa haqsizlik bilan kurashadi. Zardushtiyalar umrining tub ma'nosi **ezgu amal, ezgu so'z va ezgu fikrdan** iborat bo'lishi kerak. Insonning asosiy burchi, eng avvalo, **adolatli turmush tarzi** hisoblangan. Yovuzlik bilan kurashda Ezgulikka yordam berish lozim: yolg'on so'zlamaslik, aldamaslik, va'daga vafo qilish, faqat ezgu ishlarni amalga oshirish. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, inson o'z yo'lini o'zi tanlaydi, kimning yonini olish, kimni himoya qilishni ham o'zi hal etadi.

**Olov, tuproq, suv va havoni zardushtiyalar** muqaddas hisoblashgan. Ularni yovuzlikni ifoda etuvchi buyumlar bilan qorishtirib yubormaslik kerak. Yer yuzidagi eng qo'rqinchli yovuzlik **o'limdir**. Shuning uchun zardushtiyalarda vafot etgan kimsalarni dafn etish borasida alohida marosim vujudga kelgan. Inson vafot etganida bu hol unga yovuz ibtido – o'lim ko'chib kirganini anglatadi, Yovuzlik bilan Ezgulik bo'lmish tuproqni bulg'amaslik lozim. Marhumning jasadini yerga ko'mish ham, yondirib tashlash ham, suvga tashlab yuborish ham mumkinmas. Shuning uchun murdani qushlar va hayvonlar yeb ketishi uchun maxsus inshootda qoldirishgan. Yomg'irlar poklagan va oftob qoqlagan suyaklarni maxsus sopol tobutchalar – **ossuariylar** (suyakdonlar)da dafn etishgan.

## 2-BOB. MILODDAN AVVALGI VI – IV ASRLARDA O'RTA OSIYO

### 2.1. O'RTA OSIYOGA AHAMONIYLARNING BOSQINCHILIK YURISHLARI

Kir II va uning bosqinchilik yurishlari. Mil. av. VI asr o'rtalarida Qadimgi Fors shoHLari sulolasidan bo'lgan ahamoniy hukmdorlar imperiya barpo etishga kirishdilar. **Kir II** hukmronligi davrida **Midiya**, **Lidiya** (Kichik Osiyo) va **Bobil** (Mesopotamiya) bosib olindi. Muvaffaqiyatlardan quturib ketgan Kir II O'rta Osiyoga lashkar jo'natdi. U O'rta Osiyo hududini egallashga uringan ilk fors podshosi edi. **Mil. av. 545- va 540-yillar** oralig'ida u Parfiya, Marg'iyona va Baqtriyani bosib oldi. **Mil. av. 530-yili** Kir II ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurishga otladi. Bu yurish to'g'risida Gerodot hikoya qilib bergan. Forslar massagetlar hududiga bostirib kirganlarida, ularning podsho-hokimasi **To'maris** bosqinchilarga tinchomon qaytib ketishni taklif qiladi. Ammo Fors shohi bu taklifni rad etadi va Araks – Amudaryodan kechib o'tishni boshlash to'g'risida farmon beradi. Gerodot massagetlarning asosiy kuchlari bilan forslarning jangi to'g'risida shunday hikoya qiladi: «Bu jang... barcha janglardan ham dahshatlirog'i edi. Avval har ikki dushman kuchlar bir-biriga qarshi jangovar saf tizishib, kamondan o'q yog'dirishdi. O'qlari tugagach, qo'llariga xanjar va nayzalar olib dushmanga qarshi tashlandilar. Jang uzoq davom etdi. Hech kim chekinishni xayoliga keltirmasdi. Ko'p qon to'kildi. Nihoyat, massagetlarning qo'li baland keldi. Fors qo'shinlarining ko'pchiligi qirildi. Jang maydonida Kir II ning o'zi ham halok bo'ldi».

Doro I ning saklarga qarshi yurishi. **Mil. av. 522-yili** ahamoniylar sulolasi vakillaridan biri **Doro I** taxtga o'tirdi. U **mil. av. 522 – 486-yillarda** hukmronlik qilgan. Doro I hukmronligining birinchi yili Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi yirik xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olonga **Frada** rahbarlik qiladi. Qo'zg'olonchilar bilan fors qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang **mil. av. 522-yili** bo'ladi. Fradaning o'zi asirlikka olinadi va **mil. av. 521-yili** qatl etiladi. Bu voqea haqidagi ma'lumot Behistun kitobalarida keltirilgan.

Hukmronligining uchinchi yilida (**mil. av. 519-yil**) Doro I **saklar** ustiga yurish qiladi. Bu yurish haqida Behistun yozuvlarida shunday deyilgan: «Shoh Doro ayturki: keyin qo'shin bilan saklar mamlakatiga yurish qildim. Keyin uchi o'tkir kuloh kiyib yuruvchi saklar jangga kirdilar. Men daryodan o'tgach saklarni tamoman tor-mor keltirdim, qolgan qismini asirga oldim...

Ularning **Skunxa** degan sardorini qo'lga tushirib, huzurimga keltirdilar. Shunda men ularga boshqa bir sardor tayinladim. Men shunday bo'lishini xohladim. So'ngra bu mamlakat menga tobe bo'ldi».

Ayni paytda, mazkur yurish haqida tarixchi **Poliyen (mil. av. II asr)** keltirgan boshqa bir rivoyat ham mavjud. Forslarning qoshiga sak qabilasidan cho'pon **Shiroq** keladi, u fors qo'shinlarini o'zidan boshqa hech kim bilmaydigan so'qmoq bilan saklarning orqa tomoniga boshlab borishini aytadi. Suvsiz cho'li biyobon bo'ylab yetti kun yo'l bosishgach tashnalikdan do'zax azobini chekayotgan forslar aldanganlarini sezib qoladilar va jasur cho'ponni chopib tashlaydilar, Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat boshqaruvi. Bosib olingan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun ahamoniylar butun boshli davlatni alohida viloyatlar – **satrapliklarga** bo'lib tashladi. Bu so'z forscha «**xshatra**» – «**viloyat**» so'zidan kelib chiqqan. Viloyat boshlig'i – **satrapga** cheklanmagan hokimiyat berilgandi. Satraplarning ko'pchiligi ahamoniylar sulolasi vakillari bo'lgan. O'rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari **uch satraplikka** bo'linadi. Har bir satraplik yillik xiroj to'lagan. Bundan tashqari, qaram xalqlar saroy va ibodatxonalar qurilishiga ham safarbar etilgan. Xirojni kumush, chorva mollari (otlar, tuyalar, qo'ylar), hunarmandchilik buyumlari (sopol idishlar, qurol-yarog'lar, zeb-ziynatlar), kiyim-kechak va hayvonlar terisi bilan to'lashgan.

Doro I, uning vorisi **Kserks** hukmronligi davrida (**mil. av. 486 – 465-yillar**) O'rta Osiyo xalqlari siyosiy hayotda va yunon-fors urushlarida ham qatnashganlar. Mashhur **Marafon jangida (mil. av. 490-yil)** fors qo'shinlari markazida saklar o'zini ko'rsatadi. Gerodot Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan o'rta osiyolik jangchilar qurol-yarog'larini mufassal tasvirlagan. Baqtriyaliklar **kamon** va **nayzalar** bilan, saklar **xanjar** va **oyboltalar** bilan, xorazmiylar va so'g'diylar baqtriyaliklarniki singari qurol-aslahalari bilan jangga kirishgan. Sak va Baqtriya **suvoriylari** Kserks armiyasida eng yaxshi jangchilardan bo'lishgan. Yunon dramaturgi **Esxil** o'zining «**Forslar**» tragediyasida **Salamin** yonidagi dengiz jangida halok bo'lgan navqiron baqtriyalik jangchilarni tilga oladi.

O'rta Osiyo xalqlari ustidan ahamoniylar hukmronligi **200 yildan ko'proq** davom etdi. Faqat **mil. av. IV asrda** saklar, xorazmiylar va massagetlar Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib, mustaqil bo'ldilar.

Madaniyatning rivojlanishi. Mil. av. VI – IV asrlarda madaniyatning rivojlanishi yozma va arxeologik manbalar asosida o'rganilgan. Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari, Amudaryoning quyi oqimi (masalan,

Qiziltepa, Uzunqir, Afrosiyob, Ko'zaliqir, Yerqo'rg'on va boshqalar)da yirik hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Mil. av. VI – IV asrlarda O'рта Osiyo hududida dastlabki **tanga pullar** tarqalgan. Zargarlik san'atining yuksak darajada rivoj topganiga bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanayotgan **Amudaryo xazinasi** oltin va kumush buyumlari yorqin misol bo'la oladi.

Har bir shahar markazida qal'a – **arklar** bo'lgan. Ularning atrofini egallagan dehqon xo'jaliklarida ota urug'iga mansub katta-katta oilalar kun kechirardi. Dehqonchilik uy-qo'rg'onlari xonadonlar, xo'jalik va yordamchi tomorqa binolaridan iborat bo'lgan. Arxeologlar shahar va qo'rg'onlar afrofida dalalarga suv olib kelgan anhorlar va ariqlar izlarini topganlar.

## 2.2. O'RTA OSIYO AHOLISINING YUNON-MAKEDON ISTILOCHILARIGA QARSHI KURASHI

Makedoniyaning yuksalishi. Mil. av. IV asrda **Filipp II** Makedoniya podshosi bo'ldi. U kuchli armiya tuzdi. Mil. av. 338-yili **Xeroneya** yaqinida makedonlar yunonlar qo'shinini tor-mor keltirdi. Ana shu jangda Filippning o'g'li **Aleksandr** alohida jasorat ko'rsatdi. **Korinf** shahrida yunon shaharlari elchilarining kengashi to'plandi. Unda Filipp fors podsholigi ustiga yurish maqsadida yunonlar va makedonlar harbiy ittifoqini tuzishni taklif qildi. Filippning o'zi Sharqqa yurishni amalga oshirolmadi. Mil. av. 336-yili teatrqa borganda, saroy xizmatkorlaridan biri unga xanjar urdi.

**Aleksandr mil. av. 336-yili** Makedoniya podshosi bo'ldi. Shu yili u 20 yoshga to'lgandi. Makedoniyalik Aleksandr g'ayriodatiy kuch-g'ayrat va jasorat sohibi bo'lgan, safdoshlari va qo'shinlari unga nihoyatda sadoqatli edi. Mil. av. 334-yili u Sharqqa yurish boshladi, bu yurish 10 yil davom etdi. Ana shu yurish davomida **Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron** va **Hindistonda** katta-katta hududlarni bosib oldi. Ulkan hududda yunon madaniyati tarqalishiga imkon yaratish maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirdi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlarida qatnashgan tarixchi **Aristobul** ular haqida mufassal ma'lumotlar qoldirgan.

O'рта Osiyo xalqlarining harbiy san'ati. Mil. av. VII – IV asrlarda O'рта Osiyo jangchilari jangga **sovut** kiyib kirganlar, boshlarida **dubulg'a** bo'lgan. **Xanjar** va **qilich** bilan qurollanganlar. **Jangovar oybolta** va **nayza** ham ishlatganlar. Kamon o'qi va chopqilar temir va jezdand yasalgan. Jangchilar otda ham, piyoda ham jang qilolganlar. O'рта Osiyo

xalqlari orasida xanjar **aqinak**, jangovar oybolta esa **sagaris** deb nomlangan. Uzoq masofadan turib jang qilish quroli sifatida kamon o'qlaridan foydalanilgan. Jangovar otlar ustiga va ko'kragiga temirdan to'qilgan **bargustvon** yopilgan.

Qal'a va shaharlarni himoya qilishda o'q-yoy va palaxmondan foydalanilgan. Tosh irg'itganlar, qaynab turgan suvni sochganlar. Mudofaa maqsadida tosh va pishgan g'isht, guvalalardan ham foydalanilgan. Qiziltepa, Afrosiyob va Uzunqir singari shaharlar **burj** va **borulari** mudofaa maqsadida qurilgan shinaklar bo'lgan mustahkam devorlar bilan o'rab olingandi. Devorlar tepasida kamonchilar uchun yo'laklar qurilgan. Devorlar sirtidagi burj va borularda ham kamonchilar qo'yilgan. Suv to'latilgan chuqur va keng xandaq qal'aga boradigan yo'lni to'sib turardi.

**Makedoniyalik Aleksandr istilolari.** **Mil. av. 330-yili** Makedoniyalik Aleksandr Qadimgi Fors davlatining ahamoniylar sulolasidan bo'lgan so'nggi shohi **Doro III** qo'shinlarini tor-mor keltirdi. U Hindistonga yurish qilishdan oldin qo'shini orqasini xavfsizlantirish maqsadida Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo'ysundirishni niyat qiladi. Dastlab uning yo'lini to'sgan shahar Baqtriya poytaxti **Baqtra** (Zariaspa) bo'ldi. Bu yerda satrap ahamoniylar sulolasidan bo'lgan **Bess** edi. U Baqtra shahrini himoyachilarga tashlab, Amudaryoning narigi tarafga qochgandi. So'g'diyona mustaqilligicha turardi. Makedoniyalik Aleksandr o'z ustozini, qadimgi yunon faylasufi Aristotelning Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o'tgani, ikkalasi ham mag'lubiyatga uchrangani, shuning uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rishini lozimligi to'g'risidagi maslahatini yodda tutardi.

**Maroqandaning bosib olinishi.** **Mil. av. 329-yili** Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Amudaryodan o'tib, O'rta Osiyoga bostirib kirdi. Qo'shinlar qarshisida esa **Nautaka** (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va **Maroqanda** turardi. **Mil. av. 329-yili** Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Maroqandani egalladi. Aleksandr qo'shinlarning bir qismini qoldirib, o'zi esa **Kurushkat** (Kiropolis) shahrini bosib olish uchun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg'oqlari sari siljiy boshladi. Rivoyatga ko'ra, bu shaharga fors shohi Kir II asos solgan ekan.

So'g'diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga ko'tarildi. Tez orada so'g'diyolarga baqtriyaliklar, sak va massagetlar qo'shildilar. Qo'zg'olonga iste'dodli rahbar va qo'mondon **Spitamene** boshchilik qildi. Ancha qo'shin to'plagan Spitamene Maroqandani qurshovga oldi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga **uch mingga yaqin** jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Qadimda **Politimet** deb atalgan Zarafshon daryosi

bo'yida makedonlarga pistirma qo'ygan Spitamen dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o'zi qo'zg'olonni bostirishga o'tlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitamen qamalni to'xtatadi, o'z qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi.

Saklar va massagetlarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo'yida – Xo'jand yaqinida bir tayanch manzil barpo etish to'g'risida buyruq beradi. Bu qal'a **Aleksandriya Esxata** (Uzoqdagi Aleksandriya) deb ataldi. Aleksandr Maroqandada garnizon – maxsus harbiy qo'shin qoldirib, asosiy qo'shinlari bilan qishlov uchun Zariasp (Baqtriya)ga jo'nadi. O'sha yilning bahorida Aleksandr qo'zg'olonni bostirish chorasini ko'radi. O'z lashkarlarini uch qismga bo'lib, So'g'diyonaning u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholining **120 ming nafarini** qirib tashlaydi. **Mil. av. 328-yil kuzida** Spitamenning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo'lib o'tdi. Kuchlar teng bo'lmaganidan, Spitamen yengilib, tag'in cho'lga chekindi. O'sha yerda ko'chmanchi qabilalar boshliqlari uni xoinlarcha o'ldiradilar.

**Kurashning davomi.** Spitamenning o'limi so'g'diylar va baqtriyaliklar irodasini bukolmadi. **Xoriyen** va **Oksiartning** Hisor tog'larida joylashgan tog' qal'alarini qo'lga kiritib, Aleksandr Oksiartning qizi **Ravshanakka** uylanadi. Shunday qilib, Makedoniyalik Aleksandr e'tiborli so'g'd qabilasi boshliqlaridan biri bilan qarindosh tutinadi. O'rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli **uch yil** urindi, biroq uncha katta bo'lmagan hududni: Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona hamda hozirgi Bekobod va Xo'janddan iborat Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona mustaqilligicha qoldi. Spitamen qo'zg'oloni bostirilishiga qaramay, yunon-makedon qo'shinlari birinchi bor qator mag'lubiyatlarga uchradilar.

**Bosqin oqibatlari.** Yunon-makedon qo'shinlarining bosqinchilik yurishlari O'rta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko'plab shaharlar vayron etildi. Yunon tarixchilarining yozishicha, Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyoda **12 ta shahar** qurdirgan. Bu shaharlar **Oksdagi Aleksandriya, Aleksandriya Esxata, Marg'iyona Aleksandriyasi** va hokazo tarzida atalgan. Ularning ba'zilari vayron etilgan So'g'diyona va Baqtriya shaharlari o'rnida, boshqalari esa tayanch qal'alar sifatida yangidan qurilgan. Mazkur shaharlarda yunon-makedon piyoda va otlq askarlari joylashdi. **Mil. av. 324-yildan** boshlab bu askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va So'g'diyona yoshlari hisobiga to'ldiriladi.

Bora-bora hunarmandchilik va savdo qayta tiklandi. Mahalliy va yunon madaniyatlari an'analari o'zaro omixta bo'la bordi. Shu asosda O'rtasiyoda Yunon-Baqtriya va Parfiya singari antik davlatlar taraqqiy etadi.

### 2.3. SALAVKIYLAR DAVLATI VA YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI

O'rtasiyo Salavkiylar davlati tarkibida. Mil. av. 323-yil 13-iyunda Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. U yaratgan davlat uch qismga: **Makedoniya, Misr va Suriyaga** bo'linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarilgan. Uzoq davom etgan o'zaro urushlardan keyin mil. av. 312-yili Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri **Salavka Bobil** (Mesopotamiya) davlati hukmdori bo'ldi. Salavka davlati tarkibiga **Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona** kirardi. O'z davlati tarkibiga kirgan O'rtasiyoni Salavka satrapliklarga bo'ldi, ularning har biriga satrap hukmronlik qilardi. Davlat muhofazasi va qo'shinlarni tashkil etish bilan sobiq lashkarboshilardan tayinlangan **strateg** shug'ullanardi.

Mil. av. 293-yili Salavka sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona noibi etib o'z o'g'li **Antioxni** tayinladi. Mil. av. 280-yili, Salavka vafotidan so'ng, Antiox ulkan davlat hukmdoriga aylandi va **20 yilcha** mamlakatni boshqardi. Yunon-makedon istilolari tufayli izdan chiqqan turmush tarzi So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyonada asta-sekin tiklana boshladi. Bu yerlarda yangi manzilgohtar, shaharlar bunyod etildi, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlana boshladi. Baqtra, Maroqanda, Antiox Marg'iyonasi (Marv), Termiz yirik shahar va madaniyat markazlariga aylandi. Yunon-makedon istilolaridan keyin O'rtasiyo viloyatlari tarixida antik yoki ellinistik davr boshlandi. Bu yurishlar pirovardida G'arb va Sharq o'rtasida madaniy munosabatlar va almashinuv kengayishiga olib keldi. Baqtriyada yunon yozuvi, yunon og'irlik o'lchov birliklari, pul munosabatlari, hunarmandchilik va san'at buyumlari tarqaldi. O'z navbatida, yunonlar ham Baqtriya binosozlik va hunarmandchilik an'analarini o'zlashtirdilar.

Yunon-Baqtriya davlati. Mil. av. III asr o'rtalarida Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqadi. Antik davr tarixchilari xabar berishicha, **Diodot** – mingta Baqtriya shahri hukmdori o'zini podsho deb e'lon qiladi. Shu voqeadan **Yunon-Baqtriya davlati** tarixi boshlanadi. Mil. av. 250-yili Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan **Parfiya** Baqtriyaning raqibiga aylanadi. Baqtriyadan tashqari Yunon-Baqtriya podsholigi

tarkibiga So'g'diyona va Marg'iyona ham kirgandi. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriya davlati hukmronlik davlati tarixida sezilarli iz qoldirmagan Yevtidemga o'tdi. Yevtidemning o'g'li **Demetriy** davrida (mil. av. 199 – 167-yillar) Yunon-Baqtriya podsholigi eng katta sarhadlarga ega bo'ldi. Hindistonning bir qismi bu davlatga qo'shib olingandi.

Parfiya davlati hokimiyat **Mitridat I** qo'liga o'tishi bilan Baqtriya davlati harbiy tazyiqni kuchaytiradi. Yunon-Baqtriya davlati tinimsiz urushlar olib borishga majbur ediki, bu hol uning kuchsizlanishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan ko'chmanchi **yuechji** qabilalari mil. av. 140 – 130-yillarda Yunon-Baqtriya davlatini bosib oladilar.

**Madaniyatning rivojlanishi.** Yunon-Baqtriya davlati 120 yil yashadi. Shu davr mobaynida uning iqtisodiyoti va madaniyati yuksaldi. Hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi, ko'plab shaharlar barpo etildi. Yunon-Baqtriya davlatida tangalar hukmdor tasviri bilan zarb etilgan. Dajla daryosi bo'yi – Salavkiyadan Baqtriya qirg'og'iga qadargacha karvon yo'li qurib bitkazilgach, jahondagi ko'pgina davlatlar bilan xalqaro savdo-sotiq va madaniy aloqalar jonlandi. Baqtriya orqali Xitoydan Hindistonga boradigan karvon yo'li, Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlari o'tgandi.

#### 2.4. QADIMGI XORAZM, QANG' VA DOVON DAVLATLARI

**Qadimgi Xorazm.** Mil. av. IV asrda Xorazm Ahamoniylar imperiyasidan mustaqil davlatga aylandi. Makedoniyalik Aleksandr va salavkiylar hukmronligi davrida ham Xorazm davlati mustaqil edi. Bu o'lka aholisi xo'jaligining asosini **dehqonchilik** tashkil etgan. Xorazmda shaharsozlik boshlanishi mil. av. VII asrga borib taqaladi. Mil. av. V – IV asrlarda bu yerda mahalliy hukmdorning qarorgohi bo'lgan ulkan qal'a bunyod etilgandi (**Qal'aliqir** shahri xarobalari). Mil. av. III – II asrlarda Xorazm O'rta Osiyoning yirik antik davlatlari – Yunon-Baqtriya podsholigi va Parfiya podsholigi tarkibiga ham kirmagan. Bu hol Xorazmda o'ziga xos madaniyat vujudga kelishida muhim omil bo'ldi. **Jonbosqal'a** va **Qo'yqirilganqal'a** yodgorliklari ana shu madaniyat namunalaridir. Qo'yqirilganqal'a xarobalari ostidan aylana shaklida qurilgan mustahkam **ibodatxona** qoldiqlari topilgan. **Milodiy II – III asrlarda Tuproqqal'a** shahrida bundan ham ulug'vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgandi. Shahar qudratli mudofaa devorlari bilan o'ralgan, devor burchaklarida burjlar qurilgan. Markazdan o'tgan ko'cha shaharni ikki qismga bo'lgan, undan esa yon-atrofga ko'chalar ketgan, mahallalar bir-biridan ajralib turgan. Markaziy maydonda muhtasham saroy va ibodatxonalar joylashgan.



Qasrdagi saroy devorlari tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, shohlar, lashkarlar, mug'anniylar, hayvonlar va qushlar rasmlari chizilgan. Zallardan birida devor bo'ylab baland taglikka 20 dan ziyod haykallar o'rnatilgandi.

Xorazmda, ayniqsa, **hunarmandchilik** ishlab chiqarishi yuksak darajada rivojlangandi. Kulolchilik, temir, mis asboblari, qurollar, zargarlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Xorazm aholisi So'g'diyona, Marg'iyona, Baqtriya va sahro ko'chmanchilari bilan yaqindan savdo munosabatlarini o'rnatgan. Bu o'lkadan muhim karvon yo'llari o'tgan. **Mil. av. I asrda va dastlabki milodiy asrlarda** Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan. Xorazm hududidan O'rta Osiyo bo'yicha eng qadimgi yozuvlar topilgan. Bular **Oybo'yirqal'a (mil. av. V – IV asrlar)** yodgorligidan xum sirtiga chekilgan yozuv va **Qo'yqirilganqal'**adan topilgan ayrim mahalliy yozuvlardir. **Milodiy I asrda** Xorazmda ishlab chiqilgan **mahalliy taqvimdan** xorazmliklar **VIII asrga qadar** foydalanishgan.

**Qang' davlati.** Xitoy manbalaridan bu davlatning **Qang'yuy** deb atalgani ma'lum. **Mil. av. III asrda** unga **saklar** asos solishgan. Qadimshunoslarning aniqlashicha, Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi **Qang'ha** shahar xarobasi saklarning o'sha kezlardagi poytaxti **Qang'dez** bo'lib, unga **mil.av. III asrda** asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni **Bityan** deb atashgan. Qang' davlatining asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgandi. **Mil. av. II asr oxirida** Qang' qabilalarning eng qudratli davlat birlashmasiga aylanadi. Uning hukmdorlari hatto o'z nomidan tanga zarb qiladi. Qang' davlatida ulkan istehkomlar, qal'a, shahar ibodatxonalari, savdo va hunarmandchilik mahallalari barpo etiladi. Davlat markazlaridan biri Toshkent vohasi edi. Ayni shu hududda o'troq ziroatchi va savdo-hunarmandchilik madaniyati vujudga keldi.

Mamlakat iqtisodiyotining gullab-yashnashiga uning hududidan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tgani imkon yaratdi. Lekin ayni shu hol Xitoy bilan urushlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Mazkur urushlarda **qang'arlar** (Qang' davlati aholisini shunday atashgan) ko'pincha g'olib chiqardilar. Masalan, Qang' davlatiga yurishlardan biriga jo'natilgan **60 ming** xitoylik jangchidan **10 mingga yaqini** Xitoyga qaytib ketgan, xolos. **Milodiy III asrga** kelib Qang' davlati parchalanib ketdi.

**Dovon davlati.** Davlatchiligimiz tarixi bo'yicha hali kashf qilinmagan masalalar talaygina. **Dovon davlatining** (Xitoy manbalarida bu o'lka shu nom bilan tilga olinadi, boshqa manbalarda **Parkana** deyilgan) tashkil topgan va inqirozga uchragan yillari aniqlanmagan. Mazkur davlat taxminan **mil. av. III asrdan milodiy II asrgacha** mavjud bo'lgan. Dovon davlati tarixi haqidagi batafsil ma'lumot Xitoy manbalarida uchraydi va ular

**milodiy I – II asrlarga** doirdir. Xitoy tarixchisining yozishicha, bu davlat aholisi **70 dan ortiq shaharlarda** istiqomat qilgan. Masalan, Dovonda bo'lgan xitoy sayyohi **Chjan Szyan** shunday yozadi: «*Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor; nayzalar bilan qurollanishgan. Xalqi ot choptirib o'q otishga mohir*». Boshqa bir xitoy solnomasida: «*Ansi (Eron) shaharlari Dovondagiga o'xshashdir*», – deb yozilgan.

Xitoylik tarixchilarning guvohlik berishicha, Dovon davlati hududlari hozirgi Toshkent vohasigacha borgan: «*Xon sulolasi zamonida Shi mulklari Dovon davlatining shimoliy tumanlarini tashkil etardi va shimolda Qang' davlatigacha, janubda esa Yuechjilar davlatigacha borardi*». Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib olmoqchi bo'ldilar, biroq ularning harakatlari zo'ye ketdi. Harbiy yurishlarning birida ular Dovon davlatining poytaxti **Ershini** qo'lga kiritdilar, biroq aholining tazyiqi ostida tovon evaziga uni tashlab chiqishga majbur bo'ldilar.

Dovon davlati Xitoy va Sharqning boshqa mamlakatlari bilan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onaning nasldor otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular «**Samoviy**» deb nom berganlar. «Samoviy» otlar barkamol va go'zal ko'rinishga ega bo'lgan. Qadimshunoslar topgan dalillar Xitoy solnomalaridagi ma'lumotlarni tasdiqladi: **mil. av. II – I asrlarda** Farg'ona yuksak taraqqiy etgan, aholisi ko'p sonli, yaxshi qurollangan va mashq ko'rgan qurolli kuchlarga ega davlat bo'lgan. Farg'ona davlatining **Sho'rabashat, Uchqo'rg'on** va boshqa shaharlari atrofidagi aholi yerni ishlash, sholi va bug'doy yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishgan. Olimlarning aniqlashicha, **milodiy II asrda** Farg'ona davlati barham topgan va uning yerlari Kushon podsholigiga qo'shib olingan.

## 2.5. KUSHON PODSHOLIGI

*Kushon davlatining tashkil topishi.* **Mil. av. 140 – 130-yillarda** ko'chmanchi **yuechji** qabilalari Yunon-Baqtriya davlati hududiga bostirib kirdilar. Tarixda bu qabilalar «**kushonlar**» nomi bilan tilga olinadi. Yuech-jilarning Yunon-Baqtriya davlatiga bostirib kirishi uning uzil-kesil bo'linib ketishiga olib keldi. Kushonlar Shimoliy Baqtriya yerlariga ko'chib kelib o'r'nashdilar. Birlashgan besh yuechji qabilasining birinchi hukmdori **Kudzula Kadfiz** bo'ldi. Kudzula Kadfiz hukmronligi davrida Afg'oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo'shib olingan. Uning vorisi **Vima Kadfiz** hukmronligi davrida Kushon davlati hududi yanada kengaydi. Podsho **Kanishka**

davrida poytaxt **Baqtriya**dan **Peshovarga** ko'chiriladi, Kushon davlati esa ulkan saltanatga aylanadi. Uning hududi Hindiston va Xo'tandan O'zbekistonning janubiy viloyatlari va Afg'oniston hududigacha bo'lgan joylarni qamragandi. **Rim, Parfiya, Xitoy** davlatlari qatorida Kushon davlati ham ulkan imperiyaga aylangan. **Milodiy III asrda** to'xtovsiz urushlar oqibatida bu davlat zavolga yuz tutdi.

***Iqtisodiy taraqqiyoti.*** Vima Kadfiz hukmronligi davridan Kushon podsholigida hukmdor nomi ko'rsatilgan tanga zarb qilish boshlandi. Hukmdor pul islohoti o'tkazadi, zarb qilingan tangalar qadri ortadi. Tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan. **Milodiy I – II asrlarda** Kanishka hukmronligi davrida (**78 – 123-yillar**) Kushon podsholigi o'z taraqqiyotining cho'qqisiga erishdi. Yangi-yangi shaharlar bunyod etildi, Hindiston, Xitoy va Rim bilan savdo hamda elchilik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Kushon podsholigi tangalari Rim imperiyasi hududidan ham topilgan. **Pompey** shahridagi qazuv va tadqiq ishlari paytida Kushon mamlakatida suyakdan yasalgan haykalchalar topilgan.

Hunarmandchilik ham yuksak darajada taraqqiy etgan. Kushon davlati yodgorliklari bo'lmish **Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Zartepa, Qoratepa** va boshqalarni o'rganish jarayonida aniqlangan topilmalar ham buni tasdiqlaydi. Kushon davlati iqtisodiyotining asosini **sug'orma dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilik** tashkil qilgan. Kushon davlati davrida suv tegirmoni, chig'ir turlaridan keng foydalanildi, yerga ishlov berish qurollari takomillashtirildi.

***Kushon davlatida yozuv.*** Kushon davlatida yashagan xalqlarning o'zaro madaniy va savdo-sotiq aloqalari tufayli O'rta Osiyoda qadimgi oromiy yozuvi keng tarqaladi. Bu yozuv **G'arbiy Osiyoda** paydo bo'lib, alifboga asoslangani tufayli, o'zlashtirish ancha oson bo'lgan. Qadimgi Termiz yodgorliklarini o'rganish natijasida oromiy yozuvi asosidagi **kushon-baqtriya alifbosidagi** yozuv namunalari topilgan. Kushon mamlakatida yana bir xil yozuv – **kushon shaklli yozuvi** mavjud bo'lgan, bunda harflar **burchakli, to'rtburchakli** va **aylana** shaklda bo'lgan. Kushon podsholigida yozuv qadimdan mavjudligini **Surxko'tal** (Afg'onistondagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligida topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdiqlaydi. Amudaryoning quyi oqimida, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy va so'g'diy yozuvlar ham keng tarqalgandi. Yozuvning turli ko'rinishlariga oid topilmalar Kushon imperiyasining jahondagi ko'plab davlatlar bilan keng ko'lamdagi aloqalaridan guvohlik beradi.

***Diniy e'tiqod.*** Kushon davlati tashkil topayotganda Baqtriya, So'g'di-

yonaning asosiy aholisi **zardushtiylik** dinida edi. Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo'shib olinib, yaqin aloqalar o'rnatilgach, Kushon davlati hududiga kirib kela boshlagan **buddaviylik** zardushtiylik bilan birga **milodiy VIII asrgacha** O'rta Osiyoda mavjud bo'ldi. **Eski Termiz, Ayritom va Dalvarzintepada** muhtasham buddaviylik ibodatxonalari bo'lgan. Aynan shu yerdan buddaviylik butun O'rta Osiyo bo'ylab keng tarqala boshladi.

*Me'morchilik va san'at.* Kushonlar davrida O'zbekiston hududida binokorlik va me'morchilik yuksak darajada taraqqiy etdi. Dalvarzin va Eski Termiz singari shaharchalar xom g'ishtdan qurilgan mustahkam istehkom devorlari bilan o'ralgandi. Mudofaa devorlari ortida hukmdor qarorgohi joylashgan. Shaharlarning o'zi esa hunarmandlar mahallalariga va turarjoy mavzellariga ajratilgandi. Asosiy e'tibor **saroylar** va **ibodatxonalar** qurilishiga qaratilgan. Xolchayon (Surxon vohasi) dagi hukmdor saroyi, Eski Termiz (Qoratepa, Fayoztepa) buddaviylik ibodatxonalaridan, Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalaridan o'sha davr devoriy tasvirlari, haykaltaroshlikning san'atkorona namunalari topilgan. Bu shahzodalar va saroy a'yonlari, jangchilar tasviri, Buddha haykali hamda ud cholg'u asbobi chalayotgan ayollar tasvirlangan mashhur **Ayritom** frizidir. Temir va suyak kandakorligi ham yuqori darajaga erishadi. Dalvarzinda fil suyagidan yasalgan **shaxmat** donalari topilgan. Kushon san'atida mahalliy an'analar, Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunoniston ellinistik san'ati uslublari rivojlanishda davom etgan.

## 2.6. BUYUK IPAK YO'LI

*Vujudga kelishi va tarmoqlari.* **Milodiy XVI asrga** qadar Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan **Buyuk ipak yo'li** muhim o'rin tutgandi. Bu yo'l **mil. av. II asrda** vujudga kelgan va «**Buyuk meridional yo'l**» deb atalgan. Bu yo'lga «Ipak yo'li» degan nom **1877-yili** nemis geografi **F.Rixtgofen** tomonidan berilgan. Buyuk ipak yo'li tashkil topmasdan avval O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayirboshlash uchun turli-tuman yo'llar mavjud bo'lgan. Eng qadimgi yo'llardan biri **mil. av. III – II mingyillikda** vujudga kelgan «**La'i yo'li**»dir. U Pomir tog'laridan boshlanib, Eron va Old Osiyo hamda Misr orqali o'tgan. Pomirdan olinadigan yarim nodir la'l toshi (lojuvard) Qadimgi Sharq mamlakatlari zargarlari tomonidan yuksak baholangan. Badaxshon la'li ishlatilgan buyumlar Misr fir'avnlari maqbaralaridan topilgan.

Boshqa bir karvon yo'li Eron ahamoniyolari sulolasining yo'li bo'lib, «**Shoh yo'li**» deb atalgan. U mil. av. VI – IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini, O'rta yer dengizi bo'yidagi Efes, Sard shaharlarini Eron poytaxtlaridan biri – **Suza** bilan bog'lab turgan. Tag'in bir yo'l Eron, Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududidan o'tgan va Oltoygacha borgan. Arxeologlar tog'li Oltoydagi ko'chmanchilar zodagonlarining mil. av. V – IV asrlarga oid **Paziriq** qo'rg'onini o'rganganda kigiz gilam, jun gazlamalar, oltin, jez va kumush buyumlar, O'rta Osiyo va Eron matolaridan tikilgan kiyimlar qoldiqlarini topishgan. Barcha buyumlar yaxshi saqlangan, chunki qo'rg'onida **2500 yil** davomida erimagan qalin muz qatlami yuzaga kelgandi.

Buyuk ipak yo'li **12 ming km** cha uzunlikda bo'lgan. U Sariq dengiz sohilidan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta yer dengizi sohillarigacha borgan. Mazkur yo'lda **Sian, Dunxuan, Yorkent, Samarqand, Buxoro, Termiz, Marv** va boshqa bir qancha qadimiy shaharlar joylashgandi. So'g'diyonadan Xitoyga jun gazlama, gilam, zeb-ziynat buyumlari va qimmatbaho toshlar olib borilgan; Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan nasirdor otlar, Badaxshondan la'l; Hindistondan O'rta Osiyoga ip-gazlama matolar va paxta chigiti ortilgan karvonlar kelgan; Xitoydan guruch keltirilgan; O'rta Osiyodan Xitoyga uzum, yong'oq, anor va boshqa dehqonchilik mahsulotlari tashilgan. Buyuk ipak yo'lida joylashgan me'morchilik yodgorliklarini o'rganganda har xil hunarmandchilik buyumlari, turli mamlakatlarning tangalari topilgan. Masalan, Termizdan **Rim tangalari xazinasi**, Afrosiyobdan **Rim sopol shamdonlari, Misr muhrlari** topilgan.

Buyuk ipak yo'li Chjan Szyan tavsifida. Mil. av. 138-yili Xitoy imperatori **U Di** elchi **Chjan Szyanni** ko'chmanchi xun qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo'natadi. Xunlar Xitoyning shimoliy tumanlarini talon-toroj qilardilar. Elchi xunlar qo'lga asir tushadi va o'n yilcha hibsdan yotadi. U asirlikdan qochib, Markaziy Tyan-Shan dovonlari orqali Issiqko'lga chiqadi. Norin daryosi bo'ylab Farg'ona vodiysiga keladi. Bu yerda o'zi uchun vodiydagi shaharlarni kashf etadi. Mazkur shaharlar Farg'ona podsholigiga qarashli ekanini bilib oladi. Tabiiyki, elchi Xitoyning xunlarga qarshi kurashida Farg'ona hukmdorining yordamini olmoqchi bo'ladi. Lekin Farg'ona hukmdori faqat savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildiradi. Chjan Szyan janub sari sayohatini davom ettiradi. Oloy vodiysidan o'tib, yana xunlar qo'lga tushib qoladi. Bir yildan keyin vataniga qaytadi. Elchi Xitoy imperatoriga ko'rgan-bilganlarini so'zlab beradi. U Xitoyga Farg'ona otlaridan birini va

beda urug'idan olib kelgandi. Bu otni xitoyliklar «Samoviy» deb ataganlar. Imperator U Di o'z saroyi yaqinida beda ektiradi. Keyinchalik u Xitoyning butun shimoli bo'ylab ekiladigan bo'ladi. Xitoyliklar anor, uzum, bodring va yong'oq ekishni ham yo'lga qo'yadilar.

Shunday qilib, Chjan Szyan yurgan yo'l bo'ylab **mil. av. II – I asrlarda** Xitoy mamlakatini Markaziy va G'arbiy Osiyo bilan bog'lovchi jahon ahamiyatiga ega Buyuk ipak yo'li o'tadigan bo'ldi. Farg'ona vodiysida Ipak yo'li **ikki tarmoqqa** bo'lingan. Birinchisi O'zgandan Axi shahri, Qamchiq dovoni orqali (yozda) Iloq vohasi va Toshkentga kelgan. Ikkinchisi janubiy tarmoq bo'lib, O'zgandan O'sh, Quva, Marg'ilon, Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham bo'lgan. Biri Axsidan Koson orqali Chust vohasiga o'tgan. Yana biri Pop, Zarkent orqali konchilar qarorgohlariga va yaylovlarga borgan. Qurama va Oloy tog'lari qazilma boyliklari va Zarafshon daryosi boyliklari tufayli bu yo'l tarmog'ini «**Oltin yo'l**» deb atashgan. Arxeologlar ibodat tartiblari bilan bog'liq jez milga qo'ndirilgan qimmatbaho toshlar qadalgan qush shaklini topganlar. Markaziy Osiyo kumushiga ehtiyoj sezgan mamlakatlarga boradigan «**Kumush yo'l**» ham bo'lgan. Bu yo'l Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borgan. U Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i hisoblanib, VI asrdan boshlab ishga tushgan.

### 3-BOB. ILK O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

#### 3.1. YER-SUV MUNOSABATLARI

Dehqonchilikdagi yutuqlar. Qadimgi Turonda Qang' va Kushon davllari ravnaq topgan davrda yuksalish boshlangandi. Bu o'zgarishlar mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Shaharlar soni ko'paydi, maydonlari kengaydi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniy hayotning markaziga aylandi. Yirik sug'orish tarmoqlari qazilib, sug'orma dehqonchilik maydonlari kengaydi. Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalak (charxparrak) kabi suv inshootlari kashf etildi. Mazkur inshootlar baland joylarga ham suv chiqarish imkonini berdi. Ziroatchilikda g'allakorlik, polizchilik, paxtachilik va bog'dorchilik kabi sohalar rivoj topdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Shaharlarda aholining gavjumlashuvi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab ortib bordi. Natijada iqtisodiy hayotda xomashyo yetkazib beruvchi qishloqlarning nufuzi ko'tarildi. Birinchidan, yerga, ekin maydonlariga bo'lgan munosabat, ularga egalik qilish shakli o'zgarib boshladi. Ikkinchidan, o'troq ziroatkor aholi bilan chorvador qabilalar o'rtasidagi aloqalar rivojlandi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining o'troqlashuvi kuchaydi. Natijada dehqonchilik uchun yaroqli obikor yerlarga talab ortib bordi. Qo'riq va bo'z yerlarga suv chiqarish, katta-katta yer maydonlarini o'zlashtirish jadallashdi. Yangi yer maydonlarining ma'lum bir qismi bu ishlarga bosh-qosh bo'lgan mulkdor tabaqa vakillari, qishloq oqsoqollari, urug' va qabila boshliqlari qo'lga o'tadi va vorisiy mulkiga aylanadi. Shu tariqa katta yer egaligiga asoslangan **mulkdorlar tabaqasi** shakllandi.

Dehqonlar va ular xo'jaligidagi hayot. **Sarkorlar** o'zlariga sug'orish tarmoqlarining yuqori qismidan, ayniqsa, to'g'on boshi atrofidan yer ajratib oladilar. Bu orqali yo'l bilan suv taqsimotini nazorat qilish, qishloq aholisi ustidan o'z ta'sirini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa ular o'z ta'sir doiralarini kengaytirib, bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydi. O'sha zamonlarda ular **dehqonlar** deb atalgan. Dehqonlar shaharlarda hashamatli qasrlar va saroylar, savdo va hunarmandchilik do'kon-u rastalaridan iborat kattagina xo'jalikka ega edilar. Qishloqlarda ekinzorlari, ko'shk va istehkomli qo'rg'onlari, objuvoz-u moyjuvoz va

tegimonlari bo'lardi. Qul va cho'rilardan iborat xizmatkorlari ularning xo'jaligida mehnat qilgan. Har bir dehqonning **30 – 40, 50 – 100**, ba'zan undan ortiq chokarlari bo'lgan. **Chokarlar** baquvvat, abjir va o'z xo'jayiniga sadoqatli yigitlardan tanlab olingan. Ayrim manbalarda o'sha davr udumi bo'yicha, xojasi vafot etganda, chokarlar u bilan birga tiriklayin ko'milishi lozimligi qayd etilgan. Chokarlar dushmanlarga qarshi harbiy yurishlarda, ziroatkor aholiga hukm o'tkazishda qo'l kelgan.

*Qishloq jamoalarining tabaqalanishi.* Yer egaligi munosabatlari-ning tarkib topishi bilan ijtimoiy hayotda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Patriarxal qishloq jamoalari tabaqalanib, yerli mulkdor dehqon va unga qaram bo'lgan yersiz hamda erksiz **kadivarlarga** ajralib bordi. Qishloq jamoalari yerlarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega erkin ziroatchilar tabaqasi **kashovarlar** deb atalardi. Ulardan ma'lum bir qismi jamoa yerlaridan ayrilib, kadivarlarga aylanib boradi. Ayrim dehqonlar vohalarida dehqonchilik kuchayib, o'z viloyatlarida hatto mustaqil hokim bo'lib oladilar.

### 3.2. ILK O'RTA ASR DAVLATLARI

*Xorazm davlati.* Zaiflashib qolgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqadi. Uni mahalliy **afrig'iylar** sulolasiga mansub xorazmshohlar idora qila boshlaydi. **Milodiy III asr o'rtalarida** Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida joylashgan **Tuproqqal'a** shahar xarobasining o'rni bo'lgan. Shaharning mustahkam labirintli (g'ulomgardish) darvoza og'zi istehkomi – darvozaxonasi bo'lgan. Shahar markazini kesib o'tgan ko'chani har ikki tomoni bo'ylab shaharliklarning turarjoylari joylashgan. Shahar markazidan yuqoriroqda ibodatxona majmuasi, uning shimoli-g'arbiy burchak qismida esa balandligi **25 m** bo'lgan uch minorali xorazmshohlar qasri qad ko'targan. Shaharning umumiy maydoni **26 gektarni** tashkil etgan. Bu davrda Xorazmda atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralgan shaharlar, qishloqlar ko'p bo'lgan.

**Milodiy 305-yili** xorazmshoh **Afrig'** o'z qarorgohini Xorazmning qadimiy poytaxti **Kat** shahriga ko'chiradi. **Al-Fir** qasri ichida shoh o'ziga saroy qurdiradi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Xorazmning afrig'iy shohlari betiga shoh va orqasiga suvoriy tasviri tushirilgan kumush tangalar zarb etib, mamlakat ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo'lib oladilar.

**Abu Rayhon Beruniyning** yozishicha, xorazmshohlar unvoni dastlab **siyovushlar sulolasi** tomonidan qabul qilingan. **Mil. av. VII asr-**



da shakllangan Qadimgi Xorazm davlatini avval **ahamoniylar**, so'ngra esa **afriqiylar** boshqargan. Beruniy bu haqda: «*Siyovush ibn Kayxusravning Xorazmga kelishidan... tarix oldilar. Shu vaqtdan Kayxusrav... turk podsholari (ustidan) hukmronligini yurg'izgan edi*», – deb yozgan. O'sha zamonda **Kayxusrav, Saksafar, Farasman, Xusrav** kabi hukmdorlar «**xorazmshoh**» unvoniga sazovor bo'lishgan.

Moddiy-madaniy topilmalardan ayon bo'lishicha, **III asrda** Xorazm hududida iqtisodiy-siyosiy jihatdan mustaqil bir nechta sug'orma dehqonchilik vohalarini boshqargan mayda hokimliklar tarkib topgan. *Tuproqqal'adan qo'lida burgut qo'ndirilgan tojkor hukmdor haykali yoki Anqaqal'a yaqinidan qo'lida shohboz lochin tutgan tojkor tasviri so'qilgan tanganing topilishi, shubhasiz, hukmronlik ramzidan dalolat beradi.* Bu davrda Xorazmda sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq, ilm-fan, san'at, xususan, haykaltaroshlik yuqori darajada rivoj topgan. **III asrdayoq Qang'** davlatidan ajralib mustaqillikka erishgan Xorazm o'zaro kurashlarda g'olib chiqadi. Natijada **afriqiylar sulolasi** hukmronligiga asos solinadi.

Xorazm xioniylar, kidariylar, eftallar hamda Turk xoqonligi davrida ham o'zining siyosiy mustaqilligini saqlab qoladi. Vizantiyalik tarixchi **Menandr** Xorazm **VI asrning 60-yillarida** Vizantiya va turklar bilan diplomatik aloqalar olib borganligi to'g'risida ayrim ma'lumotlarni qayd etgan.

*Xioniylar davlati.* **IV asr o'rtalarida** O'rta Osiyoga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan ko'chmanchi chorvador xion qabilalarining hujumi boshlanadi. **Xioniylar 353-yili Grumbat** boshchiligidagi So'g'dga bostirib kiradilar. So'ngra ular Erondagi **Sosoniylar** davlati bilan to'qnashadilar. Dastlabki janglardayoq sosoniylar shohi **Shopur II (309 – 379)** xioniyatlardan yengiladi. So'ngra o'zaro sulhga kelishilib, ittifoqlik iplari bog'lanadi. O'rtadagi ittifoq goh buzilib, goh tiklanib turadi. Nihoyat, **IV asrning 70-yillarida** O'rta Osiyoda xioniylar hukmronligi o'rnatiladi. Sirdaryo bo'ylaridan to Amudaryo havzasigacha bo'lgan keng hududda xioniyatlarning kuchli davlati qaror topadi. Bu davlat **120 yildan oshiqroq** hukmronlik qildi.

*Kidariylar davlati.* **V asrning 20-yillarida** Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali Xorazm hamda Amudaryo havzasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – **toxarlar** kirib keladi. Toxarlar kushonlarning avlodidan bo'lib, **Kidar** ismli hukmdor ularga yo'l boshchi edi. Tez orada kidariylar Amudaryo havzasi hamda G'arbiy va Janubiy Sug'd yerlarini ishg'ol etib, Xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'rnatganlar. **Balx** shahri bu yangi davlatning poytaxtiga aylanadi. Aftidan, kidariylar xioniylar bilan ittifoqchi sifatida harakat qilganlar va tajovuzlarini janubga tomon

kengaytirishga intilishgan. **V asrning 30 – 50-yillarida** kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyat kuchayadi. **456-yil** bo'lib o'tgan navbatdagi to'qnashuvda sosoniylardan yengilgan kidariylar O'rta Osiyoni tark etib, **Shimoliy Hindistonga** chekinadilar. U yerda **75 yil** hukmronlik qiladilar.

**Eftaliylar davlati.** Eftallarning ilk ajdodlari Xitoyning shimoli-g'arbiy hududida (**Xesi**) yashagan turkiy xun qabilalari ittifoqi tarkibida bo'lgan. Xitoy manbalarida ta'rif etilishicha, **mil. av. VII asrda** mallasoch, ko'zi ko'k xunlarning bir qismi yashab turgan joylarini tashlab, **Pomir tog'i etaklariga** kelib o'rnamashgan. Xunlar davlati yemirilgach, ularning ikkinchi qismi **Jung'ariyaga**, **Elsuvi (Ili)** havzasiga borib o'rnamashgan. Bu yerda **Yueban** etnik uyushmasini tashkil qilganlar. Yuebandan **Eftal** nomi bilan atalgan yirik guruh ajralib, **III asrda** Turonning janubiy va Harkon (**Kaspiy**) dengizining shimolida yastangan yaylovlarga o'rnamashib, boshqa turkiy elatlar bilan aralashib ketadi. Eftallar **IV asrning 2-yarmida** ko'payib, avval xioniylarni, so'ngra boshqalarni tobe etib, davlat tuzganlar. **V asrda** ular Kidariylar davlatini mag'lub etib, Xurosonning talay qismini egallaganlar va sosoniylar bilan to'qnashganlar.

**V asr o'rtalarida** diyorimizga kirib kelgan **eftaliylar** yozma manbalarda **eftal**, **xaftal**, **xaytal** degan nomlar bilan tilga olinadi. «Eftal» degan nom ilk bor «Xeptal» shaklida **V asr arman manbalarida** uchraydi. Bu nom, aslida, **Eftalon** deb yuritilgan shoh nomidan olingan. Uni **Vaxshunvar** deb ham ataganlar. Qisqa vaqt ichida **Chag'oniyon**, **Toxariston** va **Badaxshon** bo'ysundiriladi. Su'g'dda xioniylar hukmronligiga barham beriladi. Eftaliylar davlati nihoyatda kuchayadi. **456-yili** o'zaro aloqa o'rnatish maqsadida Xitoyga elchi yuboriladi. Eftaliylardan xavfsiragan sosoniylar ularga qarshi yurish qiladi. Jang-u jadal sosoniylar shohi **Pero'z** hukmronlik qilgan davrda (**459 – 484**), ayniqsa, avjiga chiqadi. Pero'z eftaliylarga qarshi **3 marta** yurish qiladi. Dastlabki janglardayoq u mag'lubiyatga uchrab, asir tushadi. Vizantiya imperatori **Zenon** yuborgan o'lpon evaziga asirlikdan ozod etiladi. Biroz o'tgach ikkinchi marta eftaliylarga qarshi qo'shin tortadi. Bu yurishda **Vizantiya elchisi** ishtirok etadi. Ikkinchi yurish ham muvaffaqiyatsiz tugaydi. Yana asir olingan Pero'z **30 xachirga yuklatilgan kumush dirham** bilan o'lpon to'lash majburiyatini oladi. Biroq uning xazinasidan **20 xachirga** yuk bo'ladigan mablag' topiladi, xolos. Shahzoda **Kubod** eftaliylar yurtiga garovga yuborilib, Pero'z tutqunlikdan ozod etiladi. Ikki yil davomida eftaliylarga katta o'lpon to'lab turiladi.

Pero'z **484-yili** uchinchi yurishga otlanadi. Bu galgi urush shohning halokati bilan tugaydi. Marv ishg'ol qilinib, Eron ustiga juda og'ir o'lpon

yuklanadi. Pero'z vorislari: **Kubod (488 – 531), Anushervon (531 – 579)** hukmronlik qilgan davrlarda eftaliylar bilan munosabatlar ancha yumshagan. Keyinchalik eftaliylar Kobul, Panjob, Urumchi, Qorashar, Xo'tan, Koshg'ar shaharlarini ham o'z tasarrufiga kiritadilar. Shunday qilib, **V asrning 2-yarmi va VI asr boshlarida** O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarini birlashtirgan Eftaliylar davlati tashkil topadi.

### 3.3. EFTALIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Xo'jalik hayoti. Eftaliylar kelib chiqishiga ko'ra ko'chmanchi qabilalarga mansub edi. Chorvachilik bilan shug'ullanib, yaylovlarda kigiz o'tovlarda yashagan eftaliylar zabt etgan yerlarida obod dehqonchilik vohalariga va savdosi rivojlangan shaharlarga ega bo'ldilar. Yillar o'tishi bilan ular mahalliy o'troq aholi bilan qorishib ketadi. Toxariston va So'g'd dehqonchilik va bog'dorchilik markazi hisoblanardi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilardi. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, **V – VI asrlarda** Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida paxta ekilardi. Paxta tolasidan to'qilgan oppoq va mayin matoga Xitoy bozorlarida talab katta bo'lgan. Chunki Xitoyda hali paxta ekilmasdi. Aholining dashtliklarda yashovchi yarim ko'chmanchi qismi chorvachilik, xususan, mayda va yirik shoxli hayvonlar boqish, tuyachilik, tog'li va tog'oldi mintaqalarda esa yilqichilik bilan shug'ullanardi. Farg'ona vodiysi hamon zotli arg'umoqlari bilan mashhur edi.

Yer egaligi. Ziroatkor yerlarning katta qismi hali ham qishloq jamoalari tasarrufida bo'lsa-da, ularning ma'lum bir qismi dehqonlar qo'lida to'plana borgan. Natijada kashovarlar dehqonlar asoratiga tushib, kadivarlarga aylana borgan. Yaylovlarning asosiy qismi esa qabila va urug' jamoalari hamda ularning oqsoqollari – **xvabulari** tasarrufida edi. Hozirda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan ta'minlab turgan **Zog'ariq (Zovariq)** va **Bo'zsu**v, Samarqand viloyati janubiy tumanlarining asosiy suv manbayi **Darg'om kanali** V asrning eng yirik sug'orish tarmoqlari hisoblanadi. Bu davrda o'q, gupchak tishli g'ildirakka asoslangan suv inshootlari – charxpalak, chig'ir va boshqalardan foydalanilgan. Xuddi shu davrda Chag'oniyon (Surxondaryo), Samarqand, Buxoro, Kesh (Shahrisabz), Naxshab (Qarshi) va Toshkent atroflari to'la o'zlashtirilib, alohida dehqonchilik vohalari shakllandi. Keyinchalik mazkur vohalarda yetakchilik qilgan mayda hokimliklar vujudga keldi.

Savdo va pul muomalasi. Eftaliylar Ipak yo'lini o'z nazorati ostida tutib turishga harakat qilgan. Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya bilan xalqaro savdoda ular faol qatnashardilar. Ipak yo'li savdosida sasoniy savdogarlari bilan raqobatda **so'g'diylar** asosiy vositachilik qilardi. Mamlakatda pul muomalasi tartibga solinadi. Ichki va tashqi savdoda dastlab sasoniylarning kumush tangalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, Buxoro, Poykand, Vardona, Naxshab, Samarqand va Xorazmda mahalliy hokimlar chaqa tangalar zarb ettirgan. Eftaliylar davrida aholining tabaqalanishi, mulkiy tengsizlik kuchayib borgan. Shu boisdan davlat boshqaruvida qonun va qoidalar qaror topgan. Davlat harbiy kuchga tayangan. Jinoyat uchun juda qattiq jazolar belgilangan.

Madaniy hayot. Ko'chmanchi qabilalarning dehqonchilik vohalariga kelib o'mashishlari bilan ma'lum darajada dasht udumlari va e'tiqodiy tasavvurlari o'troq aholi hayotiga kirib bordi. Ko'chmanchilar mahalliy aholi bilan qorishib, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol qatnashdilar. Madaniy hayotdagi bunday o'zgarishlar, xususan, binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atning ayrim jabhalarida ko'proq namoyon bo'ladi. Bu davr me'morchiligida, ayniqsa, **qasrlar** alohida o'rin tutgan. Uning ayrimlari hatto ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga **pandus** orqali chiqilgan.

O'rta Osiyo aholisi turli tillarda so'zlashgan. Chorvador aholi turkiy tilda, o'troq aholining bir qismi so'g'd tilida, bir qismi turkiy tilda so'zlashgan. Bu davrda **so'g'd tili** xalqaro savdo tili bo'lgan. **V – VI asrlarda** so'g'd yozuvi, xorazm va eftaliy yozuvlari tarqalgandi. **Eftaliylar xati** Baqtriya yozuvi asosida paydo bo'lib, **22 harfdan** iborat edi. Xat **chapdan o'ngga** tomon ko'ndalangiga yozilgan. Bu davrda Xitoy, Hindiston va Eron bilan madaniy aloqalar kengaygan. **V asrda** o'rta osiyolik shishasozlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlar yasashni o'rgatadilar. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yarqiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyoning **rangli shishasidan** foydalanganlar.

Shunday qilib, O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar bilan omixtalashib, ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishiga xizmat qildi.

### 3.4. O'RTA OSIYO TURK XOQONLIGI DAVRIDA

Xoqonlikning tashkil topishi. **VI asr o'rtalarida** Oltoy va Janubiy Sibirida yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan **Turk xoqonligi** vujudga

keldi. Uning asoschisi **Bumin** edi. **552-yili** Bumin «xoqon» deb eʼlon qilindi. **Oltoy** xoqonlikning markazi etib belgilanadi. Turklarning gʻarbga yurishlariga **Istami** boshchilik qildi. Unga «**Yabgʻu xoqon**» degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar boʻysundiriladi. **555-yili**yoq turklar Sirdaryo va Orol dengizi boʻylarigacha choʻzilgan keng oʻlkalarni zabt etadi. Xoqonlik chegarasi Eftaliylar davlati hududlariga borib yondashadi. 558-yili turkiylar Yoyiq (Ural va Itil (Volga) boʻylarini zabt etadi. **575–576-yillarda** Shimoliy Kavkazning bepoyon yerlarini egallab, Qrim yarimoroliga kirib boradilar. Sosoniylar Toxariston va Chagʻoniyonni eftaliylardan tortib oladilar.

Turk xoqonligining eftaliylarga dushmanlik munosabati xoqonlikni Eron, soʻngra Vizantiya bilan yaqinlashtirdi. Ayniqsa, sosoniylar Eftaliylar davlatining tamomila barbod boʻlishidan manfaatdor edilar. **Xusrav I Anushervon (531 – 579)** tashabbusi bilan yuzaga kelgan harbiy ittifoq Eron shohining Istamiga kuyov boʻlishi orqali mustahkamlanadi. Eron askarlarining Babxga hujumi koʻmagida turklar **563-yili** Eftaliylar davlati hududiga bostirib kiradilar. **Parak** (Chirchiq) vodiysi va uning markazi **Choch** shahri ishgʻol etiladi. Birin-ketin Samarqand, Kesh va Naxshab egallanib, Buxoroga yaqinlashadilar. **Sakkiz kun** davom etgan shiddatli jangda eftaliylar yengiladi. Shunday qilib, janubdan sosoniylar, shimoldan esa Turk xoqonligidan **563 – 567-yillarda** zarbaga uchragan Eftaliylar davlati inqirozga yuz tutadi. Amudaryoning janubiy qirgʻoqlarigacha boʻlgan viloyatlar Eron, uning sohillari boʻylab Kaspiy dengizigacha boʻlgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga oʻtadi. Endilikda Eron Amudaryodan to Suriyagacha Ipak yoʻli ustidan nazorat oʻrnatdi. Uzoq Sharqdan Eron hududlarigacha esa turklar nazorati oʻrnatilib, Eron orqali Vizantiya bilan savdo aloqalari yoʻlga qoʻyiladi. **VI asrning 70 – 80-yillarida** Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo boʻylarigacha, Manjuriyadan to Kimmeriy (Qora dengiz) Bosforigacha choʻzilgan ulkan hududda Turk xoqonligi tashkil topdi.

**Turk xoqonligining boshqaruvı.** Turk xoqonligi qanchalik katta boʻlmasin, chinakam markazlashgan davlat emasdi. Uning asosi turkiy tilda soʻzlashuvchi qabilalar ittifoqidan iborat boʻlgan. Mazkur ittifoqni xoqon boshqargan. Hukmdorning hokimiyati urugʻ-aymoqchilik udumlariga tayangan harbiy-maʼmuriy boshqaruvga asoslangan. Mamlakat koʻchmanchi chorvador va oʻtroq dehqon aholiga boʻlinardi. Koʻchmanchi chorvador aholi «**budun**» yoki «**qora budun**» nomlari bilan yuritilgan. Budun, oʻz navbatida, qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi. U «**oʻn oʻq budun**» yoki «**oʻn oʻq el**» deb yuritilgan. Oʻn oʻq budun yoki

elning hokimi «yabg'u» yo «jabg'u» nomi bilan atalardi. Yabg'u darajasiga faqat xoqon urug'iga qon-qarindosh bo'lganlarga ko'tarilardi. Shu boisdan ba'zan u «**Yabg'u xoqon**» deb ulug'langan. O'n o'q el sardori bir tuman (o'n ming) suvoriyni safga tortardi. Bunday harbiy bo'linma tumanboshisi «**shod**» deb yuritilgan. Turk xoqonlari qaram yerlarning ichki ishlariga aralashmaydilar. **VI asr**da Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida **o'ndan ortiq** mayda hokimliklar mavjud edi. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi yerli sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan faqat **boj** va **yasoq** undirib olish bilan cheklanardilar.

Xoqonlikning bo'linishi. Turk xoqonligi turli-tuman turkiy qabilalarni kuch bilan birlashtirish natijasida tuzilgandi. Qabilalar markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka intilganlar. Bu xoqonlikning mustahkam markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermagan. Mahalliy hokimlar orqali boshqaruv tartibi xoqonlikni zaiflashtira borgan. Oqibatda Turk xoqonligi **VI asrning 80-yillari oxirlarida** ikkiga – Sharqiy turk xoqonligi va G'arbiy turk xoqonligiga bo'linib ketadi.

*Buyuk turk xoqonligi barpo etilgan el-yurt Oloy tog'lari sharqidan to Uzoq Sharqqacha bo'lgan hudud, ya'ni Janubiy Sibir, Urxun havzasi (Mo'g'uliston), Shimoliy Xitoy Sharqiy xoqonlik tasarrufida bo'lgan.* Mazkur xoqonlikning poytaxti **O'tukan vodiysi** (Mo'g'uliston)da qaror topgan. *Oloy tog'larining g'arbida joylashgan o'lkalar: Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo va Amudaryo havzalari hamda ularga tutashgan hudud G'arbiy xoqonlik tomonidan idora etilgan.* Qarorgohi **Yettisuv**da joylashgan. G'arbiy xoqonlik o'troq voha va viloyatlarni boshqarishda garchi qator mavjud mahalliy sulolalarni saqlab qolgan bo'lsa-da, ammo strategik jihatdan muhim ahamiyatga molik ayrim o'ikalarda turkiy hokimiyatni tashkil etish maqsadida xoqon xonadoniga tegishli mansabdorlar tayinlangan. Masalan, **Farg'onada ixshid, Ustrushonada afshin, So'g'dda ixshid, Buxoroda buxorudot, Dabusiyada dabusshoh, Xorazmda afrig'iylar** hokimiyatlari mavjud bo'lgan, **Choch** viloyati **tudunlar, Toxariston** esa **yabg'ular** tomonidan boshqarilgan.

### 3.5. G'ARBIY TURK XOQONLIGI

Xoqonlikning hududlari va boshqaruv. **G'arbiy turk xoqonligi** tasarrufiga O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismi kirardi. Uning markazi **Yettisuv** edi. Sharqiy xoqonlik aholisining asosiy qismi chorvador

ko'chmanchilar bo'lsa, G'arbiy xoqonlik aholisining kattagina qismi o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan mashg'ul edi. **VII asrning 1-choragida** G'arbiy xoqonlik nihoyatda kuchayadi. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, janubda esa Sind daryosi bo'ylariga borib taqaladi. Xoqon **To'n yabg'u (618 – 630)** hukmronlik qilgan davrda boshqaruv tartiblari isloh etildi. Viloyat hokimlarini xoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ular ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida mahalliy hukmdorlarga xoqonlikning «yabg'u» unvoni beriladi. Natijada ular xoqonning noibiga aylanadilar. Shu bilan birga, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytiriladi. Ular huzuriga xoqonlik noiblari – **tudunlar** yuboriladi. Biroq ichki kurash oqibatida G'arbiy turk xoqonligi zaiflashib boradi.

*ijtimoiy hayot.* Turk xoqonligiga birlashgan aholining hayoti ham, xo'jaligi ham turlicha edi. Ko'chmanchilarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. Yilqichilik va tuyachilik muhim o'ringa ega edi. Chorvador ko'chmanchilar orasida mulkdorlar, ularning xizmatida esa ko'plab qul, cho'ri va xizmatkorlar bo'lardi. Mulkdorlarning eng yirigi xoqonning o'zi edi. Xoqonlikda shaharlar va qishloqlar ko'p bo'lgan. Aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanardi. Dehqonchilikda, asosan, donli ekinlar: bug'doy, arpa, sholi va tariq ekilardi. Paxta, beda ekish, bog'dorchilik va tut ko'chatlari o'tqazish hamda uy hayvonlarini boqish bilan shug'ullanilardi.

Hunarmandchilikda kulolchilik, to'qimachilik, sarrojlik, miskarlik, temirchilik va zargarlik ancha rivoj topgandi. Turk hunarmandlari yasagan zeb-ziynatlar va qurol-yarog'lar xilma-xilligi va nihoyatda puxtaligi bilan ajralib turardi. Farg'ona va So'g'dda oltin, mis, temir va simob, lloq (Eloq)da qo'rg'oshin, kumush va oltin qazib olinardi. Ichki va tashqi savdo-sotiq ishlari ham shahar aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri edi. Ayniqsa, so'g'd savdogarlarining mavqeyi baland bo'lgan. Davlat jahon savdo ahli bilan juda yaxshi munosabatda edi. Chunki saltanat tashqi va ichki savdodan katta foyda ko'rardi. Eron bilan munosabatlarning keskinlashishi oqibatida karvon yo'llari janubdan shimolga tomon ko'chgandi.

*Xalq qo'zg'olonlari.* **VII asrning 1-yarmida** G'arbiy turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida iqtisodiy aloqalar, ayniqsa, faollashdi. Bu davrda Xitoyga **to'qqiz marotaba** savdo elchiligi yuboriladi. Birgina **627-yilning** o'zida Buxoro, Samarqand, Ishtixon va Ustrushona (Jizzax va O'ratepa viloyatlari)dan birlashgan savdo karvoni Xitoyga yetib boradi. **VI – VII asrlarda** O'rta Osiyoda dehqonlar tomonidan yerlarni egallash jarayoni

tobora avj olib, zulm kuchayadi. Kashovarzlarning kadivarlarga aylanishi tezlashadi. Qashshoqlik, jabr-zulm va dehqonlarning asoratiga qarshi aholi bosh ko'tarishga majbur bo'ladi. Shunday xalq qo'zg'olonlaridan biri **585 – 586-yillarda Buxoroda** yuz beradi. Qo'zg'olonga xoqon xonadoniga mansub **Abruy** boshchilik qildi. Qo'zg'olon natijasida Abruydan jabrlangan mulkdor dehqonlar va boy savdogarlar Buxoro viloyatini tark etib, **Turkiston** va **Taroz** atrofiga borib o'r'nashadilar. Ular turk xoqoniga murojaat qilib, qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda yordam berishni so'raganlar. Turk xoqoni **Qoracho'rin** o'g'li **Sheri Kishvar** (El Arslon) boshliq qo'shin yuboradi. Abruy o'ldirilib, qo'zg'olon bostiriladi. Kadivarlar va xizmatkorlar o'z xo'jayinlari – dehqonlarga qaytariladi.

### 3.6. MAHALLIY HOKIMLIKLARNING TASHKIL TOPISHI

Mahalliy hokimliklar. **V – VII asrlarda** mamlakat bir necha mayda hokimliklarga bo'linib ketadi. Viloyat va uning yirik shaharlariga tayangan **15 dan ortiq** mustaqil hokimliklar tashkil topadi. Bu mayda hokimliklar avval eftaliylar, so'ngra Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ammo hukmronlar ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan ular o'z mustaqilligini ma'lum darajada saqlab qoladilar.

So'g'd. Mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi **So'g'd** ixshidlari edi. So'g'dda aholi gavjum yashardi. So'g'diylar dehqonchilik va bog'dorchilik, ayniqsa, uzumchilikda nihoyatda omilkor edilar. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, eshak va tuya boqilardi. Ayniqsa, So'g'dning hitori qo'ylari va tulporlari juda mashhur edi. So'g'd shaharlari bu davrda hunarmandchilik markaziga aylanadi. Ularda to'qimachilik, kulofchilik, ko'nchilik, chilangarlik, taqachilik, najjorlik, qurolsozlik va zargarlik juda rivojlangandi. So'g'd tog'laridan oltin, jez, novshadil va yalama tuzlar kavlab olinardi. Shaharlarda hunarmandchilikning yuksalishi ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishiga imkon beradi. So'g'ddan Sharqiy Osiyo va Xitoyga qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zeb-ziynatlar, turli-tuman matolar, dorivorlar olib borilardi. Hatto 718-yili hadya tariqasida Samarqanddan yuborilgan dubulg'adan nusxa olib, Xitoy qurolsozlari temir qalpoq (dubulg'a)lar bilan ta'minlaganlar.

Toxariston. Nisbatan mustaqil hokimliklarning bir nechtasi **Toxaristonda** joylashgandi. **Balx** shahri Toxariston poytaxti bo'lgan. Toxariston avval eftaliylar, so'ngra Turk xoqonligi tomonidan bo'ysundirilgan.



Toxariston aholisi **budda diniga** e'tiqod qilgan. Toxariston **25 harfli yozuviga** ega bo'lgan. U ko'ndalangiga chapdan o'ngga yozilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Tog'liklari esa po'stin va jun chakmon kiyishgan. Aholining asosiy qismi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullangan. Toxaristonda, ayniqsa, qurolsozlik yuksalgan. Chokarlari kamon, gurzi, cho'qmor, xanjar, shamshir va sovutlar bilan qurollanardi. Toxaristonda shishasozlik va to'qimachilik ham ancha rivoj topgandi. Toxariston ko'p mamlakatlar bilan savdo aloqalari olib borgan, o'z chaqa tangalari ichki savdo muomalasida yurgan.

**Farg'ona.** **Farg'ona** hukmdorlari **ixshid** deb atalgan. Aholi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekan. **Koson, Axsikat** va **Quva** (Qubo) kabi yirik shaharlarda hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo'lgan. Qo'shni mamlakatlarga bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan. O'troq aholi bilan bir qatorda chorvador aholi ham yashagan. Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan otlarning dong'i jahonga taralgan.

**Choch va Iloq.** Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita hokimlik mavjud bo'lgan. Manbalarda ular **Choch, Iloq** nomlari bilan tilga olinadi. Chochning markazi **Choch** shahri bo'lib, hukmdori «**tudun**» deb yuritilardi. Iloqning markazi Tunkat, hokimlari dehqon deb atalardi. Choch va Iloqda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada rivojlangandi. Choch va Iloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoqtoshlarga boy edi. Ipak yo'lining o'lka orqali o'tishi Choch va Iloqda ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon beradi. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorlarning surati, orqasiga gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar.

**Boshqaruv ma'muriyati.** Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashkil topgandi. Boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib hujjatlashtirilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'yilgan.

**Shahar me'morchiligi.** **V – VII asrlarda** O'rta Osiyoda ziroatkor yerlar kengayib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti yaxshilandi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloqlarda «**ko'shk**», «**qasr**», «**qo'rg'on**» va

«qo'rg'oncha» nomlari bilan shuhrat topgan istehkomli turarjoylar qad ko'tardi. Istehkomli qasr, qo'rg'on va ko'shklar, asosan, tashqi dushman hujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar to'planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovqat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan. O'rta asrlarda shaharlar **uch qism**dan iborat bo'lgan, ular «ark», «shahriston», «rabod» deb yuritilgan. Shaharlarning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o'rab olingan. Ularning bir nechta darvozalari bo'lgan. Shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor xandaq vazifasini bajargan.

### 3.7. VI – VII ASRLARDA MADANIY HAYOT

Yozuv. Bu davrda So'g'd, Xorazm va Toxariston aholisining alohida yozuvlari bo'lib, So'g'd va Xorazm yozuvlari **oromiy yozuvi** asosida yuzaga kelgandi. Toxar yozuvi **baxtar yozuvi** asosida shakllangandi. Xat, hujjat va ayrim axborotlar, asosan, charm, yog'och, sopolga, kamdan kam hollarda qog'ozga bitilgan. Chunki qog'oz juda qimmat edi. Ayrim bitiklar esa hatto podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo'jalik kirim-chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik hujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor. Bizgacha yetib kelgan So'g'd yozuvlari **Panjikent** yaqinidagi **Qal'ayi Mug'da**, **Sharqiy Turkistondagi Turfan** shahri yaqinida, **Samarqandning** qadimiy xarobasi **Afrosiyobda** qayd etilgan. So'g'dda o'g'il bolalar **beshtash yozuv** va **hisobga o'rgatilar**, ular **20 yoshga** kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilardi. So'g'd xati asosida **uyg'ur** va **turk yozuvi** shakllangan. Uyg'ur yozuvidan esa, o'z navbatida, **mo'g'ul** va **manjur xatlari** paydo bo'lgan. **Ko'kturk xati** ham qo'llanilgan. Turklar-ning bu yozuvi ikkinchisiga tutashib ketadigan **38 – 40 harfdan** iborat edi. Qadimgi ko'kturk bitiklari (**Kultegin** va **Bilga xoqon** bitiklari) Oltoy va Sharqiy Turkistondan tashqari Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topib o'rganilgan. Ular qabr toshlari, sopol va metall buyumlar, yog'och hamda tangə pullarga bitilgan.

Diniy e'tiqod. VI – VIII asrlarda O'rta Osiyoda **zardushtiylik**, **bud-daviylik**, **nasroniylik**, **moniylik** va **qam** (shomoniylilik) kabi bir nechta mahalliy dinlar mavjud bo'lgan. Aholining ko'pchiligi zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan. Samarqand viloyatining **Urgut** tumani butun O'rta Osiyoda **nestorianlik** markazlaridan biri bo'lgan. Moniy dini ham keng tarqalgandi. Mazkur din ta'limoti bo'yicha, olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi

yaratuvchi – yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir. **Ibodot, ro'za, sadaqa** moniy dinining arkoni hisoblangan.

Turk xoqonligining chorvador aholisi qadimdan **shomonlik** diniga sig'inib kelgan. Bu din jon va ruhlarga, ota-bobolar ruhiga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimgi turklar o'z dinini «**qam**» deb yuritganlar. Chunki ularda «shomon» degan so'z bo'lmagan. Bu din koinotni yo'qlikdan bor qilgan **Ko'k Tangriga** e'tiqod qiluvchi yakkaxudolik dini hisoblanadi. Chorvador ko'chmanchi aholi Tangriga bag'ishlangan marosimlar o'tkazib, qurbonliklar qilishgan. Masalan, Ko'k Tangri sharafiga qurbonlik uchun **qora qashqa ot** so'yilgan.

Mamlakatda tasviriy san'atning rassomlik va haykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Surxon vohasida **Bolaliktepa**, Zarafshon vodiysida **Panjikent, Varaxsha** va **Afrosiyob**, Farg'ona vodiysida **Quva** xarobalari hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkorlik naqshlari yuksak san'at asarlari hisoblanadi. Haykaltaroshlik rivojiga, ayniqsa, budda dini kuchli ta'sir ko'rsatgan. Farg'ona vodiysida **Quvadan** hamda Qo'rg'ontepa yaqinida **Ajinatepadan** topilgan budda haykalining bo'yi **12 m** ga yetadi. Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi va ganchkorlik san'ati ham yuqori darajada turgan. Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari **Varaxsha** topilmalari orqali tadqiq etildi. Turti xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklarning o'ymakor naqshlari, ov manzarasi Buxoro hukmdorlarining **Varaxshadagi qarorgohining** hashamatli saroy devorlarini bezab turgan.

**Musiq**a san'ati. O'rta Osiyoda musiq, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turti sohalari ham rivojlangandi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent o'yinchi yigit va raqqosa qizlari bilan mashhur bo'lgan. Choch o'yinchi yigitlari ijro etgan mashhur «**Choch raqsi**» yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «**Doira raqsi**» Xitoy a'yonlarini maftun etgandi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan.

## 4-BOB. ARABLAR ISTILOSINI, UNING OQIBATLARI, XALQ QO'ZG'OLONLARI

### 4.1. ARABLARNING O'RTA OSIYONI FATH ETISHI

Arabistonda markazlashgan davlat tuzish uchun kurash. VII asr boshlarida Arabiston yarimorolida yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish boshlandi. Bu e'tiqod islom dini edi. Makka shahrida dunyoga kelgan **Muhammad** (s.a.v.) binni Abdulloh (570 – 632) mazkur harakatga rahnamolik qildi. Makka shahrida boshlangan islom dini targ'iboti Madinaga ko'chadi. Muhammad (s.a.v.) **630-yili** arablarni yagona davlatga birlashtiradi. Uning vafotidan keyin eng yaqin safdoshi **Abu Bakr** (632 – 634) xalifa deb e'lon qilindi. **Misr, Suriya, Falastin, Iroq, Eron** kabi yurtlarni bo'ysundirgan Arab xalifaligi harbiy yurishlarni endi O'rta Osiyoga qaratdi. **651-yili** jangsiz **Marv** shahrini egallaydilar. So'ngra Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar istilo qilinadi. Arablar bu hududlarni **Xuroson** deb ataganlar. Mazkur viloyatni boshqarish uchun maxsus noib tayinlangan, u viloyat markazi Marv shahrida turardi. Arablar bu yerda o'rtnashib olgach Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni zabt etishga tayyorgarlik ko'radilar. Bu yerlarni ular **Movarounnahr**, ya'ni «**daryoning narigi tomoni**» deb atardilar.

Movarounnahr tomon yurishlar. Movarounnahrda ilk bor yurishlar **654-yili Maymurg'** va **667-yili Chag'oniyondan** boshlanadi. **Narshaxiyning** yozishicha, **673-yil** kuzida xalifa **Muoviya I** (661 – 680) farmoni bilan **Ubaydulloh ibn Ziyod** Amudaryodan kechib o'tib, **Buxoro** muzofotiga bostirib kiradi. **Poykand** va **Romitanni** egallab, Buxoro hukmdori qo'shinlarini yengadi va bir lak (yuz ming) dirham hajmida o'lpon undiradi. Bojdan tashqari arablar to'rt yuz ming asir, qurol, kiyim-kechak, oltin va kumush buyumlardan iborat behisob o'ljalarni bilan Marvga qaytadilar. Yo'l-yo'lakay **Termiz** shahri egallanadi. Shunday qilib, arablarning Movarounnahrda tomon uyushtirgan dastlabki yurishlari boylik orttirish maqsadida amalga oshirilgan talonchilikdan iborat bo'lgan.

Movarounnahrning zabt etilishi. VII asr oxirlarida arablar Movarounnahrni uzil-kesil bosib olishga kirishadilar. **704-yili Qutayba ibn Muslim** Xurosonga noib etib tayinlanadi. Qutayba harbiy yurishni **705-yili Balx**

**viloyatl** atroflarini zabt etishdan boshlaydi. Tez orada **Chag'oniyon** hokimi jangsiz taslim bo'ladi. **707-yili** Qutayba katta qo'shin bilan **Poykandni** qamalga oladi. **50 kunlik** qamaldan so'ng Poykand egallanib, shahar vayron etiladi. **Narshaxi**ning yozishicha, **buxorxudotlar** hokimiyati hududi **12 ta** yirik qo'rg'on va ayrim shaharlar: **Karmana, Nur, Arqud, Zandana, Afshona, Romtin (Romitan), Rajfandun (Varaxsha), Sarg', Vardona, Barkad, Iskljkat** va **Faroblardan** iborat edi. Bu davrda vohada hukmdor xoqonining tojkor tasviri, ostida «**Buxorxudot**» degan yozuv zarb etilgan **kumush dirham** muomalada bo'lgan. Davlatni **Tug'shoda (692 – 724)** boshqargan. Buxoroliklar har yili xalifalikka boj to'lash, uylarining yarmini arablarga bo'shatib berishga majbur etiladi. Qutayba Buxoro shahrining markazida joylashgan zardushtiyalar ibodatxonasini jome masjidiga aylantirdi. So'g'd tili va xatida bitilgan asarlarni yo'qotdi. Mahalliy aholini islom diniga jalb etish uchun masjidga kelib ibodat qiluvchilarga **2 dirhamdan** pul hadya etishni joriy qildi.

**710-yili** Qutayba **Naxshab** va **Keshni** bosib olib, Samarqandga hujum boshlash uchun tayyorgarlik ko'radi. Biroq **Xorazmda** boshlangan ichki ziddiyatlar oqibatida yuzaga kelgan qulay fursat Qutaybani So'g'd yurishini kechiktirib, Xorazmga qo'shin tortishga jalb etadi. Negaki Xorazm shohi **Chag'on** ukasi **Hurzod** boshliq xalq qo'zg'olonidan qo'rqib **711-yili** yordam so'rab Qutaybaga murojaat qiladi. Hurzod garchi dushman qo'li bilan tor-mor etilib o'ldirilsa-da, xorazmshoh bundan hech narsa yutmaydi. Aksincha, o'z mustaqilligini yo'qotib, arablarning bojdoriga aylanadi, uning qo'shini esa Qutaybaning harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur qilindi. Qutayba fathidan so'ng Xorazm diyori **shimoliy** va **janubiy** qismlarga ajralib ketgan. *Uning shimoliy qismi Gurganj (Ko'hna Urganch) miri, janubiy qismi esa Xorazmshoh tomonidan boshqarilgan.* Ularning har ikkisi ham xalifalikka bevosita bo'ysunib, har qaysisi alohida-alohida xiroj to'lagan.

**So'g'd yurishi.** **712-yili** Qutayba qo'shinlari Samarqandga tashlanadi. Bu davrda ixshid **Tarxun** taxtdan tushirilib, uning o'rniga **G'urak (710 – 737)** So'g'dga podsho etib ko'tarilgandi. G'urak arablarga qarshi g'ayrat bilan kurash olib bordi. Kuchlar teng emasligi oqibatida Samarqand taslim bo'ladi. G'urak bilan Qutayba o'rtasida sulh tuzilib, arablarga bir yo'la **2 ming**, yilliga esa **200 ming dirham** hisobida boj to'lash, **30 ming nafar** odam berish, shaharda birona askar saqlamaslik, ichki shaharni arablarga bo'shatib berish, masjid bino qilish kabi shartlarni bajarishga majbur etiladi. Buning evaziga Qutayba G'urakni Samarqand, Kesh va Naxshabga hokim etib tayinlaydi. Shunday qilib, u arablarga qaram bo'lib qoladi.

**Choch va Farg'onaning zabt etilishi.** **713-yili** Qutayba qo'shinining bir

qismi **Choch** viloyatiga, o'zi boshliq asosiy kuch esa **Farg'ona** vodiysi tomon yo'l oladi. Choch vohasi bosib olinib, Chochning poytaxti **Madinat ash-Shosh**, juda ko'p qal'a va qo'rg'onlar hamda qishloqlarga o't qo'yilib, vayron etiladi. **715-yil boshida** esa Farg'ona vodiysini uzil-kesil egallab, **Koshg'argacha** kirib boradi. Hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlanadi.

#### 4.2. BOSQIN OQIBATLARI

*Iqtisodiy oqibatlar.* Arablar bosqini natijasida obod dehqonchilik vohalari oyoqosti qilindi, shahar va qishloqlarga o't qo'yilib, vayron etildi. Suv inshootlari buzib tashlandi. Ekin maydonlari suvsizlikdan qurib qoldi. **Aholidan oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar va ko'plab qurol-yarog'lar** tortib olindi. Arablar o'z qo'shinlariga minglab nafar yigitlarni jalb etdilar. **Movarounnahrning** barcha shahar va qishloqlarida istilochilarning harbiy qismlari joylashtirildi. Bu harbiy kuchga tayanib aholidan turli soliqlar undirildi, xilma-xil jamoa ishlariga safarbar etildi. Marv, Poykand, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning teng yarmi arablar va ular bilan kelgan ajamlarga bo'shatib berildi. Ayrim istilochi zodagonlar eng unumdor yerlarni va suv inshootlarini egallab oldilar. Yerli aholi jamoat binolari, suv inshootlari qurish, sug'orish tarmoqlarini loyqadan tozalash kabi ishlarga jalb etildi. **Xiroj, ushr, zakot, jizya** kabi soliqlar joriy etildi. Istilochilar kuch – xirojda deganlar.

*Islomga da'vat etish.* Arablar Movarounnahrda siyosiy hokimiyatini mustahkamlash uchun aholi o'rtasida **islom dinini** yoyishga alohida ahamiyat berdilar. Movarounnahr aholisining asosiy dini hisoblanadigan otashparastlik va boshqa dinlarga qarshi qattiq kurash olib bordilar. Ibadatxonalar vayron etilib, ularning o'rniga jome masjidlari bino qilinadi. Islom dinini qabul qilgan mahalliy aholi vakillari dastlabki yillarda xiroj va jizyadan ozod etilgan. Soliqlarni o'z vaqtida to'lamagan kishilar tutib olinib, bo'yinlariga **«qarzdor»** deb yozilgan taxtacha osib qo'yilardi. Bunday chora-tadbirlar, shubhasiz, aholi o'rtasida islom dinining tarqalishiga yordam beradi. Biroq islomni qabul qilganlarning aksariyati nomigagina musulmon bo'lib, uzoq vaqtlargacha pinhona o'z dini va e'tiqodlariga sodiqligicha qolaverdi.

*Mahalliy madaniyatning poymol etilishi.* Istilo natijasida mahalliy xalqning urf-odatlarini, dini va e'tiqodi, qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyati, boy ma'naviy hayoti poymol etildi. Bosqinchilar mahalliy din namoyandalarini, madaniyat, adabiyot va ilm ahillarini quvg'in qiladilar.

Mahalliy so'g'd yozuvida bitilgan diniy va ma'rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarini va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanda yoqib, yo'q qilib tashlaydilar. Quvadagi budda ibodatxonasiga o'rnatilgan turli-tuman haykallarning parchalab tashlangani, Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlarining, ayniqsa, odam rasmlarining ko'zlari o'yilib, bo'yinlariga qilich bilan chopib yuborilgani bunga yaqqol misoldir.

### 4.3. ARABLAR HUKMRONLIGIGA QARSHI XALQ HARAKATLARI

Qo'zg'olonlarning sabablari. Bosqinchilarning talonchilik siyosati yerli xalqni barcha huquqlardan mahrum etdi. Madaniyatning oyoqosti qilinishi, zulm hamda arab tili, yozuvi va xalifa qonun-qoidalarining zo'rlik bilan joriy etilishi natijasida mahalliy xalq orasida norozilik tobora kuchayib, qo'zg'olonlar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Xalifa **Umar ibn Abdulaziz (717 – 719)** murakkab vaziyatni hisobga olib bo'ysundirilgan yerli xalq bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'ldi. U yangi yerlarni bundan buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy islohot o'tkazish to'g'risida farmon berdi. Farmonga binoan musulmon arablar bilan bir qatorda islomni yangi qabul qilgan yerli xalqlardan xiroj va jizya soliqlarini olish bekor qilindi. Ammo Xuroson noiblari uni bajarishdan bosh tortishdi. Ular hali yuzaki musulmon, jizyadan ozod qilish uchun xatnaga e'tibor berish ham lozim degan beandishalikka boradilar. Biroq Movarounnahr zodagonlarining ko'pchiligi o'zini haqiqiy musulmon deb hisoblab soliq to'lamay qo'yadi. So'ngra xalifalik ma'muriyati bir yo'la hammadan jizya olish haqida buyruq beradi. Natijada Movarounnahrda yoppasiga islomdan chiqish va eski dinlarga qaytish boshlanadi. Buning oqibatida mahalliy mulkdorlar bilan arab ma'muriyati o'rtasida ziddiyat keskinlashib, butun mamlakatda bosqinchilarga qarshi xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi.

Qo'zg'olonlarning boshlanishi. Bunday qo'zg'olonlardan biri **720-yili So'g'dda** boshlanadi. Qo'zg'olonga Samarqand ixshidi **G'urak** va Panjikent hokimi **Divashtich** boshchilik qiladi. So'g'dliklarga yordam berish uchun Yettisuvdan turk lashkarlari keladi. So'g'ddagi barcha hokimliklar aholisi ko'tariladi. Qo'zg'olonchilarning birlashgan kuchlari arablarga qat'iq zarba beradi. Faqat ayrim shahar va qishloqlarda qurshovda qolgan istilochilar katta o'p'on va e'tiborli vakillarini garovga berish evaziga jon saqlaydilar. **721-yili Said Xaroshiy** Xurosonga noib etib tayinlanadi. U Iroqda xalq qo'zg'olonini bostirishda shafqatsizligi bilan dong qozongan. Unga so'g'dliklar qo'zg'olonini bostirish va ularni islomga qaytarish vazifasi topshiriladi. Said Xaroshiyning qo'zg'olonchilar bilan olib borgan

muzokaralari natijasida G'urak boshliq So'g'd mulkdorlarining bir qismi arablar tomoniga o'tadi. Qo'zg'olonchilarning qolgan qismi Farg'onaga chekinishga majbur bo'ladi. Said Xaroshiy Movarounnahrda jazo choralarini kuchaytiradi. Biroq qo'zg'olonni to'la bostirishga erisholmaydi.

Qo'zg'olonchilarga yon berilishi. Qo'zg'olonchilarni tinchlantirish uchun Xuroson noibi **Ashros** islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya soliqlarini olmaslikka qaror qiladi. Bu aholini tinchlantirishga qaratilgan vaqtinchalik tadbir bo'lsa-da, o'z samarasini berdi. Zodagon dehqonlarning ko'pi o'z kadivarlari va chokarlari bilan islomni qayta qabul qilib, arablar tomoniga o'tdilar. Xurosonning yangi noibi **Nasr ibn Sayyor (738 – 748)** mamlakatda o'z mavqeyini mustahkamlab olish maqsadida moliya islohoti o'tkazdi. Islomni yangi qabul qilgan kishilar jizyadan ozod etildi. Barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtiriladi, yer egasining, e'tiqodidan qat'i nazar, xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi.

Shu bilan birga, Nasr mahalliy mulkdorlar bilan yaqin aloqa o'rnatish va ular yordamida mamlakatni itoatda tutib turishga harakat qiladi. Shu maqsadda u xalifalik tomoniga o'tgan yirik dehqonlarning avvalgi imtiyozlarini tiklaydi. Oliy martabali arab lashkarboshilari bilan mulkdor dehqonlar o'rtasidagi qon-qarindoshlik aloqalari o'rnatilishini himoya qiladi. Ayni vaqtda, o'zi ham namuna ko'rsatib Buxorxudotning qiziga uylanadi. Bunday siyosat natijasida arablar bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida ma'lum darajada ittifoq yuzaga kela boshladi. Ammo bu ozodlik harakatlariga barham berolmadi. Movarounnahr xalifalikdagi eng notinch va isyonkor o'likalardan biri bo'lib qolaverdi.

**VIII asrning 40-yillarida** xalifalikda toj-u taxt uchun kurash kuchayadi. Muhammad alayhissalomning amakisi Abbosning evarasi **Muhammad ibn Ali** xalifalik taxti uchun kurash boshladi. Umaviylar Muhammad (s.a.v.) avlodlarini qirib yuborishda ayblandi. Hokimiyatni abbosiylarga topshirish kerak degan da'vo ilgari surildi. Xalifalikning deyarli barcha o'lka va viloyatlariga targ'ibotchilar yuborildi. Targ'ibotchilar aholining og'ir ahvoliga faqat umaviylar sababchi degan g'oyani oshkora targ'ib qiladilar. Shu tariqa xalifalikda umaviylar hukmronligini ag'darib tashlash uchun harakat boshlanib ketdi.

#### **4.4. ABBOSIYLAR DAVRIDA XUROSON VA MOVAROUNNAHR**

Xalq noroziliqining kuchayishi. Umaviylarga qarshi umumiy norozilik, ayniqsa, xalifa **Marvon II (744 – 750)** davrida nihoyatda kuchaydi. Bunga xiroj miqdorining oshirilishi va aholining muttasil hasharlarga majburan



jalb etilishi sabab bo'ldi. **746-yili** abbosiylarning targ'ibotchilaridan biri **Abu Muslim** Xurosonga keladi. U Xuroson aholisiga murojaat qilib payg'ambar avlodlarini quvvatlashga chaqiradi.

Qo'zg'olonchilarning to'planishi. Dastlab arab zodagonlari, so'ngra mahalliy dehqonlar Abu Muslimni qo'llab-quvvatlaydilar. Umaviylarga qarshi tashviqotning sadosi tez orada Xuroson, Movarounnahr, Toxariston viloyatlariga keng tarqaladi. G'oya tarafdorlari avval Abu Muslim qarorgohi **Moxuvon** qal'asida to'planadi. Abu Muslimga kelib qo'shilgan kishilar ro'yxatga olinib, ularga avval **uch dirhamdan**, keyinroq **besh dirhamdan** maosh to'lanadi. Qizig'i shundaki, ro'yxatdan o'tgan kishilarning katta qismi qullardan iborat edi. Bu davrda ham qullar aholi o'rtasida eng quyi tabaqa hisoblanib, ular bilan bir safda turish boshqa tabaqa vakillariga or tuyulgani hisobga olinib Abu Muslim qullar uchun **Shavval** qishlog'ida maxsus joy tashkil ettiradi va ularga **Dovud** ismli targ'ibotchini boshliq etib tayinlaydi.

Qo'zg'olonchilarning maqsadi. Qo'zg'olonchilar safida arab zodagonlari, Movarounnahr va Xurosonning mahalliy mulkdor dehqonlari, mazlum aholi, shahar hunarmandlari va qishloq kadivarlari hamda qullar bor edi. Ularning maqsadi ham har xil edi. Arab zodagonlari hokimiyatni abbosiylarga olib berib, mamlakatda o'z mavqelarini ko'tarmoqchi edilar. Mahalliy mulkdorlar mamlakatda siyosiy jihatdan arablar bilan tenglashish, iloji topilsa, mamlakatni xalifalikdan ajratib, uni mustaqil boshqarishni maqsad qilib olgandilar. Abu Muslimning o'zi ham xuddi shu kuchning vakili edi. Mehnat ahli umaviylar zulmi, og'ir soliqlar va uzluksiz majburiy hasharlardan, qullar esa kishanlaridan qutulish orzusida edilar. Shu tariqa qo'zg'olonchilarning soni kun sayin oshib bordi. **100 ming nafar** lashkar yig'ilgandi. Ularning deyarli hammasi qora libosda edilar.

Qo'zg'olonning boshlanishi. **748-yil boshida** Abu Muslim **Marv** shahrini egallaydi. **749-yili** Abu Muslim boshliq qo'zg'olonchilar xalifalikning markaziy viloyatlari tomon yo'l oladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, xalifa Marvon II taxtdan ag'dariladi. Uning o'rniga abbosiylar xonadonidan bo'lgan **Abul Abbas Saffoh (750 – 754)** xalifalik taxtiga ko'tariladi. Joylarda umaviylar xonadoni vakillari va yaqinlari qirib tashlanadi. Shunday qilib, Arab xalifaligida davlat hokimiyati abbosiylar qo'lga o'tadi.

Abbosiylar davrida Movarounnahr. Abbosiylarning xalifalik taxtiga chiqishi aholiga hech qanday yengillik keltirmadi. Abu Muslim Bag'dodda davlat va harbiy kuchlarning yuqori lavozimiga tayinlanadi. Biroq abbosiylarni uning xalq orasidagi obro'si ortib borayotgani cho'chitardi. Oqibatda Abu Muslim poytaxtdan uzoqlashtirilib, Xuroson va Movarounnahrqa noib

etib yuboriladi. U deyarli mustaqil siyosat yurita boshlaydi va barqaror tinchlikni saqlash uchun bir qator ishlarni amalga oshiradi. Yangi sug'orish tarmoqlarini bunyod etadi, qal'alar bino qiladi. Karvon yo'llarini tartibga keltiradi. Biroq bu davrda ham Movarounnahr, Xorazm va boshqa viloyatlarda mehnatkash ommaning ahvoli yaxshilanmaydi. Aholi ikki yoqlama zulm ostida qoladi. Bunday og'ir ahvol xalq noroziligini kuchaytiradi. Aholi o'rtasida abbosiylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish kayfiyati paydo bo'ladi. Bunday qo'zg'olonlardan biri **750-yili Buxoroda** ko'tariladi. Abu Muslim mahalliy kuchlar yordamida arang qo'zg'olonni bostirdi.

Movarounnahrda ichki ziddiyatdan foydalanib Xitoy imperatorining qo'shinlari Turkistonga bostirib kiradi. Abu Muslim tomonidan **Ziyod ibn Solih** boshchiligida yuborilgan arab va so'g'd, turklardan iborat qo'shin **751-yili Talos** vodiysida Xitoy qo'shinlariga zarba berib, ularni mamlakat hududidan quvib chiqaradi. Abu Muslim sidqidildan xizmat qilsa-da, abbosiylar unga ishonmasdilar. Ularning nazarida Abu Muslim xalifalik taxtining da'vogaridek bo'lib tuyulardi. Undan hatto qo'rqardilar ham. Nihoyat, **755-yili** qurolsiz va yolg'iz saroyga tashrif buyurgan Abu Muslim xalifa buyrug'iga binoan o'ldiriladi. Abu Muslimning o'ldirilishi Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olishiga bahona bo'ladi.

#### 4.5. «OQ KIYIMLILAR» QO'ZG'OLONI

«Oq kiyimlilar». **769 – 783-yillarda** Movarounnahrda juda katta xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Qo'zg'olonchilar oq libos kiyganlari uchun, tarixda u «**Oq kiyimlilar**» qo'zg'oloni nomi bilan shuhrat qozondi. Bu harakatning rahbari **Muqanna** deb atalgan marvlik **Hoshim ibn Hakim** ismli hunarmand bo'lgan. U Marv yaqinidagi **Koza qishlog'**ida tug'ilgan, boshi va yuziga ko'k parda tutib yurgan. Shu bois u «Muqanna», ya'ni «**Niqobdor**» laqabi bilan mashhur bo'lgan. Muqanna yoshlik chog'ida **kudungarlik** (matolarga ohor beruvchi) kasbi bilan shug'ullangan. U savodli, aqlli va tadbirkor bo'lgan. Xurosonda **sarxanglik** (kichik lashkarboshilik)dan vazirlik darajasigacha ko'tarilgan. U Mazdak g'oyalariga asoslangan ijtimoiy tenglik va erkin hayotga da'vat etuvchi ta'limotni targ'ib qilgan (**Mazdak ibn Hamadon (470 – 529)** – Eronning bosh kohini. U dunyoning barcha boyliklari odamlarga teng taqsimlanishi tarafdori bo'lgan va buni zo'rlik bilan amalga oshirishni yoqlab chiqqan). Muqanna ajnabiylar hukmiga qarshi qo'zg'alishga da'vat qilib, Movarounnahr viloyatlariga targ'ibotchilarni yuborgan. Uning targ'iboti **Naxshab**

va **Kesh** shaharlarida yaxshi samara beradi. «Oq kiyimlilar»ning safi tobora kengayib boradi. Ularga bevosita rahbarlik qilish maqsadida Muqanna So'g'd tomon o'tlanadi. Uni Marv, So'g'dga o'tkazmaslik uchun arab ma'murlari ta'qibni kuchaytiradilar.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Muqanna Movarounnahrda yo'l oladi va o'z yaqinlari bilan omon-eson Amudaryoning o'ng qirg'og'iga o'tib, Naxshab va Kesh shahriga yetib boradi. Kesh yaqinida tog' tepasiga bino qilingan **Som qal'asini** o'z qarorgohiga aylantiradi. Ko'pgina qishloqlarning kadivartari, shahar hunarmandlari va ayrim mulkdor dehqonlar unga ergashadilar. Tez orada butun Qashqadaryo vodiysi Muqanna tarafdorlari qo'lga o'tadi. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni kengayib, ayniqsa, So'g'dda avj oladi. **Iloq** (Ohangaron) va **Shoshga** ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qo'zg'olonda turli tabaqalar qatnashadi. Ularning oldilariga qo'ygan maqsadlari ham turlicha bo'lgan. Mehnatkash aholi og'ir mehnat va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashsa, mahalliy mulkdor dehqonlar mamlakatdan arablarni quvib, hokimiyatni o'z qo'lga olishni maqsad qilib qo'ygandi.

Qo'zg'olonning borishi. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloniga zarba berish uchun xalifa **Mansur 775-yili Jabroil ibn Yahyo** boshliq katta harbiy kuchni Movarounnahrda safarbar qiladi. Ammo Jabroil qo'zg'olonchilardan yengiladi. U katta talafotlar berib, Samarqanddagi arab qo'shinlariga kelib qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar hujumni janub tomon davom ettiradilar. **Termiz** yaqinida qo'shimcha yordamga kelayotgan arab qo'shinlariga to'satdan hujum qilib ularni tor-mor etadilar. **Naxshab** va **Chag'oniyon** vohalari qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi. Qo'zg'olon **776-yildan** boshlab **Buxoro** vohasida kuchayib ketadi. **Narshax qal'asi** qo'zg'olonchilarning qarorgohiga aylantiriladi. **To'rt oy** davom etgan kurashdan so'ng qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchraydi.

«Oq kiyimlilar»ning yengilishi. Narshaxdagi qo'zg'olon bostirilgach, arablar asosiy kuchni qo'zg'olon markazi bo'lgan Samarqand va Keshga tashlaydi. **777-yili** «Oq kiyimlilar»ga uzil-kesil zarba berish uchun harbiy kuch to'plash maqsadida xalifa **Mahdiy Nishopurga** keladi. Samarqandga katta qo'shin yuboriladi. Qo'zg'olonchilar Sirdaryo vohasida yashovchi turkiy qabilalarni yordamga chaqiradilar. «Oq kiyimlilar» va turkiy qabilalar Samarqandda arablarga qarshi **ikki yil** jang qiladilar. Nihoyat, qo'zg'olonchilar yengilib, Samarqand taslim bo'ladi. Narshax va Samarqandda qo'zg'olonchilar yengilgach, mahalliy mulkdor tabaqa vakillari arablarga yordam bera boshlaydilar. Kurashning oxirgi bosqichi **Kesh** vodiysida bo'lib o'tadi. **783-yili** Muqannaning Som qal'asidagi qarorgohi qamalga

olinadi. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kurashdan tinkasi qurigan muqannachilar taslim bo'ladilar. Istilochilarga taslim bo'lishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan tandirga tashlab o'ladi.

Qo'zg'olonning yengilishi sabablari va oqibatlari. «Oq kiyimlilar» uyushqoqlik bilan harakat qilolmadilar. Mazkur omil qo'zg'olon yengilishining asosiy sababi bo'ldi. Ikkinchidan, xalq harakatining ommalashib ketishidan cho'chigan mahalliy mulkdorlar birin-ketin arablar tomoniga o'tgan. Shu sababli u tarqalib keta boshlagan. Arablar esa bunday vaziyatdan ustalik bilan foydalanganlar, chunki harbiy jihatdan ustun edilar. Qo'zg'olon yengilgan bo'lsa-da, arab istilochilariga qarshi mahalliy xalq harakati uzil-kesil to'xtab qolmadi. «Oq kiyimlilar» qo'zg'olonidan **20 yil** o'tar-o'tmas, **806-yili, Rofe ibn Lays** boshchiligida xalifalikka qarshi yana qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olon Samarqanddan boshlanib, Shosh, Farg'ona, Buxoro, Naxshab va Xorazm viloyatlari xalifalik qo'lidan ketadi. Xuroson noibi **Ma'mun** dehqonlardan bo'lgan Somonxudotning nabiralari – **Nuh, Ahmad** va **Yahyodan** yordam so'raydi. Ular Rofe ibn Laysni qo'lga olib, uni xalifaga taslim bo'lishga majbur qiladilar. Shu tariqa navbatdagi xalq harakati bostiriladi. Mahalliy xalqlarning istilochilarga qarshi kurashlari behuda ketmadi. Asta-sekin xalifalikning hukmronligi zaiflasha bordi. Bu hol Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishuvini tezlashtirdi.

## 5-BOB. IX – XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL DAVLATLARNING SHAKLLANISHI

### 5.1. XALIFALIK HUKMRONLIGINING ZAIFLASHUVI, MUSTAQIL DAVLATLARNING SHAKLLANA BOSHLASHI

*Siyosiy ahvol.* VIII asr oxiri – IX asr boshlarida Arab xalifaligi og'ir siyosiy tanglikka uchradi. Aholining tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishi, uzluksiz davom etgan o'zaro urush va ichki ziddiyatlar markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi. Bu esa mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Mustaqil davlatlar dastavval Movarounnahrning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida, hali xalifalikka bo'ysundirilmagan o'lkalarda tashkil topdi. Ulardan biri **Qarluqlar davlatidir**.

*Qarluqlar davlati.* Qadimda Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan **qarluqlar VI – VII asrlarda** Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VIII asr o'rtalarida **Yettisuvda** Qarluqlar davlati tashkil topdi. Bu davlatning poytaxti Chu daryosidan shimolroqda joylashgan **Suyob** shahri edi. Qarluq davlati hukmdori «**yabg'u**» yoki «**jabg'u**» deb yuritilgan. X asr o'rtalariga kelib qarluqlarning kattagina qismi musulmon bo'lgan. Bu davrda bir qancha qarluq shaharlarida jome masjidi bino qilingan.

*Qarluqlar davlati shimol va sharqdan* **Elsuvi daryosi vodiysigacha, chigil qabilasi yaylovlarigacha; g'arbdan o'g'uz yurti va Farg'ona vodiysi; janubda esa yag'molar vohasi va Sharqiy Turkiston bilan chegaralangan.** Bu diyorda poytaxtdan tashqari **Jo'l, Navkat, Karmankat, Yor** kabi shaharlar va qator qishloqlar qad ko'targan. Aholi qo'ychilik, tog' jilg'alari bo'ylarida esa dehqonchilik bilan shug'ullangan. Sharqiy Turkiston va Movarounnahr bilan savdo-sotiq olib borilgan. Chetga, asosan, jun va junli mahsulotlar: **gilam, sholcha, namat** kabilar olib chiqilgan.

X asrda qarluqlar Movarounnahrning shimoliy hududlarini egalagach **Shosh atrofi, Farg'ona** hamda **Zarafshon vodiylariga** kelib o'rnamashganlar. Keyinchalik o'troq tarzda yashaydigan mahalliy aholiga singib ketganlar.

*O'g'uzlar.* VI asrning 2-yarmi va VII asr o'rtalarida **o'g'uzlar** Turk xoqonligi tarkibida edi. Turk xoqonligi yemirilgach, o'g'uzlarning katta qismi Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida muqim o'rnamashib olganlar. Ular IX asr oxiri va X asr boshlarida **O'g'uzlar davlatiga** asos soladilar. Sirdaryo bo'yidagi **Yangikent** shahri uning poytaxti bo'lgan.

O'g'uz yabg'ulari bu shahardan qishlov uchun qarorgoh sifatida foydalanganlar. O'g'uzlar, asosan, chorvachilik, xususan, qo'ychilik bilan shug'ullanganlar. O'troq voha aholisi bilan savdo aloqalarining o'sishi oqibatida o'g'uzlar dashtiga asta-sekin islom dini kirib keladi va o'troq aholining madaniy ta'siri kuchayadi. **X asrdan** boshlab o'g'uzlar islom dinini qabul qilganlar.

**X asrning 1-yarmida** O'g'uzlar davlati shimoli-sharqdan qo'zg'algan **qipchoqlar** tomonidan qaqshatqich zarbaga uchrab bo'linib ketdi. O'g'uzlar o'z yurtini tark etib, bir qismi g'arbga, Shimoliy Kavkaz dashtlariga borib o'rnashadilar. Ularning ikkinchi qismi esa avval Movarounnahr ga kirib boradi va undan janubi-g'arbga siljib, yangi sulola – **saljuqiylar** boshchiligida Old Osiyo mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi. Bu ikki turkiy davlat faqat Movarounnahr gina emas, balki butun O'rta Sharq hamda Old Osiyo aholisining siyosiy hayotiga, etnik tarkibiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Masalan, qarluqlar **o'zbek** va **tojiklarning**, o'g'uzlar **turkman, ozarbayjon, qoraqalpoqlarning** etnogenezida muhim rol o'ynadi.

**Tohiriyalar davlati. VIII asr oxiri – IX asr boshlarida** xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borilayotgan siyosatni o'zgartirishga majbur etdi. Endilikda ular sharqiy viloyatlarni boshqarish ishlariga mahalliy zodagonlarni jalb etish va ularning qo'li bilan viloyatlarni xalifalik tasarrufida tutib turishga urindilar. Natija abbosiylar ko'zlagandek bo'lmadi. Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni nafaqat o'z tasarruflariga o'tkazib oldilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynay boshladilar. Bunga, ayniqsa, xalifa **Horun ar-Rashid (786–809)** vafotidan so'ng uning o'g'illari **Ma'mun** va **Amin** o'rtasida **809 – 813-yillarda** taxt uchun kechgan kurash keng yo'l ochib berdi.

Xalifalik markazidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan **Ma'mun** ukasi **Aminga** qarshi kurash boshlaydi. Hirot viloyatining zodagonlaridan **Tohir ibn Husayn** boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga yordam berdilar. **813-yili** ular Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, **Ma'mun** xalifalik taxtiga o'tqizildi. Buning evaziga **Tohir 821-yili** Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. **Ma'mun** Movarounnahr zodagonlarining ham yordamini unutmadi. Somonxudotning nabiralarini ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. Nuhga **Samarqand**, Ahmadga **Farg'ona**, Yahyoga **Shosh** va **Ustrushona**, Ilyosga esa **Hirot** tegadi. Buning evaziga aka-uka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ni tohiriyalar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar.

Tohir davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida **822-yili** xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlaydi. Bu amalda mustaqillikni e'lon qilish edi. Biroq ko'p o'tmay Tohir to'satdan vafot etadi. Uning o'g'illari **Talxa** va **Abul Abbas Abdulloh** otasining o'rniga birin-ketin noiblik qiladilar. Shu tariqa Xuroson va Movarounnahr boshqaruvi tohiriylar xonadoniga meros bo'lib qoladi. **Abul Abbas Abdulloh (830 – 844)** davrida poytaxt Marvdan **Nishopur** shahriga ko'chiriladi. Movarounnahr shaharlarida noiblik qilayotgan Somonxudot avlodlarining mahalliy noibligi tohiriylar tomonidan tan olinadi, somoniylar esa tohiriylarga tobe sifatida Movarounnahrni idora etadilar.

Tohiriylar hokimiyatining barham topishi. Tohiriylar dastavval hokimiyatni mustahkamlashga va qishloq xo'jaligini tartibga keltirishga intildilar. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minotini yaxshilash uchun yangi kanallar qazdirdilar. Biroq tohiriylar zamonida ham mehnat ahlining ahvoli nihoyatda og'irligicha qolaverdi. Mulkdor dehqonlarning jabr-zulmidan, davlatning og'ir soliqlaridan bezor bo'lgan xalq qo'zg'olon ko'taradi. Ularga «g'oziylar» ham qo'shiladilar. Qo'zg'olonga safforiylar – aka-uka **Ya'qub** va **Amr ibn Lays** boshchilik qiladilar. **873-yili** Xuroson poytaxti Nishopurni egallaydilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, hokimiyat **safforiylar** qo'lga o'tadi.

## 5.2. SOMONIYLAR DAVLATI

Somoniylar hukmronligi. **IX asrda** Movarounnahrning siyosiy hayotida ham o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval **Nuh**, so'ngra **Ahmad** boshchilik qiladi. Har biri o'z nomidan mis chaqalar zarb etadi. Ahmad vafotidan keyin (**865**) uning o'g'li **Nasr** Samarqandni markazga aylantiradi. U Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralari ko'radi. Tohiriylar davlati barham topishi bilan, Nasr uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Buxoro ahli Nasr huzuriga elchilar yuborib Buxoroni o'z qo'l ostiga olishni va somoniylar xonadonidan bir kishini Buxoroga hokim qilib yuborishni so'raydilar. Nasr ukasi **Ismoilni Buxoroga** noib sifatida yuboradi.

**IX asr oxirgi choragida** Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tadi. Nasr butun Movarounnahr hukmdoriga aylanadi. U kumush dirham zarb etadi. Ko'p o'tmay aka-uka o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Unda Ismoil g'olib chiqadi. Ismoil Somoniy **888-yili** butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtiradi.

***Ismoil Somoniy.*** Ismoil Somoniy Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga intiladi. Shimoli-sharqiy hududlarga yurish qiladi. **893-yili Taroz** shahrini egallab, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Natijada dashtlik qabilalarning Movarounnahrğa bo'lgan uzluksiz bosqinlari barham topib, aholi mudofaa devorlari-yu son-sanoqsiz qal'alarni qurish va ularni ta'mirlash tashvishidan qutuladi. **300 km dan ortiq** masofada Buxoro vohasining atrofini o'rab turgan **Kampirak** (kampir) devorining har yilgi odatiy hashari to'xtatiladi.

Movarounnaharning mustaqillikka erishishi arab xalifalariga yoqmasdi. Shu bois safforiylar va somoniylarni to'qnashtirishga va ularni zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga intiladilar. Xalifa **Mu'tazid (892 – 902)** safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gijgijlaydi. Natijada **900-yili** ular o'rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilga hukmdorlik yorig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostiga birlashtirdi. **Buxoro** shahri poytaxt bo'lgan.

***Somoniylarda boshqaruv tizimi.*** Somoniylar mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham boshqaruv ma'muriyatini tashkil etdilar. U **amir dargohi** va **devonlar** (vazirliklar)dan iborat edi. Dargohda amir qarorgohi va harami hamda saroy a'yonlari, navkar va xizmatkorlarning turarjoylari bo'lardi. Narshaxiyning yozishicha, somoniylar boshqaruvi, asosan, **vazir, mustovfiy, amid ul-mulk, sohibi shurat** kabi o'nta devon orqali idora etilib, ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanardi. Ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Amid ul-mulk davlat hujjatlari va elchilik aloqalari, mustovfiy devoni xazina (moliya), kirim-chiqim masalalari bilan shug'ullangan. Sohibi shurat harbiy ishlar vaziri bo'lgan. **Nasr II (914 – 943)** davrida Buxoroning registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy quriladi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniy va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmay, muayyan bilimlarga ega bo'lishi ham shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan birmuncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlangan. Viloyatlarda barcha dehqonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat dehqonlari, bir tomondan, mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan, markaziy mahkamaning tegishli devoniga bo'ysunardilar.



Iqto mulki. X asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Bunday mulk «iqto», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat yoki shaharlar va tumanlar hadya etilgan. Iqto dastavval oliy tabaqa zodagonlar: sulola a'zolari – amirzoda va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto mulklari avval bir umrgamas, balki ma'lum muddatga berilib, nasidan naslga o'tkazilmagan. Iqtodor o'ziga in'om etilgan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlarning ma'lum qismini yig'ib olish huquqiga ega bo'lgan.

Islom dini rivoji. Movarounnahr ravnaqiga islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu bois ularning obro'si oshib, Buxoro islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, jumladan, jome masjidi, xonaqoh va namozgohlar bino qilinadi. Shu davrda Buxoroda ilk ilmgoh – **madrasa** bunyod etiladi. Madrasa shaharning **Darvozayi Mansur** mahallasida joylashgandi. Islom mafkurasiga bu davrda «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom «shayxulislom» nomi bilan yanada ulug'landi. Ustoddan keyin **xatiblar** turardi.

Mudofaa ishlari. Somoniylar tashqi va ichki dushman xurujlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta e'tibor beradilar. Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shin va saroyning maxsus muntazam sarbozlari qismini tuzadi. Muntazam qo'shin oliy dargoh va shaxsan amirni hamda uning haramini qo'riqlash uchun **turk g'ulomlaridan** tuzilgandi. Saroy sarbozligiga qabul qilingan o'spirin turk g'ulomi harbiy xizmatini ma'lum muddatda va qat'iy tartibda o'tardi. Yaxshi va uzoq xizmat qilgan sarbozlar «**hojib**» lavozimiga ko'tarilgan. Hojiblarning boshlig'i «**hojib ul-hujob**» yoki «**hojibi buzruk**» deb yuritilardi. Bunday unvon somoniylar saroyida oliy unvon hisoblanardi. U saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarardi. Somoniylar sarbozlardan tashqari ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy qo'shinlarga ega edilar. Harbiy qo'shin va uning ta'minoti bilan **ariz devoni** deb atalgan maxsus vazirlik shug'ullanardi.

### 5.3. SOMONIYLAR DAVRIDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOT

Qishloq xo'jaligi. IX – X asrlarda Movarounnahr va Xorazm aholisining asosiy qismi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Serunum vohalarda g'allakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik

va bog'dorchilik yuqori darajada rivoj topgandi. Aholi arpa, bug'doy, tariq, mosh, adas-yasmiq, kunjut, no'xat, zig'ir, jut va shu kabilarni yetishtirardi. Zig'ir, kunjut va kanakunjutdan moy olinardi. Paxtaning ingichka tolali g'o'za navlari ekilardi. Movarounnahrda o'simliklardan turli xil dori-darmon va bo'yoqlar tayyorlanardi. Bog'dorchilik ham keng ravnaq topgandi. Bog' va chorbog'larda uzum, anjir, olma, nok, behi, o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, tut, jiyda va ko'pgina boshqa mevalar yetishtirilardi. Uzumdan mayiz, shinni, sirka va musallas tayyorlanardi. Sabzavot va poliz ekinlari serob bo'lib, qovunlar nihoyatda shirali edi. Qirqma qovunlar va qovun qoqilari Sharqning uzoq-uzoq shaharlariga olib borilardi.

Dehqonchilik solig'i – **xirojdan** xazinaga tushadigan daromad davlat kirim-chiqimining kattagina qismini qoplardi. Shu bois somoniylar mamlakatda dehqonchilik xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Dehqon paykallariga suv yetkazib berish uchun **mirob**, **jo'ybon** va **poyskor** kabi sug'orish bo'yicha mutaxassislar bo'lgan. Chorvachilik ham yuksak darajada rivojlangan. Chorvachilik aholini chorva mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmay, xo'jalikning hamma sohalariga ot-ulov ham yetkazib bergan. Ot, eshak, tuya va ho'kizlar qo'sh, arava, moyjuvoz va chig'irlarga qo'shilib ishlatilgan. Ayniqsa, qo'shinni ot-ulov bilan ta'minlash muhim edi.

**Hunarmandchilik.** Shaharlarda to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik va duradgorlik ancha rivoj topdi. Natijada shaharlar qiyofasi o'zgarib, katta-katta imoratlar, ustaxonalar, masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh va karvonsaroylar qad ko'tardi. Shaharning do'nglik yerida joylashgan arkda, odatda, podsho qarorgohi – dargoh, xazina, chaqa-tangalar so'qiladigan zarbxona va qamoqxona bo'lardi. Uning markazida registon maydoni, devonlar, mahkama saroyi, amirzodalar, saroy a'yonlari, ruhoniylar, mulkdor dehqonlar va davlatmand savdogarlarning hashamatli qasrlari, qurol-yarog', asbob, egar-jabduq yasaydigan ustaxonalar, hunarmandlarning yangi-yangi mahalla-ko'ylari, bozor va rastalar paydo bo'ldi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Binkat, Kesh, Axsikent kabi shaharlar o'rta asr hunarmandchiligining rivoj topgan yirik markazi va gavjum maskan qiyofasini oladi.

**Samarqandda** yuqori navli **qog'oz** ishlab chiqarilardi. **Shosh** o'zining **ko'nchilik mahsulotlari** va **charm mollari** bilan, **iloq esa kumush** va **qo'rg'oshin** konlari hamda kumush tanga chiqaradigan **zarbxonasi** bilan mashhur edi. **Xorazmda qayiqsozlik** taraqqiy qildi. Xorazm va Termizda yasalgan qayiqlar Amudaryo bo'ylab to Orol dengizigacha muttasil mol tashib savdogarlarning yukini yengil, uzog'ini yaqin qilgan. Bu davrda

shahar bilan birga qishloqlar ham iqtisodiy hayotda katta o'ringa ega edi. Buxoroning **Zandana** qishlog'ida to'qilgan mallarang bo'z «**zandanachi**», Samarqandning **Vador** qishlog'ida tayyorlangan mato «**vadoriy**» nomlari bilan mashhur bo'lgan.

**Konchilik.** Movarounnahrda qadimdan mavjud bo'lgan konchilik **IX – X asrlarda** yuksak darajada rivojlandi. Zarafshon tog'larida temir, mis, qo'rg'oshin, oltin, kumush, firuza va boshqa qimmatbaho toshlar qazib olinardi. Iloq kumush va qo'rg'oshin qazib olishning yirik markazlaridan biri edi. Farg'ona vodiysi tog'laridan temir, qo'rg'oshin, kumush, simob, mis, qalay, firuza, navshadil qazib chiqarilgan. Hatto Farg'onadan toshko'mir va neft qazib olingan. Konlar yaqinida rudalarni eritib, ma'dan oluvchi ohangarlar va konchilarning qishloqlari bo'lardi.

**Ichki va tashqi savdo.** **IX – X asrlarda** ichki va tashqi savdo kengaydi. Qadimgi karvon yo'li bo'ylab quduqlar qazilib, har bir bekatda rabotlar bino qilinadi. Shahar va qishloqlarda karvonsaroylar quriladi. Shimoliy yo'l orqali Janubiy Sibir va Mo'g'ulistonga Movarounnahrda bo'z, kiyim-kechak, egar-jabduq, o'q-yoy, qilich, idish-asbob, zargartik buyumlari, dori-darmon, quruq meva, kunjut, zig'ir moyi va boshqa shu kabi mollar olib borilgan. Sibirdan turli-tuman qimmatbaho mo'ynalar, chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari keltirilgan. Xitoyga shisha buyumlar olib borilardi. Xitoydan ipak, shoyi gazlamalar, chinni idishlar olib kelingan. Xitoyshunos **A.Xo'jayevning** ta'kidlashicha, **VII – IX asrlarda** Xitoy bilan bo'lgan savdoda **choy, ipak mato, tuz va ot** asosiy o'rinda turgan. *Har bir ot Xitoy bozorida (to'pi 12,8 metri) 50 o'ram ipak matoga ayirbosh (barter) qilingan. Choy bahosida har bir otning bahosi 56 kg oliy navli choyga teng bo'lgan. Bir necha «jin» (600 g) choyga bir bosh qo'y almashtirilgan.*

**VII – VIII asrlarda** choy asosiy import mahsulotlaridan biriga aylangan. Xitoycha «**cha**» yoki «**ming**» deb yuritilgan xushbo'y choy o'simligi va uning seleksiyasi bu davrda Sharqiy Turkiston orqali Turkiston diyoriga, so'ngra boshqa mamlakatlarga keng tarqalib, aholining maishiy hayotida kundalik iste'mol etiladigan chanqovbosdi benazir ichimlikka aylangan. Itil, Xazar va Bulg'orga guruch, quruq mevalar, yong'oq, mayiz, o'rik va h.k., kanakunjut moyi, shirinliklar, tuzlangan baliq, bo'za, mushk-anbar, paxta, ip va shoyi matolar, movut, kimxob, gilam va choyshablar, kamon, Xitoy, Hindiston, Eron, Kichik Osiyo, Iroq va boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar chiqarilardi. Bulg'or va Xazardan qimmatbaho mo'ynalar, mum, shamlar, o'qlar, cho'qqi qalpoqlar, baliq moyi, asal, qo'y va qoramol olib kelinardi.

**Pul.** Ichki bozorlarda «**fals**» deb atalgan mis chaqa, xalqaro savdoda

esa kumush tanga – **dirhamlar** ishlatilardi. Mis chaqalarni markaziy hukumat ham, sulola a'zolaridan bo'lgan ba'zi mahalliy viloyat hokimlari ham chiqarardilar. Kumush tangalar faqat hukumat boshlig'i nomidan **Marv, Samarqand, Buxoro** va **Shosh**da davlat zarbxonalarida so'qilardi. Somoniylar **«ismoiliy», «muhammadiy»** nomli bir necha kumush dirhamlar chiqargandilar. Ular orasida «ismoiliy» yuqori sifatli sof kumushdan zarb etilib, asosan, xalqaro savdo aloqalarida ishlatilgan.

#### 5.4. IX – X ASRLARDA YER-MULK MUNOSABATLARI. SOMONIYLAR SULOLASI INQIROZI

Yer egaligi turlari. Somoniylar hukmronligi davrida yer egaligining **«mulki sultoniy», «mulk yerlari», «vaqf yerlari», «mulki xos»** va **«jamoa yerlari»** deb ataluvchi **besh** turi mavjud bo'lgan. Oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo'l ostidagi yerlar «mulki xos» deb yuritilgan. Bunday mulkdorlar davlatga hosilning **1/10 qismi** hisobida **ushr** solig'ini to'lagan, xolos. Hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan (soliqning bir qismi) mulklar iqto yerlari deb yuritilgan. Bundan tashqari, qishloq jamoalari tasarrufida ham ma'lum hajmda yer maydonlari saqlanib, ular «jamoa yerlari» hisoblanardi. Ular, asosan, falmikor va tog'oldi yerlaridan iborat bo'lgan.

Barzikor-qo'shchilar. IX – X asrlarda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra o'z yerlarini qishloq jamoalarining kam yerli a'zolariga ijaraga berishni afzal ko'radilar. Ijarachilar **«barzikor»** yoki **«qo'shchilar»** deb atalardi. Agar barzikor o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa, uning hissasi hosilning **1/3, 1/4** yoki **1/5 qismi** miqdorida belgilangan. Qo'sh va urug'likni yer egasi hisobidan ishlatgan qo'shchi hosilning **1/10** yoki **1/12 qismi** miqdorida ulushga ega bo'lardi. Davlat soliqlari (xiroj va ushr) yer egasidan ham, qo'shchilardan ham alohida-alohida olinardi.

Somoniylar hokimiyatining inqirozi. Jafokash aholi zimmasiga sug'orish tarmoqlarini muntazam loyqadan tozalash, kanallar qazish, to'g'onlar o'rnatish, ko'priklar qurish, suv omborlari barpo etish kabi ishlar yuklangandi. Bundan tashqari, masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va karvonsaroylar qurilishida, shahar va qal'alarning mudofaa devorlarini ta'mirlash va yo'llarni tuzatishda tekinga ishlab berishga majbur bo'linardi. Somoniylar harbiy yurishlari, hukmron sulolaning ichki nizolari, mahalliy hokimlarning boshboshdoqliklari avj olib bordi. Oqibatda mamlakatda iqtisodiy tanglik sodir bo'ldi. Hatto harbiylar, jumladan, amirning muntazam turk sarbozlari qo'shiniga maosh to'lash uchun

mablag' topilmaydi. Bunday og'ir vaziyatdan chiqish uchun **942-yili** aholidan ikki marta soliq undirib olinadi. Behad tartibsizlik mamlakatda vaziyatni yanada keskinlashtirib, turli tabaqalarning hokimiyatga qarshi qo'zg'alishiga sabab bo'ldi.

Siyosiy vaziyat **Nuh (943 – 954)** va uning nabirasi **Nuh II (976 – 997)** hukmronlik qilgan davrda nihoyatda keskin tus oladi. **947-yili** Nuh ibn Nasrning amakisi **Ibrohim** isyon ko'taradi. U saroy sarbozlari va Chag'oniyonning yirik yer-mulk egasi **Abu Ali Chag'oniy** yordamida Buxoro taxtini egallab oladi. Ko'p vaqt o'tmay Abu Ali Chag'oniy isyon ko'taradi. Nuh qo'zg'olonni bostirolmaydi. U **952-yili** Abu Ali Chag'oniyini avval Chag'oniyonga, so'ngra Xurosonga hokim qilib tayinlaydi. **961-yili** Buxoro harbiy askarlarining isyoni ko'tariladi. Qo'zg'olonchilar amir saroyini talaydilar va unga o't qo'yib yuboradilar. Bunday voqealarning tez-tez qaytarilib turishi, shubhasiz, markaziy hokimiyatning zaiflashib qolganidan dalolat berardi. **X asr oxiriga** kelib somoniylar o'rtasida avj olgan o'zaro urushlar, mahalliy hokimlar va yirik mulkdor zodagonlarning markaziy hokimiyatga qarshi kurashi iqtisodiy va siyosiy qudratga katta putur yetkazadi. Natijada somoniylar hokimiyati zaiflashib, inqirozga yuz tutdi.

*G'aznaviylar davlati.* Mamlakatda sodir bo'lgan og'ir davrda Somoniylar davlatining turk hojiblari saroy gvardiyasining siyosiy nufuzi nihoyatda kuchaydi. Chunki harbiy va mudofaa ishlari to'la ular qo'lida edi. Turkiy sarkardalarning xizmatlari evaziga somoniy amirlari aksariyat iqtidorli lashkarboshilarni **hojib ul-hojib** yoki **hojib ul-buzruk** kabi oliy harbiy mansablarga tayinlab, ularga hatto ayrim viloyatlarni boshqarish huquqini berganlar. **962 – 963-yillarda G'azna** viloyatini **Alptegin** noib va lashkar amiri sifatida boshqargan. U **G'azna** va **Kobul** viloyatlarini mustaqil idora etishga intilib **G'aznaviylar davlatiga** asos solgan. Mazkur yosh turkiy davlatning poytaxti **G'azna** shahrida qaror topgan. G'aznaviylarning siyosiy nufuzi **Sobuqtegin** davrida (**977 – 997**) ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etilgan. **Mahmud G'aznaviy** davrida (**997 – 1030**) esa uning hududi kengayib, Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan. Davlat chegarasi g'arbda **Ray** va **Isfahon** shaharlari, **Kaspiy** dengizi, shimoli-g'arbda **Xorazm** va **Orol** dengizigacha cho'zilgan. Sharqda esa **Shimoliy Hindistonning** kattagina qismini o'z ichiga olgan va **Janubiy Balujistongacha** yetgandi. Somoniylar sulolasi barham topgach, Mahmud G'aznaviy ularning Xurosondagi hududini, so'ng Xorazm davlatini (**1017**) ham o'z saltanatiga qo'shib olgan. Ammo **Mas'ud G'aznaviy** davrida (**1030 – 1041**) mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqarilib,

tanazzulga yuz tutgan. Oqibatda **1186-yili** G'aznaviyalar davlati butunlay tugatilgan.

G'aznaviyalar davlat tuzumi va boshqaruv tizimlari azaldan rivojlanib kelayotgan turkiy davlatchilik asosida qurilgan bo'lsa-da, biroq u o'ziga xos mahkamachilik xususiyatiga ega edi. Bosh vazir tizimida **harbiy, elchilik va rasmiy tadbirlar, moliya va xabar-pochta** devonlari faoliyat ko'rsatgan. Viloyat hukmdori **voliy**, shahar hokimi **rais** deb yuritilgan. Viloyatda boshqaruv ishlari **amid**, shaharlarda esa **kutvol** tomonidan amalga oshirilgan. Davlat qudratli qo'shinga ega edi. Bosh qo'mondon **sipohsolor**, lashkarboshi **solor**, harbiy qismlar boshlig'i **sarxang** deb atalgan. Qo'shinda harbiy kemalar (daryo va dengiz floti) ham mavjud bo'lgan.

G'aznaviyalar davlatida ilm-fan va madaniyat, xususan, adabiyot rivojlangan. Mahmud G'aznaviy turkiy ona tili bilan bir qatorda fors, arab va pahlaviy tillarini ham mukammal bilgan, she'r bitgan. Poytaxt saroyida **400 dan ortiq** olim, shoir va san'atkorlar ijod qilgan. **Abu Rayhon Beruniy, Nosir Xusrav, Gardiziy va Bayhaqiy** kabi buyuk mutafakkirlar G'aznada yashaganlar. **Beruniy «Qonuni Mas'udiy», Bayhaqiy «Tarixi Mas'udiy»** asarlarini sulton Mas'udga bag'ishlaganlar. **Abul Qosim Firdavsiy** mashhur **«Shohnoma»** dostonini **Mahmud G'aznaviyga** taqdim etgan. G'aznaviyalar davlatida qurilish va me'morchilikka ham jiddiy e'tibor berilgan. **G'azna, Balx, Nishopur, Lohur** va boshqa shaharlarda ko'plab madrasalar, masjid, xonaqoh va saroylar bino qilinib, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan. Bog'-u chorbog'lar barpo etilgan, xususan, poytaxt G'azna shahri gullab-yashnagan.

## 5.5. QORAXONIYLAR DAVLATI

*Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.* **X asr o'rtalarida** Issiqko'lining janubi va Koshg'arda yashagan **yag'mo** qabilasi o'zining shimoli-sharqida yashovchi **chigil** qabilasi bilan yagona ittifoqqa birlashgan. So'ngra Yettisuvga hujum qilib qarluqlarni bo'ysundirdi va ulkan hududda **Qoraxoniylar davlati** tashkil topdi. Mazkur davlatga **Abdulkarim Sotuq Bug'roxon** asos soladi. Uning poytaxti **Bolasog'un** shahri edi. Qoraxoniylar davlati hukmdorlari **«arslonxon»** va **«bug'roxon»** unvonlari bilan yuritilgan. Bu so'zlar oliy darajali hukmdor ma'nosini anglatgan. Buyuklik yoki ulug'lik qadimda turkiy xalqlarda **«qora»** so'zi bilan sifatlangan. Shu bois taxtda o'tirgan arslonxon yoki bug'roxon **qoraxon** hisoblangan. Aslida, **arslon** chigil qabilasining totemi – ajdodi sanalgan. **Bug'ro** esa yag'molarning

totemi bo'lib, og'ir yuk ko'taradigan ikki o'rkachli tuya ma'nosini anglatgan. Qoraxon «**tamg'achxon**» deb ham yuritilardi.

Qoraxoniylarning Movarounnahrqa hujumi. 992-yili Horun Bug'roxon boshliq qoraxoniylar Movarounnahrqa hujum boshlaydilar. Bu davrda Somoniylar davlati chuqur inqiroz girdobiga tushib qolgandi. Qoraxoniylar Buxoroni qarshiliksiz ishg'ol qildilar. **Nuh ibn Mansur** qoraxoniylarga qarshi kurashish uchun G'aznadagi noibi **Sobuqteginni** yordamga chaqiradi. U yigirma mingli qo'shin bilan Movarounnahrqa yetib keladi. Nuh bilan birlashib bir necha janglardan so'ng qoraxoniylar noibi qo'shinlarini tor-mor qiladi. Buning evaziga Nuh Sobuqteginni Xuroson noibi etib tayinlaydi. Natijada G'azna va Xurosonda Sobuqtegin va o'g'li Mahmudning siyosiy hukmronligi mustahkamlanib, **G'aznaviylar davlati** tashkil topadi. Tez orada mazkur davlat kuchayib, Hindiston chegarasidan Amudaryogacha bo'lgan yerlarni egallaydi.

**996-yili** qoraxoniylar Movarounnahr tomon yana hujum boshlaydilar. Sobuqtegin qo'shini Buxoroni egallaydi. So'ngra u qoraxoniylar bilan muzokaralar olib boradi. Ular o'rtasida shartnoma tuzilib, Sirdaryo havzasi qoraxoniylar qo'liga o'tadi. Sobuqtegin esa Amudaryodan janubdagi yerlar, jumladan, Xurosonda hukmdor bo'lib oladi. Somoniylarga Movarounnahrning markaziy qismigina beriladi, xolos. **999-yili** Buxoroning **Nasr Eloqxon** tomonidan zabt etilishi bilan somoniylar hukmronligi barham topdi.

Qoraxoniylar davlatining ikkiga ajralishi. Qoraxoniylar endi Xurosonni ham o'z davlatiga qo'shib olish uchun harakat qiladilar. Oradan ko'p vaqt o'tmay qoraxoniylar va g'aznaviylar o'rtasida shiddatli urush boshlanadi. **1006-** va **1008-yillarda** qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortadilar. Lekin Mahmud G'aznaviy qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga erishadi. Bu davrda **saljuqiylar** g'aznaviylarga xavf sola boshlaydi. Saljuqiylar bilan jiddiy kurash boshlanadi. Bundan foydalangan qoraxoniylarning mahalliy hukmdori **Ibrohim Bo'ritagin 1038-yili** Amudaryo bo'yi viloyatlari – **Xuttalon, Vaxsh** va **Chag'oniyonni** g'aznaviylardan tortib oladi. Ko'p o'tmay u Movarounnahr va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi. Biri poytaxti Bolasog'unda bo'lgan **Sharqiy qoraxoniylar**, ikkinchisi markazi Samarqandda bo'lgan **G'arbiy qoraxoniylar** davlati edi. Ibrohim Bo'ritagin «**bug'roxon**» unvonini olgan.

Davlat boshqaruv. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qilganlar. Ularni **eloqxon** va **takin** (tegin)lar boshqarardi. Hokim-

lari faqat qoraxoniylar xonadonining eloqxon unvoniga sazovor bo'lgan a'zolaridan saylangan. Eloqxonlar o'z nomlari bilan chaqa tangalar zarb qilar va viloyatlarning mustaqilligi uchun intilardilar. Movarounnahr eloqxoni qoraxoniy eloqxonlari orasida katta obro'ga ega edi. U, odatda, Samarqandda taxtda o'tirgan. Viloyat boshqaruv ma'muriyatida somoniylar davridagidek **vazirlar, sohibbaridlar, mustavfiylar** xizmat qilardi. Shaharlar esa **shahar hokimi, rais** va **muhtasiblar** tomonidan boshqarilardi. Qoraxoniylar mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlab olishda musulmon ruhoniylari bilan yaqin va do'stona munosabat o'rnatadilar. Bu davrda **imomlar, sayyidlar, shayxlar** va **sadrlarga** e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tariladi. Qoraxoniy hukmdorlar, garchi bu davrda hali o'troq hayotga ko'chmagan bo'lsalar-da, dehqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglardilar. Ular Bolasog'un, Koshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarni davlat yoki viloyat poytaxtiga aylantirib, shaharlar bilan aloqa bog'lashga harakat qiladilar.

## 5.6. XI – XII ASRLARDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOT

*Qishloq xo'jaligidagi ahvol.* Movarounnahrda kirib kelgan ko'chmanchi chorvadorlar dehqonchilik maydonlarini toptab oyoqosti qildilar. Ekinzorlar yaylovlarga aylantirildi, ko'pgina dalalar, paykal va bog'lar barbod bo'ldi. Ekin maydonlari qisqarib ketdi. Mahalliy mulkdor dehqonlar bilan chorvador ko'chmanchilar o'rtasida ziddiyat kuchayib, dehqonlarga qarshi kurash keskin tus oladi. Dehqonlar jon saqlash maqsadida o'z yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ladilar, ularga zo'rlik choralari ham qo'llanilgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida mahalliy mulkdor dehqonlar yer-suv mulklaridan hamda mavqelaridan ajralib, jamiyat hayotida o'zining ilgari o'rni va ahamiyatini butunlay yo'qotadi.

*Iqto yerlarining kengayishi.* XI asrdan boshlab yerdan foydalanishda **iqto** tartiboti keng yoyiladi. Hukmron sulola namoyandalaridan tashqari oliy darajali harbiylar, davlat ma'murlari va mahalliy zodagonlarga ham katta-katta yer maydonlari iqto tarzida hadya qilinadi. Iqto qoraxoniylar uchun bo'ysundirilgan mamlakat aholisidan soliqlarni undirib, uni boshqarishning eng qulay shakli hisoblangan. Bu davrda iqto tartibi shunchalik kengaydiki, nafaqat qishloqlar, balki butun bir viloyat va yirik shaharlardan olinadigan daromad ham iqto tarzida in'om qilinadigan bo'ldi. Iqto vaqtinchalik in'omdan umrbod foydalanishga, hatto avloddan avlodga o'tadigan merosiy mulkka aylana boshlagan. Shunday qilib,



**XI – XII asrlarda** iqto mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylanadi. Bu davrga kelib ruhoniylarga bo'lgan e'tibor kuchayishi, ularning siyosiy ta'siri ortib borishi bilan **vaqf yerlari** ham ancha ko'paydi. Garchi bu davrda **barzikorlar** ilk o'rta asrlardagi kadivarlarga nisbatan ozod hisoblansalar-da, ammo ularning zimmasiga turli soliq va majburiyatlar yuklangan. Sug'orish tarmoqlari, to'g'onlar, yo'l va qal'alar qurish va ularni ta'mirlashda ularning ishtiroki shart edi.

Shaharlar, savdo. **XI – XII asrlarda**, ayniqsa, shaharlar kengayadi, aholisining soni ko'payib, gavjumlashadi. Samarqand, Buxoro, Termiz, O'zgan, Toshkent kabi shaharlar ichki va tashqi savdo uchun xilma-xil chaqa-tangalar vositasi bilan olib boriladigan bozor tijoratining markaziga aylanadi. Shaharlar markazida shohona saroylar, masjidlar, madrasa, minora va hammomlar, shahar ichi va atrofida savdo va hunarmandchilik mahallalari, karvonsaroylar va bozorlar barpo etiladi. Shaharlarda, ayniqsa, kulolchilik, shishasozlik, miskarlik va chilangarlik rivoj topadi. **XI – XII asrlarning** siri koshinkor va qabartma naqshli sopol idish va tovoqlari, rangdor shisha buyumlari, naqshinkor mis idishlari o'zining xilma-xilligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Hunarmandchilik taraqqiy etishi hamda ichki va tashqi savdoning kengayishi bilan bozor tijoratida pulga talab oshadi. Natijada qoraxoniylar va ularning viloyat hokimlari tomonidan kumush va misdan ko'plab chaqa va tangalar zarb qilinadi. **Bolasog'un, Tarozi, O'zgan, Toshkent, Samarqand, Buxoro** va boshqa shaharlarda pul so'qiladigan zarbxonalar bo'lgan.

Qoraxitoylar hujumi. Mamlakatni viloyatlarga bo'lib boshqarish va iqto tartibotining keng joriy etilishi ayrim viloyatlarning siyosiy nufuzini oshirib, ularning mustaqillikka intilishini kuchaytiradi. Oqibatda siyosiy jihatdan tobora zaiflashib borayotgan Qoraxoniylar davlati o'zining avvalgi mavqeyini yo'qotib, saljuqiylar tazyiqiga uchraydi va qaram bo'lib qoladi. **XII asrning 30-yillari oxirida** Qoraxoniylar davlati Sharqdan kelgan ko'chmanchi **qoraxitoylar** (mo'g'ullarga mansub qabila) hujumiga duchor bo'ladi. **Go'rxon Bolasog'un** shahrini Qoraxitoylar davlati poytaxtiga aylantirgan. Yettisuvga joylashib olgan qoraxitoylar tez orada Sirdaryoning o'rta oqimiga tomon yurish boshlaydi. Ularning jangovar qo'shinlari, avvalo, Shosh va Farg'onaga, so'ngra Zarafshon va Qashqadaryo viloyatlariga bostirib kiradi. **1137-yili** ular **Xo'jand** yaqinida qoraxoniylar eloqxoni **Mahmudga** qaqshatqich zarba beradilar. O'zaro sulh tuzilib, qoraxoniylardan katta tovon olingach o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Lekin sulh uzoqqa cho'zilmaydi. Oradan **to'rt yil** o'tib qoraxitoylar yana Movarounnahrda yurish qiladilar. **1141-yili** bo'lib

o'tgan jangda qoraxitoylar g'alaba qozonadi. Oqibatda Qoraxoniylar davlati tugatiladi.

## 5.7. XORAZMSHOHLAR DAVLATI

*Mustaqillik uchun kurash.* **1017-yili Mahmud G'aznaviy** tomonidan zabt etilib, o'z mustaqilligini yo'qotgan **Xorazm** ko'p vaqt o'tmay (**1040**) **Saljuqiylar davlatiga** qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori **Malikshoh** o'z ma'murlaridan **Anushteginni** Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtegin vafotidan keyin Xorazmda uning vorisi **Qutbiddin Muhammad (1097 – 1127)** noiblik qiladi. Garchi u «**xorazmshoh**» unvonini tiklab, bunday jarangdor nom bilan atalsa-da, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibiligicha qolgandi. Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning o'g'li **Otsiz (1127 – 1156)** nomi bilan bog'liq. Otsiz va uning vorislari Xorazmning mustaqilligi yo'lida Movarounnahr va Eronda sodir bo'lgan har qanday qulay vaziyatdan foydalanadi. Otsiz dastavval turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi. Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi. Qang'li va turkmanlardan kuchli qo'shin to'plab, **sulton Sanjarga** qarshi isyon ko'taradi. Otsiz Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan **Xorazmshohlar davlatining** poydevorini barpo etadi.

*Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.* Otsizning siyosatini uning vorislari **Elarslon (1156 – 1172)** Sultonshoh Mahmud (1172) va **Takash (1172 – 1200)** davom ettiradilar. Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. **1153-yili** sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab parchalanib ketadi. Dastavval undan Kichik Osiyo va Kermon ajralib chiqadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlanadi. Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. **1187 – 1193-yillarda Nishopur, Ray va Marv** shaharlarini zabt etadi. **1194-yili** esa saljuqiylar sultoni **To'g'rulga** qaqshatqich zarba berib **Eronni** Xorazmga bo'ysundiradi.

*Davlat hududining kengayishi.* Takashdan so'ng uning o'g'li **Muhammad (1200 – 1220)** ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. **1206-yili Talos** vodiysida qoraxitoylar mag'lubiyatga uchratiladi. Yettisuvga qadar bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tadi. **XIII asr boshida** Xorazm davlatining shimoli-g'arbiy va g'arbiy chegarasi

Orol va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi-g'arbda Iroqqa qadar borardi. Janubi-sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli-sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tardi. Bu ulkan davlatning poytaxti **Urganch** shahri edi. Xorazmshoh «**Iskandari soniy**» deb ulug'lanardi.

*Ichki ziddiyatlar.* Qoraxitoylar zulmidan qutulishgan bo'lsa-da, mehnatkash aholining ahvoli yengillashmadi. Aksincha, xorazmshohlarning harbiy yurishlari, talonchilikdan iborat soliq siyosatidagi beboshlik, amir va ma'murlarning jabr-u zulmi mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini g'oyat og'irlashtirdi, xalq xo'jaligini yanada zaiflashtirdi. Bu shahar va qishloq mehnatkashlarining xorazmshohlarga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada **1210-yili O'tror aholisi, 1212-yili esa samarqandliklar** qo'zg'olon ko'tardilar. Muhammad Xorazmshoh qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. Xorazmshohlar davlati faqat tashqi ko'rinishidagina kuchli edi. Uning yemirilishiga sabab bo'lgan ziddiyatlar kuchayib bordi. Viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning ko'pgina tabaqalari noroziligi, qo'shin va saroyda fitnalarning avj olishi davlatning beqaror holatini ko'rsatardi. Shu bois mazkur davlat ko'p yashamadi.

## 6-BOB. IX – XIII ASRLARDA MADANIY HAYOT

### 6.1. O'RTA OSIYODA ILM-FAN RAVNAQI

«Bayt ul-hikmat». IX – XIII asrlarda mintaqada sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi. Movarounnahr istilo qilingach faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. **Bag'dod** shahri Sharqning yirik ilm va madaniy markazi edi. IX asrda bu shaharda **«Bayt ul-hikmat»** tashkil etilgandi. «Bayt ul-hikmat»da katta kutubxona, **Bag'dod** va **Damashq**da astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish, asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. **Al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ahmad al-Marvaziy, Al-Abbos Javhariy** va **Yahyo bin Abu Mansur** kabi o'rta osiyolik olimlar ijod qilib, ilm-fanga katta hissa qo'shdilar.

Al-Xorazmiy. **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783 – 850)** Xorazm diyorida tug'ilib voyaga yetadi. Dastlabki bilimlarini Xorazm, Movarounnahr shahar va qishloqlarida oladi. So'ngra xalifa **Ma'mun** zamonida (813 – 833) «Bayt ul-hikmat»da mudir sifatida faoliyat ko'rsatdi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Xorazmiy **20 dan ortiq** asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Matematikaga doir asarlari **«Al-jabr val-muqobala»**, **«Hind hisobi haqida»**; geografiyaga oid kitobi **«Kitob surat ul-arz»** (Yer surati); astronomiyaga oid asarlari **«Zij»** va **«Usturlab bilan ishlash haqida kitob»**; tarixga oid asarlari **«Kitob at-tarix»**, **«Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola»** nomlari bilan atalgan. Xorazmiy nomi esa matematika fanida **«algoritm»** atamasi shaklida o'z ifodasini topdi. Uning «Al-jabr» asari asrlar davomida avlodlar qo'lida yer o'lchash, ariq chiqarish, bino qurish, merosni taqsimlash va boshqa turli hisob hamda o'lchov ishlarida dasturilamal bo'lib xizmat qildi. Asar **XII asr**dayoq **Ispaniyada lotin tiliga** tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi.

Ahmad al-Farg'oniy. «Bayt ul-hikmat»da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf **Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy (797 – 865)**dir. U Yevropada **Alfraganus** taxallusi bilan shuhrat qozondi. U astronomiya, matematika

va geografiya fanlari, qator ilmiy va amaliy ishlar bilan shug'ullandi. Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qildi. **831 – 833-yillarda** Suriyaning shimolida **Sinjar** dashtida va **Ar-Raqqa** oralig'ida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda qatnashdi. **861-yili** Farg'oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini o'lchaydigan «**Miqyos an-Nil**» inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Bizgacha Farg'oniyning sakkizta asari saqlangan bo'lib, ular orasida «**Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum**» kitobi mashhur. Bu asar **XII asr**dayoq **lotin tiliga** tarjima qilinib, Yevropa mamlakatlaridagi astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi. Mustaqillik yillarida allomaning noyob merosi xalqimizga qaytarildi. **1998-yil oktyabr**da Ahmad al-Farg'oniy tavalludining **1200 yilligi** nishonlandi. Farg'ona shahrida allomaga haykal o'rnatildi.

*Imom al-Buxoriy* Dunyoviy fan olimlari bilan bir qatorda bu davrda islom ta'limotining takomili yo'lida mo'varounnahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmatlari katta bo'ldi. Bu borada **Imom al-Buxoriy (Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, 810 – 870)**, uning zamondoshi va shogirdi **Termiziy (Abu Iso Muhammad at-Termiziy, 824 ~ 894)**larning hissasi nihoyatda ulug'dir. Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid **20 dan ortiq** asar yozdi. Uning «**Al-jomi' as-sahih**» nomli shoh asari qariyb o'n ikki asr davomida islom olamida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba sifatida yuqori baholanib keladi. Bu bebaho asarga **7275 hadis** kiritilgan. **1998-yil oktyabr**da Imom al-Buxoriy tavalludining **1225 yilligi** nishonlandi. Samarqand yaqinidagi **Xartang** qishlog'ida «Imom al-Buxoriy» yodgorlik majmuasi barpo etildi. 4 jildlik «Al-jomi' as-sahih» kitobi ilk bora o'zbek tilida nashr etildi.

*Abu Mansur al-Moturidiy.* Kalom ilmi ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma **Abu Mansur al-Moturidiy** taxminan **870-yili** Samarqand yaqinidagi **Moturid** qishlog'ida tug'ilgan. Al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, ma'naviy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan. Ulardan «**Kitob at-Tavhid**» (Alloh birligi) va «**Ta'vilot ahl as-sunna**» (Sunnilik an'analari sharhi) nomli asarlarigina saqlanib qolgan. Ularda diniy ta'limot, islomiy urf-odatlarining insonning kamol topishida, dunyoqarashining shakllanishidagi mohiyati talqin etilgan. Al-Moturidiy **944-yili** Samarqandda vafot etgan. **2000-yil noyabr**da Imom al-Moturidiy tavalludining **1130 yilligi** keng nishonlandi. Samarqandda Moturidiy xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuysi barpo etildi, asarlari o'zbek tilida nashr qilindi.

## 6.2. MOVAROUNNAHR VA XORAZMNING MADANIY HAYOTIDA YANGI DAVR (IX – XIII ASR BOSHLARI)

*Madaniy va ma'naviy uyg'onish.* IX asrning 2-yarmida xalifalik hukmronligi tugab, madaniy hayot rivoji uchun keng yo'l ochildi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Nishopur kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylandi. Ularda kutubxonalar, kitob do'konlari qurilgan. Movarounnahrning hayotida uyg'onish davri boshlandi. **1004-yili «Dorul hikmat va maorif»** (Hikmat va maorif uyi) Ma'mun akademiyasi shakllangan. Uning asosini **Abu Nasr ibn Iroq (X asr – 1034)**, **Abuxayr ibn Hammor (991 – 1048)**, **Abu Sahi Masihiy (970 – 1011)**, **Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048)**, **Abu Ali ibn Sino (980 – 1037)** va boshqalar tashkil etgan. **1017-yili** Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirgan. «Dorul hikmat va maorif» faoliyati tugatilgan, olimlarning ko'pchiligi **G'azna** shahriga olib ketilgan. **1997-yil 11-noyabrda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni chiqdi. **2005-yil kuzida** «Xorazm Ma'mun akademiyasi»ning **1000 yilligi** nishonlandi.

*Forobiy.* **Abu Nasr Forobiy (873 – 950)** **873-yili** Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan **Forob** shahrida tug'ilgan. U avval ona shahrida, so'ngra Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Umrining oxirlarida Xalab va Damashq shaharlarida yashagan. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot sohalarida ijod qilgan. U **160 dan ortiq** asar yozib, fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ular orasida «**Arastuning «Metafizika» asariga sharh**», «**Musiqa kitobi**», «**Baxt-saodatga erishuv haqida**», «**Tirik mavjudot a'zolari haqida**», «**Fozil odamlar shahri**» va boshqa ko'pgina asarlari muhim ahamiyatga ega. Forobiy sharqda Arastudan keyingi yirik mutafakkir – «**Muallim ussoniy**» nomi bilan shuhrat topdi.

*Ibn Sino.* Bu davrning ulug' mutafakkirlaridan biri **Abu Ali ibn Sino** **980-yili** Buxoro yaqinidagi **Afshona** qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach ustoz **Abu Abdullohdan** mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rganadi. Ayniqsa, **Gippokrat**, **Galen**, **Abu Bakr ar-Roziy (865 – 925)** asarlarini puxta o'zlashtiradi. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U amir Nuh ibn Mansurni davolagach somoniylarning saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat oladi. Ibn Sino Gurganch (Urganch)dagi Ma'mun

akademiyasi olimlari qatorida ijod qiladi. Alloma **1037-yili** vafot etadi va **Hamadonda** dafn qilinadi. Ibn Sino **450 dan ortiq**, jumladan, tibbiyotga doir **43 ta** asar yozgan. Uning 5 jildlik **«Al-qonun fit-tib»** (Tib qonunlari) asari tabobatning g'oyat muhim masalalariga bag'ishlanadi. Asar **XII asr**dayoq lotinchaga tarjima qilinib, to **XVII asr**gacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan.

**Beruniy.** Ulug' mutafakkir **Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048)** qadimgi **Kat** shahrida tug'ilib, Urganchda ta'lim olgan. Xorazmshoh **Abul Abbos Ma'mun II** saroyida to'plangan olimlar bilan birgalikda Ma'mun akademiyasida ijod qilgan. 1017-yili Beruniy va boshqa olimlar **G'aznaga** olib ketiladi. Beruniy **1048-yili** G'aznada vafot etadi. Beruniyning falakiyot, geografiya, matematika va tarix fanlari bo'yicha **160 dan ortiq** asarlari bizgacha yetib kelgan. Uning **«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»**, **«Hindiston»**, **«Mineralogiya»**, **«Geodeziya»** kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr oldin Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Yerning dumaloq shaklda ekanini asoslab berdi. **1029 ta yulduzning** koordinatlari va yulduz kattaliklari qayd etilgan jadval va dunyoning geografik xaritasini tuzdi. O'zbekiston shaharlari, Sharqshunoslik instituti, Texnika universiteti Beruniy nomi bilan ataladi. Beruniy nomidagi davlat mukofoti ta'sis etilgan.

**Mahmud Zamaxshariy.** Buyuk alloma **Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy 1074-yili** Xorazmning **Zamaxshar** qishlog'ida dunyoga kelgan. Dastlabki ma'lumotni otasidan oladi, so'ngra madrasada tahsil ko'radi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik bois Buxoro, Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod, Hirot va Makkada hayot kechirib, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlar, xattotlik san'ati, arab maqollari va urf-odatlarini chuqur o'rganadi. Mintaqa geografiyasiga oid ma'lumotlarni to'playdi. Mahmud Zamaxshariy turli ilm sohalariga oid **50 dan ortiq** asarlar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan **«Al-Mufasssal»**, Qur'oni Karim tafsiriga oid **«Al-Kashshof»** asarlari musulmon olamida mashhurdir. Zamaxshariy **«Arab va g'ayriarablar ustozlari»**, **«Xorazm faxri»** kabi sharaflil nomlar bilan ulug'langan. Qohiradagi mashhur **Al-Azhar** diniy dorilfununi talabalari hozir ham **«Al-Kashshof»** asosida Qur'oni Karimni o'rganadilar.

**Burhoniddin Marg'inoniy.** Mashhur faqih (huquqshunos) **Burhoniddin al-Marg'inoniy 1123-yili** Rishtonda tavallud topgan. Allomaning eng nodir asari to'rt jildli **«Hidoya»**dir. U islom huquqshunosligi bo'yicha mukammal asar bo'lib, bir necha asrlar davomida musulmon mam-

lakatlaridagi huquqshunoslar uchun ham nazariy, ham amaliy qo'llanma vazifasini o'tab kelgan. Asar ko'p tillarga tarjima qilingan. **2000-yili** Marg'inoniy tavalludining **910 yilligi** nishonlandi.

*Turkiy yozma adabiyot.* Bu davrda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda yozma adabiyoti vujudga keladi. Qator yirik asarlar bitiladi. Ulardan eng nodirlari **Yusuf Xos Hojibning (XI asr) «Qutadg'u bilig»** asari, **Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'atit turk»** asari, **Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»** asari, **Ahmad Yassaviyning «Hikmat»** asari hisoblanadi. Bu davr turkiy tili eski o'zbek va uyg'ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo'ldi.

### 6.3. ME'MORCHILIK, SAN'AT, MUSIQA VA DINIY E'TIQOD

*Me'morchilik va san'at.* Islom dini va mafkurasi me'morchilik va san'atga ham kuchli ta'sir qildi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv shaharlarida ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Buxorodagi Ismoil Somoniy, Namozgoh, Minorayi Kalon hamda Vobkent va Jarqo'rg'ondagi minora va ko'pgina boshqa binolar o'sha davr me'morchiligi namunalari. Bu davrda yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari – bandlar, novalar, ko'priklar, sardobalar va korizlar barpo etiladi. **X asrda** Nurota tizmalaridagi past tog' darasi to'silib barpo etilgan **Xonbandi suv omboriga 1,5 mln litr** suv to'plangan. To'g'on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan barpo qilingan. Suv omborini qurishda suvning vertikal va gorizontol bosim kuchi va bu hududlarda tez-tez sodir bo'lib turadigan zilzilalar silkinish kuchi ham hisobga olingan. Bu XVII asr fransuz olimi **Blez Paskal** suv bosim kuchi to'g'risidagi qonunni kashf etishidan ancha oldin yurtdoshlarimizga ma'lum bo'lganini ko'rsatadi.

*Turarjoylar.* **X asrdan** boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib ustunlari-yu sarroblari va to'sinlarigacha yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand shahar xarobalari o'rganilganda **X – XI asrlarda** ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni egallagani ma'lum bo'ladi. Bu davrda naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va istlimi



gulli naqshlar ishlashga o'tiladi. Imoratning peshtoqi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanadi.

**Xattotlik.** Hali kitob bosish kashf etilmagani bois, xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi. **IX – XIII asr boshlari** me'morchiligi va unda ishlatilgan naqsh uslublari, xattotlik namunalari, o'z navbatida, mehnatkash aholining did-nafosat, binokorlik g'oyalari va sermazmun ijodini yaqqol namoyon etdi.

**Musiqqa san'ati.** Bu davrda musiqqa san'ati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Sozandalar ud, tanbur, qo'biz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shnay va qonun kabi xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblardan keng foydalangan. Xalq kuylari asosida keyinchalik o'zbek va tojik xalqlarining mumtoz kuyi «**Shashmaqom**» uchun poydevor bo'lgan «**Rost**», «**Xusravoniy**», «**Boda**», «**Ushshoq**», «**Zerafkanda**», «**Buslik**», «**Sipohon**», «**Navo**», «**Basta**», «**Tarona**» kabi yangi-yangi kuylar ijod etilgan. Musiqqa san'ati she'riyat hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi.

**Din.** Bu davrda jahon dini darajasiga ko'tarilgan islom musulmon dunyo sining mafkurasiga aylandi. Movarounnahr aholisi ham islom dinini qabul qilib, shariat ahkomlarini bajarishga, arab tili va yozuvini o'rganishga kirishdi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. **XII asrda** Buxoroning **Darvoza mahallasida** hatto huquqshunoslar uchun maxsus «**Faqihlar madrasasi**» qurilgan. Madrasalarda islom ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim va Hadisi Sharifni, arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor berilgan. Buxoro islom ta'limoti ravnaqi va targ'ibotining kengayishida markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan ko'plab yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, imomlar yetishib chiqadi. Shu bois Buxoro **IX asrdan** boshlab «**Qubbat ul-islom**» – «**Islom dinining gumbazi**» nomi bilan shuhrat topdi.

**Tasavvuf.** Mazkur davrda **tasavvuf** ta'limoti keng tarqaldi. U dastlab **VIII asr o'rtalarida Iroqda** yuzaga kelgan. Tasavvuf asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Turkistonda **XII asrda yassaviya**, **XII asr oxirida Xorazmda kubraviya**, **XIV asrda Buxoroda naqshbandiya** kabi tasavvufning tariqatlari vujudga keladi. Yassaviya tariqatiga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari allomaning «**Hikmat**» asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviy fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'lolmaydi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g'oyasi olg'a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog'atidan voz kechib, uzlatda toat-

ibodat, mashaqqat chekkanlargina erishadi. Yassaviy tariqatida tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

**Najmiddin Kubro (1145 – 1221)** Xorazmda kubraviya tariqatiga asos soladi. Kubraviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lidagi mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubraviyada xalqqa va vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli.

**XIV asrda** Bahouddin Naqshband naqshbandiya tariqatiga asos soldi. U **1318-yili** Buxoro yaqinidagi **Qasri Hinduvon** qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi usta oilasida dunyoga keladi. Yoshligida o'qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxobga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlik kasbini egallagan. Xoja Bahouddin «**Hayotnoma**» va «**Dalil ul-oshiqin**» nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Tariqat Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya insonlarni halol, pok bo'lishga, o'z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo'lishga chaqiradi. Uning «**Dil ba yor-u, dast ba kor**» (**Ko'ngil Allohda bo'lsin, qo'l ish bilan band bo'lsin**) degan hikmati tariqatning hayotiy mohiyatini ifodalaydi. Naqshbandiya tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib qiladi. Ta'limot taraqqiyotiga **Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror** kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shdilar.

#### 6.4. ETNIK JARAYONLAR VA O'ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI

*Etnik jarayonlar.* O'zbeklar alohida etnik birlik (elat) bo'lib, O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari – Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. O'zbek xalqining asosini o'troq **so'g'diylar, baxtariylar, xorazmiylar, farg'onaliklar**, yarim chorvador **qang'li**, ko'chmanchi **sak-massagetlar** kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan turli davrlarda Movarounnahrqa kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar. Yuqoridagi qabila va elatlarning etnik jihatdan dastlabki aralashuv jarayoni natijasida o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon, o'zbek xalqiga xos antropologik tip (qiyofa) shakllanadi.

**Mil. av. III asrda** Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va so'g'diylar ittifoqi asosida tashkil topgan **Qang' davlati** davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning

rivojlanishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustuvorlik qilib, o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat yuzaga keladi. Bu madaniyat **Qovunchi madaniyati** nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashicha, aynan shu davrda O'rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi aholi tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos O'rta Osiyo ikki daryo oraliq'i antropologik tipi (qiyofasi) to'liq shakllandi.

O'zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar **kushonlar** hamda **IV – V asrlarda** O'rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharqiy Turkistondan kirib kelgan **xloniylar, kidariylar va eftaliylardir**. O'zbeklar etnogeneziga Turk xoqonligi davrida o'troqlashgan **turkiy etnik komponentlar** faol ta'sir ko'rsatadi. Kirib kelgan turkiy komponentlar va mahalliy aholi o'rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji natijasida turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo'jalik an'analari bilan jadal uyg'unlashuvi yuz berdi. **VII asrdan** o'lkamiz **Turkiston** nomi bilan atala boshladi.

*O'zbek xalqining shakllanishi.* **VIII asrdan** arab va ajam xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir qilmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lgan esa-da, Movarounnahrda o'troq va yarimo'troq turkiyzabon aholi, so'g'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yashaganlar. **IX asrda** Movarounnahrda yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi, o'z navbatida, so'g'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni kuchaygan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'lib, mazkur qatlam asosining aksariyat ko'pchiligini o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan yuz bergan etnik jarayonlar o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ladi. Aynan mazkur davrda o'zbek xalqiga xos elatni belgilovchi hududiy, madaniy-ma'naviy umumiylik, etnik o'zlikni anglash, ma'lum bir davlat doirasidagi etnik uyushqoqlik, din umumiyligi kabi etnik omillar shakllangan. Bu davrda o'zbeklarning umumelat tili qaror topdi. Umuman olganda, elat shakllanishidagi muhim ahamiyatga ega aksariyat etnik alomatlar shakllanib yetiladi. Shunday qilib, asrlar osha yurtimizda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatda muttasil davom etgan etnik jarayonlar natijasida **IX – XII asr boshlarida o'zbek xalqi** shakllandi. Uning asosiy o'q ildizini o'lkamizda muqim yashab kelgan tub yerli aholi tashkil etdi. Ikkinchi ildizi esa o'lkaga kirib kelgan turkiy elatlardir.

## 7-BOB. MO'G'ULLAR ISTILOSII

### 7.1. XORAZMSHOHLAR SALTANATI BILAN MO'G'ULLAR DAVLATI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Mo'g'ullar davlati. **XI asrda** mo'g'ul qabilalari hayotida hali urug'-aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi. Ular, asosan, ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik va o'zaro mahsulot ayirboshlash bilan shug'ullanardi. Bu davrda mo'g'ul urug' va qabilalari o'rtasida o'zaro kurash avj oladi. Mazkur kurashda **Temuchin (1155 – 1227)** g'olib chiqadi. **1206-yili Onon** daryosi bo'yida chaqirilgan qurultoyda Temuchin ulug' xon (qoon) deb e'lon qilindi, unga **Chingiz** laqabi berildi. Shu bilan **Mo'g'ullar davlatiga** asos solinadi. Chingizxon ko'p sonli, yaxshi qurollangan, intizomli va uyushgan qo'shin tuzadi va istilochilik urushlari olib borishga kirishadi. **1206-yili** dastlab naymanlar bo'ysundiriladi. **1207 – 1208-yillarda** Enasoy havzasi, so'ngra Yettisuv viloyatining shimoliy qismi zabt etiladi va uyg'urlar taslim bo'ladi. **1211 – 1215-yillarda** bir necha bor Xitoyga hujum qilinadi. Natijada Shimoliy Xitoyning markazi – **Szindi** shahri egallanib, **szin** sulolasi taxtdan qulatiladi. Chingizxon Xitoydan ko'plab o'ljalar, cho'rilar bilan harbiy qurol yasaydigan va ularni ishlata oladigan mohir hunarmandlarni ham Mo'g'ulistonga olib ketadi. Bu orqali uning qo'shini zamonasining eng yaxshi harbiy qurol-aslahalari bilan ta'minlanadi. Chingizxon **1218 – 1219-yillarda** Sharqiy Turkiston va Yettisuv viloyatlarini deyarli talafotsiz qo'lg'a kiritib, bu yerdagi **Kuchluk davlatini** tugatdi. Shunday qilib, Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog' (Tyan-Shan) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar Mo'g'ullar davlatiga birlashtiriladi. Endilikda bu davlatning g'arbiy hududlari Xorazmshohlar saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketgandi.

O'zaro elchilik aloqalari. Chingizxon va Xorazmshoh o'rtasida bir-birining kuch-qudrati haqida ma'lumot to'plashga harakat qilinadi. Ikki o'rtada hatto elchilik aloqalari o'rnatiladi. Chingizxon bunda huzuridagi musulmon savdogarlardan foydalanadi. Har ikki tomondan savdo karvonlari safida yuborilgan elchi va vakillar ayg'oqchilik vazifasini ham bajaradilar. Dastavval, **1216-yili**, Chingizxon huzuriga **Bahouddin Roziy** boshchiligida xorazmshoh elchilari yuboriladi. Chingizxon ham qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini Xorazmga yuboradi. Elchilarga xorazmlik savdogar **Mahmud Yalavoch** boshchilik qiladi. Elchilar **1218-yil bahorida Buxoro** shahrida sulton Muhammad

tomonidan qabul qilinadi. Xorazmshoh tunda Mahmudni xufyona o'z huzuriga chaqirtirib keladi. Elchiga Chingizxonga emas, unga xizmat qilishini, Chingizxon to'g'risidagi bor gapni aytishini, keyinchalik xon huzurida xorazmshohning josusi bo'lib qolishini talab etadi. Buning evaziga elchiga qimmatbaho javohir ham sovg'a qilinadi. So'ngra Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozilik beradi va elchilarni jo'natib yuboradi. Chingizxon elchilarining ish natijalaridan mamnun bo'ladi. Chunki Mahmud Xorazm va uning hukmdori haqida Chingizxonga mo'g'ullar to'g'risida xorazmshohga aytgan ma'lumotlaridan ham ko'proq axborot to'plab qaytgandi.

Munosabatlarning keskinlashuvi. Chingizxon sulton Muhammadga minnatdorchilik bildirish va o'zaro shartnoma tuzish uchun **1218-yilning** o'zidayoq Xorazmga juda katta savdo va elchilik karvonini yuboradi. Karvon ko'p miqdorda oltin, kumush buyumlar, xitoy ipak matolari, suvsar va qunduz mo'ynalari va boshqa qimmatbaho mollar ortilgan **500 tuyadan** va **450 musulmon savdogarlardan** tashkil topgandi. Ammo karvon chegara shahar **O'trorda** ushlab qolinadi. Shahar noibi **G'oiron** (**Inolchiq**) tomonidan karvon talanib, savdogarlarning hammasi qirib tashlanadi. Faqat bir tuyakashgina o'limdan qutulib qoladi. U Chingizxon qarorgohiga zo'rg'a yetib borib, karvonning dahshatli qismatidan xabar beradi. Chingizxon voqeadan qattiq g'azablanadi. Ammo g'azabini bosib, **Ibn Kafroj Bug'roni** ikki ishonchli mulozim kuzatuvchilar bilan xorazmshoh huzuriga elchi qilib yuboradi. Chingizxon sulton Muhammaddan aybdorlarni jazolash va Inolchiqni uning ixtiyoriga topshirishni talab qiladi. Xorazmshoh bunga javoban elchini o'ldirishni, ikkita mulozimning soqol-mo'ylovini qirib, sharmandalarcha qaytarib yuborishni buyuradi. Bu ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari va elchilik munosabatlari tamomila uzilganini bildirardi. Shunday qilib, **O'tror voqeasi** urush boshlanishiga bahona bo'ldi.

Xorazmshohlar davlatining inqirozga yuz tutishi. Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Biroq xorazmshoh hokimiyati mustahkam emasdi. Mansabdorlar davlat tang ahvolda qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar, o'zboshimchalik bilan yo'l tutardilar. Hatto ayrim viloyat hokimlari xorazmshohga nomigagina bo'ysunar, amalda deyarli mustaqil edi. Ayniqsa, **Turkon xotun**, ya'ni «Turklar onasi» nomi bilan shuhrat topgan sulton Muhammadning onasi qo'shinining oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug'-qabila aloqalari orqali mahkam bog'langandi. U o'z qabiladoshlari manfaatini yo'lida saroydagi

barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ko'pchilikda shohga qarshi adovat ruhini uyg'otib qo'ygandi. Eng achinarlisi, ezilgan Xorazm xalqining sulton Muhammadga nisbatan e'tiqodi susayib ketgandi. Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgandi. Ana shunday vaziyatda u mo'g'ullarning Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ldi.

## 7.2. CHINGIZXON BOSQINI

Xorazmshohning mudofaa rejasi. Chingizxon yurishni Sharqiy Turkiston va Yettisuv o'lkalarini zabt etishdan boshladi. U Xorazmshohlar davlatidagi ichki ahvoldan to'la xabardor edi. Askarlarning umumiy soni bo'yicha Xorazmshoh ustunroq edi. Lekin shoh bilan sarkardalar o'rtasidagi ixtiloflar mazkur ustunlikdan foydalanish imkonini bermadi. Urush arafasidagi kengashda bu ixtilof yaqqol namoyon bo'ldi. Sulton katta qo'shinni bir joyga to'plashdan qo'rqardi, uning nazarida bir joyga to'plangan qo'shin sultonni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi. Shu bois sulton o'z qo'shinlarini turli shaharlarda alohida-alohida joylashtirishga, urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qiladi.

O'tror qamali. 1219-yil kuzida Chingizxon xorazmshohga qarshi yurish boshladi. Uning jami askari **200 mingga yaqin** edi. Dastlab Sirdaryo bo'yida joylashgan **O'tror** shahriga hujum qilindi. Chingizxon bu shahar yaqinida butun harbiy kuchlarni **to'rt qismga** bo'ldi. Uning bir qismini o'g'illari **Chig'atoy** va **O'qtoy** boshchiligida **O'tronni** qamal qilish uchun qoldirdi. Ikkinchi qismga **Jo'ji** boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi. Unga **Sig'noq**, **Jand**, **Yangikent** shaharlarini bosib olishni buyurdi. Besh ming kishilik uchinchi qo'shin **Oloqno'yon** hamda **Suketu Cherbi** qo'mondonligida Sirdaryoning o'rta oqimi bo'ylab uning yuqori oqimida joylashgan **Banokat** va **Xo'jand** shaharlari tomon yuborildi. **Chingizxonning** o'zi asosiy kuchlari bilan **Buxoro** tomon yurdi.

O'tror mustahkam qal'ali chegara shahar edi. Shahar qamalga olinishi bilan, o'trorliklar sarosimaga tushmaganlar. Ona shaharlarini mudofaa qilib, uni **besh oy** davomida o'z qo'llarida ushlab turadilar. Nihoyat, qurshovga olingan Inolchiq asirga tushiriladi va Samarqandga olib kelinib, qiynab o'ldiriladi.

Buxoro fojiasi. 1220-yil fevralda Chingizxon Buxoroga yetib boradi. Shahar dushman hujumini qaytarishga tayyor emasdi. Buxoroliklar dushmanga taslim bo'lishdan o'zga chora topolmaydilar. Buxoro qozisi **Badriddin Qozixon** o'z oqsoqollarini Chingizxon huzuriga shafqat so'rab

yuboradi. **1220-yil 16-fevralda** mo'g'ullar Buxoroni egallaydilar, shahar talon-toroj etiladi. Behisob xazinalar talanadi, asriy qo'lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga tashlanadi. Ilm va ma'rifat egalari bo'lgan ulamo va shayxlar e'tiborli mo'g'ul jangchilariga xizmatkor qilib, goho esa baxshilarga masxara uchun beriladi. Chingizxon amri bilan Buxoro yoqib yuboriladi.

**Samarqand jangi.** Buxorodan keyin Chingizxon Samarqandga yo'l oladi va **1220-yil martda** Movarounnahrning eng muhim shahriga yaqinlashadi. Chingizxon shahardan tashqarida joylashgan **Ko'ksaroy** qasridan turib shaharni qamal etish ishiga boshchilik qiladi. Shahar ostonasida **uch kun** shiddatli janglar davom etadi. Qamalning uchinchi kuni mudofaachilar qamalni yorib chiqib, mo'g'ullarga hujum qiladilar. Mo'g'ullar ularni qirib tashlashadi. Beshinchi kuni shahar taslim bo'ldi. Samarqandning bosh suv inshooti – **Qo'rg'oshin nova** buzib tashlanadi, shahar suvsiz qoldiriladi. Mo'g'ullar **Namozgoh** darvozasidan bostirib kirib, barcha istehkomlarni vayron qiladilar. Shahristondan aholi haydab chiqariladi va Samarqand talanadi. Shahar aholisining ko'pgina qismi qiriladi, **30 mingga yaqin** hunarmand asirga olinadi. Qurol ko'tarishga holi bo'lganlar askarlikka majburan jalb etiladi. Bu paytda Muhammad Xorazmshoh nochor kuzatuvchiga aylangandi. Dushmanga qarshi kurashni tashkil etish o'rniga tinchgina bir go'shani qidirish ko'yiga tushadi. 30 minglik mo'g'ul qo'shinining ta'qibidan zo'rg'a qutulib Eronga qochadi. So'ngra Kaspiy dengizining janubidagi **Ashura** oroliga borib joylashadi va xor-zorlikda, g'ariblikda kasallanib vafot etadi.

**Sirdaryo bo'ylaridagi janglar.** Bu paytda Jo'ji boshliq harbiy qism Sirdaryo etaklarida Zarafshonga harakat qilmoqda edi. Avval u aholisi zich va boy savdo shahri **Sig'noqqa** hujum boshlaydi. Aholi **yetti kun** davomida shaharni qahramonona mudofaa qiladi. Sakkizinchi kuni shahar mo'g'ullarga majburan taslim bo'ladi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisining oxirgi kishisigacha qirib tashlaydilar. **1220-yil aprelida** istilochilar **Jandni** egallab, uni talaydilar. Aholining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi. Mo'g'ullar besh ming askarlik kichik bir qo'shin bilan Sirdaryo bo'yida joylashgan **Banokat** ustiga yuradi. Shahar **to'rt kunlik** mudofaadan so'ng taslim bo'ladi.

**Temur Malik jasorati.** **Xo'jand** shahri daryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgandi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi **Temur Malikning** qahramonligi bilan xo'jandliklar mo'g'ullarga kutilmagan qarshilik ko'rsatdilar. Biroq kuchlarning tengmasligi bois Temur Malik shaharni tashlab chiqib, ming kishilik lashkari bilan shahar yaqinida

daryo o'rtasidagi orolga joylashib oladi. Temur Malikning farmoyishi bilan **12 ta qayiq** yasalib, dushmanning o'qi teshib o'tmasligi, o't yondirib yubormasligi uchun qayiqning usti namat bilan qoplanib, sirkali to'y bilan suvaladi. Bunday qayiqlar bilan sohilga xavfsiz suzib borilar va maxsus shinaklardan dushman o'qqa tutilardi. Temur Malik kuchlar tengmasligini inobatga olib bor oziq-ovqat va qurol-yarog'larni **70 ta kemaga** yuklatib, daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Mo'g'ullar ularni ta'qib etar, kemalarga kamondan o'q yog'dirar, ichiga neft to'lg'izilib, piliqlari yondirilgan ko'zachalarni palaxmonlardan irg'itardilar. Banokat atrofida daryoning u sohilidan bu sohiligacha zanjir tortib qo'yiladi. Ammo Temur Malik qayiqchilari uni bir zarba bilan uzib tashlaydi. Shu tariqa ular Jand shahriga yetib boradilar. **Barchinlig'kent** va **Jand** yaqinida daryoni to'sadilar. Jasur xo'jandliklar sohilga tushib, dushman bilan so'nggi jangga kirishadilar. Bu jangda Temur Malik o'z safdoshlaridan batamom ayriladi. Faqatgina o'zi halokatdan qutulib, Urganch shahriga yetib keladi. Biroz vaqt o'tgach Xorazmda to'plangan qo'shin va xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. Jo'jiga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, undan **Yangikent** shahrini qaytarib oladi.

Chingizxon **1220-yil yozida Naxshab** (Qarshi)ga bostirib kiradi va uni egallaydi. Shu yilning kuzida esa **Termizga** askar tortadi, Termiz qamalning **o'n birinchi kuni** qattiq hujum bilan olinib, xarob etiladi. Sirdaryo havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo o'rta oqimining o'ng sohilidagi viloyatlar egallangach, Chingizxon asosiy kuchni Xorazmga tashlaydi. Poytaxt Urganch ustiga yurishga katta ahamiyat beriladi.

### 7.3. XORAZMSHOHLAR DAVLATINING HALOKATI

*Urganch qamali*. **1221-yil boshlarida** Chingizxon qo'shinlarining **Urganchga** yurishi boshlandi. Endigina sulton deb e'lon qilingan Jaloliddin Manguberdi Urganchga yetib kelib mudofaaga kirishsa-da, Turkon xotun uning hokimiyatini tan olmadi. Unga qarshi sobiq Jand noibi qochqin **Qutlug'xon** boshliq qipchoq lashkarboshilari uyushtirgan suiqasddan xabar topgan sulton Jaloliddin Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur bo'ldi. Chunki bunday vaziyatda Urganch mudofaasini tashkil etib bo'lmadi. Tez orada shahzodalar **Uzloqshoh** va **Oqshoh** Urganchni tark etib qochib ketadilar. Poytaxt taqdiri o'ta qo'rqqoq va amalparast amir **Xumortegin** qo'lida qoladi. U o'zini sulton deb e'lon qiladi. Urganchni qamal qilish uchun shimoldan Jo'ji, Buxoro tomondan Chig'atoy va O'qtoy askarlari bostirib keladi.



**1221-yil qishida** 50 ming kishilik qo'shin Urganchni qamal qiladi. Urganchliklar o'z ona shahrini qahramonlarcha mudofaa etadilar. Poytaxt ichida olib borilgan ko'cha janglarida buyuk alloma shayx **Najmiddin Kubro** nomi bilan shuhrat qozongan **Ahmad ibn Umar Xivaqiy** o'z do'st-u shogirdlari va izdoshlari bilan ishtirok etadi. Uning «**Yo Vatan, yo sharofatli o'lim**» deb aytgan xitobi rahnamoligida shaharning har qarich yeri janggohga aylanadi. Mo'g'ullar shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik ko'p qurbon bermagandilar. Mazkur qonli kurash **besh oy** davom etadi. Chingizxon Najmiddin Kubroga yaqinlari bilan chiqib jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx bu taklifni rad qiladi. Tengsiz janglarning birida yaralangan alloma tug' tutgan mo'g'ul askariga tashlanib qahramonlarcha shahid bo'ladi. Albatta, kuchlar teng emasdi. Noilojlikdan taslim bo'lgan Urganch bosqinchilar tomonidan talon-toroj etiladi. 100 ming nafar hunarmand asir olinib, qolganlari qirib tashlanadi. Shaharning bosh to'g'oni buzib yuboriladi. Urganchni suv bosib, vayron bo'ladi.

*Jaloliddin Manguberdi jasorati.* Movarounnahr egallangach, mo'g'ullar bosqini Amudaryodan janubga – yirik savdo va madaniyat markazlari hisoblangan **Balx, Hirot, Marv** va **G'azna** kabi shaharlarga qaratiladi. Ammo bosqinchilar bu yerda Jaloliddin Manguberding qattiq qarshiligiga uchraydi. Bu o'lkada u kuchli lashkar to'playdi. Ancha yillar ilgari **G'azna, Bomiyon, Guch, Bust** va **Hindiston** hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim etib tayinlangandi. Shu bois u G'azna tomon borardi. Yo'lda unga Xuroson noiblari o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shildi. Sulton Jaloliddin **Niso, Qandahor** shaharlari yonida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berib, G'aznaga yetib keldi. **Valiyon** qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlarini tor-mor etadi. Bu Jaloliddinning dastlabki yirik g'alabasi edi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi **Shiki Xutuxu no'yonni** 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azna yaqinidagi **Parvon** tekisligida jang bo'ladi. Jaloliddin jangda harbiy taktika tarixida birinchi marta dushman suvoriylariga qarshi ot yonida piyoda turib jang qilish uslubini qo'llaydi, jangda Jaloliddin g'alaba qozondi. Biroq qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddin lashkarboshilari o'rtasida kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda lashkarboshilardan **Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik** va **Muzaffar Malik** qo'shindan ajralib ketadilar. Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga qo'shin tortadi va ajralib chiqqanlarni alohida-alohida tor-mor etadi. Jaloliddin tengsiz janglar olib orib, Sind (**Hind**) daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib boradi. Daryo bo'yida **1221-yil 25-noyabrda** qattiq jang bo'ladi. Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini yengadi. Mo'g'ullarning pistirmalarga qo'yilgan 10 ming kishilik saralangan askari

jang taqdirini hal qildi. Jaloliddin oilasining mo'g'ullar qo'liga tushishini istamay (onasining oldindan qilgan vasiyatiga ko'ra) rafiqasi, onasi va bolalarini tik qirg'oqdan daryoga tashlashga amr etadi. O'zi esa o'tda Sind daryosiga sakrab, narigi qirg'oqqa suzib o'tadi. U bilan birga to'rt ming kishilik askari ham daryodan o'tib oladi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni «**Ot sakrash**», narigi tomoni «**Cho'li Jaloliy**» deb ataladi. Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon hatto uni ta'qib qilish fikridan ham qaytadi. Jaloliddin yana o'n ikki yil davomida goh Eron, goh Ozarbayjon hududlarida mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi. Kavkazda kuchli davlat barpo etmoqchi bo'ladi. Ammo mahalliy hokimlar o'rtasidagi nizolar uning bu orzusini puchga chiqardi. Shunday qilib, harchand kurashsa-da Jaloliddin ona yurt ozodligini saqlab qololmadi. Chunki fursat boy berilgandi. Eng so'nggi xorazmshohning hukmronligi **1231-yili** tugaydi.

**1999-yili** yurtimizda buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdining **800 yilligi** keng nishonlandi. Xorazmda unga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha va maydonlarga uning nomi qo'yildi, videofilm, pyesa va dostonlar yaratildi. **2000-yil 30-avgustda «Jaloliddin Manguberdi»** ordeni ta'sis etildi.

Mo'g'ullar istilosi oqibatlari. Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi. Gavjum va ko'rkam shaharlar, ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat, Xo'jand va boshqalar xarobazorga aylantirildi. Marv vohasi sug'orish tarmoqlarining bosh to'g'oni – **Sultonband** buzib tashlandi. Samarqandliklar o'z ona shaharlarini tashlab chiqib ketdilar. Marv aholisi esa suvsizlikdan qurib borayotgan qishloqlarni tashlab, o'zga yertlarga borib joylashdi. Urganch suvga bostirilib, batamom vayron etildi. Xorazm va Movarounnahrning ziroatchi aholisi soni keskin kamayib ketishi oqibatida, ekin maydonlari qisqarib, dehqonchilik tanazzulga yuz tutdi. Mohir hunarmandlar Mo'g'ulistonga yuborildi. Ipak yo'li mo'g'ullar bosqini davrida butunlay harakatsiz qoldi. Bu davrda ilm va ma'rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo'lmadi.

#### **7.4. CHIG'ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI. MAHMUD TOROBIY QO'ZG'OLONI**

O'lkalarning taqsimlanishi. Chingizxon hali hayotlik paytidayoq zabt etilgan o'lka va viloyatlarni o'g'illariga taqsimlab berdi. **Janubiy Sibir, Dashti Qipchoq, Itilbo'yi, Xorazm** va **Darbandgacha** to'ng'ich o'g'li

**Jo'ji** va uning vafotidan keyin **Botuga** topshirildi. **Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr**ga uning ikkinchi o'g'li **Chig'atoy** ega bo'ldi. **G'arbiy Mo'g'uliston, Tarbag'atoy**ni uchinchi o'g'li va vorisi **O'qtoy**ga berdi. Kenja o'g'li **Tuluga** esa **Mo'g'uliston, Xitoy** va **Qirg'iz yeri** tegdi. Shunday qilib, mo'g'ullar bosib olgan yerlarini uluslarga bo'lib boshqarishga kirishdilar. Chingizxon vafotidan keyin (1227) O'qtoy Mo'g'ullar davlatining ulug' xoqoni etib tayinlandi. Uluslarning hukmdorlari «xon» deb yuritilardi. Ulug' xoqonning qarorgohi **Qoraqurum** shahrida bo'lib, u yerdan turib xonlarning xatti-harakatini nazorat qilib borardi.

Chingizxon vafotidan keyin ham mo'g'ullarning g'arbga yurishi davom etdi. 1236 – 1241-yillarda **Rusiya** zabt etilib, **Oltin O'rda** davlati tashkil topdi. 1256-yili **Eron** batamom bosib olindi va **Xulokuiylar** davlatiga asos solindi. Xuloku 1258-yili **abbosiy**lar sulolasiga barham beradi. **Garchi** Osiyo va Yevropaning katta qismida mo'g'ullar hokimiyati o'rnatilgan bo'lsa-da, markazlashgan davlat tuzishga erishilmadi. Ulus xonlari ulug' xoqonga nomigagina bo'ysunardi. Ular o'rtasida tez-tez o'zaro urushlar bo'lib turardi.

**Chig'atoy ulusi**. XIII asrning 20-yillarida **Chig'atoy ulusi** tashkil topdi, uning tarkibiga **Movarounnahr, Yettisuv** va **Sharqiy Turkiston** kirardi. Chig'atoyxonning ulusni boshqaradigan o'rdasi **III daryosi** bo'yida joylashgandi. Chig'atoy ulusni boshqarishda bo'ysundirilgan xalqlarning yuqori tabaqa vakillari xizmatidan foydalanadi. Movarounnahri bevosita idora etish ishlari hali o'lka zabt etilmasdan ilgari **Mahmud Yalavochga** beriladi. U **Xo'jand** shahrini o'ziga qarorgoh qilib oladi va shu yerdan Movarounnahri idora eta boshlaydi. Harbiy hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari **durug'achi** va **tang'ach** deb atalgan mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'lgan. Mo'g'ul **bosqoqlari** (mahalliy hokim) ixtiyoridagi askarlar Mahmud izmiga bo'ysundirilgandi. Mahmud boshqaruvda bevosita ularga tayanardi.

**Soliq turlari**. Chig'atoy xonlari aholiga turli soliqlar solib, zo'ravonlik bilan undirib olardilar. Ziroatchi dehqonlardan olinadigan yer solig'i «**kalon**» deb yuritilgan. Chorvadorlarga esa «**qopchur**» solig'i solingan. Davlat xazinasi uchun «**shulen**» deb nomlangan oziq-ovqat solig'i ham undirilgan. «**Shulen**» har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun ming otdan bir biya hisobida olingan. Hunarmand va savdogarlardan «**targ'u**» solig'i undirilgan. Targ'u ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan molning o'ttizdan bir qismi hajmida undirilgan. Bulardan tashqari, aholiga tuz, jun va kumush solig'i solingan. Soliqlar mahalliy amaldorlar tomonidan barot (ijara) tartibida avvaldan bir yo'la to'lab yuborilar, so'ngra aholidan

yig'ib olinardi. Soliqlar, shubhasiz, rasmiylashtirilgan miqdordan oshirib undirilgan.

Mo'g'ul xoqonlari dastlabki yillardayoq o'zlariga xizmat ko'rsatgan kishilarga, ayrim katta yer egalari va savdogarlarga yorliq va payzalar berardi. **Payza** oltin, kumush, jez va yog'ochdan yasalgan taxtachalardan iborat bo'lardi. Bunday yorliq yoki payzaga ega bo'lgan kishilar, jumladan, elchi, soliq yig'uvchilar va boshqa ma'murlar aholidan turli xil yig'im va to'lovlarni talab qilib olish huquqiga ega edilar. Bundan tashqari, mamlakatning savdo yo'llarida joylashgan bekat – yomlarning xizmati va xarajati ham aholining bo'yniga yuklangandi. Ya'ni davlat topshirig'i bilan qatnaydigan son-sanoqsiz elchilar, chopartlar va xabarchilarga bekatlarda xizmat qilish, ularga ot-ulov, oziq-ovqat, yem-xashak va boshqa kerakli buyumlarni topib berish lozim edi. Albatta, bunday boshboshdoqlik xalqning bosh ko'tarishiga olib keldi. Shunday qo'zg'olonlardan biri Buxoro vohasidagi Torob qishlog'ida ko'tarilgan xalq qo'zg'oloni bo'ldi.

**Mahmud Torobiy qo'zg'oloni.** Buxoroning Torob qishlog'ida bosqinchilar va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Unda Buxoro shahri va uning atrofidagi qishloqlar hunarmandlari va dehqonlari qatnashadi. Qo'zg'olonga **g'alvir yasovchi** hunarmand Mahmud boshchilik qiladi. **Mahmud Torobiy** atrofiga juda ko'p hunarmand va dehqonlardan iborat katta kuch to'planadi. Qo'zg'olonchilar Torobdan chiqib, Buxoroga yo'l oladilar. Bu yerda Torobiyning yaqin safdoshlaridan **Shamsiddin Mahbubiy** va shahar aholisi qo'zg'olonchilarga qo'shiladi. Mahmud Torobiy o'z tarafdorlari bilan Buxoroga kirib olgach shahar ichidagi **Robiya saroyini** qarorgoh qilib oladi. Bu yerda Buxoroning sadrlari, badavlat a'yonlari, yirik yer egalari chaqirtiradi. U o'zini Buxoro va atrof viloyatlarning xalifasi deb e'lon qilishga ulami majbur etadi. Mahmud Torobiy Buxoroda o'z hukmronligini o'rnatgach, mo'g'ul tarafdorlari bo'lgan mahalliy amaldorlar qochib ketadi.

Qochib ketgan amaldorlar va mo'g'ullar noib Mahmud Yalavoch yordamida **Karmana** yaqinida kuch to'plab Buxoro ustiga yuradi. Bundan xabar topgan Mahmud Torobiy o'z tarafdorlari bilan shahardan tashqariga dushman harbiy kuchlariga qarshi chiqadi. O'rtada jang boshlanadi. Mo'g'ullar yengilib, Karmanaga tomon qocha boshlaydi, dushman Karmanagacha quvib boriladi. Mo'g'ullardan 10 mingga yaqin kishi halok bo'ladi. Bu jangda qo'zg'olon boshliqlari Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiy ham shahid bo'ladilar. Qo'zg'olonchilar ularning o'miga Torobiyning ukalari **Muhammad** va **Alini** boshliq qilib saylaydilar. Oradan bir hafta o'tmay ularga qarshi mo'g'ullarning yangi qo'shini hujum

qiladi. Jangda qo'zg'olonchilar tor-mor keltirilib, Torobiyning ikkala ukasi ham halok bo'ladi. Mo'g'ullar Buxoroni yana bosib olib, u yerda ilgarigi tartiblarni tiklaydilar. Qo'zg'olon bostirilsa-da, mo'g'ullar va mahalliy hukmron doiralar qarshisida jiddiy xalq kuchi, vatanparvar xalq yetakchilari borligini ko'rsatdi. Chig'atoy soliqlarni tartibga solishga, **1238-yili** Mahmud Yalavochni noiblikdan chetlatishga majbur bo'ldi. Uning o'g'li **Mas'udbek** noib etib tayinlandi. Ulug' xoqon O'qtoy Mahmud Yalavochni **Pekin** shahriga hokim etib tayinladi.

## 7.5. IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTNING JONLANISHI

*Ulug' xoqon farmoni.* XIII asr o'rtalarida Chig'atoy ulusining mo'g'ul amaldorlari orasida o'troqlikka ko'chish, shahar hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi. Mo'g'ulistonning ulug' xoqoni **Munke** soliq va hashar ishlarni tartibga solish to'g'risida maxsus farmon – yortiq chiqaradi. Yomlar bo'ylab pochta xizmati uchun ajratilgan otlar soni belgilanib, aholidan ortiqcha ot talab qilish man etiladi. Elchilarga, qo'llarida bevosita topshiriqlari bo'lmasa, shahar yoki qishloqlarga kirmasligi va aholidan ular uchun belgilanadigan ortiqcha yem-xashak hamda oziq-ovqat olmasligi uqtiriladi. Shu tariqa aholi o'zboshimchalik bilan yig'iladigan hisobsiz to'lovlardan ozod bo'ladi.

*Mas'udbekning pul islohoti.* Movarounnahrda asta-sekinlik bilan shahar hayoti, hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshlaydi. Tovar va pul munosabatlarning tiklanishida Mas'udbek tomonidan **1271-yili** amalga oshirilgan pul islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U Movarounnahrning **16 ta** shahar va viloyatlarida, jumladan, **Samarqand, Buxoro, Tarozi, O'tror, Xo'jand** va boshqa shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, mamlakatda ularni muomalaga chiqaradi. Yarim asr mobaynida Movarounnahrda kumush tangalar muntazam zarb etilmagandi, Mas'udbekning pul islohoti mamlakatda tovar va pul munosabatlari tiklanib, shaharlar hayotining jonlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

*Kebekxon va uning boshqaruvi.* Movarounnahrdek madaniy o'lka bilan mustahkam aloqa o'rnatishga va o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlarining biri **Kebek (1318 – 1326)** edi. U hokimiyatni bevosita o'z qo'lga olib, Qashqadaryo vohasidagi qadimgi **Nasaf** shahri yonida o'ziga saroy qurdiradi. Saroy mo'g'ul tilida «Qarshi» deb yuritilardi. Kebekxon mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib o'z qarorgohini

Movarounnahrda ko'chiradi. Shu davrdan Nasaf shahri **Qarshi** deb atala boshlaydi. Kebekxon ma'muriy va pul islohoti o'tkazadi. Davlat **yurtlarga**, Movarounnahr hududlari **tumanlarga** bo'linadi. Jumladan, Samarqand viloyati **7 ta**, Farg'ona vodiysi **9 ta** tumanga bo'linadi. Ammo ma'muriy islohot mahalliy hokimliklar va beklklarga barham bermaydi, balki ularga moslashadi. Ilgarigi mahalliy hokimlar tumanlarning noibiga aylantiriladi. Avvalgi mahalliy hukmdorlar – maliklar va sadrlarning o'rini turk-mo'g'ul urug' boshliqlari egallaydi. Kebek davrida ichki savdo-sotiqni tartibga solish, qo'shni davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlarini yaxshilash uchun mamlakatda yagona pul joriy qilindi. Erondagi Xulakuiylar davlati va Oltin O'rda xonligining kumush tangalari namunasida ikki xil pul: og'irligi **8 gm** lik katta kumush tanga va **1 gm** lik kichik tanga zarb etilgan. Katta tanga «**dinor**», kichigi «**dirham**» deb atalgan. «**Kepaki**» deb nom olgan bu tangalar Samarqand va Buxoroda zarb etilgan.

*Iqtisodiy hayotning jonlanishi.* Mo'g'ullar istilosi davrida xarob bo'lgan hunarmandchilik, savdo-sotiq va dehqonchilik asta-sekin jonlana boshlaydi. Hunarmandchilik va ichki-tashqi savdoning jonlanishi xarob bo'lgan shaharlarning tiklanishiga turki berdi. Urganch va Buxoro shaharlari qayta tiklanadi. Qadimgi Samarqand vayronalari yonginasida yangitdan shahar qad ko'taradi. Shaharlarda turli xil davlat, jamoat va ma'rifat binolari qad rostladi, shahar bozorlari gavjumlashdi.

*Yer egalligi.* Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda yerga bo'lgan egalikning **mulki devon**, **mulki inju**, **mulki vaqf** va **mulk** deb ataluvchi to'rt xil shakli mavjud edi. Mulklarning kattagina qismi harbiy ma'murlarga davlat oldida xizmatlari uchun hadya qilingan yerlar bo'lib, ular **suyurg'ol** deb yuritiladi. Bunday yerlarga ega bo'lgan yerdorlar – suyurg'ol egalari barcha soliqlar va to'lovlardan ozod etilardi. Suyurg'ol yerlari avloddan avlodga meros tariqasida o'tardi. Yirik yerdorlar qo'lidagi mulk yerlariga yersiz yoki dehqonlar birlashtirilib, ular bunday mulklarda hosilning **1/3 qismi** evaziga ijarachi bo'lib ishlardilar.

*Chiq'atoy ulusining bo'linishi.* Mo'g'ul hukmdorlari va mulkdorlari o'rtasida bosib olingan mamlakatlar aholisiga ikki xil qarash mavjud edi. Ba'zilar mahalliy zodagonlar, savdogarlar bilan yaqinlashish, hunarmandchilik, dehqonchilikni rivojlantirish, islom dinini qabul qilish tarafdori edi. Boshqalari esa o'troqlik va shahar hayotiga qarshi bo'lib, shaharlarni buzib tashlash, bog' va ekinzorlarni o'tloqlarga aylantirishni istardilar. Yettisuvda yashayotgan mo'g'ullar Movarounnahrda ko'chib kelganlarni «**qoraunas**» (duragay), Movarounnahrda yashayotgan mo'g'ullar esa ularni «**jete**» (qaroqchi, talonchi) deb atay boshlaydilar. Ular o'rtasida

ziddiyat, nafrat kuchayib bordi. Oqibatda Chig'atoy ulusi **XIV asrning 40-yillarida** ikkiga bo'linib ketdi. Chig'atoy ulusining Sharqiy Turkiston, Mo'guliston va Yettisuv qismi Mo'g'uliston deb atala boshlandi. Ulusning g'arbiy qismi – Movarounnahr mustaqil idora qilinadigan bo'ldi.

**Madaniy hayot.** Fan, adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. Xususan, binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yiladi. Koshinpazlik, ganchkorlik, parchinsozlik, me'moriy g'isht o'ymakorligi va me'moriy xattotlik asriy an'ana va tajribalar asosida tiklandi. Masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara, minora va saroylar qad ko'tardi. Ularning ayrimlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Buxoro shahridagi **Sayfiddin Boxarziy, Bayonqulixon** maqbaralari, Samarqanddagi mashhur **Shohizinda** me'moriy ansamblining asosiy qismi bo'lgan **Qusam ibn Abbos** maqbarasining ziyoratxonasi, Ko'hna Urganchdagi balandligi **62 metrli** ulug'vor minora, **Najmiddin Kubro** va **To'rabekxonim** maqbaralari shular jumlasidandir. **XIII asr o'rtalarida** Buxoroda **Mas'udiya** va **Xoniya** nomlari bilan shuhrat qozongan ikkita madrasa bino qilinadi, ularning har birida mingtagacha tolibi ilm tahsil ko'rgan.

**XIII asrning 2-yarmi – XIV asr boshlarida** fors-tojik she'riyatining yirik namoyandalardan **Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy** kabi buyuk siymolar yashab ijod etganlar. **Jaloliddin Rumiy (1207 – 1273)** buyuk tasavvuf shoiri bo'lib, **36 ming** baytdan iborat **«Masnaviyi ma'naviy»** nomli dostonini yaratdi. Mazkur asarda u tasavvuf falsafasi asoslarini talqin etadi. Bu davr mutafakkirlaridan biri **Sa'diy Sheroziy (1219 – 1293)**dir. U o'zining **«Guliston»**, **«Bo'ston»** nomli asarlaridagi sermazmun g'azallari bilan Sharq adabiyotining taraqqiyotida o'chmas iz qoldirdi. U o'z asarlari bilan ona yerga bo'lgan muhabbat va insonparvarlik g'oyalarini bayon etadi. O'z davrining buyuk adiblaridan biri **Amir Xusrav Dehlaviy (1253 – 1325)** Nizomiy Ganjaviydan so'ng **«Xamsa»** dostonini yozgan ham shoir, ham musiqashunos mutafakkirlardan edi. U **«Zafarlar kaliti»**, **«Falakning to'qqiz gumbazi»** kabi asarlar muallifidir.

**XIII asrning 2-yarmidan** boshlab tarixnavislik ham taraqqiy qiladi. Bu davrda **Juzjoniyning «Tabaqoti Nosiriy»** (Nosir turkumlari), **Juvayniyning «Tarixi jahongushoy»** (Jahon fotih tarixi), **Rashiduddin Fazlullohning «Jome at-tavorix»** (Tarixlar to'plami) kabi qimmatli tarixiy asarlari yoziladi. Bu asarlar o'sha davr tarixi, ayniqsa, mo'g'ullar istibdodini o'rganishda birinchi darajali manba hisoblanadi. Bu davrda turkiy tildagi adabiyot ham rivoj topa boshlaydi. Keyinchalik u **«Chig'atoy tili»** va **«Chig'atoy adabiyoti»** nomini oldi.

## 8-BOB. AMIR TEMUR SALTANATI

### 8.1. AMIR TEMURNING SIYOSIY KURASH MAYDONIGA KIRIB KELISHI

Siyosiy tarqoqlik. XIV asrning 50 – 60-yillarida Movarounnahr 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida **Amir Bayon Sulduz**, Keshda **Amir Hoji Barlos**, Xo'jandda **Amir Boyazid Jaloyir**, Balxda **O'ljaytu Sulduz**, Hisori Shodmon chegarasida **Amir Husayn** va **Amir Yasovuriy** o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar. Boz ustiga, Sharqiy Turkiston va Yettisuvdagi Mo'g'uliston xonlari bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib uni talaydilar. Bu istibdodga qarshi xalq harakati boshlanadi. Mana shunday og'ir bir vaziyatda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi.

Amir Temurning yoshlik davri. Amir Temur Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinidagi **Xojailg'or** qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani hududi)da 1336-yil 9-aprel kuni tavallud topgan. Uning to'liq ismi **Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul**. Amir Temurning onasi **Takina xotun** Kesh yurtining obro'li beka (bek og'o)laridan hisoblangan. Otasi **Amir Tarag'ay** barlos urug'ining oqsoqollaridan bo'lib, ajdodlari Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi. **Shayx Shamsuddin Kulol** Temurbekning piri bo'lgan. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan o'q uzish, ot choptirish, turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirardi. Shu tariqa Amir Temur mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofidagi do'stlaridan harbiy guruh shakllana boradi. Bu guruh orasida **Abbos Bahodir, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Sayfuddinbek** va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilgan. Amir Temur ilk harbiy faoliyatini navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Harbiy mahorat va oliyhimmatlilik Amir Temur shuhratini oshiradi. Otasi uni avval (1352) Amir Joku Barlosning qizi **Turmush Og'oga** uylantiradi. 1355-yili Amir Temur Qazag'onning nabirasi, Amir Husaynning singlisi **Uljoy Turkon Og'oni** o'z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur va Balx hokimi Amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga keladi.



Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqadi. Mo'g'uliston xonlari bunday vaziyatdan foydalanib Movarounnahrda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qildilar. Tug'luq Temur **1360 – 1361-yillarda** Movarounnahrda ikki marta bostirib kiradi. Movarounnahr amirlari bosqinchilarga qarshi kurashishga jur'at etolmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydi. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori **Amir Hoji Barlos** Xuroson tomon qochadi. 24 yoshli Amir Temur boshqacha yo'l tutadi. U Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishib xon xizmatiga kiradi. Natijada Tug'luq Temurning yorlig'i bilan o'z viloyatining **dorug'asi** etib tayinlanadi. Shu tariqa siyosiy vaziyat keskinlashgan, uning mustaqilligini ta'minlash zarurati ko'ndalang bo'lib turgan tarixiy sharoitda Amir Temur siyosiy kurash maydoniga kirib keldi.

Tug'luq Temur o'g'li **Ilyosxoja** Movarounnahr hukmdori etib tayinlab, Mo'g'ulistonga qaytib ketadi. Ilyosxoja bilan Amir Temurning murosasi kelishmaydi. Shu tufayli u Balx hokimi Husayn bilan ittifoq tuzib, mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. **1363-yili** Amudaryoning chap sohilidagi **Qunduz** shahri yonida umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxoja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat, **1364-yil oxlrda** ular mo'g'ullarni Movarounnahrda quvib chiqaradi. Biroq Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxoja **1365-yilning bahorida** Movarounnahr ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang **1365-yil 22-may** kuni Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida sodir bo'ldi. Tarixda u «**Loy jangi**» nomi bilan mashhur. Jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda Amir Temur qo'shini g'olibona harakat qilib, dushman qo'shinining o'ng qanotiga qaqshatqich zarba berayotgan bir paytda, Husayn o'z askarlarini raqibning so'l qanotiga tashlamay jang maydonini tark etadi. Amir Temur chekinishga majbur bo'ldi. Bu g'alabadan so'ng Ilyosxoja hech qanday qarshilikka uchramay **Xo'jand** va **Jizzax** shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqandda qurolli qo'shin bo'lmasa-da, xalq shahar mudofaasini o'z qo'lga oladi. Bu xalq harakati «**Sarbadorlar harakati**» nomi bilan shuhrat topgan.

Samarqand sarbadorlari. Sarbadorlar harakati **XIV asrning 60-yillarida** Movarounnahrda mo'g'ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga keldi. Samarqand sarbadorlariga mudarris **Mavlonozoda Samarqandiy**, hunarmand **Abu Bakr Kuluvi** va shahar mahallafaridan

birining oqsoqoli, mohir mergan **Xurdaki Buxoriy** boshchilik qiladilar. Sarbadorlar mo'g'ullarga Samarqand shahrida qaqshatqich zarba beradilar. Boz ustiga, Ilyosxojaning ot uyuri orasida o'lat tarqalib, otlar qirila boshlaydi. Chorasiz qolgan Ilyosxoja avval Samarqand, so'ngra esa butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketadi. Shaharda xalq hokimiyati o'rnatiladi va ayrim islohotlar o'tkaziladi. Badavlat mulkdorlarning mol-mulki musodara qilinib, yo'qsillarga o'tkaziladi. Jon boshidan olinadigan jizya solig'i bekor qilinadi. Bu hukmdor tabaqalarning keskin noroziligiga sabab bo'ladi. Natijada Samarqandda beqarorlik vujudga keladi.

Sarbadorlarning g'alabasi to'g'risidagi xabar Amir Temur va Amir Husaynga ham borib yetadi. **1366-yil bahorida** ular Samarqandga yo'l oladilar va shahar yaqinidagi **Konigil** mavzeyiga kelib tushadilar. Sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib borildi. Uchrashuvning birinchi kunida beklar ularning sharafiga ziyofat berib, sha'niga hamd-u sanolar aytadilar. Biroq ertasi kuni Abu Bakr Kuluyi bilan Xurdaki Buxoriy dorga tortiladi. Mavlonozodani esa Amir Temur o'rtaga tushib qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Temur va Amir Husayn o'rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. **1366 – 1370-yillar** davomida ular o'rtasida bir necha bor to'qnashuvlar ham bo'ladi.

## 8.2. AMIR TEMUR – MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

*Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi.* Amir Temur Movarounnahrni birlashtirishdek vazifani boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Bunda ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Mazkur ish, avvalo, ichki g'animlarga qarshi kurashdan boshlandi. **1370-yil bahorida** Balx hukmdori Amir Husayn tomon qo'shin tortiladi. Qo'shin Termiz yaqinidagi **Biyo** qishlog'iga yetganida, uning huzuriga **Sayyid Baraka** tashrif buyuradi. Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, oliy hokimiyat ramzi tabi bilan yalov-bayroq tortiq etib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytda Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so'ng, **1370-yilning 10-aprelda**, Balx shahri taslim bo'ladi. Amir Husayn asir olinib, qatl etiladi. **1370-yil 11-aprelda** Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning quroldosh

do'stlari, piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

*Markazlashgan davlatning tashkil topishi.* Amir Temur davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. **1370-yil iyul oyida** Samarqandda qurultoy chaqirdi. Qurultoyda **Shibirg'on** hokimi amir **Zinda Chashm**dan boshqa Movarounnahrning barcha amirlari va qabila boshliqlari to'planadi. Ikki daryo oralig'ida yashovchi turk-mo'g'ul qabila boshliqlari, barcha amirlar Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. **Samarqand** davlat poytaxti deb e'lon qilindi, shaharda mustahkam devorlar, qal'alar hamda saroylar barpo etiladi. Amir Temur mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. Maxsus qo'shin tuzib, unga katta imtiyozlar beradi. Amir Temur yirik harbiy bo'linmalar boshliqlari etib **Joku Sayfuddin, Abbos Iskandar, A'lam shayx, Ardasher Qavchin** va boshqalarni tayinladi. Tajribali harbiylar sipohsolorlikka tayinlandi.

1370-yiliyoq **Shibirg'on** bo'ysundirildi. Zinda Chashm Amir Temur xizmatiga o'tdi. Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun Sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qilib Mo'g'uliston xonlariga zarba berdi va Farg'ona vodiysi hududlarini, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayramni o'z tasarrufiga oldi. Hisor, Badaxshon, Qunduz kabi viloyat amirlari ham Amir Temur hokimiyatini tan olib, unga bo'ysunadilar. **1381-yili** Hirot, Seyiston, Mozandaron egallandi. Saraxs, Jom, Qavsiya, Sabzavor shaharlari ham jangsiz Amir Temurga bo'ysundi va uning tasarrufiga o'tdi. Shu tariqa Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi. Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm davlati qaror topgandi. Qadimdan iqtisodiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan bevosita bog'liq Xorazm mo'g'ullar davrida ikki qismga ajralib, markazi **Urganch** shahri bo'lgan **Shimoliy Xorazm** Oltin O'rdaga, markazi **Kat** qal'asi bo'lgan **Janubiy Xorazm** Chig'atoy ulusiga bo'ysundirilgan. **XIV asrning 60-yillari oxirida** Oltin O'rdada yuz bergan g'alayonlar vaqtida qo'ng'iroq so'filari **Shimoliy Xorazm**da yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini fath etib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Amir Temur esa butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblardi. Shuning uchun u Xorazmni o'z davlatiga qo'shib olish siyosatini tutdi. Amir Temur **1372-yili** Xorazmga yurish qilib uni egallaydi. Biroq voqealar taqozosi bilan Xorazmga **beshta** harbiy yurish qiladi. Xorazm **1388-yili** uzil-kesil bo'ysundirildi. Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr,

Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

### 8.3. AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI

*Mamlakat xavfsizligi yo'lida.* Amir Temur saltanatiga xavf solib turuvchi kuchlar hali bartaraf etilmagandi. Bir tomondan, Mo'g'uliston xonlari Chig'atoy ulusini birlashtirishga intilib tinchlik bermasdi. Ikkinchi tomondan, Oltin O'rda va Oq O'rdaga bo'linib ketgan Jo'ji ulusi xonlari ham shimol va Xorazm tomondan xavf solib turardi. Biroq bu davrda Amir Temur davlati uchun eng kuchli xavf **Oq O'rda** va **Oltin O'rda** edi. Endilikda Amir Temur Oltin O'rdaga zarba berib uni kuchsizlantirishga intiladi. Lekin Jo'ji ulusini o'z davlatiga qo'shib olishnimas, Oltin O'rdaning Movarounnahrda tutashgan sharqiy qismini o'z ta'siri ostiga olish hamda **Saroy Berka** orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahrda burib yuborishni ko'zlaydi. Oltin O'rdada toj-taxt uchun ayovsiz kurash boshlangandi. Bunday sharoitda ba'zi chingizlilar turli tomonlarga qochib jon saqlaganlar. Ulardan biri **To'xtamish** Oq O'rdadan qochib, Samarqandga keldi. Amir Temur unga izzat-hurmat ko'rsatdi, oxir-oqibatda u Amir Temur yordamida Oltin O'rda taxtini egallaydi.

*Amir Temur va To'xtamish.* Keyinchalik To'xtamish xoinlik yo'lga kiradi. U Amir Temurga qarshi ochiq kurashga o'tadi. Natijada Amir Temur unga qarshi **uch marta** qo'shin tortishga majbur bo'ladi. So'nggi shiddatli jang **1395-yil 15-aprelda** Shimoliy Kavkazda **Tarak** (Terek) daryosi bo'yida yuz berdi. Muhoraba **uch kun** davom etdi. Bu safar Amir Temur qo'shini dushmanga qarshi otdan tushib, uni kamondan o'qqa tutish usulini qo'lladi. O'q va qilich zarbiga chidolmagan To'xtamish qo'shinining safi buzilib, ortga chekindi va tarqalib ketdi. To'xtamishxon sanoqligina askari bilan qochib changalzorga kirdi va g'oliblardan bekindi. Rossiya tarixchilari **B.D.Grekov** va **A.Y.Yakubovskiyning** ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi faqat O'rta Osiyo uchunmas, balki butun Sharqiy Yevropa, Rus knyazliklarining birlashishi uchun ham buyuk ahamiyatga ega bo'ldi.

*Eron, Iroq, Shom, Hindistonga yurish.* Amir Temur o'z saltanatining janubiy chegaralarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. Bu yurishlar tarixda **uch yillik**, **besh yillik** va **yetti yillik** urushlar deb nom olgan. **Uch yillik (1386 – 1388)** harbiy yurishlar natijasida Eron (Fors),

Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Armanistondagi (Van ko'li atrofidagi) yerlar egallandi. Erondagi muzaffariylar, jaloyiriylar sulolasi vakillarining ayirmachilik harakatlari, Mozandaron, Janubiy Eronda ko'tarilgan qo'zg'olonlar Amir Temurning Eronga yana yurish qilishiga olib keldi. Bu **besh yillik (1392 – 1396)** urush davomida G'arbiy Eron, Iroq Ajam va Kavkaz egallandi. **1398 – 1399-** yillarda Hindistonga yurish qiladi va Dehlini egallaydi. 1399 – 1404-yillarda Eron, old Osiyo va kichik Osiyoga bir necha yurish qilindi. Bu yurish tarixga **yetti yillik** urush nomi bilan kirgan.

Keng ko'lamlı harbiy yurishlar natijasida saltanatning chegarasi Usmonli turklar davlati chegarasiga borib taqaldi. Ziddiyatlarni diplomatik yo'l bilan hal qilish maqsadida ikki tomon o'rtasida **4 marta** xat almashinadi. Sulton Boyazid esa har safar qaysarlik, manmanlik qilgani, hatto Amir Temur nomiga nomaqbul so'zlarni ham yozgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Boyazid qoraqo'yunlilar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo'llab-quvvatlagan. Shu omillar tufayli bu ikki davlat o'rtasida to'qnashuv yuz berishi muqarrar bo'lib qoldi.

Anqara jangi. Amir Temur bilan sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang **1402-yil 20-iyulda Anqara** yaqinida sodir bo'ldi. Bu jangda har ikki tomondan jami **360 ming nafar**, Amir Temurning taxminan **200 ming**, usmonlilar sultonining **160 ming** askari qatnashadi. Qo'shinning markaziy qismiga Amir Temurning o'zi qo'mondonlik qiladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda turk qo'shini tor-mor etiladi. Sulton Boyazid asirga olinadi, u bilan o'g'li **Muso Chalabiy** ham asirga tushadi. Amir Temur raqibni ta'qib etib Bursa va O'rta yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan **Izmir** shahrini zabt etadi va salibchilarning Yaqin Sharqdagi oxirgi qarorgohiga barham beradi. Amir Temurga **Misr** ham o'z itoatkorligini izhor etadi.

Amir Temur Boyazid Yildirimga shohona hurmat ko'rsatadi. Uning o'limidan so'ng (**1403-yil 9-mart**) vorislariga himmat ko'zi bilan boqadi va ularga beqiyos muruvvatlar qiladi. Boyazidning o'g'illari **Sulaymon**, **Iso** va **Musoga** otasining yerlarini suyurg'ol qilib beradi. Salib yurishlarining oqibatlari, Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlaridagi umidlari hali musulmon olami yodidan chiqmagandi. Shu bois Amir Temur Usmonli turk davlatini saqlab qoldi. Shunday bo'lsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli **Karl VI (1380 – 1422)**, Angliya qiroli **Genrix IV (1399 – 1413)** hamda Kastiliya va Leon qiroli **Genrix III (1390 – 1407)** qutlab, unga o'z tabriknomalarini yuboradilar. Chunki Sohibqiron Yevropaning xaloskoriga aylangandi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur **1404-yil 27-noyabr**da 200 ming kishilik qo'shin bilan Xitoy safariga chiqdi. Biroq bu yurish Amir Temurning to'satdan vafot etishi (**1405-yil 18-fevral**) tufayli amalga oshmay qoldi.

*Amir Temurning Vatanimiz va jahon tarixida tutgan o'rnini.* Amir Temur **35 yil** davomida mamlakatni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Ili daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. U nafaqat Movarounnahrni obod qildi, balki bo'ysundirilgan yurtlarning shaharlarini ham qayta tikladi. **Bag'dod, Darband va Baylakon** shaharlari shular jumlasidandir. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etildi. Eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi boshboshdoqlikka barham berildi, qadimiy karvon yo'llari tiklandi. Bu jihatlar mo'g'ullar davrida vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash imkonini tug'dirdi. Sug'orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro'y berdi. Yangi-yangi kanallar qazilib, ekin maydonlari kengaydi. Hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

#### **8.4. AMIR TEMUR SALTANATINING MA'MURIY VA HARBIY TUZILISHI**

*Saltanat boshqaruvi.* Sohibqiron yurtimizdagi davlatchilik tajribasidan, tartib-qoidalaridan keng foydalandi. Davlat boshqaruvini takomillashtirdi. Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat roli, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash ko'zlangandi. Saltanatda davlat boshqaruvi ikki idoradan – **dargoh** va **vazirlik** (devon)dan iborat bo'lgan. Dargohni oliy hukmdorning o'zi boshqargan. Ijroiya hokimiyat – devonni **devonbegi** (bosh vazir) boshqargan. Devonda harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, saroy xarajatlari – moliya vaziri faoliyat yuritgan. Bundan tashqari, sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lib, ular devonbegiga hisobot bergan. Markaziy hokimiyat tizimida **shayxulislom, qozikalon, sadri a'zam, dodxoh, yasovul, muhassil, tavochi, muhtasib** va boshqa amaldorlar xizmat qilgan. Dargohda **bosh hojib, xazinabon, xonsolor, qo'shchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dasturxonchilar** xizmatda bo'lgan.

Suyurg'ol verlar. Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidagi o'lkalarni o'g'illari, nabiralari va xizmat ko'rsatgan amirlarga suyurg'ol tarzida in'om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrda tashqari barcha viloyat va mamlakatlarni o'g'il va nabiralari orasida quyidagicha taqsimlaydi: Ozarbayjon, G'arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni **Mirzo Umar ibn Mironshohga**, Forsni **Pirmuhammad ibn Umarshayxga**, Xuroson, Mozandaron, Ray va Seyistonni **Shohrux mirzoga**, Sulton Mahmud G'aznaviy mulkini Kobul va Qandahordan Shimoliy Hindistongacha Sind daryosi havzasi bilan birga **Pirmuhammad Jahongirga**, Toshkent, Sayram, O'tror va Ashparadan to Xitoy chegarasigacha **Ulug'bekka**, Farg'ona, Tarozdan to Xo'tangacha, ya'ni Sharqiy Turkistonning janubi-g'arbini **Ibrohim sultonga** berdi. Uslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ma'lum mustaqillikka erishdilar. Uslar hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini mavjud edi. Ularning tobeligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va harbiy yurishlarda o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Qo'shin tuzilishi. Amir Temur ichki va tashqi siyosatda, asosan, qo'shinga suyanardi. Shu bois u qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ichki intizom masalalariga nihoyatda katta ahamiyat beradi. Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar **tuman** – **o'ng minglik**, **hazora** – **minglik**, **ho'shun** – **yuzlik** va **ayl** – **o'nlik** birikmalariga bo'lingan. O'n minglik askarni boshqarish uchun **tuman og'asi**, minglik bo'linmalar uchun **mirihazora**, yuzliklar uchun **ho'shunboshi** va o'nliklar uchun **aylboshi** kabi harbiy mansablar ta'sis etildi. Askariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan **tavochi** mansabidagi amaldorlar shug'ullanardi.

Jangga kirish usuli. Harbiy yurish paytida oldinda **xabarchilar**, ular ortida **yasovul** bo'linmasi, undan keyinroqda **manglay** – **avangard** qism borardi. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning yon-atrofida zaxira qismlar joylashgan bo'lib, u **izofa** deb yuritilgan. Qo'shinning asosiy jangovar qismlari **markaz**, **o'ng** – **burong'or** va **so'l** – **juvong'or** qanotlaridan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha askariy qo'shilmalar – **kanbullar** bo'lardi. Shu tariqa qo'shin **yetti qism** – **qo'llardan** iborat edi. **Sharafiddin Ali Yazdiy** qo'shinni yetti qo'lga – qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib Amir Temur joriy qilgan deb yozadi. Bu qo'llar janglarda

mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoniga bo'ysungan. Amir Temur jang qilishning yangi harbiy uslublarini qo'llagan.

«Temur tuzuklari». Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u «**Temur tuzuklari**» nomi ostida shuhrat topadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi (yo'nalishi) va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tayinlash tartiblari belgilab berilgan. Tuzuklarda mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqalar xususida bayon etiladi. Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanaqa bilimni, davlat ahamiyatiga ega har bir masalani hal etishda shu sohaning bilimdonlari va ulamolar bilan maslahatlashardi. Shunday qilib, Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy sohada o'ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo etgan davlati bilan dunyoni lol qoldirdi.

## 8.5. MAMLAKAT OBODONCHILIGI YO'LIDA

Shahar obodonchiligi. Amir Temur Movarounnahrning, ayniqsa, poytaxt Samarqandning obodonchiligiga alohida ahamiyat beradi. Uning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'moriy obida barpo etish bilan nishonlash odati bo'lgan. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan mohir g'isht teruvchilar, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari qatorida mahalliy ustalar mamlakatda go'zal imorat-u inshootlar bino qildilar. Amir Temur **Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda madrasa, Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara** bino qildirdi. O'zining ona shahri **Shahrisabzda** otasi va o'g'li Jahongirning qabri ustiga maqbara qurdirdi, katta jome masjidini bunyod ettirdi. Mashhur **Oqsaroy** qad ko'tardi. Bu muhtasham saroy peshtoqi, toq-u ravoqlari, devorlari zangori va oltin rangdagi arabiy naqshli koshinlar, guldor o'ymakor parchinlar bilan ziynatlandi. Oqsaroy peshtoqining guldor naqshlari orasida «*Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imorattarimizga boq*» degan xitob-noma bitilgan. Ahmad Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan.

Samarqand – davlat poytaxti. Mo'g'ullar bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri o'zining qadimiy o'rnidan janubroqda qayta tiklandi. Shahar tevaragi **Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron** va **Feruza** kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali



mustahkam yangi qal'a devor bilan o'rab chiqiladi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi – **Ko'ksaroy** va **Bo'stonsaroy** bino qilinadi. Ko'ksaroy to'rt qavatli bo'lib, gumbazlar va devorlari zangori koshinlar, naqshinkor va guldor parchin bilan qoplangani uchun shunday nom olgan. Ko'ksaroyda taxtga o'tqizish marosimi vaqtida ularni oq kigiz ustiga o'tqiziladigan toshdan taxt kursi – **Ko'ktosh** qo'yilgandi. Bundan tashqari, arkda davlat devonxonasi, qurol-yarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so'qiladigan zarbxona, qamoqxona kabi imoratlar joylashgandi. Samarqandda saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar barpo etiladi. **1403 – 1404-yillarda** Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi **Klavixo** olib borilayotgan bunyodkorlik ishlaridan hayratda qolgandi. Xuddi shu davrda Shohizinda me'moriy yodgorliklari majmuasidagi ba'zi ajoyib maqbaralar, hozirda **Bibixonim** nomi bilan mashhur jome masjidi va boshqalar bino qilinadi. Bu davrda Samarqandda yangi, ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari turli-tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari qad ko'taradi.

Amir Temur bog'lari. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnati-yu mahorati bilan barpo etilgan **Bog'i Dilkusho**, **Bog'i Chinor**, **Bog'i Bihisht**, **Bog'i Baland**, **Davlatobod**, **Bog'i Nav**, **Bog'i Shamol**, **Bog'i Jahonnamo**, **Bog'i Maydon** kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'ati namunalaridandir. Tuzilishiga ko'ra bog'lar ikkiga bo'lingan. Birinchi turdagi bog'lar har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan to'rtburchak shakldagi chorbog'lardir. Ikkinchi turdagi bog'lar geometrik shaklda bo'lmay, tabiiy daraxtzor va chakalakzorlar bag'rida barpo etilgan. Bunday bog'lar hukmdor shikor qilishi uchun mo'ljallangan. Shaharning sharqiy tomonida **Bog'i Dilkusho** joylashgan. Uning tashqi hovlisida hashamatli saroy bo'lib, unda qurollangan askarlar turgan, ichki hovlida esa tug'lar bilan bezatilgan olti fil haykallari safga terilgan. Uchinchi hovli Amir Temurning mehmonlarini qabul qiladigan oltin taxtli qarorgohi bo'lgan. Klavixo ham o'sha bog'da qabul qilingan. Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari – **Dimishq** (Damashq), **Misir** (Qohira), **Bag'dod**, **Sultoniya** va **Sheroz** nomlari bilan atadi. Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda obodligi bilan dunyoning eng yirik shaharlaridan ham ustunroq turmog'i lozim edi.

Ichki va tashqi savdo. Movarounnahr shaharlarida, ayniqsa, uning poytaxtida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlanadi. Yangi bozorlar, savdo rastalari barpo etiladi. Shaharlar bilan dehqonchilik vohalari

va chorvador ko'chmanchi aholi o'rtasida savdo aloqalari kengayadi. Tashqi savdoda Samarqand katta o'rin tutgan. Samarqandda chet el mamlakatlari, xususan, Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut, olmos, Xitoydan atlas, yashin toshi, mushk va boshqa mollar, o'zga mamlakatlardan oltin va kumush olib kelinardi. Klavixo Xitoy poytaxti **Xonbaliqdan 800 tualik** savdo karvoni kelganini o'z kundaligida qayd etgan. Bu davrda Buyuk ipak yo'lida savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha muhim chora-tadbirlar ko'riladi. Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalari kengaydi. Bu Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligiga olib keldi.

## 8.6. G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN ALOQALAR

Xalqaro siyosiy vaziyat. Sohibqiron Amir Temur jahon siyosiy hayotiga ham ulkan ta'sir ko'rsatdi. Boyaziddan yengilib, o'z yer-mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlarning hukmdorlari Amir Temurdan madad istab uning **Qorabog'dagi o'rdugohiga borib qaror topadilar.** Hatto Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari yordam so'rab Amir Temurga murojaat etadilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to'lashga va'da qiladilar. Bunday taklif Sohibqironga ma'qul tushadi. Chunki raqibni dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. Shunday qilib, sulton Boyazidga zarba berish uchun yuzaga kelgan vaziyatdan ustalik bilan foydalanildi.

Davlatlararo yozishuvlar. Bu davrda Amir Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda bo'lajak to'qnashuvda **Trapezund va Konstantinopolning** harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qildi. Shu maqsadda u **Genuya va Venetsiyaga** sovg'a-salomlar hamda maktublar bilan elchilar yuboradi. O'zaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi **Ioann VII Paleolog** bilan ham yozishmalar olib boradi. Amir Temurning **1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog** nomiga yo'llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol noyibi va Genuya hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto unga odamlar va har qaysisi **20 tadan 40 tagacha harbiy kema** bilan yordam berish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o'z daftariga qayd qilib o'tadi.

Amir Temur Fransiya qiroli **Karl VI (1380 – 1422)**, Angliya qiroli **Genrix IV (1399 – 1413)**, Kastiliya va Leon qiroli **Genrix III de Trastamara (1390 – 1407)** bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, yozishmalar olib boradi. Fransiya fuqarolari hisoblangan g'uyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa, G'alatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI, o'z navbatida, Amir Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatishga urinardi. Ularning yozishmalarida qayd etilishicha, Sohibqiron qirolni jiddiy qo'llab-quvvatlaydi. Anqara yaqinidagi g'alabadan so'ng Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bo'lgan aloqalari mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda ular bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash va o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish kabi masalalarga ahamiyat beradi.

**Elchilik aloqalari.** Amir Temur **1402-yil yozida** Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar orqali Karl VI va Genrix IV nomlariga maktublar yo'llaydi. Elchilar Parijga **1403-yil may oyida** yetib boradi. Elchilar ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta'minlash va buni bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Shu bois Sohibqiron Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida bu haqda quyidagilarni ta'kidlaydi: *«Bundan keyin sizning (odamlaringiz) bizning yerlarimizga va bizning (kishilarimiz) sizning o'lkangizga o'tgan ajdodlarimiz davridagidek borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa, ko'p xursand bo'lardik. Shuni aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta'minlanadi»*. Fransiya qiroli Karl VI **1403-yil 15-iyunda** Amir Temurga yo'llagan javob maktubidan ma'lum bo'lishicha, Amir Temur taklifi Fransiya tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilingan.

Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borgan diplomatik munosabatlarida g'arbiy viloyatlar hokimi **Mironshoh** faol qatnashdi. Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniyani o'z ichiga olgan mulklar hokimi Mironshoh Amir Temurning keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida nasroniylik ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli G'arbda Mironshoh tez orada katolik dinining homiysi sifatida shuhrat qozondi.

Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda qiziqib qolgandi. **1402-yil bahorida** dastlab Ispaniya elchifari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Amir Temur va Boyazid-

ning kuch-qudrati, urf-odatlari, dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar topshiriladi. Sharq va G'arb davlatlarining elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Amir Temur tomonidan qabul qilinib, qirol nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Amir Temur **Muhammadqozi** ismli o'z vakilini Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Genrix III **1403-yili** Amir Temur huzuriga ikkinchi marta maxsus elchilarni yuboradi. Unga Klavixo boshliq etib tayinlanadi. **1403-yil 21-mayda** Ispaniyadan jo'nab ketgan elchilar Samarqandga keladilar. Ispaniya elchilari Samarqandda Amir Temur tomonidan tantanavor qabul qilinadi. Klavixo boshliq Ispaniya elchilari **1404-yilning sentyabr – noyabr oylarida** Samarqandda bo'ladilar. Xitoyga yurish munosabati bilan ko'pgina davlatlarning elchilari bilan bir qatorda Ispaniya elchilari ham **1404-yil 21-noyabrda** Samarqanddan jo'natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga **1406-yil mart oyida** qaytib keladi. Uning safar taassurotlari «**Buyuk Temur tarixi**» va «**Temur qarorgohi**», «**Samarqandga sayohat kundaligi**» nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi.

## 9-BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

### 9.1. TEMURIYLAR O'RTASIDAGI TAXT UCHUN KURASH

*Taxt uchun kurash.* Amir Temur vafot etgach, yirik saltanat parchalana boshladi. Sababi, saltanat tasarrufiga olingan yurtlar va ellar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib boshqarish murakkab edi. Boz ustiga, ulardagi muxolifatchi kuchlar ajralib chiqish uchun qulay payt kutardilar. Saltanatning parchalanishiga Amir Temur vorislari o'rtasida o'zaro ziddiyat va urushlar sabab bo'ldi. Amir Temur vafotidan oldin taxt vorisi etib nabirasi **Pirmuhammadni** (Kobul, Qandahor va Hindiston viloyatlari hukmdori) tayinlagandi. Pirmuhammadni taxtga o'tqizish tarafdorlari kuchli bo'lsa-da, biroq Mironshohning o'g'li **Xalil sulton mirzo** o'zboshimchalik bilan **1405-yil 18-mart** kuni Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qiladi. Xalil Sulton garchi Movarounnahr taxtini egallab olgan bo'lsa-da, ammo ko'p o'tmay u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi bo'lib Turkiston hamda Farg'ona hokimi **Amir Xudoydod** bilan **Shayx Nuriddin** Xalil sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Hatto Xalil sultonning o'z ukasi **Sulton Husayn mirzo** Amudaryoning chap sohili viloyatlarida hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi. O'z navbatida, Amir Temur taxtining qonuniy vorisi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil sultonga qarshi **Nasafga** askar tortadi. Movarounnahrda boshlangan o'zaro kurashlar shu tariqa avj olib ketadi.

Oqibatda bu davrda **Xurosonda Shohrux, Balx, G'azna** va **Qandahorda Pirmuhammad, G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o'g'illari Umarshayx mirzo** bilan **Abu Bakr mirzo** hokimi mutlaq bo'lib oladilar. Sirdaryodan shimolda joylashgan viloyatlar: **Turkiston, Sabron, O'tror, Sayram Amir Berdibek** tasarrufida qoladi. **O'ratepa** bilan **Farg'onani Amir Xudoydod Husayniy** egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O'rdaning nufuzli amirlaridan **Idiku** bosib oladi. Pirmuhammad **1407-yil 22-fevralda** vaziri **Pir Ali Toz** boshliq fitnatchilar qo'lida shahid bo'ladi. **1408-yil 22-aprel** kuni qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i **Qora Yusuf** bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ladi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo'lidan ketadi. **1409-yil bahorida** Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudoydod **O'ratepa** va **Shohruxiya**

shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. **Sheroz** yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi.

Shohrux hokimiyatining qaror topishi. Shu davrda Xurosondagi amirlar isyonini bostirishga ulgurgan **Shohrux** endilikda butun e'tiborini Movarounnahrqa qaratadi. Chunki u ota yurtidagi hodisalarga loqayd qarolmasdi. **1409-yil 25-aprelda** u Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi. Movarounnahrda beshliklarga chek qo'yib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hukmronligini o'rnatadi, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashga erishadi. Shohrux hukmronligi davrida mamlakat **ikki davlatga** bo'lingandi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Shohrux boshchiligidagi davlat bo'lib, uning markazi **Hiro**t shahri edi. Ikkinchisi esa Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelgan Ulug'bek boshchiligidagi davlat bo'lib, **Samarqand** uning poytaxti edi.

## 9.2. ULUG'BEK – MA'RIFATPARVAR DAVLAT ARBOBI

Ulug'bek – Movarounnahr hukmdori. **1409-yili** Shohrux Samarqanddan Hirota qaytish oldida **Mirzo Ulug'bekni** Movarounnahr va Turkistonga hokim etib tayinlaydi. Ulug'bek garchi Movarounnahr bilan Turkistonning hokimi deb e'lon qilinsa-da, aslida, uning hokimiyati dastavval faqat **Samarqand, Buxoro** va **Nasaf** viloyatlari bilangina cheklanardi. Chunki Shohrux avvalboshdan **Farg'onani** to **O'zgangacha Amirak Ahmadga, Histori Shodmonni Muhammad Jahongirga** in'om qilgandi. **Turkiston Shayx Nuriddin** tasarrufida edi. O'sha vaqtda u na Ulug'bek, na Shohruxni tan olardi. Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmaydi. **1410-yili u Muhammad Jahongir,** Yangi va Sayram viloyatlari hokimi **Amir Abduholiq** hamda oq o'rdalik xonzodalardan **Chingiz o'g'lon** bilan ittifoq tuzib temuriylarga qarshi isyon ko'taradi. **1410-yil 20-aprelda** Samarqand yaqinida **Qizilravot** mavzeyida isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Ulug'bek mag'lubiyatga uchrab, **Kalifga** chekinadi. Shohrux Samarqandga yetib kelib, Shayx Nuriddin isyonini bostiradi. Movarounnahr va Turkistonni boshqarish to'liq **18 yashar** Ulug'bek qo'lga o'tadi.

Harbiy yurishlar. Ulug'bek **1414-yili Farg'ona** va **Koshg'arni** egallaydi. **1413-yili** Shohrux tomonidan **Xorazm Oltin O'rda** xonlari tasarrufidan qaytarib olinadi. Ulug'bek **1425-yilning erta bahorida** Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda

Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi. Qo'lga kiritilgan o'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi. Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabr toshi yasattiriladi. Qozonilgan g'alabaning nishoni tarzida Jizzax yaqinidagi **Ilono'tti** darasida **1426-yili** Ulug'bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o'ziga xos «**zafarnoma**» hozirgi kungacha saqlangan. Dashti Qipchoqqa qarshi qilingan yurishda esa Ulug'bekning omadi kelmaydi. Otasi Shohruxning katta qo'shin bilan yetib kelishigina uni halokatdan saqlab qoladi.

**Text uchun kurash.** Shohrux **1447-yil 12-mart** kuni nevarasi **Sulton Muhammad** isyonini bostirish vaqtida **Ray** viloyatida o'rniga voris belgilashga ulgurmay vafot etadi. Shohrux vafot etishi bilanoq, Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avjga minib, mamlakat beqarorlik va chuqur ijtimoiy-siyosiy larzalarga duchor bo'ldi. Odatga ko'ra, taxtga Shohruxning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek o'tirishi kerak edi. Ammo taxtni Boysung'urning o'g'li **Aloudavla** egallaydi. Toj-u taxt uchun yana kurash boshlanadi.

O'zboshimcha shahzodalar Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi va **1447-yil bahorida** Alouddavla Ulug'bekning katta o'g'li **Abdullatifning** qo'shinini tor-mor qilib, uni asirga oladi. Bunday sharoitda Ulug'bek Alouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Unga ko'ra, Abdullatif ozod qilinadi. Ulug'bek esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Biroq ko'p o'tmay sulh buziladi. **1448-yil bahorida** Ulug'bek va Abdullatifning **90 ming** kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi. **Tarnob** yaqinidagi jangda Alouddavla qo'shini tor-mor etilib, Hirot qo'lga kiritiladi. Ulug'bek Xurosonda Abdullatifni qoldirib, o'zi Samarqandga qaytadi. Negaki Movarounnahrda Ulug'bekka qarshi isyon boshlangandi.

Abdullatif garchi bobosi Shohruxning Hirotidagi taxtiga o'tirgan esada, unda otasiga nisbatan adovat paydo bo'ladi. G'alaba to'g'risida tevarak-atrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi **Abdulazizdan** keyin tilga olingani, **Ixtiyoriddin** qal'asidagi xazina Ulug'bek tomonidan olib qo'yilgani Abdullatif uchun bahona bo'ladi. U otasining dushmanlari bilan til birlashtirib Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi. Abdullatif Hirotida bor-yo'g'i **15 kun** hokimlik qildi. **Abulqosim Bobur** qo'shinining shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib Movarounnahr tomon qochdi. Ulug'bek farmoni bilan **Balxga** noib qilib tayinlangach viloyatda **tamg'a** solig'ini bekor qilib savdogarlarni o'z tarafiga og'dirib oladi. Otasidan norozi amirlarni atrofga to'playdi. Hatto Abulqosim Bobur bilan bog'lanib, birlashib Ulug'bekka qarshi kurashga undaydi. Shunday qilib, Abdullatif o'z otasiga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik yo'lga o'tdi.

Ulug'bek fojiasi. Hirotdan Samarqandga qaytarkan, Ulug'bek old tomondan Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining hujumiga duchor bo'ldi. **Abulxayrxon** boshchiligidagi ko'chmanchilar o'shanda **Toshkent, Shohruxiya, Samarqand** va **Buxoro** tevaragidagi qishloqlarni talaydi. Ikki tarafdin kelgan dushmanlar bilan bo'lgan to'qnashuvlar oqibatida Ulug'bek qo'shini zaiflashib qoladi. Shu vaqtda Samarqandda vaqtinchalik noib qilib qoldirilgan Ulug'bekning kichik o'g'li Abdulazizga qarshi Samarqand amirlarining noroziligi kuchayib, Ulug'bek uni bartaraf etishga majbur bo'ladi. Abdullatif qulay fursatdan foydalanib bosh ko'taradi va Amudaryodan kechib o'tib, **Termiz, Shahrisabz** va Xuzorni osongina zabt etadi. So'ngra Samarqandga qarab yo'l oladi. **1449-yil oktyabrda Damashq** qishlog'i yaqinida qattiq jang bo'ladi va unda Ulug'bek yengiladi, Samarqand amiri **Mironshoh Qavchin** shahar darvozalarini berkittirib, Ulug'bekni ichkariga kirishga qo'ymaydi. U Shohruxiyaga ham kirolmaydi va Abdullatifga taslim bo'lishga majbur bo'ladi. Shahar qozisi **Shamsiddin Muhammad Miskinning** qarshiligiga qaramay, Abdullatif jaholatparast ulamolarning yashirin fatvosini chiqartirib, otasining o'ldirilishini uyushtiradi.

### 9.3. TEMURIYLAR SALTANATI INQIROZI

Siyosiy beqarorlik. Mamlakat fuqarolari tomonidan «padarkush» deb la'natlangan Abdullatif va uning tarafdorlari taxtda uzoq vaqt o'tirolmadi. Oradan **olti yarim oy** o'tar-o'tmas Abdullatifga qarshi saroyda fitna uyushtirilib, u o'ldirildi. Uning kallasi tanasidan judo etilib, Registon maydonida Ulug'bek madrasasining peshtoqiga osib qo'yildi. Muxolifatchi kuchlar Samarqandda Shohruxning nabirasi **Mirzo Abdulloni**, Buxoroda Mironshohning nabirasi **Abu Said**ni hukmdor qilib ko'tarishadi. Oqibatda ular o'rtasida hokimiyat uchun yana kurash boshlanadi.

Movarounnahr va Xurosonda muttasil davom etib turgan o'zaro kurashlar Dashti Qipchoqdagi hukmdorlar uchun juda qo'l keladi. **1451-yili Abulxayrxon** katta qo'shin bilan Abu Said yordami va ishtirokida **Toshkent, Chinoz** va **Jizzax** orqali Samarqandga Mirzo Abdullonga qarshi yurish qiladi. **Sheroz** qishlog'i yaqinida **Bulung'ur** anhuri yoqasida jang bo'ladi. Muhorabada Mirzo Abdullo yengiladi va halok bo'ladi. Shunday qilib, Abulxayrxon yordamida Abu Said Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo'lib oladi. Xuroson bu davrda Shohruxning nabirasi **Abulqosim Bobur** tasarrufida edi. Xurosonda siyosiy tarqoqlik avj oladi. Temuriylar davri muarrixlarining yozishicha, bu davrda Xuroson **o'n bir**



bo'lakka ajralib ketadi. **1457-yili** Abulqosim Bobur vafot etgach, Abu Said taxtni egallaydi va saltanatning har ikki qismini birlashtirishga erishadi. Biroq tarqoqlik barham topmaydi. Ayniqsa, uni Xorazmni egallab olgan Umarshayx mirzo avlodi **Sulton Husayn** isyonlari hammadan ko'proq tashvishlantiradi.

**1496-yil erta bahorida** Abu Said Ozarbayjon, G'arbiy Eron va Iroqqacha bo'lgan viloyatlarni egallab turgan turkmanlarga qarshi jangda halok bo'ladi. Otasi o'limidan so'ng Abu Saidning vorislari sulton Husayn bilan to'qnashishga jur'at etolmay Movarounnahrqa qaytadilar. **1469-yil 24-martda** sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida tantana bilan Hirotga kirib boradi. Natijada Temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga bo'linadi: **Sulton Husayn** hukmronligidagi Xuroson va Abu Saidning o'g'li **sulton Ahmad** hukmronligidagi Movarounnahr.

Movarounnahrda Abu Saidning o'g'illari: avval **Sulton Ahmad (1469 – 1494)**, so'ng **Sulton Mahmud (1494 – 1495)** va keyinchalik Mahmudning o'g'li **Sulton Ali (1498 – 1501)** mustaqil hokimlik qiladi. Biroq Movarounnahrda tarqoqlik yanada avj oladi. **1454-yili** Hirot hokimi **Abulqosim Bobur** Movarounnahrqa bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganda, **Xoja Ubaydulloh Ahror** mojaroga aralashib raqiblarni yara-shishga majbur etadi.

*Sulton Husayn va Alisher Navoiy.* Sulton Husayn Boyqaro o'z tasarrufida Xuroson, Xorazm hamda **Sharqiy va Shimoliy Eron** viloyatlarini birlashtirgandi. U qariyb **40 yil** hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori bo'lib, uning davrida shahzoda va amirlarning boshboshdoqligiga qaramay, mamlakatning xo'jalik va madaniy hayoti yuksaldi. Xurosonning obod etilishida, ravnaq topishida buyuk adib va davlat arbobi **Alisher Navoiyning** ham xizmati katta bo'ldi. Alisher Navoiy **1441-yili Hirot**da dunyoga kelgan. Uning ota-bobosi temuriylar saroyida xizmat qilgan. Sulton Husayn bilan Alisher bir maktabda o'qiganlar. Ular bolalik chog'laridayoq Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur xizmatida bo'lganlar. Uning vafotidan keyin **12 yil** davomida boshqa-boshqa shaharlarda yashaganlar. Husayn bu davrda avval **Xorazmda**, so'ngra Xurosonning **Hirot, Obivard, Niso, Mashhad** va boshqa viloyatlarida darbadarlikda yurib, kuch to'plab Abu Saidga qarshi isyonlar ko'targan. Alisher Navoiy bu yillarda **Mashhad** va **Hirot**da o'qiydi. O'sha paytlardayoq u shoirlik iste'dodi tufayli katta shuhrat qozongandi. Yoshlikdan sulton Husayn bilan yaqin bo'lgan Alisher o'ziga nisbatan Abu Saidga adovat sezib, **Samarqandga** ko'chib borib, ma'lum vaqt u yerda yashashga majbur bo'ladi. Samarqandda u ilm-fan va she'riyat bilan mashg'ul bo'ladi. Bu

yerda mashhur olim, falsafa, mantiq, huquq, arab tili, adabiyot va she'riyatning o'tkir bilimdoni **Fazlulloh Abullays Samarqandiydan** saboqlar oladi. 1469-yili Sulton Husayn Hirotni egallagach Navoiyni o'z huzuriga taklif etadi. Alisherni dastlab **muhrdorlik** lavozimiga, keyinroq esa **vazir** etib tayinlaydi.

Sulton Husayn hukmronligi davrida Alisher Navoiy mamlakatda mustahkam markazlashgan saltanat vujudga kelishi, viloyatlar sug'orilib obod etilishi, qishloqlarda dehqonchilik, shaharlarda hunarmandchilik va savdning kengayib, taraqqiy etishi yo'lida xizmat ko'rsatdi. Alisher Navoiy adabiyot, san'at va ilim-ma'rifat ravnaqi, aholining tinch va osoyishta istiqomat qilishi tarafdori edi. Lekin Sulton Husayn davlati Alisher kutganicha bo'lib chiqmadi. Suyurg'ol tartibiga asoslangan bu davlatda, bir tomondan, viloyat hukmdorlari, hatto toj-u taxt valiahdlari **Badiuzzamon va Muzaffar Husayn mirzo** isyonlari yuz beradi. Ikkinchi tomondan, zulm oqibatida Hirot va uning viloyatlarida xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. Uchinchidan, o'z manfaatlarini ko'zlagan ochko'z saroy ma'murlari fitna-fasodni avj oldirib, uning botqog'iga Sulton Husaynni ham botiradilar. Bunday ahvol, shubhasiz, bosh vazirlik vazifasida turgan dono Navoiyning saroydan, hatto poytaxtdan uzoqlashishiga olib keladi. Shunday qilib, **XV asrning 2-yarmidagi** beqaror siyosiy vaziyat tufayli Temuriylar davlati inqirozga yuz tutdi.

#### 9.4. DEHQONCHILIK, YER EGALIGI

Dehqonchilik va chorvachilik. Mamlakatda tez-tez sodir bo'lib turadigan urushlarga qaramay, **XV asrda** ham Movarounnahr va Xuroson qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshiriladi. Yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, dehqonchilik viloyatlarining suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi. Eng yirik sug'orish ishlaridan biri Samarqand vohasida Zarafshon daryosidan bosh olgan, Darg'om anhoridan chiqarilgan qadimgi **Angor kanalining** qayta tiklanishi bo'ldi. Bu kanal orqali kam suvli Qashqadaryo vohasiga qo'shimcha suv chiqariladi. Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasiga yondashgan **Somonjuq** dashtiga suv chiqarilib, yangi yerlar o'zlashtirildi.

Murg'ob daryosining bosh to'g'oni – **Sultonbandning** Shohrux tomonidan tiklanishi va sug'orish tarmoqlarining loyqadan tozalanishi tufayli Marv shahri va Murg'ob vohasining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Sulton Husayn mirzo hukmronlik qilgan davrda esa uning tashabbusi bilan **Marviruddan** yangi kanal chiqarilib, kattagina yer maydoni sug'orilib obod etiladi.

Alisher Navoiyning tashabbusi bilan **Tus** viloyatining yuqori qismida **Turuqband** suv ombori qurdiriladi. **O'n farsax (70 – 80 km)** uzunlikda maxsus kanal qazdirilib, Turuqband suv omborida jamg'arilgan suv Mashhadga olib kelinadi. Bu davrda qishloq xo'jaligida, xususan, g'allakorlik, sabzavotchilik va polizchilikda ziroatlarning deyarli hamma navlari yetishtirilgan. Bog'dorchilikka zo'r ahamiyat berilgan. Mevali daraxtlarning ko'pdan ko'p xillari ko'kartirilib, mamlakat aholisi yozda ho'l meva, qish va bahor mavsumlarida esa quruq mevalar bilan ta'minlangan. Xo'jalikning iqtisodiy hayotida, ayniqsa, yaylov chorvachiligi: yilqichilik, tuyachilik hamda podachilik muhim o'rin tutgan.

Yer egaligi. Butun XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning, asosan, **to'rt** shakldagi: **«mulki devoniy»** – davlat yerlari, **«mulk»** – xususiy yerlar, **«mulki vaqf»** – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar va **jamo'a yerlari** bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilardi. Temuriylar davrida davlat yerlarini **suyurg'ol** tarzida in'om qilish keng tarqaladi. Shahar yoki viloyatlardan tortib to alohida qishloqlargacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyatlar, odatda, hukmron sulola namoyandalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Suyurg'ol yer va mulklar ko'pincha avloddan avlodga meros bo'lib qolardi. Suyurg'ol egasiga o'z suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufidagi yer maydonlarini qisqartirar yoki ularning haq-huquqlarini cheklab qo'yardi. Suyurg'ol egasi markaziy hukumatga bo'ysunmagan taqdirda suyurg'ol huquqidan mahrum etilar va boshqa shaxsga berilardi. Dehqonchilik maydonlarining ikkinchi kattagina qismi – mulk xususiy yerlardan iborat edi. Shubhasiz, yirik mulkdorlarning katta yer maydonlari ham, mehnatkash ziroatchilarga tegishli mayda paykallar ham xususiy mulk yerlari qatoriga kirardi.

Bu davrda bosh hukmdor tomonidan yirik mulk egalarga biron xizmati uchun **tarxonlik** yorlig'i berish tarqaladi. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i, odatda, amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga **«tarxon»** so'zi qo'shib aytilgan. XV asrda ham avvalgi davrlardagidek juda ko'p yer va suv masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga biritirilib, **«mulki vaqf»** deb atalgan. Yer va suvdan tashqari ko'plab

do'kon, korxonalar, tegirmon, objuvoz, bozor rastalari, karvonsaroylar ham vaqf qilinib, ulardan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta'miri, jihozi, mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarining kundalik xarajlari uchun sarf etilgan.

Mazkur davrda dehqonchilik yerlarining ma'lum bir qismi qishloq aholisining umumiy tasarrufida bo'lgan. Bunday yerlar qishloq jamoalarining mulki hisoblangan. Bunday shakldagi jamoa yerlari ko'proq suvga tanqis tog'oldi hududlarida birmuncha keng tarqalgandi. Davlat yoki vaqf yerlarida, tarxon yoki suyurg'ol egalari kabi yirik mulkdorlarning yerlarida **muzoriylar** mehnat qilishgan.

**Soliq turlari.** Sug'orma dehqonchilik yerlaridan olinadigan asosiy soliq **xiroj** deb atalgan. Xiroj mahsulot yoki pul holda to'langan. U hosilga va yerning unumdorligiga qarab belgilangan. Chunonchi, daryo, buloq va koriz suvlari bilan sug'oriladigan obikor yerlardan xiroj hosilning **1/3 qismi (33 foiz)** miqdorida olingan. Lalmikor yerlardan hosilning **1/6**, ya'ni **16,5 foiz**dan to **1/8**, ya'ni **12,5 foiz**igacha miqdorida soliq undirilgan. Mulk yerlarining bir qismidan **ushr**, ya'ni hosilning **1/10 qismi** miqdorida soliq olingan. Bunday yerlar, odatda, zamonasining ilm-fani, ma'rifati va ma'naviy hayotida muhim nufuzga ega ulamolar va mashoyixlar tasarrufida bo'lgan. Chorva mollaridan **1/40**, ya'ni **2,5 foiz** miqdorida zakot olingan. Asosiy soliqlardan tashqari mehnatkash aholi **begor** ishlarida ham qatnashgan.

## 9.5. HUNARMANDCHILIK VA SAVDO

**Hunarmandchilik.** Ko'pgina shaharlarda zargarlik, miskarlik, ignasozlik, sovutsozlik, toshtaroshlik, shishasozlik, ko'nchilik kabi hunarmandchilik mahallalari bo'lgan. Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik yetakchi o'rinni egallagandi. Shaharlarda ip, ipak, jun va kanop tolasidan turli xildagi rangdor, guldor hamda nafis va dag'al gazmollar ko'plab to'qib chiqarilardi. XV asrda temir buyum, qurol-yarog' va asboblarni yuqori darajaga ko'tariladi. Metall buyum yasovchilarning aksariyati uy-ro'zg'or buyumlari, qurol-yarog'lar va asbob-uskunalar yasovchi temirchilardan iborat edi. Ular orasida mix yasovchilar, taqachilar, sim cho'zuvchilar, pichoqchilar kabi turli xil buyumlar yasovchi ustalar bo'lgan. Shaharlarda, xususan, Samarqand va Hirotda zargarlik rivoj topadi.

O'rta asr hunarmandchiligida kulolchilik eng rivoj topgan sertarmoq sohaga aylanadi. U kosagarlar, xum va xumchasozlar va tandirsozlar

kabi bir necha tarmoqlarga bo'linadi. Bu davrda tosh yo'nish, unga sayqal berib, o'ymakor naqshlar va husnixat bitish san'ati kamolotga yetadi. Samarqandda **Bibixonim jome masjidida** Qur'onni qo'yish uchun o'rnatilgan tosh lavh, **Go'ri Amirdagi** nefrit toshi, **Shohizinda** va boshqa joylardagi sag'analarga jimjimador naqshlar chizilgan, o'ymakor oyatlar, marsiyalar va ta'rixlar yozilgan.

***Binokorlik, yog'och o'ymakorligi.*** Bu davrda mamlakatda qurilish ishlari keng avj olib, binokorlarning roli oshib ketadi. Binokor ustalar kasblariga ko'ra g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar «**banno**» deb, peshtoq-uravoq hamda toqilarga parchin va girixlar qoplab, imoratga pardo beruvchilar «**ustod**» deb yuritilgan. XV asrda shishasozlik ham ancha-muncha taraqqiy qilgan. Samarqandda hatto shishasozlar mahallasi bo'lgan. Bu davrda yog'ochsozlik ham rivojlangan. Go'ri Amir va Shohizindaning oyatlar bitilgan naqshinkor eshiklari XV asr xalq ustalarining yog'och o'ymakorligi san'atidagi eng nodir namunalardan hisoblanadi.

Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutadi. **Samarqand qog'oz** o'rta asr Sharqi xattotligida g'oyat mashhur bo'lib, uning ma'lum bir qismi chet o'lkalarga chiqarilgan. Bu davrda hunarmandchilikning teri oshlash, charm pishirish, mahsido'zlik, po'stindo'zlik, telpakdo'zlik, kovushdo'zlik, etikdo'zlik sohalari ham rivojlangan. Samarqandning **shirmoyi, sedana payvand, noni zargaron, noni oslyoiy** kabi mashhur anvoyi nonlari, ziravorlar, attorlik mollari sotilardi.

***Savdo aloqalari.*** XV asrda temuriylar uzoq va yaqin qator qo'shni mamlakatlar: **Xitoy, Hindiston, Tibet, Eron, Rusiya, Volgabo'yi va Sibir** bilan muntazam savdo-sotiq qilardi. **Xitoydan**, asosan, ipak, shoyi matolar, xususan, atlas va parchalar, chinni, la'l, gavhar va mushk; **Hindistondan** nafis oq rangli ip matolar, nil bo'yoqlar, xushbo'y ziravorlar; **Eron**dan surp, marvarid, durlar; **Rusiya, Tatariston va Sibir**dan qimmatbaho' mo'yna, teri va mum olib kelinardi. Yevropa mamlakatlaridan Samarqandga olib kelingan mollar orasida **farang gazmollari, movuti, cherkas pichog'i** bor edi. Samarqanddan chet mamlakatlarga, xususan, Rusiya, Tatariston va Sibirga arzon narxli ip matolar, asosan, bo'z, duxoba, shoyi gazlama, qog'oz, quruq meva, guruch, paxta va kalava (yigirilgan ip)lar chiqarilgan.

Chet davlatlar bilan o'zaro savdo-sotiqni kengaytirishda temuriylarning qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik aloqalari katta rol o'ynaydi. Ulug'bek va Shohrux Xitoy bilan muntazam ravishda elchilar almashib turishgan. Deyarli har ikki-uch yilda Samarqand bilan Hirotga Xitoy elchilari

va savdogarlari qatnab turgan. **1418-yili Ardasher** boshliq Shohrux elchilari Xitoyda bo'ladilar. **1419-yili** bunga javoban **Li Do** va **Jong Fu** Xitoydan Samarqand va Hirotga elchi bo'lib keladilar. Elchilar Ulug'bek va Shohrux nomiga o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish xususidagi takliflar yozilgan maktub va katta sovg'a-salomlarni topshiradilar. **1420-yili** Shohrux va Ulug'bek **530 nafardan** iborat elchilik karvonini Xitoyga jo'natadilar. Temuriylarning elchilari ikki yildan ortiqroq Xitoyda bo'lib, **1422-yili** o'z vatanlariga qaytib keladilar.

Shohrux va Ulug'bek zamonida Tibet va Hindiston bilan ham yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatiladi. **1421-yili** Tibetdan Buxoro va Samarqandga elchilar keladi. **1441 – 1442-yillarda** Shohrux Hindistonga **Vijayanagar** saroyiga tarixchi **Abdurazzoq Samarqandiy** boshchiligida elchilar yuboradi. U **Kermon, Xurmuzd** va **Fors** qo'ltig'i orqali Hindistonga qilgan sayohatini yozib qoldiradi.

***Pul muomalasi.*** Ulug'bek **1428-yili** muomaladagi **fulusiy pullar** islohotini amalga oshirdi. Yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan chaqa pullarni man etdi. Eski chaqalarni yangisiga almashtirib, ichki savdoning fulusiy pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida **Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shohruxiya** va **Andijon** shaharlarida zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi salmoqdor fuluslar zarb ettirdi va muomalaga chiqardi. Faqat Buxoro zarbxonasi saqlab qolindi, boshqa shahardagi zarbxonalar yopildi. Xalq o'rtasida **«fulusi adliya»**, ya'ni **«adolatli chaqa»** nomi bilan shuhrat topgan Ulug'bekning bu yangi fuluslari Movarounnahning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib, davlatning ichki savdosini naqdina (naqd pul) bilan to'la ta'minladi. Shu bilan birga, Ulug'bek tashqi savdodan davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko'paytirish maqsadida **tamg'a solig'ini** birmuncha oshirdi.

## 9.6. ILM-FAN TARAQQIYOTI

***Ilm-fan markazlari.*** XV asrda Samarqand va Hirotida olimlar-u fuzalolar, shoirlar-u bastakorlarning kattagina guruhi to'plangandi. Ilm-fan va san'at taraqqiyotida shoh va olim **Mirzo Ulug'bekning** roli va hissasi beqiyos. U mamlakat ravnaqi, ayniqsa, uning ma'naviy kamolotida ilm-fan va san'atning naqadar muhimligini yaxshi tushunardi. Ulug'bek mamlakatni boshqarish bilan bir qatorda ilmiy ishlar bilan shug'ullanadi, olimlarning munozaralarida faol qatnashadi. O'tmishdoshlari: Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino

asarlari batafsil o'rganadi. Bu buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali u qadimgi yunon olimlari – **Aflotun, Arastu, Gipparx, Ptolemeyning** mumtoz asarlari bilan ham tanishadi. Ulug'bek farmoni bilan **1417-yili Buxoroda, 1417 – 1420-yillarda Samarqandda va 1933-yili G'ijduvonda** madrasalar qad ko'taradi. Buxoro madrasasining darvozasiga «*Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir*» degan kalima o'yib yozib qo'yiladi. Bu madrasalarda ilohiyot ilmlari: Qur'on, Hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidalari) bilan bir qatorda riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), ilmi hay'at (astronomiya), tibbiyot (meditsina), tarix, geografiya, ilmi aruz (poetika), arab tili va uning morfologiyasi (qofiya) kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilardi.

Ulug'bek madrasasi. 1420-yili ochilgan Samarqand madrasasi **ikki qavatli, ellik hujrali** bo'lgan. Har bir hujra **uch xona: qaznoq** (omborxona), **yotoqxona** va **darsxonaga** bo'lingan. Madrasada yuzdan ortiq talaba istiqomat qilgan va ta'lim olgan. Madrasada o'sha zamonning iqtidorli olimlaridan mavlono **Shamsiddin Muhammad Havofiy** yetakchi mudarris bo'lgan. O'rta asrlarning mashhur olimlari – **Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug'bek** va uning shogirdi **Alouddin Ali Qushchi** turli fanlardan dars berganlar. Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni **Shamsiddin Muhammad Havofiy** o'qigan, darsda tolibi ilmlardan to'qson nafari qatnashgan. Madrasada ilmi hay'at (astronomiya)dan darsni Qozizoda Rumiy o'tgan. Madrasada kamida **15– 16 yil** tahsil ko'rib, uning dasturi bo'yicha fanlarni to'la o'zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o'z bilimini namoyish qilolgan tolibi ilmlarga **sanad** yozib berilgan.

Rasadxona. Mirzo Ulug'bek **1424 – 1428-yillarda** shahar yaqinidagi **Obirahmat** anhoiri bo'yida **rasadxona** qurdirdi. Hanuzgacha olimlarning qiziqishini uyg'otib kelayotgan bu ulkan imoratning balandligi **31 m** edi. Binoning ichki sahni sekstant va koridorlar bilan uch qismga ajratilgan. Rasadxona joylashgan bu mavze mahalliy aholi orasida «**Naqshi jahon**» degan nom bilan shuhrat qozongan. **G'iyosiddin Jamshid** boshchiligida rasadxonaning asosiy o'lchov asbob-uskunasi – ulkan **sekstant** o'rnatilgan. Samarqand sekstanti o'sha davrda Sharqda ma'lum bo'lgan sekstantlarning eng kattasi hisoblangan. Ulug'bek rasadxona qoshida zamonasining boy kutubxonasini ham tashkil etadi. Bu kutubxonada fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb **o'n besh ming jild** kitob saqlangan. Rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta-kichik hujralar quriladi. Uning etagida esa ikkita chorbog' barpo etiladi. Ulardan biri **Bog'i Maydon**, ikkinchisi esa **Chinnixona** nomi bilan shuhrat topadi.

Ulug'bek rasadxonasi o'sha zamon sharoitida mukammal astronomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga mashhur matematik va astronomlardan «Aftotuni zamon» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, «O'z davrining Ptolemeyi» nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi va ko'pgina boshqa olimlar ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar olib boradilar. Xullas, Ulug'bek Samarqandda butun bir astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli **1018 ta** qo'zg'almas yulduzning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvali tuziladi. Rasadxonada olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida matematika va astronomiyaga oid qator nodir asarlar yaratildi.

Ulug'bekning shoh asari – **«Ziji jadidi Ko'ragoniy»**, asosan, ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 qo'zg'almas yulduzning o'rni va holati belgilab berilgan jadvallardan iborat. Ulug'bekning yil hisobini hozirgi hisob-kitoblarga solishtirsak, u bor-yo'g'i **bir minut-u ikki sekundga** farq qiladi. Ulug'bek **«Tarixi arba' ulus» (To'rt ulus tarixi)** nomli tarixiy asar hamda musiqa ilmiga bag'ishlangan beshta risola ham yozgan. Ulug'bekning astronomiya maktabi o'z davrining o'ziga xos akademiyasi edi. **«Samarqand akademiyasi»** bundan **225 yil** muqaddam fransuz mutafakkiri **Volter (1694 – 1778)** tomonidan e'tirof etilgan. *«Ulug'bek Samarqandda bo'lib akademiyaga asos soldi. Yer sharini o'lchashga buyurdi va astronomiya jadvalarini tuzishda ishtirok etdi»*, – deb yozgandi u.

## 9.7. MADANIY HAYOT

*Kitob san'ati.* XV asrda kitobat san'ati, ya'ni qo'lyozma asarlarni ko'chirib yozish va u bilan bog'liq bo'lgan xattotlik, musavvirlik, lavvohlik va sahhoflik san'ati ham nihoyatda taraqqiy etadi. Bir necha kasb-hunar sohibining uzoq va mashaqqatli mehnati bilan bunyod etilgan nafis kitob oz nusxada bo'lib, qimmat edi. Mashhur xattot **Mirali Tabriziy (1330 – 1404)** **nasta'liq** deb nomlangan yangi uslubdagi xatni kashf etadi. Xushnavis xattotlardan biri **Sultonali Mashhadiy (1432 – 1520)** edi. U Nizomiy, Attor, Hofiz, Sa'diy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro va boshqa shoirlarning asarlarini ko'chiradi. Sultonali tomonidan ko'chirilgan **50 dan ziyod** kitob va ko'pgina qit'alar hozirgi vaqtgacha yetib kelgan. Sultonali o'ymakorlik san'atida ham mohir bo'lgan. Husayn Boyqaroning **«Bog'i Jahonoro»** bog'idagi saroy devorlaridagi bitiklar, Husayn Boyqaro



qabrtoshidagi lavha Sultonali tomonidan o'yib bitilgan. U xattotlik san'ati turlari haqida maxsus asar ham yozgan. Mashhadiy «**Qiblat ut-qutub**» (**Kotiblar qiblasi**) va «**Sulton ul-xattotin**» (**Xattotlar sultoni**) nomlari bilan shuhrat topdi.

Samarqand va Hirotda maxsus saroy kutubxonalari tashkil etilgandi. Kutubxona ishlariga **kitobxona dorug'asi** yoki **kitobdor** boshchilik qilgan. Uning qo'l ostida xattotlar, naqqoshlar-u musavvirlar, mohir lavvohlar-u sahhoflar buyurtmalarni bajarganlar. Masalan, Hirotda Ulug'bekning ukasi Boysung'ur kitobxonasida qirqta xattot va bir qancha naqqoshlar qo'lyozma asarlardan nusxalar ko'chirish va ularni bezash bilan band bo'lgan. **1429-yili** bu kitobxonada **Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»** dostoni ko'chirtirilib, u **20 ta** turli mazmun va manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan.

**Tasviriy san'at.** XV asrda **Behzod** asos solgan Hirotda musavvirlik maktabi ulkan yutuqlarga erishdi. Bu davr tasviriy san'ati obidalar portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lgan. Siymolar qiyofasi tasvirlari orasida **Jomiy, Navoiy, Abdullo Xolifiy, Behzod, Husayn Boyqaro, Bobur** va boshqalarning tasvirlari bizgacha saqlanib qolgan. Musavvirlar bu tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini aniqroq va mukammalroq tasvirlashga, ayrim hollarda hatto ularning ma'naviy dunyosini ochishga intilganlar. Masalan, **Mahmud Muzahhib** tomonidan chizilgan **Navoiy** tasvirida shoir hassaga tayangan, uning qomati birmuncha bukchaygan, qarashlarida ham horg'inlik alomatlari, ham ulug'vorlik va oliyjanoblik ko'zga tashlanadi.

Kamoliddin Behzod bu davr tasviriy san'atining ulug' namoyandasidir. Uning ijodi xilma-xil mazmunga ega bo'lib, tarixiy siymolar (**Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Alisher Navoiy**) portretlaridan tortib to serjilo hukmdor saroylaridagi qabul marosimlari va jang maydoni manzaralarigacha haqqoniy va ta'sirli qilib berilgan. Ayniqsa, **Dehlaviyning «Layli va Majnun»** dostoniga bag'ishlangan lirik manzaralari yoki **Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»** asari uchun chizilgan shiddatli jang tasvirlangan miniatyuralari nihoyatda jozibador va ta'sirchan.

**Musiqqa.** XIV – XV asrlarda yangi kuy va qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga doir nodir asarlar yaratildi. Juda ko'p mahoratli sozandalar, mashshoqlar, bastakorlar va hofizlar yetishdi. **Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shodquli G'ijjakiy, Qosim Rabboniy** va boshqalar shular jumlasidandir. Omilkor musiqachilar bilan bir qatorda **Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy** kabi mutafakkir va

shoirlar ham musiqa san'ati bilan shug'ullanib, uning rivojiga ma'lum hissa qo'shadilar. Masalan, Ulug'bek «**Bulujiy**», «**Shodiyona**», «**Axloqiy**», «**Tabriziy**», «**Usuli ravon**» va «**Usuli otlig'**», Navoiy «**Isfahoniy**» kuylarini ijod qiladi. **Jomiy** va **Binoiy** musiqa nazariyasiga doir asar yaratadilar.

**Adabiyot.** Bu davrda zamonasining iste'dodli shoirlari va adiblari **Qutb Xorazmiy**, **Sayfi Saroyi**, **Haydar Xorazmiy**, **Durbek**, **Amiriy**, **Yaqiniy**, **Atoyi**, **Sakkokiy**, **Lutfiy**, **Bobur**, **Muhammad Solih** va boshqalar yashab ijod qiladilar. Durbek tomonidan qayta ishlangan «**Yusuf va Zulayxo**» dostoni, toshkentlik shoir **Atoyining** devoni shu davr badiiy adabiyoti durdonalaridir. Bu davr o'zbek shoirlari ichida **Lutfiy (1366 – 1465)** alohida o'rin tutadi. Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida **Lutfiy** darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan. U tojik tilida ham qasidalar yozdi. **Lutfiy** ijodida haqiqat va adolatni sevish, shafqat va muruvvatli bo'lishni targ'ib qilish, ilm va san'atga ko'ngil qo'yish kabi fikrlar katta joy olgan.

XV asr badiiy adabiyotida buyuk davlat arbobi, ulug' shoir, olim, mutafakkir **Alisher Navoiy** va **Abdurahmon Jomiyning** o'mi beqiyos. Navoiy butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. U o'zbek adabiy tili, o'zbek mumtoz adabiyotini yangi pog'onaga ko'tardi. Navoiy o'ttizdan ortiq yirik badiiy asar yozdi. «**Xamsa**», «**Xazoyin ul-maoniyy**», «**Mahbub ul-qulub**», «**Lison ut-tayr**» shular jumlasidandir.

Navoiy tarixni bilish katta ahamiyatga ega ekanini ta'riflab, odamlarni tarixni o'rganishga da'vat etadi. Uning fikricha, tarix fani shohlar, hukmdorlarning tarjimayi holimas, balki mamlakat tarixini o'rganishi kerak. Navoiy mamlakatni nimalar tanazzulga va nimalar farovonlikka olib kelishini, qanday ishlar tufayli mamlakat obod bo'lishi, xalqqa farog'at va baxt kelishini tarix ko'rsatib berishi lozim deb hisoblaydi. Navoiy adolat yordamida mamlakatni obod qilish mumkinligini, har bir kishi o'zining xulqi va odobi bilan odamlarni xursand qilishi lozimligini uqitirib o'tadi.

## 10-BOB. MOVAROUNNAHR SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA

### 10.1. XV ASR OXIRI – XVI ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDA SIYOSIY VAZIYAT

*Siyosiy inqiroz.* Xuroson hukmdori Shohrux **1447-yili** vafot etgach, toj-u taxt uchun kurash avjiga chiqdi. Natijada Xuroson davlati o'n bir qismga bo'linib ketdi. Ularning har biri o'zini mustaqil davlat deb hisoblardi. **1469-yili** Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayxning nabirasi **Sulton Husayn Boyqaro** Xuroson taxtini egalladi.

Salkam **40 yil** hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro davrida ham mamlakatda to'la osoyishtalik o'rnatilmagan bo'lsa-da, Xuroson davlatining xo'jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlandi. Mamlakat obodonchiligi yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Movarounnahrda nisbatan siyosiy barqarorlik ta'minlandi. Bunda Husayn Boyqaroning hukmdorlik salohiyati muhim o'rin tutdi. Vazir **Alisher Navoiyning** xizmatlari ham benihoya katta bo'ldi. **1506-yili** Sulton Husayn Boyqaro vafot etdi. Shundan keyin mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Marhum sultonning ikki o'g'li (**Badiuzzamon** va **Muzaffar Husayn**) bir vaqtda hukmdor deb e'lon qilindi. Bu hol shuningsiz ham og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan Xuroson davlatini to'la parokandalikka olib keldi. Natijada shayboniylar hujumi arafasida davlat inqirozga yuz tutdi.

Mirzo Ulug'bek **1449-yili** o'ldirilgach, Movarounnahrda ham toj-u taxt uchun ayovsiz kurash boshlanib ketdi. Bu kurashda Mironshohning nabirasi **Abu Said ibn Sulton Muhammad** g'afaba qozonadi va Movarounnahr taxtini egallaydi (**1451 – 1469**). U **1469-yili** urushda halok bo'lgach, hokimiyatni uning ikki o'g'li: **Sulton Ahmad (1469 – 1494)**, **Sulton Mahmud (1494 – 1495)** hamda nabiralari **Boysung'ur mirzo (1495 – 1497)** va **Sulton Ali mirzo (1498 – 1500)**lar boshqargan. Xullas, temuriylar hukmronligi davri oxirida o'zaro urush-talash oqibatida mamlakat to'la tanazzulga yuz tutgan.

XVI asr bo'sag'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga Zahiriddin Muhammad Bobur chiqdi.

*Bobur mirzo siyosiy kurash maydonida.* Bobur mirzo Amir Temurning uchinchi o'g'li **Mironshohning** chevarasi edi. U **1483-yil 14-fevralda Andijon** shahrida tug'ilgan. Bolalik va yoshlik yillari Andijon va Axi shaharlarida o'tgan. U otasi **Umarshayx mirzo (1456 – 1494)** saroyida o'z davriga yarasha barcha zarur bilimlarni egallagan.

Umarshayx mirzoni otasi Abu Said mirzo hukmronligi davrida dastlab **Kobul** viloyatiga, so'ng **Farg'ona** viloyatiga hukmdor etib tayinlagan. Keyinchalik akasi Sulton Ahmad hukmronligi davrida **Toshkent** va **Sayram** ham Umarshayx mirzoga berilgan. Biroq o'zaro ichki kurashlar natijasida Umarshayx mirzo qo'l ostida faqat **Farg'ona**, **Xo'jand** va **O'ratepagina** qolgan. Umarshayx mirzo **1494-yili** baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lgach, Farg'ona taxtiga **12 yoshli Bobur mirzo** o'tqazildi.

*Bobur yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini ishonchli beklardan Hojiqozi va o'qimishli, oqila onasi Qutlug' Nigorxonim yordamida boshqarardi.* Bobur mirzoning siyosat maydoniga chiqishi Temuriylar saltanatida harbiy-siyosiy vaziyat nihoyatda og'irlashgan sharoitga to'g'ri keldi. Bu holat Farg'onadagi siyosiy vaziyatda ham o'z ifodasini topdi.

Chunonchi, **1494-yili** Bobur mirzoning amakisi **Sulton Ahmad mirzo** Farg'ona ustiga yurish boshladi. Samarqand qo'shini **Quvasoy** ko'prigidan o'tayotganda falokat yuz beradi. Ko'prikinib, natijada ko'p kishi suvga g'arq bo'ladi. Buning ustiga, otlarga o'lat tegadi, qo'shin orasida vahima va sarosimalik ham boshlanadi. Ayni paytda, mahalliy xalq g'animlarga qaqshatqich zarba bera boshlaydi. Chorasiz qolgan Sulton Ahmad mirzo Samarqandga qaytib ketadi.

**Bobur mirzoning Samarqand taxtini egallashi.** Oradan ko'p vaqt o'tmay Bobur mirzoning tog'asi – Toshkent hukmdori **Sulton Mahmudxon** Farg'ona ustiga yurish boshlaydi va **Axsi** qo'rg'onini qamal qiladi. Biroq Sulton Mahmudxon qanchalik urinmasin Axsini olishga qurbi yetmadi. Axsi himoyachilarining mardonavor kurashayotganini ko'rgan Sulton Mahmudxon ham Toshkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Sulton Ahmad mirzo Samarqandga yetmasdan yo'lda to'satdan vafot etadi. **1495-yilning yanvarida** Samarqand taxtiga Sulton Mahmud mirzoning ikkinchi o'g'li **Boysung'ur mirzo (1495 – 1497)** o'tqazildi. *Shunday qilib, Andijonda Bobur mirzo, Samarqandda Boysung'ur mirzo, Toshkentda Sulton Mahmudxon, Hirotda esa Sulton Husayn Boyqaro hukmron edilar.*

Tez orada Boysung'ur mirzo bilan ukasi Sulton Ali mirzo o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlandi. Bundan xabar topgan Bobur mirzo **1496-yil 17-iyunda** qo'shini bilan Samarqand qamaliga tutinadi. Qamalda Boysung'urga qarshi uning akasi – Buxoro hukmdori **Sulton Ma'sud mirzo** va ukasi **Sulton Ali mirzolar** ham qo'l ko'tardilar. Ayni paytda, Bobur mirzo tog'asi – Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxondan yordam oladi. Biroq, qish yaqinlashib qolganligi tufayli, ittifoqchi shahzodalar Samarqand qamalini to'xtatib, yurtlariga qaytishga majbur bo'ldilar.

**1497-yilning may oyida** Bobur mirzo ikkinchi marta Samarqandga yurish boshlaydi va ikkinchi marta Samarqand qamali boshlanadi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi yuz bergani tufayli, Boysung'ur mirzo askarlari orasida parokandalik ro'y beradi. Qamalga bardosh berishga ko'zi yetmagan Boysung'ur mirzo Dashti Qipchoq hukmdori **Shayboniyxon**dan yordam so'raydi. Shayboniyxon qulay fursatdan foydalanib, tez orada Samarqandga kelib, Bobur mirzo qarorgohining ro'parasiga joylashadi. Bobur mirzo bor askari bilan Shayboniyxonga qarshi chiqishga shaylandi. Kutilmaganda Shayboniyxon shahar ichkarisiga qarab yurdi, biroq Boysung'ur uni shaharga kiritmadi. Boysung'ur uni shahar tashqarisida bo'ladigan jangda ittifoqchi bo'lishga taklif qilgandi.

Samarqand qamali **7 oydan ziyod** davom etdi. Shayboniyxondan yordam ololmagan Boysung'ur mirzo kam sonli qo'shini va yaqinlari bilan **Qunduz** hukmdori **Xusravshoh** huzuriga qochdi.

Andijonda hokimiyat uchun kurash. Bobur mirzo **1497-yilning noyabr** oyi oxirida Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi. Biroq bu hol uzoqqa bormadi. Boburning Andijonga yuborgan ishonchli begi **Uzun Hasan** Boburning dushmani **Ahmad Tanbal** bilan til birlashtirib Boburning ukasi **Jahongir mirzoni** Andijon taxtiga o'tqazish harakatiga tushgan edilar. Ular o'z maqsadlariga erishdilar ham. Vujudga kelgan harbiy-siyosiy tanglikni tushungan Bobur mirzo qanday bo'lmasin Andijonni saqlab qolishga qaror qildi va Samarqandni **yuz kun** idora etgandan so'ng uni tark etishga majbur bo'ldi. Samarqand taxtini **Sulton Ali mirzo** egalladi.

Ayni paytda, Bobur mirzoning kichik ukasi **Nosir mirzo** Andijonga hujum qildi va Uzun Hasan hukmronligiga barham berib, hokimiyatni Bobur mirzoga topshirdi. Biroq vaziyat hamon og'irligicha qolaverdi. Chunonchi, Jahongir mirzo hali taxt da'vosidan voz kechmagandi. Qolaversa, Ahmad Tanbal ham hamon uni qo'llab-quvvatlayotgandi. *Nihoyat, 1500-yili Bobur mirzo bilan Jahongir mirzo o'rtasida sulh tuzildi. Unga ko'ra, Sirdaryoning shimoliy tarafi Axxi shahri bilan Jahongir mirzoga, daryoning janubiy tomoni Andijon shahri bilan Bobur mirzoga berildi.*

Temuriylar saltanatining boshqa qismlarida ham Farg'onadagi kabi toj-u taxt uchun kurash davom etardi. O'sha davr tarixchisi **Muhammad Solih** yozganidek: «*Hamma bir-biridan qo'rqar edi. O'zlaricha shohlik talab qilib mamlakatda ig'vo urug'ini sochardilar.*»

Temuriylar saltanatida boshlangan toj-u taxt uchun ayovsiz kurash

oqibatida saltanat inqirozga yuz tutdi. Natijada ko'pdan buyon Temuriylar saltanati hududlarini egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni egallab olishi uchun qulay sharoit vujudga keldi.

## 10.2. DASHTI QIPCHOQDAGI SIYOSIY AHVOL. MUHAMMAD SHAYBONIYXON

Dashti Qipchoq haqida, XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida «**Dashti Qipchoq**» deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. *Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan hududga nisbatan ishlatilgan. Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turgan.* Bu hududlar rus manbalarida «**Poloveslar yeri**» nomi bilan yuritilgan. Chunki ruslar Dashti Qipchoq aholisini **poloveslar** deb atashgan. Vizantiya manbalarida esa ular **kumanlar**, sharq manbalarida esa **qipchoqlar** nomlari bilan qayd etilgan.

Sharqiy Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat, XV asrda Jo'jining o'g'li Shaybon naslidan bo'lgan **Abulxayrxon (1412 – 1468)** Sharqiy Dashti Qipchoqni egallab, alohida davlatga asos soladi. Tarixiy manbalarda bu davlat «**O'zbek ulusi**» (O'zbeklar mamlakati) deb ham ataladi. **1431-yili Xorazmni** ham bosib oldi.

**1446-yili** Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan shaharlar – **Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arquq, O'zgan** va **Suzoqni** bosib oladi. O'z davlatining poytaxtini **Turadan Sig'noqqa** ko'chirdi. Samarqand taxti uchun kurash kuchaygan paytda Abulxayrxon vaziyatdan foydalanishga harakat qiladi. U **1451-yili** o'zidan madad so'ragan temuriyzoda Abu Said sultonga Samarqand taxtini egallashda yordam berish bahonasida yurish boshladi. Abulxayrxon katta o'ljalari bilan o'z yurtiga qaytadi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Said sulton Ulug'bekning qizi **Robiya Sultonbegimni** Abulxayrxonga xotinlikka beradi. Abulxayrxon keyin ham bir necha bor Movarounnahr ishlariga aralashdi. Shu orqali u Movarounnahrda borgan sari o'z nufuzining ortishiga erisha olgan. Abulxayrxon tomonidan tuzilgan davlat **40 yil** yashadi. **1468-yili**, Abulxayrxon vafot etishi bilan oq, bu davlat parchalanib ketdi.

Muhammad Shayboniyxon Abulxayrxonning farzandi **Shohbudoq sultonning** o'g'li edi. Shohbudoq sultondan ikki o'g'il qolgan: **Muhammad Shayboniy** va **Mahmud sulton**. Muhammad Shayboniy **1451-yili** tug'ilgan.

Shayboniyning bobosi Abulxayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko'ra tug'ilgan go'dakka ikki ism qo'yish urf bo'lgan. Ismlarning birinchisi islomiy (arab), ikkinchisi esa turkiy bo'lgan. Tug'ilganda Muhammad deb nom olgan Shayboniy o'zining ikkinchi nomi bilan mashhur bo'lgan. «**Boburnoma**»da Shayboniyning ismi **Shoyboqxon** deb berilgan. Bu nom «**kuch-qudrat**» degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon faqat xon bo'lmasdan, ayni paytda, ilm-ma'rifat homiysi va o'zi ham didli ijodkor, shoir bo'lgan. Shu bois Shayboniyxon **Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy** taxalluslarida she'rlar yozgan.

Otasi Shohbudoq sulton va onasi Qo'zibegimdan yoshligida yetim qolgan Muhammad Shayboniy otasining sodiq xizmatkori **Qorachabek** oilasida tarbiyalangan. Qorachabek bu shahzodaga otalarcha mehribonlik ko'rsatgan. Keyinchalik Shayboniyga nufuzli temuriy amirlardan bo'lmish **Muhammad Mazid Tarxon** homiylik qildi. U **Turkiston** va **O'tror** hukmdori edi. Shayboniy ukasi bilan Turkistonda uzoq vaqt yashamadi. Keyinchalik ular Samarqand hukmdori huzuriga bordilar. Aka-uka Buxoroda yashab ilm o'rgandilar, she'riyat va ilm-fanga oshno bo'ldilar. Balog'atga yetgani sari Shayboniy ko'nglida bobosi Abulxayrxon davlatini tiklash orzusi jo'sh ura boshladi. U Dashti Qipchoqqa qaytib borib lashkar to'plashga muvaffaq bo'ladi. Ayni paytda, u bobosi davlatini tiklash yo'lidagi xatti-harakatini dastlab o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan.

Dastlab Shayboniy parchalangan Amir Temur davlatining shimoliy chegarasida noiblik qilayotgan homiysi Mazid Tarxondan uni o'z xizmatiga olishni so'raydi. Avvaliga bu taklifga rozi bo'lgan Mazid Tarxon tezda Shayboniyning xavf solishi mumkinligini anglab yetadi. Natijada u Shayboniyini **Buxoro** hokimi **Darvish Muhammad Tarxon** ixtiyoriga jo'natib yuborish orqali undan qutuladi. Chunki Darvish Muhammad bunday yordam kuchiga muhtoj edi. *Uning xizmatidan ham Mo'g'uliston, ham Movarounnahr, ham Xuroson hukmdorlari o'zlarining qo'shnilariga hamda ichki raqiblariga qarshi kurashda foydalanganlar.* Bu kurashlarda Shayboniy o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qildi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishga imkon berdi.

### 10.3. MOVAROUNNAHRDA SHAYBONIYLAR SULOLASI HOKIMIYATINING O'RNATILISHI

Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishi. Dashti Qipchoq qabilalarining rahnamolari Abulxayrxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro qirg'inlarning yana takrorlanishini aslo istamas edilar. Shu tufayli ular Muhammad Shayboniyxon timsolida bunday qirg'inga yo'l qo'ymaslikka qodir shaxsni ko'rdilar. Bundan tashqari, Dashti Qipchoq qabilalari ko'pdan buyon o'troq hayot tarzida yashashni orzu qilib kelardilar. Bu orzuning ushalishi o'zgalarning unumdor yerlarini bosib olish tufayligina ro'yobga chiqishi mumkin edi. Qabilalar rahnamolari Muhammad Shayboniyxonni o'z orzularini ro'yobga chiqarishga birdan-bir qodir qudrat deb hisoblardilar. Shu bois ham ular va ruhoniylar kuchli yollanma qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaydilar.

Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi ham uning nufuzini yanada oshirdi. Ayni paytda, Movarounnahr aholisi temuriyzodalarning toj-taxt uchun o'zaro kurashlaridan charchagan ham edi. Shu tufayli Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va hatto aholining ma'lum qismi ham Muhammad Shayboniyxon timsolida Movarounnahrda tinchlik o'rnatishga qodir yagona shaxsni ko'rganlar. Shu tufayli Muhammad Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganlar.

Shu tariqa Muhammad Shayboniyxonning Temuriylar davlati hududlarida ham o'z hokimiyatini o'rnatishi uchun barcha zarur shart-sharoit yetilgandi.

Movarounnahming zabt etilishi. Muhammad Shayboniyxonning asosiy maqsadi Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish edi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun u **1499-yili** Movarounnahrni zabt etishga kirishdi. U bu o'rinda temuriylarni sarosimaga solib qo'ygan jang usuli – **to'lg'amani** qo'lladi.

**1500-yili** Muhammad Shayboniyxon **Samarqandni** egalladi. Bu hodisa Samarqand hukmdori Sulton Ali mirzoning onasi **Zuhrobegi og'aning** xoinlar gapi bilan ish tutishi oqibatida sodir bo'ldi. Xoinlar Zuhrobegi og'ani Muhammad Shayboniyxonga maxfiy ravishda *«Men ham o'zbek urug'idanman, agar siz meni nikohingizga olsangiz, o'g'lim bilan sizning hukmingizni tan olib, Samarqandni siz xon hazratlariga topshirurmiz»* mazmunidagi xatni yuborishga ko'ndiradilar.

Ayni paytda, Zuhrobegi og'a Shayboniyxon oldiga **Termiz, Chag'aniyon, Hisor va Badaxshon** zabt etilgach bu hududlarni o'g'li Sulton Ali



mirzoga berilishi shartini ham qo'ygandi. Muhammad Shayboniyxon o'zini bu shartlarga rozidek qilib ko'rsatdi.

Samarqand taxti egallangach esa Sulton Ali mirzo qatl etildi. Onasi Zuhrobegi og'a esa boshqa kishiga nikohlab berildi. Shu tariqa Muhammad Shayboniyxon **1501-yili Samarqandni uzil-kesil egalladi. Katta qo'shinga ega bo'lgan Muhammad Shayboniyxon endi butun Movarounnahrni egallashga kirishdi.**

**1503-yili Toshkent va Shohruxiya** shaharlarini egalladi. Ularga Ulug'bek mirzoning Abulxayrxonga uzatilgan qizi Robiya Sultonbegimning o'g'illari **Ko'chkunchi sulton** va **Suyunchxo'jalarni** hokim etib tayinladi.

**1504-yili esa Farg'ona** egallandi. Shu tariqa butun Movarounnahrda shayboniyilar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. **Samarqand** shahri poytaxt etib belgilandi. **Buxoro** shahrini esa ukasi **Mahmud sultonga** topshirdi.

Xorazm va Xurosonning egallanishi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkam o'rmashib olgach Xorazmni zabt etishga kirishdi. **1505-yili Urganch** shahrini bosib oldi. **1507-yili** esa Xurosonga yurish boshladi. So'nggi yillarda o'zaro ichki urushlar oqibatida inqirozga yuz tutgan temuriylarning Xuroson davlatini egallash qiyin bo'lmadi. Avval Hirot qo'shinlari tor-mor etildi. Shahar beayov talandi. Shundan so'ng **Hirot** o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi.

Xurosonning ham bo'ysundirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz – Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi. Shu tariqa u XV asrning 2-yarmidan boshlab temuriy-zodalar amalga oshira olmagan vazifani bajardi. Shunday qilib, Shayboniyxonning temuriylarga qarshi olib borgan shiddatli va beayov urushlari oqibatida Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan hududda Muhammad Shayboniyxon hukmronligi o'rnatildi va davlatchiligimiz tarixida **shayboniyilar sulolasi** hukmronligi davri boshlandi.

Eron shohi Ismoil Safaviy bilan qonli to'qnashuv. Bu vaqtda Eronda shoh **Ismoil Safaviy** hukmdorlik qilayotgan edi. U o'z davri uchun katta va qudratli qo'shin tuza olgandi. Ismoil Safaviy tuzgan saltanat tarixda **Safaviylar davlati** nomi bilan mashhur. Shoh Ismoil davlati kattagina hududlarni o'z ichiga olardi. Bu davlatning bir sarhadi Xuroson bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli turklar davlati bilan tutashgandi. Shoh Ismoil islomning **shia** oqimiga e'tiqod etuvchi va uni Eronda hukmron e'tiqod shakliga aylantirgan hukmdor edi. Uning ko'rsatmasi bilan har

bir masjidida shialar **12 imomining** nomi xutbaga qo'shib o'qitiladigan bo'lgan.

Shayboniyxon islomdagi **sunniylikka** e'tiqod etuvchi hukmdor sifatida shoh Ismoilning ishini shakkoklik deb baholadi va undan bunday shakkoklikka tezda barham berishni talab qildi. Ayni paytda, u shoh Ismoilidan Makkaga borib tavba-tazarru qilishni, o'z nomini xutbaga qo'shib o'qitishni ham talab etdi. Bu talablarni shoh Ismoil haqorat deb bildi. Endi ikki hukmdor o'rtasida urush bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi.

Nihoyat, **1510-yili** ikki hukmdor qo'shini to'qnashdi. **Marv** yaqinida bo'lgan jangda Muhammad Shayboniyxon yengildi. Eronliklar yaralangan Muhammad Shayboniyxonni qo'lga olib, **1510-yil 12-dekabrda** uni qatl etdilar.

Shu tariqa shoh Ismoil Amudaryoning so'l sohilini bosib olib, butun Xurosonni egalladi. Hirot shahri Safaviylar davlatining ikkinchi markaziga aylantirildi. Shoh Ismoil katta o'g'li **Taxmaspni** markazi Hirot bo'lgan Xurosonning hukmdori etib tayinladi.

*Sunniylik – (arab tilida odat, an'ana, xatti-harakat tarzi degan ma'nolarni anglatadi) bu islomdagi Qur'oni Karim bilan birga Muhammad (s.a.v.) payg'ambarning sunnatlarini (so'zlari, xatti-harakatlari va ko'rsatmalarini) Qur'oni Karimdan keyingi, uni to'ldiruvchi manba ekanligini, shuningdek, dastlabki 4 xalifalarning (Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali) hokimiyati qonuniy ekanligini tan oluvchi oqimdir. Dunyodagi barcha musulmonlarning 90% dan ortig'i shu oqimga mansubdir.*

#### **10.4. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI VA MASHHUR MUTAFAKKIR**

Bobur mirzoning Shayboniyxonga qarshi kurashi. Samarqand aholisi shayxulislom **Abulmakorim** boshchiligidagi temuriylar hukmdorligini tiklash chorasini izladilar. Samarqand rahnamolari Farg'ona hokimi Bobur mirzoga maktub yo'llab Samarqand taxtini egallashga da'vat etdilar. Sulolasi manfaatlariga sadoqatli bo'lgan Bobur mirzo **1500-yilning kuzida** Samarqandga yurish boshladi. Bu paytda Shayboniyxon Samarqanddan tashqarida – **Konigil** (shahardan tashqaridagi hukmdorlar hordiq chiqaradigan joy)da turar edi. Aholi tomonidan Samarqandning darvozasi Bobur mirzoga ochib berildi va uning qo'shini shiddat bilan hujum qilib Shayboniyxonning bu yerda qoldirib ketgan **600 kishilik** askarini qirib tashladi. Shunday qilib, Bobur mirzo Samarqand taxtini **ikkinchi marta** egalladi.

Shayboniyxon Buxoroga chekinadi va bo'lajak hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Bobur mirzo ham qish bo'yi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. **1501-yil aprelida** Zarafshon bo'yidagi **Saripul qishlog'i** yaqinida yuz bergan og'ir urushda Bobur mirzo yengildi. Bobur mirzo Samarqandga chekinadi. G'olib Shayboniyxon Samarqandni qamal qilib, Bobur mirzoga sulh taklif etdi. Sulh shartlari Bobur mirzo uchun juda haqoratli bo'lsa-da, unga rozi bo'lmaslikdan boshqa chorasi yo'q edi.

Og'ir va nochor ahvolga tushib qolgan Bobur sulhga binoan Samarqandni tark etib, ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirib, o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Bobur mirzoning qizi **Gulbadanbegim** o'zining **«Humoyunnoma»** asarida bu haqda quyidagilarni yozgandi: *«To'liq o'n bir yil davomida Movarounnahr o'lkasida chig'atoy, temuriy va o'zbek sultonlari bilan shunday janglar bo'ldiki, ularning sanog'ini batafsil bayon qilishga qalam tili ojiz va nuqsonlidir. Oxiri xayrixohlari va qarindoshlari – jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo'llarida tayoq bo'lgani holda beyarog', xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Kobulga qarab yo'l oldilar».*

Bobur mirzo Kobulga borib, bu yerda **1504-yil sentabr** oyida hokimiyatni qo'lga kiritdi. Bobur mirzo el-yurt obodonchiligi va ravnaqi yo'lida odilona ish yuritib, qudratli davlat boshlig'i sifatida katta obro' qozondi.

1510-yili, Shayboniyxon halok bo'lgach, Bobur mirzo qalbida shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni shayboniylardan qaytarib olish umidi paydo bo'ldi. Ana shu niyatda u shoh Ismoil elchisini Kobulda juda ochiq chehra bilan kutib oldi. Elchilar shoh Ismoil Bobur mirzoga birgalikda Samarqandga qo'shin tortishni taklif qilganligini aytadilar. Bobur mirzo bu taklifni qabul qildi.

Bobur **1511-yil kuzida** shoh Ismoil yordamida Samarqandni **uchinchi marta** qo'lga kiritdi. Bobur Samarqandni egallagach shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qildi. Shoh Ismoil islomning shia oqimiga e'tiqod qilardi. Shuning uchun ham Samarqand xalqi uni qo'llab-quvvatlamadi. Bu orada Bobur Erondan kelgan qo'shinlarga javob berib yuborgan ham edi. Bunday qulay fursatdan foydalangan Shayboniyxon avlodi **Ubaydulla sulton** bilan **Muhammad Temur sulton** boshqa mahalliy sultonlarning yordamiga tayanib Boburga qarshi yurish boshladilar. **1512-yil 28-aprelda Ko'li Malikda** bo'lgan jangda Bobur yengilib, **Hisorga** chekindi. Shayboniyxon avlodlari Samarqandni uzil-kesil egalladilar. Shoh Ismoil Boburga yordam berish maqsadida o'zining nomdor sarkardalaridan **Amir Ahmad** (laqabi *«Najmi Soniy»*, ya'ni *ikkinchi yul-*

*duz*) boshchiligida qo'shin yubordi. Ular birlashib, Amudaryodan o'tib **G'uzor** va **Qarshini** egallaydi. Biroq **1512-yil 24-noyabrda G'ijduvonda** bo'lgan jangda Ubaydulla sulton g'olib chiqadi. Bu jangda Najmi Soniy o'ldirildi. Eron qo'shinining ozgina qismi qochib ulgurdi.

Bobur endi Movarounnahrdan tamoman umidini uzib, yana Kobulga qaytdi va **1526-yilga** qadar Kobulni idora qildi. So'ngra Kobulni ikkinchi o'g'li **Komron mirzoga** qoldirib, o'zi Hindiston sari yurish boshladi. Hindistonda qudratli va shavkatli saltanat egasi bo'lganidayam Vatan xayoli, ayriliq alami Bobur mirzoni aslo tark etmagan.

***Boburiylar saltanati.*** Bobur **1526-yilning 21-aprelida** Dehli hukmdori **Ibrohim Lo'diy** qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alaba natijasida Bobur Shimoliy Hindistonni egalladi. **1526-yilning 27-aprelida Dehli** shahrida Bobur shoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa Hindistonda – **boburiylar sulolasiga** asos solindi.

Bobur shoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan mayda mustaqil rojalarni ham qilich, ham siyosat yo'li bilan birlashtirdi va markazlashgan yirik saltanatni barpo etdi. Bu saltanat **332 yil (1526 – 1858-yillar)**, ya'ni Hindistonni Buyuk Britaniya to'liq bosib olguniga qadar hukm surdi.

Chet ellarda, shu jumladan, Hindistonning o'zida ham Bobur shohni va uning avlodlarini **«Buyuk mo'g'ullar»** deb atashgan. Bu mutlaqo xato. Boburiylar yurtdoshimiz, temuriyzoda Boburning avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o'zlarini **«Boburiy mirzolar»** deb yuritishgan. Boburiylarning mo'g'ullar deb xato atalishiga yevropaliklarning Amir Temurni va temuriylarni mo'g'ullardan tarqalgan deb noto'g'ri hisoblashlari sabab bo'lgan.

So'nggi yillarda *«buyuk mo'g'ullar»* deb atalgan ibora o'rnida *«boburiylar»* iborasi qo'llanilishi bilan tarixiy haqiqat tiklandi.

Bobur shoh **1530-yil 26-dekabrda 47 yoshida** vafot etdi. Uni **Agra** shahrida, Jamna daryosi yonidagi **«Bog'i Orom»**ga dafn etadilar. Uning vasiyatiga ko'ra, bir necha yildan so'ng Bobur shoh jasadi Kobuldagi **«Bog'i Kalon»**ga ko'chiriladi. Bu bog'ni Bobur shohning o'zi katta mehr bilan obod qilgandi. Keyinchalik bu bog' **«Bog'i Bobur»** deb atala boshlangan.

Bobur shoh bilimga chanqoq buyuk davlat arbobi bo'lganligi uchun ham bilim olishga intilganlarga hamisha otalarcha g'amxo'rlik qilgan. Uning o'zi ham ajoyib olim, turkiy nazmda asarlar bitgan Alisher Navoiydan keyin turadigan tengi yo'q shoir, yirik bastakor edi. Bobur shoh o'zining **«Boburnoma»** hamda **«Mubayyin»**, **«Turkiy devon»** kabi asarlari bi-

lan mashhur ijodkor hamdir. «Boburnoma» asari O'rta Osiyo va Hindiston tarixini to'g'ri aks ettirgan asardir.

Bobur – mashhur mutafakkir. Bobur shoh yashagan o'sha ziddiyatli, beomon, besaranjom zamonda davlatni boshqarish uchun jasur sarkarda bo'lish juda muhim edi. Tabiat Bobur shohga ana shunday xislatni in'om etgandi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini oladi. Bu nom unga bejiz berilmagandi. U ajoyib suvoriy, suzuvchi, qilichboz, kamonboz edi. Uning vujudida sarkardalarga xos dovyuraklik, serg'ayratlik, epchillik mujassam edi. Epchillikda unga teng keladigan odam kamdan kam topilgan. Manbalarda qayd etilishicha, u jismoniy jihatdan ham shunday baquvvat bo'lganki, ikki qo'ltig'iga ikki odamni olib qal'a devori ustida mashq qilgan. Bundan tashqari, Bobur o'limga tik qarash, o'ziga va o'z taqdiriga ishonish kabi fazilatlarga ega bo'lgan. Bu fazilatlar esa Boburga kishilarni doimo o'z orqasidan ergashtirish imkonini bergan.

Bobur kimlar bilan janglarda to'qnash kelgan bo'lsa, ularning tajribalarini o'rgangan. Chunonchi, *shayboniylardan urushning «to'lg'ama» usulini, mo'g'ullardan pistirma qo'yish, afg'onlardan poroxli miltiq ishlatishni o'rgangan.* Bundan tashqari, Bobur kuchli to'pchilar qo'shinini tuza olgan. Boburning mohir sarkardaligini hatto chet el olimlari ham tan olganlar.

«Boburnoma». Bobur shoh nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda, yirik tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar «Boburnoma»dir. Bu asar Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493 – 1529-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida yilma-yil hikoya qiladi.

Asarda ba'zi temuriyozda hukmdorlarning birgalashib umumiy dushmanga qarshi kurashish o'rniga o'z dushmanlari bilan o'z manfaatlari yo'lida (Vatan manfaatlari yo'lida emas) kelishishga intilishlari tanqid qilinadi.

Bobur o'z kitobida Hindiston haqida, jumladan, quyidagilarni yozib qoldirgan: «Hindiston... bizning viloyatlardan o'zgacha olamdir. Tog' va daryosi, jangal va sahrosi, hayvonot va nabototi, eli va tili, yomg'iri va yeli – barchasi o'zgachadir...

*Hindistonning aksari viloyati tuz yerdan bo'libdur... Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur...»*

Boburning adabiy-badiiy faoliyatida nozik lirik she'rlar katta o'rin tutadi. Ularda insoniylik, mehr-muruvvat g'oyalari ilgari suriladi. Uning «Mu-

**bayyin»** asarida o'sha zamon soliq tizimi, soliq yig'ishning qonun-qoidalari bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan **1993-yili Bobur tavalludining 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi.**

Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy qabr maqbarasi qurildi. «**Bobur milliy bog'i**» va shu bog' qoshida «**Bobur va jahon adabiyoti**» nomli muzey tashkil etildi.

## 10.5. BUXORO XONLIGI

Xonlikning tashkil topishi. Shayboniyxon halok bo'lgach, uning o'rni-ga amakisi **Ko'chkinchixon** taxtga o'tirdi. Ko'chkinchixonidan so'ng taxtga o'g'li **Abu Said (1530 – 1533)** o'tirdi. Undan keyin esa hukm-dorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud sultonning o'g'li **Ubaydulla-xon (1533 – 1540)** qo'lga o'tdi. Ubaydullaxon poytaxtni **Samarqand-dan Buxoroga** ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga otameros mulk deb qarardi, chunki Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi Mahmud sulton Ubaydullaxonning otasiga bergandi. Shu tariqa shay-boniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati endilikda rasmiy ravishda **Buxoro xonligi** deb ataladigan bo'ldi.

Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari katta. Avvalo, u Ismoil Safaviy va qizilboshlarning hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahr-ni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi. Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi har tomonla-ma o'sdi.

Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. U Hirotni ishg'ol etgan, qizil-boshlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgandi. Ayni paytda, u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi.

Ubaydullaxon vafot etgach, ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun qattiq kurashlar boshlandi. Shayboniyxon avlodlari-ning har birida **10 – 12 nafardan** o'g'il bo'lib, ularning har biri toj-taxtga da'vogar edilar. Ularning har biri o'z ota merosi bo'lgan hududlarda o'z qo'shiniga bosh bo'lib, mustaqillikka intilar, o'zini oliy hukmdor deb his etar hamda, imkoni bo'lsa, xonlik taxtini egallash ishtiyoqida edilar.

Ubaydullaxonidan so'ng shayboniylar sulolasi vakillari o'rtasida o'za-ro nizolar avjiga chiqdi. Buning oqibatida **Abdullaxon I** ning qisqa hukm ronligi (**1540 – 1541**)dan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Ya'ni bir davlatda ikki hukmdor paydo bo'ldi. *Biri – Ubaydullaxon-*

ning o'g'li Abdulazizxon Buxoroda, ikkinchisi – Ko'chkinchixonning o'g'li Abdulatifxon Samarqandda hukmdorlik qila boshladilar. Mamlakat bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib ketdi. Biroq qachondir, kimdir bu holatga chek qo'yishi kerak edi.

Buxoro Abdullaxon II hukmronligi davrida. Mamlakatdagi parokandalikka chek qo'yish uchun markaziy hokimiyatni yana tiklash va kuchaytirish zarur edi. Bu zaruriyatni qonli urushlarsiz amalga oshirib bo'lmadi. Ana shunday sharoitda kurash maydoniga **Miyonqol** hukmdori Shayboniy **Iskandar sultonning o'g'li Abdullaxon II (1534 – 1598)** chiqdi.

Iskandarxon xonadoniga Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi, g'oyatda katta nufuzga ega bo'lgan shayx **Muhammad Islom (1493 – 1563)**ning ixlosi baland bo'lganligi Abdullaxonga bu kurashda juda katta madad bo'ldi. Muhammad Islom va uning avlodlari o'zlarining kelib chiqishini ota tomondan Muhammad payg'ambar avlodlariga, ona tomondan esa Chingizxon va Jo'jiga ular edilar. Aslzodalik va tasavvuf tariqatidagi mavqeyiga ko'ra Jo'ybor shayxlari **somoniylar** davridan boshlaboq davlat ishlarida muhim mansablarni egallab kelar edilar. *XVI asrning 2-yarmida Shayx Muhammad Islom, keyinchalik uning o'g'li Shayx Abubakr Sa'd Buxoroda shayxulislom lavozimini egallagan edilar.*

**1556-yili** Muhammad Islomning ko'magida Abdullaxon amalda Buxoro taxtini egallaydi. Muhammad Islom Oллоh nomidan Abdullaxonning faoliyatiga oq fотиha bergandi. Abdullaxon II avval amakisi, Balx va Badaxshon hukmdori **Pirmuhammadni (1557 – 1561)**, keyin otasi **Iskandarxonni (1561 – 1583)** xon deb e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda mamlakat hukmdori uning o'zi edi.

Abdullaxonning butun hukmronlik davri tinimsiz urushlarda kechdi. Chunonchi, *1574-yili Balxni, 1578-yili Samarqandni, 1583-yili Toshkent va Farg'onani, 1584-yili Badaxshonni, 1595-yili Xorazmni zabt etdi va o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi.* Shundan keyin uning davlati sarhadlari janubda *Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha* yetdi. Butun Movarounnahr, Xorazm va Xuroson yana yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi. **XVI asr oxirlariga** kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi.

Shunday qilib, XVI asrdagi davlatchiligimiz tarixida yetakchi sulola shayboniylar sulolasi bo'ldi. Bu sulola o'zbek davlatchiligi rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shdi. Sulolaning eng qudratli vakili Abdullaxon II davrida esa o'zbek davlatchiligi o'z tarixida yana bir bor yuksak darajaga ko'tarila oldi.

Shayboniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish yo'lida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga ham shafqat qilmadi. Abdullaxon II garchand davlatni markazlashtira olgan bo'lsa-da, davlatdagi ichki nizolarga to'la barham bera bilmadi. Shunday qilib, Abdullaxon II vafotidan atigi **3 yil** o'tgach bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

Shayboniy Abdullaxon II **1598-yil fevral** oyida vafot etgach, taxtga uning o'g'li **Abdulmo'min** o'tqazildi. Biroq o'sha yili – **1598-yil iyul** oyida Abdulmo'min fitnachilar tomonidan **O'ratepa** va **Zomin** oralig'ida o'ldirildi. Undan qolgan **ikki yashar** o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Taxt uchun kurash boshlandi.

Buxoroning bir guruh amirlari **Ibodulla sultonning** o'g'li **Abdulaminni** xon qilib ko'tardilar. Boshqa guruh amirlar esa Balx hokimi **Abdullaxon II ning jiyani, Sulaymon sultonning o'g'li Pirmuhammadni** shayboniylarning oliy xoqoni deb e'lon qiladilar va Balxdan chaqirib olib, taxtga o'tqazadilar.

Ichki nizolar tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori **Shoh Abbas** bostirib kirib, **Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni** egallaydi. **Xorazm** esa xonlik tasarrufidan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi. Ayni paytda qozoq xoni **Tavakkal Movarounnahr**ga qo'shin tortib, **Axsi, Andijon, Toshkent, Samarqandni** egallab, **Buxoro** tomon yurdi. Xurosondan Buxoroga yetib kelgan Pirmuhammadxon Buxoro himoyasiga kirishdi. Xonlikning ko'pgina amirlari o'z qo'shinlari bilan Pirmuhammadxonga qo'shildi. Tavakkal Buxoroni **2 oy** davomida qamal qilsa-da, uni ololmay Samarqand tomon chekindi. Pirmuhammadxon qo'shinlari uni ta'qib etib, **1599-yil avgust oyi oxirlarida** Miyonqolning **Uchqora** mavzeyiga yetib oldilar va shu yerda bo'lgan jangda Tavakkal qo'shinlari tor-mor keltirildi. Movarounnahr hududi ozod etildi, qozoq lashkarlari Dashti Qipchoqqa chekindi. Pirmuhammadxon Samarqand hokimi etib **Boqi Muhammadni**, Toshkent hokimi etib **Jahongir sultonni** tayinlaydi.

Pirmuhammad Buxoro xonligini yana **ikki yilcha** idora qildi. Tez orada **jaloyir, do'rmon** qabila boshliqlarining ig'vosi bilan Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasidagi munosabattar buzildi. Oxir-oqibatda Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasida **1601-yili** Samarqand yaqinidagi **Bog'i Shamol** mavzeyida jang bo'ladi. Jangda Pirmuhammadxon yengiladi va **80 yosh**da qatl etiladi.



## 10.6. O'ZBEK XALQINING ETNIK TARKIBIDA SODIR BO'LGAN O'ZGARISHLAR

O'zbek xalqi tarkibidagi etnik o'zgarishlar. Shayboniylar Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni egallagach, Dashti Qipchoqda yashovchi, o'zlariga **o'zbeklar** degan nomni qabul qilgan turkiy urug'-qabilalar yurtimizga kirib keldilar. Dashti Qipchoqda turkiy qavmlarga mansub urug'-qabilalar asrlardan buyon yashab kelganlar. Hozirgi o'zbeklar va qoraqalpoqlar hozir yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda ham yashaganlar. Lekin ular o'sha davrda o'zbeklar yoki qoraqalpoqlar deb atalmaganlar. Dashti Qipchoqni **XIII asr boshida** zabt etgan mo'g'ullar Dashti Qipchoqning turk qabilalari orasida singib ketganlar. Hatto o'z milliyatini ham yo'qotganlar.

Binobarin, **XVI asr boshlarida** Vatanimiz sarhadlarida ro'y bergan etnik o'zgarishlar ajnabiy xalqlar-u elatlar bosqini tufayli yuz bermadi. Shuningdek, bu jarayonlar majburiy, zo'rlik asosida ham kechmadi. Aksincha, bu o'zgarishlar bir-birlari bilan qon-qardoshlik rishtalari ila bog'langan, azaldan turli aloqalarda bo'lib kelgan turkiy xalqlarning asta-sekin o'zaro qo'shilishi, birikishi davomida yuz berdi. To'g'ri, Dashti Qipchoqda yashovchi o'zbek urug'-qabilalari bilan Movarounnahr va Xuroson xalqi o'rtasida hamma vaqt ham doimiy aloqalar, bordi-keldilar bo'lmagan. Ularni katta masofadagi bo'sh, sahroli hududlar ajratib turgan. Shu bois ularning turmush tarzi, mashg'ulot turlari, kasb-korlari, urf-odatlari, udumlari boshqacha ko'rinishda bo'lganligi tabiiydir. Boz ustiga, Dashti Qipchoq aholisining aksariyat qismi keng yaylovlarda chorvachilik, yilqichilik bilan mashg'ul bo'lgan. Buning aksicha, Movarounnahr aholisi uzoq asrlar davomida o'troq hayotga o'rganib, ona zamin hududida muqim yashab kelgan.

Tarixiy manbalarda keltirilgan **92 o'zbek urug'lari** nafaqat O'zbekiston hududida, balki butun O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Bu 92 o'zbek urug'lariga O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan tub yerli aholi, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning 2-yarmida, milodimizning birinchi ming yilligi davomida, mo'g'ullar istilosi davrida hamda shayboniylar davrida kirib kelgan etnik guruhlar ham kiradi. Shuningdek, O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan **chlg'il, yag'mo, usun, tuxsi, xalach, qipchoq** va **turkmanlar** kabi etnik guruhlar ham garchi **X – XII asrlardan** va undan keyingi davrlarda bu yerda o'mashganliklariga qaramasdan, 92 o'zbek elati tarkibiga kirganlar.

«O'zbek» atamasi haqida. «O'zbek» atamasi haqida hozircha «O'zbekiston tarixi» fanida yakdil xulosa yo'q. Ayrim mualliflar Dashti

Qipchoqda ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalarining bir qismi o'zlarini erkin tutganliklari sababli «o'zbek», ya'ni «o'z-o'ziga bek, xo'jayin» deb atagan desalar, boshqalar «o'zbek» etnonimini Oltin O'rda xoni **O'zbekxon (XIV asr)** nomi bilan bog'laydilar. Boshqa yana bir guruh olimlar esa **Oq O'rda** (Dashti Qipchoqning sharqiy qismi)da yashagan turk-mo'g'ul qabilalariga «o'zbeklar» degan nom berilgan degan fikrni bildiradilar. «O'zbek» atamasi o'g'iz qabilalari tarkibidagi «o'z» urug'i nomidan olingan degan fikrlar ham mavjud.

Hozircha anig'i shuki, Shayboniyxon boshchiligida Dashti Qipchoqdagi o'zlariga «o'zbek» degan nomni qabul qilgan qabilalar ikki daryo oralig'idagi yerlarga ko'chib kelgach, o'zbek xalqi xalq sifatida shakllandi deyish tarixiy haqiqatga mutlaqo ziddir. Shayboniyxon Movarounnahmi egallagach, Movarounnahming qadimiy xalqi ham «o'zbek» atamasini qabul qildilar. «O'zbek» atamasi aholining umumiy nomiga aylandi, xolos.

Temuriylar saltanati o'rnida dastlab XVI asr boshlarida Buxoro va Xiva xonliklarining, XVIII asr boshlarida esa Qo'qon xonligining vujudga kelishi natijasida yagona tarixiy zaminda yashagan xalqlar uch davlat tasarrufiga tushib qoldilar. Biroq bu holat o'zbek xalqi birligiga jiddiy putur yetkaza olmagan. Bu davlatlar tarkibidagi aholi o'zaro doimiy etnik, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy aloqada bo'lganlar.

## 10.7. XVI ASRDA BUXORO XONLIGIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

*Shayboniylar o'tkazgan islohotlar.* Shayboniyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islohotlar o'tkazdi. Birinchidan, u davlat boshqaruvida **suyurg'ol** tizimini joriy etdi. Ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindosh-urug'lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga topshirdi. Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o'tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan. Lekin suyurg'ol mulklar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilar edilar.

Ikkinchidan, mamlakatda **yer-suv** qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida **ijtimoiy hayotni** tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazildi. Keyingi **10 yil** ichida soliqlar

og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, **1507-yili pul islohoti** o'tkazildi. Bunga ko'ra, mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil – **5,2 gramm** bo'lgan yangi **kumush tangalar** hamda **mis chaqa pullar** zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda, islohot dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu va boshqa tadbirlar, o'z mohiyatiga ko'ra, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilishi zarur edi.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toj-u taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol, o'z navbatida, pulning qadrsizlanishiga olib kelgan. Natijada oliy hukmdor **Ko'chkinchixon 1515-yili** navbatdagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. **1527-yilga** kelgandagina ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan. Shayboniy **Abdullaxon II** o'tkazgan pul islohoti Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo'lgan. U **oltin pul** zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol, o'z navbatida, hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi, savdo-sotiq yanada jonlandi.

*Iqtisodiy hayot.* Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Bu sulola vakillari **Sangzor, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh** va **Murg'ob** daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralarini ko'rganlar. Chunonchi, **1502-yili** Shayboniyxon Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayriladigan joyida suv ayirg'ichi – ko'priq qurdirgan.

Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun **10 dan ortiq** kanallar qazitganlar.

Sun'iy sug'orish ishlari, ayniqsa, Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, **1556 – 1585-yillar** oralig'ida Zarafshon daryosida **Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor** suv ayirg'ichlari; Murg'ob vohasida **Sangzor, Hovuzixon** suv omborlari qurilgan. Bundan tashqa-

ri, Sangzor daryosidan Jizzax vohasiga **Tuyator** kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan **Xoja Ka'ab** kanali, **Afshona** kanali, Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan **Marv**ga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.

Bundan tashqari, **Abdullaxon II** karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. **1577-yili** Buxoroda yirik usti berk savdo rastasi – **Abdullaxon timi** qurildi. Nurota tumanidagi **Oqchob** yaqinida **Beklarsoy** darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rnida ulkan band qurirdi. **Abdullaxon** bandi uning ravoqlarini to'g'on tepasida turib ochishi yoki bekitishi mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi bo'z yerlarni sug'orib dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi.

*Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi.* Shayboniylar hukmronligi yillarida oliy davlat idorasi **dargoh** deb atalgan. Uning tepasida **xon** turgan. Shayboniylar davlatida **devonbegi** (bosh vazir) lavozimi katta nufuzga ega bo'lgan. U davlatda moliya va xo'jalik ishlarini boshqargan. Xonlikda muhim davlat mansabi **naqib** hisoblangan. U xonning eng yaqin va ishonchli kishisi bo'lgan. Xonning farmon va yoriqlarida naqibning nomi birinchi bo'lib yozilgan. Ayni paytda, u davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan. Bundan tashqari, naqib harbiy yurishlarni uyushtirgan. Zarur bo'lganda elchilik vazifasini ham bajargan.

Yana bir katta davlat mansabi **otaliq** edi. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri otaliq mansabiga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan. Xon viloyatlarni shahzodalarga taqsimlab berar ekan, ularga rahnamo etib o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Bunday nazoratchi, ishonchli shaxs otaliq deb atalgan. Balog'atga yetmagan shahzodalar ulg'ayib, mustaqil faoliyat yuritgunlariga qadar, davlat ishlarini ularning nomidan otaliqlar boshqargan.

Yana bir davlat mansabi **parvonachi** deb atalgan. Uning vazifasi xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

**Dodxoh** mansabida ishlagan amaldor dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan. Shuningdek, mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini nazorat qilgan.

Muhim davlat mansablaridan yana biri **ko'kaldosh** edi. Bu mansabga xon sulolasiga eng yaqin shaxslardangina tayinlangan. Ko'kaldosh xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning daxtsizligini ta'minlagan.

Xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan **xon yasovuli** mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan. Shayboniylar davlatida **eshikog'aboshi** lavozimi ham bo'lgan. U dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan-ketganlardan xabardor bo'lib turish masalalari bilan shug'ullangan.

Yuqori davlat lavozimlari ichida katta mavqega ega bo'lgan lavozimlardan yana biri **shayxulislom** hisoblangan. Shayxulislom shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan. **Qozikalon** lavozimida ishlagan amaldor sud ishlariga yetakchilik qilgan. Yana bir muhim davlat lavozimi **muhtasib** (rais) deb atalgan. Bu lavozimni egalagan amaldor mamlakat fuqarolarining axloq qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Davlatda, shuningdek, **miroxur** (xonga tegishli yilqi, ot-ulov va ularning ta'minoti bilan shug'ullanuvchi), **shig'ovul** (chet davlatlar elchilarini qabul qilish xizmatining boshlig'i), **qushchi** (xonning ovini tashkil etuvchi), **bakovulboshi**, **dasturxonchi**, **qo'rchiboshi** (qurol-aslaha xizmati boshlig'i), **jarchi**, **tavochi**, **tug'begi**, **kitobdor**, **mirzaboshi**, **munshiy**, **muhrdor**, **xazinachi**, **mehtar** kabi mansablar ham mavjud bo'lgan.

Ichki ziddiyatlar. Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda to'la namoyon bo'lgan.

Shayboniylar davrida yer egaligining **iqto**, **suyurg'ol**, **tanho** va **jogir** turlari bo'lgan. Sayboniyxon davrida davlatni kichik-kichik mulklarga (suyurg'olga) bo'lib idora qilinardi. Bu hol hokimiyatdan ajralib chiqishga sharoit yaratardi. Shayboniyxon bu xatoni tuzatishga urinib bo'ysunishni istamagan mahalliy hukmdorlar mustaqilligini tugatishga, ayrim hukmdorlarni almashtirishga harakat qildi. Bu esa mahalliy hukmdor va zamindorlarning keskin noroziliklariga sabab bo'ldi. Shayboniylar davrida mehnatkashlarning iqtisodiy ahvoli nochor edi. Ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi. Aholidan **20 turdan ortiq** soliq va to'lovlar olinardi. Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan **xiroj** bo'lib, daromadning **30 – 40 foizini** tashkil qilardi. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq **ixrojot** deb atalardi. Davlat pulga muhtoj bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

## 10.8. BUXORO XONLIGINING TASHQI SIYOSATI

Buxoro va Boburiylar davlati munosabatlari. Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan shayboniylar (XVI asr) safaviylarga qarshi kurashda

boburiylar bilan birga harakat qilishga intilganlar. Shu sababdan **1572-yili** Abdullaxon II **Akbarshoh** huzuriga o'zining elchilarini yubordi. Buxorolik elchilar o'z hukmdorining sovg'a-salomlari va maktubini olib borganlar. Bir qancha vaqtdan so'ng yana javob sovg'a-salomlari va maktubini olib o'z vatanlariga qaytganlar. Abdullaxon o'z maktubida ikki davlat o'rtasida do'stlik munosabatlarini mustahkamlash istagini bayon qilgandi. Bundan ko'zlangan maqsad boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujum xavfiga qarshi ittifoq tuzish edi. **1577-yili** Abdullaxon II Hindistonga **ikkinchi marta** elchi yuborgan. Bu elchi almashishdan siyosiy maqsad ko'zlangandi. Abdullaxon II to'g'ridan to'g'ri Eronni o'zaro taqsimlab olishni taklif qildi. Lekin Akbarshoh bunga rozi bo'lmadi. Chunki bu davrda Hindistonning shimolidagi mustaqil knyazliklar – **Sing** va **Kashmirni** bosib olish uchun tayyorgarlik ko'rayotgandi. Akbarshoh Sing va Kashmirni bosib olib, Shayboniylar davlatining janubiy chegaralariga yaqinlashdi. Shunday sharoitda **1584-yili Badaxshon** Abdullaxon tomonidan egallandi.

Abdullaxon II endi Akbarshoh huzuriga **1585-yili uchinchi marta** elchi yubordi. Elchi Buxoro xoni yuborgan maktubni Akbarshohga topshirdi. Maktubda Abdullaxon Badaxshonning fath etilish sabablarini tushuntirishga harakat qilgandi. Abdullaxonning fikricha, musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinaga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'tardi. Bu shaharni g'ayridinlardan tozalash maqsadida u Badaxshonni egallaganini bildiradi.

**1586-yil 23-avgustda** Akbarshoh Abdullaxonning elchilariga qo'shib o'zining elchisini Buxoroga yuboradi. Akbarshoh o'z maktubida Abdullaxonga Turkiya Eronning bir qismini bosib olganligidan tashvishlanayotganligini, Buxoro va Hindiston birgalikda Eronga yordam ko'rsatishi zarurligini ma'lum qilgandi. Akbarshohning asl maqsadi Balx va Badaxshonni, imkoni bo'lsa, Xurosonni ham o'ziga bo'ysundirish edi. Shu tufayli Abdullaxon II bunday ittifoqqa rozi bo'lmaydi. Bu paytda Eron hukmdori shoh **Abbos I** Eronni birlashtirishga, mustahkamlab olishga erishgandi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi isyon ko'tarildi. Buxoroda isyonda Akbarshohning qo'li bor degan gumon paydo bo'ladi. Badaxshon hukmdori Abdullaxon II ning o'g'li **Abdulmo'min** Akbarshohga maktub yo'llab, undan boshpana berilgan badaxshonlik isyonchilarni Buxoroga qaytarib yuborishini, qizini o'ziga nikohlab berishni, hatto Hindistonning bir qismini tortiq qilishini talab qildi. Natijada ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushadi. Keyinchalik Abdullaxon II Akbarshoh

huzuriga navbatdagi elchisini yuborib, o'g'lining xatti-harakati uchun undan uzr so'ragan.

Buxoro – Usmonli turk davlati munosabatlari. Manbalarda ta'kidlanishi-cha, Muhammad Shayboniyxon bilan Usmonli turk sultoni **Boyazid II** o'rtasida Eron safaviylariga qarshi kurash to'g'risida shartnoma tuzilgan. Usmonli turk davlati bilan aloqalar Shayboniyxondan keyin ham davom etdi.

**1515-yili** turk sultoni **Sulton Salim** huzuriga shayboniylar elchisi bordi. Sulton Salimning elchisi **Muhammadbek** esa o'sha yili Buxoro xonligiga sultonning maktubini olib keladi. Sulton o'z maktubida Ubaydullaxonni «qizilboshlar»ga qarshi kurashga chaqiradi.

Usmoniylar va shayboniylarning safaviylarga qarshi kurashida din bir niqob edi, xolos. Aslida, bu **G'arbiy Eron, Kavkaz va Xuroson** uchun olib borilayotgan siyosiy kurashning natijasi edi. Shayboniyo-dalarning Movarounnahr taxti uchun kurashida usmoniylar **Navro'z Ahmadxonga** yordam uchun harbiy kuch ham jo'natgan. Navro'z Ahmadxonning Toshkentdagi qarorgohida **300 nafar** turk askari doimiy xizmatda bo'lgan, qurol-aslaha bilan ham ta'minlab turgan. Turk askarlari Navro'z Ahmadxon tarafidan turib **Nasaf** yonida Abdullaxon II ga qarshi janglarda qatnashganlar.

Buxoro va Eron munosabatlari. Buxoro va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy nuqta **Xuroson** edi. Buning sababi Xurosonning ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga egaligida edi.

Bundan tashqari, Xuroson Buxoro xonligi, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tardi. Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronligi davrida shayboniylar ustunlik qildilar. Chunonchi, Abdullaxon II Xurosonning **Marv, Nishopur va Mashhad** kabi yirik shaharlarini egallagan.

Buxoro – Rossiya munosabatlari. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari **XVI asrning 2-yarmidan** rivojlana bordi. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi edi. Chunki podsho **Ivan Grozniy (1547 – 1584)** davrida Rossiyaning mavqeyi kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida **Qozon xonligi (1552), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'ylari va G'arbiy Sibir** hududlari Rossiya tomonidan bosib olingandi. Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan qozon tatarlari hamda boshqirdlar bilan din va til yaqinligi bilan izohlanardi. Shuning uchun ham Abdullaxon II tomonidan **1557 – 1558-yillarda** Moskvaga elchilar yuborilgan. Elchilar **Astraxan** orqali Moskvaga borib Ivan Grozniy huzurida bo'ladilar. Ular o'z xonlari nomidan savdogarlarning Volga bo'ylab erkin o'tishlariga ijozat so'raydilar. Qaytib kelgan elchilar Moskvadan juda ko'p o'q-dori, ov qushlari va matolar bilan qaytganlar.

Ayni paytda, Rossiya ham Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik, avvalo, Buxoroning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan, Rossiya Buxoro xonligi orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda, birinchi navbatda, Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingandi. **1555-yili** Moskvada tashkil etilgan «**Moskva savdo kompaniyasi**» vakili **Antoniy Jenkinson** boshliq elchilar rus podshosining guvohnomasi bilan **1558-yili** Buxoroga yuboriladi. Elchi Antoniy Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon II tomonidan qabul qilindi. Elchi xonlikning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini «**Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat**» nomli esdaliklarida bayon etadi. Antoniy Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va Buxoro xonligi o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

## 10.9. XVI ASRDA BUXORO XONLIGIDA MADANIY HAYOT

*Ta'lim sohasidagi islohotlar.* Shayboniylar ta'lim sohasida ham islohot o'tkazdilar. *Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi.* Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmiy, diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Har bir mahallada maktab ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolaga **6 yoshdan** ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda **ikki yil** o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. XVI asrda Samarqandda Shayboniixon madrasasi, Buxoroda Abdullaxon, Toshkentda Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari va boshqa ta'lim muassasalari quriladi va faoliyat yuritadi. Madrasada **uch bosqichli** ta'lim joriy etilgan bo'lib, uning har bir bosqichida **7 yildan**



o'qilardi. Shunday qilib, o'qish 21 yil davom etardi. O'quvchilar *ilohiyot ilmidan, hisob-kitobdan, handasa, fiqh, mantiq, musiqa, she'r san'atidan* ilm olardilar. Albatta, ta'lim olishga hammaning ham imkoni bo'lmasdi.

Savodxonlikning Movarounnahrda XVI asrdagi ana shunday rivojlanishi o'zbek tili rivojlanib, keng tarqalishiga, adabiy aloqalar rivoj topishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsata oldi.

*Ilm-fan.* Shayboniyilar davrida fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon va Ubaydulaxonlar o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar.

Shuningdek, Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxonlar kutubxonalarida o'z zamonasining ajoyib kitob xazinalari bo'lgan. Bundan tashqari, Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'analari davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Masalan, Samarqand va Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan mavlono **Kamoliddin Ibrohim**, Abdullaxonning muallimi **Xoja Muhammad**, yulduzshunos **Qiyomiddin Shaydo**, *iftixor ul-atibbo* (tabiblar iftixori) unvonini olishga sazovor bo'lgan **Muhammad Mazid**, **Hakim Shahrisabziy**, jarroh mavlono **Baqo**, mavlono **Rafe**, **1541-yili** ilmi tibb va dori-darmonlar haqida asar yozgan **Muhammad Husayn ibn Shiroq Samarqandiy**, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan **Shohali ibn Sulaymon**, **Xoja Hakim (vafoti 1585)**, *natijat-ul-atibbo* unvonini olgan **Abdulkhim ibn Sulton Mahmud** kabilar shular jumlasidandir. **Xoja Hasan Nisoriy** «*Muzakkiri ahhob*» asarida matematika va astronomiya ilmida shuhrat topgan mavlono **Kavkabiyni** alohida qayd etadi.

Matematika va astronomiya sohasida yozilgan kitoblardan **Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiyning** «*Hisobi amali shabaka*» (Shabaka jadvali amali hisobi; 1550), **Bobokalon muftiy Samarqandiyning** «*Risola dar ilmi hisob*», «*Vaziyat bar sahor qism*», **Tursun Zominiyning** «*Tuhfayi amir*», **Muhammad Husayn munajjim Buxoriyning** «*Ma'rifat samti qibla*» (Qibla tomonni topish ma'rifati), **Mahmud ibn Ahmad Foriziyning** «*Risola dar muaddili qamar*» (Oy fazalarining tengligi haqida risola; 1517), **Tojis-Saidiyning** «*Hoshiy li shahri ashkofi ta'sis*» (Asoslash shakllari sharhiga izohlar; 1568), **Said Muhammad Tohir ibn Abulqosimning** «*Ajoyib ut-tabaqot*» (1545 – 1550) asarlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Tibbiyot sohasida **Sultonali Samarqandiy 1526-yili** «*Dastur al-iloj*», «*Muqaddimoti dastur al-iloj*» (Davolash bo'yicha dastur) asarlarini yozgan.

**Ubaydulloh Qahhol ibn Muhammad Yusuf** ham o'z davrining yetuk tabibi, tib olimi, Baroqxonning o'rtancha o'g'li Toshkand hokimi **Darvishxonning** buyrug'iga binoan **1598-yili** «*Shifo ul-ila*» (Kasalliklar shifosi) asarini yozadi. Asar **500** varaqdan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tib ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan. Bir necha bitik nusxasi bizgacha yetib kelgan. Uning yana «*Umdat ul-kuhiya fil-amrodul-basariya*» (Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob) asari ham bo'lgan.

Shayboniylar davrida tarix fani ham rivojlandi, ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. **Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodiy, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbehon Isfahoniylar Shayboniyxon** topshirig'i bilan har qaysisi Shayboniyxonga atab alohida tarixiy asarlar yozganlar. Bundan tashqari, **Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiyning** «*Zubdat ul-ozor*», **Hofiz Tanish Buxoriyning** «*Abdullanoma*» («Sharafnomayi shohiy»), noma'lum muallifning «*Tavorixi guzidayi nusratnoma*» asarlari shayboniylar davri ijtimoiy, siyosiy tarixiga doirdir. **Zayniddin Vosifiyning** «*Badoye ul-vaqoye*», **Zahiriddin Muhammad Boburning** «*Boburnoma*» asarlari ham shu davr ijtimoiy va madaniy hayotidan bahs yuritadi.

**Ko'chkinchixon** topshirig'i bilan Sharofiddin Ali Yazdiyning «*Zafarnoma*»si o'zbek tiliga o'girildi. Yetuk tarixchi olim **Mirza Muhammad Haydar (1500 – 1556) 1541 – 1546-yillarda** Yunusxonning nabirasi, tog'avachchasi **Abdurashidxonga** bag'ishlab «*Tarixi Rashidiy*» asarini yozadi. Mirza Haydar Toshkentda dunyoga kelgan; uning onasi Toshkent hokimi Yunusxonning qizi **Xo'bnigorxonim** bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi bo'lgan.

**Hofiz Ko'hakiy (Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy)** Ulug'bek mirzoning shogirdi **Ali Qushchining** nabirasi bo'lib, shayboniylar davrining yetuk tarixchisi, mantiq, fiqh, kalom ilmlari olimi bo'lgan. Davr taqozosi bilan o'z vatani Toshkentda turg'un yashay olmaydi. **1528-yili** Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga, Hindistonga boradi. Hajga borib, Usmonlilar Turkiyasi sultoni bilan uchrashadi. Vazirlikka qilingan taklifni rad etib, **1563-yili** Toshkentga qaytadi va shu yerda **1584-yili** vafot etadi. U «*Tarixi Toshkand*», «*Tarixi oliy Chingiz*» (Chingiz sulolasi tarixi), «*Risola fi fannit-tavsir val-usul val-firu val-mantiq val-kalom*» (Tafsir, fiqh asoslari va tarmoqlari, mantiq va kalom ilmi haqida risola) kabi asarlar muallifidir.

Adabiyot. Shayboniyxonning o'zi ham umri jang-u jadallarda o'tishi-ga qaramay, she'riyat va tarix fani bilan shug'ullanishga vaqt topgan. Uning **she'riy devon** tuzgani ma'lum. U hatto **xattotlik** bilan ham

shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida (tartib raqami **844**) **Kamoliddin Binoiy** qalamiga mansub «*Shayboniynoma*» asarining Shayboniixon ko'chirgan nusxasi saqlanadi. Ubaydullaxon ham ilmi va ma'rifatli hukmdor edi. U fors va turk she'riyatini yaxshi bilardi. Ayni paytda, o'zi **Ubaydiy** taxallusi bilan o'zbek, fors, arab tillarida ijod qilgan, she'rlar bitgan. Uning **uch tilda bitgan she'rlaridan iborat uch devoni** bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning o'zbek tilidagi devoni **306 g'azal, 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuqdan iborat**.

*Me'morchilik.* Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod etishga harakat qildilar. *Mir Arab madrasasi, Masjidi Kalon, Abdulazizxon qurdirgan koshinli xonaqoh, Mag'oki Attor masjidi (qayta ta'mirlangan), Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Kitobfurushon, Karmanadagi hazrati Qosimshayx xonaqohi, uch darvozali Timi Kalon, Modarixon madrasasi, Oyposhsha oyim madrasasi, Govkushon madrasasi, Fathulla qo'shbegi madrasasi, Fayzobod xonaqohi, Do'stum madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Tim, Chorsu fikrimizning dalilidir.* Samarqandda ham shayboniylar nomi bilan bog'liq binolar anchagina. *Shayboniixon madrasasi va Abdurahim Sadr madrasasi, Toshkentda bino qilingan Baroqxon madrasasi, Karmana yaqinida Zarafshon darvosi ustiga qurilgan ko'prik (1582) mashhurdir.*

Buxoroga kelgan ingliz elchisi Antoniy Jenkinson: «*Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir*», – deb yozadi.

Ayniqsa, Abdullaxonning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan. Uning davrida markaziy hokimiyat kuchayishi tufayli katta qurilish ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, Abdullaxon **1000 dan ortiq** rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'prik, suv omborlari qurdirgan. Buxoroda juda katta savdo markazi bunyod etilgan.

## 11-BOB. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGI

### 11.1. ASHTARXONIYLARNING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI

Buxoroda hokimiyatning ashtarxoniylarga o'tishi. Ashtarxoniylar Jo'jixon naslidan bo'lib, XIV asrning 80-yillaridan boshlab Ashtarxon (Hoji Tarxon, Astraxan) va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qilgan. 1556-yili Astraxanni Rusiya bosib olgach, ashtarxoniylardan Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoroga keladi. Ularni Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxon II ning otasi) izzat-ikrom bilan kutib oladi. Iskandarxon qizi Zuhrabegimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek sultonga beradi. Jonibek sulton Zuhrabegimdan uch o'g'il (Dinmuhammad, Boqi Muhammad, Vali Muhammad) ko'radi. Jonibek sulton va uning o'g'illari Buxoro xonligida yuksak mavqega erishib, Buxoro xonligi viloyatlarida hokim vazifasida faoliyat yuritadilar.

1601-yili Jonibek sultonning o'g'li Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqazildi. Buxoro xonligi tarixida yangi sulola – ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlanib, 175 yil davomida mamlakat shu sulola tomonidan boshqariladi.

Boshqaruv hokimiyatini mustahkamlash uchun kurash. Boqi Muhammad (1601 – 1605) mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamlash, boshqaruv tizimini izga solish uchun ko'p urindi. 1602-yili Eron safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo'ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1603-yili Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Boqi Muhammad Toshkent uchun qozoq sultonlariga qarshi kurashdi. 1604-yili qozoq xoni Keli-muhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi.

1605-yili Boqi Muhammad vafot etgach, uning ukasi Vali Muhammad taxtga o'tqazildi. Ichki kurash yana avj oldi. Qabila beklari xon hokimiyatiga bo'ysunmay muxolifatchilikni kuchaytirdilar. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadxonning o'g'li Imomqulixon (1611 – 1642)ni o'tqazdilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo'shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoldi. Vali Muhammad asir olinib qatl etildi.

Imomqulixon Toshkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoqlar, jung'ar (ayrat)lar, qalmoqlar, qoraqalpoqlarga qar-

shi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. **1613-yili** Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, **Toshkentni** o'z tasarrufiga kiritdi. O'g'li **Iskandar sultonni** Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar sulton ahliga boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko'paytirib, qattiq zulm o'tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo'zg'olon ko'tarildi va Iskandar sulton o'ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo'shin tortdi. Qo'zg'olonchilar ayovsiz jazolandi, Iskandar xuni uchun aholi qirg'in qilindi.

Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixonidan keyin taxtni egallagan **Nodir Muhammad (1642 – 1645)** davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi. Xonning o'zi mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk qilib **12 nafar o'g'li, 2 nafar jiyani va nabirasiga** taqsimlab berdi. Bu oqibatda davlatchilik asoslarini zaiflashtirdi. **1645-yili** qozoqlar yana Movarounnahrda yurish qilib, **Xo'jandgacha** yetib keladilar. Nodir Muhammad ularni quvib chiqarish uchun o'g'li **Abdulaziz** boshchiligida katta qo'shinni safarbar etadi. Xondan norozi bo'lgan bir guruh amirlar yurish davrida Abdulazizni xon deb e'lon qiladilar. Abdulaziz Buxoroga keladi, aslzodalar uni taxtga o'tqazadilar.

Nodir Muhammad Balxga qochib ketadi va toj-u taxtni qaytarib olish maqsadida Hindiston podshohi temuriyzoda **Shoh Jahon**dan yordam so'raydi. Shoh Jahon Balx viloyatini o'ziga bo'ysundirish maqsadida u yerga o'g'illari **Murodbaxsh** va **Avrangzeb** boshchiligida katta qo'shin yuboradi. Nodir Muhammad Shoh Jahon o'g'illari yordamga emas, Balx viloyatini egallash uchun kelayotganini bilgach unga qarshi chiqadi. **Maymana** yo'lida bo'lgan jangda Nodir Muhammad yengilib, Eronga qochadi va Shoh Abbos huzurida panoj topadi.

**1647-yili** Shoh Jahon o'g'illari Balxni egallaydilar. Nodir Muhammad Shoh Abbos yordamida Balxni qayta egallaydi. Bu voqealardan tashvishga tushgan Abdulazizxon ukasi **Subhonquli** yetakchiligida Balxga katta qo'shin yuboradi va **1651-yili** Subxonquli Balxni egallaydi va u Balx hokimi etib tayinlanadi. Nodir Muhammad Makkaga hajga borayotib yo'lida vafot etadi.

**Abdulazizxon** davrida (**1645 – 1681**) Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchayadi. **1655-yili** Xiva xoni **Abdulg'ozixon** katta qo'shin bilan yurish qilib, Buxoro atroflarini **ikki bor** talon-toroj qiladi. **Qora-ko'l** aholisining bir qismini asir olib, **Karmanani** vayronaga aylantiradi. **1658-yili** **Vardonzeni** talab, **1662-yili** **Buxoro** shahrigacha yetib boradi.

Tinimsiz urushlar, ichki ziddiyatlar Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini murakkablashtirib yuborgandi, siyosiy vaziyat izdan chiqqandi. Keksayib qolgan Abdulazizxon **1680-yili** taxtdan voz kechib, Makkaga hajga ketadi va u yerda vafot etadi.

Abdulazizxondan keyin taxtga o'tirgan **Subhonqulixon (1681 – 1702)** davrida ham ahvol o'nglanmadi. Subhonqulixon, bir tomondan, Balx viloyatlarida hokimlik qilayotgan o'g'illariga qarshi, ikkinchi tomondan, Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi urushlar qilishga majbur bo'ldi. Uchinchi tomondan, Xiva xoni **Anushaxon** qo'shinlari hujum qilib, **Buxoro, Karmana** va **Vardonzeni** egalladi, hatto **Samarqandni** ham ishg'ol qildi. Samarqandda Anushaxon nomiga xutba o'qitilib, uning nomidan tanga pullar zarb etiladi.

Subhonqulixon **qatag'on** urug'idan bo'lmish Badaxshon hokimi **Mahmudbiy otaliq** yordamida Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishdi. Samarqandliklar qattiq jazolandi. So'ngra Balxga yurish qilib, isyonkor o'g'li **Siddiq Muhammadga** zarba beradi va zindonband qilib, o'ldiradi. Balx hokimligi **yuz** qabilasining sardori **Muhammad Hoji otaliqqa** topshiriladi. Subhonqulixon Balxdaligidan foydalangan Anushaxon Buxoro atroflariga yana bostirib kelib u yerlarni talon-toroj qiladi va katta o'ljalar bilan qaytib ketadi. Subhonqulixon fitnasi bilan **1686-yili** Xiva xoni Anushaxon ko'ziga mil tortiladi va taxtdan tushiriladi. Subhonqulixon **1688-yili** Xivadagi tarafdorlari xizmatidan foydalanib Xiva xoni **Erengxonning** o'ldirilishiga erishadi va Xorazm Buxoro xonligi tasarrufiga olinadi. Subhonqulixon **Amir Shohniyozni** Xivaga hokim etib tayinlaydi.

## 11.2. XVIII ASRNING 1-YARMIDA BUXORO XONLIGIDA SIYOSIY TARQOQLIKNING KUCHAYISHI VA UNING OQIBATLARI

*Buxoro xonligi Ubaydullaxon II davrida.* **1702-yili** Subhonqulixon vafot etgach, toj-u taxtni uning o'g'li **Ubaydullaxon (1702 – 1711)** egalaydi. Ubaydullaxon II goh isyonkor qabilalarga qarshi, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi. *Ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi.* U ana shu maqsad yo'lida harakat qildi.

Dastlab u **Balxni** bo'ysundirish yo'lini izladi. Ma'lumki, Ubaydullaxon II ning otasi Subhonqulixon Balxni qatag'on qabilasi boshlig'i Mahmudbiy otaliqqa alohida xizmatlari uchun tortiq qilgan edi. Ubaydullaxon

davrida Mahmudbiy Balxda hokimiyatni to'liq o'z qo'liga oladi va o'zini **1706-yili** xon deb e'lon qiladi. Tez orada u **Termizni** ham egallaydi. Ubaydullaxon avval Termizga, so'ngra Balxga yurish qilib, **1707-yili** Balxni egallaydi. Mahmudbiy qochib ketadi. Ubaydullaxon Buxoroga qaytgach, Balxni yana Mahmudbiy egallaydi. Uning suverenlik huquqini Ubaydullaxon tan olishga majbur bo'ladi.

Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan **Farg'ona vodiysida** ham **XVIII asr boshlarida** ajralib chiqish harakati boshlanib, hokimiyat avval **Chust** yaqinidagi **Chodak** xo'jalari qo'liga o'tadi. **1710-yili** esa hokimiyatni **ming** qabilasi boshlig'i **Shohruxbiy** egallab, mustaqil **Qo'qon xonligiga** asos soladi. Ubaydullaxon davrida ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchaydi. Har bir viloyat hokimi mustaqil bo'lishga intildi. Natijada Ubaydullaxonga qarshi fitna uyushtirildi va **1711-yil 16-martda** u o'ldirildi.

Textga Ubaydullaxonning inisi **Abulfayzxon (1711 – 1747)** o'tqizildi. Abulfayzxon tomonidan fitnaning hamma ishtirokchi va ijrochilari saxiylik bilan mukofotlandi. Ular katta-katta lavozim egalari bo'ldilar. Ubaydullaxonning yaqinlari, amaldorlarining mol-mulklari talandi, o'zlari esa qatl etildi.

Xonlikda parokandalikning kuchayishi. Tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, Abulfayzxon «*Registon* (ya'ni, saroyning oldi) *tinch bo'lsa bo'lgani*» degan gapni doimo takrorlab turgan. Abulfayzxon davrida o'zbeklarning **mang'it** qabilasidan kelib chiqqan **Muhammad Hakimbiy** katta nufuzga ega bo'lib oladi. U barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olingandi. Bu boshqa qabilalar aslzodalarining qat'iy noroziligiga sabab bo'ladi.

**Shahrisabz** hokimi, **kenagas** qabilasidan chiqqan **Ibrohimbiy Urgut** va **Miyonqol** hokimlari bilan til birlashtirib Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti **Samarqand** bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi. Bu maqsadini amalga oshirish uchun **1716 – 1719-yillarda Qarshiga va Buxoroga** hujum qilib, hokimiyatni qo'lga olishga intildi. Bu urinish natijasiz tugagach, **1722-yili Samarqandni** egallab, kuyovi **Rajab sultonni** xon deb e'lon qildi. Natijada mustaqil Samarqand xonligiga asos solindi va **1730 – 1731-yillargacha** bu xonlik mustaqilligi saqlanib turildi. Ibrohimbiy o'ziga «**amir-ul-umaro**» (ulug' amir) unvonini oldi.

Ibrohimbiyning navbatdagi maqsadi Buxoro taxtini egallash, **Rajab sultonni** Buxoro taxtiga o'tqazish hamda shu yo'l bilan xonlikning eng nufuzli kishisi bo'lish edi. Abulfayzxon siyosatidan norozi bo'lgan beklar Ibrohimbiyga qo'shiladilar. Ibrohimbiy katta qo'shin to'plab Buxoroga

yurish boshlaydi. Ibrohimbiy va Rajab sultonlar kimki ularga qo'shilsa, g'alabadan so'ng juda katta boylik va amal ulashishni va'da qiladilar. Jangda Muhammad Hakimbiy otaliq boshchiligidagi Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. Lekin Rajab sulton Buxoro shahrini egallay olmaydi.

Qanday bo'lmasin Buxoro taxtini egallash ishtiyoqida yonayotgan Ibrohimbiy va Rajab sulton oqibatini chuqur o'ylab ko'rmasdan turib **ko'chmanchi qozoqlardan** yordam so'raydilar. Ularga katta o'ljalari va'da qiladilar. **Jung'or (qalmoq)** ko'chmanchilarining bosqinidan katta talafot ko'rgan, talangan hamda ocharchilikka duchor etilgan qozoqlar bu taklifga rozi bo'ladilar. Mamlakatga kirib kelgan qozoqlar talon-torojni avj oldiradilar. Ular **yetti yil** mobaynida **Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga** talonchilik yurishlarini uyushtirib, hamma yoqni talab, xonavayron qiladilar. Na Buxoroda, na Samarqandda ularni to'xtatishga qodir kuch topilmadi. Bunday sharoitda ichki nizolar yanada avj oldi. Aholining **Abulfayzxon**dan noroziligi kuchayib ketdi. Nihoyat, **Abulfayzxon** yaqinlarining talabi bilan Muhammad Hakimbiyni Buxorodan chiqarib yuborishga qaror qiladi. Hakimbiy **Qarshiga** jo'nab ketadi, biroq u qulay fursat tug'ilishi bilan oq Buxoroda hokimiyatni yana o'z qo'liga olish niyatidan qaytmagandi.

**Abulfayzxon** esa vaqtini ko'ngilxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketadi. Uning **yetti** farzandi bor edi. Mast chog'ida ularni o'limga mahkum etdi. Hali go'dak bo'lgan **Abdulmo'mingina** taxt ostiga yashirilib omon qolgan. Xon davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ydi. Oliy hokimiyat amalda **oliy qo'shbegi** bo'lib olgan **Jovshon qalmoq** qo'liga o'tdi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. **Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Badaxshon** amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol tashqi dushmanlarning Movarounnahrga bostirib kirishiga qulay imkoniyat yaratdi.

**Davlat mustaqilligining yo'qotilishi.** Eron shohi Nodirshoh Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga qarshi zafarli yurishlardan so'ng, **1736-yili**, Buxoro xonligiga bostirib kirdi. Nodirshohning o'g'li **Rizoqul** yetakchiligidagi qo'shinlar Amudaryodan o'tib, ko'pgina hududlarni bosib oladi va Qarshini **15 kun** qamal qiladilar. Bunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Xiva xoni **Elbarsxonning** yordamga kelayotganidan xabar topgan Nodirshoh buyrug'iga binoan Rizoqul qo'shinlari orqaga qaytib ketadilar. **1740-yili** Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi **ikkinchi** marta hujum qiladilar. Bu safar qo'shinni Nodirshohning o'zi boshqaradi. Buxoro va Xiva



xonlari umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmaydilar.

Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz beradi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketadi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmay taslim bo'ladi.

Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxoniga jo'natadi. Abulfayzxon Zarafshon daryosining bo'yidagi **Chorbakr** qo'rig'iga – Nodirshoh huzuriga borishga va shartnomani imzolashga majbur bo'ladi. Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh qo'shinlari uchun **8 yilga** yetadigan **200 ming xarvor** bug'doy va arpa to'plab beradi. Bundan tashqari, Buxoro xonligi aholisidan **10 ming nafar**li qo'shin to'planib, Nodirshoh ixtiyoriga jo'natiladi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li **Muhammad Rahim** qo'mondon etib tayinlanadi.

Shunday qilib, Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylanadi. Muhammad Hakimbiy esa imkoniyatdan foydalanib **qo'shbegi** (bosh vazir) lavozimini egallaydi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'planadi. Ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoladi.

### 11.3. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

*Davlat boshqaruvi.* Ashtarxoniylar davrida davlat tizimi va boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan deyarli farq qilmadi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar rasman oliy hokimiyat boshlig'i **xon** ixtiyori bilan hal qilinardi. Markaziy va mahalliy hokimiyat boshqaruvida ham shayboniylar davrida amalda bo'lgan lavozimlar saqlanib qolgan.

Ashtarxoniylar davrida **saroy qutvoli** davlat lavozimi joriy etilib, u davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, suv inshootlari barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan.

Buxoro xonligi ma'muriy jihatdan **viloyatlarga**, viloyatlar **tumanlar**ga bo'linib boshqarilgan. *Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan.* Harbiy sohada doimiy qudratli harbiy qo'shin, markaziy harbiy qo'mondonlikning yo'qligi, qo'shinning zamonaviy qurol-yarog'lar, zambaraklar bilan ta'minlanmaganligi Buxoro xonligining harbiy jihatdan o'ta zaiflashuviga olib keldi.

*Yer egaligi munosabatlari.* Ashtarxoniylar davrida yerga egalik qilishning, ilgari asrlarda amalda bo'lganidek, **mulki sultoniy, xusu-**

**siy mulk, vaqf** yerlari shakllari mavjud edi. Mulki sultoni davlat yerlari hisoblanib, undan keladigan daromad xon xazinasiga kelib tushardi. Davlat yerlaridan o'sha joylarda yashagan dehqonlar foydalangan, ular yerni ishlatib, olingan hosildan **xiroj** solig'i to'laganlar.

Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga **suyurg'ol** shaklida, harbiy qism boshliqlari, saroy amaldorlariga **tanho** shaklida in'om qilardi.

*Suyurg'ol qilingan katta yer egalari xon xazinasiga soliq to'lamasdi. Tanho shaklida in'om qilingan yerlar tanhodorning xususiy mulki bo'lmay, o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilardi.* Xon ayrim shaxslarga hukmdorga ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun ham yer-mulklar in'om etardi. Bunday mulklar soliqlardan ozod qilinardi va shu boisdan ular «**mulki hurri xolis**» deb atalardi.

Diniy mahkamalarga mulki sultoni hisobidan berilgan yerlar, masjidlar, xonaqohlar, qabristonlar vaqf mulki hisoblanardi. Vaqf mulkidan ham soliq olinmasdi.

Ko'chmanchi chorvador qabilalar ham katta-katta yerlarni egallab, o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan bo'ldilar. Natijada **Qo'ng'iro't, Mang'it, Nayman, Do'rmon** va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi.

**Dehqonchilik va chorvachilik.** **Dehqonchilik** mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib, aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Imomqulixon davrida, **1614 – 1615-yillarda** Qashqadaryodan **Qarshi cho'liga** kanal qazilgan. **1633 – 1634-yillarda** **Qo'shqo'rg'onda** kanal qazilib, vohalarga suv chiqarilgan. Biroq ashtarxoniylar davrida suv inshootlari qurilishiga yetarli e'tibor berilmadi. Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan.

**Hunarmandchilik va savdo.** Hunarmandchilik mahsulotlari, asosan, shaharlarda, qisman yirik qishloqlarda yetishtirilardi. Hunarmandchilikning to'qimachilik tarmog'ida ip yigirish, gazlamalar tayyorlash, tayyor kiyimlar tikish, gilam to'qish, kashtachilik ancha rivojlandi. Hunarmandchilikning kulolchilik tarmog'i ham rivoj topadi.

Metall va yog'ochga ishlov berish orqali uy-ro'zg'or buyumlari tayyorlash, binolar qurilishida yog'och va ganch o'ymakorligi kabi hunarmandchilik tarmog'i ham ancha o'sdi. **Buxoro** va **Samarqandda** yuqori sifati **yozuv qog'ozi** ishlab chiqarish, tog'li hududlardan **nodir metallar, kaliy** qazib olish ham yo'lga qo'yilgan. Buxorolik hunarmandlar **200 ga yaqin** kasb turlari bilan shug'ullangan.

**XVII – XVIII asrlarning 1-yarmida savdo-sotiq ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Savdo-sotiq ishlarida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarning mavqeyi baland edi. Ichi-ki savdoda dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlariga, hunarmandchilik buyumlariga ehtiyoj kattaligi sababli, bozorlar gavjum bo'lardi.**

Tashqi savdo ham to'xtab qolmadi. **Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Qashg'ar, Turkiya** mamlakatlariga paxta, teri, jun, turli matolar va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqarilardi. Buxorolik savdogarlarining **Sibir** shaharlarida o'z savdo rastalari bo'lgan. *Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, dori-darmon, choy, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan.*

Ashtarxoniyalar davrida davlat xazinasini boyitishning yagona usuli **soliq** hisoblangan. Shu boisdan soliqlar turi va miqdori ko'paytirilgan. Asosiy soliq to'lovchi raiyat – **dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar, savdogarlar** bo'lib, ulardan **xiroj, zakot, ixrojt, boj** va boshqa soliqlar undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi kanallar qazish, ariqlarni tozalash, qurilish va boshqa ishlarga majburan jalb etilardi.

*Xalq qo'zg'olonlari.* Urush yillarida soliq miqdori haddan tashqari oshirilardi. **Subhonqulixon** davrida raiyatdan **7 yillik** soliqlarni birdaniga yig'ib olish hollari bo'lgan. **Ubaydullaxon** esa aholidan yig'iladigan soliqlar miqdorini **4 baravarga** ko'paytirgan. Ubaydullaxon **1708-yili pul islohoti** o'tkazib, tarkibining **35 foizini** kumush tashkil etuvchi tangalar o'rniga tarkibida **9 foiz** kumush bo'lgan tangalarni zarb ettiradi va uning qimmatini oldingi tangalarga teng deb belgilaydi. Natijada pulning qadri **4 baravar** kamayadi, norozilik kuchayib, do'kondor va hunarmandlar o'z mahsulotlarini sotmay qo'yadi, do'konlar yopiladi, savdo-sotiq ishlariga katta zarar yetadi.

**Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma»** asarida: «*Oddiy xalq va kambag'allar mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar*», – deb yozilgandi. Bunday ahvolga chiday olmagan xalq **1708-yili Buxoroda** qo'zg'olon ko'taradi.

Qo'zg'olonchilar xon saroyiga yaqinlashib saroyini o'rab oladilar. Ark darvozasiga tosh yog'dirib, xonni haqoratli so'zlar bilan badnom qiladilar. Qo'zg'olon bostiriladi, yangi tangalar qimmatini **ikki baravarga** tushirilib, do'konlar qayta ochiladi.

**1712-yili Samarqandda** qo'zg'olon ko'tarilib, xalqqa zulm va zo'ravonlik qilayotgan **kenagas** qabilasidan qo'yilgan **Sulton To'qsa-bo** shahardan haydaladi. **XVIII asrda Balx, Karmana, Miyonqol,**

**Shahrisabz** va boshqa viloyatlarda ham xalq qo'zg'olonlari ko'tariladi. Biroq tartibsiz, tarqoq holda bo'lganligi uchun tezda bostiriladi.

#### 11.4. MA'NAVIY-MA'RIFIY, MADANIY HAYOT

Maktab va madrasa ta'limi. XVII – XVIII asrlarda shahar va qishloqlarda ko'plab **maktab** (maktabxonalar) faoliyat ko'rsatgan. O'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilgan.

Maktablar xarajati va domlarning maoshi vaqf mulkidan tushgan daromadlar hamda o'quvchilarning ota-onalari tomonidan o'qish uchun to'langan mablag'lar hisobidan qoplangan. Yetim-yesirlar **bepul** o'qitilgan. Bolalar maktabga **6 – 7 yoshdan** berilgan va **5 – 8 yil** davomida ularga boshlang'ich ta'lim berilgan.

O'quvchilarga avval harflar o'rgatilgan, keyin bo'g'inlar, ularni qo'shish orqali so'z tuzish, «**Haftiyak**» (Qur'oni Karimning **yettidan biri**) kitobini o'qish o'rgatilgan. Hisob darsida sonlar, ularni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish amallari o'rgatilgan. O'quvchilar **Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Hofiz Sheroziy, So'fi Olloyor** asarlarini, «**Chor kitob**»ni o'qib saboq olganlar. Qizlar maktablarida uy-ro'zg'or tutish, pazandachilik, odob-axloq, pokizalik sirlarini o'rganishga ko'proq o'rin berilgan. Bolalar o'qishni to'liq o'zlashtirib olganlaridan keyingina yozishga o'tganlar. Bolalarga kitoblardan ko'chirib yozish, mustaqil ravishda duoyi salom xati, ish yuzasidan turli ma'lumotlar yozish malakalari o'rgatilgan.

**Madrasa o'rta va oliy o'quv yurti** hisoblangan. Madrasaga maktabxonalarni tugatganlar qabul qilingan. Madrasa ta'limi talabalar iqtidoriga qarab **7 – 12 yil** davom etgan. Buxoro xonligi shaharlarida **150 dan ortiq** madrasa bo'lgan. Madrasada **arab, fors** tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. O'qish «**Avvali ilm**» deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan. Keyin **arab tili grammatikasi** o'qitilgan. **Fiqh** (huquq) kursi majburiy kurs hisoblangan. Madrasalarda umumta'lim kurslaridan **falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, tarix, jug'rofiya, adabiyot, aruz ilmi, me'morchilik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik** kabi fanlar o'qitilgan. Talabalardan **Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy** asarlarini, jami **137 darslik** va **o'quv qo'llanmalarini** o'zlashtirish talab etilgan.

Ilm-fan. Diniy mutaassiblik, xalq ommasidan diniy aqidalarga so'zsiz itoat etish talablarining kuchayishi ilm-fan ravnaqiga salbiy ta'sir etdi.

Shunga qaramasdan, ilm ahllari ijodi batamom to'xtab qolmadi. **XVII asrning** tanikli olimi, Mir Arab madrasasi mudarrisi **Muhammad Sharif Buxoriy (1609 – 1697)** falsafa, tasavvuf, tarix, fiqh, tilshunoslik, as-ronomiya sohasida **20 dan ortiq** asarlar yozgan. Uning «**Davriylik haqida risola**» asari makon va zamon masalalariga bag'ishlangan. Uning «**Xoqonga foydali maslahatlar**» kitobi **25 bob 32 fasl**dan iborat bo'lib, unda shariat qonun-qoidolari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar o'z ifodasini topgan.

Matematika, handasa, kimyo, astronomiya sohasida **Mulla Tursun Fariziyning**, falsafa va mantiq sohasida **Mulla Yusuf Qorabog'iyning** asarlari bizgacha yetib kelgan. **Boboxoja ibn Xoja Orif Samarqandiy** tomonidan **1678-yili** falakiyot, ilmi hay'at haqida risola yozilgan. **Mahmud ibn Valining 1636-yili** yozilgan «**Bahr ul-asror**» (Sirlar dengizi) asarida samarqandlik va buxorolik **20 nafar olim** haqida ma'lumotlar berilgan.

Subhonqulixon davrida **tibbiyot** ilmi rivojlandi. Uning tashabbusi bilan **Buxoroda «Dor ush-shifo»** qurilib, bemorlarni davolash ishi yo'lga qo'yilgan, **tibbiyotga ixtisoslashgan madrasa** qurilib, shifokorlar tayyorlangan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nadir kutubxonasi bo'lgan. U «**Subhoniy tibbiyoti bo'yicha davolash**», «**Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati**» nomli ilmi nujumga oid kitoblar yozgan.

Tarixnavislik. **XVII – XVIII asr 1-yarmida** Buxoro tarixiga doir qator asarlar yaratiladi. Tarixchi va geograf olim **Mahmud ibn Valining «Oliyjanob insonlar jasorati xususida sirlar dengizi»** asarida Movarounnahr va Xuroson tarixi, mamlakatlar, shaharlar, okean va dengizlar, hayvonot olami haqida qimmatli ma'lumotlar bayon qilinadi. U «**Muhabbatnoma**», «**Axloq husnlari**» risolalari hamda **50 ming baytdan** iborat katta devon muallifidir.

Tarixnavislikda **Muhammad Yusuf Munshiyning «Tarixi Muqimxoniy»**, **Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma»**, **Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning «Muhit ut-tavorix»** (Tarixlar dengizi), **Abdurahmon Tolening «Abulfayzxon tarixi»**, **Xojamqulixon Balxiyning «Qipchoqxon tarixi»** asarlari muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san'at. **XVII – XVIII asr 1-yarmida** adabiyot ancha rivoj topdi. Adabiy muhitda **Bedil (asli ismi Mirzo Abdulqodir, 1644 – 1721)** ning o'rni katta. U **kesh** (shahrisabz)lik, turkiy **barlos** urug'idan, Hindis-

tonga ko'p marta safar qilgan, **Dehlida** vafot etgan. Bedil inson erkinligi, tafakkuri haqida falsafiy, axloqiy qarashlarini she'riy va nasriy asarlarida bayon etgan. Bedil **120 ming** misradan ortiq she'riy va nasriy asarlar yozgan. Uning yirik asari **«To'rt unsur»** nasrda yozilgan bo'lib, havo, suv, yer, olov haqida, shuningdek, o'simliklar, hayvonlar va odamning kelib chiqishi haqida o'z qarashlarini bayon etadi.

Bedilning **«Irfon»** dostonida falsafa, tarix va ilohiyotning xilma-xil masalalari bayon etilgan. Bedilning fikricha, dunyo abadiy bo'lib, to'xtovsiz harakat qiladi va o'zgarib turadi. U she'rlarida jamiyatdagi jabr-zulm, adolatsizlik kabi illatlarni qoralaydi. Bedil asarlarining ko'pchiligi **16 jildli «Kulliyot»**ga kirgan (**Bombey, 1882**). Bedil Turkistonda **«Abulmaoniy»** (Ma'nolar otasi) degan nom olgan.

**Sayido Nasafiy (asl ismi Mirobid, 1637 – 1710) to'quvchilik** bilan shug'ullangan, ko'pgina she'rlarida ijtimoiy tengsizlikka, jabr-u zulmga qarshi norozilik bayon etilgan. U **212 xil** kasb-hunar egalari haqida fikr bildirib, hunar ahlini ulug'lagan. Uning **«Bahoriyat»** (Hayvonotnoma) majoziy-munozara asarida, g'azallarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy hayoti qalamga olingan.

**Turdi (XVII asr)** – hajviy she'rlari bilan tanilgan shoir. Turdining merosi **18 she'**rdan iborat bo'lib, ulardan **12 tasi g'azal, 5 tasi muxammas** janriga oid. **434 misra** hajmdagi bu merosning **165 misrasi** Subhonqulixon haqidagi hajviyalardir (**«Subhonqulixon to'g'risida hajviya»**, 1691). Uning tasavvufiy she'rlari g'oyat go'zal va teran falsafiy mazmunga boy bo'lgan.

**So'fi Olloyor (1644 – 1724)** tariqat arbobi va shoir. U shayxlik martabasiga ko'tarilgan, valiulloh (karomat sohibi) bo'lib yetishgan. U **forsiy tilda «Taqvodorlar maslagi», «Oriflar murodi», turkiy tilda «Ojizlar saboti», «Najot tantanasi»** kabi masnaviy asarlarini yaratgan. Uning **«Taqvodorlar maslagi»** («Maslak ul-muttaqin») asari **12 ming bayt, 135 ta bobdan** iborat bo'lib, ilohiy ma'rifat badiiy talqinda bayon etilgan o'zbek falsafiy adabiyotining yetuk namunasidir. Bu asar maktab va madrasalarda darslik qatorida o'qitilgan.

Buxoro xonligi adabiy muhitini **Mashrab (Boborahim Mulla Vali o'g'li), Xoja Samandar Termiziy, Mutribiy, Samarqandiy, Mulla Sodiq Samarqandiy** kabi yetuk namoyandalar ham o'z asarlari bilan boyitdilar.

Xattotlik, miniatura rassomlik san'ati, kitob ko'chirish, ulami naqsh va tasvirlar bilan bezatish san'ati davom ettirildi. **1624-yili Samarqandga** ko'chirilgan **Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»** kitobi o'sha davr kitobat san'atining yorqin namunasidir.

**Me'morchilik.** Buxoro xonligi tasarrufidagi hududlarda me'morchilik ishlari ham ancha rivoj topdi. Ko'plab masjidlar, madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, hammomlar, sardobalar barpo etildi.

**XVII asrda Samarqand Registoni** ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. Samarqand hokimi **Yalangto'sh Bahodir 1619 – 1635-yillarda** vayrona holatga tushib qolgan Registon maydonida Ulug'bek madrasasi qarshisida **Sherdor madrasasini**, uning yonida **1646 – 1659-yillarda Tillakori madrasa-masjidini** o'z mablag'lari hisobidan bunyod ettirgan. Samarqand Registon ansambli o'zining rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O'rta Osiyo me'morchiligining noyob tarixiy yodgorligi bo'lib, bugungi kunda jahon jamoatchiligi, sayyohlari e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda.

Buxoroda yirik me'moriy majmua – **Labiho'vuz** ansambli bunyod etildi. Buxoroning eng badavlat kishilaridan biri bo'lgan **Nodir devonbegi 1620-yili** bozor maydoni o'rtasida bo'yi **45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr** bo'lgan katta hovuz qurdirib, atrofini shag'al, temir va toshlar bilan mustahkamlattiradi. *Hovuz atrofida Nodir devonbegi madrasasi va xonaqohi, Ko'kaldosh madrasasi, Emazar elchi madrasasi bunyod etiladi.*

**1652-yili Buxoro** shahrida **Abdulazizxon** qurdirgan qo'sh imoratli madrasa mustahkamligi, nafis naqshli koshinlarga boyligi bilan ajralib turadigan, o'z zamonasi me'morchiligining yetuk namunasi hisoblanadi. *Imomqulixon Madina shahrida Chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdiradi. XVIII asr boshlarida Qarshida Shermuhammadbiy, Xo'ja Qurbonbiy madrasalari, savdo yo'llarida hashamatli rabotlar barpo etiladi.*

Xulosa qilib aytganda, XVII – XVIII asr 1-yarmida og'ir siyosiy vaziyatga qaramasdan, xalqimiz o'zining ijodkorlik, bunyodkorlik xislatlarini namoyon qila oldi.

## 12-BOB. BUXORO AMIRLIGI

### 12.1. BUXORODA MANG'ITLAR SULOLASI HUKMRONLIGINING O'RNATILISHI

Buxoro xonligining davlat mustaqilligini yo'qotishi. 1740-yili Eron qo'shinlari Nodirshoh boshchiligidagi Buxoroga qarshi yana hujum boshladi. Buxoro va Xiva xonlari umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmadilar. Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz berdi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketdi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmadi va taslim bo'ldi.

Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga jo'natdi. Taslim bo'lish haqidagi shartnomani imzolash uchun Abulfayzxon Zarafshon daryosining bo'yidagi **Chorbakr** qo'rig'iga – Nodirshoh huzuriga borishga majbur bo'ldi.

Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh qo'shinlari uchun **8 yilga** yetadigan **200 ming xarvor** bug'doy va arpa to'plab beradi. Bundan tashqari, Buxoro xonligi aholisidan **10 ming** nafarli qo'shin to'planib Nodirshoh ixtiyoriga jo'natiladi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlandi. Shu tariqa Buxoro Eronga qaram davlatga aylandi.

Abulfayzxon amalda qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi. Muhammad Hakimbiy esa **qo'shbegi** lavozimini egalladi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'plandi. Endi ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoldi.

Muhammad Rahimbiy. Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan **mang'itlar** va **qo'ng'irotlar**ning nufuzi baland edi. Bu ikki qabila haqiqiy hokimiyat ashtarxoniylar qo'lida bo'lib turgan davrlarda ularga sadoqat bilan xizmat qilgandilar. Biroq keyinchalik Buxoroda mang'itlar alohida nufuzga ega bo'lish uchun astoydil kurashdilar. Muhammad Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar.

Muhammad Hakimbiy **1743-yili** vafot etgandi. Uning o'g'li **Muhammad Rahimbiy** o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib, hokimiyatda otasi kabi alohida mavqe uchun da'vogarlik qila boshladi. So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon unga **bosh vazirlik** lavozimini berishga majbur bo'ldi va oxir-oqibatda markaziy hokimiyat uning qo'lida to'plandi.

Nodirshoh **1747-yili** o'ldirilganidan so'ng Eronda boshlangan ich-



ki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi. Uning buyrug'i bilan Abulfayzxon ham **1747-yili** o'ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzning o'g'li **Abdulmo'minni** o'tqazdi va uni o'ziga kuyov qilib oldi. Ko'p o'tmay Muhammad Rahimbiy kuyovi Abdulmo'minni ham qatl ettirdi. Tez orada Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab-quvvatlashi bilan **1756-yili** o'zini xon deb e'lon qildi. Biroq mang'itlar **chingiziylar** nasliga mansub bo'lmaganligi uchun, undan keyingi mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular Buxoro mintaqasining diniy hukmdori – amir ul-mo'minin hisoblanganlar.

Shunday qilib, **1756-yili** Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola – **mang'itlar sulolasi** keldi va davlatni **1920-yilgacha** idora qildi. Shundan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi. Mang'itlar 92 o'zbek qabilasining biri edi.

Mang'it hukmdori **Muhammad Rahimxon (1756 – 1758)** mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahimxon bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab, ularga o'zining asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Lekin davom etayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatni xonavayron qilayotganligi, xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining izdan chiqayotganligi, agar bu jarayonlar bundan buyon ham davom etadigan bo'lsa, davlat halokati muqarrar ekanligini alohida ta'kidladi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, undaylar ayovsiz jazoga tortilishi haqida ogohlantirdi.

Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo etib yurgan **Miyonqol, Nurota, Qabodiyon, Boysun, Shahrisabz** hamda **Urgut** beklklarini **to'rt yil** davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda, u bo'ysunishni istamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, **burqut, qipchoq, yetti urug', bahrin, yuz, kenagas, saroy** va boshqa qabilalarga nisbatan ana shunday siyosat yuritildi.

*Doniyolbiy otaliq va Amir Shohmurod.* Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng va uning amakisi **Doniyolbiy otaliq** hokimiyatni o'z qo'lga oldi (**1758 – 1785**). U o'zini xon atamadi va Abulfayzxonning nabirasi **Abulg'ozini** taxtga o'tqazdi. *Doniyolbiy ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qoldi.* U o'z qo'shinarini mustahkamlashga, unga tayanib ish ko'rishga harakat qildi. Barcha mang'it

beklariga katta yer-mulkni tanho qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi. Uning davrida **Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa** bekkliklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalari, qushbegi va qozikalonlarning o'zboshimchaligini esa sindira olmadi. O'g'illaridan biri **Shohmurod** darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. *Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratardi.* Xalq orasida obro'si katta bo'lgani uchun Doniyolbiy unga hokimiyatni topshirdi.

**Amir Shohmurod (1785 – 1800)** amir Doniyolbiy otaliqning to'ng'ich o'g'li bo'lib, yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib, darvishlik suluki tarafdori, targ'ibotchisidan biriga aylanadi. Shohmurod Abulg'ozini hokimiyatdan chetlatib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va taxtni egallaydi. Xalq unga hurmat bilan «**amiri ma'sum**» (begunoh amir) unvonini bergan.

Shohmurod o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. O'zi ham nihoyatda kamtarin hayot kechirgan. Masalan, *bir yilda bir olacha chopon, bir bo'z ko'ylik kiygan. Boshiga olti gazli bo'z salla, oyog'iga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kavush kiygan.*

Amir Shohmurod **Samarqand** shahrida katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirdi. Shahar markazida **olti qirrali** chorsu qurilib, «**Toqi musaddas**» deb atalgan. Samarqandning har bir madrasasiga imom, muazzin, mudarrisilarni o'zi tayinlagan. Talabalar va mudarrisilarning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan.

Amir Shohmurod ba'zi islohotlar o'tkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi. *Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Rais mansabini va qo'shin tarkibida qozi askar* lavozimini joriy qildi.

Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan **pul islohoti** muhim ahamiyat kasb etdi. Ashtarxoniyalar davrida zarb qilingan tangalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgandi. Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi.

## 12.2. AMIRLIK DAVLAT TUZUMI VA UNING MA'MURIY BOSHQARUVI

Davlat tuzumi. Buxoro davlat tuzumiga ko'ra monarxiya davlati edi. Davlat tepasida **amir**, ya'ni yakka mustabid hukmdor turgan. Hukmdor

rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. U davlatni o'zi ishongan eng oliy toifadagi amaldorlar (arkoni davlat)ga tayanib idora qilgan. Hukmdor amalda davlatni boshqarishda eng nufuzli qabilalarning boshliqlari bilan hisoblashib ish tutgan.

Ma'muriy bo'linish. Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan **viloyatlarga** va **tumanlarga** bo'lingan. Chunonchi, amirlik davlati **40 viloyat** va **tumanliklardan** iborat edi. Amirlikning yer maydoni taxminan **270 ming km<sup>2</sup>**, aholisi esa **2 mln** atrofida bo'lgan. Aholisini *o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar* va boshqa xalqlar tashkil etgan. Amir tayinlaydigan *hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan.* Amirlikning poytaxti **Buxoro** shahri va viloyatini **qo'shbegi** boshqargan. Amirlikning alohida davlat xazinasi bo'lmagan. Xazina amirning mulki bo'lgan.

Yuqori davlat lavozimlari. Amirlikning davlat muassasalari **ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik** va **harbiy** idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan.

Buxoro xonligi saroyida **30 ga yaqin** amaldor xizmat qilgan. Mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilarning soni **30 ming** atrofida bo'lgan. Bundan tashqari, **40 bekklik** – viloyat tepasida mahalliy qabila boshliqlari turardi.

Markaziy hokimiyatda *devonbegi, ko'kaldosh, qo'shbegi, mushrif, mirshab, dodxoh, inoq, miroxur, dasturxonchi, kitobdor, to'qsabo, parvonachi, sadr, shayxulislom, qozikalon, muftiy, muhtasib* kabi yuqori martabali lavozimlar joriy etilgan.

Eng katta davlat lavozimi **qo'shbegi** (vaziri buzruk), ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga bo'ysunardi. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qo'shbegining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qo'shbegi tavsiyasiga binoan tayinlanardi. Qo'shbegi xon Arkida yashagan.

### 12.3. AMIRLIKNING XO'JALIK HAYOTI

Yer mulkchiligi shakllari. Buxoro davlatida yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi: 1) *davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan);* 2) *mulk yerlari (xususiy);* 3) *vaqf yerlari.* **XVI asrdan** boshlab davlat yerlarini «**tanho**» deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi yerga emas, shu yerdan olinadigan soliqqa egalik qilgan. **XIX asr birinchi choragida** amirlikda

tanholarning soni **12 mingdan 36 ming nafarga** yetgan. Eng kichik tanho yeri **3 – 5 gektarni** tashkil etgan.

Xususiy yerlar (mulk)ning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. Bunday yerlar, asosan, amirlikda asrlar osha yashab ke- layotgan arablarga qarashli yerlar bo'lgan. Bu yerlardan **1/10 qismi** miqdorida o'lpon to'lanardi. Mulk yerlarining ikkinchi qismi (*mulki hur* yoki *mulki hurri xolis*) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bunday yerlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlari- ni bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

*Vaqf yerlari – bu masjid, mozor, xonaqoh, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi.* Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilardi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanardi. Vaqf mulkini **mutavalli** tasarruf etishi belgilab qo'yilgandi.

Soliq tizimi. Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan **qo'shpuli (har qo'sh (48 – 50 tanob) yerdan 40 tiyin)** olingan. **1807-yili Amir Haydarning** bir yorig'ida har tanob yerdan **bir tillodan tanobona** olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, hosilning **uchdan bir qismi mol (xiroj)** tariqasida olingan. Ba'zi- da **xiroj** hosilning yarmini tashkil etgan.

**XV – XVII asrdan zakot** solig'i beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, **XVIII asrdan** boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi va sug'orish ishlari. O'rta Osiyoda, jumladan, Bu- xoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orishning qan- chalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi. Shuning uchun XVIII asrda sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Zaraf- shon daryosida **Xurmo** va **Sarazm** nahr (ariq)lari chiqarilgan. Ularning **biri to'rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim** uzunlikda bo'lgan.

Amir Shohmurod zamonida **40 chaqirim** uzunlikdagi **Qozonariq (Urgut tumanini sug'organ), 24 chaqirim** uzunlikdagi **Toyman arig'i,**

**24 chaqirim** uzunlikdagi **To'g'uzariq** qazilgan. Yana **Oqdaryo** va **Qoradaryo**dan ham nahrlar chiqarilgan.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan **chig'iriq** eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto **4 metr** va undan ham balandga chiqarib bera olardi. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tutqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilardi. **XIX asrda** birgina Amudaryoning quyi oqimida **600 mingdan ko'proq** chig'iriq o'rnatilgandi. Bu kabi inshootlar Buxoro xonligi xo'jaligida katta o'rin tutgan. Bu hayot ta'minoti bo'lgan inshootlarning bosh bunyodkori, dalalarni hosildor yerlarga aylantirgan asosiy kuch – **dehqonlar ommasi** edi. Har bir dehqon xonadoni yiliga **60 kundan 100 kungacha** sug'orish inshootlari qurish, kanal va ariqlarni tozalash, sozlash ishlarida qatnashishga majbur edilar.

Buxorodagi **Jo'ybor**, Toshkentdagi **Kaykovus** bog'lari eng mashhur bog'lar edi.

Amirlikda bo'yoq olinadigan o'simlik – **mardona** ham o'stirilgan. Dorivor o'simliklardan esa dorilar tayyorlashgan. Amirlikda, garchand salmog'i dehqonchilikdan pastroq bo'lsa-da, chorvachilik ham rivojlangan.

Chorvachilik tumanlarida dumbali va qorako'l qo'ylar, yirik shoxli qoramollar, tuya va otlar boqilgan. Jun, teri, go'sht, sut-qatiq va yog' kabi chorvachilik mahsulotlari xalq hayotida muhim rol o'ynagan.

*Amirlikda yer mulkchiligining davlat (amlak), xususiy mulk va vaqt shakli mavjud bo'lgan. Davlat yerlari sotilmagan va ayirboshlanmagan. Davlat yerlarining bir qismi suyurg'ol va tanho shaklida in'om etilgan.*

#### 12.4. AMIRLIK SHAHARLARI HAYOTI VA SAVDO-SOTIQ ISHLARI

Samarqand. Amirlikning eng yirik shaharlaridan biri **Samarqand** edi. Samarqand shahrida kulolchilik, cho'yan quyish (degrezlik), teri oshlash, qog'oz, kiyim-kechak, qurol-yarog' ishlab chiqaruvchilar, baxmalboflar, kimxobgarlar, chitgarlar, bo'yoqchilar, po'stindo'zlar, mo'ynado'zlar mahallalari va rastalari bo'lgan.

Samarqandda **yetti madrasa** faoliyat ko'rsatgan. Bular *Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, Safed (Xoja Ahror), Shayboniyxon, Xoja Abdulg'ofur, Qozi Soqiy* madrasalari edi.

Ashtarxoniylar davrida kuchayib ketgan siyosiy kurashlar, chet elliklar hujumi natijasida shahar talangan, vayronaga aylangan. Buxoro

amiri **Shohmurod** (1785 – 1800) davrida Samarqand deyarli qayta tiklangan.

**XIX asr boshlarida** Samarqand shahri baland devor bilan o'rab olingan. Devorning uzunligi **13,9 chaqirim**, maydoni **10,4 kv kilometrni** tashkil etgan. Shaharda **80 ming** aholi istiqomat qilgan.

**Buxoro XIX asrning 40-yillarida** Buxoroda **38 ta** karvonsaroy bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar. Karvonsaroyda ombor, do'kon, ustaxona, mehmonxonalar bo'lgan. Karvonsaroylarning amiriga, ayrim shaxslarga va vaqfga tegishlilari bo'lgan. Buxoro karvonsaroylariga har yili **12 – 15 ming tuyada** mol kelgan. Savdo ishini **karvonboshi** – amirlikdagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi boshqargan.

Buxoroda ichki va shaharlararo savdo **to'qqizta tim** va **chorsuda** amalga oshirilgan.

Buxoro shahrida **103 ta madrasa**, **360 masjid** va **83 ta hovuz** mavjud bo'lgan.

**Hunarmandchilik.** Hunarmandchilik amirlik shaharlarining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri **to'qimachilik** bo'lgan. **Buxoro** olachasi, bo'zi, bo'zga gul bosish yo'li bilan tayyorlanadigan chiti, shoyisi, **Samarqandning** to'q qizil rangli baxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan ro'mol, choyshab, salla to'qish ham keng tarqalgan.

**Ichki savdo.** Davlat hayotida iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'lmadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmadi. Natijada oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi manufaktura ishlab chiqarishi darajasiga ko'tarilmadi. Shuning uchun ichki bozorda odatdagi hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan.

**Tashqi savdo.** Mamlakatning tashqi savdo aloqalari to'xtab qolgani yo'q. Buxoro **Hindiston**, **Afg'oniston**, **Eron**, **Xitoy** bilan savdo aloqalarini olib borgan. Bu davlatlarga xonlikda ishlab chiqarilgan ip gazlamalar, baxmal, qog'oz, egar-jabduqlar, qurollarning ayrim turlari, meva va boshqa mahsulotlar ortilgan savdo karvonlari qatnab turardi. Ba'zi savdo karvonlarining tuyalari bir necha yuz boshga yetardi.

Mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi shaharlariga ko'plab chet ellik savdogarlar kelib turishardi. *Buxoroda hatto hind savdogarlari va sudxo'rlari yashaydigan alohida mahallalar ham bor edi.* Ular hind gazlamalari, bo'yoqlari, shifobaxsh va ziravor o'tlar, dori-darmonlar, qand-shakar bilan savdo qilardilar.

Buxoro amirligining Rossiya bilan savdo aloqalari o'sib bordi. **Orenburgda 1804-yili** Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi qurilib, unda **20 xonadon** istiqomat qilgan. Ular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutganlar. Qarorgoh ahli **1812-yili Napoleon** armiyasiga qarshi janglarda faol ishtirok etgan. **1825-yilga** kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni **30 taga** yetdi. Ularning ko'pchiligi hunarmandlar (novvoylar, savdogarlar) bo'lib, o'z mahsulotlarini shu yerda sotuvga tayyorlaganlar. Buxorodan yo'lga chiqqan karvon **2 oyda Orsk** shahriga yetib borardi. Ba'zida savdo karvoni **5 mingtagacha** tuyadan iborat bo'lardi.

Shu tariqa Buxoro davlati iqtisodiyoti Rossiya bilan savdo qilishga mo'ljallangan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'la borgan. Buni quyidagi fakt ham isbotlaydi. Masalan, **1844-yili** Buxoro xonligining O'rta Osiyo – Rossiya tashqi savdosidagi ulushi **25 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **1864-yilga** kelib bu ko'rsatkich **42 foizga** ko'tarilgan.

## 12.5. BUXORO AMIRLIGI XIX ASRNING 1-YARMIDA

*Buxoro Amir Haydar hukmronligi davrida.* Amir Ma'sum Shohmurod vafot etgach, taxtga o'g'li **Amir Haydar** o'tirdi (**1800 – 1826**). Mahalliy hukmdorlar – beklar hamda yirik zodagonlar markaziy hokimiyatga qarshi yana kurash boshladilar. Birinchi bo'lib markaziy hokimiyatning o'lpon yig'uvchilari o'zboshimchaligidan norozi bo'lgan **Marv turkmanlari 1800-yili** qo'zg'olon ko'tardilar. Amir Haydar bu qo'zg'olonni qattiqqo'llik bilan bostirdi. Biroq marvliklar **1804-yili** yana qo'zg'olon ko'tardilar. Bu safar qo'zg'olonchilarga Marv hokimi, Amir Haydarning inisi **Dinnosirbek** boshchilik qildi. Uning maqsadi Xiva xoni **Eltuzar** yordamida oliy hokimiyatni egallash edi. Amir Haydar vohani suv bilan ta'minlab turgan **Sultonobod** to'g'onini buzdirib tashladi. Suvsiz qolgan Marv turkmanlari jang qilmay shaharni tark etishga majbur bo'ldilar. Turkmanlarning qolgan qismi esa Zarafshon daryosi vodiysiga ko'chirildi. *Dinnosirbek esa oilasi va 100 nafar odamini olib Eronga qochib ketdi.*

**1800-yili Qarshi viloyatida va Kattaqo'rg'on**da ham xalq qo'zg'olonlari bo'ldi. Doimiy urushlar fuqaro gardaniga har xil soliqlar solinishini va majburiyatlarni yukladi. Bu esa fuqarolarni xonavayron qildi. Oqibatda **1821-yili Miyonqolda** ham qo'zg'olon ko'tarildi. **Kattaqo'rg'on, Chelak, Yangiqo'rg'on** qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi. Bu paytda Amir Haydar Xiva va Qo'qon xonlari hujumlarini qaytarish bilan ham band edi. Qo'zg'olonchilar amirning inisi **Isoqbekni** o'zlariga amir

qilib olib, Samarqandni yana qamal qiladilar va **Karmanaga** qarshi yurish boshlaydilar. Amir Haydar Xiva qo'shinining amirlik yerlaridan olib chiqib ketilishiga erishadi. Shundan keyin u butun kuchini qo'zg'olonchilarga qarshi tashlash imkoniga ega bo'ladi. **1825-yil bahorida** Amir Haydar Yangiqo'rg'on va Chelakni egallaydi. Lekin qo'zg'olonchilarning kuchini sindirolmaydi va qo'zg'olonchilarga yon bosishga, ularning mulki daxlsizligi xususida yorliq berishga majbur bo'ladi.

Amir Nasrullo hukmronligi. **1826-yili** amirlik taxtiga **Nasrullo (1826 – 1860)** o'tirdi. U Amir Haydaming **uchinchi** o'g'li edi. Nasrullo qisqa vaqt ichida taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan barcha avlodlarining bahridan o'tadi. Ularning uy-joylarini talash, oila a'zolarini esa tahqirlashni lashkarlar ixtiyoriga topshiradi.

Amir Nasrullo amirlik tarkibiga rasmangina kirgan beklklarni yagona davlatga birlashtirish yo'lida qat'iyat bilan kurash olib bordi. U Buxoroda birinchi bor **40 mingga yaqin** sarbozdan iborat **muntazam piyoda qo'shin** tuzdi. U zamonaviy to'pchilar qismini tuzish niyatida chetdan to'p quyuvchi ustalarni, to'p quyish ilmiga o'rgatuvchi mutaxassislarni jalb etdi.

Amir Nasrullo qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, uning davrida ham beklklarning mustaqillik uchun kurashiga to'la chek qo'yishning iloji bo'lmasdi. Masalan, **Shahrisabz** bekligi (bu yerda **kenagas** qabilasi istiqomat qilardi) mang'itlarning o'zaro qirg'inlaridan foydalanib amirlikdan ajralib chiqqan va o'zini mustaqil deb e'lon qilgan. Bundan darg'azab bo'lgan amir Nasrullo «o'zboshimcha» kenagaslarga qarshi kurash boshladi. Bu kurash **30 yil** davom etdi. Shu davr mobaynida u Shahrisabzga **32 marta** yurish qilgan. Va, nihoyat, **1856-yildagina** u **Shahrisabz** va **Kitobni** o'ziga bo'ysundirishga erishdi.

Amirlikning qurolli kuchlari. XVIII asrda amirlik qo'shini, asosan, **otliq askarlardan** iborat edi. Otliq qo'shin **navkarlar** va **qoracherikdan** tuzilgandi. Qo'shinlar *to'p, qilich, piltta miltiq, nayza* va *o'q-yoy* bilan qurollangandi.

**1837-yili** Amir Nasrullo muntazam piyoda askarlar qo'shini tuzib, ular uchun maxsus kiyim (*qizil kurtka, oq shalvor va qalpoq*) joriy etildi. **XIX asr o'rtalariga** kelib **2500 nafar**li sarbozning har biri nayzali miltiq, qilich va to'pponcha bilan qurollangandi. Xizmatdan bo'sh kunlari ular **oddiy xalat** kiyib yurishgan. Buxoro qo'shinlariga rus zobitlari ta'lim berib, mashq qildirganlar. Mashq, urush va kiyinish nizomlari ishlab chiqilgan.

**1837-yili** Amir Nasrullo **to'pchilar qo'shinini** ham tuzadi. Askar oyiga **uch so'm kumush tanga** moyana olgan. Har qabila o'z qo'shini



bilan xizmatda bo'lgan. Askar va to'pchilar **umr bo'yi** xizmat qilganlar.

**Ichki siyosat.** Mang'it hukmdorlari ichki siyosatining asosiy maqsadi markaziy hokimiyatni mustahkamlash, xalq ommasini qattiq itoatda tutishdan iborat bo'lgan. Ayni paytda, mang'it hukmdorlari yirik zodagonlarning nufuzini kamaytirishga imkon beruvchi tayanch kuchlarni vujudga keltirish siyosatini tutdilar. Bunday ijtimoiy fayanchi davlarga xizmat qiluvchi **amaldorlar tabaqasi** bo'lishi mumkin edi. Mang'it hukmdorlari ana shunday amaldor xizmatkorlar tabaqasini yarata oldilar. Amir saroyida xizmat qiluvchi **300 ga yaqin** yuqori amaldorlik lavozimi joriy etildi.

Bundan tashqari, mang'it amirlari markazlashgan mutlaq hokimiyatni barpo etishni o'zlarining bosh vazifalaridan biri deb hisoblaganlar. Shu maqsadda ular amir shaxsiga sig'inish siyosatini yuritganlar. Amir shu darajada oliy hokimiyat mavqeyiga ko'tarilganki, jazoga tortilishdan qo'rqqan fuqaro uning nomini baland ovoz bilan aytolmasdi. Hukmron tabaqalar amirga xushomadgo'ylik qilardilar. Amaldorlar amirdan ko'rsatma kutib o'tirmasdan uning xohish-istagini topa bilishga intilardilar.

Amirlikda, ayniqsa, **yahudiylarning** ahvoli og'ir va ayanchli edi. Garchand ular o'z diniy e'tiqodlarini saqlab qolgan, amirlikdagi deyarli butun savdo-sotiqchi o'z qo'llariga olib, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lib olgan esalar-da, ularga nisbatan inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, xo'rlovchi tartiblari joriy etilgandi. *Xususan, yahudiylarga ot minib yurish man etilgan edi. Ular eshak minishlari mumkin edi, xolos. Bellariga kamar emas, chilvir bog'lab yurishlari shart edi.*

## 12.6. BUXORO AMIRLIGIDA MADANIY HAYOT

**Tarix ilmi.** Buxoroning XIX asr 1-yarmida ijod etgan tarixchi olimi **Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiy Buxoriy (1771 – 1831)** edi. U «**Gulshan ul-muluk**» (Podshohlar gulshani) degan asar yozib qoldirgan. Bu asar **ikki qismdan** iborat bo'lib, *birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon etilgan. Asarning ikkinchi qismida esa O'rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan.*

XIX asrda yozilgan **Mirzo Shams Buxoriyning «Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshg'ar»** (Buxoro, Qo'qon va Qashqarning ayrim voqea-hodisalari bayoni) kitobi ham tariximiz uchun muhim manba hisoblanadi.

**Adabiyot.** Xiva va Qo'qon xonlaridan farqli o'laroq, mang'it hukmdor-

lar madaniyat, xususan, adabiyot taraqqiyotiga qiziqish bilan qaraganligi, adabiy ijod bilan bog'liq biron-bir masalani hal etib berish yoki ijod ahliga sharoit yaratib berganliklari sezilmaydi.

Bu davrning o'ziga xos iste'dod egasi **Muhammadniyoz Nishotiy** (XVIII asrda yashab ijod etgan) o'rtacha, vaqti kelganda kambag'allik va sargardonlikda yashagandi. Shoir 1778-yili o'zining ajoyib «**Husn-u Dil**» dostonini yaratgan. O'zbek adabiyotining katta yutug'i sanalgan bu asarni shoir majoziy shaklda yozgan. Doston qahramonlari – **Aql, Husn, Yurak, Xayol, Vafo, Nazar, Ishq** va boshqalarning har biri g'oyat go'zal insoniy fazilatlariga ega. **Raqib, Fasod, Nafs** obrazlari esa yomon sifatlar hamda turli yovuzliklarning timsoli edi.

Asardagi obrazlardan biri **Ishq** o'zining dadil va oqilona qarorlari, harakatlari bilan har xil mamlakatlarning turli qarashlarga ega hukmdorlarini bir bitimga olib keladi va hammaning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Oxir-oqibat ularning hammasi bir-birlari bilan yarashadilar. **Ishq** oldida ta'zim bajo keltiradilar va uning farmonlariga bo'ysunishga mayl izhor etadilar.

Shu tariqa Nishotiy dostonida odamlar va davlatlar orasidagi nizolar, baxillik va boshqa axloqiy qusurlar qoralanadi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarashlarda xayrli intilishlar, aql va oliyanob niyatlar ustun keladi.

Bundan tashqari, Nishotiyning adabiy ijodidagi yana bir o'ziga xoslik adabiyotda **munozara janri** taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligidir. Bu o'rinda uning «**Qushlar munozarasi**» majmuasi katta ahamiyatga ega. Asarda o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga xos illatlar, jaholat, mansabparastlik majoziy shaklda tanqid qilingan, mehnat ahlining kamtarligi ulug'langan. Asarda **laylak, zog', bulbul, to'vus, to'ti, xumo** kabi jami 14 ta qush o'rtasida bo'lib o'tgan bahs tasvirlangan. Muallif qushlar bahsi orqali insonga xos takabburlik, xudbinlik, maqtanchoqlik kabi illatlarni qoralagan. U 38 g'azal, 14 muxammas va 1 ta qasida yozgan.

Bu davrning yana bir mashhur shoiri **Mujrim-Obid (1748 – 1818)** edi. U **Mujrim** hamda **Obid** taxalluslari bilan ijod qilgan. *Uning turkiy devonida 459, forsiy devonida 206 g'azal bor.* Shoiming asarlarida jamiyatdagi nomukammallik, ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, odamlar fe'lidagi illatlar tanqid ostiga olinadi. Ularda shoiming axloqiy qarashlari, pand-nasihatlari aks etgan.

Buxoroda **Shavqiy, Joniy, Hiromiy, Vola** va **Junaydulloh Hoziq** kabi o'nlab iste'dodli shoirlar ham ijod qilganlar.

**Vola (1770 – 1842)**ning ko'zi tug'ma ojiz bo'lsa-da, tabiat unga

kuchli iroda, aql, xotira va qobiliyat hamda yoqimli ovoz in'om etgandi. Shoir o'z she'rlaridan **2 ta devon** tartib bergan. Bizgacha **3 ming misra** she'rlari yetib kelgan. O'z she'rlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuylagan.

**San'at.** Buxoroda xattotlik va miniatyura san'ati yaxshi rivojlangandi. Rassomlar, asosan, qo'lyozmalarni naqshli bezash bilan shug'ullanib, ko'proq diniy mazmundagi kitoblarni bezafa boshladilar. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, Amir Haydar davrida ijod qilgan **Mir Mas'um Olamiyon «Axloqi Muhsiniy»** kitobini hamda **Sa'di**ning she'riy asarlarini rasm bilan bezaydi.

**Mirzo Sodiq Jondoriy Nasrulloxon** amirligi davrida qo'lyozma kitoblarga lavhalar, **Sa'diy** va **Hofiz** asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan. Qo'lyozmalarni badiiy muqovalagan.

Yirik olim, faylasuf, shoir **Ahmad Donish (1827 – 1897) 20 yil** mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida **xattot** va **rassom** bo'lib ishlagan. Ahmad Donish astronomiya, tibbiyot, riyozat, me'morchilik va musiqa-dan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san'atini ham o'rgangandi.

Ahmad Donish ko'chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo'lyozmalar ichida **«Shohi darvish» (1849-yil)**, **«Ajoyib at-tabaqot» (1847)** va boshqa asarlar buning dalilidir.

**Musiq.** Buxoro yuksak ustozona musiqa san'atining markazlaridan biri bo'lgan. Chunonchi, **XVIII asr oxirlarida** Buxoroda vujudga kelgan **«Shashmaqom»** buning yorqin dalilidir. Buxoro Shashmaqomi **Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh** va **Iroq** maqomlaridan iborat bo'lib, **250 dan ortiq** har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan.

Maqom ashulalarining she'riy matni uchun **Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira** va **Mashrab** singari turkiy va forsiy tili mumtoz shoirlarning lirikasidan tuzilgan. Shashmaqom og'zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

## 13-BOB. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI. XVI – XVIII ASRNING 1-YARMIDA XONLIKNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

### 13.1. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Xiva xonligining tashkil topishi. Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o'zbek qabilasi istiqomat qilardi. Ular orasida **qo'ng'iro't, mang'it, nayman, qipchoq** va **qiyot** qabilalari ko'p sonli va eng kuchli qabilalar bo'lgan.

Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy **Sulton Husayn Boyqaro** boshliq Xuroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda **qo'ng'iro't** qabilasidan chiqqan **Chin So'fi** hokim edi. U rasman Husayn Boyqaro noyibi hisoblanardi.

1505-yili *Shayboniyxon, 1510-yili esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar.* Biroq Shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. **Vazir** shahri qozisi **Umar qozi** yetakchiligida safaviylar hukmronligiga qarshi harakat boshlanadi.

Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan **Berka sultonning** o'g'li **Elbarsxonni** o'tqazishga qaror qildilar. U bu davrda Dashti Qipchoqda edi. Berka sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo'lsa-da, ular o'zaro dushmanlik munosabatida edilar. **1480-yili** o'zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka sultonning o'ldirilganligi buning sabablaridan biri edi.

Xorazmning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligida **1511 – 1512-yillarda** Eron qo'shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa **1511-yili** Xorazm mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi **Xiva xonligi** deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham **shayboniylar** vakillari bo'ldi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi **1770-yilgacha** davom etdi.

*Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirildi.* Elbarsxon Vazir shahrini Eron qo'shinlaridan ozod etgach bu g'alaba sharafiga o'z o'g'illari nomiga **«g'ozii»** laqabini qo'shib aytishni buyurgan.

Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'pgina qabilalarning ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada xonlik hukmdorlari-

ning ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi. Bu omil Xiva hukmdoriga xonlik hududini qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirib olish imkonini berdi. Chunonchi, Elbarsxon 1516-yilgacha bo'lgan hukmronlik davrida *Shimoliy Xuroson, Shimoliy Erondagi Saraxs, Orol va Mang'ishloq* egallandi.

*Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot.* Movarounnahrdagi Shayboniylar davlati singari Xiva xonligi ham bir qancha katta-kichik mulklarga bo'lingan. Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhga bo'lingan: 1. *Qadimiy xorazmliklarning bevosita avlodlari.* 2. *Turkman qabilalari.* 3. *Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'chib kelgan qabilalar.*

Ayni paytda, ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka, mustaqillikka intilishgan. Bu hol o'zaro nizolarni keltirib chiqargan.

Xiva xonligida yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalariга aylangan. Ular xonlikning butun ijtimoiy-siyosiy hayotiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib kelganlar.

XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib, XVI asrning 70-yillaridan boshlab Kaspiy dengiziga oqmay qo'yganligi bo'ldi. Daryo 15 yil ichida Orol dengizi yo'nalishiga burildiki, natijada eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'zaro qabilaviy urushlar, og'ir soliqlar hamda turli to'lov va jarimalar mamlakat aholisini xonavayron qilgan. Bu hol, o'z navbatida, savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan.

### 13.2. XVII – XVIII ASRNING 1-YARMIDA XIVA XONLIGIDAGI SIYOSIY AHVOL. XIVA XONLIGIDA SIYOSIY PAROKANDALIK

*Siyosiy vaziyat.* XVII asr Xiva xonligining siyosiy hayotida o'ziga xos ikki xususiyat, bir tomondan, markaziy hukmron sulola nufuzining pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi bo'ldi. Qabila boshliqlari: **beklar, biylarning** kuch-qudrati shu darajaga borib yetgandiki, ular oliy hukmdorga o'z xohish-istaklarini o'tkazganlar. Xon davlat hayotiga oid har bir masalani ularsiz mustaqil hal etolmasdi. Aksincha, aynan shu qabila boshliqlari xon taqdirini hal etardilar. Binobarin, Xiva xonligida davlat parokandaligi yuz berdi. Parokandalik **Arab Muhammadxon (1602 – 1621)** davrida yuqori nuqtasiga yetgandi. Amudaryo o'zanining o'zgarishi bu davrda ham davom etdi.

Natijada Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini **Urganchdan Xivaga** ko'chirishga majbur bo'ldi. Yuz bergan iqtisodiy tanglik davlatning siyosiy ahvoriga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqi kuchlar foydalanib qolishga urindi. Chunonchi, Arab Muhammad davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan Yoyiq kazaklari **ataman Nechay**, ko'p o'tmay **ataman Shamay Urganchga** hujum qildilar. Biroq ular talonchilikdan iborat maqsadlarini amalga oshira olmadilar. Aksincha, Xiva qo'shini ularni tor-mor etdi.

**1616-yili** Arab Muhammadxonning o'g'illari **Habash sulton** bilan **Elbars sulton nayman** va **uyg'ur** qabilalarining boshliqlariga tayanib otalariga qarshi isyon ko'tardilar. Ota farzandlariga yon bosdi. Ular boshqaruviga topshirilgan hududlarga **Vazir** shahrini ham qo'shib berdi. Biroq bu bilan nizo tugamadi. **1621-yili** ular yana isyon ko'tarishdi. Bu safar otalari Arab Muhammadxon tarafida uning boshqa ikki o'g'li – **Asfandiyorxon** va **Abulg'oz** sulton urushda qatnashdilar. Bu urushda Habash sulton va Elbars sulton qo'shinlari g'olib keldi. Noqobil farzandlarning amri bilan asir olingan otaning ko'ziga mil torttirildi va Xivaga keltirib qamab qo'yildi. Oradan ko'p vaqt o'tmay xon qatl etildi.

Xiva – Buxoro munosabatlari. Abulg'oz Bahodirxon Buxoro xoni bilan **1662-yili** sulh tuzib, **1663-yili** hokimiyatni o'g'li **Anushaxonga** topshiradi. Anushaxon davrida Buxoro – Xiva munosabatlari yanada keskinlashdi. Anushaxon bir necha marta Buxoro xonligini xonavayronlikka olib kelgan harbiy yurishlar uyushtirdi. Uning qo'shini hatto Buxoroga yetib bordi, Samarqandni egalladi. Nihoyat, **1685-yili G'ijduvon** yaqinidagi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi. Oxir-oqibatda Buxoro xoni Subhonqulixon Anushaxonga qarshi Xivaga fitna uyushtirdi. **1686-yili** Anushaxon taxtdan tushirilib, ko'ziga mil torttirildi.

Subhonqulixon Xivada o'z tarafdorlaridan shunday fitnachi guruh uyushtira olgandiki, ular ta'sirida **XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida** Xivada «xonlar o'yini» – o'nlab xonlar almashinuvi sodir bo'ldi. Bu voqealar oqibatida Xiva xonligining siyosiy hayoti yanada murakkablashdi, xonlik ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar girdobida qoldi. Xiva xoni **Sherg'ozixon (1714 – 1728)** davrida Buxoro xoni Abulfayzxon orolliklarni Xiva xoniga qarshi gigijlay boshladi. Natijada **Orolbo'yi** aholisi Xiva xonligidan ajralib chiqdilar. Xiva xonligida boshlangan o'zaro kurash goh u tomon, goh bu tomonning ustunligi bilan to Sherg'ozixon vafot etguniga qadar davom etdi.

Xiva xonligining siyosiy ahvoli **Elbarsxon (1728 – 1740)** davrida yanada keskinlashdi. Elbarsxon ichki nizolarni bostirib, qo'shni hudud-

larga ham hujumlar uyushtirdi. Ayni paytda, u Nodirshohga qarshi kurashda Buxoroga yordam berishga ham intilgandi.

Nodirshoh Buxoroni tobe etgach **1740-yili** Xiva xonligiga yurish boshladi. **Hazorasp** yonidagi jangda Xiva qo'shinlari yengildi. **Xonqada** bo'lgan jangda Xiva qo'shinlari butunlay tor-mor etildi. Elbarsxon o'ldirildi.

Nodirshoh 1740-yili Xivaga o'z odamini hokim etib tayinlab, Eronga qaytadi. Xivada Eron boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Aholiga «**moli omon**» solig'i solinadi. Ana shundan keyin Xiva xonligida parokandalik kuchaydi. O'zaro urushlar natijasida bir qancha vaqt turkman qabilalari – **yovmutlar** ustun kelib turdi. Endi Xiva mustaqilligini yo'qotdi, qadimiy madaniy mamlakat bosqinchilik va talon-toroj maydoniga aylantirildi. Osiyo va Yevropani birlashtiruvchi karvon yo'li o'zining ahamiyatini to'la yo'qotdi. Xonlar esa amalda **inoqlar** qo'lida itoatkor bo'lib qoldilar.

*Nodirshoh bosqiniga qarshi kurash.* **Orol dengizining shimolida** istiqomat qilib turgan **o'zbek qabilalari 1741-yili** eronliklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Bu vaqtda Nodirshoh **Dog'iston** yurishi bilan band edi. U o'g'li **Nasrulla** boshchiligida qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin jo'natdi. Nasrulla qo'zg'olonni bostirib, Xiva taxtiga Elbarsning o'g'li **Abu Muhammad** (Abulg'ozixon)ni o'tqazdi. So'ng Orolbo'yi va xivaliklardan qo'shin to'plab, otasiga madad berish uchun Dog'istonga jo'natdi. Qo'zg'olon sababchilari bo'lgan turkman yovmutlarini **Xuroson** hududiga ko'chirtirdi.

Keyin Xiva taxtiga o'tqazilgan qozoq sulolasidan **G'oyib ibn Botir (Qoraboyxon, 1746 – 1756)** inoqlar nufuzini yo'qotish uchun kurashdi. Ular esa G'oyibning inisi **Abdulla** boshchiligida xonga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonga Buxoro amiri **Muhammad Rahimxon** aralashdi. G'oyibni taxtdan tushirib, o'z vakili Temurg'ozini xon etib tayinlaydi. Muhammad Rahimxon vafot etgach (**1758-yili**), o'zbek qabilalaridan inoqlar hokimiyatni yana qo'lga oladilar.

### 13.3. XIVA XONLIGINING IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

*Shahar va shaharlar hayoti.* Xiva xonligida **Xiva, Ko'hna Urganch, Yangi Urganch, Vazir** kabi o'nlab shaharlar mavjud bo'lgan. Ulardan eng qadimiysi **Xiva** shahri bo'lib, **1997-yili** uning **2500 yilligi** nishonlandi. *Bu haqda YUNESKO 1995-yili qaror qabul qilgandi.* Bu qaror Xiva shahrining jahon madaniyati taraqqiyotida tutgan alohida o'rningini

e'tirofi bo'ldi. Bugungi avlod o'z ota-bobolarining madaniy meroslari bilan haqli ravishda faxrlana oladi.

Xiva shahri **mil. av. V asrda** yuzaga kelganidan buyon uning tarixi butun Xorazm tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib keldi. Xivaning mashhurligi u bunyod etilgan davrlaridanoq Sharq bilan G'arbni bog'lovchi savdo yo'li o'tganligi bilan izohlanadi. Xiva shahri **XVI asr boshlaridan 1920-yil fevralgacha** Xiva xonligining poytaxti bo'lgan.

Ko'hna Urganch. Xonlikning yana bir shahri **Ko'hna Urganch** (Gurganch) shahridir. Qadimda bu shahar joylashgan hudud hozirgi **Turkmaniston (Toshhovuz viloyati)** tarkibidadir. Ko'hna Urganchga asos solinganligiga **2000 yildan** oshdi. Shahar muhim savdo karvoni yo'llari kesishgan yerda joylashganligi uchun ham tez rivojlangan.

Ko'hna Urganch **X – XI asrlarda** Xorazm davlatining poytaxti edi. Bu shahar arab geograflari asarida **Jurjoniya** nomi bilan qayd etilgan. **X asrning 2-yarmida** poytaxt Gurganchda mustaqil amirdik tuzilgan. **995-yili** Gurganch amiri **Ma'mun ibn Muhammad** poytaxti **Kat** shahri bo'lgan xorazmshohlarni tor-mor etib, o'zini **xorazmshoh** deb e'lon qilgan. Shu tariqa Gurganch Xorazm davlatining yagona poytaxtiga aylangan.

**XI – XII asrlarda** bu shaharda madaniyat, ilm-fan rivojlandi. Shahar mustahkam qal'a-devor bilan o'rab olindi. **1221-yili** Chingizxon hujumi natijasida Ko'hna Urganch shahri taqdiri nima bo'lganligini eslang. **1646-yili Abulg'ozixon** hozirgi **Urganch** shahriga asos soldi. Bunga yuqorida qayd etilgan Amudaryoning o'z yo'nalishini o'zgartirib Orol dengizi tomon oqa boshlagani, buning oqibatida Gurganchning (Ko'hna Urganch) suvsiz qolganligi sabab bo'lgandi. Shundan keyin qadimgi Gurganchning nomi **Ko'hna Urganch** bo'lib qoldi.

Vazir shahri. Vazir Xorazmning shahar-qal'alaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, shayboniylardan bo'lgan **Mustafaxon** tomonidan **XV asr o'rtalarida** asos solingan.

**XVI asrda** shayboniylarning o'zaro urushlari shaharning vayron bo'lishiga olib kelgan. **1558-yili** Xivaga kelgan **Antony Jenkinson** bu haqda shunday deb yozgandi: «*Vazir shahri keyingi 7 yil mobaynida o'zaro urushlar oqibatida to'rt marta vayron bo'ldi. Shuning uchun ham bu yerda savdogarlar juda kam, borlari ham nochor*». **1593 – 1598-yillarda** esa **Abdullaxon II** harbiy yurishlari chog'ida ham shahar yana vayron etildi.

Abulg'ozixon Yangi Urganchga asos solgach Vazirning qolgan aholisini ham shu yerga ko'chirgan. Shu tariqa shahar o'z ahamiyatini butunlay yo'qotgan.



Hunarmandchilik. Xiva xonligi tarixiy manbalarida hunarmandchilikning **27 sohasi** qayd etilgan. Amalda esa ular bundan-da ko'p bo'lgan.

Hunarmand malakali usta bo'lishi uchun ko'p yil mashaqqatli mehnat qilgan. Odatda, usta o'z kasbini **to'ng'ich o'g'liga** o'rgatgan. Ayrim hollarda, ishda qo'shimcha kishining mehnati talab qilinsa, chetdan ham **shogirdlar** qabul qilingan. Shogirdga kasb o'rgatish shartlari va mudatlari **yozma shartnomada** rasmiylashtirilgan. Shogird hunarmand ustadan oq fотиha olib, o'zining alohida ustaxonasini ochishdan avval hunarmand ustalar oldida o'z mahoratini namoyish etishi kerak bo'lgan. Sinovdan o'tgan shogird shu tariqa ustaxona ochishga ruxsat olardi.

Qishloq xo'jaligi. Xonlik aholisi, asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan. Dehqonchilik va u bilan bog'liq chorvachilik qishloq xo'jaligining ikki asosiy sohasi edi.

Dehqonchilikda **g'alla, paxta va poliz mahsulotlari** yetishtirish yetakchi o'rin egallagan. *Ekinzorlarning yarmidan ortig'ida g'alla yetishtirilgan.* G'allachilikda **kuzgi bug'doy** ekish yetakchi o'rin egallagan. Dehqonlarning don ekinlaridan mo'l hosil olishlariga hatto chet elliklarning ham tan berganligiga tarix guvoh. Chunonchi, Xivaga kelgan yevropalik sayyohlardan biri aytgan quyidagi so'zlar manbalarda saqlanib qolgan: «*Men Germaniyaning o'zida dalada ishlovchilarning Xivadagidek mirishkorligini ko'rmaganman*». Don ekinlari ichida **jo'xori** ekish bug'doydan keyin **ikkinchi o'rinda** turgan. **Sholi** esa, asosan, suv ko'p hududlarda yetishtirilgan. Ekinzorlarning **1/5 qismida paxta** yetishtirilgan.

Xonlik iqtisodiyotida **pillachilik** ham muayyan ahamiyatga ega bo'lgan. Poliz mahsulotlari ichida Xorazm **qovunining** dovruq'i keng yoyilgandi. Bundan tashqari, xonlikda **bog'dorchilik** ham dehqonchilikning rivojlangan sohalaridan biri bo'lgan.

Ichki va tashqi savdo. Xonlikning ichki va tashqi savdosidan davlat xazinasiga durustgina daromad tushgan. Ichki savdo-sotiqda Xivaning **usti yopiq bozori** alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bozor yo'lining ikki tarafiga ustaxona-do'konlar qurilgan. Bozordagi savdo o'rinlaridan foydalanganlik uchun **tagjoy** deb ataluvchi alohida soliq olingan.

Xonlikdan, asosan, qorako'l teri, gilam, hunarmandchilik mahsulotlari **Eron, Hindiston, Xitoy va Turkiya** kabi davlatlarga eksport qilingan.

**XVI asr oxirlaridan Rossiya** bilan ham savdo-sotiq birmuncha yo'lga qo'yila boshlandi. Xiva elchilari, asosan, gazlama va to'qilgan buyumlar olib borishgan. Chunonchi, Xiva elchisi **1620-yili Qozon** shahrida **670 kiyimlik mato** sotganligi manbalarda qayd etilgan. Ros-

siyaga g'ifam, qoqi meva, qorako'l teri, o'simliklardan tayyorlangan bo'yoqlar ham olib borilgan.

Rossiyaning Xiva xonligiga yuborgan elchilariga Xiva mahsulotlarini xarid qilish topshirig'i ham berilgan. Xiva savdogarlari Rossiyaning **Nijniy Novgorod** yarmarkasida faol qatnasha boshlaganlar.

**Ilm-fan, XVI – XVIII asr 1-yarmi** Xiva xonligida ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgan emasdi. Bu davrda tarix ilmi o'ziga xos o'rinda turadi. Chunonchi, *Xiva xoni Abulg'ozixon Xiva tarixshunosligi maktabiga asos soldi.*

Abulg'ozixon fan va madaniyat tarixiga ikki muhim asari («**Shajarayi turk**» va «**Shajarayi tarokima**») bilan o'chmas nom qoldirdi.

«**Shajarayi turk**» asarining **9-bobi** bevosita Xorazmning **1512 – 1663-yillardagi** ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlangan. Unda aniq tarixiy voqealardan tashqari turkiy xalqlar an'analari, Xiva va Buxoro munosabatlari jarayoni yoritilgan. Pul muomalasi haqida ma'lumotlar berilgan.

Abulg'ozixonning yana bir katta xizmati shundan iboratki, u o'z asarlarini oddiy kitobxon uchun **turkiy tilda** yozgan. Shuning uchun ayrim olimlar uning asarlarini **yangi o'zbek tili** yozma yodgorligi deb hisoblashadi.

Vengriyaning mashhur sharqshunosi **A.Vamberi**: «*Abulg'ozixonning «Shajarayi turk»i uchun butun dunyo undan minnatdor*», – deb yozgandi. Bu asar bir necha asrlardan beri ko'plab tillarga tarjima qilib kelinmoqda. Abulg'ozixonning topshirig'i bilan «**Dasturul amal**» asari ham yozilgan. Afsuski, bu asar muallifi hamon aniqlangan emas. Ushbu asarda **Sohibqiron Amir Temurdan tortib Zahiriddin Muhammad Boburga qadar** temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan. Har bir hukmdorga qo'lyozmaning bir bo'limi bag'ishlangan.

**Qo'lyozma kitob san'ati, XVI asrda** Xiva xonlari saroy kutubxonalarida xattotlik, husnixat maktabi shakllandi. Mashhur xattot **Hamadoniy 1556-yili Eshmuhammadxonga «Shohnoma»ni** miniatyuralar uchun ochiq joy qoldirib ko'chirib berdi. **XVII – XVIII asrlarda** Xivada **Muhammad Yusuf Rojiiy, Bobojon Sanoiy, Muhammad Rizo Oxund** kabi qator usta xattotlar yashab mehnat qilganlar. Ular she'riy asarlar, tarjima va tarixiy kitoblarni ko'chirganlar. Har bir kitobni bezashda bir necha soha ustalari ishtirok etganlar. Bular *qog'oz qirquvchi, kotib-xattot, muzahhib, lavvoh, lavha chizuvchilar, miniatyurachi rassom va sahhoftlar* edilar. Xiva qo'lyozmalarida, Buxoro qo'lyozmalaridan farqli o'laroq, mundarija manzarali qilib bezatilmagan.

## 14-BOB. XVIII ASRNING 2-YARMI VA XIX ASRNING 1-YARMIDA XIVA XONLIGI

### 14.1. XIVA XONLIGIDA QO'NG'IROTLAR SULOLASINING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI

Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat hukmron tabaqalarning urushlari va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etardi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'irot qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o'laroq XVIII asrning 60-yillaridan Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'irot qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga o'la boshladilar.

Yirik zodagonlar va ruhoniy tabaqaning madadiga tayangan qo'ng'irot qabilasining yo'l boshchisi **Muhammad Amin 1761-yil inoqlik** lavozimiga ko'tarilgan. U turkmanlarning yovmut va chovduz qabilalariga qarshi kurash olib borgan. Biroq u dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoroga – **Doniyolbiy otaliq** yoniga ketadi. Turkman qabilalari Xorazmni egallab, **Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod** shaharlarini xonavayron qiladilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, o'zbeklar **Orol** va **Buxoroga** ketishga majbur bo'ladilar. **1770-yil** Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi.

Muhammad Amin mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U xon avlodidan bo'lmagani sababli taxtga Abulfayzxonning o'g'li **Bo'lakayxonni** nomiga, qo'ng'irchoq xon sifatida o'tqazadi. Hokimiyatni esa o'zi boshqaradi. **1782-yil** Buxoro amirligi qo'shinlarining hujumini qaytarib, Xiva xonligi mustaqilligini saqlab qoladi. Xiva xonligini boshqargan Muhammad Amin inoq **20 yil** davomida **13 marta** soxta xonlarni almashtirgan.

Hukmronligining so'nggi yillarida o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayangan hamda turli turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizolardan oqilona foydalana olgan Muhammad Amin mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilishini ta'minlaydi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar. Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi.

Muhammad Amin ham, uning o'g'li **Avaz (1790 – 1804)** ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqarganlar. Qozoq-chingiz biylaridan soxta xonlar chaqirilib turilgan. Hokimiyat amalda **inoq** va maxsus **kengash** tomonidan boshqarilgan. Kengash tarkibiga *qo'shbegi, mehnat, vazir va otaliqlar* kirgan. Inoq va kengash soxta xon nomidan ish yuritgan.

Faqat Avazning o'g'li **Eltuzar (1804 – 1806)** hukmronligi davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi. Nafaqat to'xtatildi, ayni paytda 1804-yiliyoq chetdan chaqirilgan soxta xon **Abulg'ozini** taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qildi. Shu tariqa qo'ng'irotlar sulolasi Xiva xonligi taxtini rasman egalladi. Bu sulola **1920-yilga qadar** Xiva xonligini idora qildi.

Eltuzarxon xonlikda markazlashgan davlat siyosati yuritish uchun harakat qiladi. **1804-yili** **Eltuzarxon** Buxoroga yurish qildi. **1806-yili** Amudaryo bo'yida bo'lgan hal qiluvchi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi, **Eltuzarxon** ham halok bo'ldi.

*Muhammad Rahim I davrida Xiva xonligi.* **Eltuzarxon** vafot etgach, taxtga uning ukasi **Muhammad Rahimxon I** o'tirdi. Muhammad Rahim I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi.

Bo'ysunishni istamagan yovmut qabilasi **Xurosonga** ko'chib ketdi. Biroq Eron hukumatining tazyiqi ostida, shuningdek, yaylov maydoni topilmaganligi uchun, yana Xiva xonligi hududiga qaytib keldi. Endi ular Xiva xoni tomonidan ajratib berilgan hududga joylashishga majbur bo'ldilar. Shu davrdan boshlab yovmut qabilasining taqdiri Xiva xonligi bilan uzil-kesil bog'landi va ular xonlik fuqarolari tarkibiga olindi. Ularga ham soliq to'lash belgilandi. Shuningdek, xon qo'shiniga belgilangan miqdorda navkar yuborish majburiyati ham yuklandi.

Muhammad Rahimxon I o'zbeklar va turkmanlardan tuzilgan qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurash olib bordi. Bu kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira bordi.

Muhammad Rahim I ga dushmanlik ruhidagi **Orolbo'yi** zodagonlari guruhi qattiq qarshilik ko'rsatdi. **1811-yili** uning ham qarshiligi sindirildi. **Qo'ng'iro't** shahri yakson qilindi. Xiva xoni mustaqil bo'lib ajralib chiqqan **qoraqalpoqlarni** bo'ysundirishga kirishdi. Qoraqalpoqlar Buxoro amiri **Haydardan** yordam olishga harakat qildilar. Bunga erisha olmagach Xiva xonligiga bo'ysunishga majbur bo'ldilar.

**1812 – 1820-yillar** oralig'ida qozoqlarning **Kichik juz xonligi** hududiga **2 marta** hujum uyushtirildi. Buning oqibatida xonlik hududlarining yanada kengayishiga erishildi. **1813-yili Shimoliy Xurosonda**

joylashgan turkmanlarning **takya** qabilasi Xiva xonligiga qaramligini tan olishga va belgilangan hajmda soliq to'lab turishga majbur etildi. **1822-yili** esa **Marv** shahri xonlikka qo'shib olindi. **1824-yili Yangi Marv** shahri bunyod etildi.

Muhammad Rahimxon I bo'ysundirilgan qabilalar zodagonlarining qabila orasidagi mavqeyi nihoyatda qudratli bo'lganligini hisobga olib ularga yer-mulk va turli imtiyozlar in'om etgan. Bu omil xonlikda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi kerak edi.

Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda, mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Uning hududlari yanada kengaydi.

Xiva xonlari **Olohqulixon (1825 – 1842)** va **Muhammad Aminxon (1846 – 1853)** davrida ham o'zaro urushlar to'xtamadi. Olohqulixon **Buxoroga 7 marta, Xurosonga 5 marta** yurish qilgan bo'lsa, Muhammad Aminxon **Marvga 10 marta** yurish qiladi. O'nlab shahar va qishloqlar talandi. Zulm, talonchilik davom etdi. Xalq turmushi og'irlashib bordi.

#### 14.2. XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSATI

Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi. **Xiva – Rossiya** munosabatlarida muhim jihat shunda ediki, o'zaro savdodan har ikkala davlat ham birdek manfaatdor edi. Xiva savdogarlari uchun Rossiyaga boradigan savdo yo'llari xavfsiz edi. Shuningdek, Xiva xonligida Rossiya zavod va fabrikalari ishlab chiqargan tayyor iste'mol tovarlariga ehtiyoj baland edi. Ayni paytda, Rossiya Xiva xonligiga o'z tovarlarini sotadigan bozor deb qarardi. Rossiya tovarlari Yevropaning ilg'or davlatlari tovarlari bilan raqobat qilolmayotgan bir davrda bu juda muhim edi. Ikkinchidan, Xiva xonligi, Rossiya sanoati uchun zarur xomashyo mahsulotlarini arzon narxlarda yetkazib beruvchi o'lka ham hisoblanardi.

Biroq har ikki davlat o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining qaror topishiga to'sqinlik qilgan omillar ham mavjud bo'lgan. Bular: savdo karvonlariga hujum qilish xavfining mavjudligi, har ikki taraf tomonidan Kichik juz qozoqlarini va qoraqalpoqlarni o'z fuqarolari deb hisoblashlari; shuningdek, har ikki tomonning o'zaro savdodan olinadigan boj hajmi masalasida uzoq vaqt bir to'xtamga kela olmaganliklari bilan bog'liq edi.

N.Muravyov ekspeditsiyasi. Rossiya hukumati **1819-yili** Xivaga rus armiyasi zobiti **N.Muravyovning** ekspeditsiyasini jo'natdi. *Ekspedit-*

*siyaning maqsadi turkmanlar yerini, Xiva xonligining turkmanlar bilan munosabatini hamda yangi savdo yo'li ochilishi (Xiva – Turkmanlar yeri – Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'i – Boku – Astraxan) istiqbol-larini o'rganish edi.*

Ekspeditsiya dastlab turkmanlarning yovmut qabilasi joylashgan hududda bo'ldi. Yovmutlarning Rossiya fuqaroligiga o'tish istaklarini o'rgandi. Shundan so'ng N.Muravyov Xivaga yo'l oldi va Rahimxon qabuliga kirishga ham erishdi. Biroq Xiva xoni savdo yo'lining o'zlashtirilishiga rozi bo'lmadi va O'rta Osiyoning boshqa xonliklari bilan munosabatlarida Rossiya harbiy yordamiga tayanish mumkinligi haqidagi taklifni ham rad etdi.

Chunki Muhammad Rahimxon Rossiyaning yovmut qabilasini o'z fuqaroligiga qabul qilish istagi tagida aslida nima yotishini anglab yetgandi. Bundan tashqari, Rossiya hukumatining savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash bahonasida chegarada mustahkam istehkomlar qurish haqidagi rejalari Xiva hukmron doiralari cho'chitib ham qo'ygandi.

S.Sialkovskiy va V.Perovskiy ekspeditsiyalari. Rossiya hukumati savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida qo'riqchi harbiy qism ajratishga qaror qildi. **1824-yili Orenburg** savdogarlari **S.Sialkovskiy** boshchiligidagi harbiy qism hamrohligida yo'lga chiqdi. Bu savdo karvoni Buxoro amirligiga borishi kerak edi. **1825-yil yanvar** oyida karvon Xiva qo'shini qarshiligiga uchradi. Xiva amaldori karvonning Buxoroga emas, Xivaga yuborilishini talab qildi. S.Sialkovskiy bu talabni rad etdi va orqaga qaytishga qaror qildi. Xiva qo'shini Buxoroga olib boradigan savdo yo'lini bekitib qo'ydi. Bu hodisa Rossiya – Buxoro savdo aloqalariga katta ziyon yetkazish xavfini tug'dirdi.

Xiva – Rossiya munosabatlari keskinlashgan bir sharoitda Muhammad Rahimxon II vafot etdi. Taxtga o'g'li Oллоhqulixon o'tirdi. U Xiva – Rossiya munosabatlaridagi keskinlikni yumshatishga urindi.

*1826 – 1829-yillardagi Eron – Rossiya va 1828 – 1829-yillardagi Rossiya – Turkiya urushi* Rossiyani Xiva bilan munosabatlarini yanada keskinlashtirishdan o'zini tiyishga majbur etdi. Bu orada Buyuk Britaniya razvedkasi O'rta Osiyo xonliklariga suqilib kira boshladi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya tovarlarining xonliklar bozorini to'ldirish xavfi ham vujudga keldi. Bundan tashqari, **Eron** bilan urush oqibatida Rossiya – Eron savdo-sotiq ishlarining ahvoli yomonlashdi. Bunday paytda O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni har qachongidan ko'ra rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Ayni paytda, Rossiya hukumati rus

asirlarini ozod etishni ham talab eta boshladi. Biroq Rossiya hukumati Xiva xonligiga nisbatan o'z talablari doirasini tobora kengaytirib bordi. Chunonchi, u keyinchalik Xivadan Amudaryoda Rossiya savdo kemalarni suzishiga ruxsat berishini ham talab eta boshladi.

Bora-bora Rossiya Xiva bilan munosabatni harbiy yo'l bilan tartibga solish yo'lini tanladi. Shu maqsadda **1839-yili V.Perovskiy** harbiy ekspeditsiyasi tashkil etildi. Uning ixtiyorida *4 ming piyoda askar, 12 ta to'p va yuk ortilgan o'n ming tuya* bor edi. Biroq Ustyurtning qattiq sovug'i, oziq-ovqat va yem-xashakning yetishmasligi oqibatida ekspeditsiya talafot ko'rdi. Oqibatda V.Perovskiy orqaga qaytishga majbur bo'ldi. U **1840-yil iyun** oyidagina **Orenburgga** qaytib kela oldi. Lekin ekspeditsiya izziz ketmadi. V.Perovskiy ekspeditsiyasi Xiva xonini Peterburg bilan kelishuv yo'lini axtarishga majbur etdi.

Josus Jeyms Abbot. Xonlikda ingliz razvedkasi ham faoliyat boshladi. Chunonchi, **1840-yili** Xivaga kapitan **Jeyms Abbot** keldi va u Ollohqulixon bilan uchrashdi. U Xiva xonini Rossiyaga qarshi harbiy istehkomlar qurishga da'vat etdi. U bunday istehkomlar qurilishi mumkin bo'lgan joylarni aniqlash bo'yicha ish olib borayotgan paytda Rossiya harbiylari tomonidan asir olindi va **Peterburgga** jo'natildi. U yerdan **Londonga** jo'natib yuborildi. Shu tariqa Buyuk Britaniya razvedkasi Xiva va Rossiya o'rtasida harbiy harakatlar keltirib chiqarishdek maqsadiga erisholmadi.

«Majburiyatlar akti». Rossiya hukumati Xiva xonligi bilan munosabatlarga aniqlik kiritish maqsadida **G.Danilevskiy** boshchiligidagi elchilik missiyasini yubordi. Muzokaralar davom etayotgan kunlarda Ollohqulixon vafot etdi. Taxtni o'g'li Rahimqulixon egalladi. Muzokaralar yakunida **1842-yil 27-dekabrda** Xiva – Rossiya o'rtasida **«Majburiyatlar akti»** deb ataluvchi shartnoma imzolandi.

Aktda Xiva xonining Rossiya bilan tinchlik, mustahkam do'stlik munosabatida bo'lishi e'lon qilindi. Bundan tashqari, aktda Xiva xoniga *Xivaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik harakatlaridan voz kechishi, savdo karvonlarining hamda qozoq qabilalarining talanishiga yo'l qo'ymaslik; rus asirlarini saqlamaslik; Rossiya fuqarolarining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlash* kabi majburiyatlar yuklandi.

Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalariga ham katta e'tibor berildi. Chunonchi, boj to'lovlari Rossiya tovarlari qiymatining **5%** miqdoridan oshmasligi belgilab qo'yildi. Biroq «Majburiyatlar akti» qog'ozda qolib ketdi. O'zaro munosabatlar keskinlashib bordi.

### 14.3. XIVA XONLIGINING IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI

Ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyati. Xiva xonligining ijtimoiy hayotida Buxoro xonligidagidek sokinlik hukm surardi. Bu sokinlikning sababi xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligida edi. Mamlakatda uzoq vaqt siyosiy tarqoqlik hukm surgan, natural xo'jalik ustun bo'lgan, to'xtovsiz davom etgan o'zaro ichki urushlar hamda tashqi hujumlar oqibatida mamlakat iqtisodiyoti izdan chiqqan sharoitda ijtimoiy hayotning bundan boshqacha bo'lishi mumkin emasdi.

Xonlik aholisi. XIX asrning 20-yillari boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Xiva aholisining soni **300 ming kishini** tashkil etgan. Bu raqam qat'iy bo'lmasdan, xonlik hududining kengaya borishi bilan xonlik fuqaroligini qabul qilganlarning soni ko'payib borgan.

Xonlik poytaxti **Xiva** shahrida **4 ming** aholi yashagan. Aholining katta qismi **o'zbeklardan** iborat bo'lgan. Undan keyingi o'rinlarni **turkmanlar, qoraqalpoqlar va qozoqlar** egallashgan. O'zbeklar, asosan, **qo'ng'irot, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq** kabi urug'larga mansub bo'lgan.

Davlat tuzumi va boshqaruv tizimi. Xonlik mutlaq monarxiya bo'lib, oliy hukmdor – **xon** davlat boshlig'i edi. Ma'muriy jihatdan xonlik hududi **15 ta viloyatga** (*Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'pir, G'azovat, Qiyot, Shohabbos, Toshhovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Chumanoy va Qo'ng'irot*) va **2 ta noiblikka** (*Beshariq va Qiyot-Qo'ng'irot*), shuningdek, xonning bevosita o'ziga bo'ysundirilgan **tumanlarga** bo'lingandi. Davlat boshlig'i – **xon** hokimiyati vakolati nasldan naslga o'tgan. Xondan keyingi o'rinda dastlabki asrlarda **inoq** turgan. XIX asrning 1-yarmidan boshlab esa inoqning mavqeyi pasaya borgan. **Muhammad Rahimxon I** davrida nufuzli amaldorlardan iborat **Devon** tuziladi. Devon davlat hayotiga oid masalalarni hal etgan. Devonda xondan keyingi o'rinda **qo'shbegi** turadigan bo'ldi. U xonning birinchi yordamchisiga aylandi. Xonning barcha yorliq va farmonlari uning qo'lidan o'tgan.

Qushbegidan keyingi o'rinda **mehtar** turgan. U xonlikning **moliya vaziri** edi. Bundan tashqari, **devonbegi, shayxullisom, qozikalon, eshon rais, mirzaboshi, mirshab, mahram, katta beklar** (viloyat va katta shaharlar hokimlari), **kichik beklar** va **xon maslahatchilari** kabi turli lavozimlar bo'lgan. Xonning ishonchli vakillari hisoblangan inoqlarning mavqeyi kuchli bo'lgan davrlarda ulardan **5 kishi** a'zo bo'lgan «**Xon kengashi**» (maslahat kengashi) faoliyat ko'rsatgan.



Xonga sadoqat bilan xizmat qilganlarning lavozimlari ba'zan o'g'illariga meros qilib berilgan. *Viloyatlarni beklar, noibliklarni xon tayinlagan noiblar boshqargan*. Ular, asosan, **moliya va mirshablik** vazifalarini bajarganlar.

Xonlik tarkibidagi qozoq va qoraqalpoqlar esa o'zlarining biylari, turkmanlar esa ularning vakili tomonidan boshqarilgan. Ularning lavozimlari nasldan naslga meros bo'lib o'tsa-da, nomzodini xon tasdiqlashi shart bo'lgan.

Yer egaligi. Xonlikning asosiy boyligi yer hisoblanardi. Bu yerlar sug'oriladigan (**axya**) va sug'orilmaydigan (**adra**) yerlardan iborat edi. **Egalik shakliga ko'ra** Xiva xonligining yerlari ham **uchga** bo'lingan: 1. *Davlat yerlari (podshohi)*. 2. *Xususiy mulk (xususiy yerlar)*. 3. *Vaqf yerlari*.

Xon va uning qarindoshlari, oliy martabali boshqa turli amaldorlar, ruhoniylar, savdo-sotiq tabaqalari barcha yerlarning deyarli **yarmiga** egalik qilishgan. Amaldorlarning yerlari **2 – 3 ming tanobni** tashkil etgan. Xon va uning qarindoshlari undan ham katta hajmdagi yer maydonlariga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida va xususiy mulk yerlarida ijara-chi dehqonlar mehnat qilganlar. Ijara yerlarining hajmi **10 tanobgacha** bo'lgan.

Xon va boshqa xususiy mulk yerlarida dehqonchilik qiluvchilar **yarimchilar** deb atalgan. Bunday deb atalishiga ular yetishtirgan hosilning yarmini ijara haqqi uchun berganliklari sabab bo'lgandi.

Xonning qarindoshlari o'z xususiy yerlaridan davlatga soliq to'lamasdilar. Davlat soliqlaridan **ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yer olganlar** ham ozod etilgandi. Mayda yer egalari tobora xonavayron bo'lib borganlar. Oxir-oqibatda ular yerlaridan judo bo'lganlar.

Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishi, yirik sanoatning mutlaqo yo'qligi oqibatida G'arbiy Yevropa davlatlarida yersiz dehqonlar shaharga ish izlab borishdek imkoniyatga ega bo'lmagan. Oqibatda ular qishloqda qolishga majbur bo'lganlar.

Suv tanqisligi tufayli dehqonchilik qiyin sharoitda olib borilardi. Shu boisdan Amudaryodan suv chiqarishga e'tibor berildi. **XVIII asr 70-yillarida Davkor ko'li** yonida kanal, **XIX asr boshlarida esa Lavzan kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Katta Xonobod kanali** qurildi. Bu tadbirlar yerlarni sug'orish holatini yaxshilashga ko'maklashdi.

Soliq va majburiyatlar. Xiva xonligida soliq va majburiyatlar haddan tashqari ko'p bo'lgan. Asosiy soliq **salg'ut**, ya'ni yer sofig'i edi. Bundan

tashqari, **alg'ut** (bir yo'la to'lanadigan soliq), **miltiq puli** (qurol sotib olish uchun aholidan yig'iladigan jarima), **arava oluv** (aholining qo'lidagi aravalarini davlat ishlariga safarbar etish), **uloq tutuv** (aholining qo'lidagi otlar va tuyalarni safarbar etish), **qo'nalg'a** (elchilar va amaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish), **so'ysun** (qo'nalg'a chog'ida amaldorlarni mehmon qilish uchun mol so'yish), **chopar puli** (soliq yig'ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq to'lash), **tarozuyona** (tarozibonga to'lov haqi), **mirobona** (mirob uchun yig'im), **darvozabon puli** (yukni o'tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovuliga to'lanadigan haq), **mahalliy hukmdorga haq to'lash**, **qorovulga haq to'lash**, **pul solig'ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to'lash**, **qo'riqbonga** (o'rmon yoki yaylov nazoratchisiga) **haq to'lash**, **mushrifona** (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga haq to'lash), **afanak puli** (begar majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq), **chibik puli** (ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq), **ruhoniylarga to'lanadigan haq**.

Ko'rinib turibdiki, mehnatkash xalq **18 ta** soliq va boshqa to'lovlar to'lagan. Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, chorvadorlar **zakot** to'lashgan.

Bundan tashqari, mehnatkash xalq tinkasini qurituvchi quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o'taganlar:

**1. Begar** – rasman **12 kunlik** davlat majburiyati; unga ko'ra, qishloqning har bir xonadonidan **bir kishidan** odamlarni to'plashardi. Ular har yili *turti qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo'llarni tuzatishda, xon saroylari qurilishida* ishlardilar. Begarning muddati 12 kun deb belgilangan bo'lsa-da, aslida u **bir oy, undan ko'proqqa ham** cho'zilardi. **2. Qazu** – butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati. **3. Ichki va obxo'ra qazu** – har yili kanallarning suv taqsimlagichini tozalash majburiyati. **4. Hachi** – himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati. **5. O'tlanuv** – xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish. Sug'orish tizimi bilan bog'liq majburiyatlar oddiy mehnatkash xalq yelkasidagi og'ir yuk edi.

#### 14.4. XIVA XONLIGIDA SHAHARLAR HAYOTI

*Shaharlar hayotining umumiy manzarasi.* XVIII asr oxiriga kelib shaharlar hayotida uzoq davom etgan tushkunlik holati barham topdi. **XVIII asr 2-yarmi – XIX asr boshlarida** katta ko'lamdagi sug'orish inshootlarining tiklanishi hamda yangilarining bunyod etilishi ishlab chiqa-

ruvchi kuchlarning o'sishiga asos bo'ldi. Bu hodisa, o'z navbatida, shaharlarda hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoning o'sishiga olib keldi.

Biroq bu o'sishni Yevropa davlatlari iqtisodiyoti taraqqiyoti bilan aslo tenglashtirib bo'lmadi. Bu davr G'arbiy Yevropa davlatlari hayotida tub sifati o'zgarishlar davom etayotgan davr edi. Chunonchi, Buyuk Britaniyada boshlangan sanoat to'ntarishi Yevropaning boshqa ilg'or davlatlariga ham yoyilgan, XIX asr o'rtalariga kelganda esa u nihoyasiga yetayotgandi. Binobarin, Yevropa davlatlarida kapitalistik munosabatlar gurkirab rivojlanayotgandi. O'rta Osiyo xonliklarida, jumladan, Xiva xonligi jamiyati hayotida hamon o'rta asr yer egaligi munosabatlari hukmron edi.

**Me'morchilik.** XVIII asr oxirida Muhammad Amin hukmronligi davridan boshlab birmuncha siyosiy barqarorlik o'rnatildi. Bu omil Xiva shahrining holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 1782-yilga kelib Xiva shahrida qayta tiklash ishlari tugallandi. Qayta tiklash ishlardan tashqari yangi me'moriy obidalar ham qurildi. Masalan, 1765-yili Sherg'ozixon va Muhammad Amin madrasalari bunyod etildi.

XIX asr boshlarida Xiva xonligi poytaxti yirik qurilish maydoniga aylandi. Xon farmoyishi bilan karvonsaroy, usti yopiq bozor va ular oralig'ida 1834-yili Oллоhqulixon madrasasi qurilishi tugallandi.

1842-yili Muhammad Yoqub mehtar rahbarligida Xiva atrofida 6 km uzunlikdagi mustahkam shahar-qal'a devori va uning darvozasi qurib tugallandi. Natijada xonning shahar tashqarisidagi 2 saroyi ham shahar ichiga kirdi. O'sha paytdan shahar hududining bu qismi **Dishan qal'a** – Tashqi shahar (qal'a) deb nomlana boshlangan. Xivaning kichik haliqali qal'a-devori bilan o'ralgan qismi **Ichhan qal'a** – Ichki shahar (qal'a) deb atalgan.

Xivada XIX asr 1-yarmiga kelganda jami 2 xon saroyi, 17 masjid, 22 madrasa mavjud bo'lgan.

Ichhan qal'a bobolarimizdan qolgan O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. U **ming gumbaz shahri** nomi bilan mashhur. Ichhan qal'a Xiva shahrining ichki qal'a (shahriston) qismidir.

**Ichhan qal'a.** Ichhan qal'a Dishan qal'adan devor bilan ajralib turadi. Unga **Bog'cha**, **Polvon**, **Tosh** va **Ota** deb nomlangan to'rtta darvoza orqali kirilgan. Xorazm o'lkasi me'morchiligining ajoyib obidalari – madrasa, masjid, saroy va minoralar Ichhan qal'ada joylashgan.

Mazkur asrlar davomida Ota darvozadan Polvon darvozagacha katta yo'l o'tkazildi.

XVIII asr oxirida Juma masjid qayta qurildi va uning yonida baland minora ham qad ko'tardi.

**1840 – 1842-yillarda ikki qavatli Qutlug' Murod Inoq madrasasiga qaratib tim va toqilar qurildi.**

Muhammad Rahimxon, Oллоhqulixon va Muhammad Aminxon hukmronliklari davrida Ichan qal'ada keng ko'lami yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi. Muhtasham saroy, madrasa, maqbaralar barpo etildi. Ko'hna arkdagi saroy qurilishi tugallandi. Yangi va katta Toshhovli saroyi qurildi. Polvon darvozaga yaqin qo'rg'on devorining bir qismi buzilib, o'miga *Oллоhqulixon karvonsaroyi, madrasasi va timi* qurildi.

Shuningdek, ajoyib me'morchilik namunasi Pahlavon Mahmud maqbarasi bunyod etildi. Bundan tashqari, Arab Muhammadxon va Musa To'ra madrasalari ham shu davrda qad ko'tardi.

Muhammad Aminxon esa Ichan qal'aning g'arbiy qismidagi Ko'hna ark yoniga Katta minor nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurirdi.

Ichan qal'ani bunyod etishda Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan davom etib kelayotgan an'ana – inshootlarni ro'parama-ro'para qurish usulidan foydalanishgan. Bu usul «qo'sh» deb ataladi.

Ichan qal'ani bunyod etishda, bundan tashqari, binolarni alohida ansambl holida qurish an'analari ham amal qilingan. Masalan, Polvon darvozasi oldidagi bir necha masjid, madrasa, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi ana shunday o'ziga xos ansamblni tashkil etadi. 1990-yili *Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan va muzeyga aylantirilgan.*

*Dishan qal'a.* Dishan – Tashqi qal'a Xiva shahrining rabod qismi hisoblanadi. 1842-yili Xiva xoni Oллоhqulixon Xiva shahrini tashqi dushmanlar hujumidan saqlash maqsadida shaharni uzunligi 6250 metr, balandligi 7 – 8 metr, devorining qalinligi esa 5 – 6 metr bo'lgan devor bilan o'ratgan.

Ichan qal'ada 4 darvoza bo'lsa, Dishan qal'a 10 darvozali bo'lgan. Dishan qal'aning ko'chalari Ichan qal'aning ko'chalari davomi tarzida qurilgan. Shaharning tim va savdo rastalari Dishan qal'ada joylashirilgan.

*Hunarmandchilik.* XVIII asr 2-yarmi va XIX asr 1-yarmida ham avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan hunarmandchilikning har xil turlari yanada rivojlandi. Me'morchilikning yuksalishi kulolchilikda ham o'z ifodasini topdi. Kulollar faqat alohida-alohida buyumlar tayyorlabgina qolmasdan, bir necha yuzlab lagan, tovoq va kosalardan iborat butun bir to'y marosimini o'tkazishga yetadigan to'y majmualarini ham tayyorlaganlar. Alohida tantanalar uchun maxsus to'y va podshoyi tovoqlar ham tayyorlangan.

**XIX asrning 30 – 40-yillariga** oid manbalarda Xivada zargarlik hunari mahorati yetakchi hunarlar qatorida tilga olib o'tilgan. Xivaning bosh taqinchog'i – **jig'a** O'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ham keng tarqalgan. *Isirg'alar firuza va marjonlar, bilaguzuklar esa toshlar bilan bezatilgan.* Bilaguzuklar har birining og'irligi **300 gramm**gacha bo'lgan. Xiva shahrida hunarmandchilikning yog'och o'ymakorligi, badiiy to'qimachilik, gilamchilik, kashtachilik, naqqoshlik kabi o'nlab turlari ham mavjud bo'lgan.

**XIX asrda** Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi xonlikda oldingi o'rinda turadi. U o'z badiiy yuksakligi bilan ajralib turardi. Bu o'rinda Ollohqulixon saroyidagi Toshhovli ayvon ustunlari majmuyi o'zining ko'rkamligi bilan ajralib turadi.

**XIX asr o'rtalarida** o'ymakori eshik va ustunlar ustasi **Polvon Abdusattor o'g'lining** nomi, ayniqsa, shuhrat qozondi.

Xiva shahri ayni paytda **XX asr boshlarigacha** xonlikda yagona **shoyi to'qish markazi** bo'lib qoldi. Hozirgi davrda ham gilam ustida ishlayotgan rassomlar **XIX asrning 1-yarmida** yuksak darajada bo'lgan Xorazm amaliy bezagi va san'ati an'alariga tayanadilar.

**XIX asrda** Xivada matoga gul bosish san'ati o'zining kulrang uyg'unligi va mayda gullari bilan O'rta Osiyoning boshqa gul bosish markazlaridan farq qilib turadi.

#### **14.5. XIVA XONLIGI TARIXI BO'YICHA MANBALAR**

*Arxiv hujjatlari.* Mana siz Xiva xonligining XVI – XIX asr 1-yarmi tarixi bo'yicha ma'lumotlar, birinchi navbatda, tarixiy hujjatlarni o'rganish natijasida to'plangan. Arxiv hujjatlari bugungi avlodni o'tmish tarixi bilan tanishtirishda beqiyos ahamiyatga ega. Olimlar u manbalarni o'rganadilar, sharhlaydilar va shu orqali o'tmish tarixini tiklaydilar. Xiva xonlari arxivi hujjatlari Rossiya xonlikni bosib olgach, **1873-yili, Peterburgga** olib ketilgan. Keyinchalik ular olimlar tomonidan topilib o'rganilgan va sharhlangan.

*Mahalliy tarixchilarning Xiva xonligi tarixi to'g'risidagi asarlari.* **XVII asrda** yashagan **Hasanbek Rumluning «Eng go'zal tarix»** asari **XVI asr 1-yarmidagi** Xiva tarixiga bag'ishlangan. Xiva xoni, tarixchi olim **Abulg'oz Bahodirxonning (1603 – 1664) «Shajarayi turk»** asari, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Unda juda katta tarixiy faktlar to'plangan. Asar turkiy qabilalar shajarasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shuningdek, kitobxonni Xiva va xivaliklar, shuningdek, Abulg'ozining

ham o'zaro urushlar oqibatida parchalanib ketgan davlatni birlashtirish yo'lida olib borgan shiddatli kurashi bilan ham tanishtiradi. Asarning **1512 – 1663-yillar** oralig'idagi Xiva ijtimoiy-siyosiy tarixiga, Xiva – Buxoro munosabatlariga bag'ishlangan **IX bobi** tarix fani uchun, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

Mahalliy mualliflar orasida Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari ham tarix uchun muhim manba hisoblanadi. Munisning «**Firdavs ul-iqbol**» deb ataluvchi tarixiy asari **1806-yili** **Eltuzarxonning** topshirig'i bilan yozilgan. Asar Xivaning **XVI asrdan 1812-yilgacha** bo'lgan tarixini qamrab olgan. Munis vafot etgach, xonlik tarixini yozish ishini **Ogahiy** davom ettirgan. U bitgan tarixiy asar «**Shohidi iqbol**» deb atalib, o'zida **1872-yilgacha** bo'lgan tarixni aks ettiradi. **Xudoyberdi Avaz Muhammadning 1831 – 1832-yillarda** yozilgan «**Dili g'aroyib**» asari ham Xiva xonligi, uning shaharlari haqida muhim ma'lumotlar beradi. Xiva xonligining **1872 – 1911-yillardagi** tarixini Xiva xoni **Asfandiyorxonning** topshirig'i bilan **1912-yili** **Yusufbek Bayoniy** yaratgan.

Xiva tarixi bo'yicha rossiyalik mualliflarning asarlari. **1725-yili** Xivaga Rossiya elchisi bo'lib kelgan **Florio Beneveni** esdaliklarida ilmiy jihatdan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan. **1793 – 1794-yillarda** Orenburgdan Xivaga **oftalmolog vrach Blankennagel** taklif etilgan. U xonning ko'zi oqiz bo'lib qolgan amakisini davolagan. U yozib qoldirgan esdalik ma'lumotlar juda qimmatli edi.

Rossiya elchisi sifatida Xiva xonligiga **1819-yili** kelgan **N.I.Muravyov** ham yozib qoldirgan esdaliklar eng qimmatli manbalar qatorida turadi. «**Esdaliklar**» Xiva to'g'risida, qadimiy obidalar, davlat boshqaruvi tizimi, hunarmandchilik va savdo-sotiq to'g'risida batafsil ma'lumotlardan iborat. Shuning uchun bu kitob fransuz va nemis tillariga ham tarjima qilingandi. Muallif asarida o'zbek xalqiga xos xususiyatlar haqida to'xtalib, o'zbeklarni «*aql-idrokli, suhbatlari yoqimli va o'tkir, qat'iyatli, matonatli, urf-odatli oddiy, yolg'on va aldovdan nafratlanuvchi, harbiy ishda hormay-tolmaydigan mard va jasur kishilar*» deb ta'riflagan ham edi. N.I.Muravyov o'z fikrini davom ettirib yana quyidagilarni qayd etgan: «*Xiva shahri keng maydonda bog'-rog' bilan o'ralgan. Atrofi esa devor bilan o'ralgan hamda Amudaryodan suv quvuri o'tkazilgan. Xiva aholisi o'zining mashaqqatli mehnati bilan cho'l-u biyobonni hosildor o'lkaga aylantirgan. Atrof hammasi ekinzor maydon. Bug'doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog'. Chorvachilik ham rivojlangan*».

**1842-yili** Xiva va Rossiya o'rtasida «Majburiyatlar akti» shartnomasining imzolanishiga erishgan elchi **G.Danilevskiy** o'zi bilan Xivaga

kelgan tabiatshunos olim **R.Baziner** bilan birgalikda «**Xiva va xonlikning boshqa shaharlari hamda qishloqlari, savdo-sotig'i va sanoati**» nomli asar yozib qoldirganlar.

**1858-yili** Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari **N.Ignatyev** yozib qoldirgan esdaliklar ham Xiva tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Taniqli sharqshunos olim **N.Vasilevskiyning** «**O'zbeklar Xorazmda**», «**Inoqlar hukmdorligi**» va «**Qo'ng'iro't sulolasi**» asarlari Xiva xonligining XVI asr va undan keyingi asrlar tarixiga bag'ishlangan.

Bundan tashqari, Xiva bilan Rossiyaning XVIII – XIX asrlardagi o'zaro aloqalari yana bir sharqshunos olim **S.Jukovskiyning** «**Rossiyaning keyingi 300 yilda Buxoro va Xiva bilan aloqasi**» asarida o'z ifodasini topgan.

*Yevropa sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan manbalar.* Yevropa mamlakatlari sayyohlari va olimlari yozib qoldirgan asarlar ichida ingliz savdo va diplomatiya vakili **A.Jenkinsonning** esdaliklari Xiva xonligining XVI asr tarixi haqida muhim ma'lumot beradi. Jenkinson esdaliklari «**Jenkinsonning Xiva va Buxoroga sayohati**» deb nomlangan. Yevropa sayyohlari ichida taniqli venger sharqshunos olimi **A.Vamberi** yozib qoldirgan «**O'rta Osiyo bo'ylab sayohat**» deb ataluvchi asar Xiva tarixi bo'yicha ham eng qimmatli manbalardan hisoblanadi. Uning esdaliklari o'zbek tilida ham chop etilgan.

*O'zbekiston olimlarining Xiva xonligi tarixiga oid asarlari.* O'zbekiston olimlari ham Xiva xonligi tarixini o'rganish ishiga katta hissa qo'shganlar. Ular orasida akademik **I.Mo'minov** boshchiligida yaratilgan «**Xorazmning qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi**» (1976-yil) alohida qimmatga ega.

Xorazmning eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha, shu jumladan, XVI – XIX asrlar 1-yarmi tarixi haqida Xiva shahrining 2500 yilligi yubileyi munosabati bilan chop etilgan «**Xiva ming gumbaz shahri**» kitobi ham tarixiy faktlarga juda boy asardir (1997-yil). 1962-yil Xiva xonlari arxivi Toshkent shahriga olib kelingan va O'zbekiston markaziy davlat arxivida saqlanmoqda.

## 15-BOB. XVI – XIX ASRNING 1-YARMIDA QORAQALPOQLAR

### 15.1. QORAQALPOQ XALQINING SHAKLLANISHI VA SIYOSIY HAYOTI

Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi tarixidan. Tarixiy manbalarda hozirgi Qoraqalpog'iston hududida odamlar **neolit** davridayoq yashaganligi qayd etiladi. Qadimgi tarixiy yodgorliklardan bo'lmish **Doro I** (mil. avv. 522 – 468-yillarda podsholik qilgan) qabri ustidagi toshlarga **mil. avv. V asrda** mixxat bilan o'yib yozilgan bitiklarda Orolbo'yi va Sirdaryoning quyi oqimida yashagan aholi «**saka tigraxauda**» (cho'qqi qalpoqli saklar) deb atalgan.

**Milodiy II – VIII asrlarda** Orolbo'yi dashtlariga bir qator turkiy qabilalar kirib kelib joylashganlar. Mahalliy aholining kirib kelgan qabilalar bilan qo'shilishi natijasida Orolbo'yida **bijanaklar** va **o'g'uzlar** shakllangan. Bijanaklar negizida **VIII – X asrlarda** qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni boshlangan.

**X asr boshlarida** bijanaklarning bir qismi **Volga ortiga, Janubiy Rus dashtlariga** ko'chib o'tishga majbur bo'lganlar. Bunga o'g'uzlar va qipchoqlarning siquvi, tazyiqi sabab bo'lgan.

**XII asr** rus yilnomalarida «**chyorniye klobuki**», mo'g'ullar tarixida «**qora malaqayli**», sharq manbalarida esa «**qora bo'rkli**» deb atalgan qavm haqida ma'lumotlar bor. Bu nomlar qoraqalpoqlarga tegishlidir. «**Qoraqalpoq**» so'zi qoraqalpoqlilar so'zidan kelib chiqqan.

Oltin O'rda zaiflashgach, uning tarkibidan qator mustaqil davlatlar ajralib chiqqan. Bu davlatlarning biri – **XIV asr oxirida** tashkil topgan **No'g'ay (Mang'it) xonligi** edi. Uning chegarasi – *Volga daryosidan Irtish daryosigacha, Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridan Kama daryosigacha* bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Binobarin, qoraqalpoqlar ko'chib borib joylashgan hududlar **XV – XVI asrlarda** No'g'ay xonligi hududiga kirgan. No'g'ay va qoraqalpoq xalqlari o'zaro siyosiy hamkorlikda, birlashmada yashaganlar.

No'g'ay tili tarkibi, fonetikasi va grammatik qurilishi jihatidan qoraqalpoq tiliga juda yaqin. Shu tariqa **XVI asrga** kelib bir necha urug'lardan iborat qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan. Bu xalq **olti** qabila (**xitoy, qipchoq, kenagas, mang'it, qo'ng'iroq** va **mo'yten**) negizida shakllangan.

Qoraqalpoq xonligining tashkil topishi. Qoraqalpoq davlatchiligi no'g'ay (mang'it)lar yetakchisi **Idigu** (Edigey) boshchiligida **XIV asr oxir-**



larida tashkil etilgan No'g'ay xonligi (O'rdasi)dan boshlanadi. 1419-yili Idigu o'ldirilgach, taxt uchun kurash kuchayib, xonlik kuchsizlanadi.

**XVI asrning 2-yarmida** No'g'ay xonligi **3 qismga** – **Olti ul o'rdasi**, **Kichik o'rda** va **Katta o'rdaga** bo'linib ketgan.

**XVII asr boshlarida** no'g'aylar Volga va Yoyiq daryolari bo'ylariga bostirib kelgan **jung'orlar** (qalmoqlar) tomonidan tor-mor etiladi. No'g'aylar **Qrimga** ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Ularning Olti ul o'rdasi tarkibiga kiruvchi qoraqalpoqlar esa **Orol** va **Sirdaryo** bo'ylariga kelib o'mashadilar.

Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida **biylar** va **botirlar** (harbiylar boshlig'i) muhim o'rin tutganlar. Biylar qoraqalpoq urug'lariga boshchilik qilganlar hamda ularning ichki huquqiy va xo'jalik ishlariga doir muammolarni hal qilganlar. Shuningdek, biylar qo'shni xalqlar bilan munosabatlarda o'z urug'i yoki qabilasi nomidan vakil sifatida qatnashganlar. **XVI – XVII asrlarda** qoraqalpoqlar yo **Buxoro xonligiga**, yo **Qozoq xonlariga** tobe bo'lganlar.

**XVIII asr boshlariga** kelib Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qilganlar. Ularning birlashish jarayonida **Sig'noq** singari qadimiy qo'rg'on-shaharlar tayanch bo'lgan. Qoraqalpoqlarning birlashuvida **Kuchukxon**, **Taburchak** va **G'oyib sultonlar** muhim rol o'ynaganlar. Buning natijasi **1714-yili** Sirdaryobo'yi qoraqalpoqlari o'z yetakchilari **Eshmuhammad** (Eshimxon) boshchiligida davlatga – **Qoraqalpoq xonligiga** birlashtirilgan. Bu davlat *Sirdaryoning quyi oqimi, Volga bo'ylari jung'orlari, Boshqirt ulusi va Kichik juz qozoq xonliklari* bilan chegaradosh edi.

**1723-yili** jung'orlar bostirib kelib, Sirdaryoning o'rta qismini egalagach, qoraqalpoqlar yana ko'chishga majbur bo'ladilar. Ko'chish oqibatida qoraqalpoqlar ikkiga bo'linib ketdilar, bir guruhi Sirdaryoning yuqori oqimi – Toshkent tomonga, ikkinchi guruhi Sirdaryoning quyi oqimiga borib joylashdilar. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda «yuqori qoraqalpoqlar», «quyi qoraqalpoqlar»ga bo'linib ketdi. Quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo bilan Amudaryo o'rtasidagi bo'sh yotgan yerlarga ham o'mashib, bu yerlarga **Quvondaryo**dan suv chiqarib, dehqonchilik bilan shug'ullandilar.

Qoraqalpoq va Rossiya munosabatlari. Qoraqalpoqlar Rossiya bilan munosabatlar o'rnatishga harakat qilgan. Bunday yaqinlashishga bir qator omillar sabab bo'lgandi. Birinchidan, Rossiya bilan savdo-tijorat ishlarini yo'lga qo'yishdan manfaatdorlik, ikkinchidan, jung'orlarning tinimsiz hujumlaridan himoyalalanish zarurati sabab bo'ldi.

**1726-yili** qozoq xoni **Abulxayrxon Peterburgga** o'z elchilarini jo'natgan. Uning tarkibida qoraqalpoq vakillari ham bor edi.

Bunga javoban **1731-yili** Rossiya o'z elchisi **M.Tevkelevni** Abulxayrxon huzuriga jo'natadi. Muzokaralar natijasida ham Kichik juz, ham Quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Ayni paytda, qoraqalpoqlarning Rossiyaga emas, Kichik juz xonligiga yasoq to'lashi tan olindi. Qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi fuqaroligiga qabul qilinishi ularni Eron hukmdori **Nodirshoh** hujumidan saqlab qoldi.

**Qoraqalpoq va Xiva munosabatlari.** Qoraqalpoqlarning asosiy qismi notinch og'ir yillarda Amu va Sirdaryo oralig'idagi bo'sh yotgan yerlarga, Yangidaryo va Quvondaryo bo'ylariga ko'chib kelib yashardilar. Bu yerlar Xiva xonligiga chegara hududlar edi. Bu yangi yerlar qoraqalpoq xalqining o'ta mashaqqatli mehnati evaziga o'zlashtirilgan. Tarixchi olimlar **Yangidaryo**da yaratilgan ajoyib sug'orish inshootlari tizimiga – bu qoraqalpoq xalqi qahramonona mehnatining ulug'vorligi xotirasidir deb baho berganlar.

Markaziy hokimiyat qoraqalpoqlarni bo'ysundirmasdan turib orollik o'zbeklarni itoat ettira olmasligini yaxshi tushungan. Bungacha ham Xiva xonligi Orolbo'yi o'zbeklari bilan qo'shni yashayotgan qoraqalpoqlarni bo'ysundirishga bir necha bor uringandi. Chunonchi, **1715-yili Sherg'ozixon** shunday harakat qilgandi. Biroq u o'z maqsadiga erisholmagan. Faqatgina **1735-yili Elbarsxon** davrida Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlar Xiva xonligi hokimiyatini tan olganlar.

**Muhammad Amin inoq** davrida ayrim qoraqalpoq qabilalari ixtiyoriy ravishda Xiva xonligi qaramog'iga o'ta boshlaganlar. Bunga qabila biylarining o'z shaxsiy hokimiyatlarini shu yo'l bilan saqlab qolishga intilishlari sabab bo'lgandi.

**1809-yili Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida** yashovchi qoraqalpoqlar xonlikka bo'ysundirildi. **1810 – 1811-yillarda esa Yangidaryo atrofida** yashovchi qoraqalpoqlar ham tobe etildi. Shu tariqa qoraqalpoqlarni Xiva xonligiga bo'ysundirish nihoyasiga yetkazildi.

## 15.2. QORAQALPOQLARNING IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI

**Ijtimoiy ahvol.** Qoraqalpoqlar ijtimoiy hayotida urug'chilik, qabila-chilik munosabatlari, aholining tabaqalarga bo'linishi ancha kuchli edi. Har bir urug' yoki qabilaga **biylar** boshchilik qilardi. Harbiy qismlarni **botirlar** boshqarardi. Aholi orasida **ruhoniylar, shayxlar, xo'jalarning** o'rnini ham katta edi. **Ovul** boshlang'ich ma'muriy bo'g'in bo'lib, ular-

ning butun hayotiga **Oqsoqollar kengashi** rahbarlik qilardi. Shuningdek, qoraqalpoqlarda **yuzboshi, mirobboshi, qozi, rais** kabi ma'muriy mansablar ham bor edi. Mirob suv taqsimlovchi hisoblangan.

Biylik lavozimiga ilgarilari urug' yig'inlarida saylangan bo'lsa, qoraqalpoqlar Xiva xonligiga bo'ysundirilgach, xon tomonidan tayinlanadigan bo'ldi. Xon tomonidan tayinlangan biyga boshqa biylar bo'ysungan. Amudaryoning so'l tomonidagi **Qo'ng'iro't**, o'ng sohilidagi **Chimboy** qoraqalpoqlarning bosh ma'muriy markaziga aylanadi.

Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik. Qoraqalpoqlar qadimdan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelganlar. «**Qirq qiz**» dostonida qoraqalpoqlarning yerlar o'zlashtirib, suv inshootlari qurib, yer haydab g'alla yetishtirganligi, bog'lar yaratganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Qoraqalpoqlar Orol bo'ylarida, Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Bug'doy, arpa, tariq va boshqa ekinlar ekib, mo'l hosil olganlar. Yangi (Jana)daryo va Quvondaryo havzalarida qoraqalpoqlar tomonidan barpo etilgan kanal va sug'orish inshootlari xo'jalikda dehqonchilik tarmog'ining yetakchi o'rinida turganligidan guvohlik beradi. **XVIII asr oxirlarida** Amudaryo quyi tarmoqlarida **Qalliko'l, Kegayli, XIX asr o'rtalarida Chimboy, Qo'ng'iro't** dehqonchilik vohalari vujudga keldi. Dehqonchilikda omoch, mola, ketmon, belkurak, o'roq kabi mehnat qurollaridan foydalanilgan.

Hunarmandchilik va savdo. Qoraqalpoqlar hayotida temirchilik, duradgorlik, kigiz bosuvchilik, to'quvchilik, bo'yoqchilik, kulolchilik, zargarlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari rivojlanib boradi.

Savdo-sotiq ishlari ham rivojlanib bordi. Shaharlarda do'konlar, karvonsaroylar qurildi. Dehqon va chorvadorlar shaharlarda g'alla, chorva mollari, baliq sotardi. **Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Mang'it, Chimboy** shaharlari yirik savdo markazlariga aylanadi. Bozorlarda qoraqalpoq savdo ahli Sharq va G'arb mamlakatlari savdogarlari bilan muloqotda bo'lardilar. Sharqdan G'arbgacha boruvchi savdogarlar uchun qoraqalpoqlar tayyorlagan tuzlangan baliq mahsulotlari xaridorgir edi.

Soliq va majburiyatlar. Dehqonlardan **satg'ut** (yer) solig'i, chorvadorlardan **zakot** solig'i, aholidan ruhoniylar uchun **usur** solig'i olinardi. Soliq miqdorini xon amaldorlari belgilardi. Yer solig'i butun qabila yoki urug'ga bir yo'la solinardi. Oqibatda soliqning ko'p qismi kambag'allar bo'yniga tushardi. Bunday tartibdan boy tabaqalar foydalanardi. Biy va amaldorlar ham go'yo o'z xarajatlarini qoplash uchun xalqdan qo'shim-

cha soliqlar undirardilar. Harbiy xavf yuz berganda xalqdan «qozon» (xo'jalik) solig'i undirilardi, yigitlar majburiy harbiy xizmatga chaqirilardi.

Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olon. **1827-yili** Xiva xonligi zulmiga qarshi qoraqalpoqlar qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonga qoraqalpoqlar biyi **Oydo'stbiy** boshchilik qiladi. **1827-yil 25-iyul** kuni Xiva xoni **Oilohqulixon** Oydo'stbiy boshliq qo'zg'olonchilarni bartaraf etish uchun maxsus qo'shin to'plab, unga **Muhammad Nazarbiy inoqni** qo'mondon etib tayinlaydi va **Xo'jayli** shahriga jo'natadi. Askarlar shahar atrofiga kelib o'mashadilar.

Oydo'stbiy qoraqalpoq biylarini to'plab Orol dengizi bo'yida maslahat uyushtiradi. Yig'ilganlar maslahati bilan qoraqalpoq ovullariga otliq choparlar jo'natilib, shunday buyruq beriladi: «*Hamma bola-chaqasi bilan qo'zg'olonga yig'ilsin. Kimda-kim bosh tortsa – u dushman hisoblanadi*». Qoraqalpoqlar yig'ilib, qulay yerda xandaq qazib, shox-shabbalar va aravalar bilan mudofaa to'sig'i qurishgan. **29-iyulda** Oydo'stbiy o'zining ikki o'g'li **Rizo** va **To'rani 300 botirga** bosh qilib, **Qo'ng'irot** qo'rg'oniga chopovulga yuboradi. Qo'ng'irot hokimi **Muhammad Ya'qub mushrif** qo'rg'on mudofaasini uyushtiradi. Urush **peashingacha** davom etgan. Oydo'stbiy askarlarining bir qanchasi urushda nobud bo'lgan. Ba'zilari dengiz tomon qochgan. Rizo ham, To'ra ham bor imkoniyatni ishga sol-salar ham yengiladilar.

Oydo'stbiy Qo'ng'irotda odamlarining yengilganini eshitib o'ziga yaqin odamlari bilan **Sori o'tovni** tashlab ketishga majbur bo'ladi va Qo'qon tarafga qarab yo'l oladi. Muhammad Nazar inoq bundan xabar topib Oydo'stbiyning odamlari ketidan sara qo'shin jo'natadi. Qo'shin **ikki kun** deganda **Chirikrabot** mavzeyida Oydo'stbiyning odamlarini qurshab oladilar. Xon askarlari hujumga o'tib, qo'zg'olonchilarni tor-mor qilib, Oydo'stbiyning boshini olib, Xiva xoni huzuriga keltirganlar. Bu ishda faol ishtirok etganlar xon tomonidan taqdirlanganlar. Xiva tarixchisi va shoiri **Munis** Oydo'stbiy o'limiga bag'ishlab marsiya yozgan. **XIX asrning 50-yillarida** **Qo'ng'irotda** **ikki marta** qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon bostirilsa-da, xalqning zulmga qarshi nafrati kuchayib bordi.

### 15.3. QORAQALPOQ XALQI MADANIYATI

Turmush tarzi. Qoraqalpoqlar uzoq yillar davomida ko'chmanchilik turmush tarzidan o'troqlikka o'tish jarayonini boshidan kechirdilar. Aholining asosiy qismi o'tov va paxsa uylardan iborat ovullarda yashardi.

Keyinchalik qo'rg'on (qal'a) va shaharlar vujudga keladi. Qo'rg'onlarning to'rt tomoni devor yoki baland tepalar bilan o'rab olinardi.

Islom dini qoraqalpoqlarning rasmiy dini edi. Aholi orasida turli yo'nalishdagi tasavvuf tariqatlari keng tarqalgandi. Eshon, pir, avliyo, valiy nomlari bilan ataluvchi mutasavviflar insonni ruhiy va axloqiy komillikka da'vat etardilar. Ayrim tariqatchilar tomonidan turmush tashvishlaridan voz kechishni, kambag'allikka qanoat qilishni, o'z ixtiyorini pirga topshirishni targ'ib etish hollari ham kuzatilardi.

Shaharlar. Qoraqalpoqlar **Qo'ng'iro't, Chimboy, Xo'jayli** kabi yirik shaharlarni bunyod etganlar. Shulardan Qo'ng'iro't va Chimboy qoraqalpoqlarning ma'muriy markazlari bo'lgan. **XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida** barpo etilgan.

**Xo'jayli** shahri Orol va Xiva oralig'idagi savdo markazi bo'lib, **boj-xona** shu shaharda joylashgan. Shaharlar og'ir mehnat evaziga baland devorlar bilan o'rab olingan, shahar ichkarisida ko'rkam binolar, saroylar barpo etilgan. **Janaqal'a, Oydo'stqal'a, Ernazarqal'a, Ko'ko'zakqal'a, Eshonqal'a** kabi qal'a shaklida qurilgan shaharlar qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan me'morchilik madaniyati yodgorliklari hisoblanadi.

*Shaharlarda XIX asr boshlarida 318 maktab, Qoraqum eshon, Qalila oxun, Egambergan oxun, Oyimbet eshon mavzalarida, Eshonqal'ada madrasalar mavjud bo'lgan.* Hunarmandlar **12 – 13 yoshli** bolalarni shogirdlikka qabul qilib, ularga hunar sirlarini o'rgatganlar. Qoraqalpoq yoshlari Xiva va Buxoro madrasalarida ham ta'lim olganlar.

Folklor. Qoraqalpoqlarning xalq og'zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoq folklor namunalari **20 jildligining** nashr etilgani fikrimizning dalilidir. Ular so'z ustalari bo'lgan chechanlarni, baxshi (jirov)larini sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagani.

O'zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning qiziqchisi – **O'mirbek laqqisi** bor.

Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadimdan ma'lum. Ulardan **«Qirq qiz», «Alpomis», «Qo'blan», «Mastposhsho», «Edigey»** dostonlarida qoraqalpoqlarning voqealarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, **«Edigey»** dostonida **Amir Temur, To'xtamish** faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etilsa, **«Qirq qiz»**da qoraqalpoq xalqining **XVIII asrda Jung'or qalmoqlariga qarshi ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi** o'z badiiy ifodasini topgan.

Qoraqalpoqlarning xalq qo'shiqlarida el-yurt yo'l boshchilari, qahramonlari **Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo'stbiy, Ernazarbiylar** ulug'lanadi.

Qozoq ma'rifatparvar olimi **Cho'qon Valixonovning**: «*Qoraqalpog'lar sahrodagi birinchi shoir ham qo'shiqchilardir, shundan keyin qirg'izlar va turkmanlar*», – degan so'zlari bejiz aytilmagan.

Qoraqalpoq adabiyotida **XVII – XVIII asrlardagi** tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan «*Qirg' qiz*» dostoni alohida o'rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Bu doston atoqli xalq baxshisi (jirovi) **Qurbonboy baxshi Tojiboy o'g'lidan 1939 – 1940-yillarda** yozib olingan. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Asarning bosh qahramoni **Guloyim** o'zining **qirg' nafar** dugonasi va o'z sevgilisi **Arslon** bilan birga Eron shohi **Nodirshoh** hamda jung'or xoni **Surtoyshi** hujumidan yurtini himoya qilishga o'tlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o'zbek va qozoq xalqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir safda turib jang qilgan **Oltinoy, O'tbosgan, Arslon, Sarvinoz** kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik, ayni paytda, dushmanga nisbatan shafqatsizlik g'oyalari o'z ifodasini topgan.

#### 15.4. XVIII – XIX ASRLARDA QORAQALPOQ ADABIYOTI RAVNAQI

Qoraqalpoq yozma adabiyoti. XVIII asrdan boshlab qoraqalpoq yozma adabiyoti shakllanadi va rivojlana bordi. XVIII – XIX asrning 1-yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan qator namoyandalari qalam tebratganlarkim, ularning nomlari bugungi kunda ham ardoqlanadi.

Ulardan biri **Jiyen Jirov (1730 – 1784)** edi. U mashhur baxshi sifatida kamol topdi. Ayni paytda, she'rlar ham bitdi. «*Hoy yigitlar, yigitlar*», «*Xayr endi, do'stlar*», «*Yuragimda ko'p dog'im*», «*Tuyani ber*» kabi she'rlarida jamiyatdagi nohaqliklarni tanqid qiladi. Jiyen Jirov hajviy she'rlar ustasi ham edi. U «*Hoy xonimiz, xonimiz*», «*Xon yonida to'ralar*» kabi hajviy she'rlarida hukmron tabaqalarning kirdikorlarini, xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini fosh etadi.

Qoraqalpog'lar – erksevar xalq. Shuning uchun ular doimo o'z erki uchun ozodlik kurashi olib borganlar. Ma'lumki, qozoq xoni Abulxayr-ga qarshi olib borilgan urushda qoraqalpog'lar yengilib qolgandi. Bu mag'lubiyat natijasida ular azob-uqubatlarga duchor etilgan. Xususan, Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpog'lar har yoqqa tarqab ketganlar. Ular-ning bir qismi **Toshkent atrofi** (Chirchiq bo'ylari)ga, boshqa bir

qismi esa Qizilqum orqali **Xorazm** (Orol dengizining janubiy sohillari) ga ko'chib ketganlar. Mana shu ko'chishlarning guvohi bo'lgan Jiyen Jirov «**Darbadar el**» nomli doston yozib, qoraqalpoqlarning mashaqqatli davri tarixini bayon etgan. U «**Alpomis**», «**Qirg qiz**», «**Qo'blon**», «**Qurbonbek**» dostonlarini mahorat bilan kuylagan.

Qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri **Kunxo'ja Ibrohim (1799 – 1880)** edi. Uning butun umri muhtojlikda o'tgan. Shoirning «**O'roqchilar**», «**Oq qamish**», «**Cho'ponlar**» kabi she'rlari xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, ularda qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi tobeligiga tushib qolgan davrdagi og'ir ahvoli, erksiz turmushi o'z ifodasini topgan. «**El bilan**», «**Boy bolasi**», «**Mening bolam**» she'rlarida esa hukmron tabaqalar kirdikorlarini fosh etadi. «**Unutmasman**» hamda «**Tuya ekansan**» she'rlarida u Xiva xoni ustidan kuladi.

**Ajiniyoz. Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li (taxallusi Zevar) (1824 – 1878)** qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biridir. **Mo'ynoqdagi** eski maktabda o'qigan. Keyin Xivadagi **Sherg'ozixon madrasasida** ilm olgan. Shoirning «**Bo'zatov**» dostonida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan. Ajiniyoz shoirning «**Kerak**», «**Bo'ladi**», «**Bo'lmasa**», «**Yaxshi**», «**Yigitlar**» she'rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari, falsafiy qarashlari ifodalangan. Ajiniyozni butun O'rta Osiyoga tarqatgan «**Qiz Mengesh bilan aytishuv**» asari edi.

1999-yili Ajiniyoz tavalludining 175 yilligi nishonlandi. Nukus shahrida Ajiniyoz maydoni barpo etildi va Ajiniyozga haykal o'rnatildi.

**Berdaq.** Qoraqalpoq xalqi adabiyoti uning asoschisi **Berdaq (1827 – 1900)** (taxallusi; asl ismi **Berdimurod Qarg'aboy o'g'li**) nomi bilan mashhurdir. Berdaq avval ovul maktabida, so'ngra madrasada tahsil ko'rgan. U **Navoiy**, **Fuzuliy**, **Maxtumquli**, **Kunxo'ja** asarlarini chuqur mutolaa qilgan, ulardan o'rgangan. Berdaq tarixii, xalq og'zaki ijodini mukammal o'zlashtirib oladi. Uning ijodi **18 – 19 yoshlarda** do'mbira chertib she'r aytishdan boshlangan. **25 yoshida** u iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Uning «**Bo'lgan emas**», «**Umrim**», «**Yordam ber**» she'rlarida mehnatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan. «**O'g'limga**», «**Ahmoq bo'lma**» she'rlari orqali yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga chaqiradi.

Berdaq xalq hayotini, uning ezgu orzu-istaklarini yaxshi bilgan shoir edi. Shuning uchun uning she'rlarida xalqparvarlik ruhi kuchli edi. Xu-

susan, shoir o'zining «Xalq uchun» degan she'rida yoshlarni mehnat-kash xalq uchun jonini ayamalikka chaqiradi.

Berdaq tarixiy mavzularda ham qalam tebratgan. Uning «Avlodlar», «Omongeldi», «Oydo'stbiy», «Ernazarbiy» kabi asarlarida xonlar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlari faxr bilan kuylanadi. Xususan, «Omongeldi» dostoni Buxoro amirligiga qarshi ko'tarilgan (XVIII asr) qo'zg'olon boshlig'i Omongeldi jaso'ratiga bag'ishlangan. Xiva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyon «Ernazarbiy» dostonida ham aks ettirilgan.

1998-yili mamlakatimizda Berdaq tavalludin<sup>ing</sup> 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahridagi xiyobonlarning biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tug'ilgan joy – Bo'zatovda ham Berdaq byusti o'rnatildi, Nukus shahrida Berdaqqa haykal qo'yildi.



## 16-BOB. XVIII – XIX ASRNING 1-YARMIDA QO'QON XONLIGI

### 16.1. QO'QON XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Shohruxbiy – xonlik asoschisi. Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tasarrufida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung'orlar Farg'ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-toroj qila boshladilar. Vaziyat ichki kuchlarni birlashishga, mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab Chust yaqinidagi Chodak qishlog'i xo'jalar jamoasi o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qildilar. Vodiydagi ming qabilasi oqsoqollari yig'ilib, Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilganlar. Ming qabilasi yo'l boshchilaridan biri Shohruxbiy hukmdor (1709 – 1721) deb e'lon qilinadi. 1710-yili minglar chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'dardilar va Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Shu tariqa O'rta Osiyoda keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi. Tepaqo'rg'on Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi.

Shohruxbiyning o'g'li Abdurahimbiy (1721 – 1733) davrida Xo'jand, O'ratepa viloyatlari qo'shib olindi. U Shahrisabz ostonalariga qo'shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo'qonga tobellik haqida bitim tuzishga erishadi. Keyin Samarqandni va Jizzaxni egallaydi. Abdurahimbiy Xo'jandga qaytib kelgach qattiq betob bo'lib vafot etadi. Qo'qon xonligi taxtiga uning inisi Abdulkarimbiy (1733 – 1750) o'tiradi. U Eskiqo'rg'on qal'asi yonida hozirgi Qo'qon shahriga asos solib, o'z poytaxtini Tepaqo'rg'ondan Qo'qon shahriga ko'chiradi. Shahar atrofini devor bilan o'ratadi.

Erdona hukmronligi davrida (1751 – 1762) xonlikning qudrati ortdi. U O'sh va O'zganni bo'ysundirdi. Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylandi. Biroq hukmronlik davri urushlar bilan o'tdi. Toj-u taxt uchun kurash kuchaydi. Nihoyat, 1763-yili taxtga Abdulkarimbiyning nabirasi Norbo'tabiy (1763 – 1798) o'tqazildi. U dastlab Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostirdi. Xo'jandni qayta bo'ysundirdi.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Norbo'tabiy davrida ekinlardan mo'l hosil olinib, bozorlarda narx-navo arzonlashgan. Mamlakatning qudrati o'sgan, hatto Xitoy imperiyasi Qo'qon xonligini tan olgan.

Norbo'tabiy vafot etgach, taxtga uning o'g'li Olimbek o'tqazildi. Uning davrida (1798 – 1810) Qo'qonning siyosiy mavqeyi yanada

kuchaydi. U **Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent, Sayram** va **Turkistonni** o'ziga bo'ysundirdi. Natijada Rossiya bilan savdo yo'li ochildi. Orenburgga boradigan savdo yo'llari tutashgan joyda xonlikning chegara qal'asi **Oqmasjid** qurildi. U o'z davlatini **1805-yili** rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qildi, o'ziga esa **«xon»** rutbasini oldi va uni rasman Olimxon deb atay boshlashdi. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzishga intilayotganligi ayrim qabila boshliqlari orasida keskin norozilik tug'dirdi. Natijada ular Qo'qonda «Olimxon Toshkentda o'ldi» deb mish-mishlar tarqatishadi va uning ukasi **Umarbekni** xon deb e'lon qiladilar. Olimxon bundan xabar topib Qo'qonga kelayotganida fitna qurboni bo'ladi.

Davlat tuzumi va boshqaruvi. Qo'qon xonligi davlat tuzumiga ko'ra **mutlaq monarxiya** edi. Davlat boshlig'i **xon** rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Xon davlatni hukmron qabila, ruhoniylar, boshqa qabilalarning hukmron tabaqalari, davlat boshqaruvi amaldorlari va harbiylarga tayanib boshqargan. Tarixchi olim **Mahmud Hoji** o'zining «**Turkiston tarixi**» kitobida **24 ta** katta davlat mansabiga ta'rif bergan.

Unga ko'ra, xondan keyingi o'rinda **qo'shbegi** turgan. U xonning birinchi maslahatchisi bo'lib, ayni paytda, katta shaharlardan biriga mustaqil hokim etib ham tayinlangan. Chunonchi, Toshkent shahrini ma'lum bir vaqtda qo'shbegi boshqarganligi manbalarda qayd etilgan.

**Parvonachi** mansabi ham o'z nufuzi jihatidan qo'shbegi vakolatiga teng bo'lgan. Bora-bora xonlikda **mingboshi** mansabi birinchi o'ringa chiqqan. U xonlikda bosh vazir hisoblangan. Xonlikda **hudaychi** mansabidagi amaldor xon nomiga yozilgan arizalarni qabul qilish bilan shug'ullangan.

Ayni paytda, **xon yotog'i posbonboshisi, miroxur, sarbozlar boshlig'i, naqib, otaliq, dodxoh, mehtar, yuzboshi, o'nboshi** kabi mansablar ham joriy etilgan.

Bundan tashqari, islom shariati qoidalarining amal qilishiga mas'ul bo'lgan katta nufuzga ega lavozimlar ham bo'lgan. Bular **shayxulislom, qozikalon, qozi, qoziaskar, muftiy** lavozimlari edi. Bu mansablarga faqat ulamolalar vakillari tayinlangan. Xonlikda **shig'ovul, muhtasib, daftardor, sarkor, inoq** kabi mansablar ham bo'lgan. Ma'muriy-hududiy jihatdan xonlik **viloyatlarga (o'n beshta), beklik va oqsoqolliklar** ga bo'lingan.

Olimxon davrida o'tkazilgan **harbiy islohotga** ko'ra **botirlar** deb ataluvchi muntazam armiya ham tuzila boshlangan. Har bir botirga oyi-ga **50 tanga** maosh belgilangan.

## 16.2. XVIII ASRNING 2-YARMI – XIX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT

Toshkent hokimligining tashkil topishi. XVIII asrning 2-yarmida Toshkent Shayxontohur, Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor dahalariga bo'lingan. Ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Bu davr Toshkent tarixida **to'rt hokimlik** deb nom olgan. Shahar hokimlarining o'zaro urushlaridan tinkasi qurigan va bu kurashda Yunusxojaning qo'li baland kelayotganini ko'rgan xalq boshqa hokimlarni mansabidan chetlatib, butun shaharga Yunusxojaning hokim qilib ko'tardilar. Yunusxoja **«hazrati eshon»** unvoni berilgan, **xon** deb ham yuritilgan. Yunusxoja huzurida **xon kengashi** tuzildi, kengashga **4 daha mingboshilari** kiritilgan. Kengashda Yunusxoja hokim etib tayinlandi.

To'rt hokimlik tugatilib, **1784-yili** yagona siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi natijasida mustaqil **Toshkent hokimligi** tashkil topdi. Anhomning o'ng tomonida baland va qalin devor bilan o'ralgan o'rda, ya'ni davlat mahkamasi qurildi. Unda **xon qarorgohi, devonxona, zarbxona** joylashgan. O'rdani harbiy qism qo'riqlab turgan.

Toshkent hokimligi hududlarining kuchayishi. **1796-yili Chimkent, Sayram** va boshqa o'nlab shahar va qishloqlar Toshkentga qo'shib olindi. **1799-yilga** kelib **Turkiston** va uning atroflaridan **Chu** daryosigacha bo'lgan yerlar, jumladan, **Qorako'l mavzei** Toshkentga qo'shib olindi. Yunusxoja o'ziga tobe bo'lgan Katta qozoq juzi yerlaridagi qabilalarni boshqarish ishini o'sha urug' boshliqlariga topshirdi. Bu bilan u qozoq biylaridan o'ziga tayanch yaratdi. Yunusxoja, ayniqsa, qozoq qabilalari orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Ayniqsa, **Qorakesak bo'lisi** sultoni **Bukey sulton** bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bukey sulton va uning o'g'illari Toshkent va rus karvonlarini qaroqchilardan himoya qilib, ularni belgilangan joyga yetganicha kuzatib qo'yganlar.

Katta juz qabilalari Yunusxoja qo'shinida asosiy kuchni tashkil etib, uning Qo'qon xoniga qarshi urushlarida jonbozlik ko'rsatganlar. Toshkent hokimligi Qo'qon va Buxoro xonliklarini, Orenburg va Sibir bilan bog'laydigan karvon yo'llari o'tadigan **Turkiston, Chimkent** va **Sayramni** o'z qo'lida tutib, O'rta Osiyo bilan Rossiyaning savdo munosabatlarida yetakchilikni qo'lga olishga intiladi. Bu hol Qo'qon bilan Buxoroning Toshkentga munosabatining keskinlashuviga olib keldi. Toshkentning Katta qozoq juzi ustidan o'z ta'sirini kuchaytirishi Qo'qon xonligining iqtisodiy va siyosiy mavqeyini chegaralab qo'ygandi. Farg'ona vodiysini Rossiya bilan bog'lovchi asosiy savdo yo'li Toshkent orqali o'tardi. Shuning

uchun ham Toshkentni bo'ysundirish maqsadida **1799-yili** Qo'qon xoni **Olimxon** qo'shinlari Toshkentga yurish boshlaydilar. Yunusxoja ularga qarshi o'z qo'shini bilan chiqib, Chirchiq bo'yidagi **Qorasuv mavzeyida** ularga zarba beradi. Bu g'alaba natijasida Sirdaryoning o'ng sohilidagi **Qurama mavzeyi** Toshkentga qo'shib olinadi.

Bu davrda Toshkent yirik shaharga aylantirilgan, uni o'rab turgan devorning uzunligi **18 chaqirimga** yaqin bo'lgan. Unda **10 ming** xonadon istiqomat qilgan. Shahar aholisi **Rossiya, Qashg'ar va Xitoy** bilan ham savdo qilgan. Yunusxoja davrida ikki xil pul: **rupiya va tanga** zarb qilingan. *Besh tanga bir rupiyaga teng bo'lgan.* Shahar nazorati va soliq yig'ish **Boshchixojaning** qo'lida edi. Hokimning **to'rt maslahatchisi** bo'lgan. Shahar savdosi ustidan **qozi va devonbegi** nazorat qilishgan. **Rais** shariat qonun-qoidalari va bozordagi narx-navo, o'lchovlar ustidan nazorat qilgan.

*Toshkent – Rossiya munosabatlari.* **XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida** Toshkent bilan Rossiya o'rtasidagi savdo munosabatlari rivojlandi. Masalan, **1786-yili** toshkentlik savdogarlar **B. Ismoilov va Azizxojalar** Irbit yarmarkasiga borishgan. **1787-yili Troitskdan** Toshkentga **27 773 so'mlik** rus va chet el mollari keltirilgan. Ular rus va nemis movuti, qizil charm, gazmol, mis, baxmal va boshqa mollardan iborat bo'lgan.

**1795-yil sentabrida 24 kishidan** iborat Toshkent savdo karvoni **Semipalatinsk shahriga kelgani hujjatlarda** qayd etilgan. **XVIII asrning 90-yillarida Rahmatulla karvonboshi** rahbarligidagi bir guruh Toshkent savdogarlari o'z karvonlari bilan doimo **Petropavlovskka** qatnab turganlar.

Toshkentning qulay geografik holati Toshkent – Rossiya elchilik munosabatlarining ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Xususan, **1792-yili Muhammadxoja va Azizxoja** boshliq Toshkent savdo karvoni **Sibirga** jo'naganida, Yunusxoja ular orqali Sibir ma'muriyati nomiga maktub jo'natgan. Yunusxoja bu savdogarlarga Sibir ma'muriyati bilan har ikki tomonni qiziqtiradigan masalalar yuzasidan muzokara olib borish vakolatini ham bergandi. Yunusxojaning elchilariga javoban Sibir ma'muriyati **1794-yili** o'z elchilari **A.T. Beznosikov va T.S. Burnashevlarni** Toshkentga jo'natadi. Biroq ular Toshkentga kela olmay **Buxorodan** qaytishga majbur bo'ldilar. Sibir ma'muriyatining **1796-yili** ikkinchi bor yuborgan elchilari, nihoyat, Toshkentga yetib keladilar. Ularni O'rta qozoq juzi **Qorakesak** bo'lusi sultoni **Bukeyning** o'g'li **Eshim sulton** kuzatib keladi. Bu faktlar Toshkent ijtimoiy-siyosiy nufuzining o'sib borganligini anglatardi. Toshkent elchilari **1803-yili Sankt-Peterburgga** borib imperator **Aleksandr I** qabulida bo'ladilar.

Toshkent mustaqilligining tugatilishi. Toshkent mustaqilligi uzoq davom etmadi. Bunga Toshkent – Qo'qon munosabatlari sabab bo'lgan. Ular o'rtasida muntazam davom etgan qarama-qarshilik, kurash muhiti hukm surgan. Yunusxoja Qo'qon xonligida markaziy hokimiyatga bo'syunishni istamagan bekliklar, viloyatlar bilan ittifoq tuzishga harakat ham qilgan. Qolaversa, u isyonchi hokimlarning markaziy hukumatga qarshi kurashidan ham foydalanishga uringan. Ayni paytda, Qo'qon xonligi Toshkentni butunlay egallash yo'lini tutgan. Ikki tomon qo'shinlari o'rtasidagi asosiy jang **1800-yil kuzida** Sirdaryo bo'yidagi **G'urumsaroy** (hozir **Namangan viloyatiga** qaraydi) yaqinida bo'lgan. Bu jangda Toshkent qo'shini yengilgan.

Muvaffaqiyatsizlikka uchrab Toshkentga qaytib kelgan Yunusxoja kasallanib **1803-yili** vafot etadi. Hokimiyatga uning o'g'li **Sultonxoja** o'tirdi. Yunusxojaning vafot etganini eshitgan Qo'qon xoni Olimxon Toshkentga o'z qo'shinini yuboradi. **1809-yili** Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olinadi. Shu tariqa Toshkent mustaqilligi butunlay barham topdi.

### 16.3. XIX ASRNING 1-YARMIDA QO'QON XONLIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY AHVOLI

Ichki vaziyatning keskinlashuvi. Olimxon hokimiyatni markazlashtirish maqsadida ichki islohotlar ham o'tkazdi. Diniy unvon hisoblangan «**eshon**»ni bekor qiladi. Kambag'al va qalandarlarga yer maydonlari va chorva mollari berib, ularni mehnatga jalb qiladi.

Olimxon ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va yolg'onchiligi fosh qilinganlarni jazolaydi. Ulamolar xonning bu xatti-harakatlaridan norozi bo'ladilar va unga qarshi fitna uyushtiradilar. **1810-yili** xonning Toshkentdaligidan foydalanib «Olimxon Toshkentda o'ldi» degan mish-mishlar tarqatishadi. Taxtga uning ukasi Umarxonni o'tqazadilar. Olimxon xiyonatdan xabar topgach Qo'qonga qaytadi. Biroq fitnachilar tomonidan yo'lda Olimxon otib o'ldiriladi.

**Umarxon (1810 – 1822)** akasi Olimxon davrida **Farg'ona** hokimi edi. U Andijon hokimi **Rahmonqulbiyning** qizi **Mohlaroyim** (Nodira)ga uylangan.

Farg'onalik tarixchi **Muhammad Hakim Umarxon** hukmronligi davrini eng yaxshi podsholik davrlaridan biri sifatida tavsiflagan.

Umarxon hukmronligining dastlabki paytlarida Buxoro bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar **Jizzax** va **O'ratepa** uchun azaliy kurash

oqibatida yana uzilib qoldi. Bu kurash Umarxonning butun hukmronlik davrida davom etdi va, ilgari bo'lganidek, u tomonga ham, bu tomonga ham g'alaba keltirmadi.

Qo'qon qo'shinlarining ko'chmanchi qozoq va qirg'iz elatlariga yurishlari ancha muvaffaqiyatliroq kechdi. Katta va qisman Kichik juz o'rdalarini o'z ichiga oluvchi keng hududlar Qo'qon xonligiga bo'ysundirildi. Sirdaryo bo'yidagi **Yangiqo'rg'on**, **Julek**, **Qamishqo'rg'on**, **Oqmasjid**, **Qo'shqo'rg'on** nomli harbiy istehkomlar qurildi va **Turkiston** shahrini o'z tasarrufiga oldi.

Muhammad Alixon. Qo'qon xonligining hududi Umarxonning o'g'li va vorisi **Muhammad Alixon** (Madalixon) davrida ancha kengaydi. Bu gal Qo'qon qo'shinlari Farg'onaning janubida joylashgan hamda, asosan, tojik o'troq aholisi yashaydigan va o'z hokimlari tomonidan boshqariladigan **Qorategin**, **Darboz** va **Ko'lobga** yurish qilib, bu yerlarni egaladilar.

Madalixon boshqaruvining so'nggi yillarida, Qo'qon xonligida g'alayonlar kuchaygan paytda, Madalining ko'ngli tusagan ishlarni qilaverishini qo'llab-quvvatlovchi odamlar ta'siriga tushib qolgan yosh xon o'z marhum otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qila boshladi. Umarxon davrida xon hokimiyati bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida mustahkamlangan ittifoq buzila boshladi. Amaldorlarning ayrimlari surgun qilindi, ba'zilar qatl etildi, ba'zilar esa Buxoroga qochib ketishdi. Joylarida qolgan amaldorlar xon hokimiyatidan norozi bo'lganlarning hammasini o'z atroflariga yig'ib, xonni taxtdan qulatishga tayyorlana boshladilar.

Bularning hammasi aholining barcha tabaqalarini Madaliga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni turli axloqsizliklarda va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi. Xondan norozi bo'lganlar unga qarshi ochiq kurashish uchun yetarli kuchga ega bo'lmay, o'z elchilarini Buxoroga – **Amir Nasrullo** huzuriga yuborib, undan yordam so'radilar.

**Amir Nasrullo 1842-yili** o'z qo'shinlarini Qo'qonga yubordi. Qo'qon qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Madalixon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va Amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Amir Nasrullo hatto Madalixonning onasi Nodirabegimga ham shafqat qilmadi.

Amir Nasrullo istilosidan keyingi siyosiy ahvol. Amir Nasrulloning Qo'qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki amirning Qo'qondagi noibi **Ibrohim dodxoh** Qo'qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham to'lashga majbur qilgan. Natijada butun Qo'qon

xonligi hududida **1842-yili** katta qo'zg'olon ko'tariladi. Uning oqibatida amirning Qo'qondagi noibi va beklari hokimiyati tugatiladi. Buxoro amiri hukmronligiga qarshi qo'zg'olonni tashkil etgan mahalliy kuchlar Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan qipchoqlar madadiga tayangandilar. Qo'zg'olon natijasida Qo'qon xonligining mustaqilligi tiklandi. Taxtga Norbo'tabiyning ukasi **Hojibekning o'g'li Sherali** o'tqazildi. Qo'qon xonligi mustaqilligini tiklashda minglar qabilasiga katta madad bergan **qipchoqlar** xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib oldilar. Qipchoqlardan **Musulmonqul mingboshi** etib tayinlandi.

Qo'qondagi mag'lubiyatga chidolmagan Amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qiladi. U Qo'qon shahrini **40 kun** qamalda tutadi. Biroq Amir Nasrulloning qamalni davom ettirishiga Xiva xoni **Ollohqulixonning** Buxoro amirligiga qilgan hujumi xalaqit berdi. Amir Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Sheralixonning hukmronligi davrida aholidan soliq undirish kuchaydi. Bu hol mehnatkash aholining noroziligini keltirib chiqardi. Bundan tashqari, davlatda muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat ishlarida o'z hukmronligini o'tkazishga, o'zbek, qirg'iz va tojiklarning mamlakat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindilar. Qipchoqlar Qo'qonga ko'plab ko'chib kela boshlagach mahalliy aholining uy-joyini, mol-mulkini zo'ravonlik bilan ola boshladilar. Bular xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilikni kuchaytirdi.

Musulmonqul **1845-yili** soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan **O'sh** xalqi qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan yuborildi. Bu paytda **Isfara** hokimi **Samarqandda** istiqomat qilib turgan marhum Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li **Murodxonni** olib kelib Qo'qon taxtiga o'tqazadi va Sheralixon o'ldiriladi. Musulmonqul o'z qo'shini bilan **Namanganga** keladi. Ishni avval qizini marhum Sheralixonning o'g'li **Xudoyorxon**ga nikohlab berishdan boshlaydi. **13 yoshli** Xudoyorxon bu davrda Namangan hokimi edi. Shundan keyin Musulmonqul Qo'qonga kelib Murodxon va uni qo'llab-quvvatlaganlarni fitnachi sifatida ayblab ularni qatl ettiradi. Kuyovi Xudoyorxonni esa taxtiga o'tqazadi.

*Ichki nizolarning kuchayishi.* Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli, amalda xonlikni qaynotasi Musulmonqul boshqarardi. Shunday qilib, xonlikda qipchoqlar hukmronligi davri boshlandi. Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar, mahalliy aholini shahardan haydab chiqarib, ularning uy-joylariga o'nashib ola boshladilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar, bundan tashqari, aholi endi suv

uchun soliq to'laydigan bo'ldi. Bularning barchasi mahalliy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

Mazkur ahvol, o'z navbatida, xonlikda hukmronlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish xavfini tug'dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va rus qo'mondonligi vakili **V.V.Velyaminov-Zernov** bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Bu hol Xudoyorxonni qattiq cho'chitib qo'ydi. Ana shunday sharoitda u birdan bir to'g'ri yo'lni tanladi. Bu yo'l – qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berish edi.

**1852-yili 9-oktyabr** kuni u Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi. Uning bu ishini mahalliy aholi qo'llab-quvvatladi. Qaynotasi Musulmonqul asir olinib, Qo'qonga keltirildi va qatl etildi. Qipchoqlarning mol-mulki musodara qilindi va mahalliy aholiga sotildi.

## 16.4. QO'QON XONLIGIDA IQTISODIY HAYOT

*Qishloq xo'jaligi.* Qo'qon xonligida aholi sun'iy sug'orish mahorati ni mukammal egallagandi. Asosiy g'alla ekini **bug'doy** edi. Xonlikda **paxtachilik** ham alohida o'rin egallagan. Farg'ona vodiysining ko'pgina dehqonlari paxtakor bo'lib, paxtachilik yildan yilga rivojlana bordi. Rossiyaning O'rta Osiyodan, avvalo, Qo'qondan paxta sotib ola boshlashi bu ekin maydonlarining yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Paxta savdosiga hatto boj ham bekor qilindi. Shu sababli Qo'qon savdogarlari Rossiyaga serqatnov bo'lib qolishdi. Talabning o'sib borishi bilan paxta narxi ham oshib bordi.

*Yer egaligi.* Qo'qon xonligida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan: *1. Amlok yerlari. 2. Xususiy mulk yerlari. 3. Vaqf yerlari.*

Mamlakatdagi butun yer davlatniki edi. Shuning uchun xususiy yer egalari yerga emas, balki undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlarga egalik qilardi. Mulklarning ko'pchiligi **30 sotixdan 60 sotixgacha** bo'lgan. **1 gektar** yeri bor kishi boy hisoblanardi. Yerlar ishlov berish uchun dehqonlarga ijaraga berilardi.

Dehqonlar xon yerlarida ham mehnat qilardilar. Xon yerlarida ishlash uchun majburan safarbar etilganlar soni **10 ming nafargacha** yetardi. Bunday dehqonlar **mardikor** deb atalardi.

Xonlikda xususiy yerlarda hosilning **1/4 qismi** uchun yollanib ishlovchi yersiz, ot-ulovsiz tabaqa vujudga kelgan bo'lib, ular **chorikorlar** deb atalardilar. Bundan tashqari, **korandalar** deb ataluvchilar ham bo'lib,



ular hosilning **yarmi** uchun yerlarni ijaraga olib, o'z mehnat qurollari bilan yollanib ishlardilar.

Soliq va majburivattlar. Asosiy soliq **xiroj** bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab **1/3 – 1/5 qism** hajmida olinardi.

Ko'chmanchi xalqlardan olinadigan **zakotning ham** turi ko'p edi. Ularning asosiylari «**qo'ra boshi**», «**tutun haqi**», «**yig'im soliq**» deb atalardi.

«**Qo'ra boshi**» zakoti ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinadigan zakot edi. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda turganida yig'ib olinardi.

«**Tutun haqi**» zakoti bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot) edi.

«**Yig'im soliq**» esa zakot to'lamaydigan boylar va ularning qarindoshlarining bekka beradigan **9 buyumdan** iborat in'omlaridan iborat bo'lgan.

Hunarmandchilik. Xonlikda oltin ma'dani *Kosonsoy (Namangan) dan, Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Chotqol daryosi yuqori oqimlaridan* olingan. Samarqandda bo'lga-nidek, Qo'qon xonligida ham **qog'oz** ishlab chiqarilgan. Qog'oz juvozxo-nasi Qo'qon shahrining **Mo'yi muborak darvozasi** orqasida maqbara yonida joylashgan.

Savdo. Qo'qonga qo'shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda **yakshanba** va **chorshanba** kunlari bozor bo'lgan.

Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida **Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qashg'ar, Hindiston, Afg'oniston, Eron**, ayniqsa, **Rossiya** bilan savdo katta o'rinni egallagan. Masalan, Qashg'ar bilan olib borilgan savdo-sotiq faqat Qo'qon orqali bo'lardi. Qo'qondan Qashg'argacha yuklangan ot karvoni **14 – 20 kun** yo'l yurgan. Qo'qondan Qashg'arga *temir, qizil charm, mato, ipak va ipdan to'qilgan matolar, oltin* olib borilgan. Qashg'ardan Qo'qonga esa har yili **30 000 otda choy, 200 otda mato, 200 otda qimmatbaho toshlar, 50 otda attorlik buyumlari** keltirilgan.

## 16.5. QO'QON XONLIGI SHAHARLARI

Qo'qon. Xonlikning bosh shahri **Qo'qon** edi. Tarixiy manbalarda Qo'qonga oid ma'lumotlar **X asrdan** boshlab uchraydi. Qo'qonning yoshi **2000 yildan** ortiqdir. Ma'lumotlarda «**Havoqand**», «**Xo'qand**»

degan nomlar bilan qayd etilgan. «Havoqand» so'zi «go'zal», «yoqimli», «xushmanzara», «shamol shahri» degan ma'noni anglatadi degan fikrlar ham mavjud. Mahalliy aholi o'z shahrini Ho'qandi latif yoki Qo'qon deb aytganlar. Qo'qon shahri **XVIII – XIX asr 1-yarmida** nafaqat xonlikning, ayni paytda, O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi.

Qo'qon mustahkam devor bilan o'ralgan. Shaharga **12 darvozadan** kirilgan. Shaharning 12 darvozali bo'lishiga sabab uning ma'muriy jihatdan **12 dahaga** bo'linganligi edi. Bu davrda shaharda **30 000 aholi** yashagan. **XIX asr o'rtalarida** Qo'qondagi madrasalar ichida **Madalixon, Norbo'tabek, Jome, Hojimoym, Xoja dodxoh, Mingoyim** madrasalari alohida ajralib turadi. Ularning har birida **38 dan 100 tagacha** hujrasi bo'lgan.

Qo'qon shahri xonlikning siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy markazi edi.

Marg'ilon. Marg'ilon (Marg'inon) shahriga bundan **2000 yil** avval asos solingan. Marg'ilondagi **Sulton Murodbek saroyi** Toshkent yoki Samarqandning badavlat xonadonidan uncha farq qilmasdi. Shahar devor bilan o'ralgandi. *Marg'ilon Qo'qon xonligidagi pilla sotiladigan asosiy bozor markazi edi.* Shaharda ko'plab pillakashlik va shoyi to'qish ustaxonalari bor edi.

Andijon. Andijon Buyuk ipak yo'lida tashkil topgan. Ayrim manbalarda shahar nomi «andi», «adoq» kabi urug' atamaları bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Arablar istilo qilgan davrda shahar «**Andukon**» deb atalgan degan rivoyat ham bor. Andijon **XV asrdan** boshlab Farg'ona vodiysining markazi bo'lgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida Andijonda xo'jalik, fan va madaniyat ravnaq topgan. U «**Boburnoma**»da Andijon haqida shunday yozgandi: «*Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lar... Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. To'qqiz tarnov suv kirar.*»

Qo'qon xonligi tashkil topgach, endi u Andijon bekligining markazi bo'lib qolgan. Andijon **4 dahaga** bo'lingandi. Har dahaning qozisi, mingboshisi bo'lgan. Dahalar **oqsoqol** boshliq mahallalarga bo'lingan.

Namangan. Namangan shahri ham xonlikning yirik shaharlaridan biri edi. **1620-yili** Farg'onaning qadimgi poytaxti **Axsikat** qattiq zilzila oqibatida vayron bo'lganligi uchun, aholi **Namangan** atrofiga ko'chgan. Namangan tuz koni («namak kon») yaqinida qurilgandi. Uning nomi manbalarda **XVII asrdan** boshlab uchraydi. **XVIII asrda** Qo'qon xon-

ligi hududiga kirgan. Beklik markazi bo'lgan. Namangan aholisi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. **1819 – 1822-yillarda** Namangan aholisi kuchi bilan katta **Yangi ariq** kanali qazilib, shaharning suv ta'minoti yaxshilangan. **1842 – 1845-yillarda** shahar baland devor bilan o'ralgan.

## 16.6. QO'QON XONLIGIDA MADANIY HAYOT

*Umarxon va ilmiy-madaniy muhit.* Qo'qon xonligida madaniyat ham rivojlanib bordi. Shahar va qishloqlarda ko'plab maktab, madrasa va masjidlar qurilib, yoshlar o'qitilgan, ularga hunar o'rgatilgan. *Qo'qonda 120 ta maktab, 40 ta madrasa va masjid, Marg'ilonda 80 ta maktab, 10 ta madrasa va masjidning* faoliyat yuritganligi buning guvohidir.

Umarxon sa'y-harakatlari natijasida Qo'qonda **XIX asr boshlarida** o'ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga keladi. Uning asoschisi ma'rifatparvar hukmdor va hassos shoir **Umarxon (1787 – 1822)** edi. Qo'qon ilmiy-madaniy muhitining rivojida Umarxonning umr yo'ldoshi, mashhur shoira **Nodirabegimning** hissasi katta bo'ldi.

Umarxon **Amiriy** taxallusi bilan ko'plab she'rlar yozgan. Uning atrofida **70 dan ortiq** shoir yig'ilgan. **1821-yili Fazliy Namangoniy** Umarxon amriga binoan **63 shoirming** she'rlarini o'z ichiga olgan «**Majmuayi shoiron**» to'plamini tuzgan. **10 ming misradan ortiq** o'zbek, fors-tojik tilidagi g'azal, muxammas, tuyuq janrlaridagi she'rlar to'plangan devon yaratilgan.

Arab va fors tillaridagi kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Noyob kitoblar iste'dodli xattotlar tomonidan ko'chirildi, nozik tasvirlar bilan bezatildi. Amiriy o'zbek va fors tillarida she'rlar yozdi. Uning g'azallar devoni **1882-yili Istanbulda, 1905-yili Toshkentda** chop etildi.

*Maxmur va Gulxaniy.* Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri **Maxmur** (asl ismi Mahmud) **XVIII asr oxirida** tug'ilib, **1844-yili** vafot etgan. Qo'qondagi **Madrasayi Mirda** o'qigan, keyin Amir Umarxon qo'shinishida **sipohiylik** qilgan. Maxmurning hajviy she'rlar devoni saqlangan bo'lib, unda **69 asar (3717 misra)** jamlangan. U milliy adabiyotda ijtimoiy hajviyani yuksak pog'onaga ko'taradi. «**Hapalak**» she'rida Hapalak qishlog'idagi manzarani aks ettirsa-da, aslida, bu she'r butun xonlik hududidagi manzarani ifodalardi.

Mazkur davr adabiyotining yana bir yirik namoyandasi **Gulxaniy (Muhammad Sharif)** bo'lgan. U **1770-yili** hozirgi Tojikistonning **Tavildara tumanida** tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida olgan. Muhtojlik oqibatida **Namanganga** kelib mardikorlik qilgan. Keyinchalik

**Qo'qonda** istiqomat qiladi. Bu yerda hammomda **go'lax** (o't yoquvchi) bo'lib ishlaydi. Shu boisdan **Gulxaniy** taxallusi bilan ijod qilgan.

Gulxaniy o'zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkor edi. Gulxaniyning butun Sharq adabiyotida mashhur hisoblangan asari «**Zarbulmasal**»dir. Asardagi «**Maymun va Najjor**», «**Tuya bilan Bo'taloq**», «**Toshbaqa bilan Chayon**» kabi masallari chuqur axloqiy-ta'limiy ahamiyatga ega. Asardagi *Yapaloqqush va Boyo'g'li*, *Ko'rqush va Hudhud*, *Kulonkir sulton va Malik shohinlarning o'zaro murakkab munosabatlari* asosida o'z davri ijtimoiy hayotining haqiqiy manzarasini tanqidiy ifodalab beradi.

Uvaysiy. Qo'qon adabiy muhitini **Jahon otin Uvaysiy (1780 – 1841)** va **Mohlaroyim – Nodiralar** ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Uvaysiy oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalaridan edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oiladagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqardi. Uvaysiy **Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz va Jomiy** ijodlarini qunt bilan o'rgandi.

Amir Umarxon Marg'ilon hokimi bo'lib turgan yillarda (**1806 – 1807**), Uvaysiy el orasida tanilgan shoir edi. Undagi shoiralik iste'dodi Umarxonning xotini Nodirani o'ziga rom etgan. Umarxon Qo'qon taxtiga o'tirgach, Uvaysiy Qo'qonga taklif etilgan. Bu yerda u juda ko'p yoshlarga murabbiylik qilgan. Nodira bilan ijodiy hamkorligi qaror topgan.

Uning ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Uvaysiyning adabiy merosida **269 g'azal, 29 muxammas, 3 doston** va boshqalar bor. Asarlarida insonni e'zozlash, do'stlik, vafo, sadoqat g'oyalari, el-yurt dardi, xalq hasrati kuylanadi.

Mohlaroyim – Nodira. O'zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi **Mohlaroyim – Nodira (1792 – 1842)** Andijonda tug'ilgan. Otasi Rahmonqulbiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi.

Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin Nodiraga uylangan. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qitish uchun muallimlikka taklif etadi. Nodira **14 yoshli** o'g'li Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, davlatni idora etishda faol ishtirok etadi, madrasalar qurdiradi.

Nodira olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo'qonga to'plagan, ko'p kitoblarni qayta ko'chirtirgan. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor beradi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qilgan.

Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillarida ijod qilgan. Mohlaroyim – Nodira taxallusida **180 she'r** jamlangan devon, Komila taxallusida **19**

**g'azal**, Maknuna taxallusida **333 g'azal**dan iborat devon tuzgan. Nodiradan **10 ming misraga** yaqin lirik adabiy meros qolgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehrvafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fig'onlari kuylanadi. Bundan tashqari, Nodira **Navoiy**, **Fuzuliy** va **Bedil g'azallari**ga muxammaslar ham yozgan.

***Boborahim Mashrab***. Qo'qon xonligida ijod qilgan ulug' insonlardan biri iste'dodli va isyonkor shoir **Boborahim Mashrab (1640 – 1711)** edi. U **Namanganda** tug'ilgan. **7 yoshligida** xat-savodi chiqqan. **15 yoshidan** tasavvuf ilmini egallay boshlagan. **18 yil** davomida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan.

Mashrab o'z she'rlarida hukmron tabaqalarining mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmini, ochko'zligini, ba'zi ruhoniylarning, eshonlarning avom xalq ruhini do'zax va oxirat azoblari bilan dahshatga solayotganligini ayovsiz fosh etadi. Xalqning og'ir, ayanchli ahvoriga achinadi.

Mashrab asarlari to'plangan devon haqida manba topilmagan. Uning «**Devoni Mashrab**», «**Devonayi Mashrab**», «**Eshoni Mashrab**» nomlari ostida xalq orasida tarqalgan qo'lyozma va toshbosma shaklidagi qissalari qolgan. Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va **1711-yil** g'animlarning ig'vosi bilan **Balx** hokimi **Mahmudbiy Qatag'on** tomonidan o'linga hukm etiladi.

## 16.7. TARIXNAVISLIK, SAN'AT VA ME'MORCHILIK

***Tarixnavislik***. **XVIII – XIX asrlarda** Qo'qon xonligida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan. Mazkur davr tarixchilaridan **Abdulkarim Fazliy Namangoniy** Amir Umarxonning topshirig'iga binoan «**Shohnoma**» masnaviysini yozib tugatgan (**1822**). U **5000 baytdan** iborat tarixiy asardir. Yana «**Majmuayi shoiron**» tazkirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Xon saroyida **qoziaskar** lavozimida ishlagan **Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy** Amir Umarxonning maslahati bilan «**Shohnomayi Umarxon**» tarixiy asarini yozgan.

Umarxon davrining ko'zga ko'ringan tarixchisi **Muhammad Hakimxon To'ra ibn Sayid Ma'sumxon (1802 – 1870)**dir. U ona tomondan Qo'qon xoni **Norbo'tabekning** nabirasi. Muhammad Alixon davrida quvg'inga uchrab Rossiyaga, Sharq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo'lgan. Umrining oxirida **Shahrissabzda** yashab, shu yerda o'zining «**Muntaxab ut-tavorix**» (Saralangan tarixlar) asarini yozadi.

Bu asar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga doir muhim manbalardir. Unda O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Umarxon davrining yana bir yetuk tarixshunosi **Mulla Niyoz Muhammad Xo'qandiy (1802 – 1872)** sanaladi. Harbiy lavozimlarda ishlagan va **XIX asrning 70-yillarida «Tarixi Shohruxiy»** asarini yoza-di. Asarda olim davrning siyosiy ahvoli va xalqning ijtimoiy turmushiga to'g'ri baho berilgan. Unda **1872-yilgacha** bo'lgan, ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rgan va bo'lgan voqealarni bayon etadi.

Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo'lgan yana bir tarixiy asar «**Tarixi jahonnomayi**» deb nomlanadi. Uning muallifi **Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhammad o'g'li (XVIII asr oxiri – XIX asr o'rtalari)**dir.

Toshkentlik tarixchi olim **Muhammad Solihning «Tarixi jadidayi Toshkand»** (Toshkentning yangi tarixi) asari Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manbadir. U **XV – XIX asrlar** Turkiston tarixi, jumladan, Toshkent tarixi, Qo'qon xonligi tarixi ilmiy nuqtayi nazardan yozilgan qimmatli asardir.

Yana bir tarixchi **Mulla Ali qori Qunduziy (1786 – 1858)** «**Tavorixi manzuma**» asarini yozgan. Asarda **1822 – 1848-yillar** tarixi bayon etilgan.

Ma'rifatparvar shoira va tarixchi olim **Dilshod Barno «Tarixi muhojiron»** (Muhojirlar tarixi), «**Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron**» (Inson matonati va muhojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan.

**San'at.** Qo'qonda xattotlik san'ati va me'morchilik ham rivojlangan. **Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abulg'ozixoja** kabi xattotlarning kitob ko'chirish borasida o'zlari amalga oshirgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi. Kitoblar shunday did bilan ko'chirilganki, xorijiy mamlakatlar shohlari uchun elchilariga ana shunday nafis ko'chirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylangandi.

**Me'morchilik.** Qo'qonda me'morchilik rivojlanib bordi. **Buxorodan** bir guruh binokorlar taklif etilib, ko'plab madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, ko'prik va muhtasham binolar bunyod etiladi. Xalq orasida Madrasayi Mir nomi bilan mashhur bo'lgan **Norbo'tabiy madrasasi, Daxmayi Jahon ansambli, Norbo'tabiy va Modarixon daxmalari** hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Umarxon Turkiston va uning atroflarini Oroidan Yettisuvgacha egalab, **Oqmasjid (Qizil O'rda), Avliyoota (Jambul), Pishpak (Bishkak)** qal'alarini bunyod etdi. Qo'qonda va boshqa shaharlarda ko'plab bino-

lar qurilgan. *Norbo'tabiy madrasasi, Madalixon madrasasi, Madrasayi Kamol qozi, Madrasayi Tunqotar, Madrasayi Haqquli mingboshi, Madrasayi Miyon hazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim To'ra, Madrasayi Xonxoja eshon, Madrasayi Buzrukxoja, Madrasayi Pirmuhammad yasovul, Madrasayi Xojabek, Madrasayi Oxund devonbegi, Madrasayi Mingoyim, Madrasayi Jome shular jumlasidandir.*

**XIX asrning 1-yarmida Toshkentda** ham muhtasham me'moriy-diniy inshootlar qurilishi, eskilarini ta'mirlash ishlari keng ko'lamda olib borildi. **Baroqxon** va **Ko'kaldosh** madrasalari qayta ta'mirlandi. **Shayx Xovand Tohur** me'moriy majmuasi hozirgi ko'rinishda shakllantirildi. **Zayniddin bobo** uchun yangi maqbara qad ko'tardi. Yunusxo'ja qarorgohi **Eski o'rda** buzilgani sababli, yangi markaz – **Qo'qon o'rdasi** bunyod etildi.

## 17-BOB. O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XALQARO MUNOSABATLARI

### 17.1. XVI – XVIII ASRLARDA XALQARO MUNOSABATLAR

Xuroson – raqobat maydoni. XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida **uch siyosiy kuch** kurash maydoniga chiqqandi. Bular – Movarounnahrda **shayboniylar**, Eronda **safaviylar** va Hindistonda **boburiylar** edi. Xalqaro va o'zaro munosabatlarda bu uch sulola manfaatlari to'qnashib, raqobatchilik kuchayib bordi.

Ularning manfaatlari to'qnashgan nuqta **Xuroson** edi. Chunki Xuroson ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim o'rin tutardi. Bundan tashqari, Xuroson Movarounnahr, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tardi.

Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan. Bu masalada **Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxonlar** davrida shayboniylar ustunlik qilganlar. Keyinchalik safaviylarning qo'li baland kelgan va oxir-oqibatda ular Xurosonni Movarounnahrdan ajratib tashlashga erishganlar.

Buxoro va Boburiylar davlati munosabatlari. XVI asrda shayboniylar bilan boburiylar o'rtasida elchilik munosabatlari o'rnatildi. **Abdullaxon** boburiylar hukmdori **Akbarshohga to'rt marta** elchi yuborgan. **1586-yili** Akbarshoh elchisi **Buxoroga** kelgan. Elchilik munosabatlariga ikkala davlatning Xuroson bilan bog'liq o'z manfaatlari masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, Hindistonga me'morlar, miniatyurachi rassomlar yuborilgan. Ikki mamlakat o'rtasida savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan.

Akbarshohning o'g'li **Jahongirshoh (1605 – 1627)** va Buxoro xoni **Imomqulixon** davrida ikkala davlat o'rtasidagi elchilik munosabatlari davom etgan. Lekin Jahongirshohning o'g'li **Shoh Jahon (1628 – 1658)** davrida Hindiston – Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan. Bu Buxoro xoni **Nodir Muhammadxon** va uning o'g'li **Abdulaziz** o'rtasida yuz bergan nizo bilan bog'liq edi. Taxtdan ag'darilgan Nodir Muhammad **Balxga** qochadi. U o'g'liga qarshi kurashish maqsadida Hindiston hukmdori Shoh Jahondan yordam so'raydi. Shoh Jahon bu paytda qulay fursat kutib Balxni bosib olish niyatida yurardi. Shoh Jahon darhol Balx ustiga «yordam» jo'natadi. Biroq hind qo'shinlarining Balxga yordamga emas, balki uni bosib olish uchun kelganligini tushunib yetgan Nodir Muhammadxon **Eronga** qochadi.



**1645-yili** Abdulazizxon Balxni qamal qiladi. Oxir-oqibat hind qo'shinlari o'z vatanlariga qaytib ketishga majbur bo'ladilar. **Avrangzeb Olamgir (1658 – 1707)** bilan **Abdulazizxon** hamda **Subhonqulixon** o'rtalarida elchilik munosabatlari davom etgan. Avrangzebdan keyin boburiylar sulolasi yana **150 yil** hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bu saltanat tanazzul tomon yuz tutib bordi. Shunga qaramay, Hindiston va Buxoro munosabatlari to'xtab qolmagan. Savdo aloqalari ham uzluksiz davom etgan.

O'rta Osiyo xonliklarining Afg'oniston bilan aloqalari. O'rta Osiyo davlatlarining eng yaqin qo'shnisi **Afg'oniston** edi. Mustaqil Afg'oniston davlati **1747-yili** tashkil topgan. Yosh afg'on davlati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlar do'stona ruhda bo'lmagan. Bunga ikkala tomonning Amudaryoning janubiy qirg'og'idagi o'zbeklar istiqomat qilib turgan hududlarni o'z tasarruflarida saqlashga urinishlari sabab bo'lgandi. Xususan, **1751-yili** Afg'oniston hukmdori **Ahmadshoh (1747 – 1773)** Amudaryoning janubida istiqomat qilib turgan o'zbeklarning yerlarini bosib olish maqsadida qo'shin yuboradi. Bu hududda joylashgan kichik-kichik o'zbek beklilari o'zaro urushlar oqibatida zaiflashib qolgandilar. Natijada ular Afg'onistonning vassaliga aylanib qolgandilar. **Balx** qal'asini afg'on garnizoni egallaydi. Balxni Ahmadshohning noibi boshqara boshlaydi.

**1768-yili** mahalliy o'zbeklar afg'onlarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarni Buxoro qo'llab-quvvatlaydi. Ana shunday vaziyatda Ahmadshohning o'zi qo'shin tortib kelib qo'zg'olonni bostiradi.

**1789-yili** o'zbeklar yana qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarga bu safar ham Buxoro amaliy yordam ko'rsatadi. Afg'oniston hukmdori **Temurshoh (1773 – 1793)** **100 ming** kishilik lashkar bilan Balxga qarab yuradi. Biroq Buxoroga qarshi yurish qilishga Temurshohning yuragi dov bermaydi va u Buxoro bilan sulh shartnomasi tuzishga majbur bo'ladi. Shartnomaga ko'ra, Amudaryo har ikki davlat o'rtasidagi chegara deb tan olinadi.

Buxoro va Afg'oniston o'rtasida savdo aloqalari uzluksiz davom etgan. **Kobul** shahri savdo aloqalarida alohida o'rin tutgan. Kobul orqali Buxorodan Hindistonga, Buxoro orqali Afg'onistonga Rossiya tovarlari, Hindistondan Buxoroga hind tovarlari ortilgan savdo karvonlari qatnab turgan.

Qo'qon va Xitoy munosabatlari. O'rta Osiyo xonliklaridan Qo'qon xonligining **Xitoy** bilan munosabatlari ham do'stona emas edi. Bir tomondan, **Sin imperiyasi 1755 – 1759-yillar** mobaynida **Sharqiy Tur-**

kistonni o'ziga bo'ysundirib, Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinardi. Ikkinchi tomondan, Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistonda o'z hokimiyatini o'rnatishga intilib, Sharqiy Turkiston sari o'z chegarasini tobora kengaytirib borayotgandi. Ayniqsa, **XIX asrning 20-yillarida** Qo'qon – Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Qo'qon xoni **Muhammad Alixonning** sharqiy turkistonliklarning **Jahongirxo'ja** boshchiligidagi Sin imperiyasiga qarshi **1825-yili** boshlangan milliy-ozodlik kurashiga aralashuvi sabab bo'ldi.

Xitoy hukumati **1829-yili** Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqladi, o'rta osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydab, ularning mulklarini musodara qildi.

Bunga javoban Qo'qon xoni Muhammad Ali sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashi rahbari **Jahongirxo'ja** va uning ukasi **Yusufxo'ja** ixtiyoriga **Haqquli** boshchiligidagi qo'shin jo'nata-di. Natijada Yusufxo'ja **Qashg'arni** egallaydi va **Yorkentni** egallash uchun harbiy harakatni davom ettiradi. Bu hol Xitoy hukumatini qattiq tashvishga solib qo'yadi va Yusufxo'jaga qarshi katta qo'shin yuboradi.

Qo'zg'olonchilarning safida mustahkam birlik yo'qligi hamda Buxoro – Qo'qon munosabatlari yomonlashuvi oqibatida Qo'qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo'shinini chaqirib olishi tufayli, Yusufxo'ja mag'lubiyatga uchraydi. Natijada Yusufxo'ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqadi. U bilan **70 ming** uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib keladi.

Qo'qon xonligi o'z chegaralarini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirgan. Ayni paytda, Sin imperiyasi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Qo'qon xonligiga qarshi ochiqdan ochiq urush harakatlari olib borishga qodir emasdi. Natijada **1832-yili Pekin**da **Xitoy-Qo'qon shartnomasi** imzolangan. *Unga ko'ra, Qo'qon Jahongirxo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik majburiyatini olgan. Xitoy esa Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan. Ikkinchidan, Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berilgan. Uchinchidan, Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ulardan tortib olingan mol-mulklari evaziga Qo'qon xoniga tovon to'langan. To'rtinchidan, Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi o'rta osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarni yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan.*

## 17.2. O'ZBEK XONLIKLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUNOSABATLARI

Savdo aloqalari. O'rta Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlar, savdo aloqalari tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi. Volgabo'yi orqali Rus savdogarlari ham, O'rta Osiyo savdogarlari ham ikki mintaqa o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaganlar.

**XVI asrda** jahondagi yirik davlatlar tomonidan dunyoni bo'lib olish boshlangan davrda Rossiya **Qozon, Astraxan, Sibir xonliklarini** zabt etadi. Natijada Rossiya va o'zbek xonliklari bir-biriga bevosita qo'shni bo'lib qoladi. Bu holat ularning o'zaro munosabatlarini yanada rivojlantirishga imkoniyat yaratdi. O'rta Osiyoning savdo-hunarmandchilik doiralari o'z mahsulotlarini, ayniqsa, ipak, paxtadan to'qilgan matolarni talab qilayotgan Rossiya bilan savdo-tijorat munosabatlarini rivojlantirishdan g'oyatda manfaatdor edi. Rossiyaning movut, temir, mis, mo'yna, charm va boshqa mollari O'rta Osiyoda xaridorgir edi. Savdo-sotiq ishlari uchun qulay shart-sharoit yaratishda o'zbek xonliklari va Rossiya o'rtasidagi elchilik munosabatlari muhim o'rin tutardi.

XVII asrda elchilik munosabatlari. **1619-yili Imomqulixonning** elchisi **Odambiy Moskvaga** boradi va podsho **Mixail Romanov** qabulida bo'ladi. Podsho Odambiy bilan birgalikda Buxoroga **Ivan Xoxlov** boshchiligida elchilarni yuboradi. I.Xoxlovni Imomqulixon qabul qiladi, rus podshosi iltimosiga binoan o'z saroyidagi **23 nafar** rus asirlarini ozod qiladi. I.Xoxlov **1620 – 1622-yillarda** Buxoro xonligining ichki va tashqi siyosati haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi. U qimmatli sovg'alar bilan Moskvaga kuzatiladi. Yozma manbalarga ko'ra, **XVI – XVII asrlarda** Buxoro va Xiva xonliklariga Rossiyadan **12 marta** elchilar kelishgan. **1583 – 1600-yillarda Moskvada 5 marta Buxoro elchilari, 2 marta Xiva elchilari bo'lishgan.** Bu misollar O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida savdo-diplomatik aloqalarning ancha faollashganligidan guvohlik beradi.

Munosabatlarda Rossiya imperiyasi tazyiqining kuchayishi. **XVIII asrdan** Rossiya imperiyasining o'zbek xonliklari bilan munosabatlarida tazyiq o'tkazishi ustunlik qila boshladi. Bu Rossiya imperiyasining siyosatida O'rta Osiyo xonliklarini savdo-sotiqda kamsitish, ularning tabiiy boyliklariga ko'z olaytirish, strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarish kayfiyatining kuchayganligida yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Pyotr I Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb hisoblab, ularga tazyiq o'tkaza boshladi. Bunga xonliklardagi ichki siyosiy ahvol ham qulay sharoit yaratib bergandi.

Masalan, Xiva xoni **Shohniyoz 1700-yili** Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib, Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'ragan. **1709-yili** toj-u taxt vorisi **Muhammad** ham shunday qilgandi. Pyotr I Xiva xoniga jo'natgan yorig'ida shunday gaplar yozilgandi: «*Shohona muruvvat ko'rsatib xonning qo'l ostidagi jamiki narsalari bilan birga abadiy tobeligimizga olamiz*». Biroq bu niyat u davrda amalga oshmay qoldi. Xivada boshlanib ketgan ichki urushlar va chor Rossiyasining **Shimoliy urush** bilan bandligi bunga sabab bo'ldi.

**1713-yili Astraxanga** kelgan Xiva elchisi **Xoja Nafas** rus ma'murlariga, Sankt-Peterburgga borgach, podsho Pyotr I ga Amudaryo sohillaridagi qumlar oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganini aytadi. Ana shu ma'lumotlar ta'sirida Pyotr I o'zbek xonliklariga kirib borish maxfiy rejasini tuzadi. U **ikki** harbiy ekspeditsiya tashkil etadi. Biriga **Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy**ni, ikkinchisiga kapitan **Ivan Buxgolsni** rahbar etib tayinlaydi.

Bekovich-Cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi tarkibida katta harbiy qo'shin bor edi. Ular **1717-yili** Xiva xonligi hududlariga kirib keladi va harbiy to'qnashuvlar bo'ladi. Xiva xoni **Sherg'ozixon** hiyla ishlatib Bekovich-Cherkasskiy qabul qiladi va uning qo'shinlarini qirib tashlaydi. Pyotr I uyushtirgan ekspeditsiyaning halokati Xiva – Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi.

Buxgols «ekspeditsiyasiga» kelsak, uning qo'shini **1715-yili Toldan Irtish** bo'ylab **Yorkentga** yo'l oladi. Bu guruh **Yamishchev** ko'lida bo'lib, u yerda istehkom quradi. Biroq ular qalmoqlar hujumiga uchrab orqaga chekinishga majbur bo'ladilar.

**1717-yili** Buxoro xoni Peterburgga o'z elchisini yuboradi. Elchi **Qulibek Abulfayzxonning** Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini topshiradi. Abulfayzxon o'z maktubida, ayni paytda, Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so'ragandi. Bunga javoban Rossiya hukumati **1721-yili Florio Beneveni**ni elchi qilib jo'natadi. Rossiya elchisiga *Sharq mamlakatlari*ga olib boradigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish; rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash; Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish; xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish; xonlikdagi qal'a va qo'shinlari ahvolini o'rganish hamda xonlikning Eron va Xiva bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish vazifalari yuklatilgandi. F.Beneveni Buxoroga yetib keladi va Abulfayzxon qabulida bo'ladi.

F.Beneveni Buxoroda **3,5 yil** turdi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga erishadi. Ularni Sankt-Peterburgga ochiq va shifrlangan xat orqali jo'natib turadi. Hukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F.Beneveni **1725-yili** Peterburgga qaytib ketadi.

**XVIII asr 1-choragida** Kichik, O'rta, Katta juzga bo'lingan qozoq sultonlari o'rtasida o'zaro kurash kuchaydi. Natijada ular nochor ahvolga tushib, tashqaridan yordam so'rashga majbur bo'ldilar. **1730-yili** Kichik juz sultoni **Abulxayr** Rossiyaga elchi jo'natib Rossiya tobeligiga o'tish istagini bildiradi. **1732-yili Kichik juz, 1739 – 1740-yillarda Semekexon** boshchiligidagi **O'rta juz, 1747-yili Katta juz** ham Rossiya tobeligiga o'tadi. Natijada Rossiya hukumati uchun O'rta Osiyoni o'z ta'siriga bo'ysundirish yo'lida qulay imkoniyat yuzaga keladi.

**1734-yili** Senat kotibi **I.Kirillov** boshchiligidagi harbiy guruh tayinlanadi. U *Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish, Buxoro va undan Hindistonga boradigan yo'lni ochishi, oltin konlarini izlashni davom ettirishi* lozim edi. **1735-yili** Kirillov guruhi **Or daryosi** bo'yida **Or qal'asini** qurdi (keyinchalik bu qal'a atrofida **Orenburg** shahri vujudga keladi), Yoyiq va Irtish sohillari (Sibir)da istehkomlar barpo etdi. Xonliklar savdogarlari Rossiya bilan Orenburgda savdo-sotiq qiladigan bo'lishdi.

**XVIII asrning 2-yarmidan** boshlab Rossiya savdo-iqtisodiy aloqalarida O'rta Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada orta bordi. Bunda, birinchidan, Rossiyada rivojlanib borayotgan sanoat uchun xomashyo manbalari topishga intilish, ikkinchidan, Osiyoda, xususan, Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan.

**XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida** rus sarmoyasi O'rta Osiyo bozorida yetakchi o'rinni egalladi. Ingliz mollari Rossiya orqali olib kelinar-di. **Nijegorod** yarmarkasida rus savdogarlaridan tashqari o'zbek xonliklari, Eron va Hindistondan kelgan savdogarlar ham qatnashgan. **XIX asr boshlarida** Rossiya o'zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi, ba'zi cheklashlar bekor qilindi. Endi ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qila oladigan bo'lishdi.

### 17.3. XIX ASRNING 1-YARMIDA O'RTA OSIYO UCHUN BUYUK BRITANIYA – ROSSIYA RAQOBATCHILIGI

*Raqobat sabablari.* **XIX asrning 1-yarmida** Angliya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Raqobatchilikning kuchayishiga

quyidagilar sabab bo'ldi: a) *Angliya va Rossiyaning Markaziy Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari*; b) *o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun O'rta Osiyo bozorlarini egallash istagi*; d) *O'rta Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari*.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi.

Hindistonda mustahkam o'rnashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlari tuzgan **Ost-Indiya** (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi orqali O'rta Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning o'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Angliya hukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilardi.

*Ingliz ekspeditsiyalari.* Ingliz ekspeditsiyalaridan biri **U.Murkford** boshchiligida uyushtirildi. Murkford ekspeditsiyasi **1825-yil fevralida Buxoroga** yetib keldi. Manbalarda qayd etilishicha, ekspeditsiya tarkibida **70 kishi** bo'lib, ular olib kelgan **80 sandiq** turli xil mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatilgan. Inglizlar Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgandi.

Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukmron doiralari tashvishga tushdilar. Natijada Rossiya hukumati Buxoro amiri **Haydarga** inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildirdi. Rossiya hukmron doiralarida O'rta Osiyoni bosib olish kayfiyati kuchayib bordi. **1826-yili** Rossiya hukumati polkovnik **F.Berg** boshchiligida **Ustyurtga** ekspeditsiya yuborib, O'rta Osiyoga boradigan yo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi.

**1831-yili** inglizlar O'rta Osiyoga **ikkinchi marta** elchi yubordilar. Elchilarga ingliz armiyasi leytenanti **Aleksandr Byorns** boshchilik qildi. A.Byorns **1832-yili Buxoroga** kirib keldi. U o'zini **arman savdogari** deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu «tadbirkor» Buxoro xonligi qushbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Angliya hukumati Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga o'zining xonliklardagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li deb qarardi. Shuning uchun Angliya hind savdogarlariga xonliklar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi.

Xususan, hind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollari berib turildi. Bu mollar O'rta Osiyoda Rossiya mollari narxidan arzonga sotilardi.

Aleksandr Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi O'rta Osiyoda ingliz savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

**1839-yili** Angliya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida, Rossiya – Angliya munosabatlari yanada keskinlashdi. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat O'rta Osiyoga kelishi mumkin edi. 1839-yili **Hirotda** o'z qarorgohini vujudga keltirgan ingliz razvedkasining ayg'oqchilari O'rta Osiyo xonliklariga yuborib turildi. Xususan, ingliz razvedkasi vakillaridan kapitanlar **Jeyms Abbot, Charlz Stoddart, Konolli, Richard Shekspir**lar Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarda ma'lumotlar to'plab, o'z rahbarlariga yetkazardi.

Inglizlarning O'rta Osiyodagi harakatlaridan tashvishga tushib qolgan Rossiya 1839-yili Xiva xonligiga qarshi **birinchi** harbiy yurishni boshladi. Bu yurishga Orenburg gubernatori **V.A.Perovskiy** rahbarlik qilgandi. Biroq urush qatnashchilarining o'zini sovuqqa oldirishi, oziq-ovqat, yem-xashakning tugashi oqibatida orqaga qaytdi. Bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

*O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlarining keskinlashuvi.* O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlarining keskinlashuviga podsho Rossiyasining O'rta Osiyoda o'z ta'sirini mustahkamlash harakatlari sabab bo'ldi. Xususan, **1847-yili** Rossiya xonliklarga olib boradigan yo'lda **ikkita istehkom** qurdi. Ularning biri – Aralsk shahri yaqinida barpo etilgan (Sirdaryo o'zani yaqinida) **Raim** istehkomi, ikkinchisi Yettisuv Olatog'idagi **Kopal** istehkomi edi. Bu istehkomlar Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan O'rta Osiyoni ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isbotidir. Bu hol O'rta Osiyo xonliklarini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun Xiva xoni Orenburgga o'z vakillarini yubordi. Xon o'z maktubida yaxshi qo'shnichilik o'rnatish hamda do'stona yashash istagini bildirgan hamda Raim istehkomini buzib tashlashni iltimos qilgandi. Xiva elchilari 1847-yili Peterburgda podsho qabulida bo'lgan esalar-da, ko'zlangan maqsadga erisholmadilar. Xiva xonligining qurol kuchi bilan istehkomni yo'q qilish yo'lidagi urinishlari natija bermadi. Chunki rus garnizoni yaxshi qurollangandi.

Bu paytda Qo'qon – Rossiya munosabatlari ham keskinlashgandi. Qo'qon xoni Xudoyorxon ham yangi istehkomlar qurilganligidan tashvishga tushib qolgan edi. Natijada Xudoyorxon Rossiyaga elchi

yuboradi. Podsho nomiga yo'llangan maktubda Xudoyorxon **Nikolay I** ga Qo'qon xonligida jamoat tartibi tiklanganligini, savdo yo'llari yaxshi qo'riqlanayotganligini, rus savdogarlari uchun hech qanday xavf-xatar yo'qligini bildirgan. Ayni paytda, Raim istehkomi qurilganligidan norozi ekanligini ma'lum qilgan.

Nikolay I o'z javob maktubida Qo'qonda tartib o'rnatilganligidan mamnun ekanligini bildirgan, biroq Raim istehkomi buzilmasligini tasdiqlagandi. Podsho o'z fikrini Raim istehkomining, avvalo, Rossiya hududida qurilganligi bilan, ikkinchidan, bu istehkom u qurilgan hududda tartib va tinchlikni, savdo karvonlari osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qilayotganligi bilan «asoslagan». Tez orada Qo'qon qal'asi bo'lgan **Oqmasjidni** Rossiya bosib olishni mo'ljallayotgani ma'lum bo'lgach, Rossiya – Qo'qon munosabatlari yanada keskinlashdi.

Yuqorida qayd etilganlar ertami-kechmi Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik yurishi boshlashi muqarrar ekanligini ko'rsatardi.

O'rta Osiyo xonliklarining Rossiyaga qarshi turishda Angliyaga suyanishi mumkinligi ehtimoli ham o'zini oqlamadi. Bunga Rossiya – Angliya munosabatlarida o'zgarish yuz berganligi sabab bo'lgandi. Afg'onistonga qarshi urushda mag'lubiyatga uchragan Angliya Rossiya bilan kelishishga qaror qiladi. Bu kelishuvga binoan Rossiya O'rta Osiyo bilan cheklanadi, Hindistonga chiqish niyatidan voz kechadi. Angliya esa Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borgan siyosatiga qarshilik qilmaydigan bo'ladi. Afg'oniston esa Angliya va Rossiyaning Osiyodagi mustamlakalari o'rtasida ularni ajratib turuvchi hudud sifatida e'tirof etiladi.

#### 17.4. O'ZBEK XONLIKLARINING TARAQQIYOTDA ORQADA QOLISH SABABLARI VA OQIBATLARI

Jahon taraqqiyotidagi o'zgarishlar. G'arbiy Yevropaning ilg'or mamlakatlarida **sanoat** ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'iga aylanib bordi. **XVI asr o'rtalaridan** boshlab to'qimachilik, qog'oz, shisha ishlab chiqarishda mehnat taqsimoti va qo'l hunari texnikasiga asoslangan korxonalar **manufaktura** (lotincha «*manus*» – qo'l, «*faktura*» – tayyorlash)lar vujudga keldi.

**XVIII asrning 2-yarmida** asbob-uskunalarni harakatga keltiruvchi **bug' mashinasi** (motor) ixtiro qilindi. Natijada asosiy ishlarni mashinalar bajaruvchi fabrika-zavodlar vujudga keldi. Bug' mashinasi bilan



harakatlanuvchi parovoz, paroxod, cho'yan va po'lat oluvchi domna pechlar yaratildi, temir yo'llar qurildi.

Yirik boy tabaqalarning tashqi savdodan, mustamlakalardan, manufakturadan orttirgan boylilari sanoatni rivojlantirish uchun sarmoya sifatida qo'yildi. Bu sanoatning rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Eng muhimi, xo'jalik yuritish, harakatlanish uchun zarur bo'lgan mashinalarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, og'ir sanoat vujudga keldi. Biroq bu jarayon jahon mamlakatlarida nihoyatda notekis bordi. Ko'pgina mamlakatlar, jumladan, o'zbek xonliklari ham bu jarayondan chetda, taraqqiyotda orqada qolib bordi.

Yurtboshimiz Islom Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: *«Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII – XIX asrlarga kelib to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lmaganmikan?»*

Qoloqlikning sabablari. Asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan aholining uchga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasida tinimsiz davom etgan urushlar mamlakatni qoloqlikka mahkum etdi. Har bir xonlik ichidagi hokimiyatni egallash uchun ichki kurash, o'zaro nizo-janjallar, boshboshdoqlik, ig'vo-fasodning avj olishi viloyat va tumanlarni, qolaversa, butun mamlakatni xonavayron qilardi.

Xonliklarning asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlat idora usuli taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgandi.

Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, etnik nizolar urug'-qabila jamoalarining bir joydan boshqa joylarga ko'chishini keltirib chiqarardi. Yoki ular zo'rlik bilan yashab turgan joylaridan ko'chirilardi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, aholining bir butun xalq bo'lib jipslashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni, Turkistonni, xalqni birlashtirish g'oyasi ostida uyushtira oladigan yo'lboshchi, siyosiy kuch topilmadi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Xonliklarda sanoat ishlari ravnaq topmadi. Tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Savdoda hamon

mol ayirboshlash tarzi davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozorida ajralib qolgan, boz ustiga, o'zaro urushlar tufayli xonliklar o'rtasida yagona ichki bozor ham tashkil topmagandi.

Qoloqlik oqibatlari. O'zbek xonliklarining jahon taraqqiyotidan orqada qolishining oqibati yomon bo'ldi. Iqtisodiy qoloqlik va harbiy nochorlik, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik O'rta Osiyoni o'z tasarrufiga kiritib olishga intilayotgan davlatlarga qo'l keldi.

Taniqli o'zbek yozuvchisi **Abdulla Qodiriy** o'zining «**O'tkan kunlar**» romanida o'zaro urushlar girdobiga botib qolgan, vaqtini aysh-ishratda o'tkazayotgan xonlar va amaldorlarning qilmishlari qanday oqibatlariga olib kelishini yaqqol tasvirlab beradi. Romanda **Yusufbek hoji** tilidan quyidagi alamli so'zlar bayon qilinadi: «*Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga o'tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar.*»

## 18-BOB. XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKLARINING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

### 18.1. XIX ASR O'RTALARIDA O'RTA OSIYO DAVLATLARINING HUDUDI VA AHOLISI

O'ra Osiyo davlatlarining hududi. XIX asrda O'ra Osiyoda uchta mustaqil davlat mavjud bo'lib, ular *Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari* hisoblangan. Bu davlatlarda ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq va boshqa sohalar rivojlanib borgan bo'lsa-da, biroq ularning taraqqiyoti ilg'or Yevropa davlatlari darajasidan past edi.

Amirlik poytaxti islom dini markazlaridan biri bo'lib, «Buxoroyi Sharif», ya'ni «Muqaddas Buxoro» nomiga ega bo'lgan. Buxoro amirligining hududi XIX asrda **200 ming km<sup>2</sup>** dan ortiqroq edi. Amirlik chegaralari janubda Amudaryoning chap qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha, sharqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi yerlarigacha cho'zilgan. Davlat hududi XIX asr o'rtalarida **Eron, Afg'oniston, Qo'qon va Xiva xonliklari, qozoq juzlari** yerlari bilan chegaradosh bo'lgan. Amirlikning markaziy qismi Buxoro va Samarqand shaharlari joylashgan **Zarafshon** vodiysi hisoblangan. Amirlikda **Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Ko'lob** kabi yirik savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy markazlar hisoblangan shaharlar mavjud edi. Unga hozirgi Tojikistondagi Vaxsh, Kofimihon, Panj daryolari vodiysidagi yerlar, Turkmanistondagi Murg'ob daryosi vohalaridagi joylar qarashli bo'lgan. Shu bilan birga, hududiy jihatdan **beklik va tumanlarga** bo'linib, ularni amir tomonidan tayinlangan **beklar** boshqargan. Amirlikda **27 bekklik** bo'lgan.

Xiva xonligining maydoni XIX asr 2-yarmida **130 ming km<sup>2</sup>** dan iborat bo'lib, xonlik yerlari janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning ma'muriy markazi **Xiva** shahri hisoblangan. Xonlikda **Xiva, Kat, Yangi Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli** kabi yirik shaharlar bor edi. Xiva xonligi ham Buxoro amirligi singari **bekliklarga** bo'lingan va ularni xon tomonidan tayinlangan **beklar va to'ralar** boshqargan. Xonlikda **40 ta bekklik** mavjud bo'lgan.

**XVIII asr boshlarida**, asosan, Farg'ona vodiysi va Sirdaryoning quyi qismigacha bo'lgan hududlar Buxoro amirligidan ajrab, mustaqil davlat – **Qo'qon xonligi** tashkil topadi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkis-

ton, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Xonlikning janubiy chegaralari **Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non** singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turgan. Xonlikda **Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, Namangan, O'zgan, O'sh, Pishpak, Turkiston, Chimkent** kabi ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazga aylangan shaharlar bo'lgan. Xonlikning hududi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridan farqli o'laroq, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerlarga boy bo'lgan. Xonlik beklklarga bo'linib, ularni, asosan, xon tomonidan o'z qarindoshlari va yaqinlaridan tayinlangan kishilar boshqargan.

*O'rta Osiyo davlatlarining aholisi. XIX asr o'rtalariga kelib* Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari aholisining etnik tarkibi bir-biriga yaqin bo'lib, ularda, asosan, **o'zbeklar** yashagan. Shu bilan birga, uchala xonlik hududlarida **tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, qirg'izlar** ham istiqomat qilgan. Jumladan, bu davrda Buxoro amirligining aholisi soni **2 million** atrofida bo'lib, aholining etnik tarkibi, asosan, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlardan tashkil topgan. Aholining asosiy qismi sersuv vohalarda yashagan. Amirlikda **mang'it, saroy, qo'ng'irot, kenagas, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq** kabi o'zbek urug'lari ko'pchilikni tashkil qilgan.

Xiva xonligida aholi soni **800 ming** kishidan ortiq bo'lgan. Xonlik aholisining etnik tarkibi, asosan, o'zbeklardan, bundan tashqari, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqalardan tashkil topgan.

Qo'qon xonligida aholi soni **3 millionga** yaqin bo'lib, asosan, o'zbeklardan iborat bo'lgan. Shu bilan birga, u yerda qirg'izlar, tojiklar, qozoqlar istiqomat qilgan. Xonlikda uyg'urlar, yahudiyalar, hindlar va boshqa elat vakillari ham yashagan.

Bu davrda uchala davlatda ham aholining asosiy qismini tashkil qilgan o'zbeklar o'troq turmush tarzida hayot kechirib, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar va qirg'izlar ko'chmanchi turmush kechirib, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan.

## 18.2. XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKLARINING MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMI

*Buxoro amirligining davlat boshqaruvi.* Davlatda oliy hukmdor **amir** hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga meros tarzida o'tgan. Amirlikni **mang'itlar sulolasiga (1756 – 1920)** mansub cheklanmagan

hokimiyatga ega bo'lgan hukmdorlar boshqargan. Jumladan, **1826 – 1860-yillarda Amir Nasrullo**, **1860 – 1885-yillarda Amir Muzaffar** hukmronlik qilgan.

Amirlikning ma'muriy markazi Buxoro shahri edi. Amirlikda ijro hokimiyati bosh vazir – **qo'shbegi** qo'lida bo'lgan. Viloyat va tuman hokimlari qo'shbegi tavsiyasi bilan tayinlangan. Moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishi kabi sohalarni **devonbegi** idora qilgan. Devonbegiga tashqi aloqalarni yuritish ham yuklatilgan. Unga amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul **mirzaboshi** bo'ysungan.

Amirlikda soliqlarni o'z vaqtida yig'ish va ularni hisobga olib borishga javobgar kishi **mushrif** hisoblangan. **Dodhoh** lavozimini egallab turgan shaxs xalqning shikoyatlari bilan shug'ullangan. Oliy hukmdor farmonlarini esa **parvonachi** e'lon qilgan. Shariat qoidalari va qonunlar ijrosi, sud ishlarini nazorat qilishni **shayxulislom** bajargan. Shayxulislomga bo'ysungan **muftiy** diniy-huquqiy masalalarni, **muhtasiblar** esa shariat qoidalarining bajarilishi va amal qilinishi masalalari bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida sud boshlig'i **qozikalon**, **raiskalon** hisoblangan. Vaqf ishlari va mulklari bilan **sadr** shug'ullangan. Amir qarorgohi hisoblangan arkda taxt vorisi valiahd tarbiyasi bilan **otaliq** mashg'ul bo'lgan. **To'pchiboshi** amir qo'shinlarining bosh qo'mondoni bo'lgan. Amirlikning shaharlarida tinchlik va tartibni saqlashga amir soqchilari boshlig'i **mirshabboshi** mas'ul hisoblangan. **Ko'kaldosh** mamlakat xavfsizligi, amirning yaqinlari, do'stlari va dushmanlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullangan. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, moliya, sud, mirshablik va harbiy ishlar amirning qarindoshlari, o'ziga yaqin odamlar tomonidan boshqarilgan. Ular o'z faoliyatlarini bajarishda katta huquq va imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Xiva xonligining davlat boshqaruvi. Xiva xonligi **qo'ng'irotlar sulo-lasi (1770 – 1920)** tomonidan boshqarilib, uning oliy hukmdori **xon** hisoblangan. U cheklanmagan ma'muriy, harbiy hokimiyatga ega bo'lgan.

Oliy hukmdor hisoblangan xon qarorgohi Xiva shahrida joylashgan. Bu shaharda ichki ichan qal'a va mudofaa devori bilan o'ralgan tashqi Dishan qal'a mavjud bo'lgan. Xonlikda **Xiva**, **Urganch**, **Qiyot**, **Hazorasp**, **Qo'ng'irot** kabi shaharlar ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazlar hisoblangan. Xonlikda oliy amaldor **devonbegi** hisoblanib, uning ixtiyorida **qo'shbegi**, **mehtar**, **otaliq**dan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan. Aholining tinchligi va osoyishtaligi bilan **mirshabboshi**, xonlikdagi tartib-intizom ishlariga xon qo'shinlarining bosh qo'mondoni **yasovulboshi**, diniy ishlar va shariat qoidalariga rioya etilishi va

amal qilinishi masalalariga **shayxulislom**, sug'orish inshootlari va suv ta'minoti hamda taqsimotiga **mirobboshi** mas'ul hisoblangan. Xonlikda taxminan **40 mingdan ortiq** qo'shin bor edi. Qo'shinga **lashkarboshi** qo'mondonlik qilgan. Askarlik xizmatida bo'lganlar soliqlardan ozod qilingan.

Qo'qon xonligining davlat boshqaruvi. Qo'qon xonligida oliy hukmdor **xon** hisoblangan. Xonlik **minglar sulolasi (1710 – 1876)** tomonidan boshqarilgan va uning ma'muriy markazi **Qo'qon** shahri bo'lgan. Qo'qon xoni hokimiyati merosiy hisoblanib, xon cheklanmagan siyosiy, ma'muriy va harbiy hokimiyatni o'z qo'lida mujassamlashtirgan. Eng yuqori harbiy lavozim **amirlashkar** bo'lib, u harbiy vazir hisoblangan. Xonlikdagi alohida harbiy bo'linmalarga **mingboshilar** rahbarlik qilgan. Ular keyinchalik bosh vazir vazifasini bajargan. Xazina ishlari va xarajatlarini **mehtar** nazorat qilib borgan. **Qozikalon, qozilar** islom dini qoidalari asosida sud ishlarini olib borganlar. **Muhtasib-raisl** diniy ishlar, shariat qoidalariga rioya etilishi, savdo-sotiqning to'g'ri yuritilishini nazorat qilganlar. Xonlikdagi tartib-intizom ishlari bilan **mirshablar** shug'ullangan. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda oziq-ovqat ortilgan **12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtagacha askarni yig'a olardi.**

### 18.3. XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKLARINING IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI

Yer egaligi va soliq tizimi. **XIX asrda** O'rta Osiyo xonliklari **agrar** davlatlar edi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yerga egalik tartiblari qandayligi, to'lanadigan soliq va to'lovlarining miqdori bilan belgilangan. Bu davrda yerlarning asosiy qismi, ayniqsa, ekin maydonlari xon, uning qarindosh va yaqinlari hamda bir qancha katta yer egalari qo'lida bo'lgan. Aholining aksariyati katta yer egalari tegishli ekin maydonlarida mehnat qilganlar. Dehqonlar ijaraga olgan yerlari uchun hosilning bir qismi (ko'p hollarda hosilning **1/5** yoki **1/3 qismi**)ni **xiroj** sifatida to'laganlar.

Xiva xonligida ijaraga yer olgan dehqonlar **«yarimchi»** deb atalgan. Chunki ular olingan hosilning yarmini ijara haqi qilib to'lagan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida yerga egalik qilish shakllari deyarli bir xil edi. Ular **uch turdagi** yer egaligidan iborat bo'lib, **amluk – davlat yerlari, mulk – xususiy yerlar, shuningdek, masjid va madrasalar, diniy muassasalarga qarashli vaqf yerlari** hisoblangan. Xonliklardagi yirik amaldorlar, harbiy sarkardalarga davlat tomonidan yerlar in'om etilgan.

Vaqf yerlaridan olinadigan foyda hisob-kitobi va taqsimoti bilan **mutavalli** shug'ullangan. Aholi soliq va to'lovlarni mahsulot yoki pul ko'rinishida to'lagan. Bundan tashqari, sug'orish inshootlari, yo'llar, ko'priklar qurish va ularni ta'mirlash kabi ishlarni majburiyat tarzida bajarganlar. Mehnat majburiyati aholining ishlab berishi bo'lib, u **begar** deb ham nomlangan.

Bu davrda aholidan **xiroj, zakot, suv, tegirmon, tuz, mulk, tomorqa, bog' solig'i** va boshqa soliqlar yig'ilgan. Xiva xonligida asosiy soliq **solg'ut** deb atalgan. Harbiy majburiyatda har bir erkak kishi oziq-ovqati, qurol-aslahasi bilan birga qatnashishi kerak bo'lgan. Chorvador aholi chorva mollaridan **zakot** solig'i, yaylov va suvdan foydalangani uchun ham soliqlar to'lagan. Bu davrda shaharlar aholisi hunarmand va savdogarlardan **savdo puli, do'kon puli, tarozi puli** kabi soliqlar olingan.

*Sug'orish tizimi va tartiblari.* O'rta Osiyo hududi va uning iqlimi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga qulay bo'lgan. Bu soha taraqqiyoti sug'orish ishlarining holati va suv ta'minotining qay darajada ekanligiga bog'liq edi. Shuning uchun sug'orish va suv ta'minoti sohasi O'rta Osiyoda muhim hamda davlat ahamiyati darajasiga ko'tarilgan. Qolaversa, xazinaga tushadigan asosiy daromadni dehqonlardan yig'iladigan soliqlar tashkil qilgan.

Har bir hududda aholi va ma'muriyat vakillari sug'orish sohasiga mas'ul va javobgar bo'lgan. Sug'orish ishlarini yuritish va nazorat qilish bilan bu sohaning mutaxassislari – **miroblar** shug'ullanganlar. Ular sug'orish ishlari, suv inshootlarining qurilishi, ta'minoti, ta'mirlanishi, tozalanishi, suv taqsimotini yaxshi bilgan kishilar bo'lgan. O'rta Osiyoda sug'orish tizimi qadimdan rivojlanib kelgan soha hisoblanadi. Mazkur ishlar, asosan, keng xalq ommasi tomonidan hashar yo'li bilan bajarilgan. Aholisi, asosan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan Farg'ona vodiysida sug'orish tizimiga katta e'tibor qaratilgan. Vodiy hududida yirik sug'orish inshootlari **Shahrixonsoy, Andijonsoy, Marg'ilonsoy, Yangiariq, Ulug'nor, Qoradaryo** kabilar bo'lgan. Suv chiqishi qiyin bo'lgan joylarga maxsus qurilmalar – **chig'irlar** yordamida suv chiqarilgan. Amudaryo, Sirdaryo suvlari turli sun'iy sug'orish tizimlari – kanallar hamda uning bo'ylariga qurilgan to'g'onlar orqali ekin maydonlariga yetkazilgan. Bu hududda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, asosan, **paxta** va **donli ekinlar** tashkil qilgan. Bundan tashqari, bog'dorchilik, uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O'рта Osiyo xalqlari hayotida hunarmandchilik muhim o'rin egallab, aholining dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan qatlamining hayoti ham bevosita hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan. Chunki har bir dehqon va chorvador hunarmandchilik buyumlaridan foydalangan holda mehnat qilgan, ayni vaqtda, ular hunarmandchilikning turli sohalari uchun xomashyo yetkazib bergan. Savdogarlar esa hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilgan. O'рта Osiyo davlatlarida ko'plab hunarmandchilik markazlari mavjud bo'lib, ular mahalliy xususiyatlariga ko'ra turli hunarmandchilik sohaslariga ixtisoslashgan. Masalan, *Marg'ilon*da atlas to'qish, do'ppichilik, *Rishtonda* kulolchilik, *Buxoroda* zargarlik, *Shahrixonda* pichoqchilik, do'ppichilik, duradgorlik, *Chustda* ham do'ppichilik, pichoqchilik, *Qo'qonda* temirchilik, duradgorlik, zargarlik, *Samarqandda* zargarlik, *Xivada* me'morchilik, ganchkorlik rivojlangan. Buxoro amirligida bu davrda kulolchilik, temirchilik, miskarlik, zardo'zlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik sohalari ham keng tarqalgan. Xonliklarda temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo'lganligi bois, metallga ishlov beruvchi mahalliy **temirchilik** sohasi rivojlangan. Temirchilar tomonidan ketmon, o'roq, chalgi va boshqalar tayyorlangan.

Hunarmandlar tomonidan, asosan, mehnat qurollari, xususan, dehqonchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, kiyim-kechaklar, zeb-ziynatlar, idish-tovoqlar, chorvadorlar foydalanadigan buyumlar tayyorlangan. O'рта Osiyo xalqlari o'rtasida azaldan hunarmandlarga hurmat bilan qaralgan, hunar egallash va bu kasbga munosib bo'lish yaxshi fazilat hisoblangan. Xalq orasida «*hunardan unar*», «*yigit kishiga qirq hunar ham oz*», «*hunari bor kishi xor bo'lmas*» kabi hikmatli so'zlar bejiz tarqalmagan. Hunarmandchilik xonadon va kasanachilik ko'rinishidagi mayda ustaxonalardan iborat bo'lib, unda, asosan, qo'l mehnatidan foydalanilgan. Hunarmandchilik mahsulotlari mahalliy aholi ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki savdogarlar tomonidan chetga ham olib borilgan. O'рта Osiyo savdogarlari **Eron, Xitoy, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya** davlatlari va **qozoq** juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar. O'рта osiyolik savdogarlar mahalliy mahsulotlarni chetga olib borib, u yertardan zarur mollarni olib kelganlar. Xorijda hunarmandlarning *zargarlik mahsulotlari, shoyi va atlas matolari, kulolchilik buyumlari* yuqori baholangan.

Bu davrda O'рта Osiyodagi ichki va tashqi savdoning yanada jadal rivojlanishiga uchta davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklar, ichki nizolar va notinchliklar salbiy ta'sir ko'rsatgan.



#### 18.4. XIX ASR O'RTALARIDA O'RTA OSIYO AHOLISINING MADANIY HAYOTI

Xalq ijodiyoti. Xonliklardagi aholining aksariyati o'zbek tilida so'zlashgan. Bu tilda oliyhimmat qahramon va bahodirlarning jasorati, ularning g'alabalari va adolat uchun kurashlari sharaflangan xalq dostonlari, qahramonlik eposlari keng tarqalgan. XIX asrda **qirqqa yaqin** doston ma'lum bo'lib, «**Alpomish**», «**Go'ro'g'li**», «**Kuntug'mish**», «**Shirin va Shakar**» dostonlari ularning eng mashhurlari edi. Xalq baxshilari tomonidan bayramlar, xalq sayillarida sadoqatli do'stlik va chin muhabbat ulug'langan «**Tohir va Zuhra**», «**Bo'z yigit**» dostonlari kuylangan.

Aholi orasida xalq og'zaki ijodiyoti katta o'rin egallagan bo'lib, ularda kinoya shaklida amaldorlarning illatlari, saroy a'yonlarining nuqsanlari va ochko'zligi kulgi ostiga olinardi. Ba'zi insofsiz amaldor va boylar qoralangan hamda mehnatkash xalqning oliyanoblighi, mardligi madh etilgan. Dostonlarda ko'pincha ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi g'oyasi yetakchilik qilardi. Ularda xalqni zolimlardan himoya qilish, noinsof beklar va xonlarni fosh etadigan, oddiy kishilarga nisbatan mehr namoyon bo'ladigan ijtimoiy mazmun ham aks etgan. O'zlari mavzular to'qib, ularni o'zlari ijro etgan qiziqchilar va askiyachilar ham o'zbek adabiyoti hamda folklorini rivojlantirishda salmoqli hissa qo'shganlar. Har yili bahorda shahar va qishloqlar atroflaridagi bog'lar va chorbog'larda, qir-u adirlarda xalq sayillari o'tkazilardi. Sayyor sirk truppalari xalq sayillarida bozor maydonlarida o'z tomoshalarini ko'rsatib aholini xushnud qilardi. Polvonlar o'rtasida kurash musobaqalari o'tkazilgan. Novvoyxonalar, choyxonalar, oshxonalar ochilib, ularda milliy taomlar tayyorlanar, hofizlar, mashshoqlar kuylar, ko'zboyloqchilar, dorbozlar, hayvon o'ynatuvchilar, qo'g'irchoq teatrlari tomoshalar ko'rsatar, askiyachilar davrada o'zaro musobaqalarda bellashgan.

Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi uchala davlat aholisi uchun yagona bo'lgan xalq madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etardi. Xalq madaniyati siyosiy jihatdan inqirozli davrda ham rivojlanib borgan.

Ilm-fan. Adabiyot. Bu davrda Xiva va Qo'qon xonliklari, Buxoro amirligida ilm-fan ma'lum darajada rivojlangan. Xiva xonligida **Ollohqulixon (1825 – 1842)** farmoyishi bilan **Shermuhammad Munis** Xorazmning **1812-yilga qadar** bo'lgan tarixini yozgan. Uning asl ism-sharifli **Shermuhammad Amir Avazbiy** o'g'li bo'lib, tarixchi, ayni paytda, shoir, tarjimon, xattot, ma'rifatparvar bo'lgan. Munis **18 mingdan ziyod** misrani o'z ichiga olgan devonini avlodlarga meros qilib qoldirgan. U

1819-yili Mirxondning «**Ravzat us-safo**» (Soflik bog'i) tarixiy asarini o'zbek tiliga tarjima qilishni boshladi va asaming 1-jildini tarjima qilishga ulgurdi. Uning «**Firdavs ul-iqbol**» (Baxtlar bog'i) asarini va «**Ravzat us-safo**» tarjimasini shogirdi va jiyani **Ogahiy** nihoyasiga yetkazdi. Ogahiyning asl ismi **Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'li bo'lib, 1809–1874-yillarda** yashagan. U 16 ta tarixiy, ma'rifiy, tarjima asarlar muallifi. Ogahiy arab, fors, turk tillarini puxta bilgan va Xorazmning 1812–1872-yillardagi tarixiga bag'ishlangan asar yozgan. Xiva xonligi tarixiga oid «**Riyozi ud-davla**», «**Zubdat ut-tavorix**», «**Gulshani davlat**», «**Shohidi iqbol**» nomli tarixiy asarlar bitgan. Ogahiyning xalqparvarligi va xalq holiga befarq qaray olmasligi uning «**Qish**» g'azalida o'zining yorqin ifodasini topgan. Ogahiy she'riyati, tarixnavislik va tarjimonlik faoliyati O'rta Osiyo hududidagina emas, balki XIX asr Sharq dunyosi madaniy hayotida chuqur iz qoldirdi.

Buxoro amirligida ham bir qator ilm-fan namoyandalari yetishib chiqdi. Ulardan biri yozuvchi, faylasuf, musavvir, ma'rifatparvar **Ahmad Donish (1827 – 1897)** edi. 1857-yili Buxoro amiri **Nasrulloning** elchilari bilan **Moskva, Peterburg** va Rossiyaning boshqa shaharlari bo'ylab sayohat qilgan. U «**Buxorodan Peterburgga sayohat**», «**Buxoroyi sharif mang'it amirlari muxtasar tarixi**», «**Navodir ul-vaqoye'**» (Nodir voqealar) asarlarining muallifidir. Ahmad Donish 1865-yili **Amir Muzaffar** taklifi bilan «**Manozir ul-kavokib**» (Sayyoralarning joylanishlari) nomli astronomiyaga oid kitob yozgan. U faqat Buxoro amirligi emas, balki O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida ham eng ko'zga ko'ringan madaniyat arbobi sifatida tanilgandi.

XIX asr boshlarida, **Amir Umarxon** hukmronlik qilgan davrda, Qo'qon xonligida markazlashgan hokimiyat o'matilishi, savdo-soliq munosabatlari tartibga solinishi xonlikda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ilm-fan rivojlanishida muhim o'rin tutdi. Xon saroyida o'zbek milliy madaniyati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan namoyandalar ko'paydi.

Saroy shoirlari orasida **Fazliy** alohida ajralib turardi. She'riy iste'dodi tufayli xonning marhamatiga sazovor bo'lib, tez orada saroy shoirlarining boshlig'i – «**malik ush-shuaro**» nomini olgan. U 200 nafarga yaqin qo'qonlik shoirlar va olimlar ijodini o'z ichiga olgan «**Majmuat ush-shuaro**» tazkirasini yozdi. Fazliyning ajoyib g'azallarini xonandalar sevib qo'shiq qilib kuylashgan. Uning she'rlari tili sodda va nihoyatda ravon, xalq tiliga yaqin edi.

Me'morchilik. XIX asrda ham O'rta Osiyo davlatlari shaharlarida qurilish ishlari rivojlangan. Ayniqsa, Xiva xonligida XIX asr o'rtalariga

borib qurilish ishlari avj oldi. Bu davrda Xiva va boshqa shaharlarda ko'plab imoratlar: **saroy, bozor, madrasa, masjid, xonaqoh** kabi inshootlar qurildi. **Oллоhqulixon madrasasi, Rahmonqul Inoq saroyi**, Ichan qal'adagi **Muhammad Aminxon madrasasi (1851 – 1855)**, Ark darvozasi qarshisidagi **Muhammad Rahimxon madrasasi (1871)** bugungi kunda ham Xiva shahrining ko'rkli hisoblanadi. Ularning devorlari o'sha davr Xorazm me'morchiligiga xos bo'lgan usulda, *tiniq zangori rang ustidan oq va yashil gullar tushirilgan koshinlar* bilan bezatilgan.

Qo'qon xonligida bu davrda **Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi (1862)**, **Hokim Oyim madrasasi (1870)**, **Sulton Murodbek madrasasi (1872)** qurib bitkazilgan. Ularning ichida XIX asr 2-yarmi noyob arxitektura yodgorligi hisoblangan **yuzdan ortiq xonadan iborat Xudoyorxon saroyi (1863 – 1870)** alohida o'rin tutadi. U o'zining bezaklari, naqshlari rang-barangligi, yorqin jilosi bilan ajralib turadi.

Xonlikning yirik markazi **Toshkentda XIX asr o'rtalarida** qadimiy inshootlardan **Hazrati Imom majmuasi, 1859-yili esa Baroqxon madrasalarini** ta'mirlash ishlari boshlanadi. Shu davrda Baroqxon madrasasi qarshisida **Mo'yi muborak madrasasi, Tillashayx jome masjidi** singari inshootlar bunyod etildi.

Bu vaqtga kelib Buxoro amirligi me'moriy qiyofasida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shahar va qishloq aholisi yashaydigan turarjoylar va mahalla guzarlaridagi qurilishlar joylarni yanada obod va ko'rkam qildi. **Kufiy, rayhoni, nasta'liq** yozuv uslublaridan binolarni bezashda foydalanish davom ettirildi.

*O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining o'ziga xosligi.* Bu davrda ikki tilda (zullisonayn), ya'ni o'zbek va fors tillarida ijod qilingan. Ayni mahalda bu madaniyatda o'zbek adabiyotining ulug' namoyandalari, ayniqsa, Alisher Navoiy asos solgan insonparvarlik va demokratik an'analar muhim o'rin tutgan. O'rta Osiyo xalqlarining mushtarak tarixi mustahkam do'stlik zaminiga qurilgandi. Minglab she'rlar, g'azallar, hikoyalar, qissalar va og'zaki rivoyatlar ovuldan ovulga, qishloqdan qishloqqa yoyilib, bahodir yigitlar jasoratini madh etar, botirlar va pahlavonlar haqida kuylar, Go'ro'g'li, Alpomish, Manas, Tohir va Zuhra, Farhod va Shirin, Layli va Majnun sadoqati, mardligi, do'stligi va muhabbati odamlarda ishonch, o'zaro hurmat tuyg'ularini uyg'otib, ezgulikka da'vat etardi.

## 19-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYONI BOSIB OLISHI

### 19.1. ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN O'RTA OSIYONI BOSIB OLISH UCHUN ISTILOCHILIK HARAKATLARINING BOSHLANISHI

Bosib olish uchun tayyorgarlik. Rossiya imperiyasi tashqi siyosatida o'z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari bilan har tomonlama aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Bunda, eng avvalo, xonliklar to'g'risida ko'proq ma'lumotlar to'plash maqsadida o'z elchilarini bu yerlarga jo'natdi. **Pyotr I** hukmronligi davridayoq **Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy** boshchiligidagi harbiy ekspeditsiya jo'natilgandi. Ammo bu ekspeditsiya muvaffaqiyatsizlikka uchragandan so'ng, podsho hukumati harbiy istehkomlar qurishga kirishdi. **1718-yili Irtish** daryosi sohilida shunday istehkomlardan yettitasi qurib bitkazildi.

Sayyoh, savdogar, elchilar sifatida yuborilgan ayg'oqchilar tomonidan O'rta Osiyoning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy ahvoli, suv va quruqlikdagi yo'llari to'g'risida ma'lumotlar yig'ib borildi. XIX asrda Rossiya imperiyasining sanoat xomashyosiga bo'lgan ehtiyojining ortishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlari uchun qo'shimcha iste'mol bozorlarining zarurligi, to'qimachilik sanoati uchun arzon paxta tolasi yetkazib beradigan hududga ega bo'lish muammolari O'rta Osiyoning bosib olinishini yanada tezlashtirdi. Shuning uchun **XIX asr o'rtalarida** bu hududni bosib olish Rossiya imperiyasining birinchi navbatdagi vazifasiga aylandi. Qolaversa, xalqaro doirada ingliz tovarlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi, Angliyaning bu hududga nisbatan qiziqishining ortib borishi Rossiya imperiyasi hukumatining istilochilik harakatlarini yanada tezlashtirdi. Buyuk Britaniyaning **Ost-Indiya** kompaniyasi XIX asrdan boshlab strategik ahamiyatga ega bo'lgan xonliklarning tabiiy boyliklari, xomashyo mahsulotlariga qiziqishi ortib bordi. O'rta Osiyoga **1825-yili M.Murkroft** Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish uchun yuboriladi. U Buxoroga kelib, qaytib ketayotganda ikki hamrohi bilan halok bo'ladi. **1832-yili Buxoroga A.Byorns**, **1844-yili mayor I.Volf**, **1843-yili Xiva va Buxoroga kapitan J.Abbot** yuborilgan.

O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ularga Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklifi bilan Buxoroga kelgan Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari **Ch.Stoddart** va

**A.Konnoli 1842-yili** amir tomonidan qatl qilindi. Bunga javoban Angliya hukumati Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan sulh tuzib, ularni qurollantiradi. Shundan keyin Afg'oniston Buxoro amirligi hududining bir qismini bosib oldi. Natijada **1855-yili** o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohilidagi hududlar Afg'oniston viloyatiga aylantirildi.

XIX asr o'rtalariga kelib Angliyaning O'rta Osiyoga nisbatan olib borayotgan bunday siyosati va podsho hukumatining **Qrim urushi** dagi (1853 ~ 1856) mag'lubiyati Rossiya imperiyasini Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarini bosib olish harakatlarini tezlashtirishga undadi. Buning uchun, eng avvalo, unga olib boradigan yo'llar, ayniqsa, Rossiya imperiyasini O'rta Osiyo bilan bog'lovchi savdo yo'llarini to'liq o'z qo'lga olishga harakat qildi. Natijada asosiy yo'l hisoblangan Toshkentga boradigan **Orenburg yo'lida** harbiy istehkomlar qurdi. Sirdaryoning Oro'lga quyilish joyida **1847-yili Raim qal'asi** bunyod etildi.

Chegara hududlarida yashaydigan Rossiya imperiyasi fuqarolari bo'lgan aholiga talonchilik va bosqinchilik qilib turuvchi guruhlarining hujumlarini bartaraf etish podsho hukumatining O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini boshlashiga bahona bo'ldi. Bundan tashqari, to'qimachilik sanoati uchun xomashyo bo'lgan paxtaning yetishmasligi O'rta Osiyoni bosib olishga bo'lgan harakatlarni tezlashtirdi. Bu davrda AQShda shimol va janub o'rtasida boshlangan fuqarolar urushi (1861 – 1865) tufayli Rossiyaning to'qimachilik sanoati uchun paxta xomashyosiga taqchillik vujudga keldi.

**XIX asrning 1-yarmida** O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi uzoq vaqt davom etgan o'zaro urushlar ularning iqtisodiy va harbiy jihatdan zaiflashib ketishiga olib keldi. Bunday vaziyat oxir-oqibat xonliklarning istilo qilinishlarini osonlashtirdi.

Shunday qilib, **XIX asr o'rtalariga** kelib xonliklar o'zaro urushlar, ichki nizo va ziddiyatlar, davlat boshliqlarining uzoqni ko'zlab ichki va tashqi siyosat olib bormaganliklaridan nochor ahvolga tushib qoldi. Shunday vaziyatda Rossiya imperiyasi hukumati o'zining siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlarini ko'zlab O'rta Osiyoga harbiy istilochilik harakatlarini boshlaydi.

O'rta Osiyoga qarshi istilochilik yurishi bosqichlari. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi to'rt bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich **1847 – 1865-yillarda** Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining shimoli-g'arbiy viloyatlari va Toshkent shahri istilo qilindi. Istilo etilgan hududlarda **Orenburg general-gubernatorligi** tarkibiga kiruvchi **Turkiston viloyati** tashkil etildi. Ikkin-

chi bosqich **1865 – 1868-yillarni** qamrab olgan bo'lib, bunda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligiga qarshi istilochilik harakatlari amalga oshirildi. Uchinchi bosqich **1873 – 1879-yillar** davomida Xiva va Qo'qon xonligi yerlarini bosib olishdan iborat bo'ldi. To'rtinchi bosqich **1880 – 1885-yillarda** turkmanlarning bo'ysundirilishi edi. Shunday qilib, **1864 – 1885-yillarda – 20 yildan ortiq vaqt** davomida Rossiya imperiyasining uzoq davom etgan harbiy tayyorgarligi natijasida bosqinchilik urushlari olib borildi. O'rta Osiyo xonliklari hududining katta qismi (**1 583 255 km<sup>2</sup>**) bosib olinib, mustamlakaga aylantirildi.

*O'rta Osiyoga qarshi harbiy-istilochilik yurishlarining boshlanishi.*

Rossiya imperatori **Aleksandr II (1855 – 1881)**ning **1859-yili** Qo'qon xonligini bosib olishni davom ettirishi to'g'risidagi ko'rsatmasidan so'ng bu davlatga nisbatan harbiy harakatlar kuchaydi. Buning uchun, eng avvalo, xonlikning **Toshkent** shahri bosib olinishi zarur edi. Toshkent shahrining bosib olinishiga podsho hukumati jiddiy tayyorgarlik ko'rgan. Chunki Toshkentni egallash Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy yurishlarining keng qamrovda va tayanch hududga ega holda olib borilishini ta'minlardi. Bu shahar O'rta Osiyoni bosib olish uchun asosiy yo'lak, harbiy qo'shinlarning kelgusidagi harakatlari uchun tayanch nuqta vazifasini bajara oladigan joy hisoblangan.

Toshkentni bosib olishda **Oqmasjid** qal'asi harbiy harakatlarning tayanchiga aylandi. Podsho qo'shinlarining Oqmasjid qal'asini bosib olish borasidagi dastlabki harakatlari (**1852-yil**) mag'lubiyatga uchragandan keyin, **1853-yili** uni egallash uchun ikkinchi marta hujum boshlanadi. **3 mingdan ortiq** kishidan iborat harbiy qo'shinga **400 kishidan** iborat qal'a himoyachilari **20 kun** davomida qarshilik ko'rsatdi. Dushman tomonga nisbatan soni juda oz bo'lgan, qurshovda qolgan qal'a himoyachilari oxirgi imkoniyatlari qolgunicha jang qilishiga qaramasdan, podsho hukumati qo'shinlari tomonidan qal'a egallanadi. Keyinchalik bu qal'a harbiy harakatlar uchun tayanch punktga aylandi va unga **Perovskiy forti** deb nom berildi.

**N.Veryovkin** va **M.Chernyayevlarning 1864-yili uch mingdan ko'proq** qo'shini ikki yo'nalishda, biri **Perovskiy forti** (Orenburg tomon)dan, boshqasi esa **Verniy (Almati) shahri** tomondan Toshkentni bosib olish uchun yo'lga chiqdi. **4-iyunda** M.Chernyayev boshchiligidagi qo'shin Talas daryosining chap sohilidagi **Avliyoota** (hozirgi Taroz shahri)ni bosib oldi. **Turkiston** va **Chimkent** shaharlari mudofaasiga rahbarlik qilishga Qo'qon xoni tomonidan **amirlashkar Aliquli** (Alimqul) yuborildi. N.Veryovkin agar Turkiston himoyachilari taslim bo'lma-

sa, shaharni yalpi o'qqa tutib, barchani qirib tashlashini, Ahmad Yassaviy sharafiga Amir Temur tomonidan qurilgan maqbarani ham yakson qilishini ultimatum tarzida qo'ydi. Natijada Aliquli o'z qo'shinini Turkistondan olib chiqib, Chimkent mudofaasi uchun chekindi. **Uch kunlik** jangdan so'ng **12-iyul** kuni N.Veryovkin otryadi Qo'qon xonligiga qarashli Turkiston shahrini bosib oldi va **20 kilometrlik** qal'a devori bilan o'ralgan Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik ko'rdi.

Bu harbiy harakatlarga M.Chernyayev qo'mondon etib tayinlandi. **1864-yil** kuzida **Chimkent** shahri egallanib, **Yangi Qo'qon chizig'i** asosida qo'lga kiritilgan qal'alar birlashtirildi. Bu vaqtga kelib *Raim qal'asidan Perovskiy fortigacha Sirdaryo istehkom chizig'i*, *Semipalatskdan Verniy shahrigacha Sibir istehkom chizig'i* vujudga kelgandi.

Toshkentning bosib olinishi. Toshkent O'rta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy, yirik ma'muriy va savdo-sotiq markazlaridan biri hisoblangan. **XIX asr 2-yarmida** Toshkent shahrining **12 ta**, ya'ni **Labzak, Taxtapul, Qorasaray, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'ymas, Qo'qon, Qashg'ar** darvozalari bo'lgan. Har tomondan shaharga kirish uchun qurilgan bu darvozalar soqchilar tomonidan qo'riqlangan. Shaharni mudofaa qilish uchun qurilgan devor ortida **Kaykovus arig'ining** suvi bilan to'ldiriladigan xandaqlar bo'lgan. Toshkent to'rtta: **Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur** dahalariga bo'linib, har bir daha o'z oqsoqoli tomonidan boshqarilgan. **XIX asr o'rtalarida** shahar aholisi **80 mingga yaqin** kishini tashkil qilgan.

**1864-yil 1-oktabrda** M.Chernyayev o'zini podshoga yaxshi ko'rsatish uchun tezlik bilan Toshkentni qo'lga kiritmoqchi bo'ldi. Lekin uning bu rejasi amalga oshmadi. M.Chernyayev **70 nafardan ziyod** askarlaridan ajralib, Chimkentga chekinishga majbur bo'ldi. Uning Toshkentni egallash uchun olib borgan birinchi harakati natija bermagandan so'ng yangi hujumga tayyorgarlik boshladi. Uning bu tayyorgarligi bahorgacha davom etdi va **1865-yil aprel** oyi oxirida podsho hukumatining harbiy qo'shinlari Toshkent yaqiniga joylashtirildi. M.Chernyayev boshchiligidagi harbiy qo'shin Toshkent shahridan **25 km** uzoqlikdagi Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan **Niyozbek qal'asiga** kelib, uni jangsiz topshirishni taklif qiladi, lekin qal'a himoyachilari rad javobini berib, mudofaaga o'tadi. **29-apreldan** boshlangan hujum **ikki kun** davom etdi. Himoyachilar va istilochilarning harbiy kuchlari o'rtasidagi farq juda katta edi. Qal'a to'plardan to'xtovsiz ravishda o'qqa tutilib, uning devorlari buzib tashlandi. Devorlarning buzilgan joylaridan

bosqinchilar qal'aga kirib uni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Oqibatda Toshkent darvozasi deb nom olgan Niyozbek qo'rg'oni dushman qo'liga o'tdi. Ushbu qal'aning qo'lga kiritilishi M.Chernyayevga Toshkentni suv ta'minotidan uzib qo'yish imkonini berdi. Uning buyrug'iga ko'ra Toshkent shahri aholisini suv bilan ta'minlaydigan Chirchiq daryosidagi to'g'on buzib tashlanadi.

M.Chernyayev boshchiligidagi istilochilar **1865-yil may** oyida bevosita Toshkentga hujum boshladi. Toshkent mudofaasida shahar himoyachilari va Qo'qon xonligi qo'shinlari amirlashkar Aliquli boshchiligidagi qarshilik ko'rsatdi. Ayovsiz janglar bo'lib, unda Aliqulining yarador bo'lib vafot etishi shahar himoyachilarini sarosimaga solib qo'ydi. Himoyachilarning yagona harbiy boshliqsiz qolishi istilochilarning qo'li ustun kelishiga olib keldi. Afsuski, Toshkent himoyasiga Buxoro amirligidan yordam o'z vaqtida kelmadi, kechikib kelgan qo'shinlarning esa foydasi tegmadi. Podsho hukumati qo'shinlari **Kamolon darvozasi** yonidan devorni buzib shaharga kirdi. Ularga toshkentlik sarbozlar va aholi shaharning har bir mahalla ko'chasida tashkil qilingan to'siqlarda qattiq qarshilik ko'rsatdi. Toshkentning har bir qarich yeri uchun ko'cha va mahallalarda janglar davom etdi.

Asosiy jang **Kamolon darvozasidan Xadradagi markaziy bozorga boradigan ko'chada** bo'lib, podsho qo'shinlari **to'rtta** to'p himoyasida bo'lgan to'siqdan o'ta olishmadi. Ammo M.Chernyayev qo'shinining bir qismi bu vaqtda shahar qal'asini egallab, shu yerdan shahar ichkarisini to'plardan o'qqa tutadi. Qal'a himoyachilari shaharni o'qqa tutilishdan saqlash maqsadida qal'aga o't qo'yadilar. Bu bilan qal'adan podsho qo'shinlarini chiqib ketishga majbur qildilar.

Jang ertalabgacha davom etdi, lekin himoyachilar taslim bo'lmadilar. Kamolon darvozasi tomonga chekingan M.Chernyayev qo'shinlari ertalab yana qaytadan jang boshlab yubordi. Uylar vayron bo'lib, shahar yong'in ichida qoldi. Uzoq va katta janglarga tayyor bo'lmagan toshkentlik himoyachilar holdan toyib, ular orasida qurol-yarog', o'q-dori taqchilligi boshlandi. Suv yo'llarining to'sib qo'yilganligi yong'inlarni o'z vaqtida o'chirish imkonini bermadi. Jasadlar ko'chalarda qolib ketdi.

Shahar qurol kuchi bilan egallab olingach, M.Chernyayev **17-iyunda** Beshyog'och, Ko'kcha, Sebzor va Shayxontohur dahalarining oqsoqollarini chaqirdi. Muzokarada Toshkent qozikaloni **Hakimxo'ja, Abdurhamon eshon, Solihbek dodhoh** va shaharning boshqa nufuzli kishilari ishtirok etdi. M.Chernyayev xalqaro doirada o'z xatti-harakatlarini oqlash maqsadida go'yoki Toshkent ixtiyoriy ravishda taslim bo'ldi va



aholi tinchligi uchun toshkentliklar o'zlari Rossiya askarlariga uning darvozalarini ochib berdi degan xatni imperator nomiga yozishlarini talab etdi. Oqsoqollardan **9 nafari** shaharni «ixtiyoriy ravishda topshirish» to'g'risidagi sulhni imzolashga majbur bo'lishdi. Jahon ommasi bu xatning mazmunidan xabardor bo'lishi uchun podsho hukumati tomonidan barcha choralar ko'rilgandi. Bunday soxta xat yozilishiga qarshi bo'lgan **Solihbek dodhoh, Abulqosim eshon, Hakimxo'ja** singari vatanparvarlar **Sibirga** surgun qilingan. Shu bilan Toshkent podsho hukumati ixtiyoriga o'tib, Turkiston o'lkasining harbiy, siyosiy va ma'muriy markaziga aylantirildi.

Harbiy istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda **Turkiston viloyati** tuzilib, unga harbiy qo'shin qo'mondoni, general-mayor **M.Chernyayev** gubernator qilib tayinlandi. **1865-yil 6-avgustda** qabul qilingan «**Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom**»ga muvofiq viloyatda harbiylashtirilgan boshqaruv tartiblari o'rnatildi. Viloyat bo'limlarining harbiy asosda tashkil qilinishidan maqsad podsho hukumatining kelgusidagi harbiy rejalari amalga oshirilishida tayanch ma'muriy hudud vazifasini o'tashi ko'zda tutilgandi.

## 19.2. TÜRKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING TASHKIL ETILISHI

*Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi.* O'rta Osiyoni o'z mustamlakasiga aylantirish maqsadida podsho hukumatining olib borgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida uning katta hududlari bosib olindi. Olib borilgan harbiy harakatlarda yo'qotishlar va talafotlarga qaramay, imperator **Aleksandr II** ning buyrug'i bilan navbatdagi harbiy rejalarni amalga oshirish davom ettirildi. **1865-yili** tashkil qilingan Turkiston viloyati O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarni olib borishda harbiy markaz rolini bajardi. Navbatdagi vazifa bosib olingan hududlarda podsho hukumati hukmronligini mustahkamlash va ma'muriy-hududiy birliklarni tashkil qilishdan iborat edi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun bosib olingan joylarni o'z ichiga oluvchi ma'muriy-boshqaruv hudud, ya'ni alohida **general-gubernatorlik** tashkil etishga kirishildi. *Buning sababi O'rta Osiyoning Orenburg general-gubernatorligidan uzoqda joylashganligi bo'lsa, boshqa yana bir sababi bu kelgusida bosib olinadigan yerlarni ham birlashtirish bo'lgan.* Mazkur hududlarning imperiya tarkibida yana bitta general-gubernatorlik tashkil qilish uchun aholisi va hududi to'g'ri kelgan. Shu bilan birga,

O'rta Osiyoda alohida general-gubernatorlikni tashkil qilish orqali uning geografik xususiyatlari, iqtisodi, tabiiy boyliklari, mineral resurslarini imperiya manfaatlariga har tomonlama moslashtirish mumkin edi.

**1867-yili** bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi **Turkiston general-gubernatorligi** tashkil qilindi. Shu bilan birga, **Turkiston harbiy okrugi** ham tuzildi. **1847-yildan** boshlab harbiy istilochilik yurishlarida ishtirok etgan barcha harbiy qismlar uning tarkibiga kiritildi. Bu davrda Turkiston harbiy okrugidagi harbiylar soni **40 ming kishidan** iborat bo'lgan.

**Toshkent shahri** general-gubernatorlikning markazi qilib belgilandi. U qulay geografik makonda joylashgan bo'lib, harbiy, siyosiy, strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga ega edi.

*Turkiston general-gubernatori o'lkada joylashgan harbiy qo'shinlar qo'mondoni, Yettisuv kazaklari qismi qo'mondoni, shu bilan birga, bosh sudya ham hisoblangan.* Turkiston general-gubernatorligiga 1867-yil Rossiya imperatori farmoniga ko'ra general-adyutant **Konstantin Petrovich fon Kaufman (1867 – 1881)** tayinlandi. U bir paytning o'zida Turkiston harbiy okrugining qo'mondoni ham edi.

*Yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi.* Turkiston general-gubernatorligi **Turkiston viloyati** va **Semipalatinsk viloyatining janubiy qismini** ham o'z ichiga oldi. Dastlab Turkiston general-gubernatorligi ma'muriy jihatdan ikkita viloyat: **Sirdaryo (markazi Toshkent)** va **Yettisuv (markazi Verniy)** viloyatlariga bo'lingan. *Sirdaryo viloyatining hududiga, asosan, 1865-yili tashkil qilingan Turkiston viloyatiga tegishli bo'lgan yerlar va Qo'qon xonligining bosib olingan shimoliy hududlari kirgan. Yettisuv viloyati esa Semipalatinsk viloyatining Sergiopol, Kopal va Olatavsk okrugi yertari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismidan iborat holda tashkil qilindi.* Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar vujudga kelgan: *1868-yili Buxoro amirligiga qarashli yerlarda Zarafshon okrugi (markazi Samarqand), 1873-yili Xiva xonligiga qarashli hududlarda Amudaryo bo'limi (markazi Petro-Aleksandrovsk; hozirgi To'rtko'l) va 1876-yili Farg'ona viloyati (markazi Yangi Marg'ilon, keyinchalik Skobelev; hozirgi Farg'ona shahri), 1881-yili Kaspiyorti viloyati (markazi Ashxobod shahri) tashkil qilingan.*

Turkiston o'lkasidagi viloyatlarning hududlari katta bo'lgan. Ularning maydoni Rossiyaning ayrim markaziy guberniyalari hududidan ham katta edi. Jumladan, o'lkadagi viloyatlarning hududiy jihatdan eng kichigi bo'lgan **Samarqand viloyatining** maydoni **2000 verst<sup>2</sup> (1 verst – 1,066**

km<sup>2</sup> ga teng) bo'lib, u **Saratov guberniyasidan, Sirdaryo viloyatining** hududi esa **Moskva guberniyasidan** katta bo'lgan.

Turkiston general-gubernatori 1867-yilgi «Nizom» loyihasida ko'rsatilgan huquqlardan tashqari o'lkani boshqarish uchun mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda mustaqil faoliyat olib borishda katta huquqlarga ega bo'lgan. Turkiston o'lkasida, Rossiya imperiyasining boshqa guberniya boshliqlaridan farqli ravishda, siyosiy, iqtisodiy, harbiy va geosiyosiy maqsadlarini amalga oshirishda K.P.Kaufmanga katta vakolatlarni berilgan. Shuning uchun u xalq orasida «**yarim podsho**» nomini olgan.

### 19.3. BUXORO AMIRLIGIGA QARSHI HARBIY HARAKATLARNING BOSHLANISHI

*Buxoro amirligini bosib olishning boshlanishi.* Toshkent shahri bosib olingandan so'ng, podsho hukumatining kelgusidagi rejasi xonliklarni navbat bilan egallash edi. Barcha harbiy harakatlar Toshkent shahridan turib tashkil qilindi va boshqarildi. Shu maqsadda, eng avvalo, xonliklarning birlashmasligiga qaratilgan siyosat olib borildi. Ya'ni mustamlakachilar o'zlarining asosiy qoidasi hisoblangan «**Bo'lib tashla, hukmronlik qil**» shioriga amal qilishga kirishdi.

Podsho hukumati O'rta Osiyodan M.Chernyayevni Sankt-Peterburgga chaqirib oldi va uning o'rniga Turkiston viloyatining gubernatori qilib **F.Romanovskiyni** tayinladi. F.Romanovskiy **1866-yili** Buxoro amirligi Rossiyaga qarshi urushga tayyorlanayotganligini bahona qilib unga qarshi harbiy yurish boshlashga imperatordan ruxsat so'radi. Hukumat tomonidan mazkur taklif qabul qilingach, u Sirdaryoning o'rta oqimidagi hududlarni egallashga kirishdi. Birinchi jang **1866-yil 8-mayda Erjar qishlog'i** yaqinida bo'lib, kuchlar harbiy jihatdan teng bo'lmaganligi uchun, amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. F.Romanovskiy Buxoro qo'shinini ta'qib qilishni to'xtatib, avval Qo'qon xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida joylashgan Toshkent, Qo'qon, Balx va Buxoro bilan bog'lovchi **Xo'jandga** qarab harakat boshladi.

Turkiston general-gubernatorligi qo'shinlari tomonidan Xo'jand qal'asi **17-mayda** qamal qilinib, **20 ta to'p**dan o'qqa tutildi. Ertasi tonggacha qamal davom etib, keyin hujum boshlandi. Birinchi hujum qaytarilgach, shahar yana qayta o'qqa tutildi. Shahar qamali va o'qqa tutish **ikki kun** davom etdi. Istilochilarga qarshi shahar mudofaachilari har bir qarich joy uchun mardonavor jang qildilar. Lekin harbiy texnika va son

jihaddan ustun bo'lgan mustamlakachilar qo'shinlari **24-may**da tunga borib himoyachilarning mudofaasini yorib o'tdilar. Shahar ko'chalarida ko'plab mudofaachilar va tinch aholining jasadlari, vayron bo'lgan xonadonlar qoldi.

O'ratepa va Jizzax uchun janglar. Turkiston viloyati gubernatori F.Romanovskiyni Orenburg general-gubernatori **N.Krijanovskiyni** tomonidan harbiy harakatlarni Qo'qon xonligiga qarshi qaratish to'g'risida ko'rsatma berildi. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi harbiy harakatlari rejasiga ko'ra, Qo'qon xonligining taqdiri **1866-yil**yoq hal qililib, Xo'jandda Qo'qonga qarshi hamma narsa tayyor holatga keltirilgandi. Qo'qonga qarshi yurishga boshchilik qilish uchun N.Krijanovskiyni o'zi keldi. U Buxoro amirining vakili bilan sulh shartnomasi bo'yicha uchrashib, **10 kun** mobaynida **100 ming rubl** tovon to'lashni talab qildi. Belgilangan muddat o'tgach, N.Krijanovskiyni Buxoro amiri talablarni bajarmaganligini bahona qilib o'z qo'shinlariga amirlikka qarshi hujum boshlashga buyruq berdi.

**1866-yil** kuzida **6 ming piyoda askar, 500 kazak, 28 to'p, 600 arava** va **800 tuyadan** iborat harbiy qo'shin **O'ratepa**ga qarab harakat boshladi. Bu harakatga Qo'qonga qarshi tayyorlab qo'yilgan kuchlar ham jalb qilindi. F.Romanovskiyni harbiy qo'shinlari **O'ratepa**ga yetib borgach, shahar **uch kun** to'plardan o'qqa tutildi. Shundan keyin tongda hujumga o'tildi. Shahar aholisi bosqinchilarga mardonavor qarshilik ko'rsatdi. O'ratepa to'plardan o'qqa tutilganligi natijasida vayron qilinib, dushman tomonidan egallandi. Hujum natijasida **2 ming nafardan ko'proq** aholi halok bo'ldi.

Rossiya imperiyasining harbiy qo'shinlari **O'ratepa**ni egallagandan so'ng, **12-oktyabr**da navbatdagi harakat **Jizzax**ga qaratildi. To'xtovsiz otishmalar natijasida shahar devorlari vayron qilinib, **ikki kecha-kunduz** davom etgan jangdan so'ng **1866-yil 18-oktyabr**da Jizzax shahri ham podsho hukumati qo'lga o'tdi. Uni bosib olish uchun bo'lgan jangda har ikkala tomondan **6 mingdan ko'proq** kishi halok bo'ldi. Bu shahar himoyasida Buxoro amirligidan yordamga chiqqan kuchlar kechikib keldi. Ular himoyachilarga hech qanday yordam berolmasdan orqaga qaytishdi. Podsho hukumati Jizzaxda **3 ming askar, 300 kazak** va **12 to'p**dan iborat harbiy kuchlarini qoldirdi. **1864 – 1866-yillar** davomida bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi **Sirdaryo viloyati** tashkil qilindi.

#### 19.4. BUXORO AMIRLIGI USTIDAN ROSSIYA IMPERIYASI PROTEKTORATINING O'RNATILISHI

*Samarqand uchun jang.* Turkiston general-gubernatori fon Kaufman O'rta Osiyoni bosib olishni Buxoro amirligini qo'lga kiritish bilan davom ettirishga qaror qildi. Amirlikning harbiy kuchi Qo'qon xonligi bilan uzluksiz olib borilgan urushlar, ichki nizolar, zamonaviy harbiy texnikada ortda qolishi tufayli zaiflashgandi. Fon Kaufman Buxoro amirligi chegara hududlarini puxta o'rganib chiqib, Amir Muzaffarga chegaraning Rossiya mulki foydasiga o'zgartirilgan yangi loyihasini tasdiqlashni taklif qildi. Amir Muzaffar bu shartnomani imzolashdan bosh tortdi. Shunda K.Kaufman uni general-gubernatorlik chegaralariga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rishda ayblab **4 mingdan ziyod** qo'shindan iborat harbiy otryad to'plab, **1868-yil aprelda Samarqandni** bosib olishga kirishdi. Biroq K.Kaufmanning Amir Muzaffar qo'shinini Samarqandga to'plagan deb qilgan taxmini o'z tasdig'ini topmadi.

Bu vaqtda Buxoro qo'shinlari **Cho'ponota** tepaligida o'rtnashib olgandi. **1868-yil 1-mayda** fon Kaufman tepalikka hujum boshladi. Rossiya imperiyasi qo'shinlari, amirlik sarbozlarining miltiq va to'pdan tinmay o'qqa tutib turganiga qaramasdan, suvdan kechib Cho'ponota tepaligiga ko'tarildi. Natijada sarbozlar chekinishga majbur bo'ldi. Shu bilan amir qo'shinining ilg'or jangovar qismi tor-mor keltirildi.

Shundan so'ng **Zirabuloq tepaligida** ikkinchi jang bo'lib o'tdi. Qanchalik qarshilik ko'rsatmasin Buxoro amiri qo'shini yana mag'lubiyatga uchradi, natijada podsho qo'shinlari Samarqandga jangsiz kirib bordi. K.P.Kaufman Samarqand bekligini Rossiyaga berish, «harbiy xarajatlarni» to'lash va 1865-yildan buyon Turkiston o'lkasida qo'lga kiritilgan barcha narsalarni Rossiya mulki deb e'tirof etish sharti bilan sulh tuzishni taklif qilib Amir Muzaffarga maktub yo'lladi, ammo amirdan javob bo'lmadi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda amalga oshirgan harbiy istilochilik yurishlariga nafaqat amirlik va xonliklarning harbiy qo'shinlari, balki mahalliy aholi vakillari ham qattiq qarshilik ko'rsatdi. Masalan, K.P.Kaufmanning Buxoro amirligiga qarshi harbiy yurishlari vaqtida **Urgut** shahrida mahalliy aholi podsho hukumatining qo'shinlariga qarshi kurash olib bordi. K.P.Kaufman general **Abramovni** qo'shin bilan Urgutga yuborib, shaharning taslim bo'lishini taklif qildi. Lekin bu taklif mahalliy aholi tomonidan rad etildi. Ikki tomon o'rtasidagi to'qnashuvda mahalliy aholi mardonavor jang olib bordi. Artilleriya to'plaridan otilgan

o'qlar boshqa joylardagi kabi Urgutda ham istilochilarning harbiy ustunligini ta'minladi. Buning natijasida shahar qal'asi mustamlakachilar tomonidan egallandi. Podsho hukumati qo'shinlari Urgutdan so'ng **Kattaqo'rg'on** shahrini bosib olishga kirishdi.

Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Samarqandda **Kitob** hokimi **Bobobek** va **Shahrisabz** hokimi **Jo'rabek** boshchiligida ozodlik kurashi olib borildi. Bu ikki xalq harakati rahbarlari o'z qo'shinlari bilan **1868-yil 2-iyunda** samarqandlik qo'zg'olonchilar bilan birga Rossiya imperiyasi qo'shinlari garnizoni joylashgan shahar qal'asiga hujum qilishdi. Qamalda qolgan qo'shin yordam so'rab general-gubernator fon Kaufmanga chopar yuboradi. **6-iyunda** qamalda qolganlarga yordamchi kuchlar yuborildi. Qal'ani egallash uchun **4-iyundan 7-iyungacha** shiddatli janglar davom etdi. Unda ikki tomon ham ko'plab talafot ko'rdi. **8-iyunda** qamalda qolganlarga harbiy kuchlar yetib keldi, shundan so'ng xalq himoyachilari Samarqanddan chiqib tog' tomonga chekinishga majbur bo'ladi.

*Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi.* Podsho hukumati tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat **Zarafshon okrugi** tuzildi. Unga general Abramov boshliq qilib tayinlandi. Zirabuloq jangidan keyin Amir Muzaffar o'z mag'lubiyatini tan olib, fon Kaufmanning Turkiston general-gubernatorligining yangi chegaralari haqidagi taklifini qabul qilishga majbur bo'ldi. Bu bilan Rossiya imperiyasi istilochilik yurishlarining ikkinchi bosqichi yakunlandi.

**K.P.Kaufman 1868-yil 28-iyunda Samarqandda** Amir Muzaffar bilan Buxoro amirligini Rossiya imperiyasining protektoratiga aylantirgan shartnomani imzoladi. Unda amir urush boshlanishida aybdor ekanligi, abadiy do'stlik belgisi sifatida Rossiya qo'shinlarining harbiy xarajatlari uchun **500 ming rubl** to'lanishi e'tirof etildi. Shartnomaga ko'ra, bosib olingan Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan barcha hudud: **Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on** shaharlari Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tdi. Amir o'z ixtiyorida qolgan hududlarni boshqarishda Turkiston general-gubernatorining ko'rsatmalariga rioya etish majburiyatini oldi. Bu davlat siyosiy qaramligi uchun tarixchilar tomonidan Buxoro hukmdori **vassal** deb ham yuritiladi. Amir Rossiya savdogarlariga amirlikda erkin savdo qilishiga sharoit yaratib berish va ularni himoya qilishni o'z zimmasiga oldi. Rossiyalik savdogarlarga savdo agentliklarini ta'sis etishga ruxsat berildi, tovarlardan olinadigan boj uning umumiy qiymati **2,5 foizdan** oshmasligi belgilandi. Shuningdek,

ular amirlik hududidan boshqa davlatlarga erkin o'tish huquqiga ega bo'ldi.

Bu amirlikni tahqirlagan, huquqsizlikka va qashshoqlikka mahkum etgan sharmandali shartnoma bo'ldi. Amirning tobelik siyosatidan norozi kuchlar o'z harakatini boshladi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan amir Muzaffarning katta o'g'li **Abdumalik to'ra**, **Jo'rabek** va **Bobobek** boshchiligidagi qo'shin Samarqandni ozod qilish uchun kurashlarini davom ettirdi. Ular amir Muzaffarning taxtdan tushirilganligini va Abdumalik to'ra amir etib tayinlanganini e'lon qildilar. Xalq qo'shinlari avval **Shahrisabzni**, so'ng **Qarshi** va **Karmana** shaharlarini o'z qo'llariga olishdi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman tomonidan bu harakatlarning oldini olish va bostirish uchun **I.F.Abramov** boshchiligidagi qo'shin yuborildi. Zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmaganligi sababli janglarda qo'zg'olonchilar egallab olgan hududlaridan birin-ketin surib chiqarila boshlandi. Natijada Abdumalik to'ra **Xiva xonligi** hududiga, undan **Afg'onistonga** o'tib ketdi. Afg'on amiri **Sheralixon** Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda Rossiyaga tayanishini rejalashtirgani uchun unga yordam bermadi. Hech qayerdan yordam ololmagan Abdumalik to'ra **Peshovarga** ketadi va u yerda **1909-yili** vafot etadi.

Shunday qilib, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi istilochilik urushining ikkinchi bosqichi Samarqandning egallanishi va Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektoratiga aylanishi bilan yakunlandi.

1873-yildagi shartnoma. Buxoro bilan Rossiya imperiyasi **1873-yili** amirlikka o'z vakilini tayinlash huquqini beruvchi yangi shartnomani imzoladi. Bu vakilning roziligisiz amirlik biror-bir ichki hamda tashqi siyosiy masalani hal qilolmaydigan bo'ldi. Shartnomaning **14-moddasi**da: «*Rossiya hukumatidan ijozat bo'lmagan, kim bo'lishidan qat'i nazar, har xil kimsalarni Buxoro hukumati qabul qilmaydi*», – deb ko'rsatilgan. Shartnomaga muvofiq, har kuni ertalab **qo'shbegi** vakildan kerakli ko'rsatmalarni olib, amirga yetkazishi shart bo'lgan. Amir esa bu hujjatlarni rasman tasdiqlagan, xolos. **P.Lessar** Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi **birinchi vakili** etib tayinlandi.

Vakilni Buxoroning amaldagi norasmiy gubernatori deb hisoblash mumkin edi. U Buxorodan **15 km** uzoqda joylashgan **Kogon** shahri-qarorgoh qildi. Bu bilan podsho hukumati Buxoroni to'liq imperiya tarkibiga qo'shib olmasdan, mamlakatni amir va uning amaldorlari orqali boshqarishni afzal ko'rdi. Natijada podsho hukumati Buxoro amirini o'z ta'sir doirasiga kiritib, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalandi.

**1869 – 1870-yillarda** Rossiya imperiyasi Tashqi ishlar vazirligi Angliya bilan Afg'oniston va O'rta Osiyodagi chegaralarni belgilash to'g'risida muzokaralar olib bordi. Natijada chegaralar Amudaryo bo'ylab **Panj tumanidan** o'tkazilishiga kelishildi. Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi chegara **1881-yil 10-dekabrda** Eron shohi bilan **Tehron**dagi Rossiya elchisi imzolagan maxfiy shartnomada belgilandi. **1885 – 1887-yillar**dagi muzokaralar natijasida chegaralarni belgilash bo'yicha ingliz-rus komissiyasi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi Buxoro amirligi yerlari bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara chizig'ini belgilashni nihoyasiga yetkazdi.

### **19.5. XIVA XONLIGI USTIDAN ROSSIYA IMPERIYASI PROTEKTORATINING O'RNATILISHI**

*Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishlarning boshlanishi.* Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoda istilochilik yurishlari natijasida bosib olingan hududlarda dastlab mustahkam o'rnashib oldi. Xiva xonligiga qarshi olib boriladigan harbiy yurishga **besh yil** tayyorgarlik ko'rildi. Yurish uchun bunday uzoq tayyorgarlik ko'rishning asosiy sababi A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi qo'shinning mag'lubiyatga uchraganligi (**1717**) bo'lsa, boshqa yana bir sabab **1839-yili** V.Perovskiy boshchiligidagi qo'shinlarning Xiva xonligi chegaralarigacha yetib borolmay orqaga qaytib ketganligi edi. Xonlikni bosib olish Rossiya imperiyasi uchun Amudaryoni qo'lga kiritish huquqini berardi. Amudaryoni egallash, birinchi navbatda, suv manbasi, suv orqali savdo aloqalari, daryoning quyi oqimidagi tekisliklardagi serhosil yerlardan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lish hisoblangan.

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo istilo qilinishining uchinchi bosqichi (**1873 – 1879-yillar**) davomida Xiva xonligining istilo etilishi ham amalga oshirildi. Hujum *g'arbda Mang'ishloq, shimolda Orenburg, sharqda Turkiston va janubda Krasnovodsk* kabi **to'rt** harbiy okrugdan olib borildi. Bunda **12 mingdan ortiq askar, 4600 ot va 20 ming tuyadan** iborat harbiy qo'shin ishtirok etgan. Bu qo'shinga **K.P.Kaufman** boshchilik qildi. Mazkur ko'p sonli harbiy qo'shin **1873-yil fevralda** o'zlari o'rnashgan joylari Toshkent, Orenburg, Mang'ishloq va Krasnovodskdan deyarli bir vaqtda yo'lga chiqdi. Xiva xonligiga olib boruvchi yo'llarning yomonligi, dastlab 25 daraja sovuqda, keyin 40 darajadan yuqori haroratda yo'l yurish juda qiyin kechdi. Bundan tashqari, cho'llarda 60 darajagacha jazirama bo'lishi, suvsiz dashtlardagi yo'llar



tufayli harbiy qo'shin saflari manzilga yetmasdanoq siyraklashib bordi. Uning katta qismi yo'lda kasalga chalindi, bir qismi halok bo'ldi va bir qismi orqaga qaytib ketdi. Xivaga **7,5 ming** kishigina yetib bordi. **Krasnovodsk** va **Mang'ishloq**dan Xiva tomon yurgan qo'shinlar jazirama issiq va suv yetishmasligidan aziyat chekkanligi, holdan toyganligi sababli yo'lning yarmidan ortga qaytishga majbur bo'ldi. Faqatgina **Toshkent**, **Orenburg** yo'nalishidan yo'lga chiqqan qo'shinlar **1873-yil may** oyida Xiva xonligi chegaralariga yetib keldi. Yo'l qiyinchiliklaridan tashqari ularga yo'lda kichik guruhlar hujum qilib tinkasini quritgan. Shunga qaramay, Rossiya imperiyasi qo'shinlari bilan Xiva xonligi qo'shinlari o'rtasida **may** oyida *Hazorasp qal'asi*, *Qo'ng'irof*, *Xo'jayli*, *Mang'it shaharlari* va *Xiva shahri* yaqinida janglar bo'lib o'tdi. Tomonlarning kuchlari teng emasligi, katta talafotlarga qaramasdan, xivaliklarga nisbatan podsho hukumati qo'shinlari yaxshi qurollangani bois, xonlik himoyachilari mag'lubiyatga uchradi.

**1873-yil may oyi o'rtalariga** kelib, mustamlakachi hukumatning asosiy qo'shinlari **Xivaga** yetib keldi. Ularning Xivaga qilingan birinchi hujumi himoyachilar tomonidan qaytarildi. Bu jangda ikki tomon ham katta talafotlar ko'rdi. Hujumga boshchilik qilgan general **Veryovkin** yarador bo'ldi. Podsho hukumati qo'shinlari katta talafot ko'rgani bois chekinib, fon Kaufman boshchiligidagi kuchlarni kutishga majbur bo'ldi.

Xivaga yetib kelgan K.P.Kaufman boshchiligidagi qo'shin yana shaharga hujum qildi. Ammo bu safar ham podsho hukumati qo'shinlari shaharni egallay olmadi. **29-may** kuni shaharning **Hazorasp darvozası** dushmanlarga ochib berilishi xonlik poytaxtining egallanishiga olib keldi. Shundan so'ng K.P.Kaufman muzokara olib borish yo'lini tanladi.

*Gandimiyon shartnomasi*. K.P.Kaufman Xivani bosib olgandan so'ng xon xazinasini **kontributsiya** (tovon) evaziga musodara qilib, xazina bilan birga qadimiy qo'lyozmalar, xonning taxti va toji, tanga zarb qiladigan tamg'a va zarb tasviri, qo'ng'irof sulolasi xonlarining hokimiyati ramzlari va boshqa qo'lga kiritilgan moddiy boyliklarni **Sankt-Peterburgga** jo'natdi. K.P.Kaufman Xivani egallagandan so'ng Xiva xonligi bilan muzokaralar o'tkazish uchun **Gandimiyon qishlog'**idagi qarorgohiga bordi. U taklif etgan sulh shartnomasini Xiva xoni **Muhammad Rahimxon II 1873-yil 12-avgustda** imzolashga majbur bo'ldi. Ushbu shartnoma Xiva xoni Rossiya imperiyasi tobeligiga o'tganligini ko'rsatardi. Shartnomaning **1-moddasida**: «*Sayid Rahim Bahodirxon o'zini Butun Rossiya imperatorining sodiq xodimi deb tan oladi. U qo'shni hukmdorlar va xonlar bilan har qanaqa bevosita do'stona munosabat-*

lardan va ular bilan biron-bir savdo yoki boshqa shartnomalar tuzishdan voz kechadi hamda Rossiyaning O'rta Osiyodagi oliy hokimiyati ruxsatisiz ularga qarshi hech qanday jangovar harakatlarni amalga oshirmaydi», – deb yozib qo'yilgandi. Bu bilan Xiva xoni mustaqil ravishda tashqi dunyo, hatto yaqin qo'shnilari bilan ham aloqa o'rnatish imkonidan mahrum etildi. Ular bilan faqat Rossiya imperiyasi roziligi asosida aloqa qila oladigan bo'ldi.

Xiva xonligiga qarashli Amudaryoning o'ng sohili, unga qo'shni yerlarning barchasi bu joylarda yashaydigan o'troq va chorvador aholisi bilan xon tasarrufidan chiqdi. Amudaryo bo'ylab erkin harakatlanishi uchun Rossiya kemalariga keng huquq berildi. Rossiyalik savdogarlar hamda ularning mollari uchun xon va mahalliy hokimlar javobgar edi. Ular xonlikda erkin yurish, boj to'lovlarisiz savdo-sotiq qilish huquqini qo'lga kiritdilar.

Gandimiyon shartnomasida: «Amudaryoning chap qirg'og'idagi ruslar uchun zarur va qulay bo'lgan yerga ular o'zlarining pristanlarini qurish huquqiga ega. Xonlik ushbu pristanlarning saqlanishi va xavfsizligi uchun javobgar. Ular uchun joyning tanlanishi O'rta Osiyodagi rus oliy hokimiyatining tasdiqlashiga bog'liq», – deb ko'rsatib qo'yildi.

Shartnomaga binoan, Xiva xonligi **2 million 200 ming rubl** miqdorida tovon to'lashi kerak edi. Xonlik xazinasida yetarli darajada pul bo'lmaganligi uchun, bu tovon aholidan yig'ib olinadigan bo'ldi. Tovu pulini **20 yil** ichida to'lash lozimligi belgilandi.

Gandimiyon shartnomasi Xiva xonligining Rossiya imperiyasiga tobeligini, xonning davlat boshlig'i darajasida boshqa davlatga bo'ysunganligini ko'rsatuvchi hujjat bo'ldi. Shartnoma, shu bilan birga, xonlik aholisini juda og'ir ahvolga solib qo'ydi. Tovu bilan birga yangi soliq va majburiyatlarni to'lash xalqning zimmasiga tushdi. Qolaversa, xonlik hududining **uch baravar** qisqarishi xonlikning davlat sifatida nomigagina mavjudligini, aslida, mustaqilligini yo'qotgan protektoratga aylanganligini ko'rsatadi.

## 19.6. QO'QON XONLIGINING BOSIB OLINISHI

Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi. Rossiya imperiyasi **XIX asrning 50 – 60-yillarida** harbiy istilochilik yo'li bilan **Qo'qon xonligi** hududining bir qismini bosib oldi. K.P.Kaufman xonlikni qolgan hududlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatish maqsadida **1868-yili** xon bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, xonlikda Rossiya savdogarlari-

ga katta imkoniyatlar berildi. Bu davrda xonlik yerlari ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromadlar kamaydi. Urush natijasida ko'rilgan zararlar xalq ommasi zimmasiga tushdi, soliq va majburiyatlar ko'paydi. Buning oqibatida xonlikda ichki nizolar, xalq noroziligi kuchayib ketdi.

**XIX asrning 70-yillarida** Qo'qon xonligida ko'plab qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Ulardan biri **1875-yil bahorida** avj olib, unga **Mulla Is'hoq Mulla Hasan o'g'li «Po'latxon»** nomi bilan rahbarlik qildi. Qo'qon hukmdori Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish uchun **Abdurahmon Oftobachi, Iso Avliyolar** boshchiligida qo'shin yubordi. Lekin ular **17-iyulda** qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketdi. Xudoyorxonning o'g'li **Nasridinbek** ham qo'zg'olonchilarga qo'shilgach, **20-iyulda** Xudoyorxon K.P.Kaufmandan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Uning ukasi va ikkinchi o'g'li ham qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketgach, xon general-gubernatordan panoh izlab **Toshkentga** ketdi. K.P.Kaufman esa uni **Orenburgga** jo'natdi. Shundan so'ng Xudoyorxon Orenburgdan Hindiston orqali **Makkaga** bordi. U qaytib kelayotganda kasalga chalilib, **1882-yili Afg'onistonda** vafot etdi.

Xudoyorxon taxtni tark etgach, o'rniga **Nasridinbek** o'tirdi. Taxtni egallashga harakat qilgan Po'latxon Nasridinbek va Abdurahmon Oftobachiga qarshi bo'lib qoldi. Qo'qon xonligida siyosiy vaziyat keskinlashib, qo'zg'olon butun vodiyni qamrab oldi. Mustamlakachi hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi katta harbiy kuchlarini yuborgan. Janglar keskin davom etayotgan vaqtda, Nasridinbek mag'lubiyatdan qo'rqib **1875-yil 22-sentyabrda** taslim bo'ldi va fon Kaufman bilan shartnoma imzoladi. Unda *o'zini imperatorning «sodiq quli» deb tan olishi, tashqi siyosatda hech qanday bitimlar tuza olmasligi, 2 million rubl tovon to'lashi, Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar, Namangan va Chust Rossiya ixtiyoriga o'tganligi* belgilangandi. Bu yerlarda tashkil qilingan **Namangan bo'limiga** general **M.Skobelev** boshliq etib tayinlanadi.

Nasridinbek imzolagan shartnomadan norozi bo'lgan aholi yana qo'zg'olon ko'tardi. Po'latxonning tarafdorlari soni oshdi, buning natijasida u Nasridinbekni siqib chiqarib, hokimiyatni o'z qo'liga oldi.

Andijonga uyushtirilgan hujum. Po'latxon qo'zg'olonining kuchayib ketishidan xavotirga tushgan mustamlakachi hukumat ularni tor-mor qilish uchun **Andijonga** hujum qildi. Chunki qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlari shu yerda joylashgandi.

General M.Skobelev boshchiligidagi hujum **1875-yil oktyabr oyi boshida** boshlandi. Artilleriya tomonidan shahar kun davomida to'plardan o'qqa tutildi. Andijon aholisi mudofaa janglariga jadal kirishdi. Sha-

har aholisi har bir qarich yer uchun jon-jahdi bilan kurashdi. M.Skobelev boshchiligidagi qo'shinning dastlabki urinishlari jiddiy qarshilikka uchradi. Shundan so'ng podsho hukumati qo'shinlari yo'lda uchragan barcha imorat va xonadonlarga o't qo'yib, shaharni yong'in ichida qoldirdi. Bundan tashqari, shahar to'xtovsiz ravishda artileriyadan o'qqa tutib turildi. Bu shahar himoyachilarini og'ir ahvolga solib qo'ydi. **Uch soat** davom etgan betinim o'qqa tutishdan so'ng kechqurun podsho hukumati qo'shinlari shaharga yana hujum qildi. Lekin bu hujum ham natija bermadi. Erta tongdan boshlab yana to'plardan kun bo'yi o'q yog'dirildi. Biroq shahar himoyachilarining qarshi hujumga o'tishi podsho qo'shinlarini chekinishga majbur qildi. Shahar **1876-yil yanvarda** uyushtirilgan ikkinchi hujum natijasida qiyinchilik bilan egallandi.

Namanganning bosib olinishi. Rossiya imperiyasining general M.Skobelev boshchiligidagi qo'shinlari **1875-yil 18-oktyabrda Naman-ganga** joylashib, K.P.Kaufman qo'mondonligi ostidagi harbiy kuchlarga qo'shildi. Mustamlakachi qo'shinlarga qarshilik harakatlari Namanganda **bir oy** davom etdi. Shaharni ozod etish uchun atrofdagi qishloqlardan qo'shimcha kuchlar keldi. Shunga qaramay, podsho qo'shinlari tomonidan shaharning yarmi qo'lga kiritildi. Podsho hukumati harbiy qo'shini **uch kun** davomida shahar qal'asida turdi. Ikki tomon o'rtasida janglar **1876-yil yanvar oyi oxirigacha** davom etdi. General M.Skobelev boshchiligidagi qo'shin **fevral oyiga** kelibgina harbiy qurol ustunligi bilan g'alabaga erishdi. Po'latxon va uning tarafdorlari qatl qilindi.

**1876-yil 19-fevralda** podsho hukumatining Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Shu tariqa Qo'qon xonligi hududi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi **Farg'ona viloyati** tashkil qilindi. Viloyatga Qo'qon xonligining bosib olinishidagi harbiy yurishlarga rahbarlik qilgan general **M.Skobelev** harbiy gubernator etib tayinlandi.

**XIX asrning 2-yarmida** Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda olib borgan istilochilik yurishlari natijasida Qo'qon xonligi, Buxoro va Xiva davlatlaridan farqli ravishda, davlat sifatida butunlay tugatildi. Uning o'rnida mahalliy aholining asrlar davomida shakllangan an'anaviy turmush tarziga mos ma'muriy boshqaruv tizimi va hududiy birliklari tugatilib, imperiya manfaatlariga mos keladigan, ayni paytda, mahalliy aholini boshqarishi uchun mustamlaka ma'muriyatga qulay bo'lgan yangi boshqaruv tizimi qaror topdi.

Farg'ona vodiysining bo'ysundirilishi bilan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga istilochilik yurishining uchinchi bosqichi (**1873 – 1879**)

nihoyasiga yetdi. Bu yurishlar natijasida O'rta Osiyoning katta hududi bosib olinib, Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirildi.

Turkmanlarning bo'ysundirilishi. O'rta Osiyoni bosib olishning to'rtinchi bosqichi Amudaryo va Kapetog' oralig'idagi Qoraqum sarhadlaridagi turkmanlarga qarshi qaratildi. **1879-yil iyulda** Angliya Afg'oniston hududining bir qismini bosib olgandan so'ng, inglizlar uchun O'rta Osiyoga yo'l ochildi. Shu bois 1879-yil iyulda **Krasnovodskdan I.Lazerev** boshchiligidagi harbiy qo'shin turkmanlar yashaydigan hududlarga jo'natildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki harakatlar natijasiz tugab, podsho hukumati qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Qo'qon xonligiga qarshi harbiy yurishlarda tajribasi katta bo'lgan general M.Skobelev boshchiligidagi qo'shin **1880-yil may** oyida ikkinchi yurishni boshladi. **Uch oy** davom etgan janglardan so'ng qamalga olingan turkmanlar qal'asi **Go'ktepa** qo'lga kiritildi. Buning natijasida istilo qilingan bu hududlarni o'z ichiga oluvchi, markazi **Ashxobod** bo'lgan **Kaspiyorti viloyati** tashkil qilindi. Turkmanlarning batamom bo'ysundirilishi esa **1885-yildagina** amalga oshirildi.

Turkmanlarning asosiy qal'asi bo'ysundirilgach, **1881-yili** Rossiya va Eron o'rtasidagi chegaralar belgilandi. Shu yili **Sharqiy Turkistonning Ili o'lkasidagi** qo'zg'olon podsho hukumati qo'shinlari tomonidan bostirilishi bilan Rossiya va Xitoy o'rtasidagi chegaralar ham belgilandi. Shu harakatlar bilan Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududidagi istilochilik yurishlarining to'rtinchi bosqichi (**1880 ~ 1885**) tugadi.

Shunday qilib, istilo qilingan hududlarda **besht viloyat**, ya'ni **Sirdaryo, Yettisuv, Farg'ona, Samarqand** va **Kaspiyorti** viloyatlari tashkil qilinib, ular Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

Rossiya imperiyasining XIX asr o'rtalaridan boshlab amalga oshirilgan harbiy istilochilik yurishlari natijasida Buxoro amirligi va Xiva xonligi imperiyaning protektoratiga aylantirildi. Qo'qon xonligi esa batamom tugatildi.

Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari. **XIX asrning 2-yarmida** O'rta Osiyo xalqlari Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Keng xalq ommasi vatan mustaqilligi va ozodligini mustamlakachilardan himoya qilish uchun qahramonlarcha jang qildi. Lekin bu davrdagi ichki nizolar, o'zaro urushlar, hukmdorlarning uzoqni ko'zlab ish ko'rmaganligi oxir-oqibat yurtning mustaqilligi yo'qotilib, o'zgalarga tobe bo'lishiga olib keldi.

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga, Qo'qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligining mag'lubiyatga

uchrashiga quyidagilar sabab bo'ldi: birinchidan, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari Rossiya imperiyasiga nisbatan harbiy va iqtisodiy rivojlanish sohasida ancha orqada edi. Ayniqsa, ularning harbiy sohadagi ahvoli o'sha davrda jahon miqyosidagi taraqqiyot darajasidan past bo'lgan. Xonliklarning tashqi siyosatda odilona siyosat olib bormaganliklari oqibatida ularning o'zlari tashqi dunyodan ajralib qolgandi; ikkinchidan, uchta davlat o'rtasida o'zaro do'stona munosabatlar, hamkorlik va birdamlik yo'q edi. Ulardagi siyosiy tizim, davlat boshqaruvi zamonaviy boshqaruvdan uzoq bo'lib, o'rta asrlarga xos yakkahokimiyatchilikka, zo'ravonlikka asoslangandi. Buning oqibatida ichki ziddiyatlar ko'payib, nizolar kuchaydi. O'zaro urushlar, taxt uchun kurashlar avj oldi; uchinchidan, urush harakatlari vaqtida xonlar biri ikkinchisiga yordam ko'rsatmadi va o'z tinchligini o'ylab befarq qarab turdi. Bu esa har bir xonlikning alohida tor-mor etilishini yengillashtirdi. Bularning barchasi Rossiya imperiyasi hukumatiga qo'l keldi va vaziyatdan foydalanib mamlakatni mustamlakaga aylantirdi.

## 20-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

### 20.1. TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING SIYOSIY-MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMI

*Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari.* Bosib olingan hududlarda imperiya hukmronligini o'rnatish, mustahkam o'rnatib olish, istilo qilingan joylarni qo'ldan chiqarmaslik uchun, eng avvalo, mustamlakachilar o'zlariga mos boshqaruv tartiblarini ishlab chiqishi va uni o'lkada joriy qilishi kerak edi. Mustamlakachilik siyosatini to'liq amalga oshirilishida boshqaruv tartiblari asosiy tayanch hisoblangan. Boshqaruv tartiblari istilochilik yurishlari bilan birga turli ko'rinishlarda tashkil qilinib, tajriba-sinovlarda o'tkazilgan holda o'zgartirib borilgan.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda olib borgan bosqinchilik siyosatining davom ettirilishi natijasida mustamlakaga aylantirilgan hududlar kengayib borgan. Bosib olingan hududlarni boshqarish tartiblari va uning qanday bo'lishi kerakligi masalasi juda ko'p hamda uzoq vaqt imperiya hukmron doiralarida turli soha vakillari ishtirokida muhokama qilingan. Ushbu masalani hal qilishda ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'zlab ish ko'rish, hech nimada tavakkal qilmaslik tamoyiliga tayangan holda ish olib borilgan. Turkiston general-gubernatori **S.M.Duxovskoy (1898–1901)**: *«Turkiston o'lkasi boshqa o'lkalarga nisbatan tarixiy o'tmishi, etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e'tibor berilishini talab qiladi»*, – degandi.

Podsho hukumati Toshkentni bosib olgandan so'ng, **1865-yil 6-avgustda Aleksandr II «Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom»**ni tasdiqlaydi. Boshqaruv harbiy zobitlar qo'liga o'tadi. Ushbu nizomda boshqaruv tizimi **«harbiy-xalq boshqaruvi»** nomi bilan gubernator qo'lida harbiy va fuqarolik ishlari mujassamlashtiriladi. Viloyat bo'limlarga bo'linib, ularning boshliqlari bir vaqtning o'zida harbiy komendant ham hisoblangan. Bo'lim boshliqlariga mahalliy aholi ustidan nazorat qiluvchi mustamlakachi hukumat vakillaridan tayinlangan boshqaruvchilar bo'ysungan.

**1908 – 1910-yillarda** Turkiston o'lkasini podsho topshirig'i bilan taftish qilgan senator **K.Palen** ta'kidlaganidek: *«O'lkada eng kichik ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv ham harbiy boshliqlar qo'lida bo'lgan»*. Mahalliy aholi vakillariga boshqaruvning eng quyi bosqichidagi lavozimlar beril-

gan. Bularga *volost boshliqlari (mingboshilar), qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari, qozi, biy va ularning yordamchilari* kirgan.

General-gubernatorlik devoni katta vakolatlarga ega bo'lgan asosiy ijrochi organ hisoblangan. Rossiya imperiyasidagi hech bir guberniyada bunday katta vakolatga ega boshqaruv organi mavjud bo'lmagan. Turkiston o'lkasi ma'muriy-hududiy jihatdan **viloyatlarga** bo'linib, ularni o'z qo'lida fuqarolik va harbiy hokimiyatni birlashtirgan **harbiy gubernatorlar** boshqargan. Viloyatlar **uyezdlarga** bo'linib, ular harbiy zobitlar boshqaruvida bo'lgan. Uyezdlar **uchastkalarga, volostlarga, qishloq va ovullarga** bo'lingan. Uchastkalarni **uchastka pristavleri** boshqargan. Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida o'z hukmronligini saqlab qolish, uni mustahkamlashni birinchi darajali vazifa hisoblagani uchun dastlab boshqaruv sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan. Yuqori organlar nazoratida bo'lgan mahalliy aholi vakillaridan iborat quyi boshqaruv organlari va soliq tizimi saqlab qolingan. Quyi boshqaruvning saqlab qolinishiga asosiy sabab mahalliy aholining ichki hayotiga dastlabki davrda keskin aralashish va aholining an'anaviy turmush tarziga katta o'zgartirishlar kiritish salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin edi. Bundan tashqari, yangi bosib olingan yerlarda hali qarshilik va norozilik harakatlari davom etayotganligi, boshqaruv tizimida faoliyat olib boruvchi odamlar bo'lmagani, o'lka sharoitini to'liq bilmasliklari dastlabki vaqtda mahalliy aholi vakillarining quyi boshqaruvda ishtirok etishiga yo'l bergan. Quyi boshqaruv tizimining saqlab qolinishi o'lka ma'muriyatiga imperiya manfaatlari uchun xizmat qiladigan, o'lkadagi sharoitlarni yaxshi biladigan mahalliy aholi vakillaridan o'zlariga eng ishonchli bo'lgan kishilarni topish muammosini ko'ndalang qo'yardi. Uni hal qilishda imperiya hukumati Turkistondagi hukmronlikning dastlabki vaqtidayoq ishlab chiqilgan **saylov tizimi** yordam berdi.

*Uyezdlar volostlarga, volostlar o'troq aholi yashaydigan hududlarda qishloqlarga, chorvador aholi yashaydigan hududlarda esa ovullarga bo'lindi.* Boshqaruv tizimining quyi bosqichida **volost boshlig'i, qishloq oqsoqoli, ovul boshlig'i, xalq sudyalari va ularning yordamchilari, ariq oqsoqoli, mirob, o'nboshi, ellikboshilar** kabi lavozimlarda yerlik aholi vakillari ish olib borgan.

**1867-yilgi «Nizom»** loyihasi asosida o'troq aholi **bir bosqichli** tizim shaklida, ya'ni **oqsoqolliklarga**, chorvador aholi esa **ikki bosqichli** tizim ko'rinishidagi **volost va ovullarga** birlashtirilgan. Har bir oqsoqollik **100 – 200 xonadon, ovul 100 – 200 o'tov, har bir volost esa 1000 – 2000 o'tovdan** iborat holda tashkil qilinishi belgilangan.



Boshqaruv tartiblarining mustamlakachilik xususiyatlari. O'rtasiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bilan bir vaqtda uni kelgusida qanday boshqarish va o'z manfaatlarini yo'lida foydalanish hal qilib borilgan. Shunga ko'ra, Turkiston o'lkasi bosib olingan davrdan boshlab to'liq mustamlaka sifatida boshqaruv tartiblariga asoslangan ma'muriy-hududiy birliklar va ularning boshqaruv tartiblari joriy qilib borilgan. Uning asosiy maqsadi mahalliy aholini qattiq nazoratda va tobelikda ushlab turishga qaratilgandi. Joriy qilingan boshqaruv tartiblari to'liq ravishda harbiy tartiblarga asoslanib, o'lkada imperiyaning siyosiy va iqtisodiy hukmronligini o'rnatishga moslashtirilgandi.

Joriy etilgan mustamlaka boshqaruvi Turkiston o'lkasini tashqi dunyodan to'liq ajratib qo'ydi. O'rtasiyoda Rossiya imperiyasi hukumati-ning yana bir asosiy maqsadi imperiyaning markaziy rayonlaridan bu yerlarga aholini ko'chirib keltirib joylashtirish bo'lgan. O'lkada ma'muriyati ko'chirib keltirilgan aholiga erkin yashashi va xavfsiz turmush kechirishi uchun yetarli imkoniyatlar yaratib berishga intildi. Ko'chirib keltirilganlar yerlar va kerakli mablag'lar bilan ta'minlangan. Aholini ko'chirib keltirib joylashtirishdan yana bir maqsad o'lkada mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda qo'shimcha tayanch kuchlarga ega bo'lish edi. Bu siyosat mahalliy aholini ruslashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tadbir bo'ldi.

Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi va boshqaruvi. O'rtasiyoda bosib olingan hududlar ma'muriy jihatdan bo'linib, ular to'liq zobitlar qo'l ostida bo'lgan. 1877-yili Toshkentda «Shahar nizomi» joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq, shahar boshqaruvi Dumaga o'tgandi. Duma a'zolarining 1/3 qismi Eski shahar qismidan, 2/3 qismi esa Yangi shahar qismidan saylangan. Bunga ko'ra, shaharning 80 ming mahalliy aholisidan 21 deputat, 3900 nafari asosan ruslardan iborat aholidan esa 48 deputat qatnashgan. Shahar xo'jaligiga oid barcha ishlar Duma qo'lida bo'lgan. Dumaga rahbarlik qiluvchi shaxs general-gubernator tavsiyasi bilan harbiy vazir tomonidan tasdiqlangan.

1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III tomonidan yangi «Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom» tasdiqlandi. Mazkur Nizomning asosiy maqsadi o'lkada ma'muriy boshqaruvni mustahkamlash va yerdan foydalanish tartiblarini o'zgartirishdan iborat bo'lgan. Nizomga muvofiq, Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand uyezdlari uning tarkibiga kiritildi. Amudaryo bo'limining bir qismi Sirdaryo viloyatiga o'tkazildi. Qurama uyezdi nomi Toshkent uyezdi deb o'zgartirildi.

Turkiston general-gubernatorligining umumiy hududi **1,7 million km<sup>2</sup>** bo'lib, aholisining soni **5,2 million** kishidan iborat bo'lgan. O'zbeklar va boshqa tub xalqlar **1897-yili 5 millionga, 1911-yili esa qariyb 6 millionga** yetgan. Rus aholisining umumiy soni ukrainlar va beloruslarni ham qo'shib hisoblaganda **1897-yili 197 ming kishini, 1911-yili 400 ming kishini** tashkil qildi. Podsho hukumati hamisha ko'chirib keltirilganlar sonining ortib borishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib bordi. Ular mustamlaka siyosatini amalga oshirishda tayanch bo'lib xizmat qilishi lozim edi.

**1886-yilgi «Nizom»**ga muvofiq Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy boshqaruvi yangi idora – **Turkiston general-gubernatori Kengashi** bilan to'ldirilgan. *Viloyat harbiy gubernatorlari, general-gubernator devoni boshqaruvchisi, Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig'i* bu Kengashning doimiy a'zolari bo'lishgan. **Buxoroda esa Rossiya imperatorining siyosiy agentligi** ta'sis etildi. Uning ruxsatisiz Buxoro amiri tashqi va ichki siyosatda mustaqil ish olib bora olmagan.

## 20.2. TURKISTON O'LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASINING YER-SUV SIYOSATI

Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar. O'rta Osiyo iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin tutgan. Rossiya imperiyasi agrar hudud hisoblangan Turkiston o'lkasida yer-suvdan foydalanishni to'liq o'z nazoratiga olishga va ulardan olinadigan soliqlarning o'z vaqtida to'planishidan manfaatdor edi. Jumladan, yerga egalik qilish va undan foydalanish tartiblariga katta e'tibor qaratilgan. Agrar masala nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Yerga egalik qilish tartiblarini nazorat qilish podsho hukumatiga aholi ustidan hukmronligini ta'minlashda juda muhim edi. Mahalliy aholining asosiy tirikchilik manbai yer bo'lgani bois, unga egalik qilish zarur edi.

1886-yildagi «Nizom»ning «**Turkiston o'lkasining yer tuzilishi**» degan bo'limida o'lkada tarixan shakllanib kelgan an'anaviy yerga egalik qilish munosabatlari o'zgartirib yuborildi. Unga ko'ra, Turkiston yerlari, o'rmonlari va yerosti qazilma boyliklari ham **davlat mulki** deb e'lon qilindi. Bu bilan ular Rossiya imperiyasi mulkiga aylandi. Nizom bo'yicha o'lkada yirik yer egaligi ham tugatildi.

Vaqf yerlari (masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalarga tegishli yerlar) ayni vaqtda yashab va yerga ishlov berayotgan kishilarga ijaraga berilardi. Yangi vaqf hujjatlarini tasdiqlash faqat general-guber-

nator roziligi bilan bu yerlarni davlat soliqlari va majburiyatlardan ozod qilmasdan amalga oshirilgan. Masjid tasarrufidan tashqarida, xususiy shaxs ixtiyorida bo'lgan yerlar ham davlat solig'iga tortiladigan bo'ldi. Vaqf hujjatlarini e'tirof etish, vaqf daromadlarining to'g'ri ishlatilishi ustidan nazorat qilish va ularni taftish qilish huquqi viloyat ma'muriyati ixtiyoriga o'tkazildi.

Bu vaqtgacha vaqf mulkidan olingan daromadlar maktablar, madrasalar va masjid binolarini ta'mirlashga, xodimlarini moddiy ta'minlashga, diniy marosimlarni bajarishga, kerakli buyumlar olishga (gilam, joynamoz, diniy kitob) va boshqa tadbirlarga sarflanardi.

Vaqf mulklarini nazorat qilish mustamlakachi hukumat vakillari qo'liga o'tishi bilan masjidlar va maktablarning moddiy ahvoli yomonlashdi. Ular ta'minot va mablag' yetishmasligidan avvalgi nufuzini yo'qota boshladi. Mustamlakachi hukumat bu bilan mahalliy din peshvolari, ulamolar va diniy muassasalarga zarba berishga harakat qildi.

Rossiyaning markaziy guberniya aholisini O'rta Osiyoga ko'chirish siyosati. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni imperiyaning ajralmas bir qismiga aylantirish va o'lkada doimiy hukmron bo'lib qolish maqsadida **Sibir** va **Kavkaz** hududlaridagidek mustamlakachilik siyosati olib borildi. Bu borada asosiy amalga oshirilgan choralardan biri imperiyaning markaziy guberniya aholisini o'lkaga ko'chirib keltirib joylashtirish hisoblangan. Podsho hukumatining mazkur maqsadi 1886-yildagi «Nizom»da aniq ifodalangandi. Unda hukumat tasarrufida qolayotgan bo'sh turgan davlat yerlariga rus aholisini joylashtirish muhim ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Ko'chirish siyosati bilan shug'ullanish o'lka ma'muriyati zimmasiga yuklatilgan. Ko'chib kelganlarga katta imtiyozlar berilgan. Jumladan, ular mablag', turar joy, yer maydonlari, kreditlar bilan ta'minlangan. *Ko'chib kelganlar 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan, keyingi 5 yil davomida soliqlarning yarmini to'lagan.* Rossiyadan ko'chib kelganlar, asosan, qishloq aholisi bo'lgan. Ular uchun o'lka ma'muriyati maktab va cherkovlar qurishga mablag' ajratgan. Turkiston o'lkasida harbiy xizmatchilar yashab qolishlari va tomorqa yer olishlari mumkin bo'lgan. Dastlab uy qurish uchun ularga **100 rubl** miqdorida mablag' berilgan. Bunday imkoniyatlar Rossiyaning markaziy rayonlaridan ko'plab aholining ko'chib kelishiga sabab bo'lgan. **1875-yili Avliyootada** Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi paydo bo'ldi. **15 yil** davomida (**1875 – 1890**) Turkiston o'lkasiga **1300 oila** ko'chib kelib joylashib, **19 ta** rus qishlog'i tashkil topdi. Faqat **1891 – 1892-yillardagina**

ko'chib kelganlarning **25 ta** manzilgohi paydo bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan nafaqat ko'chib kelgan shaxslar, balki yirik korxonalar ham daromad olish maqsadida o'lkadan yerlar sotib ola boshladi.

Rossiya imperiyasining ko'chirib keltirish siyosati Turkiston o'lkasidagi mustamlaka tizimini mustahkamlash maqsadida amalga oshirildi. Ko'chib kelganlarga yaratilgan imkoniyatlar o'lkaga ko'chib keluvchilarning soni haddan ziyod ko'payishiga olib keldi.

Ko'chirib keltirib joylashtirilgan aholining ko'payishi, ularga unumdor yerlarning berilishi mahalliy aholi vakillarining jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan. *Toshkent shahri va o'lkaning Yangi Marg'ilon, Samarqand, Andijon* kabi shaharlarida ham ko'chib kelganlarning posyolkalari paydo bo'ldi. O'lkadagi yirik shaharlar ikkiga: *yangi ma'muriyat, harbiy qismlar joylashgan va ko'chirib keltirilganlar yashaydigan qism hamda eski mahalliy aholi vakillari yashaydigan qismlarga* ajratildi. Jumladan, Toshkentdagi **Bo'zsuv** anhuri shaharni ikki qismga ajratgan chegara bo'lgan.

**1892-yildan** boshlab Rossiyadan o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'muriyat ruxsatiga ko'ra ko'chirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanishi mumkinligi e'lon qilindi. Bu o'lkaga ko'chib keluvchilar sonining yanada ko'payishiga olib keldi.

### 20.3. TURKISTONDA SUD TIZIMINING TASHKIL ETILISHI

Sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi. Turkiston o'lkasida imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlardan yana biri sud tizimi bo'lgan. Xonlik davrida qozilarning chiqargan qaroridan norozi bo'lganlar qozikalonga murojaat qilgan. Qozikalon esa ishni ko'rib chiqishni diniy ulamolar hukmiga havola qilgan. Qozilar qat'iy belgilangan uchastkaga ega bo'lishmagan; har bir da'vogar o'zi ishongan qoziga murojaat qilgan. Qozi sud majlisi boshlanishidan oldin tomonlarga kelishib olishni taklif etgan. Bu taklifdan bosh tortilsa, qozi ularga qasam ichirib, tomonlarning arzini, guvohlarning ko'rsatmalarini tinglagan, so'ng qaror chiqargan va bu qaror mahalliy hokimiyat tomonidan zudlik bilan ijro etilgan. Odatda, qozilar, asosan, bilimdon, adolatli va xalq orasida hurmat qozongan kishilar bo'lgan. Qozilar o'zlariga murojaat etgan tomonlarga betaraf va ularga nisbatan beg'araz bo'lishi, ulardan pul, sovg'a, har xil xizmatlarni qabul qilmasligi tozim edi. Qozilar davlatdan maosh olishmagan, balki o'zlariga murojaat etganlarning pul tushumlari hisobiga kun ko'rishgan.

Podsho hukumati tomonidan dastlab o'lkadagi mavjud sud tizimida-  
gi **qozikalon** lavozimi tugatilib, barcha qozilarning huquqi tenglashtiril-  
di. Boshqa mustamlakachi davlatlar singari Rossiya imperiyasi ham o'z  
mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasida dastlab tub joy aholining  
diniy e'tiqodiga mos ravishda amal qilingan shariat qoidalariga asoslan-  
gan qozilik va ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi aholining urf-odat-  
lariga asoslangan **biy sudlarini** butunlay tugatmasdan, uni saqlab qol-  
di. Milliy va diniy tartiblarga asoslangan sudlar faoliyati cheklanib, ular  
ustidan kuchli nazorat o'rnatildi. Bu o'zgarishlar bosqichma-bosqich,  
mahalliy aholining noroziligini keskinlashtirmagan holda o'zgartirib bo-  
rildi. Bundan tashqari, shu yo'l bilan podsho hukumati vakillari ko'plab  
mahalliy aholi o'rtasidagi o'zaro janjal va kelishmovchiliklarga arala-  
shishdan o'zini saqlashga harakat qildi.

Sud tizimida amalga oshirilgan siyosatda qozi va biy sudlari oxir-  
oqibat tugatilishi hamda ungacha faqat kichik ko'rinishdagi sud ishla-  
rini, ya'ni, asosan, oilaviy mojarolar, kishilar o'rtasida janjal va kelish-  
movchiliklarni ko'rib turishi maqsad qilib olingardi.

1867-yilgi «Nizom» loyihasi bo'yicha o'lkada *qozilar va biy sudlari, uyezd sudlari, muvaqqat harbiy-sudlov komissiyalari, viloyat boshqaru-  
vining sud bo'limlari va general-gubernatorlik Devonining sudlov bo'limi*  
tashkil qilinadi.

Sud organlarining faoliyati. Sud ishlarida mahalliy aholining o'troq  
qismi uchun **qozi sudlari**, ko'chmanchi aholisi uchun esa **biy sudlari**,  
volost boshliqlari, qishloq oqsoqollari, ovul boshliqlari va ularning yor-  
damchilari aholi tomonidan **uch yil** muddatga saylangan.

Rossiya imperiyasi yerlik aholiga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun  
**1866-yili Toshkentda mahkama** joriy qiladi. Uning tarkibiga mahalliy  
aholi vakillaridan saylangan **qozi va 7 nafar a'lam** kirgan. Mahkama  
a'zolari podsho hukumatining o'lkadagi ishonchli va sadoqatli yordam-  
chilari hisoblangan. Uning faoliyati podsho amaldor vakili tomonidan  
nazorat qilib borilgan.

Qozi sudlarining vakolatlariga da'vo hajmi **100 rubldan oshmay-  
digan** jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish kirgan. Yirik da'volar  
esa **qozilar va biylar qurultoyida** ko'rib chiqilardi. Bu yig'ilishlar **xalq  
sudyalari qurultoyi** deb atalgan. Bular da'vo hajmi **1000 rubldan osh-  
maydigan** jinoyat va fuqarolik ishlarini hal qiluvchi ikkinchi bosqich sud-  
lari edi. Qozi sudi, xalq sudlari, ya'ni birinchi bosqich sudi tomonidan  
qonunga xilof qaror qabul qilingan taqdirda, shikoyat qiluvchi keyingi  
bosqichga murojaat etgan. Bundan tashqari, uchinchi bosqich sudlari

turli volostlar va uyezdlar aholisi o'rtasida yuzaga kelgan bahsli ishlarni hal qiluvchi **xalq sudyalarining favqulodda qurultoylari** hisoblangan.

Qozilar aholining soniga qarab belgilangan. *Toshkent shahrida to'rt dahaning har birida bittadan to'rtta qozi, Samarqand shahrida ikkita qozi, volostlarda bittadan qozi bo'lgan.*

Turkiston o'lkasida yashaydigan rossiyalik aholi uchun imperiya qonunlari asosidagi sudlar faoliyat olib borgan. Dastlab tashkil qilingan **vaqtinchalik harbiy sud komissiyalari** aholining jinoiy ishlarini ko'rish bilan birga mahalliy aholi tomonidan sodir etilgan siyosiy jinoyatlar va hokimiyatga qarshi jinoyatlarni ko'rib chiqqan. Viloyat va o'lka sudlari vazifalari general-gubernatorlik devoni va boshqarmalari zimmasiga yuklangandi. General-gubernator o'lkaning **bosh prokurori va oliy sudyasi** vazifasini ham bajargan.

XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o'zgarishlar. O'rta Osiyo mustamlakaga aylantirilgandan so'ng, boshqa sohalar singari sud tizimi ham bosqichma-bosqich o'zgartirib borilgan. Qozi va biy sudlariga bo'lib o'tadigan saylovlarda mustamlakachi hukumatning aralashuvi, saylov natijalarini tasdiqlashdagi noto'g'ri ishlar ko'plab janjallarni, mahalliy aholi o'rtasida o'zaro nizolar, ma'muriyatga nisbatan ishonchsizlik va norozilik harakatlarini keltirib chiqargan.

Sudlarga joriy etilgan saylovlar mustamlakachi hukumat ixtiyorida bo'lib, saylovda kimning g'olib chiqishi saylovchilarga qaraganda ma'muriyat xohishiga bog'liq bo'lib qoldi. Kim mustamlakachi ma'muriyatga yoqsa va unga sodiqligiga ishonch hosil qila olsa, o'sha qozi va biy bo'la olardi. Saylovlarda turli xil nayranglar, poraxo'rliklar avj olgan. Buning natijasida saylangan qozi va biylar o'z faoliyati davomida saylov vaqtidagi xarajatlarini turli yo'llar bilan, ayniqsa, poralar hisobiga qaytarib olishga harakat qilishgan. Bu bilan qozilik va biylik serdaromad mansabga aylandi. Qozilar va biylar lavozim egallashi va uni saqlab qolishi uchun mustamlakachi hukumat vakillarining sodiq xizmatkorlariga aylandi.

1886-yilgi «Nizom»da ham Turkiston o'lkasida qozilar sudi saqlanib qoldi. Uyezd sudlari bekor qilinib, ularning o'rniga shahar va zemstvo boshliqlari tomonidan tayinlanadigan **uchastka mirovoy sudyalari** (sudlari) tuzildi. Viloyat boshqaruvining sud bo'limlari **viloyat sudlari** bilan almashtirildi. **Sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchisi** lavozimlari joriy etildi.

**1898-yili** Turkiston o'lkasi viloyatlarida sud nizomlarini qo'llash qoidalariga muvofiq viloyat sudlari tugatildi, ularning o'rniga **okrug sudlari**

va butun Turkiston o'lkasi bosh sud bosqichi huquqlari bilan mustahkamlangan **Toshkent sud palatasi** tuzildi. Toshkent sud palatasi faqat imperiyaning oliy sudi – **hukumat senatiga** bo'ysunardi. Okrug sudlari Turkiston o'lkasining barcha viloyatida joriy etildi. *Ularning tarkibi sud raisi, uning o'rinbosari va sud a'zolaridan iborat bo'lgan.* Jazo chorasini **sudyalar** va **ikki sud a'zosi** tayinlardi. Ularning qarori ustidan berilgan apellyatsiyani imperiyada oliy sud bo'lgan hukumat senati ko'rib chiqardi. Shunday qilib, Turkiston o'lkasidagi sud tizimi mustamlakachi hukumat vakillari va o'lka ma'muriyati nazorati ostiga o'tdi.

#### 20.4. TURKISTONDA HARBIY-POLITSIYA TARTIBOTINING O'RNATILISHI

Mustamlaka tartibotining kuchaytirilishi. Turkiston o'lkasida mustamlaka tartiboti **harbiy kuch** va keng tarmoqlangan **politsiya tizimiga** asoslangandi. Shu vaqtgacha mustamlakachilik urushlari olib borish uchun saqlab turilgan harbiy qismlardan endi podsho ma'muriyati tomonidan o'rnatilgan mustamlaka tartiblarini himoya qilish quroli sifatida foydalaniladigan bo'ldi.

O'rta Osiyoga temir yo'llarning o'tkazilishi Rossiya iqtisodiyoti uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga harbiy-strategik maqsadlarni ham ko'zlab qurilgandi. O'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Rossiya imperiyasining mustahkam o'rmashib olishi va mustamlakachilik siyosatining keng qamrovli olib borilishida temir yo'llar muhim o'rin tutdi. *Harbiy qo'shinlar va qurol-aslahalarni Krasnovodskdan Qizilarvatga qadar Kavkazdan O'rta Osiyoga tashish uchun temir yo'l qurildi.* So'ngra temir yo'l qurilishi **Ashxabodgacha** davom ettirildi. **1888-yili** dastlabki poyezd **Samarqandga** keldi, **1899-yili** esa temir yo'l **Toshkent** orqali **Andijongacha** qurib bitkazildi.

Rossiya harbiy qurolli kuchlarining asosiy bazalari **Kavkazda** joylashgan bo'lib, u yerdan Kaspiy dengizi orqali kemada tez kechib o'tish mumkin edi. Krasnovodskdan esa temir yo'l bilan Samarqand, Toshkent va Andijonga yetib kelish oson bo'ldi. Endi harbiy qismlarni Krasnovodskdan Andijongacha bo'lgan **3 ming kilometrdan ziyod** masofaga ko'chirish muammo bo'lmay qoldi.

Turkistonda paxta ekini keng tarqalishi va Rossiya kapitali joriy etilishi bilan, **XX asr boshlarida** temir yo'llarning nafaqat harbiy, balki iqtisodiy ahamiyati ham ko'tarildi. **1905-yili Orenburgdan Toshkentga** qadar temir yo'l qurib kelindi.

O'lkada harbiy politsiya tartiboti. Turkiston o'lkasida podsho hukumati mahalliy aholining keng ko'lamli qo'zg'olonlarga aylanib ketadigan norozilik harakatlari qarshi jazolash tadbirlari uchun imperiya manfaatlarini to'liq himoyalaydigan huquqiy asoslar yaratishga harakat qildi. **1881-yili «Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo'riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Nizom»** e'lon qilindi. Nizomga muvofiq, general-gubernator «kuchaytirilgan» yoki «favqulodda» qo'riqlash holatini o'z ixtiyori bilan joriy etish huquqiga ega bo'ldi. Bunday huquq o'lkada qo'zg'olon, «jamoat osoyishtaligi» buzilgan va «tashvishli kayfiyatlar» paydo bo'lgan taqdirda unga o'z ixtiyoriga ko'ra kuch va zo'rvonlik ishlatish mumkinligini anglatardi. *1892-yildan 1916-yilga qadar Turkiston «kuchaytirilgan qo'riqlov» va «favqulodda qo'riqlov» holatida bo'ldi.*

Yangi «Nizom» shahar va qishloqlarning har bir mavzeyini nazorat ostida saqlab turgan avvalgi politsiya tuzilmalariga qo'shimcha tariqasida uyezd boshliqlariga **ispravniklar** huquqini ham berdi. Bu narsa ularni uyezd politsiya boshqarmalari rahbarlariga tenglashtirgandi. Ular har qanday odamni **yetti kunga qamoqqa olishga** yoki **jarimaga tortish** vakolatiga ega bo'ldilar. **Uchastka pristavleri** lavozimi ularga yordam tariqasida ta'sis etilgandi. Odatda, ular soliqlar yig'imiga, joylarda majburiyatlar, uyezd boshliqlarining qarorlari ijro etilishiga rahbarlik qilgan ofitserlar bo'lib, har qanday o'zgarishlar haqida o'lka ma'muriyatiga ma'fumat yetkazib turgan holda aholi ustidan kerakli nazoratni amalga oshirardilar. O'z uchastkalari doirasida ular surishtirish va tergov ishlari-ni yuritishi, qamoqqa olishi va jarimaga tortishi mumkin edi.

**1882 – 1884-yillarda** o'lkani tekshirgan imperatorning maxfiy maslahatchisi **F.Girs** Turkistonda **2 404 000 kishi** yashashini va ulardan **1 200 000 kishi** erkak ekanligini yozgan. Xuddi shu erkak aholiga harbiy xizmat majburiyatini yuklash masalasiga to'xtalgan podsho amaldori (F. Girs) bu qaltis siyosiy tadbir ekanligiga ishora qilib, Turkiston aholisini armiyaga chaqirmaslik siyosatini yoqlab chiqdi. Podsho hukumati mahalliy aholining muntazam armiyada xizmat qilishidan, jangovar harbiy malakalarini oshirishidan, qo'shinlarni yevropachasiga takomillashtirishga o'rgatishdan va zamonaviy qurol-yarog'lardan foydalanish mahoratini egallab olishlaridan cho'chirdi. Shuning uchun mahalliy aholi qulay fursat kelganda ana shunday harbiy mahorat va zamonaviy qurollardan podsho hukumati o'ziga qarshi foydalanishidan hadiksirardi. Mahalliy aholini qurolsizlantirish, unda qurolli kurash uchun har qanday umidni yo'qotib tashlash, jangarilik unsurlarini bostirish va qadimiy jangovar



an'analarni tag-tomiri bilan tugatish Turkiston o'lkasidagi podsho hukumati harbiy siyosatining asosini tashkil etardi.

## 20.5. XIX ASRNING 2-YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOY-IQTISODIY AHVOL

*Iqtisodiyotning mustamlaka manfaatlariga bo'ysundirilishi.* XIX asrning 2-yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan O'rta Osiyo hududlarida yashovchi mustamlaka xalqlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, o'lka iqtisodiyoti imperiya manfaatlariga to'liq bo'ysundirildi.

Bu davrda o'lkaga Rossiya kapitali, Yevropa mahsulotlari va yangi ishlab chiqarish texnologiyalarining kirib kelishi kengaydi. Ko'plab bank va sanoat bo'limlari ish boshladi. Bu o'zgarishlar o'lkada paxtachilik, konchilik, xomashyoga dastlabki ishlov berish, yog'-moy sanoati kabi sohalarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar imperiyaning o'lkadagi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni bir tomonlama olib borildi. Ishlab chiqarish va savdo-sotiq Rossiya imperiyasi va u orqali boshqa davlatlar bilan aloqalarning kengayishi natijasida rivojlanib bordi. Ayniqsa, imperiya to'qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirish ko'paydi. Bu o'lkada boshqa turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining kamayishiga, ayniqsa, g'allaning tanqisligiga sabab bo'ldi. Bu davrda boshqa sohalarga qaraganda **sanoatning paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berishga mo'ljallangan sohasi** rivojlandi. Paxtani faqat tozalash va yog' ishlab chiqarish sohasigina yo'lga qo'yilib, paxta xomashyosidan tayyor mahsulot tayyorlash imperiyaning markaziy guberniyalarida bajarilgan. O'lkadan olingan boshqa xomashyolar, jumladan, jun va teriga ishlov berish ham shunday tarzda bo'lgan.

**1867 – 1900-yillarda** Turkiston general-gubernatorligida ishga tushirilgan **175 ta** sanoat korxonasi bo'lib, ularning aksariyat ishlari qo'l mehnati bilan bajarilgan. Bu korxonalarda **20 ming** ishchi ishlagan. Mahalliy sanoat ishchilari xonavayron bo'lgan dehqonlar yoki ishsiz qolgan hunarmandlar hisobidan ortib borardi. Korxonalarda ish kuni **16 soat** bo'lib, ishchilarning huquqini himoya qiladigan tashkilotlar bo'lmagan, ishchilar shikoyat bilan hech kimga murojaat eta olmaganlar.

Rossiya imperiyasining markaziy rayonlarida ishlab chiqarilgan sanoat va boshqa turdagi mahsulotlarning o'lkaga kirib kelishi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar hunarmandlar mahsulotlarining bozori

kasodga uchrab, ularning kamayishiga olib keldi. Rossiyadan keltirilgan arzon narxlardagi zavod va fabrika mahsulotlari mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqiladigan mahsulotlar bozorini sindirdi. Oqibatda o'lkada ko'plab odamlar, ayniqsa, hunarmandlar ishsiz qoldi.

Rossiya sarmoyasi o'lkada ishlab chiqarishni rivojlantirishga emas, balki mavjud tabiiy boyliklarni o'zlashtirishga, arzon xomashyoga ega bo'lishga, ularni tashib ketishga, o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bu o'lkada sotishga qaratildi. Shu maqsadda savdo-sotiq sohasini va temir yo'llarni kengaytirishga katta e'tibor berildi. Podsho hukumati tomonidan o'lkadan olinadigan foydalar bu hududni rivojlantirish uchun emas, balki imperiya xazinasini to'ldirish, Rossiya savdogar va sarmoyadorlarini boyitishga xizmat qildi.

Rossiya sarmoyasi o'lkada ishlab chiqarishni rivojlantirishga emas, balki tabiiy boyliklarni o'zlashtirish, o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, xomashyoni tashib ketish va temir yo'llarni qurishga xizmat qildi.

Paxta xomashyosiga bo'lgan ehtiyoj. Rossiya imperiyasining Turkiston borasidagi barcha rejalari **paxtachilikni** rivojlantirishga qaratilgandi. O'lkani Rossiya to'qimachilik sanoati uchun asosiy xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirish mo'ljallangandi.

Chorvachilikda yaylovlar uchun foydalaniladigan yerlarning paxta maydonlariga aylantirilishi chorvachilikning va chorva mahsulotlarining kamayishiga olib keldi. Bu hol, ayniqsa, Farg'ona vodiysida yaqqol sezilib, bu yerga g'alla va chorva mahsulotlari chetdan olib kelina boshlandi. G'alla, chorva mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ularning narxlarini keskin oshirib yubordi. *Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlari paxta yetishtiriladigan eng muhim markazlar bo'lgan. 1884-yili* Turkistonda yangi paxta navi (**Amerika navi**) yetishtirish boshlandi. Bu nav mahalliy navlarga qaraganda ancha yuqori hosil berardi.

Podsho hukumati, paxta maydonlarining kengayishi va hosilning yaxshi bo'lishi O'rta Osiyo mintaqasida suv bilan bog'liq bo'lganligi uchun, irrigatsiya tarmoqlarini kengaytirishga harakat qilgan. **1911-yili Sirdaryo magistral kanalini** bunyod etish ishlari boshlandi va **1913-yilga** kelib tugallandi. Biroq Toshkent vohasi, Samarqand viloyati va Farg'ona vodiysida sug'orish sohasi bo'yicha ishlarning ko'pi bajarilmay qolib ketdi.

Mustamlakachi hukumat uchun **paxta** o'lkada **neft** va **oltin**dan keyingi o'rinda turuvchi yuqori daromadli sohaga aylandi.

## 21-BOB. XIX ASR OXIRIDA TURKISTONDAGI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI

### 21.1. TURKISTONDA MILLIY-OZODLIK HARAKATLARINING BOSHLANISHI VA UNING SABABLARI

Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgach mahalliy aholining milliy davlatchilik, ozodlik tuyg'ularini so'ndirishni asosiy vazifa deb hisoblagan. Bu vazifani amalga oshirmay turib, o'z hukmronligini osongina saqlab bo'lmashligini podsho hukumati yaxshi bilardi. Har qanday mustamlakachi davlat harbiy va bosqinchilik yo'li bilan bosib olgan hududning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga harakat qiladi. Turkistonda ham xuddi shu taxlitda ish yuritilib, o'lkani Rossiya imperiyasining asosiy xomashyo bazasiga aylantirishga kirishildi. O'lkada sanoat ishlab chiqarish rivojlana borib, kapitalistik munosabatlarga asta-sekin yo'l ochilayotgan bo'lsa-da, bu xalqning moddiy ahvolini yaxshilamadi, balki korxonalar xo'jayinlari, savdogarlar, amaldorlarning boyishiga yo'l ochib berdi.

Yer-mulkning boylar va yirik savdogarlar qo'lida to'plana borishi **savdo-sudxo'rlik kapitali** mavqeyining kuchayishiga, kam yerli dehqonlarning, chorakorlarning ko'payishiga sabab bo'ldi. Sudxo'rlik mislsiz darajada avj oldi. Qarz beruvchi kassa mablag'laridan faqat ayrim vositachilar – boylar, sudxo'rlar, savdogarlar va shunga o'xshash yulg'ichlar foydalanib, uni o'zlari xohlaganlaricha tasarruf qilardilar. Paxtani sotib oluvchilar dehqonning nihoyat darajada muhtoj bo'lib qolganligidan foydalanib kelasi yil hosiliga juda past narx belgilab qarz berardi. Sudxo'r changaliga tushib qolgan dehqon xo'jalik mustaqilligidan mahrum bo'lib, qarz bergan kishi nimani buyursa, shuni ekishga majbur edi.

Qarz va nasiyalardan foydalanish avj olgan sari, dehqonlarning ahvoli tobora yomonlashib, qashshoqlikka yuz tutgan. Ular qarzlarni tufayli o'z yerlarini sotib yuborishga majbur bo'lganlar.

Turkistonning mustamlakaga aylantirilishi nafaqat dehqonlarning, balki minglab oilalarning tirikchiligini tebratib turgan hunarmand-kosib-larning ham ahvolini og'irlashtirdi. Rossiya sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan uy-ro'zg'or buyumlari, ayniqsa, to'qimachilik mahsulotlari bilan O'rta Osiyo bozorlarining to'ldirilishi natijasida hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga uchradi. Bu vaqtga kelib iqtisodiy qiyinchiliklar, yashash sharoitining yomonligi, soliqlarning ko'pligi, mehnat

majburiyatlarining og'irligidan mahalliy aholining ahvoli yomonlashib ketdi. Bunday holat kambag'allar safining yanada ko'payishiga olib keldi. Bularning barchasi o'lka xalqlarining siyosiy mustamlaka zulmiga tushishi, milliy davlatchilikning yo'qotilishi va hukmron ma'muriyat tomonidan har tomonlama kamsitilishiga sabab bo'ldi.

Milliy-ozodlik harakatlarning boshlanishi. **XIX asr oxirida** iqtisodiy qiyinchiliklar va xalqning ma'naviy jihatdan kamsitilishi, mahalliy urf-odatlariga zid bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi natijasida Turkiston Rossiya imperiyasining milliy-ozodlik harakatlari avj olgan markazlaridan biriga aylandi. O'lkaning turli joylarida ko'tarilib kelayotgan bu qo'zg'olonlarning harakatlantiruvchi kuchi, asosan, *dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblardan iborat aholining kambag'al qismi* bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yo'qotmagan mulkdorlar, savdogarlar ham ishtirok etdilar. Mustamlakachilikka qarshi o'lkaning turli joylarida norozilik chiqishlari bo'lib turdi. Jumladan, **1878-yili Mingtepa** (hozirgi **Marhamat tumani**)da mustamlakachilarning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi **Yetimxon** boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarildi. Uni mustamlakachi hukumat kuch bilan bostirdi. **1879-yil kuzida** mahalliy aholi Farg'ona viloyat boshqarmasi binosi oldiga ochiqchasiga norozilik bildirib yig'ildi. Ular **Marg'ilon uyezdida** soliq to'plash noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqib, soliqlarning kamaytirilishini qat'iy talab qildilar.

Qo'zg'olon kuchayib ketishi ehtimolini sezgan podsho hukumati komissiya tuzib, vaziyatni o'rganishga kirishdi. Komissiya viloyatda paxta ekishning keng ko'lamda avj oldirilishi, natijada boshqa muhim ekinlar keskin kamayganligi bunga sabab bo'lganini ma'lum qilgan.

**1880-yil noyabrda** aholi hamma soliqlarni to'laganligiga qaramay, Xo'jand uyezdining boshlig'i **Xo'jand** va **O'ratepa** tumanlaridagi aholidan qo'shimcha yer solig'i olinadi deb e'lon qildi. Buning oqibatida sabr kosasi to'lgan aholi **Rahmonqulihoji, Mirkarimboylar** boshchiligidagi uyezd boshlig'ining mahkamasiga borib, adolatsiz soliqni bekor qilishni talab etdi. Bunga javoban boshliq mirshablarga namoyish rahbarlarini hibsga olishni buyurdi.

Talonchilik, soliqlar va jabr-zulm avjiga chiqqanligi sababli **1882-yil boshlarida Namangan** aholisi ma'murlarga qarshi bosh ko'tarib chiqdi. Bu safar ular uyezd boshlig'ining uyini o'rab oldilar. Uyezd ma'murlari harbiy bo'linmani yordamga chaqirib, namoyishchilarni qattiq jazoladi.

**1885-yil yozida** Farg'ona vodiysida xalq qo'zgonlari qaytadan avj olib, **Andijonda Darvishxon** boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarildi. Endi

qo'zg'olonchilar kurash usullarini o'zgartirib, boylar va volost boshliqlarining qarorgohlariga hujum uyushtirdilar. Shu yillarda qo'zg'olon birin-ketin butun viloyatga yoyildi.

1896-yili Namangan uyezdining Oqsuv-Shahrixon volostidagi *Naymanchi, Ko'hna mozor, Langarbob qishloqlarida* aholining mingboshilar saylovlaridagi noroziligi oshkora qo'zg'olonga aylanib ketdi. Turkistonda podsho hukumatining hukmronligi, amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'lkaning har bir joyida mahalliy aholi tomonidan turli ko'rinishdagi norozilik harakatlari olib borildi.

*Xalq harakatlariga qarshi jazo tadbirlarining kuchaytirilishi.* Rossiya imperiyasining savdo-sanoat doiralari Turkiston o'lkasini har tomonlama, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan qaram qilishda faol ishtirok etdilar. Mustamlakachi hukumat dastlab ko'chirib keltirilganlar qishloqlarini o'zbek, qirg'iz, tojik qishloqlaridan ajratib, mustaqil bo'lishini ta'minlagan bo'lsa, keyinchalik bu qishloqlar va mahalliy qishloqlarni birlashtirgan volostlarga rahbarlarni mahalliy aholiga mansub bo'lmagan shaxslardan qo'ya boshladilar. Ular orqali mahalliy aholi ustidan boshqaruv va nazoratni o'z qo'llariga to'liq olish mo'ljallangandi. O'lka ma'muriyati qo'zg'olonlarning yangi to'lqin bilan kuchayib ketishidan doimiy ravishda xavfsirab turardi. General-gubernator mahkamasi maxsus bo'limining boshlig'i o'z ma'ruzasida «isyonga moyil» aholi vakillarini harbiy sudga berish va bu sud o'lim jazosini oshkora ijro etishi haqida fikr bildirdi. U xalqni qo'rquv va tobelikda ushlab turish o'lkada tartib hamda osoyishtalikni ta'minlashga qodir yagona vosita ekanligini uqtirdi.

1892-yildan mustamlakachilar oddiy fuqarolarni ma'murlarga qarshilik ko'rsatgan taqdirda bevosita **harbiy dala sudiga** bera boshladilar. «Gunohkorlar»ni ochiqchasiga qatl etish endilikda odamlarni qo'rqitish uchun mustamlakachilarga katta huquqlar berdi.

## 21.2. TOSHKENTDA «VABO ISYONI»

*Qo'zg'olonning boshlanish sabablari.* 1892-yil mart oyida **Afg'oniston**da vabo kasalligi tarqaldi. Bahor faslining oxirlariga kelib bu kasallik **Samarqand** viloyatining **Jizzax uyezdida, 7-iyunda esa Toshkentda** ham qayd qilindi. Toshkent shahar ma'muriyati kasallikka qarshi tadbirlar qatorida shahardagi **12 ta** qabristonni yopib qo'ydi. Shu kasallikdan vafot etgan kishilar uchun shahardan chekka joyda maxsus qabristonlar ochish va'da qilindi. Lekin amalda shahardan tashqarida faqat **1 ta** qabriston ochildi. Sanitariya tadbirlari xalqqa ishonarli qilib tushuntiril-

madi. Bundan tashqari, shifokor-feldsherlar yetishmasligi sababli bemorlarni tekshirish ko'pincha uchinchi yoki to'rtinchi kuni o'tkazilardi. Bu vaqtda aholi o'rtasida mustamlakachi ma'murlar suvni, shifokorlar esa bemorlarni qasddan zaharlayotgani, murdalarning qabrlardan chiqarib tashlanayotgani to'g'risidagi mish-mish gaplar tarqaldi.

Bunday vaziyat aholi orasida sarosima va norozilik keltirib chiqardi. Bu vaqtda Toshkentning Eski shahardagi xalqparvar, mustamlakachilarga yoqmaydigan oqsoqoli **Inog'omxo'ja Umriyoxo'jayev** lavozimidan chetlashtirildi. Uning o'rniga tayinlangan shaxs pora olishni kuchaytirish maqsadida boshqa kasallik bilan og'rib vafot etganlarni ham vabo uchun ochilgan shahar chekkasidagi qabristonga ko'mishni buyurdi. Xalq bunga keskin ravishda norozilik bildirdi. Bu holat qo'zg'olon boshlanishiga sabab bo'ldi.

**1892-yil**dagi norozilik harakatlarini keltirib chiqargan asosiy sabab, birinchidan, mahalliy aholiga nisbatan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustamlakachilik jabr-zulmining tobora kuchayib borayotganligi; ikkinchidan, xalq ommasining og'ir ahvoli, hunarmand kosiblar va mardikorlarning ayovsiz ishlatilishi; uchinchidan, iste'mol mahsulotlari narxlarining to'xtovsiz oshib borishi, soliqlarning ko'pligi; to'rtinchidan, amaldorlarning o'z mansablarini suiiste'mol qilishi, poraxo'rliigi kabi holatlarning ko'payib ketishi bo'ldi.

*Qo'zg'olonning boshlanishi.* Tarixda «**Vabo isyoni**» (yoki «**Toshotar voqeasi**») deb nom olgan qo'zg'olon **1892-yil 24-iyunda** boshlandi. Dastlab mahalliy aholining noinsof, poraxo'r amaldorlar va sudxo'rlarga, hokimiyatni suiiste'mol qilish bilan tanilgan shahar bosh oqsoqoliga qarshi noroziligi bilan boshlandi. Bu qo'zg'olonchilar, asosan, mardikorlar va hunarmand-kosiblardan iborat edi.

Voqeani o'z ko'zi bilan ko'rgan zamondoshlardan biri shunday yozgandi: «*Qo'zg'olonchilarning maqsadi bo'layotgan kamsitishlarni to'xtatishga erishish edi. Olomon shahar boshlig'i S.Putinsev huzuriga chora ko'rish to'g'risidagi talab bilan yo'lga tushadi. Olomonda o'qotar yoki zamonaviy qurollar ham yo'q bo'lib, ular taxminan 400 kishi atrofida edi.*

Eski shahar oqsoqoli **Muhammad Yoqub** olomondan qo'rqib ketib, shahar boshlig'i polkovnik **S.Putinsev** huzuriga yordam so'rab bekinishga urindi. Xalq S.Putinsevdan oqsoqolni ular ixtiyoriga berishni talab qildi. S.Putinsev esa muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rdi. Kuch ishlatish to'g'risidagi buyruqdan keyin sabr kosasi to'lgan xalq uzoq o'ylab o'tirmay hokimga hujum boshladi. Uning odamlarini tor-

mor etib, o'zini kaltaklashdi. Toshkent oqsoqolining uyiga o't qo'yishdi. S. Putinsev va uning mirshablarini do'pposlagan xaloyiq mahkamani ham ostin-ustun qildi. Qo'zg'olonni bostirish uchun **kazaklar polki** va **bir rota askar** chaqirildi.

Qo'zg'olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar. O'lka ma'muriyatining norozilik harakatlarini shafqatsiz usullar bilan bostirishi, qo'zg'olon ishtirokchilarini ayovsiz jazolashi mustamlakachi hukumatning asl yuzini yaqqol ko'rsatib berdi. Toshkentdagi qo'zg'olon Turkiston mustamlakacha ma'muriyatini jiddiy tashvishga soldi. U hukumatga politsiya shtatini ko'paytirish va jazo vakolatlarini yanada kengaytirish haqida murojaat qildi. Sankt-Peterburg Turkiston general-gubernatorining iltimosini qondirib, o'lkada **«mirshablik holati»**ni joriy etishga ruxsat berdi. Turkiston o'lkasida **1892-yil 18-iyundan** kuchga kirgan **«Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida Qoida»** joriy etildi. Mustamlakachilar uchun keng vakolatlar berildi. Turkiston general-gubernatori «kuchli muhofazada» deb e'lon qilingan joylarda majlis-yig'ínlarni tarqatish, savdo-sanoat korxonalarini yopish, matbuot organlarini taqiqlash, istalgan odamni surgun qilish, jarima solish va boshqa huquqlarni oldi. «Favqulodda muhofazada» deb e'lon qilingan joylarda esa butun hokimiyat **general-gubernator** yoki u tayinlagan **bosh noib** qo'liga o'tdi.

Ushbu qo'zg'olonning bostirilishida mustamlakachilar o'z manfaatlarini yo'lida xalqning urf-odatlarini, diniy e'tiqodini, milliy qadriyatlarini toptashdan ham qaytmasligini ko'rsatdilar. Umuman olganda, mustamlakachilar har qadamda o'zlarini o'lkada hokim va istilochi ekanliklarini mahalliy aholiga namoyish qildi.

### 21.3. ANDIJON QO'ZG'OLONI

Qo'zg'olonning sabablari. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda Rossiya imperiyasi o'rnatgan mustamlakachilik tuzumi mahalliy aholini siyosiy huquqlardan mahrum etdi, milliy, diniy qadriyatlarini tahqirladi, iqtisodini esa imperiya maqsadlariga bo'ysundirib, xalqning turmushi, moddiy ahvolini yomonlashtirib, qashshoqlanishiga olib keldi.

1886-yilgi «Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom»ga ko'ra o'lkada mustamlakacha siyosati va rejimi qonun hujjatlari asosida mustahkamlab qo'yildi. Buning natijasida o'lka aholisiga nisbatan jabr-zulm yanada kuchaydi. *Ushbu Nizomning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadi o'lkada yer masalasini mustamlakachilik manfaatlariga moslashtirish bo'lgan.* «Nizom» e'lon qilingandan so'ng unda nazarda

tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda mahalliy aholining milliy, diniy va mahalliy xususiyatlari inobatga olinmadi.

Mazkur «Nizom» asosida podsho ma'murlari mahalliy xalqqa tegishli yerlarning katta qismini tortib oldi va ular asosida Rossiyadan ko'chib kelganlar uchun yer fondi tashkil etildi. Bunday siyosat yer masalasi juda nozik bo'lgan, aholi zich joylashgan, ayniqsa, sug'oriladigan ekin maydonlari kam bo'lgan **Farg'ona vodiysida** mahalliy aholining ahvolini yomonlashtirib yuboradi. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysi, asosan, imperiyaning paxta xomashyosini yetishtirib beruvchi hududga aylantirilgandi. Vodiya paxta yetishtirishning ko'paytirilishi sababli g'alla, ozuqabop ekinlar maydoni va yaylovlarning qisqarishi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar narxini keskin oshirib yubordi.

**1891-yili** Rossiyadan aholining Farg'ona viloyatiga ko'plab ko'chirib keltirilishi, ularning joylashtirilishi yer taqchil va aholi zich yashaydigan vodiyning ahvolini nihoyatda yomonlashtirib yubordi. Shubhasiz, podsho hukumatining bunday harakatlari mahalliy aholi noroziligining yanada ortib borishiga sabab bo'ldi.

Mustamlakachi hukumat Turkiston o'lkasining barcha joylarida mahalliy aholining milliy va diniy qadriyatlarini hisobga olmasdan ularga qarshi siyosat olib bordi. Podsho hukumati tomonidan o'lkadagi vaqf mulklari qisqartirildi. Vaqf mulklariga tegishli yerlarni tugatishga qaratilgan chora-tadbirlar esa vaqf yerlarining katta qismi davlat mulkiga aylantirilishiga olib keldi. Bu o'lka hayotida, keng xalq ommasi o'rtasida yuqori nufuzli din peshvolari, diniy muassasalar va ta'lim maskanlarida ish olib boradigan mutasaddilarning keskin noroziligini keltirib chiqardi.

Norozilik harakatlariga o'lka ma'muriyatining mahalliy xalq manfaatlaridan imperiya manfaatlarini ustun qo'yuvchi siyosat olib borishi, tub aholi yashash sharoitlarining yomonligi, soliqlarning nihoyatda ko'pligi, amaldorlarning poraxo'rliigi va o'z mansabini suiiste'mol qilishlari, to'lovlar hamda majburiyatlarning og'irligi kabilar sabab bo'ldi. Maorif, tibbiy xizmat, obodonchilik ishlari qarovsiz bo'lib, ularga hukumat tomonidan mablag' ajratilmagan. Bunday salbiy holatlar mahalliy xalqlarning mustamlakachilarga nisbatan nafratini oshirib, ularga qarshi g'alayon va qo'zg'olonlar ko'tarishiga olib keldi.

Qo'zg'olonning boshlanishi. Turkiston o'lkasida **XIX asr oxirlarida** bo'lib o'tgan norozilik harakatlaridan biri **1898-yildagi** mahalliy xalqlarning mustamlaka jabr-zulmiga qarshi qaratilgan **Andijon qo'zg'oloni** hisoblanadi. Bu qo'zg'olon mahalliy aholining Turkistondagi Rossiya imperiyasining hukmronligiga va uning mustamlakachilik siyosatiga



qarshi qaratilgan harakatlaridan biri sifatida bo'lib o'tdi. Unga vodiy aholisi orasida **Dukchi eshon** nomini olgan **Muhammad Ali (1846–1898)** rahbarlik qildi. Dukchi eshon mutaassib dindorlardan edi. U oddiy fizikaviy holatlardan foydalanib sodda xalq o'rtasida mo'jizalar ko'rsatgan. Uni «avliyo» deb hisoblagan aholi qo'zg'olonga boshchilik qilishga undagan. **1898-yilning bahor faslida** vodiyning turli joylarida Muhammad Ali boshchiligida qo'zg'olon bo'lishi haqida gaplar tarqaladi. Bu voqea va Dukchi eshon to'g'risidagi ma'lumotlardan mustamlakachi ma'murlar ham xabardor bo'lgan.

Mahalliy aholining mustamlakachilik jabr-zulmlariga qarshi norozilik harakatlarining oshkora qo'zg'olon ko'rinishida boshlanib ketishiga **1898-yil 17-may** kuni Muhammad Ali o'z odamlari orqali atrofdagi qishloqlarga xabar tarqatib, qo'zg'olon boshlash vaqti kelganligini e'lon qilishi sabab bo'ldi. Shu kuni tunda qo'zg'olonchilar tomonidan **Tojikqishloqdagi telegraf simlarining qirib tashlanishi** bilan qo'zg'olon boshlanib ketdi. Ular yo'lda uchragan **Asaka pristavini** o'ldirdilar. Dukchi eshon boshchiligidagi qo'zg'olonchilar ikkiga bo'linib, ularning biriga **Ziyovuddin maxsum** boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar **Qutchi qishlog'iga** yetib borganlarida, ularning safiga yana **200 kishi**, **Qo'yli qishlog'iga** borganlarida, **mingboshi G'oyibnazar** o'z odamlari bilan qo'shildi. Shundan keyin qo'zg'olonchilar Andijondagi harbiy kazarmaga hujum qildilar. Qo'zg'olonchilar bilan mustamlakachi ma'muriyat harbiy kuchlari o'rtasida ro'y bergan to'qnashuvdan keyin kuchlar va harbiy qurol-aslahalar teng bo'lmaganligi bois, qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'ldilar. *Bu to'qnashuvda harbiy kazarma jangchilaridan 22 tasi o'ldirildi, 22 tasi yarador bo'ldi. Qo'zg'olonchilardan 11 tasi halok bo'ldi, 8 tasi yarador qilindi.* Shaharda harbiylar bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida ro'y bergan ayovsiz otishmalar natijasida nafaqat qo'zg'olonchilar, balki ko'plab tinch aholi vakillari ham halok bo'ldi.

Qo'zg'olon boshlanganligi to'g'risidagi xabar olinishi bilan podsho hukumati zudlik bilan chora ko'rishga va uni bostirishga harakat qildi. Qo'zg'olon Andijonda, ayniqsa, ruslar yashaydigan **Yangi shaharda** vahima uyg'otdi. Mustamlakachi amaldorlardan tortib to' oddiy fuqarolargacha sarosimaga tushib, uylariga berkinib oldilar. Hatto tumanboshi polkovnik **Konshevskiy** ham ko'chaga chiqmay o'z uyidan telefon orqali harbiy kuchlarni chaqirdi. Harbiy kuchlar **uch soat** ichida Andijonga yetib kelib, Yangi shaharda duch kelgan mahalliy aholini o'qqa tutdilar. Buning natijasida qo'zg'olonga umuman aloqasi bo'lmagan yuzlab odamlar mustamlakachilar o'qidan nobud bo'ldi.

Qo'zg'olonning bostirilishi. Andijondagi 1898-yil qo'zg'olonidan keyin podsho **Nikolay II** Turkiston general-gubernatori general-leytenant **A.Vrevskiy**ni lavozimidan chetlatib, uning vazifasini vaqtinchalik **Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N. Korolkov** zimmasiga yukladi. U mustamlakachilik siyosatini o'ta qattiqqo'llik bilan amalga oshirish borasida nafaqat o'lkada, balki imperiya hukmron doiralari orasida ham tanilgandi. Uning zimmasiga qo'zg'olonchilarni batamom yo'q qilishga qaratilgan jazo ekspeditsiyasiga shaxsan rahbarlik qilish ham topshirildi. N.Korolkov **1898-yil 20-may** kuni qo'zg'olon ko'tarilishining oldini o'lmaganligi uchun Farg'ona viloyat harbiy gubernatori va bir qancha amaldorlarni lavozimidan bo'shatdi. Mustamlakachi hukumat qo'zg'olonni batamom bostirish uchun unda ishtirok etganlarni shafqatsiz jazoladi. Qo'zg'olon bostirilgach, **2 ming kishi** hibsga olindi. Xalq ko'z o'ngida qo'zg'olonchilar namoyishkorona jazolandi. Dukchi eshon va uning yaqin safdoshlari sudsiz osib o'ldirildi. Manbalarga ko'ra, jami **380 kishi** o'lim jazosiga mahkum qilindi. Ammo xalqning yanada g'azablanishidan xavfsiragan imperiya ma'muriyati, xususan, harbiy vazir **A.N.Kuropatkin** Turkiston general-gubernatori **S.M.Duxovskoyga** o'lim jazosini ko'paytirmaslik haqida telegramma jo'natdi. Unda o'lim jazosini katorga va qamoq jazosiga almashtirish to'g'risida ko'rsatma beriladi, lekin **22 kishiga** berilgan o'lim jazosi o'z kuchida qoldi.

1898-yili bo'lib o'tgan qo'zg'olon mahalliy aholining o'z jonlarini xavfga qo'yib mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash olib borishlari mumkinligini ko'rsatdi. Ular qo'llariga qurol olib toptalgan haq-huquqlari, orzu-umidlari uchun jang qildilar. Qo'zg'olon izzsiz ketmadi. U keng xalq ommasiga ozodlik uchun kurash sari yo'l ko'rsatdi va minglab odamlarni mustamlakachilik jabr-zulmiga qarshi faol kurashishga ilhomlantirdi.

1898-yilgi qo'zg'olon garchi tor-mor etilgan bo'lsa-da, mahalliy xalqlarning mustaqillik va ozodlik uchun kurashlarini to'xtata olmadi. O'lkaning turli hududlarida norozilik harakatlari turli ko'rinishlarda davom etdi. Qo'zg'olon bo'lib o'tgandan keyin bir yil o'tib, **1899-yil 20-iyunda**, Farg'ona vodiysida yana yangi qo'zg'olon boshlandi. Mustamlakachilikka qarshi qo'zg'olonlar Turkiston o'lkasining deyarli barcha hududlarida davom etdi. Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi uchun eng notinch, to'xtovsiz norozilik harakatlari va qo'zg'olon bo'lib turadigan hududga aylanib qoldi.

Qo'zg'olonchilarning xatolari. 1898-yili Andijonda boshlangan qo'zg'olon ham o'lkaning boshqa joylarida bo'lib o'tgan qo'zg'olonlar singari mustamlakachi hukumatning harbiy kuchlari tomonidan bostirildi. Qurolsiz qo'zg'olonchilar yaxshi qurollangan mustamlakachilar-

ga qarshi kurashlarda g'alaba qilishi amrimahol edi. Bu qo'zg'olonni mag'lubiyatga olib kelgan sabablardan biri uning o'lka bo'ylab keng yoyilib ketmaganligi va mahalliy aholining barcha tabaqalari unda ishtirok etmaganligi bo'ldi.

Qo'zg'olonchilar mustamlakachilarga qarshi qaratilgan harakatlari bilan, eng avvalo, o'lkadagi jabr-zulmga chek qo'yilishiga erishmoqchi bo'lgandilar. Qo'zg'olonni tashkil etishdan boshlab unga boshchilik qilishgacha qat'iy tartib va intizom yo'qligi uning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga yetkazishga imkon bermadi. Qo'zg'olon ko'targanlarning tarqoqligi, aniq reja ishlab chiqmaganligi, hamma bir vaqtda ko'tarilmaganligi ularga pand berdi. Xususan, **Ketmontepa** va **Ko'gard**dagi odamlarga boshchilik qilgan **Chibil bo'lis** Dukchi eshonga zudlik bilan qo'shilish o'rniga atrofida joylashgan mustamlakachilarga qarshi kurash olib borishga harakat qilib taktik xatoga yo'l qo'ydi. Aholining ayrim tabaqalari qo'zg'olonga qo'rqqanidan, ba'zilar qo'zg'olon g'alaba qozonishiga ishonmagani uchun qo'shilmadi.

Dukchi eshonning yetarli darajada tayyorlanmay, harbiy sohadan bexabar, yaxshi qurollanmagan muridlari bilan ochiqchasiga qo'zg'olon ko'targanligi mustamlakachilarning qo'zg'olonni osonlik bilan bostirishiga imkon berdi. O'lkada hukmron bo'lib olgan mustamlakachi hukumat qo'zg'olonni bostirishga erishdi. Andijonda ko'tarilgan qo'zg'olon na faqat Turkiston o'lkasi ma'muriyatini, balki Rossiya imperiyasi hukumatini ham qattiq xavotirga solib qo'yadi. Qo'zg'olondan keyin o'lkaning har bir hududida norozilik kayfiyatidagi barcha aholini qattiq nazoratda ushlab turishga qaratilgan choralar ko'rildi. Har qanday norozilik ko'rinishidagi harakatlarni ayovsiz bostirishga kirishildi.

#### 21.4. MILLIY-OZODLIK HARAKATLARINING AHAMIYATI

XIX asr oxiridagi qo'zg'olonlarning umumiy xususiyatlari. XIX asrning 2-yarmidagi milliy-ozodlik harakatlari Turkiston o'lkasining podsho hukumati tomonidan istilochilik yo'li bilan bosib olinganligini yana bir karra isbotladi. Istilo qilingan hududlar imperiyaning tarkibiga mustamlaka sifatida kiritilib, bu yerlarda imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va geopolitik manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ydi. O'lka arzon xomashyo bazasiga, Rossiyada tayyorlangan mahsulotlar uchun tayyor bozorga, uning aholisi esa arzon ishchi kuchiga aylandi.

XIX asrning 2-yarmida Turkiston o'lkasida olib borilgan milliy-ozodlik harakatlari mahalliy aholining turli ko'rinishlardagi chiqishlarida o'z

aksini topdi. Bularga asosiy sabab soliq va majburiyatlarning og'irligi, mahalliy boshqaruv vakillarining sotqinlarcha podsho ma'murlariga xizmat qilishi, Rossiya o'lkalaridan ko'chirib keltirilgan aholiga yangi ekin maydonlarining bo'lib berilishi, narx-navolarning oshib ketganligi, turmush sharoitlarining yomonligi kabi holatlar tufayli ro'y berdi. Bundan tashqari, mahalliy aholi uchun tibbiy xizmat ko'rsatishning yo'qligi, yangi ishlab chiqarish va texnologiyalarning faqat imperiya manfaatlariga xizmat qilishi ham tub joy aholi vakillarining ommaviy ravishdagi norozilik chiqishlarida ishtirok etishiga olib kelgandi.

**XIX asr o'rtalaridan** boshlangan milliy-ozodlik harakatlari o'lkaning turli hududlarida to'xtovsiz tarzda davom etdi. Bu davrdagi milliy-ozodlik harakatlarining aksariyati o'lkaning ma'lum bir hududlarida bo'lib o'tgan esa-da, uning aks sadosi butun o'lka bo'ylab tarqaldi. Har bir qo'zg'olon boshqa joylarda ham norozilik chiqishlarining ko'tarilishiga hamda u yerdagi aholini ozodlik uchun mustamlakachilarga qarshi kurash olib borishiga ruhan ta'sir ko'rsatdi.

Qo'zg'olonlar bostirilgani bilan, uning ishtirokchilari o'lkaning turli hududlariga qochib borib o'z harakatlarini davom ettirdilar.

Qo'zg'olonlarning ahamiyati. XIX asrning 2-yarmida bo'lgan milliy-ozodlik harakatlarida o'lka xalqlarining deyarli barchasidan vakillar ishtirok etganligi bilan ahamiyatga ega. Shu bilan birga, qo'zg'olonlarda aholining turli tabaqa vakillari, ya'ni *dehqonlar, hunarmandlar, din ulamolari, qishloq oqsoqollari, mingboshilar, qozilar, hatto katta mulk egalari, savdogarlar* ishtirok etganlar.

Bu qo'zg'olonlarda podsho hukumati o'lka tub aholisining mustaqillik va ozodlik yo'lidan qaytmasligini, har qanday jabr-zulm, kuchli nazorat va qattiq jazolar ularni ezgu niyatlaridan chekintirmasligini tushunib yetdi. Mustamlakachi hukumat o'lkani qo'ldan chiqarmaslik uchun ehtiyotkor va vazmin siyosat olib borish kerakligini anglab, kelgusida qo'zg'olonlar ko'tarilmasligi uchun har tomonlama ish ko'rishga harakat qildi.

XIX asrning 2-yarmidagi milliy-ozodlik harakatlari vatanimiz tarixida milliy mustaqillik va ozodlik kurashi sifatida muhim o'rin tutadi. Bu davrdagi milliy-ozodlik harakatlari **Po'latxon, Qurbonjon dodxoh, Yetimxon, Darvishxon, Muhammad Ali eshon** singari kishilar boshchiligida bo'lib o'tdi.

XIX asrning 2-yarmidagi milliy-ozodlik harakatlarida Turkiston aholisining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va milliy-ozodlik uchun kurashlari o'zaro birlashgan holda sodir bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning 2-yarmidagi milliy-ozodlik harakatlari o'lka aholisining ijtimoiy holati, milliy kelib chiqishidan qat'i nazar, vatan mustaqilligi, yurt ozodligi, xalq erkinligi barchaning umumiy maqsadi ekanligini anglatadi.

Qo'zg'olonlar xarakteriga ko'ra milliy-ozodlik ko'rinishida yuz berdi, chunki bu qo'zg'olonlarning asosiy kuchi keng xalq ommasi bo'lib, ular mustamlakachilik tartiblariga qarshi mardonavor kurash olib bordi. Ular yurtning haqiqiy fidoyi farzandlari ekanliklarini amalda isbotladilar va jasoratlari bilan Vatan tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar.

## 22-BOB. XIX ASR 2-YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR

### 22.1. XIX ASR 2-YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING HUDUDIIY JOYLASHUVI VA IJTIMOIIY HAYOTI

XIX asrda qoraqalpoqlar. Tarixan qoraqalpoqlar Ural, so'ngra Volga bo'ylarida, undan keyin esa Orol atrofi hamda Sirdaryoning quyi havzalari etaklarida yashab kelganlar. Ularning ko'chib yashashlariga ko'proq tashqi omillar sabab bo'ldi. Nihoyat, ular **XIX asr boshlarida Quyi Amudaryo havzasi, Orolning janub va janubi-g'arbiy tomonlarida** muqim hayot tarziga o'ta boshladilar. Qoraqalpoqlar goh qozoqlar, goh turkmanlar hujumlariga uchrab, buning oqibatida Xiva xonligi fuqaroligiga o'tdilar. Quyi Amudaryoning katta cho'l va suv chiqmagan cho'lga tutash sho'rxok yerlarini ular o'zlarining mashaqqatli mehnati evaziga o'zlashtirdilar. O'troq hayotga o'ta boshlagach **dehqonchilik** bilan shug'ullanish qoraqalpoqlar hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Shunday bo'lsa-da, chorvachilik ham qoraqalpoqlar hayotida yetakchi sohalardan biri bo'lib qolaverdi.

**XIX asr o'rtalarida** qoraqalpoqlar Xiva xonligi hukmronligi ostida bo'lib, ular Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida va Orol dengiziga quyiladigan yerlarda yashagan. Ularning soni o'sha vaqtda taxminan **100 ming nafardan** oshmagan. Qoraqalpoqlarga berilgan yerlar xonlik mulki sanalgan, ular bu yerlar uchun soliqlar to'laganlar. Har xil majburiyatlarni bajarganlar.

Qoraqalpoqlarning ijtimoiy hayoti. Qoraqalpoqlar **urug'larga** bo'lingan, ularda yerdan foydalanish jamoa tariqasida kechardi. Urug'lar sug'orish kanallari qazilishi uchun mas'ul bo'lishgan. Chorva xususiy mulk bo'lgani bois, unga urug' tamg'asi urilar va jamoa yaylovlarida boqilardi. Qoraqalpoqlarning har bir ovul aholisi bitta urug'ga mansub edi. Qoraqalpoqlarni boshqarish qulayroq bo'lishi uchun **Muhammad Rahim I «Qoraqalpoq ulusi»**ni shakllantirdi, barcha qoraqalpoq jamoalari ana shu ulusga kirgan. Ulusni boshqarish xonning ixtiyorida edi. Urug'lar va qabilalar ancha yirik guruhlariga birlashtirilib, ularni boshqarish uchun xon saroyining oliy amaldorlari – **otaliq** va **beklarbegi** tayinlangan. Ayrim viloyatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimlar, odatda, xonnina vaain aarindoshlari bo'lishaen.

Qoraqalpoq ruhoniylari, eshonlari va aholining nufuzli kishilari Xiva xonlarining alohida homiyligida bo'lgan. Qozilar ham ruhoniylar nazorati ostida bo'lishgan. Qoraqalpoqlar orasida sudlarning ikki turi – **qozilar sudi** va **biylar sudi** mavjud edi.

Xo'jaligi va mashg'ulotlari. Qoraqalpoqlar **XIX asrning 2-yarmi**ga kelib o'troqlashib, **dehqonchilik** ular hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Ammo **chorvachilik** ham yetakchi sohalardan biri bo'lib qolaverdi. Dehqonchilik ishlari qizg'in vaqtlarida qoraqalpoq oilalari ekinzor yerlarning qulay bir joyiga o'z o'tovlarini qurib mehnat qilganlar. Ana shunday tinch mehnat bilan band bo'lgan paytlarda bosqinchilik bilan boylik orttirishni kasb qilib olgan qaroqchi guruhlar qoraqalpoqlar o'tovlariga to'satdan hujum qilardi. Bu kutilmagan bosqin natijasida ular ko'plab mol-mulklaridan ajralardi. Bunday paytlarda yurt oqsoqollari Xiva xonidan o'zlarini himoya qilishni so'rab choparlar yo'llardilar.

Qoraqalpoqlar hayotida **balıqchilik** va **ovchilik** ham muhim o'rin egallagan. Amudaryo bo'ylarida va Orol dengizi atrofidagi ko'llarda baliqlar serob bo'lib, ular ko'plab oila hamda urug'lar uchun asosiy tirikchilik manbayi edi. Hatto sharqdan g'arbga borayotgan savdo karvonlari tuzlangan baliqni ko'p miqdorda ana shu baliqchilik bilan shug'ullanuvchi oilalardan olib ketardilar. Qoraqalpoqlar, asosan, ro'zg'or uchun zarur buyumlarni tayyorlash bilan shug'ullanardilar. Ehtiyojdan ortgan buyumlar esa bozorga chiqarilgan. Ular o'tovlarning atrofini o'rash uchun matolar, tuya junidan guldor namatlar to'qirdilar. Ularning xalq amaliy san'atida o'tovlar uchun o'ymakor eshiklar va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari yasash, gilam to'qish, kashtachilik yuqori darajada rivojlangan. Bu qoraqalpoqlarda xo'jalik va turmush talablarini ta'minlab turuvchi hunarmandchilik sohalarining ham rivojlanganligini, ular, ayniqsa, *yog'och* va *suyakka ishlov berish* borasida qo'li gul usta bo'lishganligini ko'rsatadi.

Qoraqalpoqlarda urug'chilik va qabilaviy munosabatlar. **XIX asrda** ham qoraqalpoqlarning ayrim ovullarida urug' munosabatlari mustahkam tarzda davom etdi. **Xitoy-qipchoq, mang'it** va **kenagas** qabilalari tarkibidagi urug'lar «**o'n to'rt urug'**» – aris (urug') birlashmasini tashkil qilgan. *Arislar orasida eng yirigi o'n to'rt urug' bo'lsa, harbiy kuch borasida ikkinchi o'rinda shulluk va jounurni birlashtirgan aris-qo'ng'irotlar turardi.* Ularda yer-suv mulki, chorva mahsulotlari urug'niki hisoblan-sa-da, urug' oqsoqollari, ruhoniylar va biylarning ulushi katta miqdorni tashkil qilgan. Bu hol **XIX asr 2-yamida** tabaqalanish jarayonining kuchayishini yanada tezlashtirdi.

Qoraqalpoq urug'larini boshqarish **biy** va **uning oqsoqollari** qo'li-da bo'lgan. Urug' biylarini Xiva xonlari tayinlar va uning mansabga tayinlanganligini tasdiqlovchi yorliq berardi. Biylar qo'l ostidagi urug'ning istalgan a'zosiga sodir etgan aybi uchun jazo berar, loyiq deb bilgan odamlariga tortiq va hadyalar in'om qilardi. Xiva xonining ishonchini qozongan biylarning vakolatlari yanada kengaytirilib, ularga alohida muruvvat ko'rsatilgan.

XIX asrning 2-yarmida butun qoraqalpoq urug'larini boshqarish, soliqlarni undirish, harbiy xizmatni o'tash majburiyatlariga doir ishlar-tartibga solish maqsadida **beklarbegi** lavozimi tayin etilgan. Ayrim tumanlarni idora qilish uchun esa xon o'zining qarindosh-urug'lari va ishonchli odamlarini qoraqalpoqlar yashayotgan Quyi Amudaryo va Orolbo'yi hududlariga jo'natib turgan. Islom dini asoslarini qoraqalpoq xalqi orasida mustahkamlash uchun esa Xivadan musulmon ruhoniylari ham jo'natilgan. Ularga qoraqalpoqlarning iste'dodli yoshlarini Xiva madrasalariga jo'natib turish vazifasi ham yuklatilgan.

*Urf-odatlari va turmush tarzi.* Qoraqalpoqlarda urug'chilik o'ziga xos qadriyat bo'lib, uning ta'siri oila va qarindoshchilik munosabatlarida ko'zga tashlanib turardi. Har bir urug' o'z qavmining mustahkamligini ta'minlashga intilgan.

Har bir urug'ning o'ziga xos dafn marosimlari bo'lib, ularning qabristonlari ham alohida edi. An'ana bo'yicha, qabristonga ularda shu urug'ning mashhur avliyo yoki pir darajasidagi kishilari dafn etilgan.

To'y marosimlarida urug'ning barcha a'zolari ishtirok etishi shart bo'lgan. Umuman olganda, qoraqalpoqlar ko'chmanchilikdan o'troq turmush tarziga o'tishgacha bo'lgan uzoq davrda, xalq bo'lib shakllanish jarayonida o'ziga xos ma'naviy-moddiy qadriyatlar yaratdi. Mehr-oqibat, insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan turmush tarzi shakllandi. «**Qirq qiz**» va boshqa turkiy xalqlarning ma'naviy mulki bo'lgan turli xil dostonlarida mardlik, erksevarlik, Vatanga sadoqat, sof sevgi, or-nomus ustuvor edi. Bu g'oyalar qoraqalpoq xalqi hayotidan mustahkam o'rin oldi.

## 22.2. SOLIQ VA MAJBURIYATLAR. XALQ QO'ZG'OLONLARI

*Soliq va majburiyat turlari.* Qoraqalpoqlar ham Xiva xonligining fuqarolari singari o'sha davrdagi xonlikda mavjud soliqlarni to'lab, majburiyatlarni bajarganlar. Aholidan yer solig'i – **solg'ut**, ruhoniylar foydasiga **ushr** solig'i undirilgan. Urush paytlarida qoraqalpoqlar ham «**qozon puli**» solig'ini to'lardilar.



Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi har bir oila chorva mollarining qirqdan bir qismini **zakot** solig'i tariqasida to'lagan. *XIX asrning 2-yarmida aholidan 40 bosh qoramol uchun pul hisobida 9 so'm, 40 bosh qo'y va echki uchun 2 so'm 50 tiyin pul miqdorida zakot olingan.*

Soliqlarni to'lashdan tashqari qoraqalpoqlar ko'pincha soliqlardan og'irroq bo'ladigan turli majburiyatlarni ham bajarganlar. Majburiyatlardan eng og'iri har oiladan bitta erkak kishining **12 kun** davomida ariq qazish ishlarida qatnashishi edi. Majburiyatlarning butun og'irligi urug' jamoasining oddiy a'zolari zimmasiga tushardi. Urush holatlarida aholining majburiy harbiy xizmatga chaqirilishi ham asosiy majburiyatlardan biri edi. Bunda har bir jamoa **1000 tadan 2000 tagacha** askar berishlari lozim bo'lgan. Askar yetkazib berolmagan jamoalar qo'shimcha soliq to'lagan. Safarbarlik paytida bunday jamoalardan **180 ming so'mdan 250 ming so'mgacha** pul yig'ilgan. Jang harakatlari davomida qoraqalpoqlar orasidan ko'plab bahodir jangchilar yetishib chiqqan va ular xonning iltifotiga sazovor bo'lgan.

Xalq qo'zg'olonlari. Xiva xoni **Muhammad Aminxon (1845 – 1855)** hukmronligining oxirlarida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga harbiy tahdidi kuchayib ketdi. Ular turkman sardorlari bilan qoraqalpoq oqsoqol va biylarini Xiva xoniga qarshi qo'yib xonlikni parokandalikka uchratishga urindilar. Boz ustiga, o'sha vaqtda Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida hududiy nizolar ham mavjud edi. Xiva xoni mudofaani kuchaytirish choralarini ko'rdi. Bu ko'plab xarajatlarni talab qilar-di. Bo'shab qolayotgan xazinani to'ldirish uchun aholiga solinadigan soliqlar miqdorini oshirib borardi. Rossiya imperiyasi o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq hamda qoraqalpoq xalqlarini bir-biriga qarshi qo'yib, hatto turkman, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq urug' boshliqlarini katta pul evaziga sotib olish siyosatini ham yurgizgan.

Bu jarayonlar natijasida **1855-yili** qoraqalpoqlarning **qo'ldovli** qabilasidan bo'lgan **Ernazarbiy** boshchiligidagi qo'zg'olon boshlanadi. Qoraqalpoqlar bundan buyon Xiva xonligiga bo'ysunmasligini e'lon qiladilar. Ernazarbiy Rossiya ta'sirida bo'lgan qozoq urug' boshliqlaridan biri **Zarliqni** xon qilib ko'tarish, natijada imperiya tobeligiga o'tishga intilardi. Rossiya imperiyasi xuddi mana shu qabiladagi qo'zg'olon va xatti-harakatlarni nafaqat pul-mablag'lar bilan, balki harbiy yordam yuborish bilan ham qo'llab-quvvatlashga uringan.

**1856-yili Said Muhammadxon** Xiva taxtiga o'tirgach Ernazarbiy qo'zg'olonini bostirish uchun katta qo'shin yuboradi. Xivadan yuborilgan **yasovulboshi Muhammadniyoz** Ernazarbiy qo'zg'olonini tor-mor

etish uchun otlandi. Buni eshitgan Emazarbiy o'zi qurdirgan **Qozoqdaryo** qo'rg'oniga joylashib olib mudofaa jangiga tayyorgarlik ko'rdi.

Katta qo'shinning qamal qilishga kirishganligini ko'rgan qo'zg'olonchilar orasida kelishmovchilik chiqadi va Emazarbiy otib tashlanadi. Uni oxirigacha qo'llab-quvvatlashga ahd qilgan guruhlar esa maxfiy yo'llar orqali qal'adan chiqib, **1853-yili** Rossiya qo'shinlari tomonidan bosib olingan **Oqmasjid** qal'asidan panohtopishadi. Ular podsho hukumatidan qoraqalpoqlarni Rossiya imperiyasi fuqaroligiga o'tkazilishini so'rab murojaat qildilar. Butun qoraqalpoq xalqi nomidan gapirish huquqiga ega bo'lmagan ayrim oqsoqol yoki biylarning murojaati Rossiya **Tashqi ishlar va Harbiy vazirliklari** tomonidan bo'ttirilib, «*Rossiyaga butun turkiy qabilalar o'zlarini qo'shib olishni so'rab murojaat qilayotirlar, ular na Xiva, na Qo'qon xonlari tarkibida bo'lishni istashmayapti*», – degan bahonada o'z xatti-harakatlarini oqlashga urindilar.

**1858 – 1859-yillarda** qoraqalpoq urug'laridan ayrimlari yana qo'zg'olon ko'taradilar. **Qo'ng'iro't** shahri qo'zg'olon markaziga aylandi. Xiva xoni qo'zg'olonchilarni shafqatsiz jazolash va tor-mor keltirishni turkman jangovar kuchlari boshlig'i **Otamurodxonga** topshirdi. Natijada qo'zg'olon ayovsiz bostirilib, uning markazi Qo'ng'iro't shahri vayron etiladi.

Ko'pchilik qoraqalpoqlar Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilishni istamay jondosh va qondosh turkiy xalq – o'zbeklar bilan birgalikda yashash ahamiyatini yaxshi tushunardilar. Kelib chiqishi azaldan bir bo'lgan ushbu xalqlarda yagona turkiy zaminda birga yashash istagi ustunlik qilardi.

Podsho hukumati tomonidan Xiva xonligi protektoratga aylantirilgandan so'ng, Amudaryo bo'limidagi qoraqalpoqlarga nisbatan jabr-zulm kuchaydi. **Biybozor** va **Nukus volostida** mustamlakachilarga qarshi **Bobo Go'klan** boshchiligida xalq qo'zg'oloni jiddiy tus olib, qariyb o'n yil (**1881 – 1891**) davom etdi.

Dehqonlarning ahvoli og'irlashishi oqibatida **1900-yili Nukus volosti** va **Qo'ng'iro't bekligida** norozilik harakatlari amalga oshirildi. Bunday harakatlar mustamlakachi hukumat tomonidan ayovsiz bostirildi.

### 22.3. QORAQALPOQLAR TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI TARKIBIDA

*Gandimiyon shartnomasidan so'ng qoraqalpoqlar hayotidagi o'zgarishlar.* Xiva xonlari tomonidan qoraqalpoqlarning ko'chmanchi hayoti cheklangandan so'ng, qisqa davr mobaynida ular xonlikda bir nechta

yangi dehqonchilik tumanlarini tashkil etishdi. **XIX asrning 70-yillari**ga kelib ular deyarli o'troq turmush kechira boshladilar. Qoraqalpoqlar Amudaryoning har ikkala qirg'og'ida yastanib yotgan kengliklarni o'zlashtirib, sholi, bug'doy, arpa va paxta yetishtirishdi. **1868-yili** Rossiya gazetalaridan biri shunday yozadi: *«Bu xalqning asosiy va deyarli birdan bir hunari dehqonchilikdir, mehnatsevarlik sharofatidan qoraqalpoq yarlari yaxshi sug'oriladi va hech qayerda, hatto chig'ir bilan ko'tariladigan joylarda ham suv taqchilligi sezilmaydi»*.

Podsho hukumati qo'shinlarining **1873-yili** Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi va Gandimiyon shartnomasi imzolanganidan keyin Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan qoraqalpoqlar yashaydigan yerlar Rossiya imperiyasiga qo'shib olindi. Bu yerda Turkiston general-gubernatorligining **Sirdaryo viloyati** tarkibiga kiruvchi **Amudaryo bo'limi** tashkil etildi. Qoraqalpoqlarning Amudaryoning chap qirg'og'ida yashagan kamroq qismi Xiva xonligi tarkibida qoladi.

Amudaryo bo'limida qoraqalpoqlar soni qariyb **70 ming kishiga** yetib, bu yerdagi jami aholining **48,6 foizini** tashkil etardi. Rossiyadan ko'chib kelgan odamlar qariyb **ming kishi bo'lib, Petro-Aleksandrovsk** (hozirgi To'rtko'l)da, **Uralskiy posyolkasida** va **Nukus qishlog'ida** yashardi. Ularning aksariyati **1875-yili** podsho hukumati tomonidan armiya xizmati to'g'risidagi yangi nizomga bo'ysunmagani uchun bu yerga surgun qilib ko'chirilgan **Ural kazaklari** edi. Bu kazaklar, asosan, **baliq ovlash** bilan shug'ullanishgan.

Xiva xonligi hududida qoraqalpoqlar soni **3,8 foizni**, ya'ni qariyb **25 ming kishini** tashkil etardi. Qoraqalpoqlar yashab kelgan hududlarning Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi natijasida podsho hukumatining O'rta Osiyodagi ta'sir doirasi yanada kengaydi.

Har ikkala hududda yashaydigan qoraqalpoqlarning **70 foizdan ziyodi** yersiz dehqonlar bo'lib, asosan, yollanib mehnat qilishardi.

Qoraqalpoqlar yashagan hududlarga Rossiya kapitalining kirib kelishi tovar-pul munosabatlarini o'zgartirib yubordi. Paxta tozalash va baliqchilik sohasida dastlabki sanoat korxonalari paydo bo'ldi. Ularda mahalliy aholi vakillari ham ishlay boshladi.

**XIX asrning 70-yillarida** qoraqalpoqlarda savdo-sotiq munosabatlari rivojlanib bordi. **Chimboyda** aholi yashaydigan tumanlarni iqtisodiy jihatdan birlashtirgan shahar bozori vujudga keldi. Qoraqalpoq hunarmand va dehqonlari bozor bo'ladigan kunlarda o'z mahsulotlarini sotish uchun Chimboyga kelishardi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar.** Chimboy Rossiya imperiyasini Xiva

xonligining asosiy iqtisodiy markazlari bilan bog'lardi. Bu yerda ko'plab do'konlar bo'lib, katta bozor yaqinida yirik karvonsaroy joylashgandi. Dastlabki kasalxona va maktablar paydo bo'ldi, ammo ular yetarli emasdi. Jumladan, *1914-yili qoraqalpoqlar yashaydigan joylarda atigi to'rtta umumta'lim maktabida 200 nafar o'quvchi o'qir, ikkita kasalxona va feldsherlik punktida uch shifokor ishlardi.*

Dehqonlar va chorvadorlar orasida mulkiy tabaqalanish kuchaydi. Ayrim biylar, yuzboshilar, mulla va eshonlarning yer-mulklari **15 ming tanobgacha (1 tanob – 2500 m<sup>2</sup> yer)** bo'lsa, oddiy xalq tomorqalari **1 – 2 tanobdan** oshmasdi.

Aholining tabaqalanishi qoraqalpoqlarda chorva mollari soniga qarab ham belgilangan. **1871 – 1872-yillar** ma'lumotlariga qaraganda, urug'ning aksariyat oddiy a'zolari chorvaga ega bo'lishmagan, ayrim boylar **ming boshgacha** qoramol va **1,5 ming boshgacha** qo'y-qo'ziga ega edi.

Qashshoqlashib qolgan va kasodga uchragan dehqonlar katta yer egalari va boylarga qaram bo'lib qolishdi. Jamoaning boy-badavlat a'zolari yordam sifatida o'z qarindoshlariga yerni hosilning teng yarmi – «**jarmshi**» sharti bilan berishardi. Yersiz va chorvasiz qolgan dehqonlar esa har qanday og'ir ishlarni bajarib, badavlat chorvadorlar va zamindorlarning mollari va yerlaridan foydalanganliklari uchun ham ishlab berishga majbur edilar.

## **22.4. XIX ASRNING 2-YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR MADANIYATI**

*Xalq og'zaki ijodiyoti.* Tinch hayot izlab bir joydan ikkinchi joyga asrlar davomida ko'chib yurgan mehnatsevar qoraqalpoq xalqi moddiy madaniyat yodgorliklarini to'liq saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lmagan.

Xalq iste'dodini namoyon etuvchi boy og'zaki she'riy ijodiyotning janrlari ancha ko'p bo'lgan. Ular orasida maqollar, hikmatlar, laparlar, nasihat qo'shiqlarda ifoda etilgan «**otalar so'zi**» alohida ajralib turardi. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida kulgi qahramoni bo'lgan **O'mir-bek laqqi** obrazi orqali razillik, yomonlik, yovuzlik, zolimlik kabi salbiy illatlar hajv yo'li bilan fosh etilib, mehnatsevarlik, ezgulik, qahramonlik ulug'langan. Qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodi chuqur mazmunga egaligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Xalq ma'naviy madaniyatining yuksak darajasi ajdodlardan avlodlarga yetkaziladigan xalq dostonlarida, termalarida, shuningdek, musiqali o'lanlarda saqlanib qolgan.

Xalq orasida qoraqalpoq folklorining doston yo'llari mashhur edi. Doston qahramonlik haqida she'riy asarlar bo'lib, ularda xalq baxt-saodati va farovonligi uchun kurashgan mard botirlarning buyuk jasoratlari madh etilgan. Ancha mashhur bo'lgan dostonlar orasida esa qoraqalpoqlarning ozodlik va mustaqillik uchun fidoyilarcha kurashi tasvirlangan «**Qirq qiz**» dostoni alohida ajralib turadi. Dostonda **Sarkub** hukmdori **Olfoyor** o'z qizi **Guloyimga Muyeli** degan hosildor yerlarni tortiq qilgani haqida aytiladi. Bu joyda Guloyim va uning qirq kanizagi mustahkam bir qal'a barpo etishadi. Dushmanlar Sarkub yerlariga hujum qilib, Guloyimning otasini o'ldirishadi. Sarkub mulklari talanadi, sarkubliklarning ko'pi asir olinib haydab ketiladi. Guloyim va uning kanizaklari dushmanga qarshi kurashga kirishadi, qoraqalpoqlarni asirlikdan ozod qiladi va ona yurtga ozodlikni qaytaradi. Bu ishda Guloyimga uning oshig'i – xorazmlik bahodir **Arslon** yordam beradi. Dostonning bosh g'oyasi yuksak vatanparvarlik hissi va Vatanga, xalqqa fidoyilarcha muhabbatdir. «Qirq qiz» dostoni bugungi kunda xalq og'zaki ijodining durdonalaridan biri sanaladi.

*Ilm-fan.* **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida** qoraqalpoqlarda bir qancha madrasalar bo'lib, ularning eng kattalari **Qoraqum eshon** va **Tosh madrasalari** edi. Qoraqum eshon madrasasi **XIX asr o'rtalarida** qurilgan. Dastlab u **masjid** vazifasini bajargan. Tosh madrasa esa **1841-yili Mang'it hokimi Xo'janiyoz** tomonidan qurdirilgan. *Madrasada ta'lim ikki bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda arab tili grammatikasi o'rganilgan bo'lsa, keyingi bosqichda diniy-huquqiy bilimlar o'qitilgan.*

**XIX asr oxirida** qoraqalpoqlarning ilk yozma asarlari paydo bo'la boshladi. Qoraqalpoq shoirlari **Kunxo'ja (1799 – 1880)**, **Otash Olshinboy (1788 – 1875)**, **Ajiniyoz (1824 – 1878)** kabilarning nomlari keng tanildi. Ular bilimdon, o'z taqdirini xalqi taqdiri bilan bog'lagan kishilar edi. Masalan, Kunxo'ja o'z ijodiyotini ovullarning oddiy ahliga, ularning kundalik mehnati va turmushiga bag'ishladi. U adolatsiz tartiblarni qat-tiq qoraladi.

Ajiniyoz Qasiboy o'g'li (taxallusi **Zevar**) **Mo'ynoqdagi** eski maktabda, so'ngra Xivadagi **Sherg'ozixon madrasasida** o'qigan. Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo'lib **oxund** (o'qimishli, ilimli kishi; xalq dostonlarining mahoratli kuychisi) darajasiga erishgan. O'zbek, qozoq, turkman tillarini yaxshi bilgan. Shoiming «**Bo'zatov**» dostonida qoraqalpoq xalqining hayoti, ayniqsa, ularning yurtma-yurt ko'chib yurish jarayoni bilan bog'liq voqealar katta mahorat bilan tasvirlangan. Ajiniyoz adabiy merosidan bizga **100 ga yaqin** she'rlar va dostonlar yetib kel-

gan. Uning she'rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari kuylangan. **«Qiz Mengesh bilan aytishuv»** asari esa xalq orasida mashhur bo'lgan. Uning hayoti va ijodi haqida qoraqalpoq yozuvchisi **K.Sultonov «Ajiniyoz»** romanini yozgan.

**Berdaq (1827 – 1900)** qoraqalpoqlarning buyuk shoiridir. U qo'ng'iroq qabilasiga mansub bo'lib, **Orolbo'yida** tug'ilgan. Ovul maktabida, so'ngra **Qoraqum eshon madrasasida** o'qigan. **20 yoshdan** she'rlar yoza boshlagan va yarim asr davomida turli mavzularda o'lanlar to'qigan. Berdaq o'z ijodini xalqi uchun o'lmas asarlar yaratishga bag'ishladi. She'rlaridan biri ham **«Xalq uchun»** deb nomlangan. Uning she'rlarida zulmni qoralovchi tuyg'ular, jo'shqinlik ustuvor bo'lgan. Jumladan, **«Ahmoq podshoh»** dostoni shunday ulkan ta'sir kuchiga ega edi. Tarixiy mavzudagi **«Avlodlar»**, **«Omongeldi»**, **«Oydo'stbiy»**, **«Ernazarbiy»** asarlarida shoir o'z xalqi qahramonlarini faxr bilan kuylaydi.

**XX asr boshlariga** kelib qoraqalpoq adabiyotidagi demokratik an'analarini yangi avlod vakillari: **Umar, Qulimbet, Sariboy, Qulmurot, Sodiq** kabilar davom ettirdilar.

## 23-BOB. JADIDLAR HARAKATI VA UNING TURKISTON IJTIMOY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI

### 23.1. JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI

O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelish shart-sharoitlari. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining zabt etilishi ushbu hududning tanazzulga yuz tutishiga, jahonning rivojlangan davlatlaridan ko'p sohalarda orqada qolib ketishiga, milliy qadriyatlarining toptalishiga olib keldi. Maorif sohasida ham imperiya manfaatlaridan kelib chiqib mahalliy aholini savodsizlikda, qoloqlikda tutib turishga qaratilgan siyosat olib borildi. Turkistonda mustamlakachilikka qarshi milliy-ozodlik harakatlari bilan bir qatorda mahalliy aholining aksariyat qismi o'zlikni saqlab qolish, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishni bir kun bo'lsa ham unutmadi. O'rta Osiyoga nisbatan Rossiya imperiyasining harbiy jihatdan ustunligi mahalliy aholining ochiqdan ochiq kurash olib borishiga imkon bermadi. Shuning uchun *Vatan, millat, xalq qayg'usini tushungan kishilar, ayniqsa, ziyolilar xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l uning ma'rifatini uyg'otish deb bildi.* Ular xalqni ma'rifatli qilmasdan turib mustaqillikni qo'lga kiritib bo'lmaydi deb hisoblaganlar. Ziyolilar xalq orasida ilg'or g'oyalarni tarqatishda **maorif tizimini** asosiy vosita deb bildilar. O'lka milliy ziyolilarining jamiyatni yangilashga va isloh qilishga qaratilgan harakati **jadidchilik** nomi bilan maydonga chiqdi.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Har bir jamiyatdagi o'zgarishlar o'z davrining tarixiy sharoitidan kelib chiqib namoyon bo'ladi. Bu o'zgarishlarda tarixiy shaxslar, ayniqsa, ziyolilarning o'rni katta, ularning har biri o'ziga xos ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladi. Xuddi shunday jarayon **XIX asrning 2-yarmida** Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan **Qrim, Kavkazorti, Turkiston**, protektoratga aylantirilgan **Buxoro amirligi va Xiva xonligida** ham ro'y berdi. XIX asrning 2-yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar.

Qrim-tatar ma'rifatparvari bo'lgan **Ismoil G'aspirali (1851 – 1914)** butun turkiy xalqlar o'rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallab, jahon taraqqiyoti bilan yaqindan tanishgan, bir nechta xorijiy tillarni, turli

xalqlarning madaniyatini o'rgangandi. O'zi egallagan bilimlar asosida Sharq va G'arb dunyosini taqqoslab, turkiy xalqlarning taraqqiyotga erishish yo'llarini izlaydi. Ismoil G'aspirali **1884-yili Qrimdagi Boqchasa-royda birinchi jadid maktabiga asos soldi**. U o'zi tuzgan ta'lim dasturi asosida darslik tayyorladi. *Shu dastur bo'yicha 40 kunda 12 o'quvchining savodi chiqarildi*. Bu usul **«usuli savtiya»** – harf tovushi usuli, ya'ni **«usuli jadid»** nomi bilan keng tarqaldi. Uning **1888-yili «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh»** kitobi chop etildi. Unda yangi usul maktablarining ta'lim tizimi, dars o'tish va uning tashkil qilinishi, o'quv xonalarining jihozlanishi, dars jadvali, ta'ullar, imtihonlar bayon etilgan.

«**Jadid**» so'zi arabcha bo'lib, yangi degan ma'noni anglatadi. Jadidlar Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan xalqlarni, eng avvalo, maorif tizimini yaxshilash, ta'lim sohasini isloh qilish, yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o'qitish zarur deb bildilar. Ular musulmon xalqlarining maktab va madrasalarida yoshlarga diniy ta'lim, arab, fors va rus tillari, tibbiyot, kimyo kabi fanlar o'qitilishi zarurligi g'oyasini ilgari surdilar.

*Taraqqiyparvarlik harakatining O'rta Osiyoga yoyilishi*. Turkiston o'lkasida millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari: hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolalar orasida mavjud edi. Jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida **«Tarjimon» gazetasi** katta o'rin tutdi. Ismoil G'aspiralining **1893-yili Toshkent, Samarqand va Buxoroga** tashrifi ma'rifatparvarlik g'oyalarining keyingi rivojiga turtki bo'ldi. *1893-yili Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko'rsata boshladi*. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi.

O'rta Osiyo jadidlari ma'rifatparvarlik yo'lida Qrim ziyolilari tajribalarini o'rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg'or g'oyalaridan ham foydalandilar. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa mamlakatlar progressiv harakat vakillaridan ajralib turgan. *1910-yili ularning eng yoshi Abdulhamid Cho'pon 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo'ja Behbudiy 36 yoshda bo'lgan*.

Taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi **ikki bosqichda bo'ldi**. *Birinchi bosqichda ma'rifatparvarlikdan boshlangan jadidchilik harakati 1917-yilga kelib o'zining ikkinchi bosqichi – siyosiy ko'rinishdagi harakatga aylandi*.

O'rta Osiyodagi milliy taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatlariga ko'ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo'linadi. Turkis-



ton jadidchiligining asosiy tarkibini ziyolilar tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi safarida furdilar. Ular podsho hukumatining xomashyo manbayiga aylantirilgan Turkistonning kelajagini mustaqil, rivojlangan davlat sifatida ko'rishni orzu qilganlar. **XX asr boshlarida** shakllangan taraqqiyparvarlik kuchlari davlatning boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanligini va uni o'zgartirish lozimligini chuqur angladilar.

Buxoro milliy ziyolilarining harakati Turkiston o'lkasiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi, asosan, ziyolilar, mayda do'kondorlar, o'qituvchilar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan ham chiqishdi. Shuningdek, Buxoro jadidchiligi ayrim mutaassib mullalar, yangilik va islohotlarni xush ko'rmaydigan qadimchilar oqimi qarshiligiga uchradi. **1910-yildan Buxoroda** jadidchilik harakati tashkiliy tus olib, siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi. **XX asrning boshlarida** Buxoro taraqqiyparvar kuchlari vaziyatga tanqidiy yondashgan holda davlatning ichki boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, mehnatkash xalqning turmush darajasi nihoyatda past ekanligini va siyosiy-ma'muriy tuzumni o'zgartirish lozimligini chuqur angalay boshladilar.

Xiva xonligida **XX asr boshlarida** shakllangan taraqqiyparvarlik harakati esa boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. Xiva xonligida jadidchilik **ikkita oqimdan** iborat bo'lib, uning o'ng oqimi **bosh vazir Islomxo'ja** boshchiligida xonlikdagi savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini birlashtirdi. *Mazkur oqim o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o'tkazilishini maqsad qilib qo'ydi.* So'l oqim esa **qozikalon Boboovun Salimov** rahbarligida sarmoyadorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirgandi. *Ular yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishmoqchi bo'ldilar.*

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, nashirlik va teatr sohasida faoliyatlarini davom ettirdilar. **1898-yili Qo'qon** shahrida **Salohiddin domla** ikkinchi jadid maktabini ochdi. **1899-yili Andijonda Shamsiddin domla, Toshkentda Mannon qori** jadid maktabini ochib, ko'plab o'quvchilarning yangi usulda ta'lim olishlariga erishdilar.

## 23.2. JADIDLAR: DASTURIY MAQSAD VA VAZIFALAR

*Jadidlarning asosiy g'oyalari.* O'rta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalarni amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar: *o'lkada yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jumallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish yo'li bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi.*

Ilg'or milliy ziyolilar faoliyatining muhim yo'nalishi yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish edi. Bu maktablar bolalarning tez va oson savodxon bo'lishlarini ta'minlabgina qolmay, balki ularda fanatizm va konservatizmdan xoli bo'lgan yangi dunyoqarashning shakllanishiga ham xizmat qilardi.

Ular ham Sharq, ham G'arb madaniyati yutuqlarini egallashga intildilar, o'qidilar va o'zgalarni ham shunga da'vat etdilar. Ma'rifatparvarlar xorijga chiqib turli mamlakatlardagi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti darajasini ko'ra oldilar, ularni solishtirdilar va bu zehni yoshlarda jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga keltirish istagi paydo bo'ldi. Natijada jadidlarning diqqat markaziga birinchi bosqichda **ta'limni isloh etish** vazifasi qo'yildi.

Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingandi. **Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik** asoslari singari fanlar bilan bir qatorda **islom ta'limoti asoslarini** o'rganishga ham katta e'tibor berilgan.

Yangi darsliklar yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib turardi. Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida **Qozon va Orenburgda** nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi.

**Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Xiva** shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi. Bu shaharlarda ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalar Turkistonda jadidchilikning keng yoyilishiga olib keldi.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati faqatgina maktablarda emas, balki **matbuotchilik** faoliyati, jumladan, gazetalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi. **1906-yili Ismoil Obidovning** muharrirligida «**Taraqqiy**», shu yili **Munavvar Qori** muharrirligida «**Xurshid**», **1907 –**

**1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuhrat», Ahmadjon Bektemirov muharrirligida «Osiyo» gazetalarini chop etildi.**

Ma'rifatchilikning yangi to'liqida **1913 – 1915-yillarda «Samarqand», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona», «El bayrog'i», «Kengash», «Ulug' Turkiston», «Turon» gazetalarini, «Oyna» jurnali, 1917-yili esa «Hurriyat», «Farg'ona sahifasi» kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.**

Jadidlar o'z nashrlarida jahonda va Turkiston hududida ro'y berayotgan voqealar haqida ma'lumotlar berib borishdi. Ular bu orqali o'z g'oyalari mazmunini va ularni keng yoyish zarur ekanligini ko'rsatdilar.

Ma'rifatparvarlar yangi usul maktablarining Turkistonda milliy kadrlar tayyorlash, yosh avlodni o'qitishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar. Agar **XX asr oxirida O'rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar sanoqli bo'lgan esa, 1911-yilga kelib ularning soni 63 taga, o'quvchilarning soni 4106 taga yetdi. 1910-yili Toshkentning o'zida 24 ta jadid maktabi faoliyat ko'rsatib, ularda 1740 ta bola o'qigan. 1917-yilga kelib o'lkada 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar mavjud edi.**

Taraqqiyparvarlarning qarashlarida xotin-qizlar ta'limi masalasi alohida o'rin tutgan. Jadidlar islom ma'rifatli bo'lishni istagan ayollarga to'sqinlik qilmaydi deb ta'kidladilar. Islom ilm o'rganishni erkaklarga ham, ayollarga ham farz deb hisoblashidan kelib chiqqan holda jadidlar o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitishda tashabbuskor bo'ldilar.

Jadidchilik harakati namoyandalarning o'lkadagi asosiy faoliyati ma'rifatparvarlikdan boshlangan bo'lsa-da, ularning ta'siri Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik harakatlarida g'oyaviy rahnamolari sifatida *muhim o'rin tutdi.*

### **23.3. JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARI VA ULARNING FAOLIYATI**

*Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandalari. XX asr boshlariga kelganda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab «jadid usuli»dagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surganlar. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyat rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad*

*Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Boboqxun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.*

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «**O'rta Osiyo jadidlarining otasi**» deb tan olingan **Mahmudxo'ja Behbudiy (1875 – 1919)**ning xizmati katta bo'ldi. U **1875-yil 19-yanvarda** Samarqand yaqinidagi **Baxshitepa qishlog'ida** tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, **imom-xatib, qozi**, keyin **muftiy** darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'l boshchisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga «**Behbudiya kutubxonasi**» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

**Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878 – 1931)** Turkiston o'lkasida ozodlik, millat kelajagi uchun kurashgan ma'rifiy, siyosiy arbob, jadidchilik harakatining yirik namoyandalardan biri. **1904-yildan** boshlab o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakatlarning faol ishtirokchisi. U jadid maktablari ochilishining tashabbuskori va amaliyotchisi, milliy gazeta va jurnallari asoschisi, muharriri hamda jadid teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavvar Qori maktablar uchun «**Adibi avval**», «**Adibi soniy**», «**Yer yuzi**» kabi darsliklarni yaratdi.

Dastlabki paytlarda madaniy-ma'rifiy, keyinchalik, siyosiy-ijtimoiy xususiyat kasb etgan islohotchilik harakati faol ishtirokchilaridan biri **Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent** shahrida **hunarmandlar** oilasida tug'ildi. U maktab va madrasada ta'lim olib, o'z zamonining ma'rifatliligi va chuqur bilim sohibiga aylandi. Abdulla Avloniy o'lkada ta'lim, matbuot, teatr sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shib, **1907-yil «Shuhrat»** gazetasiga asos soldi. O'zi tashkil qilgan yangi usul maktabi uchun «**Birinchi muallim**», «**Ikkinchi muallim**» «**Turkiy guliston yoxud axloq**» kabi darsliklarni yaratdi.

Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy kabi boshqa milliy taraqqiyparvarlar ham ma'rifatparvarlik faoliyatini olib borib, yangi maktablar, xayriya jamiyatlari, kutubxona va kitob do'konlari ochdilar.

*Jadidlar harakatining milliy xususiyatlari.* Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma'rifatparvar kishilar edi. Ma'rifatparvar-

lar keng ma'noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma'noda ma'rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g'oyalarni ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma'rifatparvarlari jaholat, bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarning asl sabablari deya talqin etdilar. Ular podsho yakkahukmronligi (absolyutizm)ga qarshi kurashdilar, siyosiy erkinlik va inson huquqlarini yoqlab chiqdilar.

Turli mamlakatlarda ma'rifatchilik harakatlari o'ziga xos, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan, ammo ularning mushtarak jihatlari ham mavjud edi. Bu jihatlarda Turkiston jadidlari faoliyatida ham namoyon bo'ldi. Jumladan, ular mavjud tuzum, uning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalaridagi barcha salbiy ko'rinishlariga va kamchiliklariga qarshi kurashish; maorif, erkinlik, hayotning insoniy-madaniy jihatlarni shakllantirish, ularni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, ma'naviy va axloqiy me'yorlarni takomillashtirish; xalq ommasi manfaatlarini himoya qilish, xalq farovonligini oshirishga sidqidildan intilish yo'ldan bordilar.

Jadidlar Turkistonda azaldan mavjud bo'lgan, ya'ni Alisher Navoiy, Mirzo Bedil va Boborahim Mashrabdan qolgan merosdan foydalangan holda Turkistonda demokratik va taraqqiyparvar g'oyalarni davom ettirdilar. *Turkiston ilg'or ziyolilari erishgan yutuqlari orasida eng salmoqlisi hukmron mafkuradan mustaqil bo'lgan xalq ta'limi tizimining yaratilishi hamda milliy matbuotga asos solinishi edi.* Bu esa, o'z navbatida, progressiv g'oyalarni tarqatish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Turkiston taraqqiyparvar sarmoyadorlari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab, xalqqa foydali xizmat qiladigan yoshlarni va ular uchun qayg'urgan jadidlarni qo'llab-quvvatladilar. **Andijonlik Mirkomil Mirmo'minboyev** o'z hisobidan ana shu ishga katta miqdorda mablag' ajratgan. **1910-yili Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo'ja Mehriy, Usmonxo'ja va Muhammadin maxdum** kabilar «**Tarbiyayi atfol**» (Bolalar tarbiyasi) jamiyatini tashkil qilib, **1911-yili 15 nafar, 1912-yili 30 nafar talabani Turkiyaga o'qishga yuborganlar.**

#### 23.4. JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTON IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI

*Jadidlar va islom dini.* Jadidlar mafkurasida islom dinining shaxs ma'naviy kamoloti va jamiyat rivojidadagi ahamiyati muhim o'rin tutgan. Ular ushbu vazifani hal etmay turib boshqa muammolarni bartaraf qilish-

ning iloji yo'qligini anglab yetganlar. Ana shu maqsadda **1909-yili Mahmudxo'ja Behbudiy, 1910-yili Abdulla Avloniy, 1915-yili Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat** tomonidan **islom tarixiga oid** asarlar yaratildi. Bir xil nomga ega bo'lgan ushbu asarlarda ular islomning paydo bo'lishi va tarqalishining eng muhim bosqichlarini yoritib berdilar, shuningdek, islom aqidalarining noto'g'ri talqin qilinishiga qarshi chiqdilar.

Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islom dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarini, shariat hukmlarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish kabilar bor edi.

Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayolning bilimga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yganligini keng targ'ib qildilar.

Jadidlar ilm-fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo'naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisobladilar. Ularning fikriga ko'ra, chin musulmon bo'lish uchun diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni, ayniqsa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarni bilishlari zarur. Buni muqaddas Qur'on oyatlari va hadislar asosida tasdiqladilar.

Jadidlarning islomga oid g'oyalari ularni islomning asosiy ta'limotini o'zgartirishga intilganlar degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Sababi, ular o'z faoliyatlarida Qur'onni ham, umuman, butun islom ta'limotini ham to'g'ri izohlab berganlar. Ularning barchasi islom diniga va musulmon an'anasiga sodiq edilar. Ular islomga putur yetkazadigan urf-odatlariga, jamiyat rivojiga va taraqqiyotiga xalal beradigan salbiy ko'rinishdagi holatlarga qarshi chiqdilar. Jadidlar johillikni tugatishga, jamiyatda hur fikrlar, taraqqiyparvar g'oyalar uyg'otishga intildilar.

*Taraqqiyparvarning Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi faoliyati.* Jadidlar o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o'ziga xos qarashlarga ega edi. O'rta Osiyo taraqqiyparvarlari o'z faoliyatlari davomida o'lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasb-kori, shart-sharoitlaridan xabardor bo'lganlar. Xalqning ahvoli yildan yilga og'irlashib borayotganligini, turli kasb egalari o'z sohalarining yetuk mutaxassisi emasligi sababli millat kelajagi yo'lida foyda keltirmayotganliklarini angladilar.

Ularning fikricha, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlamay turib siyosiy va huquqiy erkinlikka erishish mumkin emasdi. Buning uchun, birinchi navbatda, yerni, yer osti va yer usti boyliklarini, suvni

Turkiston xalqlarining umumiy boyligi deb e'lon qilish, barcha sohalarni rivojlantirishga qodir mahalliy kadrlarni tayyorlash, zavod va fabrikalar qurib, mahsulotlarni o'lkaning o'zida ishlab chiqarishni zarur deb bildilar.

Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, **Germaniyaga** o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib yurt va millat uchun xizmat qilish g'oyalarini ilgari surdi. Ularning sa'y-harakati bilan mahalliy aholi tomonidan yoshlarning xorijda o'qib kelishiga ketadigan xarajatlari uchun mablag'lar yig'ildi. O'lkada va xorijda savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri, Toshkentning **«Qoryog'di»** mahallasidan bo'lgan **Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja** Rossiya-da huquqshunoslik sohasi bo'yicha ta'lim olib, *birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advokati* bo'ldi. U ulug' rus yozuvchisi **Lev Tolstoy** bilan yozishmalar olib borgan.

Jadidchilikning siyosiy harakatga aylanishi. Turkiston taraqqiyparvarlari **XX asr boshlarida** dunyoda ro'y bergan siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. Bu davrda xorijdagi siyosiy partiyalarning dasturlarini tahlil qildilar. Shu vaziyatda taraqqiyparvarlar o'zbek xalqining tinchliksevarligi, bosiqligidan kelib chiqib barcha muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga intildilar, chunki ular qonli to'qnashuv va urushlarga qarshi edilar.

**1917-yildagi** Rossiya **fevral voqealari** arafasida Turkiston jadidchiligi kuchli siyosiy harakatga aylandi. Agar *Birinchi jahon urushidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo'lsalar, fevral voqealaridan keyin jadidlar ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar.* Jumladan, mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish, o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish, Davlat Dumasidan o'lkani aholisi sonidan kelib chiqib o'rin ajratish, milliy matbuot erkinligini ta'minlash kabilardan iborat edi. Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, **«Sho'royi Islomiy»**, **«Ittifoq»** kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o'z ortidan ergashtira oldilar. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholini ma'rifatlil qilishga, ularda milliy o'zlikni anglash kuchayishiga, ozodlik uchun kurashlarning ko'tarilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Jadidchilik harakati o'lkada podsho hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma'naviy kuch sifatida ham namoyon bo'ldi.

**1917-yil mart oyi boshlarida** jadidlar tomonidan **Toshkentda** barcha erkparvar tashkilotlarning umumiy dasturiga ega bo'lgan yagona

tashkilot – «**Musulmon markaziy sho'rosi**» tuzildi. Uning ta'sis syezdida **350 delegat** qatnashgan. Ular orasida **ozarbayjonlar, tatarlar, turkmanlar, boshqirdlar** kabi boshqa musulmon xalqlarining vakillari ham bo'lgan. Syezdda barcha delegatlar bo'lajak davlat **Turkiston** deb atalishi, uning tarkibiga **Buxoro, Xiva** va **Turkiston general-gubernatorligi** kirishi kerak degan fikrni ma'qulladilar.

Biroq Turkistondagi **1917-yildagi oktyabr** voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi jadidlarning o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunga qaramay, ular markazi **Qo'qonda** bo'lgan, **Turkiston Muxtoriyati** deb atalgan mustaqil muxtor respublika e'lon qildilar. **72 kun** yashagan bu muxtor respublika sovet hokimiyati tomonidan tor-mor etildi. Natijada jadidlar ta'qibga uchradi, oxir-oqibat **1937 – 1938-yillarda** qatag'on qurboni bo'ldi.



## 24-BOB. TURKISTON VA BIRINCHI JAHON URUSHI

### 24.1. BIRINCHI JAHON URUSHINING BOSHLANISHI VA UNING TURKISTONGA TA'SIRI

*Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri.* XX asrning boshlarida jahondagi yirik davlatlarning mustamlakalarga ega bo'lish masalasidagi o'zaro munosabatlari keskin ko'rinish oldi. Birinchi jahon urushida **Rossiya** Angliya va Fransiya davlatlaridan iborat ittifoq – **Antanta** tomonida turib urushda qatnashdi. Rossiya imperiyasining Birinchi jahon urushida ishtirok etishi uni iqtisodiy jihatdan yomon ahvolga solib qo'yadi. Shusiz ham G'arbiy Yevropa davlatlaridan fan va texnika taraqqiyoti sohasida ancha orqada qolib ketgan bu mamlakat urush tufayli yanada nochor ahvolga tushib qoldi. Natijada podsho hukumati o'z mustamlakalaridan, jumladan, Turkiston o'lkasidan ham yanada ko'proq foyda olish uchun ularning tabiiy boyliklarini ko'proq o'zlashtirishga jon-jahdi bilan kirishdi. Mahalliy aholidan esa arzon mehnat kuchi sifatida foydalanishga harakat qildi.

Bu urush tufayli Rossiyada ommaviy safarbarlik e'lon qilindi. Safarbarlik Rossiyaning mustamlakalariga, jumladan, Turkistonga ham tegishli edi. Unga ko'ra, *Turkiston o'lkasidan urushga 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan aholining yevropalik qismi vakillari chaqirildi.* Aynan hosillarni yig'ib olish vaqtiga to'g'ri kelgan bu chaqiruv Turkiston o'lkasidagi Rossiya guberniyalaridan ko'chirib keltirilganlarning oilalari uchun qiyinchilik tug'dirdi. Asosiy ishchi kuchi bo'lgan erkaklarning urushga olinishi oilaning asosiy boquvchisidan ajralishiga va ularning yomon ahvolga tushishiga sabab bo'ldi.

**1914-yili** Turkistonda «favqulodda muhofaza holati» deb e'lon qilinishi natijasida mustamlaka hukumatning mahalliy aholi ustidan nazorat va jazo choralari kuchaydi. Turkiston aholisi urushga safarbarlik e'lon qilinishiga qarshi chiqib, «favqulodda holat» tartiblariga rioya etmay qo'ydilar. *Bunday tartiblarni buzganlar 50 so'mgacha jarima to'laydigan yoki 3 oygacha qamoqqa olinadigan bo'ldi.* Shusiz ham aholi turmush sharoitining yomonligi, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning yetishmasligi, narx-navoning oshib ketganligi o'lkada norozilik kayfiyatining yanada oshishiga hamda ommaviy ko'rinishdagi qo'zg'olonlarning kuchayishiga sabab bo'ldi.

*Mardikorlikka safarbarlikning e'lon qilinishi.* Urush ketayotgan joy-

lardagi vayronagarchiliklarni tugatish, mudofaa inshootlarini qurish, urushga oziq-ovqat va qurol-yarog'larni tayyorlash va ularni joylarga yetkazish ishlari katta muammoga aylandi. Bu ishlarni amaliy boshqarish va tashkil qilish umuman izdan chiqib ketdi. Muammoni hal qilishda qo'shimcha ishchi kuchi va front ortida ishlash uchun ko'plab odamlar kerak bo'ldi. Shu vaziyatdan kelib chiqib amaldagi hukumat tomonidan imperiya mustamlakalaridagi tub aholi vakillari va urushga safarbar qilinmagan kishilarni front orqasidagi ishlarda foydalanishga qaror qilindi. **1916-yil 25-iyunda** Rossiya imperatori **Nikolay II (1894 – 1917) Oliy bosh qo'mondon va harbiy vazir** taklifi bilan qabul qilgan farmoni bo'yicha «*front ortidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar safarbarligi*» boshlandi.

## 24.2. TURKISTONDA 1916-YILGI QO'ZG'OLONNING BOSHLANISHI

Qo'zg'olonning boshlanish sabablari. Imperator Nikolay II front ortidagi xizmatlar uchun aholining mardikorlikka olinishi to'g'risidagi farmoniga muvofiq, Turkiston o'lkasining *Sirdaryo viloyatidan 87 ming, Samarqanddan 38 ming, Farg'onadan 50 ming kishini* mardikorlikka yuborish belgilandi. Belgilangan miqdorlar viloyatlar bo'yicha aholi o'rtasida taqsimlandi. Farg'ona viloyatida belgilangan mardikorlarni to'plash uchun viloyatdagi xonadonlarning har **beshtasidan bir kishini** olishga to'g'ri kelgan.

Xalq bundan qattiq norozi bo'ldi. Turkiston erkaklarining o'z oilasini tashlab ketishi ularni ochlikka mahkum etdi. Ayniqsa, qishloq aholisining safarbar qilinishi qishloq xo'jaligini inqirozga olib keldi. Mardikorlikka boradiganlarning ro'yxatini tuzishda Turkiston mahalliy ma'muriyat vakillari adolatsizliklarga yo'l qo'ydilar. Hatto oilada bir nechta erkak bo'lishiga qaramasdan, badavlat xonadon vakillari pora berib ro'yxatga yozilmasdi. Lekin kambag'al oilalardan, garchi bitta erkak bo'lsa ham, ro'yxatga kiritilardi. Bunday nohaqiqatlar keng xalq ommasi noroziligining kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy aholi o'rtasida mardikorlikka olishga qarshi keng ommaviy chiqishlar boshlanib ketdi. **1916-yili** mardikorlikka olinadiganlar ro'yxatini tuzadigan mahalliy boshqaruv vakillari tomonidan aholini zo'rflash, tazyiq o'tkazish kabi holatlar avj oldi.

Norozilik harakatlarida dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdogarlar, ishchilar va aholining boshqa ijtimoiy qatlamlari vakillari ishtirok etdi. Mardikorlikka qarshi harakatlarning keng ommaviy tus olishidan

mustamlaka hukumati, o'lka va viloyat ma'murlari xavotirga tushdi. **Farg'ona viloyati gubernatori A. Gippius** viloyatda norozilik kayfiyatidagi odamlarning ko'pligi, mardikorlikka safarbar etish jarayoni aholi orasida katta g'alayonlar chiqishiga sabab bo'lishi mumkinligi haqida o'lka va podsho ma'muriyatiga ma'lumot beradi. Lekin markaziy hokimiyat viloyat gubernatori A. Gippiusning xavotiri va g'alayonlarning oldini olish to'g'risidagi ma'lumotlarini «*podsho farmonlarini bajarmaslik, kechiktirish, qarshi chiqish*» deb hisoblab, uni viloyat gubernatori lavozimidan ozod qiladi.

**1916-yil 4-iyulda Xo'jand** shahrida norozilik bildirib ko'p sonli aholi yig'ildi. Ular mardikorlikdan bosh tortdilar. **5-iyulda Samarqandning Urgut qishlog'ida**, keyinchalik **Siyob, Mahalla, Xo'ja Ahror, Angorda, 7-iyulda Dahbedda** norozilik chiqishlari bo'lib o'tdi. Namoyishchilar mahalliy boshqaruv vakillarini kaltaklab, ro'yxatlarni yirtib tashladilar.

Qo'zg'olonning Turkiston bo'ylab tarqalishi. Mardikorlikka qarshi qaratilgan norozilik harakatlari bir necha kun ichida butun o'lka bo'ylab yoyildi. Namoyish mustamlakachi hukumat tomonidan kuch bilan tarqatilib, qarshilik qilganlar qattiq jazolandi. **Toshkentda** ham norozilik chiqishlari boshlanib, **11-iyulda** ko'p sonli aholi **Beshyog'ochdagi** politsiya mahkamasi oldiga to'plandi. Qo'zg'olon faollaridan **Rizvonbibi Ahmadjonova** politsiyaga qarata: «*Bizni o'ldirsanglar ham, o'g'illarimizni sizlarga bermaymiz*», – deb xitob qilgan. Politsiyachilar esa o'q uzib uni og'ir yarador qilgan. Norozilik bildirganlarga qarshi miltiqlardan o'q otilgandan so'ng, xaloyiq mahkamaga bostirib kirdi. Bu vaqtda yordamga yetib kelgan harbiy kuchlar namoyishchilarni o'qqa tuta boshladi. Natijada **11 kishi** otib o'ldirildi, **15 kishi** yarador bo'ldi. Qo'zg'olon harbiy kuchlar tomonidan qiyinchilik bilan bostirildi, Shahar harbiy holatga tushib, har bir joyda qo'riqchilar, tun-u kun navbatchilik, nazorat va tekshiruvlar kuchaytirildi. Bu voqealardan keyin norozilik harakatlari Toshkent shahri atrofidagi qishloqlarga yoyildi. U yerdan **Farg'ona vodiysiga** o'tib, vodiya bu harakat keng tus olib ketdi. U yerda ham mahalliy aholi ma'muriyat vakillariga bo'ysunmay qo'yadi.

Qo'zg'olon iyul oyi o'rtalarida Farg'ona viloyatining **Qo'qon, Rish-ton, Marg'ilon, Andijon, Namangan uyezdlarida** keskin tus oldi. Jumladan, **9-iyul kuni Andijonda** podsho farmoni o'qib eshittirilgandan so'ng, tayoq, tosh, ketmon va boshqa narsalar bilan qurollangan aholi mardikorlikdan bosh tortib namoyishga chiqdilar. Ularga politsiya va harbiy kuchlar qarshi qo'yildi. Qo'zg'olonchilarni tarqatish paytida ular **dan 3 kishi** otib o'ldirildi, **12 kishi** yarador bo'ldi.

**10-iyulda Eski Marg'ilonda taxminan 25 ming kishi** norozilik bildirib bozor atrofiga yig'ildi. Qo'zg'olonchilar mardikorlikni bekor qilishni talab etib mahalliy ma'muriyat idoralariga bostirib kirdilar. Ular mustamlakachilarning xizmatida bo'lgan mahalliy ma'muriyat vakillari uylariga, ma'muriy binolarga o't qo'ydilar, **2 mirshab** o'ldirildi va bir necha kishi jarohatlandi. Qo'zg'olonning kuchayib ketganligidan xavotirga tushgan viloyat ma'muriyati zudlik bilan ularga qarshi jazo polkini yubordi. Ular qo'zg'olonchilarni o'qqa tutib, **63 kishini** otib o'ldirdi va ko'pchilikni yarador qildi.

**Shahrixonda** ham qo'zg'olonchilardan **16 kishi** o'ldirildi, ko'pchilik yarador bo'ldi. **11-iyulda Namanganda** ko'tarilgan qo'zg'olon ham jiddiy tus oldi. **Labbaytog'a dahasida** yig'ilgan **1500 dan ortiq** kishilarga qarshi kuchli qurollangan rota tashlandi va qo'zg'olonchilar tarqatib yuborildi.

Mustamlakachi hukumat politsiyasi va harbiy kuchlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida ayovsiz janglar natijasida qurolsiz namoyishchilardan ko'pchiligi o'ldirildi va yarador qilindi. Ular orasida ayollar va bolalar ham bo'lganligi mustamlakachilarning beshafqat siyosatini yana bir bor fosh qildi.

### 24.3. JIZZAX QO'ZG'OLONI

Qo'zg'olonning boshlanishi. Rossiya imperiyasining 1916-yildagi mardikorlikka olish to'g'risidagi farmoni Turkiston o'lkasining barcha hududlariga yoyilib, unga qarshi chiqishlar mahalliy aholining milliy-ozodlik harakatlariga aylanib ketdi. Bular orasida **Jizzaxda** bo'lib o'tgan qo'zg'olon o'lkada mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lish va bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash maydoniga aylandi.

Jizzax aholisi, asosan, don mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanib, ularning yerlari imperiyaning markaziy hududlaridan ko'chirib keltirilganlarga berib yuborilishi, soliqlarning ko'payib borishi ular aholining yomonlashishiga olib keldi. Aholining **19 yoshdan 43 yoshgacha** bo'lgan erkaklarining front ortiga ishlarga safarbarlik qilinishi butun o'lkadagi kabi Jizzaxda ham jabr-zulm, adolatsizliklardan tobora keskinlashib borayotgan norozilik chiqishlari xalq qo'zg'oloniga aylanishiga olib keldi. Mardikorlikka olinadiganlarning tuzilgan ro'yxatiga muvofiq, *Samarqand viloyatining Jizzax uyezdidan 11 ming kishi belgilanadi.* **1916-yil 3-iyulda** farmon e'lon qilinishi bilan xalq orasida norozilik boshlanib ketdi. **5-iyulda** dastlabki g'alayonlar boshlandi. Bunda aholi farmonning bekor qilinishini, ro'yxat tuzishni to'xtatishni talab qiladi. Jiz-

zax qo'zg'oloniga **Nazirxo'ja eshon** va **Abdurahmon jevachilar** rahbarlik qilganlar.

Jizzax aholisi mardikorlikka qarshi ommaviy qo'zg'olon ko'tarish maqsadida boshqa shaharlarga, jumladan, **Toshkent**, **Samarqand** va ko'plab atrofdagi qishloqlarga o'z vakillarini yubordilar. **13-iyulda** Jizzax shahrida **Damin kulol** boshchiligida hunarmandlar mardikorlikka olish bo'yicha ro'yxatni talab qilib qishloq oqsoqoli **Mirzayor Xudoyorov** o'ldiga bordilar. Undagi ro'yxat, asosan, kambag'al oila vakillaridan tuzilgan bo'lib chiqdi. Bundan norozi bo'lgan aholi ro'yxatni berishni va uni qaytadan tuzishni talab qildilar. Mirzayor Xudoyorov ro'yxatni bermay, to'plangan odamlarni haqorat qildi. Bu holat aholining keskin noroziligini keltirib chiqardi.

Shundan keyin ketmon, tayoqlar bilan qurollangan qo'zg'olonchilar Jizzaxning yangi shahar qismiga yo'l oladi. Bu vaqtda qo'zg'olonni bostirish uchun uyezd boshlig'i o'z yordamchilari bilan yetib keladi. Uyezd boshlig'i ularni qaytarolmaydi.

Bu vaqtda qo'zg'olonchilar safiga shahar va uning atrofidan ko'plab kishilar qo'shildi. Nazirxo'ja eshon qo'zg'olonchilarga umumiy rahbar bo'ldi.

Jizzax qo'zg'oloni ishtirokchilari mustamlakachi ma'muriyatiga tegishli bo'lgan harbiy, ma'muriy va boshqa joylarga hujum qildilar. Ular **13-iyul** kuni temir yo'l stansiyalarini, aloqa simlarini uzib, temir yo'l va ko'priklarni buzib tashladilar. **14-iyulda** Abdurahmon jevachi o'z uyida turli joylardan yuborilgan vakillar bilan yig'ilish o'tkazdi va unda Jizzaxdan **12 chaqirim** uzoqlikda joylashgan **Kuyaboshi** degan joyda to'planib, barcha birgalikda harakat qilishga kelishildi. Bu xabarni atrofdagi joylarga yetkazish uchun vakillar yuboriladi.

Jizzaxdagi voqealardan xabar topgan podsho hukumati **polkovnik Ivanov** boshchiligida harbiy kuchlarni u yerga yubordi. **18-iyul** kuni Turkistonda harbiy holat e'lon qilindi.

*Qo'zg'olonning bostirilishi.* Bu vaqtda mustamlakachi hukumat tomonidan qo'zg'olonni bostirish va uning ishtirokchilarini jazolash chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Jizzaxga polkovnik Ivanov boshchiligida *13 rota soldat, 2 ta artilleriya qismi, kazak otryadlari, sapyortlar qismi, jami ikki yarim ming kishilik harbiy kuchlar* yuborildi. Ular Jizzax shahrini to'p va pulemyotlardan o'qqa tutdilar. Mustamlakachilar qo'shini dastlab **Jizzaxni**, keyin **Zominni** egallab, so'ng **Sengzorga** yurish qiladi. Qo'shin qurolsiz qo'zg'olonchilarni ayovsiz o'qqa tutadi. Abdurahmon jevachi omon qolgan **600 kishilik** odamlari bilan **20 – 21-iyul**

da **polkovnik Afanasyev** boshchiligidagi harbiy kuchlarga qarshi jang olib bordi. Ivanov boshchiligidagi harbiy kuchlarning yordamga kelishi qo'zg'olonchilarning mag'lubiyatga uchrashini ta'minladi. Natijada qo'zg'olonchilar yengildi va chekinishga majbur bo'ldi. Qo'zg'olon rahbarlari va faol ishtirokchilaridan **Abdurahmon jevachi, Nazirxo'ja eshon, aka-uka To'raqul va Eshonqul To'rabekovlar, Qosim hoji eshonlar** qo'lga olinib, o'lim jazosiga hukm etildi. Mustamlakachi hukumatning jazo qo'shini qo'zg'olonchilarni ayovsiz ravishda jazolashga kirishdi. Qo'zg'olon ko'tarilgan qishloqlarga o't qo'yildi. Uylar yondirildi. Ularning oila a'zolari ham jazoga tortildi. Bu jazodan qariyalar, ayollar, hatto yosh bolalar ham chetda qolmadi.

Jizzaxga **26 – 27-iyul**da yana qo'shimcha jazo otryadlari yetib kelib, jazoni yanada kuchaytirdi. Qo'zg'olonchilardan **3 ming kishi** hibsga olinadi. Ularning boshliqlari o'lim jazosiga, qolganlari qamoq va surgunga hukm qilinadi. Mahalliy aholining qo'zg'olonda ishtirok etganligi, qo'zg'olonchilarga xayrixoh bo'lganligi va ularni tutishda podsho hukumatiga yordam bermaganligi uchun o'z uylaridan cho'lga haydab yuborildi.

#### 24.4. TURKISTONDA 1916-YILGI VOQEALARNING OQIBATLARI VA AHAMIYATI

Qo'zg'olonning yengilish sabablari va oqibatlari. Qo'zg'olon xarakteriga ko'ra milliy-ozodlik ko'rinishida yuz berdi, chunki bu qo'zg'olonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xalq ommasi edi. Ular mustamlakachilik tartiblariga qarshi qo'lga qurol olib toptalgan haq-huquqlari, din-u diyonatlari uchun tengsiz kurash olib bordilar. Qo'zg'olonchilar Vatanning haqiqiy fidoyi farzandlari ekanliklarini amalda isbotladilar. Mislsiz jasoratlari bilan Vatan tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar. Mazkur qo'zg'olonlarga Rossiya imperiyasi ma'murlaridan biri **A.F.Kerenskiy**: «*Urush frontlariga yangi bir Turkiston fronti qo'shildi*», – deb o'lkadagi vaziyatga baho bergandi.

Qo'zg'olonchilar mustamlakachi hukumatga qarshi oddiy ish qurollari bilan jang olib bordi. Bundan tashqari, ularning aksariyati dehqonlar, hunarmandlar bo'lganligi va harbiy sohadan mutlaqo bexabar ekanligi qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi. Ular Turkistonning turli mintaqalarida mustamlakachilarga qarshilik ko'rsatdilar. Shunga qaramay, qo'zg'olonchilarning taktik va strategik uquvsizligi, ahillikda va birdamlikda harakat qilmasligi pand berdi.

Qo'zg'olon xalq ommasi uchun juda katta yo'qotishlarga olib keldi. Birinchidan, Jizzax atrofidagi aholisi qo'zg'olonda qatnashgan qishloqlar yondirib yuborildi, natijada aholining ko'pchiligi uy-joysiz qoldi. Ikkinchidan, qo'zg'olon yoz faslida bo'lib o'tganligi bois, ekinzorlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari nobud bo'ldi. Buning natijasida Turkiston aholisi 1916 – 1917-yil qish oylari uchun g'amlaydigan oziq-ovqat zaxirasining katta qismidan ayrildi. Uchinchidan, qo'zg'olon natijasida aholi orasida ko'plab qurbonlar bo'ldi.

Rossiyaning Birinchi jahon urushida ishtirok etishi, Turkiston o'lkasidagi qo'zg'olonlar xalq turmushiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Podsho hukumati tomonidan Turkiston aholisining mardikorlikka safarbar qilinishi mahalliy aholining katta qismini boquvchisiz qoldirdi. Natijada bu davrda oziq-ovqat taqchilligi, narx-navoning ko'tarilishi tirikchilik qilishning qiyinlashishiga olib keldi. Shuning uchun mardikorlikka qarshi olib borilgan 1916-yildagi qo'zg'olonlar mahalliy aholining mustamlakachilarning jabr-zulmga asoslangan siyosati va urush oqibatlarining salbiy ta'siri natijasida sodir bo'ldi.

Qo'zg'olonning ahamiyati. 1916-yildagi qo'zg'olonlar podsho hukumati tomonidan ayovsiz ravishda bostirildi. Qo'zg'olonchilar mustamlakachi hukumatning politsiya va harbiy kuchlariga qarshi mardonavor kurashdilar. Qo'zg'olon ishtirokchilari va rahbarlari podsho hukumati tomonidan qattiq jazolanib, ko'plab qo'zg'olonchilar qurbon bo'lishi va yarador bo'lishiga qaramay, bu mardikorlikka qarshi qaratilgan isyonlar Turkiston aholisining bosqinchilarga qarshi milliy-ozodlik xarakteridagi harakati hisoblanadi. Qolaversa, bu qo'zg'olonda o'lka keng xalq ommasining barcha tabaqalari, jumladan, qariyalar va ayollar ham ishtirok etdi.

1916-yilgi qo'zg'olonlar mustamlaka hukumatni qattiq sarosimaga soldi. Bu qo'zg'olon Turkiston xalqlarining o'z huquqlarini poymol qilishlariga yo'l qo'ymasligini ko'rsatdi. Qo'zg'olon mustamlakachi hukumatga yana bir bor mahalliy aholining ozodlik va mustaqillik uchun kurash tuyg'ulari hali so'nmaganligini bildirdi. Podsho hukumati ba'zi choralar ko'rishga, yengilliklar yaratishga va aholi bilan murosqa qilishga majbur bo'ldi.

## 25-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI

### 25.1. BUXORO AMIRLIGINING DAVLAT TUZUMI VA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI

Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli. Rossiya bilan **1868-yilgi shartnoma** Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. U siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'lib, Rossiya protektoratiga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan ayrilsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo'lida saqlab qolgandi. Buxoro amirining siyosiy faoliyatini bevosita nazorat qilish uchun «**Rossiya imperatorining siyosiy agentligi**» (1885 – 1917) tashkil etilgan bo'lib, u 1868-yilgi shartnoma shartlari bajarilishini va amiming siyosiy faoliyatini nazorat qilib borgan.

**XIX asr oxirida** Buxoro amirligi hududi Rossiya imperiyasi tasarrufiga o'tgan hududlar hisobiga qisqargandi. Aholisining soni **2 million kishi** atrofida bo'lib, asosiy mashg'uloti hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik edi. Poytaxt **Buxorodan** tashqari **Chorjo'y, Kitob, Shahrisabz, Denov** kabi shaharlar amirlikning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan.

Davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor **qo'shbegi** bo'lib, u soliqlar yig'imi nazoratini boshqarar, ma'muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borardi. Qo'shbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida ma'lumot berib turardi. *Barcha amaldorlar qo'shbegi tomonidan, faqat oliy amaldorlarga amirning o'zi tomonidan tayinlanardi.*

Xazina va zakot yig'imini boshqargan **devonbegi** lavozimi ahamiyati va mavqeyi jihatidan qo'shbegidan keyin turardi. Sudlov, notarial ishlari, ta'lim muassasalarini **ruhoniylar** boshqargan, **bosh qozi** esa diniy-sudlov ishlariga rahbarlik qilardi.

Joylarda qonunlarning ijro etilishi, diniy amallarning bajarilishi, axloqiy mezonlar, bozordagi tarozilar va o'lchovlar ustidan nazorat ishlarini **rais** boshqarardi. Rais, o'z navbatida, **bosh qoziga** bo'ysunardi. Bosh raisning o'zi amir va bosh qozi oldida ma'lumot berish uchun shaxsan mas'ul bo'lgan. *Uchala oliy amaldor – qo'shbegi, devonbegi va bosh qozi har doim Buxoroda bo'lishi shart edi.* Amirlikdagi beklar va ularning mol-mulkini askarlar qo'riqlashgan.

Mahalliy ma'muriyat **aminlar, oqsoqollar** hamda **bekliklar vakillari** va **ruhoniylardan** iborat bo'lib, ular amir farmonlarini so'zsiz ijro etish-



lari shart bo'lgan. Butun Buxoro amirligi **bekliklarga** bo'lingandi. *Beklar shaxsan amir tomonidan tayinlanar va lavozimidan bo'shatilardi.* Beklar atrofida ularning qarindoshlari yoki yaqin kishilaridan tayinlangan ulkan amaldorlar guruhi jamlangan.

Davlatni himoya qilish uchun amirning xalq ko'ngillilari va qo'shinlardan saralab olingan **xos lashkari** bo'lgan. Lashkarga **to'pchiboshi** (to'pchilashkar) rahbarlik qilgan. Biroq, **XIX asr oxiriga** kelib amir lashkari shoshilinch tarzda yig'iladigan, yomon harbiy ta'lim ko'rgan va sodda qurollar bilan ta'minlangan dehqonlardan iborat bo'lgan. Bunday lashkarning bosh maqsadi zarur bo'lganda Ark qarshisida safga yig'ilish edi. Lashkar tartiboti amalda XIX asr boshlaridan beri isloh qilinmagan, harbiy ish sifatsiz va qo'shin qurol-yarog'lari o'ta qoloq darajada edi.

Mamlakat daromadlarining katta qismini shaxsiy manfaatlariga sarf qiluvchi amaldor va xizmatchilar davlat ravnaqi va taraqqiyoti uchun kamdan kam qayg'urardilar. Shu bois amirlikning zaruriy sarf-xarajatlari bir-biriga qon-qarindosh amaldorlar zimmasiga emas, balki oddiy xalq gardaniga tushardi.

*Soliq va majburiyatlari. Xalq qo'zg'olonlari.* Amirlikdagi dehqonlarning aksariyati nochorlikda kun kechirardi. Chunki yer va yerga ishlov berish vositalari amir va uning amaldorlari qo'lida edi. Davlat amaldorlari moddiy ta'minoti uchun zarur moliyaviy mablag'larni bekorga sarf qilardilar. **Amir Abdulahad** Peterburgga, imperator huzuriga katta sovg'a-salom bilan har yili qatnardi. Shuningdek, u **Qrim** va **Kavkazga** borganida qimmatbaho sovg'alarni va saroylarni xarid qilardi. Bu odat ulkan sarf-xarajatlarni talab qilardi va ushbu xarajatlar oddiy aholi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushardi.

Buxoro amirligida asosiy soliqlarni aholining **90 foizga** yaqinini tashkil etuvchi dehqonlar to'lardi. Bu soliqlarni to'lash uchun ular savdogarlar, sudxo'rlar va yirik zamindorlarga tegishli yerlarida arzimagan haq evaziga mehnat qilishga majbur edilar. Natijada og'ir jabr-zulm bilan murosa qilolmagan xalq oshkora noroziliklarga jazm qilardi. Garchi bu norozilik chiqishlarining aksariyati stixiyali, uyushmagan bo'lsa-da, ular amirlikning eski boshqaruv uslubi o'z ahamiyatini yo'qotib borayotganligini ko'rsatardi. Qolaversa, dehqonlarning aksariyati soliqlarning ko'pligidan kasodga uchrab, qishloqlardan shaharlarga kelib, yollanib ishlashga majbur bo'lganlar.

**Amir Muzaffar** hukmronligi davrida nohaqlik haddan tashqari oshib ketdi. Bu davrda soliqqa tortishning natura shakli (mahsulot ko'rinishi-da) o'rniga naqd pul ko'rinishidagi yig'imglar asosiy o'rinni egallagandi.

Amirlikda azaldan **xiroj** va **zakot** asosiy soliqlar bo'lsa-da, yerdan olinadigan xiroj solig'i miqdori ayrim viloyatlarda hosilning **40 – 50 foiziga** yetardi. Bu miqdor amirlikning yillik daromadlarining **yarmidan ko'pini** tashkil etardi. Bundan tashqari, xiroj bilan bir qatorda **kafsan, dorug'ayi muzd**, ya'ni xirmonlarni xatga olgani uchun amaldorga qo'shimcha maosh ham undirilardi. Bog'lar va polizlardan olingan daromadlar uchun alohida yig'im – **tanobona** to'langan.

Dehqonlar ma'muriyat vakillari ularning yerlarni egallab olishidan, mahalliy hokimiyat va sud hokimiyati xodimlarining poraxo'rligi hamda tovlamachiligidan aziyat chekishardi. Odatda, dehqonning soliq to'lashga puli bo'lmasa, uning mol-mulki tortib olinardi. Kasodga uchrash, qashshoqlashish, amaldorlarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishlari dehqonlarni qo'zg'olon ko'tarishga majbur qilardi. Natijada amirlikdagi eng yirik qo'zg'olonlardan biri **1885-yili Baljuvon bekligida** shijoatli va xalqparvar **Vose** ismli kishi rahnamoligida ko'tarildi. Ketma-ket ocharchilik yillaridan keyin baljuvontlik dehqonlar ilk bora 1885-yili mo'l hosil yig'ib olishgandi. Soliq yig'uvchilar esa nafaqat o'sha yil uchun, balki o'tgan kamhosil yillar uchun ham xiroj to'lashni talab qilishdi. Bunday soliq undirishni adolatsizlik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortadilar. Amaldorlar zo'ravonligi va ijtimoiy zulm qurolli qo'zg'olonga undagan minglab dehqonlar Vose atrofida uyushdilar.

**1885-yil iyul oyi oxirgi kunlarida** qo'zg'olon ko'targan dehqonlar va Amir Muzaffar lashkari o'rtasida jang bo'ladi. Tayyorgartik ko'rma-gan va mehnat qurollari bilan ko'chaga chiqqan dehqonlar mag'lubiyatga uchradi. Qo'zg'olon yo'lboshchilari, jumladan, Vose ham qo'lga olinib qatl etildi. **1888-yili Ko'lob bekligida** boshlangan yirik dehqonlar qo'zg'olonlari **Pomir chegara qo'shinlari** yordami bilan bostirildi. **1889-yil may oyida Kalif bekligida** ham qo'zg'olon bo'lib o'tdi.

**Hunarmandchilik.** Bu paytda hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan biri gilam va namat tayyorlash bo'lgan. Buxoro gilamlariga chet ellarda ham talab katta bo'lib, amirlik savdogarlari ularni ko'p miqdorda xorijga, jumladan, Rossiyaga olib borib sotardilar. Bundan tashqari, O'rta Sharq mamlakatlari, Turkiston bozorlarida ham Buxoro gilamlari xaridorgir edi. Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip gazlama matolari, ko'nchilik, zardo'zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo'yoq va sovun mahsulotlari ham mashhur bo'lgan. Buxoro ustalarining oltin va kumushdan yasagan buyumlari, ayniqsa, dong taratgandi.

Amirlikning deyarli barcha shaharlarida mohir zargarlar mehnat qiladigan ustaxonalar mavjud edi. Ular yasagan mahsulotning barchasi

o'ziga xos nozik naqshlar bilan bezatilardi. Buxoro kulolchilik buyumlari bozori ham chaqqon bo'lib, kulollar butun amirlik shaharlarida keng tarqalgandi.

Buxoro amirligida azaldan rivojlanib kelgan o'ziga xos ko'rinishdagi hunarmandchilik mavjud bo'lgan. Hunarmandlarning asosiy daromadlari behisob soliqlarni to'lashga ketardi. Shu bois ular o'z ustaxona va korxonalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun qo'shimcha mablag'larga ega emasdi.

Savdo-sotiq munosabatlari. XIX asr oxirida Buxoro amirligi **Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Kavkaz** bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan. **Buxoro, Chorjo'y, Karki, Termiz va Kogon (Yangi Buxoro)**da Rossiya firmalarining idora va omborxonalari mavjud edi. Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasida tovar aylanishi yil sayin o'sib bordi.

Buxoro amirligi hududi katta foyda keltiruvchi tranzit savdo uchun ham qulay edi. Rossiya va Afg'oniston o'rtasidagi barcha savdo yo'llari Buxoro amirligi orqali o'tardi. Rossiya Buxoro orqali Afg'onistonga katta miqdorda **movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerosin** chiqarardi.

**1887-yili** amirlik hududi orqali dastlabki temir yo'l o'tkazildi. Buxorodan **15 kilometr** masofada **Yangi Buxoro** stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham barpo etildi. Endilikda Buxoro amirligi temir yo'l orqali **Toshkent, Orenburg va Moskva** bilan bog'langandi. **1888-yilga** kelib Buxoro amirligi hududida rus qishloqlari vujudga kela boshladi. Buxoroda **Rossiya davlat banki bo'limi** ochildi. Bundan tashqari, **ikkita paxta tozalash zavodi**, Yevropa namunasida **ikkita mehmonxona** barpo etildi. *Eski Buxorodagi qo'shbegi uyi va Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo bo'lgan telefon aloqasi bilan bog'langandi.*

## 25.2. YOSH BUXOROLIKLAR FAOLIYATI VA BUXORO AMIRLIGINING TUGATILISHI

Yosh buxoroliklar. XX asr boshlarida Buxoro ijtimoiy hayotida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch paydo bo'ldi. *Birinchisi Buxoroning siyosiy hayotini demokratik asosda qayta qurish, uning iqtisodini rivojlantirish, ilg'or mamlakatlar qatoriga ko'tarilishi uchun astoydil kurashuvchilar yosh buxoroliklar nomini oldi. Ikkinchisi diniy mutaassiblar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan toifa vakillari edi.*

Yosh buxoroliklar siyosiy harakat sifatida **1910-yildan** faoliyat ko'rsatdilar. Ular Buxoro taraqqiyparvarlarining yetuk namoyandalari (**Abdulvohid Burhonov, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'ja, Abduqodir Muhitdinov, Musojon Sayidjonov** va boshqalar) bo'lib, Buxoroni mustabid amir hukmronligidan qutqarib, respublika tuzumini o'rnatishga harakat qildilar. Yosh buxoroliklar Buxoroda yangi usul maktablarini tashkil qildilar. Bu maktablar uchun turli darsliklar va o'quv qo'llanmalari yozildi. «**Buxoroyi sharif**» va «**Turon**» gazetaları nashr qilindi. Ushbu nashrlar xalqni jaholatdan uyg'otish va ma'rifatga da'vat etish bilan birgalikda milliy-ozodlik va mustaqillik g'oyalari ham ko'tarib chiqdi.

*Amir Olimxon islohotlari.* Amir Abdulahaddan so'ng Buxoro taxtini uning o'g'li **Sayid Olimxon (1910 – 1920)** egalladi. Sayid Olimxon uzoq yillar davomida Buxoro madrasasida islom ilohiyotshunosligini o'rgandi. So'ngra **1893-yili** otasi uni **Peterburgga** o'qishga jo'natdi, u yerda **3 yil** davomida harbiy ishlar va davlat boshqarish asoslarini o'rgandi. Amirlik taxtiga o'tirgan Sayid Olimxon Buxoroda davlat asoslari va diniy tizimni o'zgartirish taraddudida bo'lmadi. Ammo Rossiyadagi voqealar va amirlikning o'zidagi muxolifatchi harakatlar uni chora-tadbirlar ko'rishga va yosh buxoroliklar (jadidlar)ning mamlakatni demokrattashtirish va islohotlar o'tkazish to'g'risidagi talablariga yon berishga majbur qildi.

**1917-yil** Rossiyadagi **fevral** voqealari va u tufayli Buxoro siyosiy hayotidagi jonlanish, siyosiy o'zgarishlarning Buxoro amirligida ham takrorlanishidan saqlanish amirni ayrim islohotlarni amalga oshirishga undadi. **1917-yil martda bosh qozi** amir qabulxonasida mamlakatda islohotlar o'tkazish haqida va'da berdi. U amirning mavjud tuzum asoslariga daxl qilmaydigan va xalqning ahvolini ko'p ham o'nglamaydigan farmonini o'qib eshittirdi.

Farmonda odil sudlov, xiroj, zakot va boshqa soliqlarni undirishning barqaror asoslarini yaratish haqida so'z borarqi. Sanoat va savdoni rivojlantirishga ham e'tibor qaratilgandi. Amaldorlarga xizmat yuzasidan vazifalarni ijro etish chog'ida qo'shimcha ustama haq olish taqiqlandi. Buning o'miga davlat tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan maosh ta'sis etildi. «*So'ngra biz tomonimizdan, – deyiladi farmonda, – xususan, shariat amri bilan mamlakatda foydali bilimlarni rivojlantirish va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'riladi*».

Shuningdek, amir o'z xazinasidan tashqari alohida **davlat xazinasini** ta'sis etishga, davlat ehtiyojlaridagi kirimlar va chiqimlarni aniq hisoblab boruvchi **byudjet** belgilashga ham va'da bergandi. Farmonda

**bosmaxona ochish, mahbuslarni zindonlardan ozod qilish** haqida ham va'dalar berildi. Ana shu maqsadda poytaxtda istiqomat qiluvchi «tiniq fikrli va oqil» odamlardan «**assambleya**» (majlis) tuzuvchi «**millat**»ni saylash ham mo'ljallangandi.

Farmon katta va'dalar asosidagi jumalalar bilan tuzilgan bo'lsa-da, u jadidlarda shubha uyg'otdi. Yosh buxoroliklar rahnamolari (farmonni amalga oshirish maqsadida tuzilgan qo'mita **yosh buxoroliklar qo'mitasi** deb atalgan) o'zlarining islohotlar borasidagi fikr-mulohazalarda yakdillikka erisholmadilar. **Mahmudxo'ja Behbudiy, Mullaxon o'g'li, Mirzo G'ulom** vazmin, bosiq harakatlar bilan farmonni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, radikal harakat tarafdorlari **Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat** va **Usmon Xo'ja** kabilar yanada chuqur islohotlar o'tkazishni talab qilib, o'z tarafdorlarini zudlik bilan namoyish o'tkazishga da'vat etdilar.

**1917-yil 8-aprelda** jadidlar **Karki** va **Buxoroda** namoyishlar o'tkazishdi. Buxoroda namoyishga to'plangan **150 kishiga Fayzulla Xo'jayev** va **Abdurauf Fitrat** rahnamolik qilishgan. Shiorlarda «**Yashasin Amiri!**» qatorida «**Hurriyat, Adolat, Musavvati!**» kabi boshqa mazmundagi da'vatlar ham bor edi. Namoyishga chiqqanlar Arkkacha yetib kelishganida, amir sarbozlari ularni to'xtatishga buyruq oldi. **200 piyoda** va **300 otliq** sarbozdan iborat amir qo'shini namoyishga chiqqanlarni tarqatib, hibsga ola boshladi. Bundan tashqari, Ark ostonasini islohotlarga qarshi chiqqan **7 mingdan ziyod** ancha uyushgan mullalar guruhi egallab oldi. Mullalar Arkka yaqin kelishga botingan har qanday kishini o'ldirish bilan tahdid qildilar. Namoyishchilarga toshlar yog'dirilib, ularni do'pposlay va haqoratlay boshlashdi. **30 dan ziyod** namoyishchi hibsga olindi, ko'plariga tan jarohati yetkazildi. Qutulib qolgan namoyishchilar boshqa shaharlarga qochib jon saqlashdi.

Buxorodagi voqealar jadidlarni sergaklantirdi. Ma'rifati hukmdor tariqasida namoyon bo'lgan Sayid Olimxonning xalq orasida hurmati qolmadi.

**Buxoro amirligining qulashi.** Omon qolgan jadidlar **1917-yili** bolsheviklar tomonidan egallangan **Turkistonga** qochishdi. **1920-yil yanvarda Toshkentda** o'nashib olgan yosh buxoroliklarning so'li qismi **Fayzulla Xo'jayev** rahbarligida «**Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi**»ni tuzishdi. Ammo bu tashkilot nufuzli siyosiy kuchlarni o'zida mujassam etmagan. Bu tashkilot O'rta Osiyoni butunlay zabt etib, uni bolsheviklar qo'l ostida bo'lgan yangi davlat tarkibiga qo'shib olishga harakat qilgan mustamlakachilarning kurash vositasiga aylandi.

Fayzulla Xo'jayev rahbarlik qilgan yosh buxoroliklar va bolsheviklarning birgalikdagi harakatlari bilan Buxoroda davlat to'ntarishi tayyorlandi. Amir qo'shinini parokanda qilish bo'yicha ishlar olib borildi. Mahalliy aholi orasida kuchli tashviqot yuritila boshlandi. Shu maqsadda «**Tong**» **jurnali** va «**Uchqun**» **gazetasi** nashr etildi.

Yosh buxoroliklar amirni taxtdan ag'darishning siyosiy va tashviqiy asoslarini hozirlashga kirishdi. Ularning tashabbusi bilan **1920-yil 29-avgustda Chorjo'yda** qo'zg'olon uyushtirildi. Bu yerda **Muvaqqat inqilobiy qo'mita** tuzilib, u Rossiya hukumatidan yordam so'rab iltimosnoma bilan murojaat qildi. Sovet davlati esa yaxshi qurollangan qo'shin va mahalliy aholini dahshatga soluvchi harbiy aviatsiya bilan ta'minlangan yirik harbiy qismlarni Buxoroga tashladi. Amir va uning qo'shinlari deyarli hech qanday qarshilik ko'rsatilmadi. Bunday vaziyatdan chiqolmagan Amir Sayid Olimxon o'z oilasi va devonidagi amaldor-u a'yonlar bilan **Afg'oniston** tomonga qochib o'tdi.

**1920-yil 2-sentyabrda** bolsheviklar armiyasi qo'shinlari Buxoroga kirdi. **6-oktyabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi** va Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi birinchi hukumat – **Xalq Nozirlar Kengashi** tuzilganligi e'lon qilindi.

### **25.3. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING DAVLAT TUZUMI VA IJTIMOY-IQTISODIY AHVOLI**

*Xonlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumi.* Xiva xonligi ustidan podsho hukumati o'zining protektorat hududi sifatida qattiq nazorat o'rnatdi. Ichki va tashqi siyosatdagi arziyas o'zgarishlarni ham Xiva xoni Turkiston general-gubernatori bilan kelishib olishi lozim edi. Xon ustidan nazorat qilish maqsadida **7 kishidan iborat Kengash** (devon) ta'sis etilib, ularning **4 nafari** podsho hukumati vakillari edi.

Amudaryoning avval Xiva xonligi tasarrufida bo'lgan va Gandimiyon shartnomasiga ko'ra Rossiya imperiyasi ixtiyoriga o'tgan o'ng qirg'og'i hududida Turkiston general-gubernatorligining **Amudaryo bo'limi** tashkil qilindi. Uning boshlig'i ayni mahalda Rossiya imperiyasining Xiva xonligidagi vakili sifatida mamlakatni boshqarishda xonning barcha harakatlari ustidan nazoratni amalga oshirardi. Xonlik ming yillik tarixga ega va o'zbek xalqining madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynagan turkiy urug' – **qo'ng'irotlarga** mansub sulola vakillari tomonidan boshqarilayotgan monarxiya edi. Qo'ng'irot urug'i siyosiy va ijtimoiy hayotda hamda harbiy sohada xonning tayanchi edi.

**Xon** cheklanmagan ma'muriy-sudlov va harbiy hokimiyatga ega edi. U mamlakatni qo'ng'iroq urug'i zodagonlari, saroy a'yonlari va oliy ruhoniylar guruhi madadiga tayanib boshqarardi. Xon hokimiyati o'z xalqi manfaatlaridan ko'ra ko'proq tor doiradagi amaldorlar manfaatidan kelib chiqib ish olib borardi.

Xiva xonligida qo'shin xalq qarshilik harakatini bostirish va davlat yaxlitligini saqlash uchun kurash vositasi edi. Bu qo'shin yaxshi uyushmagan, harbiy tartib-intizom bo'sh, nihoyatda sodda qurollangandi. Xonning muntazam qo'shini **yasovulboshi** boshqaradigan **1,5 ming kishidan** iborat edi. Harbiy harakatlar davrida shahar, qishloq va ovulardan **xalq lashkari** hamda harbiy harakatlarda **turkman otliq sipo-hiyarlari** jamlanardi.

Xonlik ma'muriy jihatdan **20 ta bekklik** yoki **viloyatlarga** bo'lingandi. Ulardan eng yiriklari **Hazorasp, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'iroq** hisoblangan. Ularning har biriga xon tomonidan tayinlangan **bek** yoki **hokim** rahbarlik qilardi. Xonlikda **2 ta kichik viloyatlar** ham bo'lib, ularni **xon noiblari** boshqarardi. Xiva shahri va uning tevaragi bevosita xonning tasarrufida bo'lgan. Mavjud boshqaruv apparatidagi mansabdor shaxslar dehqon va hunarmandlardan yig'ildigan soliqlar hisobidan kun kechirardi.

**Mehtar** (bosh vazir) va **devonbegi** (devonxona mutasaddisi) xonning oliy amaldorlari va yaqin maslahatchisi bo'lishgan. Xonlikdagi sudlov tizimida hokimiyatga qarshi arzimagan qilmish uchun ham o'lim jazosi qo'llanilardi.

Islom dini ruhoniylari mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ta'sirga ega edi. **Xiva** Buxorodan keyingi islom dini markazlaridan biri sanalardi. *Shaharda 160 dan ortiq masjid va dindorlarning qadamjosiga aylangan 60 dan ziyod avliyoning dahmasi mavjud bo'lgan.* Mamlakatda **1,5 mingga yaqin maktablar** faoliyat yuritdi. Bu maktabni bitirgan talabalarning ayrimlari oliy (madrasa) o'quv yurtida o'qishni davom ettirib, **10 yilgacha** ta'lim olishardi. Bunda asosiy fanlar sifatida **arab grammatikasi, islom huquqi va falsafasi**, shuningdek, qo'shimcha ravishda **elementar arifmetika** va **geometriya** o'qitilardi. Madrasa talabalari imtihon sinovlari topshirganlaridan so'ng bo'shab qolgan **qozilik, imomlik** yoki boshqa nufuzli lavozimlarni egallashlari mumkin edi.

Yer egaligi. Yer davlat boyligining birlamchi omilidir. Bu boylik dehqonlar mehnati evaziga qo'lga kiritiladi. Dehqonlar mehnati yer unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada Xiva xonligi dehqonlari ham mirishkor edilar. Xonlikda **g'alla**

**yetishtirish** qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, asosan, sholi, jo'xori hamda suli ko'plab yetishtirilardi. **XIX asrning 90-yillaridan** boshlab Rossiya bilan savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida paxta yetishtirishga ixtisoslashuv ham jadal kechdi.

Xonlikdagi yerlarning asosiy qismi xon va uning amaldorlariga tegishli edi. Amaldor va a'yonlarga haq sifatida Xiva xonlari ularga davlat yerlari hisobidan ehsonlar qilishardi. Bundan tashqari, xon va uning amaldorlari, qarindoshlari soliqlardan ozod etilgandi.

Yer maydonlarining katta qismi diniy muassasalar tasarrufida bo'lib, xonlikdagi jami sug'oriladigan yerlarning **40 foizi** masjidlar mulki hisoblangan. Xususan, **64 ta masjid** va **madrasa** XIX asrning oxirgi choragida **205 ming tanobdan ziyod** yerga egalik qilgan. Bu xonlarning dindorlarga nisbatan hurmat va izzati ifodasi ham edi. Xususan, vaqf yerlari va XIX asrning oxirida qariyb **4 ming ruhoniylar oilasi** barcha soliqlardan ozod etilgandi.

Soliq va majburiyatlar. **1873-yildan** so'ng hosildor yerlarning katta qismi Rossiya tasarrufiga o'tishi oqibatida xonlik ma'muriyati sarf-xarajatlarga bo'lgan ehtiyojni yangi soliqlarni joriy etish yoki ilgari mavjud bo'lganlarini oshirish yo'li bilan qoplay boshladi. Xiva xonligida turli majburiyatlar, doimiy yoki favqulodda soliqlarning qariyb **25 turi** mavjud bo'lgan. Dehqonlar **solg'ut** – yer solig'i, **zakot**, **cho'ppuli** – o'tloqlardan foydalanganlik uchun soliq, turarjoylardan **o'tov solig'i** kabilarni to'lashgan.

Bunday soliqlardan tashqari dehqonlar turli-tuman majburiyatlarni ham bajarishgan. Majburiyatlar orasida sug'orish tizimini ta'minlash, yangilarini barpo etish eng og'iri edi. Xiva dehqonlari har yili kanallarni tozalashga, ko'tarmalarni qurish va qayta tiklashga, to'g'onlar va ko'priklarni ta'mirlashga chiqardi. Bu ishlarga dehqonlar o'z ish qurollari va oziq-ovqati bilan kelardi. Majburiy ishga chiqmaganlar esa muayyan miqdordagi mablag'ni xazinaga to'lashlari shart bo'lgan. Xon farmonlarini e'lon qiluvchi jarchi o'z foydasiga «**afanakpuli**» yig'gan bo'lsa, ishlar nazoratchisi va mutasaddisi ham o'z ulushini olishga harakat qilgan.

Dehqonlar aholining **90 foizga yaqinini** tashkil etsalar-da, sug'oriladigan yerlarning atigi **5 foiziga** egalik qilishardi. Yersiz va kam yerli dehqonlar esa yirik zamindorlarning va vaqf yerlarida ijarachi sifatida ishlab berishardi. Dehqonlar ulushbay yoki hosilning **teng yarmi** hisobiga mehnat qilishgan. Ishlar yakunlanganidan keyin, odatda, yer egasiga hosilning **40 – 50 foizi** berilgan. Teng yarmiga ishlovchilar esa **yarimchilar** deb atalgan. Yeri ham, asbob-uskunalari ham, ish hayvoni ham



bo'lmagan dehqonlar esa zamindorlar qo'lida turli shartlarga ko'nib ishlashga majbur edilar. Qarzdor dehqonlar o'z qarzlarini uzish uchun ma'lum vaqt davomida tekin ishlab berishlari lozim edi.

Shu zaylda xonlikda yersiz dehqonlar soni yildan yilga o'sib borardi. Ular xonlar, beklar va ularning amaldorlariga tobora qaram bo'lib bori-shardi. Bu jarayonlarning barchasi Xiva xonligining umumiy iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga o'z salbiy ta'sirini o'tkazdi.

#### 25.4. TOVAR-PUL MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI

*Sanoatning rivojlanishi.* XIX asr oxiri – XX asr boshlarida uy hunarmandchilik ishlab chiqarishi hanuz saqlanib kelayotgandi. Unda ip yigirish va to'quvchilik, oyoq kiyimlari, gilamlar, kigizlar va hokazolar tayyorlanardi. Har bir dehqon xo'jaligi yordamchi daromad manbayi bo'lgan uy hunarmandchiligi bilan shug'ullanardi. Deyarli har bir qishloqda ko'nchi, etikchi, bo'zchi, bo'yoqchi, juvozchi va boshqalar faoliyat ko'rsatgan. Hunarmandlar o'z hamqishloqlaridan buyurtmalar olib ishlashar va tayyorlangan buyumlari uchun natura tarzida, mahsulot yoki pul bilan haq olishardi. Ulardan ba'zilari bevosita mahalliy bozorlardagi ustaxonalarda mehnat qilishardi.

O'rta Osiyoning **Rossiya, qozoq juzlari, Kavkaz, Eron** bilan savdo munosabatlari rivojlanishi ichki savdo-sotiqni jonlantirdi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi tovar-pul munosabatlarining shitob bilan o'sishiga imkoniyat yaratdi. Shaharlarning qishloqlarga nisbatan jadal rivojlanishi yangi shaharlarni vujudga keltirdi va eskilarining rivojlanish jarayonini tezlashtirdi. Bu mamlakat iqtisodiy hayotida shaharlarning ahamiyati ortishiga olib keldi. **XX asr boshlariga kelib Xiva, Yangi Urganch, Qo'ng'iro't, Toshhovuz, Gurlan, Buxoro, Termiz, Chorjo'y, Kogon** singari shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazlarga aylandi. **Bog'ot, Mo'ynoq, Taxta** singari yangi shaharlar vujudga keldi.

Ushbu shaharlarda mahalliy va Rossiya qo'shma korxonalarining idoralari, omborlari, sanoat korxonalari joylashgandi. Masalan, *Yangi Urganch shahrida o'n bitta paxta tozalash zavodi (ulardan oltitasi mahalliy tadbirkorlarga tegishli edi), ikkita yog' zavodi, sovun va ko'n zavodi, bitta tegirmon bo'lgan.* Bundan tashqari, Yangi Urganchda Rossiya-Osiyo va Sibir savdo bankining bo'limlari, pochta-telegraf idorasi, komission va sug'urta jamiyatlarining vakolatxonalari ochilgandi. **Gurlanda** ham rossiyaliklarga, ham mahalliy sarmoyadorlarga tegishli kapital jamlangandi. Bu shaharda, asosan, paxtani tashib ketish bilan

shug'ullangan Rossiya savdogarlarining **10 ta** idorasi va mahalliy tadbirkorlar aka-uka **Rizayevlar, P.A.Manuilov, S.Maksum, S.Tojiniyozov, T.Solijonov** va boshqalarning jami **9 ta** paxta tozalash zavodlari joylashgandi. **1909-yilga** kelib Xiva xonligida **81 ta** sanoat korxonasi ishlayotgandi. Sanoat shakllanishi **1910 – 1915-yillarda** yanada jadalashib, kerosin va neft bilan ishlaydigan **40 ta** sanoat korxonasi barpo etildi. **1917-yili** Buxoro amirligida **92 ta** sanoat korxonasi bo'lgan.

Rossiya bilan savdo aloqalari. Turkiston o'lkasining mustamlakaga aylanishi jarayonida Rossiya imperiyasi va mahalliy kapital hamkorligi vujudga keldi. Mahalliy tadbirkorlar faoliyati, milliy kapital namoyandalarining sarmoyalari daromadi Rossiya bozori mahsulotlariga bevosita bog'langandi. Ular ikki davlat o'rtasida bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun qo'shma bank uyushmalari tuzishga harakat qilishdi. **1909-yili** Rossiya-Osiyo banki va Madiyorov-Baqqolov kapitalini birlashtirgan «**A-Meta**» sindikati tashkil qilindi. *Sindikatar har yili Rossiyaga qariyb 3 ming tonna paxta xomashyosini eksport qiladi va beda urug'i sotib olish bo'yicha yakka-hukmronlikni o'rnatgandi.* Rossiya kapitali o'z protektorati bo'lgan Xiva xonligida o'zi uchun zaruriy xomashyo bazasini yaratdi. Bu yerdagi ishchi kuchining arzonligi va 1873-yildagi Gandimiyon shartnomasi bandlariga ko'ra mahalliy bozorda monopol mavqeyi hisobidan ulkan daromad olish faollashdi.

Rossiya kapitali amaliyotlari tufayli O'rta Osiyoda ichki bozor imkoniyatlari ancha kengaydi. Tovar-pul munosabatlari rivojlanib, uning asosida yangi savdo-sanoat markazlari shakllandi. Mayda savdogarlar choy, manufaktura mahsulotlari, shakar, samovar kabi taqchil tovarlarni hatto eng olis qishloqlarga ham olib borib sotardilar. Sanoatning bir yoqlama va sust rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida yetakchi hunarmand-kasanachilik ishlab chiqarishining salmog'i nisbatining saqlanib qolishiga olib keldi. Mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari mamlakat hududidan tashqarida yuqori baholangan. Chunki bu mahsulotlar qadimiy boy hunarmandchilik ishlab chiqarishi an'analari asosida tayyorlanardi.

Hunarmandchilik va ichki savdo. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayrim tumanlar hunarmandchilik ishlab chiqarishining u yoki bu sohasiga **ixtisoslashuvi** jarayoni kuzatildi. *Metallni qayta ishlovchi asosiy ustaxonalar Buxoro, Xiva, Yangi Urganch, Chimboy, Hazorasp shaharlarida joylashgandi. Bu yerda ketmonlar, omoch tishi, belkuraklar, boltalar, taqalar, idish-tovoqlar va hokazolar yasalardi. Ko'nchilik ishlab chiqarishi esa Buxoro, Xiva, Xonqa, Yangi Urganch, Xo'jayli va bosh-*

qa markazlarda rivojlangandi. Qoplar va arqonlar, asosan, Yangi Urganchda tayyorlangan. Gilam va kigizlar Porsu, Alieli, Ko'hna Urganch, G'azovot kabi hunarmandchilik maskanlarida ishlab chiqarilardi. Ayni mahalda, O'rta Osiyoning deyarli barcha shaharlarida to'qimachilik, sopol idishlar va zargarlik buyumlari yasash rivojlangandi.

**1885-yili Kaspiyorti temir yo'lining** qurilishi va **1887-yil oxirlari**da **Amudaryo flotilyasining** ta'sis etilishi Rossiyaga qaramlikni yanada kuchaytirdi. Avval savdo-sotiq, asosan, quruqlikdagi karvon yo'llari orqali olib borilgan bo'lsa, endilikda yuklarning katta qismi temir yo'l orqali va paroxodlar bilan Amudaryoning yuqori oqimi bo'ylab tashladigan bo'ldi. Bu kabi yangiliklar Rossiya imperiyasi foydasiga xizmat qilib, unga mustamlaka bo'lgan davlatning qoloqligiga, qolaversa, hunarmandchilik ishlab chiqarishi bir qator tarmoqlarining inqiroziga olib kelardi.

Iqtisodiyot sohasidagi davlat siyosati ham hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojiga salbiy ta'sir yetkazdi. Xonlik va mahalliy hokimiyat hunarmandlarni har xil soliqlarga ko'mib tashladi. Hunarmandchilik ustaxonalari egalari amaldorlarga sovg'alar taqdim etishi, daromadlariga mos kelmaydigan soliqlarni to'lashi lozim edi. Natijada hunarmandlar o'z ishlab chiqarishini ko'paytirishga va yangi texnologiyalarni joriy qilishga qodir bo'lmay qolardi.

Kasanachilikda **sex birlashmalari** o'rta asrlardagi ko'rinishda saqlanib qoldi. Sex birlashmalariga hunarmandlar kasblariga ko'ra uyushgandilar. Unga **usta, xalfa** va **shogird** kirardi. Kredit berib turgan **boy** sexga rahbarlik qilardi. Hunarmandlar ishlab topgan pullarining anchagina qismini avliyolar va ma'naviy ustozlar sharafiga xayr-ehsonga berishar, xazinaga ko'pdan ko'p soliqlar to'lashardi. Xalfa va shogirdlar ahvoli og'ir bo'lib, ularning ish kuni cheklanmagandi. Xalfa olgan **bo'nagi** (avans) evaziga ishlab berishga majbur edi. Olgan avansning hammasini to'lamaguncha ustaxonadan ketolmasdi.

Rossiya imperiyasidan arzon narxlardagi sanoat tovarlari kirib kelishining ko'payishi mahalliy korxonalarining buyumlariga talabni pasaytirdi. Mahalliy matolar, iplar, kulolchilik, cho'yan va misdan yasalgan buyumlar ba'zi turlarining ishlab chiqarilishi keskin kamayishiga olib keldi.

## 25.5. XIVA XONLIGINING TUGATILISHI

Xalq harakatlarning yetilib borishi. Turli xildagi jabr-zulmlar natijasida dehqonlarning kuchayib borayotgan noroziligi soliqlarni to'lashdan, majburiyatlarni bajarishdan ommaviy bosh tortishga, yirik zamindorlar yerlarini egallab olishga, soliq yig'uvchilarga va xonlik ma'muriyatining boshqa namoyandalariga hujum qilish holatlarini ko'paytirdi. Dehqonlarning chiqishlari yer egalari amaldorlarining uylarini vayron qilish, qarz tilxatlarini yirtib tashlash va soliq yig'uvchilarni quvib yuborish bilan birga kechgan stixiyali isyonlar tarzida yuz berardi. Vaqt o'tgan sayin, xon hokimiyati va mahalliy ma'murlar suiiste'mollari zo'rayishi barobarida, dehqonlar chiqishlarining uyushganligi va ommaviyligi ham o'sib bordi. **XIX asrning 80-yillarida Pitnak, Hazorasp, Yangi Urganch, Ko'hna Urganch** tumanlarida dehqon uyushmalari vujudga kelib, kurash keskin tus ola boshladi. Xon ixtiyorida ularga qarshi kurash uchun kuchlar yetarli emasdi. Shu bois u Rossiya podshosi qo'shinlarini yordamga chaqirdi. Isyonlar bostirilib, dehqonlar harakati rahbarlari qatl etildi.

Shunday bo'lsa-da, dehqonlarning g'alayonlari to'xtamadi. **1902-yili Matyoqub pishiq** rahnamoligida **Xonqa, Hazorasp, Bog'ot tumanlari** dehqonlari qo'zg'olon ko'tarishdi. Xon yana Rossiya podshosi hukumati qo'shinlariga murojaat qildi. Qattiq jazo choralari ko'rilib, qo'zg'olon tormor etildi. Uning rahbarlari qatl qilindi.

Mustamlakachi hokimiyat va mahalliy amaldorlarning jabr-zulmi, turmush sharoitlarining yomonligi ko'plab xalq g'alayonlarini keltirib chiqardi. Xalq noroziligi ommaviy tus oldi va chuqur tomir otdi. **XX asr boshlarida** arzimas sabablar bilan qo'zg'olonlar yuz berib turardi. Ba'zi tumanlarda sabr kosasi to'lgan dehqonlar o'z oilalari bilan xonlikdan ommaviy tarzda yoppasiga qocha boshladilar. **1906-yili Yangi Urganch, Xonqa, Hazorasp**da muhtoj dehqonlar yirik zamindorlar yerlarini egallab ola boshlashdi.

Xiva xonligida **1910 – 1911-yillar** qurg'oqchilik va hosilsizlik yili bo'ldi. Xonlik aholisi ocharchilik girdobida qolgandi. Yetkazilgan zararlarni qoplash uchun xon ma'murlari aholidan imkoni bo'lgan hamma narsani tortib ola boshlashdi. Soliqlar esa oshib bordi. Aholining ommaviy qashshoqlashuvi dehqonlarda norozilik tug'dirdi. **1910 – 1917-yillarda** dehqonlar g'alayonlari keng tus oldi: insofsiz katta yer egalari va boylarni kaltaklash, ularning imoratlari, xo'jalik inshootlari, omborlarini buzib tashlash kabilar avjga chiqdi. **1912-yildagi Hazorasp, Xonqa-**

dagi qo'zg'olonlar keskin tus oldi. *Doimiy qo'zg'olonlar natijasida xalq o'qotar aslahalar bilan qurollanib, urush olib borish taktikasini o'rganib olgan edi.* Dehqonlar yirik zamindorlar va xonlik amaldorlarining yerlarini egallab ola boshladilar. Asfandiyorxon o'zining **1000 kishilik** eng sara qo'shinini qo'zg'olonchilarni bostirishga tashladi. Ammo kutilmaganida **Alieli** va **Toshhovuz** o'rtasida ular qo'zg'olonchilar tomonidan tor-mor etildi. Xonga madadga yetib kelgan podsho hukumati qo'shinlari qo'zg'olonni qiyinchilik bilan bostirdi.

*Islahotlar uchun kurash.* Xalq qo'zg'olonlari xonlikda ijtimoiy-siyosiy harakatlar rivojlanishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Mamlakatdagi yalpi noroziliklar ta'siri ostida jadidchilikning Xiva xonligidagi ko'rinishi, **yosh xivaliklar** harakati vujudga keldi. *Uning yosh buxoroliklardan farqli jihati* harakatda aholining turli qatlamlari – dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar va mayda mulkdorlarning ishtirok etishi edi.

Yosh xivaliklar harakati rahbarlari **Polvonniyoz hoji Yusupov, Bo-booxun Salimov, Bekjon Rahmonov, Nazir Shofikorov, Jumaniyoz Sultonmurodov** kabi taraqqiyparvarlar bo'lib, ular Xorazmda katta nufuzga ega bo'lishgan. Yosh xivaliklar o'z davrining bilimdon va fozil kishilari bo'lib, Xiva xonligida ma'rifat tarqatish va islohotlar o'tkazish uchun jiddiy harakat qildilar. **1910-yili** xon «**Islahotlar loyihasi**»ni qabul qildi. Loyiha boshqaruv tizimini tartibga solishni nazarda tutardi. Xon devoni saqlab qolinib, faqat amaldorlar davlat ta'minotiga o'tkazilishi mo'ljallangandi. Loyihada, shuningdek, yangicha milliy maktablarni tashkil qilish g'oyasi ham ilgari surilgandi. Takliflar umumiy jihatlari bilan cheklanganligiga qaramasdan, ular chuqur islohotlar orqali Xiva davlatchiligi mustaqilligini tiklashga qaratilgandi. Yangicha milliy maktablar ta'lim va madaniyat saviyasini ko'tarish hamda xivalik ziyolilarning yangi avlodini shakllantirish uchun kerak edi. Bu ularda xon hokimiyatining mustabidligiga nisbatan murosasizlik hissini tarbiyalashga xizmat qilardi.

*Xiva xonligining tugatilishi.* **Muhammad Rahimxon II** vafot etgach, podsho hukumati yordamida taxtni uning o'g'li **Asfandiyorxon (1910 – 1918)** egallaydi. Petro-Aleksandrovska turgan Rossiya harbiy kuchlari madadiga ishonib yangi xon islohotlar o'tkazdi, ishni zulmni kuchaytirish va muxolifatni to'liq mahv etishdan boshladi. **1913-yili** u islohotchilar rahnamolaridan biri, mamlakat **bosh vaziri Islomxo'jani** davlat mablag'larini o'zlashtirishda ayblab o'ldirtiradi. Xon buyrug'iga ko'ra yerlarni yangidan o'lchash boshlandi. Aslida, bu tadbir yangi soliqlarni joriy qilishdan iborat edi. Dehqonlar esa bunga **Mang'it** va **Xo'jaylida**

qo'zg'olonlar ko'tarish bilan javob berishdi. Xonning tayanchi bo'lgan podsho hukumati uni uzoq qo'llay olmadi. Rossiyadagi **1917-yilgi fevral** voqealaridan keyin Asfandiyorxon asosiy tayanchi podsho hukumatidan mahrum bo'lib, bir necha muddat yakkalanib qoldi. Yosh xivaliklar qulay vaziyatdan foydalanib qolishga qaror qilishdi va islohotlar uchun ochiqdan ochiq harakatni boshlab yubordilar. **1917-yil 5-aprelda** ular Asfandiyorxondan islohotlar o'tkazish to'g'risidagi manifestni imzolashni talab qilishdi. Islohotlar xon hokimiyati saqlangan, ammo **Majlis** (Deputatlar palatasi) va **Nozirlar kengashi** (Vazirlar kengashi) bilan cheklangan **konstitutsiyaviy monarxiyani** tashkil etishni o'z ichiga olgandi. Yosh xivaliklar, shuningdek, *davlat mablag'ari sarflanishi ustidan nazorat qilish uchun moliya vazirligi, suv taqsimotini isloh qilish, xonlikning butun hududida yangi usul maktablarini tashkil qilish uchun qo'mita tuzishni, temir yo'llar va pochta-telegraf tizimi qurilishini* ham talab qilishgandi. Podsho hukumati qo'shinlari madadidan mahrum bo'lgan Asfandiyorxon har qanday yo'l bilan hokimiyatni saqlab qolish va vaqtdan yutish maqsadida islohotlarni amalga oshirish to'g'risidagi manifestga imzo chekdi.

**1917-yil 26-apreldagi** Majlisning birinchi sessiyasida **30 nafar** xivalik deputat va turkmanlardan **7 nafar** vakil ishtirok etdi. Majlis Vazirlar kengashini sayladi. Ammo **ikki oy** o'tmasdan xon boshchiligidagi konservativ kuchlar harbiy to'ntarishni amalga oshirishdi va Majlis tarqatib yuborildi. Yosh xivaliklar rahnamolari hibsga olinib, ulardan bir qismi otib tashlandi.

Lekin bu voqealarga yangi bir kuch – turkman urug'laridan birining sardori Junayidxon aralashdi. **1918-yil yanvarda 1,5 ming kishilik** o'tliq otryad bilan u **Xivani**, keyin esa xonlikning boshqa tumanlarini egallab oldi. Asfandiyorxonni nomigagina taxtda qoldirgan Junayidxon xonlikda o'zining yakkahokimligini o'rnatdi. Keyinchalik uning buyrug'iga ko'ra Asfandiyorxon o'ldirilib, o'rniga **Said Abdulla** taxtga o'tqazildi.

Rossiya hukumati Xivada «inqilob» tayyorlay boshladi. Bolsheviklar tomonidan egallab olingan Petro-Aleksandrovskda Kommunistik partiya tuzilib, to'ntarishga tayyorgarlik ko'rilgan. To'ntarish **1920-yil 2-fevralda** ro'y berdi va tarixda u «**xalq inqilobi**» nomini oldi. **27-aprelda** Sovetlarning birinchi Butunxiva qurultoyi roppa-rosa **410 yil** mavjud bo'lgan Xiva xonligi o'rnida **Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)** tashkil topganini e'lon qildi.

## 26-BOB. MUSTAMLAKA SHAROITIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT

### 26.1. TA'LIM TIZIMI. MATBUOT

An'anaviy ta'lim muassasalari. XIX asrning 2-yarmi – XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasida uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib rivojlangan ta'lim tizimi davom etdi. XIX asr o'rtalaridan boshlangan istilochilik yurishlari natijasida mustamlakaga aylangan Turkistonda mahalliy aholining an'anaviy ta'lim tizimida o'zgarishlar yuz bera boshladi. O'lkaning boshqa sohalari singari ta'lim tizimida ham mustamlakachi hukumatning manfaatlarini aks ettiruvchi siyosat yurgizildi. Buni, eng avvalo, mahalliy aholini ruslashtirish maqsadida tashkil qilingan **rus-tuzem maktablarining** ochilishi va ularning soni jadal sur'atlarda ko'paytirib borilganida ko'rishimiz mumkin.

Mustamlaka davrigacha Turkistonda an'anaviy ta'lim tizimi islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan bo'lib, maktab va madrasalarda diniy ta'lim bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Boshlang'ich ta'lim maktablarda 5 – 6 yil davomida o'qitilib, arab alifbosi, harflarning o'qilishi, talaffuzi o'rgatilgan. Keyingi bosqichda Qur'on suralari va oyatlaridan iborat bo'lgan «**Haftiyak**» (ya'ni Qur'oni Karimning yettidan biri) kitobi o'qitilgan. So'ng musulmonchilik an'analari aks etgan «**Chor kitob**» (to'rt kitob), undan keyin **So'fi Olloyorning «Risolayi aziza», «Sabot ul-ojizin»** kitoblari o'qitilgan. Bu kitoblar, asosan, o'quvchilar tomonidan yod olingan. So'fi Olloyor asari she'riy tarzda yozilgan bo'lib, unda avliyolar, payg'ambarlar hayoti haqidagi ma'lumotlar aks etgan. O'quvchilar nafaqat o'zbek tilidagi, balki fors shoiri **Hofizning «Xo'ja Hofiz»** devonini ham o'rganishgan.

Madrasalarda oliy ta'lim berilib, unda diniy-huquqiy bilimga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlangan. Madrasalar bitiruvchilaridan islom qoidalari, shariat ahkomi, Qur'oni Karim oyatlari va suralarning sharhlarini to'liq o'zlashtirish talab qilingan. Qorixonalarda Qur'oni Karim yod olingan. Ayollar alohida o'qitilib, ularga Qur'oni Karim, oila masalalari, odob-axloq va tarbiyadan saboq beruvchi otinlar ta'lim berganlar. Mustamlaka davrida eski maktablar saqlanib qolgan, ammo bu maktablar hukumat e'tiboridan chetda qolib, ularga hech qanday mablag' ajratilmagan.

Rus-tuzem maktablari. Rossiya imperiyasining turli guberniyalaridan Turkistonga ko'chirib keltirilganlarning bolalariga ta'lim berish orqali ma'muriyat vakillari bilan mahalliy aholi o'rtasida vositachilik qiladigan

tarjimonlarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, bu maktablar orqali tub joy aholisi o'rtasida rus madaniyatini keng yoyishga xizmat qiladigan ta'lim tizimini yaratishga harakat qilindi. Bu vazifani bajarishga Turkiston general-gubernatori **G.Rozenbax (1884 – 1889)** astoydil kirishdi. *U boshlang'ich maktablar, rus-tuzem maktablari tarmog'ini yaratish loyihagini ishlab chiqdi.* Birinchi rus-tuzem maktabi **1884-yili Toshkentda Saidg'ani Saidazimboy** uyida ochiladi. Undan o'rnak olib boshqa davlatmand kishilar ham o'z uylarida shunday maktablarni ocha boshladilar. Dastlab bu maktablarga mahalliy savdogar va ishbi-larmonlar o'z farzandlarini o'qishga berishgan.

**1911-yilga** kelib bunday maktablarning soni **89** taga yetadi. Ammo bu maktablardagi o'qitish usullari va darajasi Rossiyaning o'zidagi maktablar bilan taqqoslanganda ancha sayoz bo'lgan. Rus-tuzem maktablarida o'quv kuni **ikki qismdan** iborat bo'lib, dastlabki mashg'ulotlarni **rus o'qituvchisi** (*o'quv, yozuv, hisob*), ikkinchi qismidagi mashg'ulotlarni **mahalliy o'qituvchi** olib borardi. **1896-yili Toshkentda** birinchi **gim-naziya** ochilib, unda zamonaviy fanlar, boshqa tillar va kundalik tur-mushda zarur bo'ladigan bilimlar o'qitilgan.

*Yangi usul maktablari.* Bu davrda o'lkadagi mahalliy ziyolilar, jadidchilik harakatining namoyandalari tomonidan milliy madaniyat, diniy e'tiqod, mahalliy an'analar va odatlar asosidagi yangi maktablar ochilgandi. Bunday yangi usuldagi jadid maktablarida **tarix, matematika, geografiya, ona tili** kabi fanlar ham o'qitilgan. Yangi usul maktablarining diniy maktab va madrasalardan yana bir farqi shunda bo'lganki, unda nafaqat islom dini va tarixi, balki mahalliy turkiy xalqlar tarixi, Turon tarixi bo'yicha ham ta'lim berilgan. Turkistonda dastlab jadid maktablari **Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Xiva** kabi shaharlarda ochilgandi.

Yangi usul maktablari jadidchilik harakati, uning namoyandalari faoliyatlari bilan birga mahalliy aholining umummilliy g'oyalari, o'zbek xalqining milliy ma'naviy birligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Jadid maktablarining ta'lim tizimida o'quvchilarga vatanga muhabbat, milliy davlatchilik, milliy madaniyat, xalq birligi oldida mas'uliyatini his qilish, yurt ravnaqi uchun mehnat qilishga va kurashishga chorlovchi g'oyalar singdirildi.

Jadidlarning yangi usul maktablaridan zamonasining yetuk olimlari, adabiyotshunoslari, rassomlari, shoirlari, san'atkorlari, maorif sohasi mutaxassislari yetishib chiqdi. Jumladan, shoir akademik **G'afur G'ulom**, shoir va dramaturg **Uyg'un, Oybek** kabi davlat va madaniyat arboblarni ko'rsatish mumkin.



Mustamlakachi hukumatning yangi usul maktablariga qarshi kurashi. Jadidlarning yangi usul maktablaridagi milliy g'oyalarga asoslangan ta'lim berishi o'lkada hukmron bo'lgan mustamlakachi hukumat tomonidan kuzatuv va nazoratda bo'lgan. Ma'muriyat jadidlarning ta'lim tizimida olib borayotgan faoliyati o'lkada mustamlakachilik siyosatiga jiddiy qarshilik ko'rsata oladigan harakatlantiruvchi kuch ekanligini ang-ladi va ularning faoliyatiga ochiqdan ochiq qarshilik ko'rsata boshladi.

Jadidlar faoliyati qattiq ta'qibga olindi. Har qanday yo'l bilan bo'lsa ham yangi usul maktablari faoliyatiga zarba berishga harakat qilindi. O'lkada ma'muriyat tomonidan chiqariladigan matbuot sahifalarida yangi usul maktablari tanqid qilinib, ularning faoliyatiga noto'g'ri baho berilgan maqolalar e'lon qilindi. Dastlab jadid maktablarida turk va fors adabiyotlaridan foydalanish taqiqlab qo'yildi. O'quv adabiyotlari nashr-lariga senzura joriy qilindi. Mustamlakachi hukumatning jadidlarga qar-shi kurashiga mahalliy mutaassib dindor-ruhoniylar ko'maklashdilar. Ayniqsa, yangi usul maktablariga ma'muriyat vakillari va ayrim din pesh-volari qarshi turgan.

Yangi usul maktablariga qarshi podsho hukumatining tazyiqi nati-jasida **1911-yili 50 ga yaqin** jadid maktablari yopib qo'yildi. Jadid mak-tablarini ochish tashabbuskorlari qattiq nazorat ostiga olindi. **1913-yilga** kelib Buxoro amirligida barcha jadid maktablari yopildi.

Matbuot va jurnalistika. **1870-yildan** boshlab Turkiston general-guber-natorligining rasmiy nashri «**Turkestanskiye vedomosti**» va uning o'zbek tilidagi ilovasi «**Turkiston viloyatining gazetisi**» muntazam chiqib turdi. Uning muharriri mustamlakachilik tuzumining targ'ibotchisi **N.Ostrou-mov** edi.

**1906-yili Ismoil Obidov** muharrirligida ilk bor o'zbek milliy gaze-tasi – «**Taraqqiy**» nashr etildi. Gazetaning birinchi soni chiqqan sana, ya'ni **27-iyun** hozirda *O'zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot vosi-talari xodimlari kuni* sifatida nishonlanadi.

Jadidchilik harakati namoyandalari ta'lim tizimi bilan birga mat-buotchilik sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdilar. Podsho huku-matining mahalliy ta'lim va matbuotga qarshi kurashi natijasida **1905–1907-yillarda** Ismoil Obidov muharrirligida chiqarilgan «**Taraqqiy**», «**Shuhrat**», «**Xurshid**» gazetalarini yopib qo'yildi. Shunga qaramasdan, **1913-yili «Oyna**», **1915-yili «Al-izoh**» jurnali nashr etildi.

Bu davrdagi nashrlar orasida «**Sadoyi Turkiston**», «**Sadoyi Farg'ona**» gazetalarining milliy o'zlikni anglashdagi xizmatlari katta bo'ldi. Uning **ikki yillik (1914 – 1915)** faoliyati davomida milliy ziyo-

lilarning vatanparvar qatlamlari tomonidan millat ozodligi va ravnaqini tarannum etuvchi, xurofot kabi eski aqidaparastlikni qoralovchi ko'plab maqolalar e'lon qilindi.

## 26.2. TURKISTONDA ILM-FAN TARAQQIYOTI

Tarix fanidagi yutuqlar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilm-fan sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlarga erishishda jadidlarning o'rni katta bo'ldi. Ular tarbiyaviy maqsadlarda tarix sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantira boshladilar. *Jadidlar tarixni xonlar, sultonlar va amirlar almashinuvi sifatida tasvirlash o'rniga xalq tarixning haqiqiy bunyodkori ekanligini o'quvchilarga tanishtira boshlashdi.*

Tarixchi va jurnalist **Mulla Olim Maxdum Hoji** Turkiston tarixining to'liq sharhi – «**Tarixi Turkiston**» (Turkiston tarixi) asarini yozdi. Bu asar o'zbek tilida bosmadan chiqdi. Unda qadimgi davrdan to Turkistonning XX asr boshlarigacha bo'lgan voqealar yilnomasi bayon etilgandi. Bu kitob o'zbek tilidagi ilk tarixiy asar sifatida shuhrat qozondi.

Jadidlar Turkistonda savodxon va bilimdon kishilarni tarbiyalashda tarix fanining ahamiyatini yuqori baholardilar. **Mahmudxo'ja Behbudiy** Turkistonning barcha aholisiga «*hozirgi dunyoda yashash, ziyoli, komil va odil*» bo'lish uchun o'z vatani tarixini o'rganish da'vati bilan murojaat qildi. Bu davrning yana bir yirik tarixchi olimi **Muhammad Solih** edi. U **25 yillik** izlanishlaridan keyin «**Tarixi jadidayi Toshkent**» (Toshkentning yangi tarixi) asarini yozgan. Asar Toshkent shahrining XIX asrdagi qiyofasi batafsil yoritilganligi bilan qimmatlidir.

Xorazmlik mashhur olim **Muhammad Yusuf Bayoniy** ham avlodlarga ikki yirik tarixiy asarini meros qoldirgan. Bular «**Xorazm tarixi**» va «**Shajarayi Xorazmshohiy**» asarlaridir.

Rus tadqiqotchilari ham o'lkadagi tarix fani rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Ulardan biri sharqshunos va arxeolog **V.Vyatkin (1869–1932)** bo'lib, u **Samarqandda** faoliyat yuritdi. V.Vyatkin mahalliy tarixchilar bilan birgalikda ancha vaqt **Ulug'bek rasadxonasi** o'rnini izladi. **1908-yili** rasadxona binosi qoldiqlarini va rasadxonaga tegishli asbob-uskunalarning bir qismini topishga muvaffaq bo'ldi. U «**Shohizinda**», «**Cho'ponota**», «**Afrosiyob qo'rg'oni**» asarlarini yozdi. Rus va o'zbek tillarini o'rganish bo'yicha qator darsliklar muallifi bo'ldi.

**1895-yili** tashkil etilgan **Arxeologiya havaskorlari to'garagining** qatnashchilari o'lkadagi tarixiy yodgorliklarni o'rganishga kirishdi. Garchi qidiruv va qazish ishlari kamdan kam o'tkazilgan bo'lsa-da,

ular ayrim arxeologik obyektlarni izlab topish va yodgoriklarni tavsiflash bilan shug'ullanib sohaga muayyan hissa qo'shdilar.

Tabiiy fanlarning rivojlanishi. O'rta Osiyoni umrbod imperiyaning bir qismiga aylandi deb hisoblagan mustamlakachi hukumat o'lkani faol o'zlashtirish maqsadida ilm-fanni rivojlantirishga ham harakat qildi. Eng avvalo, **1867-yili mintaqaning bosh xaritasi** tuzib chiqildi. Hududni xaritalashtirish va iqlimini o'rganish uchun Toshkentda **meteorologiya stansiyasi** tashkil etildi. Mutaxassislar yetishmasligi sababli uzoq vaqt davomida keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish deyarli amalga oshirilmadi. Faqat **XIX asrning 90-yillarida** va **XX asr boshlarida** O'rta Osiyoning tabiiy boyliklarini o'zlashtirish bilan bog'liq tadqiqot ishlari avj oldi. Mashhur rus zoologi va sayyohi **N.A. Seversev Pomir tog'** tizimini o'rganib chiqdi. U sayohati davomida botanika, minerallarga oid namunalarni to'pladi. **P.P. Semyonov-Tyanshanskiy Tyanshan tog'** tizimini o'rganib, muzlik, vulqonlar haqida qiziqarli ma'lumotlar to'pladi. **A.P. Fedchenko Farg'ona vodiysi** va **Oloyni**, shuningdek, **Zarafshon vodiysi** bilan **Qizilqumni** ham tekshirib chiqdi.

O'lkadagi ilmiy tadqiqotlar imperiya uchun foydali bo'lsa ham, bari-bir, podsho hukumati bu davrda noharbiy maqsadlarga yetarli darajada mablag' sarflashni istamadi. Ular uchun o'lkaning harbiy-siyosiy nuqtayi nazardagi ahamiyati birinchi o'rinda turardi. **1871-yil** tashkil etilgan **O'rta Osiyo olimlar jamiyati** mablag' yo'qligi tufayli **1893-yili** o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgandi.

**Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati** ancha faol ish boshladi. Jamiyat nashr ettirgan «**Turkistonning qishloq xo'jaligi**» jurnali sohadagi ishlab chiqarish, yerlarni sug'orish, dehqonchilik va yerdan foydalanish borasidagi ilg'or usullarni targ'ib qildi. Qishloq xo'jaligi jamiyati mustamlakachilar manfaatidan kelib chiqib paxtachilikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullandi. Mahalliy iqlim sharoitiga moslashgan o'ziga xos O'rta Osiyo paxta navidagi dastlabki hosil yetishtirildi.

**1876-yil Toshkentda Turkiston muzeyi** (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi) tashkil etildi. **1870-yili Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi** tashkil etilishi ham O'rta Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Undagi kitoblarning aksariyat qismi Turkiston tarixi va tabiatiga oid nodir asarlar bo'lgan.

Adabiyot. Bu davrda bir qator adabiyot namoyandalari yetishib chiqdi. Ulardan biri o'zbek demokratik shoiri **Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy (1853 – 1921)** bo'lib, u bitgan satirik she'rlarida mustamlakachi ma'mur-

lar, hukmdorlar va ruhoniylar xatti-harakatlari tanqid qilinadi. Zavqiy erk va ozodlikni tarannum etgan she'rlari uchun zindonga tashlandi.

Sharq adabiyoti uchun an'anaviy bo'lgan janr she'riyat edi. Turkistonda she'riyatning shakl va mazmuni bir-biridan farqlanuvchi va ba'zan bir-biriga zid bo'lgan so'fiylik va tanqidiy-realistik oqim mavjud edi.

Shoirilar va yozuvchilar o'z ijodlarida xalq dardini, davrning dolzarb muammolarini aks ettirishga harakat qilganlar. Ular orasida **Muqimiy, Furqat, Zavqiy, shoira Anbar Otin, Avaz O'tar o'g'li, Ahmad Donish** va boshqalarning ijodini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. She'rlaridagi haqqoniylik va samimiylik ularni mashhur xalq shoirlariga aylantirdi.

**Muhammad Aminxo'ja Muqimiy Qo'qon** shahrida tug'ilgan. U «**Saylov**», «**Tanobchilar**», «**Hapalak qishlog'i ahlining xonga arzi**» va boshqa satirik asarlar, «**Qo'qondan Farg'onagacha**», «**Qo'qondan Isfaragacha**» kabi ilk sayohatnomalar muallifidir.

**Anbar Otin** ham Zavqiy kabi erksevar va hurfikr she'rlari bilan shuhrat topdi. Shoira **Qo'qon** shahrida yashab, ayollarning jamiyat va oiladagi haq-huquqsiz ahvoli to'g'risida achchiq haqiqatlarni qalamga oldi. Ayollarning erkinligi va teng huquqli bo'lishi uchun kurashga da'vat etgani bois shahardagi mutaassib kayfiyatdagi kuchlar tomonidan kaltaklandi va ko'p o'tmay hayotdan ko'z yumdi. O'zbek shoirlarining she'rlari keng xalq ommasi yuragiga yo'l topdi. Ularning she'rlari asosida ko'plab qo'shiqlar yaratildi.

**XX asr boshlarida** o'zbek adabiyotida yangi janrlar paydo bo'ldi. Nasrda yaratilgan asarlar ham dunyo yuzini ko'rdi. Ayniqsa, jadid adabiyoti rivojlandi. Bu adabiyot mazmunida mamlakatdagi og'ir sharoit va mustamlakachilik tizimi illatlari qoralandi.

Jadid adabiyotida **1910-yili Abdulla Qodiriy** ilk nasriy asarlarini e'lon qildi. Adib o'zining hikoyalari, felyetonlari va pyesalari bilan Turkiston ziyolilari hamda xalq ommasi orasida keng tanildi. Uning «**Ju-vonboz**» hikoyasi, «**Baxtsiz kuyov**» pyesasi va qator romanlarini xalq sevib o'qiy boshladi.

Nasrda ijod qilish xalq uchun eng ommabop va tushunarli adabiyot shakli edi. Shuning uchun jadidlar o'z g'oyalarini keng xalq ommasiga singdirish maqsadida nasr janridan keng foydalanganliklari bejiz emas. Jadidlar xalqqa yaqinlashishning eng samarali yo'li sifatida **xalq milliy teatrini** yaratishdi. **1911 – 1913-yillarda** Turkistonning turli shaharlarida teatrlar tashkil etildi. Adiblar ular uchun pyesalar yozishdi. Sahnada yangragan ona tilidagi nutq va teatr aktyorining harakatlari xalq ommasiga nisbatan qudratli ta'sir vositasiga aylandi.

Jadid teatrlarida 1911 – 1917-yillarda 25 ta pyesa namoyish etildi, ular xalq ommasi orasida eng mashhur asarlarga aylandi. Bu paytda spektakllarning aksariyati ochiq sahnalarda qo'yilib, ularga ko'plab tomoshabinlar tushgan. Ilk o'zbek tomoshabinlari uchun jadidlar qo'ygan pyesalar axloqiy tarbiya maktablariga aylandi.

Jadidlar rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan yozilgan mashhur pyesa «Padarkush»da otalar va bolalarni bir-biriga nisbatan shafqatsiz mavjudotlarga aylantirgan ma'naviy qashshoqlik, mol-mulka ruju qo'yish qattiq qoralangandi. Unda yot odatlarning kirib kelishi jamiyat uchun muqaddas bo'lgan oilani yemirishi ko'rsatib berildi. **Nusratilla Qudratilla** qalamiga mansub «To'y» asarida oilaviy va shaxsiy fojialar sababchisiga aylangan serchiqim ba'zi urf-odatlar va an'analar tanqid ostiga olindi. Pyesada oila boshlig'ining serhasham sunnat to'yi uchun puli yetmay qolganida qarz olishga majbur bo'lganligi va ko'p o'tmay to'lovga layoqatsizligi oqibatida qarzdorning qamoqqa olinishi ko'rsatilgan.

Shu kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega, ma'naviy boy adabiyot xalq ongini uyg'otuvchi eng muhim vosita bo'ldi. Uning atoqli namoyandalari esa soha rivojiga ulkan hissa qo'shdilar.

### 26.3. TEATR VA MUSIQA SAN'ATI

Turkistonda xalq teatri. Qadimiy san'at turlaridan eng sevimlisi hisoblangan xalq teatrlarining Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida o'ziga xos ko'rinishlari mavjud edi. Jumladan, *Buxoro amirligida masxaraboz, qo'g'irchoqboz, raqqos kabi san'at yo'nalishlarining uyushmalari vujudga kelgandi. Xorazm an'anaviy teatrida esa ikki turkum tomoshalar – kulgili va xatarti o'yin turlari yaxshi shakllandi.*

Xalq teatri shakl jihatidan rang-barang va boy bo'lib, ular xalq orasidan chiqqan komik aktyorlar – qiziqchilar, qo'g'irchoqbozlar, masxarabozlar va boshqalar o'z mahoratlarini namoyish qilishgan. Ana shu teatrlar va masxarabozlarning tomoshalarida, asosan, xasis va ochko'z boylar, chalasavod mullalar, amalparast beklarning kirdikorlari fosh etilgan. Bu tomoshalar ko'proq dolzarb voqealar tasvirlangan satirik ko'rinishlardan iborat bo'lgan. Garchi ularda yozma pyesalar bo'lmasa-da, xalq og'zaki ijodi mahsuli sifatida yod olingan mavzular sahnalashtirilgan. Sahna asarlarini, odatda, san'atkorlarning o'zlari ijod etishgan.

**XIX asrning 2-yarmida** bir necha shaharlarda an'anaviy teatr uyushmalari vujudga keldi. Eng mashhurlari **Qo'qonda Zokir eshon, Bu-**

xoroda To'la masxara uyushmalari edi. Ayniqsa, qo'g'irchoq teatrlari ommabop bo'lib, ular mavzusi markazida **Kachal Polvon** obrazi turgan.

Turkistonga Yevropa va rus teatrlarining kirib kelishi. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilgach, mustamlaka hukumati siyosiy maqsadlarni nazarda tutib rus madaniyatini jadal yoyishga kirisha boshladi. Bunda nafaqat ta'lim tizimi, balki teatr sohasi ham muhim o'rin tutgan.

**1870-yill** Turkiston general-gubernatori tomonidan taklif qilingan **Samara teatri** o'lkada bir necha kunlik dasturlarini namoyish etgandi. **1910-yili Samarqand va Toshkentga** rus aktrisasi **V.F.Komissarjevskaya** truppasining gastrollari uyushtirildi.

Turkistonda namoyish etilgan bunday tomoshalar o'lka mahalliy san'atkorlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilg'or ma'rifatparvarlar va jaddilar yangicha g'oyalarini targ'ib etish uchun dramatik teatrning ulkan imkoniyatlarini tushunib yetdilar.

**Tatar va ozarbayjon** truppalarning **1910 – 1912-yillarda** Turkistonda bo'lib o'tgan gastrollari ham katta madaniy voqeaga aylandi. **U.Gajibekovning «Go'ro'g'li», «Layli va Majnun» va «Arshin mololon»** musiqali pyesalari o'zbek jamoatchiligi orasida iliq kutib olindi. Bu, o'z navbatida, mahalliy teatr rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Jadid teatrining vujudga kelishi. O'zbek milliy teatrining shakllanishida jaddilarning o'rni katta edi. Prezident Islom Karimov **«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»** asarida: *«Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teatr san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning «Teatr – bu ibratxonadir» deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir, – deb yozadi.*

Turkistonda **1911-yili** dastlabki yozma milliy sahna asarlari yaratildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning **«Padarkush»**, A.Samadovning **«Mahramlar»**, Fitratning **«Bir farangi bilan buxorolik bir mudarrisning qilgan munozaralari»** nomli asarlari shular jumlasidandir. Ular ichida, ayniqsa, o'zbek milliy teatri durdonasiga aylangan Behbudiyning **«Padarkush»** dramasi g'oyatda muhim voqelik bo'ldi.

Turkistonda birinchi o'zbek milliy teatri **Samarqand** shahrida **Mahmudxo'ja Behbudiy** rahbarligida tashkil etildi. Bu truppada namoyish etilgan ilk asar ham uning **«Padarkush»** pyesasi edi. O'zbek milliy teatri shakllanishi va rivojlanishida ulug' ma'rifatparvar **Abdulla Avloniy** va jaddilar harakatining atoqli namoyandasi **Hamza Hakimzoda Niyoziy** katta xizmat qildilar. **1914-yil boshlarida** Abdulla Avloniy **Toshkent** shahrida **«Turon»** nomidagi teatr truppasini tashkil etdi va u

sahnalashtirgan birinchi asar ham «**Padarkush**» pyesasi bo'ldi. **1915-yili** teatrning Turkiston shaharlari bo'ylab gastrollari zo'r muvaffaqiyat bilan o'tdi.

**1916-yili Qo'qon** shahrida Hamza rahbarligida havaskorlar teatri tashkil etildi. Unda namoyish etilgan birinchi spektakl Hamzaning «**Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari**» pyesasi bo'ldi. Mazkur pyesa o'zbek teatri shakllanishida ham, o'zbek dramaturgiyasi vujudga kelishida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Teatr chuqur mazmunli, ijtimoiy ahamiyatga molik hodisaga aylandi. **1916-yildan** hozirgi Milliy teatr asoschisi **Mannon Uyg'ur** va o'zbek teatrining birinchi aktrisasi **Ma'suma Qoriyeva** san'atga ilk qadamini tashladi. Shu tariqa asta-sekin milliy teatrlarning soni ortib bordi. *Andijonda* (1919), *Xivada*, *Buxoroda* (1922) ham dastlabki teatrlar tashkil topdi. Buxoro shahridagi teatrning tashkil etilishida Mannon Uyg'urning xizmatlari beqiyos edi.

Teatrlarda katta ijtimoiy va axloqiy muammolarga daxldor mavzular sahnalashtirildi. Ularda adolatsizlik, yovuzlik, zulmni qoralovchi g'oyalar, tomoshabinlarda e'tiroz va norozilik hissini qo'zg'atuvchi spektakllar namoyish etildi. O'zbek teatri o'zbek milliy madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Teatr spektakllari, o'ziga xos va iste'dodli aktyorlar ijrosi o'zbek xalqining bitmas-tuganmas ijodiy imkoniyatlarini namoyish etdi.

*Musiqas san'ati.* An'anaviy xalq og'zaki musiqali asarlari asrlar davomida saqlanib keldi. Xalq musiqas san'atida **terma, qo'shiq, lapar, yalla, ashula** keng tarqalgandi. Qo'shiq, yalla va laparlar hazilomuz raqslar va o'yin jo'rligida ijro etilardi. Termalar ko'pincha xalq qissago'ylari bo'lmish baxshilar va shoirlar tomonidan ijro etiluvchi ohangdor kuylarni o'zida mujassam etgandi. Ashula esa keng qamrovli turli kuy-ohangga ega lirik qo'shiq hisoblanardi.

Xalq mumtoz shoirlarining g'azallari va she'rlari ashulalar uchun matn bo'lib xizmat qilgan. **XIX asr oxiri – XX asr boshlarida** o'zbek xalqi musiqiy ijodiyoti o'zida lirik qahramonlik mazmunidagi epik rivoyatlarni mujassamlashtirgan dostonlar («**Go'ro'g'li**», «**Alpomish**», «**Kuntug'mish**», «**G'arib va Shohsanam**», «**Hasan va Dalli**», «**Rustam va Avaz**») alohida o'rin tutgan. Mazkur dostonlar **to'rtlik** she'r tuzilishiga ega bo'lib, musiqasi nisbatan sodda ohangli va bu musiqada nota yozuvi qo'llanilmagan.

Xalq sozandalari mashhur usta-bastakorlar qo'lida ta'lim olishgan. Ko'p asrlar davomida butun Sharqda keng tarqalgan mumtoz maqomlar professional musiqaning og'zaki an'analariidagi bebaho xazinasini tashkil etgan. Maqomlar yirik turkumli og'zaki-cholg'uli (yakkaxon va cholg'uli) asarlardir.

Musiqa asboblari ham nihoyatda rang-barangligi bilan ajralib turardi. Bu borada torli-kamonchali cholg'u asboblari (**g'ijjak, qo'buzz, uchtor**), torli-noxunli (**do'mbira, dutor, tanbur, ud, rubob**), torli-zarbli (**chang**), puflama nayli (**nay, surnay**), mushtuk-puflamali (**karnay**), zarbli-membranali (**doira, nog'ora, chindovul**) kabi cholg'u asboblari keng tarqalgandi.

Turkistonning o'sha kezlardagi musiqa madaniyatida yakkaxon ijrochilar ham, ansambl ijrosi ham rivojlandi. Karnay, surnay, nog'ora yoki doira, ya'ni qattiq jaranglovchi cholg'u asboblari an'anaviy bayramlarda, kelin to'yi tantanalarida, ommaviy tomoshalarda jo'rovoz bo'lgan; birmuncha past jaranglovchi cholg'u asboblari: surnay, dutor, g'ijjak esa kamer (xonada) yoki konsert (davrada) ijrosiga mo'ljallangandi.

Xorazm maqom va musiqa maktabi Xiva xoni **Muhammad Rahim II** (Feruz) davrida yanada rivojlandi. O'z davrining ma'rifatli hukmdori bo'lgan Feruz san'at namoyandalariga katta imkoniyatlar yaratib berib, ular faoliyatiga homiylik qilgan. Bundan tashqari, bevosita musiqa san'atini rivojlantirishga oid farmonlar ham chiqargan. **1882-yilgi** farmonida quyidagi jumlar bitilgan:

*«Biz kim, Xorazm mamlakatining oliy xoqoni Muhammad Rahimxon Soniy quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik.*

*Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!»*

## 26.4. ME'MORCHILIK VA TASVIRIY SAN'AT

**XIX asr oxiri – XX asr boshlarida** Turkistondagi yalpi iqtisodiy tanazzul, o'zaro urushlar, Xiva xonligi va Buxoro amirligining isyonchi guruhlarga qarshi kurashi, shuningdek, Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy taraqqiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Uning oqibatlar kelgusidagi o'lka taraqqiyotida og'ir asoratlar qoldirdi. Bu asorat izlari o'zbek me'morchiligini ham chetlab o'tmadi. Shunday bo'lsa-da, bu davr milliy me'morchiligida betakrorlik va rang-baranglik hamda an'anaviy arxitektura saqlanib qoldi.

Me'morchilik maktablari. **XIX asr oxirlarida** Buxoro va Xorazm me'morchiligi qadimiy an'analami saqlagan holda zamon ruhi bilan boyib bordi. Saroy majmualari, madrasa, jome masjidlari, kasalxona kabi davlat va jamoat binolari, shuningdek, ulkan minoralar barpo etildi. Ularni bunyod etganlar o'z davrining yetuk me'morlari bo'lib, qadimiy



Buxoro va Xivaning tarixiy binolarini vujudga keltirishdek og'ir, lekin sharaflı ishga bosh-qosh bo'lgan ajdodlarning binokor avlodlari edilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida nomlari nafaqat Buxoro amirligi, balki Xiva xonligi, Turkiston va Xurosonda ham mashhur bo'lgan **Obloqul** va **Ibrohim Hofizovlar, Mo'minjon Solihov, Shirin Murodov** kabi ko'plab ustalar yetishib chiqdi. XX asr boshlarida barpo etilgan **Sitorayi Mohi Xosa** qurilishida yuqorida nomlari zikr etilgan me'morlar, ustalar faol qatnashgandi. Majmuaning maxsus **Oqsaroy zalig** a pardo berish ishini **Usta Shirin Murodov** boshchiligida bir guruh usta ganchkorlar amalga oshirdilar.

Xorazm me'morchilik maktabining sarkori **Odina Muhammad Murod** bo'lsa pardo hamda naqshinkor parchinlarni joylashtirishning sir-sinoatlarini mukammal egallagan. Usta kulollar **Nurmuhammad, Abdujabbor**, uning o'g'li **So'fimuhammad Niyoz** va **Abdullalar** edilar. Ular oddiy loydan go'zal san'at asarlari yaratish va tabiatdagi turli giyoh va o'simliklardan betakror ranglar kashf etish mumkinligini amalda isbotlab berdilar.

XX asr boshlarida tiklangan **Islomxo'ja minorasini (1908 – 1910)** yaratish tashabbuskori va homiysi Asfandiyorxonning bosh vaziri, ma'rifatli inson **Islomxo'ja** edi. U bunyod ettirgan minora Xivaning faxriga aylandi. Qolaversa, Islomxo'ja o'z davrining yirik madaniyat va davlat arbobi edi. U Xorazmni dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatorida ko'rishni istagan, vatanini tashqi dunyo bilan bog'lashga intilgan, ilg'or g'oyalar bilan to'lib-toshgan inson edi.

Xorazm me'morchiligi maktabining e'tiborli tomoni shunda ediki, *peштоqlar, shiplar, burjlar o'ta nozik did va nafosat timsoli – arabiy yozuvlar bilan bezatilardi*. Mohir xattotlar bu yozuvlarni o'ta mohirlik bilan bino bezagiga uyg'unlashtirib yubora olardilar. Yog'och o'ymakorligi esa eshik, darvoza va ustunlarni o'ymakor naqshlar bilan bezab, o'sha binolarning umumiy ko'rinishiga o'ziga xoslik va jilo baxsh etardi.

Farg'ona vodiysida ham o'zbek xalq me'morchiligining o'ziga xos tarmog'i mavjud edi. XIX asrning 2-yarmida vodiy milliy me'morchiligiga Yevropa me'moriy uslubidagi binolarni qurish an'analari kirib keldi. Shunday bo'lsa-da, **XIX asr oxirlarida** qurilgan **Andijon jome masjidi** o'z qurilishi bilan yuksak milliy me'morchilik namunasi bo'lib qoldi.

**Yevropa uslubidagi binolar qurilishi.** Bu davrda o'lkaga Yevropa uslubidagi me'morchilik an'analari ham kirib keldi. Qurilish ishlarida milliy an'anaviy uslublar bilan birga Yevropa me'morchiligiga xos uslublar qo'llanila boshlandi. Jumladan, xalq me'morchiligida an'anaviy paxsa, guvala va xom g'isht qo'llash bilan birga zamonaviy **to'rtburchak yuzli g'isht, faner, tunuka, oyna** kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanildi.

Yevropa me'morchiligiga xos bo'lgan ayrim uslublar o'sha davrda qurilgan Buxoro amirining yozgi saroyi – **Sitorayi Mohi Xosa**, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan qurilgan **Nurullaboy** nomi bilan ataluvchi saroyda (1904 – 1912) ham ko'zga tashlanadi. Bino qurilishida ham G'arb, ham Sharq me'morchiligi an'analaridan foydalanilgan. Turkistonning bosib olingan yirik shaharlari va viloyatlarida harbiy qo'shinlari uchun qal'alar, kazarmalar, harbiy-siyosiy amaldorlar, generallar uchun yevropacha ko'rinishdagi qarorgohlar qurila boshlandi. Toshkentning Yangi shahar qismida general-gubernatorlikning ma'muriy va boshqa binolari qad ko'tardi. Ular me'moriy jihatdan g'arb muhiti va uslubida qurilgan binolar edi.

Tasviriy san'at. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tasviriy san'at **Samarqand, Qo'qon, Buxoro** miniatyurachilari ijodida namoyon bo'ldi (**Ahmad Donish, Abdulxoliq maxdum, S.Siddiqov**). Ular tasviriy san'atning an'anaviy rivojlangan turlarini saqlab qolishdi.

XX asr boshlarida an'anaviy devoriy naqshlarda ilgari ishlatilmagan manzaralar – **suzib borayotgan kema, temir yo'llar va hayvonlar** tasvirlana boshlandi. O'zbek xalqi san'atida ramziylikka xos asriy an'analarga boy diniy-falsafiy mazmundagi naqqoshlikdan bevosita real tasviriy san'atga o'tish holati kuzatildi.

O'zbek rassomlarining iqtidori kulolchilik buyumlarini, kiyimlarni bezashda, materiallar uchun uyg'un bo'yoqlar jilosini yaratishda, kundalik turmush buyumlariga jilo berishda va boshqa amaliy san'atda namoyon bo'ldi. Buyumlardagi yuksak did, nazokat, nafislik rasmlarda yaqqol ko'zga tashlanardi.

Naqsh amaliy san'ati markazi **Buxoro** edi. Bu shahar ustalari naqsh asriy san'atini saqlab qolishga, balki rivojlantirishga erishdilar. Buxorolik ustalarning har qanday asari o'z xususiyatlariga ega bo'lib, boshqa shaharlarda yaratilgan buyumlardan ajralib turardi. Bu asarlarga xos boy tasavvur va mukammal mahorat, asosan, ranglar va naqshlar uyg'unligida o'z aksini topgan. *Oq rang baxt-saodat va omad ramzi, qizil rang quvonch va salomatlikni anglatardi.* Ranglar va naqshlar ramzi zargarlikda, liboslarda, nodir toshlardan ishlangan zeb-ziynat shodalarida ustuvorlik qilgan.

Xullas, mustamlakachilik sharoitida ham ota-bobolarimizning erkinlikka, taraqqiyot va istiqloлга bo'lgan azaliy intiqlik kayfiyati so'nmadi. Xalqimizning yurak-bag'riga teran o'rnashgan mustaqillik va ozodlik tuyg'usi tobora qudratli kuchga aylana bordi va pirovard natijada O'zbekiston istiqloli tantanasi uchun mustahkam zamin hozirladi.

## 27-BOB. XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDAGI SIYOSIY VAZIYAT. SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI

### 27.1. TURKISTONDA 1917-YILGI IJTIMOY-SIYOSIY O'ZGARISHLAR

1917-yilgi Fevral inqilobining Turkistonga ta'siri. Inqilob natijasida uch asr davom etgan **romanovlar sulolasi** hukmronligi ag'darildi. Mutlaq monarxiya tizimi quladi. **Mart oyi boshlarida** rus burjuaziyasi doiralari vakillaridan tashkil topgan Muvaqqat hukumat faoliyat ko'rsata boshladi. Ayni chog'da, **Petrograd**da va boshqa joylarda ishchi, askar va dehqon deputatlari soveti tuzilib, hokimiyat organlari sifatida ish yurita boshladi. Shu tariqa Rossiyada ikki hokimiyatchilik boshqaruvi vujudga keldi.

Rossiyada Fevral inqilobining amalga oshishi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy voqealarning borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'lka hayotida yuz bergan muhim siyosiy o'zgarishlardan biri Turkiston general-gubernatorligi mahkamasining tugatilgani bo'ldi. Uning o'rniga Muvaqqat hukumatga bo'ysunuvchi **Turkiston qo'mitasi** tashkil etildi. Viloyatlardagi harbiy gubernatorlik lavozimlari ham tugatildi. Ularning o'rniga **viloyat komissarlari** lavozimi ta'sis etildi. Eng muhimi, fevral o'zgarishi Turkiston o'lkasi xalqlari hayotiga muayyan demokratik jarayonlarni baxsh eta bordi. Endilikda keng xalq ommasi, uning turli ijtimoiy qatlamlari faol harakatga kela boshladi. O'lkaning yirik shaharlarida tashkil topgan va asosiy tarkibi mahalliy millat vakillaridan iborat kasaba uyushmalari, chunonchi, binokorlar, quruvchilar, ko'nhilar, duradgorlar va boshqa kasb kishilarini birlashtirgan uyushmalar ham aholining tub manfaatlari, uning iqtisodiy va siyosiy talablarini himoya qilib faoliyat yuritdilar. **1917-yil may**ga kelib Turkiston o'lkasidan mardikorlikka zo'rlik bilan olinib, Rossiyaning g'arbiy hududlariga safarbar qilingan ko'plab yurtdoshlarimizning o'z ona zaminlariga qaytib kelishlari ham, shubhasiz, inqilobiy kuchlar safini to'ldira bordi. Bu o'rinda fevral o'zgarishidan keyin o'lka xalqlari hayotida muhim rol o'ynagan, ularning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilgan ko'plab inqilobiy-demokratik tashkilotlar, siyosiy firqalar, kasaba uyushmalari faoliyatiga alohida urg'u bermoq kerak. Gap shundaki, bu davrda Rossiyada faoliyat yuritayotgan ko'plab siyosiy partiyalar, jumladan, **eserlar, sotsial-demokratlar** va boshqa partiyalarning mahalliy tashkilotlari Turkistonda ham o'z faoliyatini aktivlashtirib, aholining turli ijtimoiy tabaqalarini o'zlariga jalb qilish, o'z dasturiy g'oyalari ularning ongi, shuuriga singdirishga intildilar.

**Toshkentda 1917-yil mart oyida ishchi va soldat deputatlari soveti** tashkil etildi. **Mart oyi oxirlarida** o'lkada ishchi va soldat deputatlarining **75 soveti** faoliyat yuritdi. Biroq ulardagi deputatlarning asosiy ko'pchiligi yevropalik millatlar vakillari edi. Bu davrda Turkistonda kechayotgan barcha alg'ov-dalg'ovli voqealar, jiddiy o'zgarishlarning chinakam yalovbardorlari istiqlof uchun kurashning tolmas darg'alari bo'lgan jadid rahnamolari edilar. Turkiston jadidlari mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirish, uni katta tarixiy o'zgarishlarga tayyorlash, hal qiluvchi kurashlarga o'z ortidan ergashtirib borishda bosh-qosh bo'ldilar. Ayniqsa, Rossiya Muvaqqat hukumatining ikkiyuzlamachilik siyosati, uning inqilobning tub masalalarini, chunonchi, urush va tinchlik, 8 soatlik ish kuni, agrar va milliy masalalarni hal etishni turli bahonalar bilan chetga surishi ilg'or jadid arboblarni inqilobiy-demokratik yo'nalishda izchillik bilan kurash olib borishga da'vat etdi.

Jadidlar faoliyatida vaqtli matbuot nashrlarini yo'lga qo'yish, ularda inqilobiy-demokratik ruhdagi maqola, materiallarni muntazam chop etish, ularni ommaga yetkazish muhim o'rin tutgan. Vatanparvarlarning sa'y-harakati bilan Turkistonning bir qator yirik shaharlarida gazeta va jumallar nashr etila boshlandi. Jumladan, **Toshkentda «Turk eli», «Najot», «Kengash», «Ulug' Turkiston», «Turon», Samarqandda «Hurriyat»** vaqtli nashrlari chiqa boshladi.

**Abdulla Avloniy** tomonidan **Toshkentda 1917-yil apreldan** chiqarila boshlagan **«Turon»** gazetasining ilk sonida **«Yashasin xalq jumhuriyati»** shiori birinchi bor yangragandi. Unda aniq maslak-maqсад – *«Musulmonlar orasida ko'p yillardan beri davom etgan umumga zo'rlik, bid'at odatlarni bitirmak, kelajakda bo'lading'on jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq»* g'oyasi ilgari surilgandi.

Xuddi shuningdek, **Munavvar Qorining** o'sha yili **«Najot»** gazetasining **26-mart** sonida bosilgan: *«Hurriyat berilmas, olinur. Hech narsa ila olib bo'lmas, faqat qon va qurbon ilagina olib bo'lur»*, – degan xitobi ham jadidlarning xalq ozodligi va istiqloli yo'lida jiddiy kurashga bel bog'laganliklaridan dalolat beradi.

**«Sho'royi Islomiya» va «Sho'royi Ulamo».** **1917-yil boshlarida** Turkistonda yerli tub aholining asosiy ko'pchiligi yevropalik siyosatchilar, firqalar arboblari ortidanmas, balki musulmon ulamolari, jadid yo'lboshchilari yo'lidan uyushib bordilar. Buning uchun esa obro'li siyosiy tashkilot tuzish zarurati tug'ilgandi. **1917-yil 14-martda** **Toshkentda** jadid arboblari tashabbusi bilan tuzilgan **«Sho'royi Islomiya»** shunday tashkilotlardan bo'ldi. **15 kishidan** iborat rayosat tarkibidan **Munavvar Qori Abdurashidxonov**

(yetakchi), **Abduvohid qori, Mirkomilboy Mo'minboyev, Ahmadbek hoji Temirbekov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Salimxon Tillaxonov** singari sinalgan yurt rahnamolari o'rin olgandi. «Sho'royi Islomiya» musulmon aholining vakolatli organi (musulmonlar kengashi) sifatida uning irodasini ifoda etdi, manfaatlarini himoya qildi.

O'lkaning turli joylarida «Sho'royi Islomiya»ning quyi sho'balari tuzilib, ular mahalliy aholi orasida qizg'in faoliyat yuritdilar. Shuningdek, «Sho'royi Islomiya» ta'sirida joylarda turli nomlarda tashkilotlar vujudga keldi. Toshkentda «**Turon**», «**Ittihodi taraqqiy**», Andijonda «**Ozod xalq**», «**Hurriyat**», «**Ma'rifat**», Samarqandda «**Mirvajul Islom**», «**Klub Islomiya**», «**Musulmon mehnatkashlari ittifoqi**», Kattaqo'rg'onda «**Ravnaqul Islom**», «**Guliston**» va boshqalar shular jumlasidandir.

Turkiston milliy istiqloli uchun kurashga bel bog'lagan va avvalboshdan «Sho'royi Islomiya» ta'sirida bo'lgan ulamolarning bir qismi **qadimchilar** nomi bilan atalardi. Ular islom ta'limoti va aqidalarining murosasiz tarafdorlari sifatida siyosiy vaziyatni o'zlaricha tushunar, muxtoriyat talabiga qarshi chiqqanlar. Bu hol **1917-yil iyuniga** kelib qadimchilarning «Sho'royi Islomiya» tarafdorlari bilan uzil-kesil aloqani uzib bo'linishining asosiy sababi, eng avvalo, Turkistonning milliy mustaqilligiga erishish yo'lidagi ikki xil qarama-qarshi taktik yondashuvning kelib chiqqanidadir. Konservativ, mutaassib qarashlar nuqtayi nazaridan yondashgan ulamochilar Turkiston mustaqilligini faqat hukmron mustamlakachilarga qarshi g'azovot boshlash, ya'ni qurolli qarshilik ko'rsatish yo'li bilan qo'lga kiritishni yoqlardilar. Ilg'or ziyolilar – jadidlar esa Rossiyada yuzaga kelgan qulay shart-sharoitlardan, siyosiy vositalardan foydalanib, behuda qon to'kmasdan bosqichma-bosqich yurt mustaqilligiga erishishni yoqlardi. Ularning Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi **Turkiston Muxtoriyati** talabi ham shu maqsadni ko'zda tutardi. O'lkaning milliy kuchlari o'rtasida yuz bergan bu ajralish va g'oyaviy ixtiloflar, shubhasiz, ularning harakat birligiga raxna solar, uning istiqboliga jiddiy putur yetkazardi. Ayniqsa, «Sho'royi Ulamo»ning nashri – «**Al-izoh**» jurnali sahifalarida millatning ilg'or kuchlariga, vatanparvar milliy ziyolilarga nisbatan adovat va xusumat urug'i sepildi. Bu dushman tegirmoniga suv quyish bilan barobar edi.

I va II Umumturkiston qurultoylari. Turkistonda inqilobiy demokratik harakatlarning o'sib borishi, undagi turli ijtimoiy qatlamlar va tabaqalarni yanada istiqloq kurashi bayrog'i ostida birlashtirishda **1917-yil** davomida bo'lib o'tgan **Umumturkiston musulmonlari I va II qurultoylari** va ular tomonidan ishlab chiqilgan hamda qabul qilingan dasturiy hujjatlarning roli katta bo'lgan. «Sho'royi Islomiya» tashkiloti tashabbusi bilan **1917-**

**yil 16-aprelda** Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi chaqiriladi. Qurultoy ancha vakolatli anjuman bo'lib, uning ishida Turkistonning ko'plab atoqli kishilari, taniqli siyosiy arboblilar qatnashgandi. Ular orasida **Mustafo Cho'qay, Munavvar Qori, Behbudiy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Sherali Lapin, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Validiy, Sobir Yusupov, Islom Shoahmedov** va boshqalar bor edi. Qurultoy kun tartibiga **16 ta masala** qo'yilishining o'zi ham uning katta ahamiyatidan darak berardi. Qurultoyda o'lkaning bo'lajak davlat qurilishiga alohida to'xtalinib, Turkistonga keng muxtoriyat huquqini beradigan demokratik Rossiya Federatsiyasi tuzilishi g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda markaziy rahbar organ – **Turkiston o'lka musulmonlar sho'rosini** tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Uning birinchi yig'ilishida **Mustafo Cho'qay** markaz rasi, **Munavvar Qori** rais muovini, **Ahmad Zakiy Validiy** kotib, **Behbudiy, U.Asadullaxo'jaev** va boshqalar a'zolar etib saylandilar. Markaziy sho'ro zimmasiga o'lkadagi barcha tarqoq, o'z holicha ish yuritayotgan, nizom va dasturlariga ega bo'lmagan uyushma va tashkilotlarni birlashtirish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklandi. Bu vazifani uddalashda Markaziy sho'roning joylarda tashkil etilgan sho'ba (bo'lim)lari muhim rol o'ynadi. Jumladan, **Toshkent sho'basini Munavvar Qori, Samarqand sho'basini Behbudiy, Farg'ona sho'basini esa Nosirxon to'ra Kamolxon to'ra** o'g'li boshqardi. Shu tariqa Turkistonda qo'shhokimiyatchilik – Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi, ishchi va soldat deputatlari soveti va Turkiston o'lka musulmonlar sho'rosi vujudga keldi.

Jadidlar, ruhoniyyat arboblari o'z sa'y-harakatlarida faqat mahalliy, hududiy manfaatlar, qiziqishlar bilan cheklanib qolmay, boshqa mintaqalardagi musulmonlar ommasi, ularning ilg'or vakillari bilan ham yaqindan hamjihat bo'lishga intildilar. Shu maqsadda ular **1917-yil 1 – 2-mayda Moskvada** bo'lib o'tgan **Butunrossiya musulmonlari I qurultoyida** ishtirok etdilar. Unda musulmonlar manfaatini himoya qiluvchi davlat qurilishi shaklan milliy-hududiy, federatsiya asosidagi demokratik respublika bo'lishi hamda **Butunrossiya musulmonlar sho'ro ijroiya qo'mitasi** ta'sis etilishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu sho'ro ijroiya qo'mitasiga Turkistondan **U.Asadullaxo'jayev** va **I.Shoahmedov** saylandi.

Xuddi shuningdek, Turkiston vakillari ishtirok etgan va **1917-yil 21 – 31-iyulda Qozon** shahrida bo'lib o'tgan **Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyi** ham Rossiya musulmon aholisining ozodlik va mustaqillik sari harakatlanish yo'lini muvofiqlashtirish borasida muhim qadam bo'ldi. Unda **Turkiston, Kavkaz va Qrimda** davlat boshqaruvini

mehnatkashlarning o'zlari hal etishi, musulmonlar kurashini tashkil qilish uchun **Butunrossiya harbiy sho'rosini** ta'sis etish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

**1917-yil 17 – 20-sentyabrda Toshkentda** bo'lib o'tgan **Umumturkiston musulmonlari vakillarining II qurultoyi** o'lka xalqlari hayotida muhim rol o'ynadi. Unda **500 nafar** vakillar ishtirok etdi. Qurultoyning maxsus qarorida tarkibi **12 kishilik Turkiston o'lka qo'mitasi, 24 kishilik Mahkamayi Shar'iya** (parlament) tashkil etilishi va ularning Rossiya davlati Konstitutsiyasiga muvofiq keladigan shariat qonunlari asosida faoliyat yuritishi ta'kidlangandi. Qurultoyda **«Sho'royi Islomiy», «Sho'royi Ulamo», «Turon»** va shu kabi boshqa mahalliy milliy tashkilotlarni birlashtirib, ular negizida yagona **«Ittifoqi Muslimin»** (Musulmonlar Ittifoqi) siyosiy partiyasini tuzish g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda **Behbudiy** nutq so'zlab, hammani birlikka, jipslashishga da'vat etgandi. **«Ulug' Turkiston»** gazetasi mazkur qurultoy ruhini aks ettirib, Turkistonning o'z ichki ishlarini mustaqil hal qilishga qodir bo'lgan o'lkaning mahalliy va milliy muxtoriyatini tuzish g'oyasini asosiy o'ringa qo'ygan.

## **27.2. TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI. XALQ HOKIMIYATCHILIGI UCHUN KURASH. TURKISTON MUXTORIYATI**

*1917-yilgi oktyabr voqealari va uning Turkiston xalqlari hayotiga ta'siri.*

**1917-yilgi Fevral** inqilobi Rossiyada tub o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelmadi. Buning boisi shundaki, burjua Muvaqqat hukumati o'zining tor, xudbin manfaatlari doirasidan chetga chiqolmay, yetilgan tub masalalarni hal etishga ojizlik qildi. Natijada siyosiy tuzumda o'zgarish bo'lgani holda, muhim ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, milliy, sulh masalalari amalda yechilmay qolaverdi. Bu esa mamlakat hayotining boshi berk ko'chaga kirib, tanglik, tanazzul holatlarining kuchayib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Rossiyaning Birinchi jahon urushida ishtiroki davom etishi, rus armiyasining frontda ketma-ket mag'lubiyatga uchrayotgani umumxalq noroziligi va qahr-g'azabini tobora kuchaytirmoqda edi. Negaki urushning butun og'irligi xalq ommasi zimmasiga tushayotgandi. Rossiyaning iqtisodiy halokat tomon borishi, ijtimoiy tanglik va inqiroziy jarayonlarning zo'rayishi Muvaqqat hukumatning tobora obro'sizlanishiga, xalqdan yakkalanib qolishiga, oqibatda esa vaziyatning keskinlashuviga olib kelayotgandi. **Lenin** boshliq **bolsheviklar** xuddi mana shu qaltis vaziyatdan ustomonlik bilan foydalanib, ommani o'z tomoniga ag'darishni

ko'zlovchi shiorlarni maydonga tashlab, siyosiy hokimiyatni egallash sari yo'l tutdi. Bolsheviklar o'z maqsadlariga erishishda xalqning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldiruvchi va'dalar berdilar. Ular ommabop chaqiriqlarni ilgari surib, barcha tub masalalarni hal etishga qasamyod qildilar. Mana shunday ustakorlik va hiylakorlik yo'li bilan bolsheviklar **1917-yil 24 – 25-oktyabrda Petrogradda** davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Ular Muvaqqat hukumatni ag'darib, hokimiyatni egallashga muvaffaq bo'ldilar. Tez orada mamlakatning boshqa hududlarida ham ularning hukmronligi o'rnatila boshlandi. **Proletariat diktaturasi** nomi bilan atalgan zo'ravon tuzum mana shu zaylda vujudga keldi.

Garchand sovetlar davrida yaratilgan ko'plab tarixiy adabiyotlarda mazkur davr tarixi butunlay soxtalashtirilib, go'yo Turkiston aholisi oktyabr g'oyalariga qo'shilib, birinchilardan bo'lib o'lkada sovetlar hokimiyatini o'rnatdi deb og'iz ko'pirtirib kelingan esa-da, biroq bu xil fikrlar va qarashlar tarixiy haqiqatga mutlaqo zid edi. Hatto Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi qarorgohi joylashgan **Tuproqqal'a qo'rg'onining** qizil askarlar tomonidan **1917-yil 31-oktyabrdan 1-noyabrga** o'tar kechasi ishg'ol qilingani ham Turkistonda oktyabr tub o'zgarishi yasalganidan darak bermasdi.

Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Turkistonda sovet hokimiyatini o'rnatish g'oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo, oktyabr g'oyalarining mahalliy tub joy aholining dili va shuuriga botmaganidadir. Negaki bu zamin aholisi sotsialistik o'zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliyashtirishni, asrlar davomida shakllangan o'ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo'jalik yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamasdi.

Binobarin, bu begona maslak va g'oyalar bolsheviklar partiyasi va uning Turkistondagi yalovbardorlari tomonidan kuch va zo'rlik bilan o'lka xalqlariga singdirildi. Bu esa joylarda xalq qonining daryodek oqishiga, mislsiz qurbonlar berilishiga sabab bo'ldi. Chunki bolsheviklar tuzumi tomoniga o'tishni xohlamagan, uning maqsad-mohiyatini yoqirmagan ko'pchilik aholiga nisbatan o'lkaning ko'plab hududlarida ochiq-oshkor tarzda talon-torojlik, bosqin va xunrezliklar uyushtirdilar.

Aholini ma'naviy-ruhiy kamsitish, diniy e'tiqodini, islomiy qadriyatlarini tahqirlash, muqaddas qadamjolarini haqoratlash, diniy kitoblarni gulxanda yondirish – bular sovet tuzumi zo'ravonlari uchun o'sha kezlarda odatiy bo'lib qolgandi. Aniq rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida *Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming, Bozorqo'rg'on va Qo'qonqishloq (hozirgi Paxtaobod tumani) atroflarida 4,5 mingdan ziyod* begunoh



kishilar qirg'in qilingan. Bunday qirg'inlar Turkistonning boshqa shahar va qishloqlarida ham sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida sodir etildi.

Sovet hokimiyati dohiylari o'zlarining qator rasmiy dasturiy hujjatlari va shiorlarida bor ovoz bilan olamga jar solib barcha mazlum xalqlar, elatlarga huquqiy tenglik, o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy davlatchiligini tuzish va mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishga qadar ularning haqli, huquqli ekanligini e'lon qilgandilar. Masalan, oktyabrning muhim hujjatlari hisoblangan «**Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi**», «**Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi**», «**Rossiya va Sharqning hamma mehnatkash musulmonlariga**» da'vatnomasi va boshqa hujjatlarda mazlum xalqlarning ozodlik va mustaqillikka erishuvini rasman qo'llab-quvvatlagan holda amalda zimdan boshqacha siyosat tutib, bu jarayonning yuzaga chiqishiga butun choralar bilan to'sqinlik qildilar.

Buning yorqin ifodasi Turkistonda sovet hukumatini tuzish chog'ida to'la ayon bo'ldi. Gap shundaki, o'lka hududlarida sovetlar hokimiyatini zo'rlik bilan o'rnatish jarayoni davom etayotgan bir kezda, Turkiston bolsheviklari o'zlariga o'xshagan boshqa siyosiy partiyalar namoyandalari bilan til birlashtirib, mahalliy millat namoyandalarini bu ishdan mustasno tutib, o'z hukumatini tuzishga kirishadilar. Bu hiyla-nayrangning hidini oldindan sezgan turkistonlik mahalliy taniqli arboblardan, mabodo yevropalik ozchilikning manfaatini ko'zlaydigan hukumat tuzilsa, bu turgan-bitgan adolatsizlik bo'ladi va ko'pchilik aholining keskin noroziligiga olib keladi deb o'z nuqtayi nazarlarini oshkora bayon qildilar.

**1917-yil 12 – 15-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlarining III qurultoyi** qabul qilgan qarorlarda: «*Hokimiyatning mahalliy aholi manfaati uchun deyarli zid bo'lgan begona va o'tkinchi, tasodifiy kishilar guruhi – harbiylar, ishchilar va dehqonlar tashkilotlari qo'lida bo'lishi demokratik qoidalar talabiga javob bermaydi va mahalliy aholiga xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi asosida to'g'ri hayot qurishiga kafolat berolmaydi*», – deb qayd etilgandi.

Biroq bu haqqoniy talab va ogohlantirishlar Turkistonda sovet hokimiyati mutasaddilari sifatida ish yuritayotgan, joylarda esa bu hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan qaror toptirayotgan bolsheviklar va ularning muvaqqat ittifoqchilariga zarracha ham ta'sir etmadi. Ular o'z muddaolariga erishish maqsadida **Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III o'lka qurultoyini** chaqirdilar. Mazkur qurultoy **1917-yil 15 – 22-noyabrda Toshkentda** bo'lib o'tadi. Biroq uning ishida Turkiston musulmonlari vakillari teng huquqli asosda ishtirok etolmadilar. Bu hol

qurultoyning butun faoliyatida, xususan, uni tashkil qilgan hukumat tarkibida aniq-ravshan namoyon bo'ladi. **Bolshevik (kommunist) F.I.Kolesov** raisligida tuzilgan **7 bolshevik va 8 so'l eser komissarlardan iborat Turkiston xalq komissarlari soveti** tarkibiga butun o'lka aholisining qariyb **95 foizini** tashkil etgan yerli mahalliy xalqlarning birorta ham vakili kiritilmadi. **O'lka sovetlarining IV qurultoyida** so'zga chiqqan xalq komissari, shovivist **Uspenskiy**: «*O'rtoq musulmonlar, shuni bilingki, biz sizlarning katta og'alarimiz. Siz kichiksiz va tushunarliki, bizga bo'ysunishingiz kerak!*» – deb dag'dag'a qilgandi. Yana bir sovet kazolaridan **A.Kazakov** bu xususda o'z qarashlarini shunday bayon etgan: «*Turkiston jumhuriyatida 95 foiz musulmonlar va faqat 5 foiz ruslar yashaydi va shu 5 foiz butun hokimiyatni deyarli o'z qo'lida ushlab turibdi. Shunday qilib, ozchilik hukmronligi davom etmoqda. Lekin bu vaqtinchalik hol. Musulmonlar dunyosi tayyor bo'lgach, biz jumhuriyatni boshqarish ishini unga topshiramiz. Biz ularga yordam beramiz.*».

Turkiston yerli aholisining mutlaq ko'pchiligi bunday shovinistik va ulug' millatchilik siyosatini yuritishga mukkasidan ketgan yangi sovet hokimiyatidan hafsalasi pir bo'lib, unga nisbatan g'azab-nafrati oshib bordi.

**Turkiston Muxtoriyati. 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi** chaqirildi. Unda o'lkaning **5 viloyatidan 200 nafardan ziyodroq** vakillar ishtirok etdi. Qurultoy ishida «*Sho'royi Islomiy*», «*Sho'royi Ulamo*», Musulmon harbiylari sho'rosi, o'lka yahudiylar jamiyati namoyandalari qatnashdilar. Qurultoy hay'atiga o'lka xalqlarining taniqli kishilari: **Mustafo Cho'qay, U.Asadullaxo'jayev, Yurali Agayev, S.Akayev, Obidjon Mahmudov, Abdurahmon O'razayev, Islom Shoahmedov, Kamol qozi Karimboyev**, jami **13 kishi** saylandi. Mazkur qurultoyning **3 kun** to'xtovsiz davom etgan faoliyatining yakuni o'laroq o'lka hududining qonuniy egasi – Turkiston Muxtoriyatini tuzishga erishildi.

Yangidan tarkib topayotgan davlat **Turkiston Muxtoriyati** deb ataladigan bo'ldi.

**Ta'sis majlisi** chaqirilgunga qadar hokimiyat to'lig'icha **Turkiston Muvaqqat Kengashi (12 kishidan iborat)** va **Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi (54 kishidan iborat)** qo'lida bo'lishligi ta'kidlandi.

Turkiston Muxtoriyatini qabul qilish haqidagi qarorda shunday deyiladi: «*Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga,*

*muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi».* Qurultoy «*Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi».*

Qurultoyda **Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat Kengashi** – hukumati tuzildi. Uning tarkibiga **12 kishidan** iborat a'zolar saylandi:

1. **Muhammadjon Tanishboyev** – Bosh vazir, ichki ishlar vaziri.
2. **Islom Shoahmedov** – Bosh vazir o'rinbosari.
3. **Mustafo Cho'qayev** – tashqi ishlar vaziri (keyinroq Bosh vazir).
4. **Ubaydulla Xo'jayev** – harbiy vazir.
5. **Yurali Agayev** – yer va suv boyliklari vaziri.
6. **Obidjon Mahmudov** – oziq-ovqat vaziri.
7. **Abdurahmon O'razayev** – ichki ishlar vaziri o'rinbosari.
8. **Solomon Gersfeld** – moliya vaziri.

Hukumat tarkibiga yana **to'rt kishi** – yevropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko'rsatilgach, keyinchalik kiritilishi belgilandi. Shuningdek, bu hukumatda **Saidnosir Mirjalol o'g'li xazinachi** lavozimini egalladi.

Qurultoyning yana bir katta xizmati u tomonidan **Turkiston Xalq Majlisi** (parlamenti) tarkibining tuzilgani bo'ldi.

Milliy Majlis tarkibiga saylanganlar orasida muvaqqat hukumat a'zolaridan tashqari o'sha davrning atoqli arboblari: **T.Norbo'tabekov, S.Sharifxo'jayev, Nosirxonto'ra Kamolxonto'ra o'g'li, M.Behbudiy, T.Musaboyev, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov** va boshqa yurt peshvolari bor edi.

**1917-yil dekabr oyi boshlarida Toshkent, Namangan, Jalolobod, Qo'qon, Samarqand** shaharlarida va boshqa hududlarda ming-minglab yurt odamlari mitinglar, namoyishlar uyushtirib, muxtoriyatni qizg'in qo'llab-quvvatlab chiqdilar, bu to'g'rida maxsus qarorlar qabul qilindi. Masalan, **6-dekabr Toshkent**ning eski shahar qismida Turkiston Muxtoriyati tuzilganiga bag'ishlab ko'p ming kishilik katta miting o'tkazildi. Unda taniqli yurt arboblari: **Munavvar Qori, Mullo Odil mufti, Said G'anixon, Pirmuhammad A'lam** va boshqalar so'zga chiqib, yig'ilganlarni chinakam xalq hokimiyati – Turkiston Muxtoriyati tashkil etilgani bilan qutladilar. Miting ishtirokchilari o'lka muvaqqat hukumatini to'la qo'llab-quvvatlashlarini izhor etib, qaror qabul qildilar. O'sha davr milliy matbuoti sahifalarida Turkiston ulug'lari tomonidan muxtor hokimiyatni qo'llab-quvvatlash, uni asrab-avaylash, istiqboli uchun fidoyilik bilan kurash olib borish kerakligi xususida ko'plab maqolalar bitildi. Jumladan, Fitratning «**Muxtoriyat**» maqolasida: «...Qurultoy o'z ishini qildi. Qolganlari butun millatning vazifasidir. Muxtoriyatni saqlamoq uchun kuch lozim. Muxtoriyatni bajarmoq

uchun aqcha kerakdir. Bularni millat hozir qilsun», – deb xitob qilingandi («Hurriyat» gazetasi, 1917-yil 5-dekabr).

Turkiston sovet hukumati va uning joylardagi hokimiyat mahkamalari voqealarning bu tarzda rivojlanishiga izn bermay, muxtoriyat va uning tarafdorlarini yo'q qilish yo'lini qidirishga kirishdi. **1917-yil 13-dekabrda Toshkentda** muxtoriyatni yoqlab o'tkazilgan katta mitingning zo'rlik bilan tarqatib yuborilishi, unda sovet kuchlari otgan miltiq va pulemyotlardan ko'plab qurbonlar berilishi Turkiston Muxtoriyatiga uyushtirilgan dastlabki suiqasd edi.

Turkiston Muxtoriyati og'ir, mashaqqatli sinovlar jarayonini boshdan o'tkazayotgan bir kezda, ya'ni **1917-yil 25-dekabr kuni Qo'qonda o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarining I favqulodda qurultoyi** ish boshladi. Unda **200 ga yaqin** vakillar ishtirok etdi. Qurultoy muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish shiori ostida o'tdi. Unda o'lkaning qonuniy hukumati tarkibini musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari qurultoyi vakillari hisobiga to'ldirish to'g'risida qaror qilindi. Qurultoy o'zining so'nggi ish kuni – **27-dekabrda Petrogradga, Xalq Komissarlari Soveti Raisiga** telegramma yo'lladi. Unda Turkiston Muxtoriyatini e'tirof etish, uning to'laqonli faoliyat ko'rsatishiga izn berish so'ralgandi. Xususan, telegrammada shunday deyilgan: «...Bugun Turkiston xalqi ikkala qurultoyda Turkiston Muxtoriyatini bir ovozdand e'lon qildi va Turkiston Ta'sis majlisiga o'lkani boshqarishning so'nggi shaklini ishlab chiqish taklif etildi... Saylangan Xalq Kengashida ruslar va yevropaliklar shahar va qishloqlar aholisining 2 foizini tashkil etsa-da, biz tomonimizdan 33 foiz o'rin ajratilgan... Turkiston musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlarining birinchi favqulodda qurultoyida qabul etilgan qaror haqida ma'lumot berib, sizlardan... Toshkent xalq komissarlari sovetiga hokimiyatni Turkiston muvaqqat hukumatiga topshirish to'g'risida farmoyish berishingizni so'raymiz. Bu bilan siz Turkistonni juda katta falokatga olib keluvchi anarxiya va qo'shhokimiyatchilikdan qutqargan bo'lardingiz».

Muxtoriyatning halokati, uning saboqlari. Hukmron markaz va uning Turkistondagi vakolatli organlari o'lka xalqlarining xohish-intilishi samarasi sifatida tashkil topgan qonuniy muxtoriyat hokimiyatini zo'ravonlik bilan ag'darib tashlashga qasd qildilar. Bu razil, manfur maqsadni amalga oshirish uchun sovetlar hokimiyati tasarrufida bo'lgan hamma zarur vositalar ishga solindi. Kerakli jangovar harbiy qismlar, qurol-anjomlar shunga yo'naltirildi.

Turkiston Muxtoriyati ko'plab obyektiv va subyektiv sabablar orqasida o'zini o'zi yetarli darajada himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmadi.

Buning boisi, avvalo, uning tarixan g'oyatda qisqa umr ko'rgani (u atigi **72 kun** yashadi, xolos), shu sababdan ko'p narsalarni bajarishga ulgurolmagani bo'ldi. Qolaversa, muxtoriyatchilar orasida ko'pgina muhim hayotiy masalalarda birlik, hamjihatlik, jipslik mayjud emasdi. **1918-yil 18-fevralda** «Sho'royi Ulamo» jamiyati tashabbusi bilan muxtoriyatda to'ntarish qilinib, **Mustafo Cho'qay** boshchiligidagi hukumatning ag'darilishi va hukumat boshqaruvi Qo'qon mirshablari boshlig'i **Kichik Ergashga** berilishi buning isbotidir. Moddiy, harbiy, moliyaviy madad ko'rsata oladigan yetarli real kuchlar va imkoniyatlarning yo'qligi ham bunga sabab bo'ldi. Muxtoriyat tashqi vaziyat nuqtayi nazaridan ham o'z qobig'iga o'ralib, tashqi olamdan ajralib qoldi. Uni har tomonlama quvvatlab, harbiy, moddiy va ma'naviy jihatdan amaliy yordam ko'rsatuvchi biror-bir xorijiy davlat bilan bevosita aloqa o'rnatishga ulgurolmadi. Bu omillar Turkiston Muxtoriyati ahvolini tanglashtirib, uni pirovard oqibatda faoliyatsizlikka mahkum etdi.

Vaziyat sovet amaldorlariga qo'l kelib, ular bundan muxtoriyat hukumatini har jihatdan iskanjaga olish, uni mahv etish uchun ustomonlik bilan foydalandilar. Turkiston sovet hukumati **1918-yil 14-fevralda Farg'ona viloyatida** favqulodda harbiy holat joriy etdi. Uning Qo'qondagi mahalliy hokimiyati – ishchi va askar deputatlari soveti **17-fevralda** muxtoriyat vakillarini taslim bo'lishga da'vat qildi. Ayni vaqtda, Toshkentdan **Perfi-lev** boshchiligida qurollangan qizil qo'shin olib kelindi va u darhol ishga solindi. Qo'qondagi millatchi arman dashnoqlari ham bu g'ayriqonuniy bosqinga jalb etildi. Ayniqsa, **19 – 21-fevral** kunlari Qo'qon xalqi ustiga balo-qazo yog'ildi. Shahar o't ichida qolib, kunpayakun bo'ldi. Sovet hokimiyati Turkiston Muxtoriyati hukumatini shafqatsizlarcha tor-mor etdi.

Qo'qonda sovetlar sodir etgan qonli fojiani sovet davlati arboblardan biri **D.Manjara** ham keyinroq rostmanasiga e'tirof etgandi: *«Milliy siyosatda yo'l qo'yilgan xatolarimiz tufayli Qo'qon Muxtoriyati vujudga keldi. Uni yo'qotish paytida yana bir xatoga yo'l qo'ydik. Qurol-yarog'i deyarli bo'lmagan muxtoriyatchilar joylashgan eski shahami qamal qilish o'rniga biz to'plardan o'qqa tutdik, keyin dashnoqlarning qurolli to'dalarini ishga soldik. Natijada talon-toroj, nomusga tegish, qirg'in boshlandi. Bundan muxtoriyatchilarga aloqasi bo'lmagan tinch aholi katta zarar ko'rdi.*

Xuddi shuningdek, sovet Turkistoni organi – **«Znamya svobodi»** (Ozodlik bayrog'i) gazetasi o'zining **1918-yil yanvar** sonlaridan birida: *«Rus bolsheviklar hech qanday muxtoriyatni tan olmadi va, mazlum xalqlar o'z huquqlari va taqdirlarini haqiqatdan o'zleri belgilamoqchi bo'lganlarida, bunga yo'l qo'ymadi»,* – deb yozgandi.

### 27.3. TURKISTONDA SOVETLAR BOSHQARUV TIZIMINING MUSTAHKAMLANISHI

*Turkiston Sovet Avtonom Respublikasining tuzilishi.* Sovet hokimiyati Turkiston Sovet Avtonom Respublikasini tuzish tashabbusi, uni bevosita tashkil qilish ishlari bilan shug'ullandi. Jumladan, sovet hukumatining favqulodda komissari **P.A.Kobozev**, RSFSR millatlar ishi komissarligi xodimlari **X.Ibragimov**, **A.Sh.Klevlegev** singarilar bu ishga bosh-qosh bo'ldilar. Ular markaz elchilari sifatida mahalliy sovet rahbarlari bilan yaqin hamkorlikda yerli aholi o'rtasida zo'r berib sovet hokimiyatini qo'llab-quvvatlash, uning milliy siyosatini izchil amalga oshirishga da'vat etib faol tushuntirishlar olib bordilar.

Turkistonda sovet avtonomiyasi (muxtoriyati)ni rasmiy tashkil qilish masalasi **1918-yil 20-apreldan 1-maygacha Toshkentda** bo'lib o'tgan o'lka sovetlarining **V syezdida** ko'rib chiqildi. Bolsheviklar fraksiyasi taklifi asosida syezd qabul qilgan «**Turkiston Sovet Respublikasi to'g'risida qoidalar**»da Turkistonning RSFSR tarkibiga kiruvchi avtonom sovet Respublikasi ekani e'lon qilindi. Turkiston Avtonom Respublikasining hududiy chegaralari belgilandi. Uning oliy qonun chiqaruvchi organi sifatida **Ishchi, askar, dehqon va musulmon dehqonlar sovetlari syezdi**, doimiy faoliyat yurituvchi oliy qonun chiqaruvchi organi qilib esa **Markaziy Ijroiya Qo'mita** belgilandi. O'lkaning boshqaruvi, uning ijroiya funksiyalari **Xalq Komissarlari Kengashi** tasarrufiga berildi. Joylarda esa mahalliy sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari hokimiyat funksiyalarini bajarishi kerakligi ta'kidlandi. O'lka syezdi Turkiston aholisining ko'p millatli tarkibini hisobga olib hukumat qoshida **Milliy ishlar xalq komissarligini** tashkil qildi. Joylarda uning bo'limlari tuzilib, ularning zimmasiga turli millat kishilari o'rtasida qizg'in tashkilotchilik va siyosiy ish olib borish, milliy manfaatlarni himoya qilish vazifasi yuklatildi.

Shunday qilib, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi tuzilib, uning maqsad, vazifalari rasmiy hujjatlarda belgilangan bo'lsa-da, biroq amalda u mahalliy xalqlarning haqiqiy manfaatlarigamas, asosan, hukmron tuzum va uning o'lkadagi ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilardi. Negaki bu muxtoriyat hukumati yerli aholining milliy qiziqishlari, haq-huquqlarini himoya qilishdan ko'ra sovet hokimiyatining ildizini mustahkamlashni, Turkistonda sovetlar hukmronligi ta'sirini kuchaytirishni ko'zda tutardi. Shuning uchun ham chuqur sinfiylik tamoyillariga asoslangan o'ziga xos davlat boshqaruvida hokimiyat funksiyalari butunlay sovetlar va ularning organlari ixtiyoriga berib qo'yilgandi. Aslida, bular tarkibi, asosan,

yeвроpalik millatlar vakillaridan tashkil topgan ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlari bo'lib, musulmon dehqon deputatlari sovetlari ularga bo'ysunuvchi maqomda e'tirof etilgandi. Shuningdek, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi tuzilishida bir tomonlama – faqat hududiy tamoyillar hisobga olinib, o'lka xalqlarining milliy tamoyillari e'tirofi o'z ifodasini topmagandi. Nihoyat, yana shu narsa taajjublanarliki, Turkistonning sovet respublikasi deb e'lon qilinishi na yuridik va na siyosiy jihatdan hech bir demokratik mazmunga ega bo'lmay, u xalq xohish-irodasiga, uning qonuniy talablariga asoslanmagandi. Loqaqal buning uchun xalq roziligini sinashning ishonchli demokratik shakli – **referendum** singari tadbirlar ham o'tkazilmagandi. O'lka syezdida respublikaning hokimiyat organlari tuzildi. Turkiston Respublikasi qonun chiqaruvchi organi – Markaziy Ijroiya Qo'mitasining jami **36 a'zosidan atigi 9 nafari** mahalliy millat kishilari edi. Uning raisi etib favqulodda vakolat egasi, bolshevik **P.A.Kobozev** saylandi. Shuningdek, bolshevik **F.I.Kolesov** boshchiligida **16 kishidan** iborat tuzilgan hukumat – XKS tarkibiga ham **3 nafar** mahalliy millat vakillari kiritilgandi, xolos.

Markaziy hokimiyat Turkiston Avtonom Respublikasi jilovini to'lig'icha qo'lga olish uchun o'lkadagi mavjud bolshevistik tashkilotlarni birlashtirib, ular negizida yagona kommunistik partiya tuzishga kirishdi. Markaz ko'rsatmasi bilan bu borada ham **1918-yilning 1-yarmi** davomida qizg'in ishlar olib borildi. Safida **2 ming nafar** a'zosi bo'lgan o'lka bolsheviklari (kommunistlari)ning **1918-yil iyunda** bo'lib o'tgan **I syezdida** (unda ishtirok etgan **46 delegat** ichida atigi **6 nafari** mahalliy millatlar vakillari edi) Turkiston kompartiyasi tuzilgani e'lon qilinadi.

TKPning tuzilishi bilan Turkistondagi sovet davlatchiligi yangi xususiyat kasb etib, uning bolshevistik partiya rahbarligiga qaramligi kuchayadi. Negaki MIQ va XKS tarkibini tashkil etuvchilarning ko'pchiligi bolsheviklar partiyasi a'zolari bo'lib, uning ko'rsatma va intizom talabi bo'yicha ish yuritishga majbur edi. Qabul qiladigan qonunlarni va qarorlarni oldindan partiya MQga taqdim etish va uning roziligini olishga majbur bo'lib qoladilar. Bu hol davlat qurilishining demokratik tamoyillariga mutlaqo zid kelardi.

Turkiston avtonom sovet davlatchiligini huquqiy jihatdan shakllantirish masalasida asosiy rol Moskva va uning bolshevik yo'lboshchilari qo'lida bo'ldi. Xususan, ularning ko'rsatmalari asosida o'lkaning davlatchilik maqomi va konstitutsiyaviy negizlari belgilandi. Jumladan, Turkiston ASSRning konstitutsiyaviy tuzilishi va huquqiy maqomini shakllantirish uchun RSFSRning **1918-yili** qabul qilingan birinchi Konstitutsiyasi to'la asos qilib oindi. O'lka xalqlari hayotiga oid bu «muhim masalalar»ni hal

etish uchun **1918-yil oktyabr**da Turkiston o'lka sovetlarining **V syezdi** chaqirildi. Mazkur syezd Rossiya Federatsiyasining muhim hujjatlariga, xususan, uning Konstitutsiyasiga asoslanib Turkiston Avtonom Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qildi. U Turkistonni Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasining ajralmas, tarkibiy qismi bo'lib qolishini, o'lka xalqlarining barcha hayotiy masalalari uning mas'ulligida ekanini qonunlashtirdi. Binobarin, o'lkaning moliyaviy, mudofaa, tashqi siyosat aloqalari, temir yo'llar, savdo, moliya va shu singari muhim hayotiy sohaları RSFSR hukumati tasarrufida bo'lishi syezd hujjatlarida o'z ifodasini topdi. Syezd tasdiqlagan Turkiston Avtonom Respublikasi oliy hokimiyati – **Turkiston MIQ** tarkibiga mahalliy millat nomzodlari ham (jami **75 kishidan 20 nafari**) kiritildi.

Qabul qilingan Turkiston Konstitutsiyasi ham aniq ifodalangan sinfiy mazmunga ega bo'lib, unda o'lka xalqlari ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining milliy o'ziga xosligi, huquqiy himoyasi o'z aksini mutlaqo topmagandi. Mazkur Konstitutsiya talabi bo'yicha, «mehnatsiz daromad» hisobiga yashaydigan shaxslar, din peshvolari, rohiblar, xususiy savdogarlar, tijoratchilar, tadbirkorlar va hokazolar saylash va saylanish huquqidan butunlay mahrum etildi. Shu tarzda qonun yo'li bilan Turkiston jamiyatining ko'pgina ijtimoiy tabaqalari va guruhlari davlatni boshqarishda qatnashish huquqidan chetlatilgandi.

*O'lkada bolsheviklar hukmronligining kuchayishi.* Turkiston kompartiyasi va uning markaziy qo'mitasi tuzilganidan keyin, uning o'lka hayoti jabhalarida yuz berayotgan voqealar, o'zgarishlarga ta'siri yanada kuchaydi. Boz ustiga, bu partiyaning RKP(b)ning ajralmas, tarkibiy qismi sifatida tuzilishi, uning barcha rahbariy ko'rsatmalari, farmoyishlariga bo'ysungan holda faoliyat yuritishi markaz yo'l boshchilariga Turkistondagi butun vaziyatni o'z nazoratiga olish imkonini tug'dirdi. Turkistonda faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy sovet hukumati garchand ikki partiya vakillari – **bolsheviklar** va **so'l eserlardan** tashkil topgan bo'lsa-da, biroq mazkur tartib ham uzoq davom etmadi. **1919-yil mart** oyi boshlariga kelib o'lka bolsheviklari siquvi ostida eserlar vakillarining mahalliy sovet hukumati tarkibidan mahrum etilgani buning aniq-ravshan isboti bo'ldi. Qolaversa, sovet hokimiyatiga xavf solayotgan turli xil «aksilingilobiy» dushman kuchlar, oqimlar, yot unsurlarga qarshi kurash olib borish maqsadida **Favqulodda organlar** (ChK) yoxud **Kambag'allar qo'mitasi** singari tashkilotlarning tuzilishi ham bu jarayonga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmasdi. Chunki katta, cheklanmagan vakolatlarga ega bunday organlar o'z tezkor faoliyatini yuritish, keskin jazo choralarini



qo'llashda sovet hokimiyati nomidan ish ko'rar, kerak bo'lsa, hokimiyat organlari – sovetlarning ko'plab funksiyalari, vazifalarini ham birga qo'shib bajarardilar. Bu esa, tabiiyki, joylarda mahalliy ishchi, dehqon va askar deputatlari sovetlarining noroziligiga sabab bo'lardi. **1919-yil bahor**iga kelib o'lkaning **Andijon, Namangan, Marg'ilon** singari hududlarida ko'p sonli musulmon mehnatkashlari sovetlari o'rniga joylarda davlat hokimiyatining favqulodda organlari sifatida muvaqqat inqilobiy qo'mitalar tashkil etilib faoliyat yuritdilar. **1919-yil o'rtalariga** kelganda bunday favqulodda ish yurituvchi organlar Turkistonning ko'plab shahar va qishloq joylarida ham tashkil topib bordi.

Bolsheviklarning o'lkaning mahalliy shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlarini, tub joy aholining hayotiy manfaatlarini hisobga olmasdan yuritgan o'zboshimchalik va yakkahukmdorlik siyosati ularni oxir-oqibatda mushkul ahvolga duchor etishi tayin edi. O'lkaning ko'p sonli musulmon mehnatkashlariginamas, balki bu yerdagi ko'plab muxolifatchi siyosiy doiralar ham kuchayib borayotgan bolsheviklar yakkahokimligiga qarshi bosh ko'tara boshladi. Buning yorqin ifodasi **1919-yil 19-yanvarda** harbiy komissar **K.Osipov** tomonidan uyushtirilgan isyonda o'z aksini topdi. Bu harbiy isyon natijasida **14 nafar** Turkiston komissarlari otib tashlandi. Ular boshchilik qilgan o'lka sovet hukumati ag'darildi. Biroq sovetlarga sadoqatli kuchlar, mahalliy ishchi va askar deputatlari sovetlari, xususan, Toshkent temir yo'l korxonalarida ishchilarining qurollangan otryadlari Osipov isyonini darhol bostirib, sovet hokimiyatini saqlab qoldilar. Ko'p o'tmay Turkistonning yuqori hokimiyat organlari qaytadan tashkil etilib, ular yangi rahbar kadrlar bilan to'ldirildi.

Turkiston Muxtor Respublikasining yangi rahbarlari **1919-yil yanvar** isyoni saboqlaridan zarur xulosa chiqarib, mahalliy millat ziyolilari va kommunistlari vakillarini ham birin-ketin sovet organlari faoliyatiga tortish hamda ularning o'z mahalliy tashkilotlarini tashkil qilishlariga yo'l berishga majbur bo'ldilar. **1919-yil mart**da **Turor Risqulov (1894 – 1938)** raisligida O'lka musulmon kommunistlari byurosi (**O'lka musbyurosi**) tashkil etildi, uning organi – **«Ishtirokiyun»** gazetasi tez orada nashr etila boshlandi. O'zbek tilida chiqadigan boshqa vaqtli matbuot nashrlari soni ham ortib bordi. Mahalliy xalq orasida katta obro' va nufuz qozongan, ko'p yillik inqilobiy kurash tajribasiga ega bo'lgan **T.Risqulov, N.To'raqulov, N.Xo'jayev, A.Rahimboyev, Q.Otaboyev, S.Tursunxo'jayev, S.Segizboyev, O.Bobojonov, A.Ikromov** singari mahalliy kommunistlar, yurt rahnamolari partiya va sovet boshqaruvi ishlariga asta-sekin jalb qilib borildi. Ularning ko'plari qanday rahbariy lavozimlarda va murakkab

sharoitlarda ish yuritmasinlar, imkon qadar o'z xalqi, millati manfaatlarini ko'zlab, uning orzu-armonlarini ro'yobga chiqarish uchun doimiy kurashdilar. Masalan, Turor Risqulov **1920-yil yanvaridan iyuligacha Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi** lavozimida ishlagan davrida Turkiston xalqlarining chinakam milliy manfaatlari, ularning tub qiziqishlari, o'ziga xos jihatlariga to'la-to'kis javob berolmaydigan, faqat umumiy hududiy, sinfiy manfaatlardan nari o'tmaydigan avtonom respublika o'rniga **«Turk Respublikasi»** tuzumi g'oyasini amalga oshirish uchun sobitqadamlik bilan kurashdi.

Mazkur masalada bu fidoyi inson Moskvaga qadar borib, u yerdagi markaz rahbarlari bilan uchrashib, o'z maqsad yo'lini adolatti hal etishga intildi. Bunga erisholmagach oxiri o'z vazifasidan iste'fo berishga majbur bo'lgan. Uning o'rniga Turk MIQ raisi lavozimini egallagan taniqli mahalliy rahbarlardan yana biri **Abdulla Rahimboyevning** faoliyati ham keyinroq shunday natijasiz yakun topgan. Bunda, ayniqsa, sovet hukumati va RKP(b) MQ nomidan cheklanmagan favqulodda vakolatlar bilan **1919-yil oktyabrda** Turkistonga yuborilgan «nufuzli» **Turkkommissiyaning** o'mi va roli alohidadir. Turkkommissiyaning butun faoliyati o'lkada sovet va partiya qurilishi ishlarini jadal sur'atlar bilan olib borish, barcha kuch, vositalar, imkoniyatlarni shu asosiy maqsadga qaratish, yangi tuzum asoslarini chuqur ildiz otirish sari yo'naltirildi. Shuningdek, Turkkommissiya mutasaddilari o'z faoliyatlarida Turkiston o'lkasining ichki hayotiy masalalari va muammolari bilangina cheklanib qolmasdan, balki qo'shni davlatlar bilan ham turli sohalarda tashqi aloqalar bog'lash, muhim davlat shartnomalari va kelishuvlari tuzish huquqiga ham ega edilar. Eng ajablanarlisi shuki, o'lkadagi partiya va hokimiyat funksiyalarini o'z tasarrufiga to'liq kiritib olgan Turkkommissiya a'zolari (**V.Bokiy, F.Goloshchekin, V.Kuybishev, Y.Rudzutak, M.Frunze, Sh.Eliava**)ning butun qahri-zahri mintaqada sovet tuzumiga qarshi yo'nalgan harakatlarni barham toptirish edi. Ular «Turk Respublikasi», «Turk kompartiyasi» g'oyasini amalga oshirishga intilgan **T.Risqulov, A.To'raqulov, Q.Otaboyev** singari mahalliy aholi vakillariga zulm o'tkazish, jazolash, ularni yo'q qilish yo'lini tutdilar.

**Sovet hokimiyatining iqtisodiy siyosati, uning ogibatlari.** Bolsheviklar, butun Rossiyada bo'lgani singari, Turkistonda ham hamma narsani, jumladan, mulk turlarini, ishlab chiqarish tarmoqlarini umumlashtirish va milliyashtirish vazifalarini hal etishni bosh maqsad qilib qo'ydilar. Turkistonda o'rnatilgan sovet hokimiyati va uning barcha vakolatli organlari zimmasiga qanday qilib bo'lmasin bu «tarixiy missiya»ni hayotga izchil tatbiq etish vazifasi yuklangandi. Turkistonda bunga yetarli shart-sharoit

bormi yoki yo'qmi, yerli xalqlarning xohish-irodasi, istak-intilishi qanday – bular aslo hisobga olinmagandi. Boz ustiga, **1917 – 1918-yillarga** kelib o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol shu qadar og'irlashib, murakkab tus olib borayotgandiki, bundan, ayniqsa, mahalliy aholi benihoya aziyat chekayotgandi. Xususan, Birinchi jahon urushining mislsiz og'ir asoratlari, sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida xalqqa qilingan zulm va bedodliklar o'lka hayotini chuqur tanglik va tanazzulga duchor etgandi. O'lka sanoat ishlab chiqarishining izdan chiqishi, transport taqchilligi, ekin maydonlarining payhon bo'lishi, paxta yetishtirishning qisqarishi iqtisodiy sohani rosmanasiga halokat yoqasiga olib borib qo'yayozgandi. Mana shunday qaltis vaziyatda sovet hokimiyatining iqtisodiy sohada ko'rgan shoshilinch chora-tadbirlari o'lka hayotini sog'lomlashtirish, oyoqqa turg'izishgamas, balki uning yanada keskinlashib borishiga ta'sir ko'rsatdi. Gap shundaki, bolsheviklar rejimi avvalboshdan xususiy mulkni yo'qotishga, xo'jalik hayotining barcha sohalarida ijtimoiy davlat mulkchiligini avj oldirishga, xo'jalik tarmoqlarini qat'iy markazlashtirishga yo'l tutdi. Iqtisodiy sohani boshqarishni esa iqtisodiy usullar, uslublar bilanmas, balki ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan olib borishga e'tibor berildi. Markaz tomonidan ishlab chiqilgan va barcha hududlar uchun bir xil universal tarzda qo'llanishga qaratilgan iqtisodiy sohadagi tadbirlar Turkistonda ham to'la hajmda amalga oshirib borildi. Bunda ularning o'lka xalqlari hayoti uchun qanday oqibatlar olib kelishi mumkinligi mutlaqo hisobga olinmadi. **1917-yil kuzidan** o'lkadagi mavjud ishlab chiqarish ustidan qat'iy ishchi nazorati o'rnatila boshlandi. Ayni chog'da, Turkiston sanoatining butun-butun tarmoqlarini milliyalashtirish boshlandi. **1918-yilning dastlabki oylarida** bu yerdagi sanoatning yetakchi tarmoqlari – paxta tozalash, yog'-moy zavodlari, bosmaxonalar, banklar, temir yo'llar, ko'mir va neft konlari va shu singarilar milliyalashtirilib, davlat tasarrufiga olindi. Ularning soni **330 ga** yetardi.

Shuningdek, yer to'g'risidagi dekret asosida yer mulklarini musodara qilish, so'ngra milliyalashtirish jarayonining o'tkazilishi ham joylarda keskin noroziliklarning kelib chiqishiga turtki bo'ldi. Ayniqsa, sovet hokimiyatiga qarshi Turkistonda boshlanib ketgan qurolli harakatning kuchayishi o'lka bolsheviklari hokimiyatini tang ahvolga solib qo'ydi.

Markaz hukumati ishlab chiqqan hamda tarixga «**harbiy kommunistizm**» nomi bilan kirgan siyosatni Turkistonda keng ko'lamda qo'llashga kirishildi. Bu siyosatning asosiy yo'nalishi hamma narsani, har qanday katta-yu kichik mulklar va korxonalarni, ishlab chiqarish tarmoqlarini umumiyalashtirish, xalq xo'jaligini boshqarishni qattiq markazlashtirgan holda tashkil etishdan iborat edi. Aslida, mazkur siyosat ocharchilik

azobidan qiynalayotgan aholinimas, balki «sotsialistik inqilob» va yangi tuzumni frontlarda himoya qilayotgan qizil askarlarni, sovet hokimiyatining asosiy ijtimoiy tayanchi bo'lib qolgan ishchilar sinfini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'ygandi.

**1920-yil oxirlariga** kelib Turkistonda **1075 ta sanoat korxonasi** (ularning ko'plari mayda korxonalar edi) zo'rlik yo'li bilan milliylashtirildi. Natijada davlat korxonalari barcha ishchilarning **90 foizini** va o'lka sanoatida band bo'lgan mexanik dvigatellarning **80 foizini** qamrab oldi. Yalpi sanoat mahsulotining deyarli **3/4 qismi** davlat sektori ulushiga to'g'ri kelardi. O'lka ishlab chiqarishining o'ziga xos muhim an'anaviy tarmog'i bo'lgan hunarmandchilik va uning turlari ham ma'muriy usullar bilan birlashtirilib, hunarmandchilik artellariga aylantirildi. **1920-yil oxirlariga** kelganda Turkistonda **800 ga yaqin** shunday hunarmandchilik artellari faoliyat yuritdi. Ular, asosan, turli davlat va harbiy tashkilotlarning buyurtmalarini bajarardi.

Umumiy mehnat majburiyatining joriy etilishi ham o'lka xalqlari uchun kutilmagan favqulodda hodisa bo'ldi. Shu asosda **16 yoshdan 55 yoshgacha** bo'lgan erkak va ayollarning majburiy mehnat jarayoniga jalb qilinishi shu davrga qadar ijtimoiy soha yuzini ko'rmagan mahalliy millat xotin-qizlari uchun ham to'la taalluqli edi. Shu boisdan mazkur tadbir keng aholi ijtimoiy qatlamlarining keskin noroziligi va nafrati kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy taniqli rahbarlardan **Nazir To'raqulov** o'zining **1921-yili** so'zlagan ma'ruzalaridan birida bu siyosatning asl mohiyatini shunday ta'riflab bergandi: *«Mehnat safarbarligini shunday o'tkazishdiki, mehnatga yaroqli shahar aholisining yarmi... qishloqlarga qochib ketdi... Ahvol shu darajaga yetdiki, mehnat safarbarligi uchun zarur miqdorda odam to'plash uchun masjidlarda va boshqa joylarda odamlar qurshab, tutib olindi».*

Bolsheviklarning o'lkada yuritgan «harbiy kommunizm» siyosati, ayniqsa, mahalliy aholining tinkasini quritdi, ochlik va qahatchilikning kuchayishiga olib keldi. **1918-yil oxiriga** kelib **1 mln dan ziyod** aholi ocharchilik balosiga duchor bo'ldi. **1919-yil boshlaridan** joriy etila boshlagan oziq-ovqat razvyorstkasi va u bilan bog'liq tadbirlar majmuasi Turkiston aholisini, ayniqsa, uning qishloq mehnatkashlarini benihoya og'ir ahvolga solib qo'ydi. Negaki razvyorstka sovet hokimiyati organlariga aholi qo'lidagi jami ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarini zo'rlik bilan tortib olish, g'alla bilan oldi-sotdi qilishni taqiqlash, bozor savdosini yopib qo'yishga qadar keskin choralar ko'rishga imkon berardi. **Turor Risqulov, Nizomiddin Xo'jayev, Munavvar Qori** singari mahalliy rahbarlarning o'sha kezlarda bu siyosatni keskin qoralab, xalq manfaatlarini himoya

qilib chiqqani sababi ham shundandir. Jumladan, **N.Xo'jayev 1920-yil oxirida TurkMIQ majlisida qilgan ma'ruzasida yozadi: «Qishloq aholisi turli-tuman o't-o'lanlar bilan ovqatlanadi, shu tufayli o'lish hollari yuz bermoqda, o'lim, ayniqsa, bolalar orasida ko'p».** Ma'ruzada keltirilishicha, **Farg'ona viloyatida** aholining **35 – 40%**, shu jumladan, **Marg'ilon uyezdida 60%, Qo'qon uyezdida 50%** ochlikka duchor bo'lgan va hokazo.

**Madaniy hayot.** Ayniqsa, yangi tuzum xalq ta'limi tizimini o'z sotsialistik maqsad va g'oyalari ruhida shakllantirishga alohida urg'u berdi. **1918-yil noyabrda** Turkiston sovet hukumatining cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risidagi dekreti chiqdi. Unga ko'ra, o'lkadagi mavjud xususiy, eski diniy maktablar faoliyati taqiqlanmagan bo'lsa-da, biroq yangi sovet maktablarini tashkil qilish, ularni ko'paytirish va kengaytirish, ta'limning sinfiy mohiyatiga e'tibor tobora ustuvor ahamiyat kasb etib bordi. Maktab ikki pog'onaga bo'lindi: 1-pog'ona bilim yurtlari dastlabki uch sinfni o'z ichiga olardi va 2-pog'ona yana to'rt sinfdan iborat edi. O'rta maktab ham mavjud bo'lib, keyingi uch sinfni o'z ichiga olardi. Biroq bunday maktablar juda oz edi. Ko'proq 1-pog'ona maktablari tashkil etilgandi.

Maktablarning moddiy bazasi nochor ahvolda bo'lgan. Ularda o'quv qurollari, dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar, yetuk bilimli o'qituvchi kadrlar yetishmasdi. Turkiston xalq ta'limi bo'limi mudirlarining **1920-yil mayda** bo'lib o'tgan 1-quruftoyida ham bular aniq e'tirof etilgandi. Hokimiyat mutasaddilarining o'qituvchilarni turli yumushlarga, jumladan, harbiy harakatlarga tez-tez safarbar etishi ham ular sonining kamayib borishiga sabab bo'layotgandi. Oqibatda ko'plab maktablarda o'qituvchilar tarkibi **75%** va undan ham ko'proqqa qisqarib ketdi. Boz ustiga, jiddiy moddiy ta'minotning yo'qligidan xo'jako'rsinga tashkil etilgan maktablar mahalliy bolalarni o'z bag'riga jalb qilo'lmadi. Masalan, o'lka bo'yicha maktab yoshidagi bolalarning **70% dan ko'pi** maktabga tortilmay qoldi. Hatto poytaxt **Toshkentda**, uning eski shahar qismida maktab yoshidagi **40 ming** boladan faqat **10 ming nafari**, ya'ni **25%** o'qirdi, xolos.

Shunga qaramay, millatimiz fidoyilari xalq ta'limi tizimini yaxshilash, mahalliy aholi farzandlarini yangi sovet maktablariga ko'proq jalb qilish, ularga puxta bilim va tarbiya berish borasida astoydil faoliyat ko'rsatdilar. Bu o'rinda **O.Sharafiddinov, J.Odilov, T.Shermuhammedov, S.Sodiqov, K.Dadamuhammedov, Qori Niyoziy** singari taniqli xalq ta'limi namoyandalari nomlarini tilga olib o'tish joiz.

**1918-yil 21-aprelda** ochilgan Turkiston xalq universiteti tarkibida tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo'jaligi va texnika fakultetlari

mavjud edi. **1920-yilga** kelib unda ta'lim oluvchilarning **60%** ni mahalliy yoshlar tashkil etardi. Universitetning ta'lim-tarbiya jarayonida **Munavvar Qori, Ahmad Fayziy, Burhon Habib, Ibrohim Tohiriy, Usmon Xo'jayev, Hodi Fayziy** singari yurt allomalari fidoyilik ko'rsatdilar.

**1918-yil noyabrdan** Toshkentda yana bir oliygoh – **Sharq instituti** faoliyat boshladi. Institutga dastlab **234 nafar** talaba, shu jumladan, an-chagina mahalliy millatlar yoshlari qabul qilinib, ular Sharq dunyosi tarixi, falsafasi, geografiyasi, madaniyati, adabiyoti, san'ati sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis kadrlar bo'lib yetishishlari ko'zda tutilgandi.

**1918 – 1920-yillarda** o'lkada bolshevikcha ruhdagi ko'plab gazeta va jurnallar nashr etildi. Ular jumlasiga o'zbek tilida chiqa boshlagan «**Ishtirokiyun**», «**Xalq dorilfununi**» (Toshkent), «**Ischilar qalqoni**» (Namangan), «**Xalq gazetasi**» (Qo'qon), «**Mehnatkashlar tovushi**» (Samarqand) singari matbuot nashrlarini kiritish mumkin.

Milliy vatanparvar ziyolilar, bolshevistik g'oya va mafkuraning har qanday tazyiqi va to'sqinligiga qaramay, o'z asarlarida xalq dili, ruhiyati, kayfiyati va uning intilishlarini ifoda etdilar. **Cho'lpon, Fitrat, Tavallo, Karimbek Kamiy, M.Siddiqiy** ijodiyotida buni yaqqol kuzatish mumkin. Shuningdek, **1919-yili Fitrat** tomonidan tuzilgan «**Chig'atoy gurgungi**» tashkiloti va uning tevaragiga uyushgan ilg'or ziyolilar ham milliy birlik va mustaqillik g'oyasiga sodiq holda qizg'in faoliyat yuritdilar. O'zbek ziyolilari va ijodkorlari qiyin va murakkab sharoitlarda ham o'z ijodlariga yo'l topib, xalqchil asarlar yaratib, yorqin iste'dodlarini namoyon etib bordilar. Mashhur shoir va dramaturg **Hamza Hakimzodaning 1918-yili Farg'onada** tuzgan **O'lka musulmon siyosiy drama truppasi**, atoqli aktyor va rejissyor **Mannon Uyg'urning Toshkentda** tashkil qilgan «**Turon**» truppasi kurtak yozib borayotgan o'zbek milliy san'atining ilk namunalari bo'ldi. Xususan, mazkur truppalarga uyushgan **Muhiddin Qori Yoqubov, Hoji Siddiq Islomov, Tamaraxonim, Abror Hidoyatoy, Obid Jalilov, Sayfi Olimov** va boshqalar keyinchalik milliy teatr san'atimizning yetuk darg'alari bo'lib yetishdilar.

## **27.4. TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI HARAKAT**

*Sovet hokimiyatiga qarshi harakatning yuzaga kelishi.* Birinchidan, xalqimiz **1917-yili** sodir etilgan fevral va oktyabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandi. Ular ilg'or jadidchilik harakati rahnamoligida Rossiyada rivojlanib borayotgan demokratik harakatlardan foydalanib erk,

ozodlikni qo'lga kiritmoqchi, o'lka xalqlarini mustaqillikka olib chiqmoqchi bo'lgandilar. Biroq sovet hokimiyati o'rnatilgach, zo'ravonlik avjga mindi. Ikkinchidan, mahalliy xalqqa butunlay yot kommunistik mafkurani bayroq qilib olgan sovet zulmkorlari aholining milliy qadriyatlari, udumlari, diniy e'tiqodini tahqirlash, kamsitish, masjid, madrasalar, ziyoratgoh joylarni oyoqosti qilish, noyob ma'naviy bisotlarni talash, dindorlarni ta'qib-u quvg'in ostiga olish kabi nomaqbul ishlar bilan shug'ullandilar. Uchinchidan, o'lka xalqlarining xohish-irodasi ifodasi sifatida vujudga kelib, ularning milliy manfaatlarini yo'lida ilk qadamlar qo'yib borayotgan Turkiston Muxtoriyatining qonga belanishi, yurt farzandlarining qirg'in qilinishi, Qo'qon shahri ya uning atrofidagi qishloqlar begunoh aholisining ayovsiz talon-toroj aylanishi va fojiga giriftor etilishi mahalliy xalq sabr-kosasini limmo-lim to'ldirgandi.

Otmeros zaminida o'z milliy davlatchiligini barpo etib, boshqa millatlardek emir-erkin yashashga bel bog'lagan, yurt jilovini qo'lga olishga intilgan xalqqa, uning vatanparvar rahnamolariga nisbatan sovet tuzumi uyushtirgan bunday g'ayriqonuniy qirg'inbarotlar butun Turkistonni oyoqqa turg'izdi. Dilda toptalgan Vatan, xalq dardi, armoni jo'sh urgan yuz minglab kishilarning qo'lda qurol bilan sovetlar zo'ravonligiga qarshi kurashi mana shu zaylda boshlanib ketdi.

*Farg'ona vodiysida qarshilik ko'rsatish harakati.* O'lkada boshlangan qarshilik ko'rsatish harakatining eng dastlabki qaynoq markazlaridan biri **Farg'ona vodiysi** bo'ldi. Bu harakatga xalq g'am-alamiga hamdard va sherik bo'lgan **Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo'ja eshon, Omon Polvon, Rahmonqul, To'ychi, Aliyor qo'rboshilar** yetakchilik qildi. **1918-yil bahoridan** vodiyning turli joylarida **40 dan ziyod** qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsata boshladi. Jumladan, *Madaminbek Skobelev (Farg'ona) uyezdida, Shermuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Polvon, Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon atrofida, Kichik va Katta Ergashlar Qo'qon atrofida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda* harakat qilmoqda edilar. Kichik Ergash qizillar qo'shini bilan kechgan jang-u jadalda halok bo'lganidan so'ng (**1918-yil fevral**), Qo'qon uyezdi tevarigidagi harakatga Katta (mulla) Ergash boshchilik qila boshladi. **1918-yil kuziga** kelib uning qo'l ostida har birida **20 tadan 1800 nafargacha** yigiti bo'lgan **70 ta** qo'rboshi dastalari harakat qilayotgandi. Ulardagi jangchilarning umumiy soni **15 mingga**, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, **20 – 24 mingga** yetardi. Xuddi shu davrda *Madaminbekning 5 ming, Shermuhammadbekning 6 ming, Xolxo'janing 3 mingdan ziyod,*

*Parpi qo'rboshining 3,6 ming, Jonibekning 5,7 ming, Muhiddinbekning 4,5 ming* jangovar yigitlari ozodlik kurashiga otlangandilar. Bu raqamlar sovet hokimiyatiga qarshi kurashning ommaviy tus olib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish zarur edi. Shu bois qo'rboshilarning bir necha bor qurultoylari chaqirilib, ularda muhim hayotiy masalalar hal etilgani bejizmas. Dastlabki shunday qurultoy **1918-yil martida** Qo'qon uyezdingin **Bachqir qishlog'**ida o'tkazildi. Unda Katta Ergash butun Farg'ona vodiysidagi harakatning rahbari etib saylandi. Unga musulmon qo'shinlarining bosh qo'mondoni – «**amir al-muslimin**» unvoni beriladi. Madaminbek va Shermuhammadbek esa uning o'rinbosarlari etib saylanadilar. Biroq bu harakat ko'lamining o'sib, kengayib borishi, uning saflariga yangi ijtimoiy qatlamlar, tabaqalar vakillarining qo'shilishi, tabiiyki, ulkan mas'ul vazifalarni, yangi muammolarni keltirib chiqara bordi. Ularni hal etish esa kurash rahnamolaridan katta matonat, kuchli iroda, yuksak harbiy mahorat, tashkilotchilik qobiliyati va uzoqni ko'ra bilish salohiyatini taqozo etardi.

Farg'ona qo'rboshilari ichida **Madaminbek Ahmadbek o'g'ligina** mana shunday noyob fazilattar sohibi ekani bilan ajralib turardi. Navqiron yoshda bo'lishiga qaramay, katta hayot va kurash tajribasi, yurt kezgan, yuksak harbiy sarkardalik iste'dodiga ega **Madaminbek (1892 – 1920)** tez orada vodiy kurashchilari sardoriga aylanadi. Sovetlarning rasmiy hujjatlaridan birida: «O'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona Muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlarga ega edi. U bizning rahbarlik faoliyatimizda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarimizdan ustalik bilan foydalanaardi. Uning o'z «boshqaruv apparati, o'zining «tribunali», o'zining «genshtabi» bo'lgan. U qonunlar chiqargan», – deb e'tirof etadi Madaminbekka qarshi kurashgan **Gramatovich**. Buni boshqa qizil qo'shin boshliqlari ham tan olganlar. **1919-yil o'rtalariga** kelib uning yigitlari soni **25 ming** nafardan oshardi. **Skobelev, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh** kabi hududlarda harakat qilayotgan taniqli qo'rboshilar, ularning jangchilari Madaminbekning yashil bayrog'i ostiga birlashayotgandi. Madaminbekning xalq lashkarlari, ayniqsa, **1919-yil 1-yarmida** sovet qo'shinlariga qarshi bir qator sezilarli zarbalar berdilar. Chunonchi, **yanvarda Marg'ilon, fevralda Skobelev va Chust** shaharlarining Madaminbek tomonidan egallanishi, ularda mahalliy xalq manfaatiga javob beradigan bir qator muhim amaliy tadbirlarning o'tkazilishi uning obro'sini yanada ko'tarib yubordi. **1919-yil aprel** oyida Madaminbek yigitlari **Namangan** va **Qo'qon** shahri atroflaridagi janglarda g'olib keldilar. «*Madaminbek turli*



siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo'lmagan edi», – deb yozgandi muxoliflaridan biri o'sha kezlarda.

Darhaqiqat, qarshilik ko'rsatish harakatining ijtimoiy tarkibini kuzatar-kanmiz, bunda aholining sovet tuzumidan norozi bo'lgan turli-tuman ijti-moiy qatlamlari, chunonchi, dehqonlar, hunarmandlar, kosiblar, batraklar, mardikorlar, ziyolilar, dindorlar, ruhoniylar, mahalliy boylar, amaldorlar u yoki bu darajada faol ishtirok etgani ayon bo'ladi.

Xususan, sovet hokimiyati organlarining mahalliy aholiga nisbatan yuritgan o'ta millatchilik, shovinistik va bosqinchilik siyosati yurt odamlari-ni oqibatda bu tuzum dushmaniga aylantirdi va o'z erki, huquqi, ozod-ligini himoya qilish uchun kurashga chorladi. Farg'ona fronti qo'mondoni **M.Frunze** ham: «...*Bu yerdagi sovet hokimiyati ilk tuzulish davrida rus va yerli ishchi, dehqon ommalarini o'ziga tortish o'miga mehnatkash xalqni o'zidan uzoqlashtirish uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi. Ishlab chiqarishning natsionalizatsiya qilinishida faqat burjuaziyaning mulki emas, balki o'rtahol dehqonlarniki ham tortib olindi... Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba'zi rah-barlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlarini bilan hisoblashmadi, uning arz-u dodiga quloq solmadi. Bosmachilik harakati shu asosda vujudga keldi. Bosmachilar – oddiy qaroqchilar emas. Shunda ularni tez yo'q qilish mumkin bo'lardi*», – deb e'tirof etgandi.

TASSR XKS raisi **Q.Otaboyev 1922-yil iyulida** Turkiston MIQ 4-plenu-mida so'zlagan nutqida bu harakatni xalq qo'zg'oloni sifatida baholagandi: «*Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bilmadik, u xalq qo'zg'oloni bo'lgani holda, bosmachilik deb atadik. Bosmachilik mohiyatan talonchilik degan ma'noni anglatadi, bizning ushbu harakatga bergan noto'g'ri ta'rifimiz masalani hal etishda noto'g'ri yondashuvlarga olib keldi. Va alaloqibat 4 yil davomida biz bu harakatning biron-bir jihatini tugata olmadik*».

Madaminbek lashkarlarining jangovarlik harakatlari keng hududlarga yoyildi. Bu davrga kelib **Monstroving** rus krestyanlari (dehqonlari)dan tashkil topgan ancha ta'sirli harbiy qismlari Madaminbek kuchlari bilan birlashdi. Bu hol xalq kurashining nafaqat ijtimoiy tarkibiga, ayni chog'da, milliy tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatar, uning maqsad-vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etardi. Gap shundaki, bunga qadar sovetlarga qarshi harakat saflarida yerli millat kishilari qo'lni qo'lga berib kurashib kelayotgan bo'lsalar, endilikda unga sovetlar siyosatidan keskin norozi rus dehqonlari ham qo'shilgandi. Bu o'zgarish **1919-yil**

oktyabrda Pomirning **Ergashtom ovulida** Madaminbek tarafdorlari tashabbusi bilan **Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati** tuzilishida ham o'z ifodasini topgandi. Hukumat tarkibi **24 kishidan** iborat bo'lib, uning **16 vakilini** musulmonlar va **8 nafarini** ruslar tashkil etardi. Farg'ona hukumati boshlig'i va musulmon qo'shinlari bosh qo'mondoni etib Madaminbek saylangandi.

**1919-yil oktyabr oyi oxirlarida** Andijonga yaqin **Oyimqishloqda** to'plangan vodiy qo'rboshilarining qurultoyida vodiya harakat qilayotgan **150 ga yaqin** jangovar qismlarni o'z ta'sirida ushlab turgan **4 yirik** lashkarboshi: **Madaminbek, Katta Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja eshon** qo'mondonliklarini birlashtirishga kelishildi. Qurultoyda islom qo'shinlari bosh qo'mondoni – «amir al-muslimin» etib Madaminbek saylandi. Biroq bu birlashuv ham mustahkam bo'lib chiqmadi. Masalan, Xolxo'ja eshon tez orada o'z kuchlarini ajratib, mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Bu davrda Madaminbek qo'l ostida **30 mingga yaqin, Shermuhammadbekda 20 ming, Katta Ergash qo'rboshida esa 8 ming** jangovar qo'shin bo'lib, uchta lashkarboshi vodiydagi kurash harakatlarini boshqarib turardi. Biroq vodiydagi jangovar harakatlarning keyingi borishi tashabbusning ko'proq tajovuzkor sovet qo'shinlari qo'lga o'tishiga, qarshilik ko'rsatish harakatining pasayib borishiga olib keldi.

**1920-yil boshlarida** sovet qo'shinlari Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek va Xolxo'ja kuchlariga sezilarli zarbalar berdi. Jumladan, **1920-yil yanvarida** qizillar Katta Ergash kuchlariga zarba berib, uning tayanch markazi **Bachqirni** egalladi. Xuddi shu vaqtda sovet qo'shini Monstrovning dehqonlar armiyasini tor-mor keltirib, **Gulcha qal'asini** ishg'ol etdi. Monstrovning o'zi asir olindi. **Fevralda Garbuva – Qoratepa – Shahrixon** yo'nalishida qizil qo'shinlar Shermuhammadbek lashkariga kuchli zarba berdi. Buning natijasida Shermuhammadbek yengilib, **Oloy vodiysi** tomon chekindi. Ayni paytda, qizillar Norin va Qoradaryoning qo'shilish joyida Madaminbek askarlariga qarshi muvaffaqiyatli jang qilib, unga katta talafot yetkazdilar.

Ayyor sovet hukumati taklifiga ko'ra Madaminbek **1920-yil martida** sovet qo'mondonligi bilan muzokara olib bordi va sulh tuzildi. Bu sulh shartlariga asosan Madaminbek o'z harakatlarini to'xtatdi, uning **1200 nafardan ziyod** askar yigitlari daxlsizligi, o'z qurol-yarog'lariga ega bo'lishi, zarurat tug'ilsa, ularning vodiya tinchlik, barqarorlik o'rnatishda o'z rahnamosi yetakchiligida faol ishtirok etishi ta'kidlangandi. Madaminbek o'zining boshqa safdoshlariga ham sovetlar bilan muzokaralar olib borib, shunday yo'l tutishni maslahat beradi. Biroq Farg'ona qo'rboshilari

yo'lboshchilari Shermuhammadbek va Xolxo'ja eshon o'z huzurlariga muzokara uchun kelgan yurtning bu mard o'g'lonini sotqinlik va xoinlikda ayblab qatl ettiradilar. **1920 – 1923-yillar** davomida vodiy hududlari bo'ylab olib borilgan kurashlarga aka-uka **Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek**, ulardan so'ng **Islom Polvon** va **Rahmonqul** yetakchilik qildilar. Mazkur qahramonlarning jasorati, haq va ozodlik yo'lidagi fidoyiligi xalq xotirasida muhrlanib qoldi.

Vodiyda yoqilgan sovetlarga qarshi harakat mash'alasi keyinchalik Turkistonning boshqa hududlariga ham yoyildi. Sovet hokimiyatining zulmi va zo'ravonligiga qarshi kurash **Buxoro** va **Xorazmda**, **Samarqand viloyatida** ham aks sado berdi.

*Sovet hokimiyatiga qarshi harakatning mag'lubiyati sabablari.* Yurt farzandlari uzoq yillar davomida tengsiz jang-u jadallarga dosh berib, so'nggi nafaslariga qadar Vatan oldidagi burchini ado etdilar. Bu ularning ona zaminga mehri, sadoqati nechog'liq beadam bo'lganini, undan ruh, madad olib erkinlik uchun jasorat ko'rsatib kurashganini to'la isbot etadi. Bejiz Madaminbek: «*Mening millatim – mening jon-u dilim!*» – deb xitob qilib, uni o'z hayoti va kurashining bosh mazmuni deb bilmagandi. Shermuhammadbek tilidan aytilgan: «*Turkiston turkistonliklar vatanidir, undan boshqa hech kim uning ustidan hukmronlik qilishga haqli emas!*» – degan jangovar shior ming-minglab quroldosh yig'itlari uchun harakat dasturi rolini o'tagani shubhasiz.

Lekin mazkur kurash nechog'liq shiddatli kechmasin, o'z nihoyasiga yetolmadi. Bunga esa ko'plab jiddiy salbiy holatlar va omillar ta'sir etgani aniq. Eng asosiy sabablardan biri harakatning aholi barcha tabaqalarini ulug'vor maqsadlar yo'lida jipslashtirishga qodir yagona milliy g'oyaga ega emasligidir. Qo'rboshilar siyosiy kurashda toblangan ilg'or jadid namoyandalarini ham o'zlaridan chetlashtirgandilar. Zero, qanchalik oliyjanob maqsadlar, jangovar shiorlar o'stida jon fido etmasinlar, ularning harakati yagona kurash dasturi asosida tashkil etilmagandi. Harakat yetakchilari saflarida chinakam uyushqoqlikning yetishmasligi, joylarda harakat qilgan kuchlar o'zlarining tor hududiy chegaralari bilan o'ralashib qolgani, ayrim qo'rboshilarning o'z nafsoniyatlariga berilishi, dunyoqarashi torligi, cheklangani, manmanlik kasaliga chalingani, bir-birlari bilan kelisholmasligi, o'zboshimcha xatti-harakatlarga intilishi kabi hollar oxir-oqibatda mazkur kurashning borishiga jiddiy monelik qildi. Buni butun vodiy bo'ylab harakat qilgan uchta yirik yetakchi: Madaminbek, Shermuhammadbek va Katta Ergash boshchiligidagi xalq lashkarlarining to'liq birlasholmagani ham isbotlaydi.

Qarshilik ko'rsatish harakati yetarli moddiy-ta'minot va zaxirasiga

ham ega emasdi. Ular chetdan keladigan harbiy madad va yordamga ham umid qilolmasdilar. O'lka zo'ravoni bo'lib olgan sovetlar esa o'z qo'shinini zamonaviy qurol-yarog'lar va harbiy kuch bilan ta'minlay olgandi. Masalan, **1919-yil avgust oyi oxirlarida uning tasarrufida 115 376 nafar jangchi**, shuningdek, **11 112 ta pulemyot, yuzlab to'plar, bronepoyezdlar, o'nlab samolyotlar** va boshqa zamonaviy qurollar mavjud edi. Sovetlar tashkil qilgan Turkiston fronti o'zlariga qarshi tuzilgan kuchlarni qonga belashda mana shu qirg'in qurollarini to'liq ishga solgandi. Ayyorlikda pixini yorgan sovet mutasaddilari va ularning ko'p sonli gumashtalari har bir vaziyatdan ustomonlik bilan foydalandilar. Kerak bo'lsa, yo'l qo'ygan qo'pol xatolarini tuzatib, yon berib, mahalliy aholi noroziligini yumshatib, ularni o'z tomoniga ag'darib olishga urindilar. Jumladan, **20-yillar boshlarida** vodiy aholisi o'rtasida bir qator amaliy tadbirlar o'tkazib (chunonchi, dehqonlarga yer berish, ularni afv etish, soliqlar miqdorini bir qadar kamaytirish, Madaminbek singari taniqli qo'rboshilar bilan muzokaralar olib borish, ular bilan kelishish, o'zaro yon berish va hokazo), bu hududdagi ahvolni asta-sekin o'z foydalariga o'zgartirib bordilar. Sovet mafkurasining butun o'tkir tig'i, ta'sir vositalari mana shu maqsadga yo'naltirilgandi. Bu esa qarshilik ko'rsatish harakatining istiqboliga salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmadi.

## **27.5. XORAZM VA BUXORODA DEMOKRATIK HARAKATLARNING O'SIB BORISHI. XONLIK VA AMIRLIKNING QULASHI**

*Xiva xonligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Yosh xivaliklar faoliyati.* 1917-yilgi inqilobiy o'zgarishlardan keyin Xivada ilg'or demokratik harakatlar avj oldi. Endilikda **Xiva xonligi** fevral o'zgarishidan foydalanib o'zini Rossiya ta'siridan xalos etib, mustaqillik maqomini qo'lga kiritishga intildi. Ayni chog'da, xonlikning jafokash xalqlari hukmron sinflar, tabaqalar zulmidan qutulib, keng demokratik erkinliklar va huquqlarga ega bo'lishga umid bog'ladilar.

Xiva xonligi hududida demokratik yo'nalishdagi harakat o'sib bordi. Ularning sa'y-harakatlariga **Yosh xivaliklar** tashkiloti rahnamolari yetakchilik qildi. 1917-yil boshlarida Rossiyada bo'lgan o'zgarishlar ta'sirida yosh xivaliklarning faoliyati yanada kuchaydi. Ular o'z dasturiy vazifalarini belgilab, xonlikdagi siyosiy vaziyatni o'zgartirish va qator muhim demokratik islohotlarni amalga oshirishga urindilar. Shu maqsadda yosh xivaliklar rahbarlari xonlikning o'ziga xos maxsus xususiyatlaridan kelib chiqib tinchlik yo'li bilan asta-sekin mutlaq monarxiya tuzumidan konstitutsion

monarxiya boshqaruviga o'tishga qaratilgan manifest ishlab chiqdilar. Manifestda xonning vakolatlari doirasini cheklash, uning xalqqa nohaq zulm o'tkazgan, haddidan oshgan amaldorlarini jazolash, vazifalaridan mahrum etish, ijtimoiy hayotning muhim sohalari – iqtisodiyot, ta'lim va madaniyat jabhalarini isloh qilish talablari aks ettirilgandi. Xivadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin tus olayotgani, keng aholi qatlamlari faol harakatga kelayotganini, ommaviy ko'cha namoyishlari to'xtamayotganini ko'rgan Xiva xoni **Asfandiyorxon** murosas-yu madoraga borib o'z arkoni davlati ishtirokida **1917-yil 5-aprelda** manifestni imzolashga majbur bo'ladi.

Manifest talablariga ko'ra, xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Ayni paytda, tarkibi **30 – 50 kishidan** iborat ruhoniylar va savdo-sanoat ahli vakillaridan saylangan **Majlis** va **Nozirlar Kengashi** tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruv organlari sifatida xon hokimiyati vakolatlarini ma'lum darajada chekladi.

Yosh xivaliklar tashkilotining taniqli rahnamalaridan **Boboovun Salimov Majlis raisligiga**, **Husaynbek Matmurodov** esa **Nozirlar Kengashi raisligiga** saylandi. Xon xazinasi va uni tasarruf qilish ustidan nazorat o'rnatildi. Xon temir yo'llar qurish, pochta-telegraf aloqalari o'rnatish, yangi jadid maktablari ochish to'g'risida va'dalar berdi. Yosh xivaliklarning bu g'alabasi mamlakatdagi barcha demokratik kuchlarga, erk va ozodlikka tashna xalq ommasiga quvonch bag'ishladi. Biroq yuqoridan amalga oshirilgan mazkur o'zgarishlarning vaqtinchalik xarakteri tez orada ma'lum bo'ldi. Xon va uning atrofidagi mutaassib kuchlar qo'ldan ketgan nufuz va imtiyozlarini qaytarib olish niyatidan voz kechmagandilar. Ular fursat kutib demokratiya tarafdorlaridan qonli o'ch olish, mustabid tuzumni to'la qayta tiklash payida bo'ldilar. Darhaqiqat, **1917-yil iyuniga** kelib Asfandiyorxon o'zini o'nglab olgach Rossiya muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general **Mirbadalov** yordamiga tayanib Matmurodov boshchiligidagi yosh xivaliklar rahbar guruhini qamoqqa oladi. Yosh xivaliklar partiyasi va uning faoliyati qonundan tashqari deb e'lon qilindi. Ularning ko'plari qo'lga olinib qamaldi, qattiq jazolandi. Qolganlari esa xonlik hududini tark etishga majbur bo'ldi. **Iyul** oyida Xivada Rossiya Muvaqqat hukumatining komissari lavozimi ta'sis etildi va xonlikka qo'shimcha harbiy qismlar, kazak qo'shinlari yuborildi.

**Xorazm Xalq Sovet Respublikasining yuzaga kelishi.** **1917-yil kuzida** Rossiyada oktyabr o'zgarishi uning tasarrufidagi Xiva xonligidagi voqealarning rivojlanish jarayoniga ham sezilarli ta'sirini o'tkazdi. Avvalo, xonlikka tutash bo'lgan Turkistonda bolsheviklarning sovetlar hokimiyati

zo'ravonlik bilan o'rnatildi. Bunday tuzum Xiva bilan yaqin chegaradosh Amudaryoning o'ng sohili – **Petroaleksandrovsk** (To'rtko'l) va uning atroflarida ham qaror toptirildi. Turkistonda voqe bo'layotgan bunday o'zgarishlar xonlikka bevosita daxl etmasdan, muxolifatchi kuchlarni jumbishga keltirmasdan qolmasdi, albatta. Sovet Rossiyasi Xivaning davlat mustaqilligini rasman tan olgan bo'lsa-da, biroq turli yo'llar bilan, yashirin va oshkora tarzda uning ichki ishlariga aralashishni davom ettirdi. Ayniqsa, bunda xonlikdagi mavjud hukmron tuzumga qarshi turgan kuchlarni qo'llab-quvvatlash, ularga harbiy, moddiy-moliyaviy va ma'naviy yordam ko'rsatish va g'ijg'ijlashga alohida urg'u berildi. Shu bilan birga, xonlikning siyosiy ahvoli ham **1917-yil kuzidan** keskinlashib bordi. Asfandiyorxon har qanday yo'l bilan o'z saltanatini saqlab qolishga intildi. Uning yuritgan kaltabin siyosati, ilg'or kuchlarni quvg'in va ta'qibga uchratishi, Yosh xivaliklar tashkilotini tor-mor etib, ularning rahbarlaridan o'ch olishi xonlikni tang ahvolga soldi. Xonlikning **Qo'ng'iro't, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Taxta, Porsu bekliliklarida** mahalliy aholining tuzumga qarshi bosh ko'tarishi, haddidan oshgan amaldorlardan o'ch olish hollari yuz berdi. Masalan, **Toshhovuz bekligi** kambag'allari **1918-yil boshida** beklilik mahkamasi-ga hujum uyushtirdi. Ular ko'plab boylar va savdogarlarning mol-mulki, don-dunini tortib oldilar. Bunday voqealar boshqa hududlarda ham qayd etildi. Boz ustiga, mamlakatdagi vaziyatni boshqarolmay qolgan xon o'z raqibi, ancha ta'sirli kuch egasi, turkmanlar sardori **Junayidxonni 1918-yil yanvarida** Xivaga chaqirib, uni o'z qo'shiniga bosh qo'mondon (**sardori karim**) etib tayinlaydi. Junayidxon esa tez orada Asfandiyorxonni qatl ettirib, uning o'miga akasi, irodasiz **Said Abdullani** xon qilib ko'taradi. Amalda Junayidxon yakka hukmron bo'lib oladi. Bolsheviklar va sovet hokimiyatining ashaddiy dushmani Junayidxon hokimiyatni egallab olgach sovetlarga qarshi ochiq kurashga kirishdi. U o'z harbiy kuchlarini **10 ming jangchiga** yetkazadi. Shuningdek, Buxoro amirligi bilan aloqalar bog'laydi. Angliya hukumati tomonidan harbiy madad olishga intiladi. Biroq Junayidxon harbiy qismlarining Amudaryo bo'limi va Nukus atrofida sovet kuchlari bilan olib borgan hujum harakatlari mag'lubiyatga uchradi. Junayidxon o'rnatgan harbiy diktatura aholi o'rtasida norozilik harakatlarining o'sib, kuchayib borishiga sabab bo'ldi. Buning natijasida xonlikni tark etib, qo'shni Turkiston ASSR hududiga boruvchi qochoqlar soni ortib bordi. Xivadagi voqealar rivojini kuzatib turgan sovet tomoni qulay fursatni boy bermay xonlik aholisi norozilik harakati-ga tobora inqilobiy tus berib bordi. Shu maqsadda sovet mutasaddilari qochoqlardan jangovar qismlar tuzib, qurollantirib, ularni xonlik tuzumini

ag'darishga safarbar eta boshladi. Sovet Turkistoni rahbarlari bu bilan ham kifoyalanmasdan, Amudaryo bo'limi (To'rtko'l)da **N.A.Shaydakov** va **N.M.Sherbakov** boshchiligida shimoliy va janubiy harbiy dastalar tuzib, ularni xonlik tuzumiga qarshi harakatga yo'lladi. Bu endi xonlik hokimiyatini ag'darib tashlashga qaratilgan sovetlarning ochiqdan ochiq zo'ravonligi edi. Xonlikda kechayotgan zulmdan norozi aholidan tashkil topgan dastalar ham harakatga keladi. Ularning umumiy soni **3 mingdan** oshardi. **1919-yil dekabrning** so'nggi dekadasida boshlangan sovet qo'shinlari va ularga qo'shilgan mahalliy qo'zg'olonchi kuchlarning harbiy yurishi **yanvar** oyida Junayidxonga ketma-ket zarbalar berib, Xiva tomon siljib bordi. **1920-yil 2-fevralda** Xiva egallandi. Junayidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekindi. Qo'g'irchoq xon Said Abdulla taxtdan voz kechdi. Shu tariqa qizil armiya kuchi va madadi bilan Xiva xonligi ag'darildi. Hokimiyat yangidan tuzilgan 5 kishidan iborat **Muvaqqat inqilobiy qo'mita** qo'lga o'tdi. Uning tarkibiga yosh xivaliklar va turkman urug'-qabilalaridan ikkitadan vakil kiritildi. Inqilobiy qo'mita raisi etib yosh xivaliklar rahbarlaridan biri **Jumaniyoz Sultonmurodov** saylandi.

Tez orada yosh xivaliklar ishlab chiqqan manifest e'lon qilindi. Unda mamlakatning demokratik rivojlanish yo'lini aks ettirgan keng sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tadbirlar: *«Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq boshqarishni butkul barham toptirish; Xiva xoniga, to'ralar va vazirlarga tegishli bo'lgan mablag'lar va mulklarni xalq mulki deb e'lon qilish; kambag'allar hayotini yaxshilash yo'lida yirik zamindorlar yerlaridan foydalanish; bolalarni bepul o'qitish uchun Xivaning hamma joyida maktablar ochish; Xivaning shaharlari va aholi manzilgozlarida bepul shifoxonalar va sog'lomlashtirish muassasalari ochish; Xiva xoni va beklari tomonidan kambag'al aholidan tortib olingan yerlar, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish; majburiy mehnatga jalb qilish (begor) ni butunlay yo'q qilish»* nazarda tutilgandi.

**1920-yil 27 – 30-aprel** kunlari Xivada bo'lib o'tgan **xalq vakillari I Butunxorazm qurultoyi** Xiva xonligi tugatilgani va **Xorazm Xalq Sovet Respublikasi** tuzilganini e'lon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Unda *«Xorazm davlatining davlat tuzumi sovetlar negiziga asoslangan respublika ekani, Xorazmning butun xalqi o'z vakillari yordamida mamlakatni boshqarishi»* ta'kidlanadi. Respublikaning oliy hokimiyati yilda bir marta chaqiriladigan **Qurultoy** bo'lib, u respublika hayotiga daxldor eng yirik vazifalarni hal etardi. Qurultoy mamlakatni boshqarish uchun **15 kishidan iborat hukumat – Xalq Nozirlar Kengashini** sayladi.

Xalq hokimiyatiga saylovlar umumiy bo'lib, respublikaning **18 yoshga** yetgan fuqarolari, millati, jinsidan qat'i nazar, qurultoy yoxud mahalliy sovetlarga saylash va saylanish huquqiga ega bo'ldilar. Faqat xon va uning oila a'zolari, ruhoniyat vakillari, sudxo'rlargina saylov huquqlaridan mahrum etildi. Konstitutsiya respublikaning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib shariat sudi tizimini saqlab qoldi.

Qurultoyda Xorazm Respublikasining birinchi hukumati raisligiga yosh xivaliklar rahbari **Polvonniyoz Yusupov** saylandi. Hukumat tarkibi ham yosh xivaliklar va turkman urug'-qabilalari boshliqlaridan tashkil topgan bo'lib, bu o'sha davrdagi kuchlar nisbatini aks ettirardi. **1920-yil iyunida** Xivada Xorazm kompartiyasining ta'sis konferensiyasi bo'ladi. Unda XKPning tashkiliy rasmiylashuvi amalga oshadi. Bu davrda Xorazm kommunistlari soni **1000 kishi** atrofida bo'lib, ular **22 ta** partiya yacheykalariga birlashgandi. **1920 – 1921-yil boshlariga** kelib Xorazmda kasaba uyushmalari, «Qo'shchi» uyushmalari, inqilobiy yoshlar ittifoqi tashkilotlari yuzaga keldi. Ularning saflari ham tez kengayib bordi. Masalan, **1921-yil bahorida** «Qo'shchi» tashkilotlari **6 mingdan ziyod** dehqonni o'z safiga birlashtirgandi.

Xorazmda sovetlarning faol ko'magi, qo'llab-quvvatlashi bilan xalq sovet respublikasining vujudga kelishi Rossiya Federatsiyasi, qolaversa, Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi uchun ayni muddao bo'ldi. Ular yosh respublikaga asta-sekin ta'sir o'tkazib, uni o'z domiga ilintirishga intildilar. Asosiy maqsad esa Xorazmga «beg'araz yordam» ko'rsatish, sovet tartib-qoidalarini tashkil etish orqali uni pirovardida bolsheviklar hokimiyati qo'l ostiga kiritib olish edi. Jumladan, **1920-yil 13-sentyabrda** Rossiya hukumati bilan XXSR o'rtasida imzolangan ittifoq shartnomasi ham asl mazmun-mohiyati bilan mana shu maqsadga xizmat qilardi. Ittifoq shartnomasi bilan birga ikkala respublika o'rtasida imzolangan harbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar asosida Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga sovet Rossiyasi tomonidan tegishli harbiy, iqtisodiy va madaniy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgandi.

XXSR va RSFSR o'rtasida tuzilgan ittifoq shartnomasi hamda harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahdlashuvlar, bir tomondan, Xorazm Respublikasi pozitsiyasining mustahkamlanishiga, ikkinchi tomondan, uning qudratli Sovet davlatiga siyosiy qaramligi yanada kuchayib borishiga xizmat qilardi. Faqatgina **1921-yil** davomida **uch marta (mart, sentyabr, noyabr)** hukumat o'zgarishi yasilib, Moskvaga ma'qul kelmagan uning tarkibi yangilandi. O'z xalqi milliy manfaatlarini yoqlab siyosat yuritgan **Polvonniyoz Yusupov, M.Ibniyaminov, O.Muhammadrahimov** bosh bolgan



hukumat tarkibi bekor qilindi, ularning rahbarlari asossiz qoralanib, og'ir jazolarga mahkum etildi. Sovet Rossiyasi Turkiston hududidagi milliy respublikalar mustaqilligini butkul barham toptirish, ularni o'z tasarrufiga bo'ysundirish sari qat'iy yo'l tutdi. **1923-yil martida Toshkentda** Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalari vakillari ishtirokida konferensiya chaqirilib, unda mazkur respublikalarni iqtisodiy jihatdan birlashtirish maqsadida **O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi** tuzildi. Bu esa ularni har tomonlama boshqarish tizimi murvatlari Rossiya nazorati ostiga o'tayotganidan dalolat berardi.

**1923-yil oktyabrda** bo'lib o'tgan **IV Butunxorazm qurultoyi** respublikaning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Unda amalga oshirilgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi o'zgarishlar tahlil etilib, uning o'z rivojlanishida sotsialistik bosqichga kirgani ta'kidlanib, XXSRni **Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi** deb e'lon qildi. Konstitutsiya yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni tugatdi, barcha yerfar umumxalq mulki deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari **Maorif nozirligi** ixtiyoriga o'tdi. Konstitutsiya o'zining chuqur sinfiylik mohiyati bilan ajralib turardi. Vohada yuz berayotgan majburiy yo'sindagi sotsialistik o'zgarishlar, mulkiy tabaqalarga nisbatan qilinayotgan zo'ravonlik va bedodliklar mahalliy xalq noroziligining alanganib borishiga sabab bo'ldi. **1924-yil yanvarida** yuz bergan xalq qo'zg'oloni ham buning yorqin ifodasidir. Garchand qo'zg'olon qizil askarlar kuchi bilan bostirilgan bo'lsa-da, biroq keng xalq ommasining sovet tuzumiga qarshi kurashi **30-yillar o'rtalarigacha** davom etdi.

*Buxoro amirligidagi vaziyat. Yosh buxoroliklar harakati.* O'z saflarida **Abduvohid Burhonov, Usmon Xo'jayev (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Mirza Muhiddin Mansurov, Abdulqodir Muhitdinov** va boshqa o'nlab yurt fidoyilarini birlashtirgan Buxoro jadidlari 1917-yil inqilobiy voqealaridan foydalanib keng xalq manfaatlarini foydasiga muhim siyosiy o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishga urindilar. Ayniqsa, bunda amirga tazyiq o'tkazib, uni xalqqa ko'p masalalarda yon berishga, siyosiy tuzumni o'zgartirishga, xususan, konstitutsion monarxiya joriy etishga urg'u berildi.

Yosh buxoroliklar rahbarlari ishlab chiqqan islohot loyihasida, jumladan, amir huzurida va joylarda xalq vakillari bo'lishi, ma'muriyat yaxshilanishi, u xalq vakillari nazoratida bo'lishi, matbuot erkinligi, amiming eng mutaassib va reaksion amaldorlaridan ba'zilarini almashtirish talablari ilgari surilgandi.

**7-aprelda** Amir **Said Olimxon** keng omma tazyiqi va yosh buxoroliklarning islohiy talablari asosida manifest chiqarishga majbur bo'ladi. *Unda amirlik tuzumining tub negizlariga daxl qilmagan holda mamlakatda*

bir qator demokratik o'zgarishlar o'tkazish ko'zda tutilgandi. Soliqlarni tartibga solish, turli ijtimoiy tabaqalar vakillaridan iborat **Majlis** tashkil qilish, maorif, tibbiyot, sud tizimi faoliyatini yaxshilash, ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish va boshqalar shular jumlasiga kirardi. Garchand amir manifesti yosh buxoroliklar tomonidan ma'qullanib kutib olingan bo'lsa-da, biroq hukmron, reaksion kuchlar unga tish-timog'i bilan qarshi turdilar. Ular namoyishga chiqqan islohot tarafdorlariga yopirilib, hujum qilib, poytaxtda qonli qirg'inlar uyushtirdilar. Yosh buxoroliklarni ta'qib qilish, ulardan o'ch olish avjga mindi. Ularning ko'plab namoyandalari qo'shni Turkiston ASSRga bosh olib ketishga majbur bo'ldi. Shu tariqa amirlikda konservativ ruhdagi kuchlarning qo'li baland keldi. Islomiy harakatlarning birinchi bosqichi muvaffaqiyatsiz yakun topdi.

**1917-yil kuzida** Rossiyada yuz bergan oktyabr davlat to'ntarishi Buxoroda ham aks sado berdi. Ayni vaqtda, Buxoroga bevosita tutash rus aholi manzilgohlarida sovet tuzumi o'rnatildi. Bu esa amirlikdagi voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Negaki sotsialistik inqilob g'oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o'z mo'ljaliga olgandilar. Shu bois Rossiya Federatsiyasi, qolaversa, sovet Turkistoni, uning mutasaddilari har bir vaziyatdan foydalanib Buxoro ichki ishlariga aralashib, muxolifatchi kuchlarni qo'llab-quvvatlab, amirlik tuzumini qulatish harakatida bo'ldilar. Xususan, **1918-yil martida «Kolesov voqeasi»** nomi bilan tarixga kirgan qonli voqea bunga yorqin misol bo'la oladi.

Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi hukumati raisi F.I.Kolesov suveren Buxoro davlatiga ochiq tazyiq o'tkazib, yosh buxoroliklar talabini quvvatlagan bo'lib, **1918-yil 2-martda Kogon** temir yo'li yoqalab qizil qo'shinlar kuchi bilan ochiq harbiy intervensiya uyushtirdi. G'azabga kelgan Buxoroning ko'pchilik aholisi o'z yurtini jon-jahdi bilan himoya qilib, bolsheviklar hamlasiga qarshi yalpi kurashga o'tlandi. Buning natijasida Kolesov intervensiyasi tezlikda sharmandalarcha barbod bo'ldi. Bu esa amir va uning arkoni davlatiga barcha inqilobiy demokratik kuchlardan qonli o'ch olish uchun bahona edi. Ayniqsa, yosh buxoroliklar ayovsiz qirg'in qilindi. Ularning ancha qismini yashirinishga yoxud muhojirlikka ketishga majbur bo'ldi. F.Xo'jayevning guvohlik berishicha, inqilobchi kuchlar ustidan uyushtirilgan ommaviy qirg'inbarot davomida **1,5 ming nafarga** yaqin kishi o'ldi.

***Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi.*** 1918-yilgi mart voqealari va amirlik hamda uning tevaragidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Buxoro davlatini chuqur tanazzulga duchor etdi. Rossiya shaharlariga

yuborilgan ko'plab miqdordagi qimmatbaho mollar, mahsulotlar sotilmay omborxonalarda taxlanib qoldi. Buning evaziga Rossiyadan keltiriladigan mahsulotlar kelishi to'xtab qoldi. Buxoroning Rossiya bilan savdo-sotiq aloqalaridagi o'zgarishlar uning iqtisodiy hayotiga, aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa xalq norozilik harakatlarining kuchayishiga olib keldi. Amirning Rossiya Federatsiyasi va sovet Turkistoni tomonidan o'z davlatiga nisbatan tahdid va hujumi xavfi kuchayib borishiga javoban harbiy qo'shinini tinmay ko'paytirishga urinishi ham aholi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushayotgandi. Amirlikning muxolifatchi va inqilobchi kuchlarga nisbatan shafqatsiz xatti-harakatlari ham siyosiy tanglikni kuchaytirayotgandi. Bundan esa qo'shni Turkistonning sovet mutasaddilari ustomonlik bilan foydalanishga intildilar. Ular Buxorodan son-sanoqsiz oqib kelgan inqilobiy va demokratik kayfiyatdagi kuchlarni ishga solib, ularning tashkilotlari tuzilishiga yordam berib, moddiy va ma'naviy quvvatlab, «Buxoro inqilobi»ni tayyorlab bordilar.

Buxoroning ko'zga ko'ringan rahbarlari: **Fayzulla Xo'jayev, Usmon Xo'jayev, Ota Xo'jayev, Qori Yo'ldosh Po'latov, M.Qulmuhamedov, A.Yoqubov, A.Muhiddinov, N.Husainov** va boshqalarning inqilobiy faoliyati Moskva va Toshkentda ma'qullanib, ularning harakat dasturlari ishlab chiqilgani boisi ham shundandir. Masalan, **1918-yil sentyabrda Toshkentda** Buxoroning muhojir inqilobchilari tomonidan Buxoro kompartiyasi va uning markaziy qo'mitasi tuzilishi (uning raisi **A.Yoqubov**, o'rinbosari **M.Qulmuhamedov**) yoxud **1920-yil yanvarida Toshkentda** Fayzulla Xo'jayev boshchiligida «Yosh buxorolik inqilobchilar partiyasi Turkiston markaziy byurosi»ning tashkil etilishi, uning Turkkommissiya, RSFSR hukumati va RKP(b) MQ tomonidan e'tirof etilishi ham buning yorqin ifodasidir.

Yosh buxoroliklar partiyasi ishlab chiqqan dasturda tez vaqt ichida feodal-despotik tuzumni tugatish, mamlakatda demokratik respublika tuzish va keng xalq ommasining tub manfaatlarini ko'zlab ko'plab ijtimoiy-demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish vazifalari bayon etilgandi.

Yosh buxoroliklar tashabbusi bilan **1920-yil iyunda** Toshkentda chiqqa boshlagan «**Uchqun**» gazetasida ham ilg'or demokratik g'oyalar ilgari surildi. Buxoro xalqi amirning mutlaq tuzumini ag'darib tashlash uchun faol kurashga da'vat etib borildi.

Amirlik tuzumini harbiy kuch qo'llash orqali ag'darib tashlash uchun tayyorgarlik ishlari sovet Turkistoni hukumati va uning **Frunze** boshliq Turkiston fronti qo'mondonligi tomonidan boshlab yuborilgandi. Chunonchi, **1920-yil iyun o'rtalaridayoq** zamonaviy qurol-aslahalar bilan qurolangan qizil qo'shinlar Buxoro chegaralariga keltirib qo'yilgandi. Ayni

paytda, Buxoroda qurolli qo'zg'olonni o'tkazish yuzasidan harbiy-inqilobiy byuro tashkil etildi. Uning tarkibiga Turkkomissiya vakillari **M.Frunze**, **V.Kuybishev**, TKP vakili **N.To'raqulov**, BKP Markaziy Qo'mitasi raisi **N.Husainov**, Yosh buxoroliklar partiyasi rahbari **F.Xo'jayev** kirgandilar. Hatto bo'lajak Buxoro inqilobiy qo'mitasi va hukumati tarkiblari ham avvaldan tayyorlab qo'yilgandi. Shuning uchun Buxoro amirligining ag'darilishi, aslida, bolsheviklar zo'ravonligi va makkorona siyosatining real ifodasi bo'lgan.

**1920-yil 29-avgustda Chorjo'yda** amir tuzumiga qarshi «xalq qo'zg'oloni» boshlanishi bilanoq, **Beshim Sardor** boshchiligidagi inqilobiy qo'mita avvaldan tuzilgan kelishuvga binoan darhol sovet hukumatiga murojaat etadi. Bu sovet qo'shinining qo'zg'olonchi kuchlarni himoya qilib Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshlashiga bahona bo'ldi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, sovet qo'shini ixtiyorida shu davrda **10 ming qizil askar, 40 ta to'p, 230 ga yaqin pulemyot, 10 ta zirhli avtomobil, 5 ta zirhli poyezd va 12 ta samolyot** bor edi. Turkiston fronti qo'shini bilan birga hujum harakatlarida **5 mingga yaqin** buxorolik «inqilobiy tuzilmalar» ham ishtirok etdilar.

Amir lashkari son jihatidan ko'p bo'lgani bilan (**20 mingga yaqin**), uning qurollanish darajasi qizillar qo'shiniga nisbatan ancha zaif holda edi. Hujumga tashlangan sovet qo'shinlari amirlikning **Chorjo'y, Qarshi, Kitob, Shahrisabz** va boshqa hududlarini egallab, Buxoro tomon siljib bordilar. Ayniqsa, bu bosqin natijasida Buxoro va uning ko'p sonli aholisi mislsiz zarar ko'rdi. Shahar bir necha kun davomida zamonaviy qurollardan o'qqa tutildi, bombardimon qilindi. Uning ko'plab noyob osori-atiqalari, tarixiy obidalari vayron etildi. Nihoyat, **1920-yil 2-sentyabrda** amir va uning lashkari yengilib, Buxoroni tark etadi. Shundan so'ng shahar sovet bosqinchilari tomonidan egallandi.

Buxoro qizil qo'shinlar tomonidan egallangach, hokimiyat **Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy Qo'mitasi** qo'lga o'tdi.

**1920-yil 14-sentyabrda** BKP MQ va Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy Qo'mitasining birlashgan majlisida **Abduqodir Muhiddinov** boshchiligidagi oliy qonun chiqaruvchi organ – **Butunbuxoro Inqilobiy Qo'mitasi** va **Fayzulla Xo'jayev** raisligida respublika hukumati – **Xalq Nozirlar Kengashi** tashkil qilindi. O'sha yilning **6 – 8-oktyabr** kunlari xalq vakillarining **I Butunbuxoro qurultoyi** bo'lib o'tdi. Unda **Buxoro Xalq Sovet Respublikasi** tuzilgani to'g'risida qaror qabul qilindi.

**1921-yil 4-martda** **Moskvada** BXSRS bilan RSFSR o'rtasida ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. Mazkur rasmiy hujjatlar asosida

Buxoro davlatining sovet Rossiyasiga harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan har tomonlama bog'liq bo'lib qolgan qonuniy belgilab qo'yildi. Bu esa Rossiya Federatsiyasi va uning Turkistondagi vakolatli namoyandalariga Buxoro Respublikasining ichki ishlariga bevosita aralashish, bu yerdagi o'zgarishlarni nazoratga olish va uni aniq sotsialistik maqsadlar sari qaratareish uchun keng imkoniyat ochib berdi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilishiga erishgan sovet hokimiyati endilikda unga o'zining sotsialistik g'oyalari-yu tartib-qoidalarini bemalol tiqishtira olardi. Bu hol Buxoroning mustaqil, suveren davlat sifatida taraqqiy topishiga, xalqning asriy orzulari ro'yobga chiqishiga, uning o'ziga xoslik, milliylik xususiyatlari bardavomligiga jiddiy to'sqinlik tug'dirardi, albatta. Shu bois Buxoro hukumatining mustaqil siyosat yuritishi, qo'shni mamlakatlar yoxud Turkiya, Germaniya singari uzoq xorijiy davlatlar bilan diplomatik va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish borasidagi sa'y-harakatlariga izn berilmadi. Markazning **S.Orjonikidze, Sh.Eliava, Y.Peters** singari nufuzli emissarlari Buxoroga tez-tez yuborilib, Buxoro hukumati faoliyatini taftish qilish, uning yo'l qo'ygan xato, nuqsonlarini fosh etish bilan shug'ullandilar. Hatto RKP(b) MQ **1922-yil mayida «Turkiston-Buxoro ishlari haqida»** qaror qabul qildi. Unda O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoroda jadallik bilan sotsialistik tuzumni mustahkamlash qat'iy uqtirilgandi. RKP(b) MQning **1923-yil 12-iyunda** qabul qilgan Buxoro masalasiga doir maxsus qarori ham BXS Rning ichki ishlariga qo'pollik bilan aralashish edi. Negaki bu qarorda Buxoroning rivojlanish jarayonini «sotsialistik iz»ga burib yuborish maqsadi ko'zda tutilgandi. Buxoro xalqining tub milliy manfaatlari yo'lida fidoyilik bilan faoliyat yuritgan **Abdurauf Fitrat, Mo'injon Aminov, Ota Xo'jayev, Sattor Xo'jaev, Rahimjon Yusufzodaning** respublika hukumati tarkibidan chetlatilishi ham Moskva vakillarining talabi bilan amalga oshirilgandi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining asosiy rahbar tashkiloti – Buxoro kompartiyasi RKP(b) MQning viloyat tashkiloti maqomida faoliyat yuritishga majbur edi. Respublika hududida sovetlarga qarshi kuchlarni bostirish bahonasi bilan to'plangan son-sanoqsiz qizil askarlarning mutlaq ko'pchiligi chetdan keltirilgandi. Masalan, **1922-yili** mavjud **40 ming kishilik** qizil armiya tarkibida buxoroliklar atigi **500 kishini** tashkil etardi, xolos. Buxoro Respublikasining **1921-yil sentyabrida** qabul qilingan Konstitutsiyasi ham RSFSR Konstitutsiyasi andazasida tuzilgandi.

Markaz tashabbusi bilan **1923-yil martida** O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuzilishi va uning tarkibiga Buxoroning ham jalb qilinishi mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini asta-sekin qo'ldan boy berishiga

sabab bo'ldi. Hukmron markaz tazyiqi asosida bu hududda qat'iy tarzda sotsialistik o'zgarishlar amalga oshirib borildi. **1923-yili** qabul qilingan BXSR Konstitutsiyasiga binoan, mulkdorlar, savdogarlar, ruhoniylar saylov huquqidan mahrum etildi.

**1924-yil sentyabrida** bo'lib o'tgan **5-Butunbuxoro qurultoyi** BXSRni **Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi** deb e'lon qildi. Nihoyat, **1924-yili** o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida uning hududlari O'zbekiston va Turkmaniston SSR tarkibiga qo'shib yuborildi. Ayni chog'da, Buxoro mehnatkashlarining sovetlar tuzumi zo'ravonligiga qarshi harakati **XX asrning 30-yillari o'rtalariga** qadar davom etdi.

## 28-BOB. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSIY, IQTISODIY, MA'NAVIY SIYOSATI VA AMALIYOTI

### 28.1. MILLIY SIYOSAT VA DAVLAT QURILISHI MASALALARI

*Milliy siyosat.* Turkiston xalqlari o'z milliy davlatchiligini tiklash va rivojlantirishga intildi. **1920-yil yanvarida** bo'lib o'tgan Turkiston kompartiyasining V o'lka konferensiyasida **Turkiston ASSR MIQ raisi T.Risqulov** so'zga chiqib mushtarak Turkiston g'oyasini ilgari suradi, asosan, turkiy xalqlardan iborat **Turkiston Avtonom Respublikasini Turk Sovet Respublikasi, Turkiston kompartiyasini Turkiy xalqlar kompartiyasi** deb o'zgartirishni taklif qildi. Bu takliflar o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida, RKP(b) Markazqo'mi, uning siyosiy byurosi, sovet hokimiyati doiralarda turli bahslarga sabab bo'ladi. Shu bois «Turkiston masalasi» bir necha bor markazda, RKP(b) Markaziy Qo'mitasi siyosiy byurosining **1920-yil mart – iyun** oylaridagi majlislarida muhokama qilindi. Garchand markaz «Turkiston masalalari»ga yuzadan turib qiziqish bildirgan bo'lsa-da, biroq Turkistonga mustaqillik berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagandi. Shu zaylda masalaning yechimi cho'zila boradi.

**1920-yil 13-iyunda T.Risqulov, N.Xo'jayevdan** iborat Turkiston xalqlari delegatsiyasi o'z amaliy takliflari bilan bevosita sovet hukumati rahbari **V.I.Lenin** qabulida bo'ladi. Bu ular uchun so'nggi umid va najot ilinji edi. Natija shunday bo'ldiki, na sovet hukumati rahbariyati, na bu masalani **1920-yil 29-iyulda** ko'rgan RKP(b) Markazqo'mi siyosiy byurosi turkistonlik delegatsiya iltimosnomasiga ijobiy baho beroldi. Aksincha, sovet hukumati va partiya rahbariyati o'lkadagi vaziyatni tezlikda bartaraf etish uchun shoshilinch tarzda «**RKP(b)ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida**» degan nom ostida bir necha qarorlar qabul qildi. Jumladan, «**Turkistonda hokimiyatni tashkil etish to'g'risida**»gi maxsus qarorda Turkistonda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti va RKP(b) Markaziy Qo'mitasining doimiy vakolatxonasi bo'lishi kerakligi zarur deb ko'rsatildi. Mazkur qaror o'lka hayoti ustidan nazoratni kuchaytirish, sovet hokimiyati negizlarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Shu tariqa o'lka xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy davlatchiligini o'z xohishicha huquqiy asosda tashkil qilish borasidagi yana bir urinish barham topdi. O'lka xalqlarining orzu-umidlarini ro'yobga chiqa-

rishga erisholmagan Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi, taniqli arbob **T.Risqulov** tez orada o'z lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ladi. Gap shundaki, sovet Rossiyasi hukumati Turkistonning emin-erkin rivojlanish yo'lidan borishinimas, balki uning doimiy o'z nazorati ostida bo'lishini xohlardi. O'lkaning mehnatsevar, jafokash xalqi, uning boyliklari, tabiiy va mineral resurslari markaz foydasiga ishlashi, xizmat qilishi ularning birdan bir muddaosi edi. Hukmron markaz tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkkommissiya, O'rta Osiyo byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi singari nufuzli organlarning o'lka hayotining barcha jabhalarini o'z nazoratiga olishi, o'z iznlariga bo'ysundirish borasida harakat qilib kelgani boisi ham mana shundadir.

Garchi bo'lajak ittifoq sovet respublikalarining do'stlik va tenglikka asoslangan ixtiyoriy ittifoqi bo'ladi deyilsa-da, biroq uzoqni ko'ra biladigan respublikalarning bir qator rahbarlari bunga qarshi edilar. Masalan, Ukraina kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi kotiblari **X.G.Rakovskiy** va **D.L.Pyatakov** yagona ittifoq davlati g'oyasiga qarshi chiqib, umumittifoq hokimiyat organlari bo'lmagan «konfederatsiya» tuzishni yoqlab chiqdilar. Gruzin milliy ziyolilari ham yangi ittifoq tuzish g'oyasini qo'llamadilar. Bir necha bor RKP(b) Markaziy Qo'mitasi siyosiy byurosida, partiyaning syezdlari va plenumlarida, sovet tashkilotlarida mazkur masala keng muhokama qilindi. Muhokamalarda, jumladan, sovet hukumati arboblari-dan biri **I.Stalin** «avtonomlashtirish» g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra, sovet respublikalari muxtor (avtonom) respublika maqomi bilan RSFSR tarkibiga kirishlari kerak degan g'oya ilgari surilgandi. Tabiiyki, bunday taklifga milliy respublikalar xohish bildirmasliklari ham mumkin edi. Xavfni anglagan Lenin yangi ittifoq RSFSRdan yuqori bo'ladi va unga RSFSR ham boshqa milliy respublikalar kabi teng maqom va huquqlar bilan kiradi degan fikrni bildirdi. Bu sovetlarning yana bir o'ziga xos hiylasi edi.

Nihoyat, RKP(b) rahbarligida joylarda uzoq vaqt olib borilgan tashviqot-targ'ibot ishlari va ko'rsatilgan tazyiqlar o'z natijasini berdi. **Ukraina, Belorussiya, Zakavkazy Federatsiyasi** kompartiyalari, bu respublikalarning sovetlar syezdlari RKP(b) Markazqo'mining «SSSRni tuzish to'g'risida»gi takliflarini qo'llab-quvvatlashlarini bayon qildilar.

**1922-yil 26-dekabrda** sovetlarning Butunrossiya **X syezdi** sovet respublikalarini yagona Sovet davlatiga birlashtirishni zarur deb topdi. Syezd o'zi saylagan delegatsiyasiga USSR, BSSR va ZSFSR delegatsiyalari bilan birgalikda **Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini** tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish va Ittifoq shartnomasini tayyorlashni topshirdi.



**1922-yil 29-dekabrda Moskvada** to'rt respublika vakolatli delegatsiyalarining konferensiyasi bo'lib o'tadi. Konferensiya SSSRni tuzish to'g'risida RKP(b) Markaziy Qo'mitasi plenumi tasdiqlagan deklaratsiya va shartnoma loyihasini muhokama qilib, uni ma'qulaydi. **30-dekabrda** uni to'rt respublikaning vakolatli delegatsiyalari imzolaydilar.

**1922-yil 30-dekabrda Moskvada** Butunittifoq sovetlarining **I syezdi** SSSRni tuzish to'g'risidagi deklaratsiya loyihasini ko'rib chiqib, deklaratsiya va ittifoq shartnomasini tasdiqlaydi.

Syezd yangi ittifoq – SSSRning yuqori hokimiyat organlari – **Markaziy Ijroiya Qo'mitasini** va hukumatini tuzdi. SSSR MIQ raislari etib RSFSRdan **M.I.Kalinin**, Ukrainadan **G.I.Petrovskiy**, Belorussiyadan **A.G.Chervyakov**, ZSFSRdan **N.N.Narimanov** saylandi. **V.I.Lenin SSSR Xalq Komissarlari Soveti Raisi** etib tasdiqlandi.

Shunday qilib, oktyabr to'ntarishidan **5 yil** o'tgandan keyin, **1922-yil 30-dekabrda SSSR** tuzildi. Uning ta'asischilari RSFSR, BSSR, USSR, ZSFSR hukumatlari bo'ldilar. Keyinchalik uning tarkibi kengayib bordi. **XX asrning 30 – 40-yillari boshlariga** kelib bu ittifoq davlati tarkibi yangi respublikalar hisobiga kengayib, u son jihatidan **15 taga** yetkazildi. Shunday qilib, yer yuzi hududining **1/6 qismini** egallagan qudratli Sovetlar saltanati vujudga keldi.

*Milliy-hududiy chegaralanish va uning oqibatlari.* Markazning hukmronlik irodasini bajarishga da'vat etilgan Turkiston ishlari bo'yicha maxsus komissiya – Turkkomissiya zimmasiga o'lkada milliy-hududiy chegaralanishni o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet respublikalarini tashkil qilish vazifasi yuklangandi. RKP(b) Markazqo'mi kotibi **Y.E.Rudzutak** bu sohaga bosh mutasaddi etib belgilangandi. Markaz mo'ljallayotgan milliy siyosat mazmuni, mohiyatidan xabardor bo'lgan Turkistonning ilg'or ziyolilari, uzoqni ko'ra bilgan donishmand arboblari o'lka birligi, yaxlitligini, uning qardosh xalqlari jipsligini zo'r berib himoya qilishga urindilar. Biroq o'lka jilovini qo'lda mahkam tutgan bolshevik mutasaddilar ularning haqqoniy fikrlarini hisobga olmadi. Bugina emas, yagona va mustaqil Turkiston g'oyasi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar, milliy ziyolilar millatchilikda, turkparastlikda, islomparastlikda va sovet hokimiyatiga qarshilikda ayblandi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoni milliy-hududiy jihatdan alohida respublikalarga bo'lib tashlash masalasi bir necha bor markazda, Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarida, ularning kompartiyalari plenumlarida, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ – **RKP(b) MQ O'rta**

**Osiyo byurosi** plenumlarida muhokama etilib, mahalliy xalqqa ta'sir va ta'ziqlar o'tkazib borildi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi **1924-yil 5-aprelda** RKP(b) MQ siyosiy byurosida, **11-mayda** RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi komissiyasida ko'rib chiqildi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish loyihagini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining **1924-yil 2-iyundagi** yig'ilishida muhokama etilib, asosan, ma'qullandi.

Bundan norozi mahalliy aholi vakillari, xususan, Xorazm Respublikasining bir guruh mas'ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi **Odinayev**, ichki ishlar noziri **Abdusalomov**, **Yoqubov**, Turkiston va Buxoro vakillari **Sultonbek Xo'janov**, **Sanjar Asfandiyorov** va boshqalar yagona Turkistonni bo'lib tashlash maqsadga muvofiqmas deb e'tiroz bildirdilar. Ular Turkiston xalqlari birigini saqlab qolishga qaratilgan «**O'rta Osiyo federatsiyasini tuzish to'g'risida**» taklif kiritdilar. **1924-yil 8-mayda** RKP(b) Markaziy Qo'mitasiga «Xorazmda milliy masalani hal etish to'g'risida xat» kelib tushadi. Bu xatda ham Xorazm Respublikasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiqmas deyilgandi. Biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadi. Aksincha, **1924-yil 12-iyunda** RKP(b) MQ siyosiy byurosi «**O'rta Osiyo respublikalarini milliy chegaralash to'g'risida**»gi masalaga yana qaytib, uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. Munozaralar tobora qizib borgani sababli, vaqtincha Xorazm Respublikasida milliy-hududiy chegaralanishni to'xtatib turishga qaror qilindi. Bu borada Xorazm kompartiyasi va hukumati rahbarlariga har tomonlama ta'sir o'tkazib borildi. Ularning ko'pchilligi vazifasidan olindi, qolganlari partiya qaroriga qo'shilishga majbur bo'ldi. Oqibatda **1924-yil 26-iyunda** Xorazm Respublikasi rahbarlari Xorazm uchun ham milliy chegaralanishning zarurligini «e'tirof» etadilar. Shundan so'ng **1924-yil 15-iyulda** O'rta Osiyo byurosi milliy chegaralanish loyihagini tayyorlash va **1924-yil oktyabr** oyida uni o'tkazish zarur degan qat'iy xulosaga keldi. Shu maqsadda maxsus markaziy hududiy komissiya tuzilib, joylarda tashviqot-targ'ibot ishlari kuchaytirib yuboriladi. Komissiya **1924-yil sentyabr** oyi boshlarida o'z ishini, asosan, tugallaydi.

**1924-yil 25-sentyabrda** RKP(b) MQ siyosiy byurosi, 9- va **11-oktyabrda** RKP(b) Markaziy Qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi. Bu qaror **14-oktyabrda** SSSR BMTQ tomonidan ham ma'qullanadi. Shu tariqa sovet hukumati, RKP(b) MQ va uning joylardagi mahalliy tashkilotlarining **1920 – 1924-yillar** davomida O'rta Osiyoda olib borgan,

xalqqa yolg'on va'dalar berishni ko'zda tutgan «lenincha milliy siyosat»ni hayotga tatbiq etish bobidagi amaliy ishlari yakun topdi. Buning orqasida o'lkaning tarixan tarkib topgan o'ziga xos milliy xususiyatlari, hududiy yaxlitligi zavolga yuz tutdi. Uning hududlarini kichik-kichik milliy bo'laklarga bo'lish ishlari yakuniga **1924-yil 24-oktyabrda RKP(b) MQ plenumi** so'nggi nuqta qo'ydi. Nihoyat, **1924-yil 27-oktyabrda** bo'lib o'tgan SSSR **BMIQ II sessiyasi** O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazish tadbirlarini to'la ma'qulladi.

Shunday qilib, uch davlat: Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rnida endilikda **O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR** tarkibida **Tojikiston ASSR** tuzildi. Qirg'izlar yashagan hududlar **Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyatiga** birlashtirilib RSFSR tarkibiga, Turkistonning qozoqlar yashaydigan tumanlari **Qozog'iston ASSR** ixtiyoriga berildi. Qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar **Qoraqalpoq muxtor viloyatida** birlashtirilib, **Qozog'iston ASSR** tarkibiga kiritildi. O'lkada beshta milliy davlat birlashmalari tashkil etildi.

*O'zbekiston SSRning tashkil etilishi.* Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi. Uning tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

- Turkiston ASSRdan **9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi**;
- Buxoro Respublikasining **9 ta viloyati**;
- Xorazm Respublikasining **23 ta tumani**.

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi **312 394 km<sup>2</sup>**, aholisi **4 mln 447 ming 55 kishi** edi. **1926-yil** ma'lumotlari bo'yicha, milliy tarkibiga ko'ra aholining **74,2 foizini o'zbeklar**, qolganlarini esa boshqa millatlar tashkil etardi.

O'zbekiston SSRning dastlabki poytaxti **Buxoro** bo'lgan. Biroq ko'p o'tmay – **1925-yil aprelda** poytaxt **Samarqand** qilib belgilandi. **1930-yil oxirida** poytaxt **Toshkentga** ko'chirildi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O'zbekiston SSR sovetlarining ta'xis qurultoyiga qadar Muvaqqat inqilobiy qo'mita ixtiyoriga berildi. Buxoro Respublikasi hukumati raisi, taniqli davlat arbobi **Fayzulla Xo'jayev** O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi raisi etib tasdiqlandi.

**1924-yil 5-dekabrda** Inqilobiy qo'mita butun O'zbekiston xalqiga murojaat qilib, O'zbekiston SSR tuzilganini, uning tarkibiga Tojikiston ASSR kirganini ma'lum qildi.

Milliy chegaralanish bilan bir vaqtda iqtisodiy bo'linish ham o'tkazildi. Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalariga tegishli barcha boyliklar yangi milliy respublikalar o'rtasida qayta taqsimlandi. Bu ishlar sovet

hukumati tomonidan maxsus tuzilgan O'rta Osiyo tugatish komissiyasi boshchiligidagi amalga oshirildi.

**1925-yil 13-fevralda** Buxorodagi Xalq uyida umumo'zbek sovetlarining **I qurultoyi** ochildi. Qurultoy «**O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilgani to'g'risidagi deklaratsiya**»ni qabul qildi. Qurultoyda davlat hokimiyati oliy organlari tuzilgani rasmiylashtirildi, O'zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi lavozimiga farg'onalik dehqon, «Qo'shchi» uyushmasi rahbarlaridan biri **Yo'ldosh Oxunboboyev** saylandi. O'zbekiston SSR hukumati – Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimiga **Fayzulla Xo'jayev** tasdiqlandi. Milliy chegaralanish davrida O'rta Osiyoda faoliyat ko'rsatib kelgan partiya, komsomol va xo'jalik tashkilotlarida ham bir qator tashkiliy o'zgarishlar amalga oshdi. Turkiston, Buxoro va Xorazm kommunistik partiyalari, komsomol va xo'jalik tashkilotlari, kasaba uyushmalari qayta tashkil etildi.

O'zbekiston kompartiyasining **1925-yil 6 – 12-fevral kunlari Buxoroda** bo'lib o'tgan **1-ta'sis syezdida** O'zbekiston kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashtirildi. Uning Markaziy Qo'mitasi saylandi. **V.I.Ivanov** va **Akmal Ikromov (1927-yildan birinchi kotib)** Markaziy Qo'mitaning mas'ul kotiblari etib saylandilar. Shu yili O'zbekiston komsomoli (O'zLKSM), respublika kasaba uyushmalari, uning rahbar organlari ham tuzildi. Ular respublikada markaz va sovet hokimiyatining tayanch organlari bo'lib qoldilar.

Sovet hukumati O'zbekistonda o'zining rasmiy partiya, sovet, komsomol va xo'jalik tashkilotlarini tuzib, asta-sekin siyosiy va iqtisodiy tayanchini mustahkamlab bordi. Bu esa unga O'zbekistonda keng miqyosda bolsheviklik siyosat yuritish imkonini berdi. Shu tariqa sovetlar butun choralar bilan O'zbekistonda o'z hokimiyatini mustahkamlashda davom etdi.

**1925-yil may** oyida O'zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O'zbekiston SSR hududida bevosita ishlaydigan bo'ldi. **1927-yili** qabul qilingan O'zbekiston SSRning birinchi va **1937-yili** qabul qilingan ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko'chirma nusxasi edi. Chunki O'zbekiston qog'ozdagi «suveren» respublika bo'lib, amalda markazga tobe va qaram bir o'lka edi, xolos. U o'z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani Ittifoq hukumatidan xoli ravishda mustaqil hal etolmasdi. Bunga uning haddi sig'masdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat hukmron markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto O'zbekiston-

ning ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham Ittifoq hukumati tasarrufida edi. Masalan, O'zbekiston xalqi, uning hukumati roziligini so'ramasdan **1929-yili** Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, **Tojikiston Sovet Sotsialistik Respublikasiga** aylantirildi hamda SSSRga qabul qilindi.

## 28.2. IQTISODIY SIYOSAT, UNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI

*Turkistonda yangi iqtisodiy siyosat. 1921-yil mart oyida bo'lib o'tgan RKP(b) X syezdi* belgilab bergan **yangi iqtisodiy siyosatning** (YIS) muhim bo'g'inlari *oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish, savdo-sotiqni erkinlashtirish, sanoatda, xizmat ko'rsatish va mayda hunarmandchilik sohalarida xususiy tadbirkorlikka ruxsat etish, bozorni tartibga solish mexanizmlaridan foydalanish, ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan* iborat edi.

Eng muhimi, mazkur siyosat shahar bilan qishloq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izga solishga, yangi hokimiyatning tayanch negizi hisoblangan ishchilar bilan dehqonlar sinfi o'rtasidagi ittifoqni, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilardi. Yangi iqtisodiy siyosatning bosh maqsadlaridan biri dehqon xo'jaligini oyoqqa turg'izish, uni rivojlantirish edi. Negaki busiz sanoatni ham, xalq xo'jaligining boshqa sohalarini ham yuksaltirib, yetarli xomashyo bazasini yaratib bo'lmardi. Oziq-ovqat solig'i talabiga ko'ra, ekish mavsumi oldidan yakka dehqon xo'jaligi bilan davlat o'rtasida mahsulot yetkazib berish majburiyati to'g'risida alohida-alohida shartnoma tuziladigan bo'ldi. Bu shartnoma yil oxirigacha, ya'ni hosil olingunga qadar o'zgarmasdi. Bu esa dehqonlarni yerdan ko'proq hosil olish uchun astoydil mehnat qilishga undardi. Xullas, yangi iqtisodiy siyosat dehqonning o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishini tayin qildi. Endilikda dehqonning ortiqcha g'allasi tortib olinmaydigan, buginamas, dehqonga o'zi yetishtirgan oshiqcha mahsulotni bozorda erkin sotish huquqi berildi. Oshiqcha mahsulot deganda dehqonning davlat buyurtma topshiriq-rejasida belgilangan hajmdagi mahsulotni topshirgandan keyin ortib qolgan qismi tushuniladi. Narx-navo tartibga solindi. Ayrim sanoat korxonalari ham ma'lum cheklashlar asosida o'zlarining avvalgi sobiq egalari qaytarib berildi.

Yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, Turkiston chekka, asosan, qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Demak, bu yerda zamonaviy qishloq xo'jaligi va sanoatni

yangidan barpo etish kerak edi. Ikkinchidan, o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda yerli xalqlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. Ammo RKP(b) va sovet hukumati Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritdilar.

**1921-yil 20-aprelda** Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi oziq-ovqat, yem-xashak va xomashyo razvyorstkasini mahsulot solig'i bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Unda **1921 – 1922-yillar** uchun soliq miqdori belgilandi. Achinarisi shundaki, Turkiston mehnatkashlaridan olinadigan soliq, markaziy rayonlardan farqli o'laroq, yil oxirida yig'ib olingan hosil miqdoriga qarab emas, balki ekilgan yerning har desyatini, qoramol va mayda mollar hisobidan olinadigan bo'ldi. Bu esa Turkiston dehqonining kamsitilishini bildirardi.

Qolaversa, sovet hukumati o'lkada, birinchi navbatda, o'zi uchun zarur bo'lgan tarmoqlarni, chunonchi, paxta, qand lavlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi. Yordam ko'rsatish bahonasida **300 000 dan ortiq** ishchi va dehqon oilalari Rossiya markaziy rayonlaridan Turkistonga joylashtirildi. Boz ustiga, o'lkada ahvol og'ir bo'lishiga qaramay, **1921-yil kuzida** bu yerdan Moskva va boshqa shaharlarga **300 ming puddan ko'proq** g'alla mahsulotlari olib ketildi. Shunga qaramay, o'lka mehnatkashlari fidokorona mehnat qildilar. Ularning biroz hayotga ishonchi uyg'ona boshladi. Chunki sovet hokimiyati cheklangan holda bo'lsa-da o'lkada xususiy mulkchilik va xususiy tadbirkorlikka erkinlik bergandi.

Yangi iqtisodiy siyosat asosida sanoatni xo'jalik hisobiga o'tkazish jarayoni amalga oshirib borildi. Bu esa sanoat korxonalarini ishlab chiqarishining sal jonlanishiga olib keldi. Mayda va o'rta sanoat korxonalarini, yirik kooperativ tashkilotlar va ularning birlashmalari tadbirkorlarga ijaraga berildi, o'lkada yangi sanoat korxonalarini, temir yo'llar qurildi. **Xilkovo** sement zavodi, **Farg'ona** pillakashlik fabrikasi, **Qizilqiya**, **Xilkovo** temir yo'l shaxobchalari shular jumlasidandir.

O'lkada, ayniqsa, paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq paxta tozalash korxonalarini tez sur'atda o'sdi. Bu markaz to'qimachilik sanoatining o'zbek paxtasiga talab-ehtiyoji ortib borayotganiga ko'p jihatdan bog'liq edi.

Natijada paxta ekiladigan maydonlar **1924-yili 1921-yilga** nisbatan **3 barobar** ko'paydi. Ishlab turgan sanoat korxonalarini soni **144** taga yetdi. Birgina paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish **1923-yildagi 23,9 mln so'mlikdan 1924-yili 57,8 mln so'mga** yetdi.

Bundan ko'rinadiki, yangi iqtisodiy siyosat asosida Turkiston sanoati tiklanib, sezilarli darajada rivojlana boshladi. Biroq partiya va sovet hukumati yangi iqtisodiy siyosat Turkistonda sinfli kurashning keskinlashuviga olib kelmoqda, mahalliy boylar, milliy burjuaziya qoldiqlari, yirik savdogarlar, musulmon ruhoniylari va boshqa ekspluatator unsurlar jonlanmoqda deb ularga qarshi mafkuraviy tashviqot va targ'ibot ishlarini kuchaytirib yubordi.

Bu hol asta-sekinlik bilan o'lkada yangi iqtisodiy siyosat yo'lidan chekinishga olib keldi. Dehqonga berilgan imtiyozlar qaytarib olindi. Ular qishloq xo'jalik artellariga birlashtirila boshlandi. Sanoatni milliylashtirish jarayoni avj oldirildi. Ayniqsa, **20-yillar oxirlariga** kelib Ittifoqning, jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruvi tizimining kuchayishi natijasida yangi iqtisodiy siyosat o'z mazmuni va mohiyatini tobora yo'qota bordi.

Yer-suv islohoti. Turkiston xalqlari uchun yer-suv, undan foydalanish masalasi favqulodda ahamiyat kasb etardi. Negaki o'lka aholisining anchagina qismi yersiz edi. Bir parcha yerga muhtoj bo'lganlar boylar, yirik zamindorlarning mulkida chorakorlik bilan nochor hayot kechirib, oila tebratib kelardi. Boz ustiga, chor Rossiyasi bosqinidan so'ng ko'plab serhosil, unumdor yerlar Rossiyadan ko'chirib kelingan kelgindi rus oilalari foydasiga majburan olib berilgandi. Chorizmning Turkistondagi bu zo'ravonlik, mustamlakachilik siyosati yersiz, batrak dehqonlarning ahvolini tanglashtirib yuborgandi. Shu bois mahalliy yerti aholi yangi sovet hokimiyatining **«Yer – dehqonlarga»** degan balandparvoz va'dalari, da'vatlariga umid bog'lab, uning yer to'g'risidagi dekreti amalga oshuviga ko'z tikib kelayotgandi. Darhaqiqat, sovet hokimiyatining **1917-yil 25-oktyabrda** qabul qilgan **«Yer to'g'risida»**gi dekretida butun mamlakatda kambag'al, batrak, yersiz dehqonlarni yer bilan ta'minlash, yirik yer-mulkni musodara qilish va undan so'ng milliylashtirish vazifalari e'lon qilindi.

Sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholisini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab yer to'g'risidagi dekretni qabul qilgan bo'lsa-da, ammo uni amalga oshirishdan kuzatilgan va uzoqqa mo'ljallangan maqsadlari boshqa edi. Sovetlarning yer-suv islohoti masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi yirik xususiy yer mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik jamoalashgan sotsialistik xo'jaliklarni qaror toptirish edi. Turkistonda ham mana shu prinsipial maqsadlarni ko'zlab yer-suv islohotini o'tkazishga kirishildi.

Turkiston sovetlarining **XI syezdida (1920-yil sentyabr)** o'lkada yer-suv islohoti masalasi ko'rib chiqildi, bu sohadagi asosiy vazifalar belgilandi. Unga ko'ra, aholining boy qismi qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, yevropalik kelgindi aholi bilan yerli xalqlar o'rtasida yer-suv masalasida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlariga barham berish, mehnatkash aholini sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topildi. Yer ishlari xalq komissarligi rejasiga ko'ra, tortib olingan yerlar kam yerli va yersiz mahalliy batrak va dehqonlarga bo'lib berilishi aytilgandi. Mazkur jarayon kelgindi va mahalliy boy xo'jaliklarga ma'muriy choralar va tazyiq o'tkazish yo'li bilan olib borildi. Bu xil tadbirlarga batrak-dehqonlar ommasi ham keng jalb etildi. Shu maqsadda joylarda qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi **«Qo'shchi»** uyushmalari tuzila boshladi. «Qo'shchi» uyushmalari kommunistlarning dehqonlar orasidagi tayanchiga aylanib, yer-suv islohotini o'tkazishda partiyaga katta yordam ko'rsatib bordi. Turkiston ASSR hududida **1921-yil** davomida tuzilgan «Qo'shchi» uyushmalari **160 ming** a'zoni birlashtirgandi. **1921-yil dekabrda Toshkentda «Qo'shchi»** uyushmalarining **I respublika qurultoyi** bo'lib o'tdi. Qurultoy qarorida: *«...bu uyushmalar mehnatkashlar ommasini sovetlar yordamida xo'jalik qurilishiga tortish vositasidir»*, – deb uqtirilgandi.

Shunday qilib, Turkistonda **1921 – 1922-yillar** davomida yer-suv islohotining birinchi bosqichi yirik yer-suv egalariga qarshi keskin kurash shiori ostida o'tkazildi. Masalan, **Samarqand viloyatida 350 ta** katta yer egalaridan **13 ming desyatina** yer tortib otindi. Respublika bo'yicha boy va o'ziga to'q aholidan **1,7 mln desyatina** yer tortib olindi, **117 ming desyatinesi** yersizlarga va kambag'allarga berildi, qolgan katta qismi asosida «Qo'shchi» uyushmalari tuzildi. Bu sovet hokimiyatining kambag'allarni o'z tomoniga og'dirib olishga qaratilgan harakati edi. O'rtahol dehqon xo'jaliklari saqlab qolindi. Garchi yerga xususiy mulkchilik tugatilgan esa-da, u jamoa (amalda davlat) mulki bo'lib qoldi.

*Yer-suv islohotlarining ikkinchi bosqichi.* O'zbekiston SSR tuzilgan paytda ham respublikada sovetchasiga agrar siyosatni amalga oshirish to'la hal etilmagandi. **1925-yil boshida Farg'ona viloyatida** umuman yersiz dehqonlar **3,4 foizni**, **3 desyatina**gacha yeri bor xo'jaliklar **83,1 foizni** tashkil etardi. **Samarqand viloyatida** bu ko'rsatkich mos ravishda **2,1 va 51,5 foizga** teng edi. **Toshkent viloyatida** esa yersiz dehqonlar **12,5 foizni** tashkil etardi.

O'zbekistonning asosiy paxtakor viloyat va tumanlarida yerning katta qismi yangi iqtisodiy siyosat asosida xo'jalik yuritayotgan o'rtahol



dehqonlar qo'liga to'plangandi. Ular respublikada yetishtirilayotgan paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berardi. Kambag'al dehqonlar esa yerni ulardan ijaraga olib ishlashardi. O'zbekiston kompartiyasining II syezdida (1925-yil noyabr) bu hol feodal munosabatlarning qoldig'i deb baholandi. Shundan so'ng O'zKP(b) Markaziy Qo'mitasi Ijroiya byurosida, viloyat, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarida yer-suv islohotining ikkinchi bosqichini o'tkazish masalasi bir necha bor muhokama qilindi va uning nihoyatda dolzarbligiga e'tibor qaratildi. Joylarda yer-mulklarni qaytadan ro'yxatdan o'tkazish boshlab yuborildi. Bu ish, birinchi navbatda, asosiy dehqonchilik muzofotlari hisoblangan **Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida** boshlandi. Yer-suv islohotining mazmuni dastavval quyidagi muammolarni hal etishga qaratildi:

1. *Qishloqda ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada rivojlantirishga bo'lgan barcha to'siqlarni olib tashlash.*

2. *Yer va suv manbalarini tezroq milliylashtirish.*

3. *Mehnat qilmay boshqalar hisobiga yashaydiganlarning yerlarini tortib olish.*

4. *Yangi tashkil etilayotgan xo'jaliklarga yordam berish va hokazo.*

Bu qishloqda yangi iqtisodiy siyosatdan chekinish edi. Shuning uchun mahalliy rahbarlar yer-suv islohoti jarayoniga o'ziga xos tarzda baho berdilar. Masalan, O'zbekiston SSR yer ishlari xalq komissari **Inomjon Xidraliyev** va boshqa mas'ul xodimlar O'zKP(b) Markaziy Qo'mitasi va O'rta Osiyo byurosiga ariza bilan murojaat etib, yer-suv islohoti mahalliy xalqning xohish-irodasiga, turmush tarziga zid deb islohotga oshkora e'tiroz bildirdilar. Biroq ular markaz vakillari qudrati oldida yakkalanib qoldilar.

**1925-yil dekabrda** bo'lgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining favqulodda sessiyasi «**Yer va suvni milliylashtirish to'g'risida**» dekret qabul qildi.

Dekretga binoan, quyidagi tarzda yerlar batamom musodara qilinishi kerak edi:

1. *Qayerda turishidan qat'i nazar, Farg'ona vohasida 40 desyatinadan, Toshkent va Samarqand vohalarida 50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bo'lgan mulk egalari jami jonli va jonsiz mulki bilan.*

2. *Qishloq va ovullarda yashamagan, o'zlari va oila a'zolaridan birortasi ham yerda ishlamaydigan shaxslarga qarashli yerlar, boshqa mol-mulki bilan.*

3. *Vaqf yerlari, xo'jayinlari noma'lum yerlar.*

Yer-suv islohoti qishloqda asosiy kuch bo'lgan o'rtahol dehqon bilan aloqani mustahkamlash shiori ostida o'tdi. Farg'ona vodiysida **7 desyatina**, Toshkent va Samarqand vohalarida **10 desyatina**gacha yeri bor o'rtahol dehqonlar mulki saqlanib qoladigan bo'ldi. Natijada o'rtahol dehqonlar boy va quloqlardan ajratib olinib, kambag'al dehqonlarga yaqinlashtirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularni sovet hokimiyati tayanchiga aylantirish edi. Yer-suv islohotini o'tkazishga hatto xotin-qizlar ham jalb etildiki, bu hol masalaning chuqur ijtimoiy mohiyat kasb etishidan dalolat edi. O'sha yillarga oid bir hujjatda: «*Ko'maklashuvchi komissiyada xotin-qizlar faol qatnashmoqdalar. Yashirilgan yerlarni aniqlamoqdalar, umumiy yig'ilishlarda boylar va tekinxo'rlarni fosh etmoqdalar*», – deyilgandi.

**1926-yil dekabr**ida yuqoridagi uch viloyatda o'tkazilgan yer-suv islohoti tajribasi respublika miqyosida umumlashtirilib, uni qolgan viloyatlarda ham o'tkazishga qaror qilindi. Islohot **Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo** va **Xorazm** vohalarida ham o'tkazildi.

**Qashqadaryo, Surxondaryo** va **Xorazm**da **20 gektar** sug'oriladigan va **45 gektar** lalmikor va bahorikor yerga ega katta yer egalarining oshiqcha yerlari musodara qilindi. **1929-yili** yer-suv islohoti **Qoraqalpog'istonda** ham o'tkazildi.

Shunday qilib, yer-suv islohoti natijasida O'zbekistonda jami **1492 ta** o'ziga to'q xo'jalik tugatildi. **27 992 ta** badavlat mulkdorlarning ortiqcha yerlari tortib olindi. Respublikaning yer fondiga tortib olingan **474 393 desyatina** yer qo'shildi, ularning **10 foizi** kam yerlilarga berildi. Qishloq aholisini qishloq xo'jalik kooperativlariga birlashtirish kuchayib bordi. **1929-yili** jamoa xo'jaligi hisoblangan kooperatsiyalarga birlashtirilgan dehqon xo'jaliklarining respublikadagi salmog'i **81 foizga** yetdi. Bu jarayon, afsuski, oddiy mehnatkashlar manfaatiga zid holda olib borildi. Jumladan, shunday hollar ham sodir bo'ldiki, unda o'rtahol dehqonlar, kustarlar, hunarmandlar, hatto qishloq kambag'allari ham quloq dehqonlar qatoriga qo'shib quvg'in yoxud surgun qilindi, mol-mulki musodara etildi.

*O'zbekistonda sanoatlashtirish va uning oqibatlari.* Ittifoq hukumati-ning sanoatlashtirish rejasida O'zbekistonda zamonaviy yirik industrial tarmoqlarnimas, balki ko'proq xomashyoni (ayniqsa, paxta xomashyosini) qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini, tog'-kon sanoatini rivojlantirishga asosiy urg'u berilgandi. Negaki bu hudud markaz uchun ko'proq xomashyo mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashtirilishi kerak edi. Shu bois ham muhim e'tibor paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq tarmoqlarni

rivojlantirishga qaratilgandi. O'zbekistonda **1925-yili atigi 21 sanoat tarmog'iga taalluqli 149 ta korxonalar mavjud edi, xolos. Ular ham, asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan, uncha katta bo'lmagan korxonalar edi. Industralashtirish yillarida O'zbekiston energetik resurslarga nihoyatda boy bo'lishiga qaramay, kuchli gidroenergetik inshootlar qurilishi sust olib borildi. Agar O'zbekistonda 20-yillar oxirida bunyod etilgan to'ng'ich Bo'zsuv GES bilan Ukrainada qurilgan DneproGES quvvatini bir-biriga solishtirsak, bunda katta farqli manzara namoyon bo'ladi. Negaki DneproGESning 50 ming kv/s quvvati bilan Bo'zsuv GESning 2 ming kv/s quvvatini bir-biriga qiyoslab bo'lmastigi o'z-o'zidan ravshan. Bu ham O'zbekistonning Ittifoq davlati nazdida ko'proq iqtisodiy qoloq o'lka sifatida gavdalanishi kerakligiga yaqqol bir ishoradir. Sanoatlashtirish davrida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodi barpo etildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon va Shahrisabzda pillakashlik fabrikalari, Farg'ona (1930) va Toshkent (1936 – 1939) to'qimachilik, Chirchiq elektrokimyo (1937) kombinatlari, Toshkent mashinasozlik zavodi, bir necha konserva, g'isht pishirish va urug' yetishtirish korxonalari qurildi. Umuman, statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928 – 1932)da 289 ta va ikkinchi besh yillik (1933 – 1937) davrida 189 ta katta va kichik sanoat korxonalari qurilgan hamda ishga tushirilgan. Ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi va salmog'i ham yil sayin ortib bordi. Chirchiq, Yangiyo'l kabi sanoat shaharlari vujudga keldi. 1925 – 1940-yillar davomida respublikada qurilgan GESlar soni 49 taga yetdi. Toshkent – Angren temir yo'li, Toshkent – Termiz katta o'zbek trakti avtomobil yo'li qurildi.**

Ikkinchi jahon urushiga qadar bo'lgan davrda O'zbekistonning sanoat salohiyati 1445 ta yirik va o'rtacha sanoat korxonalarini va 19 mingga yaqin mayda korxonalarni o'z ichiga olardi. Garchand sanoat qurilishi urushgacha bo'lgan yillarda ancha ko'zga ko'rinarli tarzda rivojlanib, muayyan yutuqlarga erishib borgan bo'lsa-da, biroq bu sohada ko'plab jiddiy muammolar va nuqsonlar ham mavjud edi. Avvalo, Ittifoq davlati bilan respublika o'rtasida imperiyachilik munosabatlari tizimi, yuqoridan tazyiq qilish amaliyoti, rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlik usullari O'zbekiston sanoati tarmoqlarida chuqur salbiy asorat qoldirdi. Mustabid tuzum tomonidan O'zbekiston sanoatini rivojlantirish siyosatining amalga oshirilishi orqasida respublika metropoliyaning rangli va nodir metallar, olingugurt, ozokrit, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta'minlovchi mintaqasiga aylantirildi.

O'zbekistonda bunyod etilgan sanoat korxonalarining ko'pchiligi xomashyo yoki yarim mahsulot turlarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgandi. Ularni boshqa hududlardagi korxonalar tayyor mahsulotga aylantirardi. Bu esa Ittifoq hukumati xazinasiga mo'aym valyuta daromadlarining kelib tushishini ta'minlardi. Markaz amri bilan respublikaning xomashyo, tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilingani holda, uning o'ziga xos iqtisodiy manfaatdorligi hech qanday nazar-pisand etilmadi. Yana shunisi ajablanarliki, O'zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining asosiy qismi uning bevosita tasarrufida bo'lmay, to'lig'icha Ittifoq ixtiyoriga bo'ysunardi. Masalan, **1928-yili** O'zbekistondagi mavjud korxonalarining **81,7%** Ittifoqqa tegishli, **14,5%** respublika va **3,8%** mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan esa, **30-yillar o'rtalariga** kelib Ittifoq tasarrufidagi korxonalar **90%** ni tashkil qilgan. Boz ustiga, industrilashtirishning butun og'irligi mehnatkash xalq zimmasiga tushgan. Ular qiyin sharoitlarda mehnat qilishga, bu murakkab jarayonlarning barcha mashaqqatlariga bardosh berishga majbur edilar.

Respublikada industrilashtirishning yana bir xarakterli tomoni shundaki, bu jarayon davomida malakali ishchi kuchi yetishmaganidan RSFSR hududidan juda ko'plab odamlar oqimi kirib keldi. Ular hisobiga respublikaning ishchilar sinfi saflari to'ldirib borildi. Jumladan, **1926-yildan 1940-yilgacha** O'zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga **750 ming kishiga** yoki **10% dan ortiqroqqa** ko'paydi. SSSRning markaziy tumanlaridan aholining sun'iy tarzda ommaviy oqib kelishi ko'p jihatdan xalq xo'jalik mulohazalari bilanmas, balki ko'proq siyosiy mulohazalar taqozosi bilan amalga oshirilgandi. Agar joylarda o'zining malakali ishchi kadrlarini keng miqyosda tayyorlash tashkil etilganda edi, bu hol ancha oqilona va ijobiy bo'lishi, eng muhimi, ko'plab mahalliy navqiron yoshlarni foydali ishga jalb etish hamda ularni yaxshi ishchi kadrlar qilib tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz edi. Biroq sovet tuzumi davrida siyosat va mafkuraning iqtisodiyotdan ustun qo'yib kelinishi bu masala bobida ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmagandi. Negaki totalitar tuzum sharoitida, barcha aholi tabaqalarida bo'lgani singari, respublikaning ishchi va xizmatchilariga nisbatan ham g'oyaviy va ma'muriy tazyiq ko'rsatib borishga alohida urg'u berilgandi. Bu tuzum mutasaddilari aholining moddiy, ma'naviy manfaati, shaxsiy qiziqishi, tashabbuskorligi masalalariga imkon qadar panja ortidan qarar, bularni ikkinchi darajali ish deb hisoblardi.

### 28.3. RESPUBLIKA QISHLOQ XO'JALIGINI JAMOALASHTIRISH VA UNING OQIBATLARI

*Qishloqda jamoalashtirish sari yo'l tutish.* VKP(b) XV syezdida (1927-yil dekabr) qishloqda yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish siyosati belgilandi. Butun SSSR hududida bo'lgani singari, O'zbekistonda ham bu ishga faol, yeng shimarib kirishildi. Negaki yuqoridan belgilangan har qanday amr-u farmon va direktiv ko'rsatmalar bu yerda ham so'zsiz bajarilishi, hayotga joriy etilishi majburiy hisoblanardi. Buning uchun tegishli shart-sharoit va imkoniyatlar bormi-yo'qligi yoxud mahalliy aholining bu tadbirlarni bajarishga tayyorgarligi qay darajada ekani e'tiborga olinmasdi.

**20-yillarda** o'tkazilgan yer-suv islohoti davrida badavlat dehqonlarning yerlari, vaqf yerlari, ruhoniylarga tegishli yerlar davlat tomonidan tortib olingandi. Yer bilan birga hamma ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilindi. Umuman, **1925 – 1929-yillar** ichida boylar, yirik savdogarlar va ruhoniylarning **45 mingga yaqin individual xo'jaliklari** batamom tugatildi. Ko'pgina xo'jaliklar tasarrufidagi ortiqcha yerlar ham tortib olingandi. Bu yerlar qayta taqsimlanib, ularning bir qismi yersiz yoki kam yerli dehqon xo'jaliklariga mulk qilib berildi. Buning natijasida batrak-kambag'allar toifasi islohotdan oldin barcha dehqonlarning **76 foizini** tashkil etgan bo'lsa, islohotdan so'ng ularning soni **39 foizgacha** qisqardi. Ularning xo'jalik turmushi yaxshilanib, o'sib borgani bois, o'rtahol dehqonlar salmog'i **17 foizdan 52 foizga** ko'tarildi. Shu tariqa qishloqda tovar-g'alla yetishtiruvchi mayda ishlab chiqaruvchilarning salmog'i ko'payib bordi. Bu islohot davomida respublikada jamoa xo'jaliklari, ya'ni **kolxozlar** tashkil etildi. Biroq ularning hali xo'jalik va moliyaviy zaifligi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pastligi ko'zga tashlanib turardi.

*Ommaviy jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari.* Qishloqda yalpisiga jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish uchun O'zbekistondagi partiya, sovet, xo'jalik, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari to'la safarbar qilindi. Markaz buyrug'i va dasturilamal ko'rsatmasini quloq qoqmay bajarishni o'zlari uchun katta ishonch yorlig'i deb bilgan, unga ko'r-ko'rona asoslangan mahalliy rahbarlar dehqonlarni zudlik bilan kolxozlarga majburan kiritishni **1929-yilning 2-yarmi – 1930-yil boshlarida** avj oldirib yubordilar. Masalan, O'zbekiston partiya va hukumatining **1930-yil 17-fevraldagi «Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»**gi qarorida respublikaning **17 ta** tumanida yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangandi. Ko'p joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida o'rtahol, hattoki kambag'al

dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham zulm o'tkazildi. **1929-yil oktyabriga** qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining **3,4 foizi** kolxozlarga kirgani holda, **1930-yil martiga** kelganda dehqon xo'jaliklarining **47 foizi** kolxozlashtirildi.

Ko'pgina joylarda aholi jamoalashtirish xavfidan qo'rqib o'z chorva mollarini keragidan ziyod so'yib yubordi. Bu esa chorvachilik uchun koni zarar bo'ldi. Masalan, birgina qoramollar tuyog'ining soni **1930-yili** respublika bo'yicha **60 mingdan ziyodroqqa** kamayib ketdi. Jamoalashtirish ishidagi shoshmashosharlik, joylardagi real shart-sharoitlar bilan hisoblashmaslik, milliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining milliy an'analari, udumlarini e'tiborga olmaslik, ularni pisand qilmaslik oxir-oqibatda bundan ham ko'ngilsizroq va noxushroq holatlarning yuz berishiga sabab bo'ldi.

Ko'p qishloq tumanlarida hokimiyat organlarining zo'ravonligi, o'zboshimchaligiga qarshi aholi keskin norozilik bildirib, turli harakatlar uyushtirishga majbur bo'ldi. **1929 – 1930-yillarda** dehqonlarning sovet tuzumiga nisbatan ommaviy norozilik harakatlarida faqat **Qashqadaryo okrugidan 14 ming nafar** kishi qatnashgan. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, bunday ommaviy norozilik harakatlari shu davrda respublika bo'yicha **240 marta** sodir bo'lgan. Eng achinarlisi shuki, ko'plab oddiy dehqon xo'jaliklari arzimagan sabablar bilan yoxud birgina jamoa xo'jaligiga kirishga rag'bat bildirmagani vajidan bor-budidan mahrum etilib, uy-joyi, mol-mulki tortib olinib, quloq qilinuvchilar ro'yxatiga tirkab yuborilavergan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, jamoalashtirish boshlarida O'zbekistonda shartli ravishda quloq xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i umumiy dehqon xo'jaliklarining **5 foizidan kamrog'ini** tashkil etardi, xolos. Biroq ommaviy jamoalashtirish boshlanishi bilan **15 foizdan ortiq** xo'jaliklar quloqlashtirishga duchor bo'ldi, faqat **1930-yilning** o'zida respublikada boy va quloq xo'jaliklar toifasiga kiritilgan **2648 ta** o'rtahol dehqon xo'jaliklari tugatilgandi.

Respublikaning o'ziga to'q, bozorga tovar-g'alla yetishtirib berishga qodir son-sanoqsiz dehqon xo'jaliklari bor narsasidan mahrum bo'lib, haqsiz-huquqsiz holda o'z oila a'zolari, qarindosh-urug'lari bilan uzoq hududlar (**Sibir, Ukraina, Qozog'iston**)ga yoki yangi o'zlashtirilayotgan cho'lli, to'qayzor, qamishzor yerlarga badarg'a qilindilar. Ularning ko'plari bu kimsasiz, huvillagan joylarning og'ir shart-sharoitlariga dosh berolmay, turli kasalliklarga chalilib, ochlik, muhtojlik azobidan bevaqt ko'z yumib ketdilar. Endi quloq qilingan va o'z joylaridan ko'chirilgan xo'jaliklarning

tortgan azob-uqubatlari haqida bir kichik lavha: Samarqand viloyatining **Miyonko'l oroliga** bir necha ming quloq qilinganlar oilasi joylashtirilgandi. Botqoqli va ko'llardan iborat to'qayzor, qamishzor yerlar ularning kuchi bilan quritilib o'zlashtirilgach, paxta, sholi ekiladi. Qamishdan to'qilgan lagerlarda yashovchi «quloq» oilalari hayvonchalik qadrlanmasdi. Ichki ishlar xodimlari ularni xo'rlar, ovoz chiqarsa, otib tashlar, beayov ishlata'di. Miyonko'llik keksalarning eslashicha, ularning ko'plari mashaqqatli mehnat, ochlik, kasallik azobidan, soqchilar zulmidan o'lib ketdilar. Bu yerda yuzlab, minglab o'lim topgan kishilar bir joyga kafansiz, diniy rasm-rusumlarsiz ko'mib yuborilgan.

Sovet hokimiyati, uning tegishli mas'ul organlari, mahalliy partiya, sovet va xo'jalik tashkilotlari butun choralar bilan qishloqda jamoalashtirish siyosatini qat'iyat bilan o'tkazishda davom etdi. Garchi partiya Markazqo'mining **1930-yil 5-yanvardagi** qaroriga binoan, O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini yoppasiga jamoalashtirish ishlarini **1933-yil boshlariga** qadar tugallash muddati belgilangan bo'lsa-da, mahalliy rahbarlar uni muddatidan avval bajarish uchun shiddat ko'rsatdilar. Buni quyidagi raqamlar ko'rsatkichida ham yaqqol ko'rish mumkin. Agar **1930-yil iyuni**da respublikada **6124 ta kolxoz** tuzilgan, ularga jalb qilinganlar dehqon xo'jaliklarining **27,1 foizini** tashkil etgan bo'lsa, shu yilning oxiriga borib **37 foizga, 1931-yil dekabrda esa 68,2 foizga** yetdi.

Ayni paytda, dehqon xo'jaliklarini majburiy quloq qilish, boshqa joylarga surgun etish ishlari ayj oldirildi. Quloqlashtirish oqibatida **60 mingdan ortiq** kishi O'zbekistondan **Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga** surgun qilindi.

Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'rvonlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralarning uzluksiz qo'llanilishi orqasida kolxoz qurilishi sezilarli sur'atlarda rivojlantirib borildi. **1932-yil oxiriga** kelib O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining **81,7 foizini** birlashtirgandi. **800 ming** dehqon xo'jaliklari negizida **9734 ta kolxoz** va **94 ta sovxoz** tashkil etilgandi.

Bu davrga kelib paxtachilik tumanlarida jamoalashtirish, asosan, tugallangan, ularning ekin maydonlari **1929-yildagi 530 ming gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga** ko'paygandi. Shu tariqa «SSSRning paxta mustaqilligini ta'minlash»da O'zbekiston o'z salmoqli ulushini qo'shib bormoqda edi. Masalan, **1935-yili** O'zbekistonda **1 mln tonna** paxta tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich **1939-yili 1,5 mln tonnani, 1941-yili esa 1 656 200 tonnani** tashkil etdi. Bu SSSR bo'yicha tayyorlangan paxtaning **60 foizidan ziyodrog'ini** tashkil qilardi. **30-yillar** davomida respublika qish-

loq xo'jaligi tizimida paxta yakkahokimligi mustahkam o'rin egallab bordi. Jumladan, agar **1933-yili** paxta mahsuloti respublika yetishtirib tayyorlab beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmining **81,5 foizini** tashkil etgan bo'lsa, **1937-yilga** kelib bu ko'rsatkich **93,4 foizga** yetdi. Qishloqni jamoalashtirish jarayoni ham o'zining yakunlovchi pallasiga kirib bordi. Chunonchi, **1937-yili** dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish darajasi **95 foizga** yetgan bo'lsa, **1939-yili u 99,2 foizni** tashkil etdi. Ommaviy jamoalashtirish jarayonida O'zbekiston bo'yicha **60 mingdan ortiq** kishi quloqlarga mansublikda ayblanib qatag'on qilindi. Shu tariqa «quloqlarni sinf sifatida tugatish» masalasi uzil-kesil hal etildi.

*Jamoa xo'jaliklarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va suv inshootlari qurilishi.* O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini ommaviy tarzda jamoalashtirish ishlari, ayni chog'da, yangi xo'jaliklarga moddiy-texnik baza bo'lib xizmat qiladigan **mashina-traktor stansiyalari (MTS)**ni tashkil etish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. O'zbekistonda dastlabki mashina-traktor stansiyasi **1929-yili Andijon okrugining Asaka tumanida** tuzilgan, u yangidan tashkil etilgan jamoa xo'jaliklariga texnik yordam ko'rsatgandi. Asta-sekin ularning soni ortib bordi. **1931-yilga** kelib MTSlar **48 ta** qishloq tumanlarida tashkil etilib, qishloq ahlining dala yumushlariga xizmat ko'rsatdi.

MTSlarning yirik dehqon xo'jaliklariga nafi katta bo'lganidan ularning safi respublikada to'xtovsiz ortib bordi. Jumladan, **1937-yili** ularning soni **163 taga**, **1941-yilga** kelganda esa **189 taga** yetdi. Garchand yirik jamoa yerlarini ishlab berish, qo'l mehnatini yengillashtirish, qishloqqa texnika olib kirish, texnika ilmidan qishloq mehnatkashlarini xabardor qilish, ma'lumotini oshirishda MTSlar muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, biroq bu narsa jamoa xo'jaliklarining davlatga tobeligini yanada kuchaytirdi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar orqali tobora davlat qo'lida to'plana bordi. MTSlar jamoa yerlarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdori esa yuqoridan, davlat organlari tomonidan belgilanardi.

MTSlarning vujudga kelishi va xizmat ko'rsata boshlashi bilan qishloqda shartli ravishda bo'lsa-da «**ikkita xo'jayin**» – kolxozlar va MTSlar qaror topdi. Garchand har ikkalasining asosiy jilovi davlat qo'lida bo'lsa-da, biroq ularning biri texnika uchun, ikkinchisi qishloq xo'jaligi sohasining qolgan boshqa ishlari uchun mas'ul hisoblanardi. Shunga qaramay, bunday «ikki hokimiyatchilik»ning yuzaga kelishi orqasida ishlab chiqarishni tashkil etish va texnika xizmatidan foydalanishda xo'jasizlik kelib chiqdi, ekinlar hosildorligi, chorvachilik mahsuldorligi uchun mas'uliyatni



jamo'a a'zolari ham, MTS xodimlari ham o'z zimmasiga olmadilar. Bu esa katta va keraksiz xarajatlarga sabab bo'ldi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ayniqsa, uning yetakchi tarmog'i – paxtachilik sohasining tezkor rivojlanishidan manfaatdor sovet hukumati ham boshidanoq respublikada irrigatsiya va melioratsiya tizimini yaxshilash va takomillashtirishga jiddiy e'tibor berib bordi.

Shu maqsadda 1922-yil yoq respublikada irrigatsiya tizimini qayta tiklash va yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston hukumati tarkibida Suv va qishloq xo'jaligi xalq komissarligi, uning huzurida esa Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi, joylarda viloyat, tuman, uchastka suv xo'jaligi bo'limlari tashkil etildi. Ularga davlat yordami ko'rsatib borildi. Jumladan, 1922-yili irrigatsiya ishlariga **6 mln oltin rubl** hisobida mablag' ajratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sug'oriladigan yerlarni **2 yil** ichida **2 mln desyatinaga** yetkazish edi. Joylarda suv inshootlari qurilishi avj oldirib yuborildi. Yangi kanallar, ariqlar qurildi. Ko'plab yangi yerlar o'zlashtirildi. Natijada 1924-yilga kelib sug'oriladigan yerlar miqdori **2,4 mln desyatinaga**, shu jumladan, paxta ekiladigan maydon **500 ming desyatinaga** yetkazildi.

Bu ishlar, O'zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldirib yuborildi. Urushgacha bo'lgan davrda respublikada **Darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari, Kattaqo'rg'on suv ombori** kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929 – 1933-yillarda bu sohaga **234,9 mln rubl** sarflandi.

1939-yili O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va respublika hukumati hashar yo'li bilan **Katta Farg'ona kanalini** qurish to'g'risida qaror qabul qildi. O'sha yilning 1-avgustidan **160 ming kolxozchi** kanal qurilishini boshlab yubordi. Ularning **70 mingdan ziyodrog'ini** yoshlar tashkil etardi. Uzunligi **270 km** bo'lgan bu kanal, asosan, qo'l mehnati bilan **45 kun** ichida qurildi. Unda **46 ta** yirik, **274 ta** kichik gidrotexnik inshootlar, **5 ta** temir yo'l va **40 ta** avtomobil ko'priklari barpo etildi. Holbuki, bunday kanalni barpo etish uchun chorizm davrida **6 – 8 yil**, sovet davrida esa **6 – 8 oy** kerak bo'ladi deyilgandi. Amalda esa u xalq qudrati, azm-u qarori bilan atigi **1,5 oyda** bunyod etildi. Bu o'zbek xalqiga xos hashar usulidagi shonli, fidokorona mehnat samarasi edi.

Hatto markaz matbuotining bosh organi – «Pravda»ning 1939-yil 13-dekabrda bosh maqolasida shunday satrlar bitilgandi: «*Shu yilning yoz faslida uzoq Farg'onada qilingan ish, o'n minglab o'zbek va tojik*

*kolxozchilarining bir yarim oy mobaynida kanal qazigani butun xalqni juda quvontirdi. Ijodkor xalq, yaratuvchi xalq farg'onalik kolxozchilarning tajribasida... mehnatdagi shunday bir yangilikni ko'rib oldiki, bu yangilik kelajak sari qilinayotgan harakat sur'atlarini jadallashtiradi».*

Katta Farg'ona kanali Farg'ona vodiysining asosiy qon tomiri bo'lib qoldi. Vodiya **60 ming gektar** bo'z, cho'lli yerlar o'zlashtirilib, **500 ming gektar** yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda **Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Toshkent kanali, Kampirrovot suv to'g'oni, Qoraqalpog'istonda Qizketgan kanali**, sig'imi **1 mln metr<sup>3</sup>** bo'lgan **Kattaqo'rg'on suv ombori** va ko'plab boshqa suv inshootlari barpo etildi hamda foydalanishga topshirildi. Buning natijasida **1937 – 1940-yillarda** respublikada sug'oriladigan yer maydonlari qo'shimcha ravishda **200 ming gektarga** ko'paydi. Respublikada yangi paxtachilik tumanlari va ko'plab jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Ularning ekin maydonlari hosildorligi yil sayin ortib bordi.

Shunday qilib, sovet hokimiyati va kommunistik partiya qishloqda jamoalashtirish siyosatini olib borishda qishloq ahliga nisbatan nechog'liq zulm va zug'um o'tkazmasin hamda ne-ne og'ir sinovlarga duchor etmasin, biroq ular xalq irodasini, uning shiddati, azm-u qarorini so'ndirolmadi, o'zbek xalqi fidoyilik bilan mehnat qildi.

#### **28.4. O'ZBEKISTONDA SOVETLAR YURITGAN MADANIY-MA'RIFIY SIYOSAT: MAZMUN VA MOHIYATI**

*Xalq ta'limi.* Sovet hukumati mahalliy xalq ishonchini qozonish, eng avvalo, kambag'allar, yo'qsillar farzandlarini o'qitish, ularni savodli, bilimli qilish uchun o'zining dasturiy maqsadiga javob beradigan sovetcha ta'limni rivojlantirishga asosiy e'tibor berdi. **20-yillarda** O'zbekiston hayotidan muhim o'rin olgan birinchi va ikkinchi bosqich maktablari shunday ta'lim berishga mo'ljallangan bilim dargohlari edi. Masalan, **1921-yili** Turkistonda **165 645 o'quvchisi** bo'lgan **1965 ta 1-bosqich** (boshlang'ich) va **6500 o'quvchisi** bo'lgan **58 ta 2-bosqich** (o'rta) sovet maktablari faoliyat ko'rsatgandi.

**1920-yil 17-sentyabrda** Turkiston ASSR hukumati o'lkada **8 yoshdan 40 yoshgacha** bo'lgan kishilarni o'qitish va savodxon qilish to'g'risida dekret qabul qildi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad mahalliy xalqni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta'siriga olish, uning yangi tuzumga xayrxohligini kuchaytirish edi. Shularni hisobga olib respublikaning turli

hududlarida son-sanoqsiz savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etildi. Ularga turli yoshdagi kishilar, erkaklar va ayollar jalb qilinib, o'z savodlarini chiqardilar. Jumladan, **1928 – 1932-yillarda** O'zbekistonda jami **700 ming nafar** kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich **1933 – 1937-yillarda 1,4 mln kishini** tashkil qildi.

Respublikada boshlang'ich ta'lim tizimining joriy etilishi, keyinroq **7 yillik** ta'limga o'tilishi ham xalq ta'limi sohasidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Maktab qurilishi, uning malakali o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlanishi, o'quvchilar soni yil sayin o'sib bordi. Sovet davri statistik ma'lumotlariga qaraganda, agar **1924/1925-o'quv yilida** O'zbekistonda **160 ta** sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda **17 209 nafar** o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, **1941-yilga** kelib bunday maktablar soni **5504 taga** va ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni **1 mln 315 ming** nafarga yetgan.

**30-yillarga** kelib respublikada malakali o'qituvchi kadrlar tayyorlaydigan ko'plab pedagogika institutlari va o'rta maxsus pedagogik bilim yurtlari tashkil qilindi. Bu esa xalq ta'limi tizimi faoliyatini ancha yaxshilashga turtki berdi. Agar raqamlarga murojaat qilsak, **1928/1929-o'quv yilida** respublikamizda o'qituvchilar soni **5,5 ming kishiga** teng bo'lgan esa, bu ko'rsatkich **1932/1933-o'quv yilida 19 ming kishini**, **1941-yili 42 ming kishini** tashkil etdi.

Sovet hukumati ta'lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to'liq ravishda o'z izmiga bo'ysundirish maqsadida arab alfavitiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda **1929-yili** arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvi tugatilib, undan **lotin** grafikasiga o'tildi. Bundan ko'p vaqt o'tar-o'tmasdan, **1940-yilga** kelib **kirill** – rus alfaviti negiziga qurilgan yozuvga o'tildi. Birgina o'zbek yozuvini o'zgartirish borasida qo'llanilgan bunday xatti-harakatlar respublika xalq ta'limining keyingi taqdiri, istiqboli uchun salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Bu ham yangi avlodni o'z asliy sarchashmalaridan, milliy tarixidan mahrum etib borishning o'ziga xos ayyorona yo'li, ko'rinishi bo'lgandi.

Shu bilan birga, yangi tashkil etilgan ta'lim maskanlari, maktablarning moddiy bazasi, ularning o'quv dasturlari, qo'llanmalari va darsliklar hamda boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlanish darajasi ham mutlaqo talabga javob bermasdi. Agar **20-yillarda** respublikada o'qitish jarayoni bir qadar milliy ziyoli olimlar, yetuk pedagog mutaxassislar tomonidan tayyorlangan o'quv qurollari, darsliklar asosida tashkil etilgan bo'lsa, **30-yillardan** e'tiboran ahvol keskin o'zgardi. Sohaning jilovi to'liq markaz mutasaddilari qo'lga o'tdi. Endilikda milliy respublikalardagi ta'lim jarayoni Moskvadan tayyorlab yuboriladigan dasturlar, darsliklar-u o'quv

qo'llanmalari asosida olib boriladigan bo'lib qoldi. Bu esa xalq ta'limining milliy mazmuni, xarakteriga salbiy ta'sir ko'rsatib bordi. Ayniqsa, **30-yil-larga** kelib respublikaning maktab ta'limiga mafkuraviy tazyiq o'tkazish, muallimlar tarkibini «tozalash», ular safidan «nobop, yot unsurlar»ni qidirib topishga urinish hollari atayin kuchaytirildi. Masalan, VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining **1933-yil 27-mart**da qabul qilgan o'qituvchilar safini tozalash to'g'risidagi qarori aynan shu yovuz maqsadga qaratilgandi. Mazkur qarorga asoslanib ish yuritgan sovet «bilag'onlari» bu davrda ko'plab bilimli, ma'rifatli, sof vijdonli milliy ziyolilarimizni ishdan bo'shatdi, qatag'on qildi.

Ular tomonidan tayyorlanib nashr etilgan milliy ruhdagi ko'plab o'quv adabiyotlari ham ayni shu yillarda taqiqlab qo'yildi. Yana shuni aytish joizki, shu davrda ommaviy tarzda «sovet ta'limi»ni olib, turli maktab va savodsizlik kurslarini bitirib, zo'rg'a savodini chiqarib endigina hayotga qadam qo'yanlar «ishonchli shaxslar» sifatida topilib, mafkuraviy saralash asosida o'z vazifalaridan chetlatilgan tajribali, bilimdon, professional ziyolilar o'rnini egallab borganlar.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim. Sovet hokimiyati O'zbekistondan chekka o'lkada oliy ta'limni tashkil etish, unga mahalliy yoshlarni jalb qilish orqali yerli xalq ishonchini qozonishga, u bilan yaqindan aloqa bog'lashga umid qilardi. Markaz amri bilan **1920-yil sentyabr**da Toshkentda tashkil etilgan **Turkiston davlat universiteti** shu maqsadga yo'naltirilgandi. Keyinchalik **O'rta Osiyo universiteti** maqomini olgan bu oliygoh o'lkada oliy ta'limni rivojlantirish, yuqori mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'ldi. Biroq o'quv dargohi professor-o'qituvchilarining mutloq tarkibi yevropalik millat vakillaridan tashkil topganidan undagi o'qitish tizimi birinchi kundanoq faqat rus tilida olib borildi. Bu esa mahalliy millat yoshlari uchun unga kirib ta'lim olishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirardi. Shuning uchun universitet talabalari safida ularning salmog'i juda ozchilikni tashkil etardi. Jumladan, **1923/1924-o'quv yilida** O'rta Osiyo davlat universitetida ta'lim olayotgan **2047 nafar** talabadan faqat **51 nafari** mahalliy millat yoshlari edi, xolos. **1924/1925-o'quv yilida** universitetda **2440 talaba** va ishchilar fakultetida **889 yoshlar** ta'lim oldi. Keyinroq, **30-yillar boshlariga** kelib, bu bosh oliy o'quv yurti negizida respublikamizda juda ko'plab turli xil yo'nalishlardagi institutlar tashkil etildi va faoliyat ko'rsata boshladi. **O'rta Osiyo politexnika (hozirgi Texnika universiteti), Moliya-iqtisod, Tibbiyot, Qishloq xo'jalik, To'qimachilik institutlari, Samarqand davlat universiteti** va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda yuqori malakali pedagogik kadrlarga talab muttasil o'sib borganidan, **Buxoro,**

**Samarqand, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch, Farg'ona va Namangan** singari shaharlarda pedagogika va o'qituvchilar tayyorlash institutlari tashkil etildi. Buning orqasida **1932-yilga** kelib respublikadagi jami oliy o'quv yurtlari soni **31 taga** yetdi. Ularda ta'lim olayotgan talabalar soni **12,2 ming** nafarni tashkil etardi. Ko'rsatkichlar yil sayin oshib bordi. Chunonchi, oliy o'quv yurtlari talabalarining soni **1937-yili 15,5 mingga, 1941-yili esa 18 mingga** yetdi.

Ayni paytda, mahalliy aholi yoshlari orasidan maxsus tanlab olinib, partiya, sovet va xo'jalik organlarida ishlash, sotsialistik qurilish jabhalarida aktiv faoliyat ko'rsatishga da'vat etilgan rahbar kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Negaki hukmron partiyaning «oltin fondi» hisoblangan bunday kadrlarni ko'plab tarbiyalab voyaga yetkazish O'zbekiston sovetlar siyosatini to'laqonli o'tkazishda muhim kafolat bo'lib xizmat qilardi-da. Shu maqsadlarni ko'zda tutib **1923-yili** Turkiston kommunistik universiteti ochildi. Unda o'lkaning bo'lg'usi sovet kadrlari «markscha-lenincha» ta'limot negizlarini qunt bilan egallab bordilar. Bu davrda Turkistonda **2 ta markaziy, 5 ta viloyat va 5 ta uyezd partiya sovet maktablari** faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ularda o'qiyotgan **1312 nafar** tinglovchining **10 foizini** xotin-qizlar tashkil etardi.

Moskvadagi Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida esa **1923-yili 77 nafar** turkistonlik yoshlar ta'lim oldi. Ulardan **o'zbeklar 24, turkmanlar 24, qozoq-qirg'izlar 29 kishi** edi. **20-yillarda** respublikada **6 ta qishloq xo'jalik texnikumi, 1 ta tibbiyot texnikumi, 16 ta hunar-texnika maktabi** tashkil qilindi. Ularda **6800 nafar** bilimga chanqoq yoshlar o'qidi. Shu vaqtda **5 ta pedagogika texnikumi, 2 ta pedagogika bilim yurti, 1 ta xotin-qizlar bilim yurti** mavjud bo'lib, ular orqali ko'plab bilimli, malakali pedagog kadrlar tayyorlandi. **40-yillar boshlariga** kelib O'zbekistonda maxsus bilim yurtlari soni **92 taga** yetgan bo'lib, ularda **12,6 ming nafar** yoshlar ta'lim olmoqda edi.

Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi oldida ham hali ko'plab jiddiy muammolar ko'ndalang bo'lib turardi. Oliy ta'lim tizimidagi o'qish jarayoni, asosan, rus tilida olib borilardi. Maxsus o'quv qo'llanmalari, darsliklar, boshqa o'quv-uslubiy jihozlar milliylik, yurtning o'ziga xoslik jihatlaridan nihoyatda uzoq bo'lib, ular, asosan, markazdan tayyorlab yuborilardi. Mahalliy professor-o'qituvchilar tarkibi nihoyatda kam bo'lgani bois, ko'pchilik fanlar va predmetlarning o'qitilishi, asosan, yevropalik olimlar tasarrufida edi. Boz ustiga, **30-yillarda** avjiga mingan stalincha qatag'onlik shamshiri ko'proq milliy kadrlar boshida sindiki, bundan respublika ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari katta ziyon-zahmat chekdi.

**Ilm-fan.** Markaz zo'ravonlarining milliy kadrlar, ziyolilar faoliyati doirasini har qanday cheklash, bo'g'ishga urinishiga qaramay, yurtning ko'plab iqtidorli, zakovatli yoshlari o'zlarini ilm-fan mashaqqatiga bag'ishlab, asta-sekin uning cho'qqilariga ko'tarilib bordilar. Rus tilini mukammal egallash qiyinchiligi ham ularga hech bir to'siq bo'lolmadi. **30-yillarga** kelib o'zbek fanining turli yo'nalishlarida o'z yuksak salohiyatini namoyon qilolgan, o'z ilmiy maktabiga asos solgan **Qori Niyoziy, Abdurahmon Sa'diy, Abdulla Avloniy, Ibrohim Mo'minov, Yahyo G'ulomov, Toshmuhammad Sarimsoqov, Xalil Rahmatullin, Habib Abdullayev, Sobir Yunusov** singari fan allomalari yetishib chiqdi. Ayni zamonda, respublikada ko'plab ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari tashkil etilib, fanning turli dolzarb muammolari ustida samarali izlanishlar olib bordilar. Bular jumlasiga *Butunittifoq paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti (SoyuzNIXI), Madaniy qurilish, Sanoat-iqtisod, Sanoat qurilishi, Huquq-tadqiqot institutlari, Gidrometeorologiya instituti, Geliotexnika laboratoriyasi, Astronomiya observatoriyasi, uning qoshidagi Quyosh xizmati bo'limi* va boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur institutlar va ilmiy markazlarga jalb etilgan respublika ilmiy kuchlari, fan fidoyilari Ittifoq va respublika ahamiyatiga molik qanchalab hayotiy muammolar, masalalarning yechimini topishda jiddiy tadqiqotlar olib bordilar. Ayniqsa, paxtachilik, uning hosildorligini oshirish, tezpishar, sifatli yangi navlar yaratish sohasida muhim yangiliklar qilindi. Geolog olimlar sa'y-harakatlari bilan yangi konlar, turli xil ma'dan topilmalari kashf etildi. **1927-yili** Farg'ona vodiysida **Sho'rsuv** neft koni ochildi. Sement ishlab chiqarish uchun xomashyo qidirib topildi. Natijada **Quvasoy sement zavodi** qurildi.

Qator mis, oltin, kumush, qalay, marmar konlari topildi va ishga tushirildi. Biroq ularning huzurini markaz ko'rdi. Negaki bu davrga kelib uning inon-ixtiyori to'la Ittifoq hukumati tasarrufiga olingandi.

**1940-yil 9-yanvarda** O'zbekiston XKS (hukumati) huzuridagi Fan qo'mitasi negizida **SSSR FANing O'zbekiston filiali** ta'sis etildi. O'sha kezlarda uning tarkibida **75 ta** ilmiy tadqiqot institutlari va muassasalari mavjud edi. Ular **3024 nafar** ilmiy xodimni o'z safiga birlashtirgandi. Ularning **109 nafari fan doktori, 510 nafari fan nomzodi** edi.

**«Hujum» harakati.** Ma'lumki, Turkiston xotin-qizlari hayoti asrlar davomida musulmonchilik qonun-qoidalari va an'analari asosida kechgan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Jumladan, ular aksariyat hollarda mehnatga tortilmas, balki uy-ro'zg'or ishlarida band bo'lishgan va farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Sovet hukumati esa o'zbek xotin-qizlarining bunday turmush tarziga diniy «xurofot» sifatida qaradi.

Shu bilan birga, ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi, ularning tor oila muhitidan ozod bo'lib, keng ijtimoiy-siyosiy hayotga tortilishi g'oyasi ilgari surildi.

Shu narsa haqiqatki, jamiyat rivojlanib borarkan, odamlarning ongi ham o'zgarishda davom etadi. Turmush tarzi yangilanadi, u zamonga moslashadi. Shu ma'noda o'zbek ayollarini paranjidan ozod qilish muhim vazifalardan biri ekani tabiiydir. Biroq mazkur masalani, eng avvalo, jamiyat a'zolari, fuqarolari orasida keng ko'lami tushuntirish, ma'rifiy yo'llar orqali tinch hal qilish mumkin edi. Jadidlar rahbarlari **F.Xo'jayev, Fitrat, Cho'lpon, A.Avloniy** ham bu masalani hal etishni o'z oldilariga muhim vazifa qilib qo'ygandi. Shu maqsadda tashkil etilgan respublika, viloyat, tuman, shahar va quyi sovet tashkilotlari qoshidagi xotin-qizlar bo'limlarida dastlab, umuman, to'g'ri ish olib borilgandi. Bu yerda gap parangi tashlash ustidamas, balki xotin-qizlar uchun maxsus klublar, artellar, do'konlar, savodxonlik kurslari ochish haqida borardi. Bu xildagi tadbirlarning ko'plab o'tkazilishi natijasida xotin-qizlar ijtimoiy foydali mehnatga, jamoatchilik ishlariga tortila boshlagandi. Ming afsuski, bu dastlabki yutuqlar, xususan, ayollarning jamoat joylariga paranjida kelishlari mustabid tuzumni aslo qoniqtirmasdi.

Shuning uchun VKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosining **1926-yil sentyabridagi** maxsus qarori asosida bu harakatni sun'iy ravishda tezlashtirishga kirishildi, oqibatda mazkur majburiy harakat **«Hujum»** nomini oldi. Xolisona aytganda, uni o'zbek xotin-qizlari xursandchilik bilan kutib oldi. Chunki ochiq yurish, yorug' olamni ko'rish, ilm olish, erkaklar bilan teng huquqli bo'lish ularning ham asriy orzusi edi. Biroq bu harakat, yuqorida ta'kidlanganidek, nihoyatda shoshmashosharlik, ma'muriyatchilik yo'li bilan o'tkazildi. Bu tadbirga hattoki erkak kommunistlar ham tayyor emasdilar. Masalan, **1927-yil 8-mart** kuni bo'lgan ko'plab mitinglarda minglab xotin-qizlar paranjilarini tashlashdi. Bularning orasida kommunistlarning ham xotinlari bor edi. Lekin ular ertasiga yana paranjini yopinishga majbur qilindi.

Shunga qaramay, «Hujum» harakati dastlab ancha sezilarli yutuqlarga erishib bordi. **1927-yil bahoriga kelib 100 ming ayol** parangi tashladi. Ming-minglab ayollar korxonalariga, qishloq, tuman kengashlariga, sud tizimiga ishga tortildi. Ular orasidan ko'plab traktorhilar, brigadirlar, kolxoz raislari, klub va kutubxona mudirlari tayyorlandi. Jumladan, **1927–1929-yillarda** sudlarning xalq maslahatchilari orasida o'zbek ayollari **563 kishiga** yetdi. **1926-yili** birgina Toshkent va Farg'ona viloyatlari «Qo'shchi» uyushmalarining **4900 ayol** a'zolari bor edi. **1927-yil** davomi-

da **7169 ayol kasaba** uyushmalariga a'zo bo'lib kirdi. **5916 ayol** matlubot kooperatsiyalariga a'zo bo'ldi, **2343 xotin-qiz** davlat organlariga saylandi.

**1927 – 1928-yillarda** «Hujum» harakati yanada keng quloq yozdi. Xotin-qizlarni savodsizlikni tugatish kurslariga jalb etish, ularning farzandlari uchun yasli va bog'chalar ochish tadbirlari ko'paydi. Paranj tashlagan ayollar uchun **32 ta** savodsizlikni tugatish maktabi tashkil qilindi.

Biroq sohadagi ishlar partiya organlari tomonidan bo'rttirib ko'rsatildi. Amalda esa jarayon ko'p hollarda joylarda to'xtab qoldi. Bu borada qo'llanilgan zo'rlash, majburlash yo'li va usullari o'zining salbiy natijalarini bermasdan qolmadi. Natijada hatto **10 – 15 yashar** qizlarni ham erga berib yuborish hollari ro'y berdi.

Joylarda xotin-qizlarni o'ldirish hollari ko'plab uchradi. **1927 – 1928-yillarda 2,5 mingdan ortiq** faol ayollar yovuz kuchlar qurboni bo'ldi.

Tabiiyki, har qanday jinoyat jazosiz qolmaydi. Faqat **1928-yili** ayollarga nisbatan g'ayriqonuniy xatti-harakatlari uchun **671 kishi** jazoga tortildi. Shulardan **7 kishi** otuvga hukm qilindi.

Shunday qilib, partiyaviy tazyiq, sovetcha majburlash va mafkuraviy kurash asosida o'tkazilgan «Hujum» harakati, qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, hayotga tatbiq etib borildi. Buning natijasida o'zbek ayoli ijtimoiy ishlab chiqarishga, hatto eng og'ir mehnat talab qiladigan ishlarga ham tortildi. Masalan, **1930-yili** ular qishloq xo'jaligida ishchi kuchining **80 foizini** tashkil etdi. Boshqa sohalarda ham xotin-qizlar salmog'i ortib, ularning ijtimoiy faolligi kuchaydi.

«Hujum» harakatining o'sib borishi davomida **1937-yilga** kelib **273 637 nafar** o'zbek xotin-qizlari savodsizlikni tugatish kurslarini muvaffaqiyatli bitirdilar. Ayol ishchilar va xizmatchilar soni **1940-yili 232 ming** kishiga yetdi. Bu esa butun respublikadagi ishchilarning **40,7 foiziga** teng edi. Ular **tikuvchilikda 82,3, qandolatchilikda 65,5, to'qimachilikda 88 foizni** tashkil etardi.

Shu bilan birga, bu mavsumiy harakat ko'pgina salbiy oqibatlarning yuz berishiga ham sabab bo'ldi. Mazkur jarayonni o'tkazishda yo'l qo'yilgan jiddiy xato va kamchiliklar, xalqning asriy udumlari, o'zbek ayollariga xos sharqona odob, axloq tamoyillarining buzilishi, bu nozik sohada odamlarning or-nomusini mensimaslik hollari real hayotda ko'plab fojiali voqealarni keltirib chiqardi.

Eng achinarlisi shuki, «Hujum» harakatida faol ishtirok etib, unda tashabbuskor bo'lgan, butun borlig'ini, ongli hayoti, faoliyatini sotsializm ishiga, partiyaning yolg'on, soxta g'oyalari chinligiga ishongan qanchalab ilg'or xotin-qizlar keyinchalik stalincha qatag'onlik qurboni bo'ldilar. Bunga



o'zbek xotin-qizlari ozodligi kurashining otashin namoyandalari – **Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova** singarilarning fojiali va tahlikali kechgan nochor qismatlari to'la misol bo'la oladi.

**Madaniy hayot va adabiy jarayon.** O'zbek xalqining ko'plab yurt-parvar ziyolilari fidoyilik namunalarini ko'rsatib, barcha qiyinchiliklarga bardosh berib respublikaning madaniy hayotida faol qatnashdilar. Ularning sa'y-harakatlari bilan teatrlar, klublar, kutubxonalar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar bunyod etildi. **1929-yili** o'zbek musiqali teatriga asos solindi. **1933-yilga** kelib Hamza nomidagi akademik drama teatri ish boshladi. Har qanday mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, milliy ruh ustuvor bo'lib qolaverdi. Xalqimiz orasidan uning asriy dil armoni, orzu-istaklarini kuylagan **Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Madrahim Sheroziy, Shorahim Shoumarov, Abror Hidoyatov, Soraxonim, Tamaraxonim, Lutfixonim, Mukarramaxonim** singari nomdor san'atkorlar yetishib chiqdi va dovrug qozondi.

**1936-yili** Toshkent davlat konservatoriyasining ochilishi xalqimizning madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. O'zbek musiqa madaniyatining zabardast vakillari – **Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burhonov, Tolibjon Sodiqov, To'xtasin Jalilov** singari san'atkorlar ijodi xalq dilidan chuqur joy oldi.

**1937-yili Moskvada** o'tkazilgan birinchi o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi xalqimiz madaniyatining yorqin ko'rigi bo'ldi. Unda «**Gulsara**», «**Layli va Majnun**» operalari, «**Farhod va Shirin**» musiqali dramasi va boshqa sahna asarlari katta mahorat bilan namoyish etildi.

**30-yillarda** O'zbekistonda yangidan kino san'ati shakllanib bordi. Uning yorqin ifodasi sifatida shu davrda yaratilib ekranlarga chiqarilgan «**Asal**», «**Qasam**», «**Ravot qashqirlari**», «**Azamat**» singari filmlarni tilga olib o'tish joizdir.

Ularni yaratishda **Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Sulaymon Xo'jayev, Yo'ldosh A'zamov, Rahim Pirmuhamedov** singari ajoyib o'zbek kino ustalarining xizmatlari benazirdir.

**20 – 30-yillarda** respublikada ko'plab madaniy inshootlar qurildi. **1932-yili** respublikada **707 ta kutubxona, 3087 ta klub, 409 ta kino-qurilma, 32 ta teatr, 13 ta muzey** faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekistonda madaniy qurilish jarayonining chuqurlashib borishiga mamlakatda avj olgan totalitar tuzum zo'ravonligi va bedodligi jiddiy to'sqinlik tug'dirdi. Bunday keskin, nosog'lom muhitda madaniyat

muassasalarining faoliyati cheklanib, soha xodimlarining ijodkorligi har tomonlama qiyin-qistov va siquvga olindi. Bu esa respublika madaniy hayoti maromining normal kechishiga, shubhasiz, salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur davrda o'zbek adabiyoti ham jiddiy hayotiy sinovlar jarayonini boshdan kechirdi. O'zining boy tarixiy an'analariga ega bu adabiyot xalq ruhining ko'zgusi sifatida uning ma'naviy hayotini tashkil qilishda, zamon muammolarini idrok etish hamda yechishda o'z hissasini qo'shib bordi. Sovetlar insonlarning ongi, shuuriga ta'sir etish, ularni ma'nan va ruhan tarbiyalashda adabiyot va san'atning o'rni va roli beqiyosligini hisobga olib uni yangi sotsialistik qurilish xizmatiga faol jalb etishga intildilar. Ularining nazarida adabiyot kuchli mafkuraviy qurol sifatida yangi tuzumni mustahkamlashga xizmat qilishi, millionlar ommasini shunga da'vat etmogi kerak edi. VKP(b) MQning 1925-yil 18-iyunda qabul qilgan «**Partiyaning adabiyot sohasidagi siyosati to'g'risida**» nomli qarorida shu ruh, g'oya aks ettirilgan. Bu hujjat o'zbek adabiyoti va uning namoyandalari uchun ham qo'llanma hisoblanardi. Unda ochiqdan ochiq sovet mafkurasiga zid adabiyot «burjua mafkurasi xizmatkori» deb e'lon qilingandi. Bu, albatta, har bir ijodkor zimmasiga mashaqqatli vazifa yuklardi. Negaki har bir shoir yoki adib sovet mafkurasi talablaridan biroz bo'lsa-da chetlashsa, o'z xalqining boy tarixiy o'tmishi yoxud ulug' ajdodlari hayotidan asar yozguday bo'lsa, uning og'ir jazoga ro'baro' kelishi hech gap emasdi. Mana, nima uchun **30-yillarda** xalqimiz faxr-u g'ururi bo'lib qolgan bir qator favqulodda iste'dod sohiblari qatag'on qilindi, ijodlari bo'g'ildi.

Biroq har qanday tazyiq-u ta'qiblarga qaramay, o'zbek adabiyoti bu yillarda muhim yutuqlarga erishib, jiddiy o'zgarishlar yo'ldan ilgarilab bordi. Bu o'rinda **Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Sadridin Ayniyning «Odina», «Sudxo'ring o'limi», Fitratning «Abulfayzxon», Oybekning «Qutlug' qon», G'afur G'ulomning «Ko'kan», «Yodgor»** va shu singari o'z davri uchun muhim voqea bo'lgan badiiy g'oyasi yuksak asarlarni alohida qayd etmoq lozim.

## **28.5. QATAG'ONLIK SIYOSATI: UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI**

*Totalitar tuzumning kuchayishi.* Lenin tomonidan asos solingan totalitar boshqaruv tizimini **Stalin** nafaqat kuchaytirdi. Bu tizimning mohiyati shundaki, unda davlat boshqaruv markazlashgan va buyruqbozlik xarakteriga ega bo'ladi. Ijtimoiyot, iqtisodiyot, madaniyat, ma'naviyat sohalari

ustidan qattiq nazorat o'rnatiladi. Turli xil tarzda fikr, tafakkur yuritish, muxolifatchilik harakatlarida bo'lish qat'iy man etiladi, siyosiy erkinliklar taqiqlanadi. Ayni chog'da, demokratiya buziladi, ilg'or, taraqqiyparvar kuchlar qatag'onlikka mahkum etiladi. Hukmron partiyaning yagona irodasi, o'zboshimchaligi, chegara bilmas zo'raonligi avjga minadi.

Mamlakatda totalitar tuzumning qaror topishi milliy sovet respublikalari hayotiga ham daxl qilib, ularning butun inon-ixtiyorini Ittifoq davlati tasarrufiga bog'lab qo'ydi. Bu O'zbekiston timsolida ham ko'zga yaqqol tashlandi. Avvalo, respublika hokimiyati boshqaruvining hamma bo'g'inlari to'liq ravishda SSSR organlariga bo'ysundirildi. Mamlakatdagi yagona rahbar tashkilot – O'zbekiston kompartiyasi ham VKP(b)ning tarkibiy qismi sifatida, ya'ni viloyat bo'limi maqomiga tushirildi. Binobarin, hukmron partiya qabul qiladigan har qanday qaror-u farmoyishlar, rahbariy ko'rsatmalar respublika partiya tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy va shart edi.

Stalincha ma'muriy-buyruqbozlik tizimi ko'zga ko'rinarli va ko'zga ko'rinmas ming xil qizil iplar bilan O'zbekistonni o'z domiga tortib, uning amaldagi rasmiy mustaqilligini ham yo'qqa chiqargandi. Uning mahalliy rahbariyati respublikaning iqtisodiy, xo'jalik, madaniy-ma'naviy hayotiga oid biror-bir masala, muammoni mustaqil tarzda hal etishga haqli, huquqli emasdi.

Milliy kuchlar safining bo'lib tashlanishi. O'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch-iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat kishilari hukmron markazning qahr-zahriga duchor bo'ldi. Qatag'onlik zulmkorlari, ularning gumashtalari bir imo-ishora bilan bunday yurt fidoyilarini oradan olib tashlash, faoliyatini og'machilik, buzg'unchilikda ayblash, sha'niga millatchi, xalq dushmani, aksilinqilobchi, burjua malaylari singari asossiz bo'htonlar bilan la'nat tamg'asini tirkashga doimo tayyor turardilar. Buning yorqin ifodasini sovet mafkurachilari tomonidan to'qib chiqarilgan va o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan «18 lar guruhi», «inog'omovchilik», «qosimovchilik» degan siyosiy ishlar misolida ko'rish mumkin. Mazkur guruhlar faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirib tahlil etarkanmiz, bu insonlar xatti-harakatida, faoliyatida ularni ayblashga sabab bo'ladigan hech bir asosli ashyo-dalil bo'lmaganiga to'la ishonch hosil qilamiz. Ularning yagona «gunohi» – o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targani va ularni yechishga yuqorining e'tiborini jalb etgani, xolos.

Respublikaning taniqli arboblardan tashkil topgan «18 lar guruhi»

(I.Xidiraliyev, M.Saidjonov, U.Ashurov, R.Rahimboboyev, R.Rafiqov va b.)ga tirkaigan asossiz aybga, uyushtirilgan tuhmat-u bo'htonga ko'ra, go'yo uning a'zolari ko'p masalalarda noto'g'ri yo'l tutganlar. Aslida, ular hukmron markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydlik yo'lga qarshi bo'lib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilib chiqqandilar. Shu bois rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralandi va uning a'zolari o'z lavozimlaridan olinib, turli partiyaviy jazolarga giriftor etildilar.

«Inog'omovchilik» guruhi to'g'risida gap borganda ham unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq tarzda to'qib chiqarilgani ayon bo'ladi. Ma'lumki, **Rahim Inog'omov** O'zKP(b) MQ matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR maorif xalq komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. U **1926-yili «O'zbekiston ziyolilari»** degan risolasini e'lon qilgan. Risolada oktyabr o'zgarishi o'zbek xalqi uchun kutilmagan voqea bo'ldi va unga o'zbek mehnatkashlari tayyormas degan gaplarni yozdi. Uning risolasida oktyabrgacha bo'lgan davrda: «...Rus istibdodiga qarshi mustaqillik harakatida tarixiy rolni ziyolilar o'ynagan», – degan haqqoniy fikrlar ilgari surilgan. R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasining mustaqil faoliyat yuritilmayotganiga, markaz nazoratchi organlarining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida e'tibor qaratgan. Respublikaning bir qator mahalliy partiya, sovet organlari mas'ul xodimlaridan **N.Mavlonbekov, I.Isamuhammedov, M.Aliyev** singari hammaslaklar Inog'omov qarashlarini qo'llab-quvvatlab chiqqandilar. Albatta, bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan, jazolanmasdan qolmasdi. Shu bois **1926 – 1927-yillarda** bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. R.Inog'omov va uning tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi, o'zlari esa tavba-tazarru qilishga majbur etildilar.

«Qosimovchilik» guruhi ham **1929 – 1930-yillarda** sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma bo'lgan.

O'zSSR Oliy sudi raisi lavozimida ishlab kelgan **Sa'dulla Qosimov** va uning yaqin maslakdoshlari deb topilgan **N.Alimov, B.Sharipov** kabi **7 kishi 1929-yilning 2-yarmida** qamoqqa olinadilar. Ularning atayin to'qib chiqarilgan «ayblov ishi»ga siyosiy tus beriladi. Bunga ko'ra, ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar, «bosmachilik» harakatiga yon bosganlikda qoralandilar. Bu guruhning **4 ta a'zosi** mana shunday asossiz ayblar bilan ayblanib otib tashlandi,

qolgan **3 kishi** esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. O'zbekiston ravnaqi, istiqboli uchun, xalqining baxt-u saodati, farovon turmushga erishishi uchun fidoyilik ko'rsatgan **Fayzulla Xo'jayev, Turor Risqulov, Abdulla Rahimboyev, Akmal Ikromov, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov** va boshqa o'nlab nomdor mahalliy rahbar kadrlarning qismati ham pirovardida mana shunday fojia bilan yakun topdi.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ular gumashtalarining yeng shimarib qilgan «sa'y-harakatlari» natijasida **1937 – 1938-yillarda** go'yo O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar borligi to'qib chiqarildi. Bular: respublika rahbarlari **A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan «Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonchilar tashkiloti», «Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksilinqilobiy tashkilot, I.Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezidenturasi», «Yapon josuslik-qa'poruvchilik rezidenturasi» va boshqalar edi.**

Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublika hududida butunlay bo'lmaganligini tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar totalitar tuzum buyurtmasi asosida markaz jallodlari va jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh, aybsiz insonlar shafqatsiz jazolangan, aziz umrlari xazon bo'lgan.

Faqat **1937 – 1939-yillarda** O'zbekistonda hammasi bo'lib **43 mingdan ziyod** kishi qamoqqa olingan. Ulardan **6 ming 920 nafari** otib tashlangan, **37 ming nafari** esa turli muddatli qamoq va surgunlarga hukm etilgan.

Ziyolilarning quvg'in qilinishi. Markazning o'tkir shamshiri va po'lat qalqoni hisoblangan **Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU), Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD)** kabi jazo organlari va ularning jallodlari uchun ilg'or, taraqqiyparvar ziyolilarni hibsga olish, ularning faoliyati uchun yo'q ayblarni to'qib chiqarish, uydirmalarni «yasash» hech gap emasdi. Qatag'onlik davrida tuzilgan «uchlik» har qanday vallomat, pokdomon zotni ham bir lahzada «gunohi azim»ga g'arq qilib, uni og'ir jazoga mahkum eta olardi. Eng achinarlisi shuki, o'z elini jon-u dildan sevgan, uni kuylagan, boy tarixi, betakror madaniyatiga murojaat qilib asar bitgan, buyuk ajdodlar nomini tilga olgan vatanparvar ijodkorlar, ilm-fan ahli birinchilar qatorida qatli omga uchradi. **Munavvar Qori Abdurashid-**

**xonov** mana shu davrda avj olgan sovetlar ig'vosi va bo'htonining aybsiz qurboni bo'ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo'lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan «**Milliy Ittihad**» va «**Milliy Istiqlob**» tashkilotlarining **87 a'zosi** ustidan sud uyushtirildi. Ularning **15 nafari 1931-yili Moskvada** o'tib tashlandi, qolganlari ham uzoq muddatli qamoq jazosiga hukm qilindi.

Bu o'rinda o'zbek adabiyotining ustunlari bo'lgan, noyob ijodi xalq mehrini qozongan **Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Elbek (Mashriq Yunusov), Mahmud Botu, G'ozu Yunus** kabi ajoyib iste'dodlar quruq bo'hton-u tuhmatlar asosida «xalq dushmani» sifatida jismonan yo'q qilinib, yorqin faoliyati so'ndirildi.

Masalan, ulardan biri – professor **G'ozu Olim Yunusovni** oladigan bo'lsak, u **50 dan ziyod** asarlar muallifi edi. Arab, fors, nemis, ingliz va barcha turkiy tillarni puxta bilardi. U hatto rus, arab va nemis tillarida Samarqand universiteti, Toshkent pedagogika instituti hamda Til va adabiyot ilmiy tadqiqot institutida maxsus kurslardan ma'ruzalar o'qirdi. Biroq bunday iste'dodlar qatag'on jallodlari uchun sariq chaqalik ham qadr-qimmatga ega bo'lmagan.

O'z zamonasining qomusiy bilim sohibi **Said Rizo Alizoda** qalamiga mansub yetuk asarlar uning hayotlik davridayoq dunyoga mashhur bo'lgan. Faqat **1923 – 1934-yillar** davomida **Lahor** shahrida olimning **10 dan ziyod** asari, shu jumladan, yirik «**Axborot**» kitobi chop etilgan. Uning **1919-yildan** boshlab nashr etila borgan «**Inqilob shu'lasi**» haftalik jurnali nafaqat Turkiston, balki qo'shni **Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston** mamlakatlariga ham keng tarqalgan. Shunday inson ham 30-yillar qatag'onligi domiga uchrab, **Vladimir** turmasida azob tortib, olamdan bevaqt ko'z yumdi.

Qatag'on davri qurbonlari orasida juda ko'plab taniqli ilm-ma'rifat, madaniyat namoyandalari bo'lgan. Ajablanarli jihati shundaki, Buxoro va Turkiston Respublikalari hukumatining tashabbusi va sa'y-harakati bilan **20-yillarda** xorijga o'qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo'lib yetishgan kishilar atayin qatli omga duchor etildi. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta'lim olgan bo'lsalar, ularga o'sha mamlakatlarning josuslari degan ayb qo'yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo'lsa, shuning o'zi yetarli dalil edi. **Sattor Jabbor, Solih Muhammad, Maryam Sultonova** singari o'nlab bilimdon yosh mutaxassis kadrlarga «xalq dushmani», «chet el josusi» qabilidagi tavqi la'nat tamg'asi bosildi.

Qatag'onlik ajal mashinasi aqli raso, oq-qorani tanigan, sog'lom fikrlay-

digan hech bir insonni ayab o'tirmasdi. **60 yoshli** mo'ysafid **Xudoyberdi Devonovning 1938-yili** mutlaqo asossiz ayb bilan oliy jazoga mahkum qilinib, otib yuborilganini qanday izohlash mumkin? Bu tinib-tinchimas inson o'zbeklardan chiqqan dastlabki fotograf va kinomatograf sifatida butun umri davomida halol-u pok xizmat qilib kelgan. Uning turli yillarda tasvirga olgan rang-barang suratlari, kinoxronikalari xalqimizning katta ma'naviy mulki hisoblangan. Qarangki, **1936-yili «Pravda Vostoka»** gazetasi tahririyati tomonidan moddiy rag'batlantirish maqsadida taqdim etilgan **«Leyka»** fotoapparati uning boshiga balo bo'ldi. Negaki qatag'on posbonlarining taxminicha, bu apparat go'yo X.Devonovga «xalq dushmani» deb topilgan Fayzulla Xo'jayev tomonidan berilgan. Binobarin, bu shaxs F.Xo'jayevning «dumi» deb ko'rsatilib, uni otuvga hukm qilganlar.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan Toshkentda qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish uchun **2000 – 2002-yillarda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyi, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi** barpo etildi. Prezidentning **2001-yil 1-maydagi** farmoni bilan **31-avgustning «Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni»** deb e'lon qilingani g'oyatda quvonarlidir.

**Xorazm viloyatining Gurlan tumanidagi Begovul** qishlog'ida ilmi, yaxshi fazilatlar bilan elda hurmat qozongan, ayollarni o'qitib, savodli qilgan tabarruk onaxon **Bibijon Ismoilova** bo'lgan. Bu **80 yoshli** inson diniy kitob o'qishda ayblanib qamoqqa olingan. Momo qiynoqlar oqibatida qamoqda olamdan o'tgan. Holbuki, u kishining uyiga qora quzg'unlar bostirib kirgan paytda, Bibijon momo hamisha o'qib yuradigan **«Axloqi muhsinin»** (Yaxshi xulqlar) kitobini o'qib o'tirar va bu asar go'zal insoniy fazilatlar ta'rifidan hikoya qilardi. U davrda nohaq ayblanib, mushtipar momo singari fojiali qismatga duchor bo'lganlar ko'plab topilardi. Bunday noxush hollardan sarosimaga tushgan, zada bo'lgan odamlar avvalgidek kitobxonlik qilish nari tursin, hatto eski kitoblarni qo'lga olishdan hadiksirardilar. Bu esa ko'plab yurtdoshlarimizning battol tuzum mayliga moslashib, ma'nan va ruhan cho'kib, tarixiy o'tmishimizning teran sarchashmalaridan bebahra bo'lib borishlariga olib kelgan.

## 29-BOB. O'ZBEKISTON IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (1939 – 1945)

### 29.1. O'ZBEKISTONNING URUSH GIRDOBIGA TORTILISHI. MA'NAViy VA MODDIY KUChLARNING FRONTGA SAFARBAR ETILISHI

Urushning boshlanishi, sabablari va xarakteri. Ikkinchi jahon urushi dunyo tarixida misli ko'rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni solgan urush bo'ldi. 1939-yil 1-sentyabr kuni fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan boshlangan bu urush 61 mamlakatni, Yer shari aholisining 80 foizini, ya'ni 1,7 mlrd kishini o'z girdobiga tortdi.

Ikkinchi jahon urushining 1-davri – 1939-yil 1-sentyabrdan 1941-yil 22-iyungacha bo'lgan davrda fashistlar Germaniyasi G'arbiy va Markaziy Yevropada hukmronlikni qo'lga kiritdi. Germaniya va Italiya Yevropadagi 10 davlat: Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya, Norvegiya, Avstriya, Fransiyani bosib oldi. Millatlar Ligasi harakatdan to'xtadi.

Germaniya G'arbiy Yevropaning harbiy, iqtisodiy resurslarini qo'lga kiritgach 1941-yil 22-iyun kuni hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani buzib, urush e'lon qilmasdan SSSRga xoinona hujum boshladi. Fashistlarning maqsadi SSSRni bosib olish, boyligini talash, millionlab kishilarni qirish va qolganlarini qul qilish edi. Germaniyaning SSSRga qarshi olib borgan urushi xarakter jihatidan bosqinchilik, adolatsiz urush edi. Germaniya bilan hamkorlikda uning ittifoqchilari – Italiya, Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham SSSRga qarshi urushga kirdilar.

O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. SSSR tarkibiga kirgan barcha respublikalar, muxtor viloyatlar, milliy okruglar, shu jumladan, O'zbekiston xalqlari ham urush girdobiga tortildi. O'zbekiston xalqlarining boshiga og'ir sinovlar tushdi.

Vaziyat butun mamlakat hayotini urush davri talablariga moslab qayta qurishni, butun kuch va vositalarni safarbar etishni talab qilardi. 23-iyun kuni VKP(b) MQ siyosiy byurosi partiya va sovet organlarini urush sharoitiga moslab qayta qurish to'g'risida qaror qabul qildi. Partiya va sovet hukumatining harbiy holat to'g'risida, harbiy xizmatga majbur bo'lgan kishilarni qizil armiyaga safarbar etish to'g'risida, qurol-aslaha



*ishlab chiqarish bo'yicha safarbarlik rejasini joriy etish to'g'risida qarorlari e'lon qilindi.*

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) MQ **1941-yil 29-iyunda** mamlakat hayotini urush talablariga moslab qayta qurish dasturini – front yoni viloyatlarining partiya va sovet tashkilotlariga yo'l-yo'riqlarini tasdiqladi va tegishli tashkilotlarga yubordi. **«Hamma narsa g'alaba uchun!»** – yo'l-yo'riqning asosiy talabi, ko'rsatmasi ana shunday edi.

Mamlakatda hokimiyat, iqtisodiyot, siyosiy va harbiy hayotga rahbarlik qilish **1941-yil 30-iyunda** Stalin boshchiligida tuzilgan **Davlat mudofaa qo'mitasi** (DMQ) qo'lida to'la ravishda to'plandi. Uning qarorlari, ko'rsatmalarini bajarish hamma tashkilotlar uchun majburiy edi. Harbiy harakatlarni boshqaruvchi **Oliy bosh qo'mondonlik** qarorgohi tuzildi va Stalin SSSR qurolli kuchlarining Oliy bosh qo'mondoni va SSSR mudofaa xalq komissari etib tayinlandi. Sovet rahbariyati tomonidan ko'rilgan mazkur tadbirlar ijrosi hayotning barcha sohalarini harbiy izga tushirdi, mamlakatni yagona harbiy lagerga aylantirdi.

***Harbiy safarbarlik.*** O'zbekistonliklar frontga otlandilar. Urushning birinchi oyidayoq harbiy komissarliklarga **32 mingdan ko'p** ishchilar, xizmatchilar, kolxozchilar, yoshlar o'zlarini frontga jo'natishni so'rab ariza berdi. Barcha viloyat, shahar va tuman harbiy komissarlari harbiy xizmat majburiyatida bo'lganlarni safarbar etish bilan shug'ullandi. Urushning dastlabki oyidayoq yuz minglab vatandoshlarimiz qo'lga qurol olib frontga jo'nab ketdilar.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlar tayyorlaydigan o'choqqa aylantirildi. Bu okrug **1941-yil iyunidan 1942-yil oxirigacha** harbiy safarbarlik asosida **109 ta harbiy qo'shilma** tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy bosh qo'mondonlik qarorgohi zaxirasiga **86 diviziya** va **brigada** jo'natdi.

O'zbekiston hukumati va vatanparvar kuchlar milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. **1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta** milliy harbiy qo'shilmalar, jumladan, **9 ta o'qchi brigada**, **5 ta o'tliq askarlar diviziyasi** tuzilib frontga jo'natildi. Milliy qo'shilma askarlari va zobitlariga yaxshi harbiy ta'lim berishda, ular bilan frontni mustahkamlashda O'zbekistonda tuzilgan zaxiradagi **24-o'qchi diviziya** katta rol o'ynadi. Diviziyaning boshliqlari va zobitlari tarkibida **178 o'zbek o'g'loni** faol xizmat qildi. Bu diviziya urush yillarida **390 ming** kishidan ziyod jangovar kuchlar tayyorladi va frontga jo'natdi.

**1941-yili** O'zbekiston aholisi jami **6,5 million** kishi edi, ularning yarmini bolalar va keksalar tashkil etgan bo'lsa, yaroqli odamlarimizning **50 – 60 foizi**, aniqrog'i, **1 433 230 kishi** urushga safarbar bo'lgan.

**Mehnat safarbarligi.** O'zbekiston partiya va sovet tashkilotlari front orqasini mustahkamlash, xo'jalikni harbiy izga tushirish, barcha odamlarni mehnatga safarbar etish, ko'plab jangovar texnika, qurol-aslaha, o'q-dorilar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish bo'yicha shoshilinch tadbirlarni amalga oshirdilar. Bu sohadagi ishlarga VKP(b) MQ va Davlat mudofaa qo'mitasi topshirig'iga binoan ishlab chiqilgan va **16-avgustda** tasdiqlangan **1941-yil 4-kvartali** va **1942-yil** uchun harbiy xo'jalik ishlar rejasi asos bo'lib xizmat qildi. Bu rejada mamlakatning sharqiy mintaqalarida, jumladan, O'zbekistonda yangi zavodlar, shaxtalar, konlar qurish hamda qurol-aslaha, o'q-dori, ayniqsa, ko'plab tank, samolyot, to'p va zambaraklar ishlab chiqarishning keng dasturi belgilab berilgandi. Dasturda transport ishini qayta qurish, dushman ishg'ol qilishi xavfi ostida qolgan joylardagi sanoat korxonalarini, kolxoz va sovxozlarning mol-mulklarini, ilmiy muassasalarni sharqqa ko'chirish va ularni joylashtirish, yangidan ishga tushirish tartiblari ham belgilangandi. Bu tadbirlarni amalga oshirishga **1941-yil 25-avgustda** tashkil etilgan **U.Yusupov** boshliq maxsus respublika hukumat komissiyasi rahbarlik qildi. O'zbekistonning iqtisodiy va mehnat resurslari frontga safarbar etildi. Butun SSSR hududida, jumladan, O'zbekistonda yangi mehnat rejimi joriy etildi, ya'ni ish kuni uzaytirildi, dam olish kunlari va mehnat ta'tillari bekor qilindi.

O'zbekiston sanoatchilari **1941-yil oxirigacha 300 ga yaqin** korxonani jangovar texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurdilar. Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'mini keksalar, xotin-qizlar egalladi.

Urushning dastlabki paytlaridayoq **20 mingga yaqin** toshkentlik xotin-qizlar sanoat korxonalarini va qurilishlarda, **1700 ga yaqin** respublika xotin-qizlari ko'mir koni shaxtalarida ishlashga yo'l oldilar. Jumladan, **1941-yil iyul oyidan «Tashselmash»** zavodida **220 xotin-qiz** frontga ketgan otalari, akalari va erlarining o'miga ishga kirib fidokorona mehnat qildilar.

Ishlab chiqarishni ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rildi. Respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari, fabrika-zavod ta'limi maktablarining faoliyati urush davri talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi. Yakka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rgatish ishlari yo'lga qo'yildi.

Respublikamiz qishloqlarining aholisi frontni va front orqasini oziq-ovqat, sanoatni xomashyo bilan ta'minlash uchun oyoqqa turdi. Har bir kolxozchi va sovxoz ishchisi ikki-uch ish normasini bajarish uchun fidokorona mehnat qildi.

Urush bo'layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTSlarning mulklarini, madaniy boyliklar va o'quv maskanlarini Sharqqa, jumladan, O'zbekistonga zudlik bilan ko'chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. Fashistlar tomonidan yondirilgan, vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, otalari urushning dastlabki kunlarida halok bo'lgan bolalar, million-million kishilar ulkan yurtimizga oqib kela boshladi. Kishilik tarixida ko'lami jihatidan bunday katta voqea birinchi marta sodir bo'ldi. O'zbekistonga **100 ga yaqin** sanoat korxonasi, jumladan, **48 ta** mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika hamda mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunolari ko'chirib keltirildi. O'zbekiston shaharlarida shoshilinch bo'shatib berilgan yoki yangidan qurilgan binolarga ko'chirib keltirilgan asbob-uskunalar zudlik bilan joylashtirildi va montaj qilindi. Ular ishchi kuchi, xomashyo, instrumentlar bilan ta'minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbeklarning insoniylik fazilatlari. O'zbek xalqi urushning dastlabki yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalaridan ko'chirib keltirilgan **bir milliondan ko'proq** kishini, shu jumladan, **200 mingdan ko'proq** yetim bolalarni o'z bag'riga oldi. Ko'chirib keltirilgan aholini qabul qilib olish, joylashtirish va ularga zarur shart-sharoitlar yaratish masalalarini mehnat jamoalari yig'ilishlarida muhokama qilish va amaliy yordam ko'rsatish ishlari keng quloq yozdi. **1941-yil 3-dekabr**da O'zbekiston kompartiyasi MQning ko'chirib keltirilgan fuqarolarni qabul qilish va joylashtirish yuzasidan maxsus qarori chiqdi. Xalq Komissarlari Soveti huzurida **1941-yil 10-iyul**da tuzilgan maxsus respublika komissiyasi va mahalliy sovetlarning ijroiya qo'mitalari qoshida tuzilgan alohida bo'limlar kishilarni hisobga olish va joylashtirish bilan shug'ullandilar. Ko'chirib keltirilganlar shahar va qishloq tumanlariga joylashtirildi. Qisqa muddat ichida **Andijon viloyatiga 100 ming, Samarqand viloyatiga 165 ming, Namangan viloyatiga 53 600 kishi** joylashtirildi. Ko'chib kelganlar O'zbekistonda boshpana topdilar, ish bilan ta'minlandilar. O'zbek xalqi o'z noni, kiyim-kechagi, turarjoyini ko'chib kelganlar bilan baham ko'rdi.

O'zbekiston bo'yicha **1942-yil bahorigacha** ko'chirib keltirilgan **716 ming kishi** qabul qilib olindi, ishga joylashtirildi, ular uchun kerakli sharoitlar yaratildi. O'zbeklar ko'chirib keltirilgan ota-onasiz yosh bolalarga alohida g'amxo'rlik qildilar, 200 mingdan ko'proq yetim bolalarni o'z bag'riga oldilar.

O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida bolalarga yordam

ko'rsatish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi, uning ishida **30 ta xotin-qiz** faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Xalq maorifi komissarijligi tashabbusi bilan bolalarni qabul qilish, taqsimlash markazi tuzildi. Respublikamizning barcha viloyatlari, shahar va tumanlarida bolalarni qabul qilish punktlari ochildi, ularda o'qituvchilar kecha-yu kunduz navbatchilik qildilar. Militsiya bo'limlari qoshida **30 dan ortiq** bolalar xonalari tashkil etildi.

Ko'chirib keltirilgan bolalar turlicha yoshda edilar. **15 yoshgacha** bo'lgan bolalar bolalar uylari, maktab-internatlarga joylashtirilib, ularda o'quv-tarbiya ishlari yo'lga qo'yildi. Fabrika-zavod ta'limi maktablari, hunar va temir yo'l bilim yurtlarining sobiq talabalari o'qishni davom ettirish uchun respublika zavod-fabrika ta'limi maktablarida o'qishga jalb qilindi. **15 yoshdan katta** bolalar esa ishlab chiqarishga, ishga joylashtirildi.

**1942-yil 2-yanvarda Toshkent** shahrida xotin-qizlarning yig'ilishi bo'lib, unda respublikamizdagi barcha ayollarga qarata murojaat qabul qilindi. Murojaatda yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olishga da'vat etiladi. *Ko'plab oilalar boquvchisiz qolgan bolalarni o'zlariga farzandlikka oldilar,* topgan-tutganlarini ular bilan baham ko'rdilar. O'zbekiston rahbarlaridan Usmon Yusupov va Yo'ldosh Oxunboboyev oilasi ham yetim bolalarni o'z tarbiyasiga oldi.

Jami **200 000 dan ortiq** yetim bola o'zbekistonliklar oilasida issiq boshpana, rizq-ro'z, eng muhimi, mehribonlik topdi. Turli millatlarga mansub **14 bolani** farzandlikka olgan toshkentlik temirchi usta **Shoahmad Shomahmudov** va uning xotini **Bahri Akramovalar** oilasi yuksak insoniylik fazilatlarini ko'rsatib ko'pchilikka ibrat bo'ldi. Urushdan nogiron bo'lib qaytib kelgan **kattaqo'rg'onlik Hamid Samatovlar** oilasi **13 bolani**, **samarqandlik** kolxozchi ayol **Fotima Qosimovalar** oilasi **10 bolani** o'z quchog'iga olib, mehr qo'ri bilan ularning qalbini isitdi, dilini yoritdi.

*O'zbekiston jangchilarni sog'lomlashtirish markazi.* O'zbekistonga janglarda yaralangan yoki bemor bo'lib qolgan minglab jangchilar – askar va zobitlar ham jo'natilardi. Ularni qabul qilib olish, gospitalga joylashtirish, salomatligini tikdash ishlariga alohida mehribonlik qilindi, respublikamiz sog'lomlashtirish markazlaridan biriga aylandi. **1941-yil 1-oktyabrgacha** O'zbekiston Sog'liqni saqlash xalq komissarijligi tizimida **14 950 o'ringa** ega **47 gospital** barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda, **Moskva, Kalinin, Rostov** va boshqa viloyatlardan **15 900 o'rin-krovatga** ega **48 gospital** ko'chirib keltirilib joylashtirildi va ishga tushirildi. Harbiy kasalxonalar qurish keyingi yillarda ham davom etdi. O'zbekistonda 39 140 o'ringa ega bo'lgan 133 ta gospitalda yarador va bemor jangchilarga tibbiy xizmat ko'rsatildi.

Viloyat, shahar, tuman idora organlari gospihdagilar holidan xabar olib turdilar, gospihdarga xo'jaliklar tashkil etish va ish yuritish uchun yer maydonlari ajratib berdilar. Agar **1941-yili** shu maqsadda **385,5 gektar** yer ajratilgan bo'lsa, **1943-yilga** kelib ajratilgan yer maydoni **656 gektar**ni tashkil etardi. **1942-yili 1513** mehnat jamoalari, shu jumladan, **750** korxonona, kolxoz va sovxozlar gospihdarni otaliqqa olib, ularni yoqilg'i, oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlab turdi. Jumladan, **1943-yili** Buxoro viloyatidagi gospihdalar uchun zarur yoqilg'ining **80 foizini** otaliq korxonalar yetkazib berdi. O'zbekistonlik **18 482 nafar** donorlar yaradorlarni oyoqqa turg'izish uchun qon berib turdi.

Urush yillarida O'zbekistondagi gospihdarga **164 382** yarador va bemorlar joylashtirildi, ularning **87 foizi, 143 101 kishi** davolanib chiqdi.

O'zbekistonliklar sog'ayganlarga chiroyli xaltachalar tikib berar va sovg'a-salomlar bilan frontga yoki korxonalarda ishlashga jo'natib qo'yardilar. Nogiron bo'lib qolganlarga zarur yordam ko'rsatildi, holiga yarasha ish bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

*Mudofaa fondi.* O'zbekistonliklar orasida mudofaa fondini tashkil etish, front uchun issiq kiyimlar to'plash harakati keng yoyildi. Ishchilar, kolxozchilar va ziyolilar shaxsiy jamg'armalarini, qimmatbaho buyumlarini mudofaa fondlariga topshirdilar. Faqat **1941-yilning 2-yarmida** O'zbekiston kolxoz va sovxozlari front uchun **59 ming** ot va ularga kerakli yem-xashak to'plab berdilar. Mashhur o'zbek raqqosasi **Tamaraxonim** mudofaa fondiga **50 ming so'm** topshirdi.

Mudofaa fondiga **650 million so'm pul, 22 million so'mlik qimmatbaho buyumlar, 55 kilogrammga yaqin oltin, kumush** va boshqa qimmatbaho metallar to'plandi.

O'zbekistonda **39 140 o'ringa** ega **113 ta gospihd**da yarador va bemor jangchilarga tibbiy xizmat ko'rsatildi.

Bu jamg'arma hisobiga respublikamizda tank kolonnalari, aviatsiya eskadriyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo'natildi. O'zbekistonliklar jangchilarga eshelonlab issiq kiyimlar, mevalar jo'natib turdilar. Davlat harbiy zayomlariga yozilish yo'li bilan anchagina mablag' to'plandi. Aholidan issiq kiyimlar tayyorlash uchun jun, qo'y terilari yig'ib olindi.

Aholiga davlat zayomi, pul-buyum lotereyasi sotish hisobiga **4,2 milliard so'm** mablag' yig'ilib g'alaba manfaatlari yo'lida foydalanildi.

## 29.2. O'ZBEKISTON SANOATI VA QISHLOQ XO'JALIGI FRONT XIZMATIDA

O'zbekiston sanoati. Sanoat korxonalari qisqa vaqt ichida harbiy izga solinib, minomyot va avtomatlar, samolyot va tanklar uchun ehtiyot qismlari va boshqa harbiy qurollar ishlab chiqara boshladi. Qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarayotgan **Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi** harbiy qurollar ishlab chiqarishga kirishdi. **Andijondagi «Kom-munar», «Stroy mashina» zavodlarida** samolyot va tanklarga kerakli mahsulotlar, **Qo'qon** shahridagi Oxunboboyev nomli tikuvchilik fabrikasi harbiy kiyimlar ishlab chiqaradigan bo'ldi. Toshkentlik sanoatchilar harbiy mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda fidokorona mehnat qildilar. **1941-yil dekabr**igacha shahardagi **137 sanoat korxonasining 64 tasi** qurol-yarog'lar, front uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishga kirishdi.

Respublika bo'yicha **1941-yil oxirlariga** kelib **300 ta** sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulot bera boshladi.

O'zbekiston sanoatchilari korxonalarni harbiy izga tushirishdek ishlarni ko'chirib keltirilgan korxonalarni joylashtirish va ishga tushirish bilan qo'shib olib bordilar. O'zbekiston rahbari Usmon Yusupovning: *«O'zbekiston – bu front orqasi emas, O'zbekiston – jang maydoni»*, – degan so'zlarida jon bor edi.

O'zbekistonliklar frontdagidek harakat qildilar, har qanday resurslarni izlab topdilar, ular bitta fashist marazining boshi uchun bittadan avia-bomba, bittadan snaryad va granata, yuzlab o'q, fashistlardan go'sht ham, suyak ham qoldirmaydigan «Katyusha»lar yetkazib berish uchun mardona mehnat qildilar.

Toshkentda zudlik bilan joylashtirilgan **«Rostselmash»** zavodi «Katyusha» va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar, **Kolchuginskdan** keltirilgan kabel zavodi harbiy aloqa mahsulotlari yetkazib bera boshladi.

Odamlar irodasiga bog'liq bo'lmagan yetishmovchiliklar sezilardi. Yuk ko'taruvchi kranlar yo'q edi, maxsus asbob-uskunalar, elektr quvvatlari, ko'mir va neft kabi yoqilg'ilar, xomashyo va boshqa materiallar yetishmasdi. **1941-yil 5 – 7-dekabr** kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining **V plenumida** respublika sanoatini harbiy izga solish, ko'chirib keltirilgan asbob-uskunalarni joylashtirish sohasidagi ishlarga yakun yasalib, korxonalarda qurol-yarog'larning muhim turlari – samolyotlar, tanklar, bronepoyezdlar, aviabombalar, to'p va zambaraklar, granatalar, minalar, snaryadlar ishlab chiqarishni

keng miqyosda yo'lga qo'yish vazifasi ilgari surildi. Buning uchun yetarli darajada metall qirquvchi stanoklar va aniq o'lchovchi instrumentlar ishlab chiqishni tashkil etish, nodir metallar qazib olishni kuchaytirish hamda qora va rangli metallurgiya sanoatini yaratish, elektr energetika bazasini kengaytirish, neft qazib olishni **2 – 3 barobar** oshirish, ko'mir qazib olishni kuchaytirish, yirik qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, qisqa muddatda **30 ming malakali ishchi** tayyorlash tadbirlari belgilandi.

Ko'chirib keltirilgan korxonalar tarixda misli ko'rilmagan qisqa muddatlarda – **4 – 5 oyda**, ayrimlari hatto **1 – 2 oy** davomida qurib bitkazilib, front uchun harbiy mahsulotlar bera boshladi. Ularning eng yiriklari **Chkalov nomli 84-aviatsiya zavodi, Moskva kabel zavodi, Xarkov elektrostano-k zavodi, Ko'tarma kranlar zavodi, Rostovdan keltirilgan «Krasniy Aksay», Sulsk nasos zavodi, Vagonremont zavodi, «Krasniy put» zavodi, Kiyev «Transsignal» zavodi, «Kinap» zavodi** va boshqalar edi. Mazkur korxonalarning har biri o'rta hisobda **20 foizgacha** ishchi va injener-texnik xodimlar bilangina keltirilgandi. Qolgan **80 foizi** respublikamizning fabrika-zavod ta'limi maktablarida, turli kurslarda tayyorlangan ishchi va texnik xodimlar bilan ta'minlandi.

Harbiy izga tushirilgan respublikamiz korxonalari ham anchagina kengaytirildi. «Tashselmash» zavodi, masalan, boshqa korxonalardan keltirilgan **438 stanok, 200 dan ortiq yuqori malakali ishchi** hisobiga kengaydi. **Qodirov, Hakimov, Yusupov, Ismoilov** va boshqa ustalar kunlik normani **200 – 300 foizga** oshirib bajardilar. «Tashselmash» zavodi **1941-yilgi** ish rejasini **240 foizga** ado etdi.

Xotin-qizlar, keksalar, yoshlar korxonalaridagi turli xil ishlarga jalb etildi. Urushning bir yarim yili mobaynida O'zbekiston sanoatida xotin-qizlar salmog'i **29 foizdan** ziyod oshdi va **1943-yili 63,5 foizni** tashkil qildi.

Respublika sanoat korxonalari quvvatlarining kengayishi, ko'chirib keltirilgan zavodlarning ishga tushishi, birinchi navbatda, elektr energiyasi va yoqilg'i ishlab chiqarishni keskin oshirishni talab qildi, mavjud energetika quvvatlari bunday talabga javob berolmasdi. O'zbekiston partiya va hukumati Ittifoq hukumatiga xat yo'llab bu muammoni hal etishda ko'mak so'radi. Tez orada, **1942-yil 18-noyabrda, VKP(b) MQ va SSSR Xalq Komissarlari Soveti «O'zbekiston SSRda beshta gidroelektrostansiya qurilishi to'g'risida»** qaror qabul qildi. O'zbekistonda metallurgiya zavodi qurish, ko'mir va neft qazib olishni ko'paytirish tadbirlari ham belgilandi. Yangi sanoat korxonalari va energetika tarmoqlari qurilishi uchun **1 milliard so'm** ajratildi.

**1943-yili** O'zbekistonning eng yirik gidroelektrostansiyasi – **Farhod GES** qurilishi boshlandi, qurilish zarur materiallar va ishchi kuchi bilan ta'minlandi. Farhod qurilishi umumxalq qurilishiga aylandi, binokorlik ishlari hashar yo'li bilan bajarildi. **10 oylik** fidokorona mehnat natijasida Sirdaryo jilovlandi.

Urush yillarida Bo'zsuv daryosi o'zanlarida **Tovoqsoy, Oqqovoq, Salar, Quyibo'zsuv, Oqtepa, Qibray GES**lari, Samarqand viloyatida **Taligulyan GES, 30 ga yaqin** kichik kolxoz GESlari, shaharlar va yirik korxonalar yonida kichik GESlar qurib ishga tushirildi. O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish qariyb **2,5 baravarga**, ya'ni **1940-yilgi 482 mln kilovatt / soatdan 1945-yili 1187 mln kilovatt / soatga** ko'paydi.

Yoqilg'i sanoatini rivojlantirishga ham katta kuch va mablag' sarflandi. **1940-yil oxirlarida** Ohangaron daryosi oqimidagi **Qurama tog' tizmasi**da dastlabki ko'mir qazib oladigan shaxta qurilgandi. Urush davrida «**Angrenugol**» ko'mir konida yana uchta shaxta va ochiq usulda ko'mir qazib olinadigan karyer bunyod etildi. O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida **Qizilqiya** ko'mir koni foydalanishga topshirildi, o'ta issiqlik quvvatiga ega qo'ng'ir ko'mir qazib olindi. O'zbekiston ko'mir sanoati xodimlariga **1942-yili** respublikamizga kelgan **Donbass** shaxtyorlari ko'maklashdilar.

**1940-yili** O'zbekistonda atigi **3,4 ming tonna** ko'mir qazib olingan bo'lsa, **1945-yili 103 ming tonna** ko'mir qazib olindi. Natijada respublikada sanoatning yangi tarmog'i – ko'mir sanoati barpo qilindi.

Neft geologiya qidiruv tresti, neft tarmog'i qurilishlari tresti, neft qazib oluvchi ikkita trest, neft qazish asbob-uskunalarini ta'mirlash zavodi, neft mashinasozligi zavodi barpo etildi. Farg'ona vodiysida ishlab turgan **Andijon, Polvontosh, Changartosh, Chimyon** neft konlarida mahsulot ishlab chiqarish ko'paytirildi.

Urush yillarida **Chuqurlangar, Tolmozor, Nayman, Shahrixon, Xo'jaobod, Janubiy Olamushuk** va boshqa yanqi neft konlari ishga tushirildi. Neft tozalash zavodi, ozakrit ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Urush yillarida respublikada neft ishlab chiqarish **4 marta** ko'paydi va **1945-yili 478 ming tonnadan** ortdi.

Energetika va yoqilg'i sanoatining o'sishi mashinasozlik sanoati rivojlanishiga qulay baza yaratdi. G'arbdan ko'chirib keltirilgan zavodlar bazasida **16 ta** stanoksozlik, to'qimachilik va mashinasozlik korxonalari tashkil etildi. Urushdan oldingi respublikamizdagi ko'pgina zavodlar ham turli asbob-uskunalar, mashinalar, jangovar texnika ishlab chiqarishga moslab qayta qurilgandi. Shu bois metallga bo'lgan talab tobora oshib bordi.



O'zbekiston Xalq Komissarlari Soveti **1942-yi 17-iyunda Bekobodda** metallurgiya zavodi qurishga qaror qildi. Ittifoq hukumati zarur materiallar, mablag' bilan ko'maklashdi. Rossiya va Qozog'iston sanoat korxonalaridan ko'plab asbob-uskunalar keltirildi. Metallurgiya zavodini qurish butun respublika mehnatchilarining ishiga aylandi. Zarur miqdorda mutaxassislar ajratildi, kolxoz-sovхозlar ishchi kuchi bilan ta'minladi. Zavod qurilishida **10 mingdan ko'proq** kishi ishtirok etdi. **Beloretsk, Obryanka, Guryev, Makeyevka** zavodlaridan po'lat erituvchi mutaxassislar keldilar. Yuzlab o'zbekistonlik yigit-qizlar Ural va Sibirning sanoat korxonalarida marten va prokat ishlarini o'rganib qaytishdi.

O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi **1944-yil 5-mart** kuni dastlabki metall mahsulotlarini bera boshladi va tez kunlarda zavodning birinchi navbati, **1945-yil fevraldan** ikkinchi navbati ishga tushirildi.

Geologik-qidiruv ishlari natijasida ko'plab qora va rangli metall konlari ochildi. Urush yillaridayoq **Langar, Ingichka, Qo'ytosh, G'ortepa, Olmaliq** rangli metall konlari, **Oqtosh** boksit konini o'zlashtirish ishlari boshlanib ketdi. Ulardan qazib olingan volfram, molibden, mis, alyumin va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash korxonalari qurildi.

Kimyo sanoati rivojlandi. **1944-yil yanvaridayoq Gorkiy va Stalino-gorsk** kimyo kombinatlaridan ko'chirib keltirilgan uskunalar asosida qurilgan **Chirchiq elektrokimyo kombinatining** ikkinchi navbati muhim kimyo mahsuloti – ammiak ishlab chiqara boshladi. **1943-yili Quvasoy kimyo zavodi, Qo'qon superfosfat zavodi, Farg'ona gidroliz zavodi** qurib ishga tushirildi. Kimyo sanoati mahsulotlari salmog'i **1940-yilga** nisbatan **1945-yili 6,1 baravarga** ko'paydi.

Urush yillarida qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat **1943-yili 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodi** qurib ishga tushirildi.

Sanoat korxonalarining kengayishi, yangi qurilgan zavod-fabrikalarning ishi muvaffaqiyati ularni malakali ishchilar bilan ta'minlashga bog'liq edi. Tajribali xodimlarning frontga safarbar etilishi katta qiyinchiliklar tug'dirardi. Keksalar, ayollar, ayniqsa, armiyaga chaqirish yoshiga yetmagan o'smirlar va qizlar korxonalarga jalb etildi, ularga hunar o'rgatildi, respublikada **100 mingdan ko'proq** malakali ishchi tayyorlandi. Faqat hunar va temir yo'l bilim yurtlari, fabrika-zavod ta'lim maktablari **67 mingdan ziyod** yosh ishchi kadrlarni tayyorlab berdilar.

Urush yillarida O'zbekistonda **280 ta** yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari – aviatsiya, stanoksozlik, og'ir

mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya va boshqalar vujudga keldi. **1940-yili** yalpi sanoat mahsulotida og'ir sanoatning hissasi **13,9 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **1945-yili 47,5 foizga** yetdi.

Toshkent SSSRning eng katta sanoat markazlaridan biri bo'lib qoldi. Bekobod sanoat shahri sifatida vujudga keldi. Yangiyo'l, Chirchiq kabi yosh shaharlar yanada rivoj topdi.

Sanoatchilarimizning fidokorona mehnati tufayli O'zbekiston sovet armiyasining qurol-aslahaxonasiga aylandi. Frontga **2090 samolyot, 17 342 aviamotor, 2318 ming aviabomba, 1,7 mingdan ortiq minomyot, 22 mln dona mina, 560 ming snaryad, milliontacha granata, 330 ming dona parashyut, harbiy ehtiyojlar uchun 100 ming km dan ortiq maxsus sim, 125 ming km telefon kabellari** va boshqa mahsulotlar yetkazib berildi. Bu o'zbekistonliklarning fashist bosqinchilarini tor-mor etishga qo'shgan ulkan hissasi sifatida jahon tarixidan munosib o'rin oldi.

Transport. **1943-yil 25-yanvarda «Toshkent temir yo'li ishi to'g'risida»** maxsus qaror qabul qilindi. Temir yo'l harbiy holatga o'tkazildi, unda ishlovchilar safarbar etilgan deb hisoblandi, harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etish majbur qilib qo'yildi. Poyezdlar harakatining qo'shinlar va harbiy yuklarni birinchi navbatda o'tkazib yuborishni ko'zda tutuvchi harbiy grafik joriy etildi. Toshkent temir yo'l transportchilari ko'chirib keltirilayotgan korxonalarining asbob-uskunalarini va millionlab kishilarni G'arbdan Sharqqa, jangovar texnika va qurol-yarog'larni Sharqdan G'arbg'a o'z vaqtida to'xtovsiz o'tkazib turish topshirig'ini bajardilar. Faqat **1941 – 1942-yillarda** O'zbekiston temir yo'lchilari **2700 sostavdagi** passajir poyezdlarini, ko'chirilgan korxonalarining asbob-uskunalarini ortilgan **17 600 vagonni** mo'ljalga yetkazishdi, o'q-dorilar, yoqilg'i, oziq-ovqat, kiyim-kechaklar ortilgan minglab vagonlarni frontga yetkazishdi.

O'zbekistonda yangi temir yo'llar qurilishi jadal olib borildi, **1941 – 1945-yillarda** temir yo'l liniyalari **2 baravar** uzaydi. **Toshkent – «Angrenugol», Boysun – Otquloq – Turangli, Toshkent – tovar stansiyasi** temir yo'llari ishga tushirildi.

Aloqa vositalari. Aloqa, telefon, telegraf xodimlari ham urush talablariga moslashib ishladilar. Aloqa xodimlari O'zbekistonning markaz bilan, respublika rahbariyatining viloyat, shahar, tumanlar, yuzlab sanoat korxonalarini bilan telefon aloqasini yo'lga qo'ydilar. **Toshkent – Samarqand – Ashxobod, Toshkent – Samarqand – Boku, Toshkent – Samarqand – Krasnovodsk** telefon liniyasi, ikkita **Toshkent – Samarqand – Buxoro** telefon aloqa yo'llari qurildi. **1943-yili** qurib ishga tushirilgan **500 kilometrlik** telefon yo'li Toshkentni **Xorazm viloyati** va **Qoraqalpog'iston**

bilan bog'ladi. Yirik korxonalarining o'zlarida ham **50 – 100 o'rinli telefon stansiyalari** qurildi. Natijada xo'jaliklarga rahbarlik qilish, ularga o'z vaqtida ko'maklashish ishlari yaxshilandi.

Pochta bo'limlarida ish hajmi oshib bordi. Agar **1941-yili** o'rta hisobda bitta pochta xodimi tomonidan **50 ming** xat-xabar jo'natilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich **1942-yili 74,5 mingga, 1943-yili 77,5 mingga** yetdi. Pochta xodimlari frontdagi jangchilar bilan ularning ota-onalari, rafiqalari, qarindoshlari o'rtasida aloqa bog'lovchi ko'priklarni bajardilar.

**Qishloq xo'jaligi.** Urush respublika qishloq xo'jalik xodimlarini qattiq sinovdan o'tkazdi. Ular oldida sanoatni xomashyo bilan, aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan uzluksiz ta'minlashdek ulkan, murakkab vazifa turardi. Vaziyatning murakkabligi shundan iborat ediki, birinchidan, respublika qishloq xo'jaligi, asosan, paxta yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari Ittifoq fondidan keltirilardi. Urush boshlangach, oziq-ovqat keltirish to'xtadi, aholini boqish uchun ichki imkoniyatlarni topish zarur bo'lib qoldi. Ikkinchidan, evakuatsiya qilingan aholi hisobiga shaharlar aholisining ko'payishi oziq-ovqatga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Uchinchidan, kuch-quvvatga to'lgan dehqonlar frontga va harbiy sanoatda ishlashga safarbar etilgan, dehqonchilikning mashaqqatli ishlari keksalar, ayollar, o'smirlar zimmasiga tushgandi. To'rtinchidan, MTS va sovxozlarga G'arbdan yangi traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va ularga ehtiyot qismlar keltirish to'xtab qolgan, bugina emas, xo'jaliklardagi traktorlar, avtomobillar, otlarning bir qismi qizil armiya ehtiyojlari uchun olib ketilgandi.

Qishloq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida qat'iy ish tartibi belgilandi. Eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari **1,5 baravarga** oshirildi, o'smirlar uchun ham **12 yoshdan** boshlab mehnat kunlari belgilandi. Belgilangan miqdordagi mehnat kunlarini bajarish majburiy qilib qo'yildi.

Urush yillarida respublika dehqonchiligining strukturasi keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Birinchi navbatda, ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirish, irrigatsiya quvvatlarini oshirish ishlari yuksak sur'atlar bilan olib borildi.

**1942-yil fevral – martda** barpo etilgan **Shimoliy Toshkent kanali 15 ming gektar** yerni sug'orish imkonini berdi. **Kattaqo'rg'on, Kosonsoy, Rudasoy suv omborlari, Yuqori Chirchiq, Shimoliy Farg'ona, So'x-Shohimardon, Uchqo'rg'on kanallari** qurildi. Natijada respublikaning sug'oriladigan yer maydonlari **454,7 ming gektarga** kengaydi.

Usmon Yusupov O'zKP(b) MQning **1941-yil dekabrda o'tgan V**

plenumida O'zbekistonda g'alla masalasini hal qilish, o'zimizni o'zimiz un-non bilan ta'minlashimiz kerak degan vazifani ilgari surdi. Don ekiladigan sug'oriladigan yer maydonlari kengaytirildi. Zarang yerlar, qo'riqlar, to'qaylar, lalmikor yerlardan ham foydalanildi. **1942-yili 1408,1 ming gektar, 1943-yili 2090,2 ming gektar** yerga g'alla va dukkakli ekinlar ekildi. Natijada don mahsulotlari yetishtirish ko'payib, **1941-yilgi 4,8 mln sentner o'rniga 1943-yili 5,3 mln sentner** olindi, respublika ehtiyojlari qondirildi.

Qishloq xo'jaligida O'zbekiston uchun yangi tarmoq – qand lavlagi yetishtirish yo'lga qo'yildi. **Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo** viloyatlari lavlagi yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirilib, **1942-yili-yoq 65 ming gektarga**, keyingi yillarda **70 ming gektardan ortiqroq** hosildor yerlarga qand lavlagi ekildi. **Jizzax, Pastdarg'om** tumanlarida har gektardan **400 – 800 sentnerdan** lavlagi hosili olindi. O'zbekistonga ko'chib kelgan Ukraina va Belorussiya olimlari, mutaxassislari lavlagikorlik brigadalari va zvenolari uchun rahbarlar tayyorlash, respublika lavlagikorlariga mo'l hosil yetishtirish ishlarida ko'maklashdilar.

Qand lavlagini qayta ishlash, shakar-qand ishlab chiqarish uchun **Zirabuloq, Qo'qon, Yangiyo'l** qand zavodlari qurildi. Respublika bo'yicha **1944-yili davlatga 1 mln 373 ming sentner, 1945-yili 1 mln 646 sentner** qand lavlagi topshirildi. Urush yillarida O'zbekiston butun Ittifoqda ishlab chiqarilgan qandning **1/4 qismini** berdi.

Urush yillarida mehnatkashlar chorvachilik, jun, qorako'l, teri yetishtirish, pillachilik jabhalarida ham fidokorona mehnat qildilar. Go'sht, yog', sut, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari, meva tayyorlashda ko'rsatilgan g'ayrat-shijoat tufayli mustahkam oziq-ovqat bazasi yaratildi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi xodimlari urush yillarida davlatga **1262 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna quruq meva, 159 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun** yetkazib berdilar.

Urush yillarida ham paxtachilik qishloq xo'jaligining muhim sohasi bo'lib qoldi. Paxtakorlar jonbozlik bilan ishlaganlariga qaramay, **1942 – 1943-yillarda** paxta tayyorlash rejasi bajarilmay qoldi. Davlatga **ming tonna** paxta kam topshirildi. Bunga bir qator obyektiv holatlar sabab bo'ldi: paxta ekiladigan maydonlar **1941 – 1943-yillarda 927 650 gektardan 625 343 gektarga** kamaydi; mexanizatsiya vositalari yetishmasdi; mineral o'g'itlar, yoqilg'i kamaygandi; yerni haydash, chopiq, sug'orish, irrigatsiya tarmoqlarini tozalash ishlarini o'z vaqtida muntazam olib

borish uchun ishchi kuchi taqchilligidan paxta yetishtirish agrotexnikasi yomonlashgandi. Respublika rahbariyati buni yaxshi tushunardi. Paxta maydonlarini qisqartirish, buning hisobiga don, qand lavlagi va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan ekin maydonlarini ko'paytirishga majbur bo'lgandi.

Biroq markazdagi rahbarlar bu obyektiv omillarni hisobga olmadi. Shu bois respublika rahbarlari Moskvaga chaqirilib muhokama qilindilar, ularni paxta tayyorlash ishini o'z holiga tashlab qo'yishda, layoqatsizlikda aybladilar. Ulardan har qanday yo'l bilan bo'lsa ham paxta tayyorlash rejasini bajarish, yanada ko'paytirish talab qilindi. Bu boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini yanada kuchaytirishdan boshqa narsa emasdi. Bunday zug'um natijalari VKP(b) MQning 1944-yil 6-martda qabul qilingan «O'zbekiston KP(b) MQning ishi to'g'risida»gi qarorida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston kompartiyasi MQning 1944-yil aprel oyida bo'lgan X plenumi mazkur qarorni bajarishga doir tadbirlarni ishlab chiqdi. Kolxozlar tashkiliy-xo'jalik jihatdan mustahkamlandi, brigada va zvenolar qayta tiklandi. Donli ekin yetishtirishga o'tib olgan xo'jaliklarning anchagina qismi paxtachilikka qaytarildi. Kolxozchilar uchun eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari soni yana oshirildi. Ittifoq hukumati O'zbekiston paxtakorlari uchun **2300 yangi traktor, 300 yuk avtomobili, 375 ming tonna mineral o'g'it** va boshqa qishloq xo'jalik uskunalari ajratdi. **1944-yilgi** paxta tayyorlash rejasini bajarildi, davlatga **1943-yilga** nisbatan **325 ming tonna** ko'p paxta topshirildi, **1945-yili** ham paxta tayyorlash rejasini bajarildi. Urush yillarida respublika paxtakorlari davlatga **4 mln 806 ming tonna** paxta xomashyosi yetkazib berdilar.

Urush yillarida ishchilar bilan dehqonlar o'rtasidagi jipslik, o'zaro yordam yanada kuchaydi. Sanoat korxonalarini kolxozlarni otaliqqa olib, ularga qishloq xo'jalik texnikalari, ehtiyot qismlar bilan yordamlashdilar. Shaharliklar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ishtirib olishda faol qatnashdilar. Kolxozchi dehqonlar esa sanoat sohasidagi umumxalq qurilishlarida faol ishtirok etdilar. Masalan, Farhod GES qurilishining o'zida **70 mingga yaqin** kolxozchi qatnashdi. O'zbekiston ishchilari va dehqonlari jipslashib, fidokorona ishlab, fashistlar ustidan qozonilgan g'alabaga salmoqli hissa qo'shdilar. **160 mingga yaqin** kishi front orqasidagi fidokorona mehnati uchun «**Shuhrat**» medali bilan mukofotlandi.

*Aholi turmushi.* Urush o'zbekistonliklarni og'ir muhtojlikka duchor etdi. Hamma narsaning frontga safarbar etilishi natijasida oziq-ovqat tanqisligi vujudga keldi. Shaharlarda oziq-ovqatlarni, sanoat mollarini kartochka

asosida taqsimlash joriy etildi. Ishchi va xizmatchilarga kuniga **400 – 500 grammdan**, oila a'zolariga esa **300 grammdan** non berish belgilandi. Amalda aholi belgilangan me'yorlardan ham kam non olardi. Go'sht, yog', baliq, makaron, yormalar ham me'yorlangan tartibda taqsimlanar, ko'p hollarda kartochkada ko'rsatilgan miqdorda berilmasdi.

Qishloq aholisining turmushi yanada og'irlashdi. Oziq-ovqat va sanoat mollarini me'yorlangan tarzda taqsimlash qishloq aholisiga joriy etilmadi. Ular ishlagan mehnat kunlari uchun deyarli haq ololmasdi. Ularga oziq-ovqat mollari matlubot kooperatsiyasi do'konlarida davlatga topshirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdoriga qarab qat'iy me'yorlangan miqdorda berilardi.

Aholini oziq-ovqatlar bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida sanoat korxonalari qoshida yordamchi xo'jaliklar tashkil etishga ruxsat berildi. Ularga vaqtincha foydalanish uchun **53 ming gektar** yer ajratildi. Ishchi va xizmatchilar tomonidan yakka tartibda polizchilik ishlari bilan shug'ullanish keng tarqaldi.

### **29.3. URUSH YILLARIDA FAN, MAORIF VA MADANIYAT**

Ilm-fan q'alaba ushun xizmatda. Urushning dastlabki kunlaridayoq SSSR FANing O'zbekiston filiali, respublikada ishlab turgan **75 ta** ilmiy muassasalar, shu jumladan, **25 ta** ilmiy tadqiqot institutlari, **23 ta** ilmiy stansiya va boshqalar, barcha olimlar respublika xo'jalik hayotini harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal qilishga jalb etildi. Ularning zavodlar, fabrikalar, temir yo'l va avtomobil yo'llari transport korxonalari bilan bevosita aloqalari o'rnatildi. Olimlarning tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish maqsadida **1941-yil 29-noyabrda ilmiy muhandis-texnika jamiyati** tuzildi.

G'arbiy hududlardagi yirik shaharlardan ko'plab ilmiy muassasalar O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. SSSR FANing tarix, iqtisodiyot va huquq, jahon xo'jaligi va jahon siyosati, sharqshunoslik, jahon adabiyoti, moddiy madaniyat, tuproqshunoslik, seysmologiya institutlari, bir qancha muzeylar va kutubxonalar shular jumlasiga kiradi. Akademiyaning **375 yirik** olimi va xodimi ko'chib keldi.

O'zbekistonlik olimlar ko'chib kelgan yirik olimlar bilan yaqin aloqa bog'ladilar, respublikamizda mavjud bo'lgan va ko'chirib keltirilgan ilmiy muassasalarning tadqiqot yo'nalishi qayta ko'rib chiqildi, urush talablariga moslab o'zgartirildi. Olimlar o'zlarining asosiy e'tiborini mudofaa sanoati uchun zarur tabiiy resurslarni izlab topish va ulardan foydala-

nishni tashkil etishga qaratdilar. Geolog olim **H.M.Abdullayev** va boshqalarning tadqiqotlari natijasida qalayi volfram, molibden, o'tga chidamli minerallar, nodir metallar va boshqa turdagi xomashyo konlari topildi va o'zlashtirildi. **A.S.Uklonskiy** boshchiligidagi geologlar guruhining temir konini topishi, o'zbek metallurgiya kombinati qurilishini loyihalashtirish va ularni foydalanishga tushirishdagi xizmatlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. **D.M.Bogdanov** va muhandis **G.S.Chikrizov Angrenda** qidiruv ishlariga boshchilik qildilar va ko'mir konining boy zaxiralarini topib, yangi shaxtalar qurishga ko'maklashdilar.

Sirdaryodagi Farhod GESning loyihasini ishlab chiqishda mashhur irrigatorlar **A.N.Askochenskiy**, **V.V.Poslavitskiy** faol ishtirok etdilar, loyihachilarga akademiklar **G.O.Grafito** va **B.Y.Vedeneyev** qimmatli maslahatlar berdi.

Kimyogar olimlar neftning suvini ketkazish, oltingugurtdan tozalash, ko'mirni kokslash, paxta chiqindilaridan xalq xo'jaligida foydalanishning, etil spirti, soda, kislota olishning yangi samarali usullarini yaratdilar. Dori-darmonlar tayyorlash borasidagi tadqiqotlar natijasida aholi ehtiyojlari uchun zarur turli xil dori-darmon ishlab chiqish yo'liga qo'yildi. **Toshkentda farmatsevtika zavodi** ishga tushirildi.

Butunittifoq paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti paxtaning yangi navlarini yetishtirish sohasida samarali izlanishlar olib bordi. Seleksionerlar **S.S.Kanash** va **A.I.Avtonomov** boshchiligidagi vilt kasalligini yuqtirmaydigan yangi navini yaratdilar. **S.S.Kanash** yaratgan **S – 460**, **L.V.Rumshевич** yaratgan **F – 108** yuqori hosilli navlar, boshqa uzun tolali navlar paxtachilikning rivojiga ulkan hissa qo'shdi. O'zbekistonda ekib kelingan amerika paxta navlarini yangi navlar bilan almashtirish **1944-yili** tugallandi. Respublika olimlari **Samarqandda** joylashtirilgan **Timiryazev** nomidagi qishloq xo'jalik akademiyasi xodimlari bilan hamkorlikda g'o'za, bug'doy va qand lavlagini almashlab ekish usulini joriy etdilar, O'zbekiston sharoitida qand lavlagidan mo'l hosil olishga ko'maklashdilar.

Urush yillarida gumanitar fanlar ham ancha rivojlandi. Yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar o'zbekistonlik hamkasblari bilan yurtimiz xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. **V.S.Struve**, **V.A.Shishkin**, **Y.E.Bertels**, **I.K.Dodonov**, **V.Y.Zohidov**, **H.Sh.Inoyatov**, **A.Y.Yakubovskiy**, **M.Y.Masson**, **S.P.Tolstov**, **Y.G'.G'ulomov** va boshqalar O'zbekistonning eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma'naviyati, O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo'yicha qator asarlar tayyorladilar. Ikki jildlik «**O'zbekiston xalqlari tarixi**»ni tayyorlashga kirishildi. Yozuvchi

**Aleksey Tolstoy** rahbarligida rus va o'zbek olimlari birgalikda «**O'zbek adabiyoti tarixi**» asarini yaratdilar.

**1943-yil 4-noyabrda O'zbekiston Fanlar akademiyasi** ochildi, uning birinchi prezidenti etib taniqli olim **T.N.Qori Niyoziy** saylandi.

Fanlar akademiyasining ochilishi respublika hayotida muhim voqea bo'ldi, ilm-fanning yanada taraqqiy etishi uchun mustahkam poydevor yaratildi. Tez orada yangi ilmiy muassasalar vujudga keldi. Til, adabiyot va tarix instituti bazasida **Tarix va arxeologiya, Til va adabiyot institutlari, Sharqshunoslik instituti, Iqtisodiyot, Matematika va mexanika, Tuproqshunoslik, Fizika-texnika institutlari** va boshqa laboratoriyalar tashkil etildi.

**1945-yilga** kelib Fanlar akademiyasi tarkibida **23 ta** ilmiy muassasa, shu jumladan, **2 ta** ilmiy tadqiqot institutlari, **2 ta** laboratoriya, tajriba stansiyalari faoliyat ko'rsatdi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining **3 faxriy a'zosi, 15 haqiqiy a'zosi, 20 muxbir a'zosi** va **1265 ilmiy xodimi**, shu jumladan, **54 ta fan doktori** va **172 ta fan nomzodi** ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Ular orasida fizika-matematika fanlari doktorlari **T.A.Sarimsoqov** va **V.I.Romanovskiy**, geolog olim **H.M.Abdullayev**, fizik olim **S.U.Umarov**, faylasuf **I.Mo'minov**, adib **S.Ayniy**, yozuvchi **Oybek**, shoir **G'.G'ulom** va boshqalar bor edi.

Sharqshunoslik instituti olimlarining Sharq qo'lyozmalarini o'rganish asosida tayyorlagan fors, arab va turkiy tillarda yozilgan qo'lyozmalar to'plami jahondagi eng boy to'plamlardan biri bo'lib qoldi. To'plam **3 jild**dan iborat, ularda **300 ga yaqin** qo'lyozma tavsiflab va ilmiy jihatdan baholab berildi. **1944-yili** O'zR FA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi va o'sha yili **60 kishi**, shu jumladan, **41 nafar o'zbek** qabul qilindi. **1944-yili** akademiya institutlarida **2 ta doktorlik, 17 ta nomzodlik dissertatsiyalari** yoqiandi.

Urush yillarida o'zbekistonlik olimlar **mingdan ortiq** ilmiy ishlarni bajardilar, ularning ko'pchiligi xalq xo'jaligi va mudofaa ahamiyatiga ega bo'ldi.

**Maqrif va oliy ta'lim.** O'zbekiston xalq ta'limi, jumladan, oliy o'quv yurtlari og'ir sinovlardan o'tdi. Ko'pchilik professor-o'qituvchilar, talabalar frontga safarbar etildi. Kasb yo'nalishi yaqin bo'lgan institutlar, fakultetlar, kafedralar birlashtirildi, ayrimlari yopildi. Samarqand kooperativ instituti bilan Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti, Toshkent va Samarqand tibbiyot institutlari, O'zbek va O'rta Osiyo davlat universitetlari birlashtirildi. Ularning bo'shagan binolariga harbiy muassasalar, gospitallar joylashtirildi.



**Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov, Voronej, Odessa** va boshqa shaharlardan **1941 – 1943-yillarda** ko'chirib keltirilgan **35 oliy o'quv yurti va 7 harbiy akademiya** qabul qilib olindi, ularning ba'zilari o'zaro yoki O'zbekiston oliy o'quv yurtlari bilan birlashtirildi.

O'z professor-o'qituvchilari bilan ko'chirib keltirilgan oliy o'quv yurtlarining faoliyati respublikada oliy ta'limning yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir etdi. Moskvalik va leningradlik olimlar talabalarga yangi kurslar bo'yicha ma'ruzalar o'qidilar, mahalliy millat vakillaridan ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ko'maklashdilar, yangi mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Ular xalq xo'jaligi va harbiy ahamiyatga molik mavzularda tadqiqot ishlarini uyushtirdilar. Toshkent industriya instituti ilmiy jamoasi, masalan, Bekobodda metallurgiya zavodini qurish, mis va boshqa mahalliy rudalarni eritish usullarini ishlab chiqish, metallar korroziyasiga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish, yangi zavodlar loyihasi ishlab chiqish va qurish borasida faol qatnashdilar.

O'zbekiston hukumati oliy o'quv yurtlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, moddiy bazasini mustahkamlash, o'qituvchilar bilan ta'minlash masalalarida ko'maklashdi. Ayniqsa, ko'chib kelgan tajribali pedagoglar, olimlar **1943 – 1944-yillarda** o'z shaharlariga qayta boshlagan, urushning dastlabki davrida vaqtincha yopilgan yoki birlashtirilgan institutlar qayta tiklanayotgan, yangidan Chimboy va Urganch pedagogika institutlari, Namangan va Marg'ilon o'qituvchilar institutlari, Toshkent teatr san'ati instituti ochilgan, ilmiy-pedagogik kadrlarga muhtojlik ortgan bir paytda respublika hukumatining oliy o'quv yurtlariga ko'magi sezilarli bo'ldi. Yirik oliy o'quv yurtlarida doktorantura va aspiranturaga qabul kengaytirildi. Respublika miqyosida ishlab turgan rahbar xodimlar oliy o'quv yurtlariga ishga yuborildi.

**1945-yili** oliy o'quv yurtlari soni **1940-yilga** nisbatan **3 taga** ko'payib **33 tani** tashkil etdi, talabalar soni esa **19,1 mingdan 21,2 ming kishiga** ortdi. Urush yillarida hammasi bo'lib **10 mingdan ko'proq** oliy malakali va **3,7 mingga yaqin** o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis tayyorlandi.

Xalq maorifida ham jiddiy qiyinchiliklar bo'ldi. Ko'plab maktablar binolari gospitalar, yotoqxonalar, harbiy o'quv yurtlariga berildi. Maktablar birlashtirildi, ko'p smenali o'qish joriy etildi. Urushgacha respublika maktablarida ishlayotgan o'qituvchilarning **74,6 foizini** erkaklar tashkil etardi. Ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga ketdi. Boz ustiga, darsliklar, uskunalar, daftarlar yetishmasdi. Qisqa muddatli kurslar tashkil etilib, boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilar tayyorlandi, boshqa ishga ketgan o'qituvchilarni maktabga qaytarish tadbirlari ko'rildi, ularning moddiy-maishiy ahvolini yaxshilashga g'amxo'rlik qilindi. **1944-yili** o'qituv-

chilar armiya safidan maktablarga qaytarildi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi yaxshilandi. Kundalik o'qish foydali mehnat bilan qo'shib olib borildi. O'qishdan tashqari vaqtlarida o'quvchilar ospitallarga otaliq yordami berdilar, frontdagilarning oilalariga ko'maklashdilar, temir-tersak to'plab topshirdilar, qishloq xo'jalik ishlarida qatnashdilar.

Maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o'quvchilar bilimni baholashning besh balli tartibi, boshlang'ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o'rta maktabni tamomlovchilar uchun yetuklik attestati – guvohtonmasi uchun imtihonlar topshirish majburiyati, maktab o'quv dasturlarini a'lo o'zlashtirgan va a'lo xulqli o'quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu tadbirlar dars mashg'ulotlari saviyasini ko'tarishga, o'quvchilar intizomini yaxshilashga olib keldi.

**1940/1941-o'quv yilida 5504 ta umumta'lim maktabida 1368,9 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1945/1946-o'quv yilida 4976 ta umumta'lim maktabida 989,2 ming bola ta'lim oldi.**

Ko'chirib keltirilgan muassasalar o'z joylariga qaytib keta boshlagach, maktab binolari ham bo'shatila bordi, o'quvchilar o'z maktablari bag'riga qaytib, o'qish ishlarini davom ettirdilar.

Adabiyot g'alaba uchun kurashda. O'zbekiston yozuvchilari va shoirlari o'zlarining qaynoq ijodi bilan xalqni mardonalikka chorlab, fidokorona mehnatga ruhlantirib g'alabaga munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi o'z faoliyatini dushmanni tezroq tor-mor etishga qaratdi. Uning rayosati qoshida tashviqot va targ'ibot bo'limi, harbiy komissiya tuzildi. Ijodiy ziyolilarning radio va matbuotda kishilarni hushyorlikka, vatanparvarlikka, dushmanga qarshi mardona jang qilishga, front orqasini mustahkamlashga chorlovchi chiqishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonga vaqtincha ko'chirib keltirilgan rus, ukrain, belorus, moldavan va boshqa millatlarga mansub yozuvchi va shoirlar ham respublikamiz hayotida faol qatnashdi, o'zbekistonlik hamkasblari bilan yaqindan hamkorlik qildilar. «Biz yengamiz!» degan almanax, «O'zbekiston shoirlari – frontga» degan antologiya ana shunday hamkorlik mevasi bo'ldi. **Hamid Olimjon, Uyg'un, Sobir Abdulla, Nikolay Pogodin** birgalikda «O'zbekiston qilichi» musiqali dramasini yaratdilar.

Urush yillarida yaratilgan **Oybekning «Navoiy» va «Qutlug' qon» romanlari, Abdulla Qahhorning «Oltin yulduz» qissasi, «Xotinlar» asari** jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi. She'riyatda ulkan yuksalish kuzatildi.

Hamid Olimjonning «Qo'lingga qurol ol», «Sharqdan G'arbga ketayotgan do'stga», «Jangchi Tursun» va «Roksananing ko'z yoshlari», G'afur G'ulomning «Sen yetim emassan», «Men ~ yahudiyman», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», Uyg'unning «Qasam», «Bir qadam ham orqaga chekinilmasin» va «Maktub», Maqsud Shayxzodaning «Ona kuzatmoqda» va «Kapitan Gastello» she'rlari, Sharof Rashidovning «Qahrim» she'rlar to'plami, Sulton Jo'raning «Pulemyotchi ovozi», «Nayzamiz» she'rlari fashizm kirdikorlarini fosh etib, g'alaba qozonishga ishonchni kuylab, xalqning jangovar ruhini ko'tardi. Ona zamin, Vatanga sadoqat, dushmanga nafrat, jasorat va mardlikni tarannum etgan bu teran she'rlar jangovar quroldan qolishmaydigan dahshatli qurol bo'lib xizmat qildi.

Ommaviy axborot vositalari. Urush yillarida respublika ommaviy axborot vositalari ommani front uchun, g'alaba uchun safarbar etishda, xalqni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. O'sha damlarda O'zbekistonda **200 ga yaqin** gazeta, shundan **124 tasi o'zbek** tilida, **52 ta** jurnal, shundan **19 tasi o'zbek** tilida nashr etilardi. Gazetalarning bir g'allik adadi **900 ming**, shundan **600 ming** nusxasi o'zbek tilida chiqardi. Gazetalar va jumallar sahifalarida frontdagi vaziyat, respublika mehnat jamoalarining fidokorona mehnati, qiyinchiliklar yoritilardi.

O'zbekistonning bir guruh yozuvchi va jurnalistlari sovet armiyasi siyosiy boshqarmalari ixtiyoriga yuborildi. Bulardan **To'liqin Rustamov** va **Rasul Muhammadiy** sovet armiyasi bosh boshqarmasida inspektor, **Jalolxon Azizxonov**, **Rustam Abdurahmonov**, **Adham Rahmat**, **Sharif Bo'latov**, **Muhammadjon Murodov**, **Yo'lchi Bilolov** va boshqalar front gazetalarida muharrir o'rinbosarlari bo'lib xizmat qildilar. **Nazir Safarov**, **Mirzakalon Ismoilijon**, **Zinnat Fatxullin**, **Meli Jo'ra**, **To'g'on Ernazarov**, **Sulton Jo'ra** va boshqalar harbiy muxbirlar sifatida va jurnalistikaning boshqa jangovar sohalarida faoliyat ko'rsatdilar.

Urush yillarida o'zbek tilida **14 ta front** va **12 ta diviziya** gazetasi nashr etilardi. «**Front haqiqati**», «**Qizil askar haqiqati**», «**Qizil armiya**», «**Vatan sharafi uchun**», «**Dushmanga qarshi olg'a**» kabi gazetalar nashr etilgan.

Radio xodimlarining, madaniy-ma'rifiy muassasalarning xizmatlari ham katta bo'ldi.

**754 ta kino ustanovka**, **11 ta muzey**, **360 ta qiroatxona**, **1044 ta klub**, **433 ta kutubxona**, **2800 ta qizil choyxona** omma orasida siyosiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish markazi sifatida xizmat qildi.

San'at front xizmatida. Urush yillarida sahna san'ati rivojlandi, Toshkentda va Andijonda yangi teatrlar ochildi, respublikada hammasi bo'lib **36 ta teatr** ishlab turdi. Ko'chirib keltirilgan **14 teatr** ham faoliyat ko'rsatdi. Teatrlarda urush mavzusiga bag'ishlangan «**Davron ota**», «**Sherali**», «**O'zbekiston qilichi**» musiqali dramalari, «**Ulug'bek**» va «**Mahmud Torobiy**» operalari, mardlik, jasorat mavzularida yozilgan **Komil Yashinning «Bosqinchilarga o'lim»**, **M.Shayxzodaning «Jaloliddin» pyesalari** ko'rsatildi. Urush yillarida o'zbek davlat opera va balet teatri **10 ta**, Hamza teatri **16 ta**, Gorkiy nomli rus drama teatri **32 ta** yangi spektaklni sahnalashtirdi. Respublika teatr jamoalari **1942 – 1944-yillarda 203 ta** yangi asarni sahnalashtirdilar, **187 568 marta** spektakl va konsert namoyish etdilar, ularni millionlab kishilar tomosha qildi.

Xalq ashulachilarining, talantli bastakorlarning ijodi zo'r shuhrat qozondi. **To'xtasin Jalilov** va **Yunus Rajabiy** xalq musiqa san'ati an'analari-ga tayanib yorqin xalqchil asarlar yaratdilar. **M.Ashrafiy**, **T.Sodiqov**, **M.Burhonov** musiqa madaniyatini yuksak darajaga ko'tardilar.

Toshkent badiiy filmlar studiyasi vaqtincha ko'chib kelgan yirik kinematograflar bilan hamkorlikda «**Ikki jangchi**», «**Nasriddin Buxoroda**», «**217-raqamli odam**», «**Vatanga sovg'a**», «**Besh respublikaning filmkonserti**» nomli kinofilmlarni yaratdilar.

O'zbekiston rassomlari zo'r g'ayrat bilan ishladilar. **L.Abdullayevning «Qizil armiyaga kuzatuv»** va «**Mukofot bilan tabriklash**», **O'.Tansiqboyevning «Otliqlar hujumi»** va «**Partizan qiz**», **Ch.Ahmarovning «O'zbekiston – frontga**», **V.Y.Kaydalovning «Fashist gazandasi yo'q qilindi»** va «**Dushmanga qaqshatqich zarba**» asarlari O'zbekiston badiiy xazinasidan mustahkam o'rin egalladi. Urush yillarida O'zbekiston rassomlari **39 ta** ko'rgazma tashkil etdilar, **beshtingdan ko'proq** badiiy-siyosiy plakatlar yaratdilar.

O'zbekiston san'at xodimlari mehnatkash xalqqa, jangchilarga xizmat qilib, ularning ruhini ko'tarib turdi.

San'atkorlardan tuzilgan **30 dan ortiq** konsert brigadalari frontdagi jangovar harbiy qismlarning askar va zobitlari uchun **400 dan ko'proq** konsert berdilar, respublika hududida joylashgan harbiy qismlarda **15 mingta**, gospitallarda **10 mingta** konsert uyushtirdilar. Ishchilar, paxtakorlar huzurida doimo xizmatda bo'ldilar.

Bu tadbirlarda faol qatnashgan atoqli san'atkorlar: **Halima Nosirova**, **Tamaraxonim**, **Abror Hidoyatov**, **Lutfixonim Sarimsoqova**, **Sora Eshonto'rayeva**, **Abbos Bakirov**, **Kommuna Ismoilova** va boshqalar xalq hurmatiga sazovor bo'ldi.

## 29.4. O'ZBEKISTONNING QARDOSH XALQLARGA BAYNALMILAL YORDAMI

O'zbekistonning baynalmilal yordami. Ozod etilgan shahar va qishloqlarga yordam berish harakati butun O'zbekistonni qamrab oldi. Urushda zarar ko'rgan viloyat, shahar va tumanlarga yordamlashish bilan bog'liq masalalar respublika hukumati, viloyat, shahar va tuman tashkilotlari va keng jamoatchilik orasida muntazam ravishda muhokama qilinib, zarur tadbirlar amalga oshirib borildi. Yordam davlat va jamoatchilik yo'li bilan amalga oshirildi. Tiklash ishlariga yordam berish maqsadida **Sherobod MTS**ning brigadir-mexanigi **Odish Cheximov 10 ming so'm**, traktorchi **Ro'ziyev 15 ming so'm** berdi. Bu harakatni ko'pchilik qo'lladi. Samarqand viloyati ozod qilingan tumanlarga **170 million so'mdan ko'proq pul, 80 mingta kitob** va turli xil darsliklar yubordi.

**1943-yil bahorida** O'zbekiston ozod etilgan tumanlarga **2 ming traktor, avtomobil va qishloq xo'jalik mashinalari, 8 ming ot va ho'kiz, 170 ming bosh qo'y va echki jo'natdi. 1943-yil oktyabr oyida o'zbekistonlik yoshlar leningradlik bolalarga 250 tonna oziq-ovqat, 10 ming juft poyabzal va kiyim, 2 million so'mdan ko'proq pul** yubordi.

O'zbekiston temiryo'lchilari ozod etilgan joylardagi temir yo'llarni tiklashga katta yordam berdilar. Toshkent tovar stansiyasi temiryo'lchilari **35 ko'targich asboblarni komplekti, 350 dona slesarlik asboblari, 2 mingdan ortiq ehtiyot qismlarini to'plab G'arbdagi stansiyalarning birini tiklash uchun jo'natdi. 1943-yil 30-martda** Toshkent temiryo'lchilari **asbob-uskunalar ortilgan butun bir eshelonni Stalingrad** temir yo'l tarmog'ini tiklash uchun yubordi. Uning tarkibida ko'chib yuradigan maxsus ustaxona, ikkita parovoz, jihozlangan **33 ta vagon va platforma, dori-darmonlar va ishchi kiyimlari** bor edi.

O'zbekistonliklar ko'chirib keltirilgan korxonalar, ilmiy va madaniy muassasalar, o'quv yurtlarini o'z o'miga qaytarish, binolarni tiklash va joylashtirish ishlarida ham faol qatnashdilar. Ko'plab o'zbekistonlik mutaxassislar va ishchilar rus, ukrain, belorus, moldavan do'stlariga ko'maklashish uchun jo'nab ketdi. Faqat **1943-yili o'zbekistonliklardan 60 mingga yaqin kishi Sverdlovsk, Chelyabinsk, Moskva, Ivanov** va boshqa viloyatlarda ishladilar. O'zbekiston aloqachilari **540 muhandis, texnik va boshqa mutaxassislardan iborat maxsus batalyon tuzib, uni zarur asbob-uskuna va materiallar bilan ta'minlab G'arbgga jo'natdi. Batalyon Rossiya, Ukrainada** ko'plab aloqa vositalarini tiklashda faol qatnashdi. G'arbiy viloyatlarni tiklash ishlariga respublikamizning fabrika-zavod ta'limi maktablarini, hunar

o'quv yurtlarini endigina tamomlab chiqayotgan yoshlar ko'proq yuborildi. **1943 – 1945-yillarda Donbass, Kiyev, Leningrad va Ural** korxonalari, qurilishlari va temir yo'llarida ishlash uchun O'zbekiston mehnat rezervlari maktablarining **15 ming talabasi** jo'natildi.

*O'zbek xalqining o'z vatanidan badarg'a qilingan xalqlarga q'amxo'rli-gi.* Stalin va uning atrofidagi yugurdaklari tomonidan urush yillarida ham kichik xalqlar, etnik guruhlariga nisbatan adolatsizlik qilindi. Urushning dastlabki yilidayoq **Volgabo'yi nemislar avtonom respublikasi** tugatildi. Uning **300 mingdan ortiqroq** aholisidan bosqinchilar yordam olishi mumkin degan gumon bilan ularni yashab turgan joylaridan mahrum etib, **Sibir va Qozog'iston** viloyatlariga ko'chirib yuborildi.

**1943-yil oxiri – 1944-yil boshlarida** Volganing quyi oqimi va Kaspiy dengizi qirg'oqlarida yashovchi **qalmoqlar, Shimoliy Kavkazda yashovchi qorachoylar, chechenlar, ingushlar va bolqarlar, 1944-yil iyunida qrim tatarlari, greklar,** keyinroq **mesxeti turklari** ham o'z vatanlaridan **Sibir va O'rta Osiyoga** badarg'a qilindi.

Bu xalqlar fashistlar bilan hamkorlik qilishda ayblandi, hech kimdan hech narsa so'rab-surishtirilmadi, har bir odamning qanchalik aybdorligi, gunohkorligi aniqlanmadi, hamma ommaviy ravishda qattiq jazolandi. Ko'chirish yashirin holatda va shoshilinch ravishda amalga oshirildi. Bu katta kulfatlarga, ko'pchilik odamlar, bolalarning yo'lda qirilib ketishiga olib keldi. Bu xalqlar adolatsiz jazolanayotgan bir paytda ularning farzandlari, yor-u birodarlari fashistlarga qarshi jang qilmoqda edi. Ular yurtdoshlari boshiga tushgan kulfatdan bexabar edilar. Ko'chirilganlar Sibir va O'rta Osiyoning aholisi kamroq tumanlariga guruh-guruh qilib taqsimlandi.

O'zbekistonga **175 mingdan ortiq chechenlar, 157 ming ingushlar, 15 mingdan ortiq qrim tatarlari, 4500 bolqarlar, o'n minglab mesxeti turklari, greklar** ko'chirib keltirildi. O'zbek xalqi ularni beg'araz kutib oldi, yashash uchun uy-joy, oziq-ovqatlar bilan yordam berdi. Mahalliy hokimiyat ularga hosildor yerlardan tomorqa yer, uy qurish va xo'jalik yuritish uchun kredit mablag'lari ajratdi. Ko'chirib keltirilganlar ancha mashaqqatlar bilan yangi joylarga asta-sekin moslashib bordilar.

## **29.5. O'ZBEKISTONLIK JANGCHILARNING FASHIZMNI TOR-MOR ETISHDAGI JASORATLARI**

*O'zbekistonliklarning dastlabki janglardagi jasorati.* Urushning dastlabki kunlaridayoq harbiy chegaralardagi harbiy qo'shilmalar tarkibida xizmat qilayotgan o'zbekistonliklar fashist bosqinchilariga qarshi jangga

kirdilar. Chegarada joylashgan **Brest qal'asining 50 dan ortiq** millatga mansub jangchilari orasida o'zbekistonliklardan **Doniyor Abdullayev, Boboxalil Kashanov, Ahmad Aliyev, Nurum Siddiqov, Uzoq O'tayev** va boshqalar ham bor edi.

G'arbiy chegaralardagi dastlabki janglarda toshkentlik **Zokir Karimov** jasorat ko'rsatdi. U **Qrim** va **Kavkazda** ham dushman bilan olishdi, mardlik va jasorati uchun **I va II darajali «Shuhrat»** va boshqa ordenlar hamda **«Jasorati uchun»** medali bilan taqdirlandi.

O'zbekistonlik jangchilar **Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol** va boshqa shaharlar mudofaasida qatnashdi. Odessa himoyasida qatnashgan **Omon Umarov** dushmanning qurol-aslaha ortilgan **40 avtomobildan** iborat kolonnasiga qarshi hujumda jasorat ko'rsatdi, bir o'zi dushmanning **3 avtomashinasini** safdan chiqardi va **9 nemis askarini** yer tishlatdi. Omon Umarovning kichik harbiy bo'limi Odessa yonida qurilgan dushman aerodromiga hujum qilib dushmanning **16 samolyoti** va **30 avtomashinasini** yondirib yubordi. Uning bir o'zi **12 fashistni** yo'q qildi. Afsuski, **Kerch** uchun kechgan janglarda u halok bo'ldi. Odessa himoyasida sapyorlar rotasi komandiri **Hamza Zarlpov** jasorat ko'rsatdi. Uning rotasi minalashtirilgan yo'lda dushmanning **27 tanki** va **13 brone-transportyorini** portlatdi.

O'zbekistonlik jangchilar qatnashgan **Brest, Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol** va **Leningradning** qahramonona himoyasi fashistlar Germaniyasining «yashin tezligidagi urush» rejasiga dastlabki zarba bo'ldi.

O'zbekistonliklar Moskva uchun janglarda. 1941-yil kuz–qish oylarida **Moskva** ostonalarida hayot-mamot janglari bo'ldi. Ana shu dahshatli janglarda o'zbekistonlik jangchilar ham sabot-matonat, yuksak harbiy mahorat ko'rsatdilar.

Janubi-g'arbiy front tarkibidagi **353-tog' o'qchi polki** jangchisi **Qo'chqor Turdiyev** katta jasorat ko'rsatdi. U **1941-yil 25-oktyabrda** o'rtoqlari bilan razvedkaga, so'ngra «til» otib kelishga yuborildi. Otishmada barcha o'rtoqlari halok bo'lgan **Qo'chqor Turdiyevning** bir o'zi dushmanning **bir DZOT, 9 askar va zobitini** yo'q qilib, **3 tasini** asirga olib keldi va front qo'mondoni **S.K.Timoshenkoga** buyruq bajarilgani haqida xabar berdi. Bu jasorati uchun **Qo'chqor Turdiyev Qahramon unvoniga** sazovor bo'ldi.

Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general **I.V.Panfilov Almati** shahrida turkistonliklardan diviziya tuzdi. Uning komandirlari tarkibida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim olgan **180 zobit** bor edi. General **I.V.Panfilov** diviziyasi Moskva ostonalaridagi **Volokolamsk** yo'nalishida qattiq jang

qildi. Ommaviy qahramonlik ko'rsatdi. Diviziyaning **28 kishidan iborat 4-o'qchi rotasining** bir o'zi **Dubosekovo** razyezdida dushmanning **bir rotasini** qaytardi, **32 tankini** majaqlab tashladi. Diviziya jang maydonida dushmanning **114 tankini, 26 ming askar va zobitini, 5 samolyot** va boshqa ko'plab texnikasini yo'q qildi, harakatdagi jangovar texnikasining ancha qismini qo'lga kiritdi. Janglarda vzvod komandiri **Ikrom Halilov, Zarif Ibrohimov, Mamadali Madaminov, Abdulla Tog'ayev, jarroh G'ulom Abdurahimov** va boshqalar jasorat ko'rsatdilar. Jangda diviziya qo'mondoni **I.V.Panfilov** halok bo'ldi, ammo uning quoldoshlari **8-gvardiyachi panfilovchi** diviziya nomi bilan dushman tor-mor etilguncha jang qildilar.

O'zbekistonda tuzilgan **21- va 44-otliq askarlar diviziyasi** Moskva ostonalarida **1- va 2-otliq askarlar korpuslari** saflarida jang qilib qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. Shular qatorida **1-otliq askarlar korpusi** jangchilari **H.Musayev, R.Abduqosimov, A.Abdullayev**, bo'lim komandiri **R.Aliyev**, vzvod komandiri kichik leytenant **X.Bektursunov, 2-otliq askarlar korpusi** jangchilari **Z.M.Qosimov, R.S.Halilov**, katta serjant **V.Sodiqov**, eskadron komandiri **M.Ibrohimov** va boshqalar bor edi.

O'zbekistonda tuzilgan **258-o'qchi diviziya** askarlari Moskva ostonalaridagi janglarda **9000 dan ko'proq** dushman askar va zobitini yer tishlatib, **137 ta aholi manzilgohini** ozod etdi, birinchilardan bo'lib **Upa daryosiga** chiqib oldi, ko'plab jangovar texnikani qo'lga tushirdi. **258-o'qchi diviziya Kalugani** ozod etishda ko'rsatgan matonati uchun gvardiyachi diviziya unvoniga sazovor bo'ldi.

Diviziyaning orden va medallar bilan mukofotlangan komandirlari va siyosiy xodimlari orasida **B.O'razov, G.Tolipov, M.Bektemirov, V.Kashapov** va boshqalar bor edi. O'zbek xalqi Moskva himoyachilariga ko'maklashish uchun qo'lidan kelgan barcha tadbirni ko'rdi. **1941-yil dekabrda** O'zbekiston SSR Oliy Kengashi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev boshchiligidagi o'zbek delegatsiyasi Moskvaga bordi. Delegatsiya a'zolari Moskva ostonalarida jang qilayotgan harbiy front jangchilari – askarlar, zobitlar va qo'mondonlar bilan uchrashdi, suhbatlashdi, **1942-yil 1-yanvar** – yangi yil kunini birga kutib olishdi, ularga O'zbekistondan olib borilgan **29 vagon meva-cheva, 9 ming kalta po'stin, 20 ming juft kigiz etik, 100 ming juft issiq qo'lqop** va boshqalarni sovg'a qildilar.

Moskva himoyachilari orasida o'zbek qizi **Zebo G'aniyeva** ham bor edi. U Moskvadagi Teatr san'ati institutida o'qirdi. Urush boshlangach, Zebo G'aniyeva o'z yurti – **Andijonga** qaytib kelishnimas, frontda jang qilishni afzal ko'rdi. Tez orada mohir mergan va razvedkachi bo'lib yetishdi. Uning harbiy qismi **Moskva-Volga kanali** bo'ylab joylashgandi.



Mergan Zebo G'aniyeva **1942-yil 21-may** kunigacha **23 ta** fashistni yer tishlatdi, **16 marta** razvedkaga borib, dushman to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olib keldi. Zebo G'aniyeva jasorati uchun hukumat ordeni bilan mukofotlandi.

**1943-yil avgustda Demyanskda** bo'lgan jangda Zebo G'aniyeva og'ir yarador bo'ldi, **33 marta** jarrohlik operatsiyasiga bardosh berib o'limni yengib o'tdi. Zebo G'aniyeva urushdan keyin ham tinib-tinchimadi, tirish-qoqlik bilan o'qidi. **Bokuda** institutni tamomlab, **Moskva jahon adabiyoti institutida** nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Moskva ostonalarida o'zbekistonlik merganlar **Is'hoqov 354 fashistni, Abubekov 229, Yusupov 132, Madaminov 123 fashist askar va zobitlarini** yer tishlatdilar. 1753 nafar o'zbekistonlik jangchilar «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

O'zbekistonlik jangchilar **1942-yili Qrim, Donbass, Don, Kuban, Shimoliy Kavkazda** bo'lgan og'ir janglarda ham qatnashdilar. O'zbekistonda uzoq yillar xizmat qilgan general **I.Y.Petrov Sevastopol** uchun bo'lgan jangda **8 oylik** mudofaa janglari boshlig'laridan biri edi. U katta harbiy mahorat bilan alohida dengizbo'yi armiyasiga qo'mondonlik qildi. Sevastopolni quruqlikdan himoya qilishni tashkil etdi. Uning adyutanti toshkentlik katta leytenant **Z.Qahhorov** edi. General **I.Y.Petrov Shimoliy Kavkaz fronti**, keyinroq **4-Ukraina frontiga** qo'mondonlik qildi, **Berlin operatsiyasida** qatnashdi. Urushdan keyin Toshkentga qaytib, Turkiston harbiy okrugi qo'shinlariga qo'mondonlik qildi.

*O'zbekistonliklar Stalingrad jangida.* O'zbekistonliklar **62- va 64-armiyalar** safida turib **Stalingrad jangida** qahramonona jang qildilar. Janglar avjiga chiqqan paytda Stalingradga **Samarqand va Farg'onada** tuzilgan **90- va 94-o'qchi brigadalar** yetib kelib jangga kirishdi. Bu brigadalar, asosan, o'zbek yigitlaridan tuzilgan bo'lib, komandirlari orasida **S.Nuriddinov, V.Umarov, A.Murodxo'jayev, F.Norxo'jayev** va boshqalar bor edi. **21-otliq askarlar diviziyasining** baland jangovar ruhda jang qilishida diviziya komissari, keyinroq general-mayor unvoniga erishgan **Mullajon Uzoqovning** xizmati katta bo'ldi. Volga bo'ylarida dahshatli janglar ketayotgan paytda o'zbekistonlik jangchilar o'zbek xalqining ularga yozgan xatini oldilar.

**128-gvardiyachi Turkiston tog'-o'qchi diviziyasi** askarlari dushmanga qarshi shiddatli zarbalari bilan shuhrat qozondilar. Kichik leytenant **M.Kabirov** vzvodiga **Perelazovsk xutori** yonidagi tepalikni egallash va ushlab turish vazifasi topshirildi. Vzvodning **40 ta** jangchisi hamma tomondan ochiq, dushmanga ko'rinib turgan yalanglikdan o'rmalab te-

paga yurdi, qattiq jang, og'ir yo'qotishlar evaziga tepalikni ishg'ol etdi. Tirik qolgan **11 jangchi** dushmanning **300 jangchisiga** qarshi **12 kun** davomida tepalikni qo'ldan bermay jang qilishdi va dushmanni o'sha tepalik yonida to'xtatib qolishdi. Ularning **9 tasi o'zbek**, **1 tasi qozoq** va **1 tasi tatar** edi. Og'ir jangda **B.Alimbekov**, **D.Ahmedov**, **B.G'afforov**, **S.Mardonov**, **H.Musayev**, **S.Payziyev**, **N.Hayitov**, **S.Tlenovning** qoni ana shu tepalikda abadiy qoldi. Faqat **A.Erdonov** va **M.Kabirov** tirik qoldi. Bu tepalik hozirgacha «**Sharqning 11 qahramoni tepaligi**» deb atab kelinmoqda.

Mashhur Pavlov uyini mudofaa qilgan jangchilar orasida o'zbek yigiti **Kamoljon Turg'unov** ham bor edi.

Stalingradda jang qilayotgan namanganlik zobit **Mamasoli Jabborov 1942-yil noyabrida** o'zining motoo'qchilar rotasi bilan chekinib borayotgan dushmanning ikkita polkiga shiddatli hujum qilib **400 soldat** va **zobitni** qirib tashladi, **230 tasini** asirga tushirdi va anchagina qurol-aslahani o'lja oldi. **117 fashistni** yer tishlatgan Buxoro viloyatidan borgan mergan **Hayit Xo'jamatov 5 ta jangda** o'z pulemyoti bilan dushmanning **300 dan ortiq** askar va zobitini yer tishlatgan. Qorako'l tumanidan borgan jangchi **Hayitov**, Toshkent pedagogika institutining talabasi **Yelena Stempkovskaya** jasorati Stalingrad jangi solnomasidan munosib o'rin egalladi. O'zbekistonlik jangchilardan **2738 kishi** «**Stalingrad mudofaasi uchun**» medali bilan mukofotlandi.

*Tab* *burilishga o'zbekistonlik jangchilar hissasi*. **1943-yil yozida Kursk yoyida** bo'lgan qattiq janglarda O'zbekistonda tuzilgan **62-** va **69-o'qchi diviziyalar**, **162-O'rta Osiyo-Novgorod-Shimol diviziyasi** askar va zobitlari alohida jasorat ko'rsatdilar. O'zbekistonliklar **5-** va **15-o'qchi diviziyalar** hamda **5-gvardiyachi** va **62-gvardiyachi o'qchi diviziyalar** tarkibida ham jang qildi.

«**Oryol**» diviziyasi faxriy nomini olgan **5-o'qchi diviziya** tarkibida farg'onalik **Ahmadjon Shukurov** ham bor edi. Bu diviziyaga **Zolotaryovka qishlog'i**ni dushmandan tortib olish topshirig'i berildi. Zolotaryovka uchun bo'lgan qattiq janglarda Ahmadjon Shukurov jasorat ko'rsatdi. Dushmanning **110 ta askar** va **zobitini** yer tishlatdi va **15 tasini** asir oldi. Bu jasorati uchun unga **Qahramon unvoni** berildi va Zolotaryovka qishlog'i **Shukurovka** deb ataladigan bo'ldi.

**Zilmat Hasanov** bir o'zi **80 fashistga** qarshi jang qilib, **60 tadan ortig'ini** qirib tashladi, patronlari tugagach, qattis paytda o'zini ham, dushmanlarni ham portlatib yubordi. O'zbek qizi, shifokor-jarroh **Muqaddam Ashrapova** namunali xizmati uchun **1-gvardiyachi** armiya

jangchilarining mehr va hurmatiga sazovor bo'ldi. **Pragagacha** bo'lgan jangovar yo'lni bosib o'tdi. Ko'rsatgan jasoratlari uchun hukumat ordeni va bir necha medallar bilan taqdirlandi. Muqaddam Ashrapova urushdan keyin Toshkent tibbiyot institutida ishlab, tibbiyot fanlari doktori, professor darajasiga erishdi, o'z hayotini fanga va tibbiyot xodimlari tayyorlashga baxshida etdi.

Kurskda porloq g'alabaga erishilgach, qizil armiyaning **2000 km** uzunlikdagi frontlarda qudratli strategik hujumi boshlanib ketdi. **Shimoliy Don, Desna, Soj daryolari** kabi suv to'siqlari ham, dushmanning kuchli mudofaa pozitsiyalari ham qo'shinlarni to'xtatib qololmadi. Dushmanning **Dnepr** daryosining o'ng qirg'og'ida mahkam o'rnatilib olishdan iborat rejasini sindirish maqsadida jangchilar zudlik bilan Dneprni kechib o'tishni boshladi. Toshkent viloyatida tuzilgan **441-o'qchi diviziya** jasorat ko'rsatdi. Leytenant **Ozerov** otryadi daryoni kechib o'tib, Dnepr va Soj daryolarining burilish joyidagi g'arbiy sohilning kichik bir istehkomini egalladi. Fashistlar o'q yog'dirib, ularni yo'q qilib tashlashga intildi. Tirik qolgan **10 tacha** jangchi rota komandiri **Jo'raxon Usmonov** yetakchiligida, madad yetib kelguncha, ikki kecha-kunduz davomida marrani egallab turdi. Bo'linmaning barcha jangchilari yuksak mukofotlarga sazovor bo'ldi, Jo'raxon Usmonov **Qahramon unvoni** bilan taqdirlandi. Dneprni birinchi bo'lib kechib o'tganlar orasida G'ijduvon tumanidagi Navzakaron qishlog'idan chiqqan starshina **Vali Nabiye**v, andijonlik **Qambarali Do'smatov**, qoraqalpoq **Xudoybergan Shoniyozov**, shofirkonlik **Xalloq Aminov**, romitanlik **Sharif Ergashev**, Buxorodan chiqqan **T.A.Tixonov** va boshqalar bor edi.

Dneprni kechib o'tishda, uning o'ng qirg'og'idagi istehkomlarni egalashda ko'rsatgan jasorati uchun jami **2348 jangchiga**, jumladan, **26 o'zbek yigitlariga Qahramon unvoni** berildi.

O'zbekistonlik jangchilar Leningrad qamalini yo'q qilish, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo'yi respublikalarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda qahramonlik namunalari ko'rsatdilar. **1944-yil kuziga** kelganda dushman mamlakatdan butunlay haydab chiqarildi, SSSR chegaralari tiklandi.

**O'zbekistonlik partizanlar.** Dushmanni tor-mor etishda partizanlar harakatining roli va o'rni katta bo'ldi. Urushning dushman ustunlik qilgan dastlabki davrida butun-butun harbiy qismlar raqib qurshovida qolib ketdi, ko'plab askar va zobitlar noilojlikdan asirga tushib qoldilar. Asirlarning soni **5 mln kishidan** ortiqroq bo'lib, ular orasida minglab o'zbekistonliklar ham bor edi. Asirga olinganlar orasida komissarlar, kommunistlar birinchi qatorida surishtirib o'tirilmasdan otib tashlanardi. Qolganlari harbiy

lagerga tashlanardi, ularga qattiq azob berilar, sovuqda och-yalong'och saqlanardi. Dastlabki paytlarda fashistlar harbiy asirlarni ortiqcha yuk, keraksiz xo'randa deb o'ldirib yuborishardi. Keyinchalik, urush dushman o'ylaganchalik bo'lib chiqmagach, harbiy asirlardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalana boshlandi.

Dushman bosib olgan shahar va tumanlar aholisi Germaniyaga haydab ketildi. Ba'zi joylarda mehnatga layoqatli bo'lgan fuqarolarni o'z ixtiyori bilan Germaniyaga ishga yollab olib ketishga ham urindilar. Germaniyaga olib ketilgan sovet fuqarolari soni **4 mln dan ortiq** edi. Harbiy asirlar, haydab ketilgan fuqarolar **Osvensim, Mautxauzen, Buxenvald** va boshqa o'nlab o'lim lagerlarida saqlandi, xo'rlandi va ko'plari o'ldirildi.

Dushman ish'ol qilgan tumanlar aholisining qamalidan chiqib olgan qismi yoki harbiy asirlikdan qochgan jangchilar tog'larga, o'rmonlarga yashirinib, partizancha kurashga o'tdilar.

«**Chekist**» partizan otryadi razvedkachisi, qo'rqmas partizan **Mamadati Topiboldiyevning** nomi Belorussiyada mashhur bo'ldi. U dushmanning **67 askar** va **zobitini** yo'q qilib, **180 tasini** asir oldi. Dovrug'i butun partizanlar o'lkasiga yoyilgan **M. Topiboldiyev** ko'rsatgan jasorati uchun **Qahramon unvoniga** sazovor bo'ldi. Belorussiyaning **Pisarevo qishlog'i** o'zbek xalqining jasur o'g'loni nomiga Topiboldiyevka deb ataladi.

**Gomel** atrofidagi «**Temir yo'l urushi**»da ishtirok etgan **Jonibek Otaboyev, Bryansk** atrofida dushmanga to'satdan zarba bergan **I. Musayev, A. Hakimov, I. Qosimov** va boshqalarning nomlari urush solnomasidan o'chmas o'rin oldi. Ukrainada dushmanga qiron keltirgan **S. A. Kovpak, A. N. Soburov, A. F. Fedorov, M. I. Naumovning** partizan qo'shinlari saflarida yuzlab o'zbekistonlik qasoskorlar ham qatnashdilar.

O'zbekistonliklar – Yevropa xaloskorlari. O'zbekistonlik jangchilar Yevropa xalqlarini ozod etishda faol qatnashdilar. Birinchi o'zbek generali, **57-gvardiyachi diviziya** qo'mondoni **Sobir Rahimov** Polshada shonli xotira qoldirdi. Uning diviziyasi **Kavkazdan Sharqiy Prussiyagacha** masofani qattiq janglar bilan bosib o'tdi. Ko'rsatgan harbiy mahorati uchun ko'p martalab hukumat ordenlari va medallar bilan taqdirlandi. **1943-yil martida unga general-mayor unvoni** berildi.

**1943-yil mayidan 1944-yil apreligacha** Sobir Rahimov Moskvadagi Oliy harbiy akademiyada ta'lim oldi. U akademiyani tamomlab, avval **Belorussiyani, so'ngra Polshaning Grudzyandz, Gnev, Starograd, Dzyaddovo** shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atni namoyish qildi. **1945-yil 26-martda Gdansk**

shahrini ozod etish uchun bo'lgan jangda general Sobir Rahimov halok bo'ldi. Sobir Rahimovga o'limidan so'ng **Qahramon** unvoni berildi. Polsha xalqi o'zbek xalqi kabi general Sobir Rahimov nomini e'zozlab kelmoqda. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga Sobir Rahimov nomi berilgan.

O'zbekistonliklar Yevropa mamlakatlarida avj olgan qarshilik ko'rsatish harakatida ham faol qatnashdilar. Ular dushmanning maxsus lagerlaridan qochib **Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gretsiya, Fransiyadagi** qarshilik harakatiga qo'shilib jang qildilar. Samarqandlik **G.G.Bulatov** otryadi Polshada o'nlab ko'priklarni, temir yo'llarni portlatdi, dushmanning harbiy qismlari va jangovar texnikasi ortilgan eshelonlarni ag'dardi. **1944-yil o'rtalarida Slovakiyada** fashistlarga qarshi ko'tarilgan milliy qo'zg'olonda o'zbekistonliklardan partizan otryadi komandiri **V.F.Melnikov, R.Allamov, A.Narzullayev, R.Hamroyev** ishtirok etdi. **Yugoslaviyada** ko'rsatgan jasorati uchun farg'onalik **Uksanboy Xolmatov 3 marta** Yugoslaviya mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Fransiyada 37 millat va elatlarga mansub **2200 sovet harbiy asirlari**-dan tuzilgan partizanlar polki **A.A.Kozaryan** qo'mondonligida fransuz partizanlari bilan birgalikda jang qilib, **Ales, Vilfor, Sen-Sheli** shaharlarini, **Gar** va **Lozer** departamentining qishloqlarini fashistlardan ozod qildilar. Bu janglarda samarqandlik **Abdulla Rahmatov**, Bulung'ur tumanidan **Sariboy Shomurodov**, toshkentliklar **Rahmon Rahimov, Nasib Amirov** va boshqalar faol qatnashdi.

Fransiyaning janubini ozod etishda ko'rsatgan jasorati uchun qo'qonlik **Hoshim Ismoilov**, toshkentlik **Tojiboy Ziyayev** Fransiyaning «**Janna d'Ark kresti**» ordeni bilan mukofotlandi.

Italiyaning **Karraro** shahri konlarida ishlatish uchun olib borilgan harbiy asirlar orasida andijonliklar **Turg'un Qo'chqorov** va **Ahmad Mamajonov** italiyalik partizanlar bilan aloqa bog'lab toqqa qochadi. Ular garibaldiychi partizanlar otryadiga qo'shilib dushman qurol-aslaha omborxonalarini portlatishda, yo'llarda dushman kolonnalarini yo'q qilishda, ko'priklar va eshelonlarni portlatishda faol qatnashadilar.

«**Turkiston legioni**». Fashistlar harbiy asirlardan «**Rus ozodlik armiyasi**», «**Turkiston legioni**», «**Volga – Ural legioni**» kabi harbiy qo'shilmalar tuzishdi, ulardan partizanlarga qarshi kurashda foydalandilar ham. Chet el manbalarida o'z vatanining dushmanlari bilan «hamkorlik» yo'liga kirganlar soni oz emas, ko'p emas, **1 mln kishiga** yetgani ko'rsatiladi. Bunga Stalinning asirlikka tushib qolganlarni vatan xoinlari deb hisoblagani ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi ehtimoldan xolimas. Haqiqatan ham, ko'pgina harbiy askarlar bunday legionlarga majburan

kiritilgandi. Ular yashirin guruhlar tuzib partizanlar bilan aloqa bog'lash yo'lini qidirganlar. Masalan, **1944-yil yanvarida** gitlerchilar «Turkiston legion» otryadini **Chernogoriyada** yugoslaviyalik partizanlarga qarshi jangga soladi. Otryadlarning birida **28 o'zbek yigiti: S.Fayziyev, A.Ahmedov, Z.U.Husanov** va boshqalar bor edi.

Zobit S.Fayziyev mahalliy aholi bilan aloqa bog'laydi va uning ko'rsatmasi bilan legionchilar fashist komandirlarini otib tashlab, qurol-aslahalari bilan toqqa, partizanlar tomoniga yuradi. **1944-yil 25-may** kuni 28 o'zbekistonlik legionchilar Yugoslaviyada harakat qilayotgan bolgar askarlari batalyoniga qo'shilib ketadi. Ular orasida jang qilgan toshkentlik **Z.U.Husanovning** taqdiri hayratomuzdir. U **1941-yili Smolenskda** yarador bo'ladi, tuzalib safga qaytadi va **1943-yil 5-iyulda 228-o'qchi polki** safida qahramonlarcha jang qilib og'ir yaralanadi. Quroldoshlari uni halok bo'ldi deb hisoblashadi, uyiga bu haqda xabar yo'llashadi. Unga **Qahramon unvoni** beriladi. Ammo jangchi o'lmay qoladi, dushman uni og'ir yarador holda asirga oladi, keyin «Turkiston legion»ga kiritadi. Ziyamat Husanov o'rtoqlari bilan partizanlar tomoniga o'tadi. **Priyepol** shahrida fashistlarga qarshi mardona jang qilib, ko'plarni yer tishlatadi, o'zi ham og'ir yarador bo'ladi, bir mahalliy ayol jangchini o'ziga keltiradi. Italiyadagi harbiy kasalxonaga joylashtirishadi. U to'rt marta operatsiyani boshidan kechiradi, sog'aygach o'z yurtiga keladi. Keyinroq **Qahramon unvoniga** sazovor bo'lganidan xabar topadi.

Biroq omon qolgan harbiy asirlarning taqdiri og'ir kechadi. Ular o'z Vataniga qaytib kelgach gumon ostida bo'ldilar, ishga joylashishda, uy-joyli bo'lishda qiynaldilar. Ayrimlari yana lagerlarga, endi sovetlar hukumatining lagerlariga tushib qoldi. Bunday hollar Stalin va uning atrofidagilar yaratgan ishonchsizlik va gumonsirash vaziyati oqibati edi.

*O'zbekistonliklarning urushning so'nggi pallasidagi jasoratlari.* Urush o'zining so'nggi pallasiga kirdi. **Berlin** uchun qattiq janglar bo'ldi. **Qahramonlar Botir Boboyev, Tojiali Boboyev, Solih Umarov, «Shuhrat»** ordenining to'liq kavalerlari **Abdulla To'qmoqov** va **Said Niyozov** Berlinni zabt etishda qahramonlarcha jang qildilar.

«**Berlinni olganligi uchun**» medali bilan o'zbekistonlik jangchilardan **1706 kishi** taqdirlandi. Fashistlar Germaniyasi tor-mor etildi. «**Germaniya ustidan g'alaba qozonilgan uchun**» medali bilan **109 208 o'zbekistonlik** jangchi taqdirlandi.

O'zbekistonlik jangchilar Yaponiyaga qarshi urushda ham qatnashdilar. Ular **22-, 79-, 275-, 388-, 221-diviziya** va boshqa harbiy qismlar tarkibida jang qildilar. **Seysin** port shahrini egallashda **335-o'qchi di-**

viziyasi batalyoni tarkibida leytenant **Fozil Karimov**, razvedkachi **Vali Sulaymonov** alohida jasorat ko'rsatdi. Dushman sohiliga tushirilgan desantchilar orasida pulemyotchi **Nishon Bozorov** chaqqonlik bilan jang qilib, yaponlarning **10 ta askari** va **2 ta zobitini** yer tishlatadi. U jangovar medal bilan mukofotlanadi. Leytenant **A.A.Karimov**, o'qchi vzvod komandiri kichik leytenant **U.Doniyorov**, pulemyotchilar qismi komandiri **S.Qo'chqorov** va boshqalar ham dushmanga qaqshatqich zarba berdilar. **Shimoli-Sharqiy Xitoy** va **Koreyani** egallab turgan bir millionlik **Kvantun armiyasi** tor-mor qilinadi. **Janubiy Saxalin, Kurill orollari** yapon qo'shinlaridan tozalanadi. Yaponiya tor-mor etiladi.

O'zbekistonliklarning urushda ko'rsatgan mardligi va jasorati yuqori baholandi. **120 ming** o'zbekistonlik jangchilar, jumladan, **70 ming** o'zbek yigit-qizlari orden va medallar bilan mukofotlandi. **300 ga yaqin** askar va komandirlar **Qahramon unvoniga** sazovor bo'lishdi, ularning **75 nafari** o'zbeklardir. **32 nafar** o'zbekistonlik jangchi uchala darajadagi «**Shuhrat**» ordeni bilan mukofotlandi.

**6 yil** davom etgan, butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlar solgan **Ikkinchi jahon urushi** tamom bo'ldi. Urush insoniyatga qimmatga tushdi, **50 million-dan ortiqroq** kishi o'ldi, **90 milliondan ortiq** kishi yarador va mayib bo'lib qoldi, moddiy talafotlar qimmatini **4 trillion dollardan** oshib ketdi. Urush Yevropa, Afrika, Osiyo va Okeaniyada turli frontlarda bo'ldi. Fashizmni tor-mor etishda ko'p mamlakatlar qatnashdi. Biroq urushning asosiy og'irlik markazi SSSR xalqlari zimmasiga tushdi. **27 millionga yaqin** kishi urush alangasida halok bo'ldi, **18 milliondan ortiqroq** jangchi yarador va nogiron bo'lib qoldi.

O'zbekistondan urushga safarbar etilganlardan **263 005 kishi** halok bo'ldi, **132 670 kishi** bedarak yo'qoldi, **60 452 kishi** nogiron bo'lib qaytdi. Bu mash'um urush tufayli eng kamida **to'rt yuz ming oila** bevosita ayriliq azobiga duchor bo'lgan. Agar qarindosh-urug'larni hisoblasak, butun mamtakat aholisi motam libosini kiygan.

Urush davri O'zbekiston tarixining uzviy bir qismi, biz uni unutmaymiz. O'zbekistonda urush faxriylariga, ularning oilalariga yordam berilmoqda, ularga imtiyozlar yaratilgan. Respublika faxriylar uyushmasining tashabbusi bilan fashizm ustidan qozonilgan g'alabani **50 yilligi** munosabati bilan janglarda halok bo'lgan **400 mingga yaqin** vatandoshlarimiz haqida arxiv materiallari to'planib, bu ma'lumotlar asosida «**Xotira**» turkumida **33 kitob** nashr etildi.

Fashizm ustidan g'alaba qozonilgan **9-may kuni** O'zbekistonda «**Xotira va qadrlash**» kuni sifatida nishonlanmoqda.

## 30-BOB. 1946 – 1990-YILLARDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI

### 30.1. XALQ XO'JALIGINING TIKLANISHI. MA'MURIYATCHILIKNING KUCHAYISHI, ZIYOLILARNI QATAG'ON QILISHNING YANGI BOSQICHI

*O'zbekiston xalq xo'jaligining tinch qurilishga o'tishi.* Urush tamom bo'lgach, O'zbekiston xalq xo'jaligini tinch qurilishga o'tkazish va tiklash ishlari boshlandi. Bu jarayon boshqa respublikalardan birmuncha farq qilardi. G'arbiy viloyatlar va respublikalarda, birinchi navbatda, vayron bo'lgan xo'jalikni tiklashga e'tibor berilgan bo'lsa, O'zbekistonda xo'jalikni tinch qurilishga o'tkazish birinchi darajali vazifa edi.

Sovet davlati dasturlarida asosiy mablag'lar va vositalar g'arbiy hududlarga yo'naltirilgan bo'lib, Sharqdagi hududlar, jumladan, O'zbekiston o'z mablag'larigagina tayana olardi. Boz ustiga, yuqoridan tiqishtirilgan baynalmilallik tamoyiliga ko'ra O'zbekiston, xo'jalikni tiklashdagi, aholini oziq-ovqat va iste'mol mollari bilan ta'minlashdagi tanqisliklarga, malakali ishchi va mutaxassislar yetishmasligiga qaramay, g'arbiy viloyatlarga har jihatdan yordam berishga majbur qilinardi. O'zbekiston aloqachilari Dnepropetrovsk viloyatiga **300 mutaxassis**, Toshkent temiryo'lichilari g'arbdagi temir yo'llarda ishlash uchun **230 kishi** yubordilar. O'zbekiston Qozog'iston, Turkmaniston Respublikalari, Rossiyaning sharqiy viloyatlari, Chuvashiston, Tatariston va Boshqirdiston avtonom respublikalari, Ukrainaga **5000 traktor**, **300 avtomashina** va ko'p miqdorda boshqa qishloq xo'jalik mashinalari yetkazib berdilar. Donbass shaxtalarini qayta tiklashga O'zbekiston nasoslar, kompressorlar, ko'targich kranlar, elektr kabellari va boshqa uskunalar yubordi. Markazning O'zbekistonni asosiy paxta bazasi sifatida qoldirishdan iborat yo'li qat'iy edi. Shu bois urushdan keyin respublikadagi mashinasozlik zavodlari qurol-aslaha va boshqa harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishdan qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarishga moslab qayta jihozlandi. «**Tashselmash**», «**Uzbekselmash**», «**Krasniy dvigatel**», «**Podyomnik**» va boshqa mashinasozlik zavodlari paxtachilik hamda irrigatsiya qurilishi uchun mashinalar, tirka-ma uskunalar, kultivatorlar, o'g'itlagichlar, chigit seyalkalari, g'o'zapoya yuluvchi, ko'rak teruvchi mashinalar, ekskavatorlar, buldozerlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Kimyo sanoati korxonalari mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga moslab qayta qurildi. Yengil va oziq-ovqat sanoati



xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqarishni kengaytirdi. Urush yillarida boshlangan yirik inshootlar, jumladan, Farhod GES, O'zbek metallurgiya kombinatining yangi korxonalari va qurilishi davom etdi.

**1946-yil 18-mart** kuni SSSR Oliy Kengashi tomonidan «**SSSR xalq xo'jaligini tiklash va yanada rivojlantirishning 1946 – 1950-yillarga mo'ljallangan rejasi haqida**» Qonun qabul qilindi. Rejada vayron bo'lgan xo'jalikni tiklash, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni urushdan oldingi darajaga yetkazish va yanada oshirishga erishish vazifasi ilgari surildi.

O'zbekiston rahbariyati markaz tomonidan real imkoniyatlardan kelib chiqmagan, texnika vositalari va moliyaviy resurslar tanqisligiga qaramay, oshirib belgilangan ko'rsatkichlarni e'tirof etishga majbur bo'ldi va respublikada amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilab chiqdi. Bu vazifalar respublika Oliy Kengashining **1946-yil avgustida tasdiqlangan «O'zbekiston SSR xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishning 1946 – 1950-yillarga mo'ljallangan 5 yillik rejalarini to'g'risidagi» Qonunda** o'z ifodasini topgan. Rejada respublikada sanoat mahsulotlarini **52 foizga ko'paytirish** ko'zda tutilgandi. Paxtachilikni, xususan, paxta yig'im-terimini kompleks mexanizatsiyalashni tugallash kabi noreal vazifalar go'yilgandi.

O'zbekistonliklar xo'jalikni tiklash va yanada rivojlantirish yo'lida as-toydil mehnat qildilar. **1946 – 1950-yillarda 150 dan ortiq** yangi sanoat korxonalari qurib ishga tushirildi. Quvvatiga ko'ra SSSRda uchinchi o'rinda turuvchi Farhod GESning birinchi va ikkinchi navbatlari qurilib ishga tushirildi. **1-Oqqovoq, 1-Bo'zsvu, 2-Bo'zsvu** va boshqa gidroelektr stansiyalar qurildi. **1945-yili 1187 mln kilovatt/soat** elektroenergiya ishlab chiqarilgan bo'lsa, **1950-yili 2681 mln kilovatt/soatga** yetdi. Qora metallurgiya sanoati rivojlandi. O'zbek metallurgiya kombinatining «**300**» prokat stani va yupqa listli «**700**» prokat stani qurildi, marten va prokat sexlari loyihadagi ishlab chiqarish quvvatiga yetdi. Kombinatda issiqlik elektr markazi ishga tushirildi. Kombinat **1950-yili 119 ming tonna** po'lat ishlab chiqardi va O'zbekiston hamda boshqa respublikalar sanoati uchun yuqori sifatli po'lat yetkazib beruvchi korxonaga bo'lib qoldi. «**Tashselmash**», «**Uzbekselmash**», «**Chirchiqselmash**», Samarqanddagi «**Krasniy dvigatel**» va boshqa zavodlar paxtachilik bilan bog'liq mashinalar ishlab chiqarishni kengaytirdilar. **1950-yili 4803 ta** chigit seyalkalari, **7784 traktor kultivatorlari** tayyorlandi. **1949-yili 5 ta** dastlabki paxta terish mashinasi **SX – 40** ishlab chiqilgan bo'lsa, **1950-yili 4641 ta SX – 40** ishlab chiqarishga erishildi. Paxta tozalovchi mashinalar ishlab chiqarish **1946-yili 363 tani** tashkil etgan bo'lsa, **1950-yili 1251 taga** yetdi.

Yoqilg'i sanoati tiklandi va rivojlandi. Farg'ona vodiysida **Moyli** va **Shahrixon**, Surxondaryo viloyatida **Kokaydi** va **Lalmikor** neft konlari ochilib foydalanishga topshirildi. Oltiariq neft haydash zavodi kengaytirildi. Neft ishlab chiqarish **1950-yili 1,3 mln tonnadan** oshdi. **Polvontosh – Asaka** gaz quvuri qurildi, gaz ishlab chiqarish ortib bordi va **1950-yili 52 mln kubometrni** tashkil etdi.

Yengil sanoat o'sib bordi. Farg'ona va Qo'qonda yangi to'qimachilik kombinatlari, Toshkentda trikotaj fabrikasi, Buxoro, Samarqand va Namanganda ip yigirish fabrikalari qurib ishga tushirildi. **1941-yili 107 mln metr** ip gazlama ishlab chiqarilgan bo'lsa, **1945-yili 85 mln metr**, **1950-yili 161 mln metr** ip gazlama tayyorlandi. **1950-yili 552 ming** ustki kiyim, **8427 ming** ichki kiyim, choyshab, yostiq jildi kabi trikotaj buyumlari ishlab chiqarildi.

Transport tarmoqlari va yuk tashish ancha kengaydi. O'zbekistonning Xorazm viloyati, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston hududlarini bog'lovchi **Chorjo'y – Qo'ng'iro't** temir yo'l magistralining qurilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Toshkentda **29 km** uzunlikdagi dastlabki trolleybus yo'li ishga tushirildi. **1950-yili 2070 km** uzunlikdagi temir yo'l, **28,7 ming km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari, **814 ta** pochta, telegraf va telefon korxonalari aholiga xizmat ko'rsatdi.

Sanoat korxonalarini malakali ishchi va mutaxassislar bilan ta'minlash choralari ko'rildi. Ishchilar tayyorlash hunar maktablari, fabrika-zavod ta'limi tarmoqlari, temir yo'l bilim yurtlari, korxonalar va muassasalarning o'zlarida tashkil etilgan kurslar orqali amalga oshirildi. Ta'limning ana shu tarmoqlari orqali **1946 – 1950-yillari 216,7 ming** ishchi kadrlar yetishtirildi. Shu yillarda respublika oliy texnika o'quv yurtlari sanoat, qurilish, transport va aloqa tarmoqlari uchun **2372** muhandis, o'rta maxsus o'quv yurtlari esa **5719** texnik kadrlar tayyorlab chiqardilar.

Respublika dehqonlari qishloq xo'jaligini, ayniqsa, paxtachilikni tiklashga va rivojlantirishga katta kuch sarfladilar. Bu sohadagi majburiy ko'rsatmalar SSSR XKS va VKP(b) MQning **1945-yil 15-iyuldagi «O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risida»**gi va SSSR XKSning **1946-yil 2-fevraldagi «1946 – 1953-yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to'g'risida»**gi ketma-ket qabul qilingan qarorlarida belgilab berilgandi. Tub aholi manfaatlariga mos bo'lmagan, paxta monokulturasini yanada kuchaytirishga qaratilgan bu qarorlarni O'zbekiston kompartiyasi MQning **1945-yil sentyabrda**

bo'lgan **XIII plenumi** muhokama qilib, markaz ko'rsatmalarini o'ziga dasturilamal deb hisobladi va ularni bajarish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqildi. Qishloq xo'jaligida paxta ekiladigan maydonlarni yildan yilga ko'paytirish asosiy vazifa bo'lib qoldi. Paxta va beda almashlab ekish uchun ajratiladigan sug'oriladigan maydonlarni **1945-yildagi 947 ming gektardan 1947-yili 1287 ming gektarga, 1953-yili 1500 ming gektarga** yetkazish belgilangandi. Ayni paytda, g'alla, qand lavlagi, poliz va sabzavot ekiladigan maydonlar qisqarib bordi.

O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun mablag'larning katta qismi paxtachilikka ajratildi va u bilan bog'liq tarmoqlarga sarflandi. Respublika traktor parki ancha ko'paydi, kolxozlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi MTSlar soni **245 taga** yetdi, ulardagi traktorlar soni **1950-yili 29,5 mingtani**, paxta terish mashinalari soni **3617 tani** tashkil etdi. Respublika qishloq xo'jaligining yuk avtomobillar parki **1950-yili 7934 ta** yuk avtomobillari va avtosisternalarni tashkil etdi.

**1949-yil 4-fevral** kuni paxtaga davlat tayyorlov bahosini oshirish haqida hukumat qarori e'lon qilindi. Ilgari **1 tonna** paxta xomashyosiga **1047 so'm** to'langan bo'lsa, **1949-yildan** boshlab **2200 so'mga** ko'tarildi, ya'ni **1 tonna** paxta xomashyosi **3 tonna** bug'doyga tenglashtirildi. Paxtakorlar mehnati juda ham past baholanib qolaverdi, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 1 tonna bug'doy yetishtirishga nisbatan **10 – 15 marta** ko'p mehnat sarflash talab qilinardi.

**1950-yil avgustida** bo'lgan O'zbekiston kompartiyasi MQning **VI plenumi** qarorlari asosida kolxozlar yiriklashtirildi. O'zbekiston SSRdagi **1777 ta** mayda kolxoz o'rniga **1950-yil avgustida 752 ta** yirik kolxoz vujudga keldi.

Sovxozlar, kolxozlar, MTSlarni rahbar xodimlar va mutaxassislar bilan mustahkamlash choralari ko'rildi. **1947-yili** Toshkent va Samarqandda ochilgan ikki yillik kurslar kolxoz raislari va brigadirlarni tayyorlab berib turdi. Samarqand qishloq xo'jaligi institutida MTS direktorlari va tuman qishloq xo'jalik bo'limlari mudirlarining malakasini oshirish bir yillik kurslari ishlab turdi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshida MTSlarning katta mexaniklari malakasini oshirish bir yillik kurslari ochildi. **1947-yilning kuzida** Toshkentda agronomlar tayyorlaydigan uch yillik maktab tashkil etildi. Bu o'quv tarmoqlari, qishloq xo'jalik oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari kolxoz, sovxoz, MTSlarni malakali rahbar va mutaxassislar bilan ta'minlashda ijobiy rol o'ynadi. MTS direktorlari orasida oliy va o'rta ma'lumotlilari **1944-yili 36 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **1949-yili 57,9 foizga** yetdi.

**1949-yil yanvarida** bo'lgan respublika komsomolining **XII syezdi 20 ming** komsomol a'zosini Mirzacho'lda doimiy ishlash va yashash uchun safarbar etishga qaror qildi. **1949-yil 15-martgacha** Sirdaryo, Mirzacho'l, Bekobod, Bo'ka tumanlariga **14,5 ming** kishi, shulardan **10,5 ming** komsomol a'zosi doimiy ishlash uchun keldi.

**1949-yili** viloyat, shahar, tuman komsomol faollaridan ming kishi qoloq kolxozlarga rahbarlik lavozimlariga – rais, brigadir va zveno boshlqlari bo'lib ishlash uchun yuborildi. Amalga oshirilgan tadbirlar ijobiy natija bera boshladi. Paxta hosildorligi birmuncha oshdi. **1940-yili** gektaridan **14,9 sentner**, **1945-yili 10,9 sentner** paxta olingan bo'lsa, **1950-yili** respublika paxtakorlari **2282,4 ming tonna** paxta xomashyosi yetishtirdilar, hosildorlik gektariga **20,1 sentnerga** yetdi. Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini tiklash tadbirlari ham amalga oshirildi. Respublika chorvachiligida murakkab vaziyat vujudga kelgandi. Urush yillarida chorva mollari **1 mln boshdan** ziyodroqqa kamaygandi. Chorvachi bo'lmagan kolxozlarga jamoat chorvasini vujudga keltirishga yordamlashildi. Sigir, qo'y, echkilar soni birmuncha ko'paytirilgan bo'lsa-da, urushdan oldingi darajaga yetmadi.

Respublika dehqonlari g'alla yetishtirish, bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilikni rivojlantirish sohasida ham ter to'kib mehnat qildilar. Ammo **1950-yili** ham bug'doy, arpa, guruch, kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirish urushdan oldingi darajadan ancha past bo'ldi. Masalan, **1940-yili 280,1 ming tonna**, urush yillarida bundan ham ko'proq bug'doy yetishtirilgan bo'lsa, **1950-yili atigi 200,7 ming tonna** bug'doy tayyorlandi. Buning asosiy sababi o'sha mahsulotlarni yetishtirish uchun sug'oriladigan ekin maydonlarining qisqartirilishi, sohaga yetarli moliyaviy va texnika vositalarining ajratilmasligi edi.

Urushdan keyingi yillarda maktab yoshidagi barcha bolalarni maktablarga to'la jalb qilish tadbirlari amalga oshirildi. Urush yillarida harbiy muassasalarga berilgan maktab binolari xalq maorifi organlariga qaytarib berildi. Ular qayta ta'mirlanib, bolalarga ta'lim-tarbiya berish ishlari yo'lga qo'yildi. **1950-yili 37 oliy o'quv yurtida 40 ming talaba** o'qidi, bu 1940-yilga nisbatan ikki baravardan ko'p edi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibidagi **23 ta** ilmiy tadqiqot muassasalari xo'jalikni tiklash va yanada rivojlantirishga ko'maklashuvchi izlanishlar olib bordilar.

*Ma'muriyatchilikning kuchayishi.* Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq boshlangan qishloq aholisini yerdan mahrum qilish jarayoni urushdan keyin ham davom etdi. **1946-yil sentyabrda** VKP(b) MQ va SSSR hukumatining «**Kolxozlarda qishloq xo'jalik ustavining buzilishi-**

**ni tugatish choralari to'g'risida**» qarori e'lon qilindi. Qishloq xo'jaligi bilan aloqasi bo'lmagan **1300 ta** tashkilotga yordamchi xo'jalik sifatida berib qo'yilgan **6 ming gektar** yerni kolxozlarga qaytarish, kolxozlardagi boshqaruv apparati shtatidan **51 ming** kishini qisqartirish kabi ijobiy ishlar bilan birga jiddiy xatoliklarga, adolatsizlikka yo'l qo'yildi. Kolxozlar manfaatlarini himoya qilish bayrog'i ostida respublika qishloqlarida istiqomat qilayotgan **50 ming** kolxozchi oilasi qo'lidagi tomorqa yerlaridan **25 ming gektari** ustavda belgilanganidan «ortiqcha» deb tortib olindi. Kolxoz hududida yashagan, ammo unga a'zo bo'lmagan **20 ming** xo'jalikning go'yo «qonunga xilof» ravishda egallagan **2,5 ming gektar** yerlari ham tortib olindi. Qishloq aholisini yerdan mahrum etish jarayoni 50-yillarda ham davom etdi.

*Ziyolilarni qatag'on qilishning yangi bosqichi.* VKP(b) MQning **1946-yil fevralida** qabul qilingan «**Zvezda**» va «**Leningrad**» jurnali to'g'risida, «**Katta hayot**» filmi to'g'risida, V.Muradelining «**Buyuk do'stlik**» operasi to'g'risidagi qarorlari ijodkor ziyolilarni qatag'on qilishning yangi to'lqinini boshlab berdi. Bu qarorlar O'zbekiston kompartiyasi organlari uchun ko'plab olimlar, adabiyot va san'at xodimlarini qatag'on qilish uchun mafkuraviy asos bo'lib xizmat qildi. Ularning ko'pchiligi «o'tmishni ideallashtirishda», «feodal madaniyat oldida qullarcha tiz cho'kishda», «sovet turmush tarzini buzib ko'rsatishda», «millatchilikda» ayblandi.

O'zbekiston kompartiyasi MQning **1949-yil 25-iyundagi «O'zbekiston yozuvchilar soyuzining ishi to'g'risida»**gi qarorida Abdulla Qahhorning «**Qo'shchinor chiroqlari**» romani tanqid qilindi. **Oybek, Mirtemir, Hamid G'ulom, M.Shayxzoda, M.Boboyev, A.Qayumov** va boshqa yozuvchilar badnom etildi. «**Sharq yulduzi**», «**Zvezda Vostoka**» jurnallarining tahririyatlariga bir qator «yaramas» asarlar chop etishga yo'l qo'ygan degan jiddiy ayblar qo'yildi.

**1948 – 1949-yillarda 20 dan ortiq** yirik talantli olimlar, yozuvchi va shoirlar qamoqqa olinib, yopiq ravishda so'roq qilinib, millatchilikda ayblanib, **15 – 25 yilga** ozodlikdan mahrum etildi va surgun qilindilar.

O'zbekiston kompartiyasi MQning **1950-yil 1-sentyabrda** qabul qilingan «**O'zbekiston Fanlar akademiyasining ishi to'g'risida**»gi qarorida bir qator iqtisod, til va adabiyot sohasidagi olimlar millatchilikda ayblandi.

O'zbekiston kompartiyasi MQning **1951-yil 8-apreldagi «O'zbekiston SSRda musiqa san'atining ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»**gi qarorida o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning «**Farhod va Shirin**», «**Layli va Majnun**» dostonlari, «**Tohir va Zuhra**», «**Alpomish**» xalq dostonlarining afsonaviy folklor syujetlariga

asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda ko'rsatish «zararli» ish deb baholandi. Bunday spektakllarni sahnalashtirgan ijodiy xodimlar qattiq tanqid ostiga olindi. Ko'pgina konsert tashkilotlari va musiqali teatr xodimlari «Eski, arxaiik musiqani va juda g'amgin, mungli maqom namunalari»ni tarqatgani uchun qoralandi. Qarorda: «*O'zbekistonning musiqali san'ati hayotdan orqada qolmoqda, o'zbek xalqini kommunistik ruhda tarbiyalash maqsad va vazifalariga to'la-to'kis xizmat qilmayotir*», – deb ta'kidlandi.

**1951-yil 10-avgustda** respublika matbuotida «**Ba'zi shoirlarning ijodidagi mafkuraviy buzg'unliklar to'g'risida**» degan maqola e'lon qilindi. Unda **Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy** asarlari kommunistik mafkuraga, xalqlar do'stligiga zid g'oyalarni ilgari suruvchi asarlar sifatida tanqid qilindi, ular millatchilikda ayblandilar.

Shu yil **24-avgustda** matbuotda e'lon qilingan «**O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda**» nomli maqolada **Oybek, H.Zaripov, H.Yoqubov, I.Sultonov** va boshqa adiblar mafkuraviy og'ishlarda qoralandi. **M.Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, Said Ahmad, G'ulom Alimov** (Shuhrat) **1951-yili** «sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati»da ayblanib qamoqqa olindilar va keyinchalik **25 yilga** ozodlikdan mahrum etishga hukm qilindilar.

**1952-yil fevralida** bo'lib o'tgan O'zbekiston kompartiyasi MQning **X plenumi** ilmiy va ijodiy ziyolilarni quvg'in, ta'qib ostiga olishda yana bir turtki bo'ldi. Plenumda «**Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida**» masala muhokama etildi va tegishli qaror qabul qilindi. Plenumda faylasuf **V.Zohidovning** ilmiy ishlariga burjua-millatchilik xatolari yuklandi, tarixchi **A.Boboxo'jayev** va iqtisodchi **O.Aminov** panturkizmni targ'ib qilishda ayblandi. Ular «siyosiy va ishchanlik sifatleri jihatidan egallab turgan lavozimlariga to'g'ri kelmaydigan shaxslardir» deb hisoblandi va ishdan bo'shatildi. Turob To'la va M.Shayxzodaning she'r va qo'shiqlari «g'oyasiz va axloqsiz asarlar» deb baholandi.

Stalin vafotidan keyin, butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham shaxsga sig'inish oqibatlarini tugatish tadbirlari ko'rildi. Qatag'on qilinganlar ishini qaytadan ko'rib chiqishga kirishildi. Ko'pgina jinoiy ishlar to'qib chiqarilgani, minglab odamlar nohaq qamalib, ozodlikdan mahrum etilgani aniqlandi va ular oqlandi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ko'plab yozuvchi va shoirlar oqlandi. Shukrullo, Shuhrat, Hamid Sulaymon, Maqsud Shayxzoda va boshqa adiblar ham oqlandi. Minglab partiya, sovet, komsomol xodimlari oqlandi. **50-yillar boshlarida** shubha

ostiga olingan, har bir qadami nazorat qilinayotgan **60 dan ortiq** yirik olimlar, adiblar zimmasidan «millatchi, sovetlarning dushmani» degan yorliqlar olib tashlandi, tuhmatlardan xalos bo'ldi, hayoti saqlab qolindi.

## 30.2. O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY HAYOTI. INQIROZLI HOLATNING VUJUDGA KELISHI

*Energetika va yoqilg'i sanoati.* **50 – 80-yillarda** O'zbekiston sanoati ancha rivojlandi, qurilish ishlari kengaydi, yangi sanoat tarmoqlari barpo etildi. Respublika xalq xo'jaligini rivojlantirishda energetika sanoati muhim o'rin tutdi. Shu boisdan, birinchi navbatda, elektr energiyasi tarmog'i kengaytirildi.

**50 – 80-yillarda 7-Shahrixon GES, ikkita Namangan GESlari, ikkita Bo'zsuv GESlari, Chorvoq GES, Xo'jakent GES** qurib ishga tushirildi. O'zbek va tojik qardosh xalqlari birgalikda Tojikiston hududida O'rta Osiyoda eng yirik **Qayroqqum GESni, Xisrav GESni** qurib ishga tushirdilar. Gaz bilan ishlaydigan **Angren, Taxiatosh, Navoiy, Sirdaryo, 2-Angren GRESlari** ishga tushirildi.

**1985-yili** O'zbekiston elektrostansiyalarining umumiy quvvati **9,9 mln kilovatdan** ortdi. Shu yili **47,9 milliard kilovatt/soat**, ya'ni 1940-yilga nisbatan **100 baravar, 1950-yilga nisbatan 18 baravar** ko'p elektr energiya ishlab chiqarildi. Elektr uzatgich liniyalari qurilishi kengaydi. Respublikaning barcha elektr stansiyalari O'zbekiston yagona energosistemasiga ulandi. O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning yirik elektr stansiyalari Markaziy Osiyo yagona elektr sistemasiga ulandi. Natijada sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligini elektrlashtirish ancha kengaydi, xonadonlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash yaxshilandi.

Yoqilg'i sanoati o'sdi. **50-yillarda** Surxondaryo viloyatidagi **Sharg'un toshko'mir** koni o'zlashtirildi va yuqori sifatli qo'ng'ir ko'mir qazib chiqarila boshlandi. **60-yillarda** Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi **Gazli, Jarqoq, Sho'rtepa, Sho'rchi, Qarantay** yangi neft konlari o'zlashtirildi. **70-yillarda** **Farg'ona vodiysida** yangi neft konlari ishga tushirildi. **1959-yili** qurib foydalanishga topshirilgan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ancha kengaytirildi. Zavodda texnika moylari, benzin, dizel yog'ilg'isi, parafin va boshqa **35 xil** mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda yirik gaz industriyasi bunyod etildi. Gaz sanoati Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik gaz konlarining izlab topilishi va o'zlashtirilishi bilan bog'liq ravishda yuksalib bordi. **50-yillarning 2-yarmi-**

da «**O'zbekneftgazrazvedka**» tresti amalga oshirgan geologiya-qidiruv ishlari natijasida **1956-yili** gaz zaxiralari **500 milliard kubometr**ga teng bo'lgan, foydalanishga eng qulay **Gazli koni** ochildi. **Muborak, O'rtabuloq, Qultak, Shapatti, Uchqir, Jarqoq, Sariatosh, Qorovulbozor** neft va gaz konlari topildi.

Respublikamizda jami **100 dan ortiq** neft va gaz konlari topilgan. Ularda **2 trillion kubometr gaz, 250 mln tonna neft** zaxiralari borligi aniqlandi. **1959-yili** Buxoroda neft va gaz qazib olishni yo'lga qo'yish maqsadida «**Buxoroneftgaz**» boshqarmasi tuzildi.

**1958 – 1960-yillarda** «**Jarqoq – Buxoro – Samarqand – Toshkent**» gaz quvurini qurish ishlari olib borildi. **767 km** uzunlikdagi gaz quvuri **1960-yil 2-dekabr**da qurib bitkazildi. Uning yillik quvvati **4,5 mlrd kubometr**ga teng edi.

**1960-yili Shimoliy So'x – Farg'ona, Shimoliy So'x – Qo'qon** gaz quvurlari qurib ishga tushirildi. **1959 – 1965-yillarda** O'zbekistondagi 37 shahar, 71 tuman markazi va 20 ta posyolka va aholi yashaydigan manzillar gazlashtirildi. 320 ta sanoat korxonasi, 3500 dan ortiq kommunal-maishiy korxonalar va 400 ga yaqin isitish qozonlari gaz bilan ishlashga tushirildi.

**1964 – 1966-yillarda Muborak – Toshkent – Chimkent – Bishkek – Almati** gaz quvuri qurib foydalanishga topshirildi. Uzunligi **1317 km**, diametri **720 mm** li po'lat quvurlari orqali Qashqadaryo gazidan O'zbekistonning ko'pgina shaharlari, Qozog'iston va Qirg'iziston xalqi bahramand bo'ldi. Keyingi yillarda **Toshkent – Bishkek – Almati** oralig'ida ikkinchi gaz quvuri qurildi. Shunday qilib, **1958 – 1980-yillarda** Buxoro, Gazli va Qarshi rayonlaridan Toshkent – Bishkek – Almatigacha yotqizilgan gaz quvurlarining umumiy uzunligi **5686 km** ni (uning **3618 km** O'zbekistonda yotqizilgan), yillik quvvati **23 mlrd kubometr** gaz yoqilg'isini tashkil etdi. **70-yillarda** Muborakda qurilgan eng yirik gazni qayta ishlash zavodi yiliga **10 mlrd kubometr** gazni tozalab berib turdi va yiliga **160 ming tonna** oltingugurt ishlab chiqarishni ta'minladi.

**1970 – 1972-yillarda 234 km** uzunlikdagi **Qo'qon – Namangan – Andijon** gaz quvuri qurib foydalanishga topshirildi. **1974 – 1978-yillarda Xovos – Farg'ona** quvuri yotqizildi. Uzunligi **677,8 km** dan iborat bo'lgan bu gaz yo'lining **425,8 km** O'zbekiston, qolganlari Tojikiston hududidan o'tdi. Qashqadaryo va Buxoro «zangori yoqilg'i»sidan qardosh Tojikiston xalqi ham bahramand bo'ldi.

O'zbekistonliklar respublikamiz hududidan ko'plab boy tabiiy gaz konlarining topilishi va o'zlashtirila boshlanishidan behad xursand



bo'ldilar. Har bir oila o'z xonadonida «zangori yoqilg'i»dan foydalanishni orzu qilardi. Ammo o'zbek xalqi respublikamiz hududida topilgan gaz konlariga xo'jayin emasdi, ularning xo'jayini uzoqda – Moskvada edi. O'zbekiston gazidan qanday foydalanishni markaziy hokimiyat kabinetlarida o'tirganlar belgilardi. Markaziy hokimiyat O'zbekiston gazidan Uraldagi, SSSRning Yevropa qismidagi shahar va posyolkalarni, korxonalar va xonadonlarni gazlashtirishda foydalanishga kirishdi. **1961 – 1963-yillarda** zudlik bilan **Buxoro – Ural** o'rtasida qariyb **2000 km** masofada **1020 mm** li gaz quvurlari yotqizildi. Gazli gazi Uralning **Chelyabinsk** shahrigacha bo'lgan hududdagi shahar va posyokalarga, korxonalarga yetib bordi. Buxoro – Ural gaz quvuri yo'lining 2 – 3-navbatlari qurilishi **1965-yili** nihoyasiga yetkazildi. Umumiy uzunligi **6100 km** dan uzun bo'lgan Buxoro – Ural gaz transport sistemasining yillik o'tkazuv quvvati **21 mlrd kubometr** zangori olovga teng edi. Markaziy hokimiyat bu bilan cheklanib qolmadi, O'zbekiston va Turkmaniston gazini bir yo'la katta miqdorda g'arbiy viloyatlarga uzatish rejalarini tuzdilar. Bu reja **O'rta Osiyo – Markaz** gaz quvuri nomini oldi. **1965 – 1975-yillarda** **2750 km** uzunlikdagi O'rta Osiyo – Markaz gaz yo'li qurildi. 2 yo'llik O'rta Osiyo – Markaz gaz quvurining umumiy uzunligi **5500 km** bo'lib, bu yo'llar yiliga **80 mlrd kubometr** yoqilg'i uzatish quvvatiga ega bo'ldi. Shunday qilib, o'zbek «zangori yoqilg'isi» uzoq-uzoq joylardagi korxonalar va xonadonlarni isitdi. **1985-yilga** kelib respublikada atigi **2,8 mln** kvartira, jumladan, qishloqlardagi **1,3 mln** kvartira gazlashtirilgandi, xolos.

**50-yillarda Samarqand superfosfat zavodi, 1962-yili Farg'ona azot o'g'iti zavodi, 1965-yili Navoiy kimyo kombinati, 1969-yili Olmaliq kimyo zavodi** qurib ishga tushirildi. **70-yillarda** Olmaliq va Samarqand zavodlarida mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlar bunyod etildi. **1985-yili** respublika kimyo korxonalarida **7,8 mln** tonna mineral o'g'itlar ishlab chiqarildi, bu **1960-yildagidan 7 marta, 1950-yildagiga nisbatan 15 marta** ortiq edi. Respublika qishloq xo'jaligi mineral o'g'itlar bilan ta'minlandi va boshqa respublika, viloyatlarga o'g'itlar chiqarildi.

O'zbekistonda kimyo tolalari (Farg'ona kimyo tolalari zavodi), plastmassalar (Ohangaron «Santexnit» zavodi, Jizzax plastmassa turbalari zavodi), maishiy kimyo mahsulotlari (**1971-yili** barpo etilgan Olmaliq maishiy kimyo zavodi, Quvasoy, Namangan kimyo zavodi, **1971-yili** Toshkent yog'-moy zavodi tarkibida qurilgan sintetik yuvish vositalari zavodi) ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Respublika kimyo sanoatida zaharli vositalar, kislotalar ishlab chiqarish katta o'rin tutadi. Andijon gidroliz zavodi, Farg'ona furan birikmalari

zavodi, Yangiyo'l bioximiya zavodi paxta, sholi, paxta chiqindilaridan spirt, oqsil achitqilari, furan va boshqa mahsulotlar tayyorladilar. Farg'onada triatsetilsellyuloza, Navoiyda kotaran, Chirchiqda kaprolaktam ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. **1960-yili 235,4 ming tonna** sulfat kislotalari ishlab chiqarilgan bo'lsa, **1985-yili 2,3 mln tonna** tayyorlandi.

Markaziy hokimiyat tomonidan zaharli kimyo vositalari ishlab chiqarish respublikaga **60 – 70-yillarda** tiqishtirildi. **1985-yili 47,9 ming tonna** turli zaharli ximikatlar ishlab chiqarildi.

**Metallurgiya sanoati.** O'zbekiston metallurgiya sanoati taraqqiy etdi. **1962-yili** O'zbekiston metallurgiya sanoati kombinatida uzluksiz po'lat quyuv qurilmasi ishga tushirildi. **1970 – 1980-yillarda** elektr yordamida po'lat eritish kompleksi va uning ikkita pechi qurib ishga tushirildi. Kombinatda po'lat idishlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Po'lat eritish **1985-yili 1,2 million tonnaga** yetdi.

Rangli metallurgiya respublika sanoatining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. **50-yillarda** Olmaliq – Angren tog' sanoati rayonida mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden va boshqa nodir metallar koni topildi, ularni o'zlashtirish jarayonida yirik Olmaliq kon-metallurgiya kombinati bunyod etildi.

**1951-yili** Jizzax viloyati Forish tumanida **Uchquloch** rangli metallar koni kompleks usullar yordamida o'rganilib, **Pistali, Qo'shqura, Uzoq, Markaziy, Sharqiy** va boshqa qo'rg'oshin, rux, mis konlari topildi va o'zlashtirishga kirishildi. Jizzax – Uchquloch o'rtasida gaz quvur yo'li, avtomobil va temir yo'llar qurilib, Uchquloch tog' jinslarini Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashib keltirish, ulardan qo'rg'oshin, rux, mis ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Uchquloch rangli metallar konining kengaytirilishi natijasida **Uchquloch** va **Band** posyolkalari vujudga keldi.

Respublikada **50 ga yaqin** simob va surma konlari, Angrenda zaxirasi **10 milliard tonnaga** yaqin kaolin, gil koni topildi, ularni o'zlashtiruvchi korxonalar qurildi.

O'zbekistonda **60-yillarda** oltin qazib olish sanoati bunyod etildi. Muruntov, Chodak, Konbuloq oltin konlari, Farg'ona vodiysidagi daryo o'zanlarida sochma oltin, Nurota, Qurama, Zarafshon, Hisor, Pomir tog'larida oltin tarkibli kvars tomirlari va rudalar mavjudligi aniqlandi. Respublika hududida **30 ta** oltin koni aniqlandi. Oltin qazib oluvchi Muruntov tog' boyitish kombinati, Marjonbuloq kombinati qurildi. «**O'zbekoltin**» birlashmasi tuzilgach, uning tarkibida Chodak boyitish kombinati (**1965**), Angrenda oltin saralash fabrikasi qurib ishga tushirildi.

**Mashinasozlik sanoati.** **50 – 80-yillarda** O'zbekiston mashinasozlik industriyasi ko'p tarmoqli sohaga aylandi. **1985-yili** respublika sanoatida

faoliyat ko'rsatgan **1549 ta** ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlari va korxonalarining **100 dan ortig'i** mashinasozlik tarmog'iga tegishli bo'lib, ularda tayyorlangan mashinalar salmog'i butun sanoat mahsulotining **16 foizini** tashkil etardi.

Respublikada, birinchi navbatda, paxtachilikka xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'ini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Toshkent qishloq xo'jaligi zavodi (Tashselmash) qishloq xo'jaligi mashinasozligining bosh korxonasi hisoblanardi. «Tashselmash» zavodida **1960-yili 3184 ta** paxta terish mashinasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, **1985-yili 9425 ta** ana shunday mashina tayyorlandi. Bu mashinalar markaziy hokimiyat tomonidan ittifoqdosh respublikalarga, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya va boshqa **38 ta** xorijiy mamlakatlarga eksport qilinardi. Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodining **Sirdaryo, Chirchiq va Asaka** shaharlarida filiallari qurilib, ularda paxta terish mashinalarining turli qismlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

**50-yillarda** qishloq xo'jalik mashinalari uchun reduktorlar, bir qator traktor moslamalari ishlab chiqaruvchi «**Tashirmash**» zavodi qurildi. Bu zavodga **1963-yili** O'zbekiston traktor yig'uv zavodi, **1971-yildan** esa Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi agregat zavodi nomi berildi.

**1957-yili** paxta tozalash sanoati uchun mashinalar ishlab chiqaruvchi «**Tashxlopkomash**» zavodi bazasida yirik «**Tashavtomash**» zavodi barpo etildi. Zavodda paxtani qop-qanorsiz tashuvchi transport vositalari va «**Gaz - 51**» yuk avtomobili uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu zavod **1967 - 1971-yillarda** qayta jihozlanib, traktor ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va unga Toshkent traktor zavodi nomi berildi. Zavod **1970-yili 21,1 mingta** traktor, **38,5 mingta** pritsep (tirkama) ishlab chiqargan bo'lsa, **1985-yili 26,4 mingta** traktor, **38,1 mingta** pritsep (tirkama) ishlab chiqardi. Zavod mahsulotlari markaziy hokimiyat tomonidan **Kuba, Eron, Afg'oniston, Pokiston** va boshqa **30 dan ortiq** xorijiy mamlakatlarga eksport qilinardi.

**1970-yili** O'zbekiston paxtachilik mashinasozlik birlashmasi tashkil etilib, uning tarkibiga Toshkent traktor zavodi (bosh korxon), Paxtachilik mashinalari bo'yicha ixtisoslashtirilgan bosh konstruktorlik byurosi, Andijon «**Kommunar**» zavodi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Chust paxtachilik mashinasozligi ehtiyot qismlari zavodlari birlashtirildi.

Respublika qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi muhim o'rinni egallaydi. **1948-yildan** beri «**O'zbekselmash**» nomi bilan yuritilib kelayotgan bu zavod o'rish mashinalari, diskli baranalar, charxlash stanoklari, nasos chang-

lagich-purkagichlar, motigalar, chigit ekish mashinalari ishlab chiqaradi. **1960-yili** ko'rak chuvish mashinasi, **1965-yili** yerga to'kilgan paxtani teradigan, g'o'zapoya yuladigan mashinalar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

**1976-yili** O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashmaga «Uzbekselmash» zavodi, Toshkent kimyo qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi hamda Paxtakor qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi birlashtirildi. Birlashma korxonalarida turli modifikatsiyadagi chigit ekish seaykallari, paxta podborshiklari, changlagich-purkagichlar, ko'rak chuvish mashinalari, g'o'zapoya yuladigan mashinalar, ehtiyot qismlar va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish tashkil etildi. Birlashma mahsulotlari ittifoqdosh respublikalar hamda Hindiston, Eron, Afg'oniston, Gretsiya kabi **28 ta** xorijiy mamlakatga eksport qilinardi.

Paxtaga ishlov berish vositalari ishlab chiqaruvchi Chirchiq qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi ham kengaytirildi. Mazkur zavodda kultivatorlar, o'g'itlash mexanizmlari, ariq-zovur qazish mashinalari va boshqa **47 xil** qishloq xo'jalik texnika vositalari tayyorlanardi.

Mashinasozlikning paxtachilik kompleksi tarkibiga kiruvchi yana bir yo'nalish irrigatsiya mashinasozligidir. Bu tarmoqning markazi **Andijondir**. **1965-yili** qurib ishga tushirilgan Andijon irrigatsiya mashinasozligi zavodida yangi yerlarni o'zlashtirish, kanallar va suv omborlari qurilishi bilan bog'liq zovur kavlaydigan mashinalar, suv nasoslari, avtobenzosistemalar, yer tekislaydigan buldozerlar va skreperlar, greydenar kanallar tozalaydigan mashinalar, yuk ortib tushiradigan murakkab mexanizm va uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Paxtachilik kompleksi bilan bog'liq mashinasozlikning yana bir yo'nalishi paxta tozalash sanoati va to'qimachilik mashinalari ishlab chiqarishdir. Bu tarmoqning yetakchi korxonalari **50 – 60-yillarda** qurilgan Toshkent mashinasozlik zavodi, Andijon «Kommunar» zavodi va boshqalar hisoblanardi. Ularda paxta tozalash mashinalari, linterlar, paxta toylarini qabul qilish, saqlash, xillashning ko'p mehnat talab etadigan jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish mashinalari, quritish-tozalash asboblari, yuk tashish mashinalari ishlab chiqarilardi.

To'qimachilik sanoati tarmog'ida **1946-yildan** beri to'qimachilik mashinalari ishlab chiqarilib kelayotgan Toshkent to'qimachilik mashinasozligi zavodi yetakchi o'rinni egallaydi. Zavod **1948 – 1966-yillarda** to'qimachilik mashinalarining **48 ta** yangi turini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. **1966-yildan** «PK – 100» markali yigirish-eshish va shisha tolalariga ishlov beruvchi «PL – 666» markali mashinalar ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

O'zbekiston aviatsiya sanoati ham o'sib bordi. Toshkentda **1941-yili Ximki** shahridan keltirilgan zavod asosida aviatsiya zavodi barpo etilgandi. Dastlab u **PS – 84** va **IL – 2** samolyotlarini ishlab chiqara boshladi. Toshkent aviatsiya zavodida **1953-yili IL – 14**, **1958-yili** turli tipdagi transport samolyotlari, **1966-yili** esa **AN – 22** samolyotlari tayyorlash yo'lga qo'yildi. **1972-yili** V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Uyushmaga Toshkent aviatsiya zavodi (bosh korxon), Andijon mexanika zavodi, Farg'ona mexanika zavodi va Toshkent kislorod zavodi birlashtirildi.

Birlashmada samolyot yig'iladi, uning turli detal va uzellari tayyorlanadi, xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqariladi.

Qurilish sanoati. **50 – 80-yillarda** O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati rivojlandi. Uruchgacha O'zbekiston hududida bir necha kichik g'isht zavodlari, **1926-yili** Bekobodda qurilgan **Xilkovo** sement zavodi, **1932-yili** qurilgan **Quvasoy** sement zavodi ishlagan bo'lsa, **1985-yili** qurilish materiallari sanoatining ko'plab korxonalari turli xil qurilish mahsulotlari ishlab chiqardi. Ular jumlasiga **Bekobod, Quvasoy, Angren, Ohangaron, Navoiy, Qumqo'rg'on yirik sement zavodlari, Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l, Angren, Ohangaron, Bekobod, Bektemir, Jizzax, Samarqand, Andijon, Chirchiq, Farg'ona, Qarshi, Nukus**, jami **11 ta** yirik panelli uysozlik kombinatlari va boshqalar kiradi.

O'zbekistonda turli xil qurilish materiallari – sement, shifer, asbosement quvurlar, pardozlash plitalari, issiqni saqlaydigan (termoizolyatsion), gidroizolyatsion materiallar, keramika quvurlari va boshqalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Angren uysozlik buyumlari zavodida emallangan cho'yan vannalari, rakavinalar, cho'yan kanalizatsiya quvurlari, Angren keramika buyumlari kombinatida quvurlar, Xovosda sopol quvurlar ishlab chiqarildi. Mahalliy sanoat korxonalarida alibaster, ganch, ohak, cherepitsa, chiy, qamish, plitalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi zamon qurilishida keng foydalanilayotgan marmar va boshqa bezak toshlar asosida toshxtalar tayyorlash taraqqiy topdi. O'zbekistonda **34 ta** marmar koni bor. Toshkent, G'azalkent, Ohangaron, Kitob, Nukus va G'ozg'onda marmarni qayta ishlash, undan qurilish materiallari tayyorlash zavodlari va kombinatlari ishladi.

Yengil sanoat. **50 – 80-yillardagi** qaramlik sharoitida O'zbekistonda yengil sanoat bir tomonlama rivojlantirishga yo'naltirildi. Asosiy e'tibor paxta qabul qilish, paxta tozalash, qorako'l teriga va kanop tolasiga dastlabki ishlov berish, yung yuvish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi. O'zbekiston bunday xomashyolardan tayyor mahsulotlar tayyorlash

imkoniyatiga ham, huquqiga ham ega emasdi. Bu masalani markaziy hokimiyat hal qilardi. Xomashyo Rossiya sanoat korxonalariga, Ittifoqning boshqa shaharlariga olib ketilar va tayyor mahsulotga aylantirilardi, ortib qolgan xomashyo boshqa mamlakatlarga sotilar, undan katta daromad olinardi.

Respublikada **80-yillarda 107 ta** paxta tozalash zavodi, ko'pchiligi quritish-tozalash sexlariga ega bo'lgan **490 ta** paxta punktlari ishladi. G'ijduvon, Buxoro, Namangan, Juma kabi yirik paxta tozalash zavodlarining har biri yiliga **100 ming tonna** paxtani qayta ishlardi. Yiliga respublikada **1,5 million tonna** paxta tolasini yetishtirib berilardi.

Respublika to'qimachilik sanoati yetishtirilgan paxta tolasining atigi **10 foizini** qabul qilish va tayyor mahsulotlarga aylantirish imkoniga ega edi. **70 – 80-yillar boshlarida** respublika to'qimachilik sanoatining yirik korxonalari – Buxoro to'qimachilik kombinati (**1973**), Andijon ip gazlama kombinati (**1979**), Nukus ip gazlama kombinati (**1983**)ning Jizzax paxta yigiruv fabrikasi, Qo'rg'ontepa, Marhamat, Yangiqo'rg'on, Beshariq, Rish-ton, Vobkent, G'ijduvon filiallari qurildi. Toshkent va Farg'ona to'qimachilik kombinatlari tarkibidagi bir qator fabrikalar qayta jihozlandi. Ip gazlama ishlab chiqarish **1960-yilgi 234,7 million metrdan 1985-yili 395,7 million metrga** ko'paydi.

*Oziq-ovqat sanoati.* O'zbekistonda mahalliy xomashyoni qayta ishlashga asoslangan ko'p tarmoqli oziq-ovqat sanoati kompleksi barpo etildi. Uning yog'-moy, konserva, non, un yormasi, qandolatlar, go'sht, sut, baliq, choy, tamaki, vino yetishtiruvchi tarmoqlari ishladi. **1985-yili** oziq-ovqat kompleksida **271 korxonada** faoliyat ko'rsatdi. Tarmoqning respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi salmog'i **14 foizni** tashkil etdi. Bu tarmoqda yog'-moy sanoati yetakchi o'rinda turardi. **1970-yillarda** respublikada ishlaydigan **17 ta** yirik yog'-moy korxonasi **2,2 million tonna** paxta chigitini qayta ishlab, **294 ming tonna** paxta yog'i ishlab chiqargan bo'lsa, **1985-yili** O'zbekistonda **451 ming tonna** paxta yog'i ishlab chiqarilgan.

Respublikada go'sht kombinatlari **1960-yili 97,4 ming tonna** go'sht, **18 ming tonna** kolbasa mahsulotlari ishlab chiqargan bo'lsa, **1985-yili 232,3 ming tonna** go'sht, **54 ming tonna** kolbasa mahsulotlari yetishtirilgan. **24 ta** sut zavodida **1985-yili 554 ming tonna** sut mahsulotlari, **1167 tonna** sir, **10,9 ming tonna** mol yog'i yetishtirilgan.

Respublikada qandolat sanoati ham birmuncha o'sdi. **50-yillarda** Namangan va Buxoro shaharlarida konditer-makaron fabrikalari, **1964-yili** Yangiyo'l konditer fabrikasi ishga tushirildi. Yigirmanchi yillarda quril-

gan Toshkent «O'rtoq» konditer fabrikasi **1965-yili** tubdan rekonstruksiya qilindi. **1968-yili** Yangiyo'l drojji (achitqi) zavodi qurildi. **1985-yili** qandolat sanoati tarmog'iga qarashli **60 ga yaqin** zavod va sexlarda **165 ming tonna** qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

**Transport. 50 – 80-yillarda** temir yo'l transporti ancha rivojlandi. **50-yillarda** uzunligi **627 km** bo'lgan Chorjo'y – Qo'ng'iro't temir yo'li qurildi va Quyi Amudaryo shahar va tumanlari O'zbekistonning boshqa hududlari hamda Ittifoq markazi bilan temir yo'l orqali bog'landi. **1962-yili** qurilgan uzunligi **280 km** bo'lgan Uchquduq temir yo'li yangi topilgan konlarni sanoat markazi bilan bog'ladi.

Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi cho'llarida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq ravishda **1962-yili Jizzax – Mehnat (133 km)**, **1970-yili Samarqand – Qarshi (144 km)** temir yo'llari qurildi va yangi tashkil etilgan xo'jaliklar respublika markazi va sanoat markazlari bilan qisqa masofada tutashtirildi. **1974-yili Termiz – Qo'rg'ontepa (218 km)**, **1975-yili Taxiatosh – Nukus (13 km)** temir yo'llari qurib ishga tushirildi va Qoraqalpog'iston poytaxti respublikaning temir yo'l tarmog'i bilan bog'landi.

**1972-yili Qo'ng'iro't – Beynov (408 km)** temir yo'lining qurilishi natijasida O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo respublikalaridan sobiq Ittifoq Yevropa qismi va Kavkazga tomon ikkinchi temir yo'l ochildi. Respublika temir yo'llarining uzunligi **1985-yili 3,5 ming km** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti tez sur'atlar bilan o'sdi. **50 – 70-yillarda** respublikada zamonaviy avtomobil yo'llari – **Katta O'zbekiston trakti** (Toshkent – Termiz) ta'mirlandi. **Toshkent – Olmaliq, Toshkent – Buxoro – Nukus, Mo'ynoq – Zarafshon, Samarqand – Chorjo'y, Farg'ona halqa yo'li, Toshkent halqa yo'li** qurib foydalanishga topshirildi. Qoraqalpog'iston trakti qurildi, u **To'rtko'l** shahridan Amudaryoning o'ng sohili bo'ylab Nukus shahri orqali **Taxtakopirga** olib boradi. Qizilqum cho'lini kesib o'tuvchi va qorako'lchilik xo'jaliklarini viloyat va respublika markazlari bilan bog'lovchi **Buxoro – Gazli – Sazakino** avtomagistrali, Qamchiq dovoni orqali respublika poytaxtini qisqa masofada Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi **Toshkent – Angren – Qo'qon** yo'li qurildi.

Toshkentdan barcha viloyat markazlariga va yirik shaharlarga, tuman markazlaridan kolxoz va sovxozlarga, posyolka va qishloqlarga qatnaydigan avtomobil marshrutlari tashkil etildi. Respublikada **70 dan ortiq** avtobus-taksomotor parklari barpo etildi va ular o'z davrining texnika vositalari bilan ta'minlandi. Respublikaning avtomobil yo'llari uzunligi **80,4 ming km** ni, shu jumladan, usti qattiq qoplama bilan qoplangan yo'llar **66,7 ming km** ni tashkil etdi. **1985-yili** avtomobil transporti **1960-yilga**

nisbatan **5,5 marta ko'p** yuk tashidi yoki **1985-yili 1,1 mlrd tonna** xalq xo'jaligi yuklarini tashidi. Umumiy foydalanishdagi avtobuslarda passajirlar tashish **1985-yili 2,5 mlrd** kishini tashkil etdi, bu **1960-yilga** nisbatan **7 marta ortiq** edi.

Respublika iqtisodiyotida havo transportining ahamiyati ortib bordi. Havo yo'llari respublikaning **120 dan ortiq** shahar va aholi manzilgohtarini bog'ladi. Toshkent havo yo'llari orqali Ittifoqning markaziy shaharlari, respublikalarning poytaxtlari, yirik sanoat markazlari bilan bog'landi.

O'zbekiston havo yo'llarining uzunligi **60 ming km** ga yetdi. **1985-yili** respublika aeroportlarida **5,5 millionga yaqin** passajir, **63,4 ming tonna** yuk jo'natildi.

Shahar yo'lovchi transporti ham kengaydi. **1947-yili** Toshkentda temir yo'l vokzali bilan eski shahar orasida uzunligi **18 km** bo'lgan birinchi trolleybus yo'li qurilib, **10 ta** trolleybus qatnay boshladi. **1946 – 1947-yillarda** shaharlarda taksi mashinalari orqali passajirlar tashish yo'lga qo'yildi. Trolleybus qatnovi **Samarqand (1956), Olmaliq (1968), Farg'ona (1970), Andijon (1971), Namangan (1973)** shaharlarida ham yo'lga qo'yildi. **1985-yilga** kelganda respublika shaharlaridagi tramvay yo'llarining uzunligi **250,5 km** ga, trolleybus yo'llari **541,4 km** ga yetdi. Respublikaning **80 ta** shahar va posyolkalarida avtobuslar qatnovi tashkil etildi.

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda Toshkent metropolitenining o'rni katta. Toshkent metrosi **1972-yildan** qurila boshlandi, uning **12,1 km** lik birinchi yo'nalishi **1977-yili**, ikkinchi yo'nalishi **80-yillarda** foydalanishga topshirildi.

*Aloqa vositalari.* Respublikada aloqa vositalari tarmog'i kengaydi. Urushdan keyingi yillarda shaharlararo telefon, telegraf aloqalarining keng tarmoqlari vujudga keldi. Kabel va radiorele liniyalari qurildi. **1965-yili** Toshkent Moskva va Ittifoqning boshqa shaharlari bilan koaksial kabeli orqali bog'landi. **1971-yili** Toshkentda shaharlararo kuchli avtomatik telefon stansiyasi ishga tushirildi. **1972-yili** Samarqand, Buxoro, Termiz, keyinroq Namangan, Qarshi, Farg'onada AMTS-IM tipidagi shaharlararo avtomatik stansiyalar ishga tushirildi. Natijada shahar telefon tarmoqlarining **160 ming** abonent o'z telefonlaridan kod yordamida shaharlararo avtomatik telefon aloqasi bilan bog'lanish imkoniga ega bo'ldi. **1985-yili** shaharlardagi telefon stansiyalarining abonent telefonlari soni **953,9 mingtaga** yetdi. Kolhoz va sovxozlar telefonlashtirildi.

**1985-yili** respublikada **4166 ta** pochta, telegraf va telefon aloqasi korxonalari ishladi.



Radioeshittirish tarmoqlari kengaydi. **1956-yil 5-noyabrda** O'zbekistonda birinchi marta Toshkent televidion markazi ishlay boshladi. **60-yillarning oxirlarigacha** Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyati ham televidion ko'rsatuvlar bilan ta'minlandi. **1977-yili** Samarqand va Andijonga Toshkent televideniyesining ikki programmasini rangli tasvirda uzatishga erishildi.

**1978 – 1979-yillarda** Toshkentda balandligi **350 metrli** televidion minora qurildi. Urganch va Nukusda telemarkaz qurib ishga tushirildi.

*Qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish.* O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rinni egallaydi. **50 – 80-yillarda** yerning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish inshootlari qurish ishlari avj oldirildi. KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining **1956-yilgi «Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'l qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida»gi, 1958-yilgi «O'zbekiston SSR, Qozog'iston SSR va Tojikiston SSRdagi Mirzacho'lni sug'orish va o'zlashtirish ishlarini yanada kengaytirish va jadallashtirish to'g'risida»gi** qarorlariga asosan irrigatsiya tarixida birinchi bo'lib Mirzacho'lda katta maydonlarda qo'riq yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borildi. Yirik ishlab chiqarish bazasi barpo etilib, qurilish ishlari industrial asosda yo'lga qo'yildi. **1956-yili** qo'riq yerlarni o'zlashtirish bosh boshqarmasi – **«Glargolodnostepstroy»**, **1963-yili** irrigatsiya va sovxozlar qurilishi bo'yicha O'rta Osiyo bosh boshqarmasi (**«Glavsredazsovxozstroy»**), ularning hududiy boshqarmalari, joylarda trest va qurilish boshqarmalari tizimi tashkil etildi.

Yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni yangi sovxozlar, ularning xo'jalik binolari, aholi yashaydigan posyolkalar bunyod etish bilan birga olib borildi. **1956 – 1965-yillarda** Mirzacho'lda **84 ming gektar** yangi yer o'zlashtirildi, **16 ta** paxtachilikka ixtisoslashgan, bitta bog'dorchilik-uzumchilik sovxozi tashkil etildi. Shu yillarda o'zlashtirilgan joylarda **456 ming metr<sup>2</sup>** turarjoy binolari, o'nlab maktablar, bolalar bog'chalari, kasalxonalar, oshxonalar, madaniy-maishiy muassasalar barpo etildi. **170 km** temir va **759 km** avtomobil yo'llari qurildi, **637 km** elektr liniyalari o'tkazildi, xo'jaliklar turarjoy binolari gazlashtirildi. **1957-yili Yangiyer, 1961-yili Guliston** shaharlari vujudga keldi.

**1963-yil 16-fevralda** markazi Guliston shahri bo'lgan **Sirdaryo viloyati** tashkil etildi. Viloyatda paxta ekiladigan yer maydonlari **1956-yildagi 120 ming gektardan 1965-yili 211 ming gektarga**, paxta xomashyosi yetishtirish esa **243 ming tonnadan 441 ming tonnaga** ko'paydi.

Mirzacho'l yerlarini sug'orish, meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari amalga oshirildi. Janubiy Mirzacho'l kanali qurildi.

Markaziy Farg'ona, Qoraqalpog'iston avtonom respublikasida, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ham sug'oriladigan dehqonchilikni kengaytirish, irrigatsiya-qurilish ishlari keng ko'lamda olib borildi. Qoraqalpog'istonda yangi sholikorlik sovxozlari ishga tushirildi. Buxoro viloyatida **1963-yili** Amu-Qorako'l mashina-kanali, **1965-yili** Amu-Buxoro mashina-kanali qurib foydalanishga topshirildi. Natijada Buxoro viloyatida **90 ming gektar** yer, jumladan, **26 ming gektar** yangi yer maydonlari sug'oriladigan, Qizilqum sahrosida maydoni **300 ming gektardan ortiq** yaylovlarga suv boradigan bo'ldi.

**1953 – 1963-yillarda** Markaziy Farg'ona cho'llarida **72,4 ming gektar** yer o'zlashtirildi, **16 ta** yangi kolxoz va **2 ta** yangi sovxoz vujudga keldi.

**50 – 60-yillarda** Kosonsoy, Qamashi, Farg'ona, Pachkamar, Chorvoq, Quyimozor, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Toshkent, Ohangaron suv omborlari qurildi. **1959 – 1965-yillarda** respublika bo'yicha **381,8 ming gektar** yangi sug'oriladigan yerlar o'zlashtirilib, xo'jalik ishlariga kiritildi. Suvdan tejab foydalanish maqsadida **545 km** beton ariqlar qurildi, **1965-yili 900 ta** sug'orish sistemasida **22 mingdan ortiqroq** gidrotexnik inshootlar ishlab turdi, bu **800 ming gektar** sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlashni yaxshilashga imkon berdi.

Jizzax va Qarshi cho'li, Mirzacho'l, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg'ona hamda Quyi Amudaryo yerlarini o'zlashtirish, suv chiqarish ishlari avj oldi.

Jizzax cho'lida **70 ming gektardan ko'proq** yangi yerlar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda **Mirzacho'l (1967)**, **Do'stlik (1970)**, **Zafarobod (1973)**, **Arnasoy (1977)** tumanlari tashkil etildi. Sanoat korxonalari barpo etilgan, aholi zichroq yashaydigan posyolkalar bazasida **Paxtakor (1974)**, **Do'stlik (1974)**, **Gagarin (1974)** shaharlari vujudga keldi. Jizzax cho'lida **1454 ming metr<sup>2</sup>** turarjoy binolari, **21,9 ming o'rinli** maktablar, **6800 o'rinli** bolalar bog'chalari, klublar, shifoxonalar, oshxonalar qurildi. **1973-yili** Jizzax viloyati tashkil etildi.

Sirdaryo viloyatida yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari davom ettirildi. **1966 – 1975-yillari 181 ming gektar** yangi yerlar o'zlashtirildi. **50-yillarning 2-yarmidan 70-yillarning o'rtalarigacha** qishloq xo'jalik ishlariga kiritilgan yangi yerlar maydoni **280 ming gektarni** tashkil etdi. Bu yerlarda **55 ta** sovxoz vujudga keldi. Mirzacho'l va Jizzax cho'llarini o'z ichiga olgan yangi paxtachilik iqtisodiy rayoni paydo bo'ldi, sanoat

komplekslari qurildi. **1985-yili** Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida **731 ming tonna** paxta xomashyosi yetishtirildi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Xorazm viloyatlarida, Qoraqalpog'iston ASSRda ham suv xo'jaligi, yangi yerlar o'zlashtirish ishlari keng miqyosda olib borildi. **70-yillarda** Amudaryo suvi hisobiga eng yirik **Tuyamo'yin**, Kampirrovot daryosi bo'yida **Andijon**, Namangan viloyatida **Chortoq** va **Eskar**, Samarqand viloyatida **Qoratepa**, Surxondaryo viloyatida **Surxon** suv omborlari bunyod etildi. **Katta Namangan, Parkent** va boshqa kanallar qurildi.

Shunday qilib, O'zbekiston hududida **1946 – 1965-yillarda** qariyb **600 ming gektar** yangi sug'oriladigan yerlar ishga tushirilgan bo'lsa, **1966 – 1985-yillarda 1,6 million gektar** yangi yerlar o'zlashtirildi. **1985-yili 10 milliard kubometr** suvni to'plovchi **23 ta** suv ombori, **197 ming km** uzunlikdagi kanallar, **900 ta** sug'orish sistemasi, **92 ming** gidrouzel ishlab turdi. O'zlashtirilgan qo'riq yerlarda **160 ta** sovxoz tashkil etildi, **7,7 mln metr<sup>2</sup>** turarjoy, **37 ming** o'rinli maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, **102 ming** o'rinli umumta'lim maktablari barpo etildi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Xo'jaliklarni elektr energiyasi bilan ta'minlash, ularga traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari, mineral o'g'itlar yetkazib berish ishlari ancha yaxshilandi. Masalan, **1985-yili** kolxoz va sovxozlarda **189 ming** traktor, **37 ming** paxta terish mashinalari va boshqa turdagi texnika vositalari bor edi.

***Paxta monokulturasini.*** Respublika qishloq xo'jaligida paxta monokultura sifatida rivojlantirildi. **1950-yili 1,1 mln gektar** yerga, **1985-yili qariyb 2 mln gektar** yerga g'o'za ekildi. Paxta xomashyosi shu yillarda **2,3 mln tonnadan 5,4 mln tonnaga** yetdi. Hosildorlik har gektar hisobiga **20,1 sentnerdan 27,0 sentnerga** ko'tarildi.

Markaziy hokimiyat Ittifoq mehnat taqsimotida, yagona xalq xo'jaligi kompleksida O'zbekistonning asosiy o'rni paxtachilik ekanini qat'iy belgilab qo'ygandi. O'zbekistonga og'ir vazifa – SSSRning paxta mustaqilligini ta'minlash vazifasi yuklatilgandi. Mana shu boisdan paxta O'zbekistonda monokulturaga, ya'ni hukmron tarmoqqa aylandi. **1985-yili** respublika paxta maydonlari barcha ekin maydonlarining **2/3 qismini** egallardi. Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Jizzax, Buxoro viloyatlarida esa uning salmog'i **70 – 75 foizga** yetardi. Bu holat ekinlarni ilmiy asoslangan mezonlarga binoan almashlab ekish va tuproq unumdorligini qayta tiklash imkonini bermasdi. Paxtachilikda juda zaharli ximikatlar (butifos, merkaptofos) haddan tashqari ko'p miqyosda qo'llanilardi, ularni saqlash va ishlatish qoidalari buzilardi.

G'allachilikning ahvoli. O'zbekiston qishloq xo'jaligida makkajo'xori, bug'doy ham yetishtirilardi. **1970-yillarda** viloyatlarda **18 ta** ixtisoslashgan makkajo'xorichilik sovxozlari tashkil etildi va makkajo'xori yetishtirish sezilarli darajada ko'paydi.

**Biroq 80-yillar o'rtalarida** bu tarmoqqa e'tibor kamaydi, makkajo'xori ekishga ajratilgan ekin maydonlari keskin kamaytirildi. Natijada makkajo'xori yetishtirish pasayib, **1985-yili** atigi **443,1 ming tonnaga** tushib qoldi. Sersuv va jazirama issiq bo'ladigan joylarda sholi yetishtirilardi. Sholi, asosan, Chirchiq, Ohangaron, Sirdaryo bo'ylarida ekilardi. O'zbekiston kompartiyasi MQ va Ministrlar Kengashi **1978-yil noyabrida** sholi yetishtirishni yanada ko'paytirish to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq, Amudaryoning quyi qismida – Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm viloyatida ancha yerlar o'zlashtirildi va ixtisoslashtirilgan maxsus sholikorlik sovxozlari tashkil etildi. Birgina Qoraqalpog'istonda sholikorlikka ixtisoslashtirilgan sovxozlar soni **19 taga** yetdi. **1960-yili** Qoraqalpog'istonda **3,6 ming tonna** sholi tayyorlangan bo'lsa, **1983-yili 332,3 ming tonna** sholi tayyorlandi. Sholi yetishtiriladigan asosiy hududlardan ikkinchisi Xorazm viloyatidir. **1960-yili** Xorazm viloyatida **13,6 ming tonna** sholi yetishtirilgan bo'lsa, **1985-yili 117,9 ming tonna** sholi tayyorlandi. Toshkent, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham sholi yetishtirish ancha ko'paydi. **1985-yili** respublika bo'yicha **482,9 ming tonna** sholi tayyorlandi, bu **1970-yilga** nisbatan **2,6 marta ko'p** edi.

Respublikada bug'doy, arpa yetishtirish imkoniyatlari katta, ammo bu imkoniyatdan foydalanilmadi, bug'doy ekish uchun sug'oriladigan yer ajratilmadi. Bug'doy va arpa bahorikor (lalmikor) yerlarga ekilardi. Hosildorlik **5 – 8 sentnerdan** oshmasdi. **1985-yili** atigi **387,9 ming tonna** bug'doy yetishtirildi, aholining bug'doyga bo'lgan talabi mutlaqo qondirilmas, respublikaga boshqa mintaqalardan bug'doy keltirilardi. Respublika dalalarida shirin-shakar mevalar va uzum, qovun-tarvuzlar, sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirildi. **49 ta** sovxoz meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashtirilgandi.

Keyingi yillarda sitrus mevalar yetishtirish rivojlandi. Xalq seleksioneri **Zayniddin Faxriddinov** Toshkent viloyatida katta limonariya yaratdi. Termiz tumanida barpo etilgan «Navro'z» limonariyasining maydoni **50 gektarga** yetdi. Aholining limonga bo'lgan ehtiyojining katta qismi respublikada yetishtirilgan limon bilan qoplanadigan bo'ldi.

**1961-yili** respublikada **116,5 ming gektar** mevazor, **46,4 ming gektar** uzumzor bo'lgan esa, **1985-yili** ularning maydoni ancha kengayib, mevazor bog'lar **206,1 ming gektarni**, uzumzorlar **133,4 ming gektarni**

tashkil etdi. Shu yillarda meva yetishtirish **152,2 ming tonnadan 633,0 ming tonnaga**, uzum tayyorlash **223,6 ming tonnadan 635,6 tonnaga** ko'tarildi.

Barcha viloyatlarda, ayniqsa, yirik shaharlar atrofida kartoshka-sabzavot yetishtirish yo'lga qo'yildi. **50 – 80-yillarda** respublikada **45 ta** sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan kolxoz, **35 ta** sabzavot, sutchilik sovxozlari tashkil etildi. Sabzavot, kartoshka yetishtirish va poliz ekinlari maydoni **1960-yildagi 108,9 ming gektardan 1985-yili 196,3 ming gektarga** kengaydi. Shu yillarda kartoshka yetishtirish **162,7 ming tonnadan 240,7 ming tonnaga**, sabzavot tayyorlash **377,3 ming tonnadan 2,4 mln tonnaga**, poliz mahsulotlari **263,7 ming tonnadan 790,0 ming tonnaga** ko'paydi. Xorazm, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ko'p miqdorda qovun-tarvuz yetishtirildi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik ham o'sdi. **60-yillarda** qoramolchilikka ixtisoslashtirilgan **30 ta** sovxoz tashkil etildi. **70-yillarning 2-yarmida** davlat va kolxozlar mablag'lari hisobiga **45 ming** sigir boqiladigan sutchilik komplekslari, **65 ming** buzoq boqiladigan go'shtchilik komplekslari va ochiq maydonda **190 ming bosh** qoramol boqiladigan **13 ta** ixtisoslashtirilgan komplekslar qurildi. **1985-yili** xo'jaliklar **4,1 mln bosh** qoramol, shu jumladan, **1,6 million** sigirni boqib mahsulotlar yetishtirdi. **1982-yili** chorvachilik, cho'chqachilik va sutchilik komplekslari soni **82 taga** yetdi.

Buxoro, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari, Qoraqalpog'iston ASSRda **90 ga yaqin** ixtisoslashtirilgan qorako'lchilik sovxozlarida **5 mln dan ortiqroq** qorako'l qo'ylari boqilib, qimmatbaho qorako'l terilar yetishtirildi. **3 mln boshdan ortiqroq** hisori va jaydari qo'ylar boqildi.

**60 – 70-yillarda** parhez parranda go'shti, tuxum ishlab chiqaradigan **20 dan ortiq** yirik parrandachilik komplekslari barpo etildi, parrandalarni oziqlantirish, ko'paytirish, tuxum va go'sht yetishtirish ishlari mexanizatsiyalashtirildi. **1985-yili** respublikada **33,5 mln** tovuqlardan qariyb **2 mird dona** tuxum olindi, bu **1960-yilga nisbatan to'rt marta ortiq** edi.

O'zbekistonda sobiq Ittifoq bo'yicha jami pillaning **2/3 qismi** yetishtirilardi. **1985-yili** xo'jaliklar tomonidan yetishtirilib davlatga sotilgan pilla **32,2 ming tonnaga** yetdi. Yiliga o'rta hisobda **4 ming tonnaga yaqin** asal tayyorlandi. Amudaryo, Sirdaryo va Orol dengizi qirg'oqlarida ondatra, nutriya, norka va boshqa hayvonlar urchitildi va mo'ynalar tayyorlandi. Baliqchilik xo'jaliklari **1985-yili 26 ming tonna** mahsulot yetishtirdilar.

**Orol fojiasi.** Cho'l-u sahrolarni o'zlashtirish borasidagi dabdabali tadbirlar, paxta monokulturasining kuchayishi, Amudaryo va Sirdaryo

havzalari bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ishlari **Orol fojiasini** keltirib chiqardi. Orol dengizining sathi qariyb **20 metrga** pasaydi, uning sohillari **60 – 80 km** ga chekindi, u endi yaxlit dengizmas, balki ikkita qoldiq ko'lga aylanib qoldi. Dengizning suv qochgan **4 mln gektardan ortiqroq** tubi qumli, sho'rxok sahroga aylandi. Undan kuchli shamol bo'ron orqali ko'tarilgan tuz, chang-to'zonlar atrof-muhitni yemirmoqda, odamlar sog'lig'ini yomonlashtirmoqda. Oshqozon raki, tuberkulyoz, qorin tifi, kamqonlik, siydik yo'llari va jigar toshi, qon bosimi va boshqa kasalliklar ko'paydi. Bolalar va xotin-qizlar o'limi ko'payishi kuzatildi.

Yiliga 90 kunlab davom etadigan kuchli bo'ron tufayli **15 – 75 million tonna** tuzli qumlar atmosferaga ko'tarilib, **300 – 500 km** masofaga yoyilmoqda. Orolning qurib borishi ekologik kulfatga aylandi, uning atrofida yashaydigan qariyb **35 million** kishi xavf-xatar ostida qoldi.

*Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda inqirozli holatning vujudga kelishi.* **50 – 80-yillarning 1-yarmi** Vatanimiz tarixidagi eng murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan, mehnatkashlarning fidokorona mehnati tufayli respublika iqtisodiyoti rivojlandi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotda muammolar, noxush holatlar to'planib borib, pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi. Respublikaning iqtisodiy rivojlanish yo'lida to'xtab qolishlar yuz bermasa-da, olg'a tomon siljish sur'atlari tobora sekinlashib, pasayib bordi. **20-yillar oxiri – 30-yillarda** shakllangan xo'jalik yuritish tizimi boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usuli 30-yillarda, urush davrida, tiklash yillarida muayyan samara bergan esa-da, 50-yillardan e'tiboran ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga to'siq bo'la boshladi.

**60-yillar o'rtalarida** iqtisodiy islohotlar qilishga kirishildi. **1965-yilgi** islohotda sanoat, qurilish va qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik hisobiga o'tkazish, rag'batlantirish tizimini takomillashtirishni ko'zda tutgan tadbirlar mo'ljallandi. Korxonalar uchun yuqoridan rejalashtiriladigan ko'rsatkichlar qisqardi, korxonalar faoliyatiga baho berishda ishlab chiqilgan yalpi mahsulot emas, realizatsiya qilingan mahsulot asosiy ko'rsatkich deb belgilandi. Biroq siyosiy vaziyat o'zgarmadi, u iqtisodiy islohotga zid bo'lib qolaverdi. Markaziy siyosiy hokimiyatning iqtisodiyotni nazorat qilishi oqibatida buyruqbozlik yanada kuchaydi, rejadagi tadbirlarga tez-tez tuzatishlar kiritila boshladi, korxonalar huquqlari cheklana bordi. Iqtisodiy metodlar yana ma'muriyatchilik bilan almashtirildi. Islohot boshqaruvning o'rta qismiga, korxonalarigagina daxldor bo'lib, u boshqaruvning yuqori eshelonlarini o'zgartirolmadi. Qarorlar qog'ozda qolib ketdi. Ularni amalga oshirishni ta'minlovchi jiddiy o'zgarishlar bo'lmadi, rahbariyatda siyosiy iroda yetishmadi. Islohotlar **60-yillarning 2-yarmida** biroz samara ber-

gan bo'lsa-da, biroq, umuman, ko'zlangan natijani bermadi. 60-yillarning iqtisodiy islohoti jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga, ishlab chiqarish munosabatlarining tub mohiyatiga daxl qilmadi. Shu sababli muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi yaratgan to'g'onoqli mexanizm keyingi yillarda ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotda progressiv qayta o'zgarishlarni, **1979-yilgi** iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi urinishlarni barbod qildi. **70 – 80-yillarda** bo'lib o'tgan KPSSning barcha syezdlarida rivojlanishning intensiv shakliga o'tish zarurligi qayta-qayta ta'kidlangandi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, rahbarlikda iqtisodiy usullarga o'tish vazifalari qo'yilardi. Ammo bu vazifalar amalda direktivaligicha qolardi. So'z bilan ish o'rtasida uzilish ro'y berdi. Taraqqiyotda deqsinish, inqirozli holatlar yuz berdi.

Jamiyatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuzaga kelgan inqirozli holatning sabablari va ildizi fikrlashning orqada qolganida, muayyan tarixiy sharoitga yetarli siyosiy baho berolmaganlikda edi. **60-yillar oxi-** rida ilmiy va siyosiy hayotga kirib kelgan «**rivojlangan sotsializm**» tu- shunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini aniqlashda jiddiy nazariy xatoga yo'l qo'yilganining oqibati bo'ldi. Sovet jamiyatining holati qay darajada ekaniga obyektiv baho bermaslik real hayotga to'g'ri kelmaydigan strategik va taktik yo'l-yo'riqlarni belgilashga olib keldi. Qo'lga kiritilgan yutuqlarni ulug'lash, miqdor ketidan quvish, kamchiliklarni payqamaslik singari yaramas illatlar borgan sari hayotda mustahkam o'r'nasha bordi.

Natijada respublika iqtisodiyotida, butun SSSRda bo'lganidek, inqirozli vaziyat belgilari vujudga kela boshladi. Rasmiy ma'lumotlarga binoan, milliy daromadning o'rtacha yillik o'sishi pasayib, **1960 – 1965-yillardagi 7,8 foizdan 1981 – 1985-yillarda 3,3 foizga** tushib qoldi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sof daromadning o'sish sur'ati **1965 – 1985-yillarda yetti marotabaga** kamaydi.

**1985-yili** maktab binolarining yetishmasligi natijasida o'quvchilarning **3/4 qismi** ikkinchi yoki uchinchi smenada o'qirdi. Umumta'lim maktablarning **32 foizi** vodoprovod suvi bilan, **60 foizi** markaziy isitish tarmog'i bilan ta'minlanmagandi. Respublika ijtimoiy hayotida imzosiz xat, tuhmat, tanqid uchun o'ch olish singari illatlar ham avj oldi. Bu esa odamlar ijtimoiy ruhiyatining salbiy tomonga o'zgarishiga olib keldi. Tayyoriga ayyorlik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi.

Noxush holatlar milliy munosabatlarni ham chetlab o'tmadi. Bu sohadagi muammolar tobora ko'p to'planib boraverdi. Vazirlik va boshqar-

malarning xodimlari har doim ham milliy shart-sharoitlarni va urf-odatlarni, ekologik vaziyatni hisobga olib ish yuritish zarurligini e'tiborga olavermadi. Bir qancha joylarda ortiqcha ishchi kuchlari paydo bo'la boshladi. Birgina Farg'ona vodiysining o'zida **200 ming** yigit-qiz ishsiz edi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar, shu jumladan, milliy o'zlik-ni anglash, o'z xalqining tarixiga, ma'naviy merosiga hamda urf-odatlarga qiziqishning kuchayishi yetarlicha e'tiborga olinmadi va chuqur tahlil qilinmadi. Bu jarayon tub joy aholi bilan kelib o'rtnashib qolgan aholi o'rtasidagi nisbatning o'zgargan davrida, ayniqsa, keskinlashib bordi. Milliy o'ziga xoslikni asrash, milliy til va urf-odatlarni saqlab qolish muammolari kuchayib bordi.

Rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan davlat va kompartiyaning o'sha paytda olib borgan millatlarni bir-biriga sun'iy yaqinlashtirish siyosati milliy respublikalar va boshqa milliy tuzilmalarning huquqlarini cheklab qo'ydi, ijtimoiy keskinlikning xavfli manbalarini vujudga keltirdi, respublikalararo munosabatlarda ziddiyatli vaziyatlarni vujudga keltirish uchun shart-sharoit hozirladi.

Qishloq xo'jaligida sifat ko'rsatkichlari yildan yilga pasayib bordi. Qishloq mehnatkashlarining o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdorligi susaydi.

Yildan yilga «markazning buyurtmasi» hisobiga paxta xomashyosini yetishtirish ko'payib borgan bo'lsa-da, undan aholining olayotgan sof daromadi kamligicha qolaverdi. Qishloq oilasining har bir a'zosiga to'g'ri keladigan oylik daromad Rossiyada **98,1 so'm**ni tashkil etgan bir paytda O'zbekistonda o'z tomorqasidan tushadigan daromad bilan birgalikda hisoblanganda **58,9 so'mga** teng bo'ldi. Natijada O'zbekiston xalqining turmush darajasi pasayib, SSSR miqyosida oxirgi o'rinlarga tushib qoldi.

**70 – 80-yillarda** partiyaviy rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlik uslubi tendensiyasi kuchaydi. Hamma sohalarda boshqarish funksiyalari partiya tashkilotlari qo'lida to'plangandi. Qabul qilingan qarorlarni bajarishda mas'uliyat tobora susayib bordi, omma bilan aloqa zaiflashdi. Davlat hayotiga chuqur kirib borgan noxush holatlar borgan sari taraqqiyotga to'siq bo'la boshladi.

Sovetlar obro'sining pasayishi qonunlarning bajarilishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazdi. Qonunlar turli xildagi hujjatlar bilan almashtirildi. **70-yillar oxiri – 80-yillar boshiga** kelib xalq xo'jaligini boshqarishda **200 mingga yaqin** har xil buyruqlar va ko'rsatmalar to'planib qolib, xo'jaliklar faoliyatini o'rgimchak singari o'rab, chalkashtirib tashlagandi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan oziq-ovqat, agrar,



ijtimoiy va boshqa sohalardagi dasturlar iqtisodiy qarama-qarshiliklarni chuqurlashtirib yubordi.

Respublika partiya va hukumat rahbariyatida qanday qilib bo'lsa ham markaz va KPSS rahbariyati, xususan, **L.I.Brejnev** oldida «yuzni yorug' qilish»ga intilish kuchaydi. O'z navbatida, quyi partiya tashkilotlarining respublika rahbariyati oldida «yuzni yorug' qilish», bergan va'dalari ustidan chiqish uchun nopok yo'llarni axtarishi keng tus oldi.

O'zbekiston kompartiyasi MQning **1984-yil iyun** oyida bo'lib o'tgan **XVI plenumida** partiya, sovet va davlat xo'jalik organlari faoliyatidagi jiddiy xatoliklar va qonunbuzarlik to'g'risida ochiq-oydin gapirildi. Biroq plenum tobora chuqurlashib borayotgan noxushliklarning ildizini keltirib chiqargan tub sabablarni to'liq ochib berolmadi. Shu boisdan keyinchalik ham noxush jarayonlar davom etaverdi. Mahalliy ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishda O'zbekiston partiya tashkilotlarining ishiga markazning aralashuvi kuchaydi. Bu esa respublikadagi nosog'lom vaziyatni yana ham murakkablashtirdi.

### 30.3. MADANIY VA MA'NAVIY HAYOT

*Xalq ta'limi.* **50-yillarda** maktab qurilishi, bolalarni maktabga jalb qilish ishlari anchagina kengaydi. Yetti yillik umumiy majburiy ta'lim amalga oshirildi. Biroq xalq ta'limida jiddiy nuqsonlar mavjud edi. Ta'limning mazmuni hayotdan orqada qolgani yaqqol ko'rinardi. Birinchidan, maktab o'quvchilarining bilim saviyasi past edi. Ikkinchidan, o'n yil o'qib maktabni tamomlab chiquvchilar birorta kasb-hunarni egallamas, mehnat malakalarini olmasdi.

**1958-yil dekabrda** SSSR Oliy Soveti «**SSSRdagi maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash, xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida**» Qonun qabul qildi. Qonunda o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish, yoshlarni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan yetuk qilib shakllantirish, ularga umumiy politexnik bilim berish vazifalari qo'yildi. Ayni shunga o'xshagan qonun **1959-yili** O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan ham qabul qilindi. **10 yillik** o'rta maktablar **11 yillik** maktablarga aylantirildi.

Maktablar uchun yangi o'quv rejalari, dasturlari va darsliklar yaratildi. Maktablarda ustaxonalar qurildi. Maktab tajriba uchastkalari vujudga keldi. Fizika va matematika fanlarini o'rganish uchun ajratilgan soatlar ko'paytirildi. O'quvchilarga mashinasozlik, sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tish yo'lga qo'yildi. **1962-yiliyoq**

umumiy majburiy **sakkiz yillik ta'limga** o'tish amalga oshdi. Barcha yetti yillik maktablar sakkiz yillik maktablarga aylantirildi.

Sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan yoshlarga ta'lim berish maqsadida ishlab chiqarishdan ajralmasdan o'qish imkoniyatini beruvchi kechki va sirtqi maktablar tashkil etildi. **1958 – 1965-yillarda 1000 ga yaqin** shunday maktablar ochildi, ularda o'qiydigan yoshlar **1965-yili 134,5 ming** kishini tashkil etdi. O'zbekiston kompartiyasi va hukumati «**Respublika umumta'lim maktablari ishini yanada yaxshilash choralari to'g'risida**» (1966) va «**Respublika umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan xalq maorifini yanada yaxshilash choralari to'g'risida**» (1969) qaror qabul qildi. Bu qarorlarda, asosan, respublikada yoshlar uchun umumiy o'rta ta'limga o'tish, yangi maktab binolari, o'quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar barpo etishga yo'naltirilgan kapital qurilish ishlari bajarildi. Maktab-internatlar, o'quvchilarning badiiy iste'dodlarini rivojlantiruvchi maktablar ko'paydi. Gliyer nomidagi o'rta maktab-internat, milliy musiqa va milliy amaliy san'at maktab-internatlari, sport maktab-internati va boshqa o'nlab musiqa maktablari ochildi.

O'rta umumta'lim maktablari **1970-yili** ishlab chiqilgan nizomga muvofiq mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda alohida **boshlang'ich** (1 – 3-sinflar), **8 yillik** (1 – 8-sinflar) va **o'rta** (1 – 10-sinflar) maktablariga aylantirildi. Ishlab chiqarish ta'limi berish maqsadida maktablararo ishlab chiqarish o'quv-kombinatlar tuzildi. Shahar va tumanlarda kasb-hunar bilim yurtlari tashkil etildi. Ko'pchilik maktablarda yoshlarni o'quv mashg'ulotlaridan keyin maktabda olib qolish, ularga ta'lim-tarbiya berish ishlari yolg'a qo'yildi, ya'ni kuni uzaytirilgan maktablar tashkil topdi. Alohida fanlarni chuqur o'rgatuvchi maktablar, aqliy va jismoniy zaif bolalar maktablari vujudga keldi.

**70-yillar o'rtalarida** umumiy o'rta ta'limga o'tish yakunlandi. **1965 – 1985-yillar** orasida o'tgan **20 yil** davomida barcha turdagi umumta'lim maktablari **8716 tadan 9188 taga** ko'paydi, o'quvchilar soni esa **3055,8 ming boladan 6519,6 ming bolaga** ortdi. **1965 – 1985-yillarda** respublika maktablarida o'rta ma'lumot olganlar soni **5,7 million** kishidan oshdi.

Shunga qaramay, xalq ta'limida jiddiy muammolar hal etilmadi. Maktablar sinf xonalarining soni qanchalik oshmasin, bolalar sonining tabiiy o'sishidan orqada qolaverdi. Maktab binolarining yetishmasligi, moddiy-texnik jihatdan zaifligi surunkali kasallikka o'xshardi.

Maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni kommunistik mafkura-ga bo'ysundirilgan, KPSS rejaları va dasturlari doirasiga solib qo'yilgandi.

Ta'lim-tarbiya milliy xususiyatlar, tarixiy-ma'naviy qadriyatlar, an'analarni inobatga olmasdi. Maktablar umuminsoniy qadriyatlardan ham tobora begonalashtirildi. O'quvchilarning bilim asoslarini egallashga qiziqishi so'nib bordi.

**1984-yili** sovet hokimiyati yoshlarga ta'lim-tarbiya berish mazmunini yaxshilash maqsadida maktab va hunar-texnika bilim yurtlarini isloh etishga qaror qildi. Mamlakatda «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» kursini o'qitish, barcha maktablarni mikrokalkulator, elektr hisoblash mashinalari, kompyuterlar bilan ta'minlash kabi vazifalar qo'yildi. Ammo respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bu vazifani bajarishni ta'minlolmadi. Maktab islohoti iqtisodiy va ijtimoiy tangliklar orqasida qolib ketdi. Ta'lim-tarbiya jarayonini jahon andazalari darajasiga ko'tarish tomon qilingan yana bir urinish samarasiz tugadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim. Oliy va o'rta o'quv yurtlari malakali mutaxassislar tayyorlash maskanidir. Respublikada oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash iqtisodiy va madaniy qurilish ishlari, taraqqiyot istiqbollari bilan bog'langan holda olib borildi.

Urushdan keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim ancha o'sdi. **50-yillarda 3 ta** oliy o'quv yurti – Andijon meditsina instituti, Toshkent elektrotexnik aloqa, Fizkultura institutlari, **60-yillarda yana 8 ta** yangi oliy o'quv yurti – Andijon paxtachilik instituti, Farg'ona politexnika instituti, Samarqand arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari, Andijon tillar pedagogika instituti, Toshkent rus tili va adabiyoti pedagogika instituti tashkil etildi. **70-yillarda yana 5 ta** oliy o'quv yurti – Nukus davlat universiteti, Toshkent avtomobil yo'llar instituti, Pediatriya instituti ochildi. Yangi fakultetlar, viloyatlarda yirik oliy o'quv yurtlarining filiallari ish boshladi. Yangi mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

**1960-yili 30 ta** oliy o'quv yurtida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, **1985-yili** ularning soni **42 tani** tashkil etdi. **1961 – 1985-yillardan** respublika oliy o'quv yurtlari **828 mingga yaqin** muhandislar, iqtisodchilar, agronomlar, huquqshunoslar, o'qituvchilar, madaniyat va san'at xodimlari yetishtirib berdi. O'rta maxsus o'quv yurtlari tarmog'i ham kengaydi. **1960-yili 75 ta** o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, **1965-yili** ularning soni **249 taga** yetdi. **1961 – 1985-yillarda 1 mln 135 mingga yaqin** o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jiddiy kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Mutaxassislar tayyorlashda ekstensiv metod, ya'ni son jihatdan

ko'p kadrlar tayyorlash birinchi o'rinda bordi. Kadrlar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natija bermadi.

**Fan.** Urush yillarida tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasi respublikada ilm-fanning markazi bo'lib qoldi. **1946 – 1990-yillarda** ko'plab yangi ilmiy tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, ilmiy stansiyalar tashkil etildi. **80-yillar boshlariga** kelib akademiya tarkibida Qoraqalpog'iston ASSR filiali va **35** ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatdi. **38 ming** ilmiy xodim, shu jumladan, **1215 fan doktori, 15 664 fan nomzodi** fanning turli sohalarida tadqiqot ishlari olib bordi.

Paxtachilik, sug'orish ishlariga doir kompleks tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston tuproqlarining klassifikatsiyasi tuzildi, u iqlimiy rayonlashtirildi, kartalashtirildi. **60-yillarda** akademik **S.N.Rijov** sug'oriladigan tuproqlarning unumdorlik darajasi haqidagi tushunchani ishlab chiqdi va sug'oriladigan tuproqlar tip sifatida belgilandi. **A.N.Askomchenskiy, V.V.Pavlovskiy, R.A.Alimov** va boshqalar suv to'g'onining yangi konstruksiyasi, gorizont va vertikal zovurlar sistemasi, g'o'za o'stirishning takomillashgan texnologiyasini ishlab chiqdilar. Bu tadqiqotlar Mirzacho'l, Dalvarzin, Sherobod, Qarshi cho'llari, Markaziy Farg'ona va boshqa zonalarda katta maydonlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi oborotiga kiritishga ko'maklashdi.

Akademik **A.S.Sodiqov** g'o'zadan o'stiruvchi moddalar va boshqa preparatlar sintez qildi. **H.A.Raxmatullin, U.O.Oripov** aniq ekish maqsadida chigitni tuksizlantirishning mexanik va aerokimyoviy usullarini ishlab chiqdilar. Seleksioner olim **S.M.Mirahmedov** va boshqalar paxtaning «**Toshkent-1**», «**Toshkent-2**», «**Toshkent-3**», «**Toshkent-4**» singari hosildor, tezpishar, tolasi sifatli yangi navlarini yetishtirdilar. Sholining **20 dan**, sabzavot va poliz ekinlarining **50 dan**, meva, rezavorme va uzumning **60 dan ortiq** navlari yetishtirildi. Tut ipak qurtining mahsuldor zotlari yaratildi, uni boshqarishning ilg'or usullari ishlab chiqildi.

O'zbekiston geologiyasini o'rganish, foydali qazilmalarni topish borasida katta yutuqlarga erishildi. **1946 – 1959-yillarda** yer po'sti yadro taraqqiyoti, rudalarning intruziyalar bilan bog'liqligi va boshqalar haqidagi ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqildi. O'zbekistonlik olimlarning yer po'sti va yuqori mantiyasini o'rganish, zilzilalarning geoximik darakchilarini aniqlash sohasidagi tadqiqotlari va xulosalari xalqaro maydonda e'tirof etildi. **H.M.Abdullayev, I.X.Hamraboyev, I.M.Isomuhamedov, X.N.Boymuhamedov, K.L.Boboyev, A.M.Akramxo'jayev, X.T.To'laganov, H.M.Mavlonov** va boshqa olimlar dunyo rudali petnografik provinsiyalari klassifikatsiyasi, elementlarining geoximik klassifikatsiyasi, O'rta Osiyo

litosferasining geologik-geofizik modellarini ishlab chiqdilar. Oltin, gaz va neft qazib chiqaruvchi sanoatlar, shisha, keramika, abraziv materiallar sanoati tarmoqlarini barpo etishga, aholi manzillarida yer osti suvlaridan foydalanishni yo'lga qo'yishga ko'maklashdilar.

O'zbekistonda mashina va mexanizmlar nazariyasining rivojlanishi **M.T.O'rozboyev, H.A.Raxmatullin, V.Q.Qobulov, H.H.Usmonxo'jayev, G.A.Kojevnikov** nomi bilan bog'liq. Ular mashina va mexanizmlar nazariyasi bo'yicha ilmiy maktabga asos soldilar. Paxta terish mashinalari unumdorligini oshirish va stabiligi nazariyasi, richagli mexanizmlarni sintez qilishning yangi ilmiy yo'nalishi ishlab chiqildi.

Respublikada **1966-yili** Kibernetika instituti tashkil etilgach, akademik **V.Q.Qobulov** yetakchiligida sanoat va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida kibernetika va hisoblash texnikasi vositalari asosida boshqarishning avtomatlashtirilgan sistemalari yaratildi va joriy qilindi.

Akademik **H.U.Usmonov** rahbarligidagi kimyogarlarning ko'p yillik tadqiqotlari natijasida paxta tolasining pishib yetilish jarayoni ochib berildi, texnologik xususiyatlar paxta navlariga bog'liq ekani aniqlandi, mashina terimining optimal muddatlari topildi. **H.U.Usmonov** jahonda eng yaxshi standartli paxta sellyulozasini olish texnologiyasini ishlab chiqdi, g'ijimlanmaydigan gazlamalar olish usulini, bir qator polimer dorilar yaratdi.

Akademik **O.S.Sodiqov** va **S.Y.Yunusov** yetakchiligidagi kimyogarlarda o'simlik moddalarini (alkoloidlar, yurak glikozidlari, yog'lar, oqsillar, uglevodlar va boshqalar), tabiiy birikmalar va sintetik moddalar ustida kompleks tadqiqotlar olib borib, **400 ta** dorivor o'simliklar turini o'rgandilar, **300 dan ortiq** alkaloidni, jumladan, **164 ta** yangilarini aniqladilar. G'o'zadan **80 dan ortiq** moddalar ajratib olindi va tekshirildi. **O.S.Sodiqov** bioorganik kimyo fanining vujudga kelishiga ma'lum hissa qo'shdi. Olim ixtiro qilgan limon va olma kislotalari olish texnologiyasi ko'rgazmalarda oldingi o'rinnlarni egallab oltin medalga sazovor bo'ldi.

Kardiolog olimlar yurak qon-tomir kasalliklari ustida ilmiy tadqiqotlar qilib gipertoniya kasalligi, ateroskleroz, miokard infarkti, stenokardiya, revmatizm kasalliklarining respublika iqlim sharoitiga bog'liq xususiyatlarini ochib berdilar, bu kasalliklarni davolash, oldini olish metodlarini takomillashtirdilar. Kardiologiya institutida yurakning ishemik kasalligi va gipertoniya kasalligining ba'zi tomonlari bo'yicha yangi ilmiy xulosalar qildilar, davolash yo'llarini ishlab chiqdilar.

Nevropatologiya va psixiatriya sohasida asab sistemasining infeksiyon va qon tomirlari kasalliklari atroflicha o'rganildi. **N.Majidov, M.H.Qoriyev,**

**R.P.Po'latova** va boshqa olimlar asab sistemasi qon tomirlari kasalliklari, miyaga qon quyilishi natijasida vujudga keladigan insult, o'tkinchi miya qon aylanishining buzilishi kabi xastaliklarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, davolash va oldini olish metodlarini ishlab chiqdilar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham birmuncha muhim tadqiqotlar olib borildi. Arxeolog, etnograf, antropolog olimlarning izlanishlari natijasida o'zbek xalqining etnik tarkibi, etnogenezi, shakllanishi tarixiga oid asarlar yaratildi. O'zbekiston qadimgi davrdan odamlar yashab kelayotgan o'lka ekani, ajdodlarimiz bundan 2500 – 3000 yillar ilgari shaharlar bunyod etgan, boy moddiy va ma'naviy madaniyatga ega bo'lgan xalq ekani isbotlandi. Biroq ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqot ishlari marksizm-leninizm doirasida qolib ketdi. Sotsializm g'alabasi, O'zbekistonning nokapitalistik taraqqiyot yo'li, rivojlangan sotsializm qurilganini asoslash, millatlar va sinflarning yaqinlashuvi natijasida kishilarning yangi tarixiy birligi – sovet xalqining vujudga kelishi, burjua va revizionistik ta'limotlarni tanqid qilish kabi behuda samarasiz masalalar bilan o'ralashib qoldi.

**Adabiyot. 50 – 80-yillarda** adabiyotda roman va povest janrlari rivojlandi. Urush voqealari, mehnatkashlarning front orqasidagi mehnati **Oybekning «Nur qidirib», Sh.Rashidovning «Qudratli to'lqin», Shuhratning «Shinelli yillar», Said Ahmadning «Ufq», O.Yoqubovning «El boshiga ish tushsa», H.G'ulomning «Toshkentliklar»** romanlarida aks ettirildi.

Urushdan keyingi tiklash va tinch qurilish davri hayotini tasvirlovchi **«Oltin vodiyan shabadalar» (Oybek), «Qo'shchinor chiroqlari» va «Sinchalak» (A.Qahhor), «G'oliblar» va «Bo'rondan kuchli» (Sh. Rashidov), «Ixtlos» (I.Rahim)** kabi roman va povestlar yaratildi. Yozuvchi Parda Tursunning **«O'qituvchi»** romani qishloq ziyolilari faoliyatini ochib berdi.

**Pirimqul Qodirovning «Uch ildiz» va «Qora ko'zlar», O.Yoqubovning «Muqaddas» va «Diyonat», Mirmuhsinning «Umid»** asarlarida yosh zamondoshlarning ma'naviy qiyofasi, hayoti va mehnati o'z ifodasini topdi. **Rahmat Fayziyning «Hazrati inson», O'.Umarbekovning «Qiyomatli qarz», O'.Hoshimovning «Nur borki, soya bor»** romanlarida odob-axloq, tarbiyaviy masalalar mahorat bilan bayon etildi.

**G'afur G'ulom, Zulfiya, Uyg'un, H.G'ulom, T.To'la, Q.Muhammadiy, M.Shayxzoda, Sulton Akbariy, S.Zunnunova** va boshqa shoirlar o'zbek she'riyatini yangi bosqichga ko'tardilar. **Habibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, Po'lat Mo'min, Akmal Po'lat** va boshqalar o'zbek qo'shiqchiligini zamonaviy mavzular bilan boyitdilar.

O'zbek she'riyatining 60 – 80-yillardagi taraqqiyoti **A.Oripov, E.Vohidov, J.Kamol, N.Narzullayev, B.Boyqobilov, G.Jo'rayeva, O.Hojiyeva, H.Xudoyberdiyeva, O.Matjon** va boshqa ko'plab shoirlarning ijodiy kamoloti bilan bog'liq holda ro'y berdi. **Uyg'unning «Abu Rayhon Beruniy», O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi», M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek»** kabi tarixiy mavzudagi asarlari yaratildi. Biroq adabiyot ham kommunistik mafkura doirasidan chiqolmadi.

**San'at.** O'zbekistonda teatr va musiqa san'ati birmuncha o'sdi. Hamza nomidagi o'zbek drama teatri jamoasi **Shekspirning «Otello»** va **«Yuliy Sezar», Uyg'unning «Navbahor», Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana», N.Hikmatning «Bir sevgi afsonasi», R.Tagorning «Gang daryosining qizi», Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy», M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek»** asarlarini sahnalashtirdi.

M.Ashrafiy nomidagi o'zbek davlat konservatoriyasi va o'zbek filarmoniyasining musiqiy jamoalari o'zbek va boshqa respublikalar bastakorlari asarlarini targ'ib qildilar. Faqat T.Jalilov nomidagi o'zbek davlat orkestri repertuaridan **1300 ga yaqin** asarlar o'rin oldi. **«Lazgi», «Shodlik», «Go'zal»** xoreografik ansambllari ham o'zbek va boshqa qardosh xalqlar ashula va raqslarini namoyish etdilar.

**«Bahor»** xalq raqs ansambli, **«Yalla»** vokal cholg'u ansambli jamoalarining konsertlari xalqqa manzur bo'ldi.

O'zbekiston teatr jamoalari **60 – 70-yillarda I.Sultonning «Noma'lum kishi», S.Azimovning «Qonli sarob», Oybekning «Qutlug' qon», Uyg'unning «Qotil», A.Qahhorning «Ayajonlarim», S.Ahmadning «Kelinlar qo'zg'oloni», O'.Umarbekovning «Shoshma, quyosh»** va boshqa asarlarini sahnalashtirib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldilar. Bular jumlasiga o'zbek akademik teatri tomonidan sahnalashtirilgan jahon klassikasi shoh asarlari – **V.Shekspirning «Qiroi Lir», «Hamlet»** dramalarini ham kiritish mumkin.

O'zbek teatrlarining rivojlanishiga rejissyorlardan **M.Uyg'ur, Y.Bobojonov, A.Ginzburg, T.Xo'jayev**, aktyorlardan **Abror Hidoyatov, O.Xo'jayev, S.Eshonto'rayeva, Sh.Burhonov, N.Rahimov, R.Hamroyev, Z.Muhammadjonov, B.Qoriyeva, Y.Abdullayeva, G'.A'zamov, Y.Ahmedov, T.Azizov, Q.Xo'jayev, P.Saidqosimov** va boshqa san'atkorlar salmoqli hissa qo'shdilar. Xalqimiz san'atini baland ko'targan **Y.Rajabiy, H.No-sirova, Mukarrama Turg'unboyeva, Tamaraxonim, G.Izmailova, S.Qobulova** nomlarini hurmat bilan e'zozlab kelmoqda.

**1946 – 1985-yillar** O'zbekiston kino san'atining yuksalish davri bo'ldi. **N.G'aniyev** yaratgan **«Tohir va Zuhra» (1945), «Xo'ja Nasriddinning**

**sarguzashtlari**», «**Farg'ona qizi**» kabi kinofilmlar xalq olqishiga sazovor bo'ldi. **K.Yormatov** yaratgan «**Alisher Navoiy**» (1947) biografik-tarixiy filmi shuhrat qozondi. **50 – 60-yillarda** rejissyor **K.Yormatovning** «**Ibn Sino**», «**Osiyo ustida bo'ron**» (1965), «**Qora konsulning halokati**» (1970) filmlari, rejissyor **L.Fayziyevning** «**Ulug'bek yulduzi**» (1965) filmida o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi aks ettirildi.

**60 – 70-yillarda** o'zbek kino san'atiga yosh, talantli aktyorlar kirib keldi. **Sh.Abbosov, A.Hamroyev, R.Botirov, E.Eshmuhamedov, H.Ahmarov** shular jumlasidandir. **Sh.Abbosovning** «**Mahallada duv-duv gap**» (1961), «**Sen yetim emassan**» (1963), «**Toshkent – non shahri**» (1970), «**Abu Rayhon Beruniy**» (1974), **A.Hamroyevning** «**Shiddat**» (1971), **R.Botirovning** «**Seni kutamiz, yigit**» (1972), **E.Eshmuhamedovning** «**Nafosat**» (1967) va «**Umid qushi**» (1975) kabi filmlarida davr farzandlarining hayoti, izlanishlari tasvirlangan. Rejissyor **M.Qayumovning** «**Bahordan bahorgacha**» (1963), «**Mirzacho'l**» (1975), «**Paranji**» (1977) lentalari Butunittifoq va jahon kinofestivallarida tomoshabinlarga manzur bo'ldi va yuksak mukofotlarga erishdi.

**1968-yildan** boshlab Toshkentda har 2 yilda bir marta «**Tinchlik, sotsial taraqqiyot va xalqlar ozodligi uchun**» shiori ostida Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining xalqaro festivali o'tkazib turildi.

Bu o'zbek kino san'atining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etdi, albatta. Biroq kino san'ati ham mafkuraviy zug'um ostida bo'ldi, kommunistik mafkura, marksizm-leninizm g'oyalarini kinofilmlar orqali tashviq qilish ustun o'rinni egalladi.

Bu yillarda tasviriy san'at ham rivojlandi. **Ch.Ahmarov** va **O.Tan-siqboyev** devoriy rasmlar, mozaika va manzara janri bo'yicha, **V.Y.Kay-dalov** va **M.Nabiyev** portret janri bo'yicha muhim asarlar yaratdilar. Rassomlar, haykaltaroshlar va arxitektorlar birlashib yirik monumental binolarni, maydonlarni ta'mirlash, naqshlar, rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatishi an'anaga aylandi. Poytaxtning yirik jamoat binolari **M.Usmonov** rahbarligida ganch o'ymakorligi, **Q.Haydarov** va **O.Fayzul-layev** rahbarligida yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi.

O'zbekistonda qadimdan sirk san'ati rivojlanib kelmoqda. **1976-yili** Toshkentda zamonaviy sirk binosining foydalanishga topshirilishi sirk san'atining yanada rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratdi. O'zbek sirk ustalari **Toshkentboyevlar, Zaripovlar, Xo'jayevlar, Madaliyevlar** va masxaraboz-qiziqchi **Akrom Yusupov** va boshqalarning chiqishlari, dasturlari nafaqat O'zbekistonda, boshqa mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli namoyish qilindi va tomoshabinlarga manzur bo'ldi.



Shunday qilib, respublika madaniy-ma'naviy hayotida 1946 – 1990-yillarda muayyan yutuqlarga erishildi. Xalq maorifi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tarmog'i ancha rivojlandi, aholining umumiy savodxonlik darajasi o'sdi, mutaxassislar, ijodiy ziyolilar safi sezilarli darajada kengaydi. Fan, adabiyot, san'at rivojlandi. Ilmiy, badiiy va musiqa asarlari yaratildi, ma'naviy hayotda iste'dodli yoshlar o'rin oldi.

Sharof Rashidov – davlat va jamoat arbobi. Xalqimizning otashqalb farzandi **Sharof Rashidov** atoqli davlat va jamoat arbobi, iste'dodli adib sifatida Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan. Fashizmga qarshi Ikkinchi jahon urushida qatnashgan.

Rashidov yozuvchi sifatida xalq e'tiborini qozondi. **1949 – 1950-yillarda** O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi bo'lib ishladi.

O'zining «**Bo'rondan kuchli**», «**Qudratli to'liqin**», «**G'oliblar**» romanlari bilan yozuvchilar qatoridan munosib o'rin oldi.

**50-yillardan** Sh.Rashidov faoliyatida yanada mas'uliyatli davr boshlandi. U **1950-yili O'zbekiston Oliy Kengashi rayosatining** raisi etib saylandi.

Sh.Rashidov **1959-yildan** to umrining oxirigacha respublikaning birinchi rahbari sifatida O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Qo'mitasini boshqardi. U qariyb chorak asr davomida respublikaga yetakchilik qildi. Sh.Rashidov faoliyatiga nazar solarkanmiz, avvalambor, o'sha davrning o'ta murakkabligini, ziddiyatligini inobatga olish lozim bo'ladi.

Eng og'ir sharoitlarda ham Sh.Rashidov xalqiga farzandlik burchini ado etdi. Markazdan kelgan buyruqlarni yumshatishga, markaziy hokimiyatdan yurt obodonligi, farovonligi uchun butun choralar bilan foydalanishga intilardi. O'zbekistonda **60 – 80-yillarda** bunyod etilgan ko'plab sanoat korxonalari, yirik inshootlar Sh.Rashidov nomi bilan bog'liqdir. Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Yozyovon, Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishida uning xizmatlari katta. Kechagi cho'l-u biyobonlar bog'-rog'larga aylantirildi, yuz minglab yurtdoshlarimiz u yerlarda o'zlarining rizq-ro'zlarini topdilar.

Sh.Rashidov rahbarligi davrida O'zbekistonda **Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Yangiyer va Guliston** kabi yirik shaharlar, o'nlab boshqa shahar va tumanlar barpo etildi. Sh.Rashidovning davlat va jamoat arbobi sifatida o'zbek xalqini dunyoga tanitishdagi xizmatlari beqiyosdir. Jahonda «Toshkent ruhi» sifatida **1966-yili** vujudga kelgan mashhur tushuncha Sh.Rashidov nomi bilan bevosita bog'liqdir. Bu Toshkentda tuzilgan xalqaro harakatdir. Sh.Rashidov Osiyo va Afrika yozuvchilari hamkorligi harakatining, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari xalqaro kinofestivalining, Hindiston va Pokiston o'rtasida tinchlik sulhi

imzolanishining tashabbuskoridir. U o'zbek nomini ulug'lash uchun uning eng yuksak fazilatlarini namoyon qilishga jonini fido etgan insondir. Shu tufayli ham bu hurmatli inson xalqimiz yuragidan munosib joy olgan va uning mehriga sazovor bo'lgandi.

*Biroq Sh.Rashidov vafot etgach, uning xotirasi oyoqosti qilindi va «Sharof Rashidovchilik» atamasi o'ylab topildi.*

Haqiqat egilsa egiladiki, sinmaydi. O'zbekiston xalqi Sharof Rashidov o'zining munosib farzandi ekanini isbotlay oldi. Haqiqatning ro'yobga chiqishida xalqimizning yana bir sodiq va zabardast farzandi Islom Karimovning xizmatlari katta bo'ldi.

Prezidentimiz I.Karimovning mardligi, jasorati, g'ayrat-shijoati markazdagi siyosiy qimorbozlar bilan oramizdan chiqqan munofiqlar, mansabparastlar to'qib chiqargan nayranglardan ustunlik qildi. Xalqimizning otashqalb farzandi, yirik davlat va jamoat arbobi Sh.Rashidovning nomi oqlandi, shu bilan birga, o'zbek xalqining izzat-nafsi, milliy g'ururi ham himoya qilib qolindi.

#### **30.4. «QAYTA QURISH» SIYOSATI VA UNING BARBOD BO'LISHI. O'ZBEKISTONNING DAVLAT MUSTAQILLIGINI QO'LGA KIRITISH TOMON YO'L TUTISHI**

*«Qayta qurish» siyosati va uning oqibatlari.* KPSS Markaziy Qo'mitasining **1985-yil aprelida** bo'lgan plenumi noxush tendensiyalar yig'ilib, SSSR tanglik vaziyatiga tushib qolganini ilk bor e'tirof etdi. Mazkur plenum jamiyatni **«qayta qurish»** orqali iqtisodiyotni ko'tarish, xalqning turmushini yaxshilash siyosatini belgiladi. **1985 – 1986-yillarda** markazdagi rahbariyat tomonidan jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligi anglandi. Biroq ahvoning nihoyatda murakkabligi hali to'la idrok etilmagandi.

Markazdagi rahbarlar hamon sotsializm «afzallik»laridan foydalanib jamiyatni «qayta qurish»ga, sotsializmni yaxshilashga umid bog'lardi. Ammo ular mamlakatni sotsializmning o'zi, totalitar siyosiy, iqtisodiy tuzum inqirozga olib kelganini e'tirof etishni xohlamasdilar.

**1987-yildagi** mavjud siyosiy tuzumni va iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlikni saqlab qolgan holda xo'jalik mexanizmini isloh qilish yo'lidagi urinish ham samara bermadi. Iqtisodiy islohotlar tez orada qotib qolgan ijtimoiy-siyosiy sistemaga urilib barbod bo'ldi.

**80-yillar oxirlarida** siyosiy sistemani isloh qilishga, birinchi navbatda, KPSSning siyosiy va mafkuraviy hukmronligini cheklashga, davlat va xo'jalik organlarini kompartiya hukmronligidan chiqarishga, xalq depu-

tallari sovetining to'la hokimiyatini ta'minlashga urinish bo'ldi. Ammo bu sa'y-harakatlar ham behuda ketdi.

To'g'ri, jamiyatni demokratlashtirish, oshkoralik, turli xil fikrlar bildirishga imkon berish tomon ijobiy qadamlar qo'yildi. Matbuotda, radio va televideniya turli xil fikr-mulohazalar erkin aytiladigan bo'ldi.

«Qayta qurish» siyosati davrida iqtisodiyotda juda kuchli buzilishlar ro'y berdi. Markaz «qayta qurish»ning ilmiy va nazariy jihatdan puxta va aniq-ravshan dasturini ishlab chiqolmadi. Iqtisodiy siyosat puxta o'ylab ko'rilmagan sinov va eksperimentlarga asoslangandi. Mamlakat sinovlar va xatolar bilan siljib bordi. Mamlakat imkoniyatlarini hisobga olmasdan xalq xo'jaligining barcha sohalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishdan iborat noto'g'ri yo'l tutildi. *«Bu hol, – deb yozadi I.Karimov, – pirovard natijada cheklangan mablag'larining parokanda bo'lib ketishiga, moliya va ta'minot tizimining batamom izdan chiqishiga olib keldi, inqirozni chuqurlashtirdi».*

*O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti.* O'zbekistonliklar jamiyatni qayta qurish, islohotlar yo'lini katta umid bilan kutib oldilar. Jamiyatni yangilashdan najot kutayotgandilar. Biroq tez orada aholining hafsalasi pir bo'ldi. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot yanada murakkablashib bordi. Bu o'z xalqining or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan, siyosiy irodasi bo'sh kishilarning respublika rahbariyatiga kelib qolishi bilan bog'liq edi. Ularning o'zligi orqasida respublika partiya va davlat rahbarlik lavozimlariga markaz tomonidan ko'plab kadrlar yuborildi. **«Kadrlar to'dasi»** deb nom olgan **400 ga yaqin** kelgindilar O'zbekistonni o'z bilganlaricha boshqara boshladilar. O'zbekiston kompartiyasi va Respublika Ministrlar Kengashi amalda ular tomonidan boshqarildi. Birinchi lavozimda o'tirgan mahalliy kadrlar ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldilar.

O'zbekiston kompartiyasi MQda Moskva vakillari **Mogilnichenko, Bessarabov, Ponomaryov** uya qurib olgandi. O'sha yillarda tez-tez bo'lib turadigan plenumlar va yig'ilishlar O'zbekistonda doimiy ishlash uchun yuborilgan «kadrlar to'dasi»ning boshliqlari – **Anishev, Ogaryok, Satin** va ularning hamtovoqlari nazorati ostiga olingandi. O'zbekiston kompartiyasi MQning birinchi kotibi **I.Usmonxo'jayev** ham ular oldida o'z-u harakatsiz edi. O'zKP Markaziy Qo'mitasida «pinhona kabinet» tashkil topdi, ushbu «kabinet» kuch ishlatish, tuhmatlar uyushtirish yo'li bilan xodimlarni badnom qilish, respublikaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan avanturistik qarorlarni tiqishtirish bilan shug'ullandi. Qo'g'irchoqqa aylantirilgan mahalliy rahbarlar «kadrlar to'dasi» tomonidan tayyorlangan qarorlarga imzo chekishardi, xolos. Sovet rejimining ko'zbo'yamachilik,

«ulug'» millatchilik, shovinistik siyosati va uni amalga oshiruvchilar oldida bu qo'g'irchoq rahbarlarning oqizligi, itoatkorligi xalqqa qimmatga tushdi.

O'zbekistonda «**o'zbeklar ishi**», «**paxta ishi**» deb atalgan jinoyi ishlar to'qib chiqarildi. Moskvadan yuborilgan **Gdlyan** va **Ivanov** guruhi O'zbekistonning boshiga tushgan kulfat bo'ldi. Guruh a'zolari hech kim bilan hisoblashib o'tirmay odamlarni qamash bilan shug'ullandi. Oddiy dehqondan tortib O'zbekiston kompartiyasi MQ kotiblari va hukumat a'zolarigacha bo'lgan xodimlarni qamash uchun birovlardan zo'rlab yozdirib olingan bir parcha qog'ozning o'zi kifoya edi.

Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqimas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargandi.

O'zbekiston fuqarolari o'z haq-huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat qildilar. **1986 – 1987-yillarda** faqat O'zbekiston kompartiyasi MQga fuqarolardan **50 mingdan ortiq** xat va shikoyatlar tushdi. **20 mingdan ortiq** kishi Markazqo'm kotiblari va bo'lim boshliqlari qabulida bo'lib o'zlarining arz-dodlarini bildirdilar. Poytaxtga yetolmagan **100 minglab** fuqarolar mahalliy hokimiyat organlariga o'z haq-huquqlarining, qonuniy manfaatlarining buzilganidan shikoyat qilib koridorma-koridor, eshikma-eshik turtinib yurdilar.

Norozilik, ayniqsa, xotin-qizlar orasida ko'paydi. **1986 – 1987-yillarda** respublikada **270 nafar** ayol o'zini o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadr-qimmatining toptalishi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan so'nggi norozilik ifodasi edi.

Siyosiy va mafkuraviy zug'umlarga qaramay, ijtimoiy ong o'zgara boshladi. O'tmish va hozirgi zamon muammolari to'g'risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtayi nazarlar bildiriladigan bo'lib bordi. Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni sog'lomlashtirish kabi masalalarni ko'tara boshladi. Norasmiy guruhlar va tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Bularning norasmiy deyilishiga sabab, hali mamlakatda tashkilotlarni ro'yxatga olish va ularga qonuniy maqom berishga asos bo'ladigan qonun, huquqiy hujjatlar yo'q edi. Norasmiy harakat asta-sekin siyosiy tusga kira boshladi. **1989-yili** tashkil topgan «**Birlik**» xalq harakati respublikadagi dastlabki norasmiy harakat edi. Shuningdek, «**O'zbekiston erkin yoshlar ittifoqi**», xotin-qizlarning «**To'maris**» nomli tashkiloti, rusiyzabon ziyolilarning «**Intersoyuz**» deb atalgan harakati tuzildi. Bu

harakatlar dastlabki paytlarda xalqning ma'naviy qadriyatlarini tiklash, Orol fojiasining oldini olish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan voz kechish kabi dolzarb masalalarni ko'tardilar. Biroq bu harakatlar g'oyaviy, siyosiy, tashkiliy jihatdan yetarli darajada uyusha olmadi. «Birlik» xalq harakati rahbarlari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqadigan dasturlar ishlab chiqish va aniq maqsadlarni amalga oshirish yo'lida siyosiy kurash olib borish o'rniga namoyishlar va mitinglar uyushtirish, ko'cha va maydonlarda to'plangan olomonda ehtirolarni avj oldirish bilan shug'ullandi. Oqibatda «Birlik» bo'linib ketdi.

**1990-yil boshlarida** «Birlik» harakati faollarining **Muhammad Solih** boshliq bir guruhi siyosiy partiya tuzishga kirishdilar. **1990-yil 30-aprelda** «Erk» demokratik partiyasining ta'sis qurultoyi bo'ldi. Qurultoy «Erk» partiyasi tuzilgani haqida qaror qabul qildi, partiyaning dasturi va nizomi qabul qilindi.

Biroq «Erk» partiyasi rahbarlari jamiyatni yangilash uchun bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish zaruriyatini, qanday islohotlar o'tkazish kerakligini va uning mazmun-mohiyatini, odamlar ongi va psixologiyasini o'zgartirish lozimligini, buning uchun mashaqqatli o'tish davrini bosib o'tish lozimligini anglab, tushunib yetolmadilar.

Respublika matbuoti xalq turmushiga doir masalalarni, noxush hodisalarni, xalq dardi, orzu-armonlarini oshkoralik bilan yoritib boshladi, xalqning o'zligini anglashga ko'maklashdi.

Iqtisodiyot tobora tanglik holatiga tushib bordi. **1985-yili** iqtisodiy rivojlanishning negizi sifatida qabul qilingan jadallashtirish konsepsiyasi asossiz ekani ma'lum bo'lib qoldi. Respublikada sanoat korxonalarini, qurilish va transport sohaslarini, ko'pgina kolxoz va sovxozlarni xo'jalik hisobiga yoki brigada (jamo) pudratiga o'tkazish hech qanday samara bermadi. **1987-yili** iqtisodiy tuzilmalarni qayta qurish, xo'jalikni boshqarish va xo'jalik mexanizmini isloh qilish, ma'muriy rahbarlikdan iqtisodiy rahbarlikka o'tish yuzasidan ko'rilgan tadbirlar ham natija bermadi. Ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan ishlayotgan vazirliklar va idoralar iqtisodiy islohotlarni yo'qqa chiqardi, iqtisodiyot taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib qolaverdi. Respublikaning tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoatiga qarashli korxonalar Ittifoq vazirliklari va idoralariga tobe bo'lib qolaverdi. Ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarni avvalgidek markaz belgilab berardi.

Aholining ijtimoiy ahvoli nochor edi. O'sha yillarda, mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, kun kechirish uchun bir kishiga oyida kamida **85**

**so'm** zarur edi. O'zbekistonda aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi **75 so'm**dan oshmaydigan **8,8 million** kishi yashardi, bular aholining **45 foizini** tashkil etardi. Qishloq aholisining atigi **50 foizi** normal ichimlik suvi bilan ta'minlangandi.

Qishloqlarda yashovchi **240 ming** oilaning tomorqa yeri yo'q, har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, **37 foiz** xonadonlarda sigir, yarmisida qo'y boqilmasdi.

Maktab va maorif ishlarini isloh qilish va o'rta maxsus ta'limni qayta qurish borasidagi sa'y-harakatlar ham behuda ketdi. Respublikadagi **9000 ga yaqin** maktablarning atigi **40 foizi** maktab uchun mo'ljallab qurilgan binolarda, qolganlari esa moslashtirilgan binolarda ishlardi, ko'plari avariya holatida edi, o'quvchilarning katta qismi ikkinchi yoki uchinchi smenada o'qirdi. O'quvchilarning yiliga **2 – 3 oylab** qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi o'quv ishlarini izdan chiqargandi. O'quvchilar bilimi sayozlashib bordi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham mutaxassislar tayyorlash sifati pasayib ketgandi.

Oliy o'quv yurtlari yuqori malakali professor-o'qituvchilar bilan, zamonaviy texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmagandi. Kadrlar tayyorlashda son ketidan quvishga yo'l qo'yildi.

**1989-yilning may – iyun oylarida Farg'onada** fojiali voqealar sodir bo'ldi. 45 yil muqaddam Stalin bedodligi natijasida o'z yeridan badarg'a qilingan mesxeti turklarini o'zbek xalqi o'z bag'riga olgan, ularga mehribonlik qilgandi. Tub yerli aholi bilan mesxeti turklari qardoshlik aloqalarini bog'lab, o'n yillar davomida inoqlashib yashadilar. Biroq **1989-yil 20-mayda Quvasoyda** tub yerli aholi bilan mesxeti turklari guruhleri o'rtasida mushtlashish sodir bo'ldi. Respublika siyosiy rahbariyatining voqeani to'g'ri baholay olmagan va tezkorlik bilan zarur choralar ko'rmagan oqibatida vaziyat murakkablashdi va etnik mojaroga aylanib, qon to'kilishiga olib keldi. **3-iyun** kuni kechqurun **Toshloq** posyolkasida, so'ng **Marg'ilon** shahrining mesxeti turklari zich yashaydigan qasabasi-da ur-yiqit, uylarga o't qo'yish, qotillik, tahqirlash, talonchilik, vahshiylik sodir bo'ldi. Keyingi kunlarda beboshlik harakatlari **Farg'ona** shahri, uning atrofidagi qishloqlarga tarqaldi. Olomon tomonidan sanoat korxonalariga, temir yo'l stansiyasiga, aloqa uzeligiga, millitsiya binosiga hujum qilindi. Boshboshdoqlik partiya va sovetlarga qarshi tus olib bordi. Ana shunday favqulodda vaziyatda respublikada hukumat komissiyasi tuzildi. **4-iyundan** boshlab komendantlik soati joriy etildi. Farg'onaga shoshilinch ravishda SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarining **13 ming kishilik** bo'linmasi keltirildi. Ur-yiqit **7-iyun** kuni yana takrorlandi va tez orada

**Qo'qon** shahriga, **Rishton**, **O'zbekiston** tumanlariga tarqaldi. **8-iyunda** Qo'qonda aholining tinch namoyishi SSSR Ichki ishlar vazirligi qo'shinlari tomonidan o'qqa tutildi, **50 dan ortiq** kishi halok bo'ldi, **200 dan ortig'i** yarador qilindi. Ommaviy tus olgan tartibsizlik, ur-yiqitlar natijasida jami **103 kishi** halok bo'ldi. **1011 kishi** jarohatlandi va mayib bo'ldi. SSSR Ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarining **137 harbiy xizmatchisi**, **110 millitsiya xodimi** yarador bo'ldi, millitsiya xodimlaridan biri vafot etdi. **757 uy**, **27 davlat binosi**, **275 avtotransport vositasi** yondirildi va talon-toroj qilindi.

Voqealarning keng miqyosda fojiali tus olgani sababli sovet va ma'muriy organlar mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning **Leninobod viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga** shoshilinch ko'chirishni tashkil etdilar, ular qurolli askarlar tomonidan qo'riqlandi, oziq-ovqat bilan ta'minlandi va tibbiy xizmat yo'lga qo'yildi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmasdi. Shuning uchun **16 282 kishi** Farg'ona viloyatidan Rossiyaning **Smolensk**, **Orlovsk**, **Kursk**, **Belgorod** va **Voronej** viloyatlariga ko'chirib borib joylashtirildi.

O'zbekiston kompartiyasi MQning **1989-yil 23-iyunda** bo'lgan **XIV plenumida** Farg'ona fojiasi bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya axboroti O'zbekiston kompartiyasi MQning **1989-yil 29-iyulda** bo'lgan **XV plenumi** tomonidan ma'qullandi. Farg'ona viloyati, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarining, huquqni himoya qilish organlarining tashkilotchilik, siyosiy ishidagi jiddiy xatolar fojiali voqealarga sabab bo'ldi. Ular viloyatdagi keskin ijtimoiy, siyosiy vaziyatning kuchayish xavfini yetarli baholamadilar, millatlararo adovatni keltirib chiqarishga uringan ekstremistlarga, poraga sotilganlarga o'z vaqtida zarba bermadilar. Farg'ona viloyatida o'n yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik ortib bordi. Xo'jalik strukturasi izdan chiqqan, tarmoqlar xomashyo yetishtirish, yarim fabrikatlar ishlab chiqarishga moslashib qolgandi, ishsizlar soni tobora oshib borar, odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash tadbirlari ko'rilmadi. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish ishlari buzilgan, poraxo'rlik, xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish avj olgandi. Ana shunday keskinlikdan respublikada ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishdan manfaatdor siyosiy kuchlar, ekstremistlar foydalandilar. Ular allaqachon ishlab chiqilgan, puxta tayyorgarlik ko'rgan reja asosida ig'vogarona harakat qildilar, olomonga oldindan tayyorlangan varaqalar tarqatdilar. Farg'onada sodir bo'lgan siyosiy ig'vogarlik **Tbilisi**, **Tog'li Qorabog'**, **Bokuda** tashkil etilgan

ig'vogarliklardan biri edi. Keyinchalik **Bo'ka, Parkent, O'sh, Andijonda** ham shunday urinishlar bo'ldi. Yovuz kuchlar bostirildi, ig'vogarlar o'z maqsadiga erisholmadilar. O'zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi. **1989-yil 23-iyun** kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston kompartiyasi MQning **XIV plenumida Islom Abdug'aniyevich Karimov** O'zbekiston kompartiyasi MQning birinchi kotibi etib saylandi. I.A.Karimov boshliq O'zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi kuchayib borayotganiga e'tibor qaratildi. Xalqning shon-shuhrati, qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka erishish tomon yo'l tutildi. Farg'ona, Bo'ka, Parkent voqealari oshkora muhokama qilindi va ularning asl sabablari ochib tashlandi. Bu voqealar o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmagani, xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida harakat qilmagani qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan misollar bilan isbotlab berildi.

Respublikada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash masalalarida milliy manfaatlar ustuvorligi ta'minlandi. Markazdan yuborilgan «kadrlar to'dasi» o'z mavqeyini yo'qotdi. **Anishchev, Ogaryok, Satin** va boshqa «kazo-kazolar» respublikadan chiqarib yuborildi. Mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimlariga ko'tarildi.

Kadrlar siyosatidagi jiddiy ijobiy o'zgarish shundan iborat bo'ldiki, endi O'zbekistonda partiya, sovet, davlat, huquqni himoya qilish organlarining boshliqlarini Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilagan xodimlarni ko'tarish amaliyotiga chek qo'yildi, bu masalalarni hal qilishni respublika rahbariyati o'z qo'lga oldi.

Bu vaziyatni teran anglagan rahbarning jasorati bo'lib, juda katta siyosiy ahamiyatga ega edi, ya'ni siyosiy mutellikdan qutulish tomon tashlangan qadam bo'ldi.

O'zbekistonda adolatni tiklash chora-tadbirlari ko'rildi, to'qib chiqarilgan «o'zbek ishi», «paxta ishi»ning tamomila sharmandasi chiqdi. Bu bilan bog'liq ishlar qayta ko'rildi, aybsiz qamalagan o'n minglab kishilar oqlandi, o'z oilasiga qaytarildi, adolat tiklandi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashining **1989-yil 21-oktyabrda** bo'lgan **XI sessiyasida «O'zbekiston SSRning davlat tili haqida» Qonun** qabul qilindi. Qonunda O'zbekistonning davlat tili o'zbek tilidir, o'zbek tili respublika siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladi deb belgilab qo'yildi.

**1990-yil 19-fevralda «O'zbekiston SSRning davlat tili haqida»gi**



**Qonunini amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi.** Qonun va davlat dasturiga binoan, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, korxonalar va davlat muassasalarida ish yuritish rus tilidan o'zbek tiliga o'tkazila boshlandi. Bu qonunning qabul qilinishi va uning amalga oshirila boshlashi respublika ijtimoiy hayotida katta tarixiy voqea bo'lib, mustaqillik sari tashlangan muhim qadam bo'ldi.

Respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini xolisona tahlil etish, baholash va ko'tarishga qaratilgan dastlabki sa'y-harakatlar qilindi. Qishloq aholisining shaxsiy tomorqalari uchun yer ajratildi. Yerga muhtoj bo'lgan **381 ming oilaga** tomorqa yerlari berildi, **372 ming oila** o'z tomorqasini kengaytirib oldi. Shu maqsadlar uchun jami **150 ming gektar** yer ajratildi. Respublikada «**ish bilan ta'minlash**» dasturi ishlab chiqildi. Ana shu dasturga binoan, **1990-yili 300 ming kishi**, asosan, yoshlar ism bilan ta'minlandi. Aholining kam daromadli qismini moddiy jihatdan himoyalash uchun **1990-yili byudjet va korxonalar hisobidan 142 mln so'm** mablag' ajratildi.

**1990-yil 18-fevralda** O'zbekiston Oliy Kengashiga saylov bo'ldi. Bu saylovlarning yangiligi shundan iborat ediki, **500 saylov** okrugining **326** tasida muqobil nomzodlar ko'rsatildi, deputatlik mandatiga bir necha nomzodlar da'vogarlik qildi. Oldingi saylovlarda barcha nomzodlar birinchi turdayoq deyarli 100 foiz ovoz bilan saylangan bo'lsalar, bu safar birinchi turda **368 nomzod** zarur ovozlarni to'play oldi. Qolgan **132 okrugda** qayta saylovlar bo'lib o'tdi.

**1990-yil 24 – 31-mart** kunlari Toshkentda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining **I sessiyasi** bo'lib o'tdi. **24-mart** kuni sessiya, Moskvaning tazyiqiga qaramay, respublikalar orasida birinchi bo'lib «**O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida**» Qonun qabul qildi. **1990-yil 24-mart** kuni Oliy Kengashda yashirin ovoz berish yo'li bilan **Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Prezidenti** etib saylandi.

Ana shu sessiyada I.Karimov nutq so'zlab, O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishni ta'minlashni o'zimning asosiy vazifam deb bilaman deb ta'kidladi. Hali SSSR va markaziy hokimiyat mavjud bo'lgan sharoitda O'zbekistonda o'z Prezidentining saylanishi muhim voqea, mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo'ldi.

Respublika Oliy Kengashining **II sessiyasi 1990-yil 20-iyun** kuni **O'zbekiston SSR Mustaqilligi to'g'risida Deklaratsiya** qabul qildi.

Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat suverenitetini e'lon qildi.

**Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 maddadan** iborat bo'lib, quyidagilar bayon etilgan: O'zbekiston SSR davlat suvereniteti O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir. O'zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas. SSSR Oliy Kengashi qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga kiradi.

O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi va hokazo.

O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya muhim tarixiy hujjat bo'lib, mamlakatimizning o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida yana bir muhim yangi qadam bo'ldi.

O'zbekiston siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritishga tomon tutilgan yo'l iqtisodiy mustaqillik masalasi bilan qo'shib olib borildi. *«Prezident boshqaruvining muhim vazifalaridan biri, – deb ta'kidlagandi f. Karimov, – respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilish va o'zini o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishni hal qilishdir».*

O'zbekiston rahbariyati xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yo'lini mustaqil belgilashga kirishdi. **«O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasi»** ishlab chiqildi. Konsepsiyada O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari belgilab berildi. Mazkur masala yuzasidan hukumat dasturi **1990-yil oktyabrida** O'zbekiston Oliy Kengashining **IV sessiyasida** muhokama qilindi va ma'qullandi. Sessiya respublika hukumatiga «O'zbekiston SSR mulkiga egalik qilish, uni tasarruf etish, taqsimlash va undan foydalanish masalalari yuzasidan respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali amal qiluvchi mexanizmini yaratish» bo'yicha asoslangan takliflar tayyorlashni topshirdi.

Shunday qilib, 80-yillar oxiri va 90-yillar boshida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan muhim voqealar davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon dadillik bilan amaliy qadamlar tashlanganini yaqqol ko'rsatadi.

## 31-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHKIL TOPISHI

### 31.1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING E'LON QILINISHI

Mustaqillik Deklaratsiyasi. 1990-yil 18-iyun kuni o'n ikkinchi chaqiriq respublika Oliy Kengashining II sessiyasi ochildi. O'zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qilish masalasi kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan **Mustaqillik Deklaratsiyasi** matni sessiyada qizg'in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi. Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, ularda quyidagi muhim tartib-qoidalar belgilab qo'yildi: xalqimizning xohish-irodasiga to'la mos keladigan quyidagi muhim tartib-qoidalar belgilab qo'yildi:

«O'zbekiston SSR Oliy Kengashi:

- o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari;
- har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi;
- har bir kishining farovon bayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda;
- O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda;
- xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti; O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida, barcha tarkibiy qismlarda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligi; O'zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas; SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga ega bo'ladi; O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi; O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi, hurmat qiladi va hokazo.

*O'zbekistonning Ittifoq shartnomasini yangilashga munosabati.* Sobiq Ittifoqqa kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsa-da, amalda qaram edilar. **80-yillar oxirlari – 90-yillar boshlarida** ko'pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o'zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar. O'zbekiston Respublikasining rahbari **I.A.Karimov 1989-yil 20-sentyabrda Moskvada** bo'lib o'tgan KPSS MQning plenumida so'zlagan nutqida respublikalar bilan Ittifoq o'rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo'yishni ko'zda tutadigan yangi shartnoma ishlab chiqish zarurligi to'g'risida o'z fikrini bildirdi.

Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoatchiligining ta'siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi. **1990-yil bahorida** Boltiqbo'yidagi **Latviya, Litva, Estoniya**, keyinroq **Gruziya** va **Ozərbayjon** Ittifoq tarkibidan chiqqanini e'lon qildilar. Ittifoq bo'yicha o'z milliy davlat tuzilmalaridan tashqarida **60 mln dan ortiq** aholi milliy-etnik muammolar, mojarolarga duchor bo'ldi. **Rossiya, Ukraina, Belarus** parlamentlari davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya qabul qildilar. Ittifoqdosh respublikalar ortidan RSFSRga kiruvchi muxtor respublikalar ham suverenitet haqida deklaratsiyalar qabul qilishdi. Markazda va joylarda SSSR Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi yoki respublika Konstitutsiyasi va qonunlari degan masalada bahs va munozaralar kuchaydi. Markazdagilar «**Kuchli markaz – kuchli respublikalar**» desa, joylardagilar «**Kuchli respublikalar – kuchli markaz**» derdi.

Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. SSSR Oliy Soveti mazkur masala bilan shug'ullanuvchi **maxsus delegatsiya** tuzdi va uning tarkibini tasdiqladi. **1990-yil iyulda** Moskvada markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnoma matnini tayyorlashga kirishdilar. **1990-yil avgust** oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi. **1991-yil fevral – mart** oylarida Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida ishlashning ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Boltiqbo'yi respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozərbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi. Bu bosqichda Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo'yishga harakat qilindi. Nihoyat, Ittifoq va respublikalar vakolatlari belgilab qo'yilgan yangi shartnoma loyihasi matbuotda e'lon qilindi. Respublikalar, jumladan, O'zbekiston bu hujjatdan qanoatlanmaganini bildirdi. SSSR Oliy Soveti **1991-yil 17-mart** kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi. **1991-yil 20-fevralda** O'zbekiston Oliy Kengashining rayosati ham referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan

birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi. Qo'shimcha byulletenga: «Siz O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?» – degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning **93 foizi** bu savolga «Ha» deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatining mustaqil davlat sifatida Federativ Ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlani-shini yoqlab ovoz bergandilar.

O'zbekiston rahbariyati referendum natijalariga asoslanib respublikalarga to'la mustaqillik berishni ko'zlamaydigan shartnoma loyihasini rad etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining **1991-yil 12-martda** bo'lgan **IV plenumida** so'zlagan nutqida: «Ittifoq shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo'ldan boy berib qo'yildi. Ikki yil muqaddam bu masalani ko'targan kishilarning ovoziga hech kim quloq solmadi. Markaz 1922-yildagi shartnomaga mahkam yopishib olib, oqilona takliflarni qabul etmadi, ishni pay-salga soldi», – degandi. Bu fikrning to'g'riligini hayot to'la isbotladi.

**1991-yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalari** rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni **Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari** ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo'ldi. **1991-yil aprelda Novo-Ogaryovada** SSSR Prezidenti **M.S.Gorbachovning 9 respublika** rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan «Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida qo'shma Bayonot» imzolandi. Bu hujjat «**9+1**» (9 respublika + markaz) degan nomni oldi.

**1991-yil 3-iyunda Novo-Ogaryovada** SSSR Oliy Soveti vakillari bilan respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. «**Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma**» loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha respublikalar Oliy Kengashlariga muhokama uchun jo'natildi. Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Oliy Kengashida **1991-yil 14-iyunda** muhokama qilindi. Kengash federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzish tarafdori ekanini bildirdi. Shu bilan birga, respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.

**1991-yil iyul oyi oxirlarida Novo-Ogaryovada** yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun markaz vakillari bilan respublika

rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, respublika rahbarlarini ham qanoatlantiradigan «**Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risidagi shartnoma**» loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lgani holda, «Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risidagi shartnoma»ni imzolash **1991-yil 20-avgust** kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M.S.Gorbachov **Foros** (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi.

**1991-yil avgust.** Moskvada markaziy hokimiyatni saqlab qolishga, respublikalar jilovini o'z qo'lida ushlab qolishga urinuvchilar tomonidan fitna tayyorlandi. Fitnachilar **1991-yil 18-avgust** kuni tayyorlangan va **19-avgust**da matbuotda e'lon qilingan «**Sovet rahbariyatining Bayonoti**»da M.S.Gorbachovning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse-prezident **G.I.Yanayev**ga o'tkazilgani e'lon qilindi. Aslida, Prezident sog'-salomat edi, ammo o'zini himoya qilolmadi. Fitnachilar uni mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, **72 soat** qamal qilib qo'ygandi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun quyidagi tarkibda SSSRda Favqulodda holat davlat qo'mitasi (FHDQ) tuzildi: **O.D.Baklanov** – SSSR Mudofaa kengashi raisining birinchi o'rinbosari, **V.A.Kryuchkov** – SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasi raisi, **V.S.Pavlov** – SSSR Bosh vaziri, **B.K.Pugo** – ichki ishlar vaziri, **V.A.Starodubsev** – SSSR dehqonlar uyushmasi raisi, **I.Tizyakov** – SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasi prezidenti, **D.I.Yazov** – SSSR mudofaa vaziri, **G.I.Yanayev** – SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi. Shu tariqa fitnachilar M.S.Gorbachovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan cheflashtirib, o'zlari hokimiyatni egallab oldilar.

Mazkur qo'mita sovet rahbariyatining Bayonoti, sovet xalqiga murojaatnoma, davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi. Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar.

Qaltis vaziyatda **1991-yil 19-avgust**da O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov **Hindistonga** qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.

**1991-yil 20-avgust** kuni Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining

Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib **Bayonot** qabul qildi. Bayonotda O'zbekiston Respublikasi tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston davlat mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi deb ko'rsatildi.

**1991-yil 21-avgust**da O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga va Vazirlar Mahkamasini qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak deb belgilab qo'ydi. Farmonda SSSRda favqulodda holat davlat qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas deb belgilab qo'yildi. Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida **1991-yil 19 – 21-avgust** kunlari **Moskvada** fojiali voqealar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyushtiruvchilar qamoqqa olindi. M.S.Gorbachov prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushdi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi.

I.A.Karimov bundan keyin KPSS MQ siyosiy byurosi tarkibida qololmasligi to'g'risida bayonot berdi. Mazkur bayonotni O'zbekiston kompartiyasi MQ byurosi va Markaziy nazorat komissiyasi rayosati ma'qulladi. **1991-yil 25-avgust**da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan, Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi.

Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuratura va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash

Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi.

Respublika Oliy Kengashi rayosati **1991-yil 26-avgust** kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida farmoyish chiqardi. **1991-yil 28-avgust**da O'zbekiston Oliy Kengashi rayosati «*Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasini 1991-yil 31-avgust kuni chaqirish haqida*» qaror qabul qildi va sessiyada O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo'yildi. **1991-yil 28-avgust** kuni O'zbekiston kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda Prezident I.A.Karimovning mamlakatda **19 – 21-avgust** kunlari sodir bo'lgan voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika kompartiyasini KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

*O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi.* **1991-yil 31-avgust** kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi bo'lib o'tdi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi. Sessiyada «**O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti**» qabul qilindi. Oliy Kengash sessiyasi «**O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida**» qaror qabul qilib, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonotini tasdiqladi va respublikani bundan keyin O'zbekiston Respublikasi deb atashni belgilab qo'ydi.

*O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib,*

– *xalqaro huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib,*

– *O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab,*

– *shaxsning huquq va erkinliklari, mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatini bayon etib,*

– *millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechi-*



*rishini, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib,*

*– Mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.*

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonotidan.

*«O'zbekiston Respublikasi, – deb ta'kidlanadi Bayonotda, – to'la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo'ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o'zini ochiq deb e'lon qiladi».*

Oliy Kengash sessiyasi **«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida»** qaror qabul qilib, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonotini tasdiqladi va respublikani bundan keyin **O'zbekiston Respublikasi** deb atashni belgilab qo'ydi.

*1-sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991-yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroridan

Oliy Kengash **«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun** qabul qildi. Bu qonun **17 moddadan** iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunning birinchi moddasida: *«O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil, demokratik davlatdir»,* – deb qonuniylashtirib qo'yildi. Qonunda O'zbekiston Respublikasining xalqi suverenligi va respublikada davlat hokimiyatining birdan bir sohibi ekani, O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga egaligi, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilashi, davlat chegarasi, hududi daxtsiz va bo'linmasligi, yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi ekani belgilab qo'yildi. Oliy Kengashning **VII sessiyasi 1991-yil 30-sentyabr kuni** «O'zbekiston

Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunga konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qildi.

***Mustaqillik to'g'risida referendum.*** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **1991-yil noyabrda bo'lgan VIII sessiyasi** davlat mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazish haqidagi masalani ko'rib chiqdi. Oliy Kengash sessiyasi **1991-yil 18-noyabr kuni «O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida»** qaror qabul qildi. Qarorda **1991-yil 29-dekabr**, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha referendum o'tkazish belgilandi. Referendumga puxta tayyorgarlik ko'rildi. **Markaziy saylov komissiyasi, 13 saylov okrugi, 7 ming uchastka saylov komissiyasi** tuzildi. **1991-yil 29-dekabr** kuni bo'lib o'tgan referendumda **9 898 707 kishi** yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning **94,1 foizi** qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning **98,2 foizi** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma'qullaymiz deb ovoz berdi.

*Markaziy saylov komissiyasi «O'zbekiston Respublikasi referendumini to'g'risida»gi Qonunning 26-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan ma'qullandi deb topdi.*

Markaziy saylov komissiyasi bayonnomasidan

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi ro'yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy qaramlikdan, asoratdan qutuldi. Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi o'zbek xalqining hayotida muhim tarixiy voqea bo'ldi. Mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zlari uchun munosib turmush yaratish erkinligini berdi.

Tarixdan bizga ma'lumki, qadim zamonlardan boshlab u yoki bu mintaqalarda yirik imperiyalar vujudga kelib, ko'plab xalqlarni o'z manfaatlariga bo'ysundirgan, asoratga solgan. Biroq ularning barchasi mazlum xalqlarning ozodlik, mustaqillik uchun kurashlari natijasida parchalanib ketgan.

Bu tarixiy jarayon **XX asrda** ham takrorlandi. Mazlum xalqlarning milliy-ozodlik harakati natijasida jahon mustamlakachilik tizimi barbod bo'ldi, imperiyalar quladi. Dunyodagi yirik imperiyalardan biri bo'lmish **SSSRning** parchalanishi ham ana shu tarixiy-qonuniy jarayonning natijasi edi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining qo'lga kiritil-

ishi ham qonuniy-tarixiy jarayon bo'lib, xalqimizning uzoq yillar davomidagi milliy istiqloq uchun olib borgan qahramonona kurashi natijasidir.

**1991-yil 31-avgustdan** e'tiboran Vatanimiz tarixida yangi davr – **milliy istiqloq davri** boshlandi. O'zbekiston xalqi o'z taqdirini o'z qo'lga oldi, siyosiy, ma'naviy mutelikdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli, suveren davlat – **O'zbekiston Respublikasi** paydo bo'ldi.

O'zbekiston xalqi va rahbariyatining donishmandligi, sabotiligi va qat'iyatligi, uzoqni ko'ra bilishi natijasida uning davlat mustaqilligi tinch, demokratik, parlament yo'li bilan, ijtimoiy larzalarsiz, qurbonlar va vayronagarchiliksiz amalga oshdi.

Mustaqil O'zbekiston dunyoga, jahonga yuz tutdi, qariyb yuz yildan ortiq vaqt davomida yopib qo'yilgan chegaralari ochildi. Jahon hamjamiyati O'zbekistonni quchoq ochib qabul qildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasini suveren davlat sifatida **Turkiya, AQSh, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Hindiston, Xitoy** singari yirik davlatlar tan oldilar.

*Qadri janob Prezident, mamlakatingizda yuz bergan tarixiy o'zgarishlarni va sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarini birlashtirib turgan Ittifoq-ning tugaganligini hisobga olib Qo'shma Shtatlar hukumati O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida taniganligini Sizga xabar qilishdan mamnunman.*

AQSH Prezidenti Jorj Bushning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovga yo'llagan shaxsiy maktubidan

### **31.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA DAVLAT RAMZLARINING QABUL QILINISHI**

*O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – mustaqil davlatning asosiy qonuni.* «Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilingan O'zbekiston Oliy Kengashining **1990-yil 20-iyunda** bo'lgan II sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim degan xulosaga kelingandi. Sessiya O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligida **64 kishidan** iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qildi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklari rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Kons-

titutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida qariyb **2,5 yil** ishladi. Konstitutsiyaviy komissiya-ning **1991-yil 12-aprelda** bo'lgan yig'ilishida komissiya a'zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat **32 kishilik** ishchi guruhi tuzdi. Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash bo'yicha **50 kishidan** iborat **6 ta** kichik guruhlar tuzildi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va «O'zbekiston Respublikasining davlat asoslari to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, bu qonunga konstitutsiyaviy maqom berilishi komissiya mas'uliyatini yanada kuchaytirdi.

**1996-yil 26-sentyabrda** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama **2 oycha** davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha **1992-yil 26-noyabrda** matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida **6 mingdan ortiq** taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Prezident Islom Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

Oliy Kengashning **1992-yil dekabrda** bo'lgan **XI sessiyasi** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama etdi. «*Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, – degandi Prezidentimiz sessiyada so'zlagan nutqida, – yangi Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan qoidalariga amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlari: Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribasidan ijodiy foydalanildi.*

Sessiyada deputatlar loyihaga **80 ga yaqin** o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, **1992-yil 8-dekabr** kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

*Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilinsin.*

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risidagi qarordan

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi **6 bo'lim, 128 moddan** iborat. U **«Mustaqillik deklaratsiyasi», «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda** mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi, ularni rivojlantirdi.

O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni, pasporti hisoblanuvchi Konstitutsiya sobiq Ittifoq davridagi barcha Konstitutsiyalardan tubdan farq qiladi. Birinchidan, yangi qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo'lib, barcha moddalari haqiqiy mustaqillik g'oyalari bilan sug'orilgan. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlay olmaydigan, respublika-ni «suveren»ligi haqida quruq so'zlar yozilgan, huquqiy qoidalari qog'ozda qolib ketadigan, rasmiy bir hujjat edi.

Ikkinchidan, yangi Konstitutsiya ijodkor xalqimizning xohish-irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahonda to'plangan eng ilg'or konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatчилиgimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi Konstitutsiyalar esa markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq Konstitutsiyasi nusxalaridan ko'chirib olinardi. Shu boisdan yangi asosiy qonunimiz mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish jarayoni-da uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarini bilib olishga ahamiyat berish zarur. Konstitutsiyaning birinchi tamoyili – **davlat suvereniteti. 1 – 6-moddalarda** O'zbekiston – suveren demokratik respublika, davlat xalq manfaatlariga xizmat qiladi, mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritadi, o'zbek tili davlat tilidir deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyada davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noli anglatishi ta'kidlangan.

Ikkinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **xalq hokimiyatchiligi. 7 – 14-moddalarda** xalq davlat hokimiyatining birlan bir manbayidir, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar uning fuqarolari tashkil etadi, davlat o'z faoliyatni inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshiradi deb ko'rsatilgan.

Uchinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishi**. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi. Uch hokimiyatdan har biri faoliyatda mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadi. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyat **Oliy Majlis**, ijro etuvchi hokimiyat **Vazirlar Mahkamasidir**. Sud hokimi-

yati **Konstitutsiyaviy sud, O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar sudlari va xo'jalik sudlaridan** iborat. Konstitutsiyaning **76 – 88-moddalarida** Oliy Majlisning tuzilishi, vakolatlari, qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish qoidalari belgilab berilgan. **88 – 98-moddalarda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekani, uning vakolatlari va vazifalari, Vazirlar Mahkamasining faoliyat yuritish qoidalari qonunlashtirilgan.

To'rtinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **demokratiyaga sodiqlik**. Konstitutsiyada demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat e'lon qilinadi hamda insonparvar demokratik-huquqiy davlat barpo etish nazarda tutiladi. Konstitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umume'tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan. O'zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi, or-nomusi, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekani belgilab qo'yilgan.

Beshinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi**. Konstitutsiyaning **15-moddasida**: *«O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar»*, – deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning **16-moddasida** birorta ham qonun yoki normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalarga zid kelishi mumkinmasligi qayd etilgan.

Oltinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **xalqaro andazalar darajasida ifodalangan fuqarolar huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarining tengligi va daxlsizligi**. O'zbekiston fuqarolarining huquqlari muhim xalqaro hujjatlar – *«Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»*, *«Iqtisodiy, sotsial va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt»*, *«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt»* va boshqalar asosida bayon etilgan. Konstitutsiyaning **18 – 52-moddalari** inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. O'zbekiston davlati tomonidan fuqarolarning huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olingan va ular himoya qilinadi. Konstitutsiya bo'yicha har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilishi kafolatlanadi. Konstitutsiyaning **21-moddasiga** binoan, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat'i nazar barcha fuqarolari O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Yettinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **qonuniylik**. Qonuniylik jamiyatning bir maromda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot bo'ladi.

Sakkizinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy qoidalari aniq belgilab qo'yilgani**. Konstitutsiyaning **17-moddasida**: «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxtsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslana-di», – deb belgilab qo'yilgan.

To'qqizinchi konstitutsiyaviy tamoyil – **mahalliy o'zini o'zi boshqarish**. O'zbekistonda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayan-gan holda mahalliy hokimiyat boshlig'i bo'lgan **hokim** instituti joriy etildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimiyatning vakillik organlari xalq deputatlari kengashlari bo'lib, ularga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladilar. Konstitutsiyaning **99 – 104-moddalarida** mahalliy davlat hokimiyati asoslari, hokimlarni tayinlash va tasdiqlash tartiblari, ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati qurishning muhim omili bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organ-larini tuzish tartiblari belgilangan. **105-moddada**: «Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi», – deb belgilab qo'yilgan.

O'ninchi konstitutsiyaviy tamoyil – **odil sudlov, sudyalarning mustaqilligi va daxtsizligi**. Sudya faqat qonunga bo'ysunadi. Konstitutsiyaning **106 – 116-moddalarida** O'zbekistonda sud tizimi va ularning vazifalari belgilab berilgan. Konstitutsiyada sudya deputatlikka saylanolmasligi, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lolmasligi qonuniylashtirilgan. Sud majlisi ochiq va oshkora olib boriladi, sud ishlari davlat tilida yuritiladi va zarur holda boshqa tilda yuritilishi ham mumkin.

**Asosiy Qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar. 2003-yil 24 – 25-aprel** kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **XI sessiyasida** «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun loyihasi muhokama etildi va qabul qilindi. Bu jamiyatni yanada

erkinlashtirish va demokratlashtirish, ikki palatali parlament tuzish maqsadida amalga oshirildi. Asosiy Qonunimizning mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalariga daxl qilmagan holda, avvalo, Oliy Majlisning roli va ahamiyatini kuchaytirish, uning palatalari maqomi va vakolatlariga doir **76 – 88-moddalarga** o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari hamda vazifalariga doir **89-, 90-, 93-, 95-, 96-, 97-moddalarga** ham o'zgartirishlar kiritildi. **89-moddaning:** «*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasi-ning Raisi hisoblanadi*», – deyilgan ikkinchi qismi olib tashlandi.

**2007-yil 11-aprelda** qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan Konstitutsiyaning ayrim moddalariga qisman o'zgartirishlar kiritildi. Konstitutsiyaning **89-moddasidan** Prezident ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekani to'g'risidagi norma chiqarib tashlandi. 89-moddada: «*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini va hamkorligini ta'minlaydi*», – deb belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaning **93-moddasi 15-bandi va 102-moddasi ikkinchi qismi:** «*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi*», – deb o'zgartirildi.

**Davlat bayrog'i.** «**O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i to'g'risida**»gi Qonun 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **VIII sessiyasida** qabul qilindi. Bayroqdagi **moviy rang** mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviy rang Sharqda azaldan qadrlanadi, o'z vaqtida buyuk Amir Temur ham o'z bayrog'iga bu rangni tanlagan. **Oq rang** tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat o'z yo'lida baland dononlardan oshib o'tishi kerak. Bayrog'imizdagi oq rang yo'limizning musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzidir. **Qizil yo'llar** har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir. **Yashil rang** serne'mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashil rangdir. Yarim oy O'zbekiston xalqining ko'p asrlig an'analariga muvofiq keladi. **Yarim oy va yulduzlar** musaffo osmon va tinchlik ramzlaridir. Bayrog'imizda **12 yulduz** tasviri bor, bu o'lkamizda qadimdan buyon barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i Nyu-York shahrida joylashgan BMT qarorgohida dunyodagi suveren davlatlar bayrog'i qatorida turibdi. O'zbekiston bayrog'i xorijiy mamlakatlarda Preziden-



timiz boshliq davlat delegatsiyasini qabul qilish marosimlarida, chet el davlat delegatsiyalarini qabul qilish marosimlarida ko'tariladi. O'zbekiston bayrog'i O'zbekiston Prezidenti qarorgohi Oqsaroy binosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi tepasiga ilib qo'yilgan. O'zbekiston sportchilari turli musobaqalarda shohsupaga ko'tarilgan paytlarda ham, bayrog'imiz ko'tariladi.

***Davlat gerbi.*** «O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan. Gerbning markazida tasvirlangan, qanotlarini keng yozib turgan **humo qushi** baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy humo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi deb ta'riflagan. Gerbning yuqori qismida respublikamizning sobit va barqarorligi ramzi sifatida **sakkiz qirrali yulduz** tasvirlangan. U «qutlug'» degan ma'noni anglatadi. Uning ichida **yarim oy** va **besh qirrali yulduz** ifodalangan. **Quyosh tasviri** – davlatimizning yo'li hamisha nurli bo'lishi uchun bildirilgan yaxshi niyat timsoli. Ayni paytda, u respublikamizning noyob iqlim sharoitini ham ko'rsatib turadi. **Boshoqlar** – rizq-ro'zimiz bo'lmish g'allaning timsoli, oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan **g'o'za shoxlari** – serquyosh yurtimizning dong'ini butun dunyoga taratgan asosiy boyligimiz ramzi. Bug'doy boshoqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrog'iga o'xshagan lenta bilan o'rab qo'yilgani respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligi timsolidir.

Gerb rangli tasvirda bo'lib, humo qushi **kumush rangda**; paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv **tilla rangda**; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar **yashil rangda**; chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz **oq rangda**; O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan. Gerb suveren davlatimiz ramzi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda keng qo'llaniladi. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tuzilgan bitim va shartnomalarida, davlatlararo aloqa va diplomatik hujjatlarda O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi tasviri tushirilgan bo'ladi. Davlat ahamiyatiga molik ichki hujjatlarda, davlat korxonlari va muassasalarining muhrlarida, o'zaro aloqa hujjatlarida ham gerb tasviri bo'ladi. Milliy valyutamiz – **so'mda** ham davlat gerbi o'z ifodasini topgan.

***Davlat madhiyasi.*** «O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Shoir **Abdulla Oripov** va bastakor **Mutal Burhonov** tomonidan tayyorlangan

variant tasdiqlandi. Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining timsoli bo'lib, u O'zbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi. O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi jamoatchilik oldida ijro etilganida, ishtirokchilar uni tik turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib kuylaydilar va tinglaydilar.

Milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi. O'zbekistonda milliy valyutani muomalaga kiritish uchun ham ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Avvalo, haqiqiy mustaqil iqtisodiyotga erishish lozim edi. Shu boisdan O'zbekiston mustaqillikning dastlabki paytlari – **1991 – 1993-yillarda** sobiq Ittifoqdan meros qolgan **rubl** zonasida bo'lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. **1993-yil may oyi boshlarida** 800 – 900 rublning qadri 1 AQSh dollari darajasiga nisbatan tushib ketgandi. Shu yili Rossiyada oldingi rubl kursiga tenglashtirilgan yangi namunadagi rubl chiqarildi. Rossiya hukumati **1993-yil 26-iyulda** O'zbekiston mutasaddi vakillarini Moskvaga taklif qilib, birgalikda rubl zonasini bo'lamiz deb aytdi. Keyinroq Rossiya, O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari Moskvada uchrashib, rubl zonasini saqlashga, O'zbekiston va Qozog'istonda 1993-yilgi yangi rubl namunasi bilan ta'minlashga qaror qilindi.

Biroq amalda boshqacha yo'l tutildi, to'g'rirog'i, Rossiya hukumati bu tadbirdan o'z manfaati yo'lida foydalanmoqchi bo'ldi. Rossiya hukumati O'zbekiston oldiga o'z shartlarini qo'ydi. Birinchidan, kerakli rublni davlatlararo qarz sifatida, keyinchalik boylik yoki mahsulot bilan to'lash sharti qo'yildi. Ikkinchidan, rublni olishdan oldin uning **50%** miqdoridagi AQSh dollari yoki O'zbekiston oltinini garovga qo'yish talab qilindi. Uchinchidan, O'zbekistonda muomalada bo'lgan **1961 – 1992-yilgi** namunadagi pul (rubl)ni yangi 1993-yil namunasiidagi rublga uchga bir nisbati bilan almashtirish sharti qo'yildi. To'rtinchidan, birorta shart bajarilmay qolsa, tovon puli to'lash majburiyati belgilandi. Beshinchidan, O'zbekiston Markaziy banki Rossiya Markaziy bankiga hisobot berishi, ya'ni tobe bo'lishi kerak edi.

O'zbekiston bunday shartlarga rozi bo'lmadi. Shu boisdan muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishildi. **1992-yil**yoq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan **so'm-kupon** nusxalari tayyorlab qo'yilgandi. Nihoyat, **1993-yil 1-noyabrda** O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirildi. **1994-yil 16-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Prezident Farmoni** va

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan **1994-yil 1-iyuldan** boshlab milliy valyuta – **so‘m** muomalaga kiritildi. 1 so‘m kursi 1000 so‘m-kuponga tenglashtirilgan holda joriy etildi. Milliy valyuta – so‘m O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qiymati **1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so‘m** bo‘lgan bank qog‘oz pullari (banknotlar) holida muomalaga kiritildi. Aholi qo‘lidagi so‘m-kuponlar jamg‘arma banklari orqali 1000 ga 1 qiymatiga almashtirildi. Keyinroq **200, 500, 1000 so‘mlik** qog‘oz pullar ham muomalaga chiqarildi. Qiymati har xil miqdordagi tangalar ham naqd pul holida muomalaga chiqarildi. 2003-yil 15-oktyabrdan boshlab so‘m qisman konvertatsiyalanadigan valyuta maqomini oldi.

**1993-yil 7-mayda** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan birinchi orden – birinchi va ikkinchi darajali **«Sog‘lom avlod uchun»** ordeni ta‘sis etildi.

**1994-yil 5-may «O‘zbekiston Qahramoni»** unvoni va **«Oltin Yulduz»** medali, **«Mustaqillik»** ordeni, **«Do‘stlik»** ordeni, **«Jasorat»** medali, **«Shuhrat»** medali.

**1995-yil 30-avgustda** quyidagilar ta‘sis etildi: **«Mehnat shuhrati»** ordeni, Birinchi va ikkinchi darajali **«Shon-sharaf»** ordeni.

**1996-yil 26-aprelda** – **«Amir Temur»** ordeni.

**1996-yil 29-avgustda:** **«Buyuk xizmatlari uchun»** ordeni.

**1998-yil 28-avgustda:** **«El-yurt hurmati»** ordeni.

**2000-yil 30-avgustda:** **«Jaloliddin Manguberdi»** ordeni.

**1996-yil 26-aprelda** O‘zbekiston Respublikasining quyidagi faxriy unvonlari ta‘sis etilgan: *«O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi»;* *«O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq hofizi»;* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» (2000-yil);* *«O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan aloqa xodimi»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan irrigator»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi va ratsionalizator»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jalik xodimi»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan quruvchi»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan me‘mor»;* *«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi»;* *«O‘zbekiston*

*Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan paxtakor»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan pillachi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash xodimi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustози»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan transport xodimi»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi» (1996-yil 27-dekabrda ta'sis etilgan); «O'zbekiston Respublikasida kommunal, maishiy, savdo sohasida xizmat ko'rsatgan xodim»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan chorvador»; «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist»; «O'zbekiston iftixon» (1998-yil 25-avgustda ta'sis etilgan).*

O'zbekiston Respublikasining **1992-yil 2-iyunda** qabul qilingan **«Bayram kunlari haqida»gi Qonuniga** va **1995-yil 21-dekabrda** qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi **Mehnat kodeksining 137-moddasiga** muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi kunlar bayram – dam olish kunlari deb belgilandi: *1-yanvar – Yangi yil; 8-mart – Xotin-qizlar kuni; 21-mart – Navro'z bayrami; 9-may – Xotira va qadrlash kuni; 1-sentyabr – Mustaqillik kuni; 1-oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni; 8-dekabr – Konstitutsiya kuni; Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr) – diniy bayramning birinchi kuni; Qurbon hayiti (Iyd al-Adha) – diniy bayramning birinchi kuni.*

### **31.3. O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIIY TUZILISHI, AHOLISI VA MODDIY IMKONIYATLARI**

*O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi.* O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining o'rtasida, Amudaryo bilan Sirdaryoning oralig'ida joylashgan, O'zbekiston hududi shimoli-g'arbda Turon pasttekisligining, janubi-sharqda Tyan-Shan va Oloy tog'larining va janubi-g'arbda Qizilqum cho'llarining bir qismini egallaydi. O'zbekiston Respublikasining hududi **448,9 ming km<sup>2</sup>** ni tashkil etib, sharqdan g'arbgacha **1425 km** ga cho'zilgan. Uning hududi va chegaralari daxsiz, davlat tomonidan qo'riqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **68 – 69-moddalarida** O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratligi ta'kidlan-

gan. Ularning chegaralarini o'zgartirish, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi roziligi bilan amalga oshiriladi deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi tarkibiga **Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta ma'muriy viloyat** kiradi. Poytaxti **Toshkent** shahridir.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi** (sobiq Qoraqalpog'iston muxtor respublikasi) **1990-yil 14-dekabrda** suveren respublika deb e'lon qilingan. **1991-yil 31-avgustda** bu holat «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z aksini topgan. Uning maydoni **166,6 ming km<sup>2</sup>** ga teng bo'lib, **1569,9 ming kishi** yashaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tarkibiga **14 ta qishloq tumani** (Amudaryo, Beruniy, Kegayli, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a, Qonliko'l, Qorao'zak, Qo'ng'iro't), **12 ta shahar** (Nukus, Beruniy, Bo'ston, Mang'it, Taxiatosh, To'rtko'l, Xalqobod, Chimboy, Shumanay, Xo'jayli, Qo'ng'iro't) va **17 ta shaharcha** kiradi. Qoraqalpog'istonning poytaxti **Nukus** shahri bo'lib, unda **236 700 kishi** yashaydi.

**Andijon viloyati** (1941-yil 6-martda tashkil etilgan) maydoni **4,2 ming km<sup>2</sup>**, aholisi **2342,7** (aholi soni 2005-yilgi ma'lumotlar asosida berildi). Andijon viloyati tarkibida **14 ta qishloq tumani** (Andijon, Asaka, Baliqchi, Buloqboshi, Bo'z, Jalolquduq, Izboskan, Marhamat, Oltinko'l, Ulug'nor, Xo'jaobod, Shahrixon, Qo'rg'ontepa) va **11 ta shahar** (Andijon, Asaka, Marhamat, Oxunboboyev, Paxtaobod, Poytug', Xonobod, Xo'jaobod, Shahrixon, Qo'rg'ontepa) va **5 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Andijon** shahri.

**Buxoro viloyati** (1938-yil 28-dekabrda tashkil etilgan) maydoni **40,3 ming km<sup>2</sup>**, aholisi **1507,6 ming kishi**. Buxoro viloyati tarkibida **11 ta qishloq tumani** (Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romiton, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako'l, G'ijduvon), **11 ta shahar** (Buxoro, Kogon, G'ijduvon, Galaosiyov, Vobkent, Olot, Gazli, Romiton, Shofirkon, Qorako'l, Qorovulbozor) va **3 ta shaharcha** bor. Markazi **Buxoro** shahri.

**Jizzax viloyati** (1973-yil 28-dekabrda tashkil etilgan) maydoni **21,2 ming km<sup>2</sup>**, viloyatda **1043,3 ming kishi** yashaydi. Viloyat tarkibida **12 ta qishloq tumani** (Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, Jizzax, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish, Yangiobod, G'allaorol), **7 ta shahar** (Dashtobod, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Gagarin, Paxtakor, G'allaorol) va **8 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Jizzax** shahri.

**Navoiy viloyati** (1982-yil 20-aprelda tashkil etilgan, 1988-yil 6-sentyabrda tugatilib, 1992-yil 28-iyunda qayta tiklandi) maydoni **110,0 ming**

**km<sup>2</sup>, 810,2 ming kishi** yashaydi. Viloyat hududida **8 ta qishloq tumani** (Konimex, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi, Qiziltepa) va **7 ta shahar** (Zarafshon, Navoiy, Nurota, Uchquduq, Karmana, Qiziltepa), **8 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Navoiy** shahri.

**Namangan viloyati** (1941-yil 11-martda tashkil etilgan, 1960-yil 25-yanvarda tugatilib, 1967-yil 18-dekabrda qayta tiklangan) maydoni **7,4 ming km<sup>2</sup>, 2073 ming kishi** yashaydi. Viloyat tarkibida **11 ta qishloq tumani** (Kosonsoy, Mingbuloq, Namangan, Norin, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Yangiqo'rg'on) va **8 ta shahar** (Kosonsoy, Namangan, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Haqqulobod) va **12 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Namangan** shahri.

**Samarqand viloyati** (1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan) maydoni **16,8 ming km<sup>2</sup>, 2867,1 ming kishi** yashaydi. Viloyat hududida **14 ta qishloq tumani** (Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg'om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut, Qo'shrabot), **11 ta shahar** (Bulung'ur, Jomboy, Juma, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Oqtosh, Payariq, Samarqand, Urgut, Chelak) va **12 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Samarqand** shahri.

**Sirdaryo viloyati** (1941-yil 6-martda tashkil etilgan) maydoni **4,3 ming km<sup>2</sup>, 672,2 ming kishi** yashaydi. Viloyat tarkibida **8 ta qishloq tumani** (Boyovut, Guliston, Sardoba, Mirzaobod, Oqoltin, Sayhunobod, Sirdaryo, Xovos), **5 ta shahar** (Baxt, Guliston, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer) va **6 ta shaharcha** bor. Markazi **Guliston** shahri.

**Surxondaryo viloyati** (1941-yil 6-martda tashkil etilgan) maydoni **20,1 ming km<sup>2</sup>, 1894,9 ming kishi** yashaydi. Viloyat hududida **14 qishloq tumani** (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabod, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on) va **7 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Termiz** shahri.

**Toshkent viloyati** (1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan) maydoni Toshkent shahri bilan birga hisoblaganda **15,6 ming km<sup>2</sup>, 4520,4 ming kishi** yashaydi. Viloyat tarkibida **15 ta qishloq tumani** (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Pskent, Toshkent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyichirchiq) va **16 ta shahar** (Angren, Bekobod, Bo'ka, Do'stobod, Keles, Olmaliq, Ohangaron, Oqqo'rg'on, Parkent, To'ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiobod, Yangiyo'l, G'azalkent) mavjud. Markazi **Toshkent** shahri. Toshkent shahrida **2135,7 ming kishi** yashaydi. Toshkentda **11 ta** – Uchtepa, Bektemir, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Sergeli, Olmazor, Chilonzor, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy, Hamza tumanlari mavjud.

**Farg'ona viloyati** (1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan) maydoni **6,7 ming km<sup>2</sup>, 2840,9 kishi** yashaydi. Viloyat tarkibida **15 ta qishloq tumani** (Beshariq, Bag'dod, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Oxunboboyev, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, O'zbekiston, Quva), **9 ta shahar** (Farg'ona, Marg'ilon, Quva, Quvasoy, Qo'qon, Beshariq, Rishton, Yaypan, Hamza) va **10 ta shaharcha** bor. Markazi **Farg'ona** shahri.

**Xorazm viloyati** (1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan) maydoni **6,1 ming km<sup>2</sup>, 1432,8 ming kishi** yashaydi. Viloyat hududida **10 ta qishloq tumani** (Bog'ot, Gurlan, Urganch, Xiva, Hazorasp, Xonqa, Shovot, Yangiariq, Yangibozor, Qo'shko'pir), **3 ta shahar** (Pitnak, Urganch, Xiva) va **7 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Urganch** shahri.

**Qashqadaryo viloyati** (1943-yil 20-yanvarda tashkil etilgan) maydoni **28,6 ming km<sup>2</sup>, 2378,5 ming kishi** yashaydi. Viloyat hududida **13 ta qishloq tumani** (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), **12 ta shahar** (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Chiroqchi, Qamashi, G'uzor, Yakkabog', Yangi Nishon, Shahrisabz) va **4 ta shaharcha** mavjud. Markazi **Qarshi** shahri.

**Aholisi.** O'zbekiston aholisi tez o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. **1991-yili** O'zbekiston aholisining soni **20,7 mln** ni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yili 28 mln dan oshdi. O'zbekistonda **120 dan ortiq** millat va elatlar vakillari yashaydi. Aholi tarkibida o'zbeklarning salmog'i yildan yilga o'sib bormoqda. Aholi tarkibida o'zbeklar salmog'i **1989-yili 71,4 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **2005-yili 80 foizga** yetdi. **30 yoshgacha** bo'lgan yoshlar respublika aholisining **64 foizini** tashkil etadi. O'zbekiston qudratli mehnat salohiyatiga ega. Uning mehnat zaxiralari deyarli **50 foizni** tashkil etadi va mehnatga yaroqli aholi soni har yili o'rtacha **210 – 220 ming kishiga** ko'payib bormoqda. Respublika aholisining savodxonlik darajasi **99,06 foizni** tashkil etadi. 15 va undan katta yoshdagi har ming kishiga hisoblaganda oliy va to'liqsiz oliy ma'lumotlilar soni **143 kishini**, o'rta maxsus ma'lumotlilar soni **200 kishini** tashkil etadi. Bilim darajasi jihatidan respublikamiz haqli ravishda o'qimishli mamlakatlar qatoridan o'rin oladi.

**O'zbekiston – boy imkoniyatlar mamlakati.** O'zbekiston hududida g'oyat muhim strategik manbalar – neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha **155 ta kon**, qimmatbaho metallar bo'yicha **40 dan ortiq**, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha **40 ta**, konchilik-kimyxo xomashyosi bo'yicha **15 ta kon** qidirib topilgan. Gaz zaxiralari **2 trln m<sup>3</sup>** ga yaqin,

ko'mir **2 mlrd tonnadan** ortiq. Eng yirik gaz va neft konlari Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-G'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalarida joylashgan. Farg'ona, Oltiriq va Buxoro neftni qayta ishlash zavodlarida xilma-xil neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Ko'mir Angren, Sharg'un va Boysun konlarida qazib olinadi. Mamlakatimiz katta gidroenergiya salohiyatiga ega. Chorvoq, G'azalkent, Farhod GESlari, jami 28 gidroelektroenergetik stansiyalari ishlaymoqda. Sirdaryo, Navoiy, Angren va boshqa issiqlik elektrostansiyalari mavjud.

Oltinning asosiy zaxiralari Markaziy Qizilqumda joylashgan. Muruntov oltin koni dunyodagi eng yirik konlar jumlasiga kiradi. O'zbekistonda **40 dan ortiq oltin konlari** topilgan bo'lib, ulardagi zaxiralar bo'yicha respublikamiz dunyoda **to'rtinchi o'rinda** turadi. O'zbekistonda kumush qazib olinayotgan ko'plab kumush konlari mavjud. Shulardan eng yirigi Namangan viloyatidagi **Oqtepa kumush konidir**. Rangli metallar – mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, kadmiy, reniy, nikel va boshqalar qazib olinadi. Rangli metallar zaxiralari Olmaliq ruda konlarida ko'proq jamlangan. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati O'zbekistondagi eng yirik inshootlardan bo'lib, unda Qalmoqqir va boshqa konlardan qazib olinayotgan rangli metallar qayta ishlanadi. Qo'rg'oshin-rux, asosan, Jizzax viloyatining **Uchquloch** va Surxondaryo viloyatining **Xonjiza** konlarida qazib olinadi.

Respublikada **20 ta marmar, 15 ta granit koni** topilgan. Ulardan eng yiriklari **G'ozg'on, Nurota, Forish** va **Zarband** konlaridir. Xalq xo'jaligida oq rangdan to qora ranggacha xilma-xil bezakbop toshlardan keng foydalanilmoqda. O'zbekiston fosforitlarga boy bo'lib, fosfat o'g'itlar – ammosfos va ammoniytashtirilgan superfosfat ishlab chiqaradigan yirik korxonalar ishlab turibdi. Shulardan eng kattasi **Qizilqum fosfarit kombinatidir**. Katta miqdordagi zaxiralarga ega kaliy tuzi, osh tuzi konlari mavjud bo'lib, ulardan kaliyli o'g'itlar, kalsiy va kaustik sodalar ishlab chiqarilmoqda. **Qo'ng'irotda soda zavodi** eng yirik korxonalaridan biri hisoblanadi.

Respublika kimyo korxonalarida g'oyat qimmatli yarimtayyor mahsulot – kaprolaktam ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Kaprolaktamni qayta ishlash natijasida kapron tofalari va iplari, ulardan gazlama, gilam, noto'qima materiallar va boshqa xalq iste'moli mollari tayyorlanmoqda. Xullas, O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanadi – bu yerda Mendeleev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar **2700 dan ziyod** turli foydali qazilma konlari va ma'dan mavjud bo'lgan joylar aniqlangan. Umumiy mineral xomashyo potentsiali **3,3 trln AQSh dollaridan** ortiqroq baholangan.



O'zbekiston tuprog'i unumdor, sug'orma dehqonchilik rivojlangan. O'zbekistonning yer fondi **44,74 mln gektarni** tashkil etadi, shulardan **32 mln gektari** qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladi. Qishloq xo'jalik yerlarining katta qismi (**83,5 foizi**) o'tloq va yaylovlardan iborat. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni **4,3 mln gektar** bo'lib, ular, asosan, Farg'ona va Zarafshon vodiylari, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm vohalari, Mirzacho'l massivida joylashgan. O'zbekistonda paxta tolasi yetishtiriladi. Buxoro, Andijon va Farg'ona to'qimachilik kombinatlari, 30 dan ortiq ip yigiruv-to'quv fabrikalari, ko'plab paxtani qayta ishlash va yog' zavodlari ishlamoqda. Respublika paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda **to'rtinchi o'rinda**, uni eksport qilish bo'yicha **ikkinchi o'rinda** turadi. O'zbekiston meva-sabzavot, uzum, qorako'l teri, jun yetishtirish bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin egallaydi. Har yili **16,5 mln dekalitr** hajmida 30 dan ortiq xildagi vino, shampan, konyak ishlab chiqariladi. O'zbekiston vinolari xalqaro yarmarka, tanlov va ko'rgazmalarda **92 ta medal** bilan taqdirlangan.

#### **31.4. ISLOM KARIMOV – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BIRINCHI PREZIDENTI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **1991-yil 18-noyabrda** bo'lgan **VIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida»** qaror qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi **1991-yil 29-dekabr**, yakshanba kuniga belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi xalq deputatlari saylovini o'tkazuvchi Markaziy saylov komissiyasining zimmasiga yuklatildi. Saylovga puxta tayyorgarlik ko'rildi. **13 ta okrug** va **qariyb 7 mingta uchastka** saylov komissiyalari tuzildi. O'zbekiston Prezidenti saylovi respublikada birinchi bor o'tayotgani inobatga olinib, bu tadbirni uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida saylov komissiyalari tarkibiga Xalq demokratik partiyasidan, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasidan, Yozuvchilar uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlaridan ko'pgina vakillar kiritildi. Markaziy saylov komissiyasi **1991-yil 22-noyabrda** O'zbekiston Prezidentligiga O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va Kasaba uyushmalari federatsiyasidan ko'rsatilgan **Islom Abdug'aniyevich Karimov** hamda «Erk» demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **Salay Madaminov** nomzodlarini ro'yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi.

Markaziy saylov komissiyasi saylovga doir barcha hujjatlarni, **11 mln** nusxadagi Prezident sayloviga doir byulletenlarni markazlashtirilgan tartibda tayyorladi hamda okrug va uchastka saylov komissiyalari ular bilan o'z vaqtida ta'minlandi. Prezidentlikka nomzodlar uchun saylovoldi kompaniyasida, ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarida va o'z dasturlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishlariga keng sharoit yaratildi. Saylovchilarning ro'yxatlarini tuzish, binolarni ovoz berish uchun jihozlash ishlari amalga oshirildi. Prezident saylovi jarayonida MDH tashkilotini ta'sis etgan mustaqil mamlakatlardan, AQSh, Turkiya, Malayziya va boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kelgan kuzatuvchilar qatnashdi. Ular O'zbekiston Prezidenti saylovi puxta tashkil etilganligini tasdiqladilar.

**1991-yil 29-dekabr**da demokratik me'yor va tartiblarga mos ravishda, umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylash huquqi asosida tarixda birinchi marotaba O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobilik asosida umumxalq saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda **9 mln 900 ming 958 kishi** yoki ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning **94,2 foizi** ishtirok etdi. Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodi uchun **8 mln 514 ming 136 saylovchi** yoki saylovda qatnashganlarning **86 foizi** ovoz berdi. **1991-yil 30-dekabr** kuni Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi Qonunning **35-moddasiga** asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.

**1992-yil 4-yanvarda** bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari **IX sessiyasida** O'zbekiston Prezidenti saylovi yakunlari haqidagi masala ko'rib chiqildi va mazkur masala bo'yicha Markaziy saylov komissiyasining qarori tasdiqlandi. Oliy Kengashning mazkur sessiyasida Islom Karimov so'zga chiqib, o'ziga bildirilgan ishonch uchun butun respublika xalqiga samimiy minnatdorchiilik izhor etdi va qasamyod qildi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining umumxalq saylagan birinchi Prezidenti bo'ldi.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tarjimai holi*

**Islom Abdug'aniyevich Karimov – 1938-yil 30-yanvarda Samarqand** shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli, O'rta Osiyo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Mehnat faoliyatini **1960-yili** Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodida boshlagan.

**1961-yildan 1966-yilgacha** V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktor bo'lib ishladi. **1966-yili** O'zbekiston SSR davlat reja qo'mitasiga ishga o'tib, bosh mutaxassislikdan Respublika davlat reja qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. **1983-yili** I.Karimov O'zbekiston SSR moliya vaziri, **1986-yili** O'zbekiston Ministrlar Soveti raisining o'rinbosari, Respublika davlat reja qo'mitasi raisi etib tayinlandi.

**1986 – 1989-yillar** mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya qo'mitasining birinchi kotibi, **1989-yil iyunidan** boshlab O'zbekiston kompartiyasi MQning birinchi kotibi lavozimlarida ishladi. **1990-yil 24-mart** kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi sessiyasida I.Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

**1991-yil 31-avgust** kuni I.Karimov tarixiy voqea – O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. **1991-yil 29-dekabr**dan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. **1995-yil 26-mart**da bo'lib o'tgan umumxalq referendumini yakunlariga ko'ra I.Karimovning Prezidentlik vakolati **2000-yilga** qadar uzaytirildi. **2000-yil 9-yanvarda** bo'lib o'tgan saylovda I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi. **2002-yil 27-yanvarda** bo'lib o'tgan referendumda uning Prezidentlik vakolati **5 yildan 7 yilga** uzaytirildi. **2007-yil 23-dekabr**da bo'lib o'tgan saylovda I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

I.A.Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (**1994**), o'ndan ortiq xorijiy mamlakatlar universitet va akademiyalarining faxriy fan doktori, professor va akademikligiga saylangan. I.Karimov «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» ordeni sohibi (**1994**), «Mustaqillik» (**1996**), «Amir Temur» (**1998**) ordenlari bilan taqdirlangan.

I.Karimov xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tinchlikni mustahkamlash, ma'naviyatni tiklash, sportni rivojlantirish sohasidagi xizmatlari uchun bir qator xalqaro tashkilotlar va nufuzli xorijiy davlatlarning orden va medallari bilan mukofotlangan. U oilali, ikki nafar farzandi, uch nabirasi bor. Rafiqasi **T.A.Karimova** – iqtisodchi ilmiy xodim.

*O'zbekiston Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **19-bob**ida O'zbekiston Prezidentining konstitutsiyaviy maqomi aniq belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning **89-modd**asida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi deb belgilab qo'yilgan. Prezidentning shaxsi daxlsizdir va qonun bilan himoya qilinadi. Konstitutsiyaning

**93-moddasida** O'zbekiston Prezidentining vazifalari, uning vakolatlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti: fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir; O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi; mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi; muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlaydi; o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi; Respublika Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etadi; viloyatlar hokimlarini va Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi va vazifasidan ozod etadi; O'zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi, qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun Oliy Majlisga qaytarishga haqli; Respublika Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo'mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlarni beradi; O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig'i bilan mukofotlaydi, O'zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi; O'zbekiston Prezidenti Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vakolati tugashi munosabati bilan istefoga chiqqan Prezident umrbod Senat a'zosi lavozimini egallaydi.

**1995-yil 26-martda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini **1997-yildan 2000-yilgacha** uzaytirish masalasi bo'yicha umumxalq referendumini bo'lib o'tdi.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishga siz rozimisiz?» degan savolga **11 mln 199 ming 415 kishi** yoki ovoz berishda qatnashganlarning **99,6 foizi** ijobiy javob berdi.

Referendum natijalari Markaziy saylov komissiyasi qarori hamda

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qarori bilan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **1999-yil 19 – 20-avgust** kunlari bo'lib o'tgan **XV sessiyasi 2000-yil 9-yanvarda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga qaror qildi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi nomzodi **Islom Abdug'aniyevich Karimovni** hamda O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **Abdulhafiz Jalolovni** prezidentlikka nomzod etib ro'yxatga oldi, yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi. **2000-yil 9-yanvarda** muqobilik va demokratik tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda ro'yxatga olingan saylovchilarning **95,10 foizi, 12 mln 123 ming 199 saylovchi** qatnashdi. Saylovda qatnashganlarning **91,90 foizi** Islom Karimov uchun, **4,17 foizi** A.Jalolov uchun ovoz berdi. **3,93 foiz** byulleten haqiqiy deb topildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangani to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati **2007-yil dekabrda** tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylov o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rildi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **A.A.Rustamovni**, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **D.G.Toshmuhamedovani**, saylovchilar tashabbuskor guruhidan ko'rsatilgan **A.X.Saidovni**, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **I.A.Karimovni** Prezidentlikka nomzod etib ro'yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi. **2007-yil 23-dekabrda** oshkoralik va ochiqlik, muqobilik va sog'lom raqobat asosida bo'lib o'tgan saylovda ro'yxatga olingan **16 297 000 nafar** saylovchidan **90,6 foizi** ovoz berishda qatnashdi. Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodini yoqlab saylovda ishtirok etganlarning **88,1 foizi** ovoz berdi. **2007-yil 28-dekabrda** bo'lib o'tgan Markaziy saylov komissiyasining majlisi I.A.Karimovni Prezident lavozimiga saylandi deb hisoblashga qaror qildi.

### 31.5. O'ZBEKISTONNING O'Z TARAQQIYOT YO'LI

Milliy taraqqiyotning «o'zbek modeli». Vatan, millat taqdiri hal bo'layotgan mustaqillikning dastlabki murakkab, mas'uliyatli pallasida Prezident Islom Karimov o'zining hayotiy tajribasi, boshidan kechirgan achchiq-chuchuk voqealardan olgan saboqlari va har bir voqea ilmiy asosda

yondashish, kelajakni ko'ra bilish qobiliyatiga tayanib O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga bosh-qosh bo'ldi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari **IX sessiyasida (1992-yil 4-yanvar)** so'zlagan dasturiy nutqida hamda **1992-yil avgust** oyida nashr etilgan «**O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li**» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta asoslab berdi.

O'zbekiston yo'li, birinchidan, bozor iqtisodiyoti asosida taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu biron-bir taraqqiyot yo'lini ko'r-ko'rona ko'chirib olishnimas, balki boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va bizning mamlakatimiz sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan foydalanish degan ma'noni anglatadi. Ikkinchidan, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Uchinchidan, O'zbekiston yo'li o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, davlatchilik tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlariga mos ravishda belgilandi. To'rtinchidan, o'z yo'limizni belgilashda islom dini, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'mi, musulmon davlatlar bilan o'zaro aloqalami kengaytirishdagi ahamiyati hisobga olindi. Beshinchidan, yangi yo'lni tanlashda O'zbekistonning geostrategik mavqeyi, mustaqillikka erishgan paytdagi iqtisodiy imkoniyatlari, shart-sharoitlari, tabiiy resurslari asos qilib olindi. Oltinchidan, respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat, aholi va mehnat resurslarining tez o'sib borishi ham inobatga olindi. Yettinchidan, odamlarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi ham e'tiborga olindi. Negaki sovetlar zamonida kishilarda shakllangan yaxshi ishlasa ham, yomon ishlasa ham davlat boqadi degan boqimandalik, tayyorga ayyorlik, mulkka nisbatan bepisandlik ruhiyatini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmasdi, buni hisobga olish zarur edi, albatta.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirib borildi. **1993-yili** nashr etilgan «**O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li**» nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

1. *Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.*
2. *Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.*
3. *Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.*
4. *Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli qarori bilan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **1999-yil 19 – 20-avgust** kunlari bo'lib o'tgan **XV sessiyasi 2000-yil 9-yanvarda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazishga qaror qildi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi nomzodi **Islom Abdug'aniyevich Karimovni** hamda O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **Abdulfafiz Jalolovni** prezidentlikka nomzod etib ro'yxatga oldi, yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi. **2000-yil 9-yanvarda** muqobilik va demokratik tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda ro'yxatga olingan saylovchilarning **95,10 foizi, 12 mln 123 ming 199 saylovchi** qatnashdi. Saylovda qatnashganlarning **91,90 foizi** Islom Karimov uchun, **4,17 foizi** A.Jalolov uchun ovoz berdi. **3,93 foiz** byulleten haqiqiymas deb topildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangani to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati **2007-yil dekabrda** tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylov o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rildi. Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **A.A.Rustamovni**, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **D.G.Toshmuhamedovani**, saylovchilar tashabbuskor guruhidan ko'rsatilgan **A.X.Saidovni**, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan **I.A.Karimovni** Prezidentlikka nomzod etib ro'yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi. **2007-yil 23-dekabrda** oshkoralik va ochiqlik, muqobilik va sog'lom raqobat asosida bo'lib o'tgan saylovda ro'yxatga olingan **16 297 000 nafar** saylovchidan **90,6 foizi** ovoz berishda qatnashdi. Islom Abdug'aniyevich Karimov nomzodini yoqlab saylovda ishtirok etganlarning **88,1 foizi** ovoz berdi. **2007-yil 28-dekabrda** bo'lib o'tgan Markaziy saylov komissiyasining majlisi I.A.Karimovni Prezident lavozimiga saylandi deb hisoblashga qaror qildi.

### 31.5. O'ZBEKISTONNING O'Z TARAQQIYOT YO'LI

*Milliy taraqqiyotning «o'zbek modeli».* Vatan, millat taqdiri hal bo'layotgan mustaqillikning dastlabki murakkab, mas'uliyatli pallasida Prezident Islom Karimov o'zining hayotiy tajribasi, boshidan kechirgan achchiq-chuchuk voqealardan olgan saboqlari va har bir voqeaga ilmiy asosda

yondashish, kelajakni ko'ra bilish qobiliyatiga tayanib O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishga bosh-qosh bo'ldi. Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari **IX sessiyasida (1992-yil 4-yanvar)** so'zlagan dasturiy nutqida hamda **1992-yil avgust** oyida nashr etilgan «**O'zbekistonning o'z istiqloli va taraqqiyot yo'li**» asarida O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini har tomonlama puxta asoslab berdi.

O'zbekiston yo'li, birinchidan, bozor iqtisodiyoti asosida taraqqiy topgan davlatlarning tajribasiga tayangan holda ishlab chiqildi. Bu biron-bir taraqqiyot yo'lini ko'r-ko'rona ko'chirib olishnimas, balki boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va bizning mamlakatimiz sharoitiga tatbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan foydalanish degan ma'noni anglatadi. Ikkinchidan, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Uchinchidan, O'zbekiston yo'li o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, davlatchilik tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, Sharq madaniyatiga mansublik, ijtimoiy hamkorlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik kabi fazilatlarga mos ravishda belgilandi. To'rtinchidan, o'z yo'limizni belgilashda islom dini, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, musulmon davlatlar bilan o'zaro aloqalami kengaytirishdagi ahamiyati hisobga olindi. Beshinchidan, yangi yo'lni tanlashda O'zbekistonning geostrategik mavqeyi, mustaqillikka erishgan paytdagi iqtisodiy imkoniyatlari, shart-sharoitlari, tabiiy resurslari asos qilib olindi. Oltinchidan, respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat, aholi va mehnat resurslarining tez o'sib borishi ham inobatga olindi. Yettinchidan, odamlarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi ham e'tiborga olindi. Negaki sovetlar zamonida kishilarda shakllangan yaxshi ishlasa ham, yomon ishlasa ham davlat boqadi degan boqimandalik, tayyorga ayyorlik, mulkka nisbatan bepisandlik ruhiyatini tezlik bilan o'zgartirib bo'lmasdi, buni hisobga olish zarur edi, albatta.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning keyingi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirib borildi. **1993-yili** nashr etilgan «**O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li**» nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

1. *Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.*
2. *Davlat bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.*
3. *Qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning barobarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.*
4. *Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy*



*siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi. 5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.*

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning **«o'zbek modeli»** bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birortasini takrorlamagan holda o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb qabul qilindi. O'zbekistonga xos taraqqiyot yo'lining nazariy, ilmiy, amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilishi bizning eng katta yutug'imizdir. Tanlangan yo'lining to'g'riligini xalqimiz, dunyodagi nufuzli davlat arboblari, siyosatchilar, iqtisodchi olimlar e'tirof etdilar. Yurtboshimiz Islom Karimov ana shunday keng qamrovli islohotlarning ijodkori bo'ldi.

## 32-BOB. SIYOSIY ISLOHOTLAR. MILLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINING BARPO ETILISHI

### 32.1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARLAMENTI – OLII MAJLISNING TASHKIL ETILISHI

*Parlament haqida.* O'zbekistonda oliy davlat vakillik organi – parlamentni shakllantirishda xalqaro tan olingan huquqiy tamoyillarga va rivojlangan davlatlar tajribasiga tayaniladi. «**Parlament**» fransuzcha «**parler**» – gapirmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolardan saylanadi.

Parlament uzoq tarixga ega. Parlamentarizm g'oyasi **milodning birinchi mingyilligi** bo'sag'asida **Rimda, Angliya, Fransiya, Ispaniyada** xalq majlislari shaklida vujudga kelib, davlat hokimiyati darajasiga ko'tarilgunga qadar yana bir necha taraqqiyot bosqichlaridan o'tgan. Parlament **Angliyada 1215-yili** qabul qilingan «**Erkinlikning buyuk xartiyasi**»dan boshlanadi va **1265-yili** davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida ta'sis etilgan. **XVII – XVIII asrlarda** boshqa mamlakatlarda ham parlament vujudga keldi. Parlament xorijiy mamlakatlarda turlicha nom bilan yuritiladi. Masalan, AQSh va Lotin Amerikasi mamlakatlarida **kongress**, Buyuk Britaniyada **parlament**, Finlyandiya va Polshada **seym**, Germaniyada **Bundestag**, O'zbekistonda **Oliy Majlis** va hokazo.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda **1990-yil fevralda** saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – **Oliy Kengash** faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U **1990 – 1994-yillarda** qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Oliy Kengash mamlakatimiz tarixida birinchi bor O'zbekiston Prezidentini sayladi, Mustaqillik Deklaratsiyasini, O'zbekistonning davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunni va boshqa muhim hujjatlarni ishlab chiqdi va qabul qildi. **1990 – 1994-yillarda** Oliy Kengash **200 ga yaqin qonun va 500 dan ziyod qaror** qabul qildi. O'zbekistonning Konstitutsiyasida demokratik tamoyillarga asoslangan yangi parlamentni shakllantirishning huquqiy

asoslari belgilab berildi. Uning **76-moddasida**: «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi», – deb belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida bir palatali parlament – Oliy Majlisi shakllantirishga kirishildi.

Parlamentni shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.  
**1993-yil 28-dekabrda** Respublika Oliy Kengashining **XIV sessiyasida** «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida», **1994-yil 22-sentyabrda** bo'lib o'tgan **XVI sessiyada** «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida» **Qonunlar** qabul qilindi. Ularda qonunchilik sohasida tub islohotlarni amalga oshirish zarurati kun tartibiga qo'yildi. Oliy Majlis oliy davlat organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishi, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida **besh yil** muddatga saylanadigan **250 nafar** deputatdan iborat bo'lishi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Oliy Majlisning mutlaq vakolatlari jumlasiga *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasining qonunlarini qabul qilish hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish; O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash va davlat strategik dasturlarini qabul qilish; ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, O'zbekiston Respublikasining chegaralarini o'zgartirish; boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish; davlat byudjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy etish; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tizimini va vakolatlarini belgilash; xalqaro shartnomalarni va bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlash) va denonsatsiya (barvaqt to'xtatish) qilish; Oliy Majlisga va mahalliy vakillik organlariga saylov tayinlash, Markaziy saylov komissiyasini tuzish; vakolati tugashi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov kunini tayinlash; Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarini saylash; Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tayinlash va lavozimidan ozod etish to'g'risidagi Prezident farmonlarini tasdiqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish* kiradi.

Saylov kunigacha **25 yoshga** to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari parlamentga saylanish huquqiga egalar. Bunda ularning kelib chiqishi, ijtimoiy va moddiy ahvoli, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, faoliyat turi bo'yicha hech qanday

cheklashlarga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, «Oliy Majlisga saylovlar to'g'risida»gi Qonunda belgilanganidek, sudlangan, saylov tayinlangan kungacha o'tgan 5 yil mobaynida O'zbekiston hududida yashamagan, harbiy ixtisosli, diniy xizmatchi fuqarolar deputatlikka nomzodlar ro'yxatiga olinmaydilar. Hokimiyatni taqsimlash tamoyilini amalda bajarish maqsadlaridan kelib chiqib shu narsa belgilab qo'yilganki, hukumat a'zolari, sudyalar, prokuratura organlarining mansabdor shaxslari, vazirlik idoralari rahbarlari va ularning o'rinbosarlari, ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslari (viloyat, tuman, shahar hokimlari bundan mustasno) Oliy Majlis deputati bo'lolmaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **1994-yil sentyabrda** bo'lib o'tgan **XVI sessiyasi 1994-yil 25-dekabr** kuni Oliy Majlisga, viloyat, shahar va tuman kengashlariga saylovlar o'tkazishga qaror qildi. **1994-yil 14 – 15-noyabrda** Toshkentda Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi okrug saylov komissiyalari raislarining **uch kunlik** seminari bo'lib o'tdi. Seminarda respublikada saylov tizimini isloh qilish, saylovni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari muhokama etildi. Seminar-kengashda BMTning O'zbekistondagi vakili **Xolid Malik**, AQShning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi **Genri Li Klark**, Rossiya elchisi **F.F.Sidorskiy**, Turkiya elchisi **Erdugan Aytun** va boshqalar ishtirok etib, saylovga taalluqli xalqaro tajribalar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Jumladan, Xolid Malik seminar-kengashni tarixiy sana – saylovlar oldidan O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo qilish yo'lida oldinga bosilgan qadam bo'ldi deb baholadi. Saylovlarni qonun talablari asosida o'tkazish uchun respublika bo'yicha **250 okrug** va **7192 uchastka** saylov komissiyalari tuzildi. Ular tarkibiga mehnat jamoalarida obro'-e'tibor va hurmat qozongan, partiyasiz bo'lgan munosib kishilar kiritildi. Saylovga nomzodlar qo'yishda ko'ppartiyaviylik va muqobilik ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga Xalq demokratik partiyasidan, Vatan taraqqiyoti partiyasidan, hokimiyatning vakillik organlaridan jami **700 nomzod** deputatlik o'rni uchun kurashdi. Saylovchilar birinchi marta nomzodlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ovoz berishda ro'yxatga olingan **11 mln 248 ming 464 saylovchining 93,6 foizi**, ya'ni **10 mln 526 ming 654 kishi** qatnashdi. **1994-yil 25-dekabr** kuni hamma joyda saylovlar qonun talablariga muvofiq umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tdi. Nomzodlardan birontasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida **1995-yil 8- va 25-yanvar** kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Saylov okruglari va uchastkalarida jahonning **30 ga yaqin** mamlakatlari va xalqaro

tashkilotlardan **68 nafar vakil** kuzatuvchi sifatida qatnashdi. «Reyter», «Interfaks» agentliklari, «BBC» radiokompaniyasi, «Ostankino» telekompaniyasi va boshqa xorijiy matbuot vakillaridan **10 nafar vakil** ishtirok etdi. Saylovchilar xalqning munosib farzandlari uchun yakdillik bilan ovoz berdilar. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi.

***Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi.*** **1995-yil 23 – 24-fevral** kunlari yangi saylangan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **I sessiyasi** bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi va to'rt kishidan iborat Rais o'rinbosarlari saylandi. **E.H.Xalilov** Oliy Majlis Raisi, **B.I. Bugrov**, **B.A.Shodiyeva**, **A.Q.Qosimov**, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi Raisi **U.Ashirbekov** Rais o'rinbosari qilib saylandilar, sessiyada Mandat komissiyasi tuzildi.

Qonunlarni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda Oliy Majlisning quyidagi **12 ta qo'mitasi** tashkil etildi: *Byudjet, bank va moliyaviy masalalar bo'yicha; Iqtisodiy islohotlar va ishbilarmonlikni rivojlantirish bo'yicha; Qonunchilik va sud-huquq masalalari bo'yicha; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo'yicha; Fan, ta'lim, madaniyat va sport bo'yicha; Sanoat, energetika, transport, aloqa va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha; Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat bo'yicha; Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari bo'yicha; Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha; Qurilish va uy-joy xo'jaligi bo'yicha; Matbuot va axborot bo'yicha; Mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha.*

O'zbekiston parlamenti birinchi sessiyasida hokimiyat vakillik organlaridan saylangan **120 kishidan** iborat deputatlar blokini, **69 deputatdan** tarkib topgan Xalq demokratik partiyasi fraksiyasini, **47 deputatni** uyushtirgan «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasini, **14 deputatdan** iborat Vatan taraqqiyoti partiyasi fraksiyasini ro'yxatga oldi. Mazkur partiya fraksiyalari qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishda faol qatnashdilar. Shu tariqa Oliy Majlis faoliyatida ko'ppartiyaviylik tamoyili qaror topdi.

Sessiya qarori bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (**ombudsman**) instituti joriy etildi va vakil huzurida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasini tuzish haqida qaror qabul qilindi. Birinchi sessiyada «**O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida**»gi Qonun qabul qilindi, Oliy Majlis Raisi rahbarligida «**Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari to'g'risidagi Nizom**» qabul qilindi. Parlamentning ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, Mandat komissiyasi raisi, parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalar rahbarlari kiritildi.

Mustaqillik yillarida Oliy Majlisning xalqaro parlamentlar bilan aloqalari o'rnatildi va chuqurlashdi. O'zbekiston Milliy parlamentida Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar bo'yicha guruh tuzildi, respublikaning Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi va Yevroparlament bilan aloqalari yo'lga qo'yildi. Oliy Majlis «**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 – 1999-yillarga mo'ljallangan faoliyat dasturi**»ni ishlab chiqdi va respublika parlamenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti tashkil etildi. Bu chora-tadbirlar Oliy Majlis faoliyatining barcha asosiy yo'nalishlarini qamrab olishga, qonunchilikni yangi pog'onaga ko'tarishga ko'maklashmoqda.

Oliy Majlis vakili huzurida **1995-yili** tuzilgan Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha maxsus komissiya faoliyat yuritmoqda. Parlamentning **VIII sessiyasida 1997-yil 24-aprelda** qabul qilingan «**Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida**»gi Qonun – muhim hujjatlardan biri. U respublikada insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

## 32.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING QONUN IJODKORLIGI

*Qonun loyihasini tayyorlash va qabul qilish tamoyillari.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **83-moddasida** qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlar aniq belgilab qo'yilgan. Qonunchilik tashabbusi huquqiga **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**, o'z davlat hokimiyatining oliy organi orqali **Qoraqalpog'iston Respublikasi, Oliy Majlis deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi va Bosh prokurori** egadirlar.

Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi **1995 – 1999-yillarda 15 ta sessiya** o'tkazdi. Sessiyalarda **10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror** qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga jami **216 ta** qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Oliy Majlis **70 ta** xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qildi, xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida **58 ta** qaror qabul qildi. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yakunlovchi **XV sessiyasida** Prezident Islom Karimov ma'ruza qilib, uning faoliyatiga yuksak baho berdi.

*Ikkinchi chaqiriq Respublika Oliy Majlisiga saylovlar.* Birinchi chaqiriq Respublika Oliy Majlisining **1999-yil 19 – 20-avgust** kunlari bo'lib o'tgan

XV sessiyasi ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari saylovini **1999-yil 5-dekabr** kuniga belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovda **7 ta subyekt** – beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organi va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami **1010 nafar nomzod** qatnashdi. **1999-yil 5-dekabr** kuni bo'lgan saylovlarda nomzodlardan biron-tasi ham yetarli ovoz ololmagan **66 ta** saylov okrugida **19-dekabr** kuni takroriy saylov tashkil etildi. Saylovlar aholining faol ishtiroki va yuqori siyosiy ko'tarinkiligi bilan o'tdi, jami **250 nafar vakil** deputat etib saylandi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **2000-yil 22-yanvar** kuni bo'lib o'tgan **I sessiyasi** birinchi majlisida hokimiyat vakillik organlaridan saylangan **111 kishidan** iborat deputatlar bloki, Xalq demokratik partiyasidan saylangan **48 kishidan**, Fidokorlar milliy-demokratik partiyasidan saylangan **34 kishidan**, Vatan taraqqiyoti partiyasidan saylangan **20 kishidan**, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan saylangan **11 kishidan** va Milliy tiklanish partiyasidan saylangan **10 kishidan** iborat deputatlar fraksiyalari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan saylangan **16 kishidan** iborat deputatlar bloki ro'yxatga olindi.

Mazkur sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyidagi qo'mitalari va komissiyalari tashkil etildi: *Byudjet, bank va moliya masalalari qo'mitasi; Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi; Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq-ovqat qo'mitasi; Sanoat, qurilish, transport va aloqa masalalari qo'mitasi; Iqtisodiy islohotlar va tadbirkorlik masalalari qo'mitasi; Ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi; Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi; Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi; Matbuot va axborot qo'mitasi; Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi; Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi; Yoshlar ishlari komissiyasi (mazkur komissiya ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 30 – 31-avgust kunlari bo'lgan sessiyasi qarori bilan «Yoshlar ishlari qo'mitasi» shaklida qayta tuzildi); Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta'minoti komissiyasi; Oila va ayollar muammolari komissiyasi; Normativ-huquqiy atamalar komissiyasi.*

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalarining tarkibiy tuzilishi, uning faoliyatida **5 ta partiya fraksiyalari** va **2 ta deputatlar blokining** faol ishtiroki milliy parlamentni rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimiz aholisining yarmidan ziyodini tashkil etgan yoshlarning manfaatlari, muammolari

yechimini topishga yo'naltirilgan Yoshlar ishlari komissiyasining tuzilishi va keyinroq uning Yoshlar ishlari qo'mitasiga aylantirilishi parlamentning bu dolzarb masalaga e'tiborini, mas'uliyatini oshirdi. Parlament tarkibida Oila va ayollar muammolari komissiyasining tuzilishi oilani mustahkamlash, xususan, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy mavqeyini ko'tarish bilan bog'liq muammolarning huquqiy yechimini topish va amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Oliy Majlis tarkibida Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining tuzilishi va yangi qonunlar ishlab chiqishdagi faoliyati ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashdi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun ijodkorligi.*  
O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davrida respublika bir palatali parlamenti yangi jamiyat qurishning ishonchli huquqiy asoslarini yaratuvchi **446 tadan ortiq qonun, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur va mingdan ortiq qarorlar** qabul qildi. Qabul qilingan qonunlar turkumini ularning mazmuniga ko'ra **besh yo'nalishga** bo'lish mumkin.

**Birinchi yo'nalish – O'zbekistonning davlat mustaqilligini mustahkamlash, demokratik-huquqiy davlat asoslarini yaratish, davlat boshqaruv tizimini yangilashga doir qonunlar.** «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» Qonun, 1991-yil 31-avgust. 1991-yil 30-sentyabrda ushbu qonunga konstitutsiyaviy qonun maqomi berish to'g'risida qonun qabul qilingan. «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida» Qonun, 1991-yil 18-noyabr. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» Qonun, 1991-yil 18-noyabr. «O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi to'g'risida» Qonun, 1992-yil 2-iyul. «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» va «Muqobil xizmat to'g'risida» Qonunlar, 1992-yil 3-iyul. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992-yil 8-dekabr. «O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida» Qonun, 1992-yil 10-dekabr. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida» Qonun, 1993-yil 6-may. «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida» Qonun, 1993-yil 7-may. «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida» Qonun, 1993-yil 2-sentyabr. «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi to'g'risida» Qonun, 1993-yil 2-sentyabr. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida» Qonun, 1993-yil 28-dekabr. «Xalq deputatlarining viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida» Qonun, 1994-yil 15-may. «Milliy xavfsizlik to'g'risida» Qonun, 1996-yil 24-aprel. «O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralari to'g'risida» Qonun, 1999-



yil 20-avgust. «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» Qonun, 2000-yil 15-dekabr. «Mudofaa to'g'risida» Qonun, 1992-yil 2-iyun. Bu qonun 2000-yil 11-mayda yangi tahrirda qabul qilindi. «Sudlar to'g'risida» Qonun, 1993-yil 2-sentyabr. Mazkur qonun 2000-yil 14-dekabrda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. «Prokuratura to'g'risida» Qonun, 1992-yil 9-dekabr. Bu qonun 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. Mazkur yo'nalish bo'yicha yana bir qator qonunlar qabul qilindi.

**Ikkinchi yo'nalish – inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalariga doir qonunlar.** «Jamoat birlashmalari to'g'risida» Qonun, 1991-yil 15-fevral. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida» Qonun, 1992-yil 3-iyul. «Kasaba uyushmalari, ulaming huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida» Qonun, 1992-yil 2-iyul. «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida» Qonun, 1994-yil 5-may. «O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida» Qonun, 1995-yil 5-may. «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida» Qonun, 1995-yil 30-avgust. Fuqarolik kodeksi, 1995-yil 21-dekabr. Mehnat kodeksi, 1995-yil 21-dekabr. «Siyosiy partiyalar to'g'risida» Qonun, 1996-yil 26-dekabr. «Advokatura to'g'risida» Qonun, 1996-yil 27-dekabr. «Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida» Qonun, 1997-yil 24-aprel. Oila kodeksi, 1998-yil 30-aprel. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel. Uy-joy kodeksi, 1998-yil 24-dekabr. «Fuqarolar muhofazasi to'g'risida» Qonun, 2000-yil 26-may. «Qonunlar loyihalari-ning muhokamasi to'g'risida» Qonun, 2000-yil 14-dekabr. «O'zbekiston Respublikasi referendumi to'g'risida» Qonun, 1991-yil 18-noyabr. Mazkur qonun 2001-yil 30-avgustda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. «Noshirlik faoliyati to'g'risida» Qonun, 1996-yil 2-avgust. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida» Qonun, 1996-yil 2-avgust. «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida» Qonun, 1997-yil 24-aprel. «Jurnalistning kasb faoliyatini himoya qilish to'g'risida» Qonun, 1997-yil 24-aprel. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida» Qonun, 1997-yil 26-dekabr va boshqalar.

**Uchinchi yo'nalish – ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish, bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilik, xo'jalik yuritishning yangi mexanizmini yaratishga doir g'oyat faol rivojlanib borayotgan qonunlar.** «Mulchilik to'g'risida» Qonun, unga 1993-yil 7-may va 1994-yil 23-sentyabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. «Korxonalar to'g'risida» Qonun, unga 1994-yil 23-sentyabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. «Tadbirkorlik to'g'risida» Qonun, unga 1993-

yil 7-mayda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida» Qonun, 1991-yil 18-noyabr. «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida» Qonun, 1992-yil 2-iyun, bu qonun 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. «Auditorlik faoliyati to'g'risida» Qonun, 1992-yil 3-iyul, bu qonun 2000-yil 26-mayda yangi tahrirda qabul qilindi. «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida» Qonun, 1993-yil 7-may. «Qimmatli qog'ozlar va birja fondi to'g'risida» Qonun, 1993-yil 2-sentyabr. «Bankrotlik to'g'risida» Qonun, 1994-yil 5-may. «Xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish to'g'risida» Qonun, 1995-yil 21-aprel. «Markaziy bank to'g'risida» Qonun, 1995-yil 21-dekabr. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» Qonun, 1996-yil 23-aprel. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonun, 1996-yil 27-dekabr. Soliq kodeksi, 1997-yil 24-aprel. «Qishloq xo'jalik shirkati to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel. «Fermer xo'jaligi to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel. «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel. «Yer kadastrasi to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» Qonun, 1998-yil 29-avgust. «Tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida» Qonun, 2000-yil 25-may. «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida» Qonun, 2001-yil 6-dekabr. «Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» Qonun, 2001-yil 30-avgust va boshqalar.

**To'rtinchi yo'nalish – odamlarning ma'naviy, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash muammolariga, aholini himoyalash masalalariga doir qonunlar.** «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti asoslari to'g'risida» Qonun, 1993-yil 2-sentyabr. «Aholining bandligi to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonun, 1998-yil 30-aprel. «Nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida» Qonun. «Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida» Qonun. «O'zbekiston Respublikasida bayram kunlari to'g'risida» Qonun, 1992-yil 3-iyul. «Davlat tili to'g'risida» Qonun, 1989-yil 21-oktyabr, 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilindi. «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» Qonun, 1993-yil 2-sentyabr. «Ta'lim to'g'risida» Qonun, 1997-yil 27-avgust. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» haqidagi Qonun, 1997-yil 27-avgust. «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida» Qonun, 1996-yil 29-avgust. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida» Qonun, 1997-yil 25-aprel. «Arxivlar to'g'risida» Qonun, 1999-yil 15-aprel. «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» Qonun, 1992-yil 14-yanvar. Mazkur qonun 2000-yil 26-mayda yangi tahrirda qabul qilindi. «Madaniy meros

obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida» Qonun, 2001-yil 30-avgust va boshqalar.

**Beshinchi yo'nalish – O'zbekistonning xalqaro munosabatlariga, tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatiga, chet ellik sarmoyadorlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik qilishga doir qonunlar.** «O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi to'g'risida» Qonun, 1992-yil 2-iyun. «O'zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun daraja va martabani belgilash to'g'risida» Qonun, 1992-yil 3-iyul. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» Qonun. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida» Qonun, 1995-yil 22-dekabr. «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida» Qonun, 1996-yil 25-aprel. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida» Qonun, 1996-yil 26-dekabr. «Chet el investitsiyalari to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel. «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» Qonun, 1998-yil 30-aprel va boshqalar.

***Ikki palatali parlament haqida.*** Prezident Islom Karimov **2000-yil 25-may** kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II sessiyasida ikki palatali parlament tuzish g'oyasini ilgari surdi. **2001-yil 6 – 7-dekabr** kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning VII sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi. Sessiya ikki palatali professional parlament faoliyati uchun eng zarur bo'lgan omil – yuqori malakali siyosatshunoslar, yuristlar, iqtisodchilar korpusi shakllanib yetilganini, jamiyatimizda huquqiy madaniyat darajasining ortganini inobatga oldi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur degan xulosaga keldi.

Ikki palatali parlamentning bir qator ijobiy tomonlari bor: *populistik maqsadni, ayrim guruhlar manfaatini ko'zlovchi, mukammal bo'lmagan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi; mamlakat mintaqalari (viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasining manfaatlari to'laroq inobatga olinadi; milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentning nufuzi ortadi, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati o'rtasidagi munosabat mutanosiblashadi; parlament qabul qilayotgan qonunlarning sifatini yaxshilashga, xalqning xohish-irodasini to'laroq namoyon bo'lishiga imkon beradi; parlament ishida demokratik fikrlar xilma-xilligi ko'proq namoyon bo'ladi; jamiyatni liberallashtirishni tezlashtiradi; deputatlar faoliyatini professionalashga, siyosatchilar tabaqasini shakllantirishga ko'proq imkoniyat yaratadi.*

Oliy Majlis **2002-yil 27-yanvar** kuni kelgusi chaqiriqqa ikki palatali parlamentni shakllantirish masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi

referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Referendum 2002-yil 27-yanvar kuni keng demokratik asosda, ochiq va oshkora, keng jamoatchilik vakillari, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning tashabbuskor guruhlarini kuzatuvchilari ishtirokida bo'lib o'tdi. Referendumda ovoz beruvchilar ro'yxatiga kiritilgan **13 266 602 nafar** fuqaroning **12 113 070 nafari** yoki **91,58 foizi** ishtirok etdi. Ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning **11 344 242 nafari** yoki **93,65 foizi** yoqlab ovoz berdi.

**2002-yil 4 – 5-aprel** kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **VIII sessiyasida** «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida» konstitutsiyaviy qonun va «2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

**2002-yil 12 – 13-dekabr** kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning **X sessiyasi** xalqimizning xohish-irodasi bilan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida» konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qildi. **2003-yil 24-aprelda** «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining oliy davlat vakillik organlari – parlamentning nomi Oliy Majlis deb atalaveradi. Uning tarkibida ikkita palata tuziladi. Yuqori palata **Senat**, quyi palata **Qonunchilik palatasi** deb ataladi. Ikkala palataning vakolat muddati **5 yil** etib belgilangan.

**2004-yil dekabr – 2005-yil yanvar** oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Quyi palataga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida **120 ta deputat** saylandi. Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda – **6 nafardan**, jami **84 kishi** saylandi. Senatning **16 nafar a'zosi** fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

Qonunchilik palatasining 2005-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisida **E.H.Xalilov** Qonunchilik palatasining **Spikeri** etib saylandi. Spiker o'rinbosarlari, qo'mita rahbarlari saylandi, siyosiy partiyalar fraksiyalari tashkil etilib, ro'yxatga olindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Senatining 2005-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisida **M.Sharifxo'jayev Senat raisi** etib saylandi. Senat raisi o'rinbosarlari hamda Senat qo'mitalari raislari saylandi. Shunday qilib, ikki palatali parlament tashkil etildi va faoliyat boshladi.

Qonun loyihalari dastlab Qonunchilik palatasida ko'rib chiqiladi va qabul qilinadi. So'ngra Senat tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Qonun Prezident tomonidan imzolanib, matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Prezident vakolatlarining bir qismi – davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet ellar xalqaro tashkilotlardagi diplomatik vakillarni tayinlash va tasdiqlash Senat vakolatiga o'tkazildi va Senat tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ikki palatali Oliy Majlis **2005 – 2009-yillarda** ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishida katta ahamiyatga ega bo'lgan **250 dan ziyod** qonun qabul qildi. Milliy davlatchilik institutlari tizimi o'rtasida parlamentimizning nufuzi yanada o'sdi. Qabul qilinayotgan qonunlarning sifati yaxshilandi. Deputatlar faoliyati professionalashib, siyosiy partiyalar fraksiyalarining faoliyati, fikrlar xilma-xilligi kuchaydi.

Deputat va senatorlarning vakolat muddati tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga **2009-yil 27-dekabr** kuni saylovlar – **2010-yil 10-yanvar** kuni takroriy saylovlar demokratiya, muqobilik va oshkoralik ruhida bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasida **135 deputat**, O'zbekiston Ekologik harakatining konferensiyasida **15 nafar deputat**, jami **150 nafar** deputat saylandi.

Senatga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining har biridan teng miqdorda – **6 nafardan**, jami **84 senator** saylandi. Senatning **16 nafar** a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

**2010-yil 22-yanvar** kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida **Dilorom Toshmuhamedova Qonunchilik palatasi Spikeri** etib saylandi. **2010-yil 26-yanvar** kuni Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida **Ilgizar Matyoqubovich Sobirov Senat Raisi** etib saylandi. Davlatimiz rahbari taqdimiga binoan Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri etib **Shavkat Miromonovich Mirziyoyevni** tasdiqladi.

O'zbekiston parlamenti mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mamlakatni modernizatsiya qilish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda.

### 32.3. MILLIY DAVLAT BOSHQARUV HOKIMIYATI TIZIMINING SHAKLLANTIRILISHI

Vazirlar Mahkamasi. 1990-yil 24-martda O'zbekistonda prezidentlik lavozimi ta'xis etilgandan keyin hayotning o'zi ijro etuvchi hokimiyat maqomini o'zgartirishni talab qildi. 1990-yil 15-noyabrda O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida» Farmoni e'lon qilindi. Unga muvofiq, O'zbekiston Prezidenti huzurida Vazirlar Mahkamasi tuzildi, Prezident uning Raisi bo'ldi. Respublikada vitse-prezident lavozimi ta'xis etilib, uning zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish va uning ishini uyushtirish vazifasi yuklandi. 1992-yil 4-yanvarda vitse-prezident lavozimi tugatildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bosh vaziri lavozimi ta'xis etildi. Bosh vazir zimmasiga Vazirlar Mahkamasiga rahbarlik qilish, uning ishini tashkil etish vazifasi yuklandi.

O'zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo'ldi. Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Prezident taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi a'zolari tarkibiga Bosh vazir, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi kiradi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining hukumati bo'lib, ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Uning vazifalari: davlat byudjetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi; Oliy Majlisga davlat byudjetining bajarilishi haqida hisobot beradi; yagona moliya, kredit va pul siyosati yuritilishini ta'minlaydi; madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasidagi yagona davlat siyosati yuritilishini ta'minlaydi; mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi; qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi; iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohalarining samarali faoliyatiga rahbarlik qiladi; O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi; barcha organlar, korxonalar,

*muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.*

Islohotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib borildi. Agar **1990-yil 30-martda** respublika ijroiya hokimiyati **41 kishidan** iborat etib tuzilgan bo'lsa, **1995-yil 5-mayda** Vazirlar Mahkamasi **35 kishidan** iborat etib tuzildi. **2000-yil 11-fevralda** ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini **34 kishidan** – **Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari, 8 nafar Bosh vazir o'rinbosarlari, 15 nafar vazir va 9 nafar davlat qo'mitalari raislaridan** iborat etib tasdiqladi.

**2003-yil 24 – 25-aprel** kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **XI sessiyasida** qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining tarkibi, uni tuzish va tasdiqlash tartibi o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi **89-moddasining** «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni paytda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» deyilgan qismi olib tashlandi. O'zbekiston Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri nomzodi avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

*Boshqaruv tizimidagi islohotlar.* Ma'muriy-buyruqbozlik, to'rachilik tizimining tayanchlari bo'lgan bir qator davlat qo'mitalari, vazirliklar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi. Davlat reja qo'mitasi isloh qilish qoidalari va ustuvorliklari, ularni amalga oshirish mexanizmlari asosida islohotlarni tahlil etish, baho berish, takliflar ishlab chiqish, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish istiqbollarini belgilash ishlari bilan shug'ullanmoqda. Taqsimot bo'yicha yakka hokim bo'lib olgan Davlat ta'minot qo'mitasi tugatilib, Respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi tuzildi. Uyushma tarkibiga respublika aksiyadorlik tovar-xomashyo birjasi, aksiyadorlik birja banki, hududiy aksiyadorlik tijoratchi vositachi kompaniyalar kiradi. Davlat narx qo'mitasi tugatilib, Moliya vazirligi tarkibida narxlarni nazorat qilish, narxlarni belgilashda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslik, raqobatchilik muhitini shakllantirish ishlariga ko'maklashuvchi maxsus boshqarma tuzildi.

Respublika moliya va bank tizimi tubdan o'zgardi. Moliya vazirligi byudjetni shakllantirish bilan bir qatorda davlat soliq siyosatini, moliya siyosatini belgilamoqda, valyuta ishlarini boshqarmoqda. Bank tizimi

isloh etildi. Davlat banki va uning bo'linmalari tugatildi. **Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki**, ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik-tijorat banklari – «O'zsanoatqurilishbank», «Paxtabank» (Agro-bank), «O'zjamg'armabank», «G'allabank» (Qishloqqurilishbank), «Tadbirkorbank», «Savdogarbank», xususiy banklar va boshqa banklar tuzildi. Banklarning mustaqilligi va pul muomalasidagi ahvol uchun javobgarligi oshirildi. Davlat nazorati tizimi tartibga solindi. Davlat soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatildi, Davlat nazorati qo'mitasi va uning joylardagi organlari tugatildi, Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi. Davlat suverenitetini amalga oshiruvchi tuzilmalar – **Tashqi ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Oliy attestatsiya komissiyasi** va boshqa hukumat organlari tashkil etildi. Islohotlarni chuqurlashtirish va muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzildi. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Qo'mita investitsiya fondlari, fond birjalari, ko'chmas mulk birjalari, auditorlik xizmatlari va boshqa bozor strukturasi tuzilmalarini tashkil etmoqda.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan aloqasini yo'lga qo'yish maqsadida respublika tarixida birinchi marta **Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi** tuzildi, vazirlik tovarlar va xizmatlar xalqaro bozorini tahlil qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi strategiyani ishlab chiqish, eksport-import bo'yicha markazlashgan tartibda mahsulotlar yetkazib berish ishlarini tashkil etmoqda. Vazirliklar, idoralar, korxonalarda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi bo'limlar, tashkilotlar, firmalar tuzildi. Respublikada tashqi aloqalarni ta'minlaydigan yaxlit tizim tarkib topdi.

O'zbekistonning ishlab chiqarish, transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlaydigan uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalarga va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transportida, qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi **Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligining** strukturasi, faoliyati va ish yuritish usullari tubdan o'zgardi.

Umummilliy ahamiyatga molik bo'lgan tarmoqlarda, masalan, sayyohlik,



transport, madaniyat, kino, televideniye va radio tizimi va boshqalarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan **milliy kompaniyalar** tashkil etildi.

Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgandan beri o'tgan qisqa tarixiy davrda huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, ixcham, ochiq rivojlanishga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizim yaratildi.

***Mahalliy davlat hokimiyatining tashkil topishi.*** Mahalliy davlat hokimiyati tubdan isloh qilindi. Islohotlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun (**1993-yil 2-sentyabr**), «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun (**1994-yil 5-may**) asosida amalga oshirildi. Konstitutsiyaning **99-moddasida** viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlar, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar deb belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyada mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organga – **vakillik** va **ijro hokimiyat** organlariga bo'linishi belgilandi. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning **1-moddasida** «*Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir*», – deb aniq belgilab qo'yildi. Shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda vakillik organlari tuzilmaydi. «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, vakillik organlariga **21 yoshga** to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga **60 tadan ko'p bo'lmagan**, tuman va shahar Kengashlariga esa **30 tadan ko'p bo'lmagan** deputatlar **5 yil** muddatga saylanadi. Mustaqillik yillarida **1994-yildan** e'tiboran har 5 yilda Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida saylovlar bo'lib o'tdi. **1999-yilgi** saylovda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga **6145 nafar deputat** saylandi.

***Hokimlikning tashkil etilishi.*** **1992-yil 4-yanvarda** «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq, respublikaning hamma hududida mahalliy ijro hokimiyati organi sifatida **hokim** lavozimi ta'sis etildi. Hokimlar faqatgina ijro hokimiyati organlarigagina, mahalliy

vakillik organlariga ham rahbarlik qiladigan organ sifatida mustahkamlandi. Hokimning vakolat muddati **5 yil** bo'lib, u tegishli hududda vakillik organiga ham, ijro hokimiyatiga ham boshchilik qiladigan mansabdor shaxs hisoblanadi. Ijro organlarida bog'liqlikni ta'minlash maqsadida viloyat hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi, bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

**1992-yili** Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 159 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati – **hokimiyatlar** tuzildi. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga kiradigan masalalar va vazifalar Konstitutsiyasining **100-** va **101-moddalarida** aniq belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat: *qonuniyligni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash; hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarini amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish; xalq deputatlari quyi kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashish.*

Mustaqillik yillarida mahalliy hokimiyatni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida ijro hokimiyati bilan vakillik hokimiyati bir-biridan rasman ajratildi. Hokimlar xalq deputatlari Kengashlariga bo'ysunmaydi, ammo Kengash oldida hisob berib turadi. Shu bilan birga, hokimlarni joylarda ham vakillik, ham ijro hokimiyati organlariga boshchilik qilish holatini vakillik organlari hokimlarga bo'ysunadi deb tushunmaslik kerak. Vakillik organlari hokimlarga bo'ysunmaydi, vakillik organlari ishini tashkil qilishga hokimlar boshchilik qiladilar.

Hokim mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni fuqarolarning manfaatiga mos ravishda hal qilish bilan shug'ullanadi. Shu maqsadda

barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi. Hokimlar o'zlarini rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardir.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot tarixi guvohlik beradiki, ayrim hokimlar o'z faoliyatida jiddiy xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. O'zlariga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni bajarishni uddalay olmagan, o'z lavozimini suiiste'mol qiluvchi hokimlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda ular vakolat muddatidan oldin hokimlik lavozimidan chetlashtirilmoqda.

**Sud hokimiyati.** O'zbekiston Respublikasida **sud hokimiyati** qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **106-moddasi**). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va **1993-yil 2-sentyabrda** qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi. O'zbekiston tarixida birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi tuzildi. Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislardan tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi: *qonunlarning, Prezident farmonlarining, hukumat va davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarining va boshqa majburiyatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligini aniqlaydi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi.*

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati **2000-yil 14-dekabrda** qabul qilingan «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun asosida yanada takomillashib bormoqda. O'zbekistonda sudlar ixtisoslashtirildi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi. Sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi. **2008-yil 1-yanvardan** mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi, fuqarolarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokuraturadan sudlarga o'tkazildi. Demak, mamlakatimizda jinoiy jazolashning insonparvar huquqiy tizimi tashkil etildi.

## 33-BOB. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANTIRILISHI

### 33.1. MAHALLIY O'ZINI O'ZI BOSHQARISHNING TASHKIL ETILISHI

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning tashkil etilishi. O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokrattashtirish, adolatli, ochiq fuqarolik jamiyati qurishdan iboratdir.

Demokratik jamiyat qurish bobida hamma davlat uchun tayyor qolip va andazalar yo'q. Islom Karimov dunyoda bir-biriga o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga aynan o'xshagan ikki davlat ham yo'q deganida haqlidir. To'g'ri, demokratik jamiyatning xalqaro miqosda e'tirof etilgan tamoyillari bor: *insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi; ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi; davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi; davlat hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar.* O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda ana shu tamoyillarga, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslandi. Shuningdek, xalqimizning necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilini, milliy davlatchiligimiz negizlarini, buyuk madaniyatimiz tomirlarini, ma'naviy merosimiz ildizlarini, milliy xususiyatlarimiz va boy an'analarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish yo'lidan bormoqda.

Demokratik jarayonning individualizm falsafasiga tayanuvchi, inqilobiy o'zgarishlarga moyil g'arb namunasi O'zbekistonga unchalik to'g'ri kelavermaydi. Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik g'oyasi va jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar O'zbekiston uchun asos qilib olindi. O'zbekistonda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasdan, odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib ekanligi hisobga olinmoqda.

O'zbekiston yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g'oyasiga asoslanmoqda. Respublikamizda odamlar o'z qobiliyati va ehtiyojlarini to'la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratishga katta e'tibor berildi. Negaki busiz adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi. Ana shunday imkoniyatlar yaratilgandan keyingina, har bir insonning taqdiri, turmushi, jamiyatdagi o'rnining o'ziga, salohiyatiga, mehnat qilish istagi, oqil-u uddaburonligiga bog'liq bo'ladi.

**Mahalla.** Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish masalalari fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir. Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. «Mahalla» so'zi arabcha «mahallun» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, **aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari** degan ma'noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Ma'lum bir mahallada istiqomat qiluvchi odamlar faqat qo'ni-qo'shnihilik rishtalari bilangina emas, balki ichki tartib-qoida, ma'naviy-axloqiy normalar, urf-odatlar, an'analar, umumiy manfaatlar va majburiyatlar bilan ham bog'liqdir. Agar Yevropa mamlakatlaridagi shaharlarda odamlar ijtimoiy kelib chiqishiga qarab «**aslzodalar kvartali**», «**kambag'allar kvartali**» va hokazolarga bo'linib yashasa, bizning Vatanimizdagi mahallalarda aholining turli ijtimoiy tabaqalari yonma-yon yashab kelmoqda.

Mahalla hayotining jamoa bo'lib yashash tarzi jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan o'zini o'zi boshqarish tizimini keltirib chiqardi. Mahallaga uning hududida yashaydigan aholi tomonidan saylab qo'yiladigan oqsoqol boshchilik qilgan.

El ishonchiga sazovor bo'lgan oqsoqol katta-yu kichikning boshini qovushtirib, mahalladoshlarning og'irini yengillashtirish ishlari bilan shug'ullanardi. Mahalla oqsoqoli, uning maslahatchilari mahalladoshlarining to'ylari, ma'rakalari, rasm-rusumlarining boshida turar, ularni kerakli ro'zg'or ashyolari – idish-tovoq, samovar-choynak, stol-stul, ko'rpacha-yu dasturxon bilan ta'minlardi. Shuningdek, oilaviy nizolarni bartaraf qilish, bir-biri bilan kelisholmay qolgan kelin va qaynonaning orasiga tushish, qo'ni-qo'shni o'rtasidagi kelishmovchiliklarga hakamlilik qilish, beboshroq yoshlarni tartibga chaqirish singari vazifalarni ham bajarardi.

Xalqimizning turmush tarzi, ruhiy-ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqqan bunday jamoatchilik boshqaruvi – mahalla qo'mitalari davlat ishlariga aralashmasa-da, sovet tuzumi «mahalla» so'zini mahalliychilik o'zagi deb bilar, faoliyatini cheklashga urinardi. Biroq aholining noroziligiga sababchi bo'lmaslik uchun mahallalarni taqiqlay olmadi, lekin uni jamiyatni boshqarish tizimiga kiritmadi. Mahalla qo'mitalari o'zining hayotchanligi tufayli mazkur davrda ham o'zini saqlab qololdi. Toshkent shahrida va respublikaning boshqa yirik shaharlarida o'nlab, yuzlab mahalla qo'mitalari faoliyat yuritardi. Ular aholiga yashash joyi, oila tarkibi to'g'risida ma'lumotnomalar ham berardi. Mahalla oqsoqoliga davlat tomonidan maosh ham berilmadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, yirik shaharlarda qad ko'targan ko'p qavatli binolar, gavjum bo'lgan turarjoy mavzelari, kvartallari mahalla ma-

qomiga ega emasdi, ularda mahalla qo'mitalari ham tuzilmasdi. Nihoyat, mustaqillik sharofati bilan **1992-yil boshlaridan** bunday mavze (kvartal) larga ham mahalla maqomi berilib, ularning har biriga joylashgan hududining tarixiy atalishiga mos keladigan nomlar qo'yildi. Yangi mahallalarda fuqarolar yig'ini o'tkazilib, mahalla oqsoqoli va mas'ul kotiblar saylandi.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston qishloq va posyolka (shaharcha) larida vakillik boshqaruv organlari tuzilgan bo'lib, ular qishloq sovetlari yoki posyolka sovetlari deb atalardi va faoliyat yuritardi. Mazkur sovetlar mustaqil hokimiyat organi bo'lmay, xalq deputatlari tuman yoki shahar kengashlari, ularning ijroiya qo'mitalariga bo'ysunardi.

O'zini o'zi boshqarishning huquqiy asoslari. O'zbekiston davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, mahallaga munosabat tubdan o'zgardi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi tubdan isloh qilindi. Bu borada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini davlat hokimiyati tizimidan ajratish tomon yo'l tutildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirishning huquqiy asoslari o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning **105-moddasida**: «*Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi*», – deb belgilab qo'yildi.

**1993-yil 2-sentyabrda** «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Unga binoan, qishloq, posyolka (shaharcha)larda davlat hokimiyati vakillik organlari – qishloq, posyolka sovetlari tuzilmaydigan bo'ldi, ularning o'rniga o'zini o'zi boshqarish organlari – **mahalla qo'mitalari** tuzildi. Shunday qilib, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mahalliy hokimiyat tizimidan ajratildi. Biroq ular bir-biridan mutlaqo ajratilgan holda faoliyat ko'rsatmaydi, ularning bog'liq tomonlari mavjud. Ular o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda belgilab qo'yilgan.

Mahallalarga davlat homiyligi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirishga davlat homiylik qilmoqda. Bu borada O'zbekiston Prezidentining Respublika «Mahalla» xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida **1992-yil 12-sentyabrdagi** hamda «Mahalla» xayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risida **1992-yil 8-oktyabrdagi** farmonlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat homiyligida Respublika «Mahalla» jamg'armasi, viloyat, shahar, tuman «Mahalla» jamg'armalari tashkil etildi. Mahallalar faoliyatini yurituvchi «Mahalla» gazetasi (**1994**) ta'sis etildi. Davlatning «Mahalla» jamg'armalari orqali ko'rsatayotgan homiyligi

mahalla qo'mitalarining o'z hududlarida istiqomat qiluvchi kam ta'minlangan oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam berish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasidagi ishlariga katta ko'mak bo'lmoqda.

Hukumat mahallalarga dastlab davlat byudjeti hisobidan **25 mln so'm** mablag' ajratdi. Viloyat, tuman, shahar hokimliklari tomonidan mahallalar rolini oshirish, ular faoliyatini takomillashtirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun tegishli binolar ajratildi, ularni jihozlashga ko'maklashildi. Mahalla oqsoqoli va kotiblariga oylik ish haqi belgilandi. Bu maqsadlar uchun hokimiyatlar mahalliy byudjetdan zarur mablag'lar ajratdilar. **1994-yilgi ma'lumotlar** shuni ko'rsatadiki, butun respublika hududida **12 mingdan ortiq** mahalla shakllantirildi. 1994-yili barcha mahallalarda mahalla oqsoqollari va mas'ul kotiblar saylandi.

*O'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari va faoliyati.* Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari, vazifalari O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunida aniq belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari: *fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqini amalga oshirishda ko'maklashish; o'z hududlarida ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini hal qilish, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish; davlat hokimiyati organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, Prezident va hukumat hujjatlari, xalq deputatlari kengashlari va hokimliklarning qarorlarini bajarishda yordamlashish maqsadida fuqarolarni birlashtirish.*

Fuqarolar yig'ini kollegial organ bo'lib, uni rais (oqsoqol) tegishli xalq deputatlari kengashi yoki hokim bilan kelishgan holda zaruratga qarab chaqiradi. Fuqarolar yig'ini barcha aholini yig'ishning iloji bo'lmagan hollarda belgilangan vakillik me'yorlari asosida o'tkaziladi. Rais (oqsoqol), uning maslahatchilari fuqarolar yig'inida saylanadi. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) – doimiy ishlovchi bo'g'in. Rais o'z mahkamasiga ega bo'lib, uning miqdori rais o'z vazifasini bajarishga imkoniyat yaratadigan darajada tuziladi.

O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini takomillashtirish, zarur holatlarda yiriklashtirish tadbirlari ko'rilmogda. Agar **1994-yili 12 mingdan ortiq** o'zini o'zi boshqarish organlari shakllantirilgan bo'lsa, ularning soni **2001-yili 7847 tani** tashkil etdi. **1999-yil 14-aprelda** qabul qilingan «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonunda ularning vakolat va huquqlari kengaytirildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek, mahalla fuqarolar yig'iniga: *aholi manfaatlarini ifodalash va uning nomidan qarorlar qabul qilish; qonun hujjatlarining, shuningdek, o'z qarorlarining ijro etilishi bo'yicha*

*jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; atrof-muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish yuzasidan o'z hududida joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini o'qitish* huquqlari berildi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga saylovlar aholining ijtimoiy faolligi, siyosiy ongi tobora yuksalib borayotganidan guvohlik beradi. **1998-yil noyabr – dekabr** oylarida o'tgan saylovlar bilan bog'liq bo'lgan fuqarolar yig'inlarida **8,4 mln kishi** yoki respublikadagi katta yoshdagi aholining **70 foizi** ishtirok etdi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga **7574 nafar rais** va **71 034 nafar maslahatchi** saylandi. O'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining ma'lumot darajasi ham oshib bormoqda. **1998-yili** saylangan rais (oqsoqol)larning **65,5 foizi oliy ma'lumotli** mutaxassislar ekani buning dalilidir.

**2001-yil iyun – iyul** oylarida **Samarqand viloyatidagi 1042 ta** fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bo'lgan saylovlarga **1 mln 120 mingdan ortiq** fuqaro vakillari ishtirok etdi. **1042 nafar rais** (oqsoqol) saylandi, ularning **68 nafari** xotin-qizlardir. **2001-yili** respublikamizda **6289 ta** mahalla fuqarolar yig'ini, **108 ta shaharcha**, **1320 ta qishloq** va **131 ta ovul** fuqarolar yig'ini, ular tomonidan saylangan o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat ko'rsatdi. Ular qonunchilikni ta'minlash, Prezident farmonlarini, hukumatning, hokimiyat vakillik organlari va hokimlarning qarorlarini ijro etish borasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ko'maklashmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekiston Prezidentining **1999-yil 13-yanvarda** chiqqan «Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida»gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining **2002-yil 25-yanvardagi** «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002 – 2003-yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori talablarini bajarmoqdalar. Faqat **2000-yilning** o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali **54,2 mlrd so'm** miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi. O'zini o'zi boshqarish organlari tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash, ularning huquqlarini himoya qilish, qariyalarga shafelik qilish, aholini ish bilan ta'minlash kabi ishlarga bosh-qosh bo'lmoqdalar. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan **2003-yil «Obod mahalla yili»** dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya yil davomida bajarilishi



zarur bo'lgan tadbirlarning dasturini ishlab chiqdi. **2003-yil 7-fevralda** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Obod mahalla yili» dasturi to'g'risida qarori e'lon qilindi.

Mazkur dastur quyidagi muhim maqsad va vazifalarni hayotda ro'yobga chiqarishga qaratilgan: *mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotidagi roli va maqomini mustahkamlash; mahalla faoliyatining amaldagi me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, uning vakolatlarini kengaytirish va fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi mas'uliyatini oshirish; mahalla faoliyatining moddiy bazasini mustahkamlash, mahalla hududida tadbirkorlikni, xizmatlar ko'rsatish va savdo sohalarni rivojlantirish, shular hisobiga yangi ish o'rinlari barpo etish; mahallaning ijtimoiy-infratuzilmasini rivojlantirish, uning hududlarini obodonlashtirish, kommunal tarmoqlarni rivojlantirish; mahalla tomonidan kam ta'minlangan oilalarga aniq yo'nalishli moddiy yordamni va yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish; keksa avlodga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish; mahalla aholisiga tibbiy va sanatoriy-kurort xizmati ko'rsatilishini yaxshilash, bolalar sportini rivojlantirish; mahallaning aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy adolat, o'zaro mehr-oqibat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog'liq milliy qadriyat va urf-odatlarimizni keng targ'ib qilish, ularni asrab-avaylash sohasidagi faoliyatini takomillashtirish.*

«Obod mahalla yili» dasturini bajarilishini ta'minlash maqsadida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini rivojlantirish bo'yicha maxsus jamg'armalar tashkil etildi. Mahallalarda kichik va o'rta biznes, shuningdek, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shular hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlovchi tarmoqlar qurish, uy-joy fondini va yo'llarni ta'mirlash, mahallalarni obodonlashtirish, zamonaviy mahalla guzarlarini va bolalar sport inshootlarini barpo etish borasidagi ishlar hajmi aniq belgilandi. «Obod mahalla yili» dasturini to'la amalga oshirish uchun davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar, nodavlat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar grantlari va kredit mablag'lari hisobiga **375,9 milliard so'm** jalb etilishi nazarda tutilgan.

Mahallalarimizni yanada obod qilish maqsadida obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. **1,7 mlrd so'm** miqdorida mablag' sarflanib, **310 ta** mahalla guzari bunyod qilindi. **Ming kilometrlik** suv tarmog'i va **1 ming 322 kilometrlik** gaz tarmog'i ishga tushirildi. Mahallalarda **36,2 mlrd so'mlik** kredit mablag'lari hisobiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari tashkil etilib, qariyb **155 mingta** yangi ish o'rinlari yaratildi. **1,2 mlrd so'mlik** xayriya yordami berildi. 2010-yili fuqarolar yig'inlari

va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar soni 10 mingdan ortiqni tashkil etdi.

### 33.2. INSON HUQUQLARI, ERKINLIK LARI KAFOLATLARI VA DEMOKRATIK SAYLOV TIZIMINING YARATILISHI

Xalqaro huquq normalarining tan olinishi. 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti»da O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq doirasida hamma e'tirof etgan qonun-qoidalar ustunligini tan oladi deb bildirildi. O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklariga doir BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan «**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi**» (1948-yil 10-dekabr), «**Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt**» (1966-yil 19-dekabr), «**Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt**» (1966-yil 19-dekabr) kabi xalqaro hujjatlar tan olindi va ularga sadoqat bilan amal qilinmoqda. O'zbekiston BMT kotibiyatining inson huquqlari va erkinliklariga doir **21 ta** deklaratsiya, pakt va konvensiyalarga qo'shildi. O'zbekiston Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti hujjatlarini tan oldi va uning demokratik institut va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan inson huquqlarini himoya qilish sohasida hamkorlik qilmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklari – oliy qadriyat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **13-moddasi** O'zbekistonda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi deb belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolik qabul qilingan, ayni vaqtda, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning **7-bobida** respublika fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklari quyidagicha ta'riflab berilgan: *yashash huquqi; erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi; aybsizlik prezumpsiyasi; shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniish va uy-joy daxlsizligi huquqi; bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi; fuqarolarning o'z huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar bilan tanishib chiqish huquqi; vijdon erkinligi.* Mazkur huquq va erkinliklarga har bir shaxs ega bo'ladi hamda o'zi tomonidan mustaqil amalga oshiriladi. Inson hayoti qonun bilan qo'riqlanadigan muqaddas qadriyatdir.

Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi (1995-yil 21-dekabr), «Fuqarolarning murojaati to'g'risida» (1994-yil 6-may), «Fuqarolar muhofazasi to'g'risida» (2000-yil 26-may), «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» (1998-yil 1-may kuni yangi tahrirda qabul qilingan) va boshqa qonunlar bilan kafolatlangan.

Siyosiy huquqlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida fuqarolarning siyosiy huquqlari mustahkamlangan. Ular quyidagilardan iborat:  *davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashish; o'z ijtimoiy faolliklarini mitinglar, namoyishlar va yig'inishlar shaklida amalga oshirish; kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga, jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish; vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish.* Fuqarolarning siyosiy huquqlari Konstitutsiya, «Jamoat birlashmalari to'g'risida», «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida» va boshqa Qonunlar bilan himoya qilinadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida respublika fuqarolarining iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari mustahkamlab qo'yilgan:  *uy-joyga ega bo'lish; mulkdor bo'lish va undan erkin foydalanish; mehnat qilish, erkin kasb tanlash, ishsizlikdan himoyalaniish; yollanib ishlaganda dam olish; qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish; malakali tibbiy xizmatdan foydalanish; bilim olish; ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish.*

Zarur bo'lgan hollarda inson huquqlari sudga himoya qilinadi yoki tiklanadi. «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonun (1995-yil 30-avgust) ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning burchlari. Fuqarolarning burchlari, majburiyatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan. Fuqarolarning burchlari:  *Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish; Vatanni himoya qilish; harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash; boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish; O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy meros obyektlarini avaylab-asrash; qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash; tabiat va atrof-muhitni saqlash, tabiiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.* O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», «Yer to'g'risida», «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida», «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida» va boshqa Qonunlarida fuqarolarning tabiat bilan bo'ladigan muloqotdagi majburiyatlari belgilab berilgan.

Inson huquqlari bo'yicha vakil. Inson huquqlarini himoya qiluvchi tizimga Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz kiradi. **1995-yil 23-fevralda** birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasida Oliy Majlisning **inson huquqlari bo'yicha vakili** (ombudsman) lavozimi ta'sis etildi va bu lavozimga **Sayyora Rashidova** saylandi.

Inson huquqlari bo'yicha vakilning maqomi va faoliyat doirasi **1997-yil 26-aprelda** qabul qilingan «Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) to'g'risida»gi Qonun bilan belgilab berildi. Vakil faoliyatining asosiy yo'nalishlari: *inson huquqlariga doir qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish; shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha aniq mexanizmni yaratish va fuqarolar huquqlarining tiklanishi uchun samarali choralarni ko'rish; vakilning fuqarolar, nohukumat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bilan inson huquqlari monitoringi sohasidagi hamkorligini mustahkamlash; vakilning inson huquqlari masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish.*

Inson huquqlari bo'yicha vakil yil oxirida sohadagi ishlar haqida parlament va Prezidentga ma'ruzalar kiritadi. O'z faoliyatini olib borish paytida vakilning daxlsizligi ta'minlanadi va u tergov ishlari sohasida katta vakolatlarga ega. Vakil BMTning inson huquqlari bo'yicha markazi, YXHTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan hamkorlik qiladi, uchrashuvlar va xalqaro seminarlar uyushtiradi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda Prezident farmoniga asosan **1996-yil noyabrda** tashkil etilgan Inson huquqlari bo'yicha milliy markazning ahamiyati ham katta. Respublikamizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlarga muvofiqligini, xalqaro huquqiy me'yorlarning mamlakatimizning amaldagi qonun hujjatlariga joriy etilishini ta'minlashda **1996-yil dekabrda** tashkil qilingan Oliy Majlis huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlarini monitoringi instituti ham ijobiy tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Demokratik saylov tizimining huquqiy asoslari. Demokratiyaning bosh talabi bu erkin va adolatli saylovlardir. O'zbekistonda xalqaro huquq andazalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratildi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yilida «O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida» (**1991-yil 18-noyabr**) va «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida» (**1991-yil 18-noyabr**) Qonunlar qabul qilindi. **1991-yil 29-dekabrda** fuqarolarning yuksak faolligi asosida o'tgan saylovlarda xalqimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi ma'qullandi va Islom Karimov

O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. O'zbekistonda demokratik saylov o'tkazishda ilk tajriba to'plandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi natijasida saylov tizimining huquqiy asoslari mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining **18 yoshga** to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar (**117-modda**).

Saylovlar haqida saylov o'tkazish tartiblari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»-gi (**1993-yil 28-dekabr**), «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi (**1994-yil 5-may**), «Fuqarolarning saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi (**1994-yil 5-may**) Qonunlar shular jumlasidandir. **1997-yildan** boshlab amaldagi saylov qonunlariga, referendum to'g'risidagi qonunga bir qator o'zgartirishlar kiritildi, bo'lajak saylovlar uchun zarur huquqiy asoslar yaratildi.

Saylov komissiyalari. O'zbekistonda saylovlarni tashkil etish uchun mustaqil **Markaziy saylov komissiyasi** tuziladi. Uning maqomi va ish yuritish tartibi **1998-yil 30-aprelda** qabul qilingan **«Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi Qonunda** belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga saylov o'tkazuvchi okrug va uchastka saylov komissiyalari tuziladi. Saylov uchastkalari kamida **20 nafar** va ko'pi bilan **3000 nafar saylovchidan** iborat bo'ladi. Masalan, **1999-yili** saylovlarni tayyorlash va o'tkazish uchun respublikamizda **7684 ta saylov uchastkalari** tuzildi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovni tashkil etish ishlarini viloyat, tuman va shaharlarda tuziladigan saylov komissiyalari bajaradi, saylovlar okrug va uchastka komissiyalari tomonidan o'tkaziladi. Saylov organlari o'z faoliyatida qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik, mustaqillik, adolatlilik prinsiplariga rioya qiladi. Respublika saylov tizimi saylov kunigacha **18 yoshga** to'lgan har bir fuqaroning ovoz berishda bevosita ishtirok etishini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarga asoslanadi. Sud tomonidan huquqiy muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saylovlarda qatnasholmaydilar.

Saylov o'tkazish prinsiplari. O'zbekistonda saylovlar umumiy va tenglik prinsipiga asoslanadi. Buning ma'nosi shuki, har bir saylovchining

ovozi teng, ya'ni har bir saylovchi bitta ovozga ega. Fuqarolar ijtimoiy kelib chiqishi, irqiy yoki milliy mansubligidan, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatidan qat'i nazar teng saylov huquqiga ega. Saylovchilar saylov uchastkalariga teng, erkin kirish imkoniyatiga ega.

O'zbekistondagi saylovlar nomzodni to'g'ridan to'g'ri, bevosita saylashni ta'minlovchi saylovlardir. Buning ma'nosi shuki, Prezident, Oliy Majlis va mahalliy vakillik hokimiyatiga saylovlarda fuqarolar bevosita ishtirok etadi, AQShda Prezidentni saylash uchun avval saylovchilar tanlanadi, keyin ana shu tanlangan vakillar Prezident saylovida qatnashadilar. Saylovlarda yashirin ovoz berish ta'minlanadi, ovoz beruvchining xohish-irodasini nazorat qilishga yo'l qo'yilmaydi. Saylov uchastkalarida ovoz beriladigan, byulletenlar to'ldiriladigan alohida xonacha – kabinalar tuziladi. Xonachada ovoz beruvchidan boshqa biron-bir kishining bo'lishi man qilinadi. Byulletenni mustaqil to'ldirish imkoniga ega bo'lmagan saylovchi o'z xohishiga ko'ra saylov komissiyasi a'zosidan boshqa biror shaxsni xonachaga taklif etishi mumkin. Saylovlar bir mandatli okruglarda hududiylik tamoyillari asosida o'tkaziladi. O'zbekistonda saylovlar ko'ppartiyaviylik prinsipida o'tkaziladi. O'zbekiston Prezidentligiga, Oliy Majlis deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqi siyosiy partiyalarga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Toshkent shahar va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlariga va fuqarolar tomonidan shakllantiriladigan tashabbuskor guruhlariga berilgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga ega. Respublika bo'yicha barcha darajalardagi davlat hokimiyati vakillik organlariga **7 mingdan ziyod** (Oliy Majlisning quyi palatasiga **120 ta deputat**, Oliy Majlis Senatiga **100 ta senator**, Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga **800 tadan ortiq**, tuman va shahar Kengashlariga **6000 taga yaqin**) deputatlar saylanadi. Har bir deputatlik o'rniga kamida **4 – 3 tagacha nomzodlar** qo'yiladi va ular o'rtasida qizg'in bahs, kurash ketadi.

**Saylov natijalarini aniqlash.** O'zbekistonda saylov natijalari eng demokratik majoritar usulda aniqlanadi. Saylov natijasida saylovda qatnashganlarning **50 foizi + 1 ovoz olgan nomzod** saylangan hisoblanadi. Agar saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylov yoki referendumda ishtirok etgan bo'lsa, saylov yoki referendum o'tmagan deb hisoblanadi. Basharti saylov okrugi yoki uchastkasida saylov o'tmagan deb topilsa, nomzodning saylanganini aniqlash imkoni bo'lmasa, qo'yilgan nomzodlardan birtasi 50 foiz + 1 ovoz ololmasa,

takroriy saylov o'tkaziladi. Takroriy saylov asosiy saylovdan keyin ko'pi bilan bir oy ichida bo'ladi. Takroriy saylovda ovoz berish asosiy saylov o'tkazish uchun tuzilgan saylovchilarning ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladi, ovoz berish byulleteniga asosiy saylovda boshqalarga nisbatan ko'proq ovoz olgan ikki nomzod kiritiladi, oddiygina ko'p ovoz olgan nomzod yutib chiqadi.

### 33.3. SIYOSIY PARTIYALAR, JAMOAT TASHKILOTLARI VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJLANISHI

Siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalarini shakllantirishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunda jamoat birlashmalarining huquqiy maqomi belgilab berildi. Konstitutsiyaning **56-moddasiga** muvofiq, O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasida fuqarolar siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi (1996-yil **25-dekabr**) Qonunida siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari yanada rivojlantirildi va mustahkamlandi. Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega: o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish; qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, mahalliy vakillik hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish; partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish; O'zbekiston Respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq (blok) tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish; O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda demokratik jamiyatning qonuniy belgisi bo'lgan ko'ppartiyaviylik shakllandi, jamoat birlashmalari tubdan yangilandi. O'zbekistonda **4 ta siyosiy partiya, 2 ta ijtimoiy harakat**

faoliyat ko'rsatmoqda. **2007-yili** qabul qilingan «**Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida**»gi konstitutsiyaviy qonun siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirdi. Bosh vazir lavozimiga nomzod bo'yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashish tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishi qat'iy belgilab qo'yildi. Qonunchilik palatasidagi partiya fraksiyalariga Bosh vazirni iste'foga chiqarish, mahalliy kengashlardagi partiya guruhlariga esa viloyat hokimlarini iste'foga chiqarish to'g'risida to'rt shabbus bilan chiqish huquqlari berildi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning mamlakat hayotidagi o'rni va ta'siri ortib borayotganidan dalolat.

*O'zbekiston xalq demokratik partiyasi (XDP).* **O'zbekiston xalq demokratik partiyasi 1991-yil 1-noyabrda** Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Ushbu qurultoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston XDP **1991-yil 15-noyabrda** Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi. Partiyaning **218 viloyat, shahar va tuman kengashlari, 13 665 boshlang'ich tashkiloti** faoliyat ko'rsatmoqda. **400 mingdan ko'proq a'zolari bor.** XDP parlament partiyasidir. Partiya Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar vaqtida nomzodlar ko'rsatadi, davlat hokimiyati organlarining barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi. Oliy majlis Qonunchilik palatasining 2010-yilgi qarori bilan XDPning 32 kishidan iborat deputatlari fraksiyasi ro'yxatga olingan.

XDPning «**O'zbekiston ovozi**», «**Golos Uzbekistana**» gazetolari va «**Muloqot**» jurnali nashr etilmoqda.

*«Adolat» sotsial-demokratik partiyasi.* **1995-yil 18-fevralda** O'zbekiston «**Adolat**» sotsial-demokratik partiyasi (SDP) tuzildi. Partiyaning Toshkentdagi I ta'sis qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. Adliya vazirligi **1995-yil 18-fevralda** «Adolat» SDPni ro'yxatga olgan. Oliy majlis Qonunchilik palatasining 2010-yilgi qarori bilan «Adolat» SDPning 19 kishidan iborat deputatlar fraksiyasi ro'yxatga olingan. Partiya fraksiyasi «Adolat» SDP majlislari, kengashlari va qurultoylari qarorlariga amal qilib, ular oldida o'z ishlari yuzasidan belgilangan tartibda hisobot beradi. «Adolat» SDP safida **30 mingdan ortiq a'zo bor.** Qoraqalpog'iston Respublikasida, barcha viloyatlarda, 175 shahar va tumanlarda partiya kengashlari tuzilgan. Joylarda **1000 dan ortiq boshlang'ich partiya tashkilotlari** ish olib bormoqda. «Adolat» SDPning «Adolat» nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

*Milliy tiklanish demokratik partiyasi.* O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayot-



gan partiyalardan yana biri – **O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi** (MTDP). U **1995-yil 3-iyunda Toshkentda** bo‘lib o‘tgan ta‘sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi **1995-yil 9-iyunda** MTDPni ro‘yxatga oldi. MTDPning oliy organi **5 yilda** chaqiriladigan qurultoy bo‘lib, unda rahbar organlar saylanadi.

«Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi. **1998-yil 28-dekabrda O‘zbekiston «Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi** tashkil topdi. Partiyaning **1998-yil 28-dekabr**dagi ta‘sis konferensiyasida uning Dasturi va Nizomi tasdiqlangan. «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi nomzodlaridan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisga **34 nafar deputat** saylandi. **2000-yil 14-aprelda** «Fidokorlar» partiyasi va Vatan taraqqiyoti partiyasining qo‘shma qurultoyi bo‘lib, ular birlashdi va «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi nomini oldi. Toshkentda **2008-yil 20-iyun** kuni «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi va O‘zbekiston Milliy tiklanish partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda ikkala partiyaning birlashtirishga qaror qilindi. Markaziy kengash, Markaziy nazorat-taftish komissiyasi a‘zolari saylandi, birlashgan partiyaning bosma organi tasdiqlandi. Partiya markaziy kengashi ijroiya qo‘mitasi raisi etib Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitasi raisi **Axtam Tursunov** saylandi. Oliy majlis Qonunchilik palatasining 2010-yilgi qarori bilan Milliy tiklanish demokratik partiyasining 31 nafardan iborat deputatlar fraksiyasi ro‘yxatga olindi.

Liberal-demokratik partiya. **2003-yil oxirlarida O‘zbekiston liberal-demokratik partiyasi** tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatlarini himoya qilish, jamiyat hayotini yanada erkinlashtirishdan iborat. O‘zLiDePning «**XXI asr**» haftalik gazetasi nashr etilmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining **2010-yil** qarori bilan O‘zbekiston liberal demokratik partiyasining **53 kishidan** iborat deputatlar fraksiyasi ro‘yxatga olingan.

«Xalq birligi» harakati. **1995-yil may** oyida jamoatchilikning tashabbusi bilan **O‘zbekiston «Xalq birligi» harakati** tashkil etildi va faoliyat ko‘rsatmoqda. Adliya vazirligi mazkur harakatni **1995-yil 9-iyunda** ro‘yxatga oldi. «Xalq birligi» harakatining oliy organi **qurultoy** bo‘lib, u **4 yilda** bir marta chaqiriladi. Unda rahbar organlar saylanadi. «Xalq birligi» harakati tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar va tuman kengashlari hamda boshlang‘ich tashkilotlar ish olib bormoqda. «Xalq birligi» harakati Respublika baynalmilal madaniy markazi hamda 100 dan ortiq milliy-madaniy markazlar bilan bahamjihat faoliyat yuritmoqdaki, bu turli millat va elat vakillari birligini mustahkamlashda ijobiy

rol o'ynamoqda. «Xalq birligi» harakatining «Birlik» va «Yedinstvo» haftalik gazetolari nashr etilmoqda.

**«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati.** O'zbekiston Prezidentining **1996-yil 17-apreldagi** farmoniga muvofiq respublika yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi tashkil etilgan. Prezident Islom Karimov **2001-yil 24-yanvarda** Toshkentda bo'lib o'tgan yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning chinakam suyanchi bo'la oladigan yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. **2001-yil 25-aprel** kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkiloti – «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish (**14 yoshdan 28 yoshgacha**), sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit-qizlarning o'z aql-zakovati, kuch-g'ayratini to'la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo'lishdan iboratdir.

**Jamoat tashkilotlari.** O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari ham faoliyat yuritmoqda. Jumladan, **O'zbekiston kasaba uyushmalari** turli kasb egalari bo'lgan xodimlarning jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy munosabatlaridan qat'i nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston kasaba uyushmalarining **1996-yilgi** ma'lumotlariga ko'ra, **53 mingga yaqin** boshlang'ich tashkilotlariga ixtiyoriy birlashgan **7,5 mln dan ziyod** a'zosi bor. O'zbekistonda kasaba uyushmalari federatsiyasi tarkibida **21 tarmoq** kasaba uyushmalari, hududiy jihatdan esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasaba uyushmalari kengashlari mavjud. Ular xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yo'lida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mustaqillik sharoitida ayollarni, ko'p bolali onalarni har tomonlama muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, mehnatkash va ijodkor ayollarni bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq muammolarni hal etishga keng safarbar etish, ilm-fan sohasidagi ayollarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining **1991-yil 1-martdagi** O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi to'g'risidagi farmoyishi bilan **Xotin-qizlar qo'mitasi** tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasining asosiy maqsadi *jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning ma'naviy va madaniy talablarini qondirish, ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va psixologik yordam be-*

rish, oilani, onalik va bolalikni himoya qilish, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun ayollarning ishtirok etishlarini ta'minlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari, 38 shahar, 170 tuman, 14 mingdan ortiq mehnat jamoalari va turarjoylarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo'mitalari faoliyat yuritmoqda. Qo'mita qoshida xotin-qizlar toifalariga qarab tuzilgan turli-tuman professional, ijodiy va boshqa uyushmalar ishtiroqda. **1996-yili** Prezident farmoni bilan Faxriylar kengashi «**Nuronly**» jamg'armasiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **1994-yil 16-martdagi «1941 – 1945-yillardagi urushda fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 50 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni nishonlash to'g'risida»gi Farmonida** yurtdoshlarimizning urush yillaridagi jasoratini hamda qurbon bo'lganlar xotirasini abadiylashtirishga bag'ishlangan ko'p jildli «**Xotira**» kitobini nashr etish vazifasi qo'yildi, yetarli miqdorda mablag' ajratildi va barcha shart-sharoit yaratib berildi. Juda katta mehnat va mashaqqatli izlanishlar natijasida urushda halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan **450 mingga yaqin** o'zbekistonlik jangchilarning aziz nomlari zikr etilgan **34 jildlik «Xotira»** kitobi **1995-yili**, g'alabani 50 yilligi arafasida, xalqimizga, sobiq jangchilarning xonadonlariga bepul yetkazib berildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining keng qatlamlarini birlashtiruvchi **5 mingdan ortiq** jamoat birlashmalari, nodavlat va notijorat tashkilotlari shakllandi va faoliyat ko'rsatmoqda. Shular jumlasiga «**Ma'naviyat va ma'rifat**» jamoatchilik markazi, «**Sog'lom avlod uchun**» va «**Ekosan**» xalqaro jamg'armalari, «**Mahalla**» va «**Navro'z**» xayriya jamg'armalari, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi «**Ulug'bek**» va «**Iste'dod**» jamg'armalari, «**Mehr-shafqat va salomatlik**», «**Bolalar**», «**Amir Temur**», «**Alisher Navoiy**», «**Abdulla Qodiriy**» jamg'armalari va boshqalar kiradi.

Ommaviy axborot vositalari. Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalariga munosabat o'zgardi. Avvalo, ularning huquqiy asoslarini yaratish tadbirlari ko'rildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining **67-moddasiga** ko'ra, ommaviy axborot vositalari erkin va qonunga muvofiq ishlaydi. **29-moddada** esa har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasno deb belgilab qo'yilgan. Oliy Majlisda **1997-yil 24-aprelda «Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to'g'risida»** va «**Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida**», **1997-yil 26-dekabrda «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»** Qonunlar qabul qilindi. Davlat organlari,

muassasalar, tashkilotlarning mansabdor shaxslari senzurani amalga oshirganlik, jurnalistga tazyiq o'tkazganlik, uning professional faoliyatiga aralashganlik uchun javobgar bo'lishlari qonunan mustahkamlab qo'yildi. Ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonida tuzilgan Axborot markazi, Milliy matbuot klubi ommaviy axborot vositalariga moddiy jihatdan ko'maklashmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra **1996-yil avgust** oyida ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etildi. Respublika Prezidentining **1997-yil 7-maydagi «O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga** ko'ra O'zbekiston davlat televideniye va radioeshittirish qo'mitasi **O'zbekiston teleradiokompaniyasiga** aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tuzildi.

Mustaqillik yillarida respublika ommaviy axborot vositalari soni ko'paydi, sifati yaxshilandi. **1990-yili 376 nomda** gazeta va jurnallar chop etilgan bo'lsa, **2010-yili 1200 taga yetdi. 4 ta axborot agentligi, 55 ta nashriyot, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari** va uning hududiy bo'linmalari, **100 dan ortiq elektron axborot vositalari** faoliyat ko'rsatdi. Ko'p millatli O'zbekistonda gazetalar, jurnallar, teleradiostudiyalar **12 tilda – o'zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq** va boshqa tillarda chop etiladi, eshittiriladi. **6 ta gazeta** va **8 ta jurnalda** o'zbek tili bilan birga **ingliz, arab, turk, urdu, fors, hind** tillaridan foydalaniladi. Ommaviy axborot vositalari, ularning muassislari, mazmuni va yo'nalishiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi. Bular davlat tomonidan nashr etiladigan; siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari, tijorat va xususiy gazeta va jurnallardir. Diniy tashkilotlarning gazeta va jurnallari, adabiy-badiiy ixtisoslikka yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy nashrlar mavjud. **1996-yili** respublikamiz AQShda joylashgan kompyuter tizimi – **Internet** bilan bog'landi va jahon yangiliklarini qabul qilish va axborot uzatish yo'lga qo'yildi.

Birgina **2003-yili** Internetdan foydalanuvchilar soni qariyb ikki baravar ko'paydi va mamlakatimizning yarim milliondan ortiq aholisi axborot xizmatining muhim turi hisoblanayotgan Internetdan foydalandi. 2010-yili ularning soni 6 milliondan oshdi. Shahar va tuman markazlarida Internet klublar, Internet kafelar soni, milliy axborot segmenti yildan yilga ko'payib bormoqda. **2004-yil aprel** oyida «uz» hududida ro'yxatga olingan

web saytlar soni **2600** taga yetdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining web sayti ([www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)) Internet tarmog'ida mashhur bo'lib ketdi. Undan mamlakatimiz aholisi, jahondagi 80 dan ortiq mamlakat fuqarolari foydalanmoqda.

## 34-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR. BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA IQTISODIY TARAQQIYOT

### 34.1. O'ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH YO'LI, HUQUQIY ASOSLARI VA BOZOR INFRATUZILMASINING YARATILISHI

Bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida ishlaydigan iqtisoddir.

Bozor iqtisodiyoti qadim zamonlardan boshlab ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelmoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda bozor munosabatlari **ikkı xil** shaklda namoyon bo'ldi. *Birinchisi, tartibsiz, stixiyali faoliyat yurituvchi bozor iqtisodiyoti.* Bunda ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tarqoq, o'zibo'larchilik asosida, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan holda faoliyat yuritadilar. *Ikkinchisi, davlat, iqtisodiy qonunlar va iqtisodiy vositalar bilan tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti.*

Uning xususiyatlari quyidagilar: *tovar ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy erkin bo'ladilar; kishilar mulk egasi bo'ladi, o'zi ishlab chiqargan mahsulot egasi bo'lib, uni o'zi xohlaganicha sotishi va sotmay turishi mumkin; tovar oldi-sottisi sotuvchi bilan xaridorning erkin va ixtiyoriy munosabatiga asoslanadi; tovar ishlab chiqaruvchilar bozorda erkin raqobatda bo'ladilar; bozorda ishlab chiqaruvchi emas, iste'molchi o'z shartini qo'yadi, chunki pul uning qo'lida bo'ladi; bozorda nimaga talab oshsa, shu narsani ishlab chiqarish foydali bo'ladi; jamiyat a'zolari o'z daromadiga ko'ra tabaqalanadi.*

Jahon tarixi tajribasi guvohlik beradiki, insoniyat birdaniga tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyotini yaratolmagan, necha ming yillar davomida stixiyali bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab, vaqt-vaqti bilan iqtisodiy larzalarni, chuqur iqtisodiy inqirozlarni boshidan kechirgan. **XX asrda** jahon sivilizatsiyasi insoniyat manfaatlarini yo'lida yanada jadal taraqqiy etdi. Bu jarayon iqtisodiy tafakkurga ijobiy ta'sir etib, tartibga solinuvchi bozor iqtisodiyoti g'oyasini keltirib chiqardi. Unga amal qilgan davlatlarda iqtisodiyot jadal o'sa boshladi, aholi turmushi, farovonligi yaxshilanib bordi. Shu tariqa dunyoda tartibga solinadigan bozor munosabatlari iqtisodiyotning yetakchi shakliga aylanib bordi.

Sobiq Ittifoqda esa hokimiyat tepasida turgan kommunistlar mulkni

yoppasiga davlat ixtiyoriga olish, resurslarni markazlashtirilgan tarzda ma'muriy-buyruqbozlik, rejalashtirish asosida boshqarish va taqsimlash yo'li bilan ijtimoiy adolatni qaror toptirish va xalq farovonligini oshirishga urinib ko'rdi. **70 yil** davom etgan bu sinov o'zini oqlamadi, ijtimoiy adolat ham qaror topmadi, xalq uchun farovon turmush ham yaratilmadi. Aksincha, millionlab odamlar qancha-qancha balo-qazolarga uchradi, bunday g'ayritabiiy yo'lga qarshi chiqqanlarning umri xazon bo'ldi. Oxir-oqibatda ma'muriy buyruqbozlik asosida boshqariladigan o'ta siyosiy-lashgan, mafkuralashgan iqtisodiyot tanazzulga uchradi.

*Mustabid tuzumdan O'zbekistonga qolgan iqtisodiy meros.*

O'zbekiston qaramlik davrida o'z tabiiy boyliklariga, yer-suv, o'rmon va boshqa resurslariga o'zi egalik qilolmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga bo'ysundirilgandi. O'zbekiston rahbariyati, xalqi o'z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotgani, ular qayerda realizatsiya qilinayotgani va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o'zining milliy valyutasiga, valyuta jamg'armasiga ega emasdi.

Sobiq Ittifoqdan mo'rt, zaif, xomashyo yetishtirishga yo'naltirilgan, ya'ni arzon xomashyo va strategik mineral resurslar tayyorlanadigan iqtisodiyot meros bo'lib qolgandi. Respublika iqtisodiyotida boy mineral xomashyo resurslaridan ayovsiz, nazoratsiz foydalanish hukmronlik qilardi. Umri tugagan sovet tuzumidan iqtisodiy boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usuli, «qayta qurish» davrida batamom barbod bo'lgan iqtisodiyot, izdan chiqqan moliyaviy narx-navo tizimi, baqiriq-chaqiriq, o'g'irlik, buzuvchi avj olgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit meros bo'lib qolgandi. Respublika korxonalari sobiq Ittifoq bo'yicha boshqa korxonalar bilan bog'langan bo'lib, endi ular o'rtasidagi aloqalar uzilib, xo'jalik yuritish murakkablashib qolgandi. Mavjud korxonalar chetdan keltiriladigan texnologik asbob-uskunalar va butlovchi qismlarga to'la qaram edi.

Aholi turmush darajasi pastligicha qolavergandi. O'zbekiston aholisining deyarli **2/3 qismi** qo'l uchida tirikchilik qilardi. Odamlar yerning nihoyatda sho'rlanishi, havoning va suv zaxiralarining ifloslangani, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi natijasida juda katta ekologik xavfga duchor bo'lgandi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, birgina Orolning qurib qolgan tubidan yiliga bo'ron tufayli **15 – 75 mln tonna chang-to'zon** ko'tarilib, uzunligi **400 km** va eni **40 km** maydonni ifloslantirardi, aholini turli-tuman kasalliklarga muhtalo qilardi.

*Iqtisodiy mustaqillik imkoniyatlari. Islohotning besh tamoyili.*

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning asosiy qoidalari Prezident Islom Karimovning «**O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li**» nomli asarida, respublika parlamentida qilgan ma'ruza va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda bayon etib berilgan. Bu yo'lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, respublikamiz xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

Davlat qurilishi dasturining va O'zbekiston iqtisodini isloh etishning butun o'zagini mamlakat Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan **besh asosiy tamoyil** tashkil etdi. Ular quyidagilardan iborat: *Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish. Iqtisodiyot siyosatdan ustun turmog'i lozim. Ikkinchidan, davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchi bo'lishi zarur. Uchinchidan, qonunning ustuvorligi, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlariga asoslanmog'i zarur. To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholining nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishi. Beshinchidan, islohotlarni, bozor munosabatlarini shakllantirishni puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim.*

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi: **mulkiy islohotlar; institutsional va moliya-kredit islohotlari; agrar islohotlar; tashqi iqtisodiy faoliyat islohotlari; ijtimoiy sohadagi islohotlar.**

*Islohotlarning huquqiy asoslari.* Prezidentimizning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida: «Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat», – deya ta'kidlanadi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratishga yo'naltirilgan **400 dan ortiq qonunlar** qabul qilindi. Ularni bir necha yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1. *Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar.* Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiy lashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. *Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar,* ya'ni korxonalar to'g'risida, kooperatsiya to'g'risida, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar



qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi, banklar va bank faoliyati to'g'risida, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxonalar bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi qonunlar, Soliq kodeksi, Bojxona kodeksi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarining bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, Xo'jalik-protsessual kodeksi ishlab chiqildi, Xo'jalik sudi tuzildi.

3. *O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi.* Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida qabul qilingan qonunlar, xalqaro pakt va bitimlar, ularning O'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi. Respublika iqtisodiyotining asoslari Prezident farmonlarida, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarda yanada takomillashtirib borildi.

*Bozor infratuzilmasining yaratilishi.* Iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iborat. «*Bozor munosabatlarini shakllantirishni tegishli muhimsiz – tovar, pul bozorlarida va mehnat resurslari bozorida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashi kerak bo'lgan bozor infrastrukturasisiz tasavvur etib bo'lmaydi*», – degandi Prezident I.A.Karimov «**O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida**» asarida. Bozor infratuzilmasi deganda bozor munosabatlarini shakllantirish va ularni samarali yuritishga xizmat qiluvchi muassasa, tashkilot va korxonalar majmuasi tushuniladi. Respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari – turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalambori ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi. Bozor munosabatlarini shakllantirishda birjalar alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq «**Respublika ko'chmas mulk birjasi**», «**Tovar xomashyo birjasi**», «**Toshkent fond birjasi**» tashkil etildi. Bu tarmoq yanada rivojlantirildi. **1991 – 2000-yillarda** xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xizmat qiluvchi **58 ta** tovar va xomashyo birjalari, **24 ta** biznes inkubator, **496 ta** auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishda axborot infratuzilmasi alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan

axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keldi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma – yangi bank tizimi, o'z-o'zini kreditlash idoralari, pul jamg'armalari yaratildi. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. Mustaqillikning dastlabki yilida respublikamizda atigi **6 ta bank** faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, **2002-yili** ularning soni **40** taga yetdi. Shundan **2 tasi davlat, 17 tasi xususiy, 4 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi**, qolganlari **aksiyadorlik-tijorat banklaridir**. Banklarning **17 tasi** dunyodagi eng nufuzli banklar bilan korrespondentlik aloqalari o'rnatgan. Viloyat, shahar va tumanlarda mijozlarga xizmat ko'rsatadigan minibanklar ochildi. **2002-yili** ularning soni **530** taga yetdi. Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari qo'yish va chet el sarmoyalarini jalb qilishda banklar faol qatnashmoqdalar. Tijorat banklarining iqtisodiyotning real sektoriga kreditlar berish imkoniyati ortib bormoqda. **2001-yili** tijorat banklarining kredit qo'yilmalari hajmi **2205,8 mlrd so'mni** tashkil etdi. Tijorat banklari tomonidan faqat kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi **2002-yili 265 mlrd so'mni** tashkil etdi. Tijorat banklarining moliya bozorida ishtiroki yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

Respublikamizda tadbirkorlar va aholini ehtimoli bo'lgan turli zararlardan himoya qiluvchi sug'urta bozori vujudga keldi. Davlat ishtirokida bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «**Kafolat**», «**Agro-sug'urta**», «**O'zbekinvest**» kabi uchta yirik sug'urta kompaniyasi tashkil etildi. Ko'plab xususiy va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan sug'urta kompaniyalari ham vujudga keldi. **2002-yili** sug'urta kompaniyalari soni **28** taga yetdi, ular moliya bozorida mamlakatimiz fuqarolari va tashkilotlariga **150 turdan ortiq** yo'nalish bo'yicha sug'urta xizmati ko'rsatmoqdalar. «**Sug'urta faoliyati to'g'risida**»gi Qonunning qabul qilinishi (**2002**), Prezident farmoni bilan **2002-yil 1-fevraldan** boshlab sug'urta tashkilotlarining **3 yil muddatga** daromad solig'idan ozod qilinishi mamlakatimizda sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ish bilan bandlik masalasi jiddiy muammoga aylandi. Negaki iqtisodiy tizim o'zgarayotgan paytda malakasiz kishilargaginas, ma'lum ixtisosga ega xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi. Respublika «**Mehnat birjasi**» va joylardagi **225 dan ortiq mehnat birjasini** o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi

tashkil qilindi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularning kasbini o'zgartirish mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga e'tibor berildi. **1993-yili** respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga **185,1 ming yangi ish o'ri**n tashkil etilgan bo'lsa, **1998-yili** bu ko'rsatkich **345,9 mingni** tashkil qilgan yoki **1,8 marta ko'p** yangi ish o'ri yaratildi. **2000-yili** faqat kichik va o'rta biznes rivoji hisobiga **192,5 mingta**, **2001-yili esa 372 mingta**, **2002-yili 370 mingta** yangi ish o'ri yaratildi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar va stipendiyalar muntazam suratda oshirib borildi. Narxlarni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. **1992-yil avgust** oyida O'zbekiston Respublikasining «**Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida**»gi Qonuni kuchga kiritildi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vazirligi tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish bosh boshqarmasi monopol mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi.

### 34.2. KO'P UKLADLI IQTISODIYOT VA MULKDORLAR TABAQASINING SHAKLLANISHI

*Kichik xususiyashtirish.* Xususiyashtirishga davlat boshchilik qildi. Bu jarayonni tashkil etish va rahbarlik qilish uchun **1992-yil fevralda** Davlat mulkini boshqarish va xususiyashtirish davlat qo'mitasi tuzildi, **1994-yili** uning funksiyalari kengaytirilib, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi sifatida qayta tashkil etildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish **1991-yil 18-noyabrda** qabul qilingan mulkni «**Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida**»gi, «**Davlat uy-joy fondini xususiyashtirish to'g'risida**»gi (**1993-yil 7-may**) Qonunlar va 20 dan ortiq maxsus davlat dasturlari asosida amalga oshirildi.

Xususiyashtirish savdo, xizmat ko'rsatish va mahalliy sanoat korxonalarini, uy-joy fondini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu **kichik xususiyashtirish** deb nom oldi. **1993 – 1994-yillarda** davlat ixtiyorida

bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining **95 foizdan ortiqrog'i** fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan bepul berildi. **2002-yilga qadar** respublika uy-joy fondining **98 foizga yaqini** xususiy-  
lashtirildi. **1994-yil 21-yanvarda** e'lon qilingan «**Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi va **1994-yil 16-martda** e'lon qilingan «**Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-  
lashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida**»gi Prezident Farmonlari xususiy-  
lashtirish jarayoniga yangi turtki berdi.

**1992 – 1994-yillarda 54 mingga yaqin** savdo, xizmat ko'rsatish, avtomobil transporti, qurilish, qishloq xo'jalik korxonasi va obyektlari davlat tasarrufidan chiqarildi: Shularning **18,4 mingtasi xususiy mulkka, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga** aylandi. Qishloq xo'jaligida bog'larning yarmi, uzumzorlarning **40 foizi** xususiy foydalanish uchun berildi. **14 mingga dan ortiqroq** fermer xo'jaliklari tashkil topdi, ularga **193 ming gektar** yer ajratib berildi. Xususiy tadbirkor subyektlarning soni **300 mingga** yetdi, ularning **250 mingtasi**ni patent asosida yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi kishilar tashkil etdi. **1994-yil**ni mamlakat yalpi ichki mahsulotining deyarli yarmi iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan sektorida ishlab chiqildi, bu sektorda **4 mln ga yaqin kishi** ish bilan band bo'ldi.

*Institutsional o'zgarishlar.* Mustabid sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan markaziy iqtisodiy organlar – Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlar qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqaruvchi boshqa vazirliklar, qo'mitalar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi. Makroiqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi qoshida narxlarni nazorat qilish bo'yicha maxsus boshqarma, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi kabi yangi boshqaruv organlari tuzildi. Iqtisodiy islohotlar davomida respublikadagi yirik korxonalar o'z faoliyat sohaslariga qarab ixtiyoriy ravishda davlat tarmoq uyushmalariga, konsernlarga, korporatsiyalarga, xolding kompaniyalariga aylantirildi. Noislab chiqarish tarmoqlarini boshqarish qayta tuzilib, milliy kompaniyalar tashkil etildi.

*Uyushma – turdosh kasbga ixtisoslashgan korxonalarining paychilik asosida tuzilgan ixtiyoriy birlashmasi.* Uyushma xo'jalik hisobiga asoslanib, ilmiy-texnik, tijorat, ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy masalalarni birga-

likda hal qilish uchun tashkil etiladi. Uyushmani muassislar kengashi boshqaradi. Muassislar kengashi uyushma boshqaruvini tuzadi va uyushma raisini saylaydi. Islohot yillarida O'zbekistonda «O'zavtosanoat», «O'zeltexsanoat», «O'zkimyosanoat», «O'zbekipagi», «O'zagromash-servis», «O'zqurilishmateriallari», «O'zbeksavdo», «O'zoziqovqat-sanoat», «O'zgo'shtsutsanoat», «O'zyog'moytamakisanoat», «O'zparrandasanoat», «O'zbekbirlashuv», «O'zbekcharmoyabzal» va boshqa uyushmalar tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda.

*Konsern – ilmiy-texnikaviy va ishlab chiqarish funksiyalarini markazlashtirish asosida hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan, investitsiyaviy, moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradigan, korxonalariga xo'jalik hisobida xizmat ko'rsatishni tashkil etadigan korxonalarining ko'ngilli birlashmasi.* Konsern ishlab chiqarish belgilariga qarab tuziladi va yagona xo'jalik majmuyi sanaladi. Respublikamizda «O'zsuvsuzurilish» va «Qizilqumnodirmetalloftin» davlat konsernlari, «O'zavtoyo'l» va «O'zfarmsanoat» davlat-aksiyadorlik konsernlari va shu kabilar tashkil etildi.

*Korporatsiya – mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalarining aksiyadorlik asosidagi ko'ngilli birlashmasi.* Korporatsiya tarkibiga kirgan korxonalar ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy kooperatsiya orqali o'zaro bog'lanadilar. Shu bilan korporatsiya investitsiyaviy sarmoyaning jamlanishiga ham yordam beradi. Faoliyatning tijoriyligi, ya'ni foyda olishni maqsad qilib qo'yishi, cheklangan javobgarlik, markaziy boshqaruv, aksiyadorning aksiya sarmoyasining o'ziga tegishli qismini erkin tasarruf etishi va boshqalar korporatsiyaga xos asosiy xususiyatlardir. Iqtisodiy islohotlar jarayonida respublikamizda «O'zbekpaxtamash» va «O'zavtosanoat» davlat korporatsiyalari, «O'zdonmahsulot», «O'zavtotrans», «O'zmahalliyanoat» davlat aksiyadorlik korporatsiyalari va boshqalar tashkil etildi.

*Xolding kompaniyalari – korporatsiya shakllaridan biri.* Xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi aksionerlik jamiyatlari «aksiyalarining nazorat paketi» kompaniyaning ixtiyorida bo'ladi. Mamlakatimizda tashkil etilgan 15 ta qishloq xo'jalik mashinasozlik korxonalarini birlashtirgan «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding», «O'zmevasabzavot-uzumsanoat-xolding» va «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

*Milliy kompaniya – noishlab chiqarish tarmoqlari, ijodiy jamoalar, transport, aloqa va telekommunikatsiya korxonalarini va tashkilotlarining paychilik yoki aksionerlik asosidagi ko'ngilli birlashmasi.* O'zbekistonda

tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan milliy kompaniyalar jumlasiga «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi va boshqalar kiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari. **Aksiyadorlik** jamiyati mulkchilikning bir turi bo'lib, u davlat, korxonalar, tashkilot, bank va fuqarolar pul mablag'larini sherikchilik asosida va foyda olish maqsadida birlashgan tarzda xo'jalik yuritish uyushmasidir. Iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik korxonalar sotilgan bo'lsa, **1992-yildan** yengil va oziq-ovqat sanoati, qayta ishlovchi o'rta va yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirila boshlandi. Aksiyadorlik jamiyatlariga kirgan korxonalar qiymati miqdorida aksiyalar chiqarilib, qimmatli qog'ozlar bozorida sotildi. Aksiya to'plamlari (paketlari) ning **25 foizi davlatga, 25 foizi mehnat jamoasiga, 10 foizi resurs bilan ta'minlovchi va mahsulotlarni iste'mol qiluvchi korxonalariga, 10 foizi chet ellik investorlarga, 30 foizi erkin sotishga ajratildi.** Aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarini sotish maqsadida Respublika fond birjasi tashkil etildi va aholiga sotish yo'lga qo'yildi.

**1994-yil oxirigacha** respublikada **26,1 mingta** korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Ularning aksiyalari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining asosini tashkil etdi. **1996-yil 25-aprelda** qabul qilingan **O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi** va **«Qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi Qonunlari** mulkchilikning aksiyadorlik shakli yanada rivojlanishiga yangi turki berdi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kimoshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi. **2000 – 2005-yillarda** jami **4660 ta** davlat korxonalar va obyekti xususiy mulkdorlarga sotildi. Korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish jarayoniga aholi va chet ellik investorlar keng jalb qilindi, **2004-yil boshlarida** respublikamizda **1800 ta** aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritdi. Aksiyalarni fuqarolarga erkin sotishni kengaytirish maqsadida XususiyLashtirish Investitsiya fondlari (XIF) tuzildi.

Islohot yillarida respublikamizda **2004-yil 1-yanvar** holatiga ko'ra **1 mln dan ortiq** jismoniy shaxs aksiyadorlik jamiyatlarining Respublika fond birjasi va XIFlar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqarilgan aksiyalarni sotib olib aksiyador bo'ldilar va ulardan daromad ko'rmoqdalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. Jahon iqtisodiyotida yuqori mavqega erishgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular kichik biznesni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yuksalgan, aholi turmush darajasini ko'targan. Masalan, **Yevropa Ittifoqiga** a'zo mamlakatlarning

yalpi ichki mahsuloti tarkibida kichik va o'rta biznesning ulushi **67 foiz**, **Germaniyada 65 foiz**, **AQShda 52 foizni** tashkil etadi. **Yaponiyada** ish bilan band bo'lgan aholining **80 foizi**, **Yevropa Ittifoqi** mamlakatlarida **70 foizi** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmoqlarida ishlaydi.

O'zbekistonning har bir fuqarosi korxonalar va tashkilotlar tuzish, sotib olish, sotish, qayta qurish yo'li bilan tadbirkorlik faoliyati olib borish huquqiga ega. Tadbirkor ish yuritish uchun boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, pul mablag'larini ixtiyoriylik asosida jalb qilish, mustaqil ravishda ishchilar yollash va bo'shatishga haqlidir, tadbirkorlik daromadlaridan soliq to'lab turadi.

Tadbirkorlik shakllari: *xususiy (shaxsiy) tadbirkorlik; yollanma mehnatni jalb qilib amalga oshiriladigan tadbirkorlik; bir necha fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.*

Respublika ko'chmas mulk bozori tashkil etilib, kimoshdi savdolari va tanlovlar asosida kichik korxonalar fuqarolarga sotildi. **1995-yil 5-yanvarda** e'lon qilingan **«Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida»gi Prezident Farmoni** mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishga yangi turtki berdi. Farmonga binoan, davlat mulkini xususiylashtirishdan tushayotgan mablag'larning **50 foizi** kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirildi. **1995-yil 21-dekabrda** qabul qilingan **«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida»gi Qonun** iqtisodiyotning mazkur sektoriga davlat va mintaqaviy darajada rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

**1995-yil iyulda** Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes-fond), **1996-yil martda** O'zbekiston tovar ishida chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, ularning hududiy bo'limlari tashkil etildi. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun faqat Biznes-fond tomonidan **10 mlrd so'm** miqdorida moliyaviy yordam ko'rsatildi, tadbirkorlarning malakasini oshirish kurslari tashkil etildi. O'rta va kichik biznesning rivojlanishiga dehqon va fermer xo'jaliklari assotsiatsiyasi, «Hunarmand» assotsiatsiyasi, Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi ham ko'maklashmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishga chet ellik investorlarning va dunyodagi nufuzli banklarning kredit resurslari jalb etilmoqda. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash markazini, Yevropa hamjamiyati komissiyasi esa

amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi o'zbekistonlik tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar. **2003-yil 1-yanvar** holatiga ko'ra, o'tgan yillarda kichik biznesni rivojlantirish uchun jalb etilgan xorijiy kredit resurslari hajmi **450 mln AQSh dollarini** tashkil etdi, ulardan **345,8 mln (jumladan, 2002-yili 87 mln) AQSh dollari** o'zlashtirildi.

Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilgan tadbirlar natijasida ularning soni yildan yilga ko'payib bordi. **1992 – 1996-yillarda 85 mingga yaqin** kichik biznes korxonalari ro'yxatga olingan bo'lsa, **2001-yil boshlarida** ularning soni **190 mingdan** ortdi, jumladan, faoliyat yuritayotganlari soni **149,3 mingtani** tashkil etdi, ularning **63 foizi** ishlab chiqarish bilan band bo'ldi. **2007-yil 1-yanvar** ma'lumotlari bo'yicha, faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari umumiy soni **350 ming**, ularda band bo'lgan kishilar **7127,3 ming**, YIM-dagi hissasi **42,1 foiz** bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi **2001-yil 22-avgustda «Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»** qaror qabul qildi. Qarorga binoan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarini bir joyda davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga olishning soddalashtirilgan yangi tartibi joriy etildi. Shahar va tumanlarda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha bo'limlar tashkil qilindi, ular alohida binolar, kerakli jihozlar bilan ta'minlandi. Tijorat banklari o'z mablag'lari hisobiga faqat **2001-yili** kichik va o'rta biznes subyektlariga **144,3 mlrd so'm** kredit berdilar. Ularga Respublika tovar-xomashyo birjasi, Agrosanoat birjasi, «O'zulgurjisavdo» orqali **106 mlrd so'mlik** moddiy-texnika resurslari sotildi. Tadbirkorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida xo'jalik subyektlarida «Tekshirishlarni ro'yxatga olish daftari» joriy etildi. Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi, o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni naqd xorijiy valyutaga eksport qilishiga ruxsat berildi. **2001 – 2002-yillarda** kichik biznes subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish hollarini bartaraf etish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va aybdor shaxslarni sud javobgarligiga tortish choralarini qo'llash mexanizmi yaratildi. Tadbirkorlarga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlari aybdor bo'lgan mansabdor shaxslarning cho'ntagidan undirib berilmoqda. Adliya vazirligi, uning joylardagi adliya idoralari tomonidan



tadbirkorlarga **9 mlrd so'm** undirib berildi. **2300 mansabdor shaxsga** nisbatan intizomiy chora ko'rildi, ulardan **290 nafari** egallab turgan lavozimidan bo'shatildi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyektlarni noqonuniy tekshirishlar soni keskin kamaydi. Agar **2001-yili** noqonuniy tekshirishlar bo'yicha **1450 ta** holat aniqlangan bo'lsa, **2002-yili** ularning soni **157 tani** tashkil etdi yoki **10 barobar** kamaydi. **2001-yili 34 200 ta** kichik va o'rta biznes subyektlari ro'yxatga olindi, ular hisobiga **372 mingta** yangi ish o'rni yaratildi. **2001-yili** kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan **65,5 mlrd so'mlik** mahsulot sotildi, **2002-yili 38 mingga yaqin** mikrofirma, kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etildi.

**2004-yil 1-yanvar** holatiga ko'ra, respublika bo'yicha tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalari soni **277 mingdan** oshdi, ulardan **168,6 mingi** mikrotizimlardir. **2004-yili** kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga **427,6 ming** yangi ish o'rni tashkil etildi. **2005-yili** kichik biznes obyektlari soni **310 mingdan** oshdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i **1991-yili 1,5 foizni**, **2000-yili 30 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **2010-yili 50 foizga** yetdi. Mamlakat iqtisodiyotida band aholining **65,5 foizi** yoki **6,4 mln kishi** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qildi. Bu soha aholi bandligini ta'minlaydigan muhim bo'g'inga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **53-moddasiga** ko'ra, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

**Agrar islohotlar.** Agrar islohotlarga ustuvorlik berildi. Negaki respublika aholisining **62 foizi** qishloqda yashaydi, mamlakat yalpi ichki mahsulotining **30 foizi**, valyuta tushumlarining **55 foizi** qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Agrar islohotlar natijasida davlat tasarrufidagi qishloq xo'jalik mulklari xususiylashtirildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi **99 foizni** tashkil etmoqda. Islohot yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda **550 ming gektar** sug'oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni **700 ming gektarga** yetdi. **9 mln dan ortiq** qishloq aholisi ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

**1992 – 1995-yillarda** davlat tasarrufidagi qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlarini xususiylashtirish, asosan, tugallandi. **1150 ta sovxoz** va **1200 ta fermalar** xususiylashtirildi. Qishloqda xo'jalik yuritishning

maqbul shakllarini yaratishga alohida e'tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirildi. Ammo xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamagani tufayli, ularni qayta tuzish zarurati yuzaga keldi. **1998-yil aprelda «Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat) to'g'risida» Qonun** qabul qilindi.

Jamoa xo'jaliklari **1998-yildan** yer va mulk paylari asosida qishloq xo'jalik shirkatlariga aylantirila boshlandi. **1999-yili 898 ta, 2000-yili 856 ta, 2001-yili 112 ta** qishloq xo'jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Shirkatlarning umumiy soni **2002-yil 1-yanvargacha** respublika bo'yicha **1900** taga yetdi. Shu tariqa agrar munosabatlar tizimida oila pudratiga keng o'rin berildi, har bir a'zo o'z payiga ega bo'ldi. Mahsulot yetishtiruvchi shirkat a'zosi bilan shirkat xo'jaligi o'rtasida pudrat shartnoma munosabatlari joriy etildi. Har bir oila pudratiga **5 gektar** ekin maydonlari, bog'lar, uzumzorlar birkirilgan, shartnomalar tuzilgan, o'zaro hisob-kitob yurituvchi chek daftarchalari bilan ta'minlangan. **2000-yil 1-iyul** holatiga ko'ra, respublikamizdagi qishloq xo'jalik shirkatlari tarkibida **598,5 mingta** oilaviy pudrat faoliyat ko'rsatdi. **2002-yil boshlariga** kelib **1 mln 400 ming** kishi shirkat a'zosi sifatida mehnat qildi.

Fermer va dehqon xo'jaliklarini shakllantirishga alohida e'tibor berildi. **2002-yil o'rtalarida** respublikamizda **55,4 mln** fermer xo'jaligi, **1,5 mln dan ortiq** dehqon xo'jaligi tadbirkorlik bilan shug'ullandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2003-yil 24-martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»-gi Farmonida** agrar islohotlarning yangi yo'nalishlari belgilab berildi. **2007-yili** shirkat xo'jaliklarini tugatish ishlari nihoyasiga yetdi, ularning negizida fermer xo'jaliklari tashkil etildi. **2007 – 2008-yillarda** paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining yer maydonlari qariyb **2,5 baravarga** kengaytirildi. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy shakliga aylandi.

Qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklari sifatida qayta shakllandi. Dehqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig'iga umrbod meros qilib beriladi, mahsulotlar oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yetishtiriladi va sotiladi. **2004-yil boshlariga** kelib mamlakatimizda **3,5 mln ga yaqin** dehqon xo'jaliklari yuridik va jismoniy shaxs maqomida faoliyat yuritdi, ularda **8 mln dan ortiq** ishga yaroqli kishilar mehnat qilmoqda. Dehqon xo'jaliklarining yer maydoni **667 ming gektarni** tashkil etadi. Hozirgi kunda dehqon xo'jaliklari mamlakatimizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining **66 foizini**, jumladan, kartoshkaning **89 foizini**,

chorvachilik mahsulotlarining **89 foizini**, meva va uzumning **45 – 50 foizini** ishlab chiqarmoqda. Dehqon xo'jaliklarining yerdan foydalanish samarasi yuqori bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi qariyb **100 foizga** yetdi. Dehqon va fermer xo'jaliklari asosiy ishlab chiqarish subyektlariga aylandi. **2009-yili** qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning qariyb **100 foizi** dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirildi. **2009-yili** paxtaning **100 foizi**, g'allaning **100 foizi** fermer xo'jaliklarida yetishtirildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq hayoti yangilandi, dehqon va fermerning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o'zgardi. Ular yerning haqiqiy egasiga, o'z mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotning egasiga aylanmoqda. Shu tariqa respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mulk shakllari o'zgardi, nodavlat mulkchiligi rivojlandi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tufayli mulkchilik shakllari bo'yicha iqtisodiyot tuzilmalari tubdan o'zgardi. Mulchilikning davlat shakli ustunlik qilgan, davlatlashtirilgan iqtisodiyot tugatildi. Mulch davlat tasarrufidan chiqarildi va xususiyashtirildi. Iqtisodiyotdagi institutsional o'zgarishlar tufayli nodavlat mulk shakllari-aksiyadorlik korxonalar, uyushmalar, konsernlar, korporatsiya va kompaniyalar, o'rta va kichik korxonalar vujudga keldi. Qishloq xo'jaligida nodavlat mulk shakllari – dehqon va fermer xo'jaliklari asosiy ishlab chiqarish subyektlariga aylandi. **1991-yili** respublika iqtisodiyotida mulkning **90 foizi** davlat tasarrufida bo'lgan esa, **2009-yilga** kelib bu ko'rsatkich atigi **10 foizni** tashkil etdi. Mulkning **90 foizi** nodavlat mulk shakllariga tegishli bo'lib, ularda ish bilan band jami aholining **77 foizi** mehnat qilmoqda.

O'zbekistonda ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi. O'rta mulkdorlar tabaqasi vujudga keldi.

### **34.3. RESPUBLIKA IQTISODIYOTINING BARQARORLASHUVI VA TARAQQIYOTI**

*Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o'sishini ta'minlash yo'li.* Dastlabki yillarda O'zbekistonning sanoat korxonalarida xomashyo va asbob-uskunalar taqchilligi vujudga kelib, xo'jalik yuritish murakkablashib qoldi. Masalan, O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodlari, to'qimachilik va kimyo sanoati korxonalar, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish

keskin pasaydi. Agar **1990-yili** yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmini 100 foiz deb olsak, keyingi yillarda u pasayib, **1995-yili 81,2 foizga** tushdi.

*«Barqarorlashtirish siyosati – eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir... Barqarorlashtirish siyosatining maqsadi boshqarib bo'lmaydigan, iqtisodiy pasayishga olib kelishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi muvozanatsizlikni chetlab o'tishdan, zarur bo'lgan taqdirda esa uni to'g'rilashdan iborat»,* – degandi Prezident I.A.Karimov **«O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»** asarida.

Jahon tajribasida iqtisodiyotni barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishda bir necha xil yondashuvlardan foydalanilgan. Birinchi – monetar yondashuv deb atalib, pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslangan. Ikkinchi – ishlab chiqarishni va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, tarkibiy qayta tashkil qilishlarni amalga oshirishga, qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosati o'tkazishga, tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklashga asoslanadi.

Tarkibiy o'zgarishlar deganda xomashyo yetishtirishga mo'ljallangan iqtisodiyotdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tishni, korxonalarni yangi, zamonaviy texnika, asbob-uskunalar bilan qayta jihozlashni, norentabel korxonalarni tugatishni, raqobatga bardosh berolmaydigan mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar ixtisoslashuvini o'zgartirishni, yangi korxonalar barpo etishni tushunmoq kerak. O'zbekistonda islohotlarning dastlabki yillaridayoq iqtisodiyotning barcha sohalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish chora-tadbirlari ko'rildi.

*Iqtisodiyotga sarmoya ajratish manbalari.* Iqtisodiyot tarkibini qayta qurish, yangi korxonalar barpo etish katta mablag'larni talab qiladi, albatta. Shu boisdan islohot yillarida iqtisodiyotga mablag' – sarmoya jalb qilishning turli manbalari ishga solindi. Ular quyidagilardan iborat: *davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar; respublika banklaridan olinadigan kreditlar; korxonalarining o'z sarmoyalari; aholi sarmoyalari; qarz beruvchi mamlakatlardan olinadigan davlat qarzlari; xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan olinadigan moliya-kredit resurslari; chet el firmalari va kompaniyalarining kiritayotgan bevosita investitsiyalari.*

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish uchun barcha mablag'lar hisobiga sarmoya solish yildan yilga o'sib bordi.

O'zbekistonda xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, imtiyozli investitsiya muhiti yaratildi. Natijada **1991 – 2007-yillarda** iqtisodiyotga **100 mlrd dollardan** ortiq investitsiya jalb qilindi. Buning **25 mlrd dollardan** ziyodini xorijiy sarmoyadorlarning mablag'lari tashkil etadi. **2010-yili 9,7 milliard AQSh dollariga** teng miqdorda investitsiyalar o'zlashtirildi, **200 dan ziyod** loyiha amalga oshirildi.

Bu mablag'lar yuksak texnologiyalar bilan ishlaydigan yangi korxonalar qurishga, ishlab chiqarish tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalar va asbob-uskunalar bilan jihozlashga, sotsial sohalarni rivojlantirishga sarflandi.

Chet el investitsiyalari. Chet el investitsiyalarining mamlakatga kirib kelishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. **1998-yili** qabul qilingan «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida»gi Qonunlar chet ellik investorlarning respublikamizda yaratiladigan mulklarining daxlsizligi va erkin faoliyati uchun huquqiy zaminlarni mustahkamlab berdi. Qonunda xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, turli firmalar, ayrim shaxslar investor bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yildi. Ularning huquqlari, xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlandi.

Chet ellik tadbirkorlarga O'zbekistonda qo'shma korxonalar barpo etish, o'z kompaniya va firmalari bo'linmalari, sho'balarini ochish imkoniyati yaratildi. Ularga soliq va bojxona to'lovlari yuzasidan imtiyozlar berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar departamenti, **1995-yili** Prezident farmoni bilan tashkil etilgan Xorijiy sarmoyalar bo'yicha agentlik respublika tadbirkorlariga xorijiy hamkorlar izlab topish, qo'shma korxonalar barpo etish, investitsiya loyihalarini tuzish va amalga oshirish ishlarida ko'maklashmoqda. Chet el investitsiyalarini siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bo'yicha «O'zbekinvest Interneysni» qo'shma kompaniyasi tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizda yaratilgan qulay vaziyat va rag'batlantirish tadbirlari natijasida chet el sarmoyalarining kirib kelishi yildan yilga o'sib bormoqda. Bevosita investitsiyalar tarzida hamda davlat qarzi sifatida jalb qilingan chet el investitsiyalari va moliyaviy kreditlar miqdori **1995-yili** respublika bo'yicha qo'yilgan umumiy sarmoyalar hajmining **14 foizini** tashkil etgan bo'lsa, **2002-yili** bu ko'rsatkich **30 foizga** yoki **1 mlrd AQSh dollariga** to'g'ri keldi. **1991 – 2007-yillarda** respublikamizda **25 mlrd AQSh dollari** hajmida chet el investitsiyalari o'zlashtirildi. Uning **2/3 qismi** sanoatni rivojlantirishga yo'naltirildi. **2010-yili** o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar

miqdori 2,4 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekistonga eng ko'p sarmoya kiritayotgan mamlakatlar **Rossiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya** va boshqalar sanaladi.

Dastlab chet el investitsiyalari davlatga qarashli yoki davlat ishtirokida-gi og'ir sanoat korxonalariga jalb qilindi. Iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlarida chet el investitsiyalari kichik va o'rta biznesga, xususiy sek-torga keng jalb qilindi. Chet el investitsiyalari ishtirokida barpo etilgan va faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar soni **2002-yil boshlarida 2087** taga yetdi. Ularning ish va xizmat hajmi **2002-yili 1044 mlrd so'mni** tashkil etdi.

***Mashinasozlik sanoati.*** **1993-yili** O'zbekiston davlat mashinasozlik korxonalarini uyushmasi – «O'zmashsanoat», **1996-yili** «O'zqish-loqxo'jalikmash-xolding», **1998-yili** «O'zneftgazmash» korporatsi-yasi, «O'zbekto'qimachimash» birlashmasi tashkil etildi. Mustaqillik yillarida «O'zmashsanoat» uyushmasi tasarrufidagi **35 ta** korxonaning **26 tasi** ta'mirlanib, yangi texnikalar bilan qayta qurildi. Toshkentdagi ekskavator, podyomnik, zenit, kompressor, asbobsozlik, agregat va abraziv zavodlari, Andijondagi «Andijonmash» va Topoz, Samarqanddagi Kinop, Sino va boshqalar shular jumlasidandir. Ularda ekskavatorlar, ko'tarma kranlar, kompressorlar, paxtani qayta ishlash agregatlari, to'qimachilik dastgohlari, avtomatika vositalari, muzlatkichlar, mebelga ishlov berish uskunalari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa jihozlar ishlab chiqarilmoqda.

**14 ta** qishloq xo'jalik mashinasozligi korxonasini, **9 ta** qo'shma korxonasi va **13 ta** mintaqaviy texnik markazni birlashtirgan «O'zqish-loqxo'jalikmash-xolding» kompaniyasi zamonaviy mashinalarni mustaqil ishlab chiqarishni o'zlashtirib oldi. Ularda paxta teruvchi mashinalar, paxta chigitini aniq ekadigan seyalkalar, paxtani qop-qanorsiz tashiydigan ag'dargich tirkamalar, sug'orish mashinalari ishlab chiqarilmoqda. Bu kompaniya tasarrufidagi «**Toshkent traktor zavodi**» aksiyadorlik jamiyati **2000-yili 954 ta, 2001-yili 1002 ta** O'zbekiston sharoitiga moslashgan yangi traktorlar ishlab chiqardi. **1998-yili** u «**Amerika mobil grupp**» firmasi bilan hamkorlikda qo'shma korxonasi barpo etib, O'zbekiston – Xitoy loyihasi asosida **22 va 23 ot kuchiga** ega ikki turdagi minitraktorlar va ularga uskunalar komplektlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirdi.

Qishloq xo'jalik mashinalarini «**Keys**» rusumidagi traktor va g'alla o'rish kombaynlari bilan to'ldirish maqsadida AQSh «**Keys Nyu-Holland**» kompaniyasi sarmoyalari ishtirokida «**O'zKeysmash**» va «**O'zKeystrak-tor**» qo'shma korxonalarini barpo etildi. Ularda zamonaviy traktor va kombaynlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. «O'zqishloqxo'jalikmash-xolding»

kompaniyasi **2000-yili 48,2 mlrd so'mlik** tovar mahsulotlari ishlab chiqardi.

Aviatsiya ishlab chiqarish davlat aksiyadorlik jamiyatiga birlashgan korxonalar ham rivojlanmoqda. Uning bosh korxonasi **V.Chkalov** nomidagi **Toshkent aviatsiya zavodida 4 ta** rusumdagi yuk va yo'lovchi tashiydigan «**II – 114**», «**II – 114T**», «**II – 76MF**», «**II – 76TF**» samolyotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Yuk tashish bo'yicha dunyoda eng qulay deb e'tirof etilgan «**II – 76**» rusumli **900 ta** samolyot ishlab chiqarildi.

Mustaqillik yillarida metallurgiya, oltin qazib olish sanoati jadal o'sdi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Bekoboddagi metallurgiya zavodi, Zarafshondagi 2-gidrometallurgiya zavodi, Chirchiqdagi qiyin eruvchan va o'tga chidamli metallar kombinati qayta ta'mirlandi. Bekobod metallurgiya kombinatida yiliga **100 ming tonna** po'lat shar va metall prokat tayyorlovchi yangi quvvatlar ishga tushirildi. Uchquduqda 3-gidrometallurgiya zavodi barpo etildi. Amerikaning «**Nyumont mayning**» kompaniyasi ishtirokida Navoiy tog'-metallurgiya kombinati chiqitlaridan oltin ajratib olish bo'yicha «**Zarafshon – Nyumont**» qo'shma korxonasi qurilib, **1995-yil 25-mayda** ishga tushirildi. **1991 – 2001-yillarda** respublikada oltin qazib olish hajmi **1,7 baravar** o'sdi. Birgina «Zarafshon – Nyumont» qo'shma korxonasi **1995 – 2003-yillarda 113 mln tonna** rudani qayta ishlab, **110 tonna** yuqori sifatli oltin ishlab chiqardi. Korxonaning iqtisodiyotimizga bergan samarasi **500 mln AQSh dollarini** tashkil etdi.

Elektroenergetika sanoati ancha rivojlandi. «**O'zbekenergo**» davlat aksiyadorlik kompaniyasi mustaqillik yillarida issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarini ta'mirlash va ular tarkibida yangi bloklar barpo etish ishlarini amalga oshirdi. Sirdaryo, Yangi Angren, Toshkent, Navoiy GRESlari energetika bloklarida texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari ishga tushirildi. Germaniyaning «Simens» firmasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ajratgan kredit hisobidan Sirdaryo GRESining **8 ta** bloki ta'mirlandi. **2001-yili 37 ta** issiqlik va gidravlik elektr stansiyalaridan iborat O'zbekiston energetika tizimi **55 mlrd kilovatt/soat** yoki 1992-yilga nisbatan **10 foiz ko'p** elektr energiyasi ishlab chiqardi hamda respublika xalq xo'jaligi va aholining elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis ta'minlamoqda. O'zbekiston elektr energiyasi Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'onistonga ham uzatilmoqda.

**Avtomobilsozlik sanoati.** Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar barpo etish maqsadida Janubiy Koreyaning «**DEU**» korporatsiyasi raisi **Kim U Jung**

bilan muzokaralar olib borildi. **1992-yil 24-avgustda Toshkentda** Janubiy Koreyaning «**DEUMotors**» korporatsiyasi va O'zbekistonning «**Avto-qishxo'j'mash**» davlat konserni o'rtasida Andijon viloyatining **Asaka shahrida yiliga 180 ming** avtomobil ishlab chiqaradigan «**O'zDEUavto**» qo'shma korxonasini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi **1992-yil 5-noyabrda** Asaka shahrida «O'zDEUavto» korxonasi tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. Uning ta'isishchilari etib «**DEUMotors**» korporatsiyasi va «**O'zavtosanoat**» uyushmasi, har ikki tarafning qo'shma korxonadagi ulushi teng miqdorda **50%** dan iborat qilib belgilandi. **1993-yil mart** oyida «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi ro'yxatga olindi va umumiy miqdori **658 mln AQSh dollari** hajmidagi qurilish ishlari boshlandi. Korxonada qurilishiga ilg'or texnologiyalar, tajribali muhandislar, o'zbekistonlik yoshlar jalb qilindi. **1000 dan ortiq** o'zbekistonlik yoshlar Janubiy Koreyaga borib, «DEU» kompaniyasida ishlab, avtomobil ishlab chiqarish tajribalarini o'rganib qaytdilar.

«O'zDEUavto» qo'shma korxonasining birinchi navbati **1996-yil mart** oyida ishga tushirildi. **1996-yil mart** oyida «**Damas**», **iyun** oyida «**Tiko**», **iyul** oyida «**Neksiya**» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish boshlandi. **1996-yil 19-iyulda** korxonaning ochilish marosimi bo'ldi, unda Prezident Islom Karimov qatnashdi va «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi qurilishida faol qatnashganlarga minnatdorchilik bildirdi. «O'zDEUavto» qo'shma korxonasi **1996-yili 25,3 mingta, 1998-yili 54,4 mingta, 1999-yili 58,4 mingta** «Damas», «Tiko», «Neksiya» rusumli avtomobillar ishlab chiqardi. O'zbekiston dunyodagi avtomobil ishlab chiqaruvchi **28 mamlakatdan** biriga aylandi.

O'zbekiston hukumati «O'zDEUavto» qo'shma korxonasiga butlovchi qismlar tayyorlovchi korxonalar qurish tadbirlarini amalga oshirdi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining **1995-yil 30-mayda** qabul qilingan «**Avtomobillar uchun butlovchi buyumlar ishlab chiqaradigan O'zbekiston – Koreya qo'shma korxonalarini tashkil etish to'g'risida**»gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga muvofiq «O'zDEUavto» uchun butlovchi qismlar tayyorlaydigan korxonalar tizimini yaratishni mahalliyashtirish dasturi ishlab chiqildi va qurilish ishlari boshlandi. **1996 – 2006-yillarda** lak-bo'yoqlar, avtomobil o'rindiqlari, ichki jihozlari, elektr kabellari, shinalar, diskalar, toblangan oynalar, tovush pasaytirgichlari, yoqilg'i baki, bamperlar va boshqa butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi «**O'z-Dong Ko**», «**Yan Ko**», «**O'z-Sem Yun Ko**», «**O'z-Dong Von Ko**», «**O'z-Tong Xong Ko**», «**O'z-Karam Ko**»,



«**Elektromash**», «**Meridian**» kabi **75 ta** yangi qo'shma korxonalar, ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi. Mahalliy hamkorlar tomonidan **2006-yilning 11 oyi** davomida «O'zDEUavto» zavodi uchun yetkazib berilgan butlovchi qismlar hajmi **113,2 mln AQSh dollarini** tashkil qildi.

«O'zDEUavto», uning tarkibidagi korxonalar va inshootlarni barpo etish uchun **2000-yilgacha 600 mln AQSh dollari** o'zlashtirildi. **1999-yil oktyabrda** J.Koreyadagi yirik «**Eksimbank**» bilan «O'zDEUavto» zavodini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha bitim tuzildi va «**DEUMotors**» kompaniyasi bilan hamkorlikda «O'zDEUavto» zavodida «**Matiz**» va «**Neksiya-2**» rusumli avtomobillar ishlab chiqarishga kirishildi. **2001-yil avgustda** «O'zDEUavto» zavodida yangi liniya barpo etilib, «**Matiz**» avtomobili ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, **2003-yili «Lasetti»** avtomobili ishlab chiqarish boshlandi. **2004-yili 70 070 dona** avtomobil ishlab chiqarildi. Shunday qilib, «O'zDEUavto» qo'shma korxonasining mustahkam poydevori yaratildi. **1996 – 2006-yilning 1-yarmida 570 mingdan ortiq** avtomobil tayyorlandi, ularning **198 609 tasi** xorijiy mamlakatlarga eksport qilindi. «O'zDEUavto» zavodiga **2000-yil yanvarda «ISO-9001»** sertifikatini berildi va u MDH mamlakatlari dagi yengil avtomobil ishlab chiqaruvchilar orasida xalqaro sifat tizimidan foydalanuvchi birinchi korxonalar bo'ldi.

**Samarqand shahrida** yana bir avtomobil zavodini qurishga kirishildi. **1995-yili «O'zavtosanoat»** uyushmasi bilan Turkiyaning «**Kochxolding**» kompaniyasi o'rtasida avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqaruvchi «**SamKochavto**» qo'shma korxonasini barpo etish haqida bitim tuzildi. **1996-yili «SamKochavto»** qo'shma korxonasi ro'yxatga olindi va qurilish ishlari boshlandi. Mashinalar loyihasini ishlab chiqarishda xalq xo'jaligi ning barcha sohalarida foydalanish uchun qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida Italiya – Ispaniya qo'shma korxonasi «**Iveko**»ning ixcham konstruksiyalari asos qilib olindi va «**Kochxolding**» kompaniyasi a'zosi – «**Otayo'l**» zavodida O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi.

**1999-yil mart oyida «SamKochavto»** qo'shma korxonasi ishga tushirildi. O'sha yili foydalanishga qulay, ixcham **163 ta** avtobus va **302 ta** yuk avtomobili, **2000-yili esa 483 avtobus va 102 ta** yuk avtomobili ishlab chiqarildi. Respublika aholisi uchun «**Otayo'l**» rusumli avtobuslar asosiy transport vositasiga aylandi. **2006-yildan** boshlab «**Isuzu**» rusumli avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. **2009-yildan** Germaniyaning «**MAN Nutzfahrzeuge AG**» konserni hamkorligida «**JV MAN Avto-Uzbekistan**» qo'shma korxonasi tashkil etilib, «**MAN**» yuk mashinalari ishlab chiqarilmoqda.

**2007-yil oktyabr oyida «O'zDEUavto» negizida «General Motors» korporatsiyasi bilan hamkorlikda «GM O'zbekiston» qo'shma korxonasi tashkil etildi. Natijada Asakada dunyoda mashhur «Shevrale» avtomobillari – «Kaptiva», «Epika», «Takuma» rusumli yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda.**

***Yoqilg'i mustaqilligi.*** O'zbekistonda 2 trln m<sup>3</sup> ga yaqin gaz zaxiralari, 160 dan ortiq neft koni mavjud. Biroq mamlakat neft mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qaram bo'lib, qariyb 6 mln tonnaga yaqin neft mahsulotlari chetdan keltiriladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Rossiya va boshqa mamlakatlardan sotib olingan neft mahsulotlari uchun 2 mln tonna paxta xomashyosi (600 ming tonna paxta tolasi) berilardi. O'zbekistonning neft mustaqilligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri sifatida ilgari surildi. Respublikada tarqoq holda faoliyat yuritayotgan neft hamda gazni qazib chiqarish va qayta ishlash korxonalari 1992-yili tashkil etilgan «O'zbekneftgaz» konserniga birlashtirildi. 1998-yili esa u «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasiga aylantirildi. Kompaniya 1995 – 2000-yillarda tarmoqqa 1,5 mlrd AQSh dollari miqdorida xorij sarmoyasini jalb etdi. Natijada yurtimizning Ustyurt, Buxoro – Xiva, Janubi-G'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalarida gaz, neft va gaz kondensati qazib oluvchi 92 ta korxonaga kengaytirildi, yangi texnik uskunalari bilan jihozlandi.

Yaponiyaning «Mitsui» firmasi bilan hamkorlikda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi jahon andozalari darajasida ta'mirlandi. Korxonaning dizel yoqilg'isi uskunasi zamonaviy jihozlashga 178 mln AQSh dollari sarflandi. Bu korxonada 50 dan ortiq turdagi yoqilg'i mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Neft mustaqilligiga erishishda AQShning «Dresser» va «M.Y.Kollogg» hamda Yaponiyaning «Nisho Ivali» kompaniyalari ishtirokida 1997-yili barpo etilgan, yiliga 2,5 mlrd m<sup>3</sup> gaz haydash quvvatiga ega Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro viloyatidagi Qorovulbozor shahrida barpo etilgan neftni qayta ishlash zavodining o'rni katta bo'ldi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodini bundod etishda Fransiyaning «Texnip» kompaniyasi hamda «Kredi Kommercial de Frans» va «Pariba» banklari, Yaponiyaning «Marubeni» va «Jey-Ji-Si» kompaniyalari va «Eksport-import banki», AQShning «Cheyz Manxetten» banki, Turkiyaning «Gama» kompaniyasi o'z sarmoyalari, texnik asbob-uskunalarini, mutaxassis-quruvchilari bilan faol qatnashdi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi 1997-yil 22-avgust kuni ishga tushirildi va benzin, aviakerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi kabi mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Zavod qurilishi jarayonida

262 mln AQSh dollari o'zlashtirildi. Zavod qurilishiga «O'zbekneftgaz», «O'zmontajmaxsusqurilish», «Neftgazqurilish» va boshqa sanoat, transport korxonalari, tegishli vazirliklar ulkan hissa qo'shdilar. **1997-yili** respublikamizda **7,9 mln tonna** yoki **1990-yilga** nisbatan **2,8 baravar ko'p** neft mahsulotlari ishlab chiqarildi va chetdan neft mahsulotlari sotib olish to'xtadi. O'zbekiston neft mustaqilligiga erishdi, neft mahsulotlarini chetdan sotib oladigan mamlakatdan uni chetga sotadigan davlatga aylandi.

Tabiiy gaz ishlab chiqarish ham o'sib bordi. **1991-yili 41,8 mlrd m<sup>3</sup>** tabiiy gaz ishlab chiqargan bo'lsa, **2005-yili** bu ko'rsatkich **59,7 mlrd m<sup>3</sup>** ga yetdi. O'zbekistonda neft va gaz ishlab chiqarish bilan bir qatorda kimyo sanoati ham rivojlandi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Chirchiq, Navoiy, Olmaliq kabi shaharlardagi kimyo sanoati korxonalari qayta ta'mirlandi. Qizilqum fosforit kombinati, Qo'ng'iro't soda zavodi, Qo'qon va Yangiyo'l biokimyo zavodlari barpo etildi. Respublika kimyo sanoati qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar, ekinlarni zararkunandalardan saqlovchi kimyoviy moddalar, sun'iy tolalar, bo'yoqlar, polietilen, aholining kundalik turmushida kerak bo'ladigan mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi O'zbekiston kimyo sanoatining faxri hisoblanadi. **1995-yil oktyabrda** O'zbekiston bilan AQShning «**ABB Lummus Global**» kompaniyasi o'rtasida Sho'rtan gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha bitim tuzilgandi. Tezda qurilish-montaj ishlari loyihasi ishlab chiqildi. **1997 – 2001-yillarda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Italiya** va boshqa davlatlarning nufuzli kompaniyalari ishtirokida qurilish ishlari amalga oshirildi. Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi qurilishida **1 mlrd AQSh dollari** hajmida investitsiya o'zlashtirildi. **2001-yil dekabrda** Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga **125 ming tonna** polietilen, **137 ming tonna** suyultirilgan gaz va **126 ming tonna** gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega dunyodagi eng yirik korxonalardan biridir.

Yengil sanoat. **1991-yil may** oyida Toshkent, Farg'ona, Buxoro to'qimachilik kombinatlari, Andijon va Nukus ip gazlama kombinatlari, ular tasarrufidagi kichik va o'rta korxonalarni birlashtirgan «**O'zbek-yengilsanoat**» davlat uyushmasi tashkil etildi. Bu uyushma, bir tomondan, mavjud korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlari sifatida qayta tashkil etdi, ularni ta'mirlash, yangi texnik jihozlar bilan qayta qurish orqali mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirdi. Masalan, «**Buxoroteks**» aksiyadorlik jamiyati **1994-yili** o'z mablag'lari hisobidan Shveysariyaning «**Riter**» firmasidan **2592 ta** yigiruv g'altagi

quvvatiga ega uskunarlar sotib oldi. **1996-yili** esa Shveytsariyadan jalb etilgan **5 mln shveytsar frankiga** ikkinchi yigiruv majmuyi sotib olib korxonani jihozladı. Natijada **1997-yili**yoq **1000 tonna** kalava ip ishlab chiqarishga erishdi. Ikkinchidan, davlat uyushmasi tomonidan respublikamizdagi boy xomashyolarni, birinchi navbatda, paxta tolasini qayta ishlab tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etish har tomonlama qo'llab-quvvatlandı.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi **1996-yil aprel** oyida «Mahalliy va yengil sanoatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq tarmoq bo'yicha **35 ta** investitsiya loyihalari ishlab chiqildi va ularni amalga oshirish jarayonida **152 mlrd so'm**, jumladan, **644,4 mln AQSh dollari** hajmida chet el sarmoyalari o'zlashtirildi. Natijada **1996 – 2001-yillarda** J.Koreya ishtirokida «Kobul – O'zbek Ko» qo'shma korxonasiga birlashgan To'ytepa va Toshkent shahrining Ko'kcha mavzesida 2 ta yirik qo'shma korxonona, «Kobul – Farg'ona Ko» qo'shma korxonalari ishga tushirildi. Turkiya to'qimachilik kompaniyalari ishtirokida **Nukus shahrida** «Kateks» to'qimachilik majmuasi, **Namangan viloyatida** «Asnamteks-til», «Tap-fen», «Kosonsoy-Tekmen», «Atlas-Men», **Qashqadaryo viloyatida** «Qashteks», «Oqsaroy-to'qimachi» qo'shma korxonalari barpo etildi. Germaniya sarmoyadorlari bilan hamkorlikda **1998-yili Andijonda** «Anteks», Farg'ona viloyatining **Yozyovon tumanida** «Pfaff-Zinger» qo'shma korxonalari qurildi. **1999-yili Xo'jaobod** tumanida tikuv va trikotaj buyumlar ishlab chiqaradigan «Qorako'lteks» O'zbekiston – AQSh qo'shma korxonasi barpo etildi. **2002-yili** respublika to'qimachilik sanoatida **17 ta** qo'shma korxonona faoliyat yuritdi. Tarmoq bo'yicha **32 mingdan ortiq** yangi ish o'rni tashkil etildi. **2004-yili 17 ta** to'qimachilik korxonalari, jumladan, «Beruniy teks», «Baliqchlteks», «Bursel – Toshkent» kabi yirik qo'shma korxonalar foydalanishga topshirildi.

**2002-yil boshlarida** «O'zbekiyengilsanoat» davlat uyushmasiga birlashgan **15 ta kichik** va **102 ta yirik** korxonalar paxta tolasini ishlab, yiliga **130 ming tonna** yigirilgan ip, **50 mln m<sup>2</sup>** gazlama, **2,5 mln m<sup>2</sup>** gilam, **62 mln dona** trikotaj mahsulotlari, **32 mln juft** paypoq, turli xil tikuvchilik buyumlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ldi. Agar **1991-yili** respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash **12 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **2005-yili** bu raqam **30 foizga** yetdi. Chet ellarga kalava ip, paxta va shoyi gazlamalar eksport qilishga erishildi.

Respublikamizda qog'oz tanqisligi muammosini hal qilishga qaratilgan zavodlar qurildi. **Namanganda** barpo etilgan «Namangan qog'ozi»,

Yangiyo'lda qurilgan «O'zbek qog'oz» qo'shma korxonalari shular jumlasidandir. Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 20-iyundagi «Respublika qog'oz sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan «O'zbekqog'ozsanoat» uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibiga «Sanoatqalinqog'ozsavdo», «O'zbek qog'oz» ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, Yangiyo'l sellyuloza-qog'oz fabrikasi, «Namanganqog'oz» qo'shma korxonasi va boshqalar kiradi. «O'zbek qog'oz» korxonasi yiliga 11 ming tonna qog'oz, 3,5 ming tonna karton, 7,5 mln dona umumiy va 65 mln ta o'quv daftari ishlab chiqarmoqda. Yangiyo'l sellyuloza-qog'oz fabrikasi yiliga 20 ming tonna paxta sellyulozasi, 12 ming tonna yuqori sifatli yozuv qog'ozini ishlab chiqarmoqda.

*Transport va aloqa.* O'zbekiston Markaziy Osiyoni Eron va Turkiya bilan bog'lovchi Tajan – Serahs – Mashhad temir yo'li qurilishida faol qatnashdi. Uzunligi 295 km bo'lgan mazkur temir yo'li 1996-yil may oyida ishga tushirildi. Natijada O'zbekiston o'z mahsulotlarini Fors ko'rfazigacha, Turkiyagacha, keyin Yevropa mamlakatlariga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldi.

1992 – 1993-yillarda temir yo'li qurilishining texnik-iqtisodiy loyihasi ishlab chiqildi. 1994 – 2002-yillarda loyiha qiymati 38,9 mlrd so'mni tashkil etgan 633 km uzunlikdagi Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog' – Nukus temir yo'li foydalanishga topshirildi. 2001-yil 23-mart kuni mazkur yo'nalish bo'yicha dastlabki yuk poyezdi, 2002-yil 22-avgust kuni yo'lovchi poyezdi harakatlari boshlandi. Miskin, To'rtko'l, Ellikqal'a, Qorao'zak, Beruniyda yangi zamonaviy vokzallar, o'nlab yangi bekatlar, soha xodimlari uchun turarjoy binolari bunyod etildi. Nukus, Uchquduq temir yo'li vokzallari to'liq qayta ta'mirlandi. 1750 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'zbekistonda yagona temir yo'li tizimini barpo etishda yana bir muhim ahamiyatga ega bo'lgan Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'li jadallik bilan qurildi. 2007-yili uzunligi 223 km lik mazkur yo'li bo'ylab poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi. Termiz shahrida yangi vokzal, Toshkentda vagonlarni ta'mirlash zavodi ishga tushirildi. Amudaryo uzra 681 metrlik avtomobil-temir yo'li ko'prigi barpo etildi. Mustaqillik yillarida Toshkent metrosi qurilishi ham jadal sur'atda o'sdi. Toshkent metrosi 30 yillik tarixga ega. 1971 – 1977-yillarda Chilonzor yo'nalishi, 1984 – 1991-yillarda O'zbekiston yo'nalishi ishga tushirilgandi. «Toshmetroloyiha» instituti 1992-yili Toshkent metrosining 9 ta bekatdan iborat Yunusobod yo'nalishini qurishning texnik-iqtisodiy asoslarini

ishlab chiqdi va qurilish ishlari olib borildi. **2001-yil avgustda** Yunusobod yo'nalishining **6 ta bekatdan** iborat birinchi qismi – **Mingo'rik, Yunus Rajabiy, Abdulla Qodiriy, Minor, Bodomzor va Habib Abdullayev** bekatlari foydalanishga topshirilib, yo'lovchi tashish yo'lga qo'yildi. Ularni barpo etish uchun **38 mlrd so'm** xarajat qilindi. Metro har kuni **370 – 380 ming** yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi. **2001-yili** undan jami **142 mln dan ortiq** kishi foydalandi.

Avtomobil yo'llari qurilishi jadal olib borildi. **1991 – 2001-yillarda** **727 km** uzunlikdagi avtomobil yo'llari, **460 ta** ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar, **4 mingga yaqin** avtopavilyon qurildi. Shahar va qishloqlardagi ichki yo'llar ta'mirlandi. Toshkent – O'sh xalqaro yo'lining Angrendan to Farg'ona vodiysiga kirib borguncha qismi barpo etildi. Bu yo'nalishda Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil qatnovi uchun mo'ljallangan tunnellar qurildi. Katta O'zbek yo'li, Toshkent – Olmaliq yo'li ta'mirlandi. Toshkentda uzunligi **32 km** bo'lgan Toshkent kichik halqa yo'li barpo etildi.

O'zbekistonda Buyuk ipak yo'lini tiklash maqsadida **2294 km** dan iborat bo'lgan «**Andijon – Toshkent – Nukus – Qo'ng'iro't**» avtomagistrali jadallik bilan qurilmoqda. Mazkur avtomagistralning eng murakkab qismi hisoblangan **100 km** lik tog'lik qismi Angren – Xonobod shaharlari o'rtasidagi avtoyo'l, Qamchiq va Rezak dovonlarida avtomobil qatnovi uchun tunnellar foydalanishga topshirildi.

Mamlakatimizda havo transportini rivojlantirish maqsadida **1992-yil 28-yanvarda** «**O'zbekiston havo yo'llari**» milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. U O'zbekistonni dunyoning yirik shaharlari bilan havo yo'llari orqali bog'lash, aviamaydonini «**A-310**», «**Boing-757**», «**Boing-767**», «**RJ-85**» kabi o'ta zamonaviy havo kemalari bilan to'ldirish tadbirlarini amalga oshirdi. Toshkent aeroporti kutish zali, Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari, uchish-qo'nish yo'laklari xalqaro standartlar darajasida qayta ta'mirlandi. «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi o'zining **10 yillik** qizg'in faoliyati davomida Yer kurrasining rivojlangan **20 mamlakati** bilan havo aloqalarini o'rnatdi, turli mamlakatlarda **40 ta** vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Kompaniya **20 mln dan ortiq** yo'lovchiga xizmat qildi.

Mamlakatimizda pochta, telefon, telegraf, radio, televideniye zamon talablari darajasida rivoj topdi. Keyingi **10 yilda** respublikada o'rnatilgan telefonlar soni **10 martadan** ziyod ko'paydi. Toshkent shaharlararo telefon stansiyasi dunyodagi barcha mamlakatlar bilan telefon aloqasini ta'minlamoqda. **1991-yili** mamlakatimizda tashkil etilgan «**MTS – O'zbekiston**»

(Uzdunrobita) kompaniyasi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib milliy uyali aloqa tizimini barpo etdi. O'tgan **19 yil** davomida respublikamizning **20 ta** yirik shahri, avtomobil yo'llari va tog'li hududlarda aloqa stansiyalari, radiorele liniyalari, texnik-muhandislik tarmoqlari barpo etilib, aholi istiqomat qiladigan hududlarning **90 foizini** uyali aloqa tizimlari bilan qamrab oldi. Bugungi kunda mazkur sohada bir nechta kompaniyalar faoliyat yuritmoqda.

Xullas, **1991 – 2002-yillarda 1872** korxon va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning **9,5 mingdan ortiq** yangi turlarini ishlab chiqarish sanoat mahsulotlari hajmini **100 foiz** deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib, **1992-yili 94,7, 1993-yili 98,1 foizga** tushgandi. **1995-yilga** kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va **1996-yildan** boshlab izchil o'sish ta'minlandi.

*Qishloq xo'jaligi.* O'zbekistonda paxtachilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yiliga **2 mln tonna** paxta tolasi yetishtirilsa, uning **1,4 mln tonnasi** o'zbek paxta tolasidir. O'zbekiston paxta tolasi yetishtirish bo'yicha dunyoda **to'rtinchi**, uni eksport qilish bo'yicha esa **ikkinchi** o'rinda turadi. Respublikamizda paxta hosildorligi va sifatini yaxshilashga katta e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda qator suv omborlari va sun'iy kanallar qurilmoqda, yerning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari amalga oshirildi. Suv tanqisligi hisobga olinib **1998-yildan** boshlab paxtachilikda **Isroil** texnologiyalari asosida tomchilatib sug'orish usulidan foydalanilmoqda. Andijonlik paxtakorlar tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtani erta ekish, qisqa muddatlarda undirib olish, yuqori hosil yetishtirishga mustahkam zamin yaratdi. Paxta ekiladigan yerlar qisqartirilishiga qaramay, respublikamizda yiliga **3,5 mln tonnadan** ortiq paxta xomashyosi tayyorlanmoqda. O'zbekiston kanop, tamaki yetishtirish sohasida ham dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi.

Istiqlol yillarida don mustaqilligiga erishish vazifasi qo'yildi. Sug'oriladigan yerlarda g'alla ekish kengaydi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i **1991-yili 18,8 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **1998-yili 36 foizga** o'sdi, natijada g'alla yetishtirish sezilarli darajada oshdi. Agar **1991-yili 1,9 mln tonna** don, jumladan, **600 ming tonna** bug'doy yetishtirilgan bo'lsa, **2002-yili 5,4 mln tonnaga** yaqin don, jumladan, **5,0 mln tonnadan ortiq** bug'doy, **2007-yili 6,25 mln tonna** g'alla yetishtirildi. Sug'oriladigan yerlarda o'rtacha hosildorlik gektariga **48,0 sentnerni** tashkil etdi. Andijon viloyatida esa rekord natijaga erishildi – har gektardan **75 sentnerdan** ortiq xirmon ko'tarildi.

**1991-yili** respublikamiz importida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi **73,8 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **2000-yili** bu ko'rsatkich **15 foizga** tushdi. Boshqacha aytganda, aholi iste'moli uchun zarur asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini o'zimizda yetishtirishga erishildi. Respublikamizda sabzavot, meva, uzum yetishtirish bo'yicha ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Yiliga **5 mln tonnaga yaqin** sabzavot-meva mahsulotlari yetishtiriladi. Chorvachilik, asalarichilik, pillachilik ham rivojlanmoqda. Respublika xo'jaliklarida **5,7 mln bosh qoramol va 10 mln bosh** qo'y-echki bor, go'sht-sut mahsulotlari yetishtirish o'sib bormoqda. Yiliga **30 ming tonnaga yaqin** pilla yetishtirilib, **21 ming tonnaga yaqini** respublika korxonalarida qayta ishlanib, ipak tolasi olinadi, qolgan esa eksport qilinadi. Jahon bozorida O'zbekiston paxtasi, pillasi, qorako'l terisi, charam xomashyolariga talab katta.

Shunday qilib, mamlakatimizning ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligini rivojlantirish ustida tinmay ish olib borilishi natijasida samarali yutuqlarga erishildi. **1990 – 1995-yillarda** qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish **11 foizga** kamaygan bo'lsa, keyingi yillarda izchil o'sishga erishildi. Bu o'sish oldingi yilga nisbatan **1997-yili 105,6, 2000-yili 103,2, 2001-yili 104,5, 2002-yili 106,1, 2004-yili 110,1, 2007-yili 106,1 foizni** tashkil etdi.

*Yalpi ichki mahsulotning o'sishi.* O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YIM) **1990 – 1995-yillarda 19 foizga** kamaygan, **1996-yildan** boshlab YIM ishlab chiqarishning yillik o'rtacha o'sish sur'ati **4,0 foizdan ortiqroqni** tashkil etgan bo'lsa, **2004-yili 7,7 foizni, 2006-yili 7,3, 2007-yili 9,5 foizni, 2008-yili 9 foizni, 2009-yili 8,1 foizni, 2010-yili 8,5 foizni,** tashkil etdi. Qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda YIMning o'sishi **3,5 baravarni**, aholining real daromadlari **3,8 baravarni** tashkil etdi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi har qanday mamlakatning iqtisodiy ahvolini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichdir. **2001-yili** O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha nafaqat islohotlar boshlangan 1991-yilgi darajaga chiqib oldi, balki **103 foiz** o'sishiga ham erishdi. Iqtisodiyotning o'sish ko'rsatkichi **2005-yili 2000-yilga nisbatan 30,1 foizni, 1991-yilga nisbatan 28,2 foizni** tashkil etadi. Mustaqillik yillarida tashqi savdo hajmi o'sib bordi. **2004-yilgi natijalarga ko'ra,** respublika tashqi savdo aylanmasi **8,7 mlrd AQSh dollarini** tashkil etdi. Bu **1992-yilgi ko'rsatkichga nisbatan qariyb 2 baravar ko'pdir.** O'zbekiston mahsulotlari jahondagi **80 mamlakatga** eksport qilinmoqda. Tashqi savdoda ijobiy saldo **2004-yili 1037 mln, 2007-yili esa 3,5 mlrd AQSh dollari, 2010-yili 4,2 mlrd AQSh dollarini** tashkil etdi.



## 35-BOB. MAMLAKATDA IJTIMOY-SIYOSIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI

### 35.1. AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASH VA MILLATLARARO TOTUVLIKNING MUSTAHKAMLANISHI

Aholi daromadlari darajasini saqlash tadbirlari. 1993-yil yanvar oyida ish haqi to'lashning yagona tarif setkasi joriy etildi. Bu tadbir xodimlarning ish haqi miqdorini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita bog'lash imkonini berdi. Eng kam ish haqini muntazam oshirish orqali aholining o'rtacha ish haqi, pul daromadlari ham oshib bordi. **1994-yili** mazkur tarif setkasiga muvofiq eng kam ish haqi **150 so'm** bo'lgan esa, **1995-yili 250 so'm**, **1996-yili 600 so'm**, **1997-yili 750 so'm**, **1998-yili 1100 so'm**, **1999-yili 1750 so'm**, **2000-yili 2450 so'm**, **2001-yili 3430 so'm**, **2002-yil 1-apreldan 4535 so'm**, **2003-yil 1-maydan 5440 so'm**, **2008-yil 1-sentyabrdan 20 865 so'm** **2009-yil 1-dekabrda 37 680 so'm**, **2010-yil 1-dekabrda 49 735 so'm**ga yetdi.

Pensiya, nafaqa, stipendiyalar miqdori ham shunga mos oshib bordi. Mamlakatimizning **2 mln 640 ming** fuqarosi pensiya oladi, nogironlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga davlat nafaqasi berilmoqda. Bunday to'lovlar **2000-yili 187,8 mlrd so'm**ni tashkil etdi. Oliy o'quv yurtlari talabalariga beriladigan stipendiyalar miqdori **1998 - 2000-yillarda 3,8 baravar** ortdi. **2000-yili** oliy o'quv yurtlarining **142 ming** talabasi **6 mlrd 600 mln so'm** stipendiya oldi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan bu tadbirlar natijasida aholi daromadlari darajasi keskin pasayishining oldi olir qi.

Ichki iste'mol bozorining himoya qilinishi. Narxlar **1992-yil yanvardan** bosqichma-bosqich, aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan choralarni oldindan ko'rib qo'ygan holda erkinlashtirila boshlandi. Vazirlar Mahkamasining «**Narxlarni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi qaroriga muvofiq **1992-yil 10-yanvardan** O'zbekistonda keng doiradagi ishlab chiqarilayotgan sanoat mollari, texnika vositalari, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan (erkin) narxlari va tariflariga o'tildi. **1993-yili** qat'iy belgilangan va tartibga solib turiladigan narxlarda sotiladigan tovarlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxati ancha qisqardi. Kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi. **1994-yilning oktyabr - noyabr** oylarida xalq iste'moli mollari asosiy turlarining narxlari erkin qo'yib yuborildi, transport va kommunal xizmatlar tariflari oshirildi.

Narxlarni erkinlashtirish jarayoni ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki davlat ichki iste'mol bozorini nazorat qilib turdi, turli kompensatsiya jamg'armalarini tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, aholiga kompensatsiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlarini keng qo'lladi. Keng iste'mol mollari va xizmatlarining ko'pgina turlari narxlaridagi tafovutlarning o'rni davlat byudjeti hisobidan qoplandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, barcha maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatning arzonlashtirilishi kabi imtiyozlar amal qildi. Ayrim toifadagi fuqarolarga uy-joy bepul xususiy mulk qilib berildi. Islohotlarning birinchi bosqichi davomida ijtimoiy himoyalash xarajatlari respublika byudjetining salkam 1/3 qismini tashkil etdi.

***Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash.*** 1991 – 1994-yillarda respublika byudjeti hisobidan **30 ta** soha va yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy himoya, moddiy yordam amalga oshirildi. **1994-yil 24-avgustda «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida» Prezident Farmoni** e'lon qilindi. Unga ko'ra, **1994-yil oktyabrdan** aholini ijtimoiy himoyalash siyosatining asosiy yo'nalishlariga tuzatishlar kiritildi. Negaki ilgari faqat respublika byudjeti yo'li bilangina **30 ta** turli soha va yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy himoya amalga oshirilardi, bu mablag'ning sochilib ketishiga olib keldi. **1992–1994-yillarda** ko'rilgan chora-tadbirlar yalpi ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan bo'lib, yordamga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlashda to'la samara bermayotgandi.

**1994-yili** ijtimoiy himoyaning asossiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi. Mahalla orqali bolalar, keksalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, bola boquvchi oilalarga bolasi **2 yoshga** to'lgunga qadar, **16 yoshgacha** bolalari bo'lgan oilalarga yagona nafaqalar berish joriy etildi. **1995-yili 500 mingga yaqin** ehtiyojmand oilalarga mahalla qo'mitalari orqali **6 mlrd so'm** nafaqa berildi.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatilayotgan yordam miqdori yildan yilga o'sib bormoqda. Faqat **2000-yilning** o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga mahallalar orqali **54,3 mlrd so'm** miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi.

O'zbekistonda yuritilayotgan ijtimoiy siyosat jamiyatning negizi bo'lgan oilani mustahkamlash va tinch-totuvligini ta'minlash, oilada ayolning mavqeyini ko'tarish maqsadi bilan uyg'unlashgan. Shu maqsadda mamlakatimizda **1997-yil – «Inson manfaatlari yili», 1998-yil–**

«Oila yili», 1999-yil – «Ayollar yili», 2000-yil – «Sog'lom avlod yili», 2001-yil – «Onalar va bolalar yili», 2002-yil – «Qariyalarni qadrlash yili», 2003-yil – «Obod mahalla yili», 2004-yil – «Mehr va muruvvat yili», 2005-yil – «Sihat-salomatlik yili», 2006-yil – «Homiylar va shifokorlar yili», 2007-yil – «Ijtimoiy himoya yili» 2008-yil – «Yoshlar yili», 2009-yil – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili», 2010-yil – «Barkamol avlod yili», 2011-yil – «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili», 2012-yil – «Mustahkam oila yili», 2013-yil – «Obod turmush yili» deb e'lon qilinib, bu yillarda oilani mustahkamlash, ayollarning jamiyatdagi o'rnini ko'tarish, sog'lom, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazish, qariyalarni e'zozlash, go'zal diyorumizdagi barcha mahallalar faoliyatini yanada jonlantirish yo'lida xayrli tadbirlar amalga oshirildi.

Aholi jamg'armalarini himoya qilish choralarini ham amalga oshirildi. Prezidentning **1995-yil 20-dekabr**dagi «**Aholining omonatlardagi va davlat sug'urta bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida**»gi Farmoniga binoan, **1992-yil yanvar**iga qadar jamg'arma bankiga pul qo'ygan **3 mln dan ortiq** omonatchilarning **35 mlrd so'm**ga teng bo'lgan, qadrsizlanib qolgan omonatlari indeksatsiya qilindi. **1996-yildan** boshlab jamg'arma bankiga pul qo'ygan odamlar o'z pullarini qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

**Maishiy xizmat. 2002-yil 1-avgust** holatiga ko'ra, respublikamizda **63 mingdan ortiq** xususiy-maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari vujudga keldi. Ularda **135 ming** xizmatchi aholiga maishiy xizmat ko'rsatmoqda. Buyurtmachilarning takliflariga binoan ularning uylariga borib xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqildi. Dasturni amalga oshirish borasida ko'rilgan tadbirlar natijasida **1991 – 2007-yillarda 36 ming km** suv quvurlari va **72 ming km** gaz tarmoqlari ishga tushirildi. Bu ko'rsatkichlar **1991-yilga** qadar erishilgan natijalarga nisbatan tegishli ravishda **2 va 4 baravar** ko'p demakdir. Istiqloq yillarida qishloq aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi **17 foizdan 78 foizgacha**, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa **52 foizdan 77 foizgacha** o'sdi. Aholi uchun uy-joylar qurish ham rivojlandi. **1991 – 2000-yillarda 70 mln m<sup>3</sup>** turarjoy binolari foydalanishga topshirildi.

**Sog'liqni saqlash. Konstitutsiya, «OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida» (1991), «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida» (1992), «Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida» (1996-yil 29-avgust), «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi (1997) Qonunlar** aholi salomatligini saqlashning huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Tibbiyot muassasalarini xususiy lashtirish

tadbirlari amalga oshirildi. **1991 – 1996-yillarda 249 ta** tish protezlash muassasalari va stomatologik poliklinikalar, **28 ta** xo'jalik hisobidagi tibbiy ko'rik poliklinikalari, jami **342 ta** tibbiyot muassasalari, **1999 – 2001-yillarda 154 ta** tibbiyot subyektlari xususiyashtirildi. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar xususiyashtirildi. Shaxsiy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar ham vujudga keldi. **2001-yili** Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan faoliyat yuritish uchun litsenziya olgan nodavlat muassasalar va firmalar soni **1700 taga**, shaxsiy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni **4000 taga** yetdi.

Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ishlariga Sog'liqni saqlash vazirligi, uning viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari, shahar va tuman bo'limlari bosh-qosh bo'lmoqda. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, Qizil yarimoy jamiyati, «Sog'lom avlod uchun», «Mehr-shafqat», «Sog'lomlashtirish va sport», nogironlar respublika jamg'armalari sog'liqni saqlash tarmoqlarini rivojlantirishga ko'maklashmoqdalar. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Hukumat topshirig'i bilan «**Homilador ayollarni va bolalar salomatligini mustahkamlash bo'yicha Milliy dastur**», «**Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks dasturi**» ishlab chiqildi. Ularning hayotga tatbiq etilishi ijobiy natijalar berdi. Barcha shahar va tumanlarda «**ona va bola**» markazlari tashkil qilindi. **Nukus, Namangan, Qarshi, Jizzax** shaharlarida Respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tekshirish instituti filiallari ochildi. Minglab bolalar poliklinikalari, akusherlik-ginekologiya kabinetlari, tug'ruqxonalar, «nikoh va oila» hamda tibbiy-genetik konsultatsiya punktlari onalar va bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. **Yosh oilalarni mustahkamlash maqsadida 311 646 ta yosh oila** tibbiy patronaj nazoratiga olindi. **102 390 nafar** turmush qurayotgan yoshlar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. **89 125 nafar** yoshlar oila va nikoh asoslari bo'yicha o'qitildi. Onalar va bolalarga ko'rsatilgan g'amxo'rlik natijasida tug'ilish jarayonida bolalar va onalar o'limi keskin kamaydi. **1991-yili bolalar o'limi har 1000 ta** tug'ilgan bolaga **51,4 tani** tashkil etgan bo'lsa, **1999-yili** bu ko'rsatkich **20,2 taga** yoki **2,5 baravarga** kamaydi. Shu yillarda onalar o'limi har **100 ming** tirik bolaga nisbatan **65,3 tadan 31 taga** yoki **2,1 marta** kamaydi. Yetim bolalar va farzandsiz oilalar to'g'risida g'amxo'rlik «**Kindendorf**» (bolalar mahallalari) Avstriya loyihasining O'zbekistondagi sa'y-harakatlari natijasida yetim bolalar va farzandsiz oilalarning ko'pchiligi uy-joyli va bus-butun oila bo'lib yashash baxtiga erishmoqdalar.

Prezidentimizning **1998-yil 10-noyabr**dagi «O'zbekiston Res-

**publikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni** va uning ijrosini ta'minlash yuzasidan qabul qilingan hukumat qarori aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. **2001-yil mart** oyida Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli 1-klinik shifoxona negizida Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy markazi barpo etildi. Qurilish ishlariga **4 mlrd so'm** sarflandi. Markazda **760 o'rinli 8 ta jarrohlik markazi** aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Davlat dasturiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish markazi filiallari, **171 ta tuman markaziy shifoxonalarida bo'limlar** tashkil etildi. Markaz va uning filiallari rivojlangan mamlakatlarda tayyorlangan eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Ularni sotib olish uchun Ispaniya hukumati tomonidan **10 mln yevro** kredit, Yaponiya hukumati tomonidan **7 mln dollar** grant berildi. **Germaniya, AQSh va Isroil** davlatlari ham kredit va grantlar ajratmoqdalar. **AQSh, Germaniya** va boshqa davlatlar tibbiyot uskunolari, dori-darmonlar bilan beg'araz yordam bermoqda.

Mustaqillik yillarida aholiga tibbiy xizmatning rivojlangan tizimi bunyod etildi. **1991 – 2001-yillarda 19,5 ming o'rinli** shifoxonalar, **95,7 ming tashrifli** poliklinikalar foydalanishga topshirildi. **1991-yili** shifoxonalar soni **1300 tani** tashkil etgan bo'lsa, **2001-yili** ularning soni **1500** tadan oshdi. Ambulatoriya-poliklinikalar soni esa **3 mingdan 4,8 mingtaga** yetdi yoki **1,6 baravar** ko'paydi. Qishloq joylarida **3000 dan ortiq** qishloq vrachlik punktlari tashkil etildi. Respublikamizda shifokorlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga, yosh shifokorlarni tayyorlash ishlariga alohida e'tibor berildi. Bu borada **7 ta** oliy tibbiy o'quv yurtlari, o'rta tibbiy bilim yurtlari va kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda. Aholiga turli ixtisosliklar bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis-shifokorlar soni **ming nafarga** ko'paydi. O'zbekistonda bir shifokorga o'rta hisobda **300 ga yaqin** kishi to'g'ri keladi, bu ko'rsatkich ko'pgina mamlakatlarga nisbatan ancha yuqoridir.

Mustaqillikning dastlabki yillarida aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashda katta qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ikkitagina korxonada dori-darmon ishlab chiqarardi. Ular aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyojini **1 – 1,5 foizgagina** qondirardi, xolos. Shu bois farmatsevtika sanoatini tez sur'atlar bilan rivojlantirish dolzarb vazifalardan edi. **1993-yili** Prezident farmoni bilan «**Uzfarmosanoat**» davlat aksiyadorlik konserni tuzildi, unga aholini o'zimizda ishlab chiqarilgan dori-darmonlar bilan ta'minlash vazifasi yuklandi. **1994 – 2002-yillarda** farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish

uchun **50 mln AQSh dollari** jalb qilindi. **Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, Hindiston** va boshqa mamlakatlari sarmoyadorlari ishtirokida qo'shma korxonalar barpo etildi. **2002-yili** respublikada dori-darmon ishlab chiqaruvchi korxonalar va qo'shma korxonalar soni **61 taga** yetdi. Farmatsevtika korxonalari **1994-yili 47,2 mln so'mlik 34 xil mahsulot** ishlab chiqargan bo'lsa, **2001-yili 12 mlrd so'mlik 340 xil mahsulot** ishlab chiqardi.

**1994-yili** aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i **4,5 foizga** qondirilgan bo'lsa, **2001-yili** bu ko'rsatkich **25 foizgacha** o'sdi. **50 dan ortiq** davlatdan dori-darmonlar keltirilmoqda. **2001-yildan** boshlab chetdan dori vositalari keltiruvchi tashkilotlar qo'shimcha qiymat solig'idan ozod etilgan. Aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashda dorixonalarning o'rni kattadir. **1994-yili «Dori-darmon»** davlat aksionerlik uyushmasi tashkil etildi. Davlat tasarrufidagi **2525 ta** dorixonaning ko'pchiligi xususiy lashtirildi. **2001-yili** xususiy dorixonalar soni **2722 taga** yetdi.

*Millatlararo totuvlikning ta'minlanishi.* Mustaqillik qo'lga kiritilgan paytda O'zbekistonda **120 dan ortiq** millat va elat vakillari yashardilar. O'zbekiston barcha millatlar o'rtasida totuvlikni ta'minlash, ko'p millatli jamiyat tizimini saqlab qolish va mustahkamlash yo'lidan bordi. Millatlararo totuvlikni ta'minlovchi huquqiy zaminlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 8-, 18-moddalarida: *«O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar»* deb belgilab qo'yilgan. **1989-yili**yoq yurtimizdagi millat va elatlarning jamoat tashkilotlari – milliy-madaniy markazlari tuzila boshlangan va shu yili ularning soni **12 taga** yetgandi. **1989-yili** Madaniyat vazirligi qoshida **Respublika millatlararo madaniyat markazi** tuzildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar tufayli bu jarayon tez rivoj topdi. **2002-yili 120 ta** milliy madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatdi.

**1992-yil yanvarda** Millatlararo madaniyat markazi **Respublika baynalmilal madaniyat markaziga** aylantirildi. Uning faoliyatida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. O'zbekiston davlati ko'magida Baynalmilal madaniyat markazi va milliy-madaniy markazlar **1996-yili «Bobur» ko'chasidagi** muhtasham saroyga ko'chib o'tdilar, bu majmua **Millatlar saroyi** degan nom oldi. Barcha millat va elat vakillari O'zbekistonni o'zining umumiy uyi, Vatani deb bilib, uning ravnaqi yo'lida

sidqidildan xizmat qilmoqda. Bu O'zbekistonda yuritilayotgan oqilona milliy siyosat mevasidir.

## 35.2. VATAN XAVFSIZLIGINING MUSTAHKAMLANISHI

Milliy xavfsizlikning ta'minlanishi. 1995-yili Prezident huzurida mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta'minlash, zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi maslahat organi – **O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik kengashi** tashkil etildi. 1997-yil 29-avgustda «**O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida**» Qonun qabul qilindi. Bu hujjatda diniy ekstremizm, xalqaro terrorism, uyushgan jinoyatchilik avj olgan sharoitda davlatning muhim vazifalaridan biri milliy xavfsizlikning samarali tizimini yaratishdan iborat ekani ta'kidlangan. Milliy xavfsizlik xizmati tizimi vaziyat talab qilgan darajada kuchaytirildi.

O'zbekistonning mustaqilligini ko'rolmaydigan ham tashqi, ham ichki g'animlar mavjud, albatta. Eng xavfli ichki yovuz kuchlarning jamiyatimiz hayotiga solayotgan tahdididir. Bunday terroristik urinishlar **1991-yil dekabrda Namanganda, 1999-yil 16-fevralda Toshkentda** sodir bo'ldi. Siyosiy, diniy ekstremistlar tomonidan Toshkentda uyushtirilgan terroristik harakat natijasida **16 nafar** begunoh inson shahid ketdi, **120 nafar** kishi tan jarohati oldi. Shukrki, voqea tashkilotchilarining yovuz niyatlari amalga oshmadi. Yurtboshimiz va davlatimizning boshqa rahbarlari omon qoldilar, terrorchilar o'z qilmishlariga yarasha jazolandi.

Vatan tinchligi, barqarorligi barchamizning hayotiy ishimizdir. **1999-yil 16-fevralda** Toshkentda yuz bergan qo'poruvchilik harakati barchamizni sergak bo'lishga, mustaqilligimizni himoya qilishga tayyor turishimiz lozimligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari – xavfsizlik tayanchi. **1991-yil sentyabrda** O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tuzildi. O'zbekiston parlamentining **1992-yil 14-yanvarda** qabul qilingan «**O'zbekiston hududida joylashgan harbiy qismlar va o'quv muassasalari to'g'risida**»gi qarori asosida respublikamiz hududida joylashgan barcha harbiy qismlar, harbiy o'quv yurtlari respublika tasarrufiga olindi. O'zbekistonning o'z Qurolli Kuchlari tashkil etildi. **1992-yil 2-iyunda** «**Mudofaa to'g'risida**» Qonun qabul qilindi. **1993-yili esa 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni** deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus va muhandis-

lik-qurilish qo'shinlari hamda Milliy gvardiyadan iborat. Konstitutsiyaning **93-moddasiga** muvofiq, Prezident mamlakat **Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoni** hisoblanadi.

O'zbekistonda yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlash tizimi yaratildi. Toshkent umumqo'shin komandirlari, Samarqand avtomobilchi komandir-muhandislar, Chirchiq tankchi komandir-muhandislar, Jizzax harbiy-aviatsiya oliy bilim yurtlari, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida tashkil etilgan maxsus fakultet turli mutaxassisliklar bo'yicha yuqori malakali komandirlar tayyorlamoqda. Toshkentda oliy qo'mondonlar tayyorlovchi **Qurolli Kuchlar akademiyasi** tuzildi.

Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlar chuqur isloh etildi. Respublika Qurolli Kuchlarining jangovarligini oshirish maqsadida harbiy okruglar tashkil etilib, harbiy qismlarni joylashtirishning yangi tizimi yaratildi. Chegara qo'shinlari tashkil etildi. Qo'shinlar yangi tashkiliy-shtat tuzilmasiga o'tkazildi. Bosh shtab Qurolli Kuchlarning Birlashgan shtabi etib qayta tashkil etildi. **2003-yildan** e'tiboran O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatni o'tash muddati **18 oydan 12 oyga** keltirildi. Shartnoma-kontrakt asosidagi xizmatga o'tildi.

O'zbekiston **1994-yil iyul** oyida **NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga** qo'shildi. Bu dastur tomonidan uyushtirilgan harbiy mashqlarda o'zbekistonlik zobit va askarlar faol qatnashdilar. **1997-yili** Qozog'iston va O'zbekistonda uyushtirilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiroki zobit va askarlarning harbiy-texnik tayyorgarligini yanada ko'tarishga xizmat qildi. **Shimoliy Karolina (AQSh)dagi Kemp Lejyun** dengiz piyodalari poligonida o'zbekistonlik askarlar NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida **16 ishtirokchi** mamlakat armiyalari vakillari hamkorligidagi mashqlarda qatnashdilar. O'zbekistonlik desantchilar O'zbekiston hududida amerikaliklar bilan hamkorlikda o'tkazilgan «**Ultrabalans – 96**» tajriba mashqlarida yuksak mahoratlarini namoyish etdilar. Toshkent, Chirchiq, Samarqand harbiy bilim yurtlari kursantlarining terma vuzvodi **1997-yil may – iyun** oylarida **Norvegiyada** o'tkazilgan «**Kooperativ bankers – 97**» mashqlarida qatnashdi. O'zbekiston bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida harbiy-texnik hamkorlik qilinmoqda.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurash. **XX asr oxirlarida** ekstremistik, terroristik kuchlar butun insoniyatga jiddiy tahdid soluvchi kuchga aylandi. Terroristik kuchlar jahondagi ko'pchilik mamlakatlarga yoyildi. Dastlab ular alohida-alohida harakat qilgan bo'lsalar, endi o'zaro birlashdilar, bir zanjirga bog'landilar. Ularni bir markazdan boshqarish, moliyaviy jihatdan



ta'minlash tizimlari vujudga keldi. Shu tariqa xalqaro terrorizm vujudga keldi. «**Al-Qoida**» deb atalgan xalqaro terroristik markaz ko'magida **Afg'onistonda** shakllangan «**Tolibon**» terroristik kuchlari yovuzlarcha harakat qilib, Afg'onistondagi qonuniy hokimiyatni ag'dardilar. «**Tolibon**» kuchlari Afg'onistonda hokimiyatni egallab, afg'on xalqi boshiga misli ko'rilmagan ofat soldilar. Afg'oniston hududida o'r'nashib olgan xalqaro terrorizmning bir guruh jangarilari **1999-yili Yangiobodga, 2000-yili Sariosiyo va Uzun tumanlariga** bostirib kirib mamlakatimiz tinchligini buzishga urindi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari ularni tor-mor etib, mamlakat tinchligi, el osoyishtaligini himoya qilishga qodir ekanini ko'rsatdi.

**2004-yil 28-mart – 1-aprel kunlari Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlarida** terrorchilik harakatlari sodir etildi. **2004-yil 30-iyul** kuni Toshkent shahrida AQSh va Isroil elchixonalari hamda Respublika prokuraturasi binolari yonida takroran terrorchilik harakatlari bo'ldi. Bir necha begunoh odamlar, militsiya xodimlari qurbon bo'ldi. Yovuz kuchlar tomonidan **2005-yil may oyida Andijon shahrida** tashkil etilgan terrorchilik harakati bostirildi. Qo'lga olingan terrorchilar qilmishiga yarasha jazolandi.

Prezident Islom Karimov **1993-yili BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida, YXHTning 1999-yil noyabr oyida Istanbulda bo'lgan sammitida, BMT Bosh Assambleyasining «Ming yillik sammiti»** hamda boshqa nufuzli xalqaro anjumanlarda butun jahon jamoatchiligini xalqaro terrorizm xavfidan ogoh etib, bu xatarga qarshi birgalikda kurashish, xalqaro terrorizmga qarshi davlatlararo miqyosdagi kurashni muvofiqlashtiruvchi xalqaro markaz tuzish haqida takliflarni ilgari surdi.

**2000-yil 20 – 21-aprel kunlari Toshkentda** Markaziy C. yo iqtisodiy hamjamiyati davlatlari boshliqlarining kengashi bo'lib o'tdi. Unda **O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston** Prezidentlari mintaqaviy xavfsizlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalarni muhokama qildilar. To'rt davlat boshliqlari «**Terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida shartnoma**»ni imzoladilar. Bunday shartnomaning imzolanishi Markaziy Osiyodagi vaziyatdan kelib chiqqan muhim voqea va oqilona qadam bo'ldi. **2000-yil 21-iyunda Moskvada** bo'lib o'tgan MDH davlat boshliqlarining sammitida terrorchilikka qarshi kurash markazi tuzishga qaror qilindi.

**2001-yil iyun oyi boshlarida Minsk shahrida** bo'lib o'tgan MDH davlat boshliqlarining sammitida jinoyatchilik, terrorchilik va ekstremizm-

ning turli ko'rinishlariga qarshi birgalikda chora ko'rish masalasi muhokama qilindi. **2001-yil 14 – 15-iyun** kunlari **Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga** a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasida konvensiya imzolandi. Afsuski, dunyo hamjamiyati xalqaro terrorizmning real xavfi to'g'risidagi O'zbekiston da'vatlariga yetarlicha e'tibor bermadi. **2001-yil 11-sentyabr** kuni **Nyu-York** va **Vashingtonda** sodir etilgan mudhish terrorchilik hujumlaridan keyingina dunyodagi yetakchi davlatlar AQSh boshchiligida bu yovuz dushmanga qarshi keng miqyosda kurashga kirishdilar. O'zbekiston AQShda sodir etilgan terrorchilik harakatlarini qoraladi. Islom Karimovning **2001-yil 5-oktyabr**dagi Bayonotida va O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbiri bilan suhbatida yurtimizning terrorchilikka qarshi qat'iy pozitsiyasi aniq va ravshan ifodalab berildi.

## 36-BOB. O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI

### 36.1. MA'NAVIY MEROS, MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI VA RIVOJLANISHI. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI

*Ma'naviy merosning tiklanishi.* Mustaqillik sharofati bilan xalqimiz ma'naviy zug'umlardan ozod bo'ldi, erkin fikrga, milliy tiklanishga yo'l ochildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi. Istiqlol yillarida buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari **YUNESKO** bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi: 1991-yil – *Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi*; 1992-yil – *Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi*; 1993-yil – *Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi*; 1994-yil – *Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi*; 1996-yil – *Amir Temur tavalludining 660 yilligi*; 1997-yil – *Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon tavalludining 100 yilligi*; 1998-yil – *Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi*; 1999-yil – «*Alpomish*» dostonining 1000 yilligi; 2000-yil – *Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi*; 2000-yil – *Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi*; 2001-yil – «*Avesto*» yaratilganining 2700 yilligi. Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileyleri munosabati bilan ularning o'nlab nodir asarlari o'zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o'rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog'lar yaratildi.

**1991-yili** buyuk bobomiz **Alisher Navoiy** tavalludining **550 yilligi** nishonlandi. Shu yili O'zR FA Til va adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Yubiley yilida bobokalonimizning asarlari nashr etildi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. **1991-yil 28-sentyabr** kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy bog'ining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

**1994-yil oktyabr** oyida **Mirzo Ulug'bek** tavalludining **660 yillik** yubileyi tantanalari bo'lib o'tdi. Ulug'bek madrasasi, Ulug'bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug'bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yili **24-oktyabrda Parijda** YUNESKOning majlislar zalida «**Ulug'bek va temuriylar davri**» mavzusida xalqaro konferensiya hamda «**Ulug'bek va an'anaviy**

san'at» ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug'bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko'maklashdi.

**1998-yil 23-oktyabrda Farg'ona shahrida buyuk alloma Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik yubileyi nishonlandi.** Uning noyob ilmiy merosi xalqimizga qaytarildi. Farg'ona shahrida Al-Farg'oniy nomi bilan bog' yaratildi va buyuk allomaga haykal o'rnatildi.

Tarixiy xotiraning tiklanishi. **1996-yili** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «**O'zbekistonning yangi tarix markazi**» tashkil etildi. O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezidentimizning bir guruh tarixchilar bilan **1998-yil iyun** oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining **1998-yil 27-iyulda** qabul qilingan «**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida**»gi qarorida belgilab berildi. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlaridan, hukmron kommunistik mafkuraga xizmatkor bo'lishdan xalos etildi. Necha yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z ochilmay kelgan tarixiy voqealar xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Prezident farmoni bilan **1996-yil Amir Temur yili** deb e'lon qilindi. Shu yili mashhur davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tavalludining **660 yilligi** mamlakatimizda va jahon miqyosida Amir Temur yili sifatida keng nishonlandi. YUNESKO qarori bilan **1996-yil aprelda Parijda** Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan **bir haftalik** xalqaro tantanalar bo'lib o'tdi. **Toshkentda** Amir Temurga haykal o'rnatildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Amir Temurning shaxsi butun insoniyatning boyligi ekani tan olindi. Amir Temur yubileyi munosabati bilan **Samarqand** va **Shahrisabzda** o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bog'lar yaratildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko'rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va ulug'vor haykal o'rnatildi. Bu shaharlarga «**Amir Temur**» ordeni topshirildi.

**1997-yili Buxoro va Xiva** shaharlarining **2500 yilligi**, **1999-yili** vatanparvar siymo, xalq qahramoni **Jaloliddin Manguberdi** tavalludining **800 yilligi** nishonlandi. **Urganch** shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmuyi barpo etildi. **2002-yili Termiz** shahri-ning **2500 yilligi**, **2003-yili Shahrisabz** shahri-ning **2700 yilligi** nishonlandi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan **Abdulla Qodiriy**, **Cho'pon**, **Fitrat**, **Usmon Nosir** va boshqa jigarbandlarning nomi, izzat-ikromi,

hurmati joyiga qo'yildi, asarlari nashr etildi. Prezident tashabbusi bilan Toshkent shahrining Bo'zsuv kanali bo'yida qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «**Shahidlar xotirasi**» yodgorlik majmuyi barpo etildi va uning ochilish marosimi **2000-yil 12-may** kuni bo'lib o'tdi. Mazkur majmua qoshida «**Qatag'on qurbonlari xotirasi**» muzeyi qurilib, **2002-yil 27-avgust** kuni foydalanishga topshirildi. Muzey lavhalari bilan tanishib, «quloqlashtirish» oqibatida **60 mingdan ziyod** hamyurtimiz Ukraina, Shimoliy Kavkaz va olis Sibirga surgun qilinganini, XX asr boshidan 40-yillarigacha **450 ming** vatandoshimizga nisbatan «jinoiy ish» ochilganini, «**paxta ishi**» davrida esa **25 ming kishi** hibsga olinib, **4,5 mingi** javobgarlikka tortilganini bilib olish mumkin.

**1999-yili Toshkentda** Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «**Xotira maydoni**» majmuyi barpo etildi va **9-may** kuni uning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Respublika «**Nuroni**» jamg'armasi tashabbusi bilan janglarda halok bo'lgan **400 mingga yaqin** vatandoshlarimiz haqida **34 jildlik «Xotira»** kitobi tayyorlandi va nashr etildi. Har yili **9-may «Xotira va qadrlash kuni»** sifatida nishonlanmoqda.

**1997-yili Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi 2004-yili Qarshi (Naxshab) shahrining 2700 yilligi, 2007-yili Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg'ilon shahrining 2000 yilligi** nishonlandi. **2009-yili Toshkent shahrining 2200 yilligi** nishonlandi.

*Milliy qadriyatlarning tiklanishi.* Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish yo'lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri **Navro'z** bayramidir. Qaramlik davrida mana shu ardoqli bayramni nishonlash ham taqiqlangandi. **1990-yildan** boshlab hukumat qarori bilan **21-mart** Navro'z milliy xalq bayrami kuni sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

**1994-yil 23-apreldagi** Prezident farmoni bilan tashkil etilgan Respublika «**Ma'naviyat va ma'rifat**» jamoatchilik markazi o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g'oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste'dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo'naltirishga qaratilgan muhim tadbirlar, anjumanlar, ko'rgazmalar tashkil etishni yo'lga qo'ydi. **1996-yil 9-sentyabrda** qabul qilingan «**Ma'naviyat va ma'rifat**» jamoatchilik markazi ishini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident Farmoni ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

**1996-yil yanvarda** Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi huzurida «**Oltin meros**» xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi. **1996-yil 27-sentyabr**dagi Vazirlar Mahkamasining «**Oltin meros**» xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi qaroriga binoan mazkur jamg'arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. «Oltin meros» xayriya jamg'armasi «Xalq merosi durdonalari» ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san'at namunalari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko'rik tanlovlar o'tkazish bilan shug'ullanmoqda. **1996 – 2002-yillarda** «Oltin meros» jamg'armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi.

*Diniy qadriyatlarining tiklanishi.* **1993-yil sentyabr**da Buxoroda mashhur shayx **Bahouddin Naqshband** tavalludining **675 yilligi** tantanalari bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag'ishlangan qator risolalar chop etildi. **1998-yil 23-oktyabr**da Samarqandda buyuk alloma **Imom al-Buxoriy** tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha **1225 yilligi** nishonlandi. Shu kuni **Xartang qishlog'**ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi ochildi. Yubiley munosabati bilan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning **4 jildlik «Al-jomi' as-sahih»** kitobi nashri taqdim etildi.

**2000-yil 16 – 17-noyabr** kunlari **Marg'ilonda** islom huquqining asoschilaridan biri **Burhoniddin al-Marg'inoniy** tavalludining **910 yilligi**, Samarqandda islomshunos olim **Imom Abu Mansur al-Moturidiy** tavalludining **1130 yilligi** nishonlandi va ular xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burhoniddin al-Marg'inoniyning islom huquqiga bag'ishlangan «**Hidoya**» kitobi nashr etildi. Islom olamining taniqli allomalari **Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi**, **Mahmud az-Zamahshariyning 920 yilligi**, **Abduxoliq G'ijduvoniyning 900 yilligi**, **Najmiddin Kubroning 850 yilligi**, **Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi** keng nishonlandi.

Prezidentning **1992-yil 27-mart**dagi farmoni bilan Ro'za – Ramazon hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi. Respublika musulmonlari istak-xohishiga ko'ra, Qurbon hayiti ham tiklandi, dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. Prezidentning **1990-yil 2-iyun**dagi «**Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida**»gi Farmoniga binoan O'zbekiston xalqi Haj va Umra amallarini ado etish

imkoniyatiga ega bo'ldilar. Mustaqillik yillarida **32 ming** o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. «**Islom nuri**» gazetasi chiqmoqda. Qur'oni Karim sakkiz marta **1 mln nusxada** nashr etildi.

Prezidentning **1992-yil 7-martdagi** farmoni bilan islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda **1000 dan ortiq** talaba-yoshlar ta'lim olmoqdalar. **1999-yili** tashkil etilgan Toshkent islom universitetida **750 talaba** o'qimoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **31-moddasida** va **1998-yil 30-aprelda** qabul qilingan «**Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida**»gi Qonunda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati huquqiy jihatdan belgilab berilgan.

*O'zbek tili mavqeyining mustahkamlanishi.* Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi asosiy ahamiyati va o'rni qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining **IV sessiyasi 1995-yil 21-dekabrda** yangi tahrirda «**Davlat tili to'g'risida**»gi Qonunni qabul qildi. Qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekani, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining faoliyati, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hisob-kitobi, statistika va moliya ishlari o'zbek tilida yuritilmoqda.

**1993-yil sentyabrda** «**Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida**» Qonun qabul qilindi. **1995-yil may oyir** à «**Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida**»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunlar o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini yanada tiklashga xizmat qilmoqda.

*Milliy istiqlol g'oyasi.* O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan kundan boshlab jamiyatimizning milliy g'oyasini yaratish dolzarb vazifa bo'lib qoldi. **1993-yil 23-aprel** kuni Prezident bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruratini asoslab berdi. Oliy Kengashning **XII sessiyasida 1993-yil 7-may** kuni nutq so'zlab Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi: *milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim; shu bilan birga, bu g'oya xalqimizda o'zi-*

ning qudrati va himoyasiga suyangan holda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

«Tafakkur» jurnalining 1998-yil 2-sonida jurnal bosh muharririning savollariga Prezident I.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, taqiq qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», – degan haq fikrni ilgari surdi Islom Karimov.

Jamiyat ma'naviyatini yangilash va yanada yuksaltirish bugungi kunda ham mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi. Yurtboshimiz o'zining «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzalarida islohotlarning yangi bosqichida ma'naviyat sohasidagi vazifalarni asoslab berdi. Shunday qilib, Islom Karimov O'zbekistonning milliy istiqloq g'oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo'ldi. Ma'no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni ta'minlash kabi insonparvar tamoyillarni o'zida uyg'unlashtirgan **milliy istiqloq g'oyasi** shakllandi.

Mamlakatimizda milliy istiqloq g'oyasining asosiy tamoyillari ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda. Barcha ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga «**Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar**» fani joriy etildi. Respublika shahar va qishloqlarida faoliyat yuritayotgan kutubxona va klub muassasalari aholi orasida madaniy-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullanmoqda. Madaniyat va sport ishlari vazirligi tasarrufidagi 7000 kutubxona, 2500 dan ortiq madaniyat saroylari, klub muassasalari va ular qoshidagi badiiy havaskorlik jamoalari aholiga ma'naviy-ma'rifiy xizmat ko'rsatmoqda.

## 36.2. TA'LIM VA MADANIYAT RAVNAQI

Ta'lim islohoti. 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda 1991 – 1996-yillarda



e'lon qilingan **30 dan ortiq** Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida ta'lim sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim sohasida uylarda tashkil etiladigan bolalar bog'chalari hamda «bolalar bog'cha-maktab» majmuyi tarmog'i rivojlandi. Bolalarga chet tillarini, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatuvchi **800 dan ortiq** guruh tashkil etildi. Yangi tipdagi maktablar va umumta'lim o'quv yurtlari tarmog'i rivojlantirildi. **1992 – 1996-yillarda 238 litsey va 136 gimnaziya** ochildi va faoliyat ko'rsatdi. «Sog'lom avlod uchun», «Iqtisodiy ta'lim», «Qishloq maktabi», «Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tiklash» va boshqa tarmoq dasturlari ishlab chiqildi hamda ta'lim sohasiga tatbiq etila bordi. Mehnat bozorini, eng avvalo, qishloq joylarida mehnat bozorini shakllantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda hunar-texnika ta'limini qayta tashkil etish ishlari amalga oshirildi. Bu tizimda jami 221 ming kishini ta'lim bilan qamrab olgan **442 o'quv maskani**, jumladan, **209 kasb-hunar maktabi, 180 litsey va 53 biznes-maktab** ishladi. Toshkent, Samarqand, Urganch, To'rtko'l, Andijon bank kollejlari, Toshkent ayollar kolleji tashkil etildi. Respublikada 1996/1997-o'quv yilida **258 ta** o'rta kasb-hunar ta'lim o'quv yurti ishladi. Ularda qariyb **16 ming o'qituvchi** va muhandis-pedagog xodimlar **197 ming o'quvchiga** kasb-hunar o'rgatish bilan shug'ullandi. Oliy ta'lim sohasida ham qator yangi o'quv yurtlari ochildi. **1992-yil 28-fevraldagi** Prezident farmoni bilan **8 ta** viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. Eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha yangi oliy o'quv yurtlari – *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Toshkent moliya instituti, Navoiy konchilik instituti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jizzax politexnika instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti* hamda viloyatlarda yirik universitetlar filiallari tashkil etildi. **1997-yil boshlarida** respublika oliy ta'lim tizimida **58 ta oliy o'quv yurti**, jumladan, **16 ta universitet** va **42 ta institut** faoliyat ko'rsatdi. Ularda **164 ming** talaba o'qidi, **18,5 ming** professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi.

Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Ulug'bek», «Umid», **Respublika bolalar fondi**, «Kamolot», «Sog'lom avlod uchun», «Iste'dod» jamg'armalari tashkil etildi. O'zbekiston ta'lim sohasida **AKSELS**,

**AYREKS, Amerika Kollejlari Konsorsiumi, Tinchlik Korpusi (AQSh), Konrad Adenauer Fondi (Germaniya), Britaniya Kengashi (Buyuk Britaniya)** kabi xalqaro tashkilotlar va boshqa nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. Islom Karimov **1997-yil 29-avgustda** Oliy Majlisning **IX sessiyasida «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»** mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruzada oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizni ro'yobga chiqarish taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq ekani asoslab berildi.

*Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.* **1997-yil 29-avgust** kuni Oliy Majlisning **IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi yangi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** qabul qilindi. Yurtimizda ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilandi: *maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.*

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash, milliy modelini yaratishdan iboratdir. Milliy dasturda hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda ta'lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan. **Birinchi bosqich (1997 – 2001)**da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro'yobga chiqarildi. **Ikkinchi bosqich (2001 – 2005)**da milliy dastur to'liq ro'yobga chiqdi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritildi. **Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)**da to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

*Milliy dastur amalda.* Islohotlarga mos ravishda maktabgacha ta'lim faoliyati tubdan o'zgardi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari asosida **«Maktabgacha ta'lim**

to'g'risida nizom», «Davlatga qarashli bo'lgan bolalar muassasalari to'g'risida nizom», «Uchinchi mingyillikning bolasi» bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash dasturi ishlab chiqildi hamda hayotga tatbiq etilmoqda. **Besh mingga yaqin** maktabgacha ta'lim muassasasi hukumat qarori bilan ta'lim tizimi tasarrufiga o'tkazildi. Xususi va xonadon bog'chalar tarmog'i kengaydi. Respublika bo'yicha **84 foiz** maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim muassasalarida, xo'jalik hisobidagi qisqa muddatli guruhlarda, maktablar qoshidagi tayyorlov guruhlari, savodxonlik va boshqa turdagi markazlarda amalga oshirilmoqda. **16 foizi** esa oilalarda maktabga tayyorlanmoqda. **2001 – 2003-yillarda** respublikamizda **6842 ta** maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatdi, ularda **608 500 nafar** o'g'il-qiz tarbiyalandi, **65 862 nafar** pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmatda bo'ldi.

O'zbekiston hukumati ta'limni rivojlantirish uchun katta mablag' ajratmoqda. Birgina **2001-yili** ta'lim xarajatlari davlat byudjeti sarf-xarajatlarining **36 foizini** tashkil etdi. Ular yangi ta'lim binolari barpo qilish, ularni eng zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va o'quv mebellari bilan jihozlash uchun sarflandi. **848 398 o'quvchi o'rniga** mo'ljallangan **2244 ta** yangi umumta'lim maktabi binolari foydalanishga topshirildi. Umumta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari, ularga asoslangan o'quv dasturlari, darsliklar yaratilib, ta'lim jarayoniga joriy etildi. O'quv amaliyotiga «**Vatan tuyg'usi**», «**Odobnoma**», «**Ma'naviyat asoslari**», «**Milliy istiqbol g'oyasi**», «**Dunyo dinlari tarixi**», «**Huquqshunoslik**», «**Sog'lom oila va nikoh**», «**Iqtisodiy bilim asoslari**» kabi bir qator yangi fanlar kiritildi, ular bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklar yaratildi. **2002/2003-o'quv yiliga** kelib umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, ya'ni **1 – 9-sinflarda** o'qitish to'laligicha lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida olib borildi. Hukumat o'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlashga g'amxo'rlik qilmoqda. Shu maqsadda «**Maktab kutubxona jamg'armasi**» tashkil etilib, o'quvchilar ijara usulida darsliklar bilan ta'minlanmoqda. **2001-yili** davlat byudjeti hisobidan «**Maktab kutubxona jamg'armasi**»ga **1923 mln so'm** ajratildi. Har yili **600 ming nafardan ziyod** birinchi sinf o'quvchilari Prezident sovg'asi sifatida o'quv qurollari, darsliklar bilan bepul ta'minlanadi.

Prezident farmoni (**2004-yil 19-fevral**) va Vazirlar Mahkamasi qarori (**2004-yil 9-iyul**) asosida maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi ishlab chiqildi. Dasturga binoan **2004 – 2009-yillarda** buzib tashlanadigan umumta'lim maktablari o'rniga yangi maktablar qurish, maktablarni kapital rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash tadbirlari

ishlab chiqildi. **2005 – 2010-yillarda** umumta'lim maktablari yangidan qurildi va kapital ta'mirlandi, bolalar sport inshootlari qurib foydalanishga topshirildi. **2009/2010-o'quv yilida** respublikamizda **9772 ta** umumta'lim maktabida **450 mingga yaqin** o'qituvchi faoliyat ko'rsatdi, **6 mln ga yaqin** o'quvchi ta'lim-tarbiya oldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining eng muhim O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi **3 yillik** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirilmoqda. **1997 – 2010-yillarda 1536 dan ortiq** akademik litsey va kasb-hunar kolleji barpo etildi. Kollej va litseylar uchun o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, tajriba-sinovdan o'tkazildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi, asosiy darsliklar yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish davlat dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetkazildi. **9 yillik** umumta'lim maktab bosqichini va **3 yillik** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan: **bakalavriat** va **magistraturadan** iborat qilib qayta tashkil etildi. **1999-yili Toshkent islom universiteti** tashkil etildi. Mamlakatimizning **65 ta oliy o'quv yurtida 850** yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha **300 mingga yaqin** bakalavr va magistrantlar ta'lim-tarbiya olmoqda. **18 486 nafar** professor-o'qituvchi talabalarga ta'lim-tarbiya bermoqda, ularning **1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir. 1998 – 2001-yillarda 131 ta** bakalavriat yo'nalishi, **664 ta** magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtirgan davlat ta'lim standartlari, ularga mos o'quv dasturlari, o'quv adabiyotlari yaratildi va ta'lim jarayoniga joriy etildi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati olib borilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish milliy dasturda belgilangan muhim vazifalardan biridir. **1997-yili** tashkil etilgan «Umid» jamg'armasi yo'llanmasi bilan **1997 – 2001-yillarda 785 nafar** yigit-qiz rivojlangan davlatlarning oliy o'quv yurtlariga o'qish uchun jo'natildi. Ulardan **519 nafari** o'qishlarini bitirib keldi va Prezident farmoyishi bilan tashkil etilgan maxsus ishchi guruhi yo'llanmasi bilan vazirliklar, idoralar, tashkilot va korxonalarda ishlamoqdalar. **Toshkentda 2002-yil iyulda Xalqaro Vestminster universiteti, 2006-yili Moskva davlat universiteti filiali, 2007-yili Moskva neft-gaz universiteti filiali 2008-yili Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2009-yili Turin politexnika universiteti** tashkil etildi.

Ta'lim muassasalarining Yevropadagi ta'lim jamg'armasi, Germaniyadagi Texnika hamkorlik tashkiloti, Yaponiyadagi JAICA – xalqaro hamkorlik agentligi, Koreyaning KOIKA hamkorlik agentligi, YUNESKO, Jahon banki, TESIS-TEMPUS ochiq jamiyat instituti, AQSh, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Daniya, Xitoy, Gollandiya Oliy ta'lim vazirliklari bilan hamkorligi kengayib bormoqda. Ta'lim ravnaqi uchun **150 mln AQSh dollari** hajmida chet el investitsiyalari jalb etildi. Oliy o'quv yurtlarining yuzlab professor-o'qituvchilari «Ustoz» jamg'armasi yo'llanmasi bilan xorijiy oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishda bo'lib qaytdilar. O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish uyg'otmoqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi Prezidenti **V.Shukshinov** Prezidentimiz Islom Karimovga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida mazkur akademiyaning faxriy a'zosi diplomini topshirarkan, O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu milliy dasturni mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat deb ta'rifladi. Ko'pgina mamlakatlar tomonidan ham O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi «**ta'limning o'zbek modeli**» deb e'tirof etildi.

**Fan.** Mustaqil respublikamizda fan taraqqiyotiga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimizning **1992-yil 8-iyul**dagi «**Ilm-fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida**»gi **Farmoni** hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur farmon ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan qarori ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika Fanlar akademiyasi qoshida Ilmiy ishlanmalarni ichki va tashqi bozorda targ'ib etuvchi va tarqatuvchi innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi. **1997-yili** Prezident farmoni bilan **Xorazm Ma'mun akademiyasi** qayta tiklandi. Bugungi kunda respublika ilmiy tadqiqot majmuasi **362 ta** akademik, oliy o'quv yurtlari va tarmoq muassasalaridan iborat. Ularning **101 tasi** ilmiy tadqiqot instituti, **55 tasi** oliy o'quv yurtlari tasarrufidagi ilmiy tadqiqot laboratoriya va bo'limlari, **32 tasi** ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va eksperimental korxonalari, **30 tasi** axborot-hisoblash markazlaridir. Fan sohasida **46 mingga yaqin** kishi, jumladan, **2,8 ming fan doktori** va **16,1 ming fan nomzodi** tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda.

**Badiiy adabiyot.** Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqloq g'oyalari shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o'rin egalladi. Jadidchilik harakati namoyandalari, sovet davrida qatag'on qilingan millatparvar yozuvchi va shoirlarning asarlari, Qur'on va

hadislar nashr etildi va keng kitobxonlarga yetib bordi. Milliy adabiyot rivojiga H.S.Karomatovning «Qur'on va o'zbek adabiyoti», O.Sharafiddinovning «Cho'lponni anglash», B.Qosimovning «Maslakdoshlar» asarlari ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron, To'ra Mirzo kabi ijodkorlarimizning tarixiy roman, pyesa va qissalarida bobokalonlarimiz, sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa zotlar siymolari yangicha badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritildi.

Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, To'lepbergen Qayipbergenovning «U dunyoga, bobomga xat» asarida, Nazar Eshonqulning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanida, Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qasoskorning oltin boshi» romanida, Oygul Muhammad qizining «Jannat qushi» romanida, Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» romanida mustabid tuzum davrida yuritilgan shovinistik siyosatning qatag'onlik, zo'ravonlikka asoslangan mohiyati, xalq boshiga solingan tashvish-u kulfatlar, g'am-g'ussa alamlari tasvirlangan. Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutash olamlar» asarlarida insonni iymon va vijddan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ulardan nafratlanish tuyg'ulari o'z aksini topadi. Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobilovning «O'zbeknoma» tarixiy-falsafiy va ma'naviy-ma'rifiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning «Biz kim, o'zbeklar» asari, Azim Suyunning «Oq va qora», A.Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» she'rlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

Iste'dodli adiblar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlanmoqda. Abdulla Oripov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Ozod Sharafiddinov, To'lepbergen Qayipbergenov «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlandilar. Ko'plab shoir va yozuvchilar yuksak saviyadagi badiiy asarlar uchun o'tkazilgan tanlovlar sovrindorlari bo'ldilar.

Teatr. 1993-yili foydalanishga topshirilgan «Turkiston» saroyi Vatanimizning va xorijlik atoqli teatr arboblari va ijodiy guruhlarning sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri Abbos Bakirov nomidagi yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. Respublika Prezidentining 1995-yil 20-oktyabrdagi «O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998-yil 26-martdagi «O'zbekistonda teatr

**san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi Farmonlari** asosida teatrlar davlat byudjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida **1998-yili «O'zbekteatr»** ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. «O'zbekteatr» birlashmasi va barcha teatrlar **5 yilga** barcha soliqlardan ozod qilindi. Murakkab o'tish davri qiyinchiliklariga qaramay, bironta teatrlarning yopilishiga yo'l qo'yilmadi. Teatr binolari ta'mirlandi, ichki jihozlari yangilandi. Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta opera va balet teatri **Yaponiya** tomonidan **1995-yili** bepul ajratilgan **47 mln iyen (1500 ming AQSh dollari)** qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda **36 ta** professional teatr faoliyat yuritmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari bolalarga xizmat ko'rsatmoqda.

**1996-yili Toshkentda Koreya** drama va estrada milliy teatri tashkil etildi va shu yilning dekabr oyida o'z faoliyatini boshladi. Davlat akademik rus drama teatri **1999-yili** zamon talablari darajasida tubdan qayta qurilgan muhtasham binoga ko'chirildi va o'zining **64-teatr** mavsumini yangi binoda boshladi. **2001-yili** respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqea sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi. **2001-yil 21-sentyabrda** Prezident farmoni bilan unga **milliy teatr** maqomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e'tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari **«Sohibqiron»**, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri **«Jaloliddin Manguberdi»**, Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat teatri **«Buyuk ipak yo'li»** kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'ydi. O'zbekistonda respublika, xalqaro teatr festivallari bo'lib o'tdi. **1992-yil mart – aprel** oylarida bo'lib o'tgan **«Navro'z»** mintaqaviy festivalida Markaziy Osiyo mamlakatlari teatrlarining eng yaxshi sahna asarlari namoyish etildi. **1997-yil oktyabrda** Toshkentda bo'lib o'tgan **«Teatr: Sharq-G'arb»** xalqaro festivalida **Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya** teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi. Amir Temur tavalludining 660 yiliga bag'ishlangan festivalda **O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston** teatrlarining **15 ta** eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O'zbekiston teatr ustalari **Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSh, Belgiya, Misr, Rossiya** teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan qatnashdilar. Iste'dodlarni izlab topishga talabalarning **«Nihol»** respublika festivali, **«Aktyor mahorati»** festivallari, yoshlar teatrlarining **«Humo»** festivallari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kino va tasviriy san'at. Mustaqillik yillarida kino san'ati ham rivojlandi. Kino san'atining ijodkor ustalari: **Shuhrat Abbosov, Yo'ldosh A'zamov, Elyor Eshmuhamedov, Ali Hamrayev, Rashid Malikov, Jahongir Fayziyev, Sharof Boshbekov** va boshqalar zamonaviy kinofilmlar yaratish ishlarida peshqadamlik qildilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish davrida xususiy kinostudiyalar vujudga keldi. **1992-fevralda Latif Fayziyevning** dastlabki kinostudiyasi «**Fayzifilm**» ro'yxatga olindi. **1996-yili «O'zbekfilm»** tasarrufida **8 ta** studiya, **30 ga yaqin** mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. **1996-yil 29-aprelda** e'lon qilingan «**O'zbekkino davlat aksiyadorlik kompaniyasini tuzish to'g'risida**»gi **Prezident Farmoni** milliy kino san'atining rivojida muhim bosqich bo'ldi. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi «**O'zbekkino davlat aksionerlik kompaniyasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to'g'risida**» qaror qabul qildi. Qarorga binoan «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi tuzildi. Mazkur kompaniya Davlat mulk qo'mitasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. «O'zbekkino» kompaniyasi qoshida Respublika kino arboblari ijodiy assotsiatsiyasi ta'sis etildi. Kino tarmog'i tashkilotlariga davlat byudjetidan ajratiladigan har yillik dotatsiyalar **2000-yilgacha** saqlab qolindi.

**1991 – 2002-yillarda** O'zbekiston kinostudiyalarida **60 ga yaqin** badiiy filmlar suratga olindi. «**Temir xotin**», «**Ko'zlarim yo'lingda**», «**Dalloh**», «**Sharif va Ma'rif**», «**Tilla bola**», «**Buyuk Amir Temur**», «**Yuduzingni ber, osmon**», «**Kenja singil**», «**Voiz**», «**O'tkan kunlar**», «**Piyoda odam**» va boshqa filmlarda milliylik va yangi, zamonaviy erkinlikning an'anaviy badiiy uslub bilan uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. **1997-yil 22 – 29-may** kunlari jahonning **32 ta davlati** va **8 ta xalqaro tashkilotning** madaniyat va san'at arboblari ishtirokidagi «**Umuminsoniy qadriyatlar va milliy taraqqiyot**» shiori ostida **XII xalqaro Toshkent kinofestivali** bo'lib o'tdi. «**Buyuk Amir Temur**» filmini yaratishdagi operatorlik mahorati uchun **Rifqat Ibrohimovga** maxsus mukofot – «**Neksiya**» avtomashinasi berildi.

Mustaqillik yillarida o'nlab hujjatli kinofilmlar yaratildi. «**O'zbekiston bahori**» (rej. **Sh.Qurbonboyev, E.Xachaturov**), «**Mustaqillikning besh yilligi**» («**O'zbekiston havo yo'llari**» milliy aviakompaniyasi faoliyati haqida), «**Ulkan odim**» («**O'zDEUavto**» zavodi haqida) shular jumlasidandir. Milliy ma'naviyat, ma'rifat namoyandalari faoliyatiga bag'ishlangan «**Istiqlol fidoyilari**» ruknidagi hujjatli filmlar, **XX asrning 20-yillarida Germaniyada** ta'lim olgan iste'dodli yoshlarimizga bag'ishlangan «**Ular Germaniyada o'qigan edilar**» filmlari yaratildi. Prezident



Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» nomli asari asosida yaratilgan beshta videofilm, «O'zbekiston Qahramonlari» ruknidagi kinochekklar, «Umid nihollari» hujjatli filmi va boshqalar bugungi hayotimizni, istiqloq tufayli erishgan yutuqlarimizni teran anglab olishga ko'maklashmoqda.

Istiqloq yillarida tasviriy san'at ham rivojlandi. **1997-yili** Prezident farmoniga muvofiq **O'zbekiston Badiiy akademiyasining** tashkil etilishi va «**Tasviriy oyina**» respublika ijodiy uyushmasining tuzilishi, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tasviriy san'at rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston xalq rassomlari **Malik Nabiye**v, **Bahodir Jalolov**, qobiliyatli mo'yqalam sohibi **Zayniddin Faxriddinov** va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, istiqloq va Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlarini yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, fan va ma'naviy-ma'rifiy sohada dunyoga mashhur bobokalonlarimizning portretlari yaratildi.

Tasviriy san'at ustalarining sa'y-harakatlari bilan Vatanimizda qadimdan shakllangan nafis san'at maktablarining noyob an'analari, tasviriy va miniatyura san'atining nodir durdonalari qaytadan o'rganildi, boyitildi, dunyo uzra namoyish qilindi. **AQSh, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya** va boshqa mamlakatlarda o'zbek rassomlarining ko'rgazmalari bo'lib o'tdi. Yetakchi rassom-dizaynerlar: **L.Sadriddinov, F.Toshmuhamedov, K.Tursunov, T.Turg'unov, T.Qo'ziyev** o'z asarlari bilan **Hindiston, Xitoy, Portugaliya, Bolgariya, Gretsiya, Avstraliya** kabi mamlakatlarda o'tkazilgan badiiy ko'rgazmalarida qatnashdilar.

**1999-yil avgust** oyida Badiiy akademianing markaziy ko'rgazmalar zalida O'zbekiston mustaqilligining **8 yilligiga** bag'ishlab «**Er ulug', eng aziz**» mavzusida o'tkazilgan respublika badiiy ko'rgazmasida **Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona vodiysi** va boshqa viloyatlar san'at ustalarining **600 dan ortiq** rasmlari, grafiklari (bo'yoqsiz rasm), dizaynlari, haykaltaroshlik asarlari, xalq hunarmandchiligi va amaliy-dekorativ san'at namunalari namoyish etildi.

*O'zbek sirk.* **1992-yili «O'zbekdavlat sirk»** respublika birlashmasi tashkil etildi. **1996-yili** estrada-sirk kolleji ochildi. Respublika shaharlarida sirk guruhlarini soni ko'paydi. Agar **1990-yili 7 ta** an'anaviy sirk guruhi faoliyat yuritgan bo'lsa, **2001-yili** ularning soni **20** tadan oshdi, sirkchilarning ijrochilik mahoratlari o'sdi. Sirk ustalarimizning chet davlatlarga gastrol safarlari uyushtirildi. **Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, BAA**da o'zbek milliy sirk san'ati namoyish etildi. **Olimjon Toshkenboyev** rahbarligidagi «O'zbekiston

**dorbozlari»** guruhi **1996-yildan** boshlab **Yevropa** mamlakatlarida gastrolda bo'lib, **2000 dan ziyod** tomosha ko'rsatdilar. **15 yoshli Karima Zaripova 1997-yil yanvarda Parijdagi Buglion** sirkida bo'lgan yosh sirk artistlari xalqaro festivalida qatnashib **«plastik etyud»** (besuyak o'yini) janrida oliy mukofot – oltin medalni qo'lga kiritdi. **1998-yili** Toshkent sirkida Karima Zaripova rahbarligida iste'dodli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi. Studiya bolalarga sirk sirlarini o'rgatib, katta maneja yo'llaydi.

O'zbek sirkchilari **1999-yili BA**ning **Dubay shahrida** bo'lib o'tgan xalqaro festivalda, **1999-yili Saratov shahrida** bo'lib o'tgan Butunrossiya sirk festivalida, **2000-yili Xitoyning Uxan shahrida** bo'lib o'tgan xalqaro sirk festivalida, **2001-yanvarda Belgiyaning Lyej shahrida** bo'lib o'tgan Yevropa sirklarining **10-festivalida** muvaffaqiyatli qatnashib sovrinli o'rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa'y-harakatlari natijasida o'zbek sirkiga xos turli nomer va atraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o'rin egalladi. **1993-yili** Toshkentda yangi **«Hayvonot bog'i»** ochildi.

*Milliy musiqa va qo'shiqchilik.* Milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Madaniyat ishlari vazirligi, **1992-yili** tashkil etilgan Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika markazi, markazning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlar, festivallar tashkil etmoqda. **1992-yili Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar»** va **«Boqiy ovozlarda»**, **Xorazm viloyatida** folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, **Qo'qonda** katta ashula, lapar va yalla ijrochilari ko'rik-tanlovlarini o'tkazdi. **1994-yil may oyida Parijda** bo'lib o'tgan **«Sharq musiqasi»** festivalida **Munojot Yo'lchiyeva** va **Shavkat Mirzayev** o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar.

**1996-yil aprel oyida «Turkiston»** saroyi, **«Bahor»** majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan **«O'zbeknavo»** gastrol-konsert birlashmasi xalq orasidan iste'dodli qo'shiqchilarni izlab topish va ko'rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo'shiqchilik san'ati bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirdi. Vazirlar Mahkamasining **1995-yil 5-dekabr**dagi **«O'zbekiston – Vatanim manim»** qo'shiqlar bayrami to'g'risida»gi qarori qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. **1996-yili** joylarda ko'rik tanlovning birinchi bosqichi bo'lib o'tdi, unda **54 mingdan ziyod** qo'shiqchi qatnashdi. Tanlovning yakunlovchi bosqichi **avgust** oyida o'tdi. **700 ta** qo'shiqchi qatnashdi, ulardan **10 tasi** mukofotlandi. O'zbekiston Prezidentining

**1996-yil 27-avgust**dagi farmoni bilan bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O'zbekiston – Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi.

Hukumatimizning **1997-yil 11-martda qabul qilingan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori** musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib etish, rivojlantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qildi. **1997-yil 25-avgust – 2-sentyabr** kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan birinchi festivalda dunyoning **40 dan ortiq** mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdilar, festivalda yangragan ohanglar, kuy-qo'shiqlar jahon uzra aks sado berdi. **Ozərbayjonlik Simara Imonova** oliy mukofot – granpriga sazovor bo'ldi. **1-o'rin Munojot Yo'lchiyeva** va **hindistonlik Shainu Khulanaga** nasib etdi. Har ikki yilda Samarqandda mazkur festivalni o'tkazish an'anaga aylanib qoldi.

Mustaqillik yillarida musiqa san'atining rivoj topishiga **1995-yildan** o'tkazilayotgan «**Ilhom – XX**», «**Ilhom – XXI**» xalqaro musiqa, «**Ofarin**» respublika estrada festivallari, xalqaro simfonik musiqa, katta ashula, maqom, to'y marosimi qo'shiqlari festivali, har yili **31-avgust** va **21-mart** kunlari o'tkazilayotgan **Mustaqillik** va **Navro'z** kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**Muzeylar.** Mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi. **1992-yili Namanganda Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda Hofiz Hojixon Boltayev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda Temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, 1993-yili Toshkentda o'zbek ayollari orasidan birinchi huquqshunos olim Xadicha Sulaymonova muzeyi, Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat Qahramoni Jaboy Bashmanov muzeyi, 1994-yili Toshkentda xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov muzeyi, 1997-yili Buxoroda mashhur zarb qiluvchi Salim Hamidov muzeyi, oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar** ochildi. **1996-yil 1-sentyabr** kuni Toshkentda **Olimpiya shon-shuhrati muzeyi** ochildi, shu yili **18-oktyabrda Temuriylar tarixi davlat muzeyi** ochildi. Muzey **2000 dan ortiq** tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. O'zbekiston davlat san'at muzeyi Yaponiya hukumati tomonidan beg'araz ajratilgan **38,8 mln iyen** pul mablag'i hisobiga ta'mirlandi, yangi muzey jihozlari, asbob-uskunalari bilan yanada boyidi.

Prezidentning 1998-yil 12-yanvardagi «**Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida**»gi Farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan respublika hukumatining «**Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida**»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, «Oltin meros» jamg'armasi, Badiiy akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqdi. **1998-yili «O'zbekmuzey»** respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «**Moziydan sado**» jurnali **1999-yildan** o'zbek, rus, ingliz tillarida nashr etila boshladi. Faqat **1999-yili** muzeylarning asosiy fondi **7544 ta** tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi.

O'zbekistonda 90 dan ortiq davlat va 1200 dan ortiq jamoatchilik muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda **1,3 mln dan ortiq** ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish qilinmoqda. Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy **10 ta shahri** tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. **2500 ta** me'moriy obida, **2700 ta** arxeologik yodgorlik, **1800** monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. **Buxoro, Samarqand va Xiva** shaharlaridagi **3 ta muzey-qo'riqxon**a butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan.

Mustaqillik sharofati bilan Samarqand muzey-qo'riqxonasining *Registon maydoni yodgorliklari, Shohizinda, Bibixonim me'moriy majmuasi, Amir Temur maqbarasi, savdo gumbazlari, Sitorayi Mohi Xosa ansambli, Bahouddin Naqshband majmuasi, Xivaning Ichan qal'asidagi Ko'hna ark, Muhammad Aminxon madrasasi va masjidi, Islomxo'ja minorasi, Toshhovli saroyi, Jome masjidi, Shahrisabzdagi Dor us-sodat, Dor ut-tilovat ansambllari, Amir Temurning Oqsaroyi, Termizdagi Hakim at-Termiziy, Imom Termiziy, Sulton Saodat, Qirqqiz* me'moriy yodgorlik majmualari qayta ta'mirlandi.

Mustaqillik yillarida xalqimizning me'moriy obidalari qatoriga yangidan barpo etilgan **Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad al-Farg'oniy, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi** haykallari qo'shildi. **2002-yili** Termiz shahrining **2500 yilligi** munosabati bilan tarixiy ash-yolar, me'morchilik va haykaltaroshlik san'ati namunalari, devoriy rasmlar, uy-ro'zg'or buyumlari, turli taqinchoqlar bilan jihozlangan muhtasham **arxeologiya muzeyi** barpo etildi.

O'zbekiston muzeylari aholi orasida o'lkamiz tarixi, xalq amaliy san'ati asarlaridan iborat etnografik ko'rgazmalarni namoyish etib, jamiyatimiz ma'naviy kamoloti yo'lida xizmat qilmoqda. Minglab xorijiy sayyohlar respublikamiz muzey-qo'riqxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san'at asarlari oldida ta'zim etmoqdalar. **Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Koreya, Xitoy** va boshqa mamlakatlarda O'zbekiston muzeylarining eksponatlari namoyish etildi.

Shaharsozlik. Mustaqillik yillarida shaharsozlik va arxitektura qurilishi misli ko'rilmagan darajada avj oldi. O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahrining qiyofasi tubdan o'zgardi, yuzlab zamonaviy, ko'rkam, osmon-o'par binolar bunyod etildi. *Oliy Majlis, Prezident qarorgohi – Oqsaroy, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyi, Toshkent shahar hokimligi, Turkiston saroyi, Respublika birja markazi, Biznes markaz, Simfoziumlar zali, Markaziy bank, Milliy bank, Banklararo moliyaviy xizmatlar markazi, Xalqaro savdo-ko'rgazma xizmatlar majmuasi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Tata, Interkontinental va Toshkent-Sheraton mehmonxonalari* shular jumlasidandir.

Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «**Oloy**», «**Chorsu**», «**Otchopar**», «**Yunusobod**», «**Mirobod**», «**Parkent**», «**Qo'yliq**» va boshqa bozor binolari barpo etildi. Zamonaviy jismoniy tarbiya va sport, sog'liqni saqlash muassasalari, mustahkam ko'priklar qurildi, transport yo'llari tubdan ta'mirlandi va obodonlashtirildi.

Respublikamizning barcha viloyatlari markazlarida ham yirik zamonaviy ma'muriy binolar, sport inshootlari, bog'lar, sayilgohlar, savdo inshootlari bunyod etildi, obodonlashtirildi.

Sport. **1992-yil 5-fevralda** qabul qilingan «**Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida**»gi Qonun sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. **46 mingdan ortiq** sport inshootlari – sport sog'lomlashtirish klublari, bolalar, o'smirlar sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o'yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta'mirlandi. Ularda **7 mln kishi** jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'ldi. **1992-yil yanvarda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi** tuzildi va **1993-yil sentyabrda** Xalqaro olimpiya qo'mitasining **101-sessiyasida** rasmiy e'tirof etildi. **1996-yil 14-avgustda** Toshkentda olimpiya muzeyi ochildi. **1992-yili Barselonada** o'tkazilgan olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari **3 ta oltin, 2 ta kumush, 1 ta bronza** medallarini qo'lga kiritdilar.

Sportning boks turi jadal o'sdi. **Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullayev** kabi o'zbekistonlik bokschilarning nomi jahonga mashhurdir. **1999-yil avgust** oyida AQShning **Xyuston shahrida** o'tkazilgan **X jahon chempionatida** yurtimiz jamoasi **83** mamlakat orasida AQSh va Kubadan keyin faxrli **uchinchi o'rinni** egalladi. **M.Abdullayev** va **O'.Haydarov** oltin, **T.Turg'unov** kumush medal sohibi bo'lishdi. **2000-yili Sidneyda** o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida **M.Abdullayev oltin, Sergey Mixaylov** va **Rustam Saidov** bronza medallarini, kurashchi **Artur Taymazov** kumush medalni qo'lga kiritdi.

Vatanimizda sportning tennis turi rivojlandi. **168 ta** tennis korti, zamonaviy Yunusobod tennis majmuasi barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida **1994 – 2002-yillarda** O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun **9 marta** xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. **1999-yil iyul** oyida **Londonda** yoshlar o'rtasida **Uimblon** xalqaro turnirida **Iroda To'laganova** g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini qo'lga kiritdi.

**1998-yil may** oyida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland **Everest** cho'qqisiga chiqib O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratdilar. **1994-yili Xirosimada** o'tkazilgan Osiyo o'yinlarida o'zbekistonlik yengil atletikachilar, merganlar, kurashchilar, dzyudochilar, bokschilar, futbolchilar jami **40 ta**, jumladan, **10 ta oltin** medal sohibi bo'ldilar. **1999-yili Germaniyada** yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan karate bo'yicha xalqaro turnirda **200** mamlakatdan **900 nafar** sportchi qatnashdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston jamoasi faxrli **uchinchi o'rinni** egalladi. **2002-yil 29-sentyabr – 14-oktyabr** kunlari **Janubiy Koreyaning Pusan** shahrida bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida hamyurtlarimiz **15 ta oltin, 12 ta kumush, 24 ta bronza** medallarini qo'lga kiritib, qirqdan ortiq mamlakat orasida faxrli **beshinchi o'rinni** egalladi.

Mustaqillik sharofati bilan milliy kurashimiz olamga chiqdi. **1992-yili Termiz** va **Shahrisabz** shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jihatlari va qoidalari ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. **1999-yil may** oyida **Toshkentda** dunyoning **50 dan ortiq** mamlakatidan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha **birinchi jahon chempionati** bo'lib o'tdi. Unda vatandoshlarimiz **3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza** medallarini qo'lga kiritdi. **Xalqaro kurash assotsiatsiyasi** tuzildi, uning faxriy prezidenti etib **Islom Karimov** saylandi. **2000 – 2002-yillarda Bedford** shahrida **3 marta** Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir bo'lib o'tdi. **2002-**

**yil oktyabrda** Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a'zoliciga qabul qilindi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida butun dunyoda e'tirof etildi.

**2004-yili Liviya** poytaxti **Tripoll** shahrida bo'lib o'tgan shaxmat bo'yicha jahon chempionatida **56** mamlakatdan **128 nafar** shaxmatchi qatnashdi. Ular orasida hamyurtimiz, xalqaro grossmeyster **Rustam Qosimjonov** ham bor edi. Rustam Qosimjonov barcha da'vogarlar ustidan g'alaba qozonib jahon chempioni degan yuksak unvonni qo'lga kiritdi.

O'zbekiston sportchilari **1991 – 2005-yillarda** olimpiadalar, Osiyo o'yinlari, jahon kubogi va nufuzli xalqaro musobaqalarda qatnashib, **5457 ta oltin, kumush va bronza** medallarni qo'lga kiritdilar.

O'zbekiston futbol federatsiyasining xalqaro toifadagi hakami **Ravshan Ermatov** o'zbek futbolining shuhratini jahonga tanitish, xalqaro maydonda uning nufuzini yuksaltirishda ibrat va namuna ko'rsatmoqda. FIFA referisi Ravshan Ermatov O'zbekiston milliy futbol hakamlari maktabini rivojlantirish ishiga qo'shgan munosib hissasi uchun «**O'zbekiston iftixori**» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport rivojlandi, yangi ma'no-mazmun bilan boyidi, jahon sportiga qo'shildi va xalqaro maydonda salmoqli o'rinni egalladi.

## 37-BOB. O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA INTEGRATSIYALASHUVI

### 37.1. XALQARO AHVOL. O'ZBEKISTONNING TINCHLIKSEVAR TASHQI SIYOSATI VA JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI

*XXI asr bo'sag'asida dunyo. XXI asr bo'sag'asida* jahon taraqqiyotining mazmuni tubdan o'zgardi. Ilgari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan – **SSSR** va **AQSh** yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki sistemaning, blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangandi. Dunyoda **«sovuq urush»** siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi.

**XX asrning 90-yillariga** kelib sotsialistik dunyoning yetakchisi bo'lgan ulkan imperiya – SSSR parokanda bo'ldi, sotsialistik sistema halokatga uchradi. **Varshava shartnomasi** bloki tarqalib ketdi. Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina SSSRning parchalanishi natijasida **15 ta** mustaqil davlat, jumladan, mustaqil O'zbekiston davlati bunyod etildi. «Sovuq urush» siyosati barham topdi.

Xalqaro vaziyatda tub o'zgarishlar sodir bo'lsa-da, dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qoldi. Bu quyidagi hollarda namoyon bo'lmoqda:

- turli darajada rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy notenglik va ziddiyatlar yanada o'sdi. Mamlakatlar o'rtasida ilmiy-texnikaviy bilimlar, ilg'or texnologiya, erkin sarmoyalarni to'plash va joylashtirishda hamon tafovutlar katta. Dunyoning katta qismida iqtisodiy zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar mavjud;

- bir qator mintaqalarda, hatto bir mamlakat fuqarolari o'rtasida milliy-etnik va diniy nizolar kelib chiqib mojarolarga, qonli urushlarga aylanmoqda. Mintaqaviy mojarolar tufayli **30 millionga yaqin** odam o'zi yashaydigan joylarni tashlab, boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo'ldilar;

- umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka terrorizm, ayirmachilik va diniy ekstremizm tahdid qilmoqda. Xalqaro terroristlar, diniy siyosiy lashtirish natijasida vujudga kelgan ekstremistlar, shu jumladan, islom fundamentalistlari odamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik chiqarishga, millatlarni parchalashga, islom sivilizatsiyasi bilan boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida yangi qarama-qarshiliklar, mojarolar keltirib chiqarishga urinmoqdalar. Xalqaro



terroristlarning **O'zbekiston, AQSh, Rossiya** va boshqa mamlakatlarda sodir etgan terrorchilik urinishlari dunyo ahlini tashvishlantirmoqda;

– «sovuq urush» siyosatiga chek qo'yilishi natijasida yalpi yadro urushi xavfi kamaygan bo'lsa-da, bu turdagi ommaviy qirg'in qurolining ko'p miqdorda saqlanayotganligi, yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar sonining ko'payib borayotganligi (**Hindiston, Pokiston**) dunyo uzra umumiy xavfsizlikka jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda;

– jahon miqyosida atrof-muhitning ifloslanganligi, nosog'lom ekologik vaziyat, jumladan, Markaziy Osiyodagi ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar insoniyat boshiga xavf solib turibdi;

– tobora kuchayib borayotgan korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, yashirin qurol oldi-sotdisi insoniyatni tashvishlantirmoqda.

Bularning barchasi dunyo hali ham ilgirigidek mo'rt bo'lib turganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib kelgan, hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda butun insoniyatning taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlarga bog'liq bo'lib qoldi. Xalqaro maydondagi har bir siyosiy tanglik, mojaro barcha mamlakatlar va xalqlar manfaatiga daxldor bo'lib qoldi. Hatto ayrim olingan mamlakat ichkarisidagi nizoli jarayonlarni, urushlarni bartaraf etish ham jahon hamjamiyatining vazifasiga aylandi.

Davrimizning muhim xususiyati aholi talab-ehtiyojlarining g'oyat darajada o'sganligi bilan belgilanadi. Alohida olingan bir mamlakat resurslari bilan uning aholisi talablari, ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan mamlakat uchun ham boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilish obyektiv zaruriy bo'lib qoldi.

Hozirgi dunyoda biron-bir mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham boshqalardan ajralgan hudud emas. Sayyoramiz yaxlit va bo'linmasdir. Shu boisdan barcha mamlakatlar, xalqlar bir-biri bilan bog'langan, o'zaro aloqadadir.

O'zbekistonning geosiyosiy o'rni. O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtayi nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan **qulay geografik-strategik imkoniyatlarga ega:**

– qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlar tutashib bir-birini boyitgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Osiyoni bog'laydigan yo'llar Markaziy Osiyodan, uning o'rtasida joylashgan O'zbekistondan o'tmoqda;

– Markaziy Osiyoda geografik-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash,

barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlariga ega. Mintaqa doirasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati O'zbekiston orqali ochiladi;

- O'zbekiston Markaziy Osiyoning transport, energetika, suv tizimi markazida joylashgan;

- aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi qo'shnilaridan ma'lum darajada ustun turadi;

- tabiiy-iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral-xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir;

- O'zbekiston sanoatning bazaviy va zamonaviy tarmoqlariga ega, o'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega;

- yurtimizning jahonga mashhur boy ma'naviy merosi bor, shu tufayli insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rin egallab, dunyoning ma'naviy va siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega.

Geografik-siyosiy jihatdan O'zbekistonga **qiyinchiliklar tug'diruvchi omillar** ham mavjud. Jumladan:

- O'zbekiston o'zining geografik-siyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimi izchil yo'lga qo'yilmagan mintaqada joylashgan. O'zbekiston Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazida joylashgan. Shu boisdan bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko'pgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o'zaro to'qnashmoqda;

- yana bir noqulaylik shundan iboratki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi. Boz ustiga, yurtimiz mintaqadagi diniy ekstremizm, etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirilib kelinayotgan, ichki mojaro avj olgan Afg'oniston kabi beqarorlik o'chog'i bilan chegaradosh;

- sovetlar davrida Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirildi. Janubiy yo'nalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmagan. Ittifoq parchalangach, kommunikatsiyalar muammosi O'zbekiston uchun yanada keskinlashdi. O'zbekiston bevosita dengizga chiqolmaydigan, buning ustiga, dengiz bandargohlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temir yo'l qariyb **3 ming kilometrni** tashkil etadi. Bu bir necha davlatlar hududidan o'tadigan olis yo'l bo'lib, O'zbekiston-

ning iqtisodiy aloqalarini chegaralaydi, yuk tashishni qimmatlashtirib, mahsulotlarning raqobatga bardosh berishiga salbiy ta'sir etadi;

– suv resurslarining cheklanganligi, ekologik muammolar, Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulay omildir;

– shuningdek, mustamlakachilik davrida yuritilgan Turkistonni bo'lish, millat va elatlari ustidan hukmronlik qilish siyosatining asoratlari hozirgacha tashvishli omil hisoblanadi.

Mustaqil tashqi siyosat zaminining yaratilishi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlardan bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. Negaki davlatimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ana shu vazifalarning oqilona hal etilishiga bog'liq bo'lib qolgandi. Bu osongina yechiladigan vazifalar emasdi. Masalaning murakkabligi shundan iborat ediki, sobiq Ittifoq davrida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan aloqa qilish, tashqi savdoni tashkil etish Moskva, markaziy hokimiyat tomonidan olib borilardi. Respublikalar, jumladan, O'zbekiston ham tashqi dunyodan ajralgan, to'g'ridan to'g'ri aloqa qilolmaydigan yopiq mamlakat edi. Shu bois davlatimiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini, tashqi iqtisodiy faoliyatni biladigan kadrlariga ham ega emasdi. Respublikada bunday kadrlar tayyorlovchi birorta ham o'quv yurti yo'q edi. Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishni talab qilmoqda edi. O'zbekiston rahbariyatiga bu sohadagi ko'p qirrali ishlarni boshidan boshlab o'ziga to'g'ri keldi.

Prezident Islom Karimov o'zining **«O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li»** va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini belgilab berdi. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy qoidalari aniq belgilandi va qonunlashtirildi.* Respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. **«O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi** va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir. Bular faol va keng ko'lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berdi.

Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respub-

lika qonunchilik faoliyatida o'z ifodasini topdi. Birinchidan, respublika qonunlari xalqaro huquq normalariga doimo muvofiqlashtirilmoqda va yaqinlashtirilmoqda. Ikkinchidan, mamlakatimiz xalqaro normalarning bajarilishini kafolatlaydigan hamma majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi. **Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari** shular jumlasidandir. **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi** va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

*O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.* Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: *mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik; davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxtsizligini hurmat qilish; boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik; inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash; ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi; davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish; tajovuzkor harbiy blokklar va uyushmalarga kirmaslik; davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi; tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.*

*O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.* Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning **120 tasi** bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda **43** mamlakatning elchixonasi ochildi. Ular jumlasiga **AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston** va boshqalarni kiritish mumkin. O'zbekistonda **88 xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlari vakolatxonalari** faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi **30 dan ortiq**

davlatda – AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi. O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish-irodasi va taklifiga ko'ra **1992-yil 2-mart**da jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot – BMTga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi. Prezident Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining **1993-yili** bo'lgan **48-sessiyasida** ishtirok etishi va unda **27-sentyabr**da qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va yosh, navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoga xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMTning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflar o'rtaga qo'yildi.

**1993-yil 24-oktyabr**da Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning *Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti* singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo'ldi. **1994-yil oktyabr oyi boshlarida** BMT vakolatxonasining yordami va ishtirokida Toshkentda bo'lgan jahon sayyohlik tashkilotining «**lpak yo'li**» xalqaro yig'ilishi jahon sayyohlik va tijorat ishlarida O'zbekistonning mavqeyini yanada ko'tardi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida **1995-yil 15 – 16-sentyabr** kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash-seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan **31 davlat va 6 xalqaro tashkilot**dan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining **1995-yil oktyabr – noyabr oylarida** bo'lgan **50-yubiley sessiyasida** qatnashib va nutq so'zlab, bu nufuzli xalqaro tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir takliflarni bayon etdi. Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan boshlanadigan jarayon ekanligi, mintaqalar xavfsizligini ta'minlash yo'li bilangina jahon xavfsizligini ta'minlash mumkinligi alohida ta'kidlandi. Afg'onistondagi urushga barham berish uchun unga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish, qurol olib kirishni taqiqlash takliflari ilgari surildi. Shuningdek, ommaviy qirg'in

quollarini tarqatmaslik, qurol savdosini cheklash to'g'risida, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammoni hal etishga xalqaro moliya tuzilmalarini va rivojlangan mamlakatlarni jalb qilish takliflari ilgari surildi. Xalqaro tashkilotlar va nufuzli davlatlar bu takliflarni ma'qulladilar va muammolarni hal etishga ko'maklashmoqdalar.

O'zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining **48-sessiyasi** minbaridan turib so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g'oyasini ilgari surgandi. O'zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

**1997-yil 15 – 16-sentyabr** kunlari Toshkentda «**Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona**» mavzuyida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida **56 davlat** va **16 xalqaro tashkilot**dan vakillar qatnashdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari Tashqi ishlar vazirliklarining bayonoti imzolandi. O'zbekistonning BMTga yo'llagan afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal qilish masalasida muloqot guruhi tashkil etish haqidagi taklifi asosida **1997-yili** BMT homiyligida «**6+2**» guruhi tuzildi. BMT homiyligida **1999-yil 19 – 20-iyul** kunlari Toshkentda Afg'oniston mojarosini hal etish bo'yicha «**6+2**» guruhining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda **Toshkent deklaratsiyasi** qabul qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov **2010-yil 22-sentyabr**da BMT sammiti Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlagan nutqida Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha ilgari tanlangan yo'l kutilgan natijani bermaganligini ta'kidladi. O'zbekiston tomonidan **2008-yili** taklif etilgan BMT shofeligida **6+3 muloqot guruhini** tuzishini taklif etdi. Bu tashabbusning mohiyati shundaki, afg'onistonliklar o'z mamlakati muammolarini o'z manfaatlari, an'analari, urf-odatlaridan kelib chiqqan holda Afg'onistonga chegaradosh **6 mamlakat + AQSH, Rossiya** va **NATO** ko'magida o'zlari hal etishlari zarurligi ta'kidlandi.

**2000-yil oktyabr** oyida Toshkentda Markaziy Osiyo xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan **2001-yili** BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. **2002-yil 18 – 20-oktyabr** kunlari BMT Bosh kotibi **Kofe Anandning** 2010-yil aprel oyida BMT bosh kotibi Pan Gi Munhning O'zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatdagi o'rni mustahkamlanib, obro'-e'tibori ortib borayotgani dalilidir.

YUNESKO bilan hamkorlik. O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. **1993-yil 29-oktyabr**da YUNESKoning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni **Ulug'bek** tavalludining **600 yilligini** nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. **1994-yil oktyabr**da Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. **Xiva va Buxoro** YUNESKoning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda **411 ta obyekt** bor.

**1994-yil dekabr**da respublikamizda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo'lib, tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan **49 kishi** a'zo bo'ldi.

YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va omalastirishga katta ahamiyat bermoqda. «**Ipak yo'li – mufoqot yo'li**» deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. **1995-yil iyul** oyida YUNESKO qaroriga binoan **Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti** tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori **Federiko Mayorning** O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida – **1995-yil iyul** oyida mazkur institut ochildi. YUNESKO bobomiz **Amir Temur** tavalludining **660 yilligini** xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va **1996-yil oktyabr**da Parijda Amir Temurga bag'ishlangan **bir haftalik** xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan **Shahrisabz** shahri YUNESKoning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.

**1997-yili** jahon madaniyatining durdonalaridan hisoblangan **Buxoro va Xiva** shaharlarining **2500 yillik** muborak sanalari **Parij**da keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. **1997-yil 19 – 20-oktyabr** kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – *Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi* va boshqa tashkilotlarning a'zosi, ular bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – **Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki** ham ko'maklashmoqdalar. **Xalqaro savdo markazi (UNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT)** bilan hamkorlik qilinmoqda.

*YXHT bilan hamkorlik.* O'zbekiston **1992-yil fevral** oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot – **Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT)**ga a'zo bo'lib kirdi. I.Karimovning **1992-yil 9 – 10-iyulda** bo'lgan YXHTning majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning **10-iyulda** bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalayotgani dalilidir. I.Karimov o'z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo'lgan mojarolar yaqinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo'l qo'ymaslik muammolari bilan shug'ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta'sirchanligini oshirish, hujjatlar mojarolarni oldini olish, yo'l qo'ymaslik ruhida bo'lishini ta'minlash takliflarini ilgari surdi. **1994-yil sentyabr oyi oxirlarida Toshkentda** YXHTning umumiy masalalarga bag'ishlangan xalqaro anjumani bo'lib, unda tashkilot faoliyatining barcha qirralariga oid masalalar ko'rib chiqildi.

YXHT **Toshkentda** va **Urganchda** atrof-muhitni qayta tiklash bo'yicha seminarlar o'tkazdi, Orol muammosini hal qilishga ko'maklashmoqda. **1995-yil iyulda** Toshkentda YXHTning aloqalar bo'yicha mintaqaviy byurosi ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

YXHTning **1996-yil dekabrda Lissabonda** bo'lgan sammitida *XXI asr arafasida yalpi xavfsizlik modelini yaratish* xususida munozara bo'ldi. O'zbekistonning mojarolar yuz berib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish, YXHTning Markaziy Osiyo faoliyatini kuchaytirishga oid takliflari ma'qullandi va **Lissabon deklaratsiyasida** hujjatlashtirildi. **1999-yil noyabr** oyida bo'lgan YXHTning **Istanbul** sammiti Islom Karimovning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifi ham ma'qullandi. O'zbekistonning YXHT bilan hamkorligi mustahkamlanib, o'sib borayotganligiga **2002-yil 6 – 7-aprel** kunlari YXHT Bosh kotibi **Y.Kubishning** mamlakatimizga tashrifi ham yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, *NATOning «Tinchlik dasturi», Islom konferensiyasi tashkiloti, qo'shilmaslik harakati* va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda.



O'zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlarni muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar haqidagi Monreal Protokoliga, atrof-muhitga ta'sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo'llashni taqiqlovchi konvensiyaga, yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaga qo'shilgan.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti. 1996-yili Shanxayda, 1997-yili Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangandi. Shu tariqa «**Shanxay forumi**» yoki «**Shanxay beshligi**» tashkiloti tuzilgandi.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo'shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi.

**2001-yil 14 – 15-iyun** kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi.

O'zbekiston «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti** (ShHT) deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi.

**2001-yil iyunda** bo'lgan sammit yakunida Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tuzish to'g'risida deklaratsiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi **Shanxay konvensiyasi** imzolandi.

Deklaratsiyada Shanxay Hamkorlik Tashkilotining maqsadi a'zo mamlakatlarning bir-biriga o'zaro ishonchi, do'stlik va qo'shnichilikni mustahkamlash, ular orasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi samarali hamkorlikni rag'batlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

ShHT doirasida a'zo mamlakatlar **Tashqi ishlar vazirlarining Kengashi, Mudofaa vazirliklarining Kengashi** tuzilgan va faoliyat yuritmoqda. Davlat va hukumat, tashqi ishlar va mudofaa vazirliklari, huquq-tartibot, xavfsizlik organlari rahbarlari va ekspertlarining uchrashuvlari va maslahatlashuvlari muntazam o'tkazilmoqda. Hamkorlik faoliyatini muvofiqlashtirish, tegishli organlarning bahamjihat harakatini ta'minlash maqsadida a'zo davlatlarning **Milliy muvofiqlashtiruvchi-**

**lar Kengashi (MMK)** tashkil etilgan. **MMK 2001-yil iyun** oyida tashqi ishlar vazirlari imzolagan nizom asosida faoliyat yuritmoqda. **2002-yil 24-aprelda Almati** shahrida bo'lib o'tgan a'zo davlatlar chegara xizmatlari rahbarlarining uchrashuvida chegara xizmatlari faoliyatining, xususan, terrorchilik, g'ayriqonuniy muhojirlik va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi kurash bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish masalalari kelishib olindi. **2002-yil 6 – 7-iyun** kunlari ShHTga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining **Sankt-Peterburg** shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlarining deklaratsiyasi, tashkilotning ta'sis hujjati – ShHT Xartiyasi, ShHTga a'zo davlatlar o'rtasida mintaqaviy antiterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi. Xartiya imzolanishi bilan ShHT doirasidagi tashkiliy-huquqiy ishlar nihoyasiga yetdi. ShHT ochiq tashkilot bo'lib, o'zaro ishonch, tenglik, manfaatdorlik, hamjihatlik tamoyillari asosida faoliyat yuritmoqda.

**2003-yil 29-may** kuni **Moskvada** bo'lib o'tgan sammitda ShHTning doimiy amal qiluvchi idoralari – **Pekinda Kotibiyat** va **Toshkentda Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MAT)** ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror qilindi. Bu tashkilotlar **2004-yil yanvardan** ish boshladi. **2003-yil sentyabrda Pekinda** ShHT davlatlari hukumat boshliqlari Kengashi bo'lib o'tdi, uning qarori bilan ko'p tomonlama hamkorlikning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. ShHT doirasida a'zo mamlakatlarning tashqi ishlar vazirliklari, iqtisodiy va savdo vazirliklari, xavfsizlik kengashlari o'rtasida muntazam aloqalar yo'lga qo'yildi.

**2004-yil 17-iyun** kuni **Toshkentda** ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala – xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda **2004-yil mart** oyida O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati butun Markaziy Osiyoda vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgani qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'lgani, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi. Shu bois Toshkentda tashkil qilingan **MAT** zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitasining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklandi.

ShHTning **Toshkent sammitida** savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sammitda ShHT a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir deb ta'kidlandi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini

rag'batlantirishga kelishib olindi: *transport infratuzilmasini rivojlantirish; tabiiy mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish; suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish; ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish; fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohalarida integratsiyalashish; investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish, bu sohadagi to'siq va muammolarni bartaraf etish.*

Sammit yakunida *Toshkent deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar* – jami **o'nta hujjat** imzolandi.

**2010-yil 11-iyun kuni Toshkentda ShHT davlat rahbarlari kengashi**ning navbatdagi **10-majlisi** bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari ko'p tomonlama va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar, muammolar bo'yicha fikr almashadilar. *Kengashda kuzatuvchi va mehmon maqomidagi mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari – Turkmaniston, Pokiston va Mo'g'uliston Prezidentlari hamda Eron va Hindiston Respublikalari tashqi ishlar vazirlari* ishtirok etdilar. Sammitda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkam masalalariga alohida e'tibor berildi.

Muzokaralar yakunida ShHT davlat rahbarlarining deklaratsiyasi, ShHTda yangi a'zolarini qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom, ShHT MATT kengashining **2009-yildagi** faoliyatiga doir hisoboti tasdiqlandi. ShHT davlat rahbarlari kengashi 10-majlisi yakunlari to'g'risida axborot qabul qilindi. Shuningdek, ShHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida qishloq xo'jaligi sohasida va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston tarixan qisqa vaqtda dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. Nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

## **37.2. O'ZBEKISTONNING MDH MAMLAKATLARI BILAN KO'P TOMONLAMA VA IKKI TOMONLAMA ALOQALARI**

*MDHning tashkil topishi.* **1991-yil 8-dekabrda** Minskda Rossiya, Ukraina, Belarus davlat rahbarlari – **B.Yelsin, L.Kravchuk, S.Shushkevich**ning uchrashuvi bo'ldi. O'sha kuni **Belovejskaya Pushchada Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)**ni tuzish to'g'risida shartnoma imzoladilar. Ukraina, Belarus, Rossiya parlamentlari MDHni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qildilar va **1992-yil 30-dekabr**dagi

SSSRni tuzish to'g'risidagi shartnomani bekor qildilar. Mazkur respublikalarning SSSR Oliy Sovetidagi deputatlari chaqirib olindi. SSSR Prezidenti **M.S.Gorbachovning** Ittifoqni yangi shaklda saqlab qolish yo'lidagi urinishlari barbod bo'ldi. Mamlakatda uni quvvatlovchi birorta siyosiy kuch topilmadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari Prezidentlari **1991-yil 13-dekabrda Ashxabodda** uchrashdilar va Minskda imzolangan MDH haqidagi shartnoma munosabati bilan vujudga kelgan ahvolni muhokama qildilar. Uchrashuvda bayonot qabul qilindi. MDH huquqiy asosda, sobiq Ittifoqdagi barcha respublikalar tomonidan ixtiyoriy va teng asoslarda tuzilishi lozim, ularning barchasi MDHni tuzuvchilar bo'lib qolishi kerak deb ta'kidlandi. Bayonotda MDH etnik prinsip asosida yoki inson huquqlarini buzish asosida qurilmasligi kerak deyilgandi. Besh davlat boshliqlari MDHga uni ta'sis etuvchilar rovida kirishga tayyor ekanini bildirdi.

**1991-yil 21-dekabrda** Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belarus (S.Shushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboyev), O'zbekiston (I.Karimov), Qirg'iziston (A.Akayev), Tojikiston (R.Nabiyev), Turkmaniston (S.Niyozov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldova (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni **11 davlat** boshliqlari **Belovejskaya Pushcha** shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo'ldilar. Kengashda **Almati deklaratsiyasi** qabul qilindi. Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi: *hamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi; MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas; xalqaro strategik barqarorlikni va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi; MDH ochiqdir, uning barcha a'zolari roziligi bilan sobiq Ittifoqning a'zolari va boshqa davlatlar ham unga qo'shilishi mumkin; umumiy iqtisodiy makonni, Umumyevropa va Yevropa-Osiyo bozorlarini vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi; MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to'xtatiladi; hamdo'stlik qatnashchilari o'z Konstitutsiyalaridagi tartib-qoidalarga binoan sobiq Ittifoqning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlari bajarilishiga kafolat beradilar; MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og'ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.*

MDH kengashlarini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhini tuzish

to'g'risida protokol imzolandi. Shu tariqa **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** tashkil topdi.

**MDH faoliyati. 1992-yil fevralda Moskvada** MDH davlatlari boshliqlarining kengashi bo'lib, unda ekologiya va tevarak-atrofdagi tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi o'zaro aloqalar haqida bitim, bir-birlarining hududlaridan yuklarni soliq va yig'implarsiz o'tkazish haqida bitim, gidrometeorologiya sohasidagi o'zaro aloqalar haqida bitim, temir yo'l transportida yo'lovchilar va yuk tashishning yangi yagona tariflari haqida ahdnoma imzolandi. **1992-yil 20-martda Kiyevda** MDH davlatlari boshliqlarining navbatdagi uchrashuvi bo'ldi. Unda sobiq Ittifoqning mulki haqida, davlat arxivi, qarzlari, davlat banki va boshqa masalalar muhokama qilindi. Kiyev uchrashuvida davlatlarning chegaralarini va hamdo'stlikning dengiz iqtisodiy zonalarini qo'riqlash haqida bitim imzolandi.

**1992-yil 15-may kuni Toshkentda** MDH davlatlari rahbarlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Unda hamdo'stlik doirasida moliyaviy ahvol va bu sohadagi hamkorlik, havo bo'shlig'idan foydalanish, kosmik dasturlarni bajarish, yagona byudjetni shakllantirish, chegara qo'shinlarini pul bilan ta'minlash tartibi, kollektiv xavfsizlik, yagona axborot makoni va boshqa masalalar muhokama qilindi. Toshkent kengashida *kollektiv xavfsizlik, tinchlikni saqlash, kollektiv kuchlarning maqomi haqida bitim, moliyaviy ahvol va bu sohadagi hamkorlik haqida bitim, havo bo'shlig'idan foydalanish haqida bitim, kosmik dasturlarni bajarishga pul ajratish to'g'risida bitim, chegara qo'shinlarini pul bilan ta'minlash to'g'risida bitim, Qurolli Kuchlarni qisqartirish to'g'risida bitim* va boshqa hujjatlar imzolandi. **1993-yanvarda Minskda** MDH davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda MDHning nizomi imzolandi va MDHni huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. Kengashda davlatlararo bank va iqtisodiy hamkorlik maslahat kengashini tuzish, Afg'oniston bilan Tojikiston o'rtasidagi chegarani mustahkamlash uchun MDHning tinchlik o'rnatuvchi harbiy bo'linmalarini yuborish masalalari muhokama etildi va tegishli hujjatlar qabul qilindi. Minskda imzolangan hujjatlar iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirishga, tinchlikni mustahkamlashga, tanglik jarayonlarini bartaraf etishga qaratildi. **1993-yil 14-mayda Moskvada** bo'lib o'tgan uchrashuvda MDHning muvofiqlashtirish-maslahat qo'mitasi hamda ijroiya kotibiyatini tuzishga qaror qilindi.

**1993-yil 24-sentyabrda Moskvada** MDH davlatlari boshliqlarining kengashi bo'ldi. Unda MDH doirasida Iqtisodiy ittifoqni tuzish haqidagi shartnoma imzolandi. Kengashda MDH a'zolari bo'lgan davlatlar tashqi ishlar vazirlari kengashi to'g'risidagi Nizom, MDH birlashgan qurolli

kuchlari bosh qo'mondonligini qayta tuzish, Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro majburiyatlar haqidagi bayonotnoma, Tojikistonda tuziladigan Birlashgan mudofaa kuchlari to'g'risidagi Nizom, Davlatlararo Yevroosiyo ko'mir va metall birlashmasini tuzish haqida bitim imzolandi. MDH davlatlari o'rtasida yagona valyuta – rubl zonasini saqlab qolish haqidagi ahdnoma barbod bo'ldi. Har bir davlat o'z milliy valyutasini joriy etdi.

**1993-yil 24-dekabrda Ashxabodda MDH davlatlari boshliqlarining kengashi bo'ldi.** Unda Gruziya rahbari **Eduard Shevardnaze** qatnashdi va Gruziya MDHga qabul qilindi. **1993-yil 24-sentyabrda** imzolangan Iqtisodiy ittifoq shartnomasini parlamentlarda tasdiqlanishini kutib o'tirmay, uni kuchga kiritish haqida bitim, Xavfsizlikni mustahkamlash maqsadida harbiy hamkorlikni muvofiqlashtirish bo'yicha shtab tuzish haqida bitim imzolandi. Tojikistonning Afg'oniston bilan chegarasida vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar kelishib olindi. Sarmoya sarflash faoliyati sohasida hamkorlik haqida, Dori-darmon va boshqa meditsina mahsulotlari bilan ta'minlash to'g'risida, Davlatlararo «Mir» telekompaniyasining faoliyatini ta'minlash haqida bitimlar imzolandi. MDH davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish haqida **Ashxabod deklaratsiyasi** qabul qilindi.

**1994-yil 21-oktyabrda Moskvada MDH davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi.** Bu **16-kengash** edi. **10 ga yaqin** masalalar muhokama qilindi. Asosiy e'tibor MDH mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasiga doir masalaga qaratildi. MDH o'rtasida integratsiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida memorandum imzolandi. Unda iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, integratsiyaviy taraqqiyotning istiqbol rejaları belgilab berildi. Mazkur kengashda Iqtisodiy ittifoqning davlatlararo iqtisodiy qo'mitasi tuzildi.

**1995-yil 26-may kuni Minskda MDH davlatlari rahbarlarining navbatdagi uchrashuvi bo'ldi.** O'zaro to'lovlarni tartibga solishga xizmat qiladigan davlatlararo valyuta qo'mitasi tuzish, kollektiv xavfsizlik, MDH chegaralarini qo'riqlash, kollektiv tinchlikni saqlash kuchlarining Tojikiston va Abxaziya kabi keskin o'choqlarda turish muddatini uzaytirish, ixtiloflarni bartaraf etish, xo'jalik sudi faoliyati va uni takomillashtirish kabi ko'plab masalalar muhokama qilindi va tegishli hujjatlar imzolandi. MDH umumiy chegaralari va ularni birgalashib qo'riqlash to'g'risida tomonlarning fikri turlicha bo'ldi. Mustaqil davlatlar chegaralarini hamdo'stlikning umumiy chegaralari deb tan olish va qo'riqlash to'g'risidagi shartnomani **7 davlat** imzoladi. O'zbekiston tomoni imzolamadi, negaki MDHning umumiy

chegarasi yo'q, aksincha, har bir mustaqil davlatning o'z chegarasi bor va har bir davlat uni o'zi qo'riqlashi kerakligi ta'kidlandi.

MDH davlat boshliqlarining **1996-yil 19-yanvar, 1996-yil 17-may va 1997-yil 28-mart** kunlari **Moskvada, 1997-yil 23-oktyabrda Kishinyovda** bo'lib o'tgan kengashlarida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish konsepsiyasi, uyushgan jinoyatchilik va boshqa xavfli jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurash dasturi, MDH doirasida qabul qilingan hujjatlarning bajarilish ahvoli, MDHning istiqbollari, MDH organlari faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi. **1991 – 1999-yillarda** MDH davlat boshliqlarining **25 ga yaqin** kengashi bo'lib o'tdi, ularda **1300 ga yaqin** masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi.

*MDHda hamjihatlikning mustahkamlanishi.* **2000-yil 24 – 25-yanvar** kunlari **Moskvada** MDH mamlakatlari rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda Rossiya davlat boshlig'i **V.Putin** hamdo'stlik davlatlari boshliqlari kengashi raisi etib tayinlandi. Ukraina bosh vaziri **V.Yushenko** MDH mamlakatlari hukumat boshliqlari kengashi raisi etib saylandi. Kengashda MDH a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, MDHni isloh qilish borasidagi masalalar muhokama etildi. Bu kengash MDHning kelajagiga katta ishonch uyg'otdi. Bu ishonch V.Putinning MDH doirasidagi sheriklar bilan yaqinlashishga qaratilgan harakatlarida o'z ifodasini topmoqda.

**2000-yil 21-iyunda Moskvada** bo'lib o'tgan MDH davlat boshliqlari sammitida MDH doirasida erkin savdo zonasi barpo etish borasidagi ishlarni, integratsiya jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan **2005-yilgacha** bo'lgan muddatda Hamdo'stlikni rivojlantirish dasturi muhokama qilindi va tegishli hujjat imzolandi. MDH davlat boshliqlari **2003-yilgacha** jinoyatchilik, terrorchilik va ekstremizmning turli ko'rinishlariga qarshi birgalikda choralar ko'rish to'g'risida, MDHning terrorchilikka qarshi kurash markazini tuzish haqida qarorlar qabul qildilar.

**2001-yil 29 – 30-noyabr** kunlari **Moskvada** MDH tashkil etilgan kunning **10 yilligiga** bag'ishlangan yubiley sammit bo'lib o'tdi. Sammit qatnashchilari Afg'onistondagi voqealar to'g'risida bayonotni qabul qildilar.

Bayonotda aksilterror operatsiyasi ijobiy baholandi, uning natijasi-da xalqaro terrorchilarning infratuzilmasiga qattiq zarba berilgani hamda mintaqaviy va dunyoviy xavfsizlikni yanada mustahkamlashga yo'l ochilgani qayd etildi. Shu bilan birga, toliblar hukmronligi tugatilganidan keyin Afg'oniston taqdirini afg'on xalqining o'zi belgilashi, mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish ishlari BMT rahnamoligida amalga oshirishi qo'llab-quvvatlandi.

*O'zbekiston va Rossiya hamkorligi.* O'zbekiston **Rossiya Federatsiyasi** bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. **1992-yil 30-mayda** I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga asos soldi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti **B.Yelsinning 1993-yil mart** oyida O'zbekistonga tashrifi paytida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash choralarini ko'rishga ahdlashildi. **1993-yil 19-martda** O'zbekiston va RF o'rtasida madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni takomillashtirish va rivojlantirishda **I.Karimovning 1994-yil mart** oyidagi RFga qilgan rasmiy davlat tashrifi muhim o'rinni egalladi. I.Karimov bilan B.Yelsin o'rtasidagi muzokaralar yakunida **1994-yil 2-martda** O'zbekiston Respublikasi bilan RF o'rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risida deklaratsiya imzolandi. Ikki davlat Prezidentlari mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida, harbiy sohadagi hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.

RF hukumati raisi **V.S.Chernomirdin 1995-yil 26 – 28-iyul** kunlari rasmiy safar bilan yurtimizda bo'ldi. Safar chog'ida quyidagi hujjatlar imzolandi: O'zbekiston bilan RF o'rtasidagi hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish va kengaytirish to'g'risida memorandum; **1996 – 1997-yillarda** iqtisodiy hamkorlikning asosiy prinsiplari va yo'nalishlari to'g'risida hukumatlararo bitim; «Ilyushin» transnatsional moliya-sanoat qo'shma guruhini barpo etish haqida bitim; oliy ta'lim sohasida hamkorlik qilish, ilmiy-texnik hamkorlik, «Supa» xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish, jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida hukumatlararo bitimlar; ikkala mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik dasturi.

**V.Putinning** Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V.Putin qisqa muddatda O'zbekistonga ikki marta – **1999-yil 10 – 11-dekabr** va **2000-yil 18 – 19-may** kunlari davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muhokama



etildi. Dekabrdagi uchrashuvda «O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma» imzolangan bo'lsa, may oyidagi muzokaralar nihoyasida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida «O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari Rossiya Federatsiyasi subyektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish to'g'risida bitim», «Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitim» imzolandi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2000-yili 1 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda rossiyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan 527 ta qo'shma korxonalar, Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 293 ta qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Prezident Islom Karimovning 2001-yil 3 – 5-may kunlari davlat tashrifi bilan RFda bo'lishi muhim ahamiyat kasb etdi. I.Karimov va V.Putin harbiy-texnikaviy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalarga oid masalalarni muhokama qildi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar O'zbekiston Respublikasi va RF Prezidentlarining qo'shma bayonoti hamda chegara masalasi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya, o'zaro savdoda bilvosita soliq olish tamoyillari, kontrabanda va bojxonalar qonunbuzarligiga qarshi kurashda hamkorlik, bojxonaga oid hujjatlar va tartib-qoidalarni o'zaro tan olish, bojxonadan o'tish tartibini yengillashtirish va soddalashtirish, madaniy sohada 2001 – 2003-yillarga mo'ljallangan hamkorlik to'g'risida hujjatlar qabul qilindi.

I.Karimovning 2004-yil aprel oyida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Prezidenti V.Putinning 2004-yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi. 2004-yil 16-iyunda O'zbekiston va RF o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi. 15 maddadan iborat mazkur bitim o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdidlarga qarshi harakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategik sherikchilikning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qildi.

2005-yil 14-noyabr kuni Moskvada O'zbekiston va Rossiya o'rtasida «Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida» shartnoma imzolandi va kuchga kirdi. Bugungi kunda ikki davlat o'rtasida hamkorlik yangi sifat darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi bilan «Lukoil» neft kompaniyasi OAJ hamda «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Gazprom» ochiq aksiyadorlik jamiyati o'rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu hujjatlar O'zbekiston yonilg'i-energetikasi sohasiga qariyb 2,5 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritishni

nazarda tutadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi **2003-yili 1 mlrd 149 mln, 2004-yili 1 mlrd 642 mln, 2007 yili 4,2 mlrd AQSh dollarini** tashkil etdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti **Dmitriy Medvedovning** taklifi binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Islom Karimovning 2010-yil 19 – 20-aprel** kunlari Rossiyaga tashrifi jarayonida ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ikki davlat o'rtasida turli darajadagi munosabatlar **276 hujjatga** tayangan holda rivojlanib borayotganligi qayd etildi. **2010-yili** O'zbekistonda **843 ta** o'zbek – Rossiya qo'shma korxonalari, Rossiyada esa o'zbekistonlik sheriklar ishtirokida **385 qo'shma korxonalar** faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida **2010 – 2012-yillar**ga mo'ljallangan harbiy-texnik, bo'xona, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik qilish bo'yicha hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston-Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'nodagi teng huquqlik, o'zaro manfaatdorlik, bir-birlarining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini hurmat qilish tamoyillari asosida chuqurlashib bormoqda.

**O'zbekiston va Ukraina aloqalari.** O'zbekiston bilan **Ukraina** o'rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda **I.Karimovning 1992-yil avgust** oyida **Kiyevga** rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tashrif chog'ida **25-avgust** kuni O'zbekiston Prezidenti **I.Karimov** va Ukraina Prezidenti **Leonid Kravchuk** O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida protokol va savdo-iqtisodiy hamkorlik bitimi imzolandi.

**1994-yil 10 – 11-noyabr** kunlari **I.Karimovning** Ukrainaga ikkinchi davlat tashrifi o'zaro munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tardi. O'zbekiston va Ukraina o'rtasida iqtisodiy hamkorlik to'g'risida, daromad va mulkdan ikki tomonlama soliq olmaslik haqida, madaniy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. **1995-yil 20 – 21-iyun** kunlari Ukraina Prezidenti **Leonid Kuchma** O'zbekistonda bo'ldi. Ikkala davlat Prezidentlari tomonidan O'zbekiston – Ukraina hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish yo'llari to'g'risida deklaratsiya, O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnomani imzoladilar. Safar chog'ida O'zbekiston va Ukraina hukumatlari o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, elchixonalar faoliyati haqida bitim imzolandi. **Islom Karimovning 1999-yil oktyabrida** Ukrainaga safari chog'ida O'zbekiston va

Ukraina o'rtasida **1999 – 2008-yillarga** mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan.

Xullas, O'zbekiston va Ukraina o'rtasida **1992 – 2002-yillarda** neftni qayta ishlash, kommunikatsiya, fan-texnika, sanoat, savdo, axborot almashish, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik bo'yicha **130 dan ortiq** hujjatlar imzolandi. O'zaro savdo hajmi **1992-yilgi 20 mln AQSh dollaridan 2001-yili 400 mln AQSh dollariga** yetdi. O'zbekiston Ukrainaga aviatsiya, kimyo va yengil sanoat mollari, paxta tolasi, rangli metallar, gaz eksport qilmoqda. Ukrainadan gaz va neft konlarini o'zlashtirishda zarur bo'lgan texnika uskunalari, qora metallurgiya, kimyo sanoati mollari, shakar, pista yog'i import qilinmoqda. O'zbekistonning Qora dengizdagi Ukraina bandargohlari orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda Ukraina sarmoyalari ishtirokida barpo etilgan **20 ta** qo'shma korxonalar ishlayotgan. Jumladan, «**ToshVALEO**» qo'shma korxonasi bir kunda ming qutiga yaqin qandolat mahsulotlari tayyorlayotgan. Ilm-fan, ta'lim, madaniyat sohasida ham hamkorlik qilinmoqda.

*Belorus va Moldova bilan aloqalar.* Belorus Respublikasi Oliy Kengashi raisi **Sh.Shushkevichning 1991-yil 6-noyabrda** O'zbekistonga rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan **Belorus** o'rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Tashrif paytida Toshkentda I.Karimov va Sh.Shushkevich O'zbekiston Respublikasi bilan Belorus Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnoma imzoladilar. Ikki davlat hukumatlari o'rtasida **1992-yili** savdo-iqtisodiy hamkorlik prinsiplari to'g'risida bitim imzolandi.

**1994-yil 21 – 22-dekabr** kunlari Belorus Respublikasi Prezidenti **Aleksandr Lukashenko** rasmiy tashrif bilan Toshkentda bo'ldi. Tashrif paytida davlatlararo, hukumatlararo hamda har ikki davlat muassasalari o'rtasida **18 hujjat** imzolandi. O'zbekiston bilan Belorus o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash haqidagi deklaratsiyani, Madaniyat va san'at sohasida hamkorlik qilish to'g'risida shartnomani Prezidentlar imzoladi. Hukumatlar o'rtasida daromad va mulklardan ikki tomonlama o'zaro soliq olmaslik, avtomobil, temir yo'l, havo yo'li va pochta aloqasi bo'yicha hamkorlik haqidagi bitimlar imzolandi. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida maslahatlashuv haqida protokol hamda tarmoqlararo hujjatlar imzolandi.

**1995-yil 30 – 31-mart** kunlari I.Karimov **Moldova Respublikasida** rasmiy safarda bo'ldi. I.Karimov va Moldova Prezidenti **Mircha Snegur** o'rtasidagi muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida do'stona hamkorlik to'g'risidagi shart-

noma imzolandi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga oid **100 dan ortiq** bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar izdan chiqqan aloqalarning tiklanishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O'zbekistonning Kavkazorti mamlakatlari bilan aloqalari. **1995-yil 5-sentyabr**da Gruziya davlat rahbari, respublika parlamenti raisi **E.Shevernadze** rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Bu tashrif O'zbekiston bilan Gruziya o'rtasidagi aloqalarni tiklashda muhim ahamiyatga ega edi. Muzokaralar nihoyasida I.Karimov va E.Shevernadze tomonidan O'zbekiston va Gruziya o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Ikki mamlakat o'rtasida sarmoyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish, fan-texnika, bank, qishloq xo'jaligi, bojxona, xalqaro transport aloqalari, erkin savdo va ishlab chiqarish, maorif, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash, sayyohlik, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida **20 dan ziyod** hukumatlararo va muassasalararo hujjatlar imzolandi.

Mazkur bitimni ro'yobga chiqarishda I.Karimovning **1996-yil may** oyida Gruziyaga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. I.Karimovning Gruziyaga safari chog'ida E.Shevernadze bilan xalqaro **Transkavkaz** yo'li, uning Gruziyadan o'tadigan qismini barpo etish, Gruziyaning **Poti** bandargohi imkoniyatlaridan O'zbekiston yuklarini tashishda foydalanish masalalari bo'yicha ahdlashib olindi. I.Karimov va E.Shevernadze O'zbekiston va Gruziya o'rtasida hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyani imzoladilar. Ikki mamlakat o'rtasida moliya-sanoat guruhini tuzish, huquq-tartibot, pochta aloqasi, savdo, soliq-bojxona tizimi kabi **15 ga yaqin** hukumatlararo bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan **Ozərbayjon** o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi va rivojlanib bormoqda. **1996-yil 27-may** kuni I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasi Ozarbayjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar. Ikki qardosh mamlakat o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi. Safar chog'ida O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida savdo-iqtisodiy, soliq, bojxona, havo yo'li, avtomobil va temir yo'l aloqalari, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni rivojlantirish bo'yicha **20 ga yaqin** hukumatlararo hujjatlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari xalqaro Transkavkaz yo'lini barpo etish, uni Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib oldilar. Ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning Boltiqbo'yi davlatlari bilan aloqalari. Prezident

1. Karimov **1995-yil 6 – 8-iyun** kunlari davlat tashrifi bilan **Latviya Respublikasida** bo'ldi. Tashrif chog'ida I. Karimov Latviya Prezidenti **Guntis Ulmanis** bilan O'zbekiston Respublikasi va Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. O'zbekiston va Latviya hukumati o'rtasida transport, havo aloqasi, sayyohlik hamda ilmiy-texnik sohalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Latviya Prezidenti Guntis Ulmanisning **1996-yil 23-mayda** O'zbekistonga qilgan davlat safari ikki mamlakat o'rtasida aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Latviya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish to'g'risida deklaratsiya imzoladilar. Hukumatlararo fuqarolik, mehnat, huquq-tartibot, xalqaro avtomobil qatnovi, temir yo'l transporti, madaniyat, bojxona ishida o'zaro hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston Latviyadan *elektr mashinalari, uskunalari va ularning ehtiyot qismlari, shakar va qandolatchilik mahsulotlari, efir moyi, qora metall* sotib oladi. Latviyaga esa *rangli metallar, ipak, paxta va boshqa mahsulotlarni* eksport qiladi. Toshkentda «**Dzintars**» Latviya aksionerlik jamiyatining O'zbekiston – Latviya qo'shma korxonasi qurilib, «**Volida**», «**Saodat**», «**Istiqbol**» singari atirlar ishlab chiqarilmoqda va «**Dzintars**» firma do'koni orqali sotilmoqda. O'zbekiston va Latviya Tashqi ishlar va ziriqlari o'rtasida o'zaro maslahatlashuv to'g'risida protokol imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq o'sib bormoqda. **1994-yil** o'zaro tovar ayirboshlash **121,8 mln so'mni** tashkil etdi.

I. Karimovning **1995-yil iyun** oyida Litvaga tashrifi chog'ida Prezident **A. Brazauskas** bilan O'zbekiston Respublikasi va Litva Respublikasi o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. O'zbekiston hukumati bilan Litva hukumati o'rtasida ta'lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat va san'at, savdo-iqtisodiy hamda bojxona qonunini buzish hollariga qarshi kurash borasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. **1994-yili** o'zaro tovar ayirboshlash hajmi **248,6 mln so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **2001-yili** bu ko'rsatkich **uch barobarga** ko'paydi. O'zbekiston Litvaning transport-xo'jalik kommunikatsiyasi, dengiz yo'li, ayniqsa, **Klaypeda** bandargohi orqali o'z mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarmoqda.

I. Karimovning **2002-yil 23 – 25-sentyabr** kunlari Litva Respublikasiga tashrif buyurishi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi. «**O'zbekiston bilan Litva o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma**», ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari, bojxona xizmatlari hamda milliy universitetlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

### 37.3. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARI O'RTASIDAGI ALOQALAR

Aloqalarning yo'lga qo'yilishi. Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining birinchi uchrashuvi **1990-yil iyunda Almati** shahrida bo'lib o'tdi. Uchrashuv sobiq Ittifoq hali mavjudligi sharoitida, uning ahvoli tobora yomonlashib borayotgan, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tanglik kuchayib borayotgan, pul qadrsizlanayotgan, narx-navo qimmatlashib borayotgan sharoitda bo'lgandi. Beshta respublika davlat boshliqlari – **I.Karimov, N.Nazarboyev, A.Masaliev, Q.Mahkamov va S.Niyozov** xalqlariga murojaatnoma hamda respublikalar rahbarlarining bayonoti nomli hujjatni imzoladilar. Almati uchrashuvida davlat boshliqlari har yili uchrashuv o'tkazish to'g'risida ahdlashib oldilar.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi **1991-yil 13 – 15-avgust** kunlari **Toshkentda** bo'ldi. Unda uchrashuv yakunlari xususida axborot hamda respublikalararo maslahat kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. **1991-yil 13-dekabrda Ashxobodda** O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston davlat boshliqlarining uchrashuvi bo'lib, unda **Tajan – Seraxs** temir yo'li qurilishi bo'yicha iqtisodiy hamkorlik qilish haqida bitim imzolandi. Uni **O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston** Prezidentlari imzoladi. Temir yo'l qurilishi haqidagi mazkur bitim yagona **Osiyotrans** magistralini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Besh davlat boshliqlari Chernobil halokati, Orol fojiasi oqibatlarini tugatish masalasida birgalikda harakat qilish haqida qaror qabul qildilar. Halokat zonalarini aholisiga tezlikda gumanitar yordam jo'natishga ahdlashdilar.

**1993-yil 4-yanvarda** I.Karimov tashabbusi bilan **Toshkentda** mintaqa Prezidentlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda **Markaziy Osiyo** atamasi tilga olindi va bundan keyin Markaziy Osiyo deganda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston tushuniladigan bo'ldi. **Tojikistonda 1992-yili** boshlangan birodarkushlik urushi to'g'risida fikr almashindi va mamlakatga ko'rsatilayotgan yordamni davom ettirishga kelishildi. Mintaqa xavfsizligini va tinchlikni mustahkamlash yuzasidan hamkorlik qilish masalalari xususida maslahatlashib olindi. Bir-birlariga elchilar yuborishga qaror qilindi va uni **1993-yil 1-fevralgacha** belgilangan tartibda hal qilish tashqi ishlar vazirliklariga topshirildi. Hukumatlarga narx siyosati, energiya manbalari bilan ta'minlash, Orol va Kaspiy dengizlari muammolarini tomonlar manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqishni topshirdilar. **Toshkent uchrashuvida** Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Jamg'arma majlislari **Qizil O'rda, Nukus**

va **Toshhovuzda** o'tkazish zarur deb topildi. Besh davlat boshliqlari hamkorlik haqidagi bitimni imzoladilar.

*Orol muammosini hal qilish yo'lidagi.* **1993-yil mart** oyida **Qizil O'rdada** Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal etish, birgalikda qilinadigan harakatlar to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi havzasi muammolari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo kengash tuzildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi. Uchrashuv qatnashchi mamlakatlar nomidan **BMT Bosh kotibi Butros G'olliya** maktub yo'llab, Orol dengizi muammolariga xalqaro jamoatchilik diqqatini jalb etish kerakligi to'g'risida uni xabardor qildilar.

**1993-yil avgustda Nukusda** Orol dengizi muammolari bilan shug'ullanuvchi davlatlararo kengash va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining qo'shma majlisi bo'ldi. **1994-yil 11-yanvarda** Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi (**Yuriy Yakovlev**, RF Bosh vaziri o'rinbosari) ishtirokida konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada Orol dengizi havzasidagi hozirgi ahvol bilan bog'liq ko'pgina masalalar, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mablag'lari qanday to'planayotgani muhokama qilindi, faoliyati ma'qullandi. Ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin **3–5 yil** ichida dengizni qutqarish bo'yicha davlatlararo kengash Nizomi tasdiqlandi hamda uning ijroiya organi rahbari tayinlandi. Bu masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

*Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati.* **1994-yil 10-yanvar** kuni O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi. **1994-yil 16-yanvar** kuni O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon to'g'risida shartnoma imzolandi. **1994-yil 30-aprelda Cho'lponota** shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlarining **1994-yil iyul** oyi boshida **Almati** shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham mazkur uch qardosh mamlakat xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda yana bir qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankini tuzish to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar davlatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, Bosh vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi,

Mudofaa vazirlari kengashini ta'sis etdilar. Shu tariqa **Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH)** tashkil topdi.

**1995-yil 14-aprel** kuni **Chimkentda** O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi. Tojikiston va Afg'oniston chegarasidagi vaziyat haqida maslahatlashib olindi. Qabul qilingan bayonotda Tojikiston muxolifat kuchlari tomonidan **1995-yil 7-aprelda** qilingan, qon to'kishga olib kelgan hujum qoralandi. Tojikiston rahbariyatiga tojiklararo muzokaralarni faollashtirish va mojaroni bartaraf etish uchun barcha vositalardan foydalanish taklifi ilgari surildi. Uch davlat boshlig'i Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasini jadallashtirish bo'yicha hujjat (kommyunike) imzoladilar. Bu borada **2000-yilgacha** dastur ma'qullandi. Uchrashuvda davlatlararo kengash va Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki («**Sentrazbank**»)ning axborotlari tinglandi.

**1995-yil 15-dekabrda Jambulda** Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari davlatlararo kengashining navbatdagi majlisi o'tkazildi. Prezidentlar **2000-yilgacha** iqtisodiy integratsiya, birinchi navbatda, sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan loyihalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar. Integratsiya dasturida **53 ta loyiha** ishlab chiqildi. BMT rahnamoligida harakat qiladigan Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarining tinchlikni saqlash kollektiv batalyonini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi. Uch davlatning tinchlikni saqlash kollektiv batalyoni shakllantirildi.

**1997-yil 9 – 10-yanvar** kunlari **Bishkekda** O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlat boshliqlarining kengashi bo'lib, unda uch qardosh davlat o'rtasida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi. Bu hujjatda o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlarining orzu-niyatlari o'z ifodasini topdi. Mazkur shartnoma uch qardosh xalqning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligini yangi asoslarda rivojlantirishga yo'naltirdi. **1997-yil 12-dekabr** kuni Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Prezidentlarining kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zaxiralardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralari o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish to'g'risida muzokara bo'ldi. Prezidentlar xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha uch mamlakat hamkorligi tamoyillari konsepsiyasini ma'qulladilar. **1998-yili Tojikiston** Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lib kirdi.

**2000-yil 20 – 21-aprel** kunlari **Toshkentda** O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda mintaqaviy hamkorlik va mamlakatlararo munosabatlarga



doir masalalar muhokama qilindi. To'rt mamlakat rahbarlari terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar. Gap shundaki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik sohasida **200 dan ortiq** hujjat imzolangan bo'lsa-da, ular orasida mazkur masalaga tegishli hujjat yo'q edi. Bunday hujjatning imzolanishi Markaziy Osiyodagi vaziyatdan kelib chiqqan muhim qadam bo'ldi. To'rt davlat Prezidentlari xalqaro terrorizmga, siyosiy va diniy ekstremizmga qarshi birgalikda kurash olib borishga kelishib oldilar.

**2000-yil 14-iyulda Dushanbeda** bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlat boshliqlarining kengashida Prezidentlar iqtisodiy hamkorlikning bugungi ahvoli, iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashtirish tadbirlari, Sirdaryo va Amudaryoning suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Kengashda MOIHning **2002-yilgacha** bo'lgan muddatda yagona iqtisodiy makonni yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi sa'y-harakatlari dasturi to'g'risida, **2005-yilgacha** bo'lgan muddatda integratsiyani rivojlantirish strategiyasi haqida qarorlar qabul qilindi.

*Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti.* **2001-yil 28-dekabr** kuni **Toshkentda** MOIH davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokama qilindi va Toshkent bayonoti imzolandi. Mazkur kengashda MOIH tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. **I.Karimov** taklifiga binoan MOIH negizida **Markaziy Osiyo Hamkorligi** tashkilotini tuzishga kelishib olindi. **2002-yil 28-fevral** kuni **Almati shahrida** Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shu tariqa MOH tashkiloti huquqiy jihatdan rasmiylashdi. MOH tashkilotining raisi etib **I.Karimov** saylandi. Mazkur tashkilot endi nafaqat iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa turdagi aloqalar ko'lamini kengaytirish masalalari bilan ham shug'ullanadi. Har bir a'zo mamlakatdan bevosita davlat rahbariga hisobot berib turadigan bittadan muvofiqlashtiruvchi vakil tayinlandi. 4 ta vakil MOH tashkiloti faoliyati samaradorligini oshirish, a'zo mamlakatlarning integratsiya jarayonlarini faollashtirish borasidagi nuqtayi nazarlarini yaqinlashtirish, qabul qilingan hujjatlarning ijrosini nazorat qilish va umumiy vaziyatni tashkil etish bilan shug'ullanmoqda. MOH tashkilotining tashkil etilishi mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarini yangi pog'onaga ko'tardi.

MOH tashkilotiga a'zo davlat boshliqlarining **2002-yil 6 – 7-iyul** kunlari **Oqtov** (Qozog'iston), **5 – 6-oktyabr** kunlari **Dushanbe** (Tojikiston) sammitlari bo'lib o'tdi. Toshkentda **2002-yil noyabr** oyida MOH tashkilotiga a'zo davlatlar parlamentlari rahbarlari hamda ishbiarmon doiralari vakillarining forumlari bo'lib o'tdi. **2002-yil 27-dekabrda** va **2004-yil 28-mayda Astana** shahrida bo'lib o'tgan MOH tashkilotiga a'zo davlat boshliqlari sammitlarida mintaqaviy xavfsizlik, Orol inqirozi, noqonuniy migratsiya, uyushgan jinoyatchilik, narkotik kontrabandasi, umumiy bozor barpo etish kabi masalalar muhokama qilindi. Mazkur masalalar bo'yicha hamkorlik qilishga qaratilgan qo'shma kommyunike va bitimlar imzolandi.

*Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati.* **2005-yil 6 – 7-oktyabr** kunlari **Sankt-Peterburg** shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo tashkiloti davlat rahbarlarining kengashida o'tgan davrda qilingan ishlar sarhisob etildi. Kengashda Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi. MOHning bu galgi sammiti Yevroosiyoda integratsiyalashuv jarayonidagi buriilish nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan MOH va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida yangi YOIHni shakllantirishga qaror qilindi. Negaki bu ikki tashkilotning maqsad va vazifalari deyarli farqlanmasdi. Ikki tashkilotning qo'shilishi natijasida yirik jo'g'rofik makonda yanada faol yangi integratsiya uchun keng yo'l ochildi. YOIH Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida **1995-yili** tuzilgan **Bojxona ittifoqi** negizida tashkil topgandi. YOIHning **2006-yil 24 – 25-yanvar** kunlari **Sankt-Peterburg** shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston unga a'zo bo'lib kirdi. Mazkur sammitda O'zbekistonning YOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishi to'g'risidagi protokol, «YOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qarorlar imzolandi.

*O'zbekistonning Qozog'iston bilan hamkorligi.* Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik bilan birga ikki tomonlama aloqalar ham yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning **Qozog'iston** bilan ikki tomonlama munosabatlari **1992-yil 24-iyunda Turkiston** shahrida O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi paytida **N.Nazarboyev** bilan **I.Karimov** tomonidan imzolangan **«O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma»** asosida mustahkamlanib bormoqda. **1993-yil 10-noyabrda** **I.Karimov Almatiga** safar qildi. O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari ikki mamlakat integratsiyasiga oid aloqalar masalasini, iqtisodiy siyosatini muhokama qilishdi. O'zaro sarmoyalarni amalga oshirish yo'llari va usullari, qo'shma korxonalar, yuksak texnologiyalar yaratish ishlari yo'lga qo'yilmoqda.

Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev **1994-yil 10 – 12-yanvarda** rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident mamlakatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, boj hamda valyuta siyosatini ta'minlash to'g'risida *shartnomani imzoladilar. O'zbekiston va Qozog'iston chegaralari orqali* kirishda va chiqishda ikkala mamlakat fuqarolarining yuklarini bojxona tekshiruvidan o'tkazishni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

**1998-yil 31-oktyabrda** mamlakatlar o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolangan. Ikki mamlakat Prezidentlarining **2000-yil 20 – 21-aprel** kunlari bo'lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag'ishlangan uchrashuv bo'ldi. Muzokaralar yakunida qo'shma bayonot imzolandi. **2001-yil 16 – 17-noyabr** kunlari I.Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Ikki davlat rahbarlari O'zbekiston– Qozog'iston davlat chegarasi to'g'risida shartnoma imzoladilar. **2440 km** uzunlikdagi chegaraning **96 foizi** belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimitatsiya qilishga kelishildi. **10 oy** davomida bu borada tegishli ishlar amalga oshirildi. **2002-yil 9-sentyabrda** N.Nazarboyev taklifiga binoan I.Karimov **Astana** shahriga tashrif buyurdi. **«O'zbekiston – Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchashtalari to'g'risida bitim»** imzolandi. Mamlakatlar o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi **2002-yilning 1-yarmida 124 mln AQSh dollarini** tashkil etdi. O'zbekistonda **38 ta** o'zbek – qozoq qo'shma korxonasi, Qozog'istonda **92 ta** qozoq – o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritmoqda.

*O'zbekiston va Qirg'iziston aloqalari.* O'zbekistonning **Qirg'iziston** bilan ikki tomonlama hamkorligi **«O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma»** asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma **A.Akayevning** O'zbekistonga rasmiy tashrifi paytida **Toshkentda 1992-yil 29-sentyabrda** I.Karimov va A.Akayev tomonidan imzolangandi. I.Karimovning **1993-yil avgustda** Qirg'izistonga qilgan rasmiy tashrifi paytida **O'sh** shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida **1994 – 2000-yillarga** mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi.

**1994-yil 16-yanvarda** I.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. Ikki davlat rahbarlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narx, bojxona va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar. O'zbekiston va Qirg'izistonning iqtisodiy imkoniyatlarini uyg'unlashtirish haqida qaror qabul qilindi. Bu qarorga binoan fuqarolarning chegaralardan o'tayotganda yuklarni

bojxona tekshiruvidan o'tkazish bekor qilindi, soliqlar, to'lovlar va boshqa turdagi cheklashlar kamaytirildi. Ikki mamlakat banklari kliring palatalari, ularning filiallari, valyuta almashtirish punktlarini ochishga kelishib olishdi.

O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida **1994-yil** uchun savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash haqida bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida mamlakatlar o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. **2000-yili** O'zbekistonda **22 ta** o'zbek – qirg'iz qo'shma korxonasi, Qirg'izistonda **62 ta** qirg'iz – o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

**2010-yil iyunida** Qirg'izistonda obro'-e'tiborni yo'qotgan Prezident hokimiyatining ag'darilishi, ekstremistik kuchlar tomonidan uyushtirilgan millatlararo qonli voqealar sharoitida O'zbekiston Prezidenti oqilona yo'l tutdi. O'zbekiston **100 mingdan ortiq** qochqinlar, bolalar, xotin-qizlar, qariyalarni O'zbekiston hududiga qabul qildi, joylashtirdi va barcha zarur narsalar bilan ta'minladi. Markaziy Osiyoning qarama-qarshilikning keng ko'lamli o'chog'iga aylanib ketishining oldi olindi. Jahon hamjamiyati O'zbekiston Prezidentining qaltis vaziyatda amalga oshirgan tadbirlarini to'liq ma'qulladi.

O'zbekiston va Tojikiston aloqalari. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida aloqalar o'rnatilgan va rivojlanib bormoqda. Tojikistonda **1992–1996-yillarda** davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi, uning qo'shni mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta'sir etdi.

**1997-yili Moskvada** Tojikistonning rasmiy hokimiyati bilan muxolifat kuchlar o'rtasida tuzilgan milliy murosa haqidagi shartnoma Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari uchun ayni muddao bo'ldi. Tojikistonning qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari yana jonlandi.

O'zbekiston va Tojikiston aloqalari. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning taklifiga binoan **1998-yil 4-yanvar** kuni Tojikiston Prezidenti **Imomali Rahmonov** O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. O'zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog'liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonning qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. Davlatlar o'rtasida shu paytgacha **30 dan ortiq** hujjat imzolangan. Ular o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi **1997-yili 50 mln AQSh dollaridan** oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan **50 foiz** ko'pdir. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda. **2000-yili**

O'zbekistonda 15 ta o'zbek – tojik qo'shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta tojik – o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

O'zbekiston va Turkmaniston aloqalari. 1991-yili ikki mamlakat Prezidentlari uchrashuvida «**O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida**» shartnoma imzolandi. Bu shartnoma mamlakatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo'ldi. I.Karimovning 1993-yil 14–15-aprel kunlari Turkmanistonga rasmiy safari ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ana shu safar chog'ida tomonlar neft va tabiiy gaz qazib olish, qayta ishlash va tashish, buning uchun zarur korxonalar va inshootlarni qurish hamda ishga tushirish, bu sohadagi loyihalarni birgalikda pul bilan ta'minlash masalalarini muhokama qildilar. Tomonlar jahon talablariga mos avtomobil va temir yo'llar qurish sohasida zarur chora-tadbirlar ko'rish haqida kelishib olishdi.

I.Karimov 1996-yil 16-yanvar kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. **Chorjo'y** shahrida **S.Niyazov** bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat o'rtasida muzokaralar bo'ldi. O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnoma, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga doir **20 dan ortiq** bitim imzolandi. I.Karimovning 2007-, 2010-yillardagi Turkmanistonga davlat tashrifi, 2008-yil mart oyida Turkmaniston Prezidenti **Gurbanguli Berdimuhamedov**ning O'zbekistonga davlat tashrifi o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Turkiston – umumiy uyimiz. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, tojik, turkman va mintaqada yashovchi barcha xalqlar o'rtasidagi qadimiy do'stlik aloqalarini yangi sharoitda mustahkamlashni nazarda tutib «**Turkiston – umumiy uyimiz**» degan g'oyani ilgari surdi. Mintaqa jamoatchilik vakillarini, birinchi navbatda, ijodkor ziyolilar – yozuvchilar, tarixchilar va boshqalarning e'tiborini Turkiston tuyg'usini – tarixiy birlik tuyg'usini qaytadan tiklashga qaratdi.

Mintaqa ziyolilari, Turkiston zaminida yashovchi barcha xalqlarni yaqinlashtirish maqsadida yurgan sog'lom kuchlar bu g'oyani qo'llab-quvvatladilar. «Turkiston – umumiy uyimiz» deb nom olgan jamoatchilik harakati tashkil topdi.

1995-yil 21-noyabr kuni Toshkentda Markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida «**Qardosh xalqlar uchrashuvi**» mavzusida xalqaro qurultoy bo'lib o'tdi.

### 37.4. O'ZBEKISTONNING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN O'ZARO MANFAATLI ALOQALARI

#### *O'zbekistonning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi.*

**1991-yil 16 – 19-dekabr** kunlari I.Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat – **Turkiyada** bo'ldi. Turkiya Prezidenti **Turg'ut O'zol**, Bosh vazir **Sulaymon Demirel** va boshqa rahbarlar, ishbiarmonlar bilan amaliy uchrashuvlar, suhbatlar bo'lib o'tdi. Safar chog'ida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televideniye va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi.

**1992-yil 28-aprelda** O'zbekistonda Turkiya elchixonasi, Turkiyada O'zbekiston elchixonasi ochildi va faoliyat yuritmoqda. Hamkorlikni yanada chuqurlashtirishda Turkiya davlat rahbarlari **Turg'ut O'zol**, **Sulaymon Demirel**, **Tansu Chiller**, **Mesut Yilmazar**, **Ahmet Sezer**ning O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolangan hujjatlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekistonda Turkiya sarmoyadorlari ishtirokida **200 dan ortiq** qo'shma korxonalar barpo etildi. **1996-yil iyun** oyida «O'zavtosanoat» Turkiyaning «KochXolding» konserni bilan Samarqand shahrida «**SamKochavto**» o'zbek – turk qo'shma korxonasini barpo etish to'g'risida shartnoma tuzdilar. Tez orada bu qo'shma korxonalar bunyod etildi va sig'imi o'rtacha avtobuslar hamda 8 t gacha yuk ko'taradigan yuk avtomobillar yig'ish yo'lga qo'yildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi **1992-yili 75 mln AQSh dollarini** tashkil qilgan bo'lsa, **1998-yili 275 mln AQSh dollariga** yetdi.

**1992-yil 27 – 28-iyun** kunlari **Pokiston Islom Respublikasi** bosh vaziri **Muhammad Namoz Sharifning** O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos soldi. Safar kunlarida «**O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida**» shartnoma, iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi. I.Karimovning **1992-yil 13 – 14-avgust** kunlari Pokistonga rasmiy tashrifi va unda imzolangan hujjatlar munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tardi. Pokiston Islom Res-

publikasi bosh vaziri **Benazir Bxutto** **1995-yil may** va **noyabr** oylarida O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va Markaziy Osiyo xavfsizligi, Afg'onistonda birodarkushlik urushini to'xtatish masalalari bo'yicha fikr almashildi. Iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, fan, texnika, sayyohlikni rivojlantirish haqida bitimlar imzolandi.

O'zbekistonda Pokiston sarmoyalari ishtirokida **120** qo'shma korxonalar tuzilgan. **Tabani, Merkurij, Metro, Laksan, Taraka** kabi **19** ta yirik firma va kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. **1994-yili** O'zbekiston va Pokiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi **4,3 mln AQSh dollarini** tashkil etdi. O'zbekiston Pokistonga charm xomashyosi, pilla, shoyi matolar, shisha, billur, yengil sanoat uchun mashina va uskunalar eksport qilmoqda. Pokistondan esa xalq iste'moli mollari, xususan, tayyor kiyimlar, poyabzal, charm buyumlar, kakao va shakar keltirilmoqda.

**1992-yil 24 – 25-noyabr** kunlari Prezident I. Karimovning **Eron Islom Respublikasiga** rasmiy davlat tashrifi O'zbekiston va Eron o'rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Safar chog'ida «**O'zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida**» deklaratsiya va boshqa bir qator hujjatlar imzolandi. **1993-yil 18-oktyabr**da Eron Prezidenti **Ali Akbar Hoshimiy Rafsanjoniyning** O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni yanada kengaytirishga ko'maklashdi. Safar chog'ida tranzit aloqalarini tartibga solish to'g'risida hamda xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Eron o'rtasidagi o'zaro aloqalar transport sohasida keng rivojlandi. **1996-yili** O'zbekiston Eron hududi orqali **34 ming tonna** yuk tashigan bo'lsa, **2001-yili** bu ko'rsatkich **487 ming tonnani** tashkil etdi. **2001-yili** O'zbekiston hududi orqali Eronning **750 ming tonna** tranzit yuki olib o'tildi. O'zbekiston yuklari, asosan, Eronning **Bander Abbas** va **Chobahor** portlari orqali Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasiga chiqarilmoqda. **2002-yil boshlarigacha** Eron tadbirkorlari sarmoyalari ishtirokida mamlakatimizda **50 ga yaqin** O'zbekiston – Eron qo'shma korxonasi barpo etildi va ular, asosan, ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda. **2002-yil 26-aprel** kuni Eron Prezidenti **Sayyid Muhammad Hotamiyning** O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi paytida O'zbekiston va Eron o'rtasida imzolangan ikki tomonlama soliqqa tortilishga yo'l qo'ymaslik, daromad va sarmoya soliqlariga taalluqli ma'lumotlarni almashish, transport vositalari haydovchilari uchun viza masalalarini yengillashtirish, O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlar palatasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida hujjatlar ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini boyitdi.

Prezident I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan **Saudiya Arabistoni, Misrda** bo'ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari imzolandi. Saudiya Arabistoni, Misr davlat va hukumat vakillarining yurtimizga tashrifi paytida imzolangan hujjatlar esa davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonlik yoshlar Qohira universitetida, «Al-Azhar» va «Ayn shams» universitetlarida, misrliklar Toshkent texnika va agrar universitetlarida tahsil ko'rmoqdalar. Toshkentda Misr Respublikasining fan va ta'lim markazi faol ishlab turibdi.

**1992-yili** O'zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga a'zo bo'lib kirdi. **1992-yil 10-mayda Ashxobodda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston** davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda **Transosiyo** temir yo'li qurish haqida bitimni, bojxona xizmatini tashkil etish, shu soha uchun mutaxassislar tayyorlash haqida hujjatlarni imzoladilar. **1992 – 1996-yillarda** uzunligi **295 km** bo'lgan **Mashhad – Seraxs – Tajan** temir yo'li qurildi. **1996-yil 12-may** kuni mazkur temir yo'lining ochilishiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi, unda EKO a'zolari bo'lgan mamlakatlarning vakillari, jami 50 mamlakat vakillari qatnashdi. **Istanbul – Pekin** Transosiyo temir yo'lining tarkibiy qismi bo'lgan **Mashhad – Seraxs – Tajan** temir yo'li Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'rtasida yuk tashish muddatini **bir haftaga** qisqartirdi. Bu temir yo'lining **132 km** Turkmaniston hududida qurildi, uni qurishda o'zbekistonlik yo'lsozlar faol qatnashdilar, **45 mln AQSh dollari** sarflandi. Ana shu yo'l orqali O'zbekiston o'z mahsulotini **Anqaragacha** yoki **Fors ko'rfazigacha**, keyin dunyoning istalgan burchagiga yetkazishi mumkin bo'lib qoldi.

O'zbekistonning **Hindiston** bilan aloqalari ham kengayib bormoqda. **1993-yil 23 – 25-may** kunlari Hindiston bosh vaziri **Narasimxa Rao** davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida «**O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida**» shartnoma, foyda va mulkka ikkiyoq-lama soliq solmaslik to'g'risida, havo yo'llari to'g'risida va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Prezident I.Karimovning **1993-yil 17 – 19-avgust** kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. **1995-yil 25-avgust** kuni **Toshkent** shahrida Hindistonning «**TATA** Projekte



LTD» firmasi tomonidan qurib bitkazilgan **600 o'rinli** salomatlik zali, majlislar xonasi, servis xizmati, yer osti garajlari, sauna, barlari, katta restoranlari bo'lgan zamonaviy mehmonxonaning ochilishi fikrimizning dalilidir.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini **2000-yil 1 – 3-may** kunlari I.Karimovning Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Safar paytida yurtboshimiz Hindiston Prezidenti va Bosh vaziri bilan muzokaralar olib borib, uning yakunida **10 ga yaqin** hujjatlar imzolandi. Mamlakatlar orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik to'g'risida qo'shma bayonot, jinoyat qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy, madaniy, ta'lim, axborot, bo'xona sohalarida bo'yicha hamkorlik qilish haqidagi hujjatlar imzolandi. Mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi **40 ga yaqin** hujjatlar qabul qilingan. O'zbekistonda **2000-yili** Hindiston bilan hamkorlikda tashkil etilgan **30 ga yaqin** qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

*O'zbekiston va Xitoy aloqalari.* O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardayoq O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. **1992-yil 2 – 3-yanvar** kunlari XRX tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri **Li Lanzin Toshkentda** bo'ldi, shu kunlari ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi, elchixonalar ochishga qaror qilindi. **1992-yil 12 – 14-mart** kunlari Prezident I.Karimovning XRXga davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Safar chog'ida turli sohalariga oid **20 ga yaqin** hujjatlar imzolandi.

**1994-yil 18 – 20-aprel** kunlari XRX davlat kengashi raisi **Li Penning** yurtimizga davlat tashrifi paytida mamlakatlar o'rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Xitoy IL – 76 va IL – 114 samolyotlarini xarid qiladigan bo'ldi. **1994-yil 24 – 25-oktyabr** kunlari Prezidentimiz ikkinchi marta Xitoyga safar qildi va «O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida» bayonnoma imzolandi. Ikki davlat o'rtasida konsullik shartnomasi imzolandi. I.Karimovning **1999-yil 8 – 10-noyabr** kunlari XRXga uchinchi marta safari chog'ida siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, telekommunikatsiya sohalarida hujjatlar imzolandi. XRX raisi **Xu Szintao** davlat tashrifi bilan **2004-yil 14-iyun** kuni O'zbekistonga tashrif buyurdi. Turli sohalariga oid **10 ta** hujjat imzolandi.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi **Xu Szintao** davlat tashrifi bilan **2004-yil 14-iyun** kuni hamda **2010-yil 9-iyun** kuni O'zbekistonga keldi. Ikki davlat boshliqlari uchrashuvida O'zbekiston – Xitoy munosabatlariga doir masalalar muhokama qilindi. Ikki mamlakat to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, kimyo, kommunikatsiya sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichi **2009-yili 2 mlrd AQSh dollaridan** oshdi. **2010-yilgi** kelishuvga binoan Xitoy O'zbekistonga **2 mlrd dollarlik** sarmoya kiritadi. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida **2005-yili** imzolangan Do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risidagi davlatlararo shartnoma asosida yanada rivojlanib va mustahkamlanib bormoqda. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda hamkorlik qilishga, texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikka oid, Toshkentda **Konfutsiy** nomidagi institutni tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar – jami **10 ta hujjat** imzolandi.

Xitoy rahbari ta'kidlaganidek, o'zaro ishonch va hurmat, ikki tomonlama manfaatdorlikka tayangan O'zbekiston – Xitoy munosabatlari xalqlarimizning umumiy mulkidir. Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan **78 ta** O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasi ikki mamlakat o'rtasida hamkorlikning rivojlanib borayotgani dalilidir.

*O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligi.* **1992-yil mart** oyida **Koreya Respublikasi** bilan diplomatik aloqa o'rnatildi. **1992-yil 19-iyunda** Prezident I.Karimov Koreyaga davlat tashrifi bilan bordi. Bu safar ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo, madaniy-texnikaviy aloqalarga asos soldi. **«O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida»** deklaratsiya imzolandi. Turli davlatlararo bitimlar imzolandi. DEU korporatsiyasi bilan Asakada avtomobil zavodi qurishga kelishildi. **1992–1996-yillarda «O'zDEUavto»** O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodini loyihalashtirish, qurish ishlari amalga oshirildi. Zavod **1995-yil 25-mart** kuni avtomobillar ishlab chiqarishni boshlab yubordi. O'zbekiston jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi **28-mamlakat** bo'ldi. **1998-yili «O'zDEUavto»** zavodi **54 400 ta «Damas», «Tiko», «Neksiya»** rusumli avtomobillar ishlab chiqardi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning **1999-yil 4 – 6-oktyabr** kunlari Koreya Respublikasiga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengayishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Koreya Respublikasi yangi Prezidenti **Kim De Jung** bilan Islom Karimov XXI asrda yangicha ruhdagi sheriklik to'g'risida qo'shma bayonot imzoladilar. Koreyadagi yirik **Eksimbank** bilan «O'zDEUavto» qo'shma korxonasini

moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha kelishildi. «O'zDEUavto» zavodida «**Neksiya-2**» va «**Matiz**» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish, Toshkentda «**DEU**» rusumli avtodvigatellar ishlab chiqaruvchi korxonalar barpo etish loyihalarini amalga oshirishga birgalikda sarmoya ajratish haqida hujjatlar imzolandi va amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston bilan Koreyaning «**Kobul Tekstayl**» kompaniyasi o'rtasidagi hamkorlik yildan yilga chuqurlashib bormoqda. Mazkur kompaniya O'zbekistonga **250 mln AQSh dollari** hajmida sarmoya kiritdi va o'zlashtirildi. «Kobul Tekstayl» ishtirokida **Toshkent, To'ytepa** va boshqa shaharlarda qo'shma korxonalar barpo etildi va xaridorgir, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonning Koreya Respublikasi bilan hamkorligi kengayib bormoqda. **1999-yilga** qadar O'zbekistonga Koreyadan **1,2 mlrd AQSh dollari** hajmida sarmoya kirib keldi va o'zlashtirildi. O'zbekistonda **70 dan ortiq** Koreya hamkorligida barpo etilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi **1997-yiliyoq 1 mlrd AQSh dollaridan** oshdi.

O'zbekiston va Yaponiya aloqalari. **Yaponiya 1991-yiliyoq** O'zbekiston mustaqilligini tan oldi. **1992-yili** o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatildi. **1994-yil 16 – 19-may** kunlari I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Safar paytida «**O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasida munosabatlarning asosiy prinsiplari haqida**» qo'shma bayonot, tashqi ishlar bo'yicha munosabatlar haqida hujjat imzolandi. Delegatsiya mashhur «**Panasonik**» konsernida bo'ldi va uning rahbari bilan O'zbekistonda filial ochishga kelishildi. Yaponiya yurtimizga **156,1 mln AQSh dollari** hajmida beg'araz yordam berdi. O'zbekistonda «**Mitsui**», «**Mitsubishi**», «**Sumitomo**», «**Tomen**», «**Marubeni**», «**Nishe Iwai**» korporatsiyalarining doimiy vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

**1999-yil aprel, 2001-yil may** oylarida Yaponiyaning «**Keydzay Doyukay**» korporativ rahbarlar uyushmasining Prezidenti **Koichi Minaguchi** boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bu uyushma Yaponiyadagi eng yirik kompaniya va korporatsiyalarning **1600 ga yaqin** rahbar xodimlaridan tashkil topgan. Uyushma tashabbusi bilan Yaponiya O'zbekistonga kreditlar ajratmoqda. Yaponiya hukumatining «**Taraqqiyotga rasmiy yordam**» dasturi doirasida yurtimizda telekommunikatsiya, transport infratuzilmasi va ta'lim sohasidagi loyihalar ijrosi uchun **873,2 mln AQSh dollari** miqdorida imtiyozli davlat krediti berildi. Yaponiya xalqaro hamkorlik banki esa yoqilg'i-energetika va to'qimachilik sohasi uchun O'zbekistonga **812 mln AQSh dollari** miqdorida kredit berdi.

Prezident I. Karimov **2002-yil 28 – 31-iyul** kunlari Yaponiya hukumati taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Yaponiya bosh vaziri **Dzuniro Koidzimi** va imperator **Akixito** bilan samimiy uchrashuvlar, suhbatlar bo'lib o'tdi. Tashrif natijasida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida: *do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida Qo'shma bayonot; iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida Qo'shma bayonot; ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari hamkorligi, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining «Mitsubishi», «Mitsui», «Marubeni», «Nishe Iwai» korporatsiyalari bilan hamkorligi, O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat banki bilan «Bank of Tokio-Mitsubishi» o'rtasida imtiyozli kredit borasidagi va boshqa jami 14 ta hujjat imzolandi. Yaponiyaning «Isuzu Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand avtomobil zavodida «Isuzu» rusumli avtobuslar, yuk, chiqindi tashish mashinalari, ko'tarma kranlar ishlab chiqarilmoqda.*

Islom Karimov Tokiodagi «Vaseda» va «Soka» universitetlarida bo'ldi va mazkur universitetlarning faxriy doktori unvonlari berilgan. Islom Karimov «Vaseda» universiteti rektori **Takayasi Okushimaga** va arxeolog olim **Kyuzo Katoga** O'zbekistonning «Do'stlik» ordenini taqdim etdi. «Soka» universiteti hududida **Alisher Navoiyning** haykali o'rnatilgan.

**1995 – 2010-yillarda** Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan kreditlar miqdori **2,3 mlrd AQSh dollarini** tashkil etdi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi yildan yilga oshib bormoqda. O'zbekistonda **10 dan ortiq** O'zbekiston – Yaponiya korxonalari barpo etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

**2000 – 2010-yillarda Yaponiya granti asosida 206 nafar o'zbekistonlik talaba ushbu mamlakatda ta'lim olib, magistr darajasiga ega bo'ldi.**

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning **2011-yil 8 – 10-fevral** kunlari Yaponiyada amalga oshirilgan rasmiy tashrifi chog'ida Yaponiya Bosh vaziri **Naoto Kan** va Imperator **Akixito** bilan uchrashuvlari natijasida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida Qo'shma bayonot, taraqqiyotga rasmiy yordam dasturi, iqtisodiy hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi. Shuningdek, Yaponiyaning yirik kompaniyalari bilan O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan neft-gaz, kimyo, energetika, mashinasozlik, to'qimachilik sanoatida Yaponiya texnologiyalari va investitsiyalarini jalb qilish to'g'risida kelishuv hujjatlari imzolandi.

O'zbekistonning Tinch okean havzasi mamlakatlari – **Malayziya** va **Indoneziya** bilan davlatlararo aloqalari o'rnatildi. Bu borada Prezident I. Karimov boshliq davlat delegatsiyasining **1992-yil iyun** oyidagi Malayziya va Indoneziyaga safari muhim ahamiyatga ega. Safar kunlarida O'zbekiston va Malayziya o'rtasida iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. O'zbekiston va Indoneziya o'rtasida diploma-

tik aloqalar o'rnatish bo'yicha qo'shma bayonot, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. **1995-yil 8 – 10-aprel** kunlari Indoneziya Prezidenti **Suxarto** rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Muzokaralar nihoyasida I.Karimov bilan Suxarto mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tamoyillari to'g'risidagi qo'shma bayonnoma imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasidagi sayyohlik sohasidagi hamkorlik haqidagi memorandum hamda mamlakatlar poytaxtlari oralig'ida samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi.

*O'zbekiston va AQSh aloqalari.* AQSh bilan aloqalar mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. **1992-yil 15 – 16-fevral** kunlari AQSh davlat kotibi **Jeyms Beyker** yurtimizga tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. **1992-yil 16-mart** kuni **Toshkent**da birinchi bo'lib AQSh elchixonasi ochildi. **1993-yil 14-sentyabr**da AQSh davlat departamentining maxsus topshiriqlar bo'yicha elchisi **Strob Talbot** O'zbekistonda bo'ldi. **1995-yil 6-aprelda** AQSh mudofaa vaziri **Uilyam Persi** O'zbekistonga keldi, O'zbekistonning NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida ishtiroki muhokama qilindi. O'zbekiston bilan AQSh o'rtasida sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida, ikkiyoqlama soliq olmaslik to'g'risida shartnomalar tuzilgan. **Toshkent – Nyu-York** o'rtasida bevosita havo yo'li ochildi. I.Karimov **1995-yili** – BMT yubiley sessiyasi kunlarida AQSh vitse-prezidenti **Albert Gor** bilan uchrashdi. Uchrashuvda jahon va mintaqaviy xavfsizlik masalalari, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida fikr almashildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarga ko'mak berish maqsadida Amerika – O'zbekiston savdo palatasi tuzildi. Palata savdo va investitsiya munosabatlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

O'zbekistonda **1996-yil boshlarigacha** amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida **200 ta** «O'zbekiston – Amerika» qo'shma korxonasi tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQShning Nyumont Mayning korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi bor. Unda **2002-yilgacha 83 tonna** oltin tayyorlandi.

Prezident I.Karimovning **1996-yil 23 – 28-iyun** kunlari AQShda bo'lishi ikki davlat munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. I.Karimov AQSh Prezidenti **Bill Klinton** bilan uchrashdi. Ikki mamlakat Prezidentlari uchrashuvi mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga siyosiy zamin hozirladi. **1996-yil 25-iyun** kuni O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi ochildi, bu marosimda I.Karimov, AQSh davlat departamentining MDH

davlatlari bo'yicha vakili **J.Kollinz** qatnashdi. Prezidentimiz AQShdagi Xorijiy sarmoyalar korporatsiyasi (OPEK)ning **Vashington**dagi qarorgohida o'tkazgan brifingda, **Xyuston** shahrida O'zbekiston tog'-kon sanoati imkoniyatlari va boy tabiiy resurslariga bag'ishlangan konferensiya hamda ko'rgazmalarda qatnashdi va nutq so'zlab, O'zbekistonda chet el sarmoyalari va biznesi uchun yaratilgan qulay sharoitlar to'g'risida axborot berdi. «O'zbekneftgaz» milliy korporatsiyasi bilan «**Ehron**» korporatsiyasi va **OPEK** o'rtasida loyihalarni mablag' bilan ta'minlash va sug'urta qilish to'g'risida protokol, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan «**Keys**» korporatsiyasi o'rtasida lizing kompaniyasi tuzish to'g'risida bitimlar imzolandi. Loyihalarni mablag' bilan ta'minlash va sug'urta qilish to'g'risidagi protokol bo'yicha OPEK ajratadigan **400 mln AQSh dollari** O'zbekistonda gaz sanoatini rivojlantirishga xizmat qiladi. **1996-yil 1-yarmigacha** OPEK ishtirokida O'zbekiston iqtisodiyotiga **200 mln dollarlik** AQSh sarmoyasi kiritildi. O'zbekiston delegatsiyasining Texas shtatining poytaxti **Xyustonga** safari chog'ida neft va gaz sanoati bilan bog'liq bo'lgan yirik korporatsiya va kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar bo'ldi. «**O'zbekneftgaz**» korporatsiyasi va «**Teksako**» kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxonalar tuzish to'g'risida ta'sis shartnoma, «**O'zbekneftgaz**» bilan «**Enron Oyl Gaz Interneshnl**» o'rtasida gaz konlarini izlab topish va ishga tushirish bo'yicha qo'shma korxonalar tuzish to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnomada Amerikaning moylash materiallari ishlab chiqarish texnologiyalarini O'zbekistonga keltirish ko'zda tutiladi. Prezident I.Karimov va Tennessi shtatining gubernatori **T.Sandkvest** o'rtasida O'zbekistonda «**Gazomotors**» va «**Gazkompressor**» qo'shma korxonalarini tuzish to'g'risida hujjatlar imzolandi. O'zbekiston delegatsiyasining **Kolorado shtatiga** safari chog'ida I.Karimov va Kolorado shtati gubernatori **R.Romer** o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. **28-iyun** kuni I.Karimov «**Nyumont Mayning**» korporatsiyasining bosh qarorgohiga tashrif buyurib, uning Prezidenti **R.Kembri** bilan uchrashdi, muzokaralar o'tkazdi.

O'zbekistonda AQShning **28 ta** kompaniya, firma va banki vakolatxonalarini ochgan. Ular qo'shma korxonalar barpo etish, savdo-sotiqni kengaytirish ishiga ko'maklashmoqda. **2001-yili** O'zbekistonda AQSh bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar soni **70 dan** ortdi. AQSh sarmoyasi ishtirokida respublikamizda barpo etilgan **305 ta** qo'shma korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, gaz-kimyoye, neft, oltin qazib olish, transport, kommunikatsiya va ta'lim sohalarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. «**Zarafshon-Nyumont**», «**O'z-Teksako**», «**O'zKeysmash**», «**O'zKeystraktor**», «**O'z-Eksayd**»,

«VAL»ning Xo'jabod gaz ombori qurilishi, «AVV Lummus Global» bilan hamkorlikdagi Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi shular jumlasidandir. O'zbekistonning AQSh bilan savdo aylanmasi 300 mln AQSh dollaridan oshdi. Istiqloq yillarida yuzlab o'zbek yoshlari «Umid» jamg'armasi va AQSh hukumati dasturlari bo'yicha Amerika universitetlarida tahsil olib qaytdilar. 2001/2002-o'quv yilida AQShda ta'lim olayotgan yoshlar soni 2 ming kishini tashkil etdi.

O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi 1991-yildan 2001-yil sentyabr-gacha davlat ahamiyati darajasida 28 ta tashrif qayd etilgan bo'lsa, 2001-yil sentyabrdan 2002-yil apreligacha 20 ga yaqin ana shunday tashriflar amalga oshirildi. 2002-yil 11 – 14-mart kunlari Prezident I.Karimov davlat tashrifi bilan AQShda bo'ldi. AQSh Prezidenti J.Bush va martabali hukumat vakillari I.Karimovni Oq uyda kutib oldi. Tomonlar xalqaro ahvol, Markaziy Osiyodagi jarayonlar, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, harbiy va harbiy-texnikaviy, iqtisodiy hamkorlik masalalarida fikr almashdilar. Tashrif yakunida «O'zbekiston bilan AQSh o'rtasida o'zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida» deklaratsiya, ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo'jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

*O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan hamkorligi.* O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan aloqalari muhim ahamiyatga ega. 1996-yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim», uning 1999-yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi. 2005-yilgacha yurtimizda Ylga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonolari akkreditatsiya qilindi. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491 ta korxonalar ishlayapti, ulardan 111 tasi yuz foizlik Yevropa kapitaliga ega. 1995 – 2002-yillarda YI mamlakatlarining firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd AQSh dollarilik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. 2002-yili YI bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 1 mlrd 65,8 mln AQSh dollarini, 2003-yili 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2011-yil yanvar oyida Bryusselga tashrifi O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan NATO bilan munosabatlarining yangi sahifasini ochdi. Islom Karimovning Yevropa Ittifoqi Komissiyasi Prezidenti J.M.Barroso va NATO Bosh kotibi A.F.Rasmussen bilan muzokaralari natijasida O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi va NATO o'rtasida mintaqaviy va global xavfsiz-

lik hamda energetika kabi strategik masalalarga doir qator hujjatlar imzolandi. Mazkur kelishuvlar O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi va NATO o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga, afg'on muammosini hal etishning muqobil yo'llarini topishga xizmat qildi. O'zbekistonda Yevropa Ittifoqining vakolatxonasini ta'xis etish to'g'risida bitim imzolandi. Mazkur tashrif chog'ida imzolangan hujjatlar O'zbekistonda hamkorlik qilishga qiziqayotgan yevropalik sarmoyadorlar uchun katta imkoniyatlar ochdi. NATO rahbariyati O'zbekistonning mintaqada barqarorlikni saqlash, qo'shni Afg'onistondagi harbiy mojaroning yechimini topishda yordamini yuksak qadrlashini bildirdi.

O'zbekiston Prezidentining Germaniyaga 1993-yil 28-aprel kuni boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. I.Karimov GFR Federal Prezidenti Rixard fon Vayzenker va Federal kansleri Gelmut Kol bilan samimiy, o'zaro tenglik asosida, ishonch va hamkorlik to'g'risida, sarmoyalar qo'yishni amalga oshirish va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida bitimlar imzoladi. 1994-yil 1-sentyabrda Bonnda O'zbekistonning Yevropada birinchi elchixonasi ochildi, hozirda u Berlinda faoliyat yuritmoqda. Toshkent – Frankfurt havo yo'li yo'lga qo'yildi, «Doyche-bank»ning bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda.

1995-yil aprelda Germaniya Federal Prezidenti Roman Gersog yur-timizda bo'ldi. U O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 50 mingdan ortiq nemis millatiga mansub fuqarolarning hayoti bilan tanishdi. Germaniya-ni «Geydelberg» firmasi – O'zbekistonda nashriyot-matbaa sohasida hamkorlik qilayotgan yirik kompaniya. Uning uskunalari bilan Yangiyo'l kitob fabrikasi, Toshkent va Nukus poligrafiya kombinatlari, Samarqand-dagi «Tong» nashriyoti qayta jihozlandi. «Rastr» va «Groteks» nashri-yotlari «Geydelberg» firmasi texnologiyasi asosida ishlamoqda. 2001-yili O'zbekiston – Germaniya – Rossiya hamkorligidagi «Namangan qog'oz» qo'shma korxonasi ishga tushirildi.

I.Karimovning 2001-yil 2 – 5-aprel kunlari GFRga, Germaniya Federal kansleri Gerxard Shryoderning 2002-yil 9 – 10-may kunlari O'zbekistonga tashrifi hamkorlikni yanada mustahkamladi. 1997-yili O'zbekistonda 55 ta Germaniya kompaniyasi vakolatxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2001-yili bu ko'rsatkich 80 taga yetdi. Ularning eng yiriklari «Xobas TAPo», «Xiva Karpet» va boshqalardir. 2003-yili turli sohalarda germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida 138 ta korxonalar faoliyat ko'rsatdi, ulardan 40 tasi 100 foiz Germaniya kapitaliga ega. Germaniya



sarmoyalari hajmi **2001-yil**yoq **1 mlrd AQSh dollaridan** oshdi, o'rtadagi savdo aylanmasi shu yili **283,3 mln AQSh dollarini** tashkil etdi.

**1994-yil 9 – 12-iyun** kunlari O'zbekiston davlat delegatsiyasi **Niderlandiyada** bo'ldi, qirolicha **Veatriks** va hukumat boshlig'i – bosh vazir **Rudolf Lyubbers** bilan ikki tomonlama hamkorlik to'g'risida suhbatlar bo'ldi.

O'zbekiston bilan **Fransiya** o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. **1993-yil 28 – 30-oktyabr** kunlari O'zbekiston delegatsiyasining Fransiya tashrifi o'zaro hamkorlikka asos soldi. Prezident I.Karimov Fransiya Prezidenti **F.Mitteran**, boshqa rahbarlar va jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va muzokaralar yuritdi. Yurtboshimiz **Parij xartiyasini** imzolab, O'zbekistonning demokratiya g'oyalari sodiqligini tasdiqladi. O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik «**Kredit Kommersial de Frans**» banki o'rtasida muddaolar haqida bitim imzolandi, unda **Buxoroda** neftni qayta ishlash zavodi qurishga kelishildi. O'zbekiston mazkur bankka mablag' qo'ydi. Ana shu hamkorlik va hujjatlar qatoriga **1994-yil 25 – 27-aprel** kunlari **F.Mitteran**ning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi hamkorlikni mustahkamladi. **1996-yil aprel** oyida Prezident I.Karimov boshchiligidagi davlat delegatsiyasining Fransiya tashrifi ham samarali bo'ldi. O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalar kengayib bormoqda.

O'zbekiston **Buyuk Britaniya** bilan ham hamkorlik qilmoqda. **1993-yil 17 – 19-iyul** kunlari Buyuk Britaniya qirolichasining qizi **malika Anna** O'zbekistonda bo'ldi. **1993-yil 15-oktyabr** kuni Buyuk Britaniya tashqi ishlar va hamdo'stlik ishlari bo'yicha davlat vaziri **Duglas Xogning** yurtimizga safari chog'ida madaniyat va ta'lim sohasida hamkorlik, ikkiyoqlama soliq olmaslik to'g'risida bitimlar imzolandi.

**1993-yil 22 – 25-noyabr** kunlari I.Karimov boshliq delegatsiyaning Buyuk Britaniyada bo'lishi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha **Yelizaveta II**, Bosh vazir **J.Meyjor** bilan samimiy, ochiq, o'zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi bilan Buyuk Britaniya qirolligi o'rtasida o'zaro iqtisodiy aloqalar to'g'risida shartnoma, turli bitimlar imzolandi. Mashhur **Rotshildlar banki** hamda **Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki** bilan bitimlar tuzildi. Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki O'zbekistonda oltin qazib olish korxonalarini qurish uchun **150 mln AQSh dollari** ajratishga qaror qildi. **1996-yil boshlarida** O'zbekistonda **Britaniya Kengashi** bo'limining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi.

O'zbekistonning bir qator Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diploma-

tik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatildi. **Shveysariyaning Altendorf** shahrida O'zbekiston savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. **1995-yil oktyabrda Jenevada «O'zbekistonda xususiy lashtirish: hamkorlik uchun imkoniyatlar»** mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi. Shu yil **noyabr** oyida esa **Londonda** o'tgan **«O'zbekiston biznes»** konferensiyasida iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi. **Shtutgartda** bo'lib o'tgan **«Buyuk ipak yo'li merosi: O'zbekiston»** ko'rgazmasi mamlakatimizni dunyoga tanitishga ko'maklashdi.

Umuman, **2003-yili** respublikamizda xorijiy sarmoya ishtirokida barpo etilgan **2000 ta** qo'shma korxonalar jahondagi **80** mamlakatdan kelgan sheriklar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatdi. Ular iste'mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqardi, aholiga xizmat ko'rsatdi. Jahondagi **80 dan ortiq** xorijiy bank bilan o'zaro munosabatlar o'rnatildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonga kiritilgan chet el sarmoyalari **14 mlrd AQSh dollaridan** oshdi. Bir yilda taxminan **1 mlrd AQSh dollari** o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston jahondagi **140 mamlakat** bilan savdo-sotiq qilmoqda. Har yilgi tovar ayirboshlash hajmi **6 – 8 mlrd AQSh dollarini** tashkil etmoqda. Ilg'or mamlakatlar kadrlar tayyorlashda, bank sohasida va boshqaruvda, axborot tarmoqlarini yo'lga qo'yishda, yetakchi birjalar bilan aloqalar o'rnatishda, qonunchilik tajribasini o'rganishda ko'maklashmoqdalar. Xullas, O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

O'zbekiston Prezidentining **Davosda** har yili o'tadigan jahon iqtisodiy anjumanida ishtirok etishi va anjumanda so'zlagan nutqlari uning ishtirokchilarini, davlat va hukumat boshliqlarini, xalqaro moliya tashkilotlari, yirik banklar va kompaniyalarning rahbarlarini, qolaversa, jahon biznesmenlarini O'zbekiston bilan, uning salohiyati bilan tanishtirdi, O'zbekistonga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston tashqi siyosatining geografiyasi uzluksiz kengayib bormoqda. U mustaqillikni mustahkamlashga, xalq farovonligini va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. O'zbek diplomatiyasi xorijiy mamlakatlardan sadaqa so'rashga emas, ikki tomonlama manfaatdorlikka, insonparvarlikning yuksak va olijanob prinsiplariga tayanadi. Respublika Prezidenti I.Karimov qaysi mamlakatda bo'lmasin, avvalo, ulardagi ilg'or tajribani o'rganishga, foydali narsalarni topishga, ulardan foydalanishga alohida e'tibor beradi.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlardan respublikaga ilg'or texnologiyalar, sarmoya-

lar kirib kelishi, ko'plab qo'shma korxonalarining qurilishi oqilona tashqi siyosatning natijasidir.

Respublikamizda xorijiy sarmoya ishtirokida barpo etilgan **2000 dan ortiq** qo'shma korxonalar jahondagi **80 mamlakatdan** kelgan sheriklari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatdi. Ular iste'mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqarmoqda, aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Jahondagi **80 dan ortiq** xorijiy bank bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonga kiritilgan chet el sarmoyalari **30 mird AQSh dollaridan** oshdi. O'zbekiston jahondagi **140 mamlakat** bilan savdo-sotiq qilmoqda. Har yilgi tovar ayirboshlash hajmi **6 ~ 8 mird AQSh dollarini** tashkil etmoqda. Ilg'or mamlakatlar kadrlar tayyorlashda, bank sohasida va boshqaruvda, axborot tarmoqlarini yo'lga qo'yishda, yetakchi birjalar bilan aloqalar o'rnatishda, qonunchilik tajribasini o'rganishga respublikamizga ko'maklashmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.

Mustaqillikka erishilgandan keyin ham ichki va tashqi dushmanlar tomonidan o'ta xavfli xurujlar uyushtirildi. **1991-yil oktyabrda Oliy Kengashdagi** hamda **1992-yil yanvarda Toshkentning Talabalar shaharchasida** uyushtirilgan tartibsizliklar, **1999-yil fevralda Toshkentda** terrorchi guruhlar uyushtirgan portlashlar, **1999-, 2000-, 2001-yillarda Afg'oniston** hududida o'ziga uya qurib olgan terrorchi to'dalarning chegaralarimizga bostirib kirishi, **2004-yili Toshkent shahri, Buxoro va Toshkent viloyatlarida, 2005-yili Andijon shahrida** tashkil etilgan terrorchilik harakatlari kabi hollar xalq hamjihatligini buzish, mustaqillikka zarba berish uchun qilingan harakatlar edi. Ming shukurlar bo'lsinki, g'animlarning barcha urinishlari barbod bo'ldi.

Xalqimiz Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan «**Taraqqiyotning o'zbek modeli**»ni ro'yobga chiqarish yo'lida bunyodkorona mehnat qildi.

## ILOVALAR

- Mil. av. VII asr Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlari  
 Mil. av. VI – IV asrlar Ahamoniylar hukmronligi  
 Mil. av. 329 – 312-yillar Makedoniyalik Aleksandr imperiyasi tarkibida  
 Mil. av. 312 – 250-yillar Salavkiylar davlati tarkibida  
 Mil. av. 250 – 140 – 130-yillar Yunon-Baqtriya davlati  
 Mil. av. III asr – milodiy III asr Qang' davlati  
 Mil. av. III asr – milodiy II asr Dovon davlati

## Kushon shohlari

**1-variant (L.A.Borovkova tavsiyasi)**

- 20 – 80 Kujula Kadfiz (Kadfiz I)  
 80 – 103 Vima Kadfiz (Kushonning birinchi Buyuk imperatori)  
 103 – 125 Kanishka  
 125 – 131 Vasishka  
 131 – 162 Xuvishka  
 166 – 200 Vasudeva (oxirgi Buyuk imperator)

**2-variant:**

- 30 – 80 Kadfis I  
 80 – 103 Kadfis II  
 103 – 126 Kanishka I  
 126 – 130 Vasishka  
 130 – 143 Xuvishka I  
 143 – ? Kanishka II  
 ? – 166 Xuvishka II  
 166 – 200 Vasudeva I  
 200 – 222 Kanishka III  
 222 – 244 Vasudeva II

**3-variant:**

- 1 – 30 Geray  
 30 – 80 Kujula Kadfis (Kadfis I)  
 80 – 105 Vima Takto (Birinchi qutqaruvchi (Soter Megas)  
 105 – 127 Vima Kadfis (Kushonning birinchi Buyuk imperatori)  
 127 – 147 Kanishka I  
 151 – 155 Vasishka  
 155 – 187 Xuvishka  
 191 – 225 Vasudeva I (oxirgi Buyuk imperator)

- 226 – 240 Kanishka II  
 240 – 250 Vasishka  
 255 – 275 Kanishka III  
 290 – 310 Vasudeva II  
 310 – 325 Chxu  
 325 – 345 Shaka I  
 350 – 375 Kipunada

**4-variant (Robert Bresi tavsiya etgan):**

- Mil. av. 30 – mil.10 Sanab  
 10 – 60 Kujala Kadfiz  
 60 – 80 Vima Takto  
 80 – 115 Vima Kadfiz  
 115 – 137 Kanishka I  
 137 – 155 Xuvishka  
 155 – 163 Vasishka I  
 163 – 180 Kanishka II  
 180 – 233 Vasishka II (Vasudeva)  
 230 – 250 Kanishka III  
 250 – 260 Vasudeva II va Vasishka  
 260 – 300 Vasudeva II  
 300 – 330 Shaka  
 320 – 350 Gadaxara  
 335 – 336 Ksandesh  
 330 – 360 Kipanada  
 360 – 380 Kidara  
 III asr/IV asr – ? Yaxudeya

**Turk xoqonlari**

- 542 – 553 Bumin xoqon  
 553 – 554 Qora Issiq xon  
 572 – 581 Muqon xoqon  
 581 Amrak  
 581 – 587 Bag'a Ishbar xon  
 587 – 588 Chollig' Jabg'u-Bag'a xon  
 588 – 599 Yun-Ulug'  
 599 – 603 Qora Churin Turk

**G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlari**

- 603 – 604 Nili xon  
 604 Basil tegin

- 604 – 612 Taman xon  
 612 – 618 Sheguy xon  
 618 – 630 Tun Jabg'u xon  
 630 – 631 Kuluk Sibir xon  
 631 – 633 Si Jabg'u xon  
 633 – 634 Nishu Dulu xon  
 634 – 639 Ishbara Tolisshod xon  
 653 – 657 Xallik Ishbara Jabg'u xon  
 676 – 679 Ashina Duchji xon  
 693 – 704 Ashina Xushelo shod

### **Xulafoyi roshidin**

- 632 – 634 Abu Bakr  
 634 – 644 Umar ibn Xattob  
 644 – 656 Usmon ibn Affon  
 656 – 661 Ali ibn Abu Tolib

### **Umaviy xalifalar**

- 661 – 680 Mu'aviya I ibn Abu Sufyon  
 680 – 683 Yazid I  
 683 – 684 Mu'aviya II  
 684 – 685 Marvon I ibn Hakam  
 685 – 705 Abdulmalik  
 705 – 715 Al-Valid I  
 715 – 717 Sulaymon  
 717 – 720 Umar ibn Abdulaziz  
 720 – 724 Yazid II  
 724 – 743 Hishom  
 743 – 744 Al-Valid II  
 744 Yazid III  
 744 Ibrohim  
 744 – 750 Marvon II Himor

### **Abbosiy xalifalar**

- 749 – 754 As-Saffoh  
 754 – 775 Al-Mansur  
 775 – 785 Al-Mahdiy  
 785 – 786 Al-Hodiy  
 786 – 809 Horun ar-Rashid  
 809 – 813 Al-Amin  
 813 – 833 Al-Ma'mun

- 817 – 819 Ibrohim ibnu-l-Mahdiy (Bag'dodda)  
 833 – 842 Al-Mu'tasim  
 842 – 847 Al-Vasiq  
 847 – 861 Al-Mutavakkil  
 861 – 862 Al-Muntasir  
 862 – 866 Al-Musta'in  
 866 – 869 Al-Mu'tazz  
 869 – 870 Al-Muhtadiy  
 870 – 892 Al-Mu'tamid  
 892 – 902 Al-Mu'tazid  
 902 – 908 Al-Muqtafiy  
 908 – 932 Al-Muqtadir  
 932 – 934 Al-Qohir  
 934 – 940 ar-Roziy  
 940 – 944 Al-Muttaqiy  
 944 – 946 Al-Mustaqqiy  
 946 – 974 Al-Muti'  
 974 – 991 At-Toyi'  
 991 – 1031 Al-Qodir  
 1031 – 1075 Al-Qoyim  
 1075 – 1094 Al-Muqtadiy  
 1094 – 1118 Al-Muztazhir  
 1118 – 1135 Al-Mustarshid  
 1135 – 1136 Ar-Rashid  
 1136 – 1160 Al-Muqtadiy  
 1160 – 1170 Al-Mustanjid  
 1170 – 1180 Al-Mustaziy  
 1180 – 1225 An-Nosir  
 1225 – 1226 Az-Zohir  
 1226 – 1242 Al-Mustansir  
 1242 – 1258 Al-Musta'sim

### **Tohiriylar**

- 821 – 822 Tohir I ibn al-Husayn  
 822 – 828 Talha  
 828 – 845 Abdulloh  
 845 – 862 Tohir II  
 862 – 873 Muhammad

### **Somoniylar**

- 819 – 864 Ahmad I ibn Asad ibn Somon, Farg'ona hukmdori

864 – 907	Nasr I ibn Ahmad, dastlab Samarqand hukmdori
907	Ismoil I ibn Ahmad
907 – 943	Ahmad II ibn Ismoil
943	Al-Amir as-Sa'id Nasr II
943 – 954	Al-Amir al-Hamid Nuh I
954 – 961	Al-Amir al-Mu'vayyad Abdulmalik I
961 – 976	Al-Amir as-Sa'id Mansur I
976 – 997	Al-Amir ar-Rizo Nuh II
997 – 999	Mansur II
999 – 1000	Abdulmalik II
1000 – 1005	Ismoil II al-Muntasir

### **G'aznaviyalar**

962 – 963	Alptegin
977 – 997	Sobuqtegin
997 – 998	Ismoil
998 – 1030	Mahmud G'aznaviy
1030	Muhammad
1030 – 1041	Mas'ud
1041	Muhammad (ikkinchi marta)
1041 – 1048	Mavdid
1049 – 1051	Mas'ud II, Ali abul Hasan
1051 – 1099	Abdurashid
1099 – 1115	Mas'ud III
1117 – 1153	Sherzod, Arslon, Bahromshoh
1153 – 1160	Xusravshoh
1160 – 1186	Xusrav Malik

### **Qoraxoniylar**

Yagona xoqonlikning ulug' xoqonlari

? Ali ibn Muso

998 – 1015 Ahmad I Arslon Qoraxon (yoki To'g'onxon)

1015 – 1024 Mansur Arslonxon

1024 – 1026 Ahmad II To'g'onxon

1026 – 1032 Yusuf I Qodirxon

*G'arbiy xoqonlikning ulug' xoqonlari (Movarounnahr, Buxoro, Samarqand va Farg'onaning g'arbiy qismini qo'shgan holda)*

1041 – 1052 Muhammad Aynu-d-davla

1052 – 1068 Ibrohim I Bo'ri tegin Tamg'achxon

1068 – 1080 Nasr I

1080 – 1081 Xizr



- 1081 – 1089 Ahmad I  
 1089 – 1095 Ya'qub  
 1095 – 1097 Mas'ud I  
 1097 Sulaymon  
 1097 – 1099 Mahmud I  
 1099 – 1102 Jibroyil  
 1102 – 1129 Muhammad II  
 1129 Nasr II  
 1129 – 1130 Ahmad II  
 1130 – 1132 Hasan  
 1132 Ibrohim II  
 1132 – 1141 Mahmud II (keyinchalik Saljuqiy Sanjardan so'ng  
 Xuroson hukmdori)  
 1141 – 1156 Ibrohim III  
 1156 – 1204 Aliy  
 1204 – 1211 Usmon

#### **Anushtegin xorazmshohlar**

- 1077 – 1097 Anushtegin G'archaiy  
 1097 turkiy noib Ekinchi ibn Qo'chqor  
 1097 – 1127 Qutbiddin Muhammad  
 1127 – 1172 Alouddin Otsiz  
 1172 El Arslon  
 1172 Alouddin Takash  
 1172 – 1193 *Sultonshoh ibn El Arslon, Shimoliy  
 Xurosonda taxt talashgan hukmdor*  
 1200 – 1220 Alouddin Muhammad  
 1220 – 1231 Jaloliddin Manguberdi

#### **Chig'atoliylar**

- 1227 – 1241 Chig'atoy  
 1241 – 1247 Qora Hulogu  
 1247 – 1252 Esu Mo'ngka  
 1252 Qora Hulogu (ikkinchi marta)  
 1252 – 1261 O'rqina xotun  
 1261 – 1266 Alugu  
 1266 Muborakshoh  
 1266 – 1271 Baroq  
 1271 – 1272 Negubey (Nikpoy)  
 1272 – 1291 Tuka Temur  
 1291 – 1306 Duvo

- 1306 – 1308 Ko'nchak  
 1308 – 1309 Toliq  
 1309 Kebek (Kepak)  
 1309 – 1318 Esan Buqa I  
 1318 – 1326 Kebek (ikkinchi marta)  
 1326 Eljigiday  
 1326 Duvo Temur  
 1326 – 1334 Alouddin Tarmashirin  
 1334 Changshi  
 1334 – 1338 Buzan  
 1338 – 1342 Esun Temur  
 1342 – 1343 Muhammad  
 1343 – 1346 Qazon  
 1346 – 1348 Donishmanji  
 1348 – 1359 Sayan quli  
 1359 Shoh Temur  
 1396 – 1370 Tug'luq Temur

#### **Temuriylar**

- 1370 – 1405 Amir Temur  
 1409 – 1447 Shohrux ibn Temur  
 1447 – 1449 Ulug'bek ibn Shohrux  
 1451 – 1469 Abu Said ibn Sulton Muhammad  
*Movarounnahrda:*  
 1405 – 1409 Halil sulton  
 1409 – 1449 Ulug'bek  
 1449 – 1450 Abdullatif  
 1450 – 1451 Abdulloh mirzo  
 1451 – 1469 Abu Said ibn Sulton Muhammad  
 1469 – 1494 Sulton Ahmad ibn Abu Said  
 1494 – 1497 Sulton Mahmud ibn Said  
 1497 – 1498 Zahiriddin Bobur  
 1498 – 1500 Sulton Ali ibn Sulton Mahmud

#### **Xurosonda:**

- 1396 – 1447 Shohrux  
 1447 – 1449 Ulug'bek  
 1449 – 1457 Abulqosim Bobur  
 1457 – 1469 Abu Said ibn Sulton Muhammad  
 1469 – 1506 Sulton Husayn ibn Mirzo Mansur ibn Mirzo Boyqaro  
 1506 – 1507 Badiuzzamon ibn Sulton Husayn

**Shayboniylar**

- 1500 – 1510 Muhammad Shayboniy  
 1510 – 1531 Ko'chkunju  
 1531 – 1534 Muzaffaruddin Abu Sa'id  
 1534 – 1539 Abulg'oziy  
 1539 – 1540 Abdulloh I  
 1540 – 1552 Abdullatif  
 1552 – 1556 Navro'z Ahmad  
 1556 – 1561 Pir Muhammad I  
 1561 – 1583 Iskandar  
 1583 – 1598 Abdulloh II  
 1598 Abdulmo'min  
 1598 Pirmuhammad II

**Boburiylar**

- 1526 – 1530 Zahiriddin Muhammad Bobur  
 1530 – 1540 Nosiruddin Humoyun  
 1540 – 1555 Dehlining Suriy sultonlari  
 1555 – 1556 Humoyun (ikkinchi marta)  
 1556 – 1605 Jaloluddin Akbar I  
 1605 – 1627 Nuruddin Jahongir  
 1627 – 1628 Dovar Baxsh  
 1628 – 1657 Hishobuddin Shoh Jahon I  
 1657 Murod Baxsh (Gujarotda)  
 1657 – 1967 Shoh Shujo (Bengaliyada 1660-yilgacha)  
 1667 – 1707 Muhyinuddin Avrangzeb Olamgir I  
 1707 A'zamshoh  
 1707 Kom Baxsh (Dakanda)  
 1707 – 1712 Shoh Olam I Bahodirshoh I  
 1712 Azimu-sh-Shon  
 1712 – 1713 Mu'izuddin Jahondor  
 1713 – 1719 Farrux Siyar  
 1719 Shamsuddin Rafi'u-d-Darajot  
 1719 Rafi'u-d-davla Shoh Jahon II  
 1719 Nigu Siyar  
 1719 – 1748 Nosiruddin Muhammad  
 1748 – 1754 Ahmadshoh Bahodur  
 1754 – 1760 Azizuddin Olamgir II  
 1760 Shoh Jahon III  
 1760 – 1788 Jaloluddin Aliy Javhar Shoh Olam II  
 1788 Bidorbaxt

- 1788 – 1806 Shoh Odam II (ikkinchi marta)  
 1806 – 1837 Mu'inuddin Akbar II  
 1837 – 1858 Sirojuddin Bahodurshoh II

### **Ashtarxoniylar**

- 1601 – 1605 Boqi Muhammad ibn Jonibek sultori  
 1605 – 1611 Vali Muhammad ibn Jonibek sulton  
 1611 – 1642 Imomqulixon ibn Boqi Muhammadxon  
 1642 – 1645 Nodir Muhammad ibn Dinmuhammad  
 1645 – 1681 Abdulaziz ibn Nodir Muhammad  
 1681 – 1702 Subhonqulixon ibn Nodir Muhammad  
 1702 – 1711 Ubaydullaxon ibn Subhonqulixon  
 1711 – 1747 Abulfayzxon ibn Subhonqulixon  
 1747 – 1748 Abdulmo'min ibn Abulfayzxon  
 1748 – 1756 Ubaydulla ibn Abulfayzxon

### **Mang'itlar**

- 1756 – 1758 Muhammad Rahimxon ibn Hakimbiy  
 1758 – 1785 Doniyolbiy otaliq ibn Xudoyorbiy  
 1785 – 1800 Amir Shohmurod ibn Amir Doniyolbiy  
 1800 – 1826 Amir Haydar ibn Amir Shohmurod  
 1826 – 1860 Amir Nasrullo ibn Amir Haydar  
 1860 – 1885 Amir Muzaffar ibn Amir Nasrullo  
 1885 – 1910 Amir Abdulahadxon ibn Muzaffar  
 1910 – 1920 Amir Olimxon ibn Amir Abdulahadxon

### **Xiva shayboniylari**

- 1511 – 1516 Elbarsxon  
 1516 – 1522 Sifiyonxon  
 1522 – 1526 Bujakxon  
 1526 – 1538 Avaneshton  
 1538 – 1547 Alixon  
 1547 – 1556 Akashoyxon  
 1556 – 1557 Yunusxon  
 1557 – 1558 Do'stxon  
 1558 – 1602 Hoji Muhammadxon (Hojimxon)  
 1602 – 1621 Arab Muhammadxon  
 1621 – 1623 Habash sulton va Elbars sulton  
 1623 – 1643 Asfandiyorxon  
 1644 – 1663 Abulg'uzi Bahodirxon  
 1663 – 1686 Anushaxon

**Shayboniylar**

- 1500 – 1510 Muhammad Shayboniy  
 1510 – 1531 Ko'chkunju  
 1531 – 1534 Muzaffaruddin Abu Sa'id  
 1534 – 1539 Abulg'oziy  
 1539 – 1540 Abdulloh I  
 1540 – 1552 Abdullatif  
 1552 – 1556 Navro'z Ahmad  
 1556 – 1561 Pir Muhammad I  
 1561 – 1583 Iskandar  
 1583 – 1598 Abdulloh II  
 1598 Abdulmo'min  
 1598 Pirmuhammad II

**Boburiylar**

- 1526 – 1530 Zahiriddin Muhammad Bobur  
 1530 – 1540 Nosiruddin Humoyun  
 1540 – 1555 Dehlining Suriy sultonlari  
 1555 – 1556 Humoyun (ikkinchi marta)  
 1556 – 1605 Jaloluddin Akbar I  
 1605 – 1627 Nuruddin Jahongir  
 1627 – 1628 Dovar Baxsh  
 1628 – 1657 Hishobuddin Shoh Jahon I  
 1657 Murod Baxsh (Gujarotda)  
 1657 – 1967 Shoh Shujo (Bengaliyada 1660-yilgacha)  
 1667 – 1707 Muhyinuddin Avrangzeb Olamgir I  
 1707 A'zamshoh  
 1707 Kom Baxsh (Dakanda)  
 1707 – 1712 Shoh Olam I Bahodirshoh I  
 1712 Azimu-sh-Shon  
 1712 – 1713 Mu'izuddin Jahondor  
 1713 – 1719 Farrux Siyar  
 1719 Shamsuddin Rafi'u-d-Darajot  
 1719 Rafi'u-d-davla Shoh Jahon II  
 1719 Nigu Siyar  
 1719 – 1748 Nosiruddin Muhammad  
 1748 – 1754 Ahmadshoh Bahodur  
 1754 – 1760 Azizuddin Olamgir II  
 1760 Shoh Jahon III  
 1760 – 1788 Jaloluddin Aliy Javhar Shoh Olam II  
 1788 Bidorbaxt

- 1788 – 1806 Shoh Odam II (ikkinchi marta)  
 1806 – 1837 Mu'inuddin Akbar II  
 1837 – 1858 Sirojuddin Bahodurshoh II

### **Ashtarxoniyalar**

- 1601 – 1605 Boqi Muhammad ibn Jonibek sulton  
 1605 – 1611 Vali Muhammad ibn Jonibek sulton  
 1611 – 1642 Imomqulixon ibn Boqi Muhammadxon  
 1642 – 1645 Nodir Muhammad ibn Dinmuhammad  
 1645 – 1681 Abdulaziz ibn Nodir Muhammad  
 1681 – 1702 Subhonqulixon ibn Nodir Muhammad  
 1702 – 1711 Ubaydullaxon ibn Subhonqulixon  
 1711 – 1747 Abulfayzxon ibn Subhonqulixon  
 1747 – 1748 Abdulmo'min ibn Abulfayzxon  
 1748 – 1756 Ubaydulla ibn Abulfayzxon

### **Mang'itlar**

- 1756 – 1758 Muhammad Rahimxon ibn Hakimbiy  
 1758 – 1785 Doniyolbiy otaliq ibn Xudoyorbiy  
 1785 – 1800 Amir Shohmurod ibn Amir Doniyolbiy  
 1800 – 1826 Amir Haydar ibn Amir Shohmurod  
 1826 – 1860 Amir Nasrullo ibn Amir Haydar  
 1860 – 1885 Amir Muzaffar ibn Amir Nasrullo  
 1885 – 1910 Amir Abdulahadxon ibn Muzaffar  
 1910 – 1920 Amir Olimxon ibn Amir Abdulahadxon

### **Xiva shayboniyarlari**

- 1511 – 1516 Elbarsxon  
 1516 – 1522 Sifiyonxon  
 1522 – 1526 Bujaxon  
 1526 – 1538 Avaneshton  
 1538 – 1547 Alixon  
 1547 – 1556 Akashoyxon  
 1556 – 1557 Yunusxon  
 1557 – 1558 Do'stxon  
 1558 – 1602 Hoji Muhammadxon (Hojimxon)  
 1602 – 1621 Arab Muhammadxon  
 1621 – 1623 Habash sulton va Elbars sulton  
 1623 – 1643 Asfandiyorxon  
 1644 – 1663 Abulg'ozil Bahodirxon  
 1663 – 1686 Anushaxon

- 1686 – 1688 Xudoyorxon  
1688 – 1690 O'zbekxon – Arnakxon  
1694 – 1697 Juchi sulton  
1697 – 1699 Valixon  
1699 – 1702 Shohniyozxon  
1702 – 1703 Shohbaxtixon  
1703 – 1705 Sayid Alixon  
1705 – 1706 Musaxon  
1706 – 1713 Yodgorxon  
1714 – 1728 Sherg'ozixon  
1728 – 1739 Elbarsxon  
1739 – 1740 Tohirxon  
1740 – 1742 Nuralixon  
1742 – 1746 Abulg'ozixon (Abu Muhammad) II  
1746 – 1756 G'oyib ibn Botir  
1756 – 1757 Qoraboyxon  
1757 – 1764 Temurg'ozixon  
1764 – 1765 Xudoydodxon  
1768 Nuralixon  
1769 Jahongirxon  
1770 Bulakayxon  
1776 – 1777 Shohg'ozixon  
1777 Abulg'ozixon

### **Xiva qo'ng'irotlari**

- 1770 – 1790 Muhammad Amin  
1790 – 1804 Avaz Muhammad inoq  
1804 – 1806 Eltuzarxon  
1806 – 1825 Muhammad Rahimxon  
1825 – 1842 O'lohqulixon  
1842 – 1845 Rahimqulixon  
1845 – 1855 Muhammad Aminxon  
1855 – 1856 Abdullaxon  
1856 Qutlug'murodixon  
1856 – 1864 Sayid Muhammadxon  
1864 – 1910 Muhammad Rahimxon II  
1910 – 1918 Asfandiyorxon  
1918 – 1920 Sayid Abdullaxon

### **Qo'qon xonlari**

- 1709 – 1721 Shohruxbiy

---

1721 – 1733	Abdurahimbiy
1733 – 1750	Abdulkarimbiy
1750	Abdurahmon
1751 – 1752, 1753 – 1762	Erdona
1752 – 1753	Bobobek
1762 – 1763	Sulaymon
1763 – 1798	Norbo'tabiy
1798 – 1810	Olimxon
1810 – 1822	Amir Umarxon
1822 – 1842	Muhammad Alixon
1842 – 1844	Sheralixon
1844	Murodxon
1845 – 1858, 1862 – 1863, 1865 – 1875	Xudoyorxon
1858 – 1862	Mallaxon
1863	Sulton Sa'idxon
1875	Nasriddinbek

#### **Turkiston general-gubernatorlari**

1867 – 1881	K.P.Kaufman
1881 – 1882	G.A.Kolpakovskiy
1882 – 1884	M.G.Chernyayev
1884 – 1889	N.O.Rozenbax
1889 – 1898	A.B.Vrevskiy
1898 – 1901	V.M.Duxovskiy
1901 – 1904	N.I.Ivanov
1904 – 1905	P.N.Tevyashov
1905 – 1906	D.I.Subbotich
1906 – 1908	N.I.Grodekov
1908 – 1909	I.Meshchenko
1909 – 1913	A.V.Samsonov
1913 – 1915	N.Flug
1915 – 1916	F.Martson
1916 – 1917	A.N.Kuropatkin



### Qisqacha izohli lug'at

- Alg'ut – bir yo'la to'lanadigan soliq.
- Amid ul-mulk – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir – hukmdor, davlat boshlig'i.
- Amiri shikor – xonlarning ovini tashkil etuvchi amaldor.
- Amirulumaro – lashkarboshi, sarkarda.
- Amluk – davlat yerlari.
- Animizm – insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga **ishonish**.
- Ark – shaharning hokim qasri joylashgan qismi.
- Arkon – dindagi eng muhim vazifa.
- Bakovul – Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqargan amaldor.
- Biy, bek – qabila, viloyat boshlig'i.
- Budun – chorvador aholi.
- Dinor – 4,235 g vazndagi oltin tanga.
- Dishon (tish – tashqari) – tashqi qal'a, shahriston.
- Darbon – amir qarorgohi eshigida turuvchi soqchi.
- Dasturxonchi – xon huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.
- Degrez – cho'yandan qozon quyuvchi.
- Dehqon – ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa, keyinchalik qishloqning oddiy mehnatkash aholisi.
- Devonbegi – davlatning moliya-xazina ishlarini boshqaruvchi amaldor.
- Devorzan – paxsakash, g'ishtdan devor uruvchi.
- Dodxoh – fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi hamda hal qiluvchi amaldor.
- Dorug'a – shahar va tuman hokimi, mudofaa mutasaddisi.
- Eloqxon – el-yurt hokimi.
- Etnogenez – biror-bir xalqning tarkib topish jarayoni, kelib chiqish ildizi.
- Falsafa – hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o'rganuvchi fan.
- Farmon – qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq.
- Fiqh – ilohiyotshunoslik, shariat qonun-qoidalari haqidagi fan.
- Fulus – mayda mis chaqa pul.
- Hasham – hukmdorga yaqin kishilar.
- Hojib – harbiy boshliq.
- Hudaychi – Buxoro amirligida har xil tadbirlarni uyushtiruvchi amaldor.
- Inoqlar – qabila boshliqlaridan iborat xonning maslahatchilari hamda xon farmonlarini o'z tobelariga yetkazuvchilar.
- Islahot – biror sohani tubdan qayta tashkil etish, o'zgartirish.

Islom («bo'ysunish», «itokat etish») – dunyo dinlaridan biri.

Ixshid – viloyat hokimi.

Ichkilar – xonning maxsus ishonchli xizmatchilari.

Jirov – o'lan, doston aytuvchi, baxshi.

Jizya – islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan soliq.

Juftigov – qo'sh ho'kiz yordamida bir kunda haydaladigan yer (8 – 9 gektarga yaqin).

Jul – Buxoro amirligida urush uchun olinadigan soliq.

Jo'ybon – suv taqsimlovchi mirob.

Ko'kaldosh – xonning eng ishonchli kishisi, maslahatgo'yi.

Kudungar – matoga ohor beruvchi.

Kuren – lager, qo'sh.

Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram bo'lib qolgan ahli.

Kalom – islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm.

Kalon – hosilning 1/10 qismi hajmida olingan soliq.

Kanaxona – zindon, yer osti turmasi.

Kashovarz – ziroatchi oddiy qo'shchilar.

Ka'ba – Makka shahridagi muqaddas ibodatxona.

Madrasa – oliy islom diniy ta'lim muassasasi.

Mardikor – yollanma mehnatchi.

Matriarxat – eng qadimgi tuzum rivojidadagi bir bosqich. Bunda qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilanib, urug' va oila boshlig'i ayol kishi bo'lgan.

Metafizika – sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.

Mingboshi – Qo'qon xonligida bosh vazir va qo'shinlar qo'mondoni.

Mirobboshi – suv ta'minoti boshlig'i.

Miroxo'r – xon otxonasi boshlig'i.

Mirshab – tungi qorovul boshlig'i.

Moli omon – o'rta asrlarda mag'lub shahar talon-toroj qilingan yoki uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

Movarounnahr – arabcha «daryoning narigi tomoni».

Mudarris – madrasa muallimi.

Muftiy – diniy-huquqiy masalalarda fatvo (qaror) chiqaruvchi mansabdor.

Hozirda diniy idora boshlig'i.

Muhtasib – aholi tomonidan shariat qoida, tartiblarining bajarilishini nazorat qiluvchi.

Muhassil – soliq undiruvchi.

Mulk – xususiy yerlar.

Muqanna – niqobli kishi.

Murid – eshon, ma'naviy pirning izdoshi, shogirdi.

### Qisqacha izohli lug'at

- Alg'ut – bir yo'la to'lanadigan sofiq.
- Amid ul-mulk – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
- Amir – hukmdor, davlat boshlig'i.
- Amiri shikor – xonlarning ovini tashkil etuvchi amaldor.
- Amirulumaro – lashkarboshi, sarkarda.
- Amlok – davlat yerlari.
- Animizm – insonni o'rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish.
- Ark – shaharning hokim qasri joylashgan qismi.
- Arkon – dindagi eng muhim vazifa.
- Bakovul – Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqargan amaldor.
- Biy, bek – qabila, viloyat boshlig'i.
- Budun – chorvador aholi.
- Dinor – 4,235 g vazndagi oltin tanga.
- Dishon (tish – tashqari) – tashqi qal'a, shahriston.
- Darbon – amir qarorgohi eshigida turuvchi soqchi.
- Dasturxonchi – xon huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.
- Degrez – cho'yandan qozon quyuvchi.
- Dehqon – ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa, keyinchalik qishloqning oddiy mehnatkash aholisi.
- Devonbegi – davlatning moliya-xazina ishlarini boshqaruvchi amaldor.
- Devorzan – paxsakash, g'ishtdan devor uruvchi.
- Dodxoh – fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi hamda hal qiluvchi amaldor.
- Dorug'a – shahar va tuman hokimi, mudofaa mutasaddisi.
- Eloqxon – el-yurt hokimi.
- Etnogenez – biror-bir xalqning tarkib topish jarayoni, kelib chiqish ildizi.
- Falsafa – hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o'rganuvchi fan.
- Farmon – qonun kuchiga ega bo'lgan buyruq.
- Fiqh – ilohiyotshunoslik, shariat qonun-qoidalari haqidagi fan.
- Fulus – mayda mis chaqa pul.
- Hasham – hukmdorga yaqin kishilar.
- Hojib – harbiy boshliq.
- Hudaychi – Buxoro amirligida har xil tadbirlarni uyushtiruvchi amaldor.
- Inoqlar – qabila boshliqlaridan iborat xonning maslahatchilari hamda xon farmonlarini o'z tobelariga yetkazuvchilar.
- Islahot – biror sohani tubdan qayta tashkil etish, o'zgartirish.

Islom («bo'ysunish», «itoat etish») – dunyo dinlaridan biri.

Ixshid – viloyat hokimi.

Ichkilar – xonning maxsus ishonchli xizmatchilari.

Jirov – o'lan, doston aytuvchi, baxshi.

Jizya – islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan soliq.

Juftigov – qo'sh ho'kiz yordamida bir kunda haydaladigan yer (8 – 9 gektaga yaqin).

Jul – Buxoro amirligida urush uchun olinadigan soliq.

Jo'ybon – suv taqsimlovchi mirob.

Ko'kaldosh – xonning eng ishonchli kishisi, maslahatgo'yi.

Kudungar – matoga ohor beruvchi.

Kuren – lager, qo'sh.

Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram bo'lib qolgan ahli.

Kalom – islom diniy ta'limotini asoslab beruvchi diniy ilm.

Kalon – hosilning 1/10 qismi hajmida olingan soliq.

Kanaxona – zindon, yer osti turmasi.

Kashovarz – ziroatchi oddiy qo'shchilar.

Ka'ba – Makka shahridagi muqaddas ibodatxona.

Madrasa – oliy islom diniy ta'lim muassasasi.

Mardikor – yollanma mehnatchi.

Matriarxat – eng qadimgi tuzum rivojidagi bir bosqich. Bunda qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilanib, urug' va oila boshlig'i ayol kishi bo'lgan.

Metafizika – sezgilar vositasida anglab olish mumkin bo'lmagan obyektlarni (sifat, mazmun, mohiyat, hodisa) tadqiq etuvchi fan.

Mingboshi – Qo'qon xonligida bosh vazir va qo'shinlar qo'mondoni.

Mirobboshi – suv ta'minoti boshlig'i.

Miroxo'r – xon otxonasi boshlig'i.

Mirshab – tungi qorovul boshlig'i.

Moli omon – o'rta asrlarda mag'lub shahar talon-toroj qilingan yoki uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

Movarounnahr – arabcha «daryoning narigi tomoni».

Mudarris – madrasa muallimi.

Muftiy – diniy-huquqiy masalalarda fatvo (qaror) chiqaruvchi mansabdor. Hozirda diniy idora boshlig'i.

Muhtasib – aholi tomonidan shariat qoida, tartiblarining bajarilishini nazorat qiluvchi.

Muhassil – soliq undiruvchi.

Mulk – xususiy yerlar.

Muqanna – niqobli kishi.

Murid – eshon, ma'naviy pining izdoshi, shogirdi.

Mushrif – xon in'om etgan buyumlarni, harbiy anjomlarni ro'yxatga oluvchi, soliq tizimlarini qayd etuvchi amaldor.

Muzoriy – ekin maydonlariga ishlov beruvchi yollanma ziroatchi.

Najjorlik – duradgorlik.

Pandus – maxsus ko'tarma.

Parvonachi – biror lavozimga tayinlangan kishiga uning shu lavozimga tayinlanganini yetkazuvchi amaldor.

Patriarxat – insoniyat rivojining bir bosqichi. Bunda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ota tomonga qarab belgilangan.

Poykor – kichik mirob.

Qam-shomon – Ko'k tangriga sig'inuvchi yakkaxudolik dini.

Qopchur – chorva mollari bosh sonining 1% miqdorida solinadigan soliq.

Qoraqozoqlar – oddiy ko'chmanchi xalq.

Qoraxon – ulug' xon.

Qozi – shariat qonunlari bo'yicha hukm (qaror) chiqaruvchi, sudya.

Qozikalon – davlatning sud ishlarini bajaruvchi amaldor.

Qo'sh – harbiy yurishlar paytidagi hukmdor qarorgohi, o'rdi, lager.

Qo'shbegi – bosh vazir.

Rabod – shaharning tashqi mavzesi.

Sadr – in'om etilgan vaqf mulklarini boshqaruvchi.

Sahhofilik – muqovasozlik.

Salg'ut – yer solig'ining bir turi.

Sanad – shahodatnoma.

Sarbadorlar – boshini dorga tikkanlar. Mo'g'ullar zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni qatnashchilari.

Sarhang – kichik lashkarboshi.

Sarrof – pul bo'yicha mutaxassis. U pul almashtirib berish bilan shug'ullangan.

Sarrojlik – egar-jabduq yasash.

Sayyidlar – Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi Husayn avlodlari.

Sinjob – silovsin, mo'yi o'siq olmaxon terisidan bo'lgan po'stin.

Sohibqiron – jahongir, saodatli, zafarli, g'olib hukmdor.

Suyurg'ol – oliy hukmdor tomonidan in'om tariqasida berilgan yer-mulk.

So'g'ush – har bir ko'chmanchining o'z xo'jayiniga so'yib berishi kerak bo'lgan soliq.

Tabl – katta nog'ora.

Takin – viloyat hokimi.

Tamg'a – savdo boji; savdogarlardan olinadigan soliq.

Tamg'achxon – xonlar xoni.

Tanho – katta xizmatlar evaziga beriladigan mulk, pul.

- Tanob – tomonlari 60 gazdan iborat yer maydoni (900 m<sup>2</sup>, gaz – 71 sm).
- Tariqat – komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l.
- Tarxonlik yeri – har qanday soliqdan va jarimadan ozod etilgan yerlar.
- Tasavvuf – islomning ruhiy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan qismi.
- Tavochi – mamlakat miqyosida qo'shin to'plovchi maxsus amaldor.
- Tog'or – qo'shinning ta'minoti uchun to'planadigan oziq-ovqat solig'i.
- Tudun – viloyat hokimi.
- To'brez – to'p quyuvchi.
- To'qsoba – xon tug'i sohibi, keyinchalik harbiy amaldor.
- Ufamo – din olimlari.
- Uruj – yuksalish, yuqori ko'tarilish, ko'kka ko'tarilish.
- Ushr – idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi hisobida olingan soliq.
- Valiahd – taxt vorisi.
- Vaqf – diniy muassasalar, masjid, madrasa va mozorlarga ajratilgan mol-mulk.
- Vazir – devonxona boshlig'i.
- Yabg'u – el-yurt hokimi.
- Yabg'u xoqon – xoqon urug'idan bo'lgan el-yurt hokimi.
- Yaksara – Buxoro amirligida ish hayvoni uchun olinadigan soliq.
- Yasovul – xon, amir farmonlarini ijrochilarga yetkazuvchi.
- Yosoq – mo'g'ullarning huquqiy qonunlari to'plami.
- Zakot – mol-mulkning 1/40 qismi hajmida olingan soliq.
- Oshlig' solig'i – urush paytida yig'iladigan soliq.
- Otaliq – shahzodalarga murabbiy etib tayinlangan shaxs.
- Xiroj – hosilning 1/3 qismi hajmida olingan yer solig'i.
- Xutba – juma namozida hukmdor nomini aytib uning haqiga duo o'qish.
- Xatib – namozda xutba o'qiydigan ruhoni.
- Xonaqoh – darveshlar uchun maishiy xonalar va masjididan iborat yotoqxona.
- Xoqon – buyuk hukmdor, podshoh, imperator.
- O'rda – davlat hukmdorining qarorgohi; ayni paytda, turgan joyi.
- G'ozi – din uchun kurashuvchi, uni himoya etuvchi.
- Shad – o'n ming qo'shin qo'mondoni.
- Shahriston – shaharning ichki qismi.
- Shayxulislom – qozilik ishlari boshqaruvchisi, kundalik hayotda shariat qoidalariga rioya etilishini ta'minlovchi amaldor.
- Chingiz – kuchli, qudratli, toza.
- Chokar – dehqonning hayotini va mol-mulkini qo'riqlovchi, harbiy posbon.
- Chorsu (chorsiq) (so'g'dcha «su», «suq» – bozor) – bozor joyi.

## MUNDARIJA

### 1-BOB. VATANIMIZ XALQLARI ENG QADIMGI DAVRDA

1.1. Sivilizatsiyalarning boshlanishi .....	3
1.2. Eng qadimgi odam rivojining ilk bosqichlari .....	5
1.3. Urug'chilik jamiyati .....	6
1.4. Eneolit va bronza asri ziroatchilari.....	8
1.5. Temir davriga o'tish paytida O'rta Osiyo.....	9
1.6. Ilk sivilizatsiyalarning vujudga kelish davri.....	10
1.7. O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq .....	11
1.8. O'zbekiston hududidagi ilk davlatlar .....	13
1.9. Zardushtiylik .....	15

### 2-BOB. MILODDAN AVVALGI VI – IV ASRLARDA O'RTA OSIYO

2.1. O'rta Osiyoga ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari .....	17
2.2. O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi.....	19
2.3. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi .....	22
2.4. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlatlari.....	23
2.5. Kushon podsholigi .....	25
2.6. Buyuk ipak yo'li.....	27

### 3-BOB. ILK O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

3.1. Yer-suv munosabatlari .....	30
3.2. Ilk o'rta asr davlatlari.....	31
3.3. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot .....	34
3.4. O'rta Osiyo Turk xoqonligi davrida.....	35
3.5. G'arbiy turk xoqonligi .....	37
3.6. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi .....	39
3.7. VI – VII asrlarda madaniy hayot .....	41

### 4-BOB. ARABLAR ISTILOS, UNING OQIBATLARI, XALQ QO'ZG'OLONLARI

4.1. Arablarning O'rta Osiyoni fath etishi.....	43
4.2. Bosqin oqibatlari .....	45
4.3. Arablar hukmronligiga qarshi xalq harakatlari .....	46

4.4. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr .....	47
4.5. «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni .....	49

## **5-BOB. IX – XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MUSTAQIL DAVLATLARNING SHAKLLANISHI**

5.1. Xalifalik hukmronligining zaiflashuvi, mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi .....	52
5.2. Somoniylar davlati .....	54
5.3. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot .....	56
5.4. IX – X asrlarda yer-mulk munosabatlari. Somoniylar sulolasi inqirozi ..	59
5.5. Qoraxoniylar davlati .....	61
5.6. XI – XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot .....	63
5.7. Xorazmshohlar davlati .....	65

## **6-BOB. IX – XIII ASRLARDA MADANIY HAYOT**

6.1. O'rta Osiyoda ilm-fan ravnaqi .....	67
6.2. Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX – XIII asr boshlari) .....	69
6.3. Me'morchilik, san'at, musiqa va diniy e'tiqod .....	71
6.4. Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi .....	73

## **7-BOB. MO'G'ULLAR ISTILOSII**

7.1. Xorazmshohlar saltanati bilan Mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar ...	75
7.2. Chingizxon bosqini .....	77
7.3. Xorazmshohlar davlatining halokati .....	79
7.4. Chig'atoy ulusining tashkil topishi. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni .....	81
7.5. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning jonlanishi .....	84

## **8-BOB. AMIR TEMUR SALTANATI**

8.1. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi .....	87
8.2. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi .....	89
8.3. Amir Temurning harbiy yurishlari .....	91
8.4. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi .....	93
8.5. Mamlakat obodonchiligi yo'lida .....	95
8.6. G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalar .....	97

## **9-BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT**

9.1. Temuriylar o'rtasidagi taxt uchun kurash .....	100
---	-----



9.2. Ulug'bek – ma'rifatparvar davlat arbobi .....	101
9.3. Temuriylar saltanati inqirozi .....	103
9.4. Dehqonchilik, yer egaligi.....	105
9.5. Hunarmandchilik va savdo .....	107
9.6. Ilm-fan taraqqiyoti.....	109
9.7. Madaniy hayot .....	111

## **10-BOB. MOVAROUNNAHR SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA**

10.1. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahrda siyosiy vaziyat....	114
10.2. Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol, Muhammad Shayboniyxon .....	117
10.3. Movarounnahrda shayboniylar sulolasi hokimiyatining o'rnatilishi .....	119
10.4. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi va mashhur mutafakkir .....	121
10.5. Buxoro xonligi.....	125
10.6. O'zbek xalqining etnik tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar .....	128
10.7. XVI asrda Buxoro xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot .....	129
10.8. Buxoro xonligining tashqi siyosati.....	132
10.9. XVI asrda Buxoro xonligida madaniy hayot.....	135

## **11-BOB. ASHTARXONIYLAR DAVRIDA BUXORO XONLIGI**

11.1. Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi.....	139
11.2. XVIII asrning 1-yarmida Buxoro xonligida siyosiy tarqoqlikning kuchayishi va uning oqibatlari .....	141
11.3. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot .....	144
11.4. Ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayot.....	147

## **12-BOB. BUXORO AMIRLIGI**

12.1. Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi .....	151
12.2. Amirlik davlat tuzumi va uning ma'muriy boshqaruvi.....	153
12.3. Amirlikning xo'jalik hayoti.....	154
12.4. Amirlik shaharlari hayoti va savdo-sotiq ishlari .....	156
12.5. Buxoro amirligi XIX asrning 1-yarmida .....	158
12.6. Buxoro amirligida madaniy hayot .....	160

## **13-BOB. XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI. XVI – XVIII ASRNING 1-YARMIDA XONLIKNING IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI**

13.1. Xiva xonligining tashkil topishi.....	163
13.2. XVII – XVIII asrning 1-yarmida Xiva xonligidagi siyosiy ahvol.	

Xiva xonligida siyosiy parokandalik .....	164
13.3. Xiva xonligining iqtisodiy va madaniy hayoti.....	166

#### **14-BOB. XVIII ASRNING 2-YARMI VA XIX ASRNING 1-YARMIDA XIVA XONLIGI**

14.1. Xiva xonligida qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi ....	170
14.2. Xiva xonligining tashqi siyosati.....	172
14.3. Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	175
14.4. Xiva xonligida shaharlar hayoti.....	177
14.5. Xiva xonligi tarixi bo'yicha manbalar.....	180

#### **15-BOB. XVI – XIX ASRNING 1-YARMIDA QORAQALPOQLAR**

15.1. Qoraqalpoq xalqining shakllanishi va siyosiy hayoti.....	183
15.2. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti .....	185
15.3. Qoraqalpoq xalqi madaniyati.....	187
15.4. XVIII – XIX asrlarda qoraqalpoq adabiyoti ravnaqi.....	189

#### **16-BOB. XVIII – XIX ASRNING 1-YARMIDA QO'QON XONLIGI**

16.1. Qo'qon xonligining tashkil topishi .....	192
16.2. XVIII asrning 2-yarmi – XIX asr boshlarida Toshkent .....	194
16.3. XIX asrning 1-yarmida Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli .....	196
16.4. Qo'qon xonligida iqtisodiy hayot.....	199
16.5. Qo'qon xonligi shaharlari.....	200
16.6. Qo'qon xonligida madaniy hayot .....	202
16.7. Tarixnavislik, san'at va me'morchilik.....	204

#### **17-BOB. O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XALQARO MUNOSABATLARI**

17.1. XVI – XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar .....	207
17.2. O'zbek xonliklari va Rossiya imperiyasi munosabatlari.....	210
17.3. XIX asrning 1-yarmida O'rta Osiyo uchun Buyuk Britaniya – Rossiya raqobatchiligi.....	212
17.4. O'zbek xonliklarining taraqqiyotda orqada qolish sabablari va oqibatlari....	215

#### **18-BOB. XIX ASR O'RTALARIDA O'ZBEK XONLIKLARINING SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI**

18.1. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi.....	218
18.2. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi ...	219
18.3. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....	221
18.4. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo aholisining madaniy hayoti.....	224

## **19-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYONI BOSIB OLISHI**

19.1. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi.....	227
19.2. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi.....	232
19.3. Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi .....	234
19.4. Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi ...	236
19.5. Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi ...	239
19.6. Qo'qon xonligining bosib olinishi .....	241

## **20-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI**

20.1. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi ...	246
20.2. Turkiston o'lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati .....	249
20.3. Turkistonda sud tizimining tashkil etilishi .....	251
20.4. Turkistonda harbiy-politsiya tartibotining o'rnatilishi .....	254
20.5. XIX asming 2-yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol .....	256

## **21-BOB. XIX ASR OXIRIDA TURKISTONDAGI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI**

21.1. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari ..	258
21.2. Toshkentda «Vabo isyoni» .....	260
21.3. Andijon qo'zg'oloni.....	262
21.4. Milliy-ozodlik harakatlarining ahamiyati .....	266

## **22-BOB. XIX ASR 2-YARMI – XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR**

22.1. XIX asr 2-yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy hayoti.....	269
22.2. Soliq va majburiyatlar. Xalq qo'zg'olonlari .....	271
22.3. Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida.....	273
22.4. XIX asming 2-yarmi – XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati ....	275

## **23-BOB. JADIDLAR HARAKATI VA UNING TURKISTON IJTIMOY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI**

23.1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.....	278
23.2. Jadidlar: dasturiy maqsad va vazifalar .....	281
23.3. Jadidchilik harakati namoyandalari va ularning faoliyati.....	282
23.4. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga ta'siri .....	284

## **24-BOB. TURKISTON VA BIRINCHI JAHON URUSHI**

24.1. Birinchi jahon urushining boshlanishi va uning Turkistonga ta'siri.....	288
24.2. Turkistonda 1916-yilgi qo'zg'olonning boshlanishi .....	289
24.3. Jizzax qo'zg'oloni.....	291
24.4. Turkistonda 1916-yilgi voqealarning oqibatlari va ahamiyati .....	293

## **25-BOB. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI**

25.1. Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti .....	295
25.2. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi.....	298
25.3. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli .....	301
25.4. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi.....	304
25.5. Xiva xonligining tugatilishi.....	307

## **26-BOB. MUSTAMLAKA SHAROITIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT**

26.1. Ta'lim tizimi. Matbuot .....	310
26.2. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti.....	313
26.3. Teatr va musiqa san'ati.....	316
26.4. Me'morchilik va tasviriy san'at.....	319

## **27-BOB. XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDAGI SIYOSIY VAZIYAT. SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI**

27.1. Turkistonda 1917-yilgi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar .....	322
27.2. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Xalq hokimiyatchiligi uchun kurash. Turkiston Muxtoriyati .....	326
27.3. Turkistonda sovetlar boshqaruv tizimining mustahkamlanishi.....	333
27.4. Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi harakat.....	341
27.5. Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi. Xonlik va amirlikning qulashi .....	347

## **28-BOB. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSIY, IQTISODIY, MA'NAVIY SIYOSATI VA AMALIYOTI**

28.1. Milliy siyosat va davlat qurilishi masalalari .....	358
28.2. Iqtisodiy siyosat, uning mustamlakachilik mohiyati.....	364
28.3. Respublika qishloq xo'jaligini jamoalashtirish va uning oqibatlari .....	372
28.4. O'zbekistonda sovetlar yuritgan madaniy-ma'rifiy siyosat: mazmun va mohiyati .....	377
28.5. Qatag'onlik siyosati: uning mohiyati va oqibatlari .....	385

**29-BOB. O'ZBEKISTON IKKINCHI JAHON  
URUSHI YILLARIDA (1939 – 1945)**

29.1. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. Ma'naviy va moddiy kuchlarning frontga safarbar etilishi .....	391
29.2. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida.....	397
29.3. Urush yillarida fan, maorif va madaniyat .....	405
29.4. O'zbekistonning qardosh xalqlarga baynalmilal yordami.....	412
29.5. O'zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari ....	413

**30-BOB. 1946 – 1990-YILLARDA O'ZBEKISTONNING  
IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI**

30.1. Xalq xo'jaligining tiklanishi. Ma'muriyatchilikning kuchayishi, ziyolilarni qatag'on qilishning yangi bosqichi .....	423
30.2. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Inqirozli holatning vujudga kelishi .....	430
30.3. Madaniy va ma'naviy hayot .....	448
30.4. «Qayta qurish» siyosati va uning barbod bo'lishi. O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi .....	457

**31-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING  
TASHKIL TOPISHI**

31.1. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi .....	466
31.2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat ramzlarining qabul qilinishi.....	474
31.3. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholisi va moddiy imkoniyatlari .....	483
31.4. Islom Karimov – O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti ....	488
31.5. O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li .....	492

**32-BOB. SIYOSIY ISLOHOTLAR. MILLIY DAVLAT HOKIMIYAT  
ORGANLARINING BARPO ETILISHI**

32.1. O'zbekiston Respublikasi parlamenti – Oliy Majlisning tashkil etilishi .....	495
32.2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun ijodkorligi .....	499
32.3. Milliy davlat boshqaruv hokimiyati tizimining shakllantirilishi .....	507

**33-BOB. FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING SHAKLLANTIRILISHI**

33.1. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning tashkil etilishi .....	513
33.2. Inson huquqlari, erkinliklari kafolatlari va demokratik saylov tizimining yaratilishi.....	519

33.3. Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi .....

**34-BOB. IQTISODIY ISLOHOTLAR. BOZOR MUNOSABATLARINI SHAKLLANISHI VA IQTISODIY TARAQQIYOT**

34.1. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li, huquqiy asoslari va bozor infratuzilmasining yaratilishi.....

34.2. Ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar tabaqasining shakllanishi .....

34.3. Respublika iqtisodiyotining barqarorlashuvi va taraqqiyoti.....

**35-BOB. MAMLAKATDA IJTIMOY-SIYOSIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHI**

35.1. Aholini ijtimoiy himoyalash va millatlararo totuvlikning mustahkamlanish

35.2. Vatan xavfsizligining mustahkamlanishi .....

**36-BOB. O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIY**

36.1. Ma'naviy meros, milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi va rivojlanishi. Milliy istiqlol g'oyasi .....

36.2. Ta'lim va madaniyat ravnaqi.....

**37-BOB. O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA INTEGRATSIYALASHUVI**

37.1. Xalqaro ahvol. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo'shilishi .....

37.2. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari .....

37.3. Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi aloqalar.....

37.4. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalari.

Ilovalar .....

Qisqacha izohli lug'at.....

*Ilmiy-ommabop nashr*

# O'ZBEKISTON TARIXIDAN UNIVERSAL QO'LLANMA

**To'plab nashrga tayyorlovchilar:**

Dilshodbek O'ROQOV, Abdulla SHAROPOV

**Muharrir:** Shahnoza TO'RAXO'JAYEVA

**Musahhih:** Marhabo JO'RAYEVA

**Badiiy muharrir:** Feruza NAZAROVA

**Texnik muharrirlar:** Alimardon AQILOV,  
Xurshid IBROHIMOV

Nashriyot litsenziyasi: AJ №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 04.04.2013-y.

Bosishga ruxsat etildi: 14.06.2013-y.

Gazeta qog'ozi. Qog'oz bichimi: 60x84  $\frac{1}{16}$ .

Arial garniturasida. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t. 39,93. Shartli b.t.: 38,13.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma № 143.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.  
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>^-</sup>mavze 42-uy.

**Tel.:** (+998 71) 217-16-77

**e-mail:** akademnashr@mail.ru

**web-site:** www.akademnashr.uz

«KO'HI NUR» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.



ISBN 978-9943-389-27-4



9 789943 389274